@tarixchi_kutubxonasiga

O‘ZBEKISTON TARIXI

IV

@tarixchi_kutubxonasiga

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZFA TARIX INSTITUTI, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI,
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI

O‘ZBEKISTON TARIXI

Xrestomatiya

IV jild
XI – XV asrlar

(O‘zbekiston tarixi va manbalari)

TOSHKENT
«O‘ZBEKISTON»
2023

@tarixchi_kutubxonasiga

UO'K 94(575.1)«XI/XV»
KBK 63.3(5O')«XI/XV»
O' 17

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti ilmiy kengashining 2023-yil 26-iyundagi № 4-sonli majlisi bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan

Tahrir hay'ati:

Ahmadali Asqarov – hay'at raisi, tarix fanlari doktori, akademik,
Azamat Ziyo, Bahrom Abduhalimov, Anatoliy Sagdullayev, Akbar Hakimov, Gulchehra A'zamova, Ashraf Ahmedov, G'aybulla Boboyorov, Dono Ziyoyeva, Muhayyo Isoqova, Farhod Maqsudov, Shokir Pidayev, Qahramon Rajabov, Rustam Sulaymonov, Sherzod Abdullayev, Dilorom Yusupova, Halim To'rayev

Mas'ul muharrirlar:

tarix fanlari doktori, prof. **A. Ahmedov**,
tarix fanlari doktori **O. Bo'riyev**.

Taqrizchilar:

siyosiy fanlar doktori, prof. **Z. Munavvarov**,
filologiya fanlari doktori, prof. **A. Quronbekov**.

O'quvchilarga taqdim etilayotgan «O'zbekiston tarixi» xrestomatiyasining IV jildi O'zbekistonning XI–XV asrlar tarixiga oid yozma manbalarni o'z ichiga oladi.

Ushbu jildda Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini o'rganishga yordam beruvchi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Abu Hafs Umar Nasafiyning «Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand», Abu Sa'd as-Sam'oniyning «Kitob al-ansob», Yoqut Hamaviyning «Mu'jam al-buldon», Abu Said Gardiziyning «Zayn ul-axbor», Najib Bakronning «Jahonnoma», Alouddin Juvayniyning «Tarixi Jahongusho», Rashididdin Fazlullohning «Jome' at-tavorix» kabi asarlaridan materiallar berilgan. Mintaqada Chig'atoy ulusi boshqaruvi yillari, Amir Temur va temuriylar davri uchun esa Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Hofizi Abruning «Zayli Zafarnomai Shomiy», «Zubdat at-tavorix», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla'i sa'dayn va majma'i bahrayn», Ali Safiyning «Rashahot» hamda «Temur tuzuklari» asarlaridan foydalanildi. Shuningdek, bu davr tarixini yoritishda xitoy, arman va yevropa tillaridagi tarixiy asarlar, sayyohlar va elchilarning kundaliklaridan o'rin olgan qimmatli ma'lumotlar hamda uyg'ur va turkiy tillardagi tarixiy bitiklarga tayanildi.

Kitob tarixchi olimlar, professor-o'qituvchilar, talabalar hamda mamlakatimiz tarixiga qiziqqan keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-8054-2-2

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2023

@tarixchi_kutubxonasiga

O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

SO'ZBOSHI

Kitobxonlarga havola etilayotgan «O'zbekiston tarixi» xrestomatiyasining IV jildi davr jihatdan XI–XV asrlarni qamrab oladi va oldingi jildning uzviy davomi hisoblanadi. Unda arab, fors, xitoy, turkiy, arman va yevropa tillarida yozilgan manbalardan terma tarjimalar berilgan. Mazkur jildni nashrga tayyorlash jarayonida jildlarni hajm jihatdan nisbatan tenglashtirish maqsadida arab va fors tilida yozilgan manbalarning bir qismi bu jildga o'tkazildi. Shu sababdan III jilddagi materiallar XI asr voqealari bilan tugab, IV jild ham shu asr bilan boshlanadi. Shuningdek, turkiy bitiklar va arman manbalaridagi ma'lumotlarning bir qismi (ulardagi tarixiy voqealar davrini hisobga olib) III jilddan IV jildga o'tkazildi. Bu kitobga kirgan ba'zi manbalarda oldingi asrlar tarixiy voqealari aks etgan joylari ham borligini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

IV jildga arab tilidagi manbalardan Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobidan olingan lavhalarda turkiy qabilalar bayoni, turkiy tilning xususiyatlari, ba'zi turkiy so'zlarning izohlari keltirilgan.

Abu Hafs Umar Nasafiyning «Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand» asaridan olingan parchada ayrim tarixiy shaxslar, jumladan, arab lashkarboshisi Al-Ahnaf al-Qays, xalifa Usmonning o'g'li Said ibn Usmon, Qusam ibn Abbos, Rufay ibn Mihron al-Basriy, Abu Talha ibn Abdulloh, Qutayba ibn Muslim, Ziyod ibn Solih hamda VIII asr o'rtalaridan XII asr boshlarigacha bo'lgan davrda Samarqand shahrida yashab ijod etgan yoki boshqa mamlakatlardan bu yerga ilm izlab kelgan muhaddis olimlar va hadis roviylarining tarjimayi hollari keltirilgan.

Abu Sa'd as-Sam'oniyning «Kitob al-ansob» asaridan olingan parchada Markaziy Osiyo shaharlari va qishloqlarining tarixiy-geografik holati, tarixiy topografiyasi, ulardagi obodonchilik, sodir bo'lgan ayrim tarixiy voqealar, davlat arboblari va boshqa tarixiy shaxslar haqida ma'lumotlar o'rin olgan.

Yoqut Hamaviyning «Mu'jam al-buldon» asaridan olingan lavhada Movarounnahr tavsifi va undagi shaharlarning geografik o'rni, u yoki bu jihat-

@tarixchi_kutubxonasiga

dan mashhurligi, pul birliklari, tabiati, taniqli shaxslari kabilar haqida so'z boradi va h.k.

Fors tilidagi manbalardan Abu Said Gardiziyning «Zayn ul-axbor» asaridan keltirilgan parchada arab xalifaligi davrida Xuroson amirlarining Movarounnahrdagi hukmronlik davrlari, Somoniylar sulolasining podshohligi va nasl-nasabi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Najib Bakronning «Jahonnoma» asaridan yettinchi, o'ninchi va o'n ikkinchi boblaridan parchalar berilgan bo'lib, unda Movarounnahrdagi ko'llar, daryolar, tog'lar, cho'llar ta'rifi hamda ba'zi shahar nomlarining kelib chiqishi xususida fikr yuritiladi.

Mo'g'ullarning Movarounnahrga yurishi va bu yerdagi hukmdorligi, jumladan, Chig'atoy ulusi haqida Alouddin Juvayniyning «Tarixi Jahongushoy» va Rashididdin Fazlullohning «Jome' at-tavorix» asarlaridan, tarjima qilingan lavhalardan o'qish mumkin. Juvayniyning «Tarixi Jahongushoy» asaridan olingan parchada Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi, mo'g'ullar tomonidan Xorazm, Fanokat va Xo'jandning zabt etilishi, Temur Malik jasorati haqida ma'lumotlar berilgan.

Rashididdin Fazlullohning «Jome' at-tavorix» asaridan olingan parchada Chig'atoy ulusi xoni Baroqxonning Xurosonga kelib, Abaqaxon bilan urushgani, Baroqxonning Oqbek ismli mulozimining Abaqaxon xizmatiga kelib, so'ngra uning buyrug'iga ko'ra Buxoro tomon yurish qilgani voqealari bayon qilingan.

Ushbu jildga kiritilgan materiallarning ko'p qismini Amir Temur saltanati tarixi hamda XV asr davomida kechgan tarixiy voqealar bayoni aks etgan manbalardan olingan lavhalar tashkil qiladi. Masalan, Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»sidan olingan parcha asarning muqaddima qismi bo'lib, unda kitobning yozilish sabablari bayon qilingan.

Hofizi Abruning «Zayli Zafarnomai Shomiy» asaridan keltirilgan parchada Amir Temurning Ozarbayjon, Iroqi Ajam mamlakatlarini nevarasi Amirzoda Umarga suyurg'ol qilingani va u haqda mavlono Shamsiddin Munshiy qalami bilan yozilgan Amir Temur farmoni, Amir Temurning yetti yillik yurishidan Samarqandga qaytib kelgani, Samarqandda bo'lgan to'yhashamlar, Xitoyga yurish va Amir Temurning vafoti voqealari tavsiflangan. Hofizi Abruning «Zubdat at-tavorix» asaridan olingan parchada esa, Amir Temurning nasl-nasabi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Hofizi Abruning «Geografiya» asaridan olingan parcha qo'lyozmaning Movarounnahr tavsifi haqidagi qismi bo'lib, unda Movarounnahr va undagi shahar va qishloqlarning geografik holati, tarixiy toponimiyasi, hukmdorlari, shaharlar to'g'risida ayrim manbalarda keltirilgan ma'lumotlar xususida so'z yuritilgan.

@tarixchi kutubxonasiga

Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asaridan olingan parcha Amir Temurning tug'ilishidan boshlab uning vafotigacha bo'lgan davrdagi ancha keng ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi. Mazkur asar Amir Temur tarixi bo'yicha mufassal manbalardan biri bo'lganligi uchun xrestomatiyaning ushbu jildida bu kitobdan keltirilgan parchalar ko'proq berildi.

«Temur tuzuklari»dan keltirilgan parcha asarning ikkinchi qismi (maqola)dan olingan bo'lib, unda Amir Temurning davlatni boshqarish tuzuklari, jumladan, vazir tutish, saltanatni idora etish, soliq olish, mamlakatni obodonlashtirish, xavfsizlikni ta'minlash kabilar haqida aytilgan.

Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla'i sa'dayn va majma'i bahrayn» asaridan olingan parchada Mirzo Ulug'bekning Movarounnahr va Turkiston taxtiga o'tirishi va davlatni boshqarishi, uning huzuriga Xitoy elchilari kelganligi, Marv shahrining obod qilinganligi, 813 (1410–1411)-yilda Hirotda madrasa qurilishi, Ulug'bekning 823 (1420)-yili Samarqandda madrasa qurdirgani, Boysung'ur Mirzo faoliyati va boshqalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ali Safiyning «Rashahot» asaridan olingan parchada Mirzo Boburning Temuriylar saltanatini qayta tiklash orzusida Xurosondan Samarqandga yurishi va uning muvaffaqiyatsiz xotima topgani, shuningdek, Sulton Abusaid hukmronligidan so'ng Hirotdan Mirzo Abulqosim Bobur Samarqandni egallash uchun kelgani va mag'lub holda qaytib ketgani, Xoja Ahror Valiyning Temuriy shahzoda Sulton Ahmad, Mo'g'uliston xoni Yunusxon va Temuriy shahzoda Mirzo Umarshayx o'rtalaridagi nizoning oldini olib, ularni yarashtirgani voqealari yozilgan.

Xitoy manbalaridan Yuan Shuning «Tungjyan jishi benmuo» (XII–XIII asrlar) asaridan olingan parchada Xan sulolasining g'arbiy mamlakatlar, jumladan, Farg'ona bilan bevosita aloqa o'rnatishi, Xan sulolasi xoqoni U-dining hukmronlik yillari haqida so'z yuritiladi va bu voqeliklar tafsiloti, tabiiyki, ancha ilgari yozilgan manbalar, jumladan, solnomalardan olingan. Temuriylar davri tarixi aks etgan XV asr xitoy manbalari materiallarida Chen Chenning «Siyuy fango chji» va «Siyuy sinchenszi» asarlaridan lavhalar hamda Xitoyga Temuriylar davlatidan kelgan elchilar tashrifi tafsilotlari o'rin olgan.

G'arbiy Yevropa tillaridagi manbalardan Rui Gonsales de Klavixoning «Samarqandga, Sohibqiron Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi»dan Movarounnahrga oid ma'lumotlardan berilgan. Ularda Movarounnahrning tabiati, xo'jaligi, shaharlari, Amir Temurning ko'rsatmasi bilan barpo etilgan bog'lar va o'tkazilgan to'y-hashamlar, mahalliy xalqning urf-odatlari haqida yozilgan.

Materiallar, ko'pincha, manbalarning mavjudligi hamda tadqiqotchilarning ulardan ma'lumot olib bera olish imkoniyati darajasidan kelib

@tarixchi_kutubxonasiga

chiqib to'plangan va shu sababdan mazkur masalada muayyan bir mezon belgilanmagan. Tarjimalarga zarur hollarda izohlar ham ilova qilingan va ularning batafsillik darajasi har bir lavhada o'ziga xos va tarjimonning bu masalaga yondashuviga bog'liq. Kitob oxirida adabiyotlar ro'yxati kirill va lotin yozuvida alifbo tartibida berilgan hamda kitobxonlar foydalanishi uchun qulaylik tug'dirish maqsadida ismlar, joy nomlari va etnik atamalar ko'rsatkichlari ilova qilingan.

Manbalardan berilgan tarjima-lavhalar kitobda tillarga (arab, fors, xitoy, rus) ajratilgan shaklda, xronologik tartibda joylashtirilgan.

To'rtinchi jildning elektron variantini tayyorlash, uni nazardan o't-kazishda zarur topilgan tuzatishlar kiritish, yangi qo'shilgan materiallarni tahrir qilish, adabiyotlar ro'yxati va ko'rsatkichlarni tuzish ishlari O'zR FA Sharqshunoslik instituti xodimlari O. Bo'riyev (grant rahbari), G'. Karimov, I. Qayumova, E. Mirkomilov va Temuriylar tarixi davlat muzeyi xodimi Farrux Avazov tomonidan belgilangan davlat granti doirasida amalga oshirildi.

Ashraf Ahmedov, Omonullo Bo'riyev

@tarixchi_kutubxonasiga

ARAB TILIDAGI MANBALAR

MAHMUD KOSHG'ARIY VA UNING «DEVONU LUG'OTIT TURK» ASARI HAQIDA

O'ninchi asrda Sharqiy Turkistondan Yettisuvgacha bo'lgan oraliqda Qoraxoniylar davlati (927–1212) tashkil topdi. Uning barpo etilishida bir qancha turkiy qabilalar qatnashib, ulardan asosiylari qorliq, chigil va yag'mo qabilalari bo'lgan. Bu qabilalar X asrning o'rtalarida islom dinini qabul qilgan edi.

Qoraxoniylar 999-yili Somoniylar davlatini tugatib, Movarounnahrni egalladi. Sharqiy Turkiston va Movarounnahrni o'z ichiga olgan yagona siyosiy ma'muriy birlik doirasida iqtisodiyot, fan va madaniyat sohalarida mushtarak taraqqiyot yuz berdi; masjid va madrasalar barpo etildi, fanning turli sohalarida kitoblar yozildi.

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» («Turkiy so'zlar lug'ati») nomli mashhur asari ham o'sha kezlarda yozilgan muhim manbadir.

Mahmud Koshg'ariy ibn Husayn ibn Muhammad (XI asr) Qoraxoniylar davlatida tug'ilib o'sgan, otasi Barsg'on shahrining hokimi bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy Markaziy Osiyoning yirik shaharlaridagi ilmiy dargohlarda bilim olgan va tilshunos olim, ayniqsa, turkiy tillar bilimdoni sifatida tan olingan. U 1056–1057-yillarda mamlakatdagi ichki nizolar tufayli vatanini tark etib, ancha muddat Bag'dod shahrida yashagan. So'ngra vataniga qaytib, madrasada dars bergan, XII asr boshlarida vafot etgan.

«Devonu lug'otit turk» arab tilida yozilgan, asosan turkiy so'zlar izohli lug'atidan iborat bo'lib, unda geografik, tarixiy va boshqa ma'lumotlar hamda Koshg'ariy o'zi tuzgan dunyo xaritasi o'rin olgan. Asarning 1072 (ba'zi manbalarda – 1974)-yili yozib tugatilgan asl nusxasidan 1266-yili ko'chirilgan yagona qo'lyozmasi 1914-yili Turkiyaning Diyorbakr shahridan topildi va hozirda Istanbulda saqlanadi.

Hozirgi vaqtda Koshg'ariyning «Devon»i keng o'rganilgan, boshqa tillarga tarjima qilingan: «Devonu lug'otit turk» 1960–1963-yillarda o'zbek tiliga o'girilib, chop qilingan[1].

Quyida ushbu nashrdan ayrim lavhalar berildi, qavs ichida mazkur nashr betlari qayd etilgan.

O. Bo'riyev

[1] *Mahmud Koshg'ariy.* Devon.

@tarixchi_kutubxonasiga

MAHMUD KOSHG'ARIYNING «DEVONU LUG'OTIT TURK» ASARIDAN LAVHALAR
(1-jild)

Turk tabaqalari va qabilalarining bayoni haqida

(64) Turklar aslida yigirma qabiladir. Ular hammasi Nuh payg'ambar o'g'li Yofas, Yofas o'g'li Turkka borib taqaladilar.

Bular Rum avlodining Ibrohim payg'ambar o'g'li Is'hoq, Is'hoq o'g'li Isu Rumga borib taqalishiga o'xshaydi. Har bir qabilaning sanoqsiz allaqancha urug'lari bor. Men bulardan asosini, ona urug'larini yozdim, shoxobchalarini tashladim. Faqat o'g'uz turkmanlarining mayda urug'larini ham, ularning mollariga qo'yiladigan belgilarini ham yozdim, chunki odamlarda bularni bilishga ehtiyoj bor edi. Sharqdan boshlab har bir qabilaning turar joylarini birin-ketin tartib bilan ko'rsatdim. Rumdan kunchiqargacha bo'lgan musulmon va boshqalarni zikr qildim. Rumga yaqin birinchi qabila bejenek, so'ng qifchaq, o'g'uz, jamak, bashg'irt, basmil, so'ng qay, so'ng jabaqu, so'ng tatar, so'ng qirqiz keladi. Qirqizlar Chin yaqinidadirlar. Bu qabilalar hammasi Rum yonidan kunchiqargacha cho'zilgandir. So'ng chigil, so'ng tuxsi, so'ng jag'ma, so'ng ig'raq, so'ng jaruq, so'ng jumul, so'ng uyg'ur, so'ng tangut, so'ng xita (Xitoy – Chindir), so'ngra tavg'ach (bu Mochindir).

Turk tilining xususiyatlari haqida

(65) Eng to'g'ri va aniq til faqat birgina shu tilni biladigan, forslar bilan aralashmaydigan va shaharlarga borish-kelish qiladigan odami bo'lmagan kishilarning tilidir. (Ular) sug'daq, kanjak, arg'ular kabi ikki tilda so'zlashuvchilardir; xo'tanlilar, tubutlar va tangutlarning ba'zilari kabi ikki tilda so'zlaydiganlar va boshqa shaharlarga borib yurganlar tilida buzuqlik bordir. Bular bu yerlarga so'ng kelgandirlar. Men ularning har birlarining tillarini o'z o'rnida so'zlayman. Lekin jabarqaliklarning uzoqda turishlari, Mochin bilan ularni katta dengiz ayirib turgani uchun ularning tillari bilinmaydi.

Mochinliklar va chinliklarning alohida tillari bor bo'lsa ham shaharliklar turkchani yaxshi biladilar, bizlar bilan yozishmalari turkchadir. Ya'jujma'jujlar uzoqda turgani, orada tog' va Chin yaqinidagi dengiz to'sqinlik qilishi natijasida ularning tillari ham ma'lum emas. Tubutlarning tillari alohidadir. Shuningdek, xo'tanliklarning ham ayrim yozuvlari va ayrim tillari bor. Tubutliklar ham, xo'tanliklar ham turkchani yaxshi bilmaydilar.

Uyg'urlarning tillari turkchadir, lekin o'zlari bir-birlari bilan so'zlashadigan boshqa bir tillari ham bor. Yozuvda kitobning bosh qismida

@tarixchi_kutubxonasiga

ko'rsatilgan 24 harfli turkcha yozuvni qo'llovchilar, xatlarini shu yozuv bilan yozadilar. Uyg'urlarning ham, chinliklarning ham yana boshqa bir yozuvlari bor. Kitoblarini, idora ishlarini u xat bilan yuritadilar. Chinliklar va musulmon bo'lmaganlardan boshqalar u xatni o'qiy olmaydilar. Men bungacha so'zlaganlarim shahar xalqlaridir. Sahroyilardan bo'lgan (66) *jumullarning* tillari alohidadir. (Ular) turkchani ham biladilar. Shuningdek, *qaj*, jabaqu, tatar, *basmil* qabilalarining har birining tili o'ziga xosdir. Shu bilan birga, ular turkchani ham yaxshi biladilar. So'ngra *qirqiz, qipchaq*, og'uz, *tuxsi, jag'ma, chigil, ig'raq, jaruq* tillari faqat turkchadir. *Jamak* va *bashg'irt* tillari bularga yaqindir. Rumgacha cho'zilgan bulg'ar, suvar, *bejeneklar* tili bir xildagi so'zlarning oxiri qisqartirilgan bir turkchadir.

Tillarning yengili o'g'uzcha, eng to'g'risi, yaxshisi – *jag'ma, tuxsi* kabilarning tili va shuningdek, *Ila* (Ili), *Ertish* (Irtish), *Jamar, Etil* vodiylaridan uyg'ur shaharlarigacha bo'lgan joylarda yashovchilar tilidir. Bularning ichida eng ochiq va ravon til – xoqoniya (xoqonliklar) o'lkasida yashovchilarning tilidir. Balasog'unliklar sug'dcha va turkcha so'zlaydilar.

Tiraz (Toros) va *Madinatulbajza* shaharlarining xalqlari sug'dcha ham turkcha so'zlaydilar. *Ispijabdan* (Ispijob – *hoz. Sayram*) to Balasog'ungacha bo'lgan arg'u shaharlarining hammasida yashovchilarning tilida ham kamchilik bor. Qashqarda kenjakcha so'zlashadigan qishloqlar bor. Shahar o'rtasida turuvchilar xoqoniy turkchasida so'zlaydilar. Rumdan Mochingacha bo'lgan turk shaharlarining hammasining bo'yi besh mingdan sakkiz ming farsaxgacha yetadi. Bu shaharlar o'rnini aniqlash maqsadida ularning hammasini yer shaklidagi doirada ko'rsatdim.

(89) *Og'uz* – turklarning bir qabilasi. O'g'uzlar turkmanlardir. Ular yigirma ikki urug'dir; ularning har birining maxsus belgilari, mollariga xos tamg'alari bordirkim, urug'larni shu tamg'alariga qarab ayiradilar.

(91) *Oko'z* – Jayhun, Firot kabi daryolarga berilgan nom. O'g'uzlar bu so'zni o'zlarining shaharlari joylashgan Banokat vodiysi ma'nosida qo'llaydilar. Ularning ko'chmanchilari ham shu daryoning ikki qirg'og'iga joylashganlar. Turk mamlakatlaridagi bir qancha boshqa daryolar ham shu nom bilan yuritiladi.

Ila (Ila) va *Jafinj* (Yofinj) sahrolari orasidagi shahar Iki oko'z deb ataladi. Oko'z – ho'kiz. Bu so'z shu maqolda ham kelgan: «*Oko'z azaqi bolg'incha, buzag'u bashi bolsalik*» – «Ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq». Bu maqol «Mustaqillik – bo'ysunishdan yaxshi» degan ma'noda qo'llanadi.

(94) *Ulush* – qishloq (chigilcha); Balasog'un va ularning yuqori yonidagi arg'ulilarcha «shahar» demakdir. Shuning uchun Balasog'un shahrini «Quz ulush» ham deydilar.

@tarixiy_kutubxonasiga

(104) *Amul* – har bir tinch va barqaror, turg'un, qimirlamaydigan narsaga amul deyiladi. Shunga ko'ra yumshoq fe'lli yuvosh kishilar ham amul deyiladi.

(329) *Kend* – shahar. Bundan olinib, Koshg'arni Ordukend – «Xon turadigan shahar, markaz» ma'nosida qo'llanadi. Chunki bu shaharning havosi yaxshi bo'lgani uchun Afrosiyob shu yerda turar edi. U Quyi Chindir. She'rda shunday kelgan.

(330) *Kend* – o'g'uzlar va ular bilan yaqin turuvchilar tilida qishloq. Ko'pchilik turklar nazdida viloyatdir. Shuning uchun Farg'onani «Ozkend – o'z shahrimiz» deydilar. Samarqandni kattaligi uchun *Semiz* kand – semiz shahar deydilar. Buni forslar Samarqand tarzida qo'llaydilar.

Bars – bars, qoplon.

Bars – turkcha o'n ikki muchal yillaridan birining nomi. Turklar o'n ikki xil hayvon nomini o'n ikki yilga qo'yganlar. Tug'ilish, jang tarixlari va boshqalarni ana shu yillar aylanishidan hisoblaydilar. Buning kelib chiqishi shunday: turk xoqonlaridan biri o'zidan bir necha yil oldin bo'lib o'tgan urushni o'rganmoqchi bo'lgan, shunda u urush bo'lib o'tgan yilni aniqlashda yanglishgan. Bu masala yuzasidan (xoqon) qavmi bilan kengashdi va aytdi: «Biz bu tarixni (aniqlashda) qanchalik yanglishgan bo'lsak, bizdan keyin ham shunday yanglishadilar. Shunday bo'lgach, biz endi o'n ikki oy va osmondagi o'n ikki burjga asoslanib, o'n ikki yilga ot qo'yishimiz kerak, toki bizdan keyin yil hisobi shu yillarning aylanishiga qarab olinsin va bu narsa abadiy bir yodgorlik bo'lib qolsin». Ular «aytganingizdek bo'lsin», deyishdi.

Xoqon ovga chiqdi va odamlarga vahshiy hayvonlarni Ila daryosi tomon quvishni buyurdi, bu (331) juda katta suv. Odamlar ov qilib, hayvonlarni suv tomon hayday boshladilar, shunda o'n ikki hayvon suvdan o'tdi. O'n ikki yilni ana shu o'n ikki hayvon nomi bilan atadilar. Eng oldin suvdan o'tgan hayvon *sichg'an* – sichqon bo'ldi. Shuning uchun yil boshi uning nomi bilan ataldi, shu so'zga yil qo'shib *sichg'an jili* – sichqon yili deb atadilar. Undan keyin o'tganlari quyidagi tartibda bo'ldi va ularning har biri bir yil uchun nom bo'lib qoldi.

Ut jili – sigir yili.
Bars jili – bars yili.
Tavishg'an jili – quyon yili.
Nek jili – timsoh yili.
Jilan jili – ilon yili.
Jund jili – ot yili.
Qoj jili – qo'y yili.
Bijin jili – maymun yili.
Taqag'u jili – tovuq yili.

@tarixchi_kutubxonasiga

It jili – it yili.
Tonguz jili – to'ng'iz yili.

To'ng'izga yetgandan keyin hisob yana sichqondan boshlanadi. Bu kitobni yozgan yilimiz to'rt yuz oltmish oltinchi (466) yilning muharram oyida ilon yili kirgan edi. Bu yil o'tib, to'rt yuz oltmish yettinchi yil kelsa, *jund jili* – ot yili kiradi. Yil hisobi mana shu men ko'rsatgan tartibda olib boriladi. Turklar bu yillarning har qaysisida biror hikmat bor, deb taxminlaydilar: masalan, ular fikriga ko'ra sigir yili bo'lsa, urush ko'p bo'ladi, chunki sigir bir-biri bilan suzishadigan hayvon. Tovuq yili (332) kirsa, oziq-ovqat ko'payadi, lekin odamlarda tashvish ortadi. Chunki tovuqning ovqati don bo'lib, uni topib yeyish uchun narsalarni titib yuradi. Timsoh yili kirsa, yog'ingarchilik va hosil ko'p bo'ladi, chunki u suvda yashaydi. To'ng'iz yili kirsa, sovuq, qor va fitna ko'p bo'ladi. Shunga o'xshash, har yilga biror taxmin yuritadilar.

Turklarda haftadagi yetti kunning nomi yo'q, chunki hafta islomdan so'ng shuhratlandi. Shunga o'xshash oy nomlari ham shaharlarda arabcha yuritiladi. Ko'chmanchi va musulmon bo'lmagan turklar oylarni to'rt fasl bilan ataydilar. Har uch oyni bir nom bilan yuritadilar. Yil o'tishini shunday biladilar. Masalan: navro'z (yangi kun)dan keyingi avval bahorga *og'laq aj*, so'ngra *ulug' og'laq aj* derlar. Chunki oy bu vaqtda katta bo'lib qoladi. Bundan keyingisiga *ulug' aj* deyiladi. Chunki bu oy yozning o'rtasida bo'lib, bu vaqtda sut va yer ne'matlari mo'l-ko'l bo'ladi. Bu nomlar kam qo'llangani uchun hammasini aytishni munosib ko'rmadik.

(333) *Turk* – Tangri yarlaqagur Nuh o'g'lining ismi. Bu ism Nuhning o'g'li Turk avlodlariga Tangri bergan (334) nomdir. Chunonchi, Tangrining oyatidagi «inson» so'zi «odam» ma'nosida kelgan. Bu yerda so'z birlikda, ya'ni faqat bir kishi ma'nosidadir. Quyidagi oyatida inson so'zi «jam» ma'nosidadir. Chunki bu yerda istisno (bir narsani ko'p narsadan ayirib olish) bor. Faqat ko'plikdangina ayirib olish mumkin. Bu yerda «inson» so'zi «bashar» so'zi kabi ko'plik ma'nosidadir. «Rum» so'zi Tangri yarlaqagur Is'hoq o'g'li Isu, Isu o'g'li Rum atalishida ham shu hol bor. Shunga o'xshash «turk» so'zi ham birlik va ko'plikda qo'llangan...

Ulug' Tangri aytadi: «Mening bir toifa askarim bor, ularni turk deb atadim, ularni kunchiqarga o'rinlashtirdim. Biror xalqdan g'azablansam turklarni unga qarshi yo'llayman».

Bu narsa ular (turklar) boshqalarga nisbatan fazilatli ekanini ko'rsatadi. Hatto Tangri ularga o'zi ot qo'ygan, ism bergan, ularni eng baland yerlarga, xushhavo joylarga o'rnatgan va o'zining botirlaridan sanagan. Turklarda «ko'rkamlik, (335) yoqimlilik, odoblilik, so'zining ustidan chiqishlik, dadillik, kamtarlik» kabi maqtashga sazovor xulqlar son-u sanoqsizdir.

@tarixchi_xushbonasiga

(414) *Tarkan* – Shosh (Toshkent)ning nomi. Uning asli Tashkand bo'lib, «Toshdan qurilgan shahar», demakdir. Abu Bakr Qaffol Shoshiy shu shahardandir.

(422) *Tawg'ach* – Mochin mamlakatining nomi. Bu mamlakat Chindan to'rt oylik yo'l uzoqdadir. Chin, aslida (423) uchtadir: 1) Yuqori Chin – bu Sharqda bo'lib, bunga *Tawg'ach* deyiladi. 2) O'rta Chin – buni *Xitaj* deyiladi. 3) Quyi Chin – buni *Barxan* deyiladi va u Qashqardadir. Lekin hozir Tawg'ach – Mochin, Xitoy – Chin deb yuritiladi. U «tat»dir. Ular *Chin*, ya'ni *Tawg'achda* yashaydilar. Har bir eski va katta narsaga *tawg'ach azi* deydilar. Bu arabcha iborasiga o'xshashdir. Shohlarning «Tawg'ach xan» («Katta yerlik eski xon» degan ma'noda) deyilishi ham shundandir.

Tat tawg'ach – forsi va turk demakdir. Birinchi so'z «tat» – forsi, ikkinchi so'z «tawg'ach» – turk o'rnida qo'llanadi.

Mening nazdimda, men aytgan izoh to'g'riroqdir. Islom o'lkalaridagi mashhur va munosib tushunish shudir. U yerlarda ham shunday. Har ikkisi ham yaxshi.

(437) *Sug'daq* – Balasog'unga joylashgan bir qavm, ular Samarqand va Buxoro o'rtasidagi Sug'ddan bo'lib, keyin turklashib ketgan odamlar.

(442) *Seljuk* – shu hozirgi sultonlar bobosining ismi. Ular *seljuk su bashi*, deb atalar edi.

(3-jild)

(41) *Jilqi* — to'rtoyoqli hayvonlarga berilgan turdosh nom.

Jarma: Jarma Jurg'a – bir xil qatlama. Uzunasiga yorilgan har narsaga ham bu so'z qo'llanadi.

Jag'ma – turkiy xalqlarning bir toifasi. Ularni *qara jag'ma* deb ham ataydilar.

Jag'ma – Taroz yaqinidagi bir qishloq. Bu so'zning asli avvalgi so'zdandir.

Jag'ma – paxtali to'n, forslar buni turkiy xalqlardan olib, *jalma* shaklida ham talaffuz qiladilar. Arablar forslardan olib, *jalmaq* shaklida qo'llaydilar.

(47) *Julduz* – hamma yulduzlar uchun aytiladigan umumiy nom. So'ng ular farq qilinib, Mushtariy (Yupiter) yulduzi – *eranto'z*, Mizon yulduzi – *qaraqush*, Surayyo yulduzi – *o'lkar*, Yetti qaroqchi – *jetikan*, Qutb yulduzi – *temo'rqazuq*, Mirrix yulduzi – *baqirsoqim* nomlari bilan ataladi.

(78–79) *Jarashdi* – ular ikkovi bir ishda bir-biri bilan kelishdi. *Jarashur, jarashmaq*.

Quyidagi baytda kelishgandan so'ng vafosizlik qilgan kishi haqida aytilgan:

Ortaq bolub bilishdi,
Menin tawar satishdi.
Bista bila jarashdi,
Kizlab tutar tajimi.

@tarixchi kutubxonasiga

(*Mazmuni:* «U men bilan tanishib o'rtoq bo'ldi. Tovarimni sotishga yordam berdi, so'ng Bista saroybon bilan so'z biriktirib, mendan toyimni yashirib qo'ydi»)

Bista – savdogarlarni uyi (saroyi)ga qo'ndiradigan odam nomi. U savdogar molini sotishga yordam beradi, uni mehmon qiladi, uning mollari (qo'ylari)ni to'playdi, ularni boqadi. Savdogar ketar vaqtida xizmat haqiga yigirma qo'y hisobiga bir qo'y oladi. *Tuxsi, jag'ma, chiril* qabilalarida ham shunday. Ularda buni o'z ko'zim bilan ko'rdim. *Jarashur, jarashmaq.*

(131) *but* – kattalarning o'g'il-qizlari peshanalariga taqiladigan har bir qimmatbaho feruza tosh. *Qiz but o'ridi* – qiz feruza taqdi.

But – katta bir odam tomonidan yuborilgan sovg'ani keltirgan kishiga beriladigan mukofot. Chunonchi, birovga sovg'a tariqasida yuborilgan otni keltiruvchi otboqarga pul yoki qo'y berish kabi. Shu tartibda berilgan qo'y *but* deb ataladi.

Tit – sanubar daraxti, tog'larda o'sadi.

(140–141) *tug'* – tug', bayroq. *Toquz tug'lug' xan* – to'qqiz tug'liq xon yoki xoqon. Qaramog'idagi shahar va o'lkalar oshib ketsa ham tug' to'qqizdan oshirilmaydi. Xonning yuqori martabasi to'qqiz bilan fol qilinadi. Bu xon tug'lari to'q sariq rangli shohi yoki ipakli matodan qilinadi. Bu ham yaxshi fol uchundir.

Tug' – to'g'on. *Suwqa tug' ur* – suvga to'g'on sol.

Tug' – har narsaning tiqini, qopqog'i. Shundan olinib, to'n, *lo'k tug'i* deyiladi. Uy devorlari va boshqa yerlardagi tuynuk qopqog'i.

(163) *Qaz* – Afrosiyob qizining ismi. *Qazvin* shahrini shu qurgandir. Bu so'zning asli *qaz ojni* – «g'oz o'ynaladigan joy» demakdir. Chunki, u shu yerda turar va shu yerda o'ynar edi. Shuning uchun ba'zi turklar *Qazvinni* turk shaharlaridan hisoblaganlar. Shuningdek, Qum shahri ham chegara hisoblanadi. Chunki *qum* turkcha so'zdir. Afrosiyobning qizi bu yerda ov qilar va o'ynar edi. Ba'zilar turk shaharlari chegarasi Marv ash-Shohijondan boshlanishini so'zlaydilar. Chunki Qazning otasi Tona Alp Er – Afrosiyobdir. U Tahmurasdan uch yuz yil keyin Mervni bino qilgandir.

(164) Ba'zilar butun *Maveraunnahrni* turklar o'lkalaridan, deb hisoblaganlar. U Jankanddan boshlanadi. Uning bir oti *Dizrujindir*. U sariqligiga ko'ra «Mis shahri» demakdir. Bu Buxoroga yaqindir. Bu yerda Afrosiyobning qizi – Qazning eri *Sijavush* o'ldirilgandir. Majusiy – otashparastlar har yili bir kun bu yerga kelib, Sijavush bo'lgan joy atrofida yig'laydilar. Mollar so'yib, qurbonlik qiladilar. So'yilgan mol qonini uning mozori tepasiga to'kadilar. Ularning odatlari shunday.

Butun Maveraunnahr, Jankanddan Sharqqacha bo'lgan o'lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, Samarqand – *Semizkand*, Tash-

@tarixchi_kutubxonasiga

kand – Shash, Ozkand, Tunkand nomlarining hammasi turkchadir. Kand – turkcha «shahar» demakdir. Ular bu shaharlarni qurdilar va shunday nom qo'ydilar. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko'paygach, ular Ajam shaharlari kabi bo'lgan. Hozir turk o'lkalarining chegarasi *Abisgo'n* dengizi bilan o'ralgan. Rum o'lkasidan va Ozjanddan Chingacha cho'ziladi. Uzunligi besh ming farsax, eni uch ming farsax, hammasi sakkiz ming farsaxdir.

(172) *Xan* – turklarning eng katta boshliqlari. Afrosiyobning bolalari ham *xan* deb yuritiladi. Afrosiyob xoqondir. Bu nom bilan atalmish voqea haqida uzun hikoya bor.

Manqishlag' – o'g'uz o'lkalarida bir yerning nomi.

Mankand – Koshg'ar yaqinidagi bir shahar nomi. So'ng xarob qilingandir.

(181) *Tajaq* – tayoq, suyanchiq. *Kozago' tajaq berdi* – kelin otdan tusharda suyansin, deb kuyov joriya yoki qulga tayoq berdi. Bu boylarda odatdir. Bu joriya yoki qullar kelinning moli bo'ladi. Maqolda shunday kelgan: *«Tajaq bila tajmas, tanuq sozo'n bo'tmas* – Tayanchiq bilan odam toyg'oq yerda toymaydi, guvohning so'zi guvohlik bergandagina bilinadi».

(253) *Suma* – ivitilgan bug'doy nomi. U quritib tuyiladi. So'ng undan ugra osh va non qilinadi. Sharbat uchun qilingan, undirilgan arpa uchun ham bu so'z qo'llanadi.

ABU HAFS UMAR NASAFIY VA UNING «AL-QAND FI ZIKRI ULAMOI SAMARQAND» ASARI HAQIDA

XII asrda Samarqand shahrida yashab ijod etgan mashhur tarixchi, faqih va muhaddis olim **Najmiddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy al-Moturidiy** (1068–1142) Qoraxoniylar davrida ijtimoiy fanlar sohasida faoliyat ko'rsatgan O'rta Osiyolik eng yirik olimlardan. U asli nasaflik bo'lsa ham, umrining asosiy qismini to vafotigacha mamlakat poytaxti Samarqand shahrida o'tkazgan. U hadisshunoslik, fiqh, tarix, adabiyot, tafsir va boshqa fanlar sohasida yuzdan ortiq asarlar yozib qoldirgan, lekin ulardan faqat sanoqlilari bizgacha yetib kelgan.

An-Nasafiyning bizgacha saqlanib qolgan asarlari orasida uning «Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» («Samarqand ulamolari haqida qand kitob») nomli tarixiy-biografik asari ilmiy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lum bo'lishicha, arab tilida yozilgan bu asar Abu Sa'd Abdurahmon ibn Muhammad al-Idrisiy as-Samarqandiy (vaf. 1015) va Abulabbos Ja'far ibn Muhammad al-Mustag'firiy an-Nasafiyning (vaf. 1041) «Samarqand tarixi» nomli asarlarining davomi bo'lib, bizgacha yetib kelmagan mazkur asarlarning matnlarini ham o'z ichiga olgan.

@tarixiy_kutubxonasiga

An-Nasafiyning «Al-qand» asari bizgacha yagona to'liq bo'lmagan nusxada yetib kelgan bo'lib, Turkiyadagi Sulaymoniya (Istanbul) kutubxonasida saqlanmoqda (Turhan Valide 70: 1 R-198R). Mazkur qo'lyozmaning matni 1991-yilda Saudiya Arabistonining ar-Riyod shahrida Nazar Muhammad al-Foryobiy tomonidan[1], 1999-yilda esa Tehronda Yusuf al-Hodiy tomonidan nashr etilgan[2]. Parijdagi Milliy kutubxonaning qo'lyozmalar xazinasida «Al-qand»ning qisqartirilgan saylanma nusxasi («Muntaxab al-qand») ham mavjud bo'lib (Arabe 6284), uni an-Nasafiyning shogirdi Abulfazl Muhammad ibn Abduljalil as-Samarqandiy amalga oshirgan[3]. Asarning bu saylanma nusxasi keyingi asrlarda yana ham qisqartirilgan va uning bir qismi fors tiliga tarjima qilingan. U «Qandiya-i Xurd», ya'ni «Kichik Qandiya» deb atalgan bo'lib, uning ko'p sonli nusxalari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanmoqda.

An-Nasafiyning asari VIII asr o'rtalaridan XII asr boshlarigacha bo'lgan davr ichida Samarqand shahrida yashab ijod qilgan yoki bu yerga boshqa yerlardan ilmiy safar bilan kelgan muhaddis olimlar va hadis roviylarining tarjimayi hollari majmuasidan iborat. Asarda hammasi bo'lib 1200 ga yaqin muhaddisning tarjimayi hollari tartib bilan keltirilgan. Har bir tarjimayi holning boshida avval u yoki bu olim haqida qisqacha biografik ma'lumot – uning ustozlari va shogirdlari, keyin u rivoyat qilgan hadis roviylarining Muhammad payg'ambardan boshlab o'zigacha bo'lgan davr ichidagi silsilasi keltirilgan. Bunday silsilalardagi roviylarning soni muhaddisning yashagan davriga qarab, 3–4 tadan 10–12 tagacha bo'lishi mumkin. Har bir silsilaning oxirida Muhammad payg'ambarning hayotidan yoki uning a'yonlari hayotidan hadis keltirilgan.

U yoki bu muhaddis haqida so'z yuritganda, an-Nasafiy Samarqand, Buxoro, Nasaf va boshqa shaharlardagi mahallalar, ko'chalar, masjidlar, madrasalar, rabotlar va boshqa imoratlar, shuningdek, ayrim tarixiy shaxslar va voqealar haqida boshqa manbalarda uchramaydigan nodir ma'lumotlarni keltirgan. Bu esa o'sha davrdagi shaharlarning tarixiy topografiyasini va tarixiy jarayonlarni tadqiq qilish orqali yangi tafsilotlar va aniqliklar kiritish imkonini beradi.

Quyida biz an-Nasafiyning «Al-qand» asaridagi ayrim tarixiy shaxslarning tarjimayi hollarini qisqartirilgan holda keltirdik (Arab tilidan Sh.S. Kamoliddin tarjimasi).

Sh.S. Kamoliddin

[1] *An-Nasafiy*. Al-qand (1991).
[2] *An-Nasafiy*. Al-qand (1999).
[3] Muntaxab al-qand.

@tarixchi_kutubxonasiga

ABU HAFS UMAR NASAFIYNING «AL-QAND FI ZIKRI ULAMOI SAMARQAND» ASARIDAN LAVHALAR

(150, № 244)[1]. Ad-Dahhok ibn Qays – bu al-Ahnaf[2] ibn Qaysning ismidir, [Najmiddin][3] dedi: «Men u haqida va uning nasabi haqidagi ma'lumotni [kitobning] «Alif» bobida keltirdim[4].

(17 *b*)[5] Abu Bahr al-Ahnaf ibn Qays as-Sa'diy at-Tamimiy al-Basriy[6] – uning [asl] ismi Ad-Dahhok[7] ibn Qays ibn Muoviya ibn Xassin ibn Zayd Mano ibn Tamim. U Muhammad payg'ambarning hali hayotligida yashagan, [odamlarni] uning diniga [e'tiqod qilishga] da'vat qilgan, lekin uning [o'zi] bilan [shaxsan] uchrashish unga nasib etmagan. Banu-l-Lays [qabilasi] lik [bir] odam dedi: «[Bir kuni] Muhammad payg'ambar meni Banu Sa'd [qabilasi]ga ularni islom [dinini qabul qilish]ga da'vat qilish uchun yubordilar. Al-Ahnaf dedi: «Ey, odamlar! U yaxshilikka chaqiryapti va [o'zi ham] yaxshilik qilyapti». U odam qaytib kelib, Muhammad payg'ambarga Al-Ahnafning qilgan ishi haqida gapirib berdi. [Muhammad payg'ambar] dedi: «Yo, Rabbim! Al-Ahnafning [gunohlarini] kechirishingni [so'rayman]». Al-Ahnaf [esa]: «Undan men uchun [kechirim] so'rashni nima keragi bor ekan?» – degan.

U [sahobalar] Umar, Usmon, Ali, al-Abbos, Anas, Ibn Mas'ud va boshqalardan [hadis] rivoyat qilgan. Uning so'zlaridan al-Hasan Basriy, Molik ibn Dinor va boshqalar [hadis] rivoyat qilganlar.

---

[1] Ushbu raqamlar asarning Al-Foryobiy nashri (Ar-Riyod, 1991)dagi sahifa va tarjimayi holning tartib raqamini bildiradi.

[2] *Al-Ahnaf* – aslida laqab bo'lib, arab tilida «cho'loq» degan ma'noni bildiradi. Abu Sa'd Sam'oniy ma'lumotiga ko'ra, u cho'loq bo'lib tug'ilgan (Sam'oniy (Bayrut, 1881), 83-b.).

[3] Sulaymoniya qo'lyozmasining matni, aftidan, an-Nasafiyning o'quvchilaridan birining qo'li bilan yozilgan. Shuning uchun u asarda ustozining so'zlarini keltirganda, «Najmiddin dedi» yoki «u dedi» iboralarini ko'p ishlatgan.

[4] Sulaymoniya qo'lyozmasida asarning faqat bir qismining matni keltirilgan bo'lib, unda matn arabcha «xa» harfining bobidan boshlangan. Asarning boshidagi «alif», «ba», «ta», «sa» va «jim» harflarining boblari esa asarning Abulfazl Muhammad ibn Abdulaziz as-Samarqandiy tomonidan amalga oshirilgan «Muntaxab al-qand» qisqartmasining Parijda saqlanayotgan qo'lyozma nusxasida mavjud.

[5] Ushbu raqamlar asarning Parij qo'lyozmasi (Arabe 6284)dagi varaqni bildiradi.

[6] *Al-Ahnaf ibn Qays* – arab lashkarboshisi. U 31(651–652)-yilda Xuroson amiri Abdulloh ibn Omirning Forsga qilgan harbiy yurishida ishtirok etib, oldingi qismlariga qo'mondonlik qilgan; 37(657–658)-yilda Siffinda bo'lib o'tgan mashhur jangda ishtirok etgan; 66(685–686) yoki 67(686–687)-yili vafot etgan. *U haqida qarang:* История ат-Табари. С. 18–22, 35, 40, 44, 63; *Гонбов.* Ранние походы. – С. 80–84; *Колесников.* Завоевание Ирана. – С. 132–135.

[7] At-Tabariy va As-Sam'oniy asarlarida bu ism Sahr deb berilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Xaysam ibn Ado at-Toiy dedi: «Al-Ahnaf ibn Qays bir ko'zidan Samarqandda ayrilgan. U Mus'ab ibn az-Zubayr hukm [surgan] davrda vafot etgan.

Najmiddin dedi: «Biz kitobning boshida aytib o'tganimizdek, birinchi bo'lib Xuroson voliysi lavozimiga hijriy 30 (650–651)-yilda xalifa Usmon [hukm surgan] davrda Abdulloh ibn Omir ibn Kurayz[1] tayinlangan. Al-Ahnaf ibn Qays uning qo'shinlarining oldingi qismlariga [boshchilik] qilgan. U Abarshahrni fath etib, [keyin] Marv ahli bilan sulh tuzgan. U [shuningdek] Toliqon, Foryob, al-Juzjonon va To'horistonlarni ham fath qilgan. Ular 54 (673–674)-yilda Muoviya ibn Abu Sufyon[2] davrida Jayhun [daryosi]dan Movarounnahr [taraf]ga kechib o'tganlar».

Aytishlaricha, al-Hasan dedi: «[Bir kuni] Muoviya majlis chaqirganda, al-Ahnaf [hech bir] gap aytmadi. Shunda Muoviya dedi: «Ey Abu Bakr, senga nima bo'ldi, sen [hech narsa] gapirmayapsan?» Al-Ahnaf dedi: «Agar men yolg'on gapirsam, Allohdan qo'rqaman, haqiqatni gapirsam, sendan qo'rqaman».

[Yana] aytishlaricha, u dedi: «Men uch [narsa] uchun hurmatga sazovor bo'lganman: «[Birinchidan], men [hech qachon] biror eshikka, agar u yerga taklif etilmagan bo'lsam, kirmaganman; [ikkinchidan], men [hech qachon ikki odam, hatto ular kichik go'dak yoki yosh bola bo'lsa ham, ularning o'zlari meni [suhbatga] chaqirmaguncha, ularning orasidagi [suhbatni] bo'lmaganman; [uchinchidan], mening oldimdan chiqib ketgan odam haqida men faqat yaxshilik bilan gapirganman».

Muhammad ibn Oyisha at-Timiy dedi: «Al-Ahnaf Marvda shiddatli jang olib borgan kuni u o'zining ikki odamining [aytgan gapi]ga ishonib, to'g'ri yo'ldan adashib ketdi va shunda u [qo'shinni] daryoning qurib qolgan o'zani orqali boshlab ketdi. Kimdir [unga] dedi: «Xudo haqi! Yasha, ey amir!» U dedi: «Qul bo'la turib, bundan ortig'ini qila olarmidim?» Eshitishimcha, u [shunday] degan: «O'limga eng loyiq odam bu farzandi yo'q so'qqaboshdir».

Odamlar al-Ahnafning yumshoq [fe'li] haqida masallar to'qir edilar. [Bir kuni] undan so'radilar: «Nima uchun sen [bunday] yumshoqsan?» U dedi: «Men buni o'zimning amakilarimdan o'rganganman. Men ulardan biriga dedim: «Kecha mening oziq tishim juda ham [qattiq] og'ridi!» U dedi: «Bir yildan beri amakingning hayoti so'nmoqda, [lekin] bu haqda u hech kimga bildirmaydi».

Aytishlaricha, u [yana shunday] degan: «Agar so'zlar amal bilan tasdiqlanmasa, [ularning] foydasi yo'q, agar boylik saxovatli bo'lmasa, [uning]

[1] *Abdulloh ibn Omir ibn Kurayz* avval 649–657-yillarda, keyin 661–665-yillarda Basra va Iroq voliysi bo'lib, Xuroson ham unga qarashli bo'lgan.

[2] *Muoviya ibn Abu Sufyon* – Umaviylar sulolasining birinchi xalifasi, 661–680-yillarda hukm surgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

foydasi yo'q, agar do'st sadoqatli bo'lmasa, [uning] foydasi yo'q, agar bilim diyonatli bo'lmasa, [uning] foydasi yo'q, agar sadaqa niyatli bo'lmasa, [uning] foydasi yo'q»[1].

(71 – 72, № 93) Abu Usmon Said ibn Usmon ibn Affon ibn Abu-l-Os ibn Ummiya ibn Abdushams ibn Abdumunof ibn Qasiy ibn Kilob ibn Murra ibn Ka'b ibn Luiy ibn G'olib ibn Faxr ibn Molik ibn al-Madr ibn Kinona ibn Xuzayma ibn Mudrika ibn Ilyos ibn Madr ibn Nizor ibn Mu'ad ibn Adnon al-Qurashiy[2] – u [xalifa] Muoviya ibn Abu Sufyon davrida Samarqand [shahri]ni fath qilishda boshchilik qilganlardan biri bo'lgan. [Keyin] u Madina [shahri]ga ketgan. Bu [voqealar] hijriy 55 (674 – 675)-yilda yuz bergan. Muoviyadan keyin uning o'g'li Yazid [xalifa] bo'lganda, Madina ahlining tavsiyasi bilan Said ibn Usmon Xuroson amiri etib tayinlandi[3].

As-Sulamiyning «Tarix» kitobida yozilishicha, Said Samarqand darvozasi yonida kamon o'qi bilan bir ko'zidan yaralangan. Shundan keyin u o'zining sog' qolgan ko'zini asrab, butunlay ko'r bo'lib qolishdan qo'rqib, tunda [jangga] chiqishdan voz kechdi. Saidning bir qora chodiri bo'lib, u [shu qadar] katta ediki, u o'zining otini [uning ichida] mashq qildirar edi. Keyin Said Iroqqa qaytib ketdi va o'zi bilan [malika] Xotundan[4] garov sifatida olingan [mahalliy] dehqonlarning o'g'illaridan ko'plarini olib ketdi. Madinada u o'ziga qarashli bo'lgan yerlarda ularga [og'ir] ish qildirgan. Bir kuni ular xanjarlar bilan unga hujum qilib, uni o'ldirdilar va o'sha yerdagi bir tog'da berkindilar. U yerda [bir muddat] istehkom qurib turdilar, so'ngra tashnalikdan halok bo'ldilar.

(528 – 532, № 979) Abu Ja'far Qusam ibn Abbos ibn al-Muttalib ibn Hoshim ibn Abdumunof ibn Qasiy ibn Kilob ibn Murra ibn Ka'b ibn Luiy ibn G'olib ibn Fahr ibn Molik ibn an-Nadr ibn Kinona ibn Xuzayma ibn Mudrika ibn Ilyos ibn Mudar ibn Nizor ibn Mu'ad ibn Adnon – Hazrati [Muhammad] payg'ambarning amakisining o'g'li[5].

---

[1] Abu Sa'd as-Sam'oniyning ma'lumotiga ko'ra al-Ahnaf ibn Qaysning avlodlaridan biri Abu Is'hoq Ibrohim ibn Ya'qub al-Ahnafiy al-Juzjoniy taniqli muhaddis bo'lgan. U asli Juzjonlik bo'lgan, hadis o'rganib ko'p yerlarni ziyorat qilgan, jumladan, Movarounnahrda ham hadis rivoyat qilgan. Keyin Iroq va Shomga ketib, 256 (869 – 870)-yilda Damashqda vafot etgan.

[2] *Said ibn Usmon* – xalifa Usmon ibn Affonning o'g'li. U 675 – 677-yillarda Xuroson amiri bo'lgan.

[3] Bu yerda an-Nasafiy ma'lumotlarida noaniqlik bor, chunki xalifa Yazid 680 – 683-yillarda hukm surgan, Said ibn Usmon esa 55 (674 – 675)-yilda xalifa Muoviya tomonidan Xuroson amiri etib tayinlangan.

[4] *Xotun* – Buxoro malikasi, buxorxudot Bidunning xotini. Bidun o'lgandan keyin, uning Tag'shoda ismli go'dak o'g'li qoldi. Shuning uchun bolaning onasi bo'lgan Xotun taxtga o'tirdi va 15 yil hukmronlik qildi (Narshaxiy. Buxoro tarixi. B. 92 – 94.).

[5] Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, Qusam ibn al-Abbos Samarqandga islom dinini targ'ib qilish uchun kelgan bo'lib, 54 (673 – 674) yoki 56 (675 – 676)-yilda halok bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

[Najmiddin] dedi: U Said ibn Usmon ibn Affon bilan birga Muoviya ibn Abu Sufyon hukmronligi davrida Movarounnahrni zabt etish uchun kelgan edi va Samarqandda o'ldirilgan. Uning [u yerda joylashgan] maqbarasi mashhur bo'lib, uni [odamlar] ziyorat qiladilar. [Yana] aytishlaricha, u Marvda vafot etgan bo'lib, [u yerdagi] Abu Hamra as-Sukkari ko'chasida [joylashgan] qabristonda dafn etilgan.

Hamduvayh ibn al-Xattob, Salmavayh Abu Solih, Yahyo ibn Muin, Abdulloh ibn al-Muborak, Abdulaziz ibn Abu Razma va Ahmad ibn Said ibn Ma'don – [ularning] har biri aytganki, [Qusam] Marvda vafot etgan va o'sha yerda dafn etilgan.

Solih ibn Muhammad al-Bag'dodiy, Abu Rajo, Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Ahmad ibn Sayyor, Muhammad ibn Aslam al-Qodiy, Muhammad ibn Abdurahmon ad-Dag'uliy, Abu Ibrohim al-Bobkissiy va Mus'ab ibn Abdulloh aytganlarki, u Samarqandda o'ldirilgan va o'sha yerda dafn etilgan.

Abdulloh ibn Abbosning so'zlaridan naql qiladilarki, [unga] Qusam ibn al-Abbosning o'limi haqida xabar yetib kelganda, u dedi: «Uning tug'ilgan [yeri] vafot qilgan [yeri]dan naqadar uzoq ekan: u Makkada tug'ilib, Samarqandda vafot etdi».

Al-Qutbiyning aytishicha, «At-tafsir»ning muallifi Abu Solih dedi: «Biz bir onaning o'g'illari dafn etilgan [yerlar]ning al-Abbos va [uning xotini] Umm ul-Fazlning o'g'illarinikidek shu qadar [bir-biridan] uzoq bo'lgan [boshqa hol]ni ko'rmaganmiz. [Ularning o'g'illaridan] al-Fazl Shoshda vafot etgan, Abdulloh Toifda vafot etgan, Ubaydulloh Madinada vafot etgan, Qusam Samarqandda vafot etgan, Ma'bad esa Afrikada o'ldirilgan».

Said ibn Usmon 43-yilda[1] Xuroson amiri sifatida Samarqand darvozasiga yetib kelganda, Qusam ibn al-Abbos uning oldiga yurib bordi. Said ibn Usmon uning uyiga tashrif buyurdi va u bilan suhbatlashdi. [Keyin] ular [birga] Samarqandni zabt etdilar. Said bilan Qusam Usrushanani zabt etish uchun borganlarida, Sirakas [nomli qishloq]ga yetib keldilar va unda bir necha kun to'xtab turdilar. Qusam [o'sha yerda] vafot etdi va uning [janoza] namozini Said ibn Usmon bilan askarlar o'qidilar. Uni tobutda shaharga olib keldilar.

Luboba al-Bakriy – mo'minlarning onasi, al-Horisning qizi, Maymunaning singlisi edi. U al-Abbos ibn Abdulmuttalibning[2] [oldida bo'lib], uning olti [o'g'li]ni tuqqan: [Ular]: al-Fazl, Abdulloh, Ubaydulloh, Qusam,

[1] Hijriy 43-yil milodiy 663-yil aprel – 664-yil martga to'g'ri keladi. Bu sana noto'g'ri berilgan, chunki Said ibn Usmon Samarqandga 55 (674–675)-yilda hokim bo'lib kelgan. Lekin ungacha Samarqandda harbiy lashkarboshi sifatida janglar olib borgan. Shuning uchun bu sanani 43 emas, balki 53-yil deb o'qish kerak. Hijriy 53-yil, milodiy 672-yil dekabr – 673-yil noyabrga to'g'ri keladi.

[2] *Al-Abbos ibn Abdulmuttalib* (568–653) – Muhammad payg'ambarning amakisi, Abbosiylar sulolasining ajdodi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ma'ruf va Abdurahmon. Al-Hiloliy dedi: «Hali bunday zotli ot dunyoga kelmaganki, uning Umm ul-Fazl qornidan tug'ilgan olti [o'g'il]dek [nasli] bo'lsa. [Al-Fazl]ga voyaga yetish nasib etdi va u onasi xohlaganidek [ibratli] erkak bo'ldi. [Uning onasi] Luboba Umm ul-Fazl al-Horis ibn Xaza ibn Bujayr ibn al-Hazm ibn Ruvayb ibn Abdulloh ibn Hilol ibn Omirning qizi edi. Qusamning ham, Ubaydullohning ham farzandlari yo'q edi».

Qusam masjidga [borish uchun] uyidan chiqqanda, odamlar bu haqda uning xushbo'y hididan bilar edilar. Qusam kichik bola bo'lganda otasi al-Abbos uni o'yinga tushirib: «Ey Qusam! Ey Qusam! Ey burni baland! Ey muhtaram keksa!» – deb gapirar edi. [Muhammad] payg'ambar Arafot [tog'i]dan qaytib kelganda, uning ketida al-Fazl ibn al-Abbos, oldida esa Qusam [ibn al-Abbos] yurgan edi. [Keyin] u: «Menga uni, ya'ni Ubaydullohni beringlar», – dedi va uni oldiga o'tqizib oldi. [Undan keyin] u Qusamga [qarab]: «Menga uni [ham] beringlar», – dedi va uni orqasiga o'tqizib oldi.

Ibn Umarning so'zlaridan [rivoyat qilishlaricha], u dedi: «[Muhammad] payg'ambarni qabrga qo'yganlarida al-Mug'ira ibn Shu'ba turib, o'zining uzugini yechdi va qabrga tashladi. Keyin uni [qaytib] olish uchun qo'lini cho'zdi. Qusam uning ketidan [qo'lini] cho'zib, uzukni oldi va al-Mug'iraga qaytarib berdi. Qusam ibn al-Abbos Hazrati Muhammad payg'ambarni bilgan odamlarning eng so'nggisi edi[1].

(50, №55) Rufay ibn Mihron Abu-l-oliya ar-Riyohiy al-Basriy. Aytishlaricha, u Banu Riyoh [qabilasi boshlig'i]ning xotinining mavlosi Fayruzning o'g'lidir. U Abubakr [as-Siddiq]ning xalifalik [davriga] ikki yil qolganda islom [dini]ni qabul qilgan. 93-yilning shavvol [oyi]da (712-y. 12-iyul) dushanba kuni vafot etgan. [Yana] aytadilarki, u 90 (708–709)-yilda vafot etgan. U Umar ibn al-Xattob, Ali ibn Abu Tolib, [sahobalar] Abdulloh ibn [al]-Abbos va Saubanlardan [hadis] eshitgan. U Abubakr as-Siddiqning oldiga kirganda, uning tahorat qilmasdan go'sht yeganini ko'rgan.

U Said ibn Usmon bilan Jayhun daryosini kechib o'tib, [u yerda] birinchi bo'lib azon aytgan. Said ibn Usmon uning ismi va kuniyasini[2] yax-

[1] Shu asarning o'zida Said ibn Usmon bilan Samarqandga kelgan yana bir shaxs haqida ma'lumot keltirilgan: uning ismi Abu Amr Abdulmalik ibn Umayr al-Kurashiy al-Kufiy (vaf. 136-y.) (An-Nasafiy. Al-qand (1991), 247–248-b. № 430). Undan tashqari, rivoyatlarga ko'ra, Afrosiyobdagi Shohi Zinda maqbarasi atroflarida Qusam ibn al-Abbos bilan kelgan uning bir qancha sahobalari dafn etilgan. Ular: shayx ul-islom Xoja Abulhasan, Xoja Muhammad al-Hamaviy, Xoja Abdi Berun, Xoja Doniyol, Xoja Muhammad ibn Vasi', Abu Nasr al-Kassob, Muhammad ibn Malik Ashtar, shuningdek, Qusam ibn al-Abbosning amakisi va yana noma'lum «Xuroson amiri»dir.

[2] *Kuniya* – bu arabcha so'z bo'lib, erkaklarni bo'lajak to'ng'ich o'g'lining ismi bilan chaqirish uchun ikkinchi ism sifatida ishlatilgan. Masalan, Abu Bakr – Bakrning otasi, Abu Said – Saidning otasi va h.k.

@tarixchi_kutubxonasiga

shi alomat deb bildi va dedi: «Abu-l-Oliya bu oliy [daraja]dir, Rufay esa uni ko'tarishdir». Said [daryoni] kechib o'tganda, ikki rakat [namoz] o'qidi va bir odamning o'z o'rtog'ini [quyidagi so'zlar bilan] chaqirganini eshitdi: «Ey o'rtoq! Ey Zafar!» Said dedi: «Zafar [bo'ladi], xudo xohlasa». Keyin boshqasi dedi: «Ey Alvon!» [Qutayba] dedi: «Oliy [daraja]ga yetdingiz, xudo xohlasa».

Said ibn Janoh al-Buxoriy «Al-qibla» kitobida dedi: «Keyinchalik [odamlar] Samarqand ahlini va u yerga [kelib] o'rnashganlarni hurmat qilar edilar. U yerda Qusam ibn [al-]Abbos, Said ibn Usmon ibn Affon, tobi'unlardan[1] esa Muhammad ibn Vosi', Anas ibn Molikning mavlosi Burd, ad-Dahhok ibn Muzohim, Lays ibn Abu Sulaym va Ziyod ibn Mihron – ularning [hammasi] Anas ibn Molikning [so'zlaridan hadis] rivoyat qilganlar, Xulayd ibn Hasan, Abu-l-Oliya va boshqalar yashar edilar. Basrada fitna yuz berdi va Abu-l-Oliya [Samarqand]dan chiqib [ketishni] xohladi. [Keyin] u jarchining: «Ey Muttavakil!» deb chaqirayotganini eshitib qoldi va [Samarqandda] qoldi».

(151, №246) Abu Muhammad Talha-t-Talhot – bu Talha ibn Abdulloh yoki Ubaydulloh ibn Xalaf al-Xuzoiy al-Basriy[2]. Uning otasi [xalifa] Umar ibn al-Xattobning[3] al-Kufa va al-Basradagi devonida kotib bo'lgan. Talha al-Muhallab ibn Abu Sufra[4] bilan birga Samarqandga kelganda bir ko'zidan ayrilgan. Said ibn Usmon uni Hirotda xiroj [yig'ish]ga boshliq etib tayinlagan. U Muoviya ibn Abu Sufyon bilan birga majlis qurgan va bir qancha sahobalardan saboq olgan.

(482–483., № 897) Ikrima – Abdulloh ibn al-Abbos ibn Abdumuttalibning[5] mavlosi[6]. Aytishlaricha, u Muxallad ibn al-Muhallab ibn Abu Sufra[7]

---

[1] *Tobi'un* – Muhammad payg'ambarning sahobalaridan hadis o'rganib, ularning so'zlaridan rivoyat qilgan keyingi tabaqa muhaddislar. Ular rivoyatchilar silsilasida sahobalardan keyingi ikkinchi bo'g'inni tashkil etganlar.

[2] *Talha ibn Abdulloh ibn Xalaf al-Xuzoiy (Talha-t-Talhot)* – 56 (675–676)-yilda Said ibn Usmonning lashkarboshisi, 61 (680–681)-yilda esa Xuroson amiri Salm ibn Ziyodning as'hoblaridan bo'lgan. 62 (681–682)-yilda Sijiston hokimi etib tayinlangan. 64 (683–684)-yilda Sijistonda vafot etgan.

[3] *Umar ibn al-Xattob* – Abu Bakr as-Siddiqdan keyin hukmronlik qilgan ikkinchi arab xalifasi, 634–644-yillarda hukm surgan. U birinchi bo'lib amir al-mo'minin, ya'ni «musulmonlar amiri» martabasiga ega bo'lgan.

[4] *Al-Muhallab ibn Abu Sufra al-Azdiy* – mashhur arab lashkarboshisi, 697–702-yillarda Xuroson amiri bo'lgan, 702-yilda vafot etgan.

[5] *Abdulloh ibn al-Abbos ibn al-Muttalib* – Muhammad payg'ambarning amakisining o'g'li, hadis rivoyatlaridagi eng muhim va ishonchli manbalardan biri bo'lgan. U 30 (650–651)-yilda Xurosonga harbiy yurishda ishtirok etgan. U xalifa Ali ibn Abu Tolibning Basradagi voliysi bo'lgan. 68/687–688-yilda vafot etgan.

[6] *Mavlo* – arabcha so'z (ko'pligi *mavoli*) bo'lib, ilk islom davrida biror musulmon odam yoki arab qabilasining kafilligi bilan islom dinini yangi qabul qilgan shaxsga nisbatan qo'llanilgan.

[7] *Al-Muxallad ibn al-Muhallab ibn Abu Sufra* – arab lashkarboshisi, al-Muhallab ibn Abu Sufraning o'g'li.

@tarixchi_kutubxonasiga

hukm surgan davrda Samarqandga kelgan, Mansur ibn an-Nu'mon shunday deb aytgan.

[Najmiddin] dedi: «Men as-Sulamiyning «Tarix» [kitob]ida: «Abdulloh ibn Omir ibn Quraysh Usmon ibn Affonning xolasining o'g'li», deb yozilganini ko'rganman. U ikkinchi marta Xuroson amiri etib tayinlanganda[1], u ar-Rabi' ibn Ziyodni[2] u yerga yubordi. U [Xuroson]ga kelib, Sijistonni fath etib, u yerdan 40 ming bosh [asir]ni qo'lga tushirgan edi, ular orasida Ikrima al-Faqih ham bor edi (532–535-bb., № 980).

Abu Hafs Qutayba ibn Muslim ibn Amr ibn Hassin ibn Rabia ibn Xolid ibn Usayd ibn Ka'b al-Bohiliy[3]. [Xalifa] al-Valid ibn Abdulmalik hukm surgan davrda[4] Xurosonga kelib, Movarounnahrni zabt etdi, ikkala Iroqning [hukmdori] esa al-Hajjoj ibn Yusuf edi[5].

U 94 (712–713)-yilda Samarqand ixshidi G'urak bilan sulh tuzib, Samarqandda o'rnashdi[6]. Qutayba [xalifa] Sulaymon ibn Abdulmalik hukm surgan davrda[7] [9]6 (715-y., 7-avgust–5-sentabr) yoki 97-yilning zulhijja (716-y., 26-iyul–25-avgust) [oyi]ning oxiriga 3 kun qolganda Farg'onada o'ldirilgan. Uni Voqi' ibn Abu Sud al-G'udoniy at-Tamimiy o'ldirgan. Bundan oldin Qutayba uni tamim qabilasining boshliqligidan chetlatgan[8]. [Qutayba] 49 (669)-yilda tug'ilgan. Uning Xurosondagi hukmronligi 9 yil va 7 oy davom etgan[9].

---

[1] Abu Said Gardiziyning ma'lumotiga ko'ra, *Abdulloh ibn Omir ibn Quraysh* Xurosonga uch marta amir etib tayinlangan. Shulardan birinchi ikkitasi xalifa Usmon ibn Affon davrida bo'lgan (Гардизи (Ташкент, 1991). С. 24–25.)

[2] *Ar-Rabi' ibn Ziyod ibn Anas ibn ad-Dayyon al-Horisiy* – arab lashkarboshisi, 30 (650–651)-yilda Sijistonni fath etish uchun yuborilgan; 51 (671)-yilda Xuroson amiri etib tayinlangan; 53 (672–673)-yilda vafot etgan.

[3] *Qutayba ibn Muslim* – arablarning bohila qabilasidan, 705–715-yillarda Xuroson amiri bo'lgan. Arablarning O'rta Osiyodagi fath urushlarini jadallashtirib, ko'p shahar va viloyatlarni zabt etgan.

[4] *Al-Valid ibn Abdulmalik* – Umaviylar sulolasining xalifasi, 705–715-yillarda hukm surgan.

[5] *Al-Hajjoj ibn Yusuf* xalifalikning sharqiy qismi (ikkala Iroq – Iroqayn, ya'ni G'arbiy va Sharqiy Iroq hamda unga yondosh yerlar)da 694–714-yillarda hukmronlik qilgan.

[6] Arablarning Samarqand podshohi G'urak bilan tuzgan mazkur sulhning matni bizgacha yetib kelgan. *U haqida qarang:* Смирнова. Из истории. – С. 119–134.

[7] *Sulaymon ibn Abdulmalik* – Umaviylar sulolasining xalifasi, 715–717-yillarda hukm surgan.

[8] *Abu Mutarrif Vaki' ibn Abu Sud* Qutaybani o'ldirgandan keyin Xuroson amiri etib tayinlangan.

[9] An-Nasafiyning xabar berishicha, Qutayba Samarqandga kelgandan keyin, uni o'zining askarlari o'ldirganlar. O'sha vaqtda u 36 yoshda bo'lgan (An-Nasafiy. Al-qand (1991), 148–149-bb. № 243). Agar Qutayba 669-yilda tug'ilgan bo'lsa, bu raqamga ko'ra, uning vafot etgan vaqti 705-yilga to'g'ri keladi. Bu yilda esa u, boshqa manbalarga ko'ra, endi Xurosonga kirib kelgan. Demak, u Farg'onada o'ldirilganda 36 yosh emas, 46 yosh bo'lgan bo'lishi kerak.

@tarixchi_kutubxonasiga

[Najmiddin] dedi: Yazid ibn al-Muhallab[1] o'zining Xurosondagi qasri [atrofi]da bog' yaratgan edi. Qutayba Xuroson amiri etib tayinlanganda, uni o'zining tuyalari turadigan [joy]ga aylantirdi. U dedi: «Mening otam tuyachi bo'lgan, Yazidning otasi esa bog'bon bo'lgan»[2].

Qutayba 87 (705–706)-yilda Baykandni, keyin Buxoro, Kesh, Nasaf, Sug'd, Samarqand, Xorazm, Kobul va Niso [viloyat]larini fath etgan. So'ngra 95 (713–714)-yilda u Farg'onani fath etdi. Shu yilda al-Hajjoj vafot etdi va Qutayba Marvga qaytib keldi. [Xalifa] al-Valid ibn Abdulmalik unga [xat] yozib, uni [Movarounnahrga] qaytishga rag'batlantirdi va u [yana] Farg'onaga qaytib borib, [u yerdagi odamlarni] qatl qilish, asirga tushirish va garovga olish [ishlari]ni [yana ham] ko'paytirdi va [Xurosonga] qaytib ketdi. U Kushmayhanga yetib kelganda, unga [xalifa] al-Validning vafoti haqidagi xabar yetib keldi.

[Qutayba] Omir ash-Sha'biy va Abdulloh ibn Burayda ibn al-Husayb so'zlaridan, [ular esa] Marvon yoki Abdulmalik ibn Marvon va boshqalarning so'zlaridan [hadis] rivoyat qilgan.

U Samarqandga kelganda, unga dedilar: «Bu [shahar]ni fath qilayotgan [odam] sen emas. Uni Bolon ismli odam fath qilyapti». U dedi: «Allohu Akbar. Men va Alloh ikki ruhmiz[3]. [Demak], men [shahar]ni fath qilyapman». U Sug'd tog'i [tepasi]dan Samarqand [shahri]ga nazar tashlaganda, o'zining sheriklariga dedi: «Uni [biror narsaga] o'xshatinglar». Ular dedilar: «Bilmaymiz». Qutayba dedi: «U xuddi yam-yashil rangli osmon singaridir. Uning qasrlari go'yoki charaqlagan yulduzlar, uning daryosi esa [Somon] yo'liga o'xshaydi».

Al-Asma'iy dedi: Qutayba ibn Muslimning bir ulog'i bo'lib, uni [o'zi] ovqat tanovul qilib bo'lgandan keyin olib kelishga buyurar edi. [Echki] keltirilganda [boshqa] hech kim [ovqatga] qo'lini uzatmas edi. Basradagi bohila [qabilasi]ning oqsoqollaridan bir shayx bundan xabar topib, uning oldiga keldi. Ovqat keltirilganda, [Qutayba] echki bolasini keltirib, odamlarga ovqatga [qo'l tekizishni] man etdi. Shunda shayx uni [qilich bilan] burdalab tashladi va odamlar [oyog'i ostiga] tashladi. Qutayba dedi: «Menimcha, uning onasi seni suzgan bo'lsa kerak». Shayx dedi: «Menimcha esa, uning onasi seni emizgan bo'lsa kerak».

---

[1] *Yazid ibn al-Muhallab ibn Abu Sufra al-Azdiy* – arab lashkarboshisi, al-Muhallab ibn Abu Sufraning o'g'li. Sug'd va boshqa viloyatlarni fath qilgan. Ikki marta: 701–704-yillarda va 715–717-yillarda Xuroson amiri bo'lgan (История ат-Табари. – С. 85–87, 89–98, 157–171; Гардизи (Ташкент, 1991). – С. 33–34.).

[2] Bu ma'lumotdan ko'rinadiki, harbiy yurishlarni amalga oshirgan arablar ichida kelib chiqishi ko'chmanchi va o'troq bo'lgan har xil toifadagi odamlar bo'lgan.

[3] Arabcha «*balani*» – «ikki ruh (nafs)» degan ma'noni bildiradi.

@tarixchiXuudbxonasiga

Qutayba bir ayolning o'g'lini, erini va ukasini o'ldirgan edi. U [ayol]dan so'radilar: «Sening Qutaybadan ham ko'proq nafrat bilan qaraydigan dushmaning bormi?» U dedi: «Ha, mening qornim, [chunki] u mendan ovqat so'raganda, ular mening ko'z oldimga keladilar».

Qutayba dedi: «Uch [xil] odamning qo'lini olmanglar: ahmoqning [qo'lini] – chunki uning minnatdorchiligi uning aqliga yarasha bo'ladi: ikkiyuzlamachining [qo'lini] – chunki u seni tezakka qoruvchi suv singaridir; tovlamachining [qo'lini] – chunki u sening [bu ishni] qo'rquvdan qilganingni biladi»[1].

(224, № 381) Abdurahmon ibn Muslim ibn Amr ibn Hassin ibn Rabia ibn Xolid ibn Usayd ibn Ka'b al-Bohiliy – Qutayba ibn Muslimning ukasi[2]. U akasining qo'shinida oldingi [qismlar]ning lashkarboshisi edi. U islom [davri]da Samarqandda [tayinlangan] birinchi amir bo'lgan. U Shurayh al-Qodiy so'zlaridan [hadis] rivoyat qilgan. Uning so'zlaridan akasining o'g'li Salm ibn Qutayba ibn Muslim [hadis] rivoyat qilgan[3].

(459 – 461, № 854) Abu Amr Omir ibn Sharohil ash-Sha'biy al-Kufiy[4]. Aytishlaricha, u Samarqandga Qutayba ibn Muslim bilan birga kelgan. U faqih, hofiz va shoir bo'lgan.

Abu Hotim al-Bustiy dedi: «Omir ibn Sharohil ash-Sha'biyning onasi Jalulo [urushda] asir tushgan. U [Muhammad] payg'ambarning 150 ta sahobalaridan [hadis] rivoyat qilgan. Ash-Sha'biyning so'zlaridan [naql] qilishlaricha, u: «Men [Muhammad payg'ambar]ning sahobalaridan 500 [kishi]ni yoki 500 dan ko'p [kishi]ni ko'rganman», – deb aytgan.

U hijriy 20 (640 – 641)-yilda, yana aytishlaricha, 31 (651 – 652)-yilda tug'ilgan; 104 yoki 105 (722 – 723)-yilda, yana aytishlaricha, 109 (727 – 728)-yilda vafot etgan; 82 yoki 86 yoshga kirgan[5].

---

[1] Qutayba ibn Muslimning qabri Andijon viloyatining Jalolquduq tumanidagi Oxunboboyev qishlog'ining qabristonida joylashgan. XVIII asrda uning ustidagi maqbara qurilgan.

[2] Qutayba Farg'onada o'ldirilganda, u bilan birga uning 11 ta eng yaqin qarindoshlari (6 ta aka-ukasi, o'g'li va jiyanlari) ham o'ldirilgan. Ular orasida Abdurahmon ibn Muslim ham bor edi.

[3] An-Nasafiyning asarida uning o'g'li Said ibn Salm haqida ham ma'lumot keltirilgan (An-Nasafiy. Al-qand (1991), 22-b. № 2). At-Tabariy ma'lumotiga ko'ra Qutaybaning Kasir ismli o'g'li ham bo'lib, 715-yilda u bilan birga Farg'onada o'ldirilgan (История ат-Табари. С.157). Gardiziyning yozishicha, Qutaybaning o'g'illaridan faqat Amr omon qolgan. (Гардизи (Ташкент, 1991). – С. 32.) Lekin at-Tabariy bo'yicha, Salm ibn Qutayba ham omon qolib, 120 (737 – 738)-yilda uning nomzodligi Xuroson amiri lavozimiga qo'yilgan (История ат-Табари. – С. 139, 262, 264, 274).

[4] *Abu Amr Omir ibn Sharohil ash-Sha'biy* eng taniqli tobe'inlardan biri bo'lib, sahobalarning so'zlaridan eng ishonchli hadislarni rivoyat qilgan (Sam'oniy (Bayrut, 1881). B. 241 – 242.).

[5] Abu Sa'd as-Sam'oniy ma'lumotiga ko'ra, u 19/640-yilda tug'ilgan va 86 yoshda, ya'ni 105 (723 – 724)-yilda vafot etgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Najmiddin dedi: «Men al-Madoin [shahri]ning qabristonida bir qabr ustidagi toshni ko'rdim, unda: «Bu Omir ibn Sharohil ash-Sha'biy», – deb yozilgan edi. Aytishlaricha, u Samarqandga kelgan va Farg'onagacha [yetib] borgan. [O'sha vaqtda] u [Iroq voliysi] al-Hajjoj [ibn Yusuf]dan berkinib yurgan edi. Bir kuni Qutayba ibn Muslim o'zining amalga oshirgan fath [urush]lari, [qo'lga kiritgan] o'ljaning ulushlari va o'q-yarog'larning taqsimlanishi haqida al-Hajjojga [hisobot] yozishni buyurdi. Ular [hisobot] yozishda qiynalgan edilar, [shunda] ular uchun [hisobot]ni ash-Sha'biy yozdi, ular esa uning [kimligini] bilmas edilar. Al-Hajjoj [hisobot]ni o'qishga buyurgandan keyin Qutaybaga: «Bu xat ash-Sha'biyning qo'liga mansub. Sen unga [nisbatan] qattiqqo'lroq bo'lgin», – deb [xat] yozdi.

Ismoil ibn Is'hoq al-Bobkissiy Samarqandning qibla [tarafi] xususida dedi: «[Muhammad payg'ambarning] sahobalari va [ularning] tobe'inlari Samarqanddagi jome masjidining qibla [tarafi]ni aniqladilar va unda [birinchi bo'lib] falon, falon va ash-Sha'biy namoz o'qidilar[1].

Ash-Sha'biy ozg'in [odam] bo'lgan. Undan so'radilar: «Nima uchun sen bunday zaifsan?» U javob berdi: «Men onamning qornida raqobat qilganman, ya'ni [u yerda] men bilan yana bir farzand bor edi, u – qiz edi».

Ismoil ibn Abu Xolid dedi: «Men ash-Sha'biyning uyiga kirganini ko'rgan edim, [shundan keyin] odamlar uning to'satdan vafot etgani haqida baqirdilar».

Ash-Sha'biy dedi: «Men birorta odam bilan faqat u menga muhtoj bo'lganda, lekin men unga muhtoj bo'lmaganimda uchrashar edim; faqat Abdulmalik ibn Marvon[2] [bundan] istisno edi».

Makhul dedi: «Men ash-Sha'biydan ko'p bilimga ega bo'lgan birorta odamni ko'rmaganman».

Sufyon ibn Uyayna dedi: «[Eng yaxshi] olimlar uchta: Ibn [al]-Abbos o'z davrida, ash-Sha'biy o'z davrida va Sufyon as-Sauriy o'z davrida».

Aytishlaricha, bir odam ash-Sha'biyni urishganda, uni uzoq vaqt [so'kdi], ash-Sha'biy esa indamay unga [quloq solib turdi]. Haligi odam jim bo'lganda, undan so'radi: «[Gapingni] tugatdingmi?» U javob berdi: «Ha». [Shunda] ash-Sha'biy dedi: «Agar sen yolg'on gapirgan bo'lsang, Alloh seni kechirsin, agar sen haqiqatni aytgan bo'lsang, Alloh meni kechirsin»[3].

---

[1] Samarqandning birinchi jome masjidi, arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, zardushtiylarning qadimgi ibodatxonasi o'rniga qurilgan. Uning binosi ko'p marta qayta qurilgan va mo'g'ullar istilosiga qadar faoliyat ko'rsatib kelgan (Буряков. Соборная мечеть. – С. 96 – 98).

[2] *Abdulmalik ibn Marvon* – Umaviylar sulolasining xalifasi, 685 – 705-yillarda hukm surgan.

[3] An-Nasafiyning asarida Qutayba ibn Muslim bilan kelib, Samarqandda o'rnashgan boshqa arablar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

(201 – 202, № 335) Abdulloh ibn Abdavayh ibn an-Nadr ibn Xushtiyor – kelib chiqishi buxorolik, Nasafda yashagan. Uning [asli] Buxoro [viloyati]da joylashgan Kurjan nomli qishloqdan bo'lgan. Qutayba ibn Muslim Buxoroni zabt etish uchun yetib kelganda[1], [uning bobokaloni] Xushtiyor shu qishloqdagi zardushtlarning [eng katta] ruhoniysi bo'lgan. [Qutayba Buxoro ahli ni] qamal qilganda, ularning dehqoni[2] uning oldiga elchi yuborib, [u orqali shunday dedi]: «Mening mamlakatimda bir olim odam bor. Men uni sening oldingga yuboraman, u sen bilan bahs yuritib, sening so'zlaringga quloq soladi. Agar sen da'vat etayotgan [din] haqiqat bo'lib chiqsa, menga bu haqda xabar bergin, men ham bunda sening ketingdan ergashaman. Agar u yolg'on bo'lib chiqsa, men senga bunda ergashmayman va senga qarshi urush olib boraman». [Dehqon] uning oldiga Xushtiyorni yubordi va [Qutayba] unga islom [dini]ni tushuntirdi va payg'ambarimiz [Muhammad]ning fazilatlari haqida gapirib berdi. Xushtiyor uning haqligiga iqror bo'lib, islom [dini]ni qabul qildi[3]. Bu [xabar] Buxoro dehqoniga yetib borganda, uning ruhi tushib ketdi. Uni qattiq qo'rquv bosdi va [Buxoro]ni tark etib, turklar mamlakatiga qochib ketdi. Buxoro ahli esa islom [dini]ni qabul qildilar. Keyin [Xushtiyor] ning an-Nadr [ismli] o'g'li Nasafga [ko'chib] kelib, u yerda o'rnashdi va uning avlodlari o'sha yerda. [Abdulloh] 286 (899 – 900)-yilda vafot etgan[4].

(292, № 525) Abu Ahmad Abdulaziz ibn Muhammad ibn al-Marzubon ibn Turkash Taqi[5] ibn Kashir ibn Tarxun ibn Kanodarank[6] ibn G'urak as-Samarqandiy al-Bobdastoniy. [G'urak] johiliya va islom [davrlarida] Samarqandda podshoh bo'lgan[7]. U o'zining amakisi Abulhusayn Ubaydulloh ibn al-Marzubon[8] va Muhammad ibn Ibrohim al-Bakriy Abulfazl so'zlaridan [hadis] rivoyat qilgan. Uning so'zlaridan uning o'g'li [Abu Solih] Ahmad ibn Abdulaziz[9] va boshqalar [hadis] rivoyat qilganlar.

---

[1] 705 – 708-yillarda Qutayba Buxoro viloyatiga qarashli Buxoro, Romitan va Numushket shaharlarini zabt etgan, Buxoro shahrini esa 90 (708 – 709)-yilda ishg'ol qilgan (Istoriya at-Tabari. C. 115 – 125; Narshaxiy. Buxoro tarixi. B. 120 – 123.).

[2] *Dehqon* – islomgacha O'rta Osiyoda yer egalari shu so'z bilan atalgan. Undan tashqari, yirik ma'muriy birliklar, shahar va qishloqlarning hokimlariga nisbatan bu so'z qo'llanilgan (Османов. О значении. – С. 6 – 9).

[3] An-Nasafiyning asarida Qutayba ibn Muslimning kafilligi bilan islom dinini qabul qilgan bir qancha mahalliy hukmdorlar va din arboblari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

[4] Arablarning istilosidan keyingi davrda mahalliy Sug'd madaniyatining markazi Nasaf va uning atrofidagi qishloqlarda mujassamlashgan. Shu yerdagi Naxshab qishlog'ida oxirgi Sug'd ixshidi Turxar istiqomat qilgan va o'zining so'nggi tangalarini zarb etgan.

[5] Shu asarning boshqa yerlarida bu ism Turkash Baqi shaklida keltirilgan (An-Nasafiy. Al-qand (1991), 169-b. № 275; Muntaxab al-qand, 70 R-v.).

[6] Shu asarning 323-betida bu ism Banayjur yoki Banijur shaklida keltirilgan (An-Nasafiy. Al-qand (1991), 323-b. № 578).

[7] Sug'd ixshidi G'urak 709 – 738-yillarda hukm surgan.

[8] Shu asarning o'zida keltirilgan ma'lumotga ko'ra, u 278 (891 – 892)-yilda vafot etgan (An-Nasafiy. Al-qand (1991), 323-b. № 578; 64-b. № 82; 169-b. № 275.

[9] «Muntaxab al-qand» kitobida u «amir» unvoni bilan qayd etiladi (Muntahab al-qand, 70 R-v.).

@tarixchi_kutubxonasiga

(105, № 162) Sulaymon ibn Abu-s-sariy[1] – Umar ibn Abdulazizning[2] Samarqanddagi omili[3] bo'lgan. Rivoyat qilishlaricha, Umar ibn Abdulaziz Sulaymon ibn Abu-s-sariyga Samarqandga [xat] yozib yuborib, unga yo'lovchilar uchun «xon»lar[4] qurishni buyurgan. [Xatida] u [shunday] degan: «Kimningdir [biror narsaga] ehtiyoji bo'lsa, kecha-yu kunduz [«xon»] uning hojatini chiqaradigan bo'lsin»[5].

(115, № 184) Saura ibn al-Hurr ad-Dorimiy[6] – u [xalifa] Hishom ibn Abdulmalik ibn Marvon[7] hukm surgan davrda Samarqand voliysi bo'lgan. Xuroson amiri al-Junayd ibn Abdurahmon al-G'atfoniy[8] turk xoqoniga qarshi urushish uchun otlanib, 112 (730–731)-yilda Samarqandga kelganda, Saura [ibn al-Hurr]ga yordam so'rab murojaat qilgan. [Saura] 10 ming nafar [askar] bilan Samarqanddan yo'lga chiqqanda, xoqon uning Al-Junayd bilan qo'shilishiga qadar [o'zining qo'shinini] unga qarshi yubordi. Ular jang qildilar va turklar mag'lubiyatga uchradi. Ular daryoga qulab tushganlarida, musulmonlar ham ko'tarilgan chang tufayli [ularning ketidan] qulab tushdilar. Ularning ko'pchiligi halok bo'ldi, ular orasida Saura ham bor edi. Keyin al-Junayd o'z askarlari bilan [ularni] quvib ketdi va ularni mag'lubiyatga uchratib, yer bilan yakson qildilar.

(224–226, № 382) Abu Muslim Amir ad-Daula – Abdurahmon ibn Muslim ibn Shanfir Ruz al-Marvaziy[9]. Abu-z-zubayr Muhammad ibn Muslim ibn Tadris al-Makkiy so'zlaridan [hadis] rivoyat qilgan. U 129 (746–747)-yilda Marvdan chiqqan 133 (750–751)-yilda esa Samarqandga kelgan. 134 (751–752) yoki 135 (752–753)-yilda u Muqbil ibn Ziyod ibn

---

[1] *Sulaymon ibn Abu-s-sariy* – Banu Uvofa qabilasining mavlosi, arablarning lashkarboshisi, ularning Sug'dda olib borgan fath urushlarida faol qatnashgan; 99 (716–717)-yilda Samarqand amiri bo'lgan, 104 (722–723)-yilda Sug'ddagi Devashtich boshchiligidagi xalq qo'zg'olonini bostirishda ishtirok etgan; undan keyin esa Samarqandda soliq to'plash bilan shug'ullanib yurgan.

[2] *Umar ibn Abdulaziz* – Umaviylar sulolasining xalifasi, 717–720-yillarda hukm surgan.

[3] *Omil* – shahar yoki viloyatlarning arab ma'muriyatidagi xiroj, ya'ni soliq to'plash ishlari bilan shug'ullanuvchi mas'ul amaldor shaxs.

[4] *«Xon»* – karvonsaroyga o'xshash savdogarlar to'xtaydigan va shu yerning o'zida tijorat ishlarini amalga oshiradigan kichik savdo markazi

[5] Bu ma'lumot boshqa hech qaysi yozma manbada uchramaydi.

[6] *Abu-l-Ala Saura ibn al-Hurr at-Tamimiy ad-Dorimiy* – Xuroson amiri Muslim ibn Said al-Kilobiyning (723–725-yy. hukm surgan) yaqinlaridan. Xuroson amiri al-Junayd ibn Abdurahmon al-Murriyning (729–734-yy. hukm surgan) avval Balxdagi, keyin Samarqanddagi hokimi bo'lgan. U 112 (730–731)-yilda Samarqand yaqinida halok bo'lgan.

[7] *Hishom ibn Abdulmalik ibn Marvon* – Umaviylar sulolasining xalifasi, 724–743-yillarda hukm surgan.

[8] *Al-Junayd ibn Abdurahmon al-Murriy* – Xuroson amiri, 729–734-yillarda hukm surgan.

[9] *Abu Muslim Abdurahmon al-Xurosoniy* – Abbosiylar firqasining Xurosonda siyosiy harakatining (745–748-yy.) boshlig'i, keyin Abbosiylarning bosh qo'mondoni va 755-yilga qadar ularning Xurosondagi noibi bo'lgan. Uning xalifalikdagi nufuzi va qudrati oshib ketganidan xavfsiragan xalifa al-Mansur uni hiyla bilan Bag'dodga chaqirib o'ldirtirgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Solih [boshlagan] Samarqand devorini qurdirgan[1]. Bu devor 450 ta qasrni[2] o'rab turadi. Uning balandligi yer [sathi]dan 15 quloch[3], qalinligi – 7 quloch, [aylanasiga] uzunligi esa 90 ming qulochga teng[4]. Unda 360 ta burj bo'lib, har birining orasida [kamonchilar uchun mo'ljallangan] 250 tadan tuynuklar mavjud. Samarqand devori [ichidagi] umumiy maydon 13 ming 200 jaribni tashkil etadi[5]. Uni [xalifa] Abulabbos[6] 140 (757 – 758)-yilda[7] Bag'dodda o'ldirgan.

(64, № 82) Ziyod ibn Solih[8] – Abu Muslim 133 (750 – 751)-yilda Samarqanddan Marvga qaytganda uni [o'zining] Sug'd va Samarqanddagi hokimi etib tayinlagan. U taniqli imomlardan bo'lgan, voliylardan chuqur ma'noga ega bo'lgan ko'p hikmatli [so'zlar] aytgan. Uni Borkas qishlog'ining dehqoni shu yerda yuz bergan bir jangda o'ldirgan[9].

(469, № 868) Amr ibn A'yon al-Xuzoiy[10] – Samarqand ahlidan. Abu Muslim uni Samarqandga voliy etib tayinlagan, [keyin esa] Marvdagi [zindonga] tashlagan. Bu [voqea] 135 (752 – 753)-yilda yuz bergan. Marvda uni Xuroson

---

[1] Bu yerda Samarqandni atroflari bilan o'rab turgan tashqi devor nazarda tutilgan. Uning qoldiqlari hozir ham saqlanib qolgan bo'lib, Devori Qiyomat deb ataladi. Bu devor haqida ma'lumotlar X asr arab geografi Ibn al-Faqihning asarida ham keltirilgan (Ibn al-Fakih. Compendium. P. 322 – 323).

[2] Bu yerda arabcha «*jausak*» so'zi ishlatilgan. Shahar tashqarisida joylashgan bunday mustahkam qasrlar dehqonlarga, ya'ni yirik yer egalariga tegishli bo'lgan. Yaqin atrofdagi yerlar va ulardagi qishloqlar ham shu dehqonlarga qarashli bo'lgan.

[3] Bu yerda arabcha «*zira'*» so'zi ishlatilgan. Bu – o'rta asrlarda keng qo'llanilgan o'lchov birligi bo'lib, uning uzunligi taxminan 55 sm.ga teng bo'lgan.

[4] Bu uzunlik taxminan 50 km.ga teng.

[5] *Jarib* – o'rta asrlarda keng ishlatilgan maydon o'lchov birligi. Uning hajmi turli yerlarda va turli davrlarda har xil bo'lib, 900 kv.m bilan 3000 kv.m orasida bo'lgan. Samarqandda ishlatilgan jaribning aniq hajmi ma'lum emas.

[6] *Abulabbos as-Saffoh* – Abbosiylar sulolasining birinchi xalifasi, 749 – 754-yillarda hukm surgan. Bizningcha, bu yerda xato ma'lumot keltirilgan, chunki boshqa manbalardan ma'lum bo'lishicha, Abu Muslim xalifa Abulabbos as-Saffoh tomonidan emas, balki Abbosiylar sulolasining ikkinchi xalifasi Abu Ja'far al-Mansur (754 – 775-yy. hukm surgan) tomonidan 755-yilda o'ldirilgan.

[7] Yil noto'g'ri berilgan, chunki Abu Muslim 755-yilda o'ldirilgan.

[8] *Ziyod ibn Solih al-Xuzoiy* – Abu Muslimning naqibi, ya'ni lashkarboshilaridan biri; u 133 (750 – 751)-yilda Buxoroda Sharik ibn Shayx al-Mahriy boshchiligida Abu Muslimga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirgan. O'sha yilning o'zida u Talas yaqinida Xitoy lashkari bilan jang qilib, ularni mag'lubiyatga uchratgan.

[9] Shu asarning o'zida Ziyod ibn Solihning o'g'li Tolut ibn Ziyod as-Samarqandiy (An-Nasafiy. Al-qand (1991), 169-b. № 275) va nabirasi Abulhasan Ali ibn Talut as-Samarqandiy (An-Nasafiy. Al-qand (1991), 369-b. № 669; 64-b. № 82; 169-b. № 275) haqida ma'lumotlar keltirilgan.

[10] Abbosiylarning Xurosondagi naqibi, 129 (746 – 747)-yilda Abu Muslim uni To'haristonga yuborgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

voliysi Abduljabbor ibn Abdurahmon[1] 142 (759–760)-yilda [xalifa] Abu Ja'far al-Mansur[2] davrida o'ldirgan.

(321, № 575) Abu Ja'far Abada ibn Qudayd ibn Ma'ruf as-Samarqandiy as-Sa'diy[3] – taniqli shayx, [Samarqand] shahrining oqsoqollaridan. U [xalifa] al-Mansur davrida Usayd ibn Abdullohdan[4] keyin va Humayd ibn Qahtabadan[5] oldin Xuroson amiri bo'lgan. Uning Umm Balaj bint Qudayd [ismli] singlisi Abbosiylarning [Xurosondagi] tashviqotchisi Abu Muslimning xotini bo'lgan.

(72, № 94) Said al-Harashiy[6] – [avval] u Xuroson amiri Muoz ibn Muslimning[7] oldingi qo'shinlari [tarkibi]da bo'lgan, [keyin esa xalifa] al-Mahdiy davrida[8] Keshda [o'rnashib olgan] al-Muqanna va «oqkiyimli[odam]lar»ga[9] qarshi urush olib borishda boshchilik qilgan. Keyin [xalifa] al-Mahdiy uni [Xuroson amiri etib] tayinladi va 166 (782–783)-yilda u [qo'zg'olonchilar] ni ildizi bilan yo'q qildi[10]. [Najmiddin] dedi: «Men bularning hammasini As-Sulamiyning «Tarix» kitobida ko'rdim[11].

---

[1] *Abduljabbor ibn Abdurahmon al-Azdiy* – 130 (747–748)-yilda Xurosonda Kahtaba ibn Shabibning lashkarboshisi bo'lgan; 140 (757–758)-yilda Xuroson amiri etib tayinlangan va 141 (758–759)-yili Abbosiylarga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, o'sha yili qatl etilgan.

[2] *Abu Ja'far al-Mansur* – Abbosiylar sulolasining ikkinchi xalifasi, 754–775-yillarda hukm surgan.

[3] Abu Said Gardiziyning ma'lumotiga ko'ra, Abada ibn Kudayda 768-yilda Xuroson amiri etib tayinlangan va bu lavozimni 7 oy davomida egallab turgan, keyin iste'foga chiqarilgan.

[4] *Abu Molik Usayd ibn Abdulloh al-Xuzoiy* – Abu Muslimning eng birinchi safdoshlaridan biri, Niso shahrida Abbosiylarni yoqlab qo'zg'olon ko'targan, Abu Muslimning Marvga qilgan yurishida ishtirok etgan. Keyin Abduljabbor ibn Abdurahmon qo'zg'olonini bostirishda qatnashgan; 768-yilda vafot etgan.

[5] *Humayd ibn Qahtaba* – Abbosiylarning lashkarboshisi, 755-yilda al-Jazira amiri, 760–762-yillarda Misr amiri, 768–776-yillarda Xuroson amiri bo'lgan.

[6] *Said al-Harashiy* – arab lashkarboshisi. U 161 (777–778)-yilda Muqanna boshchiligidagi arablarga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonini bostirish uchun Movarounnahrga yuborilgan.

[7] *Muoz ibn Muslim ibn Muoz* – arab lashkarboshisi. U 767-yilda Ustoz Sis boshchiligidagi xalq qo'zg'olonini bostirgan. 161 (777–778)-yilda u Xuroson amiri bo'lgan.

[8] *Al-Mahdiy* – Abbosiylar sulolasining uchinchi xalifasi, 775–785-yillarda hukm surgan.

[9] Hoshim al-Muqanna boshchiligidagi «oqkiyimlilar» diniy harakati arablarga qarshi qaratilgan eng yirik xalq qo'zg'olonlaridan biri edi. U hammasi bo'lib 10 yildan ortiq vaqt davom etgan.

[10] Muqannaning o'ldirilgan vaqti har xil manbalarda turlicha berilgan: At-Tabariy bo'yicha 163 (779–780)-yil, Narshaxiy bo'yicha – 166 (782–783)-yil yoki 167 (783–784)-yil, Beruniy bo'yicha – 169 (785–786)-yil.

[11] Oxirgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'rta asr mualliflarining Muqanna harakati, xususan, uning islomga qarshi bo'lganligi haqidagi ma'lumotlari juda ham bo'rttirib yuborilgan. Muqannaning o'zi mo'min-musulmon bo'lgan va o'zini faqat Abu Muslimning izdoshi deb bilgan. Yaqinda topilgan Muqanna tangalarining old tomonida kufiy yozuvi bilan «Alloh sadoqatni va adolatni amr etdi» deb, orqa tomonida esa, «Hoshim – Abu Muslimning voliysi», degan yozuvlar zarb etilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

(114-bet, № 182) Sayf ibn Kasir al-Amir – Samarqand voliysi bo'lgan. U [xalifa] Horun ar-Rashid[1] [so'zlaridan hadis] rivoyat qilgan. (51, № 56).

Abu-l-Muzaffar Rafi' ibn al-Lays ibn Nasr ibn Sayyor al-Kinoniy[2] – Samarqand hokimi. Harsama ibn A'yon[3] unga qarshi [bir necha] yil urush olib bordi, [keyin] 194 (809–810)-yilda uni qo'lga olib, Samarqanddan haydab yubordi. Aytishlaricha, Abu-l-Muzaffar Rafi' ibn al-Lays al-Kinoniyning Samarqanddagi fitnasi vaqtida Ahmad ibn Nasr al-Atakiy[4] o'zining uyida o'tirgan edi, odamlar esa [har kuni] kechasi [shahar] devorlarini qo'riqlash uchun navbat bilan chiqar edilar. [Bir kuni] uni ham chiqishga majbur qildilar. U yog'ochdan [yasalgan] qilichni olib [chiqqan edi], hech kim uning yog'ochdan [yasalgan]ligini bilmas edi. U kechasi bilan namoz o'qib, mudrab [o'tirar] edi. Uning oldiga [navbati kelgan] odam kelib, unga qo'pol gapira boshladi. U dedi: «Sen musulmonlarning jangiga keldingmi?» U [javob] berdi: «Mening qurolim yo'q, mening qilichim yog'ochdan [yasalgan]». U [yana] dedi: «Sening qiliching yog'ochdan [yasalgan]ligini kim bilib o'tiribdi, sen bu qilich bilan chiqqaningda seni odamlar ko'rmaganmidi?» Shundan keyin uni qo'rquv bosib, uyqusi qochib ketdi. U [uyiga] qaytib kelib, shundan keyin ular oldiga boshqa bormadi[5].

As-Sulamiy o'zining «Tarix» [kitob]ida dedi: «Harsama unga omonlik berib, [xat] yubordi, lekin [Rafi'] uni [rad etib], qaytarib yubordi». Harsama bu haqda [Horun] ar-Rashidga yozib, uning omonlik [xati]ni rad etganini qoraladi va uning [og'ir] jazoga loyiq ekanligini aytdi.

---

[1] *Horun ar-Rashid* – Abbosiylar sulolasining beshinchi xalifasi, 786–809-yillarda hukm surgan.

[2] *Rafi' ibn al-Lays* – Xuroson amiri Nasr ibn Sayyor (738–748-yy. hukm surgan)ning nabirasi; 190 (805–806)-yilda u Abbosiylarga qarshi qo'zg'olon ko'targan; uning tarafida O'rta Osiyoning mahalliy aholisi – sug'dlar va turklar ham arablarga qarshi kurash olib borganlar. Qo'zg'olon 195 (810–811)-yilda bostirilib, uning rahbarlari, shu jumladan, Rafi' ibn al-Lays ham qatl etilgan.

[3] *Abu Xoni Harsama ibn A'yon al-Balxiy* – xalifa al-Mansurning jiyani Iso ibn Muso 770-yilda xalifalikka da'vo qilganda, uning tarafdori bo'lgan; xalifalar Horun ar-Rashid va al-Ma'munning lashkarboshisi bo'lgan; 160 (776–777)-yilda Xurosonda Abbosiylarga qarshi Yusuf ibn Ibrohim al-Barm boshchiligidagi qo'zg'olonni bostirgan; 191 (806–807)-yilda Xuroson amiri etib tayinlangan.

[4] *Ahmad ibn Nasr al-Atakiy* – Samarqandning hanafiya mazhabidagi taniqli imomlaridan; uning otasi Nasr ibn Abdulmalik al-Atakiy imom Abu Hanifa maktabiga yaqin faqihlardan bo'lgan. Uning Abdulloh ibn Nasr ibn Abdulmalik ismli akasi (vaf. 240 (854–855) ham Samarqandda yashab, hadis rivoyat qilgan. Uning o'g'li Abu Hafs Ubaydulloh ibn Ahmad ibn Nasr al-Atakiy as-Samarqandiy ham hadis rivoyat qilgan va 275 (888–889)-yilda Samarqandda vafot etgan.

[5] Hanafiya mazhabining dastlabki davrlarida undagi bir diniy oqim vakillari musulmonlarni o'ldirishdan bosh tortib, jang qilishga to'g'ri kelganda, yog'ochdan yasalgan qilich ko'tarib chiqqanlar. *Ular haqida qarang:* Муминов. Роль и место ханафитских улама.

@tarixchi_kutubxonasiga

(38, № 35) Dovud ibn al-Abbos ibn Hoshim ibn Abu Jur, uni Bonijur[1] deb ham ataydilar, – Balx hokimi. Uning amakisi Dovud ibn Bonijur[2] Movarounnahr hokimi bo'lgan. Harsama ibn A'yon Samarqandni qo'lga olib, Rafi' ibn al-Lays ibn Nasr ibn Sayyorni o'ldirgandan keyin shaharning hokimi etib avval Yahyo ibn Muozni ikki yilga tayinladi. So'ngra uni chetlatib, o'rniga Dovud [ibn Bonijur]ni tayinladi. Bu voqea 197-yilning sha'bon oyida (813-y., aprel-may) yuz berdi.

Dovud ibn al-Abbos Balx hokimi edi, Ya'qub ibn al-Lays[3] unga qarshi chiqqanda, u shahardan qochib, Samarqand shahriga keldi. U vaqtda Samarqand hokimi Ismoil ibn Ahmad as-Somoniy[4] bo'lib, u akasi Nasr ibn Ahmadning[5] voliysi edi. 258-yilning zulhijja oyining 12-kechasi o'tganda dushanba (872-yil 20-oktabr) kuni Nasr ibn Ahmad unga maktub yo'llab, u bilan uchrashish istagini, hurmatini va xayrixohligini bildirdi. [Keyin] u Samarqandda yashab, 259-yil safar oyining birinchi kunida (872-y., 8-dekabr), Solih ibn Umar o'ldirilgan kuni Samarqandni tark etdi. Dovud vataniga qaytganda o'zining saroyi xarob etilganini ko'rdi. Uning yuragi musibatdan ezilib, 17 kundan keyin u vafot etdi.

(64 *a*) Abu Ibrohim Ismoil ibn Ahmad ibn Asad ibn Somon ibn Jaymasiyon ibn Naushard ibn Somtag'on ibn Bahrom al-Malik[6] – Xuroson amiri. U [eng] fozil amirlardan [biri] bo'lgan, u boshqaruv [ishlari]da adolatli, o'zining qo'l

---

[1] To'horistonning turli shahar va viloyatlarida IX asr davomida hukm surgan turkiy Bonijuriylar (Abu Dovudiylar) sulolasining vakili.

[2] Oxirgi tadqiqot natijalariga ko'ra, Dovud ibn Bonijur Sug'd ixshidi G'urakning xitoy manbalarida qayd etilgan ikkinchi o'g'li Mo-chjo, ya'ni Bonijurning o'g'lidir. Yuqorida keltirilgan shajaralar Sug'd ixshidlarining asl kelib chiqishi turkiy bo'lganligidan dalolat beradi (Камолиддин. Новые данные. – С. 63 – 68).

[3] *Ya'qub ibn al-Lays* – Sijistondagi ayyorlar, ya'ni islom g'oziylari harbiy qismlarining boshlig'i, kelib chiqishi kambag'al misgarlardan bo'lgan; 247 (861 – 862)-yilda u Sijistonda hokimiyatni o'z qo'liga olib, Safforiylar (*ar. saffor* – «misgar») sulolasiga asos solgan. Safforiylar sulolasi Sijistonda qariyb 600 yil, ya'ni XV asrning oxirlarigacha hukm surgan.

[4] *Al-Amir al-Moziy Abu Ibrohim Ismoil ibn Ahmad as-Somoniy* – Farg'ona amiri Ahmad ibn Asad ibn Somonxudotning ikkinchi o'g'li, 261 (874 – 875)-yilda akasi Nasr uni Buxoro amiri etib tayinlagan, 892-yilda Nasr ibn Ahmad vafot etgandan keyin Samarqand ham Ismoil ibn Ahmad qo'li ostiga o'tgan; 900-yilda Ismoil Amr ibn al-Lays as-Safforiyni mag'lubiyatga uchratib, uni qo'lga olgandan keyin xalifa al-Muktafi (902 – 908-yy. hukm surgan) uni butun Xuroson amiri etib tayinladi.

[5] *Nasr ibn Ahmad as-Somoniy* – Farg'ona amiri Ahmad ibn Asad ibn Somonxudotning katta o'g'li, 864-yilda u Samarqand amiri etib tayinlangan, 261 (874 – 875)-yilda xalifa al-Mu'tamid (870 – 892-yy.) uni butun Movarounnahrga amir etib tayinlagan.

[6] Somoniylarning ajdodi Somonxudotning kelib chiqishi Sosoniylar davlatining sarkardasi Bahrom Chubin va undan oldingi qadimgi Eron shohlariga borib taqaladi. Abu Said Gardiziy Bahrom Chubinning to'liq shajarasini keltirgan bo'lib, unda uning 45 ta ajdodlarining ismlari qayd etilgan.

@tarixiy_kutubxonasiga

ostidagilarga rahmdil bo'lgan. Uning yaxshi axloqi xushmuomalaligi, [islom] uchun jihod urushlarini olib borishga rag'bati va kofirlar bilan [olib borgan] urushlari haqida [odamlar] maqollar to'qir edilar. Ular to'rt aka-uka edilar: Nasr, Is'hoq, Ya'qub va Ismoil, ularning hammasi hadis rivoyat qilganlar. U otasi [Ahmad]ning so'zlaridan [hadis] rivoyat qilgan. Uning so'zlaridan Muhammad ibn Quraysh al-Marvarrudiy, Abdurahmon ibn Muhammad al-Qodiy al-Abhariy, uning kotibi Iso ibn Muhammad ibn Iso va Abdulloh ibn Muhammad ibn Ya'qub al-Buxoriy [hadis] rivoyat qilganlar. U Buxoroda 295-yil safar [oyi]ning o'rtasi (907-y., 25-noyabr)da vafot etgan.

Vazir Abulfazl al-Bal'amiy[1] dedi: «Men amir Abu Ibrohim Ismoil ibn Ahmadning: «Men [fanlardan] birinchi bo'lib adab sohasidagi kitoblarni o'rgandim, keyin men sahih hadislarni ajratib oldim. Shundan keyin men hadis va adab fanlarini tezda egalladim», – deb aytganini eshitganman. U grammatika va imloni yaxshi bilar edi, ko'p hadislarni yod olgan edi, [fiqhdagi] munozarali masalalarining farqiga [yaxshi] borib, [hukm chiqarganda] adolat bilan [ish yuritar] va hech qaysi tomonning tarafini olmas edi».

(474, № 879) Amr ibn al-Lays[2] – Xuroson amiri. U Ismoil ibn Ahmad as-Somoniyga qarshi urush bilan chiqqan. Ismoil uni 287-yil rabi' ul-avval oyining o'rtasida (900-y., 20-mart) seshanba kuni Balxda qo'lga oldi va [kishan]ga solib, Samarqandga jo'natdi. Keyin mo'minlar amiri [xalifa] al-Mu'tadid bi-lloh[3] unga [Amr]ni Bag'dodga yuborishni buyurib [xat yozdi] va u [buyruq]ni bajardi. Bag'dodda u qamoqqa tashlandi va o'sha yerda 289 (901 – 902)-yilda vafot etdi. As-Sulamiy o'zining «Tarix» [kitob]ida dedi: «Ajoyib [voqealardan biri] shuki, Amr ibn al-Lays Ismoil ibn Ahmadga qarshi urush qilish uchun 50 ming [askarlik] qo'shin bilan [yo'lga] chiqdi va uning faqat bir o'zi [asir]ga tushdi, qolganlarining [hammasi] esa omon qoldilar».

(22, № 2) Abulhaysam Xolid ibn Ahmad az-Zuhliy[4] – Buxoro amiri. 264 (877 – 878)-yilda u Samarqandga kelganda, uni amir Ismoil ibn Ahmad[ning o'zi] G'adovad darvozasi oldida kutib oldi. Bu sha'bon oyining 10-kuni

[1] *Abulfazl Muhammad ibn Ubaydulloh al-Bal'amiy* (vaf. 940-y.) – Somoniylar vaziri; uning o'g'li Abu Ali Muhammad ibn Muhammad al-Bal'amiy (vaf. 974-y.) ham Somoniy amirlari Abdulmalik va Al-Mansur davrida vazir bo'lib, Abu Ja'far at-Tabariyning mashhur tarixiy asarini arab tilidan fors tiliga tarjima qilgan.

[2] *Amr ibn al-Lays* – Safforiylar sulolasining ikkinchi hukmdori, 879 – 961-yillarda hukm surgan.

[3] *Al-Mu'tadid bi-lloh* – Abbosiylar sulolasining xalifasi, 892 – 902-yillarda hukm surgan.

[4] *Abulhaysam Xolid ibn Ahmad az-Zuhliy* – muhaddis olim va davlat arbobi; asli xuroson-lik; avval uzoq vaqt Hirot amiri bo'lgan, keyin Tohiriylarning eng so'nggi davrida Xuroson voliysi va Buxoro amiri bo'lgan. Buxoroda u 870-yilda muhaddislarning imomi Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga qarshi fitna uyushtirib, uni shahardan surgun qilgan. Shundan keyin u xalifa al-Mu'tamidning g'azabiga uchrab, davlat ishidan chetlatilgan va Xurosondagi Ya'qub ibn al-Lays qo'zg'oloniga borib qo'shilgan va 882 – 883-yilda vafot etgan.

@tarixchiz kutubxonasiga

(878-yil 17-aprel)da bo'lgan edi. Keyingi 265-yil muharram oyining oxiriga 10 kun qolganda (878-y., 22-sentabr) seshanba kuni u Samarqandni tark etib, Marvga yo'l oldi. 269 (882–883)-yilda Samarqandga yana kelib, hadis rivoyat qilgan.

(71 *b*) Ahmad ibn Muhammad ibn Homid ibn Nuaym ibn al-Fudayl ibn Sahl ibn Farruxon ibn Mohon ibn Bahrom ibn Mohavayh – [Mohavayh] Marv marzboni, [ya'ni] Marv va unga qarashli bo'lgan Xuroson viloyatlarining [islomgacha davrdagi] podshohi bo'lgan[1], – Abu Nasr ibn Abu Bakr al-Kotib al-Ishtadiy[2] – [bu esa] Nasafga [qarashli] qishloqlardan biri[3]. [Abu Nasrning] otasi Abu Bakr al-Amir al-Moziy Ismoil ibn Ahmadning vazirlar [devoni]ni to amirning vafotigacha, [keyin] al-Amir ash-Shahid Ahmad ibn Ismoilning vafotigacha, [keyin] al-Amir as-Said Nasr ibn Ahmad ibn Ismoilning [hukm surgan] davrida bir yil boshqargan. Abu Bakr 302-yil muharram [oyi]ning ashuro kuni (914-y., 27-iyul – 26-avgust) kechqurun vafot etgan. U [hammasi bo'lib] 20 yil va [bir necha] oy vazir bo'lgan va Somoniylar sulolasining amirlari uning vazirlik [xizmati] tufayli [odamlar]ning hurmatiga sazovor bo'lganlar, lashkarboshilar uni istar edilar, fuqarolar esa yaxshi boshqaruvi va [odobli] axloqi uchun uni maqtar edilar[4].

(527, № 978) Amir Abulhasan Foiq ibn Abdulloh al-Xossa al-Andalusiy[5] – amir Abu Muhammad Nuh ibn Nasrning[6] mavlosi. U Abu Ahmad Mu-

[1] *Mohavayh, Mofanox o'g'li, Fido o'g'li* – VII asr o'rtalarida Sosoniylar davlatiga qarashli Marv viloyatining marzboni, ya'ni hukmdori; asli turkiy bo'lgan. Sosoniylar sulolasining oxirgi podshohi Yazdigird III 30 (650–651)-yilda arablardan qochib Marvga kelganda, Mohavayh unga qarshi fitna uyushtirib, keyin o'ldirtirgan.

[2] Abu Mansur as-Saolibiyning ma'lumotiga ko'ra, u Abu Bakr ibn Homid al-Buxoriy amir Ismoil ibn Ahmadning kotibi va amir Ahmad ibn Ismoilning buyuk vazir Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Jayhoniy (914–922-yy.)dan oldingi vaziri bo'lgan (Saolibiy. Yatimat ad-dahr. B. 101, 397.).

[3] Abu Sa'd as-Sam'oniyning ma'lumotiga ko'ra, bu qishloq Utshund deb atalgan. Aftidan, an-Nasafiyning asarini qisqartirib yozgan Muhammad ibn Abduljalil as-Samarqandiy bu nomni ko'chirganda xatoga yo'l qo'ygan. Demak, olimning nisbasi ham al-Ishtadiy emas, balki al-Utshundiy deb o'qilishi kerak.

[4] Abu Sa'd as-Sam'oniyning ma'lumotiga ko'ra, Abu Bakr Muhammad ibn Homidning nabirasi va Abu Nasr Ahmad ibn Muhammadning o'g'li Abu-l-Muzaffar Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad al-Utshundiy an-Nasafiy Nasaf va Keshda pochta ishlariga mas'ul bo'lib, shu bilan birga hadis rivoyat qilgan.

[5] *Foiq al-Xossa* yoshligida amir Mansur ibn Nuh (961–976-yillarda hukm surgan)ning g'ulomi bo'lgan. Mansur unga tarbiya berib, voyaga yetganida unga «al-Xossa», ya'ni «Shohning shaxsiy xizmatkori», degan laqab bergan. Mansurning vafoti (976-yil)dan keyin taxtga uning kichik o'g'li Nuh ibn Mansur (976–997-yillarda hukm surgan) o'tirdi. Uning yoshi hali kichik bo'lgani tufayli, onasining topshirig'i bilan davlat ishlarini Foiq al-Xossa bilan hojib Tosh olib borganlar.

[6] *Al-Amir al-Homid Abu Muhammad Nuh ibn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoniy* 943–954-yillarda hukm surgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

hammad ibn Quraysh ibn Sulaymon, Abu Bakr ibn Abu Dorim al-Kufiy so'zlaridan, Makkada Abdulloh ibn Muhammad ibn Is'hoq al-Favokihiy Buxoroda al-Horisiy va Abu Hafs al-Ijliy so'zlaridan [hadis] rivoyat qilgan. Uning so'zlaridan Buxoro ahli va boshqa yurtliklar [hadis] rivoyat qilganlar. U Nasafga ikki marta al-Amir as-Sadid[1] bilan birga kelgan, Samarqandga 387-yil rabi' ul-avval oyining 6-kunida (997-y., 19-mart) shanba kuni voliy bo'lib kelgan. 389-yil ramazon oyining 13-kechasi (999-y., 28-avgust) dushanba kuniga o'tar kechasi Buxoroda vafot etgan.

ABU SA'D AS-SAM'ONIY VA UNING «KITOB AL-ANSOB» ASARI HAQIDA

Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur at-Tamimiy as-Sam'oniy 506 (1113)-yilda Marv shahrida mashhur as-Sam'oniylar oilasida dunyoga kelgan. Uning deyarli barcha ajdodlari islom dunyosida taniqli ulamolardan bo'lib, hadis, fiqh, adab, tarix va boshqa fanlar sohasida faoliyat ko'rsatganlar. U o'zining ajdodlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirgan.

Abu Sa'd as-Sam'oniy yoshligida ota-onasidan judo bo'lib, avval otasining do'sti, keyin o'zining amakilari qo'lida tarbiyalandi. U yoshligidan ilmiy muhit ichida o'sgani uchun yaxshi ma'lumotga ega bo'ldi, voyaga yetgandan keyin esa ilmiy maqsadda ko'p sayohat qilgan. U 529 (1135)-yilda ilk safariga chiqib, avval Nishopurga, keyin Bag'dodga keladi. Bag'dodda u 8 yil yashab, bu yerdan Kufa, Basra, Quddus, Damashq, Hamadon, Ray, Tus kabi shaharlarga safar qilgan, ikki marta haj vazifasini ado etgan. U qayerga bormasin, hamma yerda olimlar bilan uchrashib, ulardan hadis, fiqh va boshqa sohalardagi bilimlarni olib, o'zining kelajak ilmiy ishlari uchun materiallar to'plagan. 538 (1143–1144)-yilda u Marvga qaytib kelib uylanadi va Marvdagi as-Sam'oniylar oilasiga qarashli al-Amidiya (yoki al-Ahmadiya) madrasasida dars beradi. U keyingi yillarda ham ko'p ilmiy safarlarga chiqib, asosan, Xuroson va Movarounnahr shaharlariga boradi. Xususan, u 548 (1153)-yilda Buxoro va Samarqandda, 549 (1154)-yilda Xorazmda, 550 (1155)-yilda yana Samarqandda, shu yili ikki oy Nasafda, 12 kun Termizda, 551 (1156)-yilda Buxoroda, Keshda bo'lgan.

Abu Sa'd as-Sam'oniy hadis, fiqh, adab, arab tilshunosligi, tarix va geografiya sohalarida hammasi bo'lib 50 dan ortiq ilmiy asarlar yaratgan. Uning asarlari ichida O'zbekiston tarixi uchun eng qimmatlisi sakkiz jilddan iborat «Kitob al-ansob» («Nasl-nasablar kitobi») asaridir. Bizgacha

[1] *Al-Amir as-Sadid* – arab tilida «mulohazali amir» demakdir. Bu – Abu Solih Mansur ibn Nuh ibn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoniyning (961–976-yy. hukm surgan) laqabi bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

«Kitob al-ansob»ning 6 ta qo'lyozma nusxasi yetib kelgan bo'lib, ulardan ikkitasi Istanbulda, qolganlari esa Parij, Damashq, Haydarobod va Sankt-Peterburg shaharlaridagi qo'lyozma xazinalarida saqlanib kelinmoqda. Asarning Britaniya muzeyida saqlanayotgan nusxasi 1912-yilda faksimile shaklida Londonda D.S. Margolius tomonidan nashr qilingan. Asarning barcha mavjud qo'lyozma nusxalarini o'z ichiga olgan tanqidiy matni ilk bor 1956-yilda Haydarobodda, 1981-yilda esa qayta ishlangan va to'ldirilgan holda Bayrutda Abdurahmon ibn Yahyo al-Muallimiy al-Yamoniy tomonidan nashr qilingan.

Sakkiz katta qo'lyozma jilddan iborat bo'lgan bu ulkan asar biografik adabiyot turiga mansub bo'lib, unda o'sha davrda ma'lum bo'lgan barcha nisbalar, ya'ni odamlarning nasl-nasabini bildiruvchi ismlar yig'ilgan va arab alifbosi tartibida berilgan. Har bir nisba haqida so'z yuritilganda, uning aniq yozilishi, qaysi joyning nomidan, odamning ismi, laqabi, taxallusi yoki kasbidan kelib chiqishi, keyin esa shu nisba bilan mashhur bo'lgan olimlar va boshqa taniqli shaxslar haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. «Kitob al-ansob» asarida keltirilgan ma'lumotlarning ko'p qismi original xarakterga ega, chunki muallif o'zining davrida sodir bo'lgan va o'zi shaxsan ko'rgan voqealar va joylar haqida so'z yuritgan. Undan tashqari, asarning muhimligi yana shundaki, unda foydalanilgan ko'p yozma manbalar bizgacha yetib kelmagan va faqat shu asar tufayli ma'lumdir.

Asarga kiritilgan materiallar hududiy jihatdan o'sha davrdagi butun islom mamlakatlarini, davr jihatdan esa eng qadimgi vaqtlardan muallif yashagan vaqt, ya'ni XII asr o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu asar, asosan, biografik xarakterga ega bo'lsa ham, unda Sharq mamlakatlari, xususan, O'zbekiston tarixi va ayniqsa, tarixiy geografiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud. Xususan, «Kitob al-ansob» asarida O'zbekiston shaharlari va qishloqlari, ularning joylashuvi, topografiyasi, sodir bo'lgan ayrim tarixiy voqealar, davlat arboblari va boshqa tarixiy shaxslar, shuningdek, olimlar, tarixchilar, adiblar, shoirlar, imomlar, muhaddislar, faqihlar va sufiylar haqida qiziqarli va batafsil ma'lumotlar berilgan. Quyida biz asardagi O'zbekiston tarixiy geografiyasiga oid mingga yaqin joy nomlari haqidagi ma'lumotlardan faqat ayrim parchalarini keltiramiz. Tarjima «Kitob al-ansob»ning Abdurahmon ibn Yahyo al-Muallimiy al-Yamoniy tomonidan 1981-yilda Bayrutda nashr qilingan tanqidiy matn (I, 103, ya'ni 1-jild, 103-bet va h.k.) hamda Britaniya muzeyi qo'lyozmasining D.S. Margolius tomonidan 1912-yilda Londonda nashr qilingan faksimile nashri (498 *a* va h.k.) asosida amalga oshirilgan. Joy nomlari asarda keltirilgan tartibda, ya'ni arab alifbosi tartibida berildi. Qavs ichida nomlar asosida tuzilgan nisbalar, keyin esa shu joy haqida as-Sam'oniy keltirgan ma'lumotlar berildi (Arab tilidan Sh.S. Kamoliddin tarjimasi).

Sh.S. Kamoliddin

@tarixchi_kutubxonasiga

ABU SA'D AS-SAM'ONIYNING «KITOB AL-ANSOB» ASARIDAN LAVHALAR

I, 103. **AFRON** yoki OFURON (al-Ofuroniy yoki al-Afroniy) – Nasafdagi qishloq, [shahar]dan bir farsax [masofa]da[1].

I, 120. **ABG'AR** (al-Abg'ariy) – Samarqandga qarashli tuman[2], unda qishloqlar bir-biriga ulanib ketgan.

I, 131. **UTSHUND** (al-Utshundiy) – Nasaf tumanlaridan[3] biridagi qishloq.

I, 153. **AXSIKAS** (al-Axsikasiy) – Farg'onadagi shahar, eng ko'rkam va chiroyli shaharlardan[4].

I, 171. **ARBINJAN** yoki RABINJAN (al-Arbinjaniy yoki al-Arbinjiy – Samarqand Sug'didagi kichkina shaharcha. Men unda Buxorodan Samarqandga ketayotganimda, bir kun turib, u yerning xatibidan hadis tingladim[5].

I, 176. **URUXS** (al-Uruxsiy yoki ar-Ruxsiy) – Samarqandga qarashli Shovzor tumanidagi qishloq, tog'lar etagida shahardan to'rt farsax [masofa] da joylashgan.

I, 188. **ARFUD** (al-Arfudiy) – Karminaga qarashli qishloq, unga yaqin joylashgan.

I, 211. **ISBISKAS** (al-Isbiskasiy) – Samarqanddan ikki farsax [masofa] dagi qishloq[6].

I, 213. **ISTO** (al-Istoniy) – Samarqandga tegishli qishloq, undan uch farsax [masofa]da.

I, 219. **USTUG'DODIZA** (al-Ustug'dodiziy) – Nasafga qarashli qishloq, [shahar]dan to'rt farsax [masofa]da. Men unda Buxoroga Nasafdan ketayotganimda to'xtab o'tdim.

---

[1] *Farsax* – arabcha atama, o'rta asrlarda islom mamlakatlarida ishlatilgan uzunlik o'lcham birligi. Bir farsax taxminan 6–7 km ga teng. Afron qishlog'i Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi Shulluktepa shahar xarobalari (qadimgi Nasaf)dan 14 km masofada joylashgan Abron qishlog'i yonidagi Xaybartepa yoki Shahr-i Xaybar xarobalari o'rnida bo'lgan (Кабанов. Нахшеб. – С. 38).

[2] *Matnda: «nohiya»* – arabcha atama, shahardan tashqarida joylashgan yerlardagi ma'muriy hududiy birlikni anglatadi, ma'nosi jihatdan hozir bizda ishlatiladigan tuman atamasiga to'g'ri keladi.

[3] *Matnda: «amal»* – arabcha atama, bu ham shahardan tashqarida joylashgan yerlardagi ma'muriy hududiy birlik, nohiyadan kichikroq. Bir nohiya bir necha amallardan iborat bo'lishi mumkin.

[4] Uning xarobalari Namangan shahridan 20 km janubi-sharqda Shaxand va Eski Axsi qishloqlari yonida Kosonsoyning Sirdaryoga quyilish yerida joylashgan.

[5] Bu shaharning xarobalari Kattaqo'rg'ondan g'arbdagi Zirabuloq tepalari yonida, Narpay kanali bo'yida joylashgan (Буряков. Археологическое исследование. – С. 155).

[6] Bu qishloq Afrosiyob xarobalaridan shimoli-g'arbda Kunduz-Safi va O'zbek-Kenti qishloqlari yonida joylashgan (Беленицкий. Средневековый город. – С. 228).

@tarixchi_kutubxonasiga

I, 232. **USRUSHANA** (al-Usrushaniy) – katta shaharcha, Samarqandning narigi tomonida Sayhun daryosidan pastda joylashgan; uning nomiga «t» harfi qo'shilib, Usrushanta (al-Usrushantiy) deb aytilishi ham mumkin, lekin birinchisi to'g'riroqdir[1].

I, 239. **ISFARANJ** (al-Isfaranjiy) – Sug'd qishloqlaridan, [u esa] Samarqand tumanlaridan.

I, 243. **ISKORAN** (al-Iskoraniy) – Samarqand Sug'didagi qishloqlardan, ad-Dabusiya yaqinida, undan bir farsax yoki ikki farsax [masofa]da, u esa Kushaniyaga qarashli qishloqlardan.

I, 255. **USMAND** (al-Usmandiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan[2].

I, 256. **ISMISAN** (al-Ismisaniy) – al-Kushaniyaga qarashli qishloqlardan.

I, 265. **USHTOBDIZA** (al-Ushtobdizakiy) – Bobdastonga tutashgan mahalla, u esa Samarqand devori yonida joylashgan katta mahalla[3].

I, 268. **ISHTIXAN** (al-Ishtixaniy) – Samarqand Sug'didagi shaharcha yoki qishloq, [shahar]dan yetti farsax [masofa]da[4].

I, 278. **USHMIYUN** (al-Ushmiyuniy) – Buxoroga qarashli qishloq; yana aytishlaricha, u [shahar]dagi mahallalardan biridir.

I, 320. **AG'ZUN** yoki AG'DUN (al-Ag'zuniy yoki al-Ag'duniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

I, 326. **AFRAXSH** yoki FARAXSHA (al-Afraxshiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, uning nomini soddalashtirib Faraxsha deb ataydilar, lekin aslida esa – Afraxsha, u [shahar]dan to'rt farsax [masofa]da[5].

I, 329. **AFSHAVON** (al-Afshavoniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, [shahar]dan to'rt farsax [masofa]da.

I, 348. **AMDIZA** (al-Amdiziy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

I, 357. **ANBARDUVON** (al-Anbarduvoniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

---

[1] Aslida bu nomning ikkinchi shaklida «t» harfi «n»dan keyin emas, «s»dan keyin qo'shilib, Ustrushana deb o'qilgan. Lekin Usrushana viloyatida bunday nomli shahar bo'lmagan. Balki Usrushananing poytaxti Bunjikas shahri shu nom bilan atalgan bo'lishi ham mumkin. Arab tilidagi adabiyotlarda ma'muriy markaz shaharlar o'zining nomidan tashqari, ko'pincha, butun viloyat yoki mamlakat nomi bilan ham atalgan.

[2] Samarqanddan sharqda, Jizzax viloyatining janubi-g'arbiy qismida hozir ham Usmat nomli qishloq mavjud.

[3] Ushtobdiza nomining tarkibida «ushtob» so'zining mavjudligi, bu mahallada islomgacha buddaviylarning ibodatxonasi bo'lganligidan dalolat beradi («ushtob» so'zi sanskritdagi «stupa» so'zining arabchalashgan shaklidir).

[4] Ishtixan hozirgacha o'zining qadimiy nomini saqlab qolgan. Samarqand viloyatida hozir ham Ishtixon tumani bor, uning shu nomli tuman markazi Samarqanddan 68 km shimoli-g'arbda joylashgan. Qadimgi Ishtixan xarobalari uning yaqinidan oqib o'tadigan Oqdaryoning janubiy qirg'og'ida joylashgan.

[5] *Faraxsha so'ziga qarang.*

@tarixiy_kutubxonasiga

I, 358. **ANJOFIRIN** (al-Anjofiriniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

I, 359. **ANJUFORIN** (al-Anjuforiniy) – Buxoro [shahri]ga yaqin joylashgan qishloq.

I, 361. **ANDADO** (al-Andadiy) – Nasafga qarashli qishloqlardan.

I, 363. **ANDAKO** (al-Andakiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, [shahardan] o'n farsax [masofa]da.

I, 364. **ANDUKON** (al-Andukoniy) – Farg'onaga qarashli qishloqlardan[1].

I, 367. **ANSHAMISAN** (al-Anshamisaniy) – Nasafga qarashli qishloqlardan.

I, 377. **ANISUN** (al-Anisuniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

I, 380. **AUDANA** (al-Audaniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, Xutfar tumanida, u esa o'sha tumandagi daryodir.

I, 396. **IBSAN** (al-Ibsaniy) – Nasafdagi qishloq, [shahardan] bir farsax [masofa]da[2].

I, 399. **IZAJ** (al-Izajiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan, Shovzor tumanida, tog' bag'rida.

I, 403. **IZUX** (al-Izuxiy) – Samarqanddan uch farsax [masofa]dagi qishloq, Shovzor tog'i yaqinida[3].

I, 406. **ILOQ** (al-Iloqiy) – Shosh mamlakatining turklar bilan qo'shni bo'lgan qismi, Shoshdan o'n farsax masofada joylashgan; bu tuman[dan] Navbaxt chegarasi orqali Farg'onaga [o'tiladi]; u yerga borgan odamlar aytadilarki, ular undan chiroyli va ko'rkam mamlakatni ko'rmaganlar; uning daryodan sug'oriladigan [yerlari]ning kengligi taxminan ikki farsaxga yaqindir; uning tog'larida oltin va kumush bor; uning qishloqlari va imoratlari suv bilan to'xtovsiz [ta'minlangan] va yam-yashildir; u yerdan bir qator imomlar [yetishib] chiqqan[4].

II, 8. **BOBDASTON** (al-Bobdastoniy) – Samarqand [shahrida]gi mashhur mahalla; men shu mahalladan chiqqan bir shayxdan hadis tinglaganman[5].

---

[1] Hozirgi Andijon shahri o'rnida joylashgan bu qishloq XIII asrda shaharga aylanib, keyinchalik XVIII asrga qadar butun Farg'ona vodiysining poytaxti bo'lgan.

[2] Bu qishloqdan muhaddis olim Abu-l-Muin Maymun ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Ibsaniy (XII asr) chiqqan; mozori hozirgi Qavchin qishlog'ida joylashgan bo'lib, odamlar uni hali ham e'zozlab, ziyorat qiladilar. Bundan xulosa qilish mumkinki, Ibsan qishlog'i Qavchin o'rnida yoki uning yon-atroflarida joylashgan bo'lishi mumkin.

[3] Uning xarobalari Mol-Amir qishlog'i yonida joylashgan. (Бартольд. К истории орошения. – С. 180).

[4] Iloq viloyati o'rta asrlarda Shoshga qarashli bo'lib, unda 13 ta katta-kichik shaharcha va qishloqlar bo'lgan. U Toshkent vohasi bilan Farg'ona vodiysi o'rtasidagi Ohangaron vodiysida joylashgan. Uning nomi Imloq shaklida saqlanib qolgan; hozir Olmaliq shahridan 15 km shimoliy-sharqda joylashgan shahar xarobalari shunday deb ataladi. (Массон. Ахангаран. – С. 70–71).

[5] Bobdaston mahallasida X asr boshlarida Sug'd ixshidi G'urakning avlodlari istiqomat qilganlar. Bundan xulosa qilish mumkinki, bu mahalla islomgacha ham mavjud bo'lib, hozirgi Afrosiyob xarobalari ichida joylashgan bo'lishi kerak.

@tarixchi_kutubxonasiga

II, 11. **BOBISH** (al-Bobishiy) – mening fikrimcha, bu Buxoroga qarashli qishloqlardan.

II, 12. **BOB KISS** (al-Bobkissiy) – Samarqand [shahri]dagi chiroyli mahalla; men unga bir necha marta borganman; uni ajam tilida Darvoza-i Kiss deb ataydilar[1].

II, 15. **BOBA** (al-Bobiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

II, 16. **BOBA** (al-Bobiy) – Buxoro rustoq[2] [laridan biri]dagi qishloq.

II, 23. **BODAN** (al-Bodaniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

II, 28. **BORDIZA** (al-Bordiziy) – Buxoro [shahri]ga yaqin joylashgan qishloq.

II, 29. **BORISKAS** (al-Boriskasiy) – Shoshga qarashli shaharlardan.

II, 32. **BORKAS** (al-Borkasiy) – Usrushanaga qarashli qishloqlardan, keyin Samarqand [tasarrufi]ga o'tib qolgan.

II, 47. **BOF** (al-Bofiy) – Xorazmga qarashli qishloqlardan.

II, 62. **BONAB** (al-Bonabiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

II, 69. **BOYON** (al-Boyoniy) – Nasaf [shahri]dagi ko'cha; u mashhur mahalladir, unda Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy yashagan; men u yerga maxsus borib, u yerdagi Al-Buxoriy namoz o'qigan masjidda namoz o'qidim; u yerdan bir qator olimlar chiqqan.

II, 73. **BATXUDON** yoki BUTXAZON (al-Batxudoniy yoki al-Butxazoniy) – Nasafga qarashli qishloqlardan, [shahar]ga yaqin. G'ubdin rustoqida[3].

II, 76. **BUTANIN** (al-Butaniniy) – Samarqand Sug'didagi qishloqlardan, ad-Dabusiya tumanida.

II, 77. **BUTAYTIN** (al-Butaytiniy) – ad-Dabusiyaga qarashli qishloqlardan biri, undan yarim farsax masofada, Sug'd qishloqlaridan, u Arbinjan va ad-Dabusiya orasida joylashgan.

II, 100. **BUXORO** (al-Buxoriy) – Movarounnahrdagi mashhur shahar, bu [shahar]dan har bir fan sohasida juda ko'p olimlar yetishib chiqqan. Uning tarixini Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Sulaymon al-G'unjor al-Hofiz al-Buxoriy tasnif etgan va u bu [soha]dagi eng yaxshi [asardir][4].

---

[1] Bob Kiss arabchada «Kesh darvozasi» degan ma'noni anglatadi. Samarqandning Kesh darvozasi Afrosiyob qal'a devorining janubiy qismida joylashgan bo'lib, u orqali ichki shahardan tashqi shaharga yoki rabadga chiqilgan. Samarqand shahrini suv bilan ta'minlab turgan katta kanal ham Kesh darvozasi orqali ichki shaharga sun'iy quvurlar orqali kiritilgan.

[2] *Matnda: «rustoq»* – forscha atama, shahardan tashqarida joylashgan yerlardagi ma'muriy hududiy birlikni anglatadi. Ma'nosi jihatdan arabcha «nohiya» va o'zbekcha «tuman» so'zlariga to'g'ri keladi.

[3] Boshqa joyda (IX, 310) Butxazon shaklida berilgan. Bu nomning tarkibida *«but»* so'zining mavjud bo'lgani uchun islomgacha bu yerda buddaviy ibodatxona bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin.

[4] Bu olim 1021-yilda vafot etgan; uning arab tilida yozilgan «Buxoro tarixi» asari bizgacha yetib kelmagan, lekin undan olingan parchalar keyingi asrlarda yashagan tarixchilarning, shu jumladan, Abu Sa'd as-Sam'oniyning asarlarida ko'plab uchratish mumkin.

@tarixchi_kutubxonasiga

II, 107. **BADYONA** yoki TADYONA (al-Badyoniy yoki at-Tadyoniy) – Nasafga qarashli qishloqlardan[1].

II, 114. **BAZIXUN** (al-Bazixuniy) – Buxoroga [qarashli] qishloq, [shahar]dan to'rt farsax [masofa]da, men bu qishloqqa Surmoro [qishlog'i] dan Ahmad ibn Is'hoq as-Surmoriyning [mozori]ni ziyorat qilib, Mug'kon [qishlog'i]ga qaytayotganimda kirib o'tganman, bu qishloq Mug'konga yaqin. Qadimda u hadis as'hoblariga qarashli bo'lgan, [hozir esa] u Abu Hanifa as'hoblariga qarashli bo'lib qolgan va unda bizning as'hoblarimizdan juda kam odam qolgan.

II, 121. **BAROKAD** yoki BAROKADI (al-Barokadiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

II, 122. **BARRONI** yoki FARRONI (al-Barroniy) – Buxoroga qarashli qishloq, [shahar]dan besh farsax [masofa]da, men unda bir kecha tunaganman.

II, 135. **BARDOD** (al-Bardodiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan biri, [shahar]dan uch farsax [masofa]da, Ishtixan yo'lida.

II, 153. **BARSUXON** (al-Barsaxiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan biri, Buxorodan ikki farsax masofada joylashgan, men unda al-Barroniyadan ketayotganimda, bir soatga to'xtab o'tganman. Bu [qishloq]dan chiqqan mashhur kishilardan Abu Bakr Mansur al-Barsaxiy, «Buxoro tarixi»ning muallifi va uning o'g'li Abu Rafi' al-Alo ibn Mansur al-Barsaxiy, u imom ash-Shofi'iy mazhabida edi[2].

II, 156. **BARFAXSH** (al-Barfaxshiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

II, 156. **BARQON** (al-Barqoniy) – Kosga qarashli qishloqlardan, Xorazm tumanlaridan birida, uning aksariyat qismi xarobaga aylanib, [yerlari] dala bo'lib qolgan.

II, 161. **BARAQ** (al-Baraqiy) – Xorazmdagi katta bir oila, uning a'zolari Buxoroga ko'chib o'tib, u yerda qolib ketganlar; «baraq» so'zi forschada «barax», ya'ni [qo'chqorning bolasi] degan ma'noni anglatadi; uning ota-bobolaridan biri qo'zichoqlarni sotish bilan shug'ullangan va bu forscha so'z arablashgan.

II, 163. **BARKAD** (al-Barkadiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan[3].

---

[1] Bu qishloqning nomi Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi Pudina yoki Fudina qishlog'i nomida bizgacha saqlanib kelgan. U yerda X – XVI asrlarga mansub Husamota nomli o'rta asr mavzoleylari majmuasi bor (Манковская. О типологии. – С. 98 – 99).

[2] Bu yerda Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning «Buxoro tarixi» haqida so'z yuritilgan. Abu Bakr Mansur al-Barsaxiy nisbasi aslida «Narshaxiy» deb o'qilishi kerak. Abu Hafs an-Nasafiyning «Kitob al-Qand» asarida keltirilgan ma'lumotga ko'ra, u Abu Bakr Narshaxiyning o'g'li bo'lgan va ehtimol, uning asarini yozishda davom etgan (Камалиддинов. К биографии. – С. 112 – 113).

[3] Abu Bakr Narshaxiyning ma'lumotiga ko'ra, bu qadimiy qishloqda Barkad-i 'Alaviyon nomli qal'a bo'lgan; uni amir Ismoil ibn Ahmad as-Somoniy sotib olib, 'Alaviylar avlodlarining foydasiga vaqfga aylantirgan. XX asr boshlarida Buxorodan 27 – 30 km masofada Gazli yo'lida Barkad (Parkad) qishlog'i qayd etilgan (Бухарский вакф XIII века. – С. 53, 85).

@tarixchi_kutubxonasiga

II, 188. **BAZDA** (al-Bazdaviy) – Nasafdan olti farsax [masofa]da Buxoro yo'lida joylashgan mustahkam qal'a[1].

II, 193. **BAZDA** (al-Bazdiy) – Nasafning amallaridan, u esa Movarounnahr shaharlaridan[2].

II, 196. **BUZG'OM** (al-Buzg'omiy) – Nasafga qarashli qishloqlardan.

II, 205. **BASBA** (al-Basbiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

II, 217. **BASKOYIR** (al-Baskayiriy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

II, 219. **BISKAT** (al-Biskatiy) – Shoshdagi qishloqlardan, u mashhurdir[3].

II, 224. **BASHTON** (al-Bashtoniy) – Nasafga qarashli qishloqlardan; u yerdan bir qator olimlar [yetishib] chiqqan[4].

II, 271. **BAKIBUN** (al-Bakibuniy) – [Baykand]ga qarashli qishloq.

II, 304. **BAMIJKAS** (al-Bamijkasiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan[5].

II, 308. **BANJXIN** (al-Banjxiniy) – Samarqand [shahri]dagi katta mahallalardan, men unga bir necha marta borganman, undan bir qator muhaddislar chiqqan.

II, 315. **BANDIMASH** (al-Bandimashiy) – mening fikrimcha, bu Samarqandga qarashli qishloqlardan.

II, 317. **BINKAT** (al-Binkatiy) – Ishtixan tumanidagi qishloq, u esa Samarqand Sug'dida joylashgan.

II, 317. **BINKAS** (al-Binkasiy) – Shoshning bosh shahri (qasaba)[6].

II, 328. **BURNAMAZ** (al-Burnamaziy) – Samarqand tumanlaridan biridagi qishloq, [shahar] bilan Usrushana o'rtasida[7].

II, 324. **BUG'** (al-Bug'iy) – Termizga qarashli qishloqlardan biri, [shahar] dan olti farsax masofada joylashgan[8].

---

[1] Bazda yoki Pazda qal'asining xarobalari Qashqadaryo viloyatidagi Qavchin qishlog'idan janubda joylashgan bo'lib, hozir Ko'hna Fazli deb ataladi. (Лунина. Города. – С. 24).

[2] Bu oldingi shaharning o'zi.

[3] U Toshkentdan 40 km janubda Pskent shahridan janubdagi Pushti Mahmud xarobalari o'rnida joylashgan (Массон. Ахангеран. – С. 65).

[4] Uning xarobalari Qarshidan 20 km masofadagi Pashton qishlog'idan 1 km g'arbda joylashgan bo'lib, Kattaqo'rg'ontepa yoki Pashtontepa deb ataladi (Кочнев. Работы. – С. 554).

[5] Bamijkas VIII asrda Muqanna qo'zg'oloni tarafdorlarining tayanch markazlaridan biri bo'lgan. U Vobkentdan 5 km janubi-sharqda Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'ida 3 – 4 km masofada Shohrud kanalining boshlanish yerida joylashgan (Беленский. Средневековый город. – С. 185).

[6] O'rta asrlarda Shosh viloyatining poytaxti bo'lgan Binkas yoki Binkat shahri hozirgi Toshkentning Shayxontohur tumanidagi Hamza va Navoiy nomidagi ko'chalar hamda Chorsu va Eski Juva oralig'ida joylashgan (Буряков. Археологические памятники. – С. 44).

[7] Uning xarobalari Kattaqo'rg'ondan 6 – 7 km shimolda Yangi temir yo'l bekatidan janubda, Qoradaryodan janubda Narpay kanalining yaqinida, Zomin yo'lida joylashgan (Негматов. Государство Саманидов. – С. 40).

[8] Uning xarobalari Termizdan 30 km shimoli-g'arbda Sherobod yo'lida joylashgan Kulaglitepa o'rnida bo'lgan, degan taxmin ham bor (Камалиддинов. Историческая география. – С. 131 – 132).

@tarixchi_kutubxonasiga

II, 360. **BAYDARA** (al-Baydariy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

II, 361. **BIRMAS** (al-Birmasiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

II, 363. **BERUN** (al-Beruniy) – Xorazm [shahar]dan tashqarida [joylashgan mahallalar]; u yerda kim shahardan tashqarida yashasa va uning o'zidan bo'lmasa, uni: *fulan beruni hast*, ularning tilida esa *anbizak hast* deb ataydilar; bu nisba bilan Abu Rayhon al-Beruniy mashhurdir[1].

II, 373. **BAYFORIN** (al-Bayforiniy) – [Buxoroga] qarashli qishloqlardan.

II, 373. **BAYKAND** (al-Baykandiy) – Movarounnahr shaharlaridan, Buxorodan bir marhala masofada daryoni kechib o'tgandan keyin joylashgan; u fath urushlarida zikr etilgan; [avval] u chiroyli, katta va olimlari ko'p shaharcha bo'lgan, hozir esa xarobaga aylangan; men u yerga shahidlarni ziyorat qilishga borganimda, uning rabotida istiqomat qiluvchi bir necha turkmanlardan boshqa hech kimni uchratmadim. U yerdan bir qator olimlar chiqqan. Eshitishimcha, [oldin] u yerda g'oziylarga qarashli uch mingta rabot bo'lgan, men u yerda ularning xarobalari va yo'qolib ketgan qoldiqlarini ko'rdim[2].

III, 11. **TOZAN** (at-Tozaniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

III, 11. **TODIZA** (al-Todiziy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

III, 20. **TUBON** (at-Tuboniy) – Subax yonidagi qishloq, Xuzor tumanida, [u esa] Movarounnahr shaharlaridan.

III, 28. **TAXSONJKAS** (at-Taxsonjkasiy) – Samarqand Sug'didagi qishloqlardan.

III, 29. **TAXSIJA** (at-Taxsijiy) – Samarqanddan besh farsax [masofa]da joylashgan [qishloq], Abgar tumanida.

III, 37. **TAROXI** (at-Taroxiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

III, 37. **TURBON** (at-Turboniy) – Farankadga qarashli qishloqlardan, Samarqanddan besh farsax [masofa]da, Samarqandning Sug'd nohiyasida.

III, 44. **TIRMIZ**, TARMIZ yoki TURMIZ (at-Tirmiziy) – qadimgi shahar, Jayhun deb ataladigan Balx daryosining bo'yida. U yerdan juda ko'p olimlar, mashoyixlar va fuzalolar [yetishib] chiqqan; odamlar bu nisbaning talaffuzini turlicha aytadilar: ba'zilar *Tarmiz* deydilar, ba'zilar – *Turmiz*, yana ba'zilar esa *Tirmiz* deydilar; bu shaharcha aholisining tilida ishlatiladigani – men [esa] bu [shahar]da o'n ikki kun turganman – *Tarmizdir*; biz avvaldan bilganimiz esa *Tirmiz* edi, boshqa eshitganlar va bilganlar [esa] *Turmiz* deydilar; har birlari u haqda gapirganda, [o'zgacha] ma'nosini aytadilar[3].

---

[1] Bu yerda Xorazm shahri deganda, uning islomgacha bo'lgan poytaxti Kos yoki Kot shahri nazarda tutilgan.

[2] Baykand yoki Paykand xarobalari Buxorodan 35 km janubi-g'arbda Yakkatut temir yo'l bekati yonida joylashgan bo'lib, hozir Paykand-i Ko'hna deb ataladi (Зимин. Развалины Пайкенда. – С. 62).

[3] Eski Termiz xarobalari hozirgi Termiz shahridan 8 km masofada Amudaryo bo'yida joylashgan bo'lib, qal'a devorlari bilan o'ralgan qismi 500 ga, hammasi bo'lib esa 1000 ga maydonni egallaydi (Массон. Городища. – С. 88 – 95).

@tarixchi_kutubxonasiga

III, 48. **TURNOVAZ** (at-Turnovaziy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan biri.

III, 88. **TUNKAT** (at-Tunkatiy) – Shosh shaharlaridan biri, Jayhun va Sayhun daryo[lar]ining narigi tomonida. U yerdan bir qator ilm ahllari [yetishib] chiqqan.

III, 99. **TUBAN** (at-Tubaniy) – Nasafga qarashli qishloqlardan.

III, 102. **TUZIJ** (at-Tuzijiy) – ar-Ruzbar tumanlaridan biridagi qishloq, Sayhun daryosining narigi tomonida.

III, 102. **TUZ** (at-Tuziy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan, [shahar] dan uch farsax [masofa]da, Vozor yonida.

III, 105. **TUSKOS** (at-Tuskosiy) – Samarqanddan bir farsax [masofa]da joylashgan [qishloq].

III, 108. **TUNKAS** (at-Tunkasiy) – Shoshga qarashli qishloqlardan[1].

III, 113. **TIM** (at-Timakiy) – Samarqand [shahar bozori]da «karbas» matosi sotuvchilar qatoridagi «xon».

III, 154. **JOJAN** (al-Jojaniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

III, 164. **JOKARDIZA** (al-Jokardiziy) – Samarqand mahallalaridan biri, unda yuqori tabaqa odamlari va olimlar [dafn etiladigan] katta va mashhur qabriston bor[2].

III, 192. **JIJOR** yoki SIJOR (al-Jijoriy) – Nurga qarashli qishloqlardan, [u esa] Buxoro tumanlaridan.

III, 196. **JAXZAN** (al-Jaxzaniy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan, [shahar]dan uch farsax [masofa]da[3].

III, 206. **JADID** (al-Jadidiy) – Buxoro [shahri]dagi ko'cha.

III, 345. **JAVBAQ** (al-Javbaqiy) – Nasaf [shahri]dagi bir joy; mening fikrimcha, bu odamlar yig'iladigan «xon»ga o'xshash joydir.

III, 384. **JUVIK** (al-Juvikiy) – Nasaf [shahri]dagi ko'chalardan.

III, 407. **JIROXISHT** (al-Jiroxishtiy) – Buxoroga qarashli qishloq.

---

[1] Boshqa manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, Tunkas Shoshga qarashli bo'lgan. Iloq viloyatining poytaxti bo'lgan. Uning xarobalari Olmaliqdan 15 km shimoliy-sharqda, Ohangaron daryosining chap qirg'og'ida joylashgan bo'lib, hozir Imloq deb ataladi (Массон. Ахангеран. – С. 70).

[2] Bu qabriston Afrosiyob xarobalaridan janubda joylashgan bo'lib, unda Muhammad payg'ambarning as'hoblaridan bo'lgan Qusam ibn al-Abbos dafn etilgan. Keyinchalik, bu yerda Samarqand shahrining eng mashhur odamlari dafn etiladigan bo'lgan. Xususan, bu yerda IX asrda vafot etgan mashhur shayx Abu Mansur al-Moturidiyning mozori mashhurdir (История Самарканда. – С. 285).

[3] Bu qishloqda yashagan Abulhasan A'yan ibn Ja'far al-Jaxzaniy ismli bir shayx Kash yo'lida rabot qurdirib, uning foydasiga vaqf yerlari in'om etgan. Bu ma'lumotdan ko'rinadiki, bu qishloq Samarqand – Kesh yo'lida, ehtimol, Taxtiqoracha dovoni oldida joylashgan bo'lishi mumkin.

@tarixnikutubxonasiga

V, 9. **XOXSAR** (al-Xoxsariy) – Darg'omga qarashli qishloqlardan, [u esa] Samarqanddan ikki farsax [masofa]da joylashgan tumandir, men unga kirmaganman, [lekin] unga yaqin joydan o'tganman.

V, 33. **XOVAS** (al-Xovasiy) – Usrushana tumanlaridan, [u esa] al-Mashriq mamlakatlaridan, Jayhun va Sayhun daryolari orasida. U yerdan bir qator ulamolar va zohidlar [yetishib] chiqqan; men Samarqandda bo'lgan vaqtda u yerda Az-Zohid al-Xovasiy ismli bir faqih bor edi[1].

V, 33. **XOVUS** (al-Xovusiy) – Samarqanddan yuqorida joylashgan shaharcha.

V, 52. **XUJODI** (al-Xujodi) – Buxoro [yaqini]dagi katta qishloq, as'hoblarga qarashli, unda jome masjidi bor.

V, 55. **XUDOBOZ** (al-Xudoboziy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, [shahardan] besh farsax [masofa]da cho'l tarafda; u eng asosiy qishloqlardan; u yerdan bir qator ulamolar [yetishib] chiqqan.

V, 59. **XUDFIRON** (al-Xudfironiy) – Samarqand [yaqini]dagi Sug'dga qarashli qishloqlardan.

V, 61. **XUDISAR** (al-Xudisariy) – Samarqand [viloyati] chegarasida Usrushana tumanida joylashgan [qishloq].

V, 61. **XUDIMANKAN** (al-Xudimankaniy) – Karminaga qarashli qishloqlardan biri, undan ikki farsax masofada joylashgan, hadis as'hoblariga qaraydi, unda jome masjidi va minbar bor; men bu qishloqdan kelgan bir solih kishini ko'rganman, u mening oldimga, Samarqandga, ko'rishish uchun kelib, menga aytdiki: men sizlarning as'hoblaringizga qarashli qishloqdanman va u menga u qishloqning holi haqida gapirib berdi; bu [qishloqdan] bir qator [ulamo]lar mashhur bo'lgan.

V, 63. **XUZOND** (al-Xuzondiy) Samarqandga qarashli qishloqlardan, [shahar]dan bir yarim farsax [masofa]da.

V, 64. **XAROJARI** (al-Xarojariy) – Yuqori Farovuz tumanidagi qishloq, Buxorodan bir farsax masofada joylashgan; bu yerdan [chiqqan] bir qator faqihlar Abu Hafs al-Kabirdan ilm o'rganganlar.

V, 64. **XARRODIN** (al-Xarrodiniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

V, 74. **XARTANK** (al-Xartankiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan, [shahar]dan uch farsax [masofa]da; bu yerda Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy vafot qilgan[2].

---

[1] Uning xarobalari Sirdaryo viloyatidagi Yangiyer shahridan janubda Xovast temir yo'l bekati yonida joylashgan (Бартольд. Туркестан. – С. 223).

[2] Bu qishloq hozir Xarjang deb ataladi. Bu yerda Xoja Ismoil mavzoleyi saqlanib qolgan, hozir esa uning o'rnida katta Imom Buxoriy ziyorat majmuasi qurilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

V, 83. **XARASHKAT** (al-Xarashkatiy) – Shosh shaharlaridan; u yerdan bir qator ilm ahli [yetishib] chiqqan[1].

V, 85. **XARONKAS** (al-Xaronkasiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

V, 85. **XARUN** (al-Xaruniy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan. Abg'ar tumanida.

V, 88. **XARKON** (al-Xarkoniy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan; u yerda mashhur rabot bor, u Xarkon raboti deb ataladi[2].

V, 95. **XURMISAN** (al-Xurmisaniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

V, 97. **XARUR** (al-Xaruriy) – Xorazmga qarashli qishloqlardan, Sovakon tumanlaridan birida.

V, 102. **XUZOR** (al-Xuzoriy) – Movarounnahrdagi tuman, Nasafga yaqin; u yerdan bir qator ulamolar [yetishib] chiqqan[3].

V, 108. **XUZOND** (al-Xuzondiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan, [shahardan] ikki farsax yoki [undan ham] kamroq [masofa]da joylashgan.

V, 113. **XAJVON** (al-Xajvoniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

V, 126. **XUSHUFAG'N** (al-Xushufag'niy) – Sug'ddagi qishloqlardan, al-Ishtixan va al-Kushoniya orasida, katta [qishloq], xayrlari ko'p; hozir uni Ras al-Qantara deydilar, u Sug'ddagi eng yoqimli joydir. Bir kuni Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Bujayr al-Bujayriy as-Sug'diy Xushufag'nda o'z uyidagi katta daraxt tagida o'tirganida, o'z as'hoblariga [shunday] dedi: «Sizlar dunyodagi eng yoqimli va eng ko'rkam joyda o'tiribsizlar»; undan so'radilar: «Nimaga?» U aytdi: «Chunki dunyoda Samarqand Sug'didek ko'rkam, yam-yashil va havosi toza [joy] yo'q, Sug'dda esa Xushufag'ndek [boshqa joy] yo'q, Xushufag'nda esa mening bog'imdan ko'rkamroq [joy] yo'q, mening bog'imda esa shu daraxt soyasidan ko'rkamroq joy yo'q»[4].

V, 127. **XUSHUNANJAKAS** (al-Xushunanjakasiy) – Kissga qarashli qishloqlardan, u Samarqand qishloqlariga ulanib ketgan, qadimda esa Samarqand tumanlaridan biri bo'lgan.

---

[1] Uning xarobalari Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida, Sirdaryo qirg'og'idan 8 km sharqda joylashgan bo'lib, hozir Qanqa deb ataladi (Буряков. Историческая топография. – С. 31).

[2] Bu qishloq Jizzaxdan janubi-g'arbda Samarqand yo'lida, taxminan, G'allaorol temir yo'l bekati yonida joylashgan (Беленский. Средневековый город. – С. 190).

[3] Boshqa manbalarda Xuzor Kesh viloyatiga qarashli deb berilgan. Buning sababi shuki, Qashqadaryo vodiysi eng qadimgi zamonlardan boshlab bir-biridan farqli aholi yashovchi ikki viloyatga bo'lingan, ularning chegarasi esa aynan Xuzordan o'tgan. Shuning uchun Xuzor goh biriga, goh ikkinchisiga qarashli bo'lgan. U Xuzordaryo havzasida Sug'd va To'xoriston shaharlarini bog'lovchi karvon yo'llarining tutashgan joyida joylashgan.

[4] Uning xarobalari Kattaqo'rg'ondan 6–8 km shimolda, Yangiqo'rg'on temir yo'l bekatidan janubda, Narpay kanali bo'yidagi Firog'at qishlog'i yonida joylashgan bo'lib, Saripul deb ataladi (Чехович. Самаркандские документы. – С. 388).

@tarixchi_kutubxonasiga

V, 132. **XUSHMINJAKAS** (al-Xushminjakasiy) – Kissga qarashli qishloqlardan, [u esa] Movarounnahr shaharlaridan[1].

V, 134. **XASHYANDIZA** (al-Xashyandiziy) – Nasafga qarashli qishloqlardan.

V, 175. **XUMXISARA** (al-Xumxisariy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

V, 175. **XUMRAK** (al-Xumrakiy) – Shosh shaharlaridan[2].

V, 179. **XUMISAN** (al-Xumisaniy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan.

V, 184. **XUNOMATI** (al-Xunomatiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

V, 189. **XUNBUN** (al-Xunbuniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, [shahar]dan to'rt farsax [masofa]da, Xuroson yo'lida; men unda bir necha kecha tunaganman.

V, 193. **XUVORIZM** (al-Xuvorizmiy) – shaharcha, u fath [urush]larida alohida zikr etilgan, uni Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy fath qilgan; u yerda juda ko'p ulamolar va imomlar bo'lgan[3].

V, 200. **XUVOQAND** (al-Xuvoqandiy) – Farg'onadagi shaharchalardan[4].

V, 206. **XUZIYON** (al-Xuziyoniy) – G'ubdin tumanida joylashgan qasr, [u esa] Nasaf tumanlaridan, Movarounnahrda[5].

V, 227. **XAYDASHTAR** (al-Xaydashtariy) – Ishtixonga qarashli qishloqlardan, [u esa] Sug'd shaharlaridan, Samarqand tumanlaridan birida.

V, 228. **XAYROXARI** (al-Xayroxariy) – Buxoro [shahri]dan besh farsax [masofa]da, az-Zandani [qishlog'i] yonida joylashgan qishloq.

V, 238. **XAYLOM** (al-Xaylomiy) – Farg'onadagi shaharchalardan[6].

---

[1] Bu qishloqlarning xarobalari Chiroqchi shahri yonida joylashgan bo'lib, Kishmishtepa deb ataladi (*Лунина. Города.* – С. 41).

[2] Uning xarobalari hozirgi Bo'ka shahridan 15 km masofada, soy bo'yida joylashgan.

[3] Ma'lumki, Xorazm viloyatida bunday nomli shahar bo'lmagan. Bu nom bilan o'rta asrlarda Xorazm poytaxti bo'lgan Kos (Kot) shahri atalgan bo'lishi mumkin. Uning xarobalari Qoraqalpog'istondagi Beruniy tuman markazi yaqinida joylashgan bo'lib, Shayx Abbos Vali deb ataladi.

[4] *Xuvoqand* – bu hozirgi Farg'ona viloyatidagi Qo'qon shahrining eski nomi.

[5] Qashqadaryo viloyatidagi Tezob qishlog'i yonida yirik feodal hukmdorga qarashli bo'lgan katta bir qasrning xarobalari mavjud. Uning atrofida Surnaytepa, Sandaliktepa, Karnaytepa, Kindiktepa, Poxoltepa, Haramtepa, Gurjob kabi o'rta asrlarda yashagan qishloqlarning xarobalari bor (*Лунина. Сельское поселение.* – С. 41).

[6] Boshqa manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, Xaylom Miyon Rudon nomli tumanning markazi bo'lgan, bu yerda Somoniylar sulolasiga mansub hukmdorlardan biri Nasr ibn Ahmad tavallud topgan. Bu tuman Qoradaryo va Norin daryosi oralig'ida joylashgan bo'lib, keyingi asrlarda Ikki suv orasi deb atalgan; bu nom forscha «Miyon Rudon» nomining tarjimasidir. Xaylom shaharchasi esa Norin daryosi bo'yidagi Ketmontepa qishlog'ining o'rnida bo'lgan (*Беленский. Средневековый город.* – С. 203).

@tarixchi_kutubxonasiga

V, 273. **DABUSIYA** (ad-Dabusiy) – Sug'ddagi shaharcha, Buxoro va Samarqand o'rtasida; Umaviylar zamonida u yerda arablarning askarlari turgan; u yerdan bir qator muhaddislar [yetishib] chiqqan[1].

V, 282. **DUJOKAN** (ad-Dujokaniy) – Nasafga qarashli qishloqlardan.

V, 288. **DAXFANDUN** (ad-Daxfanduniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

V, 297. **DIRIZDIX** (ad-Dirizdixiy) – Nasafga qarashli qishloqlardan.

V, 298. **DARZIVA** (ad-Darziviy yoki ad-Darzivaniy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan, [shahar]dan uch farsax [masofa]da, Katvon yo'lida joylashgan.

V, 300. **DARG'AM** (ad-Darg'amiy) – Samarqanddagi tuman, [shahar]dan ikki farsax [masofa]da, unda qishloqlar ko'p, men Samarqandga ketayotganimda, u yerda to'xtab, bir soat turganman[2].

V, 307. **DIZAQ** (ad-Dizaqiy) – Shosh yo'lida [joylashgan] katta qishloq, Samarqanddan yuqorida, u Dizaq va Sobot deb ataladi[3].

V, 397. **DIZAK** (ad-Dizakiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan.

V, 404. **DIMAS** (ad-Dimasiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, [shahar]dan uch farsax [masofa]da.

VI, 6. **ZAXKAT** (az-Zaxkatiy) – ar-Ruzbar [tumani]dagi shahar, Sayhun daryosining narigi tomonida, Shosh shaharlarining orqasida[4].

VI, 11. **ZAXINAVO** (az-Zaxinaviy) – Samarqanddan uch farsax [masofa] da joylashgan qishloq.

VI, 13. **ZAR'AYNA** (az-Zar'ayniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VI, 20. **ZAMMO** (az-Zammiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan, [shahar]dan ikki farsax [masofa]da.

VI, 33. **ZIBADUVON** (az-Zibaduvoniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VI, 33. **ZAYMUN** (az-Zaymuniy) – Buxoro [shahri]dan ikki yarim farsax [masofa]dagi qishloq, [aholisi]ning ko'pchiligini hadis as'hoblari [tashkil

---

[1] Dabusiya shahri Samarqand viloyatidagi Ziyovuddin qishlog'idan sharqda joylashgan Qal'ai Dabus xarobalari o'rnida bo'lgan; bu xarobalar yonida katta qabristonning mavjudligi uning haqiqatdan ham shahar bo'lganidan dalolat beradi (Бартольд. Туркестан. – С. 147).

[2] Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, bu tumanning uzunligi 10 farsax, ent esa 4 farsaxdan iborat bo'lib, unda ko'p uzum yetishtirilgan. Dargam nomi Samarqanddan janubda Zarafshon daryosidagi to'g'ondan boshlanadigan kanalning nomida saqlanib qolgan; bu kanalning bo'ylarida qadimiy qal'a devorlarining qoldiqlari topilgan.

[3] Bu shahar hozirgi Jizzax viloyatining tuman markazi Jizzax shahri o'rnida yoki uning yon-atroflarida joylashgan.

[4] Uning xarobalari Angren shahridan 8 km shimoli-g'arbda Ohangaron tog'laridagi Dukentsoyning o'ng qirg'og'ida joylashgan. (Массон. Ахангеран. – С. 114).

@tarixni_kutubxonasiga

qiladi]; u qadimiy qishloq, suvlari ko'p; men Baykandni ziyorat qilish uchun ketayotganimda unda bir kecha tunaganman.

VI, 47. **ROG'SARSANA** (ar-Rog'sarsaniy) – Nasafga qarashli qishloqlardan, [shahar]dan yarim farsax [masofa]da.

VI, 47. **ROG'IN** (ar-Rog'iniy) – Samarqand Sug'didagi qishloqlardan, ad- Dabusiyaga qarashli.

VI, 51. **ROMUSH** (ar-Romushiy) – Buxoro [shahri]ga yaqin joylashgan qishloq[1].

VI, 52. **ROMANI** (ar-Romaniy) – Buxoroga qarashli qishloq, [shahardan] ikki farsax [masofa]da, Xunbun yonida joylashgan, hozir xarobaga aylangan.

VI, 53. **ROMISANA** yoki **ARMISANA** (ar-Romisaniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan[2].

VI, 79. **RABINJAN** yoki **ARBINJAN** (ar-Rabinjaniy) – Samarqand Sug'diga qarashli shaharchalardan, xarobaga aylangan, uni Xorazmshoh talon-toroj qilgan; men bir kun u yerdagi sahroda to'xtab, uning daraxtlarining tagida hordiq chiqardim; u yerdan bir qator ulamolar va muhaddislar [yetishib] chiqqan[3].

VI, 98. **RUXSHABUZ** (ar-Ruxshabuziy) – at-Tirmizga qarashli qishloqlardan biri.

VI, 99. **RAXINAVO** (ar-Raxinaviy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan biri, [shahar]dan uch farsax [masofa]da, Andoq [qishlog'i] bilan tutashgan.

VI, 110. **RAZMOZ** (ar-Razmoziy) – Sug'ddagi qishloqlardan, [u esa] Samarqand tumani, al-Ishtixan va Kushoniya o'rtasida, Samarqanddan yetti farsax [masofa]da.

VI, 111. **RAZMONOX** (ar-Razmonoxiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, [shahardan] bir farsax [masofa]da.

VI, 114. **RASTAG'FAR** (ar-Rastag'fariy) – Ishtixanga qarashli qishloqlardan, Samarqand Sug'dida.

---

[1] Islomgacha bu yerda otashparastlarning katta ibodatxonasi bo'lib, bu yerda yilda bir marta otashparastlarning eng katta bayrami nishonlangan. Uning xarobalari Buxoro shahridan 17 km shimoli-g'arbda Romitan tumanidagi Romish qishlog'ining yonida joylashgan. Arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, u Buxoro atrofidagi eng katta qishloqlardan biri bo'lib, unda hayot miloddan oldingi IV asrdan to milodiy XV asrgacha davom etgan (Сулейманов. Результаты. – С. 64).

[2] Abu Bakr Narshaxiyning ma'lumotiga ko'ra, bu qishloq Buxorodan ham qadimiyroq bo'lib, islomgacha unda mustahkam qal'a va otashparastlarning ibodatxonasi bo'lgan, buxoxudotlarning qarorgohi ham shu yerda bo'lgan. Bu qishloqning nomi hozirgacha Romitan shaklida saqlanib qolgan. U Buxorodan 25 km shimoli-g'arbda. Romitandan 10 km g'arbda Buxoro-Gazli yo'lidan chapdagi xarobalar o'rnida joylashgan.

[3] Yuqorida zikr etilgan Arbinjan shaharchasining o'zi.

@tarixchi_kutubxonasiga

VI, 114. **RUSTUFAG'N** (ar-Rustufag'niy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan[1].

VI, 136. **RADRODA** yoki AR-RADRODA (ar-Radrodiy) – Samarqand [shahri]dagi joy, ajam tilida uni Sankrizasitan deydilar[2].

VI, 145. **RUFUN** (ar-Rufuniy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan.

VI, 183. **RUZAFAG'KADI** (ar-Ruzafag'kadiy) – Samarqand tumanlaridan biridagi qishloq.

VI, 205. **RIXSHAN** (ar-Rixshaniy) – mening fikrimcha, bu Samarqandga qarashli qishloqlardan.

VI, 206. **RIG'DAMUN** (ar-Rig'damuniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, [shahardan] to'rt farsax [masofa]da.

VI, 209. **RIVDAD** (ar-Rivdadiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan. [shahar]dan bir farsax [masofa]da; u yerda ba'zan Samarqand askari turadi.

VI, 209. **RIVDI** (ar-Rivdiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VI, 210. **RIVARSUN** (ar-Rivarsuniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VI, 213. **RIV** (ar-Riviy) – Buxoro [shahri]dagi mahalla.

VI, 218. **ZOZAK** (az-Zozakiy) – Kissga qarashli qishloqlardan, [u esa] Movarounnahr shaharlaridan.

VI, 219. **ZOR** (az-Zoriy) – al-Ishtixanga qarashli qishloqlardan, Sug'dda, [u esa] Samarqand [tumanlari]dan.

VI, 220. **ZOG'ARSARSAN** (az-Zog'arsarsaniy) – Samarqand yoki Nasafga qarashli qishloqlardan.

VI, 223. **ZOMIN** (az-Zominiy) – Samarqand tumanlaridan biridagi shaharcha, Usrushana amallaridan; u yerdan [tashqi bozor]ga *taranjabin* nomli talqonlangan shakarga o'xshash modda chiqariladi[3].

VI, 244. **ZABAG'DUVON** yoki SABAG'DUVON (az-Zabag'duvoniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VI, 264. **ZARAXSH** (az-Zaraxshiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VI, 269. **ZARKARON** (az-Zarkaroniy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan, Buzmojan tumanida.

VI, 270. **ZARMON** (az-Zarmoniy) – Sug'd qishloqlaridan, Samarqanddan yetti farsax [masofa]da[4].

---

[1] U Beyliota qishlog'i o'rnida joylashgan. U yerda Abulhasan Ali ibn Said ar-Rustufag'niy mozori saqlanib qolgan.

[2] Radroda arab tilida «toshloq yer» ma'nosini anglatadi, Sangrizaston esa uning forscha tarjimasidir. Bu yerda Samarqand shahridan shimoli-sharqda joylashgan Ko'hak tog'i haqida so'z yuritilgan. O'rta asrlarda bu tog'dan tosh qazib chiqarilib, shahar ko'chalariga yotqizilgan va boshqa qurilish ehtiyojlariga ishlatilgan.

[3] Jizzax viloyatida hozir ham Zomin nomli tuman markazi bor.

[4] Kattaqo'rg'ondan shimoli-g'arbda Jomboy shaharchasi yaqinida Zarmon nomli qishloq hozir ham bor.

@tarixchi_kitoblar_olamiga

VI, 270. **ZARANJARI** yoki ZARANKARI (az-Zaranjariy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VI, 273. **ZARUDIZA** (az-Zarudizakiy) – Samarqanddagi qishloq, [shahar]dan to'rt farsax [masofa]da, Kiss dovonidagi tog' bag'rida joylashgan.

VI, 286. **ZAGRIMOSH** (az-Zagrimoshiy) – Samarqand [shahri]dagi mahallalardan, katta mahalla.

VI, 294. **ZAKON** (az-Zakoniy) – Samarqand Sug'didagi qishloqlardan. Razmoz va Kamarja [qishloqlari] o'rtasida.

VI, 297. **ZAMAXSHAR** (az-Zamaxshariy) – Xorazm qishloqlaridan, katta [qishloq], shaharchaga o'xshaydi; men unda ikki kecha – Xorazmga ketayotganimda va u yerdan qaytayotganimda tunaganman[1].

VI, 299. **ZIMLIKI** (az-Zimlikiy) – Buxoroga qarashli qishloq.

VI, 312. **ZANDARIMISAN** (az-Zandarimisaniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VI, 313. **ZANDANIYO** (az-Zandaniyoiy) – Nasafga qarashli qishloqlardan.

VI, 314. **ZANDANA** yoki AZ-ZANDANI (az-Zandaniy) – Buxoroga qarashli qishloq, *zandanaji* matosi o'z nomini undan olgan; u shahardan to'rt farsax [masofa]da joylashgan.

VI, 315. **ZAND** (az-Zandiy) – Buxoroga qarashli qishloq.

VI, 323. **ZUSH** (az-Zushiy) – Buxoroga qarashli qishloq; mening fikrimcha, an-Nur yaqinida.

VI, 348. **ZIKUN** (az-Zikuniy) – Nasafga qarashli qishloqlardan.

VII, 1. **SOBOT** (as-Sobotiy) – Movarounnahrdagi mashhur shaharcha Usrushana yonida, Samarqanddan yigirma farsax [masofa]da[2].

VII, 7. **SORIKUN** (as-Sorikuniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VII, 9. **SOG'ARJ** (as-Sog'arjiy) – Sug'ddagi qishloqlardan, Samarqanddan besh farsax [masofa]da[3].

VII, 11. **SOKABADYOZ** (as-Sokabadyoziy) – Nasafga qarashli qishloqlardan.

VII, 17. **SONJAN** (as-Sonjaniy) – Nasafga qarashli qishloqlardan.

VII, 19. **SOVKON** (as-Sovkoniy) – Xorazmdagi qishloqlardan, Hazorasp yonida.

VII, 22. **SIBORO**, ISBIRO yoki SABIRO (as-Sibori) – Buxoroga qarashli qishloqlardan biri.

---

[1] Uning xarobalari Xiva va Ko'hna Urganch o'rtasida joylashgan bo'lib, Zmuxshir deb ataladi.

[2] U Jizzax viloyatidagi Savat qishlog'idan 3–4 km janubi-g'arbdagi Kultepa xarobalari o'rnida joylashgan, deb taxmin qilinadi.

[3] Uning xarobalari Samarqanddan 45 km shimoli-g'arbda, Yangiqo'rg'ondan 4 km g'arbda joylashgan (Иванов. Хозяйство Джуйбарских шейхов. – С. 370).

@tarixchi_kutubxonasiga

VII, 29. **SUBAZMUN** (as-Subazmuniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, [shahar]dan yarim farsax [masofa]da[1].

VII, 35. **SUBIZUG'UK** (as-Subizug'ukiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VII, 38. **SABIRO** (as-Sabiri) – Buxoro [shahri] yaqinidagi qishloq; yuqorida zikr etilgan Siboro bilan bir qishloq.

VII, 41. **SUTIFAG'NA** (as-Sutifag'niy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VII, 42. **SUTIKAN** (as-Sutikaniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VII, 43. **SIJOR** yoki JIJOR (as-Sijoriy) – an-Nurga qarashli qishloqlardan, Buxoro [shahri]dan yigirma farsax [masofa]da.

VII, 70. **SURXAKAT** (as-Surxakatiy) – Movarounnahrdagi ikkita qishloq; biri Xuzor tumanida, ikkinchisi Usrushana tumanida joylashgan; men vazir Muhammad ibn al-Amid an-Nasafiydan shunday deb eshitganman.

VII, 71. **SARDARO** (as-Sardariy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, u yerdan bir qator ilm ahllari [yetishib] chiqqan.

VII, 73. **SURMORO** (as-Surmoriy) – Buxoroga qarashli qishloq, [shahar] dan uch farsax [masofa]da, men u yerga shayx Ahmad as-Surmoriyni ziyorat qilish uchun borganman.

VII, 86. **SUG'D** (as-Sug'diy) – bu tuman suvlari ko'p, daraxtlari chiroyli, bog'lari ko'rkam va yam-yashil, uning go'zalligi haqida masallar bitilgan; u Samarqand tumanlaridan; u yerdan ko'p ulamolar [yetishib] chiqqan[2].

VII, 87. **SUFRODAN** (as-Sufrodaniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VII, 94. **SAKON** yoki ISKON (as-Sakoniy) – Arbinjanga qarashli qishloqlardan, as-Sug'd [tumani]da.

VII, 94. **SAKBIYON** (as-Sakbiyoniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, Numijkas yonida.

VII, 94. **SAKIJKAS** (as-Sakijkasiy) – Buxoro [shahri]dan to'rt farsax [masofa]da, Samarqand yo'lida, Jarg' [qishlog'i] yonida joylashgan; men unda bir kecha tunaganman.

VII, 152. **SAMIJAN** (as-Samijaniy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan, Muzan [qishlog'i] yonida.

---

[1] XX asr boshlarida bu qishloq Buxoroning Qarshi darvozasidan 3,5 km janubda, Shohruddan oqib chiqadigan Subazmun kanali bo'yida joylashgan (Чехович. Бухарские документы. – С. 132, 222).

[2] Islomgacha davrda Sug'd yoki Sug'diyona Zarafshon (Samarqand, Buxoro) va Qashqadaryo (Nasaf, Kesh) vodiylari, shuningdek, ulardan sharqda joylashgan ayrim tog'li rayonlarni (Panjikent) o'z ichiga olgan. O'rta asrlarda Sug'd tushunchasi juda ham tor ma'noda ishlatilib, faqat Samarqand va Buxoro o'rtasida joylashgan bir tumanga nisbatan qo'llanilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

VII, 163. **SANJADIZA** yoki SANGADIZA (as-Sanjadizakiy) – Samarqand [shahri]dagi mahallalardan[1].

VII, 164. **SANJUFIN** (as-Sanjufiniy) – Usrushanadagi qishloqlardan, Samarqand yaqinida.

VII, 172. **SANKABOS** (as-Sankabosiy) – Arbinjanga qarashli qishloqlardan, Samarqand Sug'dida.

VII, 173. **SANGADIZA** (as-Sangadizakiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan[2].

VII, 183. **SUBAX** (as-Subaxiy) – Xuzorga qarashli qishloqlardan, [u esa] Nasaf tumanlaridan[3].

VII, 184. **SUTXAN** (as-Sutxaniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VII, 214. **SIYOZA** yoki SIYOZI (as-Siyoziy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VII, 233. **SHOBJAN** (ash-Shobjaniy) – as-Sug'ddagi qishloqlardan, [u esa] Samarqand nohiyalaridan.

VII, 244. **SHOSH** yoki ASH-SHOSH (ash-Shoshiy) – Sayhun daryosining narigi tomonidagi shahar, turklarning chegara [yer]laridan, u yerda juda ko'p musulmon imomlari [yetishib] chiqqan[4].

VII, 273. **SHOVXARON** (ash-Shovxaroniy) – Nasafga qarashli qishloqlardan, u [ilgari] obod edi, [keyin] xarobaga aylanib, uning faqat shakli [saqlanib] qolgan.

VII, 275. **SHOVKAT** (ash-Shovkatiy) – ash-Shoshdagi shaharchalardan biri, uning tumanlaridan[5].

VII, 281. **ASH-SHIBLI** (ash-Shibliy) – Usrushanadagi qishloqlardan biri.

VII, 299. **SHAXOX** (ash-Shaxoxiy) – ash-Shoshga qarashli qishloqlardan biri.

VII, 311. **SHARG'** yoki JARG' (ash-Sharg'iy) – Buxorodan to'rt farsax masofada Samarqand yo'lida joylashgan qishloq; u yerda qadimda ham, keyingi vaqtlarda ham bir qator ilm ahli bo'lgan[6].

VII, 313. **SHARG'IYON** yoki JARG'IYON (ash-Sharg'iyoniy) – Nasafdagi mashhur ko'cha, u Kuyi Jarg'iyon deb ataladi; Jarg' esa Buxorodan besh

---

[1] Bu yuqorida zikr etilgan Radroda nomli joyning forscha nomidir.

[2] Bu yuqorida zikr etilgan Radroda nomli joy va Sanjadiza mahallasining o'zidir.

[3] Subax Xuzordan 8 km shimoli-g'arbda Qarshi yo'lidagi O'liktepa nomli katta shahar xarobalari o'rnida joylashgan; bu xarobalarning maydoni 100 ga maydonni egallaydi.

[4] Shosh shahri deb, Shosh viloyatining poytaxti Binkas nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

[5] Uning xarobalari Ohangaron daryosining o'ng qirg'og'ida Uvaittepa qishlog'i yonida joylashgan (Массон. Ахангеран. – С. 36).

[6] U Buxorodan 26 km shimoli-sharqda, Buxoroni suv bilan ta'minlovchi katta kanal boshida joylashgan. Bu kanal X asrda Somjan, XII asrda esa Haromkom deb atalgan (Большаков. Заметки по исторической топографии. – С. 240).

@tarixchi_kutubxonasiga

farsax [masofa]da joylashgan qishloq, bu qishloqdan chiqqan odamlar shu ko'chada yashagan.

VII, 313. **SHARAFDAN** (ash-Sharafdaniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

VII, 375. **SHIKISTON** (ash-Shikistoniy) – al-Ishtixan va al-Kushoniyaga qarashli qishloqlardan, Sug'd [tumani]da.

VII, 389. **SHAMIDIZA** (ash-Shamidizakiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan.

VII, 408. **SHUXNOK** (ash-Shuxnokiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan.

VII, 410. **SHURABON** (ash-Shuraboniy) – Kissga qarashli qishloqlardan, [u esa] Movarounnahr amallaridan.

VII, 460. **SHIRG'OVASHUN** (ash-Shirg'ovashuniy) – Buxoro [shahri] yaqinidagi qishloq.

VII, 461. **SHIRAKAS** (ash-Shirakasiy) – Nasafga qarashli qishloqlardan.

VII, 464. **SHIRAVON** (ash-Shiravoniy) – Buxoroga qarashli qishloq, Bamijkas [qishlog'i] yonida.

VII, 470. **SHAYSHAQ** (ash-Shayshaqiy) – Tirmizga qarashli qishloqlardan.

VIII, 10. **SOG'ARJ** (as-Sog'arjiy) – katta qishloq, havosi toza, as-Sug'd qishloqlaridan; u yerdan qadimda va keyingi vaqtlarda bir qator ulamolar va imomlar [yetishib] chiqqan[1].

VIII, 28. **AS-SOG'A** (as-Soyig'iy) – Nasaf [shahri]dagi ko'cha[2].

VIII, 57. **SARMINJON** yoki **JARMINKON** (as-Sarminjiniy) – Tirmiz [atrofi]dagi tuman, ajam tilida Jarminkon deyiladi; Balx tumanlari bilan chegaradosh[3].

VIII, 71. **AS-SUG'D** (as-Sug'diy) – bu Samarqand Sug'didir; ... Hamza ibn Ahmad al-Hofiz dedi: «[bir kuni] biz Xushufag'n [qishlog'i]da Abu Hafs al-Bujayriy as-Sug'diyning bog'idagi yong'oq daraxti tagida, u esa bog'ning o'rtasidagi juda katta daraxt [edi], «Al-Jomi'» kitobini o'qiyotganlarida, u [jamoaga qarab] gapira boshladi: «Biz jannatdamiz». Undan so'radilar: «Nima uchun?». Va u dedi: «Chunki aytadilarki, dunyoda uchta jannat bor: al-Ubulla daryosi [vodiysi], Dimashq G'o'tasi va Samarqand Sug'di; butun Sug'dda esa bizning shu Xushufag'n qishlog'imizdan ko'ra ko'rkamroq va mehmondo'stroq joy yo'q; bu qishloqda esa mening shu bog'imdan ko'ra

---

[1] Yuqorida zikr etilgan Sog'arj qishlog'ining o'zi. Faqat bosh harfi «s» boshqacha yozilgan.

[2] «As-sog'a» arab tilida «zargarlar» degan ma'noni anglatadi.

[3] Uning xarobalari hozirgi Surxondaryo viloyatidagi Jarqo'rg'on shahridan 4–5 km janubi-g'arbdagi Minor qishlog'i yonida joylashgan bo'lib, Kultepa deb ataladi (Аршавская. К изучению. – С. 119).

@tarixiy_kutubxonasiga

ko'rkamroq bog' yo'q; bu bog'da esa biz tagida o'tirgan shu yong'oq daraxti ostidagi majlisdan yaxshisi va yoqimlisi yo'q; [shuning uchun] biz jannatdamiz». Mening ma'lumotimga ko'ra, Sug'd Xushufag'ni qadimda Xushufag'n [deb] atalgan, hozir esa bizning zamonamizda bu qishloq Ras al-Qantara [deb] ataladi, u Samarqanddan o'n farsax [masofa]da joylashgan[1].

VIII, 242. **TAG'OMO** (at-Tag'omiy) – Buxoro yaqinidagi qishloq.

VIII, 259. **TAVOVIS** (at-Tavovisiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, [shahar]dan sakkiz farsax [masofa]da joylashgan; u [yo'lga chiqqandan keyingi] ikkinchi mahalladadir, Buxorodan Samarqandga [boradigan] yo'lovchilarga yaxshi tanish; u yerdan bir qator ulamolar va muhaddislar [yetishib] chiqqan[2].

VIII, 261. **TURXOR** (at-Turxoriy) – ajdodlardan birining ismi[3].

VIII, 263. **TUSAN** (at-Tusaniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

IX, 112. **G'OTFAR** (al-G'otfariy) – Samarqand [shahri]dagi joy, shaharning o'zida, u Ra's al-Qantara G'otfar deb ataladi, bu katta va chiroyli mahalla[4].

IX, 125. **G'UJDAVON** (al-G'ujdavoniy) – Buxoroga qarashli qishloq, [shahar]dan olti farsax masofada joylashgan; u yerda har haftada bir kun bozor [bo'ladi], qishloqlarning aholisi [unda] sotish va sotib olish uchun yig'iladilar[5].

IX, 129. **G'AZONA** (al-G'adoniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

IX, 129. **G'UZOVAZ** (al-G'uzovaziy) – Samarqandning [shahar] devoridan bir farsax [masofa]da joylashgan mahalla.

---

[1] Yuqorida zikr etilgan Sug'd tumanining o'zi, faqat bosh harfi «s» boshqacha yozilgan.

[2] Islomgacha bu qishloqda otashparastlarning ibodatxonasi bo'lgan. Rivoyat qilinishicha, 91/710-yilda arablar uni bosib olganda, u yerda tovuslarning ko'pligini ko'rib, unga Tavovis, ya'ni «Tovuslar» deb nom berganlar. Buxorodan 50 km shimoli-sharqda Bo'ston qishlog'i yonida Qiziltepa temir yo'l bekatidan 9 km shimolda Tavois qishlog'i hozir ham mavjud. Qadimgi Tavovis uning yaqinidagi Shahri Vayron xarobalari o'rnida joylashgan (Обленко. Шахривайронская пряжка. – С. 68).

[3] *Turxor* – bu Sug'dning oxirgi ixshidi Turxar yoki Turg'ar bo'lishi kerak. U ixshid G'urakning katta o'g'li bo'lib, undan keyin Sug'd taxtiga o'tirgan va 738-yilda Xitoyga o'z elchisini yuborgan. Uning ismi boshqa hech bir manbalarda zikr etilmagan va faqat uning nomidan chiqarilgan mis va kumush tangalardagi sug'diy yozuvlardan ma'lum edi. (Смирнова. Сводный каталог. – С. 43–45).

[4] Bu mahallada o'rta asrlarda Xoja G'otfar mozori ham bor edi. (Кандия Малая. – С. 266). Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma»sida ko'ra, G'otfar yoki G'otifar V asrda O'rta Osiyoda hukm surgan xaytallar, ya'ni eftalitlarning hukmdori bo'lgan. (Фирдоуси. Шахнаме. – С. 78–82).

[5] U Buxorodan 50 km shimoli-sharqdagi G'ijduvon tuman markazi bo'lgan G'ijduvon shahrining o'rnida joylashgan. Arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, u o'rta asrlardan beri o'z o'rnini o'zgartirmagan. (Чехович. Бухарские документы. – С. 88).

@tarixchi_kutubxonasiga

IX, 130. **G'UZASHFARDAR** (al-G'uzashfardariy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

IX, 134. **G'ARDIYON** (al-G'ardiyoniy) – Kiss tumanlaridan biridagi qishloq, [u esa] Movarounnahr shaharlaridan.

IX, 136. **G'URMINAVO** (al-G'urminaviy) – Maymurg' tumanidagi [qishloq], Samarqanddan ikki yoki uch farsax [masofa]da.

IX, 142. **G'AZNAYON** (al-G'aznayoniy) – Kissga qarashli qishloqlardan.

IX, 145. **G'AZINIZ** (al-G'aziniziy) – Xorazm qishloqlaridan, Marogard nohiyasida.

IX, 153. **G'USHDON** (al-G'ushdoniy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan, Shovzor tog'i yonida.

IX, 154. **G'ASHID** (al-G'ashidiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan; Gashti degan [qishloq] ham bor, lekin u shu qishloqmi yoki boshqasimi, aniq bilmayman.

IX, 174. **G'ANNOJ** (al-G'annojiy) – ash-Shosh tumanlaridan biridagi shaharcha.

IX, 178. **G'UNJIR** (al-G'unjiriy) – as-Sug'd qishloqlaridan, [u esa] Samarqand tumanlaridan.

IX, 179. **G'ANDOB** (al-G'andobiy) – Marg'inon shaharchasining mahallalaridan, u esa Farg'ona shaharlaridan.

IX, 186. **G'UBDIN** (al-G'ubdiniy) – Nasafga qarashli qishloqlardan, [shahar]dan ikki farsax [masofa]da[1].

IX, 189. **G'URAJK** (al-G'urajkiy) – Ishtixon tumanlaridan, u esa Samarqand tumanlaridan [bo'lgan] as-Sug'dda.

IX, 189. **G'URASHK** (al-G'urashkiy) – Samarqand tumanidagi qishloq.

IX, 202. **G'ISHATO** (al-G'ishatiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

IX, 213. **FORIZA** yoki QASRI FORIZA (al-Foriziy) – Buxoro [shahri]dagi mahalla, al-Maydon darvozasidan chiqqanda joylashgan.

IX, 214. **FORJAK** yoki BOB FORJAK (al-Forjiy) – Buxoro [shahri]dagi katta mahalla.

IX, 228. **FOSHUQ** (al-Foshuqiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

IX, 230. **FOG'** (al-Fog'iy) – mening fikrimcha, bu Samarqandga qarashli qishloqlardan.

IX, 234. **FOMIN** (al-Fominiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

IX, 249. **FAROB** (al-Farobiy) – Samarqanddan sakkiz farsax [masofa]da tog' ustida joylashgan qishloq, u Saki [qishlog'i] yonida, [shuning uchun] ikkala qishloq birga aytiladi.

[1] Qarshi shahridan g'arbda, Beshkentdan 20 km masofada G'ubdin nomli qishloq bor; uning yonidagi Tallisortepa xarobalari qadimgi G'ubdinning qoldiqlaridir; bu shaharcha o'rta asrlarda 50 ga dan ortiq maydonni egallagan.

@tarixchi_kutubxonasiga

IX, 262. **FARJAYO** (al-Farjoiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan.

IX, 265. **FARAXSHA**, FARAXSHO yoki AFRAXSHO (al-Faraxshiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan[1].

IX, 266. **FARXUZDIZA** (al-Farxuzdizajiy) – Nasafga qarashli qishloqlardan biri, [shahar]dan ikki farsax masofa yuqorida joylashgan, men unda bir kecha tunaganman.

IX, 268. **FARDAD** (al-Fardadiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan biri, Muzan [qishlog'i] yonida.

IX, 268. **FARZOMISAN** (al-Farzomisaniy) – Samarqand [shahar] devori yonidagi mahalla.

IX, 274. **FARG'ONA** (al-Farg'oniy) – ash-Shoshning orqasidagi viloyat, [u esa] al-Mashriq mamlakatlaridan, Jayhun va Sayhun daryo[lar]i orqasida; u yerdan har bir fan va ilm sohasida juda ko'p mashhur ulamolar [yetishib] chiqqan[2].

IX, 284. **FARANKAD** yoki AFRANKAD (al-Farankadiy) – Samarqand Sug'didagi qishloqlardan, al-Ishtixan tumanlaridan; Abu Sa'd al-Idrisiy aytadiki: Farankad Samarqanddan besh farsax [masofa]da joylashgan Ishtixan shaharlaridan. U yerdan bir qator ulamolar [yetishib] chiqqan[3].

IX, 285. **FARNIFASON** (al-Farnifasoniy) – Xorazmdagi qishloqlardan, Madrokas [qishlog'i]dan ikki farsax [masofa]da joylashgan, Madrokas esa Xorazm qishloqlaridan.

IX, 309. **FASHNA** (al-Fashniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

IX, 309. **FASHIDAYZA** (al-Fashidayzajiy) – Buxoro yoki Nasafga qarashli [qishloq].

IX, 318. **FAG'ONDIZA** (al-Fag'ondiziy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

IX, 319. **FAG'DIN** (al-Fag'diniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

IX, 320. **FAG'IDIZA** (al-Fag'idiziy) – Samarqand [shahri]dagi mahalla.

IX, 320. **FAG'ITUSIN** (al-Fag'itusiniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

IX, 236. **FANKAD** (al-Fankadiy) – Nasafga qarashli qishloqlardan; menimcha, men u yerdan o'tganman.

---

[1] Abu Bakr Narshaxiyning ma'lumotiga ko'ra, bu qishloq Buxorodan qadimiyroq bo'lib, islomgacha unda mustahkam qal'a va ming yil oldin qurilgan Buxorxudotning qasri bo'lgan. Uning xarobalari Buxorodan 35 km g'arbda joylashgan bo'lib, Varaxsha deb ataladi. Bu yerda Buxorxudot saroyining qoldiqlari topilgan.

[2] Abu Sa'd as-Sam'oniy Farg'onada hammasi bo'lib 17 ta joyning nomini keltirgan; shu jumladan, 9 ta shahar, 7 ta qishloq va 1 mahalla.

[3] Rivoyatga ko'ra, bu qishloqni Sug'd ixshidi G'urak akasi Afarunga atab qurdirgan va uning ismi bilan atagan. U Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi Parinkent qishlog'i o'rnida joylashgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

IX, 337. **FANAK** (al-Fanakiy) – Samarqand devori yonidagi qishloq, shahardan yarim farsax [masofa]da.

IX, 342. **FURFORA** (al-Furforiy) – as-Sug'ddagi qishloqlardan, Arbinjan tumanlaridan birida, Samarqanddan bir yarim farsax [masofa]da.

IX, 356. **FUYOZSUN** (al-Fuyozsuniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

IX, 358. **FIJAKAS** (al-Fijakasiy) – Nasafga qarashli qishloqlardan[1].

IX, 367. **FAYY** (al-Fayyi) – Samarqand Sug'didagi qishloqlardan, al-Ishtixan va al-Kushoniya o'rtasida[2].

X, 40. **QIBOB** (al-Qibobiy) – Samarqand [shahri]dagi joy.

X, 45. **QUBO** (al-Quboviy) – Farg'onadagi katta shaharchalardan[3].

X, 136. **QUZG'UND** (al-Quzg'undiy) – mening fikrimcha, bu Samarqand qishloqlaridan.

X, 198. **QATAVON** yoki QATVON (al-Qatavoniy) – Samarqanddan besh farsax [masofa]da joylashgan katta qishloq, unda jome masjid va minbar bor, u yerda musulmonlarning buyuk qirg'ini bo'lgan, u yerda shahidlarning qabrlari mavjud; Samarqand ahli uni Qatvon deydilar, lekin mening fikrimcha, Qatavon deyiladi; men u yerga [shahidlarning qabrlarini] ziyorat qilish uchun borganman va u yerda ikki kecha tunaganman[4].

X, 249. **QANTARA** yoki RA'S AL-QANTARA (al-Qantariy) – as-Sug'ddagi katta qishloq, men uni uzoqdan ko'rganman; u yerdan juda ko'p ilm ahli [yetishib] chiqqan[5].

X, 274. **KUHANDIZI BUXORO** (al-Kuhandiziy) – bu devor bilan o'ralgan ichki shahar. Buxoro kuhandizi, mening fikrimcha, bu [uning] ichki shahri: [u haqda] shunday deyilgan: agar Ibn Ja'da bo'lmaganda, sizning kuhandizingiz egallanmas edi, Buxoro ham devor egallanmaguncha [olinmas] edi.

---

[1] Fijakas yoki Vijkas nomi turkiylashib, Beshkent shaklida hozirgacha yetib kelgan. Hozir bu nomli shahar Qarshidan janubda joylashgan tuman markaziga tegishlidir.

[2] Bu qishloq Fayy nomli kanal bo'yida joylashgan; bu kanal hozir ham mavjud bo'lib, Narpay deb ataladi, u Kattaqo'rg'ondan 10 km yuqoridan suv oladi. «Narpay» so'zi arabcha «nahri Fayy», ya'ni «Fayy daryosi» so'zlaridan yasalgan. Fayy qishlog'i esa, taxminan, hozirgi Narpay tuman markazi o'rnida joylashgan bo'lishi mumkin. (Чехович. Самаркандские документы. – С. 391).

[3] Islomgacha Qubo Farg'ona vodiysining eng yirik shaharlaridan biri bo'lgan. Bu yerda VII asrga oid katta buddaviy ibodatxonaning qoldiqlari topilgan. Shahar xarobalari Farg'ona viloyatidagi Quva tuman markazi yonida joylashgan (Ахраров. Археологические раскопки. – С. 58 – 65).

[4] Qatvon qishlog'i Jizzax viloyatidagi G'allaorol temir yo'l bekati yonida joylashgan. 1141-yilda uning yaqinida saljuq sultoni Sanjar bilan qoraxitoy gurxonining askarlari o'rtasida katta jang bo'lib, u tarixga «Qatvon jangi» deb kirgan. Bu jangda musulmonlar katta mag'lubiyatga uchragan va ba'zi manbalarga ko'ra, unda 30 mingga yaqin askar halok bo'lgan.

[5] Bu qishloq Xushufag'n deb ham atalgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

X, 276. **KUHANDIZI SAMARQAND** (al-Kuhandiziy) – Samarqandning [ichki shahri][1].

X, 309. **KOJAR** (al-Kojariy) – Nasafga qarashli qishloqlardan, [shahar]dan ikki farsax [masofa]da[2].

X, 312. **KOXUSHTUVON** (al-Koxushtuvoniy) – Buxorodagi qishloq, u yerda Riboti Koxushtuvon nomli ribot bor.

X, 314. **KORZAN** (al-Korzaniy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan, uning tumanlaridan birida. Abu Sa'd al-Idrisiyning aytishicha, Korzan – Arbinjan qishloqlaridan; menimcha esa, u Samarqand Sug'dida[3].

X, 320. **KOSON** (al-Kosoniy) – ash-Shosh orqasidagi shaharcha, uning mustahkam qal'asi bor[4].

X, 321. **KOSAN** (al-Kosaniy) – Naxshabga qarashli qishloqlardan[5].

X, 326. **KOG'AZ** (al-Kog'aziy) – bu ustiga yoziladigan [narsa]; al-Mashriqda u Samarqanddan boshqa [hech] qayerda ishlab chiqarilmaydi[6].

X, 330. **KOKAN** (al-Kokaniy) – mening fikrimcha, bu Buxoroga qarashli qishloqlardan.

X, 333. **KOMIDAD** yoki KOMIDAZ (al-Komidadiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

X, 338. **KOYASHKAN** (al-Koyashkaniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

X, 343. **KABINDAV** (al-Kabindaviy) – Nasafga qarashli qishloqlardan.

X, 345. **KABUZANJAKAS** (al-Kabuzanjakasiy) – Samarqand shaharlaridan, undan ikki farsax [masofa]da. U yerdan bir qator [ulamolar yetishib] chiqqan.

---

[1] Samarqandning ichki shahri (*ar.* «al-madina ad-doxila») deganda, XII asrda Afrosiyob qal'asining ichidagi maydon nazarda tutilgan.

[2] Hozir ham Shulluktepa xarobalaridan 15 km masofada Kojar nomli qishloq bor, uning g'arbiy qismida Kojartepa nomli katta shahar xarobalari mavjud (Кабанов. Нахшеб. – С. 12–21).

[3] Korzan qishlog'i VII – VIII asrlarga oid sug'd hujjatlarida ham zikr etilgan. Kattaqo'rg'on bilan undan g'arbda joylashgan Zirabuloq tepalari (Rabinjan xarobalari) o'rtasida hozir ham Korzan nomli qishloq mavjud (Чехович. Самаркандские документы. – С. 389).

[4] Bu shahar Farg'ona vodiysida joylashgan. Miloddan oldingi II asrda Koson xitoy yilnomalarida zikr etilgan Davan davlatining poytaxti, ilk o'rta asrlarda esa Farg'ona ixshidlarining poytaxti bo'lgan. Uning xarobalari Farg'ona viloyati Kosonsoy tumani markazi yonidagi Mug'qo'rg'on qadimiy qal'asi o'rnida bo'lgan (Заднепровский. Исследование. – С. 530–531).

[5] Uning xarobalari Qarshidan 30 km shimoli-sharqdagi Kosan shahri yonida joylashgan va Kosantepa deb ataladi. (Туребеков. Исследование. – С. 469).

[6] Ibn al-Asirning yozishicha, Samarqandda qog'oz ishlab chiqarilishi 751-yilda Talos yonida arab sarkardasi Ziyod ibn Solih bilan Xitoy qo'shinlari o'rtasida bo'lgan jangda arablar g'alaba qozonib, juda ko'p Xitoy askarlari ularga asir tushgan. Ular ichida qog'oz ishlab chiqarishni bilgan hunarmandlar ham bo'lgan. Shundan keyin Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Lekin boshqa ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyoda qog'oz ishlab chiqarish ungacha ham bo'lgan (Habibullayev. O'rta Osiyoda. – B. 6.).

@tarixiy_kutubxonasiga

X, 347. **KABUZ** (al-Kabuziy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan biri, Foron [qishlog'i] yaqinida, Samarqanddan to'rt farsax [masofa]da joylashgan, taniqli va mashhur [qishloq].

X, 356. **KASSA** (al-Kassaviy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, [undan] to'rt farsax [masofa]da joylashgan; men Surmoro [qishlog'i]dan Mug'kon [qishlog'i]ga chiqqan vaqtimda, u yerdan o'tganman.

X, 358. **KASSA** (al-Kassiy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, men u yerdan o'tganman; u yerdan bir qator ilm ahli [yetishib] chiqqan.

X, 365. **KADAN** yoki KADAK (al-Kadaniy yoki al-Kadakiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan[1].

X, 398. **KURKONJ** yoki AL-KURKONJIYA (al-Kurkonjiy) – Xorazmdagi shaharchaning nomi[2].

X, 404. **KARMUJIN** (al-Karmujiniy) – Nasafga qarashli qishloqlardan.

X, 405. **KARMINIYA** (al-Karminiy) – Movarounnahr shaharlaridan. Buxorodan o'n sakkiz farsax [masofa]da; adib Abu Turob Ali ibn Tohir al-Karminiy shunday degan: «Bizning shaharcha Karminiya, arablar fath [urush]larida uni ko'rganlarida aytganlar: «U xuddi Arminiyadek (ka Arminiya)» va uni chiroyda, suvlari va daraxtlarining ko'pligidan Arminiyaga o'xshatganlar; men Samarqandga ketayotganimda unda bir kun va bir kecha turganman, u xarobaga aylangan; u yerdan qadimda va keyingi vaqtlarda bir qator imomlar, ulamolar va mashhur [odamlar yetishib] chiqqan[3].

X, 408. **KARVON** (al-Karvoniy) – mening fikrimcha, bu Farg'onadagi qishloqlardan[4].

X, 418. **KASODAN** (al-Kasodaniy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan.

X, 425. **KASBA** (al-Kasbaviy) – Nasafga qarashli qishloqlardan, undan to'rt farsax [masofa]da, unda jome masjidi bor[5].

---

[1] Uning xarobalari Kattaqo'rg'ondan 10 km shimolda, Qoradaryo bo'yida joylashgan (Чехович. Самаркандские документы. – С. 381).

[2] Mo'g'ul istilosiga qadar Gurganj shahri Anushtegin hukmdorlari boshqargan Xorazm davlatining poytaxti bo'lgan. Uning xarobalari Turkmanistonga qarashli Toshhovuz viloyati markazi bo'lgan Ko'hna Urganch shahridan janubda joylashgan.

[3] Uning xarobalari Navoiy viloyatidagi Karmina temir yo'l bekatidan 7,5 km shimoli-g'arbda joylashgan (Беленский. Средневековый город. – С. 187).

[4] Islomgacha Farg'onada Karvon nomli alohida beklik bo'lib, uning hukmdori, rivoyatga ko'ra, Karvon Bas deb atalgan. Bu beklik Namangan viloyatidagi Chust tumanining shimoliy qismida, uning markazi bo'lgan Karvon shaharchasi esa hozirgi Karvon qishlog'i o'rnida joylashgan.

[5] X asrda Kasba karvon yo'lida joylashgan katta shahar bo'lgan, u hatto Nasaf shahridan ham ko'proq maydonni egallagan bo'lib, unda savdo-sotiq va hunarmandchilik rivojlangan. Kasbi nomli qishloq hozir ham Qarshidan 35 km, Shulluktepadan esa 30 km janubi-g'arbda joylashgan. Bu qishloqning yonida qadimgi Kasba shahrining xarobalari saqlanib qolgan. (Массон. Столичные города. – С. 28).

@tarixchi_kutubxonasiga

X, 429. **KISS** yoki KASHSH (al-Kissiy) – Movarounnahrdagi shaharcha, Naxshab yaqinida, men unda o'n ikki kun turganman[1].

X, 431. **AL-KUSHONIYA** (al-Kushoniy) – as-Sug'ddagi shaharchalardan biri, [u esa] Samarqand tumanlaridan, undan o'n ikki farsax [masofada]; unda bir qator ulamolar, faqihlar, fuzalolar va muhaddislar bo'lgan[2].

X, 450. **KAFSISAVON** (al-Kafsisavoniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

X, 450. **KUFIN** (al-Kufiniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan yoki Buxoro [shahri]dagi joy.

X, 467. **KAMORI** (al-Kamoriy) – Buxorodagi qishloq.

X, 484. **KANDASARVON** (al-Kandasarvoniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

X, 485. **KANDUKIN** (al-Kandukiniy) – ad-Dabusiyadan yarim farsax [masofa]da joylashgan qishloq, Samarqand Sug'dida.

X, 487. **KUNDI** (al-Kundiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan.

X, 506. **KALOBOZ** (al-Kaloboziy) – Buxoro shahrining yuqori [qismi]da joylashgan katta mahalla; u yerdan har bir fan [sohasida] juda ko'p ulamolar, imomlar [yetishib] chiqqan[3].

493 *a*. **LABBODIN** (al-Labbodiniy) – Samarqand [shahri]dagi mahalla, forscha Kuyi Namazgaron deyiladi.

498 *a*. **MOTURID** yoki MOTURIT (al-Moturidiy) – Samarqand [shahar] devori yonidagi mahalla; men u yerda bir necha marta bo'lganman[4].

498 *b*. **MOJARM** (al-Mojarmiy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan[5].

499 *a*. **MOH** (al-Mohiy) – Buxorodagi Moh masjidi darvozasi yonidagi katta mahalla. Moh otashparast bo'lgan, keyin islom dinini qabul qilib, o'zining uyini masjidga aylantirgan[6].

---

[1] Ilk o'rta asrlarda Kesh shahri hozirgi Kitob shahrining o'rnida bo'lgan, keyin esa shahar markazi asta-sekin janubga siljib, XI–XII asrlarda undan 5–6 km janubda joylashgan hozirgi Shahrisabz o'rniga ko'chgan.

[2] Kushoniya nomi qadimgi Kushon imperiyasini barpo qilgan kushon qabilalari bilan bog'liq, deb taxmin qilinadi. Uning xarobalari hozirgi Kattaqo'rg'on shahri yaqinida joylashgan bo'lib, Kashanota deb ataladi.

[3] Abd ar-Rahmon al-Muallimiy Bayrutda amalga oshirgan tanqidiy nashr asarning shu yerga kelib to'xtagan. Asarning qolgan qismlarini biz D.S. Margoliusning Londonda amalga oshirgan Britaniya muzeyi qo'lyozmasining faksimile nashridan foydalanib tarjima qildik.

[4] Moturid yoki Motirid mahallasi Afrosiyob qal'asidan 5–6 km shimoli-sharqda, hozirgi Motirid qishlog'i o'rnida bo'lgan. Bu qishloq butun Samarqand vohasini atroflari bilan o'rab turgan tashqi devor (uning qoldiqlari hozir Devor-i Qiyomat deb ataladi) ichida joylashgan bo'lgani uchun mahalla deb ham atalgan (Вяткин. Материалы. – С. 22).

[5] Samarqand viloyatining shimoliy qismida hozir ham Mojerum nomli qishloq mavjud.

[6] Bu masjid o'rnida islomgacha majusiylar ibodatxonasi bo'lgan, degan fikr bor. Moh masjidi keyingi asrlardagi Mag'oki Attori masjidi o'rnida bo'lgan, deb taxmin qilinadi (Умняков. К вопросу . – С. 151–154).

@tarixchi_kutubxonasiga

501 *a*. **MOSTIN** (al-Mostiniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan, Xuroson yo'lida, Xunbun [qishlog'i]ga yetmasdan. Men u yerdan bir necha marta o'tganman, u suvda ayrilib, xarobaga aylangan.

IX, 136. **MOYMURG'** (al-Moymurg'iy) – Samarqanddan ikki yoki uch farsax [masofa]dagi tuman[1].

505 *a*. **MOYMARG'** (al-Moymarg'iy) – Nasafga qarashli katta va chiroyli qishloq, Buxoro yo'lida; men unda bir kun bo'lganman[2].

508 *a*. **MAJUBS** yoki MAJUBSAT (al-Majubsiy) – Buxoroga qarashli qishloq.

508 *b*. **MAJDUN** yoki MARDUN (al-Majduniy) – Buxoroga qarashli qishloq.

520 *a*. **MURABBA'A** yoki AL-MURABBA'A (al-Murabba'iy) – Samarqand [shahri]dagi rabot, uni shayx al-Bobkissiy qurgan.

521 *b*. **MARG'IBUN** (al-Marg'ibuniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan[3].

522 *a*. **MARG'INON** (al-Marg'inoniy) – Farg'onaning eng mashhur shaharlaridan[4].

526 *a*. **MAZRANKAN** (al-Mazrankaniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

527 *a*. **MUZNUVO** (al-Muznuvoiy) – Samarqandga qarashli qishloq, [shahar]dan to'rt farsax [masofa]da.

538 *a*. **MUG'KON** (al-Mug'koniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

539 *a*. **MUQOTIL** (al-Muqotiliy) – Samarqand [shahri]dagi ko'cha.

548 *b*. **MIG'** (al-Mig'iy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

551 *b*. **NOFAXS** (an-Nofaxsiy) – Samarqandga qarashli qishloq, [shahar] dan ikki farsax [masofa]da.

555 *a*. **NAXL** (an-Naxliy) – Buxoroga qarashli qishloq.

556 *b*. **NASAF** yoki NAXSHAB (an-Nasafiy yoki an-Naxshabiy) – Movarounnahrdagi shahar, men u yerda ikki oy bo'lganman[5].

---

[1] Bu tuman Zarafshon daryosidan janubda joylashgan. Islomgacha davrda bu yerda alohida beklik bo'lib, uning poytaxti Samarqanddan 35 km masofada joylashgan Bag'rin qishlog'i yonida Zadarg'om dashtidagi Kultepa xarobalari yoki Samarqanddan 6 km masofadagi Ravanak qishlog'i yonida Talli Barzu xarobalari o'rnida bo'lgan (Ставиский. О датировке. – С. 27).

[2] Uning xarobalari Koson shahridan 15 km janubi-g'arbda joylashgan va Maymanaktepa deb ataladi (Кабанов. Нахшеб. – С. 67).

[3] Uning nomi hozirgacha Margasun shaklida saqlanib qolgan. Shu nomli qishloq Buxorodan 25 km shimoli-g'arbda Romitan xarobalaridan shimolda joylashgan (Бухарский вакф XIII в. – С. 49–50).

[4] Boshqa joyda as-Sam'oniy Marg'inondagi Gandob nomli mahalla haqida ma'lumot keltirgan (XII, 179). Bu shahar hozir ham mavjud bo'lib, Marg'ilon deb ataladi.

[5] Bu shahar hozirgi Qarshi yaqinida joylashgan bo'lib, o'rta asrlarda Qashqadaryo vodiysining g'arbiy qismidagi eng yirik shahar bo'lgan. Islomgacha mavjud bo'lgan bu shaharning asl nomi Naxshab bo'lgan; arablar uni o'zlarining tiliga moslashtirib Nasaf deb ataganlar. Shaharning joylashishida ham o'zgarish yuz bergan: qadimgi shahar Qal'ai Zahhoki

@tarixchi_kutubxonasiga

558 *a.* **NARSHAX** (al-Narshaxiy) – Buxoroga qarashli qishloq, Vobkana [qishlog'i] yonida[1].

567 *a.* **NAKABUN** (an-Nakabuniy) – Buxoroga qarashli qishloqlardan.

569 *b.* **NAVO** (an-Navoiy) – Samarqandga qarashli qishloq, [shahar]dan ikki farsax [masofa]da.

570 *b.* **NAVXAS** (an-Navxasiy) – Buxoroga qarashli qishloq.

571 *b.* **NAVKAZAK** (an-Navkazakiy) – Samarqandga qarashli qishloq, Ishtixan tumanida.

571 *b.* **NAVKAND** (an-Navkandiy) – Samarqandga qarashli qishloq.

571 *b.* **NAVQAD QURAYSh** (an-Navqadiy) – Nasafdan olti farsax [masofa]da joylashgan qishloq[2].

572 *a.* **NAVUND** (an-Navundyoiy) – Samarqand [shahri]dagi mahalla.

573 *b.* **NIYOZA** (al-Niyozaviy) – Kiss va Nasaf o'rtasidagi katta qishloq, men u yerda qor, sovuq va qiyinchilikda bir kechani o'tkazganman[3].

575 *a.* **VOBKANA** (al-Vobkaniy) – Buxoro [shahri]dan uch farsax [masofa]da joylashgan qishloq[4].

576 *a.* **VAZZ** yoki VIZZ (al-Vazziy) – Samarqanddan to'rt farsax [masofa] da joylashgan qishloq, Vazor yonida[5].

579 *a.* **VAZOR** yoki VIZOR (al-Vazoriy) – Samarqandga qarashli qishloqlardan, [shahar]dan to'rt farsax [masofa]da.

580 *b.* **VARZON** yoki VARDONA (al-Varzoniy) – Buxoroga qarashli qishloq[6].

Maron xarobalari o'rnida, Nasaf shahri esa Shulluktepa xarobalari o'rnida joylashgan (Массон. Столичные города. – С. 21, 47).

[1] Buxoro tarixini yozgan tarixchi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning kelib chiqishi shu qishloqdan bo'lgan. Uning yozishicha, VIII asrda bu qishloqda mustahkam qal'a bo'lib, unda Muqanna qo'zg'olonining tarafdorlari arablardan berkinganlar.

[2] Bu qishloq nomining tarkibida quraysh etnonimi mavjud bo'lgani uchun, u arablarning quraysh qabilasiga qarashli bo'lgan, deb taxmin qilinadi. Navqad Quraysh Shulluktepa xarobalaridan 48 km sharqda, Chim qishlog'idan 3,5 km janubi-sharqda joylashgan Kamaytepa xarobalari o'rnida bo'lgan, deb taxmin qilinadi.

[3] Mu'inuddin Natanziyning ma'lumotiga ko'ra, bu qishloqda Amir Temur tavallud topgan. Bu qishloq Shahrisabzdan 22 km, Kitobdan esa 30 km masofada joylashgan Qo'rg'ontepa xarobalari o'rnida bo'lgan, deb taxmin qilinadi (Камалиддинов. Историческая география. – С. 35 – 37).

[4] Bu qishloq Buxorodan 26 km shimoli-sharqda joylashgan Vobkent tuman markazi o'rnida bo'lgan. Bu yerda hozirgacha XII asrda qurilgan ajoyib minora saqlanib qolgan (Бартольд. Туркестан. – С. 175).

[5] Vazz yoki Vazd X asr manbalarida zikr etilgan nasroniylarning Vazkard qishlog'i bilan bir bo'lishi mumkin; u Urgut yaqinidagi Qing'ir qishlog'i o'rnida joylashgan (Бартольд. Туркестан. – С. 145).

[6] Abu Bakr Narshaxiyning ma'lumotiga ko'ra, bu qishloqda qal'a va har hafta o'tkaziladigan bozor bo'lgan. U Buxorodan ham qadimiyroq bo'lib, islomgacha bu yerda vardonxudotlar, ya'ni mahalliy hukmdorlar sulolasi yashagan (Наршахи. История Бухары. – С. 12, 24).

@tarixchi_kutubxonasiga

581 *b.* **VARAG'SAR** (al-Varag'sariy) – Samarqandga qarashli qishloq[1].

582 *a.* **VARQUD** (al-Varqudiy) – Buxoroga qarashli qishloq, Karminiya yonida.

583 *a.* **VAZVIN** (al-Vazviniy) – Buxoroga qarashli qishloq.

586 *a.* **VANANDUN** (al-Vanandunіy) – Buxoroga qarashli qishloq, Haromkom kanali yonida; men unda al-Barroniyadan Buxoroga qaytayotganimda, bir soatga to'xtab o'tganman.

586 *a.* **VANUFAG'** (al-Vanufag'iy) – Buxoroga qarashli qishloq, Tavovis [qishlog'i] yonida.

586 *b.* **VANUFAX** (al-Vanufaxiy) – Buxoroga qarashli qishloq.

587 *a.* **VIBAVD** (al-Vibavdiy) – Buxoroga qarashli qishloq.

590 *a.* **HAZORASB** yoki HAZORASF (al-Hazorasbiy) – Xorazmdagi qishloq, unda mustahkam qal'a bor[2].

596 *a.* **VARSANIN** yoki VARSANAN (al-Varsaniniy) – Samarqand [shahri]dagi mahalla, u Yorkas deb ham ataladi[3].

600 *b.* **YASIRKAS** (al-Yasirkasiy) – Samarqand [shahri]dan bir farsax [masofa]da joylashgan qishloq.

602 *b.* **YUXASUN** (al-Yuxasuniy) – Buxoroga qarashli qishloq.

YOQUT AL-HAMAVIY VA UNING «MU'JAM AL-BULDON» ASARI HAQIDA

XII asr oxiri – XIII asr birinchi yarmida yashab ijod etgan mashhur olim, biograf, tarixchi va geograf **Yoqut Abu Abdulloh Shahobiddin Yoqut ibn Abdulloh ar-Rumiy al-Hamaviyning** «Mu'jam al-buldon» («Mamlakatlar qomusi») asari mazmun va mohiyati jihatidan tarixiy-geografik va filologik lug'atlar sirasiga kiradi.

Asar muqaddima, kirish va asosiy qismdan iborat. Muqaddimada muallif asarning yozilish sababi, undagi geografik ma'lumotlarning mohiyati, uning g'oyasi haqida ayta turib, oxirida o'zidan oldin geografiyaga oid asarlar yozgan va asarlaridan foydalangan ko'pgina olimlarning nomlarini keltiradi.

---

[1] Bu qishloq yonida X asrda butun Sug'dga suv taqsimlanadigan to'g'on bo'lgan. U Darg'om daryosining yuqori qismida Raboti Xo'ja qishlog'i o'rnida joylashgan (Бартольд. Туркестан. – С. 133).

[2] Uning xarobalari Xorazm viloyatidagi Hazorasp tuman markazi yonida joylashgan bo'lib, Devsolgan deb ataladi (Беленский. Средневековый город. – С. 172).

[3] Samarqandning tashqi devorida 12 ta darvoza bo'lib, ulardan biri Varsanin deb atalgan. U Afrosiyob qal'asidan janubi-sharqda, hozirgi shahar hududida, Panjikent yo'lining Devori Qiyomat bilan kesishgan joyida joylashgan (Беленский. Средневековый город. – С. 226).

@tarixchi_kutubxonasiga

Muqaddimadan so'ng asarning kirish qismi boshlanib, u besh bobga bo'lingan. Ularda yer shakli haqida har xil nazariyalar, iqlimlarga bo'lish, burjlarni aniqlash, geografik asarlarda uchraydigan astronomik geografiya atamalarini izohlash va ba'zi nohiyalar aholisining tavsifi haqida so'z yuritiladi. 50 betga yaqin kirish qismdan so'ng lug'atning asosiy qismi boshlanadi.

Asosiy qismda joylarning nomi har bir so'zning birinchi harfiga qarab alifbo tartibida berilgan va qisqa unlilar qo'yib (harakatlantirib) yozilgan joy nomidan keyin uning qanday talaffuz qilinishi mufassal tushuntirilgan. Shundan keyin, odatda izoh qilinayotgan ma'lum bir joyning geografik o'rni va qaysi burjga tobe ekanligi ko'rsatilgan. Keyingi ma'lumotlar joylarning tarixiga oid bo'lib, mazkur shaharning bino qilingan vaqti, aholisining kimlardan iborat ekanligi, tarixda qanday rol o'ynagani haqida hikoya va rivoyatlar naql qilinadi. Agar bu joy haqida Qur'on yoki hadislarda so'z borgan bo'lsa, lozim bo'lgan izohlar keltiriladi. Har gal muntazam ravishda qaysi mavze haqida so'z borsa, o'sha yerdan chiqqan mashhur kishilar (diniy ulamolar, adiblar, shoirlar)ning nomi keltiriladi. Bu ma'lumotlardan tashqari, Hamaviy, ayniqsa, o'zi ko'rgan shahar, qishloq va joylarni batafsil sharh qiladi. Shu bilan birga asar masallar, hikoyalar, she'riy parchalar bilan to'ldirilgan.

Quyida biz «Mu'jam al-buldon» asaridan tarjima qilgan Movarounnahr shahar va qishloqlariga oid ma'lumotlarni keltirdik. Unda mazkur asarning 1906-yili Misrda 8 jildda nashr etilgan toshbosma nusxasidan foydalandik.

Tarjima-lavhalarning bir qismi Yoqut al-Hamaviyning «Mu'jam al-buldon» asarining H. Hikmatullayev tomonidan chop qilingan risoladan olib berildi[1] (jild va sahifalari qavs ichida ko'rsatildi).

A. Bobojonov

YOQUT AL-HAMAVIYNING «MU'JAM AL-BULDON» ASARIDAN LAVHALAR

Movarounnahr – Jayhunning sharqiy tomonidagi joylarni Haytol shaharlari deb ataladi. Islom davrida uni Movarounnahr deb atashdi, ammo uning g'arbiy tomonidagi joylarni Xuroson va Xorazm viloyati deyiladi. Xorazm Xurosonga tegishli emas, u o'ziga xos, alohida iqlim.

Movarounnahr hamma iqlimlardan xushmanzara, serunum va daromadi ko'prog'idir. Odamlari saxovatli, mehmondo'st, jasur va shijoatlidir. Ularda kuch, qurol-aslaha va chorva yetarli. Dunyo bo'yicha serunumlikda unga tenglashadigan iqlim yo'q...

[1] *Hikmatullayev H.* Yoqut al-Hamaviy.

@tarixchi_kutubxonasiga

Movarounnahrda birorta shahar va qishloq yo'qki, suv, ekinzor va hayvonlari uchun o'tloqdan xoli bo'lsa. Insonlar uchun kerakli hamma narsa u yerda topiladi va o'z xalqidan ortib, chetga chiqariladi. Suvlari dunyoda eng shirin suv. Sut va go'sht uchun boqiladigan qoramollari ham, eshak, xachir va tuya kabi yuk tashish uchun xizmat qiladigan mollari ham yetarli; ular chorvalarga yaxshi qaraydilar. Go'shtlari Turk [mamlakati]ning g'arbiy tomonlaridan keltiriladigan qo'ylar bo'lib, o'zlaridan ortib qoladi. Paxtadan ishlangan paloslari shunchalik ko'pki, o'zlaridan ortib, chetga ham chiqaradilar. Ularda ipak, jun, ayniqsa, tuya juni, xo'jand shoyisi juda ko'p; shoyini o'zlari kiyadi, chetga chiqarmaydi. Ularning mamlakatida temir koni shuncha ko'pki, o'zlarining qurol-aslaha va ro'zg'or asboblaridan ortib qoladi. Ularda oltin, kumush, simob va boshqa ma'danlar ham behisob ko'p.

Mevalari shunchalik ko'pki, agar sen Sug'd, Usrushana, Farg'ona va Shoshning ichkarisiga kirsang, butun dunyodagi mevalarning hammasidan ham ko'p, deb bilasan. U yerdan olmaxon, suvsar va tulki terilari boshqa mamlakatlarga olib ketiladi.

Movarounnahrliklarga kelgan mehmon xoh tanish va xoh notanish bo'lsin, o'zini o'z uyida deb his qiladi. Al-Istaxriy[1] shunday deydi: «Men Sug'dda shunday hovlini ko'rdimki, u yuz yildan ko'proq vaqtdan beri qulflanmaydi, hamma vaqt mehmonlar uchun ochiq. To'satdan bu xonadonga yuz-ikki yuzlab mehmonlar keladi, uy egasi hech qiynalmay mehmonlarni ot-ulovlari bilan joylashtiradi va ziyofat qila oladi». Movarounnahr aholisining ko'pchiligi musofirxona, yo'llarni tuzatish va boshqa shu kabi umumiy manfaat keltiradigan ishlar uchun pullarini ayamaydi. Uning shahar, guzar, cho'l va qishloqlarida ham chetdan keladigan kishilar uchun hozirlab qo'yilgan mehmonxonasi bor (VII, 370–373).

Buxoro – uzunligi 87 va kengligi 41 darajaga joylashgan Movarounnahrdagi eng katta shaharlardan biri. U Somoniylar davlatining markazi edi. Uning nima uchun «Buxoro» atalish sababini topolmadim. Buxoro, shubhasiz, sermanzara, bog'lari ko'p, mevalari serob, obod va qadimiy shahardir. Men Buxoroning mevalarini Marv va Xorazmga olib kelganlarini ko'rganman.

Buxoro bilan Samarqand orasi yetti kunlik yo'l yoki 37 farsax[2]. Bu ikkalasi oralig'ida Sug'd mamlakatlari joylashgan. «Kitob as-suvar» muallifi[3] shunday deydi: «Qo'rg'ondan tashqarisi sermanzaralikda Buxorodan chi-

[1] *Abu Is'hoq al-Forisiy al-Istaxriy* (849–934) – arab geografi va sayyohi.

[2] *Farsax (farsang)* – qadimgi fors o'lchov birligi «parasanga»ning arabchalashtirilgan shakli. U turli davr va turli joylarda 5 km dan 9 km gacha bo'lgan masofani anglatgan.

[3] *Abu Zayd Ahmad ibn Sahl al-Balxiy* (850–934) – «Kitob as-suvar» asarining muallifi nazarda tutilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

royliroq shaharni ko'rmadim. Chunki uning qo'rg'onidan tashqari chiqishing bilan ko'zing zangori osmonga tutashgan ko'klamzorga tushadi. U yerda osmon ko'k gilam ustida turgan zangori g'altakka, ular orasig'idagi qasrlar esa osmondagi yulduzlarga o'xshaydi; ekinzorlari oynadek tekis. Buxoroliklarning ekinzorlari ko'p va unga teng keladigan joy Xurosonda ham, Movarounnahrda ham topilmaydi.

Buxoroning nomi Bumijkas bo'lib, u tekislikda joylashgan. Uning yog'ochdan zich qilib solingan binolari, ular atrofidagi qasrlar, bog'lar, do'konlar, yo'llar, bir-biriga yopishgan daha va guzarlar hajmi 12 va 12 farsaxdan iborat qo'rg'on ichiga olingan. Bu qo'rg'on ichida toshloq, cho'l yoki xaroba uchramaydi. Yozda ham, qishda ham aholi yashaydigan bu qo'rg'on yonida yana 1 farsax masofali boshqa bir qo'rg'on bor; unga yopishgan to'rt tomoni o'ralgan yana bir qo'rg'on bor. Shahardan tashqarida askarlar turadigan joy bo'lib, uning o'zi bir kichik shaharchani tashkil qiladi. Bu yerda Somoniylar avlodidan iborat Xuroson voliylari yashaydigan bir qal'a bor. Ular yashaydigan shahar o'rtasidan Sug'd anhori o'tadi. Bu anhorning quyi oqimi bo'lib, shahardan chiqqandan so'ng tegirmon, ekinzor va dalalarga ketadi. Nihoyat, bu suv Firabr yaqinida, Baykand ro'baro'sidagi «Som xos» deb atalgan ko'lga quyiladi...

Buxoroliklarning pullari Somoniylar davrida kumush bo'lgan, oltindan esa ro'zg'or asboblarida foydalanganlar. Keyinchalik pullari temir, jez, qora qo'rg'oshin va boshqa ma'danlardan zarb qilingan bo'lib, nomini al-g'itrifiya deyiladi. Bu nom Horun ar-Rashid[1] davridagi Xuroson amiri G'itrif ibn Atoga[2] nisbatan aytilgan. Bu pullar faqat Buxoro va uning atrofidagi joylardagina o'tib, boshqa joylarda o'tmas edi. Undan tashqari, al-Musoyabiya va al-Muhammadiya nomli pullar bo'lib, bular islom belgilaridan edi.

Buxorodan fanning turli sohalarida faoliyat olib borgan ko'p ulamolar yetishib chiqqan. Ulardan biri hadis ahllarining yo'lboshchilaridan, «Al-jomi' as-sahih», «Tarix» asarlari muallifi, ilm talabida Xuroson, Iroq, Shom, Hijoz, Misr mamlakatlariga safar qilgan olim Abu Abdulloh Muhammad bin Ismoil al-Buxoriy 194-yilda tug'ilib, 206-yilda vafot etgan.

Buxorodan, shuningdek, mashhur tabib Abu Ali ibn Sino Buxoriy chiqqan. U Hamadon hokimi Shams ad-Davlaga vazir bo'lgan (II, 81 – 86-betlar).

Bikand (Paykand) – Buxoro bilan Jayhun o'rtasidagi bir shahar bo'lib, Buxorodan keluvchiga bir manzillik masofa. Bikanddan ko'p olimlar chiqqan hamda chiroyli va katta shahar.

«Kitob al-iqlim» muallifi shunday deydi: «Bikandning musofirxonalari shunchalik ko'pki, Movarounnahrda unga o'xshash shaharni bilmayman.

[1] *Horun ar-Rashid* – Abbosiy xalifa (786 – 809).

[2] *G'itrif ibn Ato* – Xuroson amiri, 792 – 793-yillarda hukmronlik qilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Eshitishimga ko'ra, u yerda mingdan ortiq musofirxona bor. Uning mustahkam va katta masjidi bor. Bu masjidga ko'p ahamiyat berilib, shunday ziynatlanganki, Movarounnahrda uning mehrobidek mehrob yo'q. Iroq, Damashq va Misrga o'qish uchun borgan va 400 dan ortiq asar muallifi, hofizi hadis, 412-yilda vafot etgan olim Abu Fazl Ahmad ibn Ali al-Bikandiy shu yerlikdir» (II, 339–340).

Samarqand – Abu Avnning[1] aytishicha, bu uzunligi 89,5 va kengligi 36,5 darajada joylashgan shahar. Samarqand Sug'dning markaz shahri. U Sug'd vodiysining janubida joylashgan.

Aytishlaricha, Samarqandning devorlari aylanasiga o'n ikki farsaxdir. Unda bog'lar, ekin maydonlari va tegirmonlar mavjud. Shuningdek, uning o'n ikki darvozasi bo'lib, har birining orasi bir farsaxdir. Devorlarining yuqori qismida arklar va harbiy qorovullar uchun maxsus qo'rg'onlar bor. U yerda binolar va bozorlar ko'p. Shaharning o'n ikki darvozasi temirdan bo'lib, ularning har birining orasida soqchilar uchun manzillar mavjud. Shaharda, shuningdek, jome masjidlari, kuhandiz va sulton qasri ham bor. Samarqandga Kirmoniya, Dabusiya, Usrushana, Shosh, Naxshab va Banokat qaraydi. Aytishlariga qaraganda, yer yuzida Samarqanddan xushmanzara va chiroyli shahar yo'q. Husayn ibn al-Munzir ar-Raqoshiy Samarqandning butun atrofi ko'm-ko'k bo'lganligi uchun uni osmonga, baland-baland imoratlarini yulduzlarga, o'rtasidan oqqan anhorni mijarraga[2] va atrofidagi soya berib turgan qo'rg'onini quyoshga o'xshatgan (V, 121–123).

Shozavon – Samarqandning janubiy tomonidagi bir tog'ning nomi. U yerda shu nomdagi qishloq va qishlov joylar bor. Samarqandda havosining tozaligi, meva va ekinlarining yaxshi bo'lishi jihatidan Shozavondan yaxshiroq qishloq yo'q. Aholisi har xil va jismoniy tomondan eng sog'lom kishilardir. Bu qishloqning uzunligi 10 farsax, hatto, undan ham ziyod. Bu qishloqning tog'i – Shozavon Samarqandga eng yaqin tog'lardan biridir (V, 208).

Kuhak – Samarqand darvozalaridan birining nomi bo'lib, shu shaharga eng yaqin turgan tog'lardan biri Kuhakdan bir kichik manzilchalik masofadadir. Bu tog'ning uzunligi yarim milyaga yaqin keladi. Samarqandliklar toshni va sopol idishlarga ishlatiladigan tuproqni shu yerdan oladilar. Shisha, ohak va shu kabi narsalar tayyorlash uchun ishlatiladigan xomashyoni ham shu tog'dan oladilar (VII, 303).

Xartang – Samarqanddan uch farsax masofada joylashgan qishloq. U yerda hadis olimi Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning qabri bor. Al-Buxoriy Buxorodan Samarqandga kelayotganida xartanglik Abu Mansur G'olib ibn Jabrail al-Xartangiyning uyiga qo'ngan va shu uyda vafot etgan (III, 415).

---

[1] *Abu Avn Is'hoq ibn Ali* (XIII asr) – arab astronomi.

[2] *Mijarra (majarra, mujarra)* – Somon yo'li (*Ilm. muhar.*)

@tarixchi_kutubxonasiga

Xarqon – Samarqanddan 8 farsax uzoqlikdagi bir qishloq. Adib Abu Fath Ahmad ibn al-Husayn ash-Shoshiy al-Xarqoniy al-Farobiy bu yerga mansubdir. Bu kishining otasi Shoshlik bo'lib, o'zi 469-yilda Xarqonda tug'ilgan. Samarqand tog'lari orasidagi Farob qishlog'ida yashagan. U 505-yilda vafot etgan. As-Sam'oniy[1] Samarqandda u kishining bir qancha kitoblarini o'qigan (III, 21).

Ishtixon – Samarqand Sug'di qishloqlaridan biri. U bilan Samarqand orasi 7 farsax. Al-Istaxriy so'ziga ko'ra, Ishtixon Samarqand vodiysidan ajralgan, alohida bir shahar bo'lib, unga qarashli qishloqlari bor. Uning yerlari serunum, meva va ekinzorlari ko'p, ozoda bir shahardir. Uning alohida shahari va qal'asi, anhori va dalalari bor. U yerdan Abu Bakr Muhammad bin Ahmad al-Ishtixoniy yetishib chiqqan bo'lib, u shofeiy mazhabi yo'lboshchilaridan edi. Firabriydan «Sahih ul-Buxoriy»ni rivoyat qilgan. 381-yilda vafot etgan (I, 255 – 256).

Zomin – Abu Sa'd [as-Sam'oniy] so'ziga ko'ra, Zomin Samarqand tomondagi bir shaharchaning nomi bo'lib, Usrushana viloyatlaridan biri. Al-Istaxriy shunday deydi: «Usrushananing eng katta shahari Banjikat, undan keyin kattalikda Zomindir». Zominning ikkinchi nomi – Sabza.

Sug'ddan Farg'onaga boruvchilar uchun Zominda qo'noqxona bor. Zomin oqar suvli, bog'dor va uzumzor joy. Zominning orqa tomonida Usrushana tog'lari, uning o'ngi – g'arb tomonida cho'l bor. Zomin bilan Sobot o'rtasi 2 farsax va u bilan Usrushana orasi 7 farsax. Zomindan Shoshgacha 25 farsax. Shoshdan kumush konigacha 7 farsax (IV, 370).

Naxshab – Movarounnahr shaharlaridan biri. U Samarqand bilan Jayhun o'rtasida joylashgan; Buxoro yo'lida emas, chunki Buxorodan Samarqandga boruvchi kishi Naxshabni chap tomonda[2] qoldiradi. Naxshab va Nasaf ikkalasi bir joy. Naxshab bilan Samarqand orasi uch manzil. U yerdan hadisshunos olim Abdulaziz bin Muhammad an-Nasafiy an-Naxshabiy al-Osimiy yetishib chiqqan bo'lib, u 456-yilda vafot etdi. Nasaf haqida al-Istaxriy: «Qal'a va devori bo'lgan bir shahardir», deydi. U Buxoro va Balx yo'lida, tekis yerda joylashgan bo'lib, to'rtta darvozasi bor. Kesh tomondagi tog'lar Nasafdan ikki manzillik yo'ldir. Nasaf bilan Jayhun orasida quruq cho'l bor. Nasafda bittagina anhor bo'lib, u shahardan chiqib, qishloqlarga taraladi. Nasaf hokimining idorasi shu anhor bo'yida Ra's al-Qantara (Ko'prik boshi) degan yerda joylashgan.

Nasafga qarashli ko'pgina qishloqlar bo'lib, ularda yer ostidan qaynab chiqadigan buloqlar bor. Nasafning ko'pchilik yeri hosildor. Bu yerlardagi

[1] *Abu Sa'd Abdulkarim as-Sam'oniy* (1113–1167) – «Kitob al-ansob» («Nasablar haqida kitob») asari muallifi nazarda tutilgan.

[2] To'g'risi: o'ng tomonda (– *ibn. muhar.*)

@tarixni_kutubxonasiga

bog' va ekinzorlar, yuqorida aytilgan anhor ba'zi yillari tinib qolganda, quduq suvidan sug'oriladi (VIII, 273, 286).

Farg'ona – Movarounnahrdagi bir shahar va katta viloyat. Turkiston mamlakatlariga chegaradosh. Kun chiqishda, Xaytol tomonda turk mamlakatlariga borishda o'ng qo'lda. U ko'p barakali bo'lib, Batlimusning[1] aytishicha, 123 daraja uzunlikda joylashgandir. Uning ilgari qirq minorasi bo'lgan. U bilan Samarqand orasi 50 farsax. Unga qarashli shaharlardan biri Xo'jand.

Turklar [yerlari] bilan Farg'ona orasidagi tog'larda uzum, yong'oq, olma va boshqa mevalar; gul, binafsha kabi yaxshi hidli o'simliklar ko'p. Ularning egasi yo'q, xohlagan kishi olaveradi. Yana Movarounnahr tog'larida, jumladan, Farg'ona tog'ida boshqa tog'larda uchramaydigan pistalar bor, ularni ham xohlagan kishi olaveradi.

Al-Istaxriy shunday deydi: «Farg'ona keng yer, unga qarashli shahar va qishloqlari ham katta, uning katta shahri Axsikasdir». Movarounnahrda qishloqlarining ko'pligi jihatidan Farg'onadek viloyat yo'q. Uning aholisining ko'pligi, ekinzorlarining kengligi va chorvasining tarqalib ketganligi uchun ham har bir qishloqning orasi bir manzilga yaqin keladi. Ibn al-Faqihning[2] aytishicha, «Farg'onani Anushirvon bino qilib, u yerga har bir xonadondan bittadan kishini ko'chirgan, shu munosabat bilan Farg'ona nomi «Azharxona» (har bir xonadondan) deb atalib ketgan» (VI, 364).

O'zkand – u Uzjand va Yuzjand ham deyilardi. Uzkand Farg'onaning eng chekkasida, musulmon bo'lmagan shaharlarga qo'shni bir shahar. Uning qal'a va bir qancha darvozalari, bog' va oqar suvlari bor. Turklarning savdo yo'li O'zkandgacha boradi (I, 374–375).

Axsikas – Farg'ona tomondagi bir katta shahar bo'lib, Shosh daryosining yoqasidagi tekis yerda joylashgan. Daryoning shimoliy tomonidagi tog'lar bilan Axsikas orasidagi masofa bir farsax. Uning 3 farsaxga yaqin qo'rg'on va atrofida odam yashaydigan joylari bor. Axsikas ichki shahrining to'rtta darvozasi bo'lib, uning imoratlari loydan yasalgan. Shahar ichida va qo'rg'oni atrofida oqar suvlar va katta hovuzlar bor. Qo'rg'onda bir-biriga tutashgan bog'lar va hech tinmay oqadigan bir farsax uzunlikdagi ariqlari bor. Bu yer Movarounnahrda eng xushmanzara joylardan biri. U yerdan til va tarixda peshqadamlardan bo'lgan Abu Vafo Muhammad bin Muhammad al-Axsikasiy yetishib chiqqan bo'lib, u 520-yilda vafot etgan (I, 150).

Xo'qand – Farg'onada bir shahar nomi. 501-yili vafot etgan adib, ustoz Abu Tayyib Tohir ibn Muhammad al-Maxzumiy al-Xo'qandiy shu yerlik bo'lgan (III, 480).

---

[1] *Batlimus* – Klavdiy Ptolemey (II asr), qadimgi yunon geografi.

[2] *Ibn al-Faqih al-Hamadoniy* (IX asr oxiri –X asr boshlari) – arab geografi.

@tarixiy_kutubxonasiga

Xo'jand – Movarounnahrda Sayhun bo'yida joylashgan mashhur shahar. U bilan Samarqand orasi sharq tomonda o'n kunlik yo'l. Xo'jand pokiza shahar, u atrofda undan pokizaroq va mevasi yaxshiroq shahar yo'q. Uning o'rtasidan daryo o'tadi, o'zi esa toqqa yaqin. Shoir Ibn al-Faqih bu shahar haqida: «Men Sharqda ham, G'arbda ham Xo'janddan chiroyliroq shaharni ko'rmadim. Uni ko'rgan har bir kishi maftun bo'lmay qolmaydi», – deydi.

Al-Istaxriy shunday deydi: «Xo'jandning odamlari chiroyli va muruvvatli kishilardir; uning mevasida ham boshqa shahar mevasidan afzallik bor». Xo'jandga mansub ilm ahllari ko'p. Jumladan, Abu Imron Muso ibn Abdulloh al-Xo'jandiy adib va olim bir kishi bo'lib, uning hikmatli so'zlar va zarbulmasal o'rnida yuradigan gaplari rivoyat qilingan va yozib qoldirilgan (III, 402).

O'sh – Farg'ona tomonda Quboga yaqin bir katta shahar. Uning bitta qo'rg'oni va to'rtta darvozasi bor. Bu shahar bir toqqa yopishgan bo'lib, unda turklardan qo'riqlab turuvchi qorovullar turadi. O'sh juda serunum joy (I, 374–375).

Buttam – Farg'ona viloyatidagi bir qo'rg'on nomi. U, aytishlaricha, juda mustahkam qo'rg'on bo'lib, unda oltin, kumush, zoj, tuz va novshadir konlari bor. Bu yerda bir tog' bor. Uning g'orga o'xshash joyidan hamma vaqt kunduzi tutunga va kechasi olovga o'xshash bug' chiqib turadi. U bug' qotsa, novshadirga o'xshash bir modda bo'lib qoladi. Bu g'orga issiqligidan hech kim kira olmaydi, ehtimol namad ho'llab kirish mumkindir.

Buttam yana uchta tog'ning ismidir. Ular Buttam, O'rta Buttam va Ichki Buttam deb ataladi. Buxoro, Samarqand va, umuman, Sug'd suvlari shu O'rta Buttamdan keladi. Bu suv Burg'ar va Munjikat orqali Samarqandga oqib keladi. Sag'oniyon daryosi ham shu suvdan (II, 57).

Sug'd – U Buxoro viloyatiga qarashli sersuv, serdaraxt va bog'lari kishini o'ziga tortuvchi bir qishloq. Undagi daraxtlarning ko'pligidan binolari ko'rinmaydi va ko'p yerlariga quyosh nuri tushmaydi. Buxoro bilan Samarqand orasida qishlovlari ko'p. Uning markaz shahri Samarqand, Abu Abdulloh al-Maqdisiy[1] aytishicha, Sug'dda 12 ta qishloq bor. Ulardan Bunjkas, Varag'sar, Maymurg', Abg'ar, Sihrqa'r, Darg'am va Avfar nomli oltitasi shu yerdagi daryoning janubiy tomonida. Qolgan oltitasi esa daryoning shimoliy tomonida joylashgan. Ular Borkas, Varimad, Burmojar, Kabuzanjakas, Vazor va Marzubondan iborat. Sug'dning katta shaharlari: Kushoniya, Ishtixon, Dabusiya va Karminiyadir (V, 86).

[1] *Shamsiddin Abu Abdulloh ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Muqaddasiy (al-Maqdisiy)* (946–1000) – arab sayyohi va geografi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Al-Jayhoniy[1] bunday deydi: «Sug'd – inson suratiga o'xshaydi – uning boshi Bunikas, ikki oyog'i Kushoniya, orqasi Vafr, qorni Kabukas, ikki qo'li Maymurg' va Buzmoxardir. Uning sathi 36 va 46 farsax...» Al-Hoziniy aytishicha, Sug'd ikkita bo'lib, biri Samarqand Sug'di va ikkinchisi Buxoro Sug'didir (V, 363–364).

Dabusiya – Movarounnahrda Sug'dga qarashli bir shaharcha. Bu yerdan ko'p ilmli kishilar yetishib chiqqan, jumladan, 432-yili vafot etgan Abu Qosim Ali al-Husayniy ad-Dabusiy shu yerlikdir. Bu kishi adabiyot, mantiq va fiqh ilmida peshqadam edi. U Bag'doddagi «an-Nizomiya» madrasasida dars bergan (IV, 33).

Shosh – ikkita joy bu nomda bo'lgan. Biri qishloq bo'lib, u haqda gapirilmagan. Ikkinchisi, ko'pgina adiblar, olimlar yetishib chiqqan Shosh shahri bo'lib, Batlimusning aytishicha, u 124 daraja uzunlikda va 45 daraja kenglikda joylashgan. Shosh Movarounnahrda Sayhunning orqasida, turk mamlakatlariga chegaradosh. U yerdan lug'at, tafsir va fiqh ilmida butun dunyoga dong'i ketgan olim Abu Bakr Muhammad ibn Ali al-Qaffol ash-Shoshiy yetishib chiqqan. U ilm talabida Damashq, Iroq yurtlariga safar qilgan. O'z yurtiga qaytganida Shosh ahli unga ergashdi va fiqhda undan ta'lim oldi. U 291-yilda tug'ilib, 366-yilda vafot etdi.

Al-Istaxriyning aytishicha, Shoshning bir tomoni Xorazm ko'liga yondoshgan Shosh vodiysi bilan, ikkinchi tomoni cho'ldagi Temir darvoza bilan chegaralanadi. Bu darvoza Qalos deb ataladigan cho'l bilan Isbijob o'rtasida. Cho'l esa mol boqiladigan o'tloqdan iborat. Shoshning uchinchi tomoni Qariyat an-Nasoro (Nasoro qishlog'i) deb ataladigan Tankaraga borib taqaladi. To'rtinchi tomoni esa, Shosh viloyatiga qarashli tog'larga borib yetadi. Toqqa yaqin va tog' oralaridagi binolari pastakdir.

Bir-biriga yopishgan imoratli Shosh tekis yerda joylashgan, unda tog' va balandliklar yo'q. Shoshning hamma hovlilaridan suv oqadi. Imoratlari loydan keng qilib ishlangan. Atrofi ko'kat ekinlar bilan qoplangan. Shosh Movarounnahr shaharlarining ko'rkamidir. Binkas unga qarashli shahar. Shoshga qarashli ko'pgina shaharlar bor edi. Hammasi bizning vaqtimizda xarob bo'lib ketdi. Ularni xorazmshoh Muhammad eplay olmay, vayron qildi. Podshoh shahar kattalarini o'ldirdi va aholisini ko'chirdi.

Ibn al-Faqih: «Samarqanddan Zomingacha 17 farsax masofa; Zomin ikki yo'lga ajraladigan joy: biri – Shosh va turklarga, ikkinchisi – Farg'onaga. Zomindan Shoshgacha 25 farsax; Shoshdan kumush konigacha 7 farsax; Temirdarvozagacha 2 milya; Shoshdan Borjoxgacha 40 farsax va Asfijobgacha 22 farsax», – deydi (V, 212–214).

[1] *Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Nasr al-Jayhoniy* (IX asr oxiri – X asr birinchi choragi) – O'rta Osiyolik geograf.

@tarixchi_kutubxonasiga

Binkas – Al-Istaxriy so'zicha, u Shosh iqlimidagi bir kichik shaharning nomi bo'lib, shaharidan tashqarida eski qal'asi bor. Shahar devoridan va devor ichkarisidagi bog'-rog'lardan suv o'tadi.

Qalos tomonda, Sobala nomli tog'dan devor tortilgan bo'lib, u Shosh vodiysigacha boradi. Bu devor turklarni ichkariga kirishdan qaytaradi. Uni Abdulloh ibn Hamid bino qilgan. Agar shu devordan bir farsax tog'dan vodiy tomonga qarab o'tsang bir xandaq bor.

Binkasdan olim, adib va sayyoh Abu Said al-Haysam ibn Kulayb ash-Shoshiy al-Binkasiy yetishib chiqqan (II, 293–294).

Iloq – Shosh shaharlaridan biri bo'lib, turk shaharlariga yondashgan. Shoshdan 10 farsax nari. U juda sermanzara va ko'rkam viloyat; uning qishloqlari Shosh qishloqlari bilan tutashib ketgan. Katta qishlog'i Tunkas.

Iloqning tog'larida oltin va kumush konlari bor. Bu tog'larning orqasi Farg'ona chegaralariga yopishgan. Fiqh ilmi peshvolaridan Abu Robi' Tohir bin Abdulloh al-Iloqiy shu yerga mansub bo'lib, u 96 yoshida 465-yilda vafot etgan (I, 390).

Tunkas – Abu Sa'dning aytishicha, Tunkas Shosh qishloqlaridan biri. Al-Istaxriy: «Tunkas – Iloqning kichik bir shaharchasi, Shosh shaharchasi bo'lgan Binkasning yarmidan ham kichik», – deydi. Tunkasning eski shahri va uning devori bor (II, 425).

Borjoh – bir tepalikning nomi. U bilan Shosh orasi 40 farsax. Uning atrofida 1000 ta buloq bor. Hammasi ham kun chiqish tarafdan kun botish tomonga qarab oqadi. Bularni «Birkub ob» deb ham atashadi. U yerda qirg'ovul ovlanadi (II, 32).

Asbara – Shosh viloyatining eng oxiridagi bir nohiya. U yerda neft, feruza, temir, jez, oltin va qo'rg'oshin bor. U yerda bir qora tog' bo'lib, toshlari ko'mirdek yonadi, so'ng uning kuli oppoq bo'lib qoladi. Odamlar uni kiyimlarni oqartirishda ishlatadilar. Al-Istaxriy aytishicha, bu tog'dan boshqa hech yerda bu xil tosh topilmaydi (I, 220–221).

Usrushana – Movarounnahrda katta bir shahar bo'lib, 91 daraja uzunlik va 36 daraja kenglikda joylashgan. Uni Qunb ham deyiladi. U Samarqand bilan Sayhun o'rtasidagi Xaytol shaharlaridan biri: Samarqand bilan orasi 26 farsaxni tashkil etadi. Al-Istaxriy aytishicha, Sug'd ham iqlim nomi bo'lganidek, bu ham bir iqlim nomi. U yerda bu nomda na bir joy bor va na bir shahar. Usrushana ko'proq tog'liklardan iborat. Uning sharqiy tomoni Farg'ona, g'arbiy tomoni Samarqand chegaralari, shimoli Shosh va Farg'onaning bir qismi, janubida esa Kesh, Sag'oniyon, Shumon, Valoshjird va Roshtlarning ba'zi chegaralari bilan tutashgan. Undagi katta shahar Baloson deb ataladi. Banjikat, Sobot, Zomin, Dizzak va Xarqonalar shu iqlimga qarashli shaharlar bo'lib, uning hokimi Bunjakatda yashaydi (I, 256).

@tarixchi_kurbonasiga

Qavodiyon – Jayhun yoqasida, Termiz bilan Xuttal orasida. Sag'oniyonga qo'shni bir shahar va viloyat. Maydoni Termizdan kichikroq. Qavodiyondan sariq gulli o'simlikning qizil, ingichka va uzun bir xil ildizi chiqadi. Uning nomi al-fuvvat bo'lib, dori va bo'yoq sifatida ishlatiladi (II, 953).

IBN XALLIKON VA UNING «VAFOYOT AL-A'YON» ASARI HAQIDA

Mashhur arab tarixchisi **Shamsiddin Abulabbos Ahmad ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Abu Bakr ibn Xallikon al-Irbiliy**[1] (1211 – 1282)ni yoshlik davridanoq tarixiy ma'lumotlar, tarixga oid asarlar va ayniqsa, qaysi sohada bo'lishidan qat'i nazar, mashhur kishilarning hayot-faoliyatlari qiziqtirganligi keyinchalik «Vafoyot al-a'yon va anbau abnai az-zamon» («Mashhur kishilar vafoti va zamondoshlari haqida ma'lumotlar») asarining yozilishiga sabab bo'ldi. Unda Sharq olimlari, fozillari bilan bir qatorda, Markaziy Osiyo xalqlaridan yetishib chiqqan fan arboblari va mutafakkirlar, ularning ilmiy meroslariga ham alohida to'xtalgan.

Asar ikki qismdan iborat bo'lib, unda tarjimayi hollari bayon qilingan shaxslar ismlari alifbo tartibida joylashtirilgan. Shu tartibga muvofiq biz ham quyida mazkur asardan tarjimalar keltiramiz.

A. Yaminov

IBN XALLIKONNING «VAFOYOT AL-A'YON» ASARIDAN LAVHALAR

Rukn ad-din[2], **al-Ustoz Abu Is'hoq Ibrohim ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Mihron al-Isfaroyiniy**. Taniqli mutakallim va huquqshunos olim Abu Is'hoqni al-Hokim Abu Abdulloh[3] zikr qilib shunday deydi: «Nishopur olimlarining ko'pi undan kalom va aqida ilmini o'rganganlar. Iroq va Xuroson ahli uning chuqur ilmiy salohiyatini e'tirof etishgan»[4]. Olimning bir necha asarlari bo'lib, ulardan eng hajmi kattasi «Jome' al-haly fi usul ad-din va ar-rad ala-lmulhidin» («Din asoslari va uni inkor etuvchilarga

[1] *Irbil* – Iroqda, Dajla daryosining sharqiy qirg'og'iga yaqin joylashgan shahar.

[2] Bu so'z «Dinning ustuni» degan ma'noni bildirib, olimning ismi emas, balki unga berilgan unvon yoki laqabdir.

[3] Olimning to'liq ismi Al-Hokim Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh al-Hofiz al-Bayyi' bo'lib, 933 – 1014-yillarda yashab o'tgan va o'zining sakkiz jilddan iborat «Nishopur tarixi» asari bilan mashhur (Vafoyot al-a'yon). B. 484 – 485.; San'oniy (Bayrut, 1988). B. 550.).

[4] Olimning ism-sharifidan oldin tilga olinadigan «Al-ustoz» unvoni bu ma'lumotdan so'ng yanada ravshan bo'ladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

raddiya berishda qimmatli to'plam»)dir. Uni besh jilddan iborat ekanligini ko'rdim. Isfaroyinda[1] Abu-t-toyyib at-Tabariy[2] islom huquqshunosligini undan o'zlashtirgan. Uning uchun Nishopurda maxsus madrasa bino qilinganligi haqidagi ma'lumotni Abulhasan Abdulg'ofir al-Forisiy (1054 – 1134) o'zining «Nishopur tarixi» asarida keltirib, olim xususida shunday deydi: «Abu Is'hoq bir necha ilmlarni chuqur bilgani va rahbarlik shartlarini o'zida jam etganligi uchun olimlarning ijtihod qilish[3] darajasiga yetganlaridan biri bo'lib, Sharqning namunali shaxslaridandir». «Qani edi, Nishopurda vafot etsam, toki menga barcha Nishopur ahli janoza o'qisalar», – der edi olim. Ashuro kuni[4] 1027-yil Nishopurda vafot etganidan so'ng, uni Isfaroyinga olib borib dafn qildilar. Abu-l-Qosim al-Qushayriy[5] uning ilm majlislariga tez-tez borib turgan. Al-Hofiz Abu Bakr al-Bayhaqiy[6] uning asarlari va boshqa mualliflar haqida ko'plab ma'lumotlar keltirgan. Abu Is'hoq Xurosonda Abu Bakr al-Ismoiliy[7], Iroqda Abu Muhammad Da'laj ibn Ahmad as-Sijziy (vaf. 962-y.)larda tahsil olgan.

Abu Usoma Junoda ibn Muhammad al-Lug'aviy al-Azdiy al-Haraviy. Abu Usoma tilning ilgari iste'molda bo'lgan va hozirda eskirgan ma'nolarining bilimdoni, iboralarni yod olish va tarjima qilish bo'yicha o'z zamonasida tengi yo'q olimdir. U, al-Hofiz Abdu-l-G'aniy ibn Said al-Misriy[8], Abulhasan Ali ibn Sulaymon al-Maqriy an-Nahviy al-Antokiy

---

[1] *Isfaroyin* – Nishopur tarafda, Jurjonga ketaverishda yarim yo'lda uchraydigan Xuroson shaharlaridan biri (Vafoyot al-a'yon. I. B. 30.).

[2] *Abu-t-toyyib Tohir ibn Abdulloh ibn Tohir ibn Umar at-Tabariy* (959 – 1059-yy.) – yirik faqihlardan bo'lib, bir necha yil Bag'doddagi madrasalarda muallimlik qilgan va u yerda vafot etgunigacha qozilik lavozimida ishlagan (Vafoyot al-a'yon. I, 234-b.; Al-ansob. IV. B. 48.).

[3] *Ijtihod* (*arab.* «intilish, g'ayrat qilish») – diniy va huquqiy masalalar bo'yicha mustaqil fikr yuritish prinsipi.

[4] *Ashuro* – muharram oyining o'ninchi kuni.

[5] *Abu-l-Qosim Abdu-l-Karim ibn Havozin Abdu-l-Malik ibn Talha ibn Muhammad al-Qushayriy* – qonunshunoslik, huquqshunoslik, tafsir, hadis, tasavvuf, adabiyot, she'riyat, kitobat ilmlari bo'yicha yirik alloma (986 – 1072) bo'lib, asarlarining eng mashhuri Qur'on tafsiriga bag'ishlangan «At-Taysir» («Oson tushuniladigan kitob»)dir. (Vafoyot al-a'yon. I. B. 300.)

[6] *Abu Bakr Ahmad ibn al-Husayn ibn Ali ibn Abdulloh ibn Muso al-Bayhaqiy al-Hofiz al-Kabir* (994 – 1065)ning asarlari soni mingga yetgan bo'lib, ulardan mashhurlari «As-sunan al-kabir» («Katta hadis to'plam»), «As-sunan as-sag'ir» («Kichik hadis to'plam»), «Daloil an-nubuvva» («Payg'ambarlik belgilari»), «Shuayb al-iymon» («Iymonning tarkibiy qismlari») va boshqalar (Vafoyot al-a'yon. I. B. 30 – 31.)

[7] *Abu Bakr Ahmad ibn Ibrohim ibn Ismoil ibn Abbos al-Ismoiliy* (890 – 981) Jurjon ahlining yo'lboshchisi, fiqh va hadis ilmining barcha masalalari bo'yicha «murojaat qilinadigan» allomasidir (Al-ansob. I. B. 152 – 153.).

[8] *Abu Muhammad Abdu-l-G'aniy ibn Said ibn Ali ibn Said ibn Bishr ibn Marzon ibn Abdu-l-Aziz al-Azdiy al-Hofiz al-Misriy* 943 – 1018-yillarda Misrda yashab, ijod etgan olimlardan (Vafoyot al-a'yon. I. B. 305.).

@tarixchi_kutubxonasiga

o'rtalarida qalin do'stlik va ittifoq bo'lib, ular «Dor ul-ilm»[1]da yig'ilib turganlar. Ular orasida tez-tez adabiy suhbat va munozaralar bo'lgan. Bu hol Misr hukmdori al-Hokim mazkur Abu Usoma Junoda va Abulhasan al-Maqriylarni bir kunda, 399/1008-yilning zulqa'da oyida qatl etgunigacha davom etgan. Ularning qatl qilinishlari sababini al-Hofiz Abdu-l-G'aniy o'ziga ham zarar yetishidan xavfsirab oshkor etmagan. Mazkur voqeani al-Amir al-Muxtor al-Musobbihiy[2] o'z «Tarix»ida hikoya qilgan. Olimni al-Haraviy deb Xuroson shaharlaridan bo'lgan Hirotga nisbatan aytganlar.

Qaffol al-Marvaziy nomi bilan tanilgan **Abu Bakr Abdulloh ibn Ahmad ibn Abdulloh. Qaffol al-Marvaziy** – fiqh, zuhd, hadislarni yoddan bilish bo'yicha o'z davrining yagona olimidir. Shofeiy mazhabi bo'yicha uning asrida hech kimga mansub bo'lmagan ilmiy meros unga tegishlidir. Ko'p odamlar undan ilm o'rganganlar va manfaatlanganlar. Ular: Shayx Abu Ali as-Sinjiy[3], al-Qozi Husayn ibn Muhammad[4], Muhammad al-Juvayniy[5] va boshqalar. Ularning har birlari keyinchalik mashhur yo'lboshchilar bo'lib elga tanildilar, asarlari xalq orasida keng tarqalib, foydalanildi. Olim ilm bilan yoshlik davrida emas, balki keyinchalik shug'ullangan bo'lib, yigitlik davri mehnat, ya'ni qulf yasash bilan o'tganligi uchun ham uni Qaffol deb atashgan. U o'z ishining mohir ustasi edi. Aytilishicha, fiqh bilan shug'ullangan davri uning o'ttiz yoshiga to'g'ri keladi. Abu Bakr Muhammad ibn al-Haddod al-Misriyning[6] «Furu'» («Tarmoqlar») asarini juda

---

[1] X asrda Bag'dodda asos solingan ilm dargohlaridan biri (Al-Munjid, 278-b.).

[2] *Al-Amir al-Muxtor Muhammad ibn Abdulqosim Ubaydulloh ibn Ahmad ibn Ismoil ibn Abdulaziz al-Musobbihiy al-Misriy* (976 – 1029) – tarix, she'riyat, fiqh, payg'ambarlar qissalari, odob-axloq, matematika, astronomiya va yana boshqa sohalarga oid ko'plab asarlar muallifi bo'lib, o'zining o'n uch ming sahifadan iborat «Tarix»i bilan mashhur (Vafoyot al-a'yon. I. B. 515 – 516.).

[3] *Abu Ali al-Husayn ibn Shuayb ibn Muhammad as-Sinjiy* (vafoti 430/1038) – fiqhda Xuroson va Iroq uslubini jamlagan birinchi olim. Marv qishloqlaridan bo'lgan Sinjga nisbatan uni as-Sinjiy deb ataganlar (Vafoyot al-a'yon. I. B. 145.).

[4] *Al-Qozi Abu Ali al-Husayn ibn Muhammad ibn Ahmad al-Marvarruziy* (vaf. 1069-y.) – mudarrislik va qozilik lavozimlarida faoliyat olib borgan olim va bir necha fiqhiy asarlar muallifi bo'lib, o'zining «At-ta'liqa fi-l-fiqh» («Fiqhga izoh») kitobi bilan tanilgan (Vafoyot al-a'yon. I. B. 145.).

[5] *Abu Muhammad Abdulloh ibn Yusuf ibn Muhammad al-Juvayniy* (vaf. 1046-y.) – xuroson-lik olim bo'lib, Qur'on tafsiriga bag'ishlangan «At-tafsir al-kabir» («Katta tafsir»), huquq-shunoslikka oid «At-tabsira va-t-tazkira» («Ko'rsatma va eslatma») asarlari bilan mashhur (Vafoyot al-a'yon. I, 252-b; Al-ansob. II. B. 129.).

[6] *Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Ja'far al-Kinoniy* (Qurayshning Kinona qabilasiga nisbatan shunday deb atalgan) (877 – 645). Ibn al-Haddod nomi bilan mashhur shofeiy mazhabi faqihlaridan bo'lib, ajdodlaridan biri temirchilik bilan shug'ullangani uchun Ibn al-Haddod (ya'ni, temirchining bolasi) deb tanilgan (Vafoyot al-a'yon. I. B. 458.).

@tarixiykutubxonasiga

chiroyli sharhlagan. Bu asarni yuqorida biz nomlarini zikr qilgan Abu Ali as-Sinjiy va Abu-t-toyyib at-Tabariylar ham sharhlaganlar. Hajmi kichik bo'lgan bu kitob tushunilishi nihoyatda mushkul va qiyin bo'lib, uni, avvalo, o'zi tushunib, so'ngra boshqalarga ham izohlab berish uchun, haqiqatan ham, buyuk olim bo'lish kerak edi. Asar muallifining tarjimayi holi «mim» harfi (bilan boshlanadigan ismlar orasi)da berilgan. Al-Qaffolning vafoti 417 (1026)-yilga, uning 90 yoshiga to'g'ri keladi. Olim Sijistonga[1] dafn qilingan bo'lib, qabrini kishilar ziyorat qilib turadilar.

Abu Zayd Abdulloh ibn Umar ibn Iso ad-Dabusiy al-Faqih al-Hanafiy. Abu Hanifa[2] izdoshlarining eng buyuklaridan bo'lib, u haqda keltirilgan misollar bisyordir. Ilmi xilofni[3] birinchi bo'lib ishlab chiqqan va alohida yo'nalish sifatida shakllantirgan shu olimdir. «Kitob al-asror» («Sirlar kitobi»), «At-taqvim li-l-adilla» («Dalillarni to'g'rilash») kabi bir necha asarlari va boshqa mualliflarning asarlariga yozgan sharhlari mavjud. Ba'zi faqihlar bilan munozara qilganligi rivoyat qilinadi. Qachon Abu Zayd bilan munozaraga kirishsa, tabassum bilan javob qaytarardi. Abu Zayd o'z she'rida shunday deydi:

«Menga nima bo'ldiki, tushuna olmayapman, har qachon unga dalil-hujjat keltirib munozara qilsam, meni doimo kulgi va qahqaha bilan qarshi oladi».

Huquqshunos olim Buxoro shahrida 430 (1038)-yilda vafot etgan. Uni ad-Dabusiy deb Buxoro va Samarqand orasidagi Dabusiya shaharchasiga nisbatan ataganlar. U yerga olimlardan yana boshqa bir qanchalari mansubdir.

Abubakr Muhammad ibn Ahmad ibn al-Husayn ibn Umar ash-Shoshiy al-Faqih. Asli shoshlik[4] bo'lib, Mayyoforiqiynda[5] tavallud topgan, «Mustazhiriy», «Faxru-l-islom» nomlari bilan mashhur bo'lgan mazkur olim o'z davrining yirik faqihi edi. U dastlab Mayyoforiqiynda Abu Abdulloh Muhammad al-Kozuruniy va Abu Muhammad al-Juvayniyning do'sti Qozi Abu Mansur at-Tusiyda, to u qozilik lavozimini tark etgunigacha huquqshunoslikni o'rganadi. Keyin Bag'dodga borib, Shayx Abu Is'hoq ash-Sheroziyning[6] huzurida, ilgari o'rganganlarini takrorlash bilan birga, yana

---

[1] *Sijiston* – Hirotning janubida joylashgan nohiyalardan bo'lib, ularning orasini 80 farsax (taxminan 450 km) masofa tashkil etadi.

[2] *Abu Hanifa an-Nu'mon ibn Sobit* (taxallusi *Imomi A'zam* (699–767) – sunniylikdagi hanafiya mazhabining asoschisi va imomi, ilohiyotchi faqihlardan biri.

[3] *Ilmi xilof* – fiqhning munozarali va tortishuvli masalalari bo'yicha alohida yo'nalishi.

[4] *Shosh* – Toshkentning qadimgi nomi.

[5] *Mayyoforiqiyn* – Mosulning shimoli-g'arbida joylashgan shahar. (Al-ansob. IV. B. 334.)

[6] *Shayx Abu Is'hoq Ibrohim ibn Ali ibn Yusuf ash-Sheroziy* (1002–1083) – o'z davrining ko'zga ko'ringan allomasi bo'lib, Bag'doddagi «Nizomiya» madrasasini o'ttiz yildan ortiq boshqarib, ham u yerda mudarrislik qilgan, ellik yilga yaqin fatvo ishlari bilan shug'ullangan. (Mu'jam al-buldon. V. B. 320.; Vafoyot al-a'yon. I. B. 4.)

@tarixchi_kutubxonasiga

bilim olishda davom etadi. So'ng Abunasr ibn Sabbog'da[1] uning qalamiga mansub «Kitob ash-shomil fi-l-fiqh» («Huquqshunoslikka oid keng qamrovli kitob»)ni o'rganadi. Ustozi Abu Is'hoq bilan birga Nishopurga borib, Imom al-Haramayn[2] huzurida bir masala xususida nihoyatda go'zal va'z qilib berganligi, so'ng yana Bag'dodga qaytib borganini Hofiz Abdulg'ofir al-Forisiy (1059–1134) o'zining «Nishopur tarixi» nomli asarida aytib o'tadi.

Olim Iroqda fiqhiy masalalarni hal qilish bo'yicha ustozi Abu Is'hoqdan keyin uning mavqeida qoladi va shofeiylarga boshchilik qilish uning qo'liga o'tadi.

Abubakr yozgan asarlardan biri «Hilya al-ulamo» («Olimlar qadr-qimmati»)dir. Unda olim shofeiy mazhabi haqida gapiradi va har bir masala xususida olimlarning turli fikrlarini alohida-alohida keltirib, asarni Mustazhir billohga[3] bag'ishlab yozgani uchun «Al-Mustazhiriy» deb nomlaydi. Shuningdek, u fiqhning munozarali masalalari xususida ham asarlar yozgan.

Olim 504 (1110)-yildan boshlab to vafot etgunigacha Bag'doddagi «Nizomiya» madrasasida ham mudarrislik qilib, ham uning ta'lim tizimini boshqargan. Ungacha bu vazifani ustozlari Abu Is'hoq ash-Sheroziy va «Kitob ash-shomil fi-l-fiqh» muallifi Abunasr ibn Sabbog', «Tatimma al-ibona» («Izohga qo'shimcha») muallifi Abusaid al-Mutavalliy, Abu Homid al-G'azzoliy (1058–1111) ado etgan edilar. Menga olimlardan ba'zilari quyidagi voqeani aytib berishgan:

Bir kuni Abubakr dars o'ta turib, dastro'molini ikki ko'ziga qo'yib, kursiga o'tirib oldi-da, uzoq yig'ladi va ungacha ushbu madrasada faoliyat olib borgan mazkur olimlarning fazilatlarini e'tirof etgan holda bayt o'qidi. Baytni bir necha bor qayta-qayta o'qir, ko'zidan tinmay yosh to'kilar edi.

O'z o'rnida Abubakrning ham nomlari esga olingan shaxslarga munosib izdosh va o'rinbosar bo'lganini uning shogirdlari Abulmajd ibn Kasir al-Bolisiy va Abu-l-Alo al-Ma'riylar o'z qasida va marsiyalarida ifoda etganlar.

Abubakr ash-Shoshiy 429 (1037)-yil muharram oyida Mayyoforiqiynda tug'ilgan bo'lib, 507 (1114)-yil shavvol oyining o'n beshinchisi, shanba kuni Bag'dodda vafot etgan va «Bobi Sheroz» maqbarasiga, ustozi Abu Is'hoq

---

[1] To'liq ismi: *Abu Nasr Abdusayid ibn Muhammad ibn Abdulvohid ibn Ahmad ibn Ja'far* (1009–1084). Ibn Sabbog' nomi bilan tanilgan mazkur faqih «Nizomiya» madrasasining ilk boshqaruvchisi va mudarrisi bo'lgan (Vafoyot al-a'yon. I. B. 303–304.).

[2] *«Imom al-haramayn» Abu-l-Maoliy Abdulmalik ibn Abu Muhammad Abdulloh ibn Yusuf al-Juvayniy* (1028–1085) – bir necha diniy bilimlarni egallab, Makkada to'rt yil istiqomat qilib, ilmiy faoliyat olib borgan, Madinada mudarrislik va fatvo ishlari bilan shug'ullangan. Shu sababli Imom al-haramayn, ya'ni ikki muqaddas joyning imomi, rahbari deb atalgan (Vafoyot al-a'yon. I. B. 287.; Al-ansob. II. B. 129.).

[3] *Mustazhir billohning* to'liq ismi *Abulabbos Ahmad ibn Abdulloh al-Muqtado ibn Muhammad ibn al-Qoim* bo'lib, Abbosiy xalifalardan (Dehxudo. Lug'atnoma, 18391-b.).

@tarixchi_kutubxonasiga

ash-Sheroziy bilan bir qabrga, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra esa, uning yoniga dafn etilgan.

O'z asrining himoyasiz yo'lboshchisi[1] **Abubakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al-Qaffol ash-Shoshiy.** O'z vaqtida Movarounnahrda shofeiylar orasida Abubakr kabi fiqh, hadis, ilohiyot ilmi va she'riyat bilimdoni bo'lmagan. U Xuroson, Iroq, Shom, Sag'ur yerlarida bo'lib, dovrug'i yana boshqa bir qancha davlatlarda tarqalgan. Fiqhni Ibn Surayjdan (vaf. 918-y.) o'rgangan. Ko'plab asarlar muallifi bo'lgan Qaffol faqihlar ichida birinchi bo'lib chiroyli bahs-u munozara qilishni yo'lga qo'ygan. Shuningdek, u «Kitob fi usul al-fiqh» («Huquqshunoslik asoslari haqida kitob»), «Sharh ar-risola» («Risolaga sharh») asarlari muallifidir. Mamlakatida shofeiy mazhabi undan tarqalgan. Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (839–922) va uning safdoshlari Abubakrning ustozlari hisoblanadilar. Al-Hokim Abu Abdulloh, Ibn Mandah[2], Abu Abdurahmon as-Sullamiy (941–1021) va boshqa bir qancha kishilar undan xabar va ilmiy ma'lumotlar rivoyat qilganlar. U «Kitob at-taqrib» («Yaqinlashish kitobi»)ning muallifi Qosimning otasidir. U (asar) haqida «An-nihoya»[3], «Al-vasit va-l-basit»larda[4] ma'lumot berilgan. Abu Homid al-G'azzoliy u (Qosim)ni «Kitob ar-rahn» («Kafolat kitobi»)ning ikkinchi bobida Abulqosim deb tilga oladi. Ammo bu xato bo'lib, to'g'risi Qosimdir. Al-Ijliy[5] «Sharh mushkilot al-vajiz va-l-vasit» («Aniq va o'rtacha ma'lumotlarning maqsadlarini tushuntirish») asarining ikkinchi bobi, «Niyat kitobi»da «Kitob at-taqrib»ning muallifi Abubakr al-Qaffol, ba'zilarning aytishicha, uning o'g'li Qosim, shuning uchun ham Qaffolni «Kitob at-taqrib»ning sohibi deb taxminiy aytadilar, deydi.

Men (Ibn Xallikon) shunday deyman: «Men 665 (1266)-yil shavvol oyida Damashqdagi Odiliya madrasasining kitoblar xazinasida asli o'n jilddan iborat «Kitob at-taqrib»ning olti jildini saqlanayotgan holda ko'rdim. Asarning ustiga uning muallifi Abubakr al-Qaffol ash-Shoshiyning o'g'li Abulhasan al-Qosim, mazkur nusxa Shayx Qutbiddin Mas'ud an-Nisoburiyga tegishli

---

[1] Bu ibora olimning yuqori saviyadagi ilmiy salohiyatini, o'z davrida bo'lgan bahs-u munozaralarda uning himoyaga va himoyachiga muhtoj bo'lmaganini anglatadi.

[2] *Abu Abdulloh Muhammad ibn Yahyo ibn Mandah al-Abdiy al-Hofiz* (vaf. 914-y.) o'zining «Isfahon tarixi» asari bilan mashhur (Vafoyot al-a'yon. I. B. 487.).

[3] Asarning to'liq nomi «Kitob an-nihoya al-matlab fi diroya al-mazhab» («Mazhabni bilishda talab chegarasi haqida kitob») bo'lib, muallifi Imom al-Haramayn Abu-l-Maoliydir. (Vafoyot al-a'yon. I. B. 287.)

[4] To'liq nomi «Kitob al-vasit va-l-basit va-l-vajiz va-l-xulosa fi-l-fiqh» («Fiqhda o'rtacha, oddiy, aniq va sara ma'lumotlar») deb ataladigan ushbu asarning muallifi Abu Homid al-G'azzoliydir (Vafoyot al-a'yon. I. B. 464.).

[5] *Abu Ali Ahmad ibn Sa'd ibn Ali al-Ijliy* 1065-yilda tug'ilib, 1140-yil Hamadonda vafot etgan. (Al-ansob. IV. B. 161.)

@tarixchi_kutubxonasiga

bo'lib, uni vaqf qilganligi yozilgan edi. Bu «Kitob at-taqrib» Sulaym ar-Roziy (vaf. 1055-y.) qalamiga mansub «Kitob at-taqrib» emas. Men faqihlardan ko'plarini ko'rdimki, Sulaymning asarini Qaffolniki deb ishonadilar. Shuning uchun ham bu masalaga chuqurroq yondashdim. Qaffolning o'g'liga mansub bo'lgan «Kitob at-taqrib»ning soni juda kam. Sulaymning asari esa odamlarning qo'llarida mavjud. Xuroson faqihlari o'qib o'rganadigan «Kitob at-taqrib» ham shudir».

Qaffol ash-Shoshiyning vafoti haqida ixtiloflar bor. Shayx Abu Is'hoq ash-Sheroziy «Tabaqot al-fuqaho» («Faqihlar tabaqalari») asarida bu xususda 336 (948)-yilga ishora etsa, Ibn al-Bayyi' nomi bilan tanilgan al-Hokim Abu Abdulloh an-Nisoburiy olimni 365 (975)-yil, zulhijja oyida, Shoshda vafot etgan, deydi va u bilan o'zaro maktublar almashganini aytadi. Bu sana va xabarni «Kitob al-ansob» muallifi as-Sam'oniy (1112–1166) ham tasdiqlaydi va Qaffolning 291 (903)-yilda tug'ilganini qo'shimcha qiladi. «Kitob az-zayl» («Ilova kitobi»)da esa as-Sam'oniy uni 366 (976)-yil vafot etgan, deydi. «Kitob al-ansob»da ham «Ash-Shoshiy»ning tarjimayi holida ta'kidlaganimizdek, shunday deyilgan.

Olimga berilgan Ash-Shoshiy nisbasi Sayhun daryosi ortida joylashgan shahar Shoshga nisbatdir. U yerdan ko'p olimlar yetishib chiqqan. Bu Qaffol marvlik Qaffol emas. Qaffol al-Marvaziy haqida yuqorida batafsil to'xtaldik. U Qaffol ash-Shoshiydan keyin yashagan.

Rukniddin Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad (ba'zi manbalarda Ahmad) al-Amidiy al-Faqih al-Hanafiy as-Samarqandiy. Fiqhning ilmi xilof yo'nalishi bo'yicha buyuk yo'lboshchilardan bo'lib, fanlarni tasniflashda birinchi bo'lib unga alohida o'rin ajratgan olimdir. Ustozi Shayx Rizouddin an-Nisoburiyda bilim olib, shu fanni chuqur o'rganib, keyinchalik har birlari alohida «rukn», ya'ni dinning ustunlari, asoslari deb e'tirof etilgan to'rt buyuk shaxsning biridir. Ular: Rukniddin at-Tovusiy, mazkur Abu Homid, Rukniddin Imomzoda bo'lib, to'rtinchi olimning kim ekanligini eslay olmadim. Olimning bu fan bo'yicha yozgan «Tariqa» («Yo'nalish») asari faqihlar orasida mashhurdir. Uning «Al-irshod» («To'g'ri yo'lga yo'llash») asariga shu sohaning bir necha arboblari sharhlar bitganlar. Ular: Damashq qozisi Shamsiddin Abulabbos Ahmad ibn al-Xalil ibn Saodat ibn Ja'far ibn Iso al-Xuvayyiy, Manbij[1] qozisi Avhadiddin ad-Duvniy, Najmiddin al-Marandiy, Badriddin al-Marog'iy va boshqalar. Olimning yana bir asari «Kitob an-nafois» («Qimmatli ma'lumotlar kitobi»)ga Shamsiddin al-Xuvayyiy sharh yozib, uni «Arois an-nafois» («Qimmatli ma'lumotlarga ilhom») deb atagan. Yana bir qancha ajoyib asarlar muallifi bo'lmish Abu Homidda ko'pgina bo'lg'usi olimlar bilim olganlar. Ulardan eng mashhu-

[1] *Manbij* – Suriyadagi shahar. (Al-munjid. B. 686.)

@tarixchi_kutubxonasiga

ri al-Hasiriy nomi bilan tanilgan Nizomiddin Ahmad ibn ash-Shayx Jamoliddin Abu-l-Mujohid Mahmud ibn Ahmad ibn Abdusayid ibn Usmon ibn Nasr ibn Abdulmalik al-Buxoriy an-Nojiriy al-Hanafiydir.

Abu Homid as-Samarqandiy juda axloqli, o'ta kamtar va xushmuomalaligi bilan ham mashhur bo'lgan. U 615 (1218)-yil jumod ul-oxir oyining to'qqizinchi, chorshanba kuni Buxoroda vafot etgan. Shamsiddin al-Xuvayyiy 583 (1187)-yilning shavvolida tug'ilib, 637 (1239)-yil sha'bonning yettinchi, shanba kuni Damashqda vafot etgan. Avhadiddin 586 (1190)-yil tavallud topgan va tatarlar Halab qal'asini qo'lga olganlaridan keyin Halabda vafot etgan. Qal'a tatarlar shaharni olganlaridan yigirma to'qqiz kun keyin qo'lga kiritilgan. Bu voqea 658 (1259)-yil safar oyining o'ninchi kuniga to'g'ri keladi.

Olimni nima uchun al-Amidiy deb atashlarining sababini bila olmadim. «Al-ansob» muallifi Abu Sa'd as-Sam'oniy ham bu borada hech narsa demagan. Nizomiddin al-Hasiriyni tatarlar 616 (1219)-yil Nishopurda, shaharga kirgan dastlabki vaqtlarida qatl etganlar. Uning farzandi ham yirik olim bo'lib, Damashqda ko'plab olimlarga ustoz bo'lgani, «An-nuriya» madrasasida bir necha yil mudarrislik qilgani, o'z asrida hanafiy mazhabi bo'yicha unga nafaqat teng, balki yaqin keladigan olim bo'lmaganligi bilan shuhrat qozongan. U 546 (1151)-yil rajab oyida Buxoroda tug'ilib, 636 (1238)-yil safar oyining sakkizinchi, yakshanba kuni Damashqda vafot etgan va ertasi kuni «As-sufiya» maqbarasiga dafn etilgan. U: «Otamni Buxoro qishloqlaridan biri bo'lgan Nojirga nisbatan an-Nojiriy deb atashgan», – der edi.

Abulvafo Muhammad ibn Muhammad ibn Yahyo ibn Ismoil ibn Abbos al-Buzjoniy. Olim handasa ilmi (geometriya) bo'yicha mashhur arboblardan bo'lib, o'zidan avvalgi shu soha olimlari erishmagan ajoyib kashfiyotlar sohibidir. Ustozimiz, bu fanning homiysi rahmatlik Abulfath Muso ibn Yunus[1] uning ijodiga juda yuqori baho berardi va undan o'qiganlarini tasdiqlab, ularni dalil-hujjat sifatida ishlatardi. Xorda[2]ning kashf etilishi xususida ajoyib va foydali asari mavjud. Olim 328 (939)-yil ramazon oyida, chorshanba kuni Buzjonda dunyoga kelib, 376 (986)-yili vafot etgan. Buzjon-Hirot va Nishopur oralig'ida joylashgan Xuroson shaharlaridan biri.

Abulvafo 348 (959)-yili Iroqda ham bo'lgan. Uning tug'ilgan vaqtini shunday mukammal tarzda bilganimga Abulfaraj ibn an-Nadimning[3] «Ki-

[1] *Abulfath Muso ibn Abulfazl Yunus ibn Muhammad* 1156-yili Mosulda tug'ilgan bo'lib, 1241-yil vafot etgan diniy va dunyoviy bilimlar egasi. (Vafoyot al-a'yon. II. B. 134.)

[2] *Xorda* – egri chiziqning ikki uchini tutashtiruvchi to'g'ri chiziq.

[3] *Abulfaraj Muhammad ibn Abu Yoqub ibn an-Nadim* Bag'dodda tug'ilgan bo'lib, 385 (995)-yil sha'bon oyining yigirmanchi kuni vafot etgan mashhur tarixchi (Dehxudo. Lug'atnoma. B. 315.).

@tarixchi_kutubxonasiga

tob al-fihrist»i sabab bo'ldi. Ammo unda olimning vafot etgan sanasi aytilmagan. Men uni ustozimiz Ibn Asirning[1] «Tarix»idan topdim.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf ibn Matar ibn Solih ibn Bishr al-Farabriy. Bu olim Imom Buxoriyning mashhur asari «Sahih al-Buxoriy»ning roviysi bo'lib, odamlar uning huzuriga borib, mazkur kitobdagi hadislarni eshitishgan. Abu Abdulloh 231 (845)-yil tavallud topgan bo'lib, 320 (932)-yil shavvol oyining uchinchi kuni vafot etgan. Olimni Jayhun[2] tarafda al-Farabriy deb, ya'ni Buxoro yaqinida joylashgan Farabr shahriga nisbatan aytilgan. Al-Buxoriyning bevosita o'zidan «Al-Jome' as-Sahih»ni[3] rivoyat qilgan eng oxirgi kishi mazkur Abu Abdulloh hisoblanadi[4].

ABDURRASHID AL-BOKUVIY VA UNING GEOGRAFIK MEROSI

Abdurrashid ibn Solih ibn Nuri al-Bokuviy XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr boshida yashagan arabiynavis muallif. Uning to'liq ismiga ko'ra, asli bokulik bo'lgan. Lekin Qohirada o'lgan, deb hisoblanadi.

Uning asari «Talxis al-osor va ajoyib al-malik al-qahhor» («Asarlarning qisqartirilishi va qahrli podshoh haqida kitob») geografik mavzuga bag'ishlangan bo'lib, unda nafaqat geografik jihatdan, balki tarixiy jihatdan ham nihoyatda qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Asar 806 (1403 – 1404) va 816 (1413 – 1414)-yillar oralig'ida yozilgan, aslida bu asar Zakariya al-Qazviniyning (1203 – 1283) 674 (1275 – 1276)-yili yozilgan «Osor al-bilad va axbor al-ibod» («Mamlakatlar yodgorligi va bandalarining xabari») geografik kitobining qisqartirilgan shaklidir.

Al-Bokuviy o'z qisqartmasida IX – XIV asrlarda ijod qilgan mualliflarning asarlaridan ma'lumotlar keltiradi. Bu ma'lumotlar ichida, ayniqsa, turkiy xalqlar va Markaziy Osiyoga aloqadorlari diqqatga sazovordir. Muallif geografik va etnik nomlarni iqlimlar bo'yicha, arab alifbosi tartibida joylashtirgan.

Asarning ruscha tarjimasi arabcha matnning faksimili bilan birga 1971-yili Moskvada Z.M. Buniyotov tomonidan nashr etilgan[5]. Quyida

[1] *Abu-s-Saodat al-Muborak ibn Abu-l-Karam Muhammad ibn Muhammad ibn Abdu-l-Karim ibn Abdu-l-Vohid ash-Shayboniy* tarixchi olim bo'lib, 1209-yil Mosulda vafot etgan. (Vafoyot al-a'yon. I. B. 441.)

[2] *Jayhun* – Amudaryoning qadimgi nomi.

[3] «Sahih al-Buxoriy» asari ba'zida shunday deb ham yuritiladi.

[4] Al-Forobiyning aytishicha, asarni Buxoriyning o'zidan to'qson ming kishi eshitgan, ammo ularning barchalari dunyodan o'tib, eng oxirgi roviy uning o'zi qolgan. (Vafoyot al-a'yon. I. B. 456.)

[5] *Al-Bokuviy.* Kitob talxis al-asar.

@tarixchi_kutubxonasiga

keltirilayotgan parchalarning o'zbekcha tarjimasi rus tilidagisidan foydalanib, arabcha matn asosida amalga oshirildi.

A. Ahmedov

ABDURRASHID AL-BOKUVIYNING «TALXIS AL-OSOR VA AJOYIB AL-MALIK AL-QAHHOR» ASARIDAN LAVHALAR

(26) **Ikkinchi iqlim.** ... (19) **As-Sind** (uzunligi – 105°05', kengligi – 27°40') – al-Hind, Kermon va Sijiston oralig'idagi o'lka...

U yerda Mihron daryosi[1] bor, uning eni Dajla daryosining eniga o'xshaydi yoki undan ham keng. U oqib chiqadigan tog'dan Jayhunning ham ba'zi irmoqlari oqib chiqadi...

(20) **So'mnat** (uzunligi – 106°05', kengligi – 17°05') – al-Hind mamlakatidagi mashhur shahar, dengizning qirg'og'ida joylashgan.

U yerda bir haram bor, uning ichida So'mnat deb ataladigan bir sanam bor. Bu sanam haramning o'rtasida, havoda muallaq osilib turardi. Sulton Yamin ad-Davla Mahmud ibn Sabuktagin[2] al-Hindga yurish qilganida katta shijoat ko'rsatib, uni zabt etganida, bu sanamni o'z o'rnidan shu tarzda yo'qotgan edi: u haramning shipidan magnit toshini oldi – sanam darhol yerga yiqildi [va maydalandi].

(26) **Kashmir** — al-Hind mamlakatidagi o'lka, turklarning bir elati bilan chegaradosh va shuning uchun bu yerda turklar hindlar bilan aralashib ketgan...

To'rtinchi iqlim. U boshlangan joyda kecha va kunduz [soatlari] teng bo'lgan [kuni] tush paytida soya to'rt qadam-u beshdan uch qadam va beshdan bir qadamning uchdan biricha bo'ladi. U as-Sin, at-Tubbat va Xo'tan yerlaridan boshlanadi va Kashmir tog'laridan Billur, Badaxshon, Kobul, G'o'r, Xuroson, Qumis, Jurjon, Tabariston, Ko'histon, Ozarbayjon taraflariga, Iroq, Jazira, Rodos, Sitsiliya va al-Andalusning chekkalarigacha, to Muhit dengizigacha cho'ziladi...

(5) **Abivard** – Xurosondagi shahar, Saraxs yaqinida. Unga Bovard ibn Gudarz asos solgan... Abu Ali al-Fuzayl ibn Ayyoz[3] shu yerdan kelib chiqqan. U Alloh taoloning avliyolaridan biri edi, 111 (730)-yili Samarqandda tug'ilib, Abivardda o'sgan va 187(803)-yili Makkada vafot etgan.

---

[1] *Mihron daryosi* – Sind daryosi.

[2] *Yamin ad-Davla Mahmud ibn Sabuktagin* – Sulton Mahmud G'aznaviy (997–1030).

[3] *Abu Ali al-Fuzayl ibn Ayyoz* – ilk islom an'anaparvar olimi.

@tarixchi_kutubxonasiga

(6) **Amid** (uzunligi – 73°40', kengligi – 38°05') – toshdan yasalgan mustahkam shahar, Jazira (Iroq)dagi shaharlardan biri. Balandlikda joylashgan va uch tarafdan Dajla bilan hiloldek o'ralgan. Uning markazida buloqlar va ikki gaz chuqurlikdagi quduqlar mavjud. Shahar daraxtlarga, ekinzorlarga va mevalarga boy. 627 (1230)-yili Xorazmshoh Jaloliddin[1] tatarlardan yengilib, Amidga keladi. Kimdir kelib, unga bunday dedi: «Bu xabarchi – Amidning hokimidan kelgan, u biz uning yerlaridan ketishimizni istayapti».

Biroq tong otishi bilanoq tatarlar ularni qurshab oldilar. Shunda ular tatarlardan qochib, Amid tarafiga intildilar. Amidning aholisi ular bilan devorda turib urishdilar. Bu jangda Xorazmshoh Jaloliddin halok bo'ldi. Tatarlar chekinganlaridan keyin al-Malik al-Komil[2] o'z askarlari bilan keldi va shaharni o'rab, uni hokimidan olib qo'ydi. Shunda shahar hokimi tatarlardan qochib, uning huzuriga panoh izlab kelganlarni azoblarga duchor qilganligi uchun o'z hokimidan mahrum bo'ldi...

(10) **Altunavand** (yoki **Ustunavand**) — Dunbavanddagi qal'a, Rayning viloyatlaridan biridagi mashhur qal'a. Qadimgi qal'a va kuchli istehkom. Uch ming yil burun barpo etilgan. Toki tatarlar istilo paytida Xorazmshohning o'g'li Rukniddin Gursanchti[3] unda istehkomlanib olguniga qadar hech kimsa eshitgan emas. 618 (1221)-yili ular uni qo'lga oldilar. Ular ko'p o'tin yig'dilar va uning atrofiga joylashtirib, o't qo'yib yubordilar. Shunda uning toshlari yorilib, sochilib ketdi va qal'a istehkom bo'lmay qoldi. Keyin bu yerga tatarlar chiqdilar. Xorazmshohning o'g'li to halok bo'lguniga qadar ular bilan jang qildi...

(14) **Afshona** – Xurmaysan[4] viloyatidagi Buxoro atrofidagi qishloqlardan biri. Abu Ubayd Juzjoniy[5] aytgan edi: «Mening ustozim Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino menga hikoya qilgan ediki, otasi asli Balxdan bo'lgan, so'ng Nuh ibn Mansur Somoniy[6] davrida Buxoroga ko'chib kelgan. U soliq yig'uvchi edi va Afshonada uylandi. Men o'sha yerda tug'ildim va mening toleim Saraton edi, Mushtariy va Zuhra shu toleda edi, Oy va Utorud – Sunbulada edi, Mirrix – Aqrabda, Quyosh – Asadda, Mushtariy – Saratonda eng yuqori sharaf[7] darajasida, Shi'ra[8] Bosh bilan birgalikda tole darajasida

[1] *Jaloliddin Mankburni* (1220–1231) – eng so'nggi Anushtegin Xorazmshoh.

[2] *Al-Malik al-Komil* – Suriyaning Ayyubiylar sulolasidan chiqqan sultoni (1218–1239).

[3] *Rukniddin Gursanchti* (1204–1223) – xorazmshoh Alouddin Muhammadning o'g'li, Jaloliddin Mankburnining o'gay ukasi.

[4] *Xurmaysan* – hozirgi Romitan.

[5] *Abu Ubayd Abdulvohid ibn Muhammad al-Juzjoniy* — Ibn Sinoning shogirdi, uning tarjimayi holini yozib olgan.

[6] *Nuh ibn Mansur Somoniy* — Somoniylar sulolasidan sakkizinchi amir (976–997).

[7] *Sharaf* – bu yerda astrologik tushuncha, ekzaltatsiya ham deyiladi.

[8] *Shi'ra* – Sirius yulduzi.

@tarixchi_kutubxonasiga

va hamma yulduzlar baxt keltiruvchi joylarda edi». U dedi: «Men balog'at yoshiga yetganimda u meni Qur'on muallimiga, so'ng adab muallimiga topshirdi. Yoshlar adabiyotdan o'qigan hamma narsani men yodlab olardim. Ustozim menga «Kitob as-sig'or», «Kitob g'arib ul-musannif», so'ng «Adab ul-kuttob», so'ng «Istiloh al-mantiq», so'ng «Kitob ul-ayn», so'ng «She'r ul-xamosa», so'ng «Divon Ibn ar-Rumiy»[1], so'ng «Tasrif ul-Mazaniy»[2], so'ng «Nahv-u Sibavayhiy»[3] asarlarini o'qishni taklif qildi. Men bu kitoblarni bir yarim yil ichida yodlab oldim. Agar ustozim taqiqlamaganida edi, men ularni yana avvalroq yodlab olardim; men, bundan tashqari, yoshlardan madrasada talab qilingan boshqa barcha narsalarni bajarib yurardim. Men o'n yoshga yetganimda Buxoro ahli mendan taajjublanardilar.

Keyin men fiqhni chuqur o'rgana boshladim va o'n ikki yoshga yetganimda Abu Hanifa ibn Nu'mon, – Alloh undan rozi bo'lsin, – mazhabi bo'yicha[4] Buxorodagi eng mashhur faqih bo'lib tanildim. Bundan so'ng tib ilmini o'rganishga kirishdim va «Tib qonuni»ni tasnif qildim. Men o'n olti yoshdaligimda Nuh ibn Mansur Somoniy og'rib qoldi. Uni muolaja qilishga tabiblarni yig'dilar. Men ular bilan birga edim va mening muolajamni eng yaxshi deb topishdi va u tuzaldi. [Buning evaziga] men undan kitoblar xazinachisidan istagan kitobimni olishga ruxsat berishini so'radim. U ana shunday qildi. Va men bu kitoblar xazinasida hikmatlar to'la kitoblarni, jumladan Abu Nasr ibn Tarxon al-Forobiyning[5] asarlarini ko'rdim. Shunda kun-u tun hikmatlarni o'rgana boshladim va ularni bilib oldim; yigirma to'rt yoshga yetganimda hikmatlar ichida men bilmagan bilimlar qolmaganini sezdim».

Somoniylar davlati inqirozga uchraganida Movarounnahr mamlakati Sabukteginlar sulolasiga o'tdi. Sulton Mahmud hukm surgan paytlarda Abu Aliga nisbatan ig'volar qo'zg'alib turdi va u Buxorodan Xurosonga qochdi, so'ng – Tabaristonga. U Shamsulma'oliy Qobus ibn Vashmgirning[6] xizmatiga keldi. Keyin u Jabal mamlakatiga – Buvayhiylar xonadonining mulkiga ketdi, u yerdan Hamadonga keldi. Aytishlaricha, Hamadonning hokimi Shamsuddavla[7] uni o'ziga vazir qilib oldi. U bu mansabda bir muddat turdi,

[1] *Abulabbos Ali ibn ar-Rumiy* (835 – 896) – arab shoiri.

[2] *Abu Usmon Bakr al-Mazaniy* (vaf. 863) – arab tilshunosi.

[3] *Sibavayhiy* (vaf. 863) – arab tilshunosi.

[4] *Abu Hanifa ibn an-Nu'mon* (699 – 783) – hanafiya mazhabining asoschisi, Imom A'zam ham deyiladi.

[5] *Abu Nasr Muhammad ibn Tarxon al-Forobiy* (870 – 950) – mashhur Markaziy Osiyolik faylasuf, astronom, musiqashunos, Yevropada «Alfarabi'us» nomi bilan mashhur bo'lgan.

[6] *Shamsulma'oliy Qobus ibn Vashmgir* – Jurjonning Ziyoriylar sulolasidan to'rtinchi amiri (796 – 1012).

[7] *Shamsuddavla* – Hamadonning Buvayhiylar sulolasi hokimi (997 – tax. 1012).

@tarixchi_kutubxonasiga

keyin Isfahonning hokimi Alouddavlaning[1] huzuriga bordi va to vafotigacha unga xizmat qildi. U bu dunyoni 428 (1037)-yili tark etdi va Hamadonda dafn etildi...

(19) **Badaxshon** (uzunligi – 104°24', kengligi – 37°10') – Yuqori Toharistondagi mashhur shahar. U yerda yoqut, lojuvard va bijoziqqa o'xshash la'lning koni va toza billur koni bor...

(23) **Bomiyon** (uzunligi – 102°05', kengligi – 37°35') – G'azna mamlakatida Xuroson bilan G'o'r zamini orasidagi nohiya. Unda shaharlar, qishloqlar, tog'lar va daryolar ko'p. U yerdan baland ko'tarilgan bo'lib, uni qushlar rasmi o'yib chizilgan ustunlar ushlab turadi. U yerda toshdan yasalgan ikkita ulkan sanam bor. Simob konlari bor. U yerdan hakim Afzal al-Bomiyoniy kelib chiqqan. U hikmatning har xil navlarini bilardi. Forsning sohibi Otabek Sa'd ibn Zangiy[2] uni o'z huzuriga taklif qildi va u to vafotigacha uning huzurida qoldi...

(26) **Balx** (uzunligi – 101°05', kengligi – 36°41') – katta shahar. Xurosonning asosiy shaharlaridan biri. Unga Manuchehr ibn Iraj ibn Afridu[3] asos solgan. Uning aholisi maqtanchoqligi bilan ajralib turadi. U yerda sanamlar haramining eng kattasi – Navbahor[4] bor: haramning uzunligi – yuz gaz, eni ham shuncha, balandligi – yuz gazdan ortiq. Barmakiylar[5] uning xodimlari edilar. Al-Hindning va as-Sinning podshohlari shu yerga kelardilar. Ular kelganlarida sanam oldida tiz cho'kib, Barmakning qo'lini o'pardilar. Barmak bu mamlakatda hukm surardi va bir Barmak boshqasiga vorislik qilardi, toki Usmon ibn Affon[6] davrida Xuroson bosib olinmagunicha, haramdagi xizmat Barmak ibn Xolidga o'tganida, u islomga mayli borligini bildirdi. U Usmonning huzuriga bordi va pul bilan bu shahar xavfsizligining kafolatini ta'minladi. So'ngra Abdulloh ibn Omir Kurayz[7] butun Xurosonni zabt etdi va Navbahorga al-Ahnaf Sahr ibn Qays ibn Haysamni yubordi, bu uni vayron qildi.

Shu yerdan Ibrohim ibn Adham al-Ijmiy[8], – Alloh taolo uni rahmat qilsin, – kelib chiqqan. U 161 (778)-yili vafot etgan. Yana shu yerdan Xurosonning

---

[1] *Alouddavla* – Isfahonning Kakavayhiylar sulolasi sultoni (1007 – 1041).

[2] *Sa'd ibn Zangiy* – Salg'uriylar sulolasidan to'rtinchi Otabek (1195 – 1226).

[3] *Manuchehr ibn Iraj ibn Afridu* – Eronning afsonaviy podshohi.

[4] *Navbahor* – Balxdagi zardushtiylik harami.

[5] *Barmakiylar* – Navbahorning kohinlari sulolasi, keyinchalik ular islomni qabul qilib, Abbosiy xalifalar davrida vazirlik lavozimida bo'lganlar.

[6] *Usmon ibn Affon* (644 – 656) – xulafoi roshidinning uchinchisi, uning buyrug'i bilan Qur'onning bir nusxasi qonuniylashtirilib, mus'haf qilingan, boshqa nusxalari yo'q qilingan.

[7] *Abdulloh ibn Amir ibn Kurayz* (626 – 679) – arab lashkarboshisi.

[8] *Ibrohim ibn Adham al-Ijmiy* (vaf. 783) – balxlik diniy arbob, sufiy.

@tarixchi_kutubxonasiga

buyuk kishilaridan va shayxlaridan, Hotam al-Asamning[1] ustozi, Kulonni zabt etishda 194 (810)-yili shahid bo'lgan Abu Ali Shaqiq Ibrohim al-Balxiy ham kelib chiqqan. Ana shu yerdan Abduljalil ibn Muhammad (laqabi ar-Rashid al-Vatvot[2] deb mashhur bo'lgan) ham kelib chiqqan. U sulton Xorazmshohning kotibi bo'lgan edi, nazm va nasrda mohir edi...

(28) **Bushanj**[3] – Xurosondagi yirik, sersuv shahar, daraxtlari va bog'lari ko'p. Mansur ibn Attor shu yerdan kelib chiqqan, u buyuk voiz va so'zga chechan edi; uning va'zlari mashhur bo'lgan.

(29) **Boxarz**[4] – Xurosondagi shahar, Abulhasan Ali al-Boxarziy[5] shu yerdan kelib chiqqan, fozil va mohir adib edi, uning she'rlari g'oyatda husnli edi. Yana shunga mansub orif va fozil shayx Sayfiddin Said as-Sufiy[6] edi, u 655 (1257)-yili vafot etgan.

(30) **Bayhaq** – Xurosondagi shahar, Imom Abu Bakr Ahmad al-Bayhaqiy[7] shu yerdan kelib chiqqan, u hayotlik paytida fiqh, hadis va ilmi usulda o'z zamonasining yagonasi edi...

(44) **Xovaron** – Xurosondagi serqishloq nohiya, xayrli narsalari ko'p. Shu yerdan shayx Abu Said ibn Abulxayr[8] kelib chiqqan, u sufiylar tariqatiga asos solgan. U xonaqoh qurib, unda kishilarga yemak berardi. Bu yerdan yana hakim va shoir al-Anvariy[9] zuhur qilgan, uning she'rlari nihoyatda husnli.

(45) **Xuroson** – mashhur mamlakat, sharqdan Movarounnahr bilan, g'arbdan Ko'histon bilan chegaralangan. Uning bosh shaharlari – Hirot, Marv, Balx, Nishopur. Bu – Allohning gullagan, ajoyib va xayrli o'lkasi. Uning aholisi – eng kelishgan, aqli mukammal, xushfe'l, dinda va ilmda tirishqoq kishilardandir...

Marvda al-G'oziq anhori bor, uning ikkala chekkasida bog'lar, ekinzorlar va tegirmonlar ko'p. Shu tegirmonlarning birida, Usmon ibn Affon, – Alloh undan rozi bo'lsin, – davrida Xusravlarning eng oxirgisi Yazdigard ibn Shahriyor o'ldirilgan...

---

[1] *Hotam al-Asam Abdurahmon ibn Alvon az-Zohid* (vaf. 852) – Xurosondagi din arboblaridan.

[2] *Abduljalil ibn Muhammad ar-Rashid al-Vatvot* (vaf. 852) – xorazmshoh Otsiz saroyidagi mashhur shoir va kotib.

[3] *Bushanj* – Fushanj deb ham atalgan, asl nomi Pushang – Hirotdan g'arbroqdagi shahar.

[4] *Boxarz* – Hirot yaqinidagi shahar.

[5] *Abulhasan Ali al-Boxarziy* (vaf. 1074) – arab shoiri.

[6] *Sayfiddin Said as-Sufiy al-Boxarziy* – mashhur tasavvuf namoyandasi, hayotining ko'p qismini Buxoroda o'tkazgan va o'sha yerga dafn etilgan.

[7] *Abubakr Ahmad al-Bayhaqiy* (994 – 1066) – shofi'iy faqih.

[8] *Abusaid Fazlulloh ibn Abulxayr* (967 – 1049) – G'aznaviylar davridagi shoir.

[9] *Avhadiddin Muhammad ibn Ali ibn Is'hoq al-Anvariy* (XII a.) – Saljuqiylar davridagi mashhur shoir.

@tarixiykutubxonasiga

(47) **Xavof** – Xurosondagi katta, seraholi shahar, Nisoga yaqin. Imom Abulmuzaffar al-Xavofiy unga mansub, fozilligi bilan mashhur bo'lgan, ayniqsa, ilm ul-jadal (dialektika) sohasida. Uning yaxshi shogirdlaridan biri ikki muqaddas shahar imomi [Abulma'oniy Abdulmalik ibn Muhammad] edi...

(49) **Damg'on**[1] (uzunligi – 88°55', kengligi – 36°20') – Ray va Nishopur oralig'idagi katta shahar. Unda mevalar, suv, daraxtlar ko'p va ularning xushbo'y hidi kecha-yu kunduz anqib turadi. Uning mo'jizalaridan biri – Xusravlar zamonidan qolgan suv taqsimlagichdir. Uning suvi g'ordan oqib chiqadi, keyin u yuz yigirmata o'zanga taqsimlanadi, ular yuz yigirmata rustoqqa oqib boradi. Ikkinchi mo'jizasi – Damg'on bilan Semnon oralig'ida tog'dagi jarliklardir, undan yilning ma'lum vaqtida shunday hid taraladiki, o'limdan qo'rqib hech kim uni hidlamaydi. Bu jarlikning uzunligi bir farsax va eni to'rt yuz gazga yaqin. Va ikki farsax masofada bu hid kecha-yu kunduzi o'tayotganlarga – insonga ham, jonivorga ham zarar yetkazadi.

U yerda bir tog'da buloq bor. Agar unga loy tashlansa, shunday quyuq gaz otilib chiqadiki, uning vayronagarchilik keltirishidan qo'rqadilar.

(68) **Saraxs** (uzunligi – 94°30', kengligi – 36°05') – Marv va Nishopur orasidagi shahar. Uni Saraxs ibn Gudarz barpo qilgan. Bu katta, seraholi, boy shahar, xayrli narsalari ko'p; yozda suvni quduqlardan oladilar. Aholisi zardo'z belbog'lar va chorchoflar ishlashga mohir...

(83) **Tamg'ach**[2] – turklar mamlakatidagi katta shahar. Uning atrofida qishloqlar ko'p, ular ikki tog' orasidagi jarlikda joylashgan. Ularga faqat shu tor yo'ldan boshqa yo'l olib bormaydi. U yerda oltin koni bor. Uning aholisining sochi siyrak; erkaklarining ham, ayollarining ham badanida tuki yo'q.

(87) **G'o'r** – Hirot va G'azna oralig'idagi viloyat, ma'mur, buloqlari va bog'lari ko'p. Juda serhosil. Tog'lar uni har tarafdan xuddi qal'adek o'rab turadi. Faroh daryosi uni kesib o'tadi. U yerning sovug'i juda shiddatli. U yerda samandar, kalamushga o'xshash hayvon bor. U olovga kiradi, lekin yonmaydi. Uning terisidan podshohlar uchun sochiq yasaladi. Ular iflos bo'lganida, olovga tashlanadi va ular ifloslikdan tozalanadi.

Shu yerdan Abulfath Muhammad ibn Som, G'iyosiddin[3] laqabli kelib chiqqan; u olim va odil podshoh edi, barcha janglarda zafar quchgan...

---

[1] *Damg'on* – aslida bu shahar Gurgon yaqinida.

[2] *Tamg'ach (Tabg'ach)* – Yen-King (Samuzyan) imperiyasining poytaxti.

[3] *G'iyosiddin Abul Fath Muhammad ibn Som* – G'o'riylar sulolasidan beshinchi sulton (vaf. 1202).

@tarixni_kutubxonasiga

(101) **Marvarrud** (uzunligi – 95°05', kengligi – 37°40') – G'o'r bilan G'azna oralig'idagi nohiya. Qozi, imomi fozil al-Husayn al-Marvarrudiy[1] shu yerga mansubdir.

(102) **Marv** (uzunligi – 94°05', kengligi – 37°40') – Xurosonning eng mashhur shahari va ularning eng qadimgisi, eng xayrlisi, eng xushmanzarasi va eng yaxshisi. Uni [Iskandar] Zulqarnayn barpo qilgan. Shaharning eng qadimgi qismi – uning ko'handizi. Buni Tahmuras qurgan deyishadi. U yerda aholiga zarar yetkazadigan Madina bezgagidan boshqa ajablanarli narsa yo'q. Hozir u xaroba bo'lib yotibdi.

Unga olim, obid va zohid Imom Abdulloh ibn al-Muborak mansub. U 120 (738)-yilda tug'ilgan va 181 (797)-yilda vafot etgan. Shu yerga yana Imom Abu Bakr Abdulloh ibn Ahmad al-Qaffol al-Marvaziy mansub – fiqhda va [Qur'on] hofizligida u o'z zamonasining yagonasi edi...

(109) **Naso** – Xurosondagi shahar, Saraxs va Abivard yaqinida. Uni Feruz ibn Yazdigard Anushirvon[2] barpo qilgan. U yerda anhorlar va daraxtlar ko'p. Lekin ular zaharli va u yerda ko'pchilik Madina bezgagi bilan og'riydi, ayniqsa, yoz paytida va ko'pchilik undan halok bo'ladi. U yerda Imodiddin Hamza an-Nasaviy[3] qurgan rabot bor. Bu shahar tashqarisida, bog'lar orasida barpo qilingan juda katta rabot, uning tengi boshqa hech qayerda yo'q.

(110) **Naxshab** – Xurosondagi mashhur shahar. U yerda avliyolar va hokimlar ko'p. Hokim Ibn al-Muqaffa'[4] shu yerga mansub, u bir quduq kavlagan va uning ichidan Oy chiqqan. Odamlar uni ko'rganlar va u [haqiqiy] Oyga juda o'xshagan. Bu har tarafga ma'lum bo'ldi va odamlar Oyni ko'rish uchun Naxshabga kela boshladilar va uni ko'rib, ular taajjublandilar. Nodon odamlar buni sehrgarlik deb bildilar, lekin bu muhandislik mahoratidan boshqa hech narsa emasdi va Oy nurlarining akslanishi edi; quduqning tagidan simob to'ldirilgan katta tos topdilar. Ana shuning hammasi pirovardida ajoyib mo'jizani keltirdi va bu haqda hamma yoqda ovozalar tarqaldi va bu shunday shuhrat qozondiki, bu haqda odamlar she'rlarda va maqollarda esladilar.

---

[1] *Abu Ali al-Husayn ibn Muhammad al-Marvarrudiy ar-Roziy* (vaf. 1069) – xurosonlik mashhur diniy arbob.

[2] Bu ism ostida muallif bir necha Sosoniy podshohlarning nomini chalkashtiryapti. Ularning birinchisi Feruz I ibn Yazdigard – 459–484-yy. hukm surgan; ikkinchisi – Xusrav I Anushirvon – 531–579-yy. hukm surgan; uchinchisi – Feruz II Jo'shanasbanza – 629–630-yy. hukm surgan.

[3] *Imodiddin Hamza an-Nasaviy* – Nasoning hokimi, mo'g'ullar tomonidan o'ldirilgan.

[4] *Abu Amir Abdulloh ibn al-Muqaffa' Ro'zbeh* – ilk Abbosiylar davridagi mashhur tarjimon. U «Kalila va Dimna»ni pahlaviy tilidan, astronomiyaga oid asar «Siddhanta»ni sanskrit tilidan arabchaga tarjima qilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

(111) **Nasrobod** – Xurosonning qishloqlaridan biri. Bunga Xurosonning mashoyixlaridan Abul Qosim Ibrohim ibn Muhammad an-Nasrobodiy mansubdir, u ash-Shibliyning sahobalaridan. Bunga mansublardan yana Abu Ali ar-Rudbariy va oltmish marta haj qilib, Makkada 367 (977 – 978)-yili o'lgan al-Murta'ishdir...

(114) **Nishopur** (uzunligi – 92°30', kengligi – 36°21') – Xurosonning katta shaharlaridan biri, yaxshi fazilatlari imoratlarining ko'pligi va mevalarining serobligi [bilan ma'lum]. Bu fozillarning makoni va olimlarning konidir. U yerda feruza qazib chiqariladi va boshqa mamlakatlarga yuboriladi. U yerda boshqa hech qayerda bo'lmagan yeyiladigan loy bor.

Nishopur Alloh shaharlarining eng yaxshisi edi. G'uzlar Sulton Sanjar ibn Malikshoh Saljuqiyga qarshi chiqdilar, uni yengib, asir qildilar va Nishopurga askarlarini yubordilar. Bu 548 (1153)-yili sodir bo'lgan edi. Nishopur aholisi ular bilan jang qildilar, dahshatli jang bo'ldi, chunki ular kofirlar – nasroniylar edi. Shunda ularga g'uzlarning podshohi keldi va shaharni qamal qilib, uni kuch bilan oldi. Kimni tutsalar o'ldirdilar, shaharni esa vayron qilib, o't qo'ydilar. Uning aholisi Shodiyohga[1] ko'chdi. Bu Abdulloh ibn Tohir ibn al-Husaynning[2] bog'i edi. Ular uni ma'mur qildilar, atrofida devor ko'tardilar, toki avvalgi shahardan ham yaxshi bo'ldi. Avvalgi shahar esa tashlab ketildi.

Ustoz Roziuddin an-Nishopuriy asli Nishopurdan, lekin Buxoroda yashagan. U Imom Abu Hanifaning mazhabida edi, – Alloh undan rozi bo'lsin. Uning darsini al-Amidiyga o'xshagan va boshqa to'rt yuzta faqih-u fuzalo tinglar edi. U shunday tariqatga maslak qilardiki, ungacha hech kim bu tariqatda bo'lmagan edi.

Ustoz, shayxlarning namunasi Abulqosim al-Qushayriy[3], «Risola al-Qushayriya»ning muallifi ham Nishopurdan edi. U bilimda va amalda xudojo'ylikda va zohidlikda o'z zamonasining yagonasi edi.

Abu Muhammad Abdulloh ibn Muhammad al-Murtaish, al-Junaydiyning fozil sahobasi ham u yerdan edi. U 368 (978 – 979)-yili vafot etgan. Hukamolardan Umar al-Xayyom[4] – hakim, har xil hikmatlarning, ayniqsa, ilmi riyoziyotning (matematikaning) bilimdoni ham. U sulton Malikshoh Saljuqiyning saltanati davrida yashagan...

---

[1] *Shodiyoh* – Nishopur yaqinidagi bog'li qishloq, keyinchalik shahar tarkibiga qo'shilgan.

[2] *Abdulloh ibn Tohir ibn al-Husayn* – Xurosonning Tohiriylar sulolasi amiri (828 – 844).

[3] *Abul Qosim al-Karim al-Qushayriy* (986 – 1072) – yirik diniy arbob.

[4] *G'iyosiddin Abul Fath Umar ibn Ibrohim al-Xayyom an-Nishopuriy* (1048 – 1131) – mashhur shoir, faylasuf, matematik va astronom; bir necha yil Buxoro va Samarqandda yashagan va yirik matematik, asarlarini Movarounnahrda yozgan.

@tarixni_kutubxonasiga

(117) **Hirot** (uzunligi – 94°20', kengligi – 31°20') – Xuroson shaharlarining orasida eng kattasi. U tarafda undan gullagan va istehkomlangan boshqa shahar yo'q. U yerda bog'lar ko'p, suvlar mo'l. Uni Iskandar barpo qilgan. U yerda shamolda ishlaydigan tegirmonlar bor; ularni suv aylantirganidek, shamol ham aylantiradi. U yerdan har tarafga kumush bilan zarhallangan mis idishlar olib ketiladi. Hirot tatarlar kelguniga qadar Allohning eng yaxshi shahri bo'lib turdi, ular boshqa shaharlar kabi uni ham vayron qildilar...

Beshinchi iqlim. (14) **Buttam** – Farg'ona viloyatidagi istehkomlangan qal'a. Unda oltin, kumush va navshadil konlari bor, ularni boshqa mamlakatlarga olib boradilar. Qal'a g'orga o'xshagan, tog'da joylashgan. Unda bir istehkom qurilganki, u darvozaning va uning kuzatish tuynuklarining xavfsizligini ta'minlaydi. Kunduzi undan tutunga o'xshash bug' ko'tariladi, kechasi esa olov. Qattiq issiqlik tufayli hech kim unga kirolmaydi, faqat ho'llangan namat yopinib kiriladi. So'ngra u yerga kirib, kerakli narsani oladi-da, darhol chiqadi...

(16) **Buxoro** (uzunligi – 96°50', kengligi – 39°10') – Movarounnahrdagi mashhur, buyuk va qadimgi go'zal shahar, uning tashqi ko'rinishi go'zalroq. U bilan Samarqand orasi yetti kunlik yo'l va o'ttiz yetti farsax. Bu – Sug'd mamlakati. Bu dunyodagi eng yoqimli joylardan biri. Shahar qasrlari, bog'lari va yondoshgan yerlari devor bilan o'ralgan. Uning istehkomlangan devori ham bor. Uning ichidagi sathi – o'n ikki farsaxga o'n ikki farsax va ana shu maydonda bir dona bo'shliq, bir dona buzilgan uy yo'q. Shaharning ikkinchi devori ham bor, u birinchi devorning ichida. Bu o'ralgan maydon taxminan bir farsaxga bir farsax.

Buxoro har doim faqihlarning makoni, fozillarning koni, aqliy kishilarning bulog'i edi. Raislik muborak uyga tegishli edi, uning raisini xoja, imom deydilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

FORS TILIDAGI MANBALAR

GARDIZIY VA UNING «ZAYN UL-AXBOR» ASARI HAQIDA

Abusaid Abdulhay ibn az-Zahhok ibn Mahmud Gardiziy (XI asr) G'azna shahri yaqinidagi Gardiz qishlog'ida tug'ilgan, G'azna shahrida yashab ijod qilgan, tarix va geografiya bilimlarini yaxshi egallagan. O'zining fors tilidagi «Zayn ul-axbor» («Xabarlar ziynati») asarini G'aznaviy Abdurashid ibn Sulton Mahmud (1049–1053) davrida yozgan.

«Zayn ul-axbor» fors tilida yozilgan muhim tarixiy manba bo'lib, unda islomgacha hukmronlik qilgan fors podshohlari tarixi, so'ngra Muhammad payg'ambar, xalifalar (423 (1032)-yilgacha) va Xuroson hamda Movarounnahr hukmdorlari tarixi (arablar istilosidan to 432 (1041)-yilgacha), ya'ni Sulton Mahmud G'aznaviy taxtga o'tirgunga qadar, shuningdek, sharqiy o'lkalar tarixi ham qayd etilgan. Asarda bizgacha yetib kelmagan manbalardan ham ma'lumotlar uchraydi.

«Zayn ul-axbor» ilm-fanda ancha yaxshi o'rganilgan, undan parchalar turli tillarga o'girilib chop etilgan. Eron olimi Abdulhay Habibiy asarning to'la tanqidiy matnini nashr etishga ham muvaffaq bo'ldi[1]. Mazkur asar besh qism (tabaqa) va 14 bobdan tashkil topgan. Xuroson va Movarounnahr podshohlari tarixi kitobning beshinchi qismidan o'rin olgan va rus tiliga o'girilib chop qilindi[2]. Quyida O'zbekiston tarixiga oid ma'lumotlar asarning yuqorida ko'rsatilgan forscha nashridan o'zbek tiliga o'girildi va ruscha nashridan ham foydalanildi.

O. Bo'riyev, G'. Karimov

GARDIZIYNING «ZAYN UL-AXBOR» ASARIDAN LAVHALAR

(125) Xuroson amirlari haqida xabarlar

Humayd ibn Qahtaba amirligi davri. Mansur[3] bir yuz ellik birinchi yil sha'bon oyining birinchi kuni Xurosonni boshqarishni Humayd ibn Qahta-

---

[1] *Gardiziy* (Tehron, 1347).

[2] *Гардизи* (Ташкент, 1991).

[3] *Abu Ja'far Mansur* Abbosiylar sulolasiga mansub arab xalifasi bo'lib, 754–775-yillarda hukmronlik qilgan.

@tarixchi kutubxonasiga

baga topshirdi. Humayd katta doiylardan[1] biri edi. O'sha zamonda Mansur vafot etdi va Mahdiy[2] xalifalik taxtiga o'tirdi. U ham Xurosonga hukmdorlik yorlig'ini Humayd nomiga jo'natdi. Humayd amirligi davrida Muqanna xuruj qildi va oq bayroq ko'tardi. Bu Muqanna bir ko'zli odam bo'lib, Marvda jomashuylik qilardi. Uning nomi Hakim edi. Ilk daf'a xuruj qilganida, payg'ambarlik da'vosini qildi. Alal-oqibat «men – xudoman» deb da'vo qilib, odamlarni o'ziga banda bo'lishga chaqirdi. O'ziga zar niqob qilib olib, hech kim ko'rolmasligi uchun yuzini yopib yurardi. Chunki juda badbashara edi. U shunday derdi: «Ulug' va qudratli Xudo Odam [Ato]ni yaratib, o'zi uning suratiga kirdi. U vafot etgach, Nuh suratiga kirdi. So'ngra Ibrohim, undan keyin Muso suratlariga kirdi. So'ngra Iso, undan keyin Muhammad alayhissalom suratlariga kirdi. Shu tariqa, nihoyat, Abumuslim[3] suratiga kirdi. Abumuslimdan keyin Hoshim, ya'ni Muqanna suratiga kirdi». Shu tarzda Muqanna o'ziga Hoshim deb nom qo'ygan edi.

Juda ko'p odamlar Muqanna sari intildilar va unga sajda qildilar. Jang maydonida ular: «Yo Hoshim, madad ber!» – deb go'yokim ulug' va qudratli Xudodan yordam so'ragandek suron ko'tarardilar. Muqanna atrofiga ko'p odam to'plandi. U Kesh tumanidagi Siyom qal'asini[4] qarorgoh qilib tanladi va bu qal'a atrofiga istehkomlar qurishdi. Buxoro va Sug'dda[5] ham oqkiyimlilar paydo bo'lishdi va Muqannani qo'llab-quvvatlashdi. Muqanna kofir turklarni[6] ham madadga chaqirdi. Ular musulmonlarning mol-mulkini g'orat qildilar va bu ishlar ko'proq Sug'dda sodir bo'ldi. Sarkarda Abu Nu'mon ularga qarshi bordi, ammo hech narsa qilolmadi. Oqkiyimlilar viloyatga va Kesh shahriga kelib, barcha yo'llarni ishg'ol qilishdi. Ular Navokat[7] va Sangardax[8] qal'alarini ham mustahkamladilar. Abu Nu'mon, Junayd, Lays ibn Nasr, Hasson ibn Tamim ibn Nasr ibn Sayyor, Muhammad ibn Nasr kabi sarkardalar oqkiyimlilar

[1] *«Doiy»* so'zining ma'nosi «tashviqotchi»dir. Bu yerda Humaydning Umaviy xalifalar sulolasiga qarshi Abbosiylar xonadoni foydasiga targ'ib-tashviqot ishlarida faol ishtirok qilgani ko'zda tutilmoqda.

[2] *Mahdi* Mansurning o'g'li bo'lib, 775–785-yillarda hukmronlik qilgan. Mahdi davrida arab xalifaligining asosiy harbiy kuchlari eng tajribali sarkardalar boshchiligida Movarounnahrga Muqanna qo'zg'olonini bostirishga yo'llangan.

[3] *Abumuslim* Umaviylar sulolasi taxtdan ag'darilib, Abbosiylar xalifalik taxtiga chiqishi uchun katta xizmat qilgan. Xuroson va Movarounnahr aholisi o'rtasida uning ta'siri kuchayib ketganidan xavfsiragan xalifa Mansur Abumuslimni xiyonatkorona o'ldirtirgan.

[4] Ba'zi manbalarda Siyom (Som) Muqanna qal'asi joylashgan tog' nomi deyilgan.

[5] Sug'd Zarafshon vohasi, asosan, Samarqand viloyatidir.

[6] Bu yerda hali islomni qabul qilmagan turkiy qabilalar nazarda tutilgan.

[7] *Navokat* – Chu daryosi sohilidagi yirik shahar bo'lgan. Aftidan, bu shaharda Muqannaga ittifoqchi bo'lgan turklar boshlig'ining qarorgohi joylashgan bo'lsa kerak.

[8] *Sangardax* – qal'a, hozirgi Surxondaryo viloyatida, oqkiyimlilarga tobe viloyatlarning janubdagi sarhadida joylashgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

bilan jang-u jadal qilishdi. Ammo ulardan hech biri muvaffaqiyatga erisholmadi va barchasi mag'lubiyatga uchrab, orqaga chekinishdi. Shundan so'ng Mahdiy Jabroil ibn Yahyo va uning ukasi Yazidni jo'natdi. Ular Husayn ibn Maoz viloyatga hokim bo'lgan paytda Buxoroda bosh ko'targan oqkiyimlilarni bostirishga mashg'ul bo'lishdi. Bir yuz ellik yettinchi yili Jabroil ular bilan Numijkat[1] shahri yonida jang qilib, ulardan yetti yuz kishini o'ldirdi va qolganlari parokanda bo'lib, Muqanna tarafga ketishdi. Shundan so'ng Jabroil Samarqandga jo'nadi va Sug'dlarga hujum qilib, ularning bir sardorini o'ldirdi.

Xuroson amiri Humayd ibn Qahtaba o'lgach, to bir yuz ellik to'qqizinchi yil oxirigacha (776-y., noyabr) uning o'g'li Abdulloh ibn Humayd hukmronlik qildi.

(126) **Abu Avn Abdulmalik ibn Yazid amirligi davri.** Mahdiy Xurosonni Abu Avnga berdi. U bir yuz oltmishinchi yil safar oyining (776-y., dekabr) o'rtasida dushanba kuni o'z o'g'lini ilg'or tarzida jo'natdi. Abu Avn Xurosonni bir yil-u bir oy boshqardi va Muqanna bilan janglar qildi. Humayd zamonida Yusuf Saqfiy Haruriy bosh ko'targan edi. Hakim Toliqoniy va Bumaoz Faryobiy ham u bilan birga edi. Ular Pushang [shahri]ni Mus'ab ibn Zuraybdan tortib olishdi. Yusuf Marzarrud, Toliqon va Ruzg'ononda g'alaba qildi. Ammo Balx hoshimiylari u bilan jang qilib, mag'lubiyatga uchratishdi. Bumaoz Faryobiyni qo'lga olib, Mahdiy huzuriga jo'natishdi. Mahdiy Bumaozni dorga osishni buyurdi. Shundan so'ng Mahdiy Abu Avnni Xuroson amirligidan chetlatdi.

(127) **Maoz ibn Muslim amirligi davri.** Mahdiy Xurosonni Maoz ibn Muslimga berdi. Maoz o'z ukasi Salamani Xurosonga o'z noibi sifatida jo'natdi va bir yuz oltmish birinchi yil rabi' ul-oxir oyida o'zi ham uning izidan yo'lga tushdi. Uning davrida Nishopur hokimligini o'g'li Husaynga berishdi va o'sha yili qahatchilik yuz berdi. Ko'p xalq uning saroyi oldiga yig'ilib, ocharchilik va narx-navo qimmatchiligidan nola-yu faryod qilishdi: Ular Husayndan: «G'alla sotgin, toki boshqalar ham sendan ibrat olib g'allalarini sotishsin», – deb talab etishdi. Husayn: «Bir dona bug'doyning narxi bir dinor bo'lishini xohlayman», – dedi. Odamlar noumid bo'lib, uni qarg'adilar va bir hafta o'tmasdan Husayn o'ldi.

Maoz Marvga kelgach, Xuroson ishlarini tartibga soldi. Shundan so'ng u Muqannaga qarshi yurishga jazm qildi va Said Harashiyni o'z lashkarining ilg'ori tarzida jo'natdi. Uqba ibn Salm ham Tavovisda[2] ular-

[1] *Numijkat* – o'sha zamonda Buxoro yaqinidagi, deyarli unga yondoshib turgan shahar.

[2] Narshaxiy ma'lumotiga ko'ra, bu qishloqning asl nomi Arqud bo'lgan. Qishloq ahlining o'z uylarida tovus saqlash odati bo'lgani tufayli, arablar uni «Zot ut-tavovis», ya'ni «Tovuslar egasi» deb atashgan. Keyinchalik «zot» so'zi tushib qolib, qisqacha Tavovis deyiladigan bo'lgan.

@tarixchilartubxonasiga

ga qo'shildi va birgalikda Samarqandga borishdi. Muqannaning odami Horija o'n besh ming oqkiyimlilar bilan Jabroil ibn Yahyoga qarshi jang qilar edi. Jabroil ulardan uch mingini jangda o'ldirdi. Bu madad yetib kelgach, musulmonlar kuchayib, oqkiyimlilar zaiflashib qoldilar va ulardan ko'pchiligi o'ldirildi. Qolganlari Muqanna tarafga qaytishdi. Muqanna Siyom qal'asi oldiga xandaq qazib, musulmonlar bilan jang qildi. Oqkiyimlilarning ahvoli tang bo'ldi, ammo ular bardosh berishdi. Biroq ular bir-birining terisini yeyish darajasiga borishgach[1], Muqannaga bildirmay, Harashiydan sulh so'rashdi. Harashiy [ularning iltimosini] qabul qildi va o'ttiz ming kishi xandaqdan o'tib, [qal'adan] chiqib ketishdi. Muqanna ikki ming kishidan iborat erkak va ayol tobelari bilan qoldi. Said Harashiy va Maoz ibn Muslim oralarida sovuqlik paydo bo'lgan edi. Maoz Mahdiydan o'zini Xurosondagi amaldan bo'shatishini so'radi va iltimosi ijobat etilgach, Iroqqa jo'nab ketdi.

Musayyab ibn Zuhayr amirligi davri. Shundan so'ng Mahdiy Xuroson yorlig'ini Musayyab ibn Zuhayrga berib, uni Xurosonga jo'natdi. Musayyab bir yuz oltmish oltinchi yilning jumod ul-avval (782-y., dekabr) oyida Xurosonga yetib kelgach, xiroj yig'ishga mashg'ul bo'ldi. So'ngra Muqannaga hujum qilish uchun, Buxoro tarafga ravona bo'ldi. Shunda Said Harashiy Muqannani (128) qal'ada qattiq muhosara qilib g'alaba qozongani xabarini eshitdi. Muqanna nochor vaziyatga tushib qolgach, xotinlarini to'plab zahar tayyorladi va ularga jannatni va'da qilib, barchasiga zahar ichirdi. Hammasi o'sha zahoti o'lib qoldilar. Muqanna ham zahar ichdi, ammo u sekin jon berardi. U yoronlaridan biriga bo'yniga qilich urishni buyurdi va [dushmanlar] topa olmasliklari uchun jasadini olovda kuydirishni vasiyat qildi. Unga ergashgan odamlardan ba'zilari, u osmonga ketdi, deyishdi. Ayrim kishilar shu sababdan aldanishdi va to hozirgacha muqannaiylar [muqannachilar] hanuz bordirlar. Lashkar qal'aga bostirib kirganda, u yerda odamlar yo'q edi. Nimaiki topgan bo'lishsa, o'zlari bilan olib ketishdi.

(145) **Somoniylar sulolasining podshohligi va nasl-nasabi.** Somoniylar sulolasining podshohligi Somon-xudot Xamitan o'g'lidan boshlanadi; u mug' bo'lib, zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan ekan...

(146) [Arab xalifaligida] Bag'dodda Muhammad al-Amin hukmdorligi (809–813) davrida Xurosonni al-Ma'mun (813–833) boshqarardi va uning qarorgohi Marvda edi. Somonxudot Ma'munning huzuriga keldi va uning vositasida islomni qabul qildi. Somonning Asad ismli suyukli farzandi bo'lib, uning to'rt o'g'li bo'lgan ekan: Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyos. Ma'mun ularning barchasiga, xususan, Asadga katta mehr va e'tibor bilan qaragan,

[1] Aftidan, muallif bu o'rinda qamaldagilar ochlikdan ozib, terilari suyagiga yopishib qolganiga ishora qilyapti.

@tarixchi_kutubxonasiga

zero, ular aslzodalar bo'lganlar. Ma'mun Bag'dodga borib xalifalik taxtini egallagach, Xurosonni boshqarishni G'asson ibn Ibodga topshirdi va ularga g'amxo'rlik qilib turishni tayinladi. Shundan so'ng G'asson Samarqandni – Nuh ibn Asadga, Farg'onani – Ahmad ibn Asadga, Choch va Usrushanani – Yahyo ibn Asadga, Hirotni – Ilyos ibn Asadga [mulk qilib] berdi. G'assonning o'rniga Tohir ibn al-Husayn Xuroson voliysi etib tayinlanganida, u [Somoniylarni] o'z noiblik [vazifa]larida qoldirdi. Barcha o'g'illar ichida (147) Ahmad qobiliyatli edi[1]. U vafot etgach, undan ikki o'g'il qoldi: Nasr va Ismoil. Tohiriylar davrida Nasr – Samarqandda, Ismoil – Buxoroda hokim edilar. Ular dastlab ittifoqlikda yashardilar, biroq, keyinchalik tuhmatchilar ularni bir-biriga qayrab, dushman qilib qo'yishdi va ish urushgacha borib yetdi. Ikki yuz yetmish beshinchi (888–889) yili ular qo'shin tortib jang qildilar va Ismoil g'alaba qozondi. Nasrni bandi qilib, Ismoilning huzuriga keltirdilar. Ismoil uni ko'rishi bilan otdan tushib, kelib uning qo'lini o'pdi va kechirim so'radi. Katta ehtirom va e'tibor ko'rsatib, lashkar va hashamat bilan uni Samarqandga qaytardi. So'ngra Ismoil butun Movarounnahrga Nasrni xalifa qilib belgiladi va barcha ishlar risoladagiday borardi.

Umro' ibn Lays [xalifa] Mu'taziddan Movarounnahrni boshqarishga ruxsat olgach, Ismoil [Somoniy] ustiga yurish qildi. Ismoil lashkar bilan chiqib, unga yuzma-yuz turdi, to'lov to'lab, uni Bag'dodga qaytardi.

(150) **Amir Said Nasr ibn Ahmad davri.** Shundan so'ng Nasr ibn Ahmad as-Said[2] uch yuz birinchi yil jumod ul-oxir oyining yigirma birinchi kuni Xuroson taxtiga o'tirdi. U sakkiz yashar edi va o'ttiz yil-u uch oy Xuroson amiri bo'ldi. Amiri shahid[3] o'ldirilgach, shayxlar va mansabdorlar Buxoroga to'planib, ittifoqlik bilan uning o'g'li Nasr ibn Ahmadning amir bo'lishini yoqladilar. So'ngra Sa'd ismli xizmatkor uni yelkasiga o'tirgizib, odamlar unga bay'at[4] qilishlari uchun ko'tarib olib chiqdi. [Amir yosh bo'lgani uchun] uning sohibtadbiri[5] Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Jayhoniy[6] edi. U davlat ishlarini juda yaxshi tarzda yo'lga qo'ydi va olib bordi.

---

[1] *Ahmad ibn Asad* – Nuhning vafotidan so'ng (842-y.), Samarqand voliyligi uning o'g'li Nasrga berildi. 875-yili Nasr ibn Ahmad xalifa Mu'tamiddan Movarounnahr hukmdorligi uchun yorliq oldi.

[2] *Nasr ibn Ahmad* (914–943) – Somoniylar sulolasidan bo'lgan hukmdor, Said uning laqabidir.

[3] *Amiri shahid* – Somoniylar sulolasidan bo'lgan hukmdor Ahmad ibn Ismoil (907–914). U suiqasd natijasida o'ldirilgan.

[4] *Bay'at* – yangi hukmdor taxtga o'tirganida unga sodiqlikni ta'kidlab qilinadigan qasamyod.

[5] *Sohibtadbir* – aftidan, bu so'z ushbu o'rinda manbada «regent» ma'nosida qo'llangan.

[6] *Abu Abdulloh Jayhoniy* – Somoniylar sulolasining mashhur vazirlaridan bo'lib, «Kitob al-masolik va-l-mamolik» asarining muallifidir.

@tarixchi_kutubxonasiga

Abu Abdulloh Jayhoniy dono, juda hushyor, g'ayratli va fozil odam edi. U barcha tadbirlarda o'tkir nazar sohibi edi. Ko'pgina soha va fanlarda asarlar yaratgan. U vazirlik mansabiga o'tirgach, jahonning barcha mamlakatlariga nomalar yozib, o'sha yurtlardagi saroy va devonlar rasm-rusumlari hamda qonun-qoidalaridan nusxalar ko'chirib, o'ziga jo'natishlarini iltimos qildi. Rum, Turkiston, Hindiston, Chin, Iroq, Shom, Misr, Zanjibar[1], Zobul, Kobul, Sind va Arabiston mamlakatlari rasm-rusumlarini yozib, unga jo'natishdi. Jayhoniy barcha nusxalarni oldiga qo'yib, obdon mulohaza qildi. Yaxshi va ma'qul rasmlarni tanlab, nomaqbullarini bir chetga qo'ydi. Shu tarzda tanlangan yaxshi rasmlarga butun amir saroyi va Buxoro devoni amal qilishsin, deya farmon chiqardi. Jayhoniyning oqil va tadbirkorligi tufayli mamlakatning barcha ishlari tartibga tushdi.

(154) **Amiri Hamid Abu Muhammad Nuh ibn Nasr davri.** Amiri Hamid[2] uch yuz o'ttiz birinchi yilning sha'bon oyida (943-y., aprel) Xuroson taxtiga o'tirdi. U o'n ikki yil amirlik qildi...

Abu Ali Chag'onyoniy[3] maqtovli amir [Nuh ibn Nasr]ning amakisi Ibrohim va a'yonlar bilan Nishopurga keldi. Ibrohim ibn Simjur va Mansur ibn Qorategin o'z tobelari bilan ketib, Marvga – Nuh huzuriga borishdi. Abu Ali uch yuz o'ttiz beshinchi yilning rabi' ul-avval oyida Nishopurdan chiqib, Saraxsga keldi. U yerdan Marvga qarab yurdi. U Oyqon qishlog'iga yetganida, Nuhning sarhanglari va mulozimlaridan ko'plab maktublar keldi. Ular Abu Ali tarafga o'tishga moyil edilar. Abu Ali Marvdan bir farsang masofadagi Sing qishlog'iga kelib tushdi. Nuh Buxoro tarafga ketdi va Abu Ali Marvga kirib, bir qancha vaqt u yerda bo'ldi. So'ngra u Buxoro tarafga yurdi va Jayhundan kechib o'tdi. Nuh Samarqandga ketdi va Abu Ali xutbani Ibrohim ibn Ahmad nomiga o'qittirdi va bir necha muddat u yerda (Buxoroda) bo'ldi. Shundan so'ng Buxoro xalqi Abu Alini barcha yaqin kishilari bilan yo'qotmoqqa qasd qilishdi. Bu xabar Abu Aliga yetgach, u ertasi shahardan chiqdi va o'zining barcha odamlariga ham tashqariga chiqishni buyurdi. Ular o'zlarining libos, chodir va buyumlarini ko'tarib tashqari chiqishdi va shaharga o't qo'ymoqchi bo'lishdi. Shu sababli shahar kattalari tashqari chiqib, Abu Alidan shafoat so'rashdi va uni Alloh taolo nomi bilan qo'rqitishdi. Abu Ali shahar aholisining o'ziga nisbatan ishonchi yo'qligini ko'rgach, u yerga Abu Ja'farni[4] qo'yib, ba'zi odamlarni devondagi turli vazi-

[1] *Zanjibar* – Habashiston (Efiopiya).

[2] *Amiri Hamid, ya'ni «maqtovli amir»* – Abu Muhammad Nuh ibn Nasr, Somoniylar sulolasidan bo'lgan hukmdor (943 – 954).

[3] *Abu Ali Chag'onyoniy* – Chag'oniyon viloyatidan chiqqan yirik sarkarda va siyosiy arbob.

[4] *Abu Ja'far Muhammad ibn Nasr* – Somoniy hukmdor Nuh ibn Nasrning birodari.

@tarixmi_kutubxonasiga

falarga tayinlab, o'zi Rahnahamuy[1] yo'lidan chiqib, go'yokim Samarqandga ketayotgandek qilib ko'rsatdi. Ammo u Naxshabga bordi. So'ngra barcha sarhang va tobelarini orqaga qaytarib, o'zi Chag'oniyonga ketdi.

Abu Ali ketgan zahoti Ibrohim va Abu Ja'far Muhammad ibn Nasr bir odamni Nuh huzuriga yuborib, undan omonlik so'rashdi. Nuh ularning uzrini qabul qilib, omonlik va'da etdi va o'zi uch yuz o'ttiz beshinchi yilning ramazon oyida (947-y., mart-aprel) Buxoroga qaytib keldi. Xuddi shu yili Muti'[2] xalifalik taxtiga o'tirdi. Maqtovli amir Xuroson sipohsolorligini Mansur ibn Qorateginga berdi va Mansur Buxorodan Marvga keldi. Ahmad ibn Muhammad ibn Ali al-Qazviniy Marvda edi. U Mansurga peshvoz chiqib, unga xizmat qildi. Mansur u yerdan Nishopurga keldi. Abu Ali esa Chag'oniyonda turar edi. So'ngroq Abu Aliga: «Amir Nuh lashkar to'pladi va sening ustingga bostirib bormoqchi», – degan xabar keldi. Abu Ali ehtiyotkorlik yuzasidan Balxga keldi va bir qancha vaqt u yerda bo'ldi. Shundan so'ng lashkar bilan Buxoro tomonga yurdi va maqtovli amir o'zining bor sipohi bilan unga qarshi bordi. Ular uch yuz o'ttiz oltinchi yilning ramazon oyida (948-y., mart-aprel) Xartangda[3] bir-birlariga yetishdilar va namozgardan oldinroq to kun botguncha jang qilishdi. Nuh va uning sarhanglari Buxoroga qaytishdi. Abu Ali odamlaridan Ismoil ibn Abulhasan va boshqa bir necha kishini asirga olishdi. Abu Is'hoq Ro'zgoniy daylamliklardan katta bir guruhi bilan kelib, omonlik so'radi. Abu Ali Chag'oniyonga chekindi. Bobjur hojib jangda halok bo'ldi. Ali ibn Ahmad ibn Abdullohni Samarqand atroflarida qo'lga olishdi. Ahmad ibn al-Husaynni esa Naxshabda ushlashdi. Ularni tuyalarga mindirib, kunduz kuni Buxoroga olib kelishdi, har biriga yuz qamchi urib, kishanga solishdi va mol-mulklarini musodara etishdi. Abul Abbos Muhammad ibn Ahmad o'sha paytda o'ldi, ammo Ahmad ibn al-Husayniy uzoq muddatdan so'ng ozodlikka erishdi.

Shundan so'ng Abu Ali Xuttalon[4] amiridan yordam so'radi va o'zi lashkar to'plab, Termizga keldi va Jayhundan kechib o'tdi. U Balxga keldi va u yerdan Guzgononga[5] bordi. Shu tariqa, u Samarqandga borib, Xuttalon amiri bilan birlashmoqchi edi. Abu Ali Toharistonga yetganida, Buxoro lashkari Chag'oniyonga kelib, Dari Ohaninni yondirgani va o'zining bu-

[1] Abdulhay Habibiy ibn Havqal ma'lumotlariga tayanib: «Rahnahamuy Buxoro darvozalaridan biri bo'lsa kerak», – deb izoh bergan.

[2] *Muti'* – Abbosiylar sulolasiga mansub xalifa, 947–974-yillarda hukm surgan.

[3] *Xartang* – Samarqand yaqinidagi qishloq, ulug' muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy qabri shu qishloqda.

[4] *Xuttalon yoki Xatlon* – Amudaryoning yuqori oqimida, Vaxsh va Panj daryolari oralig'ida joylashgan viloyat.

[5] *Guzgonon* – hozirgi Afg'onistondagi Juzjon viloyati.

@tarixchi_kutubxonasiga

tun mulklarini vayron qilgani haqidagi xabar unga yetdi. U darhol Mila[1] yo'lidan daryoni kechib o'tdi va lashkarini har tarafga tarqatib, Buxoro sipohining yo'lini to'sdi. Ularning ahvoli tang bo'lib, otlar uchun yem-xashak yo'li bekildi. Abu Ali Kamkanon qishlog'iga yetganda, uch yuz o'ttiz oltinchi yilning rabi' ul-avval oyida (947-y., sentabr-oktabr) o'sha joyda jang qilishdi. Bu qishloq Chag'oniyondan ikki farsang masofada joylashgan. Maqtovli amirning lashkari Abu Ali ustidan g'alaba qozondilar va u Chag'oniyondan o'n ikki farsang masofadagi Shumon tarafga ketdi. Buxoro lashkari Chag'oniyonga kirib, shaharni talon-toroj qilib, Abu Alining ko'shklari va uylarini g'orat etdilar. Shundan so'ng Abu Aliga kumijiylar,[2] Josht amiri Ja'far ibn Shamoyanquvo va Iloq lashkari madadga keldi. Ular bir kunda Vashgirdga yetib kelishdi. Xuttalon amiri Ahmad ibn Ja'far ham o'zining yirik sarhangi Bajkamni katta lashkar bilan yubordi. Buxoro lashkarining yo'li to'silib, hazratning ular bilan xabarlashuvi imkonsiz bo'lib qoldi. Shuning uchun ular sulh istashdi va ikkala taraf shu qarorga kelishdi: Abu Ali o'z o'g'li Abulmuzaffar Abdulloh ibn Ahmadni garov tariqasida Buxoroga jo'natadi. Xuddi shunday qilishdi va bu voqea uch yuz o'ttiz yettinchi yilning jumod ul-oxir (948-y., dekabr) oyida bo'ldi. Abulmuzaffar Buxoroga yetib kelganida, maqtovli amir shaharni bezatib, uni izzat-ikrom bilan shaharga olib kirishni va saroyga joylashtirishni buyurdi. Amir uni o'zining xos dasturxoniga chaqirdi va unga chopon va kuloh kiygizishdi.

Chag'oniyon viloyati nohiyalaridan biri bo'lgan Bosandda[3] bir soxta payg'ambar paydo bo'ldi va u Dari Ohaninga keldi. Uning nomi Mahdiy bo'lib, payg'ambarlik da'vosini qildi. Uch yuz yigirma ikkinchi (933–934) yilda u oshkora da'vat qila boshladi. Ko'plab odamlar uning oldiga borib, atrofiga to'planishdi. Bu Mahdiy kamariga qilich osib olgan bo'lib, kim unga xilof bo'lsa, shu qilich bilan unga hamla qilardi. U bir firibgar odam bo'lib, turli xil makr-hiylalarni bilardi. Chunonchi, qo'lini hovuzdagi suvga tiqar va tortib olganda hovuchi dinorga to'la bo'lardi. Yoki uning dasturxonidan ko'p sonli jamoat ovqat yer, ammo taom kamaymasdi. Uning jomidan butun jamoat suv ichar, ammo u jom bo'shab qolmasdi. Uning xos qavmiga mansub odamlarning har biri kuniga bir dona xurmo yer va bu ularga kifoya qilardi. Bu xabar viloyatlarga tarqalgach, johil omma orasidan ko'p odamlar unga tomon intilishdi. Buxorodan Abu Ali Chag'oniyoniyga: «Ul soxta payg'ambarning ishini biryoqli qilish chorasini ko'r», – degan mazmunda maktub keldi. Abu Ali Abu Talha Ja'far ibn Mardonshohni unga qarshi

[1] *Mila* yoki *Raboti Mila* – Amudaryodan kechib o'tiladigan manzillardan biri bo'lib, daryoning chap qirg'og'ida joylashgan.

[2] *Kumijiylar* – tog'liq bir qabila.

[3] *Bosand* – hozirgi Boysun deb taxmin qilinadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

yubordi. Vardi qishlog'ida bo'lgan Mahdiy toqqa chiqib ketdi. Jang qilib uni qo'lga olib, tog'dan pastga tushirishdi va boshini kesib, to'rvaga solib, Abu Aliga yuborishdi. Abu Ali o'sha paytda Shumonda edi. U kesik boshni Mahdiyga moyillik bildirgan barcha odamlarga ko'rsatishni buyurdi va so'ngra Buxoroga jo'natdi.

(147) **Ismoil ibn Ahmad** (279 – 295/892 – 907). Xuroson hokimligi Ismoilga o'tdi va [buni tasdiqlovchi belgi sifatida xalifa] Mu'taziddan yorliq va bayroq keldi...

Mu'tazid vafotidan so'ng, xalifalik Muktafiyga (289 – 295/902 – 908) o'tdi. U Xurosonga Ismoil [nomi]ga yorliq jo'natdi... [Ismoil Nishopurda edi]. Muhammad ibn Abdusamad Nishopurga yetib kelganida, Ismoil uni katta izzat-ikrom bilan kutib oldi va uch yuz ming dirham va yana ko'plab sovg'alar berib kuzatdi...

(148) Ismoil ibn Ahmad [Somoniy] ikki yuz to'qson beshinchi yil safar oyining o'n to'rtinchi kuni (907-y., 24-noyabr) chorshanba kechasi vafot qildi. Unga «Moziy» degan laqab berdilar.

Abu Nasr Ahmad ibn Ismoil (295 – 301/907 – 914). U [Ismoil ibn Ahmad] ning vasiyatiga ko'ra Xuroson taxti o'g'li Ahmadga o'tdi. [Xalifa] Muktafiy Ahmad nomiga Xurosonga Tohir ibn Ali orqali yorliq yubordi. Tohir Buxoroga yetib kelgach, Ahmad ibn Ismoil uni yaxshi izzat-ikrom bilan kutib oldi va ko'p sovg'a-salomlar qildi. Ikki yuz to'qson beshinchi yil zulqa'da oyida (908-y., avgust) Muktafiy vafot qildi va Muqtadir (295 – 320/908 – 932) xalifalik [taxtiga] o'tirdi. U ham Xuroson voliyligini Ahmad ibn Ismoilda qoldirdi.

Ahmad Buxoroda o'rnashib olgach, Ray tomon yurishni va ul joylarni egallab, o'z hukmiga kiritishni mo'ljalladi. Ibrohim ibn Zaydaviyah unga: «Sen avval Samarqandga yurish qil va amaking Is'hoq ibn Ahmadni bo'ysundir, toki u Xurosondagi rejalaringni buzmasin, chunki u hamma narsaga aralashaveradi», – deb maslahat berdi. Ahmad ibn Ismoil Samarqandga yo'l oldi, Is'hoqni bandi qilib, Buxoroga jo'natdi. O'zi esa [o'sha] ikki yuz to'qson oltinchi (908 – 909) yili Ray tomonga yurdi...

[Xalifa] Muqtadirning [uning nomiga yo'llagan] yorlig'i ham o'sha yerga yetib keldi...

Ahmad Rayda Abu Ja'far Su'lukni noib qilib qoldirdi va ikki yuz to'qson yettinchi (909 – 910) yili ortga qaytdi. Hirotga yetib kelib, u yerdan Husayn ibn Ali al-Marvaziy [boshchiligida] Seyistonga [qo'shin] jo'natdi...

(150) [Ahmad ibn Ismoilning] qullaridan bir nechtasi to'satdan yotog'iga bostirib kirib, uni so'yib tashladilar. Bu voqea 301-yili jumod ul-oxir oyining yigirma birida (914-y., 22-yanvar) tunda sodir bo'ldi. Uning [jasadini] Buxoroga eltib, o'sha yerda dafn qildilar. Qullarning ortidan odam yuborib, bir nechtasini tutib o'ldirdilar. Abulhasan Nasr ibn Is'hoq al-Kotibni amirni

@tarixchi_kutubxonasiga

o'ldirish uchun qullar bilan til biriktirgan, degan ayblov bilan dorga osdilar. Ahmad ibn Ismoilga esa «Shahid amir» degan laqab berdilar...

Abdulmalik ibn Nuh (343 – 350/954 – 961). Nuh ibn Nasrning to'rt o'g'li bor edi: Abdulmalik, Ahmad, Nasr, Abdulaziz. U o'g'illarining har birini [o'ziga nisbatan] sadoqatli bo'lish uchun qasamyod qildirdi. Yoshi ulug'i Abdulmalik uch yuz qirq uchinchi yil rabi' ul-oxir oyida (954-y., avgust) hukmdorlik taxtiga o'tirdi va Abu Mansur Muhammad ibn Uzayrni vazirlik mansabiga belgiladi; sipohsolor etib Abu Said Bakr ibn Molikni tayinladi.

U [Bakr ibn Molik] 343-yilning sha'bon oyida (954-y., dekabr) Nishopurga yetib keldi va adolat asosida hukmronlik qila boshladi. O'sha kezlarda [xalifa] Muti'[1] Xurosonni boshqarishni Abu Ali Chag'oniyoniyga topshirganligi haqida xabar yetib keldi. Bakr ibn Molik g'azablanib qo'shin tortdi va Go'yon rustosidagi Ozodvor qishlog'iga kelib, lashkarboshisi bilan urush rejasini tuzishga kirishdi. Harbiy boshliqlar ot-ulov uchun yemish va askarlarda ozuqa yo'qligi, bu ahvolda qo'shinlar jang qila olmasligini aytdilar. Bakr ibn Molik [buyuk hukmdor] Abdulmalik ibn Nuhga maktub yo'llab, ahvolni ma'lum qildi va pul so'radi. Buyuk hukmdor [xabarchi] Ismoil ibn Tug'yonni qaytarib yubordi, biroq zarur pulni jo'natmadi. Bu xabar Xurosonga yetib kelishi bilan Xuroson [ahli] qattiq ranjidilar. [Xurosonda ichki nizolar kuchaydi]...

(160) Uch yuz qirq to'rtinchi yil rajab oyining oxirida (955-y., noyabr) Abu Ali [Chag'oniyoniy] kasal bo'lib, vafot etdi; uning jasadini Chag'oniyonga eltib dafn qildilar.

Bakr ibn Molik o'z a'yonlarini e'tiborsiz qoldirdi, ularning maoshini qisqartirdi, ular darg'azab bo'lib Buxoroga qaytdilar va Abdulmalikka shikoyat qildilar. Shu sabab bilan uch yuz qirq beshinchi yil ramazon oyida (956-y., dekabr) Bakr ibn Molik poytaxt Buxoroga keldi. U Farg'onaga qaytishi uchun [mansabdorlik] to'ni va solorlardan o'ttiz yettitasini berishlarini so'radi. Bakr ibn Molik kelib ta'zim rasmiyatchiligini ado etdi va qaytmoqqa shaylandi. Fategin xazinador uning o'ng tomonida, Alptegin chap tomonida kuzatib borishardi. Bakr ibn Molik otga minmoqchi bo'lganida, Alptegin hojib uni yerga ag'dardi va unga xanjar va nayza sanchib sultonning eshigi oldida o'ldirdilar, boshini tanidan judo qildilar. Abu Mansur ibn Uzayrni bandi qildilar va Abu Ja'far ibn Muhammad al-Husayn [Utbiy]ni vazir etib tayinladilar[2]. Abulhasan Muhammad ibn Ibrohimga Xuroson sipohsolorligi [mansabi]ni berdilar. Hojib Ibrohim ibn Alpteginni uch yuz qirq yettinchi (958-y.) yili yorliq va sipohsolorlik bayrog'i berib, Abulhasan qoshig'a yubordilar.

[1] *Al-Muti'* (947 – 974) – Abbosiylar sulolasiga mansub yigirma uchinchi xalifa.

[2] *Utbiy* – 959-yilgacha Somoniylar vaziri.

@tarixchi_kutubxonasiga

Abu Ja'far Utbiy ortgan pullarni yig'di va xazinani boyitish yo'lida tirishdi. Uni bo'hton bilan vazirlikdan oldilar va uch yuz qirq sakkizinchi (959-y.) yili Abu Mansur Yusuf ibn Is'hoqqa berdilar.

Amir Abulhasan ibn Ibrohim Nishopurda ko'p zulm o'tkazdi va uning ustidan poytaxt Buxoroga uzluksiz shikoyatlar borardi. Shuning uchun uni uch yuz qirq to'qqizinchi yil jumod ul-oxir oyida (960-y., iyul) mansabdan chetlatib, sipohsolorlikni Abu Mansur Muhammad ibn Abdurazzoqqa berdilar va Abu Nasr Mansur ibn Boyqaroni yorliq hamda bayroq bilan uning huzuriga yo'lladilar. Yorliq yetib kelishi bilan, (161) Abu Mansur astoydil Movarounnahr – [Amu]daryogacha yerlarni boshqarishga kirishdi, yaxshi qoidalar joriy qilib, shikoyatlarni eshitdi. U dushmanlari orasida, qonun asosida, ularning bir-birlari ustidan shikoyatlarini adolat yuzasidan hal qildi. Abu Mansur halol, urf-odatlarni yaxshi bilgan, muomalali va yana ko'p yaxshi xislatlar sohibi edi. Alptegin hojib [saroyda] qolishga erisha olmadi. Abu Mansur buni yaxshi bilardi va u qanchalik gap-so'z qilmasin, e'tibor bermadi. Oxir-oqibat uni vazirlikdan chetlatdilar va o'rniga Abu [Ali] Muhammad ibn Muhammad al-Bal'amiyni vazir etib tayinladilar[1]. Alptegin Abdulmalikning muomalasi o'zgargan kundan boshlab ta'zimga kelmay qo'ydi va (u bilan) so'zlashmaydigan bo'ldi. Abdulmalik uni Balxga bormoqqa buyurdi. U e'tiroz bildirib: «Men bosh hojib bo'lganman va soliq yig'ish mening ishim emas», – dedi. So'ngra unga Xurosonning sipohsolorligini berdilar va Abu Mansurni [bu mansabdan] ozod qildilar. U Tusga ketdi, Alptegin esa uch yuz qirq to'qqizinchi yil yigirmanchi zulhijjada (961-y., yanvar) Nishopurga keldi. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ash-Shibliy uning vaziri edi.

Alptegin bilan Abu Ali Bal'amiy o'zaro maslahatlashib turish xususida kelishib olgandilar. Bal'amiy biror ishni Alpteginning maslahatisiz qilmasdi. Alptegin Abdulmalik ar-Rashidga otlar va turli sovg'a-salomlar yubordi. Ularni asr namozidan so'ng taqdim etdilar. Abdulmalik bellashuv maydonida chovgon o'ynardi. U sharob ichib, tortiq qilingan otlarni birma-bir minib yurgizib ko'rardi. Bir ot sakrab Abdulmalikni uloqtirib yubordi va boshi bilan bo'ynini ezib tashladi. [Yerdan] ko'tarib olganlarida, joni uzilgan edi; unga [Dovyurak] deb laqab berdilar.

As-Sadid Abu Solih Mansur ibn Nuh (350–365/961–976) Ar-Rashid va as-Sadid amir Nuhning o'g'li edi. Rashid falokatga uchragach, Abu Ali Bal'amiy darhol bu haqda Alpteginga maktub yo'llab xabar berdi va kimni taxtga o'tkazish to'g'risida so'radi. Alptegin: «Uning o'g'illari orasida eng afzalini taxtga o'tkazish lozim», – deb javob qildi. Mazkur javob yuborilgan-

[1] *Bal'amiy* (vaf. 974) – Somoniy podshohlar Abdulmalik va Mansur hukmronligi davrida vazirlik qilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

dan so'ng yana maktub keldi va unda: «Somoniylar oila a'zolari va harbiylar Mansurni taxtga o'tirishini ta'kidlamoqdalar», – deyilgandi. Alptegin xatni o'qib bo'lganda, choparlar ildam tuyalarda daryodan o'tib bo'lgan edilar. Alptegin Abu Mansur ibn Abdurazzoqqa chopar jo'natib: «Xurosonni qo'lingda mahkam tut va ikkalamiz o'rtamizdagi do'stlikni saqla, zero, men senga ishonaman», – deb ta'kidladi. Alptegin yuborgan chopar Abu Mansur huzurida turgan chog'ida, Buxorodan Alpteginning iste'foga chiqqanligi va Abu Mansur boshliq etib tayinlangani haqida xabar keldi. [Amir] Abu Mansurga: «Alpteginning daryodan o'tishiga yo'l qo'yma, u bilan jang qil, shunda Nishopurning sipohsolorligi seniki bo'ladi», – dedi va yana boshqa narsalar ham va'da qildi.

(162) Alptegin uch yuz elliginchi yil zulqa'da oyida (961-y., dekabr) Nishopurdan yurish qildi. Abu Mansur Tobaron va Nuqonga[1] qo'shin jo'natdi. Alptegin Joha tomon o'tdi. Uning ot-ulovlari va yuklaridan bir qismini abjirlar va sarhanglar taladi. Abu Mansur Alpteginning izidan ta'qib qilib, Johaga keldi. Alptegin daryo bo'yiga yetib olgandi. Amir, vazir va amir saroyidagi hukmdorlardan Alpteginning sarhanglariga, Alptegin taxtni o'g'irlamoqchi, degan mazmunda xat yetib keldi. Alptegin bundan xabar topgach, lashkar qarorgohini yoqib yubordi va o'zining xos askarlariga qarab: «Ko'ryapsizmi, oldinda bizni xanjar zarbi, qamoq va tahqirlashlar, orqa tomonda esa, asirlik va qilich kutmoqda. Yaxshisi, biz Balx tomon yuraylik», – dedi. U Balxga keldi va undan Xulm yo'li orqali yurdi. Sadid uning qochganligi haqida xabar topgach, ortidan Babdohni lashkar bilan jo'natdi va ular Xulm vodiysida Alpteginga yetib oldilar. Alpteginning yetti yuzta xos askarlari bor edi va ular o'n ikki minglik lashkar bilan jangga kirishib, aksariyatini qirib tashladilar.

Babdoh qochib, Buxoroga qaytdi. Alptegin Tohariston tomon yurib, G'aznaga yetib bordi va ma'lum vaqt o'sha yerda bo'ldi. Alpteginning oxirgi hukmdorligi G'aznada o'tdi.

Abu Mansur [ibn] Abdurazzoq o'z mansabida qoldirmasliklarini anglardi. U Marv tomon yurdi. Marvdagi sarhanglar darvozalarni yopib oldilar. U askarlari bilan aholini talon-toroj qilishga kirishdi, so'ngra Niso va Bovard tomon yurdi. Nisoning hokimi o'lgan edi, [Abu Mansur] uning merosxo'rlarini tutib, boyliklarini tortib oldi...

Vushmagir tabib Yuhannoga ming dinor berib, Abu Mansurni zaharlashni topshirdi. Abu Mansurning o'zboshimchaligi va talonchiligi boshiga yetdi va u [tabib bergan] zahar ta'sir qilib, oxiri o'ldi.

Sipohsolorlik [mansabi]ni keyinroq Abulhasan Muhammad ibn Ibrohimga berdilar. Abulhasan uch yuz elliginchi yil zulhijja oyida (962-y., yanvar)

[1] *Tobaron va Nuqon* – Tus viloyatidagi qishloqlar.

@tarixiy_kutubxonasiga

yetib keldi, raiyatga ko'p yaxshiliklar qildi, qonun-qoidani yo'lga qo'ydi, rahmdillik va yaxshilikka keng yo'l ochdi, muntazam olimlar bilan maslahat tuzardi. (163) U besh yil davomida Nishopurda muqim yashadi...

[Buxoroda] Abu Ali Bal'amiy va Abu Ja'far Utbiy vazirlik mansabini egallab turishardi. Uch yuz oltmish uchinchi yil jumod ul-oxir oyida (974-y., avgust) Abu Ali Bal'amiy vafot etdi...

(164) Abu Ja'far Utbiy Xurosonda ko'p xayrli ishlar qildi. Vazir Yusufni qayta chorladilar va vazir etib tayinladilar; u uch yuz oltmish uchinchi yil zulqa'da (974-y., iyul) oyida vafot qildi.

So'ngra Abu Abdulloh Ahmad ibn Muhammad al-Jayhoniyni uch yuz oltmish beshinchi (975–976) yili [vazir] etib tayinladilar. O'sha kezlarda Mansur ibn Nuh betoblandi va kasali og'irlashib, uch yuz oltmish beshinchi yil shavvol oyining o'n birinchisida (976-y., 12-iyun) o'sha kasal bilan hayotdan ko'z yumdi. Unga «Sadid» («Adolatli») laqabini berdilar.

Ar-Rizo Abulqosim Nuh ibn Mansur (365–387/976–997). Nuh ibn Mansur shohlik taxtiga o'tirganda, hali voyaga yetmagan edi; u yigirma bir yil va to'qqiz oy hukmdorlik qildi; o'z mavqeini mustahkamlash maqsadida amir Abulhasan va (165) Abulhoris Muhammad ibn Ahmad ibn Farig'o'n[1] bilan qarindosh tutindi. Ular orqali mavqei kuchaydi. Ishlarni yuritishni Foriq al-Xossa va Tosh al-Hojibga topshirdi. Hukmronlikni qo'lga olgach, Buxoro g'oziylarining solori bo'lmish Abu Abdulloh ibn Hafsni amir Abulhasan huzuriga elchi qilib jo'natdi va uni «Nosiraddavla» degan unvon, sipohsolorlik yorlig'i va to'n bilan taqdirladi; Nishopur, Hirot va Kuhistonni oziq-ovqat bilan ta'minlash va obod qilishni tayinladi... Mazkur yorliq, to'n va payg'om Abulhasanga yetib borganda, u juda mamnun bo'ldi, elchiga ehtirom ko'rsatdi, eng suyukli o'g'lini uning qoshida bo'lishiga rozilik bildirdi. Shundan so'ng Abu Abdulloh G'oziyga qaytishga ruxsat etdi. Uch yuz oltmish yettinchi yil rabi' ul-oxir oyida (984-y., sentabr) Abulhusayn Abdulloh ibn Ahmad Utbiyni [vazir] qilib tayinladilar...

(166) So'ngra amir Rizo Abulabbos Tosh hojibga sipohsolorlik lavozimini marhamat qildi va unga «Hisom ad-davla» («Davlat qilichi») degan unvon berdi. Tosh uch yuz yetmish birinchi yil sha'bon oyining o'rtasida (982-y., 13-fevral) Nishopurga yetib keldi va bir yil muddat o'sha yerda bo'ldi...

Amir Abulhasan Buxorodan kelgan ko'rsatmaga muvofiq [o'z hukumatidagi] lashkarboshilik vazifasini o'g'li Abu Aliga topshirdi...

(167) Vazirlik mansabiga Abu Muhammad Abdurahim ibn Ahmad al-Forisiyni tayinladilar. Abu Ali va Foiqning salohiyati ortdi. Nihoyat shunday qarorga keldilar: Nishopurni – Toshga, Balxni – Foiqqa, Hirotni – Abu Ali-

[1] *Farig'o'n* – Guzgon (Juzjon) viloyatining hokimi, Somoniylarga qaram bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

ga, Bodg'is, Ganjrustoq va Kuhistonni – Abulhasanga beradigan bo'ldilar... Tosh uch yuz yetmish sakkizinchi (988-y.) yili (168) Gurgonda vafot etdi.

Undan so'ng uch yuz yetmish sakkizinchi yil rabi' ul-oxir oyining o'ninchisida (988-y., 29-iyul) Abu Ali Muhammad ibn Iso al-Damg'oniyni vazirlik mansabiga tayinladilar...

So'ngra Nuh ibn Mansur sipohsolorlik lavozimini Abu Aliga berdi va unga yorliq, bayroq, to'n jo'natdi hamda uni «Umoduddavla» («Davlat tayanchi») degan sharafli unvon bilan taqdirladi. [Bu voqea] uch yuz sakson birinchi (991 – 992) yili yuz berdi.

Foiq ruxsatsiz Buxoroga yo'l oldi. Inaj (yoki Inchu) hojib va Begtuzun u bilan jang qilib, mag'lub etdilar; u Balxga ketdi. Chag'oniyonni Abulhasan Tohir ibn al-Fazlga berdilar. Amir Tohir ibn al-Fazl [u yerga] yetib keldi, Abul Muzaffar Foiq yoniga ketdi. Foiq unga yordam berdi va u Tohir ibn Fazl bilan urishdi. Bu muhorabada Tohir o'ldirildi.

Abu Muso Horun Ilikxon o'g'li Turkistondan Ispijobga yetib kelib, chopqin yasab, Xartangda Foiqning sarhanglarini asir oldi. Foiq shafqat so'rab, xon huzurida hozir bo'ldi va u bilan birga Buxoroga keldi. Nuh ibn Mansur [qochib] g'oyib bo'ldi. Foiq xondan Balxni so'radi, [xon] rozi bo'ldi va ortga qaytdi.

Amir Abu Alining lashkari va qurol-aslahasi ko'paydi, xazinasi boyidi. U Xuroson amiri mulklariga qo'l cho'zdi, Movarounnahr [Amu]daryogacha yerlarni to'la egalladi, sultonga tegishli xirojlar, foydalar, qazilma boyliklar, inshootlar, ekinzorlarni o'z ixtiyoriga oldi; xullas, iloji boricha, amir Nuhni mensimaslikka harakat qildi. O'ziga «Amir al-umaro al-muayyad min assamo» («Osmoniy tasdiqqa ega amir ul-umaro») degan unvon joriy etdi va minbarlardan Nuh nomiga xutba o'qishni to'xtatdi.

Ilik[1] Ispijobga yetib kelganida, Abu Ali maktub yo'llab, unga yon bosdi. Ilik uch yuz sakson ikkinchi yil rabi' ul-avval oyida (992-y., may) Buxoroga kelib, Jo'yi Mo'liyonda to'xtadi.

Nuh Abu Aliga maktub yozib, chopar jo'natdi va xon tashrif buyurdi, yetib kel, deb xabar qildi. Abu Ali bunday mazmundagi xatlarga e'tibor qilmadi. [Nuh] undan qo'shin berishni iltimos qildi, lekin u yubormadi.

Xon ma'lum muddat bavosir bilan og'rib, so'ngra ketdi. Ketish oldidan [davlatni] boshqarishni Abdulaziz ibn Nuh ibn Nasrga topshirdi, unga qimmatbaho to'n in'om qilindi va: «Biz bu diyorni Nuhdan olib senga topshirdik», – dedi. Ilik Qo'chqorboshigacha (169) yetib borganda vafot etdi.

Nuh esa Abdulloh ibn Muhammad ibn Azizni Xorazmga chiqarib yubordi. Abdulloh Omuyaga yetib borganida, [Nuh] uni chaqirib oldi va o'z vazifasini bajarishni topshirdi. [Nuh] bir necha marta Abu Aliga maktub

[1] *Ilik (Ilikxon)* – Qoraxoniylar hukmdori Bug'roxon.

@tarixchi_kutubxonasiga

yo'llab, huzuriga chaqirdi, pul va askar berishni talab qildi, biroq u aslo ko'nmadi, o'ta takabburlik qildi va bo'yin tovladi. Nihoyat, xudoning o'zi Nuhning ishlarini o'ngladi va bu masala birortaning ko'magisiz bo'ldi, ya'ni u Buxoroga qaytdi.

Amir Abu Mansur Sabuktegin Alptegin hojibdan so'ng G'azna, Gardiz, Parvon, Kobul, Bust va Qorategin g'ulomlari qo'li ostidagi viloyatlarni egalladi, natijada uning ishlari rivoj topdi, shuhrati ortdi. Abu Alining amir Rizoga nisbatan qo'polligi va mensimasligi haddan ortgach, amir Nuh amir Sabuktegin ga, – uni xudo rahmat qilsin, – maktub yo'llab, Abu Alidan [shikoyat] qildi va uni [yordamga] chaqirdi. Amir Sabuktegin Kesh va Naxshabga yo'l oldi va barcha zarur ishlarni o'rinlatdi.

(171) Abu Ali Xorazmga yo'l oldi. Xorazmliklar Abu Alini [Hazoraspda] tutib bog'ladilar va Xorazmga olib ketdilar. Ancha ilgaridan gurganjliklar bilan Xorazm aholisi o'rtasida adovat bor edi. Gurganj amiri Ma'mun Xorazmga qo'shin tortdi; lashkarlar jangga tashlandilar. Xorazmshoh Abu Abdullohni[1] asir qildilar. Xorazmshoh Simjo'riyni hibsdan ozod qildilar... Xorazmshoh al-Ma'mun ibn Muhammad Abu Aliga yaxshi e'tibor berdi, ko'p pul-mol hadya qildi va uning ahvoli ancha yaxshilandi.

Abu Alining qoshig'a Nuhdan elchi kelib, unga ko'p pand-nasihatlar qildi, yaxshi va'dalar berib [Nuh] huzuriga borishga undadi. Uch yuz sakson oltinchi (996-y.) yili Abu Ali Buxoroga bordi. Ularni Abdulloh ibn Aziz va Bektuzun kutib olishdi. Nuh saroyiga yetib borganlarida, Abu Ali va uning o'n sakkizta ukalari va sarhanglarini tutib bandi qildilar va kuhandizga olib bordilar. Abu Ali haqida amir Sabuktegin xabar topgach, amir Rizo Nuhdan uni berishni so'radi. Nuh uch yuz sakson oltinchi yili sha'bon oyida (996-y., avgust) Abu Ali va uning g'ulomlari El-Mangu, Amirak Tusiy va Abul Husayn ibn Abu Alini amir Sabuktegin [ixtiyoriga] jo'natdi. Amir Sabuktegin bu to'rt kishini o'ta mustahkam Gardiz qo'rg'oniga qamab saqladi. Uch yuz sakson to'qqizinchi (999-y.) yili to'rttalasini qatl qildilar.

Amir Rizo Abulqosim Nuh kasalga chalinib, uch yuz sakson yettinchi yil o'n uchinchi rajab (997-y., 23-iyul)da vafot etdi. Shu yilning sha'bon (avgust) oyida Abul Hasan [Ali ibn Hasan] ibn Buyo ham olamdan o'tdi. Amir Sabuktegin Balxda betob bo'ldi, u G'aznaga bormoqchi bo'ldi, biroq yo'lda vafot etdi. Bu voqea uch yuz sakson yettinchi yil sha'bon (997-y., avgust) oyida sodir bo'ldi. Amir Rizo Nuh vafot qilganda, unga «Rizo» degan laqab berdilar.

Abulhoris Mansur ibn Nuh (387–389/997–999). Amir Rizo Nuh ibn Mansur o'g'li Mansurni valiahd qildi. Nuh o'lgandan so'ng Mansur uning o'rniga o'tirdi, u hali voyaga yetmagan edi. Abulmuzaffar Muhammad ibn

[1] *Abu Abdulloh* – 995-yilgacha Xorazm hukmdori.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ibrohim al-Burg'ashiy vazirlik mansabiga tayinlandi. Qolgan barcha ishlarni Foiq olib borardi.

(172) **Al-Qodir billoh Abulabbos Ahmad ibn Is'hoq** (393 – 422/1003 – 1030) xalifalik taxtiga o'tirdi va Xurosonga Abulhoris nomiga yorliq yubordi. Abu Mansur Abdulloh ibn Muhammad ibn Uzayr Abu Mansur Muhammad ibn al-Husayn ibn Mutga shunday dedi: Modunannahr – [Amu] daryogacha yerlar sipohsolorligi senga topshirilajak. U Ilikdan ham yordam so'radi. Ilik unga yordamga keldi va Samarqand ostonasida qo'ndi. Abu Mansur bir guruh odamlari bilan uning huzuriga bordi. Ilik va otliqlari otlardan tushdilar, uning buyrug'i bilan Abu Mansur ibn Uzayrni bandi qildilar. Foiqni Samarqanddan chaqirib, ilg'or qo'shinni boshqarishga tayinladi va Buxoroga yurishga buyurdi. Amir Abulhoris bu haqda xabar topgach, Omuyaga yo'l oldi. Foiq yetib kelib, Abulhorisni davlatni egasiz qoldirganlikda ayblab koyidi.

Abulhoris Xurosonda sipohsolorlik mansabini Bektuzunga berdi va uni [o'sha tomonga] jo'natdi, o'zi esa Buxoroga qaytdi. Foiq undan bir manzil oldinda borardi, ular Buxoroga yetib keldilar...

Buxoroda Abulmuzaffar Barg'ashiyni vazirlik mansabidan chetlatdilar va biror [munosib] kishi topilgunga qadar Abulqosim al-Abbos ibn Muhammad al-Barmakiyni o'rinbosar qildilar... Vazirlik mansabini Abulfazl Muhammad ibn Ahmad al-Xunomatiyga berdilar. Xunomat – bu Buxoro viloyatidagi qishloq. Vazirlar almashuvi unga kelib yakun topdi.

Amir Mahmud G'aznin (G'azna) ishlaridan bo'shagach, shaylanib Nishopur tomon yuzlandi. Bektuzun u bilan bellasha olmasligiga ko'zi yetgach, Niso va Bovard tomon ketdi. Amir Abulhoris uning ustiga yurdi. Bektuzun va Foiq birlashdilar va uch yuz sakson to'qqizinchi yil safar oyining o'n ikkinchisida chorshanba kuni (999-y., 2-fevral) Saraxsda Abulhorisni taxtdan ag'darib, ko'ziga mil tortib [ko'r qildilar].

Abulfavoris Abdulmalik ibn Nuh (389 – 390/999 – 1000). Shundan so'ng Begtuzun, Foiq va bir guruh a'yonlar maslahat tuzib, Abdulmalik ibn Nuhni taxtga o'tqazdilar va uni qonuniy hukmdor deb tan olganlari evaziga pul talab qilib oldilar. O'sha kezlarda amir Mahmud [G'aznaviy] Marvga yetib keldi va Abulhoris uchun qasos olish maqsadida, urush e'lon qildi. Ikkala tomon bir necha marta elchilar orqali fikr almashib, nihoyat, sulh tuzdilar. Shu asosda Hirot va Balx butun boyliklari bilan Mahmud ixtiyoriga o'tdi...

Abulhasan Ilik ibn Nasr, xonning ukasi, Buxoroga yetib keldi. U o'z ko'nglicha Abdulmalik ibn Nuhga do'st edi, biroq Nuh avlodlari undan hadiksirardilar. Erta tongda uni ko'rgani keldilar. Ularni tutib, bandi qilib O'zgandga jo'natdilar.

@tarixiy_kutubxonasiga

Ilik ularning barcha boyliklarini egalladi [va shu bilan] ularning hukmdorlik davri yakun topdi.

Uch yuz sakson to'qqizinchi yil zulqa'da oyining to'qqizinchisida dushanba kuni (999-y., 23-oktabr) Ilik Buxoroga kirdi va amir qarorgohiga qo'ndi. Abulfavoris Abdulmalik berkindi. Ilik uni qidirib topishni buyurdi. Abdulmalik chodir yopinib oldi; uni shu tarzda topib, Buxorodan olib chiqdilar va Ilik huzuriga olib bordilar. Uni bandi qilib O'zgandga olib ketdilar. U yerda Ilik zindonida u olamdan ko'z yumdi.

ARUZIY SAMARQANDIY VA UNING «CHOR MAQOLA» ASARI

Nizomiy Aruziy XI asrning 90-yillarida Samarqandda tug'ilgan. Keyinroq siyosiy voqealar sababli Samarqanddan ketib, Bomiyondagi g'uriy maliklar huzuriga boradi va ularning xizmatida bo'ladi, Aruziy u yerda o'zining mashhur asari «Majma' un-navodir» («Nodir voqealar to'plami») ni 1156–1157-yillarda yozib tugatadi. Asar to'rt maqola (qism)dan iborat bo'lgani uchun keyinchalik «Chor maqola» («To'rt maqola») nomi bilan mashhur bo'lgan.

«Chor maqola»da davlat arboblariga kerak bo'ladigan to'rt toifa odamlar va to'rtta ilm haqida so'z ketadi. Aruziyning yozishicha, podsho uchun yetuk shoir, mohir tabib, chuqur bilimli dabir va dono munajjim kerak bo'ladi. Aruziy shu sohada nom chiqargan kishilarning hayoti bilan tanishtiradi va shu darajaga yetish uchun nimalar qilish lozimligini ko'rsatib o'tadi.

Asar Markaziy Osiyodagi siyosiy voqealar, madaniyat va ma'rifat tarixini o'rganishda muhim manbadir.

Quyida Aruziy Samarqandiyning «Chor maqola» asaridan lavha berilgan.

M. Hasaniy

ARUZIY SAMARQANDIYNING «CHOR MAQOLA» ASARIDAN LAVHALAR

Fasl

... Podsholikdan ko'ra og'irroq yuk, mamlakatni boshqarishdan ko'ra mushkulroq ish yo'q. Demak, podsho yaqinlari shunday bo'lishi lozimki, olamning og'ir-yengilini, bandalarning tinch va notinchligini o'zlarining maslahatlari, fikr va tadbirlari bilan hal qila olsinlar va ularning har birlari o'z davrlarining eng fozil va eng mukammal kishilari bo'lsin.

@tarixchi_kutubxonasiga

Dabir, shoir, munajjim va tabib podshoning shunday yaqinlari bo'lib, podsho ularsiz biror ishni tugal hal etolmaydi. Yurtning barqarorligi dabir bilan, mangu barhayotligi shoir bilan, ishlarning to'g'ri ketishi munajjim bilan va tansihatlik tabib bilan bo'ladi. Bu to'rt mashaqqatli ish va sharif ilm-falsafa fanining shoxobchalaridan bo'lib, dabirlik va shoirlik mantiq ilmining shoxobchasi, munajjimlik riyoziyot (matematika) ilmining shoxobchasi, tabiblik esa tabiatshunoslik ilmining shoxobchasidir. Shuning uchun ham mazkur kitob to'rt maqola (bob)ga bo'lindi.

Birinchisi – dabirlik ilmining mohiyati va so'z ustasi bo'lgan komil dabirning qanday bo'lishi haqida.

Ikkinchisi – she'r ilmining mohiyati va shoirning salohiyati haqida.

Uchinchisi – yulduz ilmining mohiyati va munajjimning bu ilmdagi donishmandligi haqida.

To'rtinchisi – tabobat ilmining mohiyati, tabiblarning dasturilamali va tabibning qanday bo'lishi haqida.

Har bir maqola avvalida falsafa ilmidan shu kitob uchun munosib bo'lgan fikrlar keltiriladi. Undan keyin esa, dabirlik arzimas ish emasligi, shoirlik quruq bir mashg'ulot emasligi, tabobat zaruriy san'at ekanligi, yulduz ilmi esa kerakli fan ekanligi, aqlli podsho shunday to'rt shaxs: dabir, shoir, munajjim va tabibsiz ish ko'rolmasligi podshoga ma'lum va ravshan bo'lsin uchun, har bir maqolaga mos bo'lgan va shu toifadagi odamlarning boshiga tushgan ajoyib hamda g'aroyib hikoyalardan o'ntadan keltirib o'tildi.

Dabirlikning mohiyati, mohir dabirning sifatlari va shunga taalluqli narsalar haqida

Dabirlik bu – odamlar orasida sodir bo'ladigan suhbat, muhokama va munozaralar vaqtida maqtash yoki yomonlash uchun, aldash yoki yupatish uchun, ig'vo qilish, ishlarini katta yoki kichik qilib ko'rsatish uchun har xil uzr yoki ta'nalarni vaj qilish uchun, dalillarni isbotlash yoki o'tmishni zikr etish uchun hamda turli voqealarga mos bo'lgan so'zlarning tartibi va joylashishini a'lo va avlo darajada ado qilish uchun ishlatiladigan yozma munozara va notiqlik asoslaridan iborat bir san'atdir.

Demak, dabir pokiza, hayoli, zehni o'tkir, fikri chuqur, aqli komil bo'lishi, ilm va uning samarasidan ulkan hissa nasib etgan bo'lishi, mantiqiy dalillardan uzoq va begona bo'lmasligi, zamonasi kishilarining martabasini tanishi, zamondoshlarining taqdiridan xabardor bo'lishi lozim.

U dunyoning arzimas narsalariga va uning o'tkinchi chiroyiga ko'ngil qo'ymasligi, g'araz egalari va g'amza sohiblarining tahsin va tanbehlariga iltifot qilmasligi va faxrlanmasligi kerak. U o'z xatida muayyan zotning

@tarixchi_kutubxonasiga

sharafini nomunosib gap va kamsituvchi so'zlardan asrashi, xat yozish va yuborishda hurmat egalari va shavkat sohiblari bilan tortishmasligi, garchi uning o'sha zot bilan xat yuboriluvchi kishi orasida dushmanlik bo'lsa ham, u o'z qalamiga ehtiyot bo'lishi va uning sharafini malomat qilmasligi kerak. Chunki o'z haddidan oshgan va hurmat oyog'ini obro' doirasidan chiqargan kishi haqida shunday deyiladi: «Gapingga yarasha gap eshitasan, uni boshlagan aybdorroqdir».

Unvonlarda o'rtacha yo'l tutsin, kimgaki yozayotgan bo'lsa, uning asli, nasabi, mulki, viloyati, lashkari va xazinasiga munosib bo'lsin. Ammo kimki bu borada ziqna yoki takabburlik qilsa, o'z molini aql bovar qilmaydigan darajada kamaytirib yoki ko'paytirib ko'rsatsa, bunday paytda dabir qalam tutib, ishga kirishishi va bu yo'lda o'z xohishicha ish tutishi mumkinki, insonlar mukammali va ularning afzali (ya'ni, payg'ambar) shunday buyuradi: «Takabburga qarshi takabburlik qilish Xudo yo'lida sadaqa berish bilan teng». Dabir hech vaqt yozishmalar fazosida maktublar havosidan ma'lum zotning hurmat etagiga g'ubor tegishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Jumla tuzishda shunday yo'l tutsinki, so'zlar ma'noga tobe bo'lsin, gap qisqa bo'lsin. Arab oqillari: «So'zning yaxshisi ozi, ammo sozi», – deganlar. Chunki har vaqt ma'no so'zga tobe bo'lsa, so'z uzayadi va kotibni sergap deb atashadi: «Vaysaqining so'zi puchdir».

Ammo har ilmdan bahra topmagan, har ustoddan biron nuqta yod olmagan, har hakimdan bir hikmat eshitmagan, har adibdan bir san'at o'rganmagan dabirning so'zlari bunday a'lo darajaga yetmaydi. Demak, dabir Rabb ul-izzat (Tangri) kalomini, mustafo (payg'ambar) xabarlarini, sahoba asarlarini, arab maqollarini, fors adabiyotini, o'tmish ajdodlar va ularning shogirdlari qoldirgan kitoblarni mutolaa qilmog'i va munozaralarda qatnashmog'i lozim. Sohib, Sobi, Kobus maktublarini, Humodiy, Imomiy va Qudomat ibn Ja'far ijodini, Badi', Haririy, Homid «Maqomot»larini, Bal'amiy, Ahmad ibn Hasan, Abu Nasr Kunduriy maktublarini, Muhammad ibn Abdah, Abdulhamid va Sayid ur-ruaso xatlarini o'qishni, Muhammad ibn Mansur, Ibn Abbodiy va Ibn un-Nasobat al-Alaviy suhbatlarida bo'lishni, arab shoirlaridan Mutanabbiy, Abivardiy va G'azziy devonlarini, fors she'riyatidan Rudakiy she'rlarini, Firdavsiy masnaviylarini, Unsuriy qasidalarini o'qishni odat qilishi kerak. Men sanab o'tgan shoirlarning har biri o'z san'ati bo'yicha zamonining yagonasi va davrining durdonasi edilar. Har qanday kotib bularning kitobiga ega bo'lsa, ularni mutolaa qilishni tark etmasa, zehnini o'tkirlashtiradi, aqlini charxlaydi, tab'ini ravshan qiladi va so'zga mohir bo'ladi. Dabir shular bilan shuhrat qozonadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Birinchi hikoyat

Iskofiy Somoniylar sulolasining... dabirlaridan biri edi. U dabirlik san'atini puxta egallagan, uning barcha sirlarini o'zlashtirgan edi. U Nuh ibn Mansurning elchilik devonida muharrirlik qilardi. Lekin uning qadrini yaxshi bilishmagani va fazilatini e'zozlashmagani uchun Buxorodan Hirotga Alptegin huzuriga ketib qoldi. Alptegin aqlli va oq-u qoraning farqiga boradigan turk kishi edi, uning izzat-ikromini joyiga qo'ydi, elchilik devonini unga topshirdi va Iskofiyning ishi yurishib ketdi.

Saroyda yangi a'yonlar paydo bo'lib, eskilarini xo'rlay boshlagan edilar. Alptegin esa sabr qilardi. Oxiri yangi a'yonlar jamoati tomonidan uning sha'niga yetgan tahqirlovchi so'z tufayli ish isyonga borib yetdi. Natijada amir Nuh Buxorodan Zobulistonga – Sabukteginga xat yozib, lashkari bilan kelishni, simjuriylar esa Nishopurdan yetib kelishini va Alptegin bilan uchrashib, jang qilishlarini buyurdi. Bu urush mashhur va bu dahshatli voqea ma'lumdir.

Bu lashkarlar Hirotga yetib kelganlaridan keyin, amir Nuh o'z hojibi Ali ibn Muhtoj al-Koshoniyni ob-u otashdek maktub bilan Alptegin huzuriga yubordi. Maktubning mazmuni boshdan oyoq yomon va'dalardan, so'zlari esa to'la tahdiddan iborat bo'lib, sulh uchun hech bir o'rin qoldirilmagan, yarashish uchun hech qanday yo'l yo'q edi. Bunday maktubni shunday bir og'ir voqea va dahshatli bir hodisa yuz berganda qahrga mingan xo'jayingina o'z osiy quliga yozishi mumkin edi. Maktub boshdan oyoq «boraman», «tutaman» va «o'ldiraman» kabi so'zlardan iborat edi.

Hojib Abulhasan ibn Muhtoj al-Koshoniy maktubni arz qilib, hech gapni qoldirmay, barchasini o'qigach, g'amgin yurgan Alptegin yana ham qayg'uga botdi. Jahli chiqib, dedi: «Men uning otasining quliman, mening xojam bu foniy dunyoni tark qilib, boqiy olamga ketayotgan vaqtida meni unga emas, uni menga topshirib ketgan edi. Mundoq qaraganda, men uning otasi farmonini bajarishim kerak edi. Ammo voqeani tahqiq qilib qarasang, natija buning aksidir. Yana men keksalik manzilida bo'lsam, u esa hali yoshlik pog'onasidadir. Uni bu yo'lga boshlaganlar davlatining homiylari emas, balki dushmanlari, xonadonining xodimlari emas, balki yemiruvchilaridir».

So'ng g'azabi qaynab, Iskofiyga dedi: «Xatga javob qilayotganingda tahqirlovchi so'zlarni ayamay, javobini mazkur xatning orqasiga yoz, men shuni istayman!»

Iskofiy o'ylab o'tirmay, darhol javob hozirladi va xatning avvaliga quyidagini yozdi: «Rahmli va mehribon Tangri nomi bilan! Ey Nuh, sen biz bilan tortishding, janjalni haddan oshirding, agar sen rostgo'y kishilardan bo'lsang, o'sha va'da qilgan narsangni olib kel».

@tarixchi_kutubxonasiga

Maktub Xuroson amiri Nuh ibn Mansurga yetib kelgach, u mazkur xatni o'qib, taajjubga tushdi, davlat a'yonlari hayron bo'ldilar, dabirlar esa barmoq tishlab qolishdi.

Alpteginning ishi bir yoqli bo'lgach, Iskofiy yashirindi va to Nuh kishi yuborib, uni chaqirtirib, elchilik devonini topshirmaguncha hayron va parishonlikda yashadi. So'ng uning ishi yana yurishib ketdi. Qalam ahli orasida manzur va mashhur bo'ldi.

Uchinchi maqola

Yulduz ilmi va munajjimning bu fandagi mahorati haqida

Abu Rayhon Beruniy «At-tafhim fi sinoati tanjim» kitobining birinchi bobida yozishicha, kishi to'rt ilmda mahorat hosil qilmaguncha munajjim degan nomga sazovor hisoblanmaydi: birinchi – handasada, ikkinchi – hisobda, uchinchi – hay'atda va to'rtinchi – ahkomda.

Handasa shunday ilmki, u bilan chiziqlar vaziyatining holati, yuzalarning va qattiq jismlarning shakllari, miqdorlar bilan miqdorga ega bo'lganlar orasidagi umumiy munosabatlar, shuningdek, shular bilan holat va shaklga ega bo'lgan jismlar nisbati o'rganiladi. Uning qoidalari Sobit ibn Qurra qayta ishlagan Iqlidus Duradgorning kitobida bayon qilingan.

Hisob shunday ilmki, u har xil sonlarning holatini, xususan, ulardan birining mohiyatini, sonlarning bir-biriga nisbatan munosabatini, bir-biridan tug'ilishini, uning bo'limlari: ikkiga bo'lish, ikkilantirish, ko'paytirish, bo'lish, qo'shish, olish va jabr-u muqobalani o'rgatadi. Uning asoslari «Arismotiqi» kitobida, sohalari esa Abu Mansur Bag'dodiyning «Takmila»si yoki Sajziyning «Sad bob» kitobida bayon qilingan.

Hay'at shunday ilmki, u bilan yuqori va quyi olam jismlarining holati, ularning masofa va miqdorlar, osmon hamda yulduzlarda bo'lgan harakatlarning holati va kuralar bilan unda umumiy harakatlar tugaydigan orbita qismlarining mutanosib kelishligi o'rganiladi. Bu ilm «Majistiy» kitobida bayon qilingan. Uning eng yaxshi tafsiri va eng yaxshi sharhi Nayriziy tafsiri va «Shifo» kitobining «Majistiy» bobidir. Bu ilmning zij va taqvim singari sohalari ham bor.

Ahkom shunday ilmki, u tabiat ilmining bir sohasi bo'lib, taxmin unga xos xususiyatdir. Undan ko'zlanilgan maqsad yulduzlar shaklini bir-biriga qiyoslab, daraja va burjlarini ham solishtirib, ularning harakati bilan dunyoning har xil davrida mamlakatlarda, podsholiklarda, shaharlarda, hayvonot, o'simlik va ma'danlar olamida yuz beradigan hodisalar oqimini oldindan bilish uchun dalil olishdir.

@tarixchi_kutubxonasiga

Sanab o'tgan barcha narsalarimiz Abu Ma'shar Balxiy hamda Abuljalol Sajziy, Abu Rayhon Beruniy va Gushyor Jiliy asarlarida jamlangan.

So'ng esa munajjimning ruhi toza, qalbi pok va o'zi ravshandil bo'lishi lozim. Bir oz darveshlik, devonalik va folchilik ham bu bobning shartlari va bu san'atning lozim narsalaridan sanaladi.

Munajjim hukm chiqarayotgan vaqtda sahmul-g'ayb[1] toleda yoki tolening eng yaxshi joyida turgan bo'lishi yoki sahmul-g'ayb xonasining hukmdori qulay hamda yaxshi mavzedan joy olgan bo'lmog'i kerak. Shundagina aytgan hukmlari haqiqatga yaqin bo'ladi.

Munajjimlikning shartlaridan yana biri shuki, u Gushyorning «Mujmal al-usul»ini yod bilishi, «Qori mehtaron»ni hamisha mutolaa qilishi, «Qonuni Mas'udiy» va «Jomi'i Shohiy»ni tinmay o'qishi lozim. Shunda uning ma'lumoti va tasavvurlari yangilanib turadi.

Birinchi hikoyat

Ya'qub ibn Is'hoq Kindiy yahudiylardan edi. Ammo u o'z zamonining faylasufi va o'z davrining dono hakimi bo'lib, ko'rsatgan xizmatlari uni Ma'munga yaqinlashtirgan edi.

Bir kuni u Ma'munning huzuriga kirib, islom imomlaridan bo'lmish bir imomdan yuqoriga o'tib o'tirdi. Shunda imom: «Sen yahudiysan, nega islom imomidan yuqoriga o'tirasan?!» – deb qoldi. Ya'qub unga: «Shuning uchunki, sen nima bilsang, men ham uni bilaman, ammo men bilgan narsalarni sen bilmaysan!» – deb javob berdi.

Imom uni munajjim sifatida tanir va boshqa ilmlaridan bexabar edi. Shunda u: «Qog'ozchaga bir narsa yozaman, agar uni topolsang, senga tan beraman», – dedi. So'ng garov bog'ladilar: imom choponini, Ya'qub ibn Is'hoq esa saroy oldida turgan va butun jihozi bilan ming dinorga arziydigan xachirini beradigan bo'ldi.

So'ngra imom siyohdon bilan qalam keltirishlarini buyurdi, qog'ozga nimanidir yozdi va uni buklab, xalifaning gilami ostiga tiqdi-da: «Top», – dedi.

Ya'qub ibn Is'hoq yer taxtasi keltirishlarini so'radi, so'ng o'rnidan turib, balandlikni aniqladi, yer taxta ustiga yulduzlar holatini bildiruvchi tole jadvalini chizdi. Yulduzlarning yillik joylashishini ham aniqladi, ularni burjlar bo'yicha joylashtirdi va yashirin sirni topib dedi: «Ey amir al-mo'minin, u qog'ozga avval o'simlik bo'lib, keyin hayvonotga aylangan bir narsani yozipti!»

[1] *Sahmul-g'ayb* – yulduz ilmida odam tug'ilayotganda quyosh va oyning osmon burjida joylashuviga qarab biror kishi bashoratini aniqlash.

@tarixchi_kitobxonasiga

Ma'mun qo'lini gilam tagiga tiqib, qog'ozni oldi. Imom qog'ozga «Muso hassasi» deb yozgan edi. Ma'mun qattiq taajjublandi, imomning o'zi ham hayron qoldi. So'ng Ya'qub ibn Is'hoq imomning choponini oldi-da, Ma'munning oldida ikkiga bo'lib: «Men uni paytava qilaman!» – dedi.

Bu gap butun Bag'dodga tarqaldi, undan o'tib, Iroq va Xurosonga ham yetib bordi va el orasiga yoyildi.

Balx faqihlaridan biri faylasuflarni hech ko'rolmas edi. U Bag'dodga borib, Ya'qub ibn Is'hoq Kindiy qo'lida dars olish, munajjimlikni o'rganish, so'ng fursat topib, nogoh uni o'ldirishni mo'ljallab qo'ydi. Shu maqsadda qo'liga pichoq olib, uni munajjimlikka oid kitob ichiga yashirdi va manzil-ma-manzil yo'l bosib, oxiri Bag'dodga yetib keldi. Avval u hammomga kirdi. Hammomdan chiqib, toza liboslar kiydi. Keyin kitobni qo'yniga solib, Ya'qub ibn Is'hoq uyi tomon jo'nadi.

U Ya'qubning uyi oldiga kelganda, Hoshimiylar va Bag'dodning ma'lum va mashhur kishilariga oid oltin egar-jabduqli otlar turganini ko'rdi. U ijozat so'ramasdan ichkariga kirdi. Salom berib, davradan o'rin oldi-da, so'ng dedi: «Mavlono oldida yulduz ilmidan biror narsa o'qish niyatidaman!» Ya'qub unga: «Sen Mashriq tarafdan yulduz ilmini o'qish uchun emas, meni o'ldirish uchun kelgansan! Lekin sen bu fikringdan qaytasan, yulduz ilmini o'rganasan, bu ilmda to'liq mahorat hosil qilib, Muhammad ummatlari, – unga Xudoning lutfi va salomi bo'lsin, – ichida eng ulug' munajjimlardan biriga aylanasan!» – dedi.

Majlisda hozir bo'lgan kazo-kazolar uning bu gapidan hayratga tushdilar. Abu Ma'shar esa bu so'zlarga iqror bo'ldi va kitobi orasidan pichoqni chiqarib, sindirdi-da, otib yubordi va uning oldida tiz cho'kdi.

U o'n besh yil ta'lim oldi va bu ilmda a'lo darajaga erishdi.

To'rtinchi maqola
Tabobat ilmi va tabiblarga qo'llanma haqida

Tabobat shunday san'atki, u bilan inson salomatligi saqlab turiladi, agar u yo'qolsa, qaytadan tiklanadi, uzun soch, tiniq yuz, shirin hid, yaxshi kayfiyat bilan insonga oro beriladi.

Tabib muloyim xulqli, teran qalbli, chuqur farosatli bo'lishi kerak. Farosat bu jonning belgilar bo'yicha aniqlash tomon harakati, ya'ni ma'lumdan majhul sari ko'chib o'tish sur'atidir.

Agar har bir tabib inson jonining qadr-u qiymatini bilmasa, xulqi muloyim bo'lmaydi, mantiq ilmini bilmasa, qalbi teran bo'lmaydi, ilohiy ko'makdan madad topmagan bo'lsa, qalbi teran bo'lmaydi. Chuqur idrokka ega bo'lmagan har kimsa illatning asl mohiyatini bilolmaydi. Zero, illat dalillari tomir urishidan bilib olinadi. Tomir urishi esa qisqarib

@tarixchi_kutubxonasiga

va kengayib turuvchi harakatdan va ular o'rtasidagi qisqa tanaffusdan iboratdir.

Tabiblar orasida ixtiloflar mavjud bo'lib, ba'zilarining aytishicha, qisqarish harakatini his bilan sezib bo'lmaydi. Ammo zamondoshlarning eng afzali, hujjat ul-haq al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino «Qonun» kitobida: «Qisqarish harakatini ozg'in kishilarning badanida qiyinlik bilan sezib olish mumkin», – deb yozadi.

Endi eshit, tomir o'n jinsga ega. Ularning har biri esa uch navga bo'linadi, ya'ni uning ikki tomoni va o'rtasi.

Siydikning ranglari va cho'kmasidan, har bir rangining biror holat uchun belgi ekanligidan dalil olish ham oson ish emas. Bu hamma dalillar Tangri ko'magiga va ilohiy hidoyatga muhtoj ishlardir. Biz hadis nomi bilan ataganimiz xuddi shu ma'no!

Tabib to mantiqni bilmaguncha, jins va navni bilmaydi, ko'zga tashlanuvchi belgilar hamda fasl (substansiya) va xossa (aksidensiya) orasidagi farqlarni topolmaydi va illat sababini aniqlayolmagach, unga to'g'ri davo qilolmaydi. Biz bu yerda bir misol keltiramiz, toki aytganlarimiz to'g'ri ekani ravshan bo'lsin.

Kasallik bu jins, isitma, bosh og'rig'i, tumov, sarsom, qizamiq va sariq kasali uning turlaridir. Bularning barchasi o'z belgilari bilan bir-biridan farq qiladi va har biri, o'z navbatida, jinsga aylanadi. Masalan, isitma jinsga aylanib, bir kunlik isitma, uch kunlik isitma, uch kunda bir tutuvchi isitma, to'rt kunlik isitma esa uning turlaridir. Bularning har biri bir-biridan tashqi belgilari bilan farq qiladi. Masalan, bir kunlik isitma boshqa isitmalardan davomining uzoqligi, bir kecha-kunduz bo'lishi bilan farq qiladi va unda charchash, horg'inlik, ezilish va og'riq bo'lmaydi. Shamollash isitmasi esa boshqa isitmalardan bir tutishi va bir necha kun qo'yib yubormasligi bilan farq qiladi. Uch kunlik isitma esa boshqa isitmalardan bir kun kelishi va boshqa kuni qaytarilmasligi bilan farqlanadi. Uch kunda bir tutuvchi isitma esa boshqa isitmalardan bir kun qattiq tutishi, ammo ozroq davom etishi, boshqa kuni sekin tutishi, ammo davomi uzoq bo'lishi bilan farq qiladi. To'rt kunlik isitma esa boshqa isitmalardan bir kun kelishi va ertasi kuni kelmasligi, yana uchinchi kun qaytarilmay, to'rtinchi kuni yana xuruj qilishi bilan farqlanadi. Bularning har biri ham, o'z navbatida, jinsga aylanadi va ularda ham turlar paydo bo'ladi.

Tabib mantiqni bilsa va hoziq bo'lsa, qanday isitmaligini, moddasi nimaligini, sodda yoki murakkabligini bilib oladi va tezda davolashga kirishadi. Bordi-yu, illatning sababini bilishga ojiz bo'lsa, aziz va shavkatli Tangriga murojaat qiladi, undan ko'mak so'raydi. Sababini bilib, davolashga ojizlik qilganda ham Tangriga iltijo qiladi, undan ko'mak so'raydi, chunki barchaning madadkori Tangridir.

@tarixchi_kutubxonasiga

MUHAMMAD IBN NAJIB BAKRON VA UNING «JAHONNOMA» ASARI HAQIDA

Najib Bakron Anushtagin – Xorazmshohlar davrida Xurosonda, aniqrog'i, Tus shahrida yashab ijod etgan olim. Uning ijod yillarining bir qismi Nishopurda va Xorazmshohlar davlatining poytaxti Gurganjda o'tgan.

Najib Bakron bitta dunyo kartasi tuzib, uni Alouddin Muhammad Xorazmshohga (1200–1220) tortiq qilgani ma'lum. Afsuski, bu karta bizgacha yetib kelmagan, faqat unga yozilgan «Jahonnoma» nomi bilan mashhur izohnoma saqlangan, xolos.

«Jahonnoma» – geografiyaga oid qimmatli yodgorlik. Unda qayd etilishicha, Najib Bakron o'z davrining ushbu sohadagi yetuk olimlaridan bo'lgan. Muallif o'z asarini yozishda shaxsiy mushohadasi va boshqalardan so'rab bilganlaridan tashqari, ko'proq yozma manbalardan foydalangan. Ayrim manbalarning nomlari qayd etilgan: Ibn Xurdodbeh «Kitob al-masolik al-mamolik», al-Istaxriy «Kitob al-masolik al-mamolik», Nosir Xisrav «Safarnoma», Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» («Osor al-boqiya») va «Kitob at-tafhim» va h.k.

Najib Bakron «Jahonnoma»da yozgan tafsilotlardan u chizgan karta haqida umumiy tasavvur olsa bo'ladi. Mazkur karta matoga yarim sharlar kartasiga o'xshatib doira shaklida chizilgan bo'lgan.

Kartaning muhim tomonlaridan biri, unda gradus to'ri (parallel va meridian chiziqlari) hamda mamlakatlar chegaralari o'tkazilganidir. Boshlang'ich meridian Xolidot orollaridan o'tgan. Kartada ifodalangan joy nomlarining bir qismiga, aniqrog'i, olti yuztasiga «Jahonnoma»da izohlar yozilgan.

Umuman olganda, «Jahonnoma» kirish so'zi va lo'nda yozilgan yigirma fasldan tashkil topgan.

Unda geografik uzunlik va kengliklar, Yerning obod choragi (rub'i maskun), dengizlar, ko'llar, orollar, daryolar, tog'lar, cho'llar, shaharlar, qabilalar, yer yuzidagi ajoyib va g'aroyib joylar, ma'danlar, xalqaro savdo mollarining ba'zi turlari kabi ma'lumotlar o'rin olgan.

Keyingi asrlarda yashab ijod etgan ba'zi mualliflar o'z asarlarida Najib Bakronning «Jahonnoma»sidan foydalanganlar (Hamdalloh Mustavfiy Qazviniy, Hofizi Abru, Sulton Muhammad Balxiy va b.).

«Jahonnoma»ning ikkita qo'lyozma nusxasi bizgacha yetib kelgan: biri – Parijda, ikkinchisi – Sankt-Peterburgda. Hozirgi zamon ilmiy tadqiqotlarida «Jahonnoma» XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilga olingan. Dastlab Parijdagi, so'ngra Sankt-Peterburg qo'lyozmasi asosida tadqiqotlar, tarjima-lavhalar chop etildi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Muhammad ibn Najib Bakronning «Jahonnoma» asari matnining foto-faksimile 1960-yili Moskvada rus sharqshunosi Yu.Ye. Borshevskiy tomonidan so'zboshi va ko'rsatkichlar ilova qilingan hamda mavjud ikkala qo'lyozma nusxani qiyoslagan holda nashr etildi[1]. Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasiga oid tarjima-lavhalar mazkur nashr asosida bajarildi.

O. Bo'riyev

MUHAMMAD IBN NAJIB BAKRONNING «JAHONNOMA» ASARIDAN LAVHALAR

(3 *b*) Ba'zi [joylar oralig'idagi] masofalarni aniqlash xususida

Yaman San'osidan to Samarqand shahrigacha [masofa] ming farsang erur... Bag'doddan Marvgacha uch yuz yetmish besh farsangdir. Marvdan Balxgacha bir yuz yigirma olti farsangdir. Nisoburdan Hirotgacha sakson farsang... (4 *a*). Samarqanddan Farg'onagacha ellik uch farsang. Buxorodan Balxgacha o'n uch manzil; Buxorodan Xorazmning qadimgi qasabasi (poytaxti) – Kotgacha, cho'l yo'li bilan to'qqiz manzil erur; agar Omu yo'li bilan borsang, [u holda] o'n ikki manzil bo'ladi.

(5 *b*) Yettinchi fasl. Ko'llar haqida so'z

Abiskun ko'li. Mazkur ko'l, Xazar dengizi, Gurgon dengizi hammasi bitta va shu ko'lning nomidir; uni ushbu nomlar bilan ataydilar, sababi, bu joylar uning atrofi bo'ylab joylashgan. Abiskun uning sohilida Gurgon hududidagi bir qishloqdir. Mozandaron va uning atroflari quyidagi joylardan iborat. Abiskundan o'ng qo'l tomonga Dehiston keladi, so'ng Siyohko'h, Balxon hududi, so'ngra Manqishlog', so'ng Xazar, Bob ul-Abvob ataydilar; so'ng Shirvon, so'ng Mo'qon, Arron hududidan, so'ng Giyl (Giylon) va Daylam, so'ng Tabariston, so'ng Gurgon va uning hududi, so'ng Abiskun, ya'ni [sanoqni] shu yerdan boshlagan edik. Bular barchasi ushbu ko'l atrofidagi joylardir.

Bu ko'lning uzunligi Abiskundan Xazargacha shimol [yo'nalishida] ikki yuz oltmish farsang, eni esa – ikki yuz farsang. Agar shamol yo'nalishi to'g'ri kelsa, kimdir uni o'n kunda yoki bir haftada [kemada suzib] o'tishi mumkin. O'n yetti yoki o'n sakkizta katta daryo unga quyiladi, aksariyati Mozandaron, Daylam va Giylon hududlaridan.

Mazkur ko'lning suvi sho'r va taxirdir, ichib bo'lmaydi, faqat daryo quyilgan joyda [ichishga yaroqli]. Itil daryosi ham shu ko'lga quyiladi. Ko'l suvining rangi qoramtir va qorong'i [simon]. Unda suv qalqishi va qaytishi kuzatiladi. Yana to'lqin ham bo'ladi va bu haqda keyinroq eslatajakmiz. Bu ko'lning tagi tosh emas, balki loy-balchiqdir. Unda o'zlashtirilmagan va

[1] *Наджиб Бакран. Джахан-наме.*

@tarixiy_kutubxonasiga

odam yashamaydigan beshta orol bor. Bu ko'lda katta-katta baliqlar bor va ularni ovlab, shaharlarga eltadilar.

Unda bir hayvon borkim, malloh (dengizchi)lar uni suv iti deyishadi, rangi qoramtir, ikkita qo'li kalta va ikkita oyog'i uzun, bir yarim gaz (taxm. 90–100 sm) uzunligida; u katta quruqlikda ojizdir va hamma hayvonlar unga hujum qiladi. U suvga ... qilmaydi va shu sababdan quruqlikka chiqadi. Qarg'a unga juda o'ch bo'ladi va uni topgan zahoti ko'zini o'yib halok qiladi va yeydi.

Bu ko'lda bir favvora bor va undan katta kuch bilan suv qaynab chiqadi. Mallohlar ul joyni biladilar va uni chetlab o'tadilar, boshqalarni undan ehtiyot bo'lishga undaydilar, o'sha yaqin-atrofdan o'tmaydilar. Tunda ularni g'aflat bosib kema ul joy yaqiniga borib qolsa, kemani ag'darib yuborishi va g'arq qilishi mumkin; agar ul joyning o'ziga borib qolsa, so'zsiz kemani to'nkarib tashlaydi va u g'arq bo'ladi. Ba'zi mallohlar u ikkita favvora deyishadi va ikkala joyda ham bir xil.

(6 *a*) **Jand va Xorazm ko'li**. Jand hududida bir ko'l bor, uni Xorazmga ham tegishli deb biladilar. Uning aylanasi yuz farsang, diametri – o'ttiz ikki farsang. Suvi sho'r. Xorazm daryosi (Amudaryo), shuningdek, Choch, Farg'ona va boshqa o'sha tomondagi suvlar (Sirdaryo) ham ushbu ko'lga quyiladi. Xorazm daryosi bilan Choch daryosining mazkur [ko'lga] quyilish joyining orasi yigirma farsangdir. Demak, qayd etilganidek, bu ko'lga ikkita katta daryo quyiladi.

Jand va Xorazm ko'li (Orol dengizi)dan bu ko'lga yo'l bor va suv u ko'ldan bu ko'lga o'tib turadi. Ikkala ko'l orasi yigirma manzil [masofani tashkil qiladi], oltmish farsang keladi, deyishadi. Bu ko'lda kuchli to'lqinlar bo'ladi. Ishonchli bir kishidan shunday eshitdimki: «Biz uning sohili bo'ylab ot choptirib borardik. Nogoh [dengiz] to'lqinlanib hayqira boshladi. Bunday qarasak, ko'lning suvi otning ko'kragigacha ko'tarilgan edi, so'ng yana ozaydi. Mallohlardan eshitdim, ularning aytishlaricha, qattiq dovul turganda, birin-ketin yettita to'lqin [bostirib] keladi va shundan keyingina tinchiydi».

(8 *b*) **Isiko'l ko'li** (Issiqko'l). Barsxon yaqinida Turkiston hududida bitta ko'l bor, uni Isko'l deydilar. Hozir ham uning suvi iliq va uning to'g'risida boshqa hech narsa eshitmaganmiz. Alloh eng bilguvchidir.

(10 *b*) Daryolar haqida so'z

Daryolar haqida so'z borganda, katta [oqar] suvni «rud» deydilar; ammo oddiy xalq katta daryoni «Jayhun» deyishadi; Aslida Jayhun – bu arab tilida Termiz [shahri] yonidan o'tadigan daryoning nomidir. [Bu daryo] so'ngra Xorazmga oqib keladi va u yerdan o'tib, Jand ko'li [Orol dengizi]ga boradi.

@tarixni_kitobxonasiga

(11 *b*) **Xorazm daryosi.** Ilgari aytib o'tilganidek, arab tilida «Jayhun» deganda, ushbu daryoni nazarda tutadilar. Ammo oddiy xalq katta suvlarni ham «jayhun» deyishadi. Bu daryo Vahon viloyatidan boshlanadi. Tibat tog'larida; Badaxshon hududidan o'tadi. Xatlon va Vaxsh hududida unga yana beshta katta daryo qo'shiladi va bu joyni Panjob deydilar. Qubodiyon tomonidan ham unga daryolar kelib qo'shiladi, so'ngra [daryo] Balx hududiga o'tadi, Termizga yetib keladi. Undan so'ng Kolifga, keyin Zamga, undan so'ng Omuga yetadi, to Xorazmgacha oqib boradi, [u yerda] Jand va Xorazm ko'liga quyiladi. Bu daryo bo'ylab: Badaxshondan to Termizgacha [oraliq] o'n uch manzil, Termizdan to Zamgacha besh manzil, Zamdan to Omugacha to'rt manzil; Omudan to Xorazmgacha o'n ikki manzil; Xorazm (Gurganj)dan to Jand ko'ligacha olti manzil.

[Bu] daryodan katta bir ariq (jo'y) Kot shahri tomon boradi, ul ariqni Govxora deb ataydilar. Bu daryo toshishidan oldin bir manzil [masofa] kema uchun xatarlidir. Sababi, daryo ikkita tog' oralig'idan o'tadi, ul joy tor erur, suv tez oqadi, [go'yoki] yuqoridan pastga oqadi. Kema u yerga yetganda, agar ehtiyot qilinmasa, g'arq bo'lishi mumkin. Daryoning ustki qismi [qish faslida] muzlaydi va muz bilan qoplanish Jand tomondan boshlanadi va yuqoriga qarab davom etadi.

(12 *a*) **Otil** (Itil daryosi) Xorazm daryosidan kattaroq erur.

(4 *a*) **Kot** Xorazmning qadimgi qasabasi (markazi) erur; Buxorodan cho'l yo'li orqali bu yergacha to'qqiz manzil. Agar Omu yo'li bilan borsang, o'n ikki manzil bo'ladi.

(11 *b*) **Choch daryosi.** Kitoblarda bu daryoni Shosh daryosi (Nahri Shosh) yozadilar, ya'ni Choch daryosi (Jo'yi Choch). Uning boshlanishi Turkiston tomondan, chigil[lar yashaydigan joyga] yaqin. O'zgand hududiga yetadi va unga Iyloq daryosi qo'shiladi; [undan] Axsikat hududiga keladi, so'ngra Xo'jandga, so'ngra Borob (Porob; Forob) hududiga, so'ngra turk va turkmon qabilalari [yerlaridan] o'tib, Jand ko'liga quyiladi.

(12 *b*) O'ninchi fasl. Tog'lar haqida so'z

(14 *a*) Katta bir tog' [Xuroson] G'archiston va G'o'r hududidan boshlanib, Bomiyon va Panjhirdan o'tadi va Vahon viloyati (bilod)ga yetadi; [davomi] unchalik aniq emas, ehtimol Tibatning boshlanishidir. O'sha yerda [bu tizma] turli tomonga tarmoqlanadi. Undan bir katta shox Turkiston (yerlari) ichkarisiga kiradi, Xirxiz hududigacha boradi, [undan] Chin hududigacha o'tadi. Boshqa bir [shoxi] Xatlon tomonlarga va Farg'ona hududiga o'tadi, undan so'ng Usrushona shahri yaqinidagi Buttam tog'laridir; o'sha yo'nalishda to Buxoro hududigacha keladi. Bu tog'ning maxsus nomini eshitmaganmiz, u qaysi joyga yetib borsa, uni o'sha viloyat nomi bilan atay-

@tarixchi_kutubxonasiga

dilar. Usrushonadan boshlanib, Farg'ona hududiga o'tib to Xirxiz yaqinigacha [yetib boradigan] cho'l ham ushbu tog' tizmasi yoni [bo'ylab yastangan]. Bu tog'da ko'plab konlar bor, xususan, Usrushona hududida, u tog'larni ham Buttam ataydilar; oltin, kumush, ohar, mis, qo'rg'oshin, simob, neft, smola va shunga o'xshash [modda]lar, feruza ham (Xurosonda uni Xo'jandiy deyishadi) ushbu tog'dan keltiriladi... (14 *b*) Bu tog'da O'zgand shahri yaqinida navshodir (nishatir) ham bor.

(14 *b*) Cho'llar haqida so'z

(15 *b*) **Xorazm cho'li.** Xorazm bilan Xuroson o'rtasida joylashgan mashhur va holati ham juda yaxshi ayon ma'lum cho'l (Qoraqum cho'li) erur. Ul cho'lning eni taxminan yuz farsang keladi... [Yana bir] cho'l bor, u Balx hududidan boshlanadi va to Xorazm hududigacha davom etadi. Yer yuzasi hammasi qum; Buxoro hududidan to Xorazm hududigacha [oraliq] ham cho'ldan iborat bo'lib, yer yuzasi qumlik; Omu va Zam ana shu cho'lda joylashgan. Naxshob bilan Xorazm daryosi (Amudaryo) oralig'i ham cho'ldir.

Amu va Zam cho'l (Qoraqum cho'li) o'rtasida, bu cho'l Balx hududidan boshlanadi va Xorazm hududigacha davom etadi. Uning yeri (yuzasi) yoppasiga qum. Buxoro hududidan to Xorazm hududigacha cho'ldir, yer yuzasi qum. Naxshob va Xorazm Jayhuni oralig'i cho'l. Xatlonda [ham] cho'l bor. Usrushonadan to Farg'onaga va Xorazmgacha cho'ldir, tog' yonida va bu haqda tog'lar bobida aytildi.

(15 *b*) O'n ikkinchi fasl. Ba'zi shaharlarning nomi xususida

Ba'zi shaharlarni kitoblarda bir nom bilan yozadilar, talaffuzda boshqa bir xil bilan ataydilar. Ushbu alohida bir bobda shu haqda so'zlamoqchiman, toki o'quvchiga ma'lum bo'lsin va uning uchun mavhum (16 *a*) qolmasin...

«Iroq» deb Kufa bilan Basrani aytar ekanlar va bu ikki shaharni Iroqayn ham deyishgan...

(16 *b*) «Qubbat ul-islom» deb Balx shahrini ataydilar; qadimda Balxning nomi Bomiyn ekan, [shu sababdan] ba'zilar Balxi Bomiyn deyishadi. «Nasaf» deb Naxshobni aytadilar. «Ash-Shosh» deb Chochning shahri (markazi)ni ataydilar, kitoblarda ash-Shosh yozadilar.

Ko'rkamlikda tanilgan ba'zi joylar haqida so'z

Samarqand Sug'di, ba'zilar Sug'd, ya'ni «sin» [harfi] bilan yozadilar va Samarqand navohiysining Xuroson tomondagi qismini shunday ataydilar.

(16 *b*) Ma'lum bir joyda yashovchi urug'-qabilalar xususida

(17 *a*) **G'uz.** G'uzlarning maskani, aslida, Tarob va Jand ko'li [atroflari] ekan, Choch Jayhunining ikkala tomonida. So'ngra, ulardan bir qavm,

@tarixchi_kutubxonasiga

noma'lum sababga ko'ra Xatlon hududiga tushib qolganlar, Balx hududida, o'sha yerda yashab qolganlar; to shahid Sulton Sanjar ibn Maliksheh zamonigacha. Besh yuz qirq yettinchi (1152 – 1153) yili qo'zg'alib, Xuroson tomon yo'l oldilar; undan so'ng Kirmon hududiga o'tdilar.

Manqishlog'. Turklarning bir qavmi, ular bilan g'uzlar o'rtasida yuzaga kelgan dushmanlik tufayli, o'z joylaridan ketdilar va ... hududiga o'rnashdilar. U yerda buloqlar va yaylovlar topgach, yashab qoldilar. Ularni Manqishlog' aholisi deyishadi...

(25 *a*) Turli [mavzudagi] hikoya

(26 *b*) Farg'ona Movarounnahr hududidagi viloyat va uning qasabasini Axsikat deydilar. Juda ko'rkam joy. Samarqanddan Farg'onagacha [masofa] ellik uch farsang. Farg'onaga (27 *a*) No'shirvon asos solgan. Bu yerda muqim yashash uchun aholi [kelishi]ga ehtiyoj tug'ilgach, har joydan bittadan qabilani u yerga olib keldi va ular yashab qoldilar, uy-joy hamda ziroat qildilar va [ul yerlar] obod bo'ldi. Uning aholisi har yerdan bo'lganligi sababli, unga «az har xona» degan nom qo'ydi.

So'ngra iste'molda «az»ni tushirib qoldirib, «Harxona» deya boshladilar. Ko'p yillar o'tishi bilan iste'molda «Farg'ona» deydigan bo'ldilar. Farg'ona – Movarounnahr chegarasidagi shahar. Choch ham Movarounnahrdagi shahar, Usrushona hududida.

ALOUDDIN JUVAYNIY VA UNING «TARIXI JAHONGUSHOY» ASARI HAQIDA

Alouddin Atomalik ibn Bahouddin Muhammad Juvayniy 1226-yilda Xurosonning Juvayn viloyatida amaldor oilasida tavallud topdi. 1232-yili mo'g'ullar xizmatiga kirgan Bahouddin Muhammad hali 20 yoshga to'lmagan o'g'li Alouddinni ham o'z yoniga oladi va u mo'g'ul qoonining Xuroson va g'arbiy viloyatlardagi noiblari qo'l ostida shaxsiy kotib vazifasida ish boshlaydi. Shu davrda u xizmat yuzasidan Mo'g'uliston va Xitoy taraflarga borib, bo'lajak asari uchun ma'lumot to'play boshladi.

1256-yili Chingizxonning nabirasi Huloguxon (1256 – 1265) Eronga kelgach, Alouddin uning yaqin mulozimlaridan biriga aylandi, Hulogu-ning Ismoiliylar davlati va Bag'dod xalifaligiga qarshi yurishlarida ishtirok etdi. G'arbiy viloyatlar va yangi bosib olingan mamlakatlar (Xuroson, Eron, Ozarbayjon, Iroq va Afg'oniston, Kichik Osiyo, Kavkazortining katta qismi) hududida ulkan Elxonlar davlati tashkil topgandan so'ng, 1262-yili Alouddin Juvayniy Bag'dod hokimi etib tayinlandi, uning akasi Shamsiddin

@tarixchi_kutubxonasiga

esa Bosh vazir darajasiga ko'tarildi. Alouddin Huloguning o'g'li Aboqaxon (1265–1282) davrida ham shu mansabda faoliyat ko'rsatdi, ammo ikki marta moliyaviy ishlari taftish etilib, 1281-yili hibsga olindi. Aboqaning ukasi Ahmad Takudor (1282–1284) tomonidan ozod etilgan Juvayniy oradan ko'p o'tmay yana taftish va turli zarbalarga duchor bo'la boshladi, oxir-oqibat og'ir dardga chalinib, 1283-yili Ozarbayjonda olamdan o'tdi.

Juvayniy o'z asarini ta'lif etishga 1252-yili Mo'g'ulistonda kirishib, 1260-yilda uni nihoyasiga yetkazgan. «Tarixi jahongushoy» («Jahon fotihi tarixi») uch jilddan iborat. Birinchi jildda mo'g'ullar tarixi, ularning yurishlari va undan keyingi hukmronliklari tarixi, ikkinchi jildda Xorazmshohlar Anushteginiylar tarixi hamda G'arbiy viloyatlardagi mo'g'ul noiblari faoliyati, uchinchi jildda esa Ismoiliylar firqasi va ular tashkil etgan davlat (1090–1257) tarixi bayon etiladi. Asar fors tilida bo'lib, saj uslubida, turli badiiy vositalardan keng istifoda etilgan holda yozilgan.

«Tarixi jahongushoy»ning ilmiy-tanqidiy matni eronlik olim Mirza Muhammad Qazviniy tomonidan nashr etilib[1], shu nashr asosida ingliz, turk, italyan tillariga to'la va boshqa g'arb tillariga qisman tarjima qilingan. Quyidagi Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi va kengayishi, Sulton Alouddin Muhammad tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi, Temur Malikning mo'g'ullarga qarshi kurashi haqidagi boblarning tarjimasi Qazviniy nashri asosida amalga oshirildi.

N. Toshev

ALOUDDIN JUVAYNIYNING «TARIXI JAHONGUSHOY» ASARIDAN LAVHALAR

(1) Xorazm sultonlari, – Alloh ularning isbotlarini ravshan qilsin, – davlatining kelib chiqishi zikri

«Tajorib al-umam»[2] asarining zayli bo'lmish va Ibn Funduq Bayhaqiy[3] qalamiga mansub «Mashorib at-tajorib» kitobida hamda Roziyning[4] Sulton Takishga atab bitgan «Javomi al-ulum» asarining tarix bo'limida yozilishicha, xuddi Alptegin[5] Somoniylar davlatida Xuroson qo'shinining boshlig'i bo'lgani kabi, Bilgategin Saljuqiylar saltanatining arkonlari-

[1] The tarikh-i-jahangusha.

[2] *Tajorib al-umam* – Abu Ali Miskavayh (vaf. 1030) qalamiga mansub asar.

[3] *Abulhasan Ali ibn Zayd (Ibn Funduq) Bayhaqiy* (vaf. 1169) – «Tarixi Bayhaq» asarining ham muallifi. Uning «Mashorib at-tajorib» asari bizgacha yetib kelmagan.

[4] *Roziy* – taniqli mutakallim Faxriddin Roziy (vaf. 1210); uning «Javomi al-ulum»i qomusiy asardir.

[5] *Alptegin* – G'aznaviylar davlatining tashkil topishiga sababchi bo'lgan kishi.

@tarixchi_kutubxonasiga

dan biri edi. [Bilgategin] G'archistondan[1] bir turk g'ulomini (2) sotib oldi; uning ismi Nushtegin G'archa edi. Oqilligi va ziyrakligi tufayli u asta-sekin yuqori martabaga erisha borib, oxir-oqibat Somoniylar hukmronligining oxirlaridagi Sabuktegin misoli, Saljuqiylar davlatida katta ustunga aylandi va tashtdor[2] darajasiga yetishdi. U paytda tashtxona Xorazm qaramog'ida edi, chunonchi jomexona[3] Xuziston qaramog'ida bo'lganidek, uni Xorazm shihnaligiga tayin etishdi. Uning bir necha o'g'illari bor edi. To'ng'ich o'g'li Qutbiddin Muhammadni u odob, boshqaruv ham hokimlik rasm-rusumlarini o'rgansin uchun Marvda[4] maktabga berdi.

O'sha paytda Berkiyoruq[5] ibn Malikshoh o'z mamlakatida Xuroson amiri Dodbek Habashiy ibn Oltuntoshni mutlaq noib etib tayinlagan edi. O'sha davr shoirlarining uning madhiga bag'ishlangan she'rlari ko'p; Abulmaoniy Nahhos Roziy uning xos maddohi edi. Shu (3) vaqtda [Dodbek Habashiy] xorazmshoh mansabini Sulton Sanjarning[6] g'ulomi Ekinchi ibn Qo'chqor xorazmshohdan Qutbiddin Muhammadga olib berdi va 491 (1097–1098)- yilda unga xorazmshoh unvonini ato etdi. Uning Saljuqiy sultonlar rizoligi bilan amalga oshirgan maqtovli ishlari ko'p va ular tarixiy kitoblarda qayd etilgan. U o'ttiz yil davomida huzur-halovat va osoyishtalikda xorazmshohlik qildi. Bir yil Sanjar saroyiga o'zi xizmatga kelar, keyingi yili o'g'li Otsizni yuborardi. To vafotiga qadar shunday davom etdi.

522 (1128)-yili uning o'rnini o'g'li Otsiz egalladi. Otsiz o'zining fazilatlari ham bilimlari bilan nom-u dong taratdi. Uning forscha ash'or-u ruboiylari ko'pdir. Dovyuraklik va jasurlikda (4) o'z tengdosh va zamondoshlari orasida benazir va yakto edi. U Sulton Sanjar xizmatida ko'p zafarlar quchdi va [Sulton Sanjarga] xizmat burchini bajarishda sobit qoldi. Tubandagi voqea bunga misoldir. 524 (1129–1130)-yilda Sulton Sanjar Tamg'ochxon[7] isyoni sababli Movarounnahrga yo'l oldi. Buxoroga yetgach, bir kuni Sulton shikorgohga chiqdi. Yaqinda xizmatga kirgan bir guruh g'ulomlar va xizmatkorlar Sultonni o'ldirish haqida til biriktirgan edilar. Otsiz xorazmshoh o'sha kuni ovga chiqmagan edi. Kunning o'rtasida uyqudan uyg'onib ketib, ot talab qildi va shoshilinch ravishda Sulton tomon yuz tutdi. U yetib kelganda, mazkur to'da qurshovidagi Sulton tang ahvolda qolgan va halokat

[1] *G'archiston* – Murg'ob daryosining yuqori oqimi, hozirgi Afg'oniston hududidagi tog'li nohiya.

[2] *Tashtdor* – saroydagi yuvinish xonasi – tashtxonaning boshlig'i. Tashtxona chiqimlari Xorazmdan tushgan daromad hisobidan qoplangan.

[3] *Jomexona* – saroydagi kiyim-kechaklar saqlanuvchi joy.

[4] *Marv* – hozirgi Turkmanistondagi Mari shahri.

[5] *Sulton Berkiyoruq (Berk-Yoruq)* – Buyuk Saljuqiylardan (1094–1104).

[6] *Sulton Sanjar* – Berkiyoruqning ukasi; 1118–1157-yillarda hukmronlik qilgan.

[7] *Tang'ochxon* – Qoraxoniy hukmdor Arslon Muhammad (1102–1130).

@tarixchi_kutubxonasiga

jarining yoqasiga yetgandi. Otsiz u nobakorlarga hamla qilib, Sultonni qutqardi. Sulton Otsizdan so'radi: «Bizning ahvoldan qanday xabar topding?» [Otsiz] javob berdi: «Tushimda ko'rdimki, Sulton shikorgohda mushkul ahvolga tushmishlar. Darhol yetib keldim».

Ushbu xizmat tufayli uning ishi rivoj topib, kuch-qudrat-u nufuzi kundan kunga orta bordi, Sultonning unga nisbatan bo'lgan inoyat va tarbiyat nazari ziyoda bo'laverdi. Bora-bora bu boshqa malik va amirlarning hasadini qo'zg'ab, arkon-u mulozimlar hasadning zo'ridan makr-u fitnalar uyushtirmoqqa tutindilar. Sultonning 529-yil zulqa'dasida (1135-y., avgust-sentabr) Bahromshoh[1] isyonini bostirish uchun G'aznaga yurish qilishidan to keyingi yil (530-y.) shavvol oyida (1136-y., iyul-avgust) Balxga kelishigacha [Otsiz unga] hamrohlik qildi. Ushbu safar chog'ida Otsiz hasadchi amirlarning nafrati va yovuz niyatlaridan voqif bo'lgan, Sultondan hadiksiray boshlagan edi. U qaytishga ruxsat olib, yo'lga chiqqach, Sulton o'zining xoslariga dedi: «Orqasini o'girib ketayotgan bu kimsaning yuzini boshqa ko'rib bo'lmas». Ular so'rashdi: «Agar a'lo hazratlariga bu narsa aniq bo'lsa, ne sababdan u qaytishga ijozat va [bunday] iltifot (5) topdi?» Sulton dedi: «Uning xizmatlari bizning zimmamizga chandon burchlar yuklaydi. Uni ranjitmoqlik bizning olijanob va marhamatli amalimizga xilof bo'lgay».

Xorazmga yetib kelgandan so'ng Otsiz itoatsizlik va isyon yo'liga tushdi. Har ikki tomonning ixtilofi kundan kunga ziyoda bo'lib, shu darajaga yetdiki, 533-yilning muharram (1138-y., sentabr-oktabr) oyida Sulton Sanjar uning qasdida Xorazmga yurdi. Xorazmshoh uning lashkariga qarshi lashkar bilan chiqib, uni safga ham tizdi. Ammo qo'shini uzoq bardosh berolmasligini bilgani bois, jang boshlanmasdan turib chekinishga yuz tutdi. Otsizning o'g'li Otlig'ni asir olib, Sulton huzuriga keltirdilar. Sultonning farmoniga binoan, uni shu zahoti ikki pora qilishdi. [Sulton Sanjar] Xorazmni o'z jiyani Sulton Sulaymon bin Muhammadga berib, o'zi Xurosonga qaytdi. Shundan so'ng Xorazmshoh Otsiz Xorazmga qaytib keldi, Sulton Sulaymon undan qochib, Sulton Sanjar qoshiga ketdi.

Otsiz sarkashlig-u isyon yo'lida qoldi. 536 (1141 – 1142)-yilda esa Sulton Sanjar Samarqand darvozasi oldida xitoylar[2] bilan jangda mag'lub bo'lib, Balxga qochib kelgach, – buning tarixi mashhurdir – shu voqealar asnosida Otsiz fursatdan foydalanib Marvga keldi va ko'p qatl-u g'orat qilib, Xorazmga qaytdi...

(7) Sulton ahvolida ro'y bergan bu zaiflik sabab, Otsizning dimog'i ko'tarila boshladi. Rashid Vatvotning shu bilan bog'liq bir qasidasi borki, matla'i quyidagichadir:

[1] *Bahromshoh* – G'aznaviy hukmdor (1118 – 1152).

[2] *Xitoylar* – Juvayniy qoraxitoylarni ko'pincha shunday qisqacha shaklda zikr etadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Malik Otsiz saltanat taxtiga chiqdi,
Saljuq va uning xonadonining toleyi bitdi.

Uning shunga o'xshash boshqa qasidalari ham bor.

Sulton Sanjar mazkur yaramas harakat uchun o'ch olish maqsadida 538 (1143–1144)-yilda u bilan jang qilishga Xorazmga otlandi, shahar darvozalari oldida to'xtab, manjaniqlarni o'rnatish va jang bayroqlarini ko'tarishni buyurdi. Xorazm zabt etilib, Otsizning ta'bi xira bo'lishiga yaqin qolgan paytda [Otsiz] saroy amirlarining huzuriga hadya va tuhfalar yuborib, Sultondan uzrxohliklar (8) qildi va uning tarafidan iltifot so'radi. Sulton yumshab, yarash va sulh yo'li orqali orqasiga qaytdi. Otsiz esa doimgi odatiga ko'ra, sarkashlik yo'lida qolaverdi. Sulton uning huzuriga Adib Sobirni[1] elchi qilib yubordi va u bir muddat Xorazmda qoldi. Otsiz Xorazmning beboshlaridan ikki kishini bid'atchilar xatti-harakatlari yo'sinida avrab, ularning ruhini sotib olib va narxini to'lab, Sultonni pinhona halok etish uchun yuborgan edi. Adib Sobir bundan xabar topdi va mazkur ikki shaxsning belgilarini yozib, bir keksa ayol mahsisining qo'njiga solib Marvga yubordi. Maktub Sultonga yetgach, uning farmoniga muvofiq o'sha kishilarni qidirishga tushishdi va xarobazordan topib olib, do'zaxga jo'natishdi. Otsiz bulardan voqif bo'lib, Adib Sobirni Jayhunga cho'ktirdi.

524-yilning jumod ul-oxir (1147-y., oktabr-noyabr) oyida Sulton yana Xorazmga yurish qildi. Dastlab u mo'g'ul qo'shinidan keyin suv bosib ketgan Hazorasp shaharchasini ikki oy qamal qildi. Ushbu safarda Sanjar xizmatida bo'lgan Anvariy[2] quyidagi ikki baytni o'qqa bitib, Hazoraspga otdi:

Ey shoh [Sanjar]! Yer yuzining barcha saltanatlari senikidir,
Baxt-u iqbol ko'magi-la [butun] jahon senikidir.
Bugun bir hamla ila Hazoraspni ol,
Ertaga Xorazm-u «yuz ming ot»[3] senikidir.

Vatvot Hazoraspda edi, javob tariqasida ushbu ruboiyni o'qqa bitib, [tashqariga] otdi:

Ey shoh [Otsiz]! G'animing gar Rustamgo'r[4] bo'lsa ham,
Sening Hazoraspingdan bitta eshak ham olib ketolmagay.

(9) Ko'p mashaqqatlar va behad zahmatlardan so'ng Sulton Hazoraspni egalladi. Sulton yuqoriroqda keltirilgan bayt, mazkur ruboiy va shularga o'xshash [she'r]lar uchun Vatvotdan nihoyatda darg'azab edi va uni ush-

[1] *Adib Sobir* – Adib Sobir Termiziy (vaf. 1147), Sulton Sanjar saroyida xizmat qilgan.

[2] *Anvariy* – Avhadiddin Anvariy (vaf. 1191), fors mumtoz shoiri.

[3] Muallif bu yerda «hazorasp» so'zining «ming ot» ma'nosidan kelib chiqib, so'z o'yini ishlatmoqda.

[4] *Rustamgo'r* – «Shohnoma»ning bosh qahramoni Rustam.

@tarixchi_kutubxonasiga

lab, yetti a'zosini bo'lak-bo'lak qilishga qasam ichgandi. [Sulton] uni qidirib topish uchun zo'r sa'y-harakatlar qilib, murojaatnoma ketidan murojaatnoma tarqatdi. Vatvot tunlari oshyonda, kunduzlari daryo o'zanlarida [yashirinardi][1]. Qochib qaror topa olmasligini anglaganidan so'ng, Vatvot yashirincha mamlakat arkonlariga murojaat qila boshladi. Sultonning g'azabini bilganligi bois, ularning hech biri uning yonini olib kafil bo'lishga so'z bermasdi. Bir tabaqaga mansubliklari sababli [Vatvot oxiri] ushbu satrlar muallifi bobokalonining tog'asi Muntajabiddin Badi' al-Kotibdan, – Alloh uning qabrining ustini o'z muqaddaslik bulutlari bilan sug'orsin, – himoya so'radi. Muntajabiddin insho devoni [boshlig'i] mansabi bilan bir vaqtda yaqin mulozimlardan biri bo'lganligi uchun, bomdod namozi chog'ida saroy arkonlaridan oldinroq [Sultonning oldiga] kelar, namoz o'qilib bo'lgandan so'ng nasihat berishga boshlar, jiddiy [suhbatlar] ketidan vaziyatga mos va uni yumshatuvchi qiziq hikoyalar so'zlab berardi. Sulton ham saltanatning sir-asrorlari xususida doim u bilan maslahatlashardi. Xullas, suhbat kelib-kelib Rashid Vatvotga taqaldi. Muntajabiddin o'rnidan turib, Sultonga dedi: «Agar taqdirlasalar, bandaning bir iltimosim bor edi». Sulton uni bajarishga va'da bergandan so'ng Muntajabiddin dedi: «Vatvot bir zaif qushcha, (10) yetti pora qilishlariga dosh berolmagay. Farmon bo'lsa, uni ikki pora qilsalar». Sulton kuldi va Vatvotning qonidan kechdi.

Sulton Xorazm darvozalariga yetgach, taomi va libosi ohuning go'sht-u terisidan bo'lgan va [shu bois] Ohupush zohid deb ataluvchi bir zohid Sulton huzuriga keldi. U ezgu va'z aytib, so'ngra shahar ahlining yonini oldi. Otsiz ham sovg'a-salomlar bilan elchilar yuborib, bir chimdim uzr so'radi. Shafqat va muruvvatni o'zida mujassam etgan Sulton uchinchi bor uning aybidan o'tdi. Qaror qildilarki, Otsiz Jayhun bo'yiga keladi va Sultonga ta'zim qiladi. 543-yil muharram oyining o'n ikkinchisi (1148-y., 2-iyun) dushanba kuni Otsiz keldi va ot ustida turib Sultonga ta'zim qildi, so'ng Sulton jilovini orqaga burmasdanoq orqasiga qaytib ketdi. Sulton bu hurmatsizlikdan harchand darg'azab bo'lmasin, allaqachon avf etgani uchun zo'rg'a qahrini ichiga yutib, hech narsa demadi. U shu zahoti «G'azablarini ichiga yutuvchi va kishilarni afv etguvchilar» oyatining afzalligi tufayli, – Alloh yaxshilik qiluvchilarni sevadi[2], – holatiga sazovor bo'ldi.

Sulton Xurosonga yetgandan so'ng elchilar yubordi va Otsizni izzat-ikrom-u in'omlarga musharraf etdi. Otsiz ham elchilarni izzat-ehtiromlar bilan kutib olib, ko'p sovg'a-salomlar bilan qaytarib yubordi. Shundan so'ng Otsiz bir necha marta kofirlar tarafiga g'azavotga borib, zafar quchib

[1] «Vatvot» so'zi arabchada «qaldirg'och», «jarqaldirg'och», «ko'rshapalak» ma'nolarini bildiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, Vatvot past bo'yli, badbashara kishi bo'lgan.

[2] Qur'oni karim, 3-sura («Oli imron» surasi), 128-oyatdan.

@tarixchi_kutubxonasiga

qaytdi. U paytda Jandning voliysi Arslonxon Mahmudning o'g'li Kamoliddin bo'lib, ular o'rtasida mustahkam ittifoq mavjud edi. U hududni deyarli zabt etgandan so'ng, 547-yil muharram (1152-y., aprel-may) oyida Otsiz Kamoliddin bilan birgalikda Sig'noq[1] va boshqa o'lkalarga yurish maqsadida yo'lga otlandi. Jand chegarasiga yetganlarida Kamoliddin qo'rqib, o'z lashkari bilan qochdi va (11) Rudbor[2] tarafga ketdi. Otsiz Kamoliddinning tahlikaga tushgani va qochganidan xabar topgach, zodagon va obro'li kishilardan bir guruhini yuborib, va'dalar va omonlik bilan uni tinchlantirdi. Kamoliddin yoniga kelgan paytda esa, uning buyrug'i bilan uni band qilishdi va u shu tutqunlikda halok bo'ldi.

Kamoliddin bilan Rashid Vatvot o'rtasida ilgaridan do'stlik va yaqinlik mavjud edi. Otsizga, Vatvot Kamoliddinning holidan boxabar, deb tushuntirdilar. Shu sababdan [Otsiz] Vatvotni bir muddat xizmatdan yiroqlashtirdi.

(12) Jand[3] osiylardan tozalangandan so'ng, [Otsiz] Abulfath El-Arslonni[4] u yerga yubordi va u nohiyalarni unga topshirdi.

Xuddi shu yili g'uzlar[5] to'dasi g'alaba qozonib, Sulton Sanjarni asir oldi. Uni kunduzi podshohlik taxtiga o'tqizishar, kechasi esa temir qafasda saqlashardi. Otsiz saltanat tama qilib, shunday paytda valine'matim oldidagi burchimni ado etaman, degan bahona bilan barcha mulozimlari va qo'shinini olib, Omuya[6] tarafga ravon bo'ldi. Sekinlik bilan yurib, Omuyaga yetgach, uning qal'asini ustomonlik bilan qo'lga olishga harakat qildi, ammo uning kutvoli bosh tortdi. Otsiz Sulton Sanjarga bir elchi jo'natib, itoatkorlik va sadoqat izhor etdi va Omuya qal'asini so'radi. Sulton shunday javob yubordi: «Qarshilik yo'q, ammo avval El-Arslonni qo'shin bilan bizning huzurimizga madad uchun yuborsin. Shundan keyin Omuya qal'asini va yana shundayini in'om etgaymiz». Shu masala yuzasidan har ikki tarafdan ikki-uch marta elchilar bordi-keldi qilishdi. Oxiri Otsiz ushbu rad javobi sababli orqaga qaytib, Xorazmga ketdi va yana g'azo qilish niyatiga tushdi.

Shu orada Sulton Sanjarning jiyani, qo'shinlardan sodiqlikka qasamyod qabul qilib, ular tomonidan Sanjarning vorisi sifatida taxtga o'tqazilgan Rukniddin Mahmud[7] bin Muhammad Bug'roxon o'zining xorazmshoh Otsiz bi-

---

[1] *Sig'noq (Suqnoq)* – Sirdaryo bo'yidagi shahar.

[2] *Rudbor* – bu yerda, chamasi, Toshkent viloyatida joylashgan shu nomli nohiya nazarda tutilmoqda.

[3] *Jand* – Sirdaryoning quyi oqimida, Qizilqum chekkasida joylashgan shahar. Xarobalari hozirgi Qozog'istonning Qizil O'rda shahri yaqinida.

[4] *Abulfath El-Arslon* – Otsizning o'g'li va vorisi (1156–1172).

[5] *G'uzlar (o'g'uzlar)* – etnik jihatdan Saljuqiylarga yaqin bo'lgan, Balx viloyati hududida yarim ko'chmanchi hayot kechirgan xalq.

[6] *Omuya (Omuya, Omuy, Omul)* – hozirgi Chorjo'y shahri va uning yaqinidagi kechuv.

[7] *Rukniddin Mahmud* – Qoraxoniy hukmdor.

@tarixchi_kitobxonasiga

lan burundan mavjud bo'lgan samimiy munosabatlari tufayli Xurosondan elchi yo'llab, g'uzlar g'alayonini bostirishda ko'mak so'radi. Xorazmshoh Shahriston[1] tomon harakatga tushdi va El-Arslonni o'zi bilan olib, boshqa o'g'li Xitoyxonni Xorazmda noib etib qoldirdi. Otsiz Shahristonga yetgach, saltanatni boshqarish qo'ldan ketganligi va ishlar chalkashligi orqasida, atrof amirlarni chaqirtirdi. Shu asnoda (13), Amir Imodiddin Ahmad ibn Abu Bakr Qumoch[2] ming nafar suvoriy yuborib, Sulton Sanjarni shikorgohdan olib qochib, Termizga keltirganmish, degan xabar yetdi. Xos-u om xushxabar tarqatib, xursandchilik qildi. Xorazmshoh Mahmudxon va boshqa amirlarni kutib, Nisoda[3] to'xtagan edi. Ular esa uning kelganidan hamda uni chaqirtirishganidan afsuslandilar. Ular Aziziddin To'g'royini uning oldiga yubordilar va u bilan bitim tuzdilar. [Otsiz] u yerdan yo'lga otlandi va Ustuvoning[4] Xabushoniga keldi. Xoqon Rukniddin ham Nishopurdan o'sha yerga keldi. Ular uchrashib, do'stlik yo'liga qadam qo'yishdi, uch oy davomida birga bo'lib, saltanat xarobliklarini tuzatishga sa'y-harakat qilishdi.

Shundan so'ng Xorazmshoh kasal bo'lib qoldi. Kasallikning o'rtasida bir kuni uning qulog'iga qorining ovozi eshitildi. Mulozimlarini jam qilib, bashoratni eshitganday quloq tutdi. Qori ushbu oyatga yetgan edi: «Bironbir jon qayerda o'lishini bila olmas»[5]. Otsiz buni yomon fol sifatida qabul etdi. Kasallik og'irlashib, oxiri 551-yil jumod us-soniy oyining to'qqizinchisi [1156-y., 31-iyul] tunda dunyodan o'tdi va takabburlig-u kalondimog'lik havosi boshidan chiqib ketdi.

(14) To'rt kundan so'ng uning vafotini oshkor qilishdi. El-Arslon qo'shin bilan Xorazm tarafga yo'l oldi. Yo'lda barcha amirlar-u askarlar unga sodiqlikka qasamyod qildilar. Peshonasida isyon alomatlarini kuzatib, [El-Arslon] ukasi Sulaymonshohni zanjirband etdi va uning otabegi bo'lmish O'g'ulbekni qatl qildi. Va shu yil rajab oyining uchinchisida (1156-y., 22-avgust) xorazmshohlik taxtiga o'tirdi. U bir guruh fikri buzuq kishilarni bandi etdi, amirlar va jangchilarga otasi davridan ziyodroq maosh va iqtolar tayinladi, ko'p xayr-saxovatlar qildi. Rukniddin Mahmudxon uning taxtga chiqishini qutlab va otasining vafotiga ta'ziya bildirib, elchilar yubordi.

Sulton Sanjarning 552-yil yigirma oltinchi rabi' ul-avvalda (1157-y., 8-may) Haq dargohiga ko'chganligi haqida xabar yetib kelgach, Xorazm ahli uch kun davomida motamga cho'kdi.

---

[1] *Shahriston* – hozirgi Ashxobod yaqinidagi shaharcha.

[2] *Amir Qumoch* – Xuroson amiri, Sulton Sanjarning lashkarboshisi.

[3] *Niso* – xarobalari Ashxoboddan 18 km shimoli-sharqda.

[4] *Ustuvo (Ustu)* – Xurosondagi nohiya, markazi Xabushon (hozirgi Quchon) shahri bo'lgan.

[5] Qur'oni karim, 31-sura («Luqmon» surasi), 34-oyat.

@tarixchi_kitoblar_guruhiga

553 (1158–1159)-yili Movarounnahrda yashovchi qarlug'lar rahnamolaridan bir guruhi Lochinbek, Big'uxonning o'g'illari va boshqa ularga o'xshashlar boshchiligida Samarqand xoni, Ko'k Sog'ir nomi bilan mashhur Jaloliddin Ali[1] bin al-Husayndan qochib Xorazmga keldilar, [Samarqand xoni] qarlug'lar yo'lboshchisi Big'uxonni o'ldirdi, endi boshqa boshliqlarning payida, [deb xabar berishdi]. Xorazmshoh El-Arslon (15) ularni iliq kutib olib, shu yilning jumod us-soniy (1158-y., iyul) oyida Movarounnahrga otlandi. Uning yurishi haqidagi ovozani eshitgach, Samarqand xoni qal'aga yashirindi va Qorako'ldan to Jandgacha bo'lgan [hududda yashovchi] turkman ko'chmanchilarini o'zi bilan Samarqandga olib kirdi hamda qoraxitoylardan madad so'radi. [Qoraxitoylar] Ilik-turkmanni 10 ming suvoriy bilan unga yordamga yo'lladilar. Xorazmshoh Buxoro aholisini va'dalar bilan tinchlantirib, u yerdan Samarqandga jo'nadi. Samarqand xoni ham qo'shinlarini safladi va ikkala qo'shin Sug'd daryosining[2] ikki tomonida to'xtadi. Yosh jangchilar bir-birlarini quvlab, o'zaro to'qnashishardi. Xorazmshoh hamda uning lashkariga ko'zi tushgach, Ilik-turkman itoatkorlig-u tavozega chulg'andi; Samarqandning imom-u ulamolari vositachilik qilish-u yalinishga o'tib, sulh istadilar. Xorazmshoh ham ularning so'zini qabul etib, qarlug' amirlarini tamom ehtirom-u ikrom bilan o'z mavqelariga tikladi va so'ng Xorazmga qaytdi.

Sulton Sanjar vafotidan so'ng taxtda Mahmudxon o'tirgan edi. G'uzlar [isyoni] hamda Sanjar saroyining g'ulomlaridan biri, o'zining chavandozligi va epchilligi bilan boshqa g'ulomlardan farqlanib va ajralib turuvchi Muayyid Oy-Abaning (16) istilolari tufayli Xurosonning ishlari alg'ov-dalg'ov va tashvishli edi. 557-yil ramazon (1162-y., avgust-sentabr) oyida [Muayyid Oy-Aba] Sulton Mahmudni Nishopur shahristonidan chiqarib, ko'ziga mil tortdi; u mahbuslikda saqlanayotgan qal'ada vafot etdi. 558 (1162–1163)-yilda Xorazmshoh behisob va jangovar qo'shin bilan Shodyoxga[3] yurdi va bir muddat Muayyidni Shodyoxda qamal qilib turdi. Oxiri ikkala tarafdan elchilar kelib-ketib, sulh tuzildi va [El-Arslon] Xorazmga qaytdi.

566 (1170–1171)-yili unga qarshi Xitoy va Movarounnahr qo'shinlaridan to'da tuzildi. Ularning ovozasini eshitgach, [El-Arslon] jangga hozirlandi va oldinda (17) o'zining lashkarboshisi, Movarounnahr qarlug'laridan bo'lmish Ayyorbekni Omuyaga jo'natdi. U yetib kelar-kelmas qo'shinlar o'zaro to'qnashdi: Ayyorbekning qo'shini mag'lubiyatga uchrab, uning o'zi asir olindi. El-Arslon xastalandi va Xorazmga qaytganidan so'ng, o'sha yilning 19-rajabida (1170-y., 8-avgust) olamdan o'tdi. Uning kichik o'g'li va

[1] *Jaloliddin Ali* – qoraxoniy hukmdor.
[2] *Sug'd daryosi* – Zarafshon daryosi.
[3] *Shodyox* – Nishopur yaqinidagi shaharcha.

@tarixchi_kitobxonasiga

valiahdi bo'lmish Sultonshoh otasining vorisi sifatida xorazmshohlik taxtiga o'tirdi, uning onasi malika Turkon esa mamlakatning boshqaruvchisi edi.

Uning katta akasi Takish Jandda edi. Uni chaqirtirib, elchi yuborishdi, ammo u kelishdan bosh tortdi. Unga qarshi qo'shin shay qilindi. Takish bundan xabar topib, jilovni orqaga burdi va qoraxitoy xonining qizi hu zuriga bordi. O'sha paytda u xon unvoniga ega bo'lib[1], mamlakat ishlarini uning eri Fuma boshqarardi. Takish ularning oldiga yetib borib, Xorazm xazinalari-yu mol-mulkini va'da qildi va Xorazm zabt etilgandan so'ng har yili o'lpon yuborib turishga so'z berdi. Fuma katta qo'shin bilan Takishga hamroh etib yuborildi. Ular Xorazmga yaqinlashishgach, Sultonshoh jang-u jadalni chetlab o'tib, onasi bilan yo'lga tushdi va Malik Muayyidga kelib qo'shildi. Takish 568-yil 22-rabi' ul-oxir (1172-y., 11-dekabr) dushanba kuni (18) Xorazmga kirdi va xorazmshohlik taxtiga o'tirdi. Shoir-u voizlarning har biri uni qutlab, va'z yoxud she'rlar bitdi. Uning ota-bobolari xizmatida yoshi saksondan o'tgan Rashididdin Vatvotni Takishning oldiga taxtiravonda olib kelishdi. [Vatvot] dedi: «Har kim o'z xotir-u qobiliyatiga yarasha tabrik etdi. Bu banda esa vujudimning zaifligi va yoshim o'tganligi vajhidan bu ishga ojizman. Duo sifatida nazm qilingan ushbu ruboiy bilan cheklangayman:

Bobong zamona varag'idan zulmni yuvib tashladi,
Otangning adolatli yaralarini tuzatdi.
Ey, senga saltanat qabosi yopishib turdi,
Qani, ne qilursan, senga navbat keldi».

Takish adl-u adolat rasmini kasb qilib oldi. U Fuma oldidagi burchini ado etib, uni e'zoz-u ikrom bilan qaytarib yubordi.

Sultonshohning onasi Malik Muayyidga nafis javohirlar va turli qimmatbaho narsalardan hadyalar jo'natdi va Xorazm aholisi-yu askarlarining ona-o'g'ilga muhabbati to'g'risida lof urib, Xorazm mamlakati-yu hududini unga taqdim etdi. Oxiri Malik Muayyid ham ularning gapiga aldandi, mol-mulk ilinjidagi iblislarning vasvasasi uni haq yo'ldan uzoqlashtirdi. U parokanda qo'shinlarini to'plab, Sultonshoh hamda uning onasi bilan Xorazmga ozim bo'ldi. Ular Suburliga yetdilar – (19) u endilikda suv ostida qolgan bir shahar edi. Muayyidning lashkari birato'la biyobondan chiqa olmasligi sababli to'da-to'da bo'lib borar, Xorazmshohning Suburlida to'xtaganidan bexabar edi. Malik Muayyid oldinda edi. U Suburliga yetgan hamono Takish u to'daga hujum qildi va ularning aksarini qirib tashladi. Malik Muayyidni asir olib, uning oldiga keltirishdi; [Takish] o'z chodiri

[1] Bu ayol *Chen Tin* (1164 – 1177) bo'lib, u qoraxitoylar xoni Elqoy Tashining (1124 – 1143) qizi edi.

@tarixchi_kutubxonasiga

eshigining oldida uni ikki bo'lak qildi. Bu voqea 569-yil arafa kuni [1117-y., 11-iyul] yuz berdi.

Sultonshoh bilan onasi Dihistonga qochib ketishdi. Takish ularning orqasidan Dihistonga yo'l oldi va Dihiston unga tobe bo'ldi. Takish Sultonshohning onasini qatl etib, qaytib ketdi, Sultonshoh u yerdan qochib, Shodyoxga – Malik Muayyidning o'g'li, uning vorisi sifatida taxtga o'tirgan To'g'onshoh huzuriga keldi. Sultonshoh birmuncha Nishopurda turdi, ammo To'g'onshohning unga qo'shin yoki mablag' bilan ko'mak berishga qudrati yo'qligi bois, u yerdan G'ur sultonlariga borib qo'shildi va ularning yordamiga suyandi. Ular uni bu toifa mehmonlarga ravo ko'riluvchi iltifotlar bilan kutib oldilar.

Sulton Takishning esa Xorazmda tartib o'rnatish ishlari nihoyasiga yetib, saltanat ishlari izga tushdi. Ayni kezda xitoy elchilari to'xtovsiz qatnar, qabul qilish imkonsiz bo'lgan majburiyat va talablarni qalashtirishar, boz ustiga, adab shartlariga rioya qilishmasdi.

(74) Movarounnahrning zabt etilishi zikri

Sulton[1] Xuroson yerlarini muxoliflar loyqasidan tozalaganidan so'ng, Movarounnahr a'yonlari va arboblari uning nomiga ketma-ket maktub-u nomalar yo'llab, u taraflarga kelish va u diyorni xitoy zolimlarining jabr-zulmidan ozod etishni so'rashdi. Zero, ular butparastlarga tobe bo'lishgan, u jamoa hokimligi ostida xo'rlangan edilar. Ayniqsa, Buxoro aholisi ulardan bezgan edi. Oddiy odamlardan Sanjar ismli bir kishi – qalqonfurushning o'g'li g'olib bo'lib, nufuzli kishilarni tahqirlash va kamsitishni darkor bildi. Uning nomi Sanjar Malikka aylandi.

(75) Sulton ham, aslida, xitoy hukmronligidan, ularning chopar-u elchilarining kamsitishlaridan to'ygan, otasi Takish ulardan o'z ukasiga qarshi madad olgan paytda va'da qilgan o'lponni to'lash me'dasiga tekkan edi. Har yili Xitoy elchilari kelganda, u o'lponni to'lar va bu g'ussadan to'lg'anib, va'dani buzish uchun bahona qidirardi. Nihoyat, 606 (1209 – 1210)-yili To'shi boshchiligida Xitoy elchilari odatga binoan o'lpon talab qilib kelganlarida, [To'shi] har galgidek Sultonning yoniga – taxtga o'tirib, hurmat tartib-qoidalarini buzdi. Zoti sharif har qanday nokasning tahqiriga chidashdan bosh tortadi: Sulton u tentakni tilka-pora qilib, daryoga uloqtirishni buyurdi.

«Bu shamshirdan qarzdorsan, burchlaringni ado et, zero, shamshir qo'lingda haqiqat qurolidir» hukmiga binoan dushmanlik izhor etib, buni oshkor e'lon qildi va 607 (1210 – 1211)-yili u tarafga (76) yo'l oldi. Kechuvdan o'tib Buxoroga yetgach, Buxoro ahli uning qamrovli adolati hamda mo'l

[1] Bu yerda *Xorazmshoh Alouddin Muhammad* (1200 – 1220) nazarda tutilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

muruvvatiga ko'mildi va [shaharning] butun maydoni uning behad insofi ovozasi bilan ma'mur bo'ldi. Qalqonfurushning o'g'li esa, – qilgan ishlariga jazo sifatida[1], – amalining sazosini oldi. Sulton Buxorodan Samarqand tomon ravon bo'ldi va oldinda Samarqand sultoni Sulton Usmon yoniga elchilar jo'natdi. Xitoy xoni gurxon Usmonga qizini nikohlab berishdan bosh tortgani bois, gurxon bilan Usmon orasida kelishmovchilik paydo bo'lgan edi. U Sulton mavkabining kelishi xushxabarini shavq-u xurramlik bilan qarshi oldiki, buning alomatlarini uning ahvoli peshonasida kuzatish mumkin edi. Usmon tobelik bilan, shahanshoh Sultonning amr-u ko'rsatmalariga bo'ysunishga rozi bo'ldi va nomiga xutba [o'qitish] hamda tanga [zarb qilishni] buyurdi. Samarqand ahli Sultonning hozirligidan ruhlanib ketdi. Sultonlar xitoy xonini daf qilish xususida mashvarat qilib, unga jihod va urush e'lon qilishga kelishdilar. Sulton ehtiyotkorlik chorasi sifatida shahar darvozalarini mustahkamlashni buyurdi va onasining qarindoshlaridan bo'lmish To'rtoba ismli bir amirni o'z noibi sifatida Samarqand sultoni yoniga tayinladi. Ular jangga hozirlik ko'rish va qo'shin to'plashga kirishdilar. Sulton u yerdan jang-u savash odamlari bo'lmish dovyurak askarlar bilan olg'a yurdi. Bu xabar xitoy gurxoniga yetib kelgach, u ham o'z saltanati libosining bezagi bo'lmish va Tarozda maqomgoh tutmish Tayanguga hozir bo'lib turishni buyurdi. Tayangu g'urur takabburligi bilan mo'r-malaxdek bir qo'shin (77) tuzdi.

Fanokat daryosidan kechib o'tgandan keyin Sulton lashkar o'tsin uchun suv ustiga qurilgan ko'prikni buzishni buyurdi, toki jangchilar jonlarini jabborga bersinlar, nomini bulg'ab, isnodga qoldirmasinlar va bir muddat burun u diyor daryolaridan surib chiqarilgan islom suvini qaytarib, hidoyat suvini ularning zalolat oloviga sepsinlar, balki, – odamlar va toshlar o'tin bo'ladigan, kofirlar uchun tayyorlab qo'yilgan[2], – o'tni u otashparastlar ustiga otsinlar, ehtimolki, islomning tingan shamoli qayta esib, ofat bo'roni ular diyorini yo'q qilar va kulfat shamoli u gumrohlar murodining xirmonini havoga sovurar, e'tiqod tuprog'ini u manfurlarning ko'ziga sepib, u pastkashlarning qo'lini saltanatdan torttirar. Sulton Ilamish cho'liga yetib keldi. Tayangu esa o'z qudrati haqidagi xom xayolga va g'ururga aldangan, jangchilar-u qurol-yarog'ining ko'pligidan ruhlangan, «Bo'l va u ish bo'ladi»[3], – [hukmi]ning o'zgaruvchanligidan bexabar holda beadad qo'shin bilan Sayhun kechuviga yetdi.

Xomxayolga berilma, aks holda ko'pik kabi,
Suvga naqsh solursan va shamol o'lcharsan.

[1] Qur'oni karim, 32-sura («Sajda» surasi), 17-oyatdan.
[2] Qur'oni karim, 2-sura («Baqara» surasi), 22-oyatdan.
[3] Qur'oni karim, 2-sura («Baqara» surasi), 111-oyatdan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Saflarning yuzma-yuz bo'lib to'qnashuvi 607-yil rabi' ul-avval oyi (1210-y., avgust-sentabr) juma kuni ro'y berdi. Sulton jangchilarga beparvolig-u sustkashlik ko'rsatish va islom xatiblari minbarlarga chiqib, «Ey Alloh, musulmon piyoda va suvoriylariga nusrat ato qil!» – duosini aytmagunlariga qadar bir qadam ham jilmaslik, shundan so'ng har tarafdan birdaniga hamla qilishni amr qildi, shoyadki, islom xatiblarining duolari va musulmonlarning ominiga javoban parvardigor zafar bersa. Sultonning amriga binoan, o'sha paytni poylab, javonlar har tarafdan jangga tushishdi, otliqlar piyodalar jangi maydoniga tig' ura boshlashdi. Shu tariqa urush tandiri qizib,

Nog'ora faryodi-yu nay nolasi ko'tarildi,
Yer xuddi osmon kabi o'z joyidan qo'zg'aldi.
Sipohdorlar tug'ni baland tutdilar,
Bahodirlar uylarini tark etdilar.

(78) va har ikki tarafdan o'q-yoylar otilib, tig'-u shamshir yalanglandi. Sulton safidan takbir ovozi, u tomondan esa qamish surnay va hushtak chinqirig'i [eshitilar], Sulton, – darhaqiqat, «Biz sizga g'alaba ato etdik»[1], – bayrog'i sohibi, dushmanlar esa, «Albatta, Biz unday jinoyatchilardan qasos olurmiz»[2], – oyatining nishoni bo'lishdi; ilohiy lutf nasimi esa boshlab, yog'iy yuragining qushi titrashga tushdi. Namoz payti butun qo'shin suron solib, u nobakorlarga hujum qildi. Shu onda xato ahli sabo xalqi kabi[3] bo'ldi, [Sulton] lashkaridan bir kishi g'olib va dushmanlardan mingtasi mag'lub, bir sher va ming ohu, bir qirg'iy va ming kaklik. U la'nati firqaning aksari shamshirlar ostida nobud bo'ldi, Tayanguning o'zi jang maydonida yaralanib, Xitoy xonining izdoshlari kabi yuztuban yiqilgan, bir kanizak uning boshi ustida turardi. Kimdir uning boshini tanasidan judo qilmoqchi bo'lgan edi, kanizak: «Bu Tayangu!» – deya dod soldi. U kishi shu zahoti uni bog'lab, Sultonning huzuriga keltirdi. Uni fathnomalar bilan birga Xorazmga jo'natishdi. Va ushbu zafar tufayli lashkar qudrat kasb etib, bu ne'mat sababli iqbol sohibi bo'ldi, har bir kishi istagiga muvofiq maqsadiga yetdi va ishtiyoqiga loyiq ma'shuqani quchog'iga oldi. ...Molsevar kishilar boylig-u bir guruh ot va tuyalarni qo'lga kiritish bilan qoniqish hosil etishdi. Mubashshirlar muyassar bo'lgan zafar xabari bilan Sulton mulkining har tarafiga ravona bo'lishdi. Bu xushxabardan har bir jonda yengillik va bu fathdan har bir ruhda xotirjamlik paydo bo'ldi, Sultonning haybati kishilar yuragida ming bor ziyodalashdi. Endi Sulton Muhammadning laqablaridan biri sifatida «Ikkinchi Iskandar» deb yozadigan bo'lishdi. Sulton buyurdi: «Sanjarning hukmronligi muddati

[1] Qur'oni karim, 48-sura («Fath» surasi), 1-oyatdan.
[2] Qur'oni karim, 32-sura («Sajda» surasi), 22-oyatdan.
[3] Ya'ni, to'zib ketdi.

@tarixni_kuubxonasiga

uzoq davom etdi. (79) Agar [bu unvonlarni] ezgulik alomati sifatida yozsalar, «Sulton Sanjar» deb yozsinlar». Uning laqablariga «Sulton Sanjar» ham qo'shildi. Imom Ziyovuddin Forsiyning ushbu zafar hamda Sultonga «Sulton Sanjar» nomi berilishiga bag'ishlangan qasidasi bor.

Xolamning o'g'li marhum Sadri Imom, zamondoshlar afzali Shamsiddin Ali ibn Muhammaddan, – Alloh uni o'z marhamatiga o'rasin, – eshitdim, u aytdi: «Choparlar Sultonning Xitoy ustidan zafar quchgani haqidagi xabar bilan Shodyoxga kelishganida, Shodyoxning butun aholisi har kim o'z havasi va holiga yarasha bir-biriga hadyalar ulashib, bir-birini qutlay boshladi. Zohidlar tabaqasi Allohga shukronalar izhor etish bilan mashg'ul, akobir-u ulug'lar do'mbira va surnaylar bilan bazm-u ziyofat qilar, avom xushchaqchaqlik va o'yin-kulgiga band, yoshlar bog'larda shovqin-suron ko'tarar, keksalar o'zaro suhbatga berilgan. Men bir necha kishi bilan ustozim Sayid Murtazo ibn Sayid Sadriddin, – Alloh ularni o'z marhamati libosiga burkasin, – yoniga bordim. U uyning burchagida g'amgin va xomush holda o'tirgan edi. Undan shodiyona kundagi hazinlikning sababini so'rab-surishtirdik. «Ey g'ofillar, bu turklardan narida bir qavm borki, u intiqom va shiddatda (80) qat'iyatli, ko'p sonlikda Ya'juj va Ma'jujni ham ortda qoldiradi. Xitoy qavmi chin ma'noda Zulqarnayn devori edi. Ehtimoldan uzoqki, u devor o'rtadan ketgach, bu saltanatda tinchlik bo'lg'ay yo biron kishi huzur-halovatda o'tirgay. Men bugun islom uchun ta'ziyadaman», – dedi u».

Yoshlar oynada ko'rgan narsani,
Keksa kishi pishgan g'ishtda ko'rur.

Xullas, Sulton jihoddan murodiga yetib qaytgan paytda, O'tror maligi itoatdan chiqdi. U, odatdagidek, o'zining kuch-qudratiga inonardi. Uni yumshatish uchun ketma-ket elchilar jo'natilishiga qaramay, u boshini itoatkorlik chambariga kiritmas, kibr havosi va boylik xayolini dimog'idan haydamas, nasihat tiyig'i bilan sharmandalik xavfidan o'zini xalos etmasdi. Xitoy bilan ittifoqi bois, u «to'g'ri yo'ldan»[1] chetga chiqdi. Sulton uning o'jarligi va manmanligidan voqif bo'lgach, unga qarshi yurishga tushdi. Ular O'tror chegarasiga yetgan edi, shahar arboblari uning beadad lashkarlarida quturgan sel oqimining to'lqinlarini ko'rib, qarshilik ko'rsatish yo'li bilan uni qaytarib bo'lmasligini anglab yetdilar va hamjihatlikda malikning oldiga borib, so'z ochdilar: «Dag'alliging bilan bizning boshimizga dahshatli sherni olib keldingki, uni yengish tasavvurga sig'maydi. O'zingni ham, bizni ham zo'rlig-u uyatsizlik ila nahang komiga tashlading. Bu ishni iltifot bilan hal qil va badfe'llik jilovini tort». O'tror hokimi qushchalarni lochin

[1] Qur'oni karim, 1-sura («Fotiha» surasi), 5-oyatdan.

@tarixiy_kutubxonasiga

changali bilan urish mahol ekanini tushunib yetib, ish chorasini tobelikda deb bildi va [qo'lida] shamshir bilan kanop mato[dan tikilgan ko'ylakda], umid va noumidlik o'rtasida tashqari chiqdi, yuzini [Sulton] chodir ostonasiga qo'yib, qilmishlari-yu xatti-harakatlari uchun kechirim so'radi. Sulton uning xato va yanglishishlarini afv etib, (81) mag'firat berdi va O'trorni tark etib, ot-u otliqlari va yuk-u karvoni bilan Nisoga ko'chish va ayol-u erkaklari bilan u yerda o'rnashish sharti bilan uning mol-u jonini omon saqladi. Shu tariqa odamlar qoni to'kilishining oldi olindi.

Malikni Nisoga jo'natgandan so'ng, Sulton qaytish jilovini Samarqandga burdi. [U yerda] Sulton Usmon sultonlar xonadoni sadafidan bir durni so'radi va yuksak osmon yulduzlari ichra bir to'lin oyga unashtirishni istadi. Sulton bu iltimosga ijobat berib, uni iltifotga sazovor qildiki, buning tafsiloti boshqa bobda qalamga olinajak. Sulton Turkon xotunning yaqin qarindoshlaridan bo'lmish amir To'rtobani Samarqand shihnaligiga tayinlab, o'ng-u so'lida ezgulik alomatlari, orqa-yu o'ngida iqbol nurlari bilan Xorazmga qaytdi. Xorazmga yetgach, Sulton bazm hozirladi va Tayanguni qatl etib, daryoga uloqtirishni buyurdi. Bu g'alaba tufayli Sultonning haybati dillarda ming karra ziyoda bo'ldi, atrof hukmdorlari uning saroyiga elchi va hadyalarni paydar-pay qilishdi. Uning muborak tug'rosiga «Allohning yerdagi soyasi» so'zlari yozildi.

Fanokat va Xo'jandning zabt etilishi hamda Temur Malik ahvoli zikri

Aloq-nuyon, So'gatu va Taqoy besh ming askar bilan Fanokatga nomzod etildilar. Uning amiri Eletgu Malik edi. U qang'lilardan iborat qo'shin bilan uch kun rosmana jang qildi. Mo'g'ullar ortiqcha jahd qilmadilar. Nihoyat, to'rtinchi kuni, – Quyosh yuqoriga qarab kamand otib, zamona olis falakka ko'tarilgach, – [qal'adagilar] omonlik so'rab, itoatkorlik bilan tashqari chiqdilar. Sipohilar bilan xaloyiqni alohida-alohida o'tkazishdi. Askarlarni qisman shamshir bilan va qolganlarini o'q-yoylar bilan butkul halok etdilar, xaloyiqni esa yuzlik va o'nliklarga bo'ldilar. Hunarmandlar, ustalar va ovchi hayvonlar egalarini (71) tayin etishdi va qolganlar orasidan yoshlarni hashar uchun ajratib olishdi.

So'ngra mo'g'ullar Xo'jandga yurdilar. U yerga yetganlarida shahar ahli hisorga yashirinib, davr baxtsizligidan xalos topdi. Uning hokimi Temur Malik ediki, agar Rustam uning zamonida yashaganda edi, unga jilovbardor bo'lishdan o'zga ish qilmagan bo'lardi. Daryo o'rtasida, suv ikki irmoqqa ajralib ketgan [quruq] joyda u baland istehkom bino qilgan va nomdor jangchilardan ming nafar mardi maydon bilan o'sha yerga joylashgan edi.

@tarixiy_kutubxonasiga

Mo'g'ul qo'shini u yerga kelgach, istehkomni tezda tobe etishning iloji bo'lmadi, chunki yoy va manjaniq o'qlari unga yetmasdi. Xo'jand yoshlarini o'sha yerga hasharga haydashdi. O'tror, Buxoro, Samarqanddan hamda ishg'ol qilingan boshqa shahar-u qishloqlardan madad keltirishdi, natijada 50 ming hashar ahli va 20 ming mo'g'ul askari u yerda jam bo'ldi. Barini o'nlik va yuzliklarga bo'ldilar. Toziklardan iborat har o'nta o'nlikka bir mo'g'ul bosh etib qo'yildi. Ular piyoda uch farsang naridagi tog'dan tosh tashib kelishar, mo'g'ullar otlarda ularni daryoga to'kishardi.

Temur Malik 12 ta usti bekik qayiq yasatib, ularni sirka bilan loy aralashmasi surilgan ho'l namat bilan qoplatgan va [o'q otish uchun] tuynuklar qoldirgan edi. Har kuni tongda 6 ta qayiq har yoqqa ravon bo'lar va qattiq janglar amalga oshirishar, o'q ularga ta'sir etmasdi. [Mo'g'ullar] daryoga uloqtirgan olov, qoramoy va toshlarni u bartaraf qilar va tunlari nogahoniy hamlalar uyushtirardi. [Mo'g'ullar] uning tashvish-zararini bartaraf etishga urindilar, ammo nafi bo'lmadi. [Oxiri] manjaniq va o'qlar ravon bo'ldi. Ahvol tanglashib, obro'-e'tiborni saqlab qolish payti yetgach, kulchasimon quyosh yer me'dasiga yem bo'lgan va jahon zulmatdan miskin kulbaga aylangan vaqtda, u chekinish kuni uchun hozirlab qo'ygan 70 ta kemaga asbob-anjom va qurol-yaroqlarni ortib, o'zi bir to'da jangchilar bilan bir qayiqqa o'tirdi va mash'alalar ushlab, yashin misoli suv yuzida suzib ketishdi.

(72) Mo'g'ul lashkari daryo yoqalari bo'ylab yura boshladi. Qayerdaki ular zo'rayishsa, Temur Malik o'sha joyga yaqinlashar va qazodek bexato o'qlar zarbi bilan ularni haydab solardi. U kemalarni haydab, shu tariqa Fanokatgacha keldi. Kemalarga to'siq bo'lsin uchun mo'g'ullar daryo kesasiga tortishgan zanjirni bir zarb bilan uzib tashlab, o'tib ketdi. Lashkarlar har ikki tarafdan u bilan jang qilib, nihoyat, Jand va Barjlig' hududiga yetdilar. Uning xabari Ulush-Idining qulog'iga yetgandi, u qo'shinni daryoning har ikki qirg'og'ida bir necha joyga to'plab, kemalarga ko'prik qurdirdi va arrodalarni tayyorlab qo'ydi. [Temur Malik] mo'g'ul lashkarining poylab-kuzatib turganidan xabar topdi, Barjlig'kent yoqasiga yetgach, quruqlikni afzal ko'rdi va suvdan chiqib, uchqur otlarda olov kabi yo'lga tushdi. Mo'g'ul qo'shini ham u bilan izma-iz ravon bo'ldi. Ular shunday yurib borishar, u yuklarni oldinroqqa jo'natib, o'zi jang qilish uchun to'xtar, qilichbozlik qilib, yuklar uzoqlashgandan so'ng yana orqadan borardi. Bir necha kun shu zaylda olishdi, odamlarining ko'pchiligi o'ldirildi yoki yaralandi. Mo'g'ul qo'shini esa kundan kun ko'payib borardi. Yuklarni ham undan tortib olishdi. U sanoqli kishi bilan qoldi, ammo sobitlik bilan olishaverdi va taslim bo'lmadi. Unga hamroh bo'lgan bir necha kishi ham o'ldirilib, bittasi singan va poynaksiz uchta o'q bilan qurol-yaroqsiz holda tanho o'zi qoldi. Uch mo'g'ul uning orqasidan kelishardi. Temur Malik poynaksiz o'qni otgan

@tarixchi_kutubxonasiga

edi, bir mo'g'ulning ko'zini ko'r qildi, qolgan ikkitasiga: «Ikkita o'q qoldi, sizning adadingizga ularni ko'zim qiymaydi. Orqaga qaytib joningizni omon saqlasangiz ma'qulroq», – dedi. Mo'g'ullar orqaga qaytishdi.

U Xorazmga keldi va yana jangga hozirlandi. Bir to'da kishi bilan Shahrikentga kelib, u yerdagi shihnani o'ldirdi, so'ng orqasiga qaytdi. (73) Xorazmda qolishni maqbul ko'rmay, Sultonning izidan ketdi va Shahriston yo'lida uning xizmatiga qo'shildi. Sulton sarsongarchilikda bo'lgan bir necha fursat u ham toqat qildi, ammo sal muddatdan keyin sufiy libosi va avzoyida Shom tarafga ketdi.

Bir necha vaqtdan so'ng, tahlikalar tinchib, davr jarohatlari bitgach, vatani va uyiga bo'lgan muhabbati, balki ilohiy hukm undovi uning qaytishiga bois bo'ldi. Farg'onaga kelib, O'sh shaharchasida, uning ziyoratgohlarida istiqomat qildi. Vaziyatdan boxabar holda vaqti-vaqti bilan Xo'jand tarafga borib turardi. O'g'lining Botu saroyining muruvvati bilan otasining mol-mulklariga ega bo'lganini ko'rib, o'g'liga yaqinlashdi va dedi: «Agar sen otangni ko'rsang, uni tanirmiding?» O'g'li: «Men otamdan hali chaqaloqlik paytimda ajralganman, uni tanimayman. Ammo bir g'ulom uni biladi», – deb javob qaytardi. Temur Malik g'ulomni chaqirtirdi. G'ulom a'zoyi badanidagi alomatlarni ko'rib, [uning Temur Malik ekanini] tasdiqladi. Uning xabari oshkor bo'ldi. Boshqa bir necha kishi esa omonatlar qo'llarida bo'lgani sabab, uni qabul qilmay, inkor etishdi. Shu bois xon huzuriga borib, uning muruvvat va shafqat nazariga ko'rinish fikriga tushdi. Yo'lda Qadaqon huzuriga borib qoldi. Qadaqon uni mo'g'ul lashkari bilan qilgan jang-u jadallari haqida surishtira boshladi.

U singan o'qi bilan yaralagan mo'g'ul uni tanib qoldi. [Qadaqon] uni yanada qattiqroq so'roqqa tutdi. Temur Malik javob qaytarayotganida, podshohlar huzurida gapiruvchilar uchun vojib bo'lgan ta'zim marosimini bajo keltirmasdi. Qadaqon g'azabidan bir o'q uzdiki, (74) u uning o'sha paytgacha otgan barcha o'qlariga javob bo'ldi. Yara halokatli bo'lgani bois, bu o'tkinchi dunyodan dorulbaqoga intiqol etdi va na o'limdan qutulish va undan qochishga joy bor, – vahshatidan xalos bo'ldi.

RASHIDIDDIN FAZLULLOH VA UNING «JOME' AT-TAVORIX» ASARI HAQIDA

Rashididdin Fazlulloh ibn Imoduddavla Abulxayr Hamadoniy 645 (1247 – 1248)-yilda, aftidan, Hamadonda dunyoga keldi. Uning yoshlik yillari haqida ma'lumot saqlanmagan. Rashididdinning keyingi hayoti va xizmat faoliyati Elxonlar davlati (1256 – 1353) bilan chambarchas bog'liq. Aboqaxon (1265 – 1282) davrida Rashididdin xizmatga jalb etilgan, ammo qanday

@tarixchi_kutubxonasiga

ishga olingani ma'lum emas. Mazkur Aboqaxonning nabirasi G'ozonxon (1295–1304) hukmronligi davrida u dastlab saroy tabibi, 1298-yilda esa vazir etib tayinlanadi. Rashididdin G'ozonxonning ukasi va vorisi O'ljoytu (1304–1316) davrida ham vazir lavozimida qolib, katta nufuz va boylik orttirdi. Uning 14 nafar o'g'illaridan o'ntasi turli viloyatlarga hokimlik qilishgan. Ammo yosh elxon Abu Said (1316–1336) hukmronligining boshlarida, aniqrog'i, 1317-yili Rashididdin raqib va dushmanlarining tazyiqi ostida iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Oradan bir yil o'tib, 1318-yil 18-iyul kuni Rashididdin O'ljoytuni zaharlashda ayblanib, qatl etiladi. 1327-yili Rashididdinning nomi oqlanib, mol-mulkining bir qismi o'g'illariga qaytariladi, o'g'li G'iyosiddin Muhammad esa vazir etib tayinlanadi.

Rashididdin qomusiy bilimga ega bo'lgan olim va yirik davlat arbobidir. U tabobat, nabotot, adabiyot, ilohiyot [kalom], riyoziyot ilmlaridan boxabar edi. Uning shu fanlardan ayrimlari bo'yicha yozgan asarlari, shuningdek, yozishmalari saqlanib qolgan. Ammo Rashididdin asarlari orasida eng mashhuri va qimmatlisi «Jome' at-tavorix» («Tarixlar to'plami») solnomasidir.

Muallif «Jome' at-tavorix»ni yozishga 700 (1300–1301)-yilda G'ozonxon buyurtmasi bilan kirishib, 710 (1310–1311)-yili uni nihoyasiga yetkazadi va O'ljoytuga taqdim etadi. Asar fors tilida, nisbatan sodda va ravon uslubda yozilgan.

Rashididdinning dastlabki mo'ljali bo'yicha, solnoma quyidagi uch jilddan iborat bo'lgan: 1) Mo'g'ullar tarixi (qadim davrlardan boshlab to G'ozonxongacha); 2) Dunyo tarixi (islomgacha bo'lgan dunyo, xalifalik va musulmon davlatlar tarixi, Xitoy, Hindiston va Yevropa tarixi); 3) «Yetti iqlim»ning jug'rofiy tavsifi. So'nggi, uchinchi jild yozilmay qolgan yoki saqlanib qolmagan. «Tarixi G'ozonxon» nomi bilan yuritiluvchi birinchi jild asarning eng qimmatli qismi hisoblanadi. Ayniqsa, qadimgi mo'g'ul va turk qabilalari haqidagi ma'lumotlar va to'rt ulusning XIII asr ikkinchi yarmigacha bo'lgan tarixi juda muhim va ahamiyatli. Birinchi jildning turli qismlari bir necha g'arb tillariga tarjima qilingan. Matnning ham bir necha nashrlari bor.

Asar Shayboniy hukmdor Ko'chkunjixon (1510–1529) topshirig'i bilan o'zbek tiliga ham o'girilgan. Tarjimon – Muhammad Ali ibn Darvish Ali Buxoriy. U haqda biron ma'lumotga ega emasmiz. Faqat uning «Tarixi G'ozoniy»dan tashqari, Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarini ham tarjima qilgani ma'lum (bu tarjima 1997-yili A. Ahmedov va H. Bobobekovlar tomonidan nashr etildi). «Jome' at-tavorix»ning Muhammad Ali Buxoriy amalga oshirgan o'zbekcha tarjimasining yagona qo'lyozmasi O'zR FA Sharqshunoslik institutida 2-raqam ostida saqlanadi.

@tarixiy_kutubxonasiga

Quyida ana shu qo'lyozmadan bir necha parcha hozirgi yozuvga tabdil etib berildi. Bunda asarning Markaziy Osiyoga tegishli, ayni paytda, mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan, ya'ni Alouddin Juvayniyning «Tarixi jahongushoy» asaridan ko'chirib olinmagan qismlari tanlab olindi. Tarjimani asl matn bilan solishtirganimizda, Muhammad Ali asarning ayrim joylarini qisqartirib o'girgani ma'lum bo'ldi. Shunday qisqartirishlar orqasida kelib chiquvchi chalkashliklar hamda tarjimon yo'l qo'ygan noaniqliklar asarning A. Alizoda tuzgan tanqidiy matni[1] asosida (matn ichida) tuzatildi, ba'zan esa izohlarda qayd etildi. Lekin tarjimonning tili ham o'ziga xos manba ekanligidan kelib chiqib, unga xos xususiyatlar (masalan, bir so'zning o'zi ikki yoki undan ortiq shakllarda yozilishi) saqlab qolindi.

N. Toshev

RASHIDIDDIN FAZLULLOHNING «JOME' AT-TAVORIX» ASARIDAN LAVHALAR

(361 *a*) Baroq chun Muborakshohni o'ldurgach, Xuroson viloyatig'a kelib, Aboqaxon bila urushg'oni

Baroq[2] Muborakshohni o'ldurub, Chig'atoy ulusig'a podshoh bo'lub, zulm va taaddi qila boshladi. Qaydu[3] ani ul tariqalardin man qilur erdi. Bu jihatdin oralarida muxolifat paydo bo'lub, ul mahalda Turkistonda Mo'g'ultoy qoon[4] tarafidin anda hokim erdi. Baroq Bekmishni yubordi, to Turkistonni andin olib, aning o'rnida o'lturdi. Mo'g'ultoy hazrat qoong'a borib, andin shikoyat qildi. Qoon bir ulug' bekni[5] 6000 kishi bila yubordi, to Bekmishni tutub o'ldurdi, o'zi dorug'aliqg'a mashg'ul bo'ldi. Baroq bu holatlardin xabar topib, bir bekni 30000 kishi bila yubordi, to Turkistong'a kelgan bekni kovlagay. Qushchibek[6] bildikim, aning bila urusha olmas, Xitoyg'a bordi. Baroqning cherigi borib Xo'tanni taladilar. Chun Baroq azamat va shavkat paydo qildi, Mangu-Temurning[7] qasdig'a mutavajjih bo'ldi.

---

[1] *Рашид-ад-дин.* Джами-ат-таварих.

[2] *Baroq (Buroq)* – Chig'atoy ulusining xoni; amakivachchasi Muborakshohdan taxtni tortib olgan.

[3] *Qaydu (Xaydu)* – Chingizxonning vorisi bo'lmish O'ktoy qoonning nabirasi. Oltin O'rda (Jo'jiylar) xonlari ko'magi bilan u Talas (Taroz) vodiysigacha cho'zilgan yerlarni bosib olib, Movarounnahrga tahdid sola boshlagan.

[4] *Qoon* – ya'ni, mo'g'ul imperiyasining oliy hukmdori; bu yerda Xubilay (Qubilay) nazarda tutilmoqda.

[5] Asl matndagi «amir» so'zini Muhammad Ali Buxoriy «bek» tarzida beradi.

[6] Qoon jo'natgan bu amirning nomi asl matnda Ko'yinchi shaklida berilgan.

[7] *Mangu-Temur* – Oltin O'rda xoni.

@tarixchi_kutubxonasiga

Mas'udbek[1] Baroqni urushga tahris qildirur erdi. (361 *b*) Oqibatul-amr, ikki cherik Sayhun suvining yaqosida [to'qnashdi]. Baroq anda makr qilib, Qaydu va Qibchoqning[2] cherigini bosib, ko'b kishi[ni] alardin o'ldurub, sonsiz mol oldi, cherigi qalin bo'lub, takabbur va naxvat paydo qildi.

Chun Qaydu va Qipchoqdan xabari Mangu-Temurg'a yetishdi, achchig'i kelib, amaki[si] Berkacharni 50000 kishi bila Qayduning ko'magiga yubordi. Ul tariqa parishon [holda] cherigini jam qilib, Baroq bila urushub, Baroqni bosib, ko'p kishisini o'ldurdi. Baroq xarob va parishon [holda] Movarounnahrga borib, yana tafriqa bo'lg'on cherigi jam bo'ldi. Beklari kengashdikim: «Bu jamoatkim, bizning qasdimizg'a bo'lub tururlar, bizning viloyatimiz qaror topmas. Maslahat bu tururkim, bu ma'mur viloyatni xarob qilib, buzg'aymiz. Avval Samarqanddin boshlag'aymiz». Beklarga [bu maslahat] xush kelib [qoldi].

Qaydu, Qibchoq va Berkachar bu holdin xabar bilib, kengash qildilar, to aning ortidan borib, ani andin quvlag'aylar. Qaydu dedi: «Chun ul bu ma'nidin xabar topg'ay, viloyatni ko'proq buzg'ay. Maslahat bu tururkim, anga elchi yuborib, nasihat qiloli, aning bila yashagaymiz». Qipchoq dedi: «Men aning bila do'st tururmen. Agar maslahat bo'lsa, men borib nasihat qilamen». Chun Qipchoqning (362 *a*) fasohati barchaga ma'lum erdi, 200 kishi [bila uni] Samarqand sari yubordilar. [Ular] Sug'dga borib tushtilar. [Qibchoq] bir otliqni Baroq qoshig'a yubordi. O'zi kelganidan xabardor qildilar.

Chun Baroq andin voqif bo'lub, bir zamon o'zi birla fikr qildi, [so'ng amirlarga] dedi: «Alarga bu yarashmoqdin maslahat nedur va ne fikrlari bordur?» Kelgan elchig'a dedi: «Borib Qipchoqg'a degin, har nechakim botroq kelsa, hanuz yaxshiroq turur. Jahd qilib, botroq kelsun». Hukm qildi, to ulug' borgoh[ni] aning uchun yetkurdilar. Cheriklarini yasab, eshikka o'lturg'izdi. Chun Qibchoq Baroq qoshig'a kelib kirdi, Baroq ozod qo'pub o'tru borub, ani yuz izzat-u hurmat bila taxt ustiga chiqartirib o'lturg'izdi. Bir-biriga ayoq tuttilar. Baroq ani yaxshi ko'rub, dedikim: «Ne andin yaxshiroq bo'lg'aykim, uruq-qayom bir-birini so'rub, istay kelgay». Qipchoq sulh va yarashdin so'zlar dedi. Baroq dedi: «Sening so'zlaring barcha[si] xo'bdurur. Mening ko'nglumda goh-goh bu ma'ni kechar erdi. O'z ishimdin sharmsor erdim. Barchamiz amakibachchalarmizkim, otalarimiz yurub, viloyatlarni qilich zarbi bila olub, bizga meros qo'ydular. Bas, ne (362 *b*) uchun barchamiz muvofiqat bila olamni yeb, farog'at qilmasmiz? Muncha bo'lg'oq oramizda nega kerak? Ammo mendin o'zga shahzodalarg'a yaxshi viloyatlar va o'tlog'lar bor turur. Menkim bu tor yerda qanoat qilib o'ltururmen, Qaydu va Mangu-Temur ham bu mamlakat uchun menga qasd etarlar,

[1] *Mas'udbek* – Mahmud Yalavochning o'g'li, qoonning Movarounnahrdagi noibi.

[2] *Qibchoq (Qipchoq)* – Qayduning amakivachchasi.

@tarixchi_kutubxonasiga

meni doim parishon-u sargardon qilurlar». Qibchoq anga ofarin dedi: «Yaxshi so'zlar», – dedi, – emdi kerakkim, har nimakim burun kechti, ani yod qilmag'aysen. Emdi yana boshdin yana sulh qilib, muttafiq bo'lg'aymiz». Baroq chun taraddud qilmoqdin batang kelib erdi, sulhga rozi bo'ldi. Bir haftadin [keyin] kim, Qibchoqni to'ylar berdi, ijozat berdi, to yonib borg'ay. Qaydu va Berkachar ham sulhg'a rizo berdilar.

Bahor mavsumida[1] barcha bir yerda jam bo'lub, bir hafta to'y qildilar. Sakkizinchi kuni barcha yana jam bo'lub, Qaydu dedikim: «Otamiz Chingizxon ra'y va tadbir-u qilich zarbi bila olamni tutub, o'g'lonlariga qo'yub bordi. Bizlardin o'zga barcha shahzodalarkim, bor tururlar, barcha muvofiq va yakjihat viloyatlarig'a ulturub, farog'at qilurlar. Alarning oralarida hech muxolif[at] va munozirat yo'q turur. Ne uchun kerakkim, bizning (363 *a*) oramizda muxolifat bo'lg'ay». Baroq dedi: «Bu so'z chin turur. Men ham Chingiz tuxmidin tururmen. Menga ne uchun yurt va viloyat muqarrar qilmassiz. Chig'atoy, O'ktoy Chingizxonning o'g'lonlari erdilar. O'ktoydin Qaydu yodgor qolibdurur, Chig'atoydin men qolibmen. Jo'jidankim, barchadin ulug' erdi, Berkachar va Mangu-Temur qolib turur. Tuluydinkim, barchadin kichik erdi, Qubilay qoon qolib turur. Mashriqdagi viloyatlar – Chin va Mochin anga taalluq turur. Aning viloyatining tul va arzini ulug' Tangri bilur. Mag'rib tarafida Jayhun suvidin Misr va Shomg'acha Aboqaxonga taalluq turur. Bovujudi ulkim, bu tor yerda o'lturub tururmenkim[2], bundin nari har nimakim o'tti, ani yod qilmag'aymiz. Viloyatlarni yangi-boshdin rostlik bila ulashturgaymiz, tog'larda, sahrolarda yurugaymiz, aning uchunkim, viloyati usr va xarob turur. Qo'yg'aymiz, to raiyatlar farog'at bila ziroat qilgaylar. Movarounnahrning uch baxshi Baroqning bo'lg'ay, o'zgalari Qayduning bo'lg'ay (363 *b*) va Mangu-Temur ham muncha muttafiq bo'lub [hukmdorlik qilg'ay]». Kengach qilib, oxirda munga muqarrar bo'ldukim, Baroq Amu suvidin o'tub, ba'zi viloyatlarni olib o'z viloyatig'a qo'shg'ay, to aning viloyati keng bo'lg'ay. Baroq dedi: «Agar sizlar mening bila ittifoq qilursiz, bu ishni qabul qilurmen». Bas, barcha ittifoq [bo'lub], o'z-rasmitek oltin edilarkim[3], mundin nari shaharlarda o'lturmag'aylar, raiyatdin ko'p nima tilamagaylar, buzuq bo'lgon viloyatni imorat qilg'aylar, teb va shart va ahd qilib, har ki-

[1] Bu qurultoy 1269-yil bahorida bo'lib o'tgan.

[2] Shu yerdan boshlab tarjimon Baroq nutqi bilan boshqalarning gapini qo'shib yuboradi. Aslida, Baroq nutqining oxiri va matnning davomi quyidagicha: «Bu har ikki ulus o'rtasida Turkiston va Qipchoqboshi viloyatlari bor va [ular] sizlarning tasarrufingiz ostidadir. Shunga qaramay, sizlar birgalashib menga qarshi qo'zg'aldingiz. Har qancha fikr qilmayin, men o'zimni aybdor deb hisoblamayman». Ular dedilar: «Sen haqsan. Qaror shunday: o'tgan gaplarni eslamaylik».

[3] Asl matnda «zar xo'rdand» yoki «zir xo'rdand» shaklida ham o'qish mumkin. Har ikki holda ham bu yerda «qasam ichdilar», «ont ichdilar» ma'nosida kelgan.

@tarixni_kutubxonasiga

shi o'z viloyatig'a qaytib bordi. Necha mahaldin so'ng Baroq Mas'udbekni yubordi, to Eron viloyatidin xabardor bo'lub, yo'llarni yaxshi tahqiq qilg'aylar.

[Ammo] Baroq yana zulm og'oz qilib, raiyatdin nima tilab oldi, bo'lg'on ot-u ulog'larni olib, eldagi mollarni kuch bila oldi, to Eron urushining yarog'ini qilg'ay. Mas'udbek dedi: «Bu ish yaxshi ermas. Agar Eron viloyati musaxxar bo'lmasa, yana qaytib munda kelmak kerak». Baroq ul ishdin kechib, o'zga kishi moliga taarruz qilmadi. Aboqaxon, 666 (1267–1268)-yil erdi, Eron mamlakatida (364 *a*) adl-u insof bila mashg'ul bo'lub, Nekudor-o'g'ulkim, Chig'atoyning nabirasi erdi, bir tuman cherik bila [Aboqaxong'a] mulozim erdi. [Baroq] Nekudor-o'g'ulg'a bir o'q yubordikim, mo'g'ullar ani «tug'ana» derlar. Chun ul o'qni Nekudorg'a berdilar, ramz va ishorat bila anga bildirurlarkim, «Bu o'qda nima bor?». Xilvatda ul o'qni sindirurlar, o'qning ichidin bir xat chiqti. Mazmuni ulkim: «Nekudor og'amg'a ma'lum bo'lsinkim, men cherik jam qilib, Eron viloyatiga borg'um turur. Tavaqqu ulkim, chun ul bizning qasdimizg'a otlang'ay, kerakkim, alar ham aning bila otlang'aylar. Andoq qilsunlarkim, ul bizning bila urusha olmag'ay. Har nechunkim, muyassar bo'lg'ay, mamlakatni andin olib, farog'at bila bir yerda bo'lg'aybiz». Nekudor chun ul xatning mazmunini bilib, [Aboqaxondin] ijozat tiladi, to viloyati Gurjistong'a borg'ay. Ijozat topib, anda bordi. Anda borg'ondin so'ng beklari bila kengash qildi. Har kunda elchilar Xuroson viloyatidin kelib, Baroq ahvolidin xabar keltirur erdilar. Aboqaxon Nekudorg'a kishi yubordikim, botroq kelsun, to aning bila kengash qilurbiz. Bu jihatdin necha qatla bir-birining ortidan [chopar] yubordi. (364 *b*) Har qatla bahona qilib, taallul qilur erdi. [Nekudor] beklarga dedikim: «Xotirimg'a andoq kecharkim, Darband yo'lidin yurub, Baroq bila qo'shulg'ayman», – teb o'shul zamon otlanib, Darband sari mutavajjih bo'ldi...

(365 *a*) Aboqaxon Baroqni bosg'ondin so'ng Nekudorni banddin chiqardilar. [Nekudor] o'rdularda xarobzor yurur erdi, to ul zamong'achakim, vafot bo'ldi.

(377 *b*) ...Alassaboh Qaydu Baroq o'rdusidin navha va zori ovozi eshitib, hayron qoldi, – «Bu nedur?». Tahqiq qilg'oli uchun kishi yubordi; bildikim, Baroq o'lgandur. Qaydu Turkon-xotun[1] qoshig'a kishi yubordi. Bildikim, ta'ziyat ochtilar. Osh bergandin so'ng ani bir baland tog' ustiga ko'mdilar. Andin so'ng Muborakshohni aning o'rnig'a o'lturg'uzdilar[2]. Barcha og'a-ini muvofiqat qilib, [Qaydug'a] tobe bo'ldilar. Barcha[si] Qaydu qoshig'a borib, dedilarkim: «Bizning og'amizsen. Sen o'zung bilursenkim, Baroq bizga zulm qilib, mollarimizni olib erdi. Emdi agar molimizni olib bersang, mulozim va navkar bo'lurmiz. Yo'q ersa, parishon bo'lub, har birimiz bir sari

[1] *Turkon-xotun* – asliyatda Navka-xotun; Baroqning xotini.

[2] Asl matnda bu jumla yo'q.

@tarixchi_kutubxonasiga

ketarbiz». Qaydu alarg'a ko'ngul berib [so'zlar] dedi, mol olib berdi, andin so'ng ko'ch etib yondi. Muborakshoh Baroqning xazinasiga kirib, har molkim, bor erdi, barcha[si]ni chiqarib, og'a-inilarig'a qismat qildi, andoqkim, ul moldin hech qolmadi.

(380 *a*) Oqbek otliq [kishining] Aboqaxon mulozamatig'a kelgani, Buxoro sari cherik tortib borg'onining so'zlari

Tarix 671 (1272–1273)da Oqbek otlig' [bir kishi] muddate Omuya[1] qal'asini saqlab turub erdi, Baroqning navkari erdi, elga andin ko'b zahmat yetar erdi, Aboqaxon mulozimatiga kelib, arzadosht qildikim: «Anda turg'on cherik Buxorodin ulufa olib, kuch-quvvat paydo qilurlar, bu sari kelib, elga zarar-zahmat berurlar. Agar ijozat bo'lsa, Buxoroni buzub kelayin». Aboqaxon dedi: «Borib ko'rgulkim, agar Buxoro eli ko'chub Xuroson viloyatig'a kelurg'a rozidurlar, alarg'a hech nima demagil. Yo'q ersa Xurosong'a kelurlarga ko'ngullari yo'q turur – borib talag'il». [Aboqaxon] Nikpay-bahodirni bir tuman cherik bila anga qo'shub (380[b]) Buxorog'a yubordi. Chun Amu suvidin o'tub, Kesh bila Naxshabni necha qatla chopib, andin so'ng Buxorog'a mutavajjih bo'ldilar, kelib qal'ag'a tushib o'lturdilar. Mas'udbek Qaydu mulozimatig'a borib erdi, [Yosudor] Buxorog'a Po'lodchi[2] otlig' bir mo'g'ulni yubordikim: «Aboqaxon farmoni tururkim, Buxoro eli shahami qo'yub, o'g'lon-ushoqlari bila Xuroson viloyatig'a borsunlar». Ammo shahar eli ul so'zga iltifot qilmadi. Ul mo'g'ulni o'ldurdilar. Oqbek bu so'zdin xabardor bo'lub, o'shal zamon shahar sari otlanib, mutavajjih bo'ldi. Buxoro darvozalarini bog'lab, urushtilar. Shahar ichida Sadr-jahon[3] otliq bir buzurge bor erdi, maslahat andoq ko'rdilarkim, yarashqaylar. Ammo Oqbek hinduning xotunini o'g'li erdi[4]. Bomdod [vaqti] darvozani ochtilar. Mo'g'ul cherig'i Buxorog'a kirib, qatl-u g'oratg'a mashg'ul bo'ldilar. Mas'udbekning madrasasig'a o't urub kuydurdilar.

Bu mahalda xabar keldikim, Abdulloh ibn Baydar ibn Chig'atoy[5] o'n ming kishi bila keladur. Oqbek andin ko'chub, mol-asir bisyor olib, Xaromkom[6] suvidin o'tib tushtilar. Tonglasi andin ko'chub, asirlarni (381 *a*) o'ldurdilar.

---

[1] *Omuya* – hozirgi Turkmanistondagi Chorjo'y shahri.

[2] Asl matnda Zirek ibn Lochin.

[3] XII asrning boshlarida Buxoroda shahar raisi va xatibi mansablarini avloddan avlodga meros qilib oluvchi Burhoniylar sulolasi tashkil topdi. Uning vakillari «sadr jahon» unvoni bilan mashhur edilar. Mahmud Torobiy qo'zg'olonidan so'ng bu sulola o'rnini Maqbubiylar xonadoni vakillari egalladilar. Bu yerda shulardan biri, ehtimol, Ubaydulloh sadr ash-sharia yoki Tojiddin Umar nazarda tutilmoqda.

[4] Aslıyatda bunday: «Oqbek hindi ayolning o'g'li, Tojiddin Zirekning nabirasi edi. Bir darvoza unga (ya'ni Tojiddinga – *N.T.*) taalluqli edi».

[5] Asl matnda: «Algu binni Boydar binni Chig'atoyning o'g'illari Chapoy va Qapon 10 ming otliq bilan yetib kelmoqda, degan xabar yetdi», deyilgan.

[6] *Xaromkom* – Buxoro yaqinidagi katta anhor.

@tarixchikutubxonasiga

Bu jihatdin Buxoro xarob bo'lub, yetti yilg'acha Buxoroda hech kishi yo'q erdi. Oqbek bu jihatdin azamat va shavkat paydo qilib, xayol qildikim, qochib Qaydu qoshig'a borg'ay. Navkarlaridin birov shahzoda Arg'un qoshig'a borib, ahvolni arzadosht qildi. Shahzoda Arg'un elchi yuborib, to ani band qilib, Aboqaxon qoshig'a elttilar. Aboqaxon aning gunohini so'rub [edi], iqror qilmadi, tayoqladilar, iqror qildi, uni o'ldurdilar.

NIZOMIDDIN SHOMIY VA UNING «ZAFARNOMA» ASARI HAQIDA

Markaziy Osiyo, ayniqsa, Movarounnahr va Xuroson xalqlari tarixida XIV–XV asrlar buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temur va uning avlodi – Temuriylar sulolasi hukmronligi bilan bog'liq katta siyosiy o'zgarishlar va ayni bir vaqtda iqtisodiy va madaniy, ilmiy va ma'naviy – jamiyat hayotining barcha sohalariga daxldor rivojlanishlar davri bo'ldi. Bu davrdan talaygina yozma meros ham bizgacha yetib kelgan.

Ana shunday yozma yodgorliklarning eng dastlabkilaridan biri Amir Temurning bevosita topshirig'i bilan mohir adib va tarixnavis Nizomiddin Shomiy tomonidan yozilgan «Zafarnoma» nomli asardir.

Asar muallifi **Nizomiddin Shomiy**ning hayoti va ijodi haqida o'rta asrlar va hozirgi zamon adabiyotida ham ma'lumotlar juda oz. Tug'ilgan yili noma'lum. Uning kelib chiqish joyiga nisbat berilib, Shomiy yoki Shanbiy (Shanbi G'ozoniy) nisbasi bilan ham atalishiga qaraganda, u aslida Tabriz chekkasidagi Shanbi G'ozon deb atalgan mavzedan bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin.

«Zafarnoma» asarining yozilishi tarixiga kelsak, shuni ta'kidlash lozimki, mavlono Shomiyning o'zi bergan ma'lumotga ko'ra, 804 (1401 – 1402)-yili Amir Temur uni huzuriga chorlab, o'z yurishlari bitilgan yirik bir asar yaratishga undagan. Sohibqiron o'sha davrga qadar munshiy kotiblari tarafidan tuzilgan bitiklar uni qoniqtirmaganligini aytgan. Yozilajak asar avom xalqqa tushunarli sodda, ravon tilda va ayni paytda ma'rifatli kishilar e'tiboriga ham loyiq tarzda yozilishi lozimligini uqtirgan. Mavlono Nizomiddin asarni uning ko'nglidagidek uslubda yozishni o'z zimmasiga olgan. Nizomiddin Sohibqiron yurishlarini 1404-yil bahorigacha yetkazib, asarni tamomlagan va uni Ozarbayjondan Samarqandga qaytish taraddudida bo'lgan Amir Temurga taqdim etgan. Bundan keyingi Amir Temur vafotigacha (1405-y., 18-fevral) kechgan voqealar keyinroq muarrix Hofizi Abru tomonidan «Zafarnoma»ga «Zayl» – «Ilova» tarzida yozilgan.

Keyingi yillarda respublikamiz mustaqillikka erishishi sharofati bilan Nizomiddin Shomiyning ilgariroq Y. Hakimjonov tomonidan o'zbek

@tarixchi_kutubxonasiga

tiliga o'girilgan «Zafarnoma» asarini chop qilish imkoni paydo bo'ldi. Tarjimani nashrga tayyorlashda Y. Hakimjonov tarjimasi qo'lyozmasini «Zafarnoma»ning mazkur Tauer nashriga izchil ravishda solishtirib, qayta ishlashga, jiddiy tuzatishlar kiritish va hatto ko'pgina sahifalarni yangidan tarjima qilishga to'g'ri keldi. Bu ish A. O'rinboyev zimmasiga tushdi (H. Karomatov ko'magida).

Quyida Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» asarining o'zbekcha tarjimasidan[1] lavha berildi.

A. O'rinboyev

NIZOMIDDIN SHOMIYNING «ZAFARNOMA» ASARIDAN LAVHALAR

Muqaddima

(22) Bu kitob yozilishining sababi shul erdikim, sakkiz yuz to'rtinchi hijriy yilda (1401 – 1402) Amir Sohibqiron hazratlari, – Alloh taolo saltanatlarini zamon oxirigacha barqaror etsin, – kamina bandangiz Nizomiddin Shomiyni huzurlariga keltirishni buyurdi. Men palos o'pish sharafiga musharraf bo'lganimda [ul hazrat] siylash-u izzatlash marosimlarini bajo keltirib, lutf-u ehsonlar ko'rsatdilar. Shundan keyin tarbiyat va bandaparvarlik yuzasidan oliy ishorat sodir bo'ldikim, garchi u zot qilgan ishlarining bu abadiyatga ulangur davlatning boshlanishidan tortib, to hozirgi kungacha bo'lgan tarixini on hazrat uchun yozgan bo'lsalar ham, ammo ular hali munosib tarzda jamlanib, taqdim etilmagan ekan, bu banda (Nizomiddin) ularni yig'ib, ortiqcha so'zlardan tozalab, bob-bob qilib tartib berishga mashg'ul bo'lgaymen, lekin shu shart bilanki, takalluf-u bezak berish, lof urish ziynatidan o'zimni tiygaymen; [asar] uslubi so'z (23) oroyishi-yu iboratorolik san'atidan sof va xoli bo'lg'ay. Yana Sohibqiron hazrat menga: «Shu uslubda yozilgan, tashbih va mubolag'alar bilan oro berilgan kitoblarda ko'zlangan maqsadlar o'rtada yo'qolib ketadi, agar so'z qoida-qonunidan nasibador bo'lganlardan birontasi ma'nisini fahmlab qolsa qolar, ammo qolgan o'ntasi, balki yuztasi uning mazmunini bilishdan, maqsadga yetishdan ojiz. Shu sababli, uning foydasi barchaga barobar bo'lmaydi», – degach, banda (Nizomiddin) yer o'pib arz sharafiga shunday yetkazdim: «Harchand so'z martabalari ko'p va manzillari sanoqsizdir, ammo abadiyatga payvand ushbu davlat soyasida bu faqirning so'z san'atida baqadri imkon qudrati va uning uslublari borasida bu fan arboblari nazdida shuhrati bordir. Olimlar maqbul so'z haqida shunday deganlar: «Yaxshi va ravon so'z uldirkim, avom xalq uning ma'nisini anglagay, xos kishilar esa unga ayb qo'ymagay»...

[1] *Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma.*

@tarixchi_kutubxonasiga

Amir Sohibqiron hazrat: «Men ana o'shandoq so'zni xohlaymen», – dedi. Men duo marosimini bajo keltirgach, arz izzatgohiga shunday deb yetkazdim: «Agar hukmlari joriy bo'lsa, bu banda shu tariqa yo'ldan borgaymen, qudratim yetguncha uning uddasidan chiqishga uringaymen va bu xizmatni umrim sharifi deb bilgaymen». Binobarin, jidd-u jahd kamarini jon beliga bog'lab, bu abadiyatga ulangur davlat qaror topgan davrdan hozirgacha (806-y., ramazon/1404-y., mart) kechgan voqealar, ro'y bergan hodisalarning shohidi bo'lgan yozib oluvchi [kotib]lar va qo'nim joylarda-yu safarlarda voqea-hodisalarni ko'rib, qayd etib borgan mulozimlar [bitiklariga] takalluf-u bezaklarsiz, sof-u pok iboralar libosini kiygazishni va ularni tartibga solib, boblarga ajratib, izchillik bilan aniqlab tahrir qilishni o'zimga lozim, deb hisobladim. Shuning uchun himmat etagini jon beliga bar urib, iroda yengini shimarib, o'zga yumush-u mashg'ulotlarni chetga surib qo'ydim va faqat shu ishga kirishib, ikki tilli qalam yordami bilan bir yuzli qog'ozga yuz tutdim. Men unda Sohibqiron hazratning maqtovli sa'y-harakatlari, maqbul ishlari, to'g'ri fikrlari va xatosiz tadbirlari tarixini bayon qildim, toki bu kitob jahon podshohlari, Odam avlodining (24) donishmandlari, xususan, oliy hazratning qutlug' farzandlari va muborak urug'larining kundalik hayotlarida va podshohlik qonun-qoidalarida ularga saodat ro'znomasi, davlatni [boshqarishning] sardaftari, yo'lboshchi ustodi va ko'ngilochar hamdami bo'lgay. Ular turli mamlakatlarni zabt etishda, uzoq yo'llarni bosib o'tishda, shaharlarni olishda, xalqlarni obodonlik va farovonlikda saqlashda, din va davlatning chigal masalalarini tartibga solishda, mulk-u millat qoidalarini qanot yoydirishda, uni dasturilamal qilgaylar. Ul hazratning fe'l-u harakatlari va so'zlarini yurish-turishlarida murshid, ishlari va g'am-tashvishlarida chora-yu tadbir ko'rsatuvchi deb bilgaylar; u bilan amirlar, vazirlar, pand-u nasihat qiluvchilar va yo'l ko'rsatuvchi maslahatgo'ylarga muhtoj bo'lmagaylar. Umidimiz va ilinjimiz shu, ishonchimiz komilki, bu kitobning foydalari zamona yuzida va kecha-kunduz sahifasida boqiy qilgay. Sohibqiron hazrat nomi jahon turguncha [zamona] sahifasidan o'chmagay, uning haybati ovozasi, salobati zikri olamning Sharq-u G'arbiga yetgay.

MU'NIDDIN NATANZIY VA UNING «MUNTAXAB UT-TAVORIXI MU'NIY» ASARI HAQIDA

Amir Temurga zamondosh muarrix **Mu'iniddin Natanziy** o'zining «Muntaxab ut-tavorixi Mu'iniy» («Mu'iniyning tanlangan tarixlari») asarini 816 (1413–1414)-yilda Sherozda yozib tugatgan va uni dastlab Sohibqironning nevarasi, markazi Sheroz shahri bo'lgan Fors viloyati hokimi Mirzo Iskandar ibn Mirzo Umarshayxga bag'ishlagan. O'zaro urushlarda Iskandarning mag'lubiyati va halokatidan so'ng esa, Natanziy o'z asarini qayta

@tarixchi_kutubxonasiga

tahrir qilib, Hirotda podshoh Shohruxga taqdim etadi. Shu sababli, mazkur asar bizning davrimizgacha ikki tahrirda yetib kelgan va ular o'rtasida ayrim tafovutlar mavjud.

«Muntaxab ut-tavorixi Mu'iniy» umumiy tarix uslubida yozilgan bo'lib, eng qadimgi davrlardan to Amir Temur vafotigacha (1405-y.) Markaziy Osiyo va boshqa ba'zi o'lkalardagi muhim tarixiy voqealar bayoniga bag'ishlangan. Muallif Amir Temur yashagan va hukmronlik qilgan davr voqealarini birmuncha mufassal tarzda qalamga oladi. Jumladan, Sohibqironning yoshlik yillarida o'lkada yuz bergan muhim siyosiy voqea, ya'ni turk amiri Qazag'onning mo'g'ul xoni Qozonxonni taxtdan ag'darib, o'n ikki yil davomida (1346 – 1358) Movarounnahrni mustaqil idora etishga intilgani, ayniqsa, u yuritgan ichki siyosat bizga, asosan, Natanziy asari tufayli ma'lumdir. Shuningdek, 1365 – 1366-yillardagi Samarqand sarbadorlari qo'zg'oloniga ham Natanziy o'sha davrdagi Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy kabi tarixchilarga nisbatan o'zgacharoq nigoh bilan yondashib, ushbu xalq harakatiga oid muhim va nodir tafsilotlarni bayon qiladi.

«Muntaxab ut-tavorixi Mu'iniy» Sohibqiron Amir Temur faoliyati izchil ravishda yoritishga harakat qilingan ilk tarixiy manbalardan biri sifatida ham qimmatlidir. Unda Sohibqironning Turon ozodligi uchun olib borgan kurashi, markazlashgan davlatni mustahkamlash uchun qilgan tadbirlari, shuningdek, jahongirlik yurishlari o'ziga xos tarzda va ixcham ravishda aks ettirilgan.

«Muntaxab ut-tavorixi Mu'iniy»ning qo'lyozma nusxalari London, Parij, Sankt-Peterburg, Tehron va Mashhad shaharlaridagi kutubxonalarda saqlanmoqda. Asarning so'nggi qismlari (muallif o'z asari qismlarini «tabaqalar» deb atagan) 1956-yilda fransuz sharqshunosi Jan Oben tarafidan Tehronda chop qilingan. Quyida keltirilgan parchalar ushbu nashrdan tarjima qilindi.

G'. Karimov

MU'INIDDIN NATANZIYNING «MUNTAXAB UT-TAVORIXI MU'INIY» ASARIDAN LAVHALAR

Movarounnahrda isyon ko'targan amirlar tabaqasi

Ular sultonlikni amirlikka mubaddal qilishdi va ular to'rt kishidirlar.

Qozonsulton[1] qonxo'rlikni haddidan oshirib, katta amirlar qatliga qo'l ura boshlagach, Qazag'on no'yon – u qoraunos[2] qavmidan bo'lib, Munk va

[1] *Qozonsulton* yoki *Qozonxon* Chingizxon avlodidan, 1343 – 1346-yillarda Chig'atoy ulusida hukmronlik qilgan.

[2] *Qaraunos* – Natanziy asaridan anglashilishicha, qaraunoslar Chig'atoy ulusidagi harbiy jihatdan kuchli qavmlardan biri bo'lgan. Ular asosan amir Qazag'on, uning vafotidan so'ng esa, uning nevarasi amir Husaynga bo'ysunishgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Solisaroy[1] shaharlari hokimi edi – unga qarshi isyon ko'tardi va ikki marta u bilan jang qildi. Ikkinchi jangda u Qozon sultonni o'ldirdi va mamlakat ixtiyorini o'z qo'liga kiritdi. Chunonchi, «Chig'atoy urug'i tabaqasi»da zikr qilinganidek, ixtiyorsiz podsholarni taxtga o'tirg'izib, inon-ixtiyorni tamomila o'z qo'liga oldi. Bir qancha muddatdan so'ng, yovvoyi hayvonlarni ov layotgan paytida noma'lum bir kishi uning yo'liga pistirma qo'ydi va uni o'ldirdi.

Undan so'ng o'g'li xuddi shu tarzda bir yil chamasi hukmdorlik qildi. So'ngra esa har toifaning o'z hukmdori paydo bo'ldi, ya'ni har qabila bir odamni o'ziga bosh qilib, fitna-yu g'alayonlar ko'tardilar. Chunonchi, sulduz qavmiga amir Bayon, jaloyir qavmiga amir Boyazid bosh bo'ldi hamda Kesh va Naxshab lashkarlarini Hojibek Barlos, yasovur qavmini amir Xizr, Andxo'y va Shibirg'onni Hamidxoja nayman o'z qo'llariga kiritdilar. Amir Qazag'on avlodlari Kobul va G'aznaga ravona bo'ldilar. Tug'luq Temur podshoh Mo'g'ulistondan xuruj qilib, Movarounnahrni raqiblaridan tozalab, o'z o'g'li Ilyosxoja o'g'lonni Samarqandda qo'ydi. To'qtemur Kichik va Bekichakni uning yonida qoldirdi. Hazrat Sultoni G'oziyni[2] ham unga (Ilyosxoja o'g'longa) mulozimlikka nomzod qildi. Ularning orasida bir necha nizolar bo'lib o'tgach, Hazrat Sultoni G'oziy ulardan (mo'g'ullardan) o'zini chetga tortdi va Qandahor Garmsiridan amir Husayn Musallab ibn amir Qazag'onni [daraklab topib] boshlamish qildi.

Sultoni G'oziy Movarounnahrga kelgach, Toshko'prik yonida Ilyosxoja o'g'lonni mag'lub qildi va takomish[3] qilib ortidan quvladi. Naxshab yonidagi Oqqurada yana jang qildi va mo'g'ul amirlarini asirga olib qatl etdi. Movarounnahrni ularning kasofatidan tozalagach, amir Husaynni amirlik taxtiga o'tirg'izdi. Sultoni G'oziy amir Husaynning singlisi O'ljoy Turkon Og'aga uylandi va shu xotinining hayotlik paytida u tufayli o'rtalarida (Amir Temur va amir Husayn o'rtasida) hamjihatlik va ittifoq barqaror edi. So'ngra esa hasadgo'ylar ikkalasi o'rtasida nizo chiqarib, ishni shu darajaga yetkazishdiki, bu hikoyat sharhi so'ngroq hazrat Sultoni G'oziy tarixida mufassal bayon qiling'usidir. Inshaallohu taolo, vassalom.

Hazrat Sultoni G'oziy, – Alloh uning dalilini munavvar qilsin, – haqidagi ko'pgina hikoyalar «Movarounnahr amirlari qissa»sida bitildi. Binobarin, ularning (amirlarning) axborlari oldingi hukmdorlar axborlariga nisbatan uzunroq bo'ladi.

---

[1] *Munk va Solisaroy* – Jayhun (Amudaryo) sohilidagi shaharlar.

[2] *Sultoni G'oziy* – ma'nosi «din uchun kurashuvchi sulton» bo'lib, Natanziy o'z asarining ko'p o'rinlarida Amir Temurni ushbu laqab bilan atagan.

[3] *Takomish* – mag'lub bo'lgan dushman ortidan quvlab zarba berish.

@tarixchi_kutubxonasiga

Amir Qazag'on zikri

Qozonsulton xonlik taxtida mustahkam o'rnashgach, butun (199) Movarounnahr mamlakatini Qoraxoja[1] chegarasidan to Dashti Qipchoq chekkasigacha, Xuroson nohiyasini to Sind daryosi sohillarigacha o'z qo'liga kiritdi. Shundan so'ng zo'ravonlik qo'lini cho'zib, ulug'lar, amirlar va arkoni davlatni yo'qotmoqqa mashg'ul bo'ldi.

Ish shunga borib yetdiki, u har kuni yuzlab odamni jazo maydoniga eltardi. Oqibatda davlat amirlari va mamlakat aminlari ham o'z jonlari salomatligini o'ylab, ham uning [hokimiyat tepasida] turishi uzoqqa cho'zilgani jihatidan, har biri bir tadbirga qo'l urib, har qaysisi bir ta'birga mashg'ul bo'ldilar. Oqibat [qazo] irodasi shu bo'ldiki, bu xonadon inqirozga yuz tutib, Qozonxonning xonumoni xarob bo'ldi. Amir Qazag'on isyon ko'tarib, uning ustidan g'alaba qozondi va yetti yuz qirq yettinchi sanada uni shunqor qilib, jami amirlar bilan ittifoqlikda mashhur O'ktoy qoon naslidan bo'lgan Doshmanchani[2] taxtga o'tirg'izdi va [uning] qalamravidagi butun mamlakatlar ixtiyorini o'z qo'liga oldi. Doshmanchaning shunchaki bir nishon sifatidagi nomini aytmasa, amir Qazag'on uning mulk va xazina ishlariga aralashuviga yo'l qo'ymadi. Fitnachi badkor odamlar uning oldida so'zlashga og'iz ocholmasliklari uchun ishonchli voqeanavislarni mulozim va keshiktonlar[3] nomi bilan uning o'rdusiga [xizmatga] tayinladi. Alqissa, ikki yil ichida mamlakatda barqarorlik o'rnatilib, fitnachilar dimog'ini sharorat tark etib, yomonliklar bosilgach, amir Qazag'on Doshmanchaga O'ktoy qoon naslidan degan ayb qo'yib, uni shahid qildi va Chig'atoy naslidan bo'lgan Bayonqulini saltanat taxtiga o'tqazdi. Doshmanchaning ko'rguliklari uning ham boshiga tushgani tufayli, u zaruratdan zamona mijoziga moslashdi va saltanat gilamida amir Qazag'on bilan nadim kabi nard o'ynadi. Bu ikki ulug' zotning ittifoqi mujdasi va Qazag'onning adolati tufayli mulk-u millat ishlari shu darajada mustahkam va ustuvor bo'ldiki, bo'ri bilan qo'y bir suvloqdan suv ichib, darvish kulbasi [bexatarligidan] najot uyiga aylandi. Zulm nomi va sitam nishoni hayot yuzasidan batamom yo'qoldi. Oddiy odamlar va ulug'lar, musofirlar va muqimlar, katta-yu kichik, xos-u om – hech kimning dilida ro'zg'or gardishidan shikoyat g'ubori qolmadi va Anushirvon adolati haqidagi hikoyatlar xalq xotirasidan unutilib ketdi. Uning adli o'lchovi shu qadar yuksakka yetdiki, biron amir yoki vazir mol-mulkdan ushr solig'i va rasmiy qabchurdan[4] boshqa biron ism, biron rasm bilan hech bir bandadan bir dinor ham ololmasdi. Misol sifatida, agar musofirlarning o'tib-ketish va

[1] *Qoraxoja* – Sharqiy Turkistondagi qadimiy shahar.
[2] Boshqa ba'zi manbalarda «Donishmandcha» shaklida yozilgan.
[3] *Keshiktan* – xon o'rdasi posboni.
[4] *Qabchur* – chorvadan olinadigan soliq.

@tarixchi_kutubxonasiga

qo'nish joyi sher uyasi va ajdaho komida joylashgan bo'lsa ham [ular bu yerda] o'z uylari va najot xonasidan ko'ra osudaroq bo'lishardi. Shamoldan boshqa biron mavjudot Alloh bandalarining eshigidan o'zboshimchalik bilan [ijozatsiz] kirmasdi.

Mulk ishlari yo'lga qo'yilib, saltanat quvvati mustahkamlangach, yaylоqni Toharistonda, ya'ni Xatlon va Munk shahrida, qishloqni esa Jayhun sohilida joylashgan Solisaroyda muayyan qildi.

Aziz umrining har kunini besh qismga taqsimlagan edi. Subhi sodiq jilvalari ko'ringan paytdan to quyosh chiqqungacha ibodatga mashg'ul bo'lardi. Choshtgoh paytidan to peshingacha arz va shikoyatlar mahkamasida o'tirardi. Peshindan to shomgacha lochin uchirmoq va tozi choptirmoq bilan vaqtini o'tkazardi. Shomdan to xuftongacha o'z haramida yuzi berk ayollar bilan xilvatda bo'lardi. Shundan so'ng o'zining keshik qo'yilgan muborak xobgohiga borib orom olardi. Uning davri davroni paytida farovonlik shu darajada ediki, semiz qo'yni bir dinorga, bir xarvor buyumni bir dirhamga xarid qilsa bo'lardi. Ahyon-ahyonda yurishga jazm etsa, sahronishin mo'g'ullarning qudrat va imkoniyati shunchalik ediki, har chodirdan bir otliq kelsa ham lashkar adadi o'lchovga sig'masdi va hisobchi uning zafaryob lashkargohidagi chodirlarni taxminan hisoblamoqqa urinsa ham yillar davomida hisobiga yetolmasdi. Zamondosh maliklar unga mute bo'lib, olam mamlakatlari itoatga kelib, uning farmoniga bo'ysunishardi. O'z joyida maqtovli xislatlari va maqbul axloqi bayon qilingan Jonibekxon bilan [Qazag'on] o'rtalarida bo'lib o'tgan ixtilof va tortishuvlar mufassal so'zlangandi. Shu zamonda u O'zbek taxtida[1] hukmron edi. Ashraf Cho'poniy Ozarbayjonga ega bo'lib, Shayx Abu Is'hoq Injuyi Fors, Iroq va Kirmonda hokim edi.

Chunonchi, [ularning] har birining [hikoyasi] oxirida aytib o'tilganidek, o'z davri o'rtalarida amir Qazag'on qaysidir bir tarafga yurish qilib, to'ng'ich va valiahd o'g'li amirzoda Abdullohni o'zining qoyim maqomi sifatida o'rduda qoldirgandi. Amirzoda Abdulloh otasining buyrug'isiz ochko'z amirlar ig'vosi bilan Xorazmga lashkar tortdi va muzaffar lashkariga shahar tashqarisida [chodirlarning] arqonlarini [bir-biriga] tutashtirib, qarorgoh qurishni buyurdi. Bu voqea amir Qutlug' Temur, – Xudo uning dalilini munavvar qilsin, – vafotidan so'ng yuz bergan edi. Qubbat ul-islom Xorazm hokimsiz qolgan, jamiki xos-u om lashkar dahshatidan o'zini yo'qotgan bo'lib, uni qay tarzda va qay bir tadbir bilan daf etishni bilishmasdi. Shu hol asnosida, savdogarlar o'lkasi halokat jari yoqasida turganda, Xoja Ixtiyoriddin Hasan Sovarj, – Xudo uni rahmat qilsin, – amirzoda Abdullohning istiqboliga chiqdi va ostonbo'slik davlatiga

[1] *O'zbek taxti* – mashhur O'zbekxon (1312–1340) hukmronlik qilgan Oltin O'rda (Dashti Qipchoq) mamlakati.

@tarixchi_kutubxonasiga

musharraf bo'lgach, xorazmliklarning ojiz va notavonliklari haqida unga arz qildi. Nihoyat, shunga qaror qilindiki, [xorazmliklar] xazinaga na'lbaho to'laydigan bo'lishdi. Farmonga binoan, Hasan Sovarj amirzoda Abdulloh devoniga ikki yuz tuman xorazmiy topshirdi. Shu orada yana turli xil tuhfa-yu sovg'alarni ham peshkash sifatida yetkazdi. U chandon munosib xizmatlar va shoyista qulluqlar zohir etdiki, amirzoda Abdulloh shu kun, shu soatning o'zida Xorazm tashqarisidan ko'chish va qaytish nog'orasini chalib, o'zining sharif maskaniga qaytib ketdi. O'sha yili bu lashkarga hamroh bo'lgan, ba'zi ko'pni ko'rgan qariyalar shunday naql qilishadi: [yo'lga] otlanish va orqaga qaytish paytida yo'l ustida joylashgan viloyatlar aholisi begona lashkar o'tganidan qat'iyan va aslo zarracha ham ozor ko'rmagan va biron jonzotga hech bir jihatdan zarar yetmagan.

Ushbu barcha ehtiyotkorliklarga qaramay, amir Qazag'on amirzoda Abdullohdan ranjidi va unga hamroh bo'lib borgan amirlarga qattiq dashnom berdi: «Nima sababdan musulmonlar mol-mulkiga qasd qildingiz? Bir iqlimdan shundoq sonsiz lashkarni olib o'tdingiz va sizning o'tishingizdan fuqaroga, ojizlar va bechorahol odamlarga turli ozorlar yetdi».

Maqsad shuki, [Qazag'on] u davrda hayot tarzi shundoq bo'lishini talab qilar va bundan lazzatlanardi: raiyat o'ziga tinch bo'lib, lashkar ko'chmanchilik qilib [o'zini ta'minlash], amirlar o'z qo'l ostidagilarning ahvolini yaxshilash, sulton qurilish ishlari va dehqonchilikni rag'batlantirish, ulamo diniy ishlardan dars berib, mashoyixlar yaqin [ilmi] qoidalarini tahqiq qilish, imom va qozilar payg'ambar shariatiga rivoj berish, [xullas] har odam o'z holiga yarasha [biron yumushga] mashg'ul va har toifa o'z ishida farmonbardor va tirishqoq bo'lib, xalq nihoyatda osuda hayot kechirardi.

Aksar vaqtlar amir Qazag'on otlanib, yovvoyi hayvonlar oviga chiqardi. [Ovga] g'oyat ishqibozligi tufayli bir kuni «qazo etsa, ko'z ko'r bo'lur» [matali] hukmiga binoan, qadar hokimi uni basiratdan judo etdi va u o'n besh nafar ovchi, chuhra va axtachi bilan hamishagi odatga ko'ra lochin uchirishdi. Jayhun sohili tarafga otlanib, [yovvoyi hayvonlarni] o'rovga olishni buyurdi. Qutlug' Temur nomli allaqanday bir mo'g'ul bir nechta otliq bilan fursatni poylab pistirmada turgandi, nogahon amir Qazag'onning yo'li shu mal'un oldiga tushib qoldi. Qutlug' Temur ish murodiga muvofiqligini ko'rgach, to'satdan pistirmadan chiqib, amir Qazag'on ustiga tashlandi va shu zahotiyoq shahodat saodatiga yetkazib, osuda jahonni beorom qildi.

Amirzoda Abdullohning taxtga chiqishi

U otasi vafotidan so'ng hukumat taxtiga o'rnashib olgach, bir yil chamasi mamlakat ishlari va yurtni idora etish asoslari amir Qazag'on davri rusumiga muvofiq ustuvor va batartib edi. Ammo yoshi kichikligi va tajribasi kam-

@tarixchi_kutubxonasiga

ligi tufayli [otasi o'rnatgan tartiblarning] ba'zilaridan voz kechdi va hatto, shu tariqa ularni butunlay yo'qotmoqqa kirishdi. Shu sababli saltanat ishida har tarafdan raxnalar va har tomondan o'pirilishlar sodir bo'ldi va uning (amirzoda Abdullohning) ahvolida butunlay parishonlik yuz berdi. Uning yo'l qo'ygan birinchi xatosi – qutlug' qadamli, saodat mujdali va humoyun chehrali podshoh Bayonqulixonni, – Alloh uning dalilini munavvar qilsin, – hech bir sababsiz va hech qanday aybi bo'lmagani holda shahid qilgani edi. Shu voqea tufayli barcha katta amirlar vahimaga tushdilar va bayakbor itoatsizlik alomatlarini zohir eta boshladilar. Hatto, amir Bayon Sulduz va amir Hoji Barlos birgalikda isyon ko'tarib, amirzoda Abdulloh ustiga keldilar va jang-u jadalsiz uni qo'lga olib shahid qildilar. Mashhur amir Qazag'on naslidan yana kimki qo'lga tushgan bo'lsa, barchasini o'ldirdilar va amir Bayon amirlik taxtiga o'rnashdi.

Podshoh Tug'luq Temurning qayta kelishi

Viloyatda: «Podshoh Tug'luq Temur beadad lashkar bilan Movarounnahrga otlanibdi», – degan ovozalar tarqaldi va rostdan ham bu xabar izidan paydar-pay mo'g'ul qo'shini yetib keldi. Amir Temur va amir Hoji Barlos oliy o'rduga borishdi va yana bir marta itoat va bo'ysunish kamarlarini belga bog'lab, hamjihatlik va xayrxohlik vazifasiga [tayyor ekanliklarini] ko'rsatishdi. Podshoh Tug'luq Temur hayallamay amir Boyazid Jaloyirni qatl ettirdi. Amir Hoji Barlos xayoliga o'rnashgan bu voqeadan vahimaga tushib, qochmoqqa qaror etdi va bir o'zi Shahrisabzga keldi. Lashkarlarni jam qilgach, Jayhundan o'tib Xurosonga jo'nadi.

Bu gal ham Amir Temur amir Hoji Barlosga ergashmadi va ulug' o'rdu mulozimatida qoldi. Do'stona aloqalar va o'tmishda bir-birlariga qilgan yaxshiliklari tufayli Amir Temurga bog'langan amir Hamid hazrat podshohning muqarriblaridan edi. U Amir Temurni podshoh huzuriga eltib, qattiq himoya qildi, natijada podshoh bu gal ham merosiy ulusini unga suyurg'ol tarzida inoyat qildi.

Movarounnahrda mustahkamlanib olgach va viloyat [muxoliflardan] tozalangach, podshoh amir Husaynni ham daf etmoqqa qaror qildi va unga qarshi borish uchun lashkar tayin qildi. Amir Husayn Vaxsh suvi bo'yida [jangovar] saflarni rostlab, qarshilik ko'rsatishga [tayyorlanib] turdi. Mo'g'ul lashkari yetib kelgach, birinchi to'qnashuvdayoq amir Husayn davlatining ulkan ustunlaridan bo'lgan Kayxisrav birdan amir Husayndan yuz o'girib, mo'g'ul lashkariga borib qo'shildi.

Na o'lik va na tirik ahvolda bo'lgan amir Husayn cho'l-u biyobonga bosh olib ketdi va o'zining fano bo'lgan xonumoniga fano chahor takbirini o'qidi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Mo'g'ul lashkari Qunduz va Bag'lonning jami navohisini to Hindukush tog'i etaklarigacha zer-u zabar qildilar. Shu yil kuzida amir Yasovuriy ham Tug'luq Temur farmoniga ko'ra, yosoqqa yetkazilib, shahodat martabasini topdi.

Mamlakat boshdan oyoq [raqiblardan] tozalangach, podshoh Tug'luq Temur o'z o'g'li Ilyosxoja o'g'lonni Movarounnahr taxtiga o'tirg'izdi va o'zining arjumand qarorgohiga qaytdi. O'z taxtiga mulozim bo'lgan umarodan amir Bekichakni o'g'liga [noib qilib] tayinladi va o'z xohishiga binoan butun mamlakatni uning qo'liga topshirdi. Amir Temur ham farmonga ko'ra mulozimlar sirasiga kirardi. Ammo amir Bekichak o'z ochko'zligi va tamagirligi sababidan zulm qo'lini cho'zib, boshqa barcha amirlarning hayot kechirish va aysh-ishrat qilish vositalarini bog'ladi. Chunonchi, hech bir jonzotning biron joyda [ruxsatsiz] nafas olmoq yo qadam bosmoqqa ham majoli qolmadi. Amir Temur voqealar oqillar tasavvuriga zid va [bunday] muomalaning oqibati ayni balo ekanini ko'rgach, jonajon vatani va besh yuz yil davomida nomdor ajdodlari qo'l ostida bo'lgan ulusi bilan zaruriyat yuzasidan vidolashib, sargardonlikni zabunlikdan afzal ko'rib, navkarlari bilan yakdil va hamjihat tarzda ittifoq bo'lib, amir Husayn talabida cho'l-u biyobonga otlandi va to unga borib qo'shilmaguncha, biron manzilda bir lahza ham qaror topmadi...

HOFIZI ABRU VA UNING ASARLARI HAQIDA

Hirotlik tarixchi **Shahobiddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid Haraviy (Xavofiy)** fanda ko'proq **Hofizi Abru** laqabi bilan mashhur bo'lib, Temuriylar davrining asosiy tarixchilaridan biri edi. Uning hayoti haqida juda kam ma'lumot saqlangan, tug'ilgan yili noma'lum, vafoti 1430-yil, Zinjon shahri yonida dafn etilgan.

Hofizi Abru dastlab Amir Temur xizmatida kotiblik qilgan va ayni paytda tarixnavislik bilan ham shug'ullangan; geografiya va geodeziyani yaxshi bilganligi, she'rlar bitganligi ham ma'lum. Umuman olganda, u o'z davrining keng qamrovli olimlaridan bo'lgan deyish mumkin. Amir Temur vafotidan so'ng Hofizi Abru Temuriylar davlatining poytaxti Hirot shahrida Mirzo Shohrux saroyida tarixnavis bo'lib xizmat qiladi.

Hofizi Abru tarixnavislik faoliyatining boshlanishida Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» asariga «Ilova» («Zayl») yozib, unda tarixiy voqealar bayonini Amir Temurning yetti yillik yurishidan qaytish chog'idan boshlab, to uning vafotigacha yetkazgan. Umuman olganda, Hofizi Abru ikkita yirik asar yozib qoldirgan.

Ulardan biri fors tilida, tarixiy-geografik mazmundagi asar bo'lib, maxsus nomi yo'q, fanda, odatda, «Hofizi Abruning tarixi» nomi bilan tanil-

@tarixchi_kutubxonasiga

gan. Muallif ushbu asarini 1414-yilda yozishga kirishib, keyingi yillarda to'ldirib borgan va 1420-yil nihoyasiga yetkazgan. Asar ikki jilddan iborat: birinchi jild – Yerning geografik tavsifi, Fors va Kirmon o'lkasining qisqacha geografiyasi va tarixini; ikkinchi jild – Xuroson geografiyasi va tarixi hamda Movarounnahrning qisqacha geografik tavsifini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi asar to'rt jilddan iborat «Majmai tavorixi sultoniya» nomli yirik tarixiy to'plam bo'lib, uning to'rtinchi jildi «Zubdat at-tavorixi Boysung'uriy» deb atalgan. To'rtinchi jild Amir Temur va Mirzo Shohrux saltanati tarixini o'z ichiga oladi, fors tilida, 1423–1427-yillar davomida yozilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan har ikkala asar ham qimmatli manba hisoblanib, hozirgi paytda ulardagi ma'lumotlar asosida talaygina ilmiy ishlar yozilgan, ulardan lavhalar tarjima qilingan. Biroq hanuzgacha ikkala asar biror tilga to'la ilmiy tarjima qilinmagan.

Quyida biz Hofizi Abru asarlaridan obodonchilik va madaniy hayotga hamda Amir Temur shajarasiga oid lavhalarni tarjima qildik.

O. Bo'riyev

HOFIZI ABRUNING «GEOGRAFIYA» ASARIDAN LAVHALAR

Movarounnahr tavsifi[1]

Ma'muraning Movarounnahr deb ataluvchi qismi, asosan, yetti iqlimning beshinchi iqlimida joylashgan. Ul mamlakatning boshlanishi g'arb tomondan, Xolidot orollaridan boshlab hisoblanganda uzunligi to'qson besh daraja bo'lgan joydir va bu Xorazmning uzunligiga to'g'ri keladi; to Koshg'ar va Xo'tangacha, uning uzunligi bir yuz yetti daraja. Ana shu o'n ikki daraja uzunlikni Movarounnahrga tegishli, deb biladilar. Uzunlik (Atlantika) sohilidan hisoblangan ba'zi bir [zijlar] nusxalarida bundan o'n daraja kam ko'rsatilgan; ya'ni boshlanishi – sakson besh darajadan, oxiri – to'qson yetti [darajagacha].

Movarounnahr maqtovida shunday dermishlar: «Unda gullab-yashnagan joylar haddan ziyod va obodonchilik, shahar, qishloq, ekinzor qilinmagan joyning o'zi topilmaydi. Havosi havolarning eng sog'lomi, suvlari mavjud suvlarning eng totlisidir. Shirin suvli buloqlar uning barcha tog'larida va vodiylarida mavjud; dasht-cho'llari beqiyos xushmanzara erur. [Yirik] shaharlari: Buxoro, Samarqand, Termiz, Xo'jand. Odamlari din va ilmda eng yaxshi va solih, saxovatpesha va dovyurak erurlar. Dunyoning iqlimlari ichida yeri unumdor va noz-ne'mati shuhrat qozongan [joy]lardan biri Movarounnahrdir.

[1] Movarounnahr tavsifi Hofizi Abru «Geografiya»sining faqat Bodleyan (Oksford) kutubxonasi qo'lyozmasida saqlangan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Kengligi Omuya va Jayhundan, bu to'rtinchi iqlimning oxiri va beshinchi iqlimning boshlanishidir, to Choch va Farg'onagacha, bu beshinchi iqlimning oxiri, shuningdek, Koshg'ar va Olmaliqqacha, bu oltinchi iqlimning boshlanishidir. [Gradus hisobida] o'ttiz to'qqiz darajadan to qirq to'rt darajagacha, jami besh daraja. [Shundan] taxminan chamalaganda, Movarounnahrning maydoni yuz farsang bo'ladi.

Ba'zilar Movarounnahr mamlakatini bir tomondan, Omuya daryosi va ikkinchi tomondan, Sayhun[1] daryosi oralig'ini [aytadilar]. Kitoblarda uni Jayhun va Sayhun davlati [ham deb yozganlar]. Chegaralari: Movarounnahrning shimoli-sharqiy chekkasi – Koshg'ar va Xo'tan viloyati to Mo'g'uliston hududigacha, undan so'ng Uyg'ur yeri keladi. Movarounnahrning g'arbiy chekkasida Xorazm joylashgan, Xorazmni [odatda] Movarounnahrga kiritadilar. [Ammo] ba'zilar Xorazmni Jurjonga tegishli, deb biladilar. [Movarounnahrdan] shimoli-g'arbiy tomonda Dashti Qipchoq, O'zbek diyori va Turkiston joylashgan. Uning janubida bir cho'l (Qoraqum) borkim, u Xorazmni Xuroson va Xazar dengizidan ajratib turadi. Movarounnahrning shimoli oltinchi iqlimga kiradi, ya'ni Olmaliq va Balasog'undir, ular barchasi Turk mamlakatidir. Movarounnahrning janubiy tomonida Jayhun daryosi bo'lib, u Xuroson o'lkasi bilan Movarounnahr o'rtasida chegara hisoblanadi. Shu sababdan uni Movarounnahr[2] deyishadi.

Movarounnahrda turli qazilma boyliklar bor: oltin, kumush, simob, temir, mis; nashatir koni esa faqat shu o'lkada bor, xolos. Ul mamlakatda neft koni ham bor; bu ma'dan Turkiston bilan Mo'g'uliston to Xo'tan hududigacha bo'lgan tog'lardadir, ular barchasi Turonzaminga taalluqli. Kishilar ehtiyoji uchun nimaiki zarur bo'lsa, Movarounnahr mamlakatida yetishtiriladi. Movarounnahrning ajoyibotlari: u yerda tog'da bir g'or bor va undan bir buloq sizib chiqadi. [Buloq suvi] qishda shunday issiqki, biror kishi unga kirmoqchi bo'lsa issig'iga chidolmaydi; yozda esa o'ta sovuq, hatto muzlaydi.

Turkiston bilan Movarounnahr oralig'idagi tog'da qora tosh bor, xuddi toshko'mirga o'xshab yonadi. Uni ot-ulovlarda (ko'plab) olib kelishadi va odamlar sotib oladilar. Yonib bo'lgandan so'ng, undan oq modda – kul hosil bo'ladi va undan ishqor sifatida foydalanadilar.

Yana bir tosh borkim, uni suvga solsalar do'l va yomg'ir yog'adi, shamol [paydo] bo'ladi. Ahli hikmat, [ul joy uchun] xos bo'lgan narsa ana shu tosh erur, deydilar. Barcha ishlarning haqiqatini faqat Alloh bilguvchidir.

[Movarounnahr yer yuzidagi] barcha mamlakatlar ichida noz-ne'mat eng ko'p joy sanaladi, iqlimi sog'lom. Ul diyorda ocharchilik va vabo kam-

[1] *Sayhun* – matnda xato: «Jayhun» yozilgan.

[2] *Arabcha «Movarounnahr»* – «Daryoning narigi tomonidagi [yerlar]», degan ma'noni anglatadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

dan kam hollardagina bo'ladi. Agar ahyon-ahyonda ekinlarga biror zarar tegib qolgan taqdirda ham ularning o'tgan yilda yig'ib qo'ygan zaxiralari shunchalik ko'p bo'ladiki, yana bir yildan ortiq muddatga ham yetadi. Ul mamlakatda turli navdagi mevalar farovon erur. Movarounnahrning tog'larida pista o'sadi. Hirotning Bodg'is [viloyatidagidek].

Movarounnahrning bir-biridan go'zal to'rtta [yirik] shahri bor.

Nazm:

Movarounnahr mamlakati bo'ylab,
To'rtta shahar bor, bir-biridan go'zal.
Avval Buxoro – ilm va fazilat manbai,
Rum va Chin diyorlariga ham dong'i ketgan.
Ulug' Samarqand shahri – saltanat makoni,
Shuhratda shaharlar ichra nigínli[1] toj kabidir.
Undan so'ng Termiz – saxiylar va avliyolar maskani,
[Ko'rkam] suv bo'ylari zilol daryolarning rashkini keltiradi.
Xo'jand shahri ul mamlakatda,
Kayf-safo joyi, obod mavze va sufiylar vatani erur.

Movarounnahr aholisining ot-ulov va chorva mollari ko'p. Ul mamlakatda tuya junidan juda chiroyli chakmon tayyorlaydilarkim; barcha iqlimlarga shu yerdan olib ketadilar.

Movarounnahr o'lkasi Turkistonning bandargohidir[2], tulki, suvsar va olmaxon teri-mo'ynalarini ko'pincha shu yerga olib keladilar va u yerdan turli iqlimlarga olib ketadilar.

Movarounnahr aholisi ulug'vorlik va mardonalik ila dong taratgan.

Aytmishlarkim, [bir kuni] Kashosif Jomosbdan: «Mening o'g'illarim mard, lashkarim buyruqni bajaradigan va qizlarim iboli bo'lishi uchun nima qilishim kerak?» – deb so'raganda, u: «Lashkarni Movarounnahrdan yig', xotinni Rumdan ol va Balxda yashagin», – deb javob qilibdi.

Xalifa Ma'mun (813–833) askarlar maqtovi haqida so'z qotganda: «Movarounnahrdan bir kishi Shomdan ikki va Iroqdan bir kishiga [teng keladi]», – degan ekan.

Movarounnahr islom zamonida Somoniylar davlati davrida juda obod bo'ldi, ayniqsa, Buxoro uning poytaxti edi. [Buxoro shahri] qadim zamonlardan buyon suvining xushta'mligi, havosining tozaligi, xizmatkorlarining epchilligi, chorvasining ko'pligi, noz-ne'matlar mo'l-ko'lchiligi va xalqining bisyorligi bilan tanilgan va mashhur ekan.

---

[1] *Nigin* – qimmatbaho tosh; podshohning muhri, uzuk.

[2] *Bandargoh* – cho'l, dasht va tog'li yerlarda yo'llar kesishgan, gavjum, karvonlar qo'nib o'tadigan joy.

@tarixchi_kitoblarimasiga

Ayniqsa, ulug' amir hazrat Sohibqiron (Amir Temur)ning, – Alloh uning shuhratini yorqin qilsin, – humoyun zamoni va baxtli ayyomida, [Movarounnahr] yer yuzi mamlakatlarining poytaxti bo'ldi. Jahonning turli joylaridan hunarmandlar, fozillar va muhandislar ul yerga kelib yashay boshladilar. Ul diyorning odamlari Onhazrat va uning bola-chaqalari xayrixohligi soyasida hamda marhamati himoyasida turfa hodisalardan asralgan va omonlikda umr kechiradilar. Hozir, ya'ni hijriy sana 823 (1420)-yilga yetganda, o'n bir yil bo'ldiki, jahon va jahon ahlining hukmdori, saodat va hukmronlik falakining quyoshi, parvardigor inoyati ila tasdiqlangani haqiqat, davlat, din va dunyo homiysi Ulug'bek ko'ragon, – Alloh uning podshohligini va sultonligini abadiy etsin, – davlati baxtiyorligida tinchlik-osudalik quyoshi ul [o'lka]ning havosi va fazosida parvozda erur; obodonchiliklari itir falagi[1] bilan hamroz bo'lmish: tevarak-atroflari esa tozalik va tarovat bobida jannat bog'lari bilan tenglashmish; turli noz-ne'matlar [mo'l-ko'lligi] jihatdan barcha iqlimlarda mumtoz bo'lmish. Uning davlati ko'lankasi dunyo iqlimlari, xususan, Movarounnahr aholisi uzra doim tushib tursin: Muhammad va uning taqvodor avlodi haqqi-hurmati!

Samarqand. Tarixdan ma'lum bo'lishicha, qadim zamonda Movarounnahrning poytaxti Samarqand bo'lgan ekan. Aytishlariga qaraganda, uning birinchi hukmdori Kaykovus ekan. Undan so'ng Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) ham uni qurmish. Samarqand shahrini Shamar [ismli] mo'tabar amir qurganmish va Tubba'[2] amirlaridan bo'lib, Turkistonga kelib qolgan. Shundan so'ng ul [shahar]ni «Shamar-kand» deyishgan, ya'ni «Shamar qishlog'i». Borib-borib «Samarqand» atalib qolgan. Ba'zi tarixchilarning aytishicha, Shamar bu Ba'rash Abu Kabr ibn Ifriqish ibn Abraha bo'lib, uzoq Turkiston o'lkasini bosib olgan tubba'lardan edi. Aytishlaricha, u Samarqandga yetib kelganida, qanchalik tirishmasin, uni zabt eta olmadi. Samarqand hokimining bir qizi bo'lib, o'sha yurtning hammasiga hukmi o'tardi. Shamar unga turli va'dalar berib aldadi va ko'plab sovg'a-salomlar bilan uning huzuriga elchi yuborib, shunday dedi: «Seni deb bu o'lkaga kelmishmen. Maqsadim – yuklarim, qimmatbaho narsalarim va xazinamni shu yerda qoldirib, Chin [o'lkasi]ga bormoq erur».

Qiz uning makridan g'aflatda qolib, ularning yuklari va qimmatbaho narsalarini shaharga kiritishga ruxsat berdi.

Shamar to'rt mingta sandiqqa qurollangan askarlarni joylab, shaharga jo'natdi. Sandiqlar shaharga olib kirilgach, ular yarim kechada, qo'ng'iroq ovozini eshitgan zahoti sandiqlardan chiqishga kelishilgan edi. Belgilangan paytda shahar tashqarisidan Shamarning lashkari darvozalarga hujum qil-

[1] *Itir falagi* – cfir, ya'ni yetti qavat osmondan yuqorida joylashgan fazo.

[2] *Tubba'* – Malik Tubba' Yaman va Arabistonning islomgacha bo'lgan podshohlaridan.

@tarixchi_kutubxonasiga

di. Sandiqdagilar qilich yalang'ochlab chiqdilar. [Shamar] ushbu hiyla bilan ul shaharni bosib oldi va xarob qilib, [tag-tugi bilan] qazib tashladi. Shundan so'ng [xalq] «Shamar kand» [«Shamar qazidi»], degan ekan.

Shamar Chin tomonga ketdi, lekin yo'lda hamma lashkari suvsizlikdan halok bo'ldi. Undan so'ng Tubba' kelib, uni [qayta] qurdi. U Chin [mamlakati]gacha bordi. Chin [o'lkasi]dan qaytganda, ul mamlakatdan ko'p [kishi]larni birga olib kelgandi, ulardan bir qismini Samarqandga joylashtirdi. «Masolik al-mamolik» kitobi muallifining ta'kidlashicha, Samarqand qog'ozchilari o'sha Chin mamlakatidan kelganlar emish. Yana shu «Masolik al-mamolik» kitobida quyidagilar aytilgan: «Men Samarqandga borganimda usti temir bilan qoplangan bir darvoza ko'rdim. Unda hibriy tilda: «Safodan Samarqandgacha, ya'ni ming farsang keladigan oraliq hammasi yuqorida aytilgan Samarqandni qurgan Tubba' qo'li ostidadir», – deb yozilgan edi. O'sha kezlarda qo'zg'olon bo'lib, darvozaga o't qo'ydilar va ul yozuv yo'q bo'ldi. Undan so'ng Abulmuzaffar Muhammad ibn Ahmad ibn Nasr ibn Ahmad ibn Asad ul darvozani ilgarigiday temir bilan qoplatdi. Biroq ul yozuv [ilgariroq] o'chib ketgan edi».

Ba'zilar shahar nomining kelib chiqishi haqida shunday deyishadi: «Bu nom asli turkiy tilda «Samizkand» erur, ya'ni «Semiz (katta) qishloq»; uni arabchalashtirib «Samarqand» deganlar».

Islomning dastlabki yillarida ul diyor (Movarounnahr) zabt etilgach, kimgaki Xurosonni boshqarish topshirilsa, uning hukmi Movarounnahrga ham o'tardi. Al-Mu'tamid alalloh davriga kelib, hijriy ikki yuz oltmish birinchi (874 – 875) yili Nasr ibn Ahmad ibn Somonni Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilmoqqa jo'natdi. Somoniylar saltanati tarixi o'sha paytdan boshlanadi.

Somoniylar Buxoro shahrini Movarounnahrning poytaxti qildilar va bir yuz yigirma yil davomida saltanat ularning xonadoniga mansub bo'lib, shu davrda poytaxt Buxoro edi. Ulardan [so'ng] Movarounnahrni turkiy xonlar va g'aznaviy sultonlar [idora qildilar]. G'aznaviylar davlati inqirozidan keyin [bu yerda] Saljuqiylar [hukmron] edilar. Lekin har doim Movarounnahrning katta shahri Samarqand bo'lgan ekan.

Turkiston xonlaridan Tag'mochxon va Muhammad Saljuqiylar bilan ittifoq tuzdilar, ularning poytaxti Samarqand edi. Usmonxon Muhammad Xorazmshohga kuyov bo'lgandan so'ng, Movarounnahr mamlakati butunlay Xorazmshohlar qo'liga o'tdi.

Jahongir podshoh Chingizxon mamlakatni Xorazmshohlardan urushib tortib olgandan so'ng, Movarounnahr mamlakatini hamda Mo'g'uliston va Turkistonning bir qismini o'g'li Chig'atoyxonga berdi. Chig'atoyxon va uning avlodlari shaharlarda yashamas edilar, ular Movarounnahr va Turkis-

@tarixchi_kutubxonasiga

tonda yayloq va qishloq qilib hayot kechirardilar. Movarounnahr aholisi har doim o'z podshohlariga bo'ysunardilar va ularning askarlari o'z matonati-yu sadoqatliligi jihatidan boshqalardan ustun turardi.

Samarqand shahri butun ma'murada bamisoli, [misra]: butun islom [olami] va millatlari [suv ichadigan] buloq kabidir. Shahar ahli haqida esa samarqandliklar juda vafodor erurlar; u yerda tuhmatchi, sotqin, so'z tashuvchi kishilar yo'q, [deyilgan].

Samarqandning binolari hammasi sinchli [qilib qurilgan]. Samarqandda zilzila bo'lib turadi, biroq kuchli zilzila kam bo'ladi. Shu sababdan devorlarni sinchli qiladilar va ustini loy bilan suvaydilar. Shahar atrofi o'zining tarovati-yu obodligi bilan jahonning uzoq o'lkalarida ham shuhrat qozongan va ruh baxsh etuvchidir. Mahallalar, bozorlar, ko'chalar va aksar xonadonlarda oqar suvlar bor. Qaysi joyga bormagin, katta hovlilarning birortasi hovuzsiz va daraxtsiz emas. Shu sababdan [shahar] «Jannat addunyo» («Dunyoning jannati») degan unvon olmish.

Uning rasm-u udumlari falakiyot holatiga o'xshash, [ya'ni] kamchilig-u nuqsonlar hujumidan emindir; uning bog'lari-yu maskanlari charx (koinot)ning yo'llari va qismatlaridek, hodisalar tasarrufidan omonlikda; uning bo'stonlaridan har biri Saraton burjidek Shi'ro[1] [yulduzlari] chiqadigan [joy] va Oy oromgohiga aylangan; uning bog'laridan har bir go'shasi jannatdan bir ko'rinish-u obod joylarining har tarafi firdavsdan bir namunadir...

Ilgarilari Samarqand shahrining ulug'vor qo'rg'oni bo'lib, uning ustma-ust qurilgan bir nechta boro'si va chuqur xandaqi bor edi. Uning qoldiqlari hozirgacha mavjud. Uni Bolo-Hisor deydilar. Chingizxonning xuruji zamonida xarob bo'ldi.

Saltanat navbati ulug' amir Sohibqiron (Amir Temur)ga, – Alloh uning shuhratini yorqin etsin, – yetganda, u yetti yuz yetmish uchinchi (1371 – 1372) yili hozirgi paytda [ham] mavjud shahrbandni bunyod etdi. Uni qisqa muddatda nihoyasiga yetkazib, o'sha yilning o'zidayoq arkning qal'asini [ham] qurdirdi. Shundan so'ng Movarounnahr o'lkasi, xususan, Samarqandning obodonligi tobora ortib bordi.

Onhazrat qurilishlaridan biri, jumladan, Samarqandning o'zida qurilgan Jome masjid erur. Tamomi rub'i maskunda uningdek imoratni ko'rsata olmaydilar.

Uning asosi xoro toshi (granit)dan, mehrobi po'latdan; unga g'aroyib shakllar, ajoyib nafisliklar, latif yozuvlar va nozik san'atkorliklar qilingan.

[1] *Shi'ro* – Katta Ayiq (Sirius) va Kichik Ayiq (Protsion) yulduz turkumlari. Bu yerda Sirius nazarda tutilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

To'rt ruknida to'rtta minora Ayyuq (yulduzi)gacha[1] bo'y cho'zmish. Har biri o'n gaz keladigan to'rt yuzta marmar ustun uzoq joydan birdaniga olib kelinib, ul yerga o'rnatilgan. Sahni va tomi hammasi toshdan shunday bir san'at bilan terib chiqilganki, oylar va yillar ta'siridan, naqshlari o'chib ketishdan, binosi yemirilishdan himoyalangandir.

Bayt:

Tomiga marmar taxta yopilgan dersan,
Sahniga sirlangan gilam to'shalgan dersan.

Boshqa oliy imoratlar jumlasidan shahar atrofida barpo etilgan bir nechta katta bog'lardurkim, har bir bog'da shohona ko'shklar qurilgan. Ularning tafsiloti quyidagicha:

Bog'i Dilkusho
Bog'i Chinor
Bog'i Bihisht
Bog'i Buldo
Bog'i Maydon
Bog'i Amirzoda Shohrux
Bog'i Zog'on
Bog'i Baland
Bog'i Amirzoda Ulug'bek

Bulardan tashqari, yana [bir qancha] madrasalar, xonaqohlar, ma'muriy binolar, uy-joylar qurilib, vaqflar belgilangankim, ular ul tabarruk shahardagi iste'dod sohiblari va xizmat ko'rsatgan kishilar uchundir. Kundalik ehtiyojdan kelib chiqib, o'z din va podshohlarining hurmati yuzasidan amirlar, arkoni davlat, oqolar va farzandlar Onhazratga ergashib, har biri ul diyorda madrasalar, masjidlar va xonaqohlardan iborat o'z binolarini qurdilar hamda ular uchun obod yerlar va ko'chmas mulklarni vaqf qilib, olimlar, zohidlar va obidlarga maosh belgiladilar.

Ilgari Samarqandning barcha binolari loy va yog'ochdan [sinchli] edi. Bu davlat chog'ida ko'p imoratlar pishiq g'ishtdan qurilgan. Butun Movarounnahrda Samarqanddan boshqa joyda Dorul-zarb (tanga-pul chiqaradigan joy) yo'q. Samarqand atrofida, hazrat Amir [Sohibqiron] va ulug' amirzoda [Mirzo Ulug'bek]ning obodonchilik ishlari tufayli qaysi tomondan yurilmasin, bir oylik yoki ikki oylik [yo'lda], musofirlar tunda cho'lda tunashga to'g'ri keladigan biror joy qolmagan. [Hatto] ular otliq bo'lsalar ham hammalari uchun to'rt fasl davomida boshpana va suv tayyor turadi.

Samarqandning atroflari, [aniqrog'i] uning shaharga tegishli qismi beshta ariq va yetmish ikki qarya (qishloq) erur.

[1] *Ayyuq yulduzi (Kapella)* – Savr yulduzlar turkumidagi Surayyo yulduzlar guruhiga mansub eng baland yulduz. Hozirgi ilmiy talqinda Kapella – Aravakash yulduz turkumidagi eng ravshan yulduzdir.

@tarixchi_kutubxonasiga

Bozor arig'i
Mazdoxin arig'i
Obirahmat arig'i
Qarand (Korand) arig'i
Anhori Jadid arig'i (Yangiariq).

Samarqandning tumanlari:

Shovdor – Samarqandning janubida, havosi yaxshi, odamlari baquvvat va sog'lom bo'ladilar. Ul nohiyatning uzunligi o'n farsangdir. U yerning odamlari shuhratli erurlar.

O'ratepa va ***Shtixan***. Ba'zi kitoblarda Nurni ham Shtixanga kiritmishlar.

Yorkat. Bu tumanning suvi, asosan, buloqlar va soylardan.

Korand tumani. Movarounnahrning boshqa joylariga qaraganda, bu tumanda o'r-qir yerlar kamroq.

Yoryayloq, Mutafarriqa, Dizaq va ***Sheroz*** (hammasi) bir tumandir.

Anhori Jadid (Yangiariq) – uni hazrat ulug' amir Sohibqiron – Alloh uning shuhratini yorqin etsin, – qazdirgan, (yon-berlari bilan o'n) bir tuman hisoblanadi.

Sug'd. Samarqand Sug'di obodligi va latofati bilan shunchalik shuhrat qozonganki, uni sharhlab o'tirishga ham ehtiyoj yo'qdir va bu haqda ushbu kitobda bir necha joyda: «Dunyoning jannatlari to'rtta: Nahr al-Ubulla, Damashqdagi G'o'ta, Sha'b-Buvon va Samarqandning Sug'di», – deb qayd etilgan. Ularning har birining bir kamchiligi bor: Damashq G'o'tasida tog'i o'simliksiz, daraxtlari zich; Nahr-Ubulla va Sha'b-Buvon tor joy; lekin Samarqand Sug'dida [boshqacha], u Buxorodan Samarqandgacha sakkiz kunlik yo'l, daryoning ikkala tomonida hammasi bog', ekinzor va obod joylar, ko'm-ko'k maysazorlardan iborat. U yerning mevalari boshqa joylarnikiga qaraganda yaxshiroq. Odamlarning barcha hovli-joylarida oqar suv bor. U yerning odamlari mehmondo'stlik va olijanoblik bilan shuhrat qozonganlar. «Masolik al-mamolik» asarining muallifi (al-Istaxriy) o'z kitobida shunday yozadi: «Kunlarning birida Samarqand Sug'diga yetib borganimda bir hovlini ko'rdim. Uning eshigi devoriga mixlab qo'yilgan edi. Buning sababi nimada, deb so'raganimda, ular: «Yuz yildirki bu eshik ochiq turibdi, na kechasi, na kunduzi bu eshikni yopmaganlar. Shunday ham bo'lib qoladiki, yuzta yoki undan ko'proq otliq to'satdan kelib qolishlari mumkin edi. Shunday paytda ham uy egasining tashvishlanishiga hojat yo'q edi. [Chunki keladigan] odamlar va ularning ulovlari uchun hamma narsa muhayyo qilingan va barcha zarur ishlari uchun mutasaddiy tayinlangan bo'lgan. Mehmon kelishi bilan xonadon sohibi xursand bo'lib chehrasi ochilib ketarkan». Bu hikoyat yozilgan paytdan buyon to'rt yuz ellik yil o'tdi va [bu] joylar butunlay o'zgarib ketgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Buxoro. Bu nohiyat turli toifadagi savdogarlar yig'iladigan joy, latifa (zukkolik)larning zilol bulog'i, kamolot sinovi dargohi, chechanso'zlik libosi korxonasi bo'lgan. Hozirgi paytda o'tgan zamonlardagi shuhratining o'ndan biri ham qolmagan bo'lsa-da, biroq boshqa mashhur shaharlarga qaraganda bog'-rog'larning ko'pligi jihatdan uni jannat bog'i, deyish mumkin. [Chunki] Buxoro atrofi o'n ikki farsangga o'n ikki farsang maydon bir-biriga ulanib ketgan bog', ekinzor va obod qishloq (daha)lardan iborat.

Somoniylar davlati chog'ida uning atrofi devor bilan o'ralgan va u juda mustahkam ekan. Ana shu o'n ikki farsangga o'n ikki farsang hududda uy-joy qurilmagan va ekin ekilmagan bir jarib yer ham topilmas ekan. U (shahar) uzoq vaqt davomida Somoniy podshohlar poytaxti bo'lib turgan.

Buxoro har doim faqirlar (darvishlar) yig'ingohi, fozil kishilar makoni va olimlar etishadigan maskan bo'lgan. Somoniylar davrida u yerda to'rt ming faqih ishlab turgan ekan, deyishadi. Bir ishonchli kishining rivoyat qilishicha, xoja Hafs Kabir zamonida Buxoro mahallalarida yetmish ikki xo'jalik mujtahid[1] barhayot bo'lganlar va ularning eng mashhurlari haqida fiqh kitoblarida qayd etilgan.

«Osor al-bilod» kitobida yozilishicha, olimlarga dunyoning biror shahrida Buxorodagichalik hurmat-ehtirom ko'rsatmaydilar.

Buxoro ahlining tili yaxshi fors tilidir.

U yerda ulug' shaxslar ko'p o'tishgan. Olam mashoyixlarining mashhuridan biri – shayx ul-islom, al-imom, mashoyixlarning sardori Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy «As-Sahih» kitobining muallifidir. Bu asar hadis kitoblari ichida eng afzali va to'g'risidir. Buxoro mavzelaridan biri – Afshinada tug'ilgan shayx ur-rais Abu Ali Abdulloh ibn Sino Buxoroda ilm o'rganib, o'n sakkiz yoshida odatdagi fanlarni to'la-to'kis o'zlashtirib oldi. U uch yuz yetmish uchinchi (983–984) yili tug'ilib, to'rt yuz yigirma yettinchi (1035–1036) yili vafot etgan[2].

Hikoyat. Sayid Jaloliddin Xo'taniy Buxoroda yashardi va ul joyning [diniy] peshvolaridan edi. Bu olam sayidi o'ta zohid, taqvodor va xudojo'y kishi bo'lgan ekan. Hatto sulton Muhammad Xorazmshoh Bag'dod xalifasini taxtdan ag'darib, uni xalifa qilib tayinlamoqchi bo'lgan va [shu maqsadda] ul xalifaga urush ham e'lon qilgan. Muhammad Xorazmshoh Koshg'ar va Xo'tanni zabt etgach, uzoq muddat davomida u yerda hukmronlik qilib turgan Xitoy xonlarini[3] tor-mor qildi. Musulmonlar bu voqeadan o'ta suyunib ketdilar, biroq sayid [Jaloliddin] ko'p qayg'uga tushgan edi. Uning sababini

[1] *Mujtahid* – yirik fiqhshunos olim.

[2] Manbalarda Ibn Sinoning tug'ilgan va vafoti yillari 980–1037-yillar deb ko'rsatilgan.

[3] *Xitoy xonlari* – bu yerda qoraxitoylar nazarda tutilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

so'raganlarida, u: «Musulmonlarga achinyapman. Chunki Xitoy podshohlari mo'g'ullar oldida qul edilar. Endi bo'lsa ul rahmsiz qavm uchun yo'l ochildi. Xuddi u aytganday bo'ldi.

Xoja Muhammad Porso – katta olim va xudojo'y zohid kishi edi; u ilm va amalni bir-biriga qo'shdi».

Ko'hak suvi. Ko'hak suvi Samarqand [shahri] yonidan oqib o'tib, Sug'dga keladi. Sug'dning hamma joyini suv bilan ta'minlab, so'ngra Buxoroga o'tadi va Buxoroning barcha ekinlari ana shu suv tufaylidir; shahardan oqib o'tadi va suv ko'paygan yillari to Jayhunga yetib boradi.

Buxoroning mevalari eng yaxshi mevalardan, mo'l-ko'l, ayniqsa, Buxoro olo'si, undan butun dunyoga olib ketadilar. Buxoroda tayyorlanadigan shinnini asaldan farqlab bo'lmaydi. Xodimi qiladigan hammom ko'p.

Buxoroning o'tini aksari [qismi] bog'lardan [qirqiladigan daraxtlardan]; yoqish uchun tashqaridan buta [saksovul] va qamish [ham] keltiradilar.

Buxoro tog'i yaqinida bir tog' bo'lib, u Samarqand va Kesh o'rtasida yastangan toqqa tutashadi. U tog' Ustrushona nohiyati tomonga davom etadi, u yerdan Farg'ona [vodiysi] tomoniga, undan to Chin (Xitoy) chegarasigacha ketgan, hammasi bir-biriga tutash yaxlit tizmadir.

Buxoro shahri uchun xos bo'lgan narsalardan biri shuki, hech bir joyning odami Buxoro odamlarichalik g'arib [kishilarga] mehribonlik qilolmaydi, deyishadi.

Zo'sh. Buxoro qishloqlaridan biri; [odamlarni] ul joyga nisbat berganda «zo'shaniy» («zo'shanlik») deydilar.

Tavovis. Buxoroga qarashli shahar bo'lgan ekan, hozir xarobaga aylangan.

Karmina. Samarqand bilan Buxoro oralig'ida joylashgan kichik shahar bo'lgan, hozirgi paytda qasaba erur.

Dabusiya. Kichik shahar, Buxoro bilan Samarqand oralig'ida; hozir Samarqandga qarashli joylardan biri. Uning qal'asini Sulton Jaloliddin [Malikshoh Saljuqiy] qurgan, deyishadi. Dabusiyadan to Koshoniyagacha besh farsangdir.

Kash (Kesh). Uni «Shahrisabz» deydilar, yilning aksari faslida uning yeri ko'm-ko'k [maysazordir], ayniqsa, bahor faslida, uning hovli, tom va ko'chalari yam-yashil bo'ladi. Kesh [shahri]ning maydoni, qishloqlar va tobe yerlar tomonga [qarab yurganda], uch farsangga uch farsang erur. Ko'rkam joy, yaqinida tog' bor. Ul tog'da toshtuz bor, shaffof, ba'zilari rangli; undan turli narsalar yo'nadilar hamda ul shahar [ahli] uchun [ham iste'mol] tuz hisoblanadi. Suvlari ko'p, hammaning hovli-joy va bog'larida har doim suv oqib yotadi. Qarshiga boradigan suv ana shu suvlarning ortib qolgan qismidir. Turli xil mevalar ko'p; ul joyning aksari mevalari pishib yetiladi.

@tarixi_kutubxonasiga

Movarounnahrning issiq viloyatlaridan biri; ahyon-ahyonda uch shaharda qurg'oqchilik va vabo bo'lib turadi, ayniqsa, g'ariblar orasida.

[Keshning] qadimiy shahrbandi bo'lgan, lekin u buzilib ketgan edi. Hazrat amir Sohibqiron (Amir Temur), – Alloh uning shuhratini yorqin etsin, – 780 (1378–1379)-yili uning shahrbandini qayta tikladi va o'sha yilning o'zidayoq nihoyasiga yetkazdi. Oradan uch yil o'tib, Hirot shahrini egallaganda, Hirotning shahrbandini buzdirdi va uning ustiga temir qoplangan darvozalarini Movarounnahrga jo'natdi, ularni Kesh shahrining darvozalari [o'rniga] qo'ndirdilar.

Sohibqiron davlati ayyomida [Kesh shahri] juda obod bo'ldi; u yerda toshdan binolar qurdilar. Shu jumladan, dorussiyodat, muhtasham bino; unga obod yerlar, qishloqlar va ma'mur mulklarni vaqf qildi. Shaxsan Onhazratning o'zi uchun baland ko'shk qurdilar va u Oqsaroy deb ataladi, toshdan qurilgan imoratdir; uning ayvoni (peshtoqi) bir necha farsang [masofadan] ko'zga tashlanadi. Bulardan tashqari, shaharda va Kesh shahriga qarashli atroflarida bir qismi Onhazratning o'ziga, ba'zilari amirlar va arkoni davlatga tegishli bo'lgan madrasalar, xonaqohlar, rabotlar, hovuzlar ham bunyod etilgan.

Naxshab, uni Nasaf ham deydilar, hozir Qarshi nomi bilan mashhur. Bu qadimiy shahar tekislikda joylashgan. Buxorodan Samarqandga ketayotganda yo'l o'sha yerdan o'tadi. U yerdan toqqacha Kesh tomondan ikki marhala keladi; boshqa tomondan to Jayhungacha cho'ldan iborat. Ul nohiyatning suvi Kesh suvining davomidir va u suvdan shaharning o'rtasidan bir ariq oqadi. Naxshabning barcha qishloqlari ana shu suvdan foydalanadi; ekin ham ekiladi. Naxshab viloyatida bundan boshqa daryo yo'q, bu ham goh oqadi, gohida qurib qoladi. Ayrim bog'larni quduqlar [suvi]dan sug'orishadi. Ularning tegirmonlarida, hayvon kuchi yordamida un qiladilar. Meva-cheva va noz-ne'mat ul navohiyda farovon va arzon.

Kichik qo'rg'oni bor. Jome masjid qo'rg'onning ichida; podshoh Kebekning qabri o'sha yerda. Ularning imoratlari loydan qurilgan, faqat jome masjid va sultonlarning qabrlari pishiq g'ishtdan va koshiy qilingan. U yerdan mashhur olimlar chiqqan, jumladan, Najmiddin Umar Nasafiy[1].

Turkiy tilda podshohning qasrini «qarshi» deydilar. Podshoh [Kebek] u yerda bir ko'shk («qarshi») qurdi va ushbu nom bilan mashhur bo'lib qoldi.

Termiz. Jayhun [daryosi] bo'yida joylashgan shahar; qo'rg'oni [kuhandiz] bor, [ilgari] shahristoni va rabazi ham bo'lgan ekan. Bozor va juma masjid shahristonda joylashgan. [Shahar] aholisining uylari loydan quril-

[1] *Najmiddin Umar Nasafiy* – to'la ismi Najmiddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ismoil an-Nasafiy (1068–1142). Qomusiy olim, «Kitob al-qand fi tarixi Samarqand» asarining muallifi.

@tarixchi_kutubxonasiga

gan; [aholisi] Jayhun [daryosidan] suv ichadi, ekinlarni esa Chag'oniyon daryosi [suvi]dan sug'oradilar.

Termiz shahrining qurilishi haqida so'z ketganda, uning asoschisi Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) bo'lgan ekan, deydilar. U shimol tomondagi [mamlakatlarga] yurish qilib, Jayhun daryosi bo'yiga yetib kelganida, shu yerni qurilish uchun ma'qul ko'rgan va ushbu shaharni bunyod etgan ekan. Yangi kechuv asta-sekin obod shaharga aylandi.

Bog'lari ko'p, mevalari mo'l-ko'l; aholisi tijorat bilan ham shug'ullanadi.

Burdog'o'y. Jayhunning bo'yida, Termizga tutash bo'lgan mavze. Ba'zilar, unga Termizdan ancha oldin asos solingan, deyishadi. Ayrimlar esa, «Uni ham Iskandar qurgan, «Burdog'o'y» yunoncha so'z bo'lib, «mehmonxona» degan ma'noni anglatadi va bu nom ham Iskandar zamonida qo'yilgan», degan fikrni aytganlar. Qadimda zimmasiga Jayhunning kechuvidan o'tishni ta'minlash yuklangan kemachilarning boshliqlari shu Burdog'o'yda turganlar.

Burdog'o'y sultonlar uchun ushbu daryodan o'tadigan kechuv bo'lgan. Qadimgi podshohlar ul mavzening aholisini daryoning guzarini qo'riqlab turish uchun rag'batlantirib, ularga tarxonlik berganlar. Shu sababdan, u yerda aholi ko'paygan, boy-badavlat zodagonlar istiqomat qilgan. U yerga biror musofir kelib qolsa, uni yaxshi kutib olganlar. Tez orada ul joyning xalqi o'z olijanobligi bilan mashhur bo'ldi. Biror yo'lovchi o'sha yerdan o'tib qolsa, Burdog'o'y odamlari har biri uni o'z uyiga olib borishga harakat qilar va hatto bir-birlari bilan talashishar ekanlar.

Termiz aholisi bilan Burdog'o'y aholisi o'rtasida ko'pincha janjal bo'lib turgan. Burdog'o'y atrofida jangal (to'qayzor) ko'p va u jangalda sher bor. O'sha yaqin-o'rtada Kolif degan boshqa bir kechuv ham bor.

Kolif. Uni [ma'muriy jihatdan] Xurosonga kiritadilar, sababi, odamlarning uy-joylari suvning bu [chap] tomonida. Hozir ham u yerda guzar bor va uni «Kolif guzari» deydilar. Ba'zi kitoblarda yozilishicha, Iskandar Kolif mavzeida xazina ko'mgan va Anushirvon uni [suv ostidan] topib olib chiqish uchun ko'p uringan, biroq uddalay olmagan ekan. Alloh eng bilguvchidir.

Xo'jand. Farg'onaga tutash, lekin aslida o'zi alohida. Uning nohiyati o'ttiz farsang joyni egallagan. Uzunasiga cho'zilgan shahar, Sayhun daryosi bo'yida, shaharning uzunligi bir farsangni tashkil etadi. Bog'-rog'lar ko'p, mevalari yaxshi, ayniqsa, bodom va anor. Noki benazir erur, uni noshboti deydilar. Xo'jandning odamlari muruvvatli va husndor. Usrushana, Farg'ona va boshqa joylardan Sayhun daryosi orqali u yerga kemalar qatnaydi. Ul suvni Xo'jand suvi ham deydilar.

Bu suv Turkistondan boshlanadi, O'zgand hududida. So'ngra Xurshob daryosi, O'z daryosi va boshqa daryolar unga kelib qo'shilib, azim daryo

@tarixchi_kutubxonasiga

bo'ladi; Axsikatga oqib keladi, so'ngra Xo'jandga yetadi. Qadimda [Xo'jandning] qal'a va rabazi bo'lgan, biroq buzilib ketgan ekan. U (Alloh) eng biluvchidir.

HOFIZI ABRUNING «ZUBDAT AT-TAVORIX» ASARIDAN LAVHALAR

Hazrat Sohibqironning mo'tabar nasl-nasabi haqida[1]

(10 *b*) [Hazrat Sohibqironning bobolari] ulug'vorlik falakining yulduzlari va o'z davrining baxtiyorlari, muhim ishlarni boshqarishda va xalqqa homiylik qilishda esa, har biri ishonchli qutb va mustahkam ustundan ham ortiq bo'lganlar...

(11 *a*) Hazrat amir Sohibqironning mo'tabar bobolari, – Alloh ularning shuhratlarini yorqin etsin, – ulug' amirlar va nomdor sultonlar bo'lganlar. Ularning har biri o'z zamonida ulus va hukumat shodasining vositasi, podshohlik va saltanat tizimining me'yori edi.

Endi amirlik shiorining silsilasi va hukumat sovutining shajarasi haqida daftarlar mazmuni va sahifalar matni asosida qilingan xulosa tarzida sharh beriladi. So'zni ul nomdor amirlarning soni, baxtiyor no'yonlar va davr sultonlarining ismlaridan boshlaymiz va aytamiz:

Sultonlar sultoni [bo'lmish] hazrat Amir Temur Ko'ragon ibn al-amir Tarag'oy no'yon ibn al-amir Burkul ibn al-amir Ilangiz no'yon ibn al-amir Iyjal no'yon ibn al-amir Qorachor no'yon ibn al-amir So'g'u-Sichon (yoki So'g'u-Chechan) ibn al-amir Erdamchi no'yon ibn al-amir Qacho'li no'yon ibn To'manoyxon ibn Boysung'urxon ibn Qaydo'xon ibn Do'tumaninxon ibn Bo'qoxon ibn Bo'doncharxon (yoki Bo'zunjarxon) ibn Alonquvo; uning nasabi quyosh va uning yog'dusi [dan, ya'ni] tong saharda tepadan tushgan nurdan edi.

Jahongir podshoh Chingiz o'z farzandlarini tarbiyalab o'stirayotgan vaqtida yoso va yo'sunni [yaxshi bilish] jihatidan farzandlaridan ajralib turgan ikkinchi o'g'li – Chig'atoyxonni maxsus e'tibor bilan siyladi va o'z lashkaridan bir to'pini saralab, unga ajratdi. Ularning boshlig'i Qorachor no'yon amir [Temur] Sohibqironning, – Alloh uning shuhratini yorqin etsin, – beshinchi otasi bo'lib, [Chig'atoyxon] uning ra'yi, qobiliyati, yoso[ni yaxshi bilishi] va dovyurakligiga to'la ishonch hosil qilgan edi. Baxtiyor podshoh Chig'atoyxon mamlakat ishlari, yoso va yo'sunlarini uning aql-zakovati hamda bilimiga tashlab qo'ydi. U ushbu muhim ishga astoydil kirishib,

[1] Hofizi Abruning «Zubdat at-tavorix» asaridan Amir Temur shajarasiga oid ushbu lavha asarning Istanbul, Fotih kutubxonasi qo'lyozmasi, 4371/I matnidan tarjima qilindi (*tarjimon – O. Bo'riyev*).

@tarixchi_kutubxonasiga

devonni shunday bir yo'sinda boshqardiki, uning uquvi, bilimi, shafqat va marhamati jahonga va jahon ahliga taraldi. Uzoqni ko'ruvchi aqli, mustahkam ra'yi va baland himmatini mamlakat ishlarini boshqarishga sarfladi, insof va haqiqat yuzasidan ish yuritdi. U Chig'atoyxon zamonida amir ul-umaro edi. Chig'atoyxon haq da'vatini bajo keltirgandan keyin ham u o'z mansabida qolgan edi.

Qorahuloju xonligi zamonida, olti yuz qirqinchi (1242–1243) yili Qorachor no'yon ham vujud qasrini ruh mezbonidan bo'shatdi.

(11 *b*) Undan so'ng falakning gardishi va zamonaning zayli bilan o'lkada har xil kechmishlar yuz berdi, uzluksiz fitna-yu isyon mavjud edi. Chig'atoyxon farzandlari o'rtasida, Movarounnahr va Turkiston mamlakatlarida muxolafat va nizo paydo bo'ldi, yurt og'ir ahvolda qoldi.

Qorachor no'yonning farzandlari va eli Qubbat al-xazro Kesh tumanlariga [ko'chib] bordilar va o'sha navohiyda yashamoq o'tovini tikdilar. Ularning bola-chaqalari avloddan avlodga ota-bobolaridan so'ng ul viloyatni boshqarish mansabiga belgilanib keldilar. Ul diyorda saltanat bayrog'ini tikkan har bir podshoh ularning xonadoni uchun o'sha mansabni bir zaylda saqladi.

Qorachor no'yonning farzandlari ko'p bo'lgan ekan, jumladan, o'n to'qqiztasining nomi aniqlangan va ularning nasablari shajarasida quyidagicha qayd etilgan:

Eldar (keyinroq «Eldor» shaklida berilgan), Lolo, Qubul, Yaso'nta, Mo'nko, Iyjal no'yon, Shargo, Mo'nka, Elbuqo, El, Bekbuqo, Qazon, Iyku, Tingiz, Tobon, Mirali, To'kal, Cho'ron, Aloko'chal. Bulardan faqat mashhur farzandlarnigina sanab o'tamiz.

Eldorning Qo'jor [degan o'g'li] bor edi. Qo'jorning avlodidan esa, hazrat Sohibqiron davlati chog'ida Shayx Ali [degan kishi] mo'tabar amir bo'lgan. Hozir u nasldan Samarqandda barlos amirlaridan Ali Sulton va uning o'g'illari: Muhammadbek bilan Xolis xos kishilar [qatorida] yashaydi.

Lolo, uning ikki o'g'li bor edi: Uruchi va O'jar; Uruchining [o'g'li] – Temur Buqo; uning ikki o'g'li bor edi: O'ngon va Hindu Buqo; O'ngonning Uyon va Idiku [degan farzandlari bor edi]; Idikudan: Islom, Abu Said, Mir Sayid, Xon Said; Islomdan: Kebek, Shayx Islom; Kebekdan: Amir Islom; Shayx Islomdan: Ali; Hindu Buqodan: Ilyos; undan: Yodgorxon, Sultonxon, Shohmalik; Shohmalikdan: Muhammad Boyazid, Shayx Zulqarnayn; Loloning ikkinchi o'g'li O'jardan: Lo'na, Lo'sha; Uludar, To'bin; Uludardan: Jo'g'am; Jo'g'amdan: Ali, Elchixoja, Murod; Elchixojadan: Islom, Muhammad Ali, Hasan Ali; ularning farzandlari hozir hayot erurlar.

O'jarning to'rtinchi o'g'li To'bindan ikki o'g'il qolgan edi: Hinduko; uning beshta o'g'li bor edi: Uto'chor, Nuko'z, Zulqarnayn, Baxshixoja, No'shirvon. Bulardan har biri hazrat amir Sohibqiron zamonida amir[lik

@tarixchi_kutubxonasiga

vazifasida] edi. To'binning ikkinchi o'g'li – Yodgor ulug' amir bo'lgan. U Amir Yodgor barlos [nomi bilan] shuhrat qozongan. Uning farzandlari ko'p: Tavakkal, Hoji Qubul, Sulton, Hirimalik, Sulton Qubul, Jahongir Xovand, Sulton Ahmad, Sulton Ibrohim.

Shu jumladan, Tavakkalning to'rt o'g'li bor edi: Abubakr, Sulton Muhammad, Muhammad, Usmon; Hoji Qubulning ham to'rt o'g'li bor edi: Hojibek, Hoji Sa'd, Sulton Ali, Sulton Ahmad; (12 *a*) Hirimalikning to'rt o'g'li bor edi: Abubakr, Usmon, Mahmud Sulton, Poyanda Sulton, Sulton Qubulning ham to'rt o'g'li bor edi: Sulton Ahmad, Sulton Muhammad, yana bitta Sulton Ahmad, Yodgor Sulton. Yodgor barlosning oltinchi o'g'li Jahongirning Jahonshoh degan o'g'li bor edi. Jahonshohning to'rt o'g'li bor edi: Sulton Muhammad, Muhammad Jahongir, Sultonshoh, Mironshoh.

Biroq uning (Qorachor no'yonning) boshqa bir o'g'li Qubulning, ba'zi nusxalarda bu Qubulni Eldorning o'g'li [ham] deyishgan, ikkita o'g'li bor edi: Qulluqtemur, Chintemur; Qulluqtemurning Tag'ay degan o'g'li bor edi; uning beshta o'g'li bo'lgan: Fo'lod, Chin, Ovard, Hasan, To'mon, Cho'pon; Fo'lodning ikkita o'g'li bor edi: Rustam, To'siyon; To'siyonning uch o'g'li bor edi: Shayx Nazar; uning to'rt o'g'li bor edi: Shoh Rustam, Shoh Uvays, Shoh Mansur, Ofoq; To'siyonning ikkinchi o'g'li Sa'd al-Malik; uchinchi o'g'li Abaqo; uning Sayfulmalik degan o'g'li bor; Ovardning beshta o'g'li bor: Hamza, Fazlulloh, Pahlavon, Sheroyin, Chakka, Barmazid.

Shu bilan birga Hamzaning to'rt o'g'li bor edi: Sayid Ali, Sayid Ahmad, Pirmuhammad, Xoja Ahmad; Bahlulning bitta o'g'li bor edi: Rahmonquli; Chakkaning ikkita o'g'li bor edi: Haqnazar, Xushnazar; Barmazidning ikkita o'g'li bor edi: Tanzil, Manzil; Hasmurning to'rt o'g'li bor edi: Tekash, Xorazmiy, Jumtoy, Qutto' Buqo; Tekashning ikkita o'g'li bor edi: Elchi Temur va Doro; Xorazmiyning ikkita o'g'li bor edi: Abishqa va To'qtemur; uning Tubko degan bitta o'g'li bor edi; uning uchta o'g'li bor: Shayx Junayd, Shayx Said, Amir Said; Jumtoyning Xalil degan o'g'li bor edi; uning uchta o'g'li bor edi: Is'hoq, Jahon, Pirmuhammad; Pirmuhammadning Abdulvohid degan bitta o'g'li bor edi; uning uchta o'g'li bor edi: Abdol, Baxtjahon, Shohjahon; Qutto'-Buqo-Jiylig' Temurning to'rtinchi o'g'li; uning uchta o'g'li bor edi: birinchisi Iso; Isoning uch o'g'li bor edi: Sulton Sayid, Xulbon, Xalil; ikkinchi o'g'il Sulaymon, uning ikkita o'g'li bor edi: Temurxoja, Abaka.

Temurxojaning beshta o'g'li bor edi: Sayid Muhammad, Xudoydod, Nurussalom, Sayid Ali, Shayx Umar; Abakaning Ollohdod ismli bir o'g'li bor edi. Uchinchi o'g'il Qo'no'qo Tug'lug'; uning o'g'li bor edi: Ismoil; uning uchta o'g'li bor: Ya'qub, Is'hoq, Boyazid. Ikkinchi o'g'li Tug'lug' Yodgor; uning ham uchta o'g'li bor edi: Abdumalik, Jahongir, Sulton Mahmud. Uchinchi o'g'il Tug'lug' Temur; uning Odil ismli bitta o'g'li bor.

@tarixchi_kutubxonasiga

Qorachor no'yonning to'rtinchi o'g'li Yaso'nta Mo'nko; uning Tamuli ismli bitta o'g'li bor.

Tamulining o'nta o'g'li bor edi. Birinchisi – Qaranqo. Uning to'rt o'g'li bor edi: Iyman, Jamoliddin, Olamxoja, Olamizin. Bu aka-ukalardan Iymanning Tiyrak ismli o'g'li bor edi; uning Xoja Yusuf ismli o'g'li bo'lgan. Xoja Yusufning to'rt o'g'li bor edi: shayx Yusuf, Abu Yusuf, Hoji Yusuf, Ali Yusuf. Bu aka-ukalardan Abu Yusufning ikkita (12 *b*) o'g'li bor edi: Sulton Yusuf, Sidi Yusuf.

Tamulining ikkinchi o'g'li Olti Buqo bo'lib, uning ikkita o'g'li bor edi: Tag'oy Bug'o va To'qtoy. To'qtoyning bitta Muhammad ismli o'g'li bo'lgan va uning Qorahindu ismli bitta o'g'li bor edi; uning Ollohdod Ahmad degan o'g'li bor.

Tamulining uchinchi o'g'li Baxshi Buqodan mashhur farzand qolmagan.

Tamulining to'rtinchi o'g'li – Mansur; uning Sulton ismli o'g'li bo'lgan. Sultonning esa Sulaymon ismli o'g'li bor edi. Sulaymonning esa Sulaymon ismli o'g'li bor edi. Sulaymonning ikki o'g'li bor edi: Iskandar va Boyazid; Boyazidning ikkita o'g'li bo'lgan: Xudoydodiy va Sayfulmuluk.

Tamulining beshinchi o'g'li Jarman bo'lib, uning Shayx Ali ismli o'g'li bor edi. Uning ikkita o'g'li bor edi: Shayx Hoji va Shayx Darvesh. Shayx Darveshning uchta o'g'li bor edi: Xudoyberdi, Shayx Boyazid, Sulaymonshoh. Uning ikkita o'g'li bor edi: Abusamad va Abulqosim.

Tamulining oltinchi o'g'li – To'rolg'ay; uning uchta o'g'li bo'lgan: birinchisi – Idiko'; uning ikkita o'g'li bor edi: biri – Muhammad Darvesh, u amir Sohibqiron zamonida ulug' no'yon [edi]; uning to'qqizinchi o'g'li amir Hoji Barlos [qo'lida edi], uni ana shu Muhammad Darvesh [ixtiyoriga] berdi.

Uning beshta o'g'li bor edi: Irtish, Buzurjmehr, Bahlul; Bahlul amir Sohibqiron zamonida amirzoda Pirmuhammad Kobuliyning ixtiyorida edi, Kobulga ko'chib ketdi va [u yerda] tuman amiri edi. Uning qolgan ikkita birodari: biri – So'lon, ikkinchisi – Boyazid.

To'rolg'ayning ikkinchi o'g'li amir Hoji Barlos bo'lib, u Kesh tumanining amiri edi. «Ulug' ming» hazorasini u bilardi. Uning Shayx Muhammad ismli bitta o'g'li bo'lgan; Shayx Muhammadning esa Ali Darvesh ismli o'g'li bor edi. Uning uchta o'g'li bo'lgan: Pirmuhammad, Sidi Ahmad, Pir Ahmad. Bu aka-ukalardan Pirmuhammadning uchta o'g'li bor: Shayx Muhammad, Hoji Muhammad, Sulton Muhammad.

To'rolg'ayning uchinchi o'g'li Jahongir bo'lib, u (Amir Temur) Sohibqiron zamonida qo'shin amiri edi va [Xurosondagi] Boxarz [buluki] unga qarashli edi. Uning ikkita o'g'li bor edi: biri – Poyanda Sulton, amirzoda Amironshohning mo'tabar amirlaridan bo'lgan. Amirzoda Amironshohning xotini Davlat Keldi-og'o ana shu [Poyanda Sulton]ning qizi bo'lgan va

@tarixchi_kutubxonasiga

u (Poyanda Sulton) otasining qo'shinini boshqarardi. Ikkinchi o'g'li – Abu Shayx Luqmon; u hozir tuman amiri va lashkar tavochisi erur. Uning uchta o'g'li bor: Pir Luqmon, qo'shin amiri; «Najmiddin hazorasi»ni u biladi. Uning ikkita o'g'li bor: Faredun va Shayx Muhammad. Amir Shayx Luqmonning qolgan ikkita o'g'li: Pirmuhammad va Uvays.

Tamulining yettinchi o'g'li – Dovud. Uning beshta o'g'li bo'lgan: Sulaymon; uning Iso ismli o'g'li bor edi: uning esa ikkita o'g'li bor: Muhammadbek, Dovudning ikkinchi o'g'li – Shohmalik; uning Xumorshoh ismli bitta o'g'li bor edi; uning Mustafo ismli bitta o'g'li bor edi. Dovudning uchinchi o'g'li – Tag'oytemur; uning To'kal ismli o'g'li bor edi; To'kal tuman amiri va rusto amiri edi. Uning ikkita o'g'li bor edi: Rahimdod va Allohdod. Allohdodning ikkita o'g'li bor: Karimdod va Dog'ay. (13 *a*) Dovudning to'rtinchi o'g'li – Cho'lpon; uning Umar degan bitta o'g'li bor edi. Umarning ikkita o'g'li bor edi: Bahlul va Jalil. Bahlulning uchta o'g'li bor edi: Lutfulloh, Abdulloh, Sa'dulloh. Jalilning esa Yusuf ismli bitta o'g'li bor edi; uning uchta o'g'li [bor edi]: Umar, Abubakr, Shayx Yusuf. Dovudning beshinchi o'g'li – Urusdan mashhur nasl qolmagan.

Tamulining sakkizinchi o'g'li – Qiron Temur. Uning to'rt o'g'li bor edi. Birinchisi – Haydar; uning Mahmud ismli bitta o'g'li bor edi. Qiron Temurning ikkinchi o'g'li – Hozir; uning Hojiberdi ismli bitta o'g'li bor edi. Uning ikki o'g'li bor edi: Boyazid va Xoliqberdi. Qora Temurning uchinchi o'g'li – Sultonbaxt; undan mashhur nasl qolmagan. To'rtinchi o'g'il – Qutbiddin; uning beshta o'g'li bor edi: birinchisi – Zoyin Temur; boshqa biri – Orzu Buqo; uning Bahlul degan bitta o'g'li bor edi. Bahlulning esa Shayx Jalil ismli bitta o'g'li bo'lgan; Qutbiddinning uchinchi o'g'li – Nosiriddin; to'rtinchisi – Sadriddin; uning to'rtta o'g'li bor edi: Sadr Jamol, To'kal, Hoji Ali, Hasan Ali. Qutbiddinning beshinchi o'g'li – Badriddin.

Tamulining to'qqizinchi o'g'li – Safar; uning to'rt o'g'li bor edi: Umar, Xalil, Mir Husayn, Bahlul. Bahlulning ikkita o'g'li bor: Abdulloh, Sa'dulloh.

Tamulining o'ninchi o'g'li – O'rus; uning to'rt o'g'li bor edi: Alisher, Ismoil, Ardasher, Umar.

Qorachorning beshinchi o'g'li – Mo'nkodan nasl qolgani yo'q.

Qorachor no'yonning oltinchi o'g'li – Iyjal no'yondan farzandlar bo'lgan ekan. Jumladan: Ilongir no'yon va Qutlug'qiyo. Qutlug'qiyo Hulokuxon zamonida ular bilan birga Iroqqa ketgan edi. Uning nasli Iroq sultonlarining mulozimi bo'lgan ekanlar. Uning Dabu Qiron degan bitta o'g'li bor edi. Dabu Qironning uchta o'g'li bor edi: Qorayor, Ismoil, Iskandar. Iskandarning uchta o'g'li bor edi. Birinchisi – Pir Nodir; uning ikkita o'g'li bor edi: Pir Ahmad va Pir Mazid. Iskandarning ikkinchi o'g'li – Xizr; uchinchisi – Sotuq. Sotuqning Iyjal ismli bitta o'g'li bor edi. U hozir olam ahlining maxdum

@tarixchi_kutubxonasiga

va maxdumzodasi Boysung'ur Bahodirning mulozimi erur. Iyjalning ikkita o'g'li bor: Abdulloh va Hojar. Iyjalning aka-ukalari: Qosim, Tabib, Tohir, Mahmud, Ahmad.

Ilongir no'yonning Homish degan o'g'li bor edi. Homishning to'rt o'g'li bor edi. Birinchisi Sevinch Buqo va yana biri Tag'oy Buqo; Tag'oy Buqoning to'rt o'g'li bor edi: Rustam, Hamza, Pirmuhammad, Ali. Bulardan Rustamning farzandlari ko'p erur. Jumladan, o'n to'qqiz o'g'il va sakkiz qizning ismi shajarada yozilgan. Ularning aksari hozir Xivada (yashaydi).

Hamzaning uchta o'g'li bor edi: Muhammad Darvesh, Muhammad Yusuf, Hoji Muhammad.

Ilongirning boshqa bir o'g'li Burkul no'yon bo'lib, uning ikkita o'g'li bo'lgan ekan: biri – Balta, ikkinchisi – Tarag'oy no'yon, u amir Sohibqironning otasi erur.

Tarag'oy no'yonning to'rt o'g'li va ikki qizi bor edi. Tangri belgilagan taqdir azaldan shundayki, u jahongirlik maydonining chavandozi, farmon bermoqlik ko'shkining asoschisi bo'lmish ulug', shavkatli va buyuk saxlatli bir sohib davlatg'a, muayyan bir vaqtda yaratish xil'ati va vujudga keltirish libosini kiygizmoqchi hamda uni kavn va fasod olamida podshohlik taxti uzra jilvalantirmoqchi bo'lsa, (13 *b*) Tangri qudratining qo'li ilohiy hikmat taqozosiga ko'ra, uning zoti gavharini otalarining pushti kamarlari va onalarining bachadonlari sadaflarida asta-sekin, bosqichma-bosqich zohir etmoq uchun parvarishlab, yetiltirishga yaqinlashtirib boradi. Davlat belgilarining zohir bo'lish zamoni va uning sirlarining oydinlashish vaqti yetib kelgach, ul tong otishining dastlabki nurlari yaratilish ufqining chiqish [joyi]dan tarala boshlaydi; ul orziqib kutgan vujudga kelishning boshlanishi uchun ko'mak uzluksiz va davomli bo'ladi. Xuddi ulug' amir Tarag'oyning ahvoliga o'xshash, ya'ni uning tengi yo'q zoti jahondorlik dengizi durining sadafi bo'lgan. Uning davlati yulduzlarining chaqnashi hazrat Sohibqiron mulozimlari to'planishining muqaddimasi edi.

Ul ulug' avloddan va nomdor urug'dan, ularning bola-chaqalari-yu merosxo'rlaridan biri, xususan, bizning hazratimiz – islomning ulug' sultoni, barcha shohlarning shohi, tinchlik-omonlikning mohiyati, iymon ahlining panohi, taxt, amirlik va ulug'vorlikning hukmdori, cheksiz saodat va iqbolning yarashigi, olam tangrisining qo'llovi bilan poydor, haqiqat, saltanat, dunyo va dinning homiysi, shahanshohi shahriyor, zamin va zamon sultoni Shohrux Bahodirxon erur. Uning saltanati [chodiri] qubbalarining tanoblari abadiylik qoziqlariga mahkam, nusrat va iqbolining yagonaligi intihosiz va hisobsiz bo'lsin.

Ummatlarning nabiysi, uning saxovatli xonadoni, – unga va ularning barchasiga Allohning rahmati bo'lsin, – haqqi hurmati!

@tarixchi_kutubxonasiga

Tarag'oy no'yonning boshqa farzandlari, ya'ni amir Sohibqironning birodarlari – Suyurg'atmish, Olamshayx, Jo'gi no'yon, ikkita opa-singlisi Qutlug' Turkon-og'o va Sherbek-og'o erur.

Qorachor no'yonning yettinchi o'g'li – Sharg'o. Uning Qozon ismli bitta o'g'li bor edi; uning To'g'on degan o'g'li bo'lgan. To'g'onning Muborak ismli o'g'li bor edi. Muborakning ikkita o'g'li bor edi: birinchisi – amir G'iyosiddin, ikkinchisi – amir Joku. Amir G'iyosiddinning beshta o'g'li bor edi. Birinchisi Hoji; uning Yodgor ismli bitta o'g'li bor edi; uning esa Shohsayid degan o'g'li bor. Amir G'iyosiddinning ikkinchi o'g'lining ismi Nurulmulk edi. Uning ikkita o'g'li bor edi: birinchisi – Sulton Boyazid; uning Shayx Abdulloh ismli bitta o'g'li bor: Nurulmulkning ikkinchi o'g'li – Jahonmulk. Amir G'iyosiddinning uchinchi o'g'li – Idiku Bahodir; u uzoq muddat Kirmon saltanatini boshqardi. Hozir uning farzandlari[dan] Sulton Uvays Samarqandda, ulug' amirzoda Ulug'bek ko'ragon, – Alloh taolo uning saltanatini abadiy etsin, – qoshida erur. Uning oltita o'g'li bor: Abdulloh, Abdurahmon, Abdulaziz, Ahmad, Muhammad, Mahmud.

Amir Idikuning boshqa bir o'g'li Sulton Husayn, hozir jahon va jahon ahli shahzodasi Boysung'ur Bahodirning mulozimi va qo'shin amiri erur. Uning ikkita o'g'li bor: Sulton Abu Said, Sulton Ali.

Amir Idikuning boshqa o'g'illari: Sayid Sulton, Sulton Abulfath, Sulton Ibrohim. Amir G'iyosiddinning boshqa bir o'g'li – amir Shohmalik; uning ikkita o'g'li bor edi: Bahlul va Uvays; uning (Uvaysning) ikkita o'g'li bor: (14 *a*) Muhammad va Ibrohim. Amir Muborakning ikkinchi o'g'li – amir Joku. Uning uchta o'g'li bor edi. Birinchisi – Qoratemur, u mo'tabar amir edi. Hazrat Sohibqiron davlati zamonida uning tomonidan kutilmaganda gunoh ish sodir bo'ldi va o'sha sababdan Mo'g'uliston tomonga ketib qoldi va o'sha yerda vafot etdi. Amir Jokuning boshqa bir o'g'li – amir Jahonshoh. U hazrat Sohibqiron zamonida amir al-umaro edi. Uning haqida tarixlar [sharhida] o'z o'rnida hali ko'p aytilajak, – inshoollohi taolo. Uning farzandlari – Xalil Sulton, Pir Ali, Pirmuhammad, Pirsulton, u Burunduq ismi ila mashhur edi. Uning to'rtta o'g'li bor.

Sulton Abuyazid; uning uchta o'g'li bor: Sulton Abu Said, Sulton Ahmad, Sulton Muhammad. Amir Burunduqning boshqa bir o'g'li – Jaloliddin, yana biri – Sulton Abu Said, yana biri – amirzoda Alika, hozir hazrat [Shohrux] mulozimi erur. Amir Jahonshohning boshqa bir o'g'li Sulton Ibrohim erur. U hozir devon amiri, lashkar tavochisi va tuman amiri erur; Qunduz, Baqlon va Bo'ruldoy tumani barchasi unga qarashlidir. Uning boshqa bir birodari Sulton Muhammad olam ahlining shoh va shahzodasi, hazrat Boysung'ur Bahodirning mulozimi erur hamda tuman amiri [vazifasida], Astrobod tu-

@tarixchi_kutubxonasiga

manining lashkari unga taalluqlidir. Uning ikkita o'g'li bor: Sulton Ahmad, Sulton Jahonshoh.

Amir Jahonshohning boshqa bir o'g'li amir Yahyo hozir shahzoda Jo'gi Bahodirning mulozimi erur.

Amir Jokuning uchinchi o'g'li amir Mizrob Bahodir, mo'tabar amir edi; uning farzandlari ko'p edi, biroq hammalari yoshlikda vafot etdilar. U amir ul-umaro edi. Qatlon ulusi uning ixtiyorida edi. Hazrat [Shohrux] Fors mamlakatini boshqarishni unga ishonib topshirdi. O'sha yerda umri tugab, haq rahmatig'a ketdi. Amir Joku va uning o'g'illari haqida so'z o'z o'rnida kelajak, inshaalloh.

Qorachor no'yonning sakkizinchi o'g'lidan hech nasl qolmagan. To'qqizinchi o'g'il Elbuloqdan ham nasl yo'q. Uning o'ninchi o'g'lidan Sog'u ismli bir o'g'il bor. Uning ikkita o'g'li bo'lgan: Ko'ktemur va Qo'ranqo. Ko'ktemurning uchta o'g'li bor edi: Mo'nko, Tator, Muborak; Muborakning ikkita o'g'li bor edi: Iskandar va Shohmalik, Shohmalikning to'rt o'g'li bor edi: Bahlul, Jalil, Hasanshoh, Abulhasan. Qo'ranqoning esa Shayx Muhammad degan o'g'li bo'lgan; [Shayx Muhammadning] ikkita o'g'li bor edi: birinchisi – Qutluq Bug'o, uning Salji ismli bitta o'g'li bor edi; ikkinchisi – Iyji Buqo, uning Shayx Darvesh ismli bitta o'g'li bor edi. Shayx Darveshning yetti o'g'li bo'lgan ekan: Odam, Iliksulton, Sulton Abu Said, Sulton Abulxayrshoh, Muhammad, Xumoriy, Qovchi. [Qorachor no'yonning] o'n birinchi o'g'li – Bek Buqo, o'n ikkinchisi – Qazon, o'n uchinchisi – Iyku, o'n to'rtinchisi – Tingiz. Bulardan birorta mashhur nasl yo'q. Lekin o'n beshinchi o'g'il – Tobonning Qora ismli bitta o'g'li bor edi. Uning Dodmulk ismli boshqa bir o'g'li bor edi. Ulardan farzandlar bo'lgan ekan, biroq birortasining ismi ma'lum bo'lmadi. Boshqa to'rt o'g'il: Amir Muhammad Ali, Amir To'kal, Cho'ron, Olako'chal. Ulardan nasl qolmagan.

HOFIZI ABRUNING «ZAYLI ZAFARNOMAI SHOMIY» ASARIDAN[1] LAVHALAR

(380) So'ngra [ma'lum bo'lsinki], ushbu [parcha], – Alloh nurli qilsin, – o'lkalarni zabt etuvchi hazrat Sohibqiron, – Alloh uning shuhratini yorqin etsin va [a'mol] tarozusi [pallasi]ni yaxshiliklar bilan og'ir qilsin, – haqida yozilgan «Zafarnomai shohiy» («Zafarnomai Shomiy») kitobiga ilova erur.

Bu kitob sakkiz yuz oltinchi yil ramazon oyi boshlarigacha (1404-y., 13-mart) bo'lgan [tarixiy voqealar], ya'ni hazrat Sohibqiron, – Alloh uning

[1] Mazkur «Zayl» Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» asarining o'zbekcha nashrining oxirida berilgan (*Nizomiddin Shomiy*. «Zafarnoma».).

@tarixchi_kutubxonasiga

shuhratini yorqin etsin, – Rum o'lkasini bosib olgach, Arron Qarobog'idan dorussaltana Samarqandga qaytishga otlanish [voqealari] bilan tugatilgan.

Undan so'ng, to hazrat Sohibqiron vafotigacha yuz bergan voqealar va kechinmalarni hazrat saltanat shiorli Shohrux, – Alloh taolo uning saltanatini yer yuzida abadiy etsin, – ishorasi ila xizmatkorlarning eng kamtarini, ya'ni Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid, laqabi Hofizi Abru qalamga oldi. Kamina o'sha vaqtlarda humoyun o'rduda mulozim edim va [quyida] keltirilayotgan kechinmalarni kuzatib borganman.

[Bu yozilganlar] har qanday holatda ham qutulish mumkin bo'lmagan xato va kamchilikdan xoli emas. Ushbuni o'qigan ulug'lardan umid shuldurkim, ularni (381) ko'rganda, tuzatib ketsalar.

(382) [Hazrat Sohibqironning Ozarbayjon va Iroqi Ajam] mamlakatlarini Amirzoda Umarga belgilaganligi bayonida

Hazrat Sohibqironning, – Alloh uning shuhratini yorqin etsin, – humoyun bayroqli [lashkari] Ardabil tevaragiga yetib kelgandan keyin, garchi ilgariroq qaror qilingan bo'lsa-da, mazkur ramazon [oyining] yigirma beshinchisida (1404-y., 6-aprel) yakshanba kuni Amirzoda Umar Bahodirni Iroqi Ajam, Ozarbayjon, Arron, Mug'on, Armaniya, Gurjiston mamlakatlari va ularga tobe hamda yondosh yerlarini boshqarish va ellarini so'rash uchun belgilab, amir Jahonshoh ibn amir Chokuni u bilan yubordi. Ul mamlakatlarning hal qilish va man etish, egalik qilish va kengaytirish [ishlarini] ularning ixtiyoriga topshirdi. Shu bilan birga quyidagilarni ta'kidladi:

[Oyatda]: «So'zsiz, eng yaxshi ozuqa taqvodir»[1], – deyilganidek, lozimdirki, uning ravshan ra'yi va uzoqni ko'ruvchi aqli ishlarini olib borishda va kundalik hayotda oxirat ozuqasi va bu dunyoda himoya quroli bo'lmish taqvo ham parhezkorlikni odat qilsin va saodat savdosining sarmoyasiga aylantirsin. Aniq bilsinki, kimki eng yaxshi xislatlar va ma'qul sifatlarni kasb etgan bo'lsa, taqvo vositasida yaxshi axloq bilan himoyalangan bo'lsa, umr tashvishlari va podshohlik g'ulg'ulalarida Alloh roziligining ulug'vorligini lozim deb topgan bo'lsa, u kishi o'z faoliyati ko'zgusida orzu-umidlar chehrasidan o'zga narsani ko'rmagay va tinchlik-omonlik daraxtidan shodxurramlik mevasidan o'zga narsani termagay.

Kimki Allohdan qo'rqsa, Alloh uning oxiratini [xayrli] etgay va unga u umid qilmagan tomondan rizq-ro'z bag'ishlagay[2], – xodimlar va lashkarga maosh, in'om, ukalko va suyurg'ol bermoq xayrli ishlarga keng yo'l ochish uchun qilinib, isrofgarchilik va haddan oshirmoq holatidan me'yor va o'rtamiyonalik tomon og'moq lozim, toki ishlarning borishi to'g'rilik

[1] Qur'oni karim, 2-sura («Baqara» surasi), 197-oyatdan.
[2] Qur'oni karim, 65-sura («Taloq» surasi), 2-, 3-oyatlar.

@tarixchi_kitoblar_olami

qonunidan chetga chiqmasin, to'sqinlik qiluvchi sabablar bir-biriga ulanib ketmasin, dil dardini keltirib chiqarmasin va pushaymon bo'lishga to'g'ri kelmasin. Ana shundagina [odam] zulm qilmoq va xasislikdan uzoq bo'ladi, ortiqcha xarajat va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaydi. Alloh taolo aytmish: (383) «[Baxillik bilan] qo'lingizni bo'yningizga bog'lab ham olmang, isrofgarchilik qilish bilan uni butunlay yozib ham yubormang»[1], [ya'ni] chiqim bilan kirimni bir me'yorda tutsin, shundagina yurtni [boshqarishdagi] barcha zarur ishlar unga oson bo'lg'ay va zulm qilmoqqa hech bir zarurat qolmag'ay. Chegaralarga hayot sinovlari bilan tanish, zamona hodisalari bilan egizak tug'ilgan hushyor va sergak, mardonalikda tanilgan va tajribali kishilarni qo'ysin: [ul joylarini] fahm-farosat va shijoat bobida yetuk kishilardan hech qachon xoli qoldirmasin. Chunki to'satdan biror kor-hol bo'lib qolsa yoki qandaydir zarurat tug'ilsa, zudlikda g'aflat oqibatlaridan himoyalangan bo'ladi hamda nadomat sharmandaligi va malomat tamg'asi unga bitilmaydi. Yo'llarni qo'riqlashda iloj-imkoni boricha harakat qilsin va ularni muhofaza qilishni mamlakatni idora etmoq shartlaridan biri, deb bilsin. Savdogarlar va yo'lovchilarning dillariga ozor yetishiga va [ularning] xafa bo'lishiga aslo yo'l qo'ymasin. Qolgan ishlarni o'zi anglab yetib ish yuritsin, deb uning aqli va fahm-farosati ixtiyoriga qoldirdi.

O'sha paytda Amirzoda Umar nomiga mavlono Shamsiddin Munshiy qalami ila bitilgan [Sohibqiron Amir Temur] hukmi

Hukm quyidagi iboralar bilan boshlangan edi: «Huva al-g'ani-yu; al-hukm-u lillahi taolo; al-qudrat-u lillahi taolo; Temur Ko'ragon so'zimiz!»

(Tarjimasi): «U (Alloh) – g'aniy erur; hukm Alloh taolo hukmidir; qudrat Alloh taolo qudratidir; mulk Alloh taolo mulkidir; Temur Ko'ragon so'zimiz!»

Og'a-inilar, o'g'lonlar, farzandlar, kuyovlar, ulus, tuman, hazora va sada amirlari bilsinlar! [Taqdir] xatlarini bituvchi munshiylar va Tangri [hukmlari] daftarining hisobchilari [bo'lmish] farishtalar, «Men yerda bir xalifa yaratmoqchiman»[2], – [degan oyat] hukmini imzolash paytida, «Sen istagan kishingga mulk ato qilursan»[3], – [oyati so'zlaridan iborat] saltanat va jahondorlik farmoni hamda davlat va komronlik buyrug'i matnini [Qur'oni karim oyatida hazrat Sulaymon (384) tilidan], «Bizga [podshohlarga berilgan] barcha narsalardan berildi»[4], – [degan] muhr ila bezatmishlar hamda [oyatda], «Parvardigorim, menga birortasi uchun muyassar bo'lmaydigan bir mulk hadya etgin»[5], – [degan] duoni o'lkalarni zabt qilmoq uchun ijobat etmishlar.

[1] Qur'oni karim, 17-sura («Isro» surasi), 29-oyatdan.
[2] Qur'oni karim, 2-sura («Baqara» surasi), 30-oyatdan.
[3] Qur'oni karim, 3-sura («Ol-i Imron» surasi), 26-oyatdan.
[4] Qur'oni karim, 27-sura («Naml» surasi), 16-oyatdan.
[5] Qur'oni karim, 38-sura («Sod» surasi), 35-oyatdan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Natijada, baxt yulduzi balqib, rub'i maskunning inon-ixtiyori qo'lga kiritilmish, «Bu Egamning fazl-u marhamatidandir[1], hamd-u sano butun olamlar xojasi Alloh uchundir»[2]. Sa'y-harakatni obodonchilik va fuqaro farovonligiga yo'naltirishni hukmdorlik yo'l-yo'riqlarining farzlaridan va jahondorlik sunnatlaridan deb bildik. Chunki bu [Allohning mazkur] in'omi va ne'matining shukronasi erur. Allohga hamd-u sano va uning in'omiga [shukronalar bo'lsin]. Chunki saltanat cho'qqisi yuksaldi va maqsad amalga oshdi, – bu Allohning fazl-u marhamati, uni o'zi xohlagan kishisiga ato etur[3].

Hozirgi vaqtda, aziz farzandlardan har birini, – Alloh ularning umrini uzun qilsin, – qo'l ostimizdagi mamlakatning bir tarafini boshqarmoqqa tayinlayotgan ekanmiz, suyukli, hurmatli, shon-shuhratli, arziguli, saodatli, xushfe'l, ulug' Tangri rahmatiga loyiq farzand, ya'ni hayotimiz farog'ati va naslimiz chirog'i bo'lmish Umar Bahodirni, – Alloh uning umrini uzoq qilsin, – mehribonlik va inoyat yuzasidan hamda ko'pdan ko'p siylov va maxsus lutf ko'rsatib, Fors va Kirmon mamlakatlarini to Hurmo'z va Iroqi Ajamgacha; Raydan to Ozarbayjon, Arron, Mug'on, Qarobog', Jiylongacha barchasini; Shirvon, Shamoxiy va Darbanddan to Bob ul-Abvobgacha; Gurjiston, Abxoz, Kurdiston, Diyorbakr va Iroqi Arabdan to Hijozgacha; Rum o'lkasidan to Istanbul va Farang diyorigacha; Shom diyorining Iskandariya va Misrning Nil [daryosi]gacha saltanat, el so'rash, egalik va boshqarish uchun tayinladik va [ushbu hududni unga] ishonib topshirdik. Ulardagi barcha ishlarni hal qilmoq va man etmoq jilovini uning boshqarish kaftiga va bahodirlik changaliga tutqazdik. Jahon bo'ysunuvchi va doim kuchini yo'qotmaydigan bu hukm [barcha] o'lkalarga e'lon qilindi. Toki mazkur mamlakatning podshohlari, hokimlari, voliylari, amirlari, ulug'lari, sadrlari, zodagonlari, akobirlari, a'yon, ashrof va taniqli [kishilari] nomi yuqorida eslatilgan eng aziz farzandni ul joylar saltanat taxti va viloyatlarining egasi, nufuzli hokimi hamda arzigulik hukmdor deb bilib, muhim ishlarda to'la-to'kis uning noiblariga murojaat (385) qilsinlar; uning mamlakat obodonchiligining asl nizomi va ular osoyishtaligining mazmun-mohiyatidan iborat bo'lmish farmoni va buyrug'idan bosh tortmoqni lozim topmasinlar; uning so'zsiz adolat va haqiqatni ko'zlovchi amrini va taqiqlaganini itoat bilan bosh ustiga, deb qabul qilsinlar; farmonbardorlik va xizmatkorlikning to'g'ri yo'lidan boshqa hech qanday yo'lni izlamasinlar; uni va uning noiblarini mamlakatda [sodir bo'ladigan] muammolarni bartaraf etishda qo'li ustun, qudratli sohibi ixtiyor va to'la huquqli, deb bilsinlar; uning farmoni hududidan bosh chiqargan har qanday baxti qora, shubhasiz, hayotning

[1] Qur'oni karim, 27-sura («Naml» surasi), 40-oyatdan.
[2] Qur'oni karim, 1-sura («Fotiha» surasi), 2-oyatdan.
[3] Qur'oni karim, 57-sura («Hadid» surasi), 21-oyatdan.

@tarixiy_kutubxonaga

kundalik ming turli hodisalari dastidan yer bilan yakson bo'lgusidir, ixlos oyog'ini itoat doirasiga qo'ygan har bir saodatli kishi esa, uning baxtiyorlik etagini tutsa, so'zsiz martabasi ulug' bo'lg'ay.

[Nomi] yuqorida eslatilgan suyukli farzand ham, o'z navbatida, [zimmasiga yuklangan] ushbu ulug' ishni shu yo'sinda olib borsinki, toki u adolat, haqiqat, hukmdorlik zaruriyatlari va raiyatparvarlik uchun kafolat bo'la olsin hamda uning qoidalariga shunday bir tarzda amal qilsinki, toki u olamning obodligi va insoniyat tinch-totuvligi bilan yakun topsin; solih kishilar ahli taqvo va irshod, as'hobi sidq va haqparvarlarni qo'llab-quvvatlash va e'zozlashda, masjid va madrasalarni ta'mirlashda va xayrli dargohlarni ko'paytirishda tirishqoqlik namoyish etib, mufsidlar, avboshlar, jinoyatchilar va qaroqchilarni hamda shariatga xilof ishlarning ko'payishini va noloyiq qonun-qoidalarni tag-tugi bilan yo'qotishni zarur va lozim, deb bilsin. Shundagina mamlakat ishlari bir tekis boradi: saltanat mavqei va to'g'ri yo'l-yo'riq barqaror bo'ladi, – ko'mak va omad Allohdan.

Har ikki tomon shunga rioya qilsinlar va yuksak orzu-umidlar oliy muhr ila imzolangani va bezatilgani uchun unga ishonsinlar. Hijriy sakkiz yuz oltinchi yil ulug' sha'bon oyining oxirlarida (1404-y., mart) bitildi.

Amirzoda Umar va amir Jahonshoh ularning ixtiyoridagi askarlar bilan Ozarbayjon tomon yo'l oldilar.

[Amir Sohibqironning] sultonlik bayroqlari Sultoniya tomon harakat qildi. [O'sha yil] yettinchi shavvolda (1404-y., 18-aprel) jahon ahlining hukmdori va shahzodasi Xalil Sulton Bahodir, – uning qabri uzra (386) Allohning nuri yog'ilsin, – Samarqand tomondan yetib keldi va ulug' dargohga ul tomon yangiliklari va ahvolini bevosita arzga yetkazdi; [dillarda] shodlik, xursandchilik, xurramlik va osudalik ortdi.

(391) Hazrat Sohibqironning dorussaltana Samarqand tomon yo'l olganligi bayonida

Hazrat Sohibqiron, – Alloh uning shuhratini yorqin qilsin, – ushbu voqealardan so'ng yo'lga otlanib, Gilonot hududida Damovand tog'i[1] etagida Lor mavzesiga kelib qo'ndi. O'z vaqtida podshoh Arg'un[2] u yerga bitta ko'shk qurdirgan edi va hozir ul joy Ko'shki Arg'un nomi bilan taniqlidir.

Sakkiz yuz oltinchi yil yigirmanchi zulhijja, yakshanba kuni (1404-y., 29-iyun), davlat chodirining markazi bo'lmish dorussaltana Samarqand sari yurmoqqa qaror qilindi va amirlar-u a'yonlar bilan birgalikda sur'at

[1] *Damovand tog'i* – Elburs tizmasi, Eronning shimoliy qismida; bu yerda ushbu tog'ning Damovand cho'qqisi (vulqoni) yaqinidagi joylar nazarda tutilgan.

[2] *Arg'un (Arg'unshoh)* – Erondagi elxoniylar sulolasiga (1284 – 1291) mansub hukmdor.

@tarixiy_kutubxonasiga

ila ravona bo'ldi. Yigirma ikkinchi [zulhijja] (1404-y., 1-iyul) seshanba kuni Feruzko'hga kelib qo'ndi. Yigirma to'rtinchi [zulhijja] (1404-y., 3-iyul) payshanba kuni Bistomga[1] yetib keldi. Sakkiz yuz yettinchi yili muqaddas muharram oyining boshida (1404-y.,10-iyul) chorshanba kuni Nishopurdan[2] otlanib, Ishqobodga[3] yetib, shohona chodir tikdi. Uchinchi muharram (1404-y., 12-iyul) juma kuni [Hazrat shayx Ahmad] Jomning[4] tabarruk mozori [ziyoratiga kelib], iqbol chodirini o'rnatdi.

Hirot [viloyatiga] yaqinlashganda, ulug' hukmdor xoja Faxriddin Ahmad Tusiyni Xuroson oliq-solig'ini yig'ish bo'yicha nazoratchi qilib tayinladi. [Shundan so'ng] xoja Faxriddin Ahmad toshqin selday va ko'zni qamashtiruvchi chaqmoqday Hirot tomon oshiqdi va qirq kun deganda ikki yuz tuman kepakiy miqdorida mablag' yig'ib, xazinaga keltirdi va shu yilning rabi' ul-avvalida (1404-y., sentabr) palos o'pmoqlik sharafiga muyassar bo'ldi hamda yig'ib olingan mablag'ni arzga yetkazdi. Uning bu (392) ishi ma'qullandi va unga nisbatan e'tiborning kuchayishiga hamda hurmatning ortishiga sabab bo'ldi.

Hazrat Sohibqiron, – Alloh uning shuhratini yorqin etsin, – dorussaltana Samarqandga kelib tushdi va u yerdagi zarur ishlar bilan mashg'ul bo'ldi; soliq yig'uvchilar [ummol] va ishchilarni tanbeh berib, so'roq qildi. [Gap shundaki], xoja Jaloliddin Mahmud saltanat devonining noibi etib tayinlangandi. Jahonni zabt etuvchi bayroqdor Rum va Shom mamlakatlarini egallash hamda Gurj[5] va Ifranjga g'azovot qilish bilan mashg'ul bo'lgan muddat ichida, u bu necha yil dorussaltana Samarqand devonining mutlaq hokimi edi va uning hukmi barcha mamlakatlarga o'tar, qanoatliligi, to'g'riligi, halolligi va diyonatliligi bilan tayinlandi. Biroq ilohiy taqdir va osmoniy hukmga ko'ra, uni tanbeh berib qamoqqa oldi va bir necha kundan so'ng yosoqqa yetkazdi. Chunki dorussaltana Samarqandda qurilgan jome masjidining[6], – bu haqda aytib o'tildi, – kiraverishdagi ayvoni garchi ko'kka bo'y cho'zgan bo'lsa-da, ammo maqsuraga qiyosan pastroq ko'rinar edi. Allaqanday g'arazchilarning bo'htoni sababli, ancha vaqtdan buyon vazirlik sershox daraxtning bir shoxi bo'lmish xoja Sharafiddin Ali Simnoniy janobi

[1] *Bistom* – Eronning shimoliy qismida, Xuroson va Movarounnahrga boradigan karvon yo'lidagi manzilgoh. Hozirgi vaqtda Simnon viloyatidagi kichik aholi maskani.

[2] *Nishopur* – Eronning Xuroson ostonidagi shahar.

[3] *Ishqobod* – hozirgi Ashxobod, Turkmanistonning poytaxti.

[4] *Ahmadi Jom* (1049–1142) – Saljuqiylar saltanati davrida Xurosonda yashab o'tgan yirik mutasavvif shayx.

[5] *Gurj* – Gurjiston, Gruziya.

[6] *Samarqandda qurilgan jome masjid* – Amir Temur buyrug'i bilan 1399–1404-yillar davomida qurib bitkazilgan; Bibixonim madrasasi qarshisida joylashgan bo'lganligi sababli tarixda «Bibixonim masjidi» nomi bilan mashhurdir.

@tarixchi_kitoblar_kutubxonasiga

oliylariga marhamat qildi va unga yana o'sha sohibi devonlik mansabini in'om etdi. Chunki ayqoq taftishchilar qanchalik talashib-tortishmasinlar, uning Xuroson, Iroqi Ajam[1], Qo'ms[2] va Mozandaron[3] [o'lkalaridan] mutlaq hokim bo'lib turganligi yuzasidan hatto bir dinor miqdorida ham kamomad ko'rsata olmadilar. Xoja Sharafuddin Ali va xoja Faxriddin Ahmadni Samarqand devoniga tayinladi.

Samarqandda bo'lib o'tgan to'y-hasham bayonida

Oliy o'rdu va katta o'g'ruq nusratshior bayroqlar ortidan dorussaltana Samarqandga yetib kelgach, hazrat Sohibqiron shunday bir buyuk yurishdan farzandlari va amirlari bilan sog'-salomat poytaxtga kelib qo'nganligi munosabati bilan katta to'y berib, sipoh amirlari va olampanoh dargohi bahodirlarini suyurg'amishi va ag'irlamishilar (393) ila siylab, har birining mansabi va hurmatiga qarab suyurg'ol va childu ila taqdirlamoqqa buyurdi. [Voyaga] yetgan shahzodalariga ham har qaysisiga o'ziga munosib, tagli-tugli yostiqdosh belgiladi[4]. Farmonga muvofiq ko'rkam Konigil o'langidan to Shovdorgacha, taxminan o'n farsang keladigan oraliqqa Sohibqironning muborak o'rdulari, barcha shahzodalar, og'alar, o'g'lonlar, amirlar, mo'tabar shaxslarning qaytullari va jahonni turk va tozikdan iborat zabt etuvchi turli-tuman askarlar har biri o'z mavqei va mansabiga ko'ra kelib qo'ndilar.

Katta o'rdu kelib tushgan joyga qirq ustunli oliy borgohni tikdilar; uning atrofida yarim farsang keladigan yerni borgoh, katta chodir va soyabonlar vositasida quyosh nurlari tushmaydigan qildilar; xisravoniy xumlar va kayxisraviy jomlarni qator terdilar; turli-tuman yegulik va ichimliklarni to'ldirib toshirdilar. Tabrik uchun kelgan yetti iqlim sultonlarining chodirlarini o'rdu atrofida tikladilar. Ularning ortidan yaqin-uzoqdan kelgan tuman amirlari va sipoh sardorlari, jo'ginlar jamoasi va hurmatli arboblar kelib tushdilar, ularning har biriga chodirlar qurilgan edi. Bular ortidan lashkar qismlari – mingliklar, qo'shinlar, yuzliklar va o'nliklar[5] tartib bilan har qaysisi o'z jirgasi ortida javq-javq bo'lib o'rnashdi; tavochi, ayudochi va yasovul amirlari

[1] *Iroqi Ajam* – Eronning Iroq bilan chegaradosh g'arbiy yerlari, Mesopotamiyaga tutash joylar.

[2] *Qo'ms* – Eronning shimoliy qismidagi tarixiy viloyat. Unga hozirgi Simnon ostonining shimoliy chekkalari va Mozandaron ostonining sharqiy qismi kiradi.

[3] *Mozandaron* – Eronning Kaspiy dengizi sohillarida joylashgan viloyat. Ma'muriy markazi – Sori shahri.

[4] Jumladan, quyidagi shahzodalar: Ulug'bek Ko'ragon va uning birodari Ibrohim Sulton bahodir; Jahongir ibn Muhammad Sulton bahodir; Umarshayxning o'g'illari: Amirzoda Boyqaro; Amirzoda Sayid Ahmad; Amirzoda Iyjal ibn Amirzoda Amironshoh bahodir.

[5] *Minglik, qo'shin, yuzlik va o'nlik* – lashkar qismlarining nomlari.

@tarixchi_kutubxonasiga

xos bedovlarga minib olib, tarq-u va nazli[1] tortmoq uchun guruhlarni tartibga keltirdilar.

Olamning turli taraflaridan yig'ilgan, tillari va kiyimlari bir-birlaridan farqli har qaysi mamlakat sozandalari, har bir iqlimning san'at ahllari-yu hunar sohiblari guruh-guruh bo'lishib, har diyorning o'zida rasm va odat qilingan zeb-ziynat buyumlari, taqinchoqlari, kiyim-kechak va matolari bilan yasanib, o'zlariga oro berdilar. Xushnag'ma sozandalar va xushovoz xonandalar fors tariqasida, ajam tartibida, arab qoidasida, turk yo'sunida, mo'g'ul ayolg'usida, xitoy rusumida, altoy uslubida soz chalmoq, ashula aytmoq va ohang bog'lamoq ila mashg'ul edilar.

To'y tayyorgarchiliklari tugab, aysh-ishrat uchun zarur narsalar muhayyo etilgach, saltanat, hashamat va ulug'likning maxsus taxtini borgohning markaziga o'rnatdilar. Xotinlar, kelinlar, o'g'illar, sultonlar va (394) shahzodalarga, shuningdek, qadrdon va shon-shuhratli qovchinlarga ham har biri uchun o'z martabasiga qarab joy belgiladilar. Shohlik palosi va shahanshohlik ko'rpachalarini birin-ketin yozib chiqdilar.

Hazrat Sohibqiron barchadan izzatliroq ulug'vor bir maqomda, sharaf go'shangasida, saodat masnadida hashamat bilan o'tirdi va yovni kuydirish sifatidan bazmni qizdirish sifatiga o'tdi, kuch-qudrat libosini go'zallik kiyimiga almashtirdi...

«Har kim o'z jirgasida o'tirsin», degan farmon bo'ldi. Suvchilar kosa tutmoq ila mashg'ul bo'ldilar. Davlat amirlari, hazrat [Sohibqiron]ning yaqinlari hamda mulk va millat mutasaddilari jirg'omishi va tuzg'u qilmoqqa[2] kirishdilar. Ayoqchilar ulkan shiraxona quvvati tufayli yer-u ko'kni mast qilib tashladilar. Qo'sh va qarov, to'ra va jirga tutib bo'lingach, «Turli mamlakatlardan – Xitoy, Altoy[3], Chekka Mag'rib[4], Misr, Rum, Farang[5] va Hind mamlakatlaridan kelgan elchilarning har birini o'z jirgasiga chorlab, tortiq va in'omlar ulashilsin», degan oliy farmon bo'ldi. Rub'i maskunning[6] to'rt chekkasi va yetti iqlim[7] xoqonlari, hukmdorlari va qaysarlarining xizmatkorlik va hamjihatlik haqida aytgan so'zlarini birma-bir sharhlab berdilar. Har bir o'lkadan kelgan boyliklar va xiroj miqdorining tafsilotini arzga yetkazdilar. [Amir Sohibqiron] ular yuborgan [elchilarni] o'z tarbiyat

[1] *Tarqu va nazli* – «tarqu» oziq-ovqatni anglatadi, «nazli» ham matn mazmunicha shunga yaqin ma'noda.

[2] *Mutasaddilari jirg'omishi va tuzg'u qilmoqqa* – davra qurib yeb-ichmoq.

[3] *Altoy* – Oltoy.

[4] *Chekka Mag'rib* – hozirgi Marokash hududi.

[5] *Farang* – G'arbiy Yevropa.

[6] *Rub'i maskun* – yerning obod choragi, Yevrosiyo materigi va Shimoliy Afrika.

[7] *Yetti iqlim* – qadimda fanda mavjud geografik tushuncha; dunyoning yetti iqlimi parallellar bo'ylab cho'zilgan yettita geografik zonadan iborat bo'lgan.

@tarixchi_kitobxonlariga

va e'tiboriga sazovor etdi. Jahon va undagi el-ulus ahvoli haqida qisqacha ma'lumot olgandan so'ng, ularni qarov odati bo'yicha siylamoqchi bo'ldi; katta-kichik hamma tiz cho'kkan holda yorlig' va farmonga muntazir bo'ldilar. Hazrat Sohibqiron shunday buyurdi:

«Tengi yo'q Tangri va rang-barang olamning egasi rub'i maskundagi mamlakatlarning ixtiyori jilovini bizning qudrat changalimizga tutqazgan hamda jahonning quruqligi-yu suvlaridagi barcha maxluqotni bizning amrimizga bo'ysundirgan ekan, olamni yorituvchi oftob misoli, uzoq va yaqinni bir xil bilib, barcha davlatlar (395) va millatlardagi kuchli va zaif, faqir va sharif katta va kichik hammasini o'z marhamatimiz himoyasi va shafqatimiz soyasida bir xil ko'rishni, har bir kishini o'z mavqeiga qarab, bu buyuk davlat mahsulidan bahramand etishimizni shart qilib qo'ymish. Sizlar ham har doim, «Agar [bergan ne'matlarimga] shukur qilsangizlar, albatta, ularni ziyoda qilurman»[1], – [degan oyat] hukmiga ko'ra, Alloh taologa shukrona qilmog'ingiz lozim. Toki, «Agar noshukurchilik qilsangizlar, so'zsiz, azobim ham qattiqdir»[2], – [degan oyat] so'zlarining og'ir kulfatiga giriftor bo'lmagaysiz». So'ngra [hazrat Sohibqiron] Xitoy sari cherik tortmoqlikka jazm ayladi va buyurdi:

«Biz mashriq mamlakatini egallashni va ul tomon kofirlarini zabt etmoqni maqsad qilib qo'yganligimiz uchun sizlar, to biz ul yurishdan qaytib kelgunga qadar, har qaysingiz o'z sarhadlaringizda bo'lib, ahdlashilgan qaror, yosoq uslubi[3] va ulug' to'ra[4] yo'lidan chetga chiqmasligingiz lozim. Chunki Xudo ko'rsatmasin, ba'zilarning kaltafahmligi sababli, ulug' to'raga xilof ish yuz bersa, buyuk davlatimizning uzun uqruqi, albatta, unga chora ko'radi va bir yomonning yomonligi tufayli ko'plab solih kishilar ham jazo va bandga mahkum bo'ladilar».

Ushbu so'zlarni ta'kidlab aytgach, katta ukalko tarqatishni ulus tavochilariga topshirdi, barcha qo'shin boshliqlari va olampanoh borgoh solorlarini to'n va sovg'alar bilan taqdirlab, sarafroz etdi...

(397) Xitoy yurishi bayonida

Bir necha kun chuqur o'ylash va mashvaratdan so'ng [hazrat Sohibqiron] Xitoy tomon yurishga qaror qildi. Qishning qoq chillasi edi. Tog' va qirlar qora cho'qqisiga oq parda yopilgan, cho'l zangori kiyimini simobiy libosga almashtirgan, taqdir zargari Sayhun daryosini xuddi kumush quymasidek qilib qo'ygan, qishning po'stinchisi [yer yuzi] iqlimlarining eni va bo'yiga

[1] Qur'oni karim, 14-sura («Ibrohim» surasi), 7-oyatdan.
[2] Qur'oni karim, 14-sura («Ibrohim» surasi), 7-oyatdan.
[3] *Yosoq uslubi* – belgilangan qoida.
[4] *Ulug' to'ra* – asosiy qonun.

@tarixchi_kutubxonasiga

moslab oq libos bichgan, ariqning ustki sathi bir nayza bo'yicha bamisoli yashm toshidek[1] bo'lgan, sahro sahni va daryo yuzi qor qoplamidan sathi bir xil bo'lib qolgan mavsum edi...

O'sha kezlarda havo shu darajada sovib ketdiki, ko'pchilik akobirlar-u zodagonlarning ba'zi a'zolarini sovuq oldi, oddiy odamlar va xodimlarning ko'pchiligi halok bo'ldi. Qavs [oyi]ning boshidan to hut [oyi]ning oxirigacha Jayhun va Sayhun daryolarining barcha kechuvlaridan lashkarlar, karvonlar, aravalar, fillar va hokazo muz ustidan o'tdilar. Sovuqning qattiqligidan til og'izda uyushib qolardi, [ona] qornidagi bolaga ham zarar yetishi aniq edi.

Sakkiz yuz yettinchi yil qutli rajab oyining o'n ikkinchisida (1405-y., 15-yanvar) [hazrat Sohibqiron] O'tror shahriga kelib tushdi. Kuzatib qo'yish uchun mulozimlikda bo'lgan bir guruh oqolar, farzandlar va arkoni davlatning xushdillik va baxt-u saodat ila qaytib ketishlariga ruxsat bermoqchi bo'lib, [shu munosabat bilan] sharob ichmoqqa rag'bat qildi. Bir kecha-kunduz bazm soqiylari qo'lidan to'la qadah va jom olib, go'zal parivashlar yuzidek gulgun boda va rayhondek [xushbo'y] sharob ichmoq ila g'animat tongi boshini murod yoqasidan chiqardi, aysh-ishrat quyoshi xurramlik mashriqidan chiqdi. Shodlik manbai va dilxushlik sarmoyasi bo'lmish sharob lashkari ketma-ket dimog' maydoniga ot surib, g'amning gerdaygan [bo'yni] va o'ylovning bozorini sindirar, xurramlik bog'lari-yu aysh-u tarab niholini yangidan yashnatar edi...

Ul muqaddimaning xulosasi murodsizlikdan iborat bo'ldi. Ayovsiz taqdir ichmoq ortidan o'ch olmoq nishtarini sanchdi; bevafo dunyo xursandchilikni yig'iga va bazmni motamga aylantirdi.

(399) Hazrat Sohibqironning, – Alloh uning shuhratini yorqin qilsin, – vafoti bayonida

Har bir boshlanishning nihoyasi va har bir quyosh chiqishining botish [vaqti Alloh tomonidan] oldindan belgilangan bo'lgani uchun [Hazrat Sohibqironning] muborak mizoji tiriklikning katta yo'lidan va mo'tadil chegarasidan chetga chiqa boshladi: humoyun holati salomatlik bezagi va yengillashish chiroyidan ajraldi va keraksiz bo'lib qoldi; ruh va rohatning porlab turgan tongi azob va malollikning zulmat orttiruvchi shomiga aylandi.

Hazrat Sohibqiron, – Alloh uning shuhratini yorqin qilsin, – shunday dedilar: «Umr bo'yi menda, umuman, o'tkir ichimliklarga mayl bo'lmagan... Ko'p gunoh qilingan bo'lsa-da, biroq, – Allohning rahmat-marhamatidan noumid bo'lmangiz[2], – [Parvardigorning] dargohi keng erur».

[1] *Yashm* – oq nefrit.

[2] Qur'oni karim, 39-sura («Zumar» surasi), 53-oyatdan.

@tarixchi kutubxonasiga

[Hazrat Sohibqiron], «U (Alloh) bandalaridan tavba-tazarru' qabul qilguvchidir»[1], – (degan oyat) bashoratini anglab yetmoq qulog'i bilan eshitib, «Allohga tavba qilinglar»[2], – (oyati) uni to'g'ri yo'lga boshladi.

Uning buyrug'i bilan ko'ngilxushlik va [musulmonchilikda] taqiqlangan barcha asbob-anjomlarni sindirdilar. [O'zi esa], chin dildan ont ichib tavba qildi va, «Alloh tinchlik makoni – jannatga da'vat qilur»[3], [oyati] uyining ziyofatiga tayyor bo'ldi: butun fikr-u xayolini esa, «Ey, osuda jon, sen Parvardigoring [huzuri]ga qayt!»[4] – [oyati]ning farmoniga qaratdi.

Odatga ko'ra, arkoni davlat va hazrat [Sohibqiron]ning yaqinlari har biri [Allohga] iltijo qilib turardilar. Shu orada [Allohning] quli bo'lmish hazrat Sohibqiron avval bir barmog'ini, so'ngra ikki barmog'ini ko'tardi va ko'zi bilan imlab, bu nimani anglatishini so'radi. Amirlardan ba'zilari bunga javob topmoqqa urindilar va: «Hazrat [Sohibqiron tuzalish uchun] bir yoki ikki iloj qoldi [deb ishorat qildilar]», – deyishdi. [Hazrat Sohibqiron]: «Yo'q, men unday demoqchimasdim», – deb, ushbu bayt mazmunida yotgan so'zlarni aytdi:

«Jahondor dedi, bu o'lmoq demakdir,
Chunki yashamoq men uchun topmish yakun...»

(400) Hech bir kina-kuduratsiz taqdirga tan berib: «Men sizning orangizda bir kun yo ikki kundan ortiq bo'lmasman», – dedi. Ushbu so'zlarning [haqligini isbotlash uchun] guvohlikka tabiblarni chaqirtirdi va amirlar barcha kechmishni so'zlab berdilar. [Allohning] bandasi bo'lmish hazrat [Sohibqiron tabiblarga]: «Rostini ayting, xushomad qilmang, chunki menga to'g'rilik yoqadi», – dedi. Tabiblar dedilar: «Allohning inoyati bilan hali ko'p yillar Yaratganning soyasi [bo'lmish podshohimiz] rub'i maskundagi mamlakatlar uzra barqaror bo'lgay, degan umiddamiz. Biroq tibbiyot qoidasidan kelib chiqilsa, [Allohning] quli bo'lmish hazrat [Sohibqiron] aytganlaricha erur». Bundan mulozimlardan ba'zilarining, nega bunday dedingiz, deb jahli chiqdi. [Allohning] bandasi bo'lmish hazrat [Sohibqiron] esa, ularga tahsinlar aytdi. Qisqasi, tabibning iloj qo'li davolamoq etagini tutmoqqa kaltalik qilib qoldi... Shunchalik iste'dod, lashkarning ko'pligi hamda saltanatning ulug'vorligi va qudrati o'lim yo'lboshchisi oldida to'siq va qaytarguvchi bo'la olmadi.

Saltanatni boshqarmoq navbati xotima topdi. Jafokor ro'zg'orning hayotini berish-u qaytarib olish hukmiga ko'ra o'lim elchisi, «Agar ajallari yetsa,

[1] Qur'oni karim, 42-sura («Sho'ro» surasi), 25-oyatdan.
[2] Qur'oni karim, 66-sura («Tahrim» surasi), 8-oyatdan.
[3] Qur'oni karim, 10-sura («Yunus» surasi), 25-oyatdan.
[4] Qur'oni karim, 89-sura («Va-l-Fajr» surasi), 27-, 28-oyatlardan.

@tarixchi_kutubxonasiga

uni biror soat orqaga ham sura olmaydilar, ilgari ham qilolmaydilar»[1], – degan oyat yorlig'ini yetkazdi va [Amir Sohibqironning] davlati haqidagi farmon qaytarib olindi.

(401) Taqdir qalami jahon shohining boqiylik [haqidagi] farmoniga fano tug'rosini bitdi. Yetti iqlim shahriyorining pok ruhi to'qqiz falakning cho'qqisiga ko'tarildi hamda o'tkinchi saroy va azob-uqubat manzilidan anislik ravzalari va jannat bog'lari sari xirom ayladi. Taqdirda bor qazo maktubi, «[Yer] yuzidagi barcha jonzot foniydir»[2], – [oyati]ning xotimasi ila yakunlandi va sakkiz yuz yettinchi yil sha'bon oyining o'rtasida (1405-y., 18-fevral)[3] O'tror mavzesida [hazrat Sohibqiron ruhi] yaxshilar maqomidan o'rin oldi.

SHARAFUDDIN ALI YAZDIY VA UNING «ZAFARNOMA» ASARI HAQIDA

Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»si Shohruxning o'g'li Ibrohim Sulton topshirig'iga ko'ra 1425-yili Sherozda yozilgan va tarixiy kechmishlar bayonining izchilligi bilan ajralib turadi.

Unda Amir Temur saltanatiga oid ma'lumotlar batafsil yozilgan va undan oldingi davr tarixidan ham bahs etadi («Muqaddima» qismida).

Asar muallifi Sharafuddin Ali Eronning Yazd shahridan uncha uzoq bo'lmagan Taftda tug'ilgan va 818 (1415–1416)–838 (1435)-yillarda Fors o'lkasi hukmdori Ibrohim Sulton xizmatida bo'lgan.

Sharafuddin Ali Yazdiy 858 (1454)-yilda vafot etgan va o'sha xonaqohda dafn etilgan.

Tarixchining ta'kidlashicha, Ibrohim Sulton bobosi Amir Temur haqida maxsus kitob yozdirishni niyat qilgan va 1419–1420-yilda turli kitoblar, baxshi va munshiylar tomonidan Amir Temur haqida turkiy hamda forsiy tilda yozilgan mavjud ma'lumotlarni to'plash haqida farmon chiqargan. Jamlangan ma'lumotlar voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishilar hikoyasi bilan taqqoslangan.

«Zafarnoma»ning Amir Temur tarixidan bahs etuvchi asosiy qismida Sharafuddin Ali shunday yozadi: «Podshohlikning barcha tomonlaridan Amir Temur haqidagi turkiy va forsiy tillarda bayon etilgan hikoyalarning hamma she'riy hamda nasriy nusxalari to'planib bo'lgach, ular bilan tanishish uchun uchta guruh tuzilgan, turkiy va forsiy tillarning bilimdonlari ikki guruhni, voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rganlar esa bir guruhni tashkil

[1] Qur'oni karim, 10-sura («Yunus» surasi), 49-oyatdan.

[2] Qur'oni karim, 55-sura («Rahmon» surasi), 26-oyatdan.

[3] Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»sida bu sana «17-sha'bon» deb aniq ko'rsatilgan (*Sharafuddin Ali Yazdiy*. «Zafarnoma» (1972), 473 *a*).

@tarixchi_kutubxonasiga

etgan. Dastlab Amir Temur haqidagi har bir hikoya o'qilgan, agar u voqea bayoni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishining talqiniga to'g'ri kelmay qolsa, Ibrohim Sulton haqiqatni topish uchun turli shaharlarga choparlar yuborib, mazkur voqeani Amir Temurning boshqa zamondoshlaridan surishtirgan yoki qo'shimcha ma'lumotlar to'plangan. Boshqa guvohlarning hikoyalarini ham eshitgach, Ibrohim Sulton aytib turgan va asarning dastlabki xomaki si qalamga olingan. Ana shu asosda Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» asarini yozgan. Ibrohim Sultonning buyrug'iga muvofiq kitobni bitish vaqtida sanalar, joy nomlari, ular orasidagi masofa haqidagi barcha ma'lumotlar juda sinchiklab tekshirilishi shart bo'lgan.

Muallifning niyatiga ko'ra, asar «Muqaddima» qismi va uchta maqoladan iborat bo'lishi kerak edi. Birinchi maqola Amir Temurga, ikkinchisi Shohruxga (1405–1447), uchinchisi Shohruxning o'g'li Ibrohim Sultonga mo'ljallangan. Binobarin, qo'limizdagi «Zafarnoma» niyat qilingan ana shu uch qismli asarning birinchi maqolasidan iborat, xolos. Boshqa ikki maqola yo'q: ular Sharafiddin Ali tomonidan yozilmagan yoki yozilgan bo'lsa ham, bizgacha yetib kelmagan.

«Zafarnoma» XV va XVI asrlarda qahramonlik qissasi janrida ikki marta she'riy yo'l bilan: o'zbek tilida shoir Lutfiy va mashhur shoir Abdurahmon Jomiyning jiyani Hotifiy (vaf. 1521) tomonidan nazm etilgan edi. XVI asr boshlarida Shayboniylarning dastlabki vakillaridan biri bo'lgan Ko'chkunchixon (1510–1530) topshirig'iga muvofiq Muhammad Ali ibn Darvesh Ali Buxoriy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Adabiyotlarda Hofiz Muhammad ibn Ahmad al-Ajamiy tomonidan asarning turk tiliga tarjima qilinganligi haqida ham ma'lumot bor. Darvoqe, «Zafarnoma» 1822–1823-yillarda Xivada Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad So'fi al-Xivaqiy tomonidan o'zbek tiliga qisqartirib tarjima qilinganligi ham ma'lum. Lekin bu tarjimalar bilan bir qatorda, hozirgi vaqtda ularning mavjud nusxalari turli mamlakatlar kutubxonalarida saqlanadi hamda ularni hozirgi zamon ilmiy tarjima talabi va mezoni bilan o'lchab bo'lmaydi. Shunga qaramasdan, bu tarjimalar ham o'z davriga xos qimmatli manba bo'lib qoladi.

XVIII asrda «Zafarnoma» bir oz qisqartirilgan holda Peti de la Kroa tomonidan fransuz tilida (1713) va ana shu nusxa asosida J. Darbi tomonidan ingliz tilida (1723) nashr etilgan. Sharqshunos A.Krimskiy asarning Bradutti tomonidan amalga oshirilgan italyancha tarjimasi haqida xabar beradi. Bundan tashqari, «Zafarnoma»dan ayrim parchalar boshqa tillarda nashr etilgani ham ma'lum.

«Zafarnoma»ning forscha matni Mavlaviy Ilohdod tomonidan asarning oltita qo'lyozma nusxasi asosida nashrga tayyorlanib, Tehronda ikki jildda yangidan chiqarildi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Lekin yuqorida aytib o'tilgan va hozirgi vaqtda nodir nashrga aylanib qolgan fransuzcha va inglizcha tarjimalarda «Zafarnoma»ning beshdan bir qismini tashkil etuvchi «Muqaddima» qismi tarjima qilinmagan. Shuningdek, Kalkutta nashrida ham, Tehron nashrida ham «Muqaddima»ning forsiy matni berilmagan.

«Muqaddima»ni yozishdan maqsad Temur shajarasini bayon etish va uning ilgarigi podshohlardan davlat va harbiy arbob sifatidagi ustunligini isbotlash edi. Shu munosabat bilan muallif turkiy sultonlarning kelib chiqishi va Chingizxonning to'rt ulusi tarixini bayon etadi. XIV asr birinchi yarmida Turkiston va unga qo'shni bo'lgan mamlakatlardagi siyosiy vaziyatni ta'riflaydi: feodal tarqoqlik va o'zaro urushlarning kuchayishini va bu hol Movarounnahrda markazlashgan davlat asoschisi Amir Temurning tarix maydonida paydo bo'lishiga shart-sharoit yaratganligini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida «Zafarnoma»ning to'la matni («Muqaddima» bilan birga) saqlanmoqda. Bu qo'lyozma asarning institut xazinasidagi boshqa nusxalari va Tehron nashriga solishtirilib, nuqson va xatolari izohlarda to'ldirilgan va tuzatilgan hamda ko'rsatkichlar ilova qilingan, izohlar va kattagina so'zboshi yozilgan holda faksimil (foto aksi) tarzida nashr etildi (1972-y.).

Muhammad Ali tarjimasi yagona nodir nusxada mavjud bo'lib, u Istanbulda, Nuri Usmoniya kutubxonasida 3268-raqam bilan saqlanadi. Bu yerga u turk sultoni Mustafo Uchinchi tomonidan 1757-yili vaqf qilingan. Demak, qo'lyozma Turkiyaga oldinroq borib qolgan. Qo'lyozma manbashunoslik nuqtayi nazaridan hali mukammal o'rganilmagan. U haqida faqat venger sharqshunosi Yanosh Ekman 1964-yili qisqagina ma'lumot keltirgan[1] va vatandoshimiz Miyon Buzruk 1927-yili «Maorif va o'qituvchi» jurnalida xabar bergan[2]. Biroq qo'lyozma sahifalarida lotin harfi bilan hozirgi turk tilida yozilgan ayrim so'zlari va qator belgilari ham bor. Shunga ko'ra, bu qo'lyozma haqida turkcha biror tadqiqot bo'lsa kerak, deb taxmin qilish mumkin. Lekin, aslida, ular Yanosh Ekmanning yozuvlari bo'lishi ham mumkin. Qo'lyozma asli matnining sahifalari raqamlanmagan. Lekin o'sha turkcha yozgan noma'lum shaxs asar bilan qisqa fursatda tanishibdi, shekilli, uning raqamlaganiga ko'ra qo'lyozma 319 varaqdan iborat bo'lgan.

Muhammad Ali «Zafarnoma»ning forscha matnidagi turk-mo'g'ul xalqlarining kelib chiqishi haqidagi 82 varaq «Muqaddima»ni tarjima qilmagan. Bundan tashqari, bu muallif Sharafuddinning uzundan uzun mulohaza va she'rlarini ham atayin tushirib qoldiradi.

[1] *Eckman*. Die tschagataische. – P. 366.

[2] *Miyon Buzruk*. O'zbek tarixiga oid. – B. 56–60.

@tarixchi_kutubxonasiga

Muhammad Alining tili eski o'zbek tilining ajoyib bir namunasidir. Uni biron-bir hozirgi lahja bilan butunlay bog'lab bo'lmaydi. Bir tarafdan, til biz ko'nikkanimiz Zahiriddin Muhammad Boburning tiliga o'xshasa, ikkinchi tarafdan, shimoliy va g'arbiy Buxoro, Xorazm va Sirdaryo bo'ylaridagi o'zbek shevalarini eslatadi. Umuman olganda, bu til qarluq-chigil, qipchoq va o'g'uz elementlarini o'z ichiga olgan bo'lsa ham, qarluq-chigil elementi unda ustun keladi.

Quyida Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»sidan 1972-y. Toshkent nashri forscha matnidan tarjima (O. Bo'riyev tarjimasi)[1] va Muhammad Ali Buxoriy bajargan o'zbekcha tarjimasidan Amir Temurning davlat qurish siyosati bilan bog'liq bo'lgan eng muhim parchalarni keltirdik (A. Ahmedov tabdili). Varaq raqamlari «Zafarnoma»ning 1972-y. Toshkent nashri va Istanbul qo'lyozmasi sahifalarini bildiradi.

A. Ahmedov

SHARAFUDDIN ALI YAZDIYNING «ZAFARNOMA» ASARIDAN LAVHALAR

(86 *b*) Humoyun hazrat Sohibqironning tug'ilishi haqida so'z

Bilimdon podshoh [Alloh]ning, – uning sha'ni ulug'lansin va ne'matlari [olamni] to'kin-sochin etsin, qadim Kalomida: – Sening Rabbing [u bolalar] voyaga yetishlarini hamda [devor ostidagi] g'anjini chiqarib olishlarini iroda etdi, bu – Parvardigoring rahmatidir, – deyilgan, – buni aytuvchi [Alloh] ulug'lansin! Bundan ma'lum bo'ladiki, mutlaq fayz ato etuvchining lutfi, – [oyati] xazinasidan chin muhabbat xil'atini va xayrli ishlarga moyillikni biror saodatmandning qutli davlati qomatining bezagi etsa, uning barakoti ezguliklari tufayli [o'sha kishining] faxrli bolalari va nevaralari yurish-turishida hamda [ularning] e'tiborli ishlarida arzigulik natijalar zohir bo'ladi. Hazrat risolatpanohning, yaxshi salavotlar va olqishlar unga bo'lsin, – kishining yaxshiligi yettinchi pushtigacha yetib boradi, – deb ta'kidlagani bu so'zlarning rostligi uchun yorqin dalil va aniq isbotdir. Ana shu ishoratga xos va ushbu bashoratga mos hazrat Sohibqironning otasi [amir Tarag'ay]ning oxiri xayrli ahvoli erur.

Amir Tarag'ayning saxovatli mizoji, – Alloh uni o'z marhamati ila sarafroz aylasin, – ahli solih-u taqvo bilan inoq va do'st bo'lishga yaratilgan va umrining ancha qismi ul oliy martabali toifaning saodat nishonli majlisi va suhbatiga to'la moyil edi, bu haqda ilgariroq «Muqaddima»da aytib o'tildi. Shak-shubhasiz, shu darajada uns va ulfatlik zotiy munosabatsiz hamda

[1] *Sharafuddin Ali Yazdiy.* «Zafarnoma» (1994).

@tarixchi_kutubxonasiga

[Alloh nazdidagi] ruhlar yig'inida sodir bo'lgan oshnoliksiz yuz bermaydi. Chunki [hadisda aytilishicha], ruhlarning [Alloh] qoshidagi majlisida [ruhlari] bir-birlari bilan tanish-ulfat bo'lgan [insonlar o'zlari ham yerda] o'zaro ulfat bo'ladilar. [Bu ezgu xislatlarni] u o'sha yerdan olib kelgan, o'zicha orttirgani yo'q. Shuning uchun dong taratgan ul baxtiyor amir sadoqati niyatining ekinzorida, oliy tangri do'stlarining do'stligi barakatidan [yaxshi nihol, uni o'stirgan Allohning parvarishi bilan] ko'kardi va umid sahrosining ulkan kengligi davlat va iqbol xirmoni-yu, karomat va fazilatlar mahsuli bilan to'lib-toshib ketdi...

Qozonsultonxon saltanati zamonida podshohlik tongi Alloh taqdir etgan ufqdan yorisha boshladi va shahanshohlik yulduzining nurlari Tangri inoyatlari avjida porlay boshladi. Yetti yuz o'ttiz oltinchi yil yigirma beshinchi sha'bon (1336-y., 8-aprel)da seshanba kechasi, ya'ni mo'g'ullar davriy yil [hisob]ining boshlanishi bo'lgan sichqon yili Kesh [shahri] atrofidagi [bir] dilkash joyda, pok shar'iy qoidaga muvofiq ul dinparvar no'yonning nikohida bo'lgan pokiza Tagina xotunning chodiridan hazrat Sohibqironning vujud oftobi baxtli chiqish ufqida ko'rindi hamda uning olamni yoritguvchi yangi oyi saodat burjidan uzluksiz yog'du tarata boshladi...

Olamning ahvol va avzoyi o'zgarib turishiga [qarshi] chora yo'q, «U [Alloh], osmondan yergacha barcha ishlarni boshqarib turadi», – degan [oyatning] ajoyib hikmati [shundan iboratki, u] yaratish va ijod korxonasida mavjudlik va yo'qlik dunyosi hodisalari kimxobining gulini to'qib, [unda Sohibqironning] baxtiyor tolei [shunday] bir burj bo'lsinki, uning barqarorligi inqilobga zid bo'lmasin, deb taqozo etdi.

Ana shunday sifat bilan porlab turgan Jadiy burjidir, chunki unsuriyotda sabotlilik tuproqqa, falakiyotda esa sayyoralardan Zuhalga mansub, Jadiy inqilobga moyil burjlardan sanalsa-da, [biroq] unda Zuhalning tuproq uyi mavjud. Bu esa inqilob holatida o'ta barqarorlikni bildiradi. Uning davomiyligi va barqarorligi uchun bundan kuchliroq dalil tasavvur qilib bo'lmaydi. Zeroki, tadqiqotchilar nazdida muqarrardurkim, har qanday sifatning eng yuksalish payti, uning o'z ziddi bilan kirishib keta olishidadir. Chunki, – eng yaxshi ismlar [Allohnikidir, – degan oyat] tizimi xususida o'ylab ko'rilsa, ayon bo'ladi: Avval va Oxir, Zohir va Botin, U (Tangri) hamma narsani bilguvchidir. Yuqorida keltirilgan g'aroyib va latif kirish so'zdan ma'lum bo'ldiki, [modomiki] borliq hodisalarining tolei uchun barqarorlik va davomiylik talab etilar ekan, eng muvofiqi Jadiy burjidir. Bu da'volarning to'g'riligi uforini Qur'onning haqiqat bog'laridagi harflardan [tashkil topgan] qit'alar chamanidan izlab topsa bo'ladi.

Jadiy uyi, qaysikim harakatdagi yulduzlar orasida balandroqda bo'lgan uchta yuqori [sayyora]dan mutlaq yuksaklik unga xos erur, qiyoslab

@tarixni_kutubxonasiga

ko'rganda o'ninchi bo'ladi. Shuning uchun u buyuklik va iqbol hamda mansab va ishlar uyidir. Burjlar hisobida [esa u] o'n birinchi burjda bo'ladi va osoyishtalik hamda orzu-umidlar uyi hisoblanadi; toki ana shu tole egasining davlati yulduzi saltanat cho'qqisi uzra ko'tarilsin, qadri oliyligi va himmati buyukligi dunyodagi boshqa podshohlardan afzal va ulug'vor bo'lsin, umid qalami bilan tafakkur lavhasiga naqsh etilgan har qanday murod tasviri xuddi ko'ngildagiday bo'lib chiqsin.

Ulug'vorlik va qudrat yulduzi bo'lmish eng katta yoritgich [quyosh] to'rtinchi qoziq-maqom va qaror uyida, o'zining Utorud bilan qo'shilgan sharaf qo'nimgohidadir. Ular bamisoli ikki oftobday, Hamalning yigirma ikkinchi darajasida turib, fath-u zafar bayrog'ini tikadi va iqbol nomasini saodat muhri bilan tasdiqlaydi; toki saltanat quyoshi, chiqish chog'ida, o'zining haqiqiy o'rnida zohir bo'lib, o'sha joyni podshohlik taxtining o'rni qilib belgilasin. Shunda ul mamlakatni gullab-yashnatish, obod etish va yuksaltirish bobida olamning jamiki o'lka va shaharlaridan yuqori qo'yadilar.

Saodat manbai va burj homiysi Mushtariy, quvvat va qudrat sayyorasi bo'lmish Mirrix bilan birga, farzand uyi bo'lmish beshinchi toleda, qimmatli sovg'alar [qilish] marhamatini qo'llab-quvvatlardi, toki saodatli va shavkatli farzandlar ko'pligidan mangulikka tutash davlat asosi asrlar osha boqiy va poydor qolsin.

Ushbu baxtiyor toleda ham ulug'vorlik va qudrat xonasi bo'lmish o'ninchi uy va ham avlodlar xonasi bo'lmish beshinchi uy sohibi Sa'di asg'ar o'z sharaf makoni bo'lmish yaqin do'stlar uyi uchinchi toleda Hutning o'n oltinchi darajasida saodat sozining dilrabo pardalarini chertardi. U [Sa'di asg'ar]ning yuqori va quyi ta'sirlari uchrashuvining vositachisi bo'lgan Oy, o'sha burjning o'n to'rtinchi darajasidan visol shu'lasini unga [Sa'di asg'arga] tushirardi; toki farzandlar va qarindoshlar inoqligidan saltanat va podshohlikning [ravnaqi] dovrug'i kamolot darajalari yuksakligiga yetsin va to olam inqirozigacha nuqs va zavoldan emin qolsin...

Xullas, [tug'ilish] sandiqchasining qabul doyasi uni salomatlik beshigiga beladi va Tangri lutfining enagasi avaylab-asrab, totli sut bilan parvarish qildi...

Emizikli davrni o'tab, esi kirib qolgan yoshga yetganda, uning yurish-turishi bog'laridan saltanat va jahondorlik bo'yi xuddi bahor nasimi keltirayotgan rayhonlar atridek taralardi. So'zi va ishining qat'iyligidan sarvarligu qudratlilik nuri xuddi ozor (oyi)[1] bulutining chaqmog'i o'tidek chaqnardi...

[1] *Ozor (azar)* – eronliklar quyosh solnomasidagi to'qqizinchi oy (22-noyabr – 22-dekabr).

@tarixiykutubxonasiga

«Biz [mulkni] taqsimlab berdik»[1], – [degan] oyat davomida, «O'zimiz xohlagan kishining darajasini ulug'laymiz»[2], – [oyati] inoyati bilan [tuzilgan] davlati farmonining yorliqchasi, «Biz unga mulk ato qildik»[3], – degan jahonni bezovchi tug'ro[4] bilan imzolanganligi sababli, ulug'vor ko'ngli shamolday tez va uchqur bedovlarni minishga, chavandozlik qilishga juda moyil edi. O'n yoshidan to o'smirlik qiyomigacha vaqti ov qilish va jang-u jadal rasm-u qoidasini o'rganish bilan o'tar edi...

Aziz vujudi Allohning cheksiz lutfining ifodasi va yorug' qalbining sirlari ezgu [ishlar] va yaxshilik istash uchun [yo'naltirilgan] edi. Dastlabki paytlarda, olamni zabt etuvchi ba'zi qo'l ostidagilari va tarafdorlari [tomonidan] zohiran qahr va siyosat bobida nimaiki qilingan bo'lsa, jahongirlik zaruratlari va olamgirlik ehtiyojlari yuzasidan bo'lgan...

(53 *b*) **Hazrat Sohibqiron Husaynbek bilan urushib, zafar tobqonlari**[5]

Husaynbekning[6] ishi va fe'lidin tahqiq bo'ldikim, ahd va ontni sindurub, hazrat Sohibqironga qasd qilg'on turur. Hazratqa vojib bo'ldikim, aning daf'ini qilg'ay. Hazrat Haqg'a tavakkal qilib, daf'ig'a jozim bo'lub, Husaynbek sori yurdi va muxolifatni zohir qildi. Va cherik yig'ishturmoqqa mashg'ul bo'lub, Shayx Muhammad Bayon Sulduzkim, qochib Sayhundin o'tub O'trorg'a borib erdi, Hindu Qarqara Qipchoqni anga yibardi[7]. Hazrat Sohibqironning cheriki yig'ilg'ondin so'ng Musabekni[8] qo'lig'o'l etib, muborak nafsi bilan farxunda soatda Keshdin chiqib, Bahodirlar bilan ilgari yuridi...

Xuzorg'a[9] yetkonda Musabek vahm etib, ahd-u paymonni sindurub, Samarqand sori qochti. Hazrat Sohibqiron aning borg'onidin hech andisha qilmay, borg'onidin qaytmasun deb, Suyurg'atmish O'g'lon[10] bila Muayyidbek[11] va Husayn Barlosni[12] bir necha Bahodirlar bilan ilgari yibardi. Va g'o'lda o'zi turub yuridilar.

---

[1] Qur'oni karim, 43-sura («Zuhruf» surasi), 32-oyatdan.

[2] Qur'oni karim, 6-sura («An'om» surasi), 83-oyatdan.

[3] Qur'oni karim, 4-sura («Niso» surasi), 54-oyatdan.

[4] *Tug'ro* – odatda shohlar farmonini yozish uchun qo'llanadigan jimjimador, nasx xati turlaridan biri.

[5] *Sharafiddin Ali Yazdiy*. «Zafarnoma» (1997).

[6] *Husaynbek yoki amir Husayn* – Amir Temurning qaynog'asi, uning ikkinchi xotini O'ljoy Turkon-og'oning akasi, Movarounnahrni birinchi bo'lib mo'g'ul xonlaridan mustaqil boshqargan Amir Qazag'onning (1346–1352) nabirasi va uning o'g'li amir Musalloning o'g'li; Movarounnahr taxti uchun kurashda Amir Temurning asosiy raqibi bo'lgan.

[7] *Shayx Muhammad Bayon Sulduz, Hindu Qarqara qipchoq* – Amir Temurning beklari.

[8] *Musabek* – Amir Temurning beklaridan, keyinchalik qudasi.

[9] *Xuzor* – Qashqadaryo viloyatidagi hozirgi G'uzor tuman markazi.

[10] *Suyurg'atmish O'g'lon* – Amir Temurning qo'li ostidagi Chig'atoy xoni.

[11] *Muayyidbek yoki Muayyid arlot* – Amir Temurning singlisi Shirinbek-og'oning eri.

[12] *Husayn Barlos* – Amir Temurning amirlaridan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ilgari borg'on Bahodirlar Qahlag'adin o'tub, Termizqa yettilar. Husaynbekning taqi bori kelgon kishilari Hindushoh va Xalil Apardiy hazrat Sohibqironning kishisini yiroqdin qarolarin ko'rub, qochtilar va Amu suyidin o'tub, Balxqa ketgilar. Hazrat Sohibqiron Buyo mavzeidakim, Termizdin uch yag'och beri erdi, tushti[1]. Ul yerda hazrat olijanob, naqobati tob, murtazoyi a'zam (54 *a*) akram Sayid Barakakim[2], Makkaning shariflaridin erdi va ul mahalda yer yuzining sodotlarig'a akram va ashrafi erdi, ul yerda hazrat Sohibqiron qoshig'a tabla va alamkim, saltanatning alomati turur, o'zi bila kelturub, peshkash qildi va muborak tilini ochib, shahanshohlik mujdasin berdi...

Hazrat Sohibqiron Buyodin otlanib, Chag'oniyon sori yuridi va Chag'oniyonda yetkonda Jokubekni cherik yig'ishturmakka farmonladi. Ul bu amrg'a mashg'ul bo'lub, mutavajjih bo'ldi va ul yerdagi cherikki jam etib, o'rdu sori yibardi. Va o'zi Xuttalon sori bordikim, ul yerdagi cherikni ham saranjom qilg'ay.

Raiyati nusratshior Avzach guzarida[3] yetti, Shayx Muhammad Bayon Sulduz (54 *b*) Hindu Qarqara bilan kelib, hazrat Sohibqironni ko'rub sarafroz bo'ldi. Va Jayhun suyidin o'tub, Xulm mavzeida tushtilar. Ul yerning hazorasi kelib, Sohibqiron cherikig'a qo'shuldi. Va Uljaytu bekkim, Husaynbek ani Qunduzda qo'yub erdi va Shoh Muhammadkim, Badaxshonning hokimi erdi, hazrat Sohibqiron alarg'a kishi yibarib erdi, cheriklari bilan yettilar. Alarni yaxshi so'rab siyladi. Va hazrat Sohibqiron Suyurg'atmish O'g'lonni xon ko'rib, cherik tartib etib, saodat va feruzluq bilan Balx sori yuridi. Va Zindachashmkim, Muhammadxoja Apardiyning o'g'li erdi (55 *a*). Apardiy cheriki bilan Shibirg'ondin kelib, hazrat Sohibqirong'a qo'shuldi. Hazrat Sohibqiron shaharning to'rt tarafidin qal'asig'a kirib tushtilar. Va bu qal'a Hinduvon bila mashhur turur.

O'shul kunda shahzoda Umarshayxkim, yoshi o'n oltida erdi, maydon ichra kirib, shijoat va pahlavonliq ko'rsattilar. Ammo qazodin bir o'q kelib ayog'ig'a teg'dikim, ul yuzidin bu yuzig'a o'tti. Bir jarroh kelib shishni qizartib, o'shul o'q tekkan yerni dog'ladi. Va ul shams monand andog' dog'ladikim, ayog'idin bir yuzidin yana bir yuziga o'tti. Ul shahzoda oliymiqdor, bovujud [ulkim] kichik yoshliq erdi, tahammul etib o'zig'a aslo keturmadi va yana tonglasi ikki tarafdin urush bo'lub, Husaynbekning Bahodirlari shahardin chiqib urushtilar.

Ammo nusratmohsor cherikidin Bahodirlari alar sori chopib, bir hamla bilan alarni qochurub, ko'b kishini olib o'lturdilar. Husaynbek qal'a ustidin bu holatni ko'rub, bisyor malul bo'ldi. Hazrat Sohibqiron Husaynbekka

[1] *Buyo* – Termizdan qariyb 20 km shimoldagi qishloq.

[2] *Sayid Baraka* – amir Sohibqironning piri.

[3] *Avzach (Ayvaj) guzari* – Kofirnihon daryosining Amudaryoga quyilish yeridagi kechik.

@tarixchi_kutubxonasiga

kishi yibarib ayttikim: «O'z joningga rahm qil va shahardin chiqib kelib bizga muti' bo'lg'il. Har nechukkim ko'nglung tilasa, andoq qilurmen». Husaynbek ko'rdikim, ish o'zgacha turur va shaharni qabul qilib o'lturmoq bilan muyassar bo'lmas. Ulug' o'g'likim, ani xon ko'tarib erdi, shahardin chiqartib, hazrat Sohibqiron qoshig'a yibardi va dedikim: «Itoat (56 *a*) kamarini belimizga bog'larbiz. Iltimos o'ltururkim, qonimizdin kechkaysen». Ani istag'on kishilar istamakka jahd etib tobtilar va eliklarini bog'lab, hazrat Sohibqiron qoshig'a kelturdilar.

Sohibqironning ko'ngli bo'lmadikim, anga zarar yetkurgay. Beklarg'a ayttikim: «Men aning qonidin kechibmen». Ammo Kayxusrav Xuttaloniy tazallum tilini ochib, dedikim: «Ul mening og'omni o'lturub turur. Emdi kerakkim, ani menga tobshurg'aysizkim, shar' yo'suni bilan amal qilayim». Alar majlisdan chiqib, hazratdin ijozatsiz otlanib borib, Husaynbek ishini yasadilar. Aning jonini tanidin va o'z jonlarini aning andishasidin xalos qildilar. Ul qasos shar' hukmi bilan anga ravo erdi.

(56 *b*) Va Husaynbekni Xoja Akosha kendida[1] ko'mdilar. Va mansur cheriki Hinduvon qal'asida kirib, ani zabt qildilar va Husaynbekning ikki o'g'li Xon Said va Turur Sultonni atosi qoshig'a yibardilar[2]. Va yana ikki o'g'li Jahon Malik va Xalil Sulton qochib Hindustong'a borib, o'shul yerda yo'q bo'ldilar. Va xonikim, Husaynbek ani xon qilib erdi, ani taqi o'lturdilar. Husaynbekning xotunlari bila mollarinikim, jam etib erdi, hazrat Sohibqiron qoshig'a kelturdilar. Hazrat Husaynbekning xotunlaridin Saroymulkxonimni, Qozonsultonxonning qizi erdi va Ulus-og'okim, Bayon Sulduzning qizi erdi va Islom-og'okim, Xizr Yasuriyning qizi erdi va Tag'ay Turkon-xotun – bularni xos haramig'a yibardi va Sevinch Qutluq-og'okim, Tarmashirinxonning[3] qizi erdi va Husaynbekning ulug' xotuni erdi, Bahrom Jaloyirg'a berdi va Dilshod-og'oni Zindachashmg'a berdi va Odil Malikkim, Kayqubod Xuttaloniyning qizi erdi, Jokubekka berdi. Va o'zga xotunlarini har birini bir kishiga berdi. Husaynbekning qizini Elchi Bug'akim, Tobon Bahodirning inisi erdi, [anga] berdi. Va farmon bo'ldi shahr eligakim, yana eski shaharga borsunlar va imorat va ziroatg'a mashg'ul bo'lsunlar. Va qal'ani tub-tub qilib, Husaynbek solg'on imoratlarni buzdilar.

Bu fath bo'lg'ondin so'ng barcha beklarkim, Chig'atoy ulusidin erdilar, anda jam bo'ldilar, misli Shayx Muhammad Bayon Sulduz va Kayxusrav Xuttaloniy va O'ljaytu va Muayyid arlot va Dovud dug'lat va Sori Bug'a Jaloyir va Joku barlos va Zindachashm Apardiy va Shohmuhammad Badax-

[1] *Xoja Akosha kendi* – Balx yaqinidagi qishloq.

[2] Demak, ikki o'g'lini ham qatl qildilar.

[3] *Alouddin Tarmashirin* (1326 – 1334) – Chig'atoy ulusining o'n to'qqizinchi xoni, birinchi bo'lib islomni qabul qilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

shon shohi va Husayn Bahodir va o'zga beklar ro'zgor sodetlari bila misli Sayid Baraka va Termizning xonzodalari misli xonzoda Abulmaoliy va ag'osi xonzoda Aliakbar barcha yakdil ittifoq qilib, hazrati shohliqqa [Sohibqironni] munosib ko'rdilar...

(57 *a*) Va ul mahalda hazrat Sohibqironning yoshi o'ttuz to'rtda erdi va bu ittifoq chorasig'a kunida ramazon oyining o'n ikkisida torix yetti yuz yetmish birda it yilda [chahorshanba kuni] (1370-y., 9-aprel) bo'ldi.

Hazrat Sohibqiron Balxdin Samarqandqa kelg'onin bayoni

(57 *b*) Hazrat Sohibqiron Cho'g'on barlos o'g'li Murodni Balxqa qo'ydi va o'zi davlat, saodat bila Kesh sori yuridi. Jayhun suyig'a ko'pruk bog'lab o'tub[1], Kesh jilg'asida Xushmish marg'zorida tushti. Ul viloyatdagi elning ulug'-kichigi, barchasin sevunub, ko'zlari muborak jamolidin yaruq bo'ldi. Va ikki oy anda o'lturdi. Va anda o'lturgonda beklarikim, yuqorida mazkur bo'lub erdi, barchani siylab, har qaysig'a bir viloyat va mansab berdi: Dovudbekka[2] Samarqandni berdi va devon mansabini ham berdi. Jokubek, Sayfiddinbek, Abbosbek, Iskandar, Olimshayx, Alqa qavchin, Ardasher qavchin va Qimoriy Inoq (Tamuka qavchin inisi) – bularni cherikning beklari qildi. Sari Bug'abek, Husayn barlos, Oq Bug'abek, Hoji Mahmudshoh, Elchi Bug'a Bahodir va Davlatshoh Baxshi – bularni devon beklari qildi. Xitoy Bahodir, Shayxali Bahodir, Oq Temur Bahodir, Tobon Bahodir, Dakna qavchin, Baxtishoh, Qorahindu, Tag'nak, Apachi Kalta [Qiron Bug'a Arslon] – bularni hirovul qilib, har biriga bir saf berdi. Xitoy [Bahodir] bilan Shayxali Bahodirni barcha Bahodirlarning ulug'i qildi[3]. Va bu tariq bilan har kishig'a bir mansabi muqarrar qildurdi.

Andin so'ng saodat va xayruluq bilan Samarqand sori mutavajjih bo'lub, ul shahrkim bihishti barinning rashki erdi, poytaxt qilib o'lturdi. Va hisor-u qal'a bino qildurdi va ko'shklar-u qasrlar soldurdi. Va har bir bekni bir sarkor ustida muhassil qo'ydi. Mundin burun ul shaharga ko'b jafo tegib erdi va xarob bo'lub erdi. Hazrat Sohibqironning davlatidin andoq bo'ldikim, yer yuzidagi shaharlarning rashki bo'ldi va olamda aning ovozasi to'ldi.

(58 *a*) **Hazrat Sohibqiron davlat va saodat va iqbol bila qurultoy qilg'oni**

Ushbu yilning (1370-y.) kuzida hazrat Sohibqiron farmonladikim, anga taalluq viloyatlardan va tumanlardin, hazoralardin, har kimni bor –

[1] Shunisi diqqatga sazovorki, Sharafuddin shu yerda Balxdan daryodagi ko'prikkacha masofa sakkiz farsax, ya'ni qariyb 50 km ekanligini ko'rsatgan (*Sharafuddin Ali Yazdiy*. «Zafarnoma» (1972), 141 *a*).

[2] *Dovudbek dug'lat* – Temurning pochchasi, opasi Qutlug' Turkon-og'oning eri.

[3] Bu yerda nomlari zikr qilingan beklar va Bahodirlar Amir Temurning bolalikdan birga o'sgan tengqurlari va pirovardida lashkarboshilari.

@tarixchi_kutubxonasiga

dorug'a, arbob, mingbegi va yuzbegi, barcha dargohi oliyda yig'ilsunlar[1]. Har yerdakim bu xabar bordi, ul yerdagi dorug'a bilan el ulug'lari yig'ilib keldilar va aning oliy dargohida jam bo'ldilar.

(70 *b*) **Hazrat Sohibqiron beshinchi qatla Jeta sori borg'oni**

Nusratshior cheriki o'lja va asir bilan Jetadin qaytib, Sohibqiron mulozimatida keldilar. Hazrat yana o'shul yilda (1376-y.) Jeta sori azimat etib, Muhammadbekkim, Musabekning o'g'li erdi va Sohibqiron xizmatida erdi, Abbos va Oqtemur Bahodir bilan ilgari yibardi. Va alar hukm yo'suni bilan kecha-kunduz turmay Bug'om Oyko'lda[2] Qamaridding'a yettilar va urushub, ani qochurdilar va elini talab va asir ettilar.

Hazrat Sohibqiron muborak nafsi bilan (71 *a*) Qo'chqor mavzeig'acha[3] bordi va ul yerda eshittikim, To'xtamish O'g'lon O'rusxondin qo'rqub, qochub, xizmatqa kelg'usi turur[4]. Hazrat Sohibqiron Tumanbek Temurkim, o'zbek beklaridin erdi, o'truv yibardi va buyurdikim, ani izzat va hurmat bilan kelturgaylar. O'zi saodat bilan Yabag'u[5] yo'lidin qaytib, O'zgandda[6] tushti. Va andin ko'chub Samarqand sori borib tushti.

---

[1] Amir Temur mamlakatining ma'muriy bo'linishi mo'g'ullar davridagidek harbiy bo'linishga asoslangan. Chunonchi, hazora bo'limi mingga to'la jihozlangan otliq askar, tumanlar – o'n mingta shunday askar tayyorlab berishi kerak bo'lgan. Dorug'a ham mo'g'ulcha mansab bo'lib, har bir shahar, tuman va viloyatning o'z dorug'asi bo'lgan. U hozirgi komendantga mos keladi (masalan, garnizon komendanti).

[2] *Bug'om Oyko'l* – Issiqko'lning g'arbidagi Bug'om jarliklari (Бугамское ущелье).

[3] *Qo'chqor mavzei* – Bug'omdan janubroqda Chu daryosining shu nomli irmog'ining vodiysi. Hozir u yerda qirg'izlarning Qochkorka nomli shaharchasi mavjud.

[4] *To'xtamish O'g'lon* – Oq O'rdaning o'zbek amiri Jo'chi avlodi To'y Hoji O'g'lonning o'g'li. Chingizxonning katta o'g'li Jo'chi 1227-yili o'lganidan so'ng, kichik o'g'li Botuxon otasining mulki bo'lmish Dashti Qipchoq va Sharqiy Yevropani Jo'chi ulusi deb atalmish mulkka birlashtiradi va o'ziga Volga bo'yida poytaxt qilib Saroyni tanlaydi. Mo'g'ullarning o'zi bu ulusni ko'proq Ko'k O'rda deb atagan. Lekin u bilan bir vaqtning o'zida G'arbiy Sibirda akasi Oq O'rdaga asos soladi. O'rdaning poytaxti G'arbiy Sibirdagi To'ra shahrida bo'lib, keyinchalik Sirdaryo bo'yidagi Sig'noqqa ko'chiriladi. Xon faqat Ko'k O'rdada Saroyda bo'lib, Oq O'rdani amirlargina boshqarardi. Ko'k O'rda xoni O'zbekxon davrida ikkala o'rda birlashtirilib, yuksak qudratga erishadi. Bu birlashgan o'rda Oltin O'rda nomi bilan mashhur bo'ladi. Ular bu yerda «o'zbeklar», «O'zbek – xonning odamlari» deb taniladi. O'zbek etnonimi ana shularga borib taqaladi. Keyinroq ular to'g'ridan to'g'ri o'zbek deb atalaveradi. To'xtamishning otasi To'y Hoji O'g'lon ana shu o'zbeklardan bo'lib, Mang'ishloqning amiri edi. U Oltin O'rda xoni O'rusxonga qarshi chiqqani uchun qatl qilinadi. To'xtamish otasining qasosini olish uchun O'rusxon bilan kurashadi va yengilib, 1376-yili Amir Temur huzuriga panoh izlab kelishga majbur bo'lgan edi.

[5] Forscha matnda «Yabg'u» o'rnida «O'ynag'u» so'zi keltiriladi (Sharafuddin Ali Yazdiy. «*Zafarnoma*», 157 *b*).

[6] Matndan ko'rinadiki, Sohibqiron Jetaga Yettisuv tarafidan borgan va orqaga qaytgan. Bu holda O'zgand Sirdaryoning quyi oqimida Qizil O'rda yaqinidagi shahar bo'ladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Tumanbek Temur To'xtamish O'g'lonni kelturdi va beklar barcha anga o'truv borib, Sohibqiron qoshig'a kelturdilar. Ul hazrat aning maqdamini aziz tutub, ta'azzum va inoyatlar qildi va to'y berib, xayma-xirgoh, naqqora, nafir va qator tevalar, otlar va yana nimakim podshohlig'da kerak turur, barchani yasab berdi va ani o'g'ul o'qudi[1].

Hazrat Sohibqiron To'xtamish O'g'lonni O'tror va Sabrong'a yibarg'oni

Sohibqironi oliyhimmat Sabron va Sig'noq[2] viloyatini To'xtamish O'g'long'a berdi. To'xtamish anda borib o'lturdi. Qutlug' Bug'a O'rusxonning o'g'li qalin cherik bilan aning boshig'a keldi. Alarning arosida urush voqi' bo'lub, bovujud ulkim, Qutlug' Bug'a ul urushda o'q yeb o'ldi; To'xtamish turolmay qochti va andag'i elni taladilar. To'xtamish qochib, Sohibqiron qoshig'a keldi. Hazrat ani avval kelgonidin yaxshiroq izzat tutub, yana yarog'ini qilib, viloyatig'a yondurdi. U Sabrong'a yetkonida O'rusxonning ulug' o'g'li To'xtaqiya necha sultonzodalarkim, Jo'chixon naslidin erdilar va Alibek va o'zg'a beklar qalin cherik bilan To'xtamish boshida yuridilar. Bayt:

Cherikdin to'la bo'ldi sahni jahon,
Bari To'xtamish sori bo'ldi ravon.

To'xtamish ham cherikini yig'ib, alarning o'truvsida bordi; urush bo'lg'onda yana To'xtamishxon turolmay, qochti. Va Sayhun suyig'a yetkanda qo'rqunchdin to'nin chiqarib, o'zini suvg'a soldi. Qazonchi Bahodir aning keynida kelib, ani suv ichida ko'rub, o'q otib, elikini zaxmliq qildi. To'xtamish yuz tashvish bila suvdin kechib, jangal ichida kirib, xas va xashak ustida yiqilib yotti.

(71 *b*) Va g'aroyibi ro'zgordin bu tururkim, hazrat Sohibqiron Idiku Barlosni anga yibarib erdikim, anga nasihat qilgay va esh-kuchiga mardona bo'lgay. Qazodin Idiku Barlosning yo'li ul jangal ichida tushti. Jangal ichida kirib borg'onda qulog'iga birovning uni keldikim, ingranadur. Tafaxxus qilg'ondin so'ng To'xtamishxonni ko'rdi: yalong'och va o'zidin ketib, xas va xashak ustida yiqilib yotib turur. Ul otdin tushub, ani ul yerdin ko'torib, chodir urub, chodirg'a kiyurdi; sharbat va taom berib, jarohatig'a marham qo'ydi va bosh-oyoq kiydurdi va andin ko'chub, Sohibqiron sori yondi.

[1] «Ani o'g'ul o'qidi» deyilishi Sohibqiron To'xtamishni o'g'lidek ko'rganini bildiradi.

[2] *Sabron* – o'rta asrlarda Sirdaryoning o'ng sohilida Turkistondan keyingi yirik shahar, hozir Savron qishlog'i.

Sig'noq – mazkur yo'nalishda keyingi yirik shahar. Uning xarobalari hozir Sunaq qo'rg'on deb atalib, Tuman Ariq temir yo'l bekatining yaqinida joylashgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu shahar miloddan avvalgi III asrda yuzaga kelib, uning qadimgi nomi Sunax bo'lgan va XII asrdan boshlab Qipchoq davlatining poytaxti va keyinroq Oq O'rdaning poytaxti bo'lgan. O'rusxon davridan boshlab esa Oltin O'rdaning poytaxtlaridan biri bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ul mahalda Sohibqiron Buxoroda o'lturub erdi. To'xtamishning holatidin xabar bilib, yana anga shafqat qilib, barcha yarog'ini qildi.

Idikukim, o'mog'i mangqit erdi[1] va O'rusxonning beklaridin erdi, andin qochib Sohibqiron mulozimatig'a keldi. Va dedikim: «O'rusxon cherik jam etib, bu sori mutavajjih bo'ldi».

O'shul zamonda O'rusxondin ikki elchi keldi: biri Ko'ppak mangqit va biri To'lujon, kelib O'rusxondin hazrat qoshida so'zlar dedilar: «Maqsud bukim, To'xtamish mening o'g'lumni o'lturub, senga qochub borg'on turur. Ani menga yibargil va agar bermasang, urush yerini aytib yibargil».

Hazrat Sohibqiron himmat tilini ochib, javob berdikim: «Ul bizga sig'inib kelib turur. Men ani hech kimga bermasmen. Ammo urush desangiz tayyor turubturbiz».

Bayt:

Dedikim : «Borg'il va mendin bayon qil,
O'rusxon qoshig'a mundoq ayon qil.
Ki men so'qushay menga ne parvo,
Agar bo'lg'ay yaari yer yuzi daryo.
Sipohimning ishidur kina-yu jang,
Hunarsiz kishidin bularg'a yurt tang».

Hazrat Sohibqiron O'rusxon urushig'a cherik tortib borg'oni

Sohibqiron O'rusxonning elchilarini yibarg'ondin so'ng hukm qildikim: «Cherik yig'ilsun!» va (72 *a*) Joku Barlosni Samarqandda qo'ydi va Chig'atoy ulusini yig'ishturub, lu yilda (1376) cherik tortib, O'rusxong'a mutavajjih bo'ldi. Nazm:

Chu jam o'ldi ul lashkari begaron,
Ki yer ko'k kibi tebradi u zamon.
Cherik tuzi chun chiqti olam aro,
Ki kun bo'ldi tundek yana qap-qaro.

Sayhundin o'tub, O'tror sahrosida tushtilar. Ul tarafdin O'rusxon Jo'chixong'a taalluq ulusni yig'ishturub, Sig'noqda kelib tushti. Va O'trordin Sig'noqqacha yigirmi to'rt yag'och turur[2].

Ul mahalda ancha yamg'ur va qor yog'dikim, ta'rif qilsa bo'lmas va andoq sovuq bo'ldikim, hech kishi elik chiqara olmadi. Va uch oy o'shandoq sovuq erdi va qor yog'ar erdi. Va bu ikki cherik yerlarida o'lturub erdilar, hazrat Sohibqiron Yoruq Temur va Xitoy Bahodir va Muhammad Sultonshohkim,

[1] Bu Idiku mang'it qabilasidan bo'lib, Oltin O'rda o'zbeklaridan edi. Rus adabiyotida u Edigey nomi bilan ma'lum. Yuqorida eslatilgan Idiku Barlos boshqa shaxs bo'lib, u Movarounnahr barloslaridandir.

[2] 24 yag'och qariyb 144 km ni tashkil qiladi (1 yag'och – 5985 m).

@tarixchi_kutubxonasiga

Hirot malikidin qochib kelib erdi, buyurdikim: «Ta'jil etib, dushmang'a shabixun eltinglar!» Bas, bular besh yuz kishi bilan yuridilar va kechada O'rusxonning o'g'li Temur Malik O'g'longa uchradilar. Va alar uch ming kishi bor erdi. O'shul kechada tongg'a yaqin urushtilar va mansur cheriki g'olib bo'lub, dushmanlar qochti. Elchi Bug'a va Temur Malikka o'q tegib, zaxmliq bo'ldilar. Va ul urushda Yoruq Temur bilan Xitoy Bahodir ikkalasi shahid bo'ldilar. Mansur cheriki fath va nusrat bilan qayttilar. Yana Sohibqirondin hukm bo'ldikim: «Muhammad Sultonshoh dushman sori til olmoqqa borsun!» Va ul hukm yo'suni bila amal qilib, borib birovni kelturdilar. Andin ma'lum qildilarkim, dushman cherikidin ikki Bahodirkim: birini Ulug' Sotqin, yana birini Kichik Sotqin der erdilar, yuz kishi bilan til olmoqqa kelib turur. Va bu mahalda Oqtemur Bahodir va Allohdod O'tror shahrida borib, cherikka ozuq berur erdilar. Alar shahardin chiqib, o'rdu sori kelur erdilarkim, yag'iga uchradilar. Va bu yag'i ul kishi ermishkim, til olmoqqa kelgon ermishlar va Oqtemur bilan o'n besh kishi ermish.

(72 *b*) Sohibqironning davlatig'a sig'inib, muxoliflar bilan urushtilar va muxoliflarni firib bermak uchun qochtilar. Va yag'i alarning keynida tushkonda qaytib qilichlarin chiqarib, ikki kishini tushurdilar. Dushman cheriklari qochti va o'zlarini jarlarda va ariqlarda soldilar. Va Ko'ppakchi yurtchikim, Oqtemurning inisi erdi, Kichik Sotqinni o'lturdi. Ulug' Sotqinni Hindushoh tutti; hazrat Sohibqiron qoshig'a kelturdilar va ma'lum bo'ldikim, O'rusxon qaytqon ermish va Qora Ko'ppakni o'z o'rnida qo'yub turur.

Hazrat Sohibqiron Hindushohg'a ko'p inoyatlar qildi va Sohibqiron muborak nafsi bilan dushman sori yuridi. Qora Ko'ppak taqi turmay ketgan ermish va muxoliflardin kishi qolmag'on jihatidin davlat va iqbol bilan qaytib, Kesh jilg'asig'a borib, humoyun o'rdusida tushti va sakkiz kun anda turdi.

Hazrat Sohibqiron O'rusxonning ulusini chobqoni

Sakkiz kundin so'ng yana Sohibqiron O'rusxon sori mutavajjih bo'lub yuridi va To'xtamishxon g'ajirchi[1] bo'lub yuridi. Kecha-kunduz surub, o'n besh kundin so'ng dushanba kechasining subhi erdikim, Jayron Qamishqa yettilar. Dushman eli chizsiz o'lturub erdikim, hazrat [Sohibqiron]ning cheriki alarni taladilar: qo'y-u ot va teva sonsiz tushti. Hazratning davlatidin O'rusxon o'shul yaqinda o'lub, ulug' o'g'li To'xtaqiya xon o'lub, ato yerida o'lturub erdi. Va ul taqi atosining keynida bordi va hazrat To'xtamishni Dashti Qipchoqda xon qildi. Ul yerni bo'lgon el-ulusi bilankim, Jo'chixonning ulusi erdi, [anga] berdi. Va bir otkim, oti Xango'g'laq erdi va olamda andoq ot yo'q erdi, berdi.

[1] *G'ajirchi* – yo'l ko'rsatuvchi.

@tarixchi_kutubxonasiga

She'r:

Bir otkim, edi barqdin teztar,
Qila olmas edi el andin guzar.
Yururda falakdin edi tezroq,
Aning gardig'a yetmas erdi Buroq.

Dedikim: «Bu otni yaxshi saqlag'aysen». Andin qaytib, (73 *a*) Samarqandda kelib tushti. Yilon yilning avvalida, torix yetti yuz yetmish sekkizda (1377-y., mart) kelib, davlat va saodat bilan manziliga qaror topti.

Hazrat Sohibqiron Dashti Qipchoqdin yong'ondin so'ng O'rusxon o'g'li Temur Malik O'g'lon[1] xon bo'ldi va cherik tortib, To'xtamish boshig'a keldi va urush qilg'ondin so'ng To'xtamish cheriki buzildi. Va To'xtamish ul otnikim, hazrat Sohibqiron berib erdi, minib qochti va ko'b mashaqqat ko'rgandin so'ng Hazratqa yetti. Sohibqironning himmati aning ahvolig'a tushub, aning yarog'ini qilib, ulug' beklardin Tuman Temur o'zbek va Baxtixoja va G'iyosiddin tarxon va Yang'i qavchin, bularni To'xtamish bilan Sig'noqqa yibardikim, ani ul viloyatda xon qilg'aylar[2]. Beklar aning bilan Sig'noqqa borib, To'xtamishni xonliq taxtig'a o'lturg'uzdilar va nakim rasm turur erdi, qildilar.

Hazrat Sohibqirong'a saodatmand o'g'ul bo'lg'oni zikri

Yilon yilining avvalida rabi' ul-oxir oyining o'n to'rtida, tarix yetti yuz yetmish to'qquzda (1377-y., 20-avgust) hazrat Sohibqironning davlat ko'zi fayzi fazli Rabboniydin yaruq bo'lub, Samarqand shahrida davlat va iqboldin bir muborak yuzluk farzand g'ayb pardasidin yuz ko'rsatdi.

Nazm:

Chu bo'ldi ano qornidin ul judo,
Xabar tobti ul oydin podisho.
Keturdi va qo'ynida oldi ravon,
Aning yuzidin bo'ldi bas shodmon.
Buyurdi ang'a doyalar shahriyor,
Ki qilg'ay ani parvarish dar kanor,
Kishikim tutub erdi ani yar,
To'la erdi boshdin ayog'i ba zar.

Davlat va saodat yuzidin kun kibi zohir erdikim, yer yuzining podshohi bo'lg'usi turur va olamdaki podshohlar ang'a boj-u xiroj berg'aylar. Va bu

[1] *Temur Malik O'g'lon* – O'rusxonning uch o'g'lining tirik qolgan oxirgi o'g'li, u Oltin O'rdada 1376-yil oxiridan 1378-yilgacha xonlik qilgan.

[2] O'sha paytdagi odat bo'yicha biror bek, amir biror hokimga xizmatga borsa, uning yigitlari va urug'i ham birga borganlar. Shunga ko'ra Tuman Temur O'zbek ham Sohibqiron lashkariga o'z odamlari bilan kelgani shubhasiz. Bu esa dasht o'zbeklari bilan chig'atoylar chambarchas bog'langanliklarini yana bir bor isbotlaydi.

@tarixni_kutubxonasiga

shahriyorning holati ikkinchi maqolada kelg'usi turur. Va kunda maqsud mutavallud bo'lg'on zikrikim, ma'lum bo'lg'aykim, qachon tavallud bo'lub erdi va yili va tarixi ma'lum bo'lg'ay[1].

(73 *b*) Hazrat Sohibqiron To'xtamishxonni yana yarog'ini qilib, Temur Malik boshig'a yibarg'oni va Temur Malik bila urushub zafar tobqoni[2]

Avvaldakim, To'xtamish O'g'lon O'rusxondin qochib, hazrat qoshida kelib erdi. O'rung Temur aning bila kelib erdi. Va hazrat ani yaxshi siylab erdi va yanakim, To'xtamish Temur Malikdin qochib keldi. O'rung Temur elikka tushub erdi va ani Temur Malik qoshig'a elttilar. Temur Malik qonini bag'ishlab qo'yaberdikim, alarning ichida falokat bila yurug'ay. Bir kun Temur Malikka yukunub dedikim: «Menga taalluq elimni inoyat qilg'il». Temur Malik aning so'zini eshitmay dedikim: «Ko'nglung tilasa turg'il. Agar tura olmasang har qayonkim xotiring tilasa, borgil». Va O'rung Temur o'shul qishda qochib, hazrat Sohibqiron qoshig'a bordi. Va hazrat anga ko'p inoyatlar qildi va Temur Malikxonning ahvolini so'rdi: Ul dedikim: «Kecha va kunduz ichadur va choshtgacha yuklaydur. Va agar yuz muhim bo'lsa, hech kishiga ul majol yo'q tururkim, ani uyg'otg'ay. Va bu jihatdin el andin noumid bo'lub tururlar. Va Jo'chixonning ulusi To'xtamishni tilarlar».

Sohibqiron buyurdikim: «To'xtamish Temur Malik boshiga yurusun!» Va Temur Malik ul qishda Qarotolda qishloq qilib erdi. To'xtamishxon cherik yig'ishturub, Temur Malik boshig'a bordi va anda yetkonda asr-u qattiq urush bo'ldi. Va Sohibqiron davlatidin To'xtamishqa zafar hamdam bo'lub, Temur Malikni bosti va Qipchoq Dashtida atolari o'rnida shohliq taxtida o'lturdi. O'rusxojani chobturub, hazrat a'lo qoshig'a yibardi va fath mujdasin yetkurdi.

Hazrat ul xabardin sevunub, necha kun aysh-u ishrat bila o'lturdi va bu jihatdin zindondagi bandilarni ozod qildi va O'rusxojani ko'b inoyat va shafqat qildi.

Bayt:

Yibarg'on kishiga berib toj-u zar,
Egar bir-la ot va murassa' kamar.

(74 *a*) Ani ijozat berib qaytardi. Va To'xtamishxon Sig'noqda kelib qishladi. Bahor bo'lg'onda To'xtamishxon qalin kishi yig'ishturub, Saroy

[1] Amir Sohibqironning bu yerda nomi eslatilmagan o'g'li 1377-yilning 20-aprelida tug'ilgan Shohrux Mirzo edi.

[2] Oltin O'rda Amir Sohibqironning xavfli raqibi edi. Shu sababli, u yerga xonlikka o'zining Jo'chi urug'idan ishonchli odamini qo'yish uning maqsadi va rejalariga muvofiq edi. Shuning uchun u To'xtamish bir necha marta raqiblaridan yengilganiga qaramay Amir Sohibqiron unga ishonib, har gal katta sarflar bilan unga lashkar jihozlab bergan.

@tarixiy_kutubxonasiga

mamlakatig'a borib, Mamoq elini musaxxar qildi[1] va aning azimati har kunda Sohibqiron davlatidin ortar erdi. Va Jo'chixon ulusi barcha anga muti' bo'ldilar.

(75 *b*) **Sohibqironi saodatmand Kesh qal'asin solib, Oqsaroy imoratini buyurg'oni**

Ba'zi kitobda manqul tururkim, Kesh shahri burun ulamoi islomning yeri ermish va buzrugvor muhaddislardin uch imom anda vatan qilg'on tururlar: biri Abu Muhammad [Abdulloh ibn Abdulhamid ibn] Nasr [ibn Humayd] al-Kashshiy (76 *a*) va yana biri [Abu Muhammad] Abdulloh ibn Abdurrahmon ad-Dorimiy as-Samarqandiy[2] va Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy[3] raziallohu anhum. Ul mahalda olam ahli mas'ala va masoili diniy uchun atrof olamdin Kesh viloyatig'a kelur ermishlar. Va ul jumladin Abulhusayn Muslim ibn Hajjoj al-Qushayriy an-Nishopuriy[4] kelib Abdurrahmon ibn Humayd al-Kashshiy qoshig'a istifoda qilg'on turur va ko'b aimma va afozil anda bo'lg'on ermishlar va barchaning darslari bor ermish. Bu jihatdin Keshni «Qubbat ul-ilm va-l-adab» laqabi bo'lib turur.

Bahor vaqti ul shaharning tom-u toshi ko'm-ko'k bo'lur va ko'k ko'rung'on jihatidin anga Shahrisabz ot bo'lub turur. Sichen[5] yilda, torix yetti yuz seksan birda (1380-y., mart) ul shaharg'a qal'a soldurdi va jahdlab tamom qildurdi. Va andoq shahri bo'ldikim, gardun muhandisi muncha yoshi bilan olamni kezib, hech bir yerda mundoq shahar va ko'shk ko'rmagan turur.

Hazrat Sohibqiron shahzoda Mironshohni Xurosong'a yibarg'oni

Hazrat Sohibqironning himmati ravo ko'rmas erdikim, olam ichinda andin o'zga kishi mamolik amrida daxl qilg'ay, yo viloyat menga tegar, deb da'vo qilg'ay. Doim muborak tilida kechar erdikim, yo dunyo andoq yer yo'q tururkim, ikki kishi anda daxl qilg'ay va dunyoni yasag'on Parvardigor bir turur. Dunyoda ham podshoh bir bo'lmog'i kerak.

---

[1] *Mamoq* – rus solnomalaridagi Mamay, Oltin O'rdaning tuman begi. 1380-yili Kulikovo maydonida Dmitriy Donskoydan yengilgan. O'rdaning Volgadan g'arbdagi yerlariga da'vogar bo'lgan, 1382-yili To'xtamish uni yo'q qilgan.

[2] Bu olimning ismi Sam'oniyga ko'ra to'latildi. *Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurrahmon ad-Dorimiy as-Samarqandiy* (797 – 889) – mashhur samarqandlik muhaddis, faqih va tafsirchi; fiqh va hadisga oid 4 asar yozgan.

[3] *Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy* (810 – 870) – o'rta asrlardagi eng mashhur muhaddis, «Al-jomi' as-sahih», ya'ni «Sahihi Buxoriy»ning muallifi. U hadis, tarix va adabga taalluqli 15 ga yaqin asar yozgan; Xuroson, Iroq, Suriya, Hijoz va Misrda bo'lgan va umrining oxirida vataniga qaytib kelib, Samarqand yaqinidagi Xartang, hozirgi Chelak qishlog'ida vafot etgan va o'sha yerga ko'milgan.

[4] *Abul-Husayn Muslim ibn Hajjoj al-Qushayriy an-Nishopuriy* – IX asrda yashagan muhaddis, faqih va adib.

[5] *Sichen* – qadimgi turkchada «maymun».

@tarixchi_kutubxonasiga

Ul mahalda Eron viloyatida har mamlakatda bir jamoat bosh chiqarib, podshohliq qilur erdilar. Hazrat Sohibqiron Turon mamolikini [musaxxar] qilg'ondin so'ng muborak xotirig'a tushdikim, Eron viloyatini zabt qilg'ay. Eron sori mutavajjih bo'lub, sichen yilda farzandi arjumandi Mirzo Miron-shohkim, o'n to'rt yoshida erdi, Xuroson viloyatining (77 *a*) hukumatig'a muqarrar bo'ldi. Hoji Barlosbek bilan Hoji Sayfiddinbek va Oq Bug'abek va Usmonbek va Muhammad Sulton va Xumori, Tamukaning inisi va Tabon Bahodir va O'rus Bug'a, Sari Bug'aning inisi va Pir Husayn barlos, Musabek o'g'li Hamza va Muhammad [Quzag'on] va Sariq Atka, Uch Qaronning o'g'li Muzaffar va o'zga beklar ellik qo'shun cheriki bila otlanib, hazrat shahzoda-ning mulozimatida barchani Xuroson viloyatig'a yibardi[1]. Shahzoda hukm yo'suni bila amal qilib, qalin cherik bilan hazrat izid taolo panohida sig'inib, Eron sori mutavajjih bo'ldilar.

Suvdin o'tub, ul qish Balxda o'lturdi. Qishning oxirida Badg'isda[2] cherik yibarib, chobtilar va bisyor mol olib yondilar. Hutning o'n beshida (1380-y., mart) Alibek Joniqurboniy hazrat qoshida elchi yibardikim: «Agar haz-rat o'zi mutavajjih bo'lub, beri kelurlar [ersa] banda xizmatda bel bog'lab, g'ajirchi bo'lurman».

Hazrat Sohibqiron Eron viloyatig'a cherik tortib borg'oni

Tovuq yilda torix yetti yuz sekson ikkida avval fasli bahordakim (1381-y., mart) olam mahbublarning yuzidek gullardin orosta bo'lub erdi, haz-rat Sohibqiron Eron viloyatig'a tavajjuh etib, farmon qildikim: «Cherik jam bo'lsun!». Atrof va javonibdin ancha kishi yig'ildikim, tamom chodir va oq uy shomiyonadin to'ldi. Hazrat Sohibqiron avji azimat va davlat bilan suv-din o'tub, Andxudqa yetti[3]. Bu yerda u mahalliy avliyo Bobo Sanguni ziyorat qildi. Avliyo darvesh ko'rinishida, jazavasi tutgan holda Amir Temurning oyog'i ostiga qo'y to'shini tashladi. Amir Temur bu holni yaxshi belgi bilib, to'shni olib dedikim: «Xurosonkim yer yuzining to'shi turur, bizga Tangri bergusi tuur». Va o'shandoq bo'ldi va andin saodat va iqbol bilan yuridi.

Malik Muhammadkim, Malik G'iyosiddinning inisi erdi va Saraxs qal'asida erdi, hazratning kelg'onidin xabar bilib, mulozimatqa keldi va haz-ratning inoyat va shafqati sarafroz bo'ldi.

---

[1] Har bir qo'shinda 500 askar borligini nazarda tutsak, 50 qo'shin askarlarining soni 25000 kishi bo'ladi.

[2] *Badg'is (yoki Badxis)* – Turkmanistonning janubida Ko'shk bilan Toshko'prik orasidagi cho'l.

[3] Demak, Amir Sohibqiron Amudaryodan Kerki kechikidan o'tgan. *Andxud* – Afg'o-nistonning shimoli-g'arbida, hozirgi Andxo'y.

@tarixchi_kutubxonasiga

Marvaruddinkim, mashhur Murg'ob[1] bila turur, andin o'tub Chekdalikkim, Hirotning o'n bir yag'ochida turur, tushtilar. Va Alibekka kishi yibardikim: «Cherikingni jam etib, bizg'a bot yetisha ko'rgil!» Alibek ahd yuzini bevafoliq tirnog'i bilan buzub, kelurga taallul qildi va ayoqini gururdin tashqari qo'yub, borg'on kishini ham yibarmadi.

Malik G'iyosiddin ul yaqinda Nishopurni sarbadorlardin olib, cherikining ko'pi anda erdi. Hazrat Sohibqiron Kusuy va Jom sori ravon bo'ldikim, andag'i cherik Malikka qo'shulmag'ay. Kusuyg'a yetkanda Pahlavon Mahdiykim, ul yerning ulug'i erdi, o'truv chiqib, savrin bila kelib hazratni ko'rdi. Va hazrat ani yaxshi ko'rub, andagi elga hech zarar tegmadi.

Hazrat Sohibqironi pok e'tiqod mavlono Zayniddin Abubakr Tayobodiyg'a[2] borib, ul yagonai dahrning suhbatig'a musharraf bo'ldi. Va ul olim dinparvar yaxshi nasihatlar deb, bir-birini duo qilib, Hirot sori mutavajjih bo'ldi.

(84 *a*) Fors viloyatining podshohidinkim Shoh Shujo' erdi, elchi kelg'oni

Shoh Shujo'kim, Sheroz viloyatining podshohi erdi va Oli Muzaffar erdi[3], ul zamonda aningdek ulug' podshoh yo'q erdi va asr-u oqil, fozil va dono kishi erdi. Sohibqirondin xabarlar eshitti, yaqin bildikim, Sohibqiron bahr va bir olam bo'lg'usi turur. Umarshohkim, aning beklaridin erdi, hazratqa elchiliqqa yibarib, do'stluq va davlatxohlug'ini izhor qildurub, arzadosht yibardi. Arzadoshtning mazmuni ulkim: «Muhabbat yo'lidin senga kishi yibarib, bizning viloyatdin yaxshi nimalarkim hosil bo'lur, peshkash uchun borg'an kishi bila yibardim. Va otlarkim, egar, yuganlari oltindan turur va barda'iy xachirlar va raqib xachiri bila va qator tevalar yuklari barcha qumosh saroparda, siqarlot va oq uy va ola borgohlar va shomiyonalar yibardim. Va barchadin g'araz do'stliqdin o'zga g'araz yo'qturur».

Umarshoh aytqon peshkashlar bila dargohi oliyg'a kelib, ko'runush qilib, kelturgan nimalarni tortti. Hazrat taqi Umarshohni (84 *b*) yaxshi ko'rub,

---

[1] *Marvarrud* – Afg'onistonning Turkmaniston bilan chegarasida, Murg'ob daryosi bo'yidagi shahar. Hozirgi nomi – Marvchak.

[2] *Mavlono Zayniddin Abubakr Tayobodiy* – Sohibqironning pirlaridan biri, asli Hirot – Mashhad yo'lidagi Toyobod nomli kichik shaharchadan. Hozir u shaharcha o'rnida Eronning Afg'oniston chegarasi yaqinidagi Teyebet kentidir.

[3] *Oli Muzaffar yoki Muzaffariylar* (1313 – 1393) – Eron va Iroqda Hulogu ulusi parchalanganidan so'ng Eronning janubi-g'arbida Fors viloyatida hokimiyatni qo'lga olgan sulola. Asoschisi Sharafiddin al-Muzaffar avvaliga Eronning mo'g'ul xoni G'azonxonning (1295 – 1304) xizmatida bo'lib, Isfahon yaqinidagi Maybud hokimi va O'tror Muhammad Yazdning hokimi bo'lgan. Erondagi eng so'nggi mo'g'ul xoni Abu Said 1336-yili o'ldirilganidan so'ng Muhammad Fors va Kermonni ham qo'shib oladi, poytaxtni Sherozga ko'chiradi va 1356-yilga kelib Fors va Iroqi Ajamning hokimi bo'ladi va Ozarbayjonni qo'lga kiritish uchun Jaloyiriylar bilan kurashadi. Biroq AmirTemur qudratiga bo'ysunib, oqil ish qiladi.

@tarixchi_kitoblar_olami

otlar mindurub, to'nlar kiydurub, sonsiz yarmoq berdi. Va kelturgon xatning javobini bitib, o'z kishisini qo'shub, yaxshi tuhfalar bila yibardi va qizini Jahongir Mirzoning o'g'li Mirzo Pirmuhammad uchun tiladikim: «Chun aromizda do'stluq bo'lg'on turur, emdi kerakkim, qarindoshliq voqi' bo'lg'aykim, bir-birimizga mehr-u muhabbat artuq bo'lg'ay», – deb elchini ijozat berib, o'z kishisini qo'shub, Sherozga yibardi... .

(97 *b*) **Hazrat Sohibqiron Barda'a sori borib, Dashti Qipchoqdin To'xtamishxonning cheriki kelgonin zikri**

Chun qish o'tub bahor yetti,
Fasli gul va lolazor yetti.

Tovushqon yilida, tarix yetti yuz sekson to'qquzda (1387-y.) nusratshior raiyati Barda' sori yuridi. Bu mahalda xabar keldikim, To'xtamishxon itoat yo'lidin chiqib, muxolifat yo'lig'a kirib turur va Darband yo'lidin[1] cherik yibarib turur.

Munung qissasi mundoq tururkim, Alibek qo'ng'irot, O'rung Temur va Oqbug'a Bahrinkim, Jo'chixon avlodining ulug' beklari erdilar va bulardin ulug'roq, oqil va dono kishi ul ulusda yo'q erdi va To'xtamishning yaxshi yo'lg'a tutub nasihat qilur erdilarkim: «Zinhor hazrat bila muxolifat qilmag'aysen va aning hukmidin chiqmag'aysenkim, bu davlatkim senga hazrat Temurbek qildi, bil, agar anga bandaliq qilsang hanuz ozdur. Doim kerakkim, yaxshi peshkashlar yibarg'aysen va aning haqqini unutmag'aysen. Va agar, na'uzubillah, agar senga yana voqi'a tushsa, ul hazratning himmati senga bo'lsa hech g'am yo'q turur»[2].

(98 *a*) Bu yaxshi beklar jihatidin har kunda To'xtamishxonning davlati ortar erdi. Bu mahalda O'rung Temur va Oqbug'a vafot bo'ldilar va bir jamoat noma'qul va aqlsiz kishilar To'xtamishxon qoshida noyib bo'ldilar. Va Qaronchikim o'z atosini o'ldurub erdi. To'xtamishxonning ulug' begi bo'ldi va Alibekka ixtiyor qolmadi va To'xtamishxon yot kishilarning so'zlarig'a kirib, mutobiat yo'lidin chiqib, muxolifat tariqasiga kirdi. Va hazrat bila yag'i bo'lub, qalin kishi yig'ishturub, Ozarbayjon viloyatig'a yibardi.

Hazrat alarning kelganin eshitib ma'lum qildikim, yag'i kishisi suvnung nari yuzig'a kelgon turur. Hazrat Shayx Ali Bahodir va Iygu Temur va Usmon Abbos va o'zga beklarini ko'b kishi bila yibarib dedikim: «Kur suyidin o'tub tahqiq qilinglar. Agar ul kelgan kishi To'xtamishning kishisi bo'lsa urushmangiz». Alar hukm bo'lg'ondin so'ng yo'lg'a kirib yuridilar. Yana hazrat ilhomdin fahm bo'lub, Mirzo Mironshoh va amir Hoji Sayfiddinni bir jamo-

[1] *Darband yo'li* – Kaspiyning g'arbiy sohili bo'ylab o'tgan qadimgi yo'l.

[2] Bu keltirilgan beklarning so'zlari To'xtamishxon Amir Temurning vassali (tobesi) ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

@tarixchi_kutubxonasiga

at kishi bila borg'on beklarning keynida yibardi. Burun borg'on beklar Kur suyidin o'tub, yag'ig'a yettilar. Yaqin bildilarkim, To'xtamishning cheriki turur, alar bila urushmay qayttilar, chun hazratning yorlig'i mundoq erdikim, urushmag'aylar. Ul badbaxtlar xayol ettilarkim, bular qo'rqub qayttilar, xayra bo'lub, beklar sori chopib, o'q ota boshladilar. Bular ham qaytib, urush bo'ldi.

She'r:

Chu har soridin chiqdi ul dam sipoh,
Buluttek, ki ko'k uzra chiqsa siyoh.
Aning yamg'uri erdi shamshir-u tir,
Qaro bo'ldi olam chu daryoyi qir.

Beklarning urushmoq hukmi bo'lmag'on jihatidin jangal va suv ichida kirib erdi va ot chopmoqqa yer yo'q erdi, ul jihatdin qirq kishi alardin talaf bo'ldi. Va Bahodirlarkim, hargiz qochmoq alarg'a odati yo'q erdi, ul yerdin qochib qaytdilar (98 *b*) va qochqonda Mirzo Mironshohga uchrab sevindilar. Va Amirzoda bila qaytib, dushmang'a yetib, har tarafdin kirib, dushmanlarni qilich ostida olib, ko'b kishi tushurub, o'ldurdilar. Yag'ilar qochib, mansur cheriki alarning keynida tushub, Darbandning tor yerig'acha qovladilar va ko'b kishi alardin tutub, hazrat qoshig'a yibardilar. Va Mubashshirning ag'osi ul urushda vafot bo'ldi.

Mirzo Mironshoh Muzaffar va Mansur qaytib, hazrat qoshida keldi, Tushkon bandilarni kelturdilar. Sohibqiron marhamat qilib, gunohlaridin kechib, yaxshi so'rdi. Va To'xtamishxonning ahvolin so'rub dedikim: «Aning va bizning aromizda ato-o'g'ul haqqi turur. Ne jihatdin mundoq yamon harakat andin voqi' bo'ldi? Va bu jihatdin necha ming musulmon talaf bo'ldi. Emdi mundin so'ng mundoq ishlar qilmasun va burung'u ahd va muvofiqat tariqasini o'zga qilmasun», – deb bularg'a aytti. Va dedikim: «Sizlarni qo'yarbiz. Borib anga bu so'zlarni degaysiz». U tutqunlar barchasi boshlarini yerga qo'yub, dedilarkim: «Minnat tuturarbiz!» Alarg'a ot va to'n va ozuq berib yibardi.

Andin so'ng o'rdu andin chiqib, Ko'kcha tengiz[1] sori mutavajjih bo'ldi...

(110 *a*) **Hazrat Sohibqiron To'xtamish sori cherik tortib borg'oni va Muzaffar va Mansur qaytqoni**

To'xtamishxong'a hazrat Haq subhonahu azalda nakbat va falokat yozg'on ermish. Ul sababdin hazrat Sohibqironning haq ne'matini unutub, Jo'chixonning ulusini yig'ishturub yag'iliq angiz etti. Torix yetti yuz to'qsonda (1388) Sohibqiron sori mutavajjih bo'ldi[2]. Hazrat aning kelganidin

[1] *Ko'kcha tengiz* – Urmiya ko'li.

[2] Forscha matnda aniqroq keltirilib, «lu (baliq) yili qish boshida», (ya'ni 1388-yil dekabrida) deyilgan va To'xtamish cherikining tarkibida rus, cherkas, bulg'or, qipchoq, qrim, kaffa, allon va azoqlar bo'lganligi aytilgan (Sharafuddin Ali Yazdiy. «*Zafarnoma*» (1972), 198 *a*).

@tarixchi_kutubxonasiga

xabar bilib, Samarqand va Kesh cheriki bila shahardin chiqib, Sog'archda[1] tushti (110 *b*) va tavochilarni har sori chobturub, cherik yig'ishturmakka mashg'ul bo'ldi. Qazodin ul qish andoq sovuq bo'ldikim, hargiz hech kishi andoq sovuq ko'rmaydur erdi. Va havo muttasil bulut va qor yog'ar erdi. Bu mahaldin xabar keldikim, To'xtamishxonning cherikidin Iligmish O'g'lon bir pora kishi bila ilgari kelib, Xo'jand suyidin o'tub, Achuk Zarnuqda[2] kelib o'lturub turur. Hazrat filhol ot tiladikim, otlangay. Beklar yukunub dedilar: «Ancha tahammul qilingkim, cherik yig'ilgay, o'zga davlat bila otlangaysiz». Ammo bu so'z hazratqa yoqmadi, aning uchunkim, «At-ta'xiri fi-l-afat»[3], – voqi' turur. Cherik yig'ilguncha turmadi. Va bovujud ulkim, yo'lda andoq qor erdikim, otning qorniga tegar erdi, tavakkal qilib, bir necha xossa kishilari bilan dushman sori mutavajjih bo'lub, tun qaytib, yuridi...

Umarshayx Mirzo Andijondin cheriki bila Xo'jand suyining yaqosida hazratning mulozimatida yetti. Sohibqiron Kuncha O'g'lon va Temur Qutlug' O'g'lon va Shayx Ali Bahodirni bir pora kishi bila yibardikim, dushmanlarning qochar yerlarini tutqaylar. Keyingi kun burnida Anbortepa ustida chiqib, yag'iga yettilar va suron tortib urush soldilar. Dushman bildikim, hazrat Sohibqiron o'zi turur, turolmay qochtilar. Ko'p kishi alardin ot ostida qolib o'ldilar va ba'zilari o'zini Xo'jand suyig'a solib, suvga kettilar va ba'zilari qochib yurur erdilarkim, burun borgon nusratshior cheriki yo'llarini tutub turub edilarkim, yag'i alarg'a yetti. Bular o'truvdin chiqib, o't va qilich zarbidin ko'b kishini o'ldurdilar. Va Idiberdi Baxshiyni tushurdilar, boshini kesarda otini aytti[4], ani topib, o'ldurmay saqladilar (111 *a*) va Sohibqiron qoshig'a elttilar. Hazrat To'xtamishning ahvolidin so'rub, gunohidin kechib, marhamat va shafqat qilib, o'zi qoshida saqladi. Andin ko'chub, safar oyida yetti yuz to'qson birda (1389-y., fevral) Aqarda borib tushti va ancha tahammul qildikim, yoz bo'lub yana olam gulistondek bo'ldi. Atrof va javonibdin cherik yig'ildi va Amirzoda Mironshoh Xuroson cheriki bila keldi va Balx, Qunduz, Badaxshon, Hisor va o'zga viloyatlarning barcha cheriki yig'ildi...

Hazrat Sohibqiron hukm qildikim: «Amirzoda Umarshayx va amir Hoji Sayfiddin va Iygu Temur borib Xo'jand suyig'a ko'fruk bog'lasunlar!». Alar hukm bila kelib, necha yerda ko'fruk bog'ladilar va xabar yibardilarkim: «Ko'fruk tayyor bo'ldi!». Hazrat Sohibqiron rabi' ul-avval oyida tarix yetti yuz to'qson birda yilon yilda (1389-y., mart) andin ko'chub yuruberdilar. Va ko'frukdin o'tub, Temur Qutlug' O'g'lon va Sevinch Bahodir va Usmon Ba-

[1] *Sog'arch* – Samarqanddan 5 farsax (30 km cha) masofada Ishtixon yaqinida, Zarafshon bo'yidagi qishloq.

[2] *Achuk Zarnuq* – Samarqand bilan O'tror orasidagi yo'ldagi qishloq.

[3] Arabcha maqol, ma'nosi: «Kech qolish – ofatdir».

[4] Ya'ni, boshini kesmoqchi bo'lganlarida otini aytgan va boshi kesilmay qolgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

hodimni ilg'ari yibardi. Va alar borib dushmanning qorovulini ko'rub, yondilar va beklarga xabar qildilar. Beklar kaminda turub, o'zlarini dushmang'a ko'rsatmadilar va muxoliflar chun kishini ko'rmadilar, bir yerda tushub, qaro baxtlaridek uyquda bordilar. Nusratshior cheriki otlanib, alar boshig'a shabixun elttilar va alarning ustiga to'kub, ko'b kishini o'ldurdilar va oz kishi alardin yuz mehnat bila qutulub qochtilar va Aris suyidin[1] o'tub To'xtamishxong'a yettilar. To'xtamishning cheriki Sabronni qamal qilib o'lturub erdi. Sabron ichida Jangircha va Lodu Qushchi shaharni berkitib, har kunda chiqib, muxoliflar bila urushur erdilar. To'xtamish ojiz bo'lub, Sabrondin ko'chub Yassig'a[2] borib, ul yerni talab, yozida o'lturub erdikim, xabar keldikim, hazrat Sohibqiron kela turur, (111 *b*) qo'rqunchdin turolmay, andoq qalin cherik bilan dashtqa chiqib qochti...

Sohibqiron bildikim, dushmanlar qochib ketib tururlar, amir Hoji Sayfiddinni o'g'ruq bilan Samarqandqa yibardi va o'zi muborak nafsi bilan ilg'or etib dushman keynida yuridi. Xoja Shayx qavchin To'plaq qavchin va Qoraqon Bahodir va Omonshoh Bahodir va Davlatshoh Jaybachini qirq kishi bilan, barchasi qo'sh, dushmanning keynida til olmoq uchun yibardi. Alar Sariq O'zan[3] mavzeida yetib, dushman qorovulig'a yetti. Urushub muzaffar bo'ldilar va dushman qorovuli qochib ketti. Bular qaytib o'shul sahroda Qibta Darxon yuz evluk kishi qarosi bilan o'lturub erdi, bular anga uchrab, Qibta Darxon urushti. Bas, Bahodirlar ani bosib oldilar va Qibta Darxonni elini moli bilan ko'churub, Oqsuv[4] mavzeida hazratqa yettilar. Va hazrat andin ko'chub, Urang-chaqal yo'lidin yurub, cho'ldin o'tub, Bilan mavzeida yettilar. Va andin taqi o'zub, Sariq O'zan va Ko'rchundin o'tub, Olqo'shung'a tushtilar[5]...

(117 *b*) **Hazrat Sohibqiron Dashti Qipchoq sori mutavajjih bo'lg'oni so'zi**

Yetti yuz to'qson ikkida[6] Sohibqironi gitisiton Dashti Qipchoq sori mutavajjih bo'lub, cherik yig'ilmoqqa farmon etti.

Samarqanddin xujasta toli'i va saodat kunida otlanib, Xo'jand suyig'a yetti. Porsin va Chinos orasida Toshkandda qishloq buyurdi. Va o'shul mahalda kechtikim, Xo'jandda borib, Shayx Maslahat Xo'jandiy qaddasa sirruhuning mozorini tavof qilg'ay. Davlat bilan otlanib, ul buzurgvor mozorini ziyorat qilib, o'n ming oltun qo'ppaki andag'i faqir-u misking'a sadaqa qil-

[1] *Aris suvi* – Sirdaryoning Sabron yaqinidagi irmog'i.

[2] *Yassi* – Turkiston shahrining eski nomi.

[3] *Sariq O'zan* – Yettisuvdagi mavze.

[4] *Oqsuv* – Chimkentdan Jarkentga olib boruvchi yo'lda – Markedan sharqroqdagi mavze, hozirgi Belovodskaya.

[5] Bu yerda O'tror bilan Talos oralig'idagi kichik mavzelar eslatilgan.

[6] Forschada, o'sha yetti yuz to'qson ikkinchi (1390) yil kuzida, deb aniq aytilgan (208 *a*).

@tarixchi_kutubxonasiga

di. Va andin qaytib qishloq qilg'on yurtida tushti. Va ul yerda hazratqa andak marazi paydo bo'lub, qirq kung'acha behuzur bo'lub yotti. Beklarning (118 *a*) ko'ngullari bu jihatdin bisyor parishon bo'ldi...

Ammo barcha xaloyiq duo bila tillarini ochib, hazrat Jabbordin aning sihhatini tilab aytur erdilar...

Elning duolari mustajob bo'lub, «Ma huva shifaun va rahmatun li-l-mu'minin»[1], – doruxonasidin shifoyi kulliy karomat bo'lub, sihhat tobti va barcha olam shodmon bo'lub, har kishi o'z holig'a yarasha shukrona va sadaqa berdilar. Kun Hut burjida borg'onda Amirzoda Mironshoh Xurosondin cherigi bila keldi va hazratning muborak diydorig'a musharraf bo'ldi. Ul hazratqa quvvat kirgandin so'ng hukm bo'ldikim: «Cherikka ozuq va yaroq bersunlar!» Cherikka ozuq bergondin so'ng har bekka bir g'ajirchi muqarrar qildurdi. Va hazratning g'ajirchisi Qutluq Temur O'g'lon – Temur Malikxonning o'g'li va Kuncha O'g'lon va Idiku O'zbek bo'ldi.

Panjshanba kunida safar oyining o'n ikkisida torix yetti yuz to'qson uchda (1391-y., 19-yanvar) davlat va saodat bilan To'xtamishxon ustiga yuridi. Amirzoda Pirmuhammad Jahongir va Amirzoda Shohruxni mamlakat zabti uchun viloyatda qo'ydi va La'lbek va Malakatbekni shahzodalar xizmatida qo'ydi va begimlar va og'olarni[2] barchasini qaytardi. Hojibek Jeta qizinikim[3] mo'g'ul yurishida hazratqa tushub erdi, ani o'zi bila olib yuridi. Viloyat beklari, tuman beklari va qo'shun beklari har biri o'z jirgasida turub, yo'lg'a kirib yuridilar. Qarosmon mavzeida[4] kelib tushtilar; anda tushkanda To'xtamishxonning elchilari keldilar. Beklar elchilarni yaxshi yerda tushurub, (118 *b*) mehmondorliq qildilar va yamg'ur jihatidin necha kun anda turdilar.

To'xtamishxon elchi yibarg'onini hazrat eshitti, farmon qildikim: «Kelgon elchilarni kelturung!» Beklar elchilarni kelturdilar va To'xtamishxon yibarg'on to'qquz ot va bir shunqorni torttilar. Hazrat ul shunqorni elikiga olib birovga berdi va elchilar yukunub, To'xtamishxonning so'zini uzr tillari bila arzadosht qildilar va dedilarkim: «To'xtamishxon aytadurkim: «Ul hazrat mening bila ato-o'g'uldek erdi va valine'mat turur. Va bu shafqatlarkim, mening haqqimda alar qilib tururlar, hech ato o'g'ulga qilmas. Agar yillar shukur desam hanuz aytmamish bo'lg'aymen, mendin xabarsiz bir necha yamon badbaxtlar beadabliq qilg'on turur va ul voqi'alardin xabarim yo'q turur. Emdi umid ultururkim, ul hazrat lutf-u karam bila bu yozuqlardin[5] kechib, afv qilgaylar».

---

[1] Qur'oni karim, 17-sura («Isro» surasi), 82-oyatdan.

[2] *«Begimlar va og'olar»* – Sohibqiron oilasidagi ayollar.

[3] Temurning o'sha paytdagi eng kichik xotini Cho'lpon Mulk-og'o haqida so'z ketayapti.

[4] *Qarosmon* – O'trar yaqinidagi mavze.

[5] *Yozuq* – gunoh.

@tarixchi_kutubxonasiga

Hazrat dedikim: «Ul andakim zaxm yeb, bizga kelib erdi, barcha olamg'a ma'lum tururkim, ani farzand deb rioyat qilib, yarog'lar berib, cherik tortib, ul qishda ani miqdori ot va teva zoyi'kim, berib, O'rusxondin elini olib, anga berib podshohliq taxtida ani o'lturg'uzub, Jo'chixon ulusida xon qildurdum. Agar-chi xudoyi taolo anga berdi, ammo men sabab bo'ldum. Va ul menga o'g'uldek erdi va men anga atodek. Emdikim, davlatqa yetti va azimat va shavkat paydo qildi, ul haqlarni unutub, biz Eron viloyatig'a borg'anda kelib bizning viloyatimizni chopib, musulmonlarni tashvish berub turur. Bu qilig'ini o'zumg'a kelturmadim va dedim: «Bu ish nodonliqdin qilmish bo'lg'ay, yonib tavba qilg'ay». Ammo ul davlatqa andoq mag'rur bo'lg'on ermishkim, bu ishdin ang'a hech parvo qilmay, viloyatimizg'a qasd qilg'on ermish. Va kishi yibarib erdikim, biz Erondin viloyatimizg'a kelduk, kelgon kishisi bizning xabarimizni toyg'ach qochtilar. Emdikim bilib (119 *a*) tururkim, biz aning sori borurbiz, ajz-u niyoz yo'lidin kirib, uzrxohluq qiladur. Bas, andin necha qatla yamon ishlar voqi' bo'ldi. Emdi aning so'ziga inonsa bo'lmas va bu yurushdin qaytmasbiz va aning sori borurbiz. Ko'rgaybizkim, Tangri taborak va taolo kimga nusrat berur. Va agar so'zi chindur va yarashgali ko'ngli bor bo'lsa Alibekni bizga yibarsun, to ul kelib, beklar bila kengashib, harna maslahat ko'rsalar andoq qilg'aybiz».

Bu so'zlardin so'ng osh tortib, elchilarga zarboft to'nlar kiydurdi va alarg'a turg'ali yer ta'yin qilib, buyurdikim: «Elchilarni yaxshi siylasunlar!».

Chahorshanba kunida, rabi' ul-avval oyining o'n oltisida (1391-y., 21-fevral) qurultoyda shahzodalar va beklar barcha yig'ilib, kengashib, To'xtamishxondin kelgan elchilari bilan va tamomi cherik bilan otlanib yo'lg'a kirib, To'xtamish sori yuridilar. Qarochuq va Sabrondin o'tub, uch hafta cho'lg'a kirib yuridilar va suv yo'qlug'i jihatidin, base zahmat ko'rdilar va ko'b ot horib qoldi.

Panjshanba rabi' ul-oxir boshida (1391-y., 14-mart) Sariq O'zan mavzeida[1] yetib ot-ulog'larini sug'ordilar va anda sel kelib suv asr-u ulug' erdi; necha kun andin ko'chmay turdilar. Ko'ch naqqorasin chalib ko'chtilar va ul suvdin o'tub yuridilar. Ul kecha Idiku O'zbekning[2] ikki kishisi qochib, cho'lga kirib, To'xtamishxon sori kettilar. Alarning keyinida kishi chopib yeta olmadilar. Nusratshior cheriki chuqurlarda suv chopib ichib yurur

[1] *Sariq O'zan* – Qozog'istonning To'rg'ay viloyatida Sariqqo'pa ko'liga kelib quyiluvchi shu nomli daryocha havzasi.

[2] *Idiku O'zbek* – To'xtamishning beklaridan bo'lib, o'zbek urug'idan kelib chiqqan. 1395-yilda To'xtamishxon Amir Temurdan yengilganidan so'ng to 1419-yilgacha xonlik taxtida turli xonlar almashib turgan bo'lsa ham, aslida, hokimiyat Idikuning qo'lida bo'ladi. U rus solnomalariga Edigey nomi bilan kirgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

erdilar, chorshanba kunida oyning yigirma birida (1391-y., 28-mart) bir tog'qa yettilarkim, ani Kichik Tog' der edilar. Anda tushub bir kun qo'nub, tonglasi ko'chub Ulug'tog'qa yettilar[1]. Va Sohibqiron Ulug'tog' ustiga chiqib, sahrog'a ko'z solib, barcha olamni ko'm-ko'k ko'rdi. (119 *b*) Anda turub hukm qildikim: «Cherik munda tosh keltursunlar, to munda bir nishona qiladikim, bizdin yodgor qolg'ay!». Cherik tosh kelturub, ustakorlar ul toshlar bilan anda bir minora qo'pordilar[2]. Andin so'ng ko'chub ov solib yuridi, to Yilanchuq suyig'a[3] yetti va ul suvdin o'tub, sakkiz kundin so'ng Atoqabrig'o'y[4] mavzeiga yetti. Va to'rt oy yuridikim, cherik yozida (cho'lda) yurur erdi, cherik elida zavq qolmay qattiqliq bo'ldi va andoq qahat bo'ldikim, bir qo'yning boshi yuz oltun ko'ppakiy bo'ldi va bir botmon ulug' tosh bilankim, har botmoni o'n olti botmon shar'iy bo'lg'ay, yuz oltun ko'ppakiy bo'ldi va topmas erdilar. Hazrat Sohibqiron hukm qildikim: «Tuman beklari va qo'shun beklari kumoch va bug'ra yashurmasunlar. Barcha bo'lmoq bila qanoat qilsunlar!». Beklar ehtiyot qildilar: bir botmon ulug' tosh bilan oltmish ayoq balmoq bo'ldi va muqarrar qildilar: cherik kishisi har kun bir ayoq bila qanoat qilsunlar va ko'b kishi bor erdikim, ani Batmtosh der edilar. Va sahrolarda yurub tovuq yumurtqasini va o'tlarkim yesa bo'lur erdi, paydo qilib, yer edilar. Shanba kuni jumod ul-oxir oyi avvalida[5] Sohibqiron hukm qildikim: «Cherikka jar yetkursunlarkim, ov solurbiz!». Tavochilar yurub jar yetkurdi. Beklar barchasi otlanib ov solg'ali yuridilar. Har yerdakim jonuvor erdi, surub ikki kundin so'ng cherik bir-biriga yetti. Hazrat Sohibqiron davlatidin ancha qulon, kiyik, tovushqon va o'zga jonuvorlardin yig'ildikim, aning sonini Tangridin o'zga kishi bilmas erdi. El andin ancha oldilarkim, bovujud ulkim, el ichida andoq qahat voqi' erdi, el ul saydlardin semizini olib, orug'ini qo'yaberur erdilar. Va ul sahroda kiyiklar tobtilarkim, (120 *a*) govmeshdin ulug'roq erdikim, hargiz hech kishi andoq kiyik ko'rmagon erdi. Mo'g'ullar ani qundg'ay derlar va dasht eli bilan der edilar va ko'b kunlar cherikning ozug'i andin erdi.

---

[1] *Ulug'tog'* – Jezqazg'andan 100 km. cha shimolroqdagi tog', hozirgi nomi – Ulutau.

[2] Ikkinchi jahon urushidan oldin, 1930-yillar oxirida Jezqazg'andan 50 km. cha g'arbdagi Qarsaqpay koni yaqinida, Qaramo'la tog'i yonbag'rida yozuvli tosh topilgan. Yozuv ikki tilda: arabcha va o'zbekcha. Arabcha matnda faqat «Bismillohir rahmonir rahim» aniq o'qiladi. Uyg'ur yozuvi bilan bitilgan o'zbekcha yozuvda yetti yuz to'qson uchinchi yil, ya'ni 1391-yil yozida Turonning sultoni Temur 200000 kishilik lashkari bilan To'xtamishga qarshi yurishga ketayotganligi aytilgan. Nizomiddin Shomiyda yozuv bitilgan kunning aniq tarixi – jumod ul-avvalning 23-kuni, ya'ni 1391-yil 28-aprel ham keltirilgan.

[3] *Yilanchuq suvi* – Jezqazg'an viloyatining shimoli-g'arbidagi Jilanshiq daryochasi.

[4] *Atoqabrig'o'y* – Qozog'istonda Qustanay viloyatidagi mavze.

[5] Jumod ul-avval oyi 1391-yili 6-aprel payshanba kuni boshlangan. Bu yerda aytilayotgan voqea mazkur yozuv bitilgandan keyingi dushanbada ro'y bergan. Bu esa jumod ul-avval oyining oxirgi dushanbasi, ya'ni 3-mayga to'g'ri keladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Sohibqiron cherikning yarog'ini ko'rgoni

Ov qilg'ondin so'ng hazrat Sohibqironning muborak ko'nglida tushtikim, cherikning yarog'ini ko'rg'ay va tafaxxus qilg'aykim, cherikning yarog'i nechuk turur. Hukm qildikim: «Cherik yarog' ko'rsatkay!». Hukm bo'lg'ondin so'ng shahzodalar va beklar, barcha yarog'lari bila otlandilar. Va ul tuzda bo'lak-bo'lak barcha yarog'lari tuzdilar, andoqkim, ul dasht yuzi to'la cherik bo'ldi...

(120 *a*) Ushbu dastur bila Sohibqiron o'ng qo'l va so'l qo'lda yuridi va beklarning yarog'ini tafarruj qilib, ulug' beklar sorikim: Muhammad Sultonshoh va amir Hoji Sayfiddin va Jahonshoh Joku va o'zga beklarining yarog'larini tafarruj qilib xushvaqt bo'lur erdi. Agar barchani bir-bir bayon qilsak, uzun-uzoq bo'lur...

Ikki kungacha hazrat saboh erta otlanur erdi va aqshom tushar erdi va har bir bek va shahzodag'a yetar erdi. Alar o'truv kelib, peshkashlar tortib, duo qilur erdilar. Yarog'i ko'rdikim, hargiz hech podshoh ko'rmagon turur. Beklar nechukkim Kesh viloyatida (121 *b*) Oqyor mavzeida muqarrar qilib erdilarkim, har kishi ne miqdor kishi otlandurgay, ul muqarrar qilg'ondin ortuq erdi. Andin so'ng naqqoralar va nafirlarni chaldurub, suron solib tushti.

(124 *b*) **Hazrat Sohibqiron To'xtamishxon bila urushqoni**

Rajab oyining o'n beshida, dushanba kuni, torix yetti yuz to'qson uchda, qo'y yilida (1391-y., 18-iyun) (125 *a*) Qunduzcha[1] mavzeida To'xtamishxonga yetib, cherikini orosta qilib, dushman sori mutavajjih bo'ldi. Ammo hazrat o'zi yurub, cherikni yetti qo'l tartib ettikim, hech podshoh andoq qilmaydur erdi va eshitmaydur erdi. Va bu yetti adadida xosiyat ko'b turur va ko'b sir anda bor erdikim, andin sab'-ul-masanining[2] voqiflari xabardor erdilar.

Bir qo'l Sulton Mahmudxon bo'ldi. Barcha Bahodirlar bilakim: bari jangjo'y va bari nomdor. Va Sulaymonshohni boshlamish etti. Va ulug' qo'l tartib etib, shahzoda Muhammad Sultong'a topshurdi va ikki yonida Bahodirlarni turg'uzdi...

Va yigirma qo'shun Bahodirlarni ulug' qo'lning keynida turg'uzdikim, urush ko'yinda agar ko'mak kerak bo'lsa, bular ko'mak bo'lgaylar. Va yana o'ng qo'lda bir yasol turg'uzdikim...

---

[1] *Qunduzcha* – Samara shahridan shimolda, Krasniy Yar shahrida Sok daryosi bilan qo'shiladigan shu nomli daryo yoqasidagi mavze. Bu mavze daryoning yuqori oqimida, Nurlat va Shetala shaharlari oralig'ida bo'lgan. Daryoning hozirgi nomi – Konlurcha.

[2] Qur'oniy ibora: «Hajar» surasining 87-oyatida «sab'an min al-masani» («ikki juftlardan yettita») deyilgan.

@tarixiy kutubxonaga

Va Amirzoda Mironshoh unga bosh bo'lub turdi. Va Muhammad Sultonshoh, aning oldida to'ralar tutub turdi. Va yana bir yasol amir Hoji Sayfiddin cheriki bila javong'orda turdi. Va bir yasol barong'orda shahzoda Umarshayxni qilib, Berdibek Sari Bug'a va Xudoydodi Husayniyni bir bo'lak muborizlar bila turg'uzdi. Va o'ng qo'l va so'l qo'l beklari va tuman beklari va qo'shin beklari, har birini o'z yerida turg'uzub, yasollar tuzdilar. Va yayoqlar turalar tutub turdilar.

(125 *b*) Ul tarafdin dushman qorovuli paydo bo'lub, To'xtamishxon Jo'chixon naslidin bo'lg'on shahzodalarni ilgari, yasol tuz etib keldilar, misli Tosh Temur O'g'lon, Bek Yoruq O'g'lon, Yilg'amish O'g'lon, Ali O'g'lon va beklardin Alibek, Hasanbek, Sulaymonbek, So'fi Qo'ng'irot, Oqbo'ta, O'rus Haq Qiyot, Isabek, Saroy, Ko'k Bug'a, Qiyg'urbek va o'zga bek va sardorlarkim, Jo'chixonning ulusidin erdilar, yasollar tartib ettilar.

Dashtdagi muxoliflardin ancha cherik yettikim, oqillar aning hisobidin ojiz erdilar.

Hazrat Sohibqironkim, himmat, shijoat va dilovarliq aning tariqasi erdi, buyurdikim, barcha cherik tushub, chodirlar tikib tushtilar. To'xtamish bu holdin taajjubqa qolib, dedikim: «Mundoq mahalda ul bizdin hech andisha qilmay tushti». Ammo hazrat bir zamon tushub, yana otlandi va yana o'shul dastur bilan yasollar bila tartib etib otlandi. Dushman cheriki necha qo'shun bila hazrat cherikidin ortuq erdi. Hazrat hargiz cherik bilan e'timod qilib ko'ngul qo'ymas erdi. Aning umidi hazrat Jabbordin erdi va odati bu erdikim, har urushdakim, g'anim bila muqobila bo'lub erdi, tushub ikki rak'at namoz ixlos bila o'qub, tazarru' va zori bila hazrat Haqdin nusrat tilar erdi. Hazrat Sohibqiron o'shul odat bila namoz o'qub, Haq subhonahudin fath va nusrat tilab otlandi. Va salavot va takbir deb, g'ulg'ula bu charx ichra alamlarini ko'tartib, naqqora va nafirni chaldurub, suron soldilar...

(126 *a*) Bu mahalda ashrafi dudmoni hazrat nubuvvat sallallohu alayhi vasallam g'aniy Sayid Baraka, – qaddasa sirruhuki, – doim davlat kibi hazrat Sohibqiron bila hamdam erdi, elikini duo bila chiqarib, hazrat Izzatdin fath va nusrat tiladi va hazrat Sohibqirong'a dedi: «Tavajjah hays-u shi'ta fa-innaka mansurun»[1]. Bas, sipohning ko'ngulluk yigitlari urush sori yurub, ikki cherik bir-biriga chopishib, urushmoqqa mashg'ul bo'ldilar. Amir Hoji Sayfiddin hazratning davlatidin barchadin burun qilich tortib, dushmang'a chobti va dushmanning so'l qo'ldagi kishilarini ko'tarib, bir-bir qildi. Ul necha qo'shin kishikim, dushman cherikida ortuq edi, yuri-

[1] Bu arabiy iboraning ma'nosi: «Istagan tarafingga yuz o'gir, sen g'olibsan». Boshqa manbalarda Sayid Baraka urushdan oldin otidan tushib, bir necha mayda toshni olib, dushman tarafiga otib: «Yag'i qochti!» – degan.

@tarixchi_kutubxonasiga

dilarkim Hoji Sayfiddinbekning keynidin kirgaylar. Jahonshoh bu holni ko'rub, cheriki bilan alarning otini tutub, qilich zarbi bila alarni qaytardi. Va Qo'linchoq Bahodir taqi hamla etib muxoliflardin bir qo'shin kishisini qaytardi. Va Amirzoda Mironshoh taqi o'truvsida turg'on muxoliflarg'a chopib urushub, ko'b mardonaliqlar ko'rsatib, dushmanni surub qayttilar. Va Usmon Bahodir qipchoq qo'shuni bila ilgari surub, dushmanning uch qo'shini kishisi bilan urushub, Bahodirluq ko'rsatur erdikim, otdin yiqilib ayrildi va yana hazrat Sohibqiron davlatidin filhol otga mindi va dushman sori chopib, bir-bir etti. Va Shayxali Bahodirkim, Bahodirlarning sururi erdi, yaxshi ishlar qildi. Va Amirzoda Muhammad Sulton g'o'ldin ilgari dushman qo'lig'a chopib, yaxshi ishlar qildi. Va Amirzoda Umarshayx taqi ul kun ishlar qildikim, Rustam qilmaydur erdi. U o'truvsidagi dushmanlarni qochurdi. Va Berdibek va Xudoydod ikkalasi ittifoq bila dushmang'a chopib, dushmanning o'ng qo'ldagi turg'on cherikini surdilar va ma'raka tufrog'ini qon bila bo'yadilar.

(126 *b*) To'xtamishxon ko'rdikim, cherikida quvvat va kuch qolmadi va turmoq, urushmoqqa maslahat ko'rmadi. Sohibqiron muqobalasidin Umarshayx Mirzo sori yuridi va anda etib, ul cherikni mazbut ko'rdi, yuzini Shayx Temur Sulduz hazorasig'a chobti. Alar urushub, har nechakim alarni o'qladilar, alar fidoyilartek jonlaridin kechib, qaytmadilar va Sulduz hazorasidin ko'b kishini talaf qildilar va alarning ichidin o'tub, mansur cherikining keynida yasol tortib turdilar. Amirzoda Umarshayx bu holni ko'rub, To'xtamishning o'truvsiga borib, qalqonlar va turalar boshlarig'a tortib, urushg'a mashg'ul bo'ldilar.

Ul mahalda hazrat Sohibqiron To'xtamishning qochqon kishisining keynida borur erdikim, Joku tavochi kelib hazratqa xabar berdikim, To'xtamishxon necha qo'shun cheriki bilan mansur cherikidin o'tub, cherikning keynida yasoli bila turubtur. Ul hazrat bul so'zni eshitib, tahammulda erdikim, shahzoda Umarshayxdin kishi kelib ushbu xabarni dedi. Hazrat Sohibqiron zafarqarin Bahodirlari bila qaytib, To'xtamish sori yuridi. To'xtamish hazratning asabasini ko'rub, to'qta olmay qochti va toj-u taxtdin elikini yuvub va mamlakatdin ko'ngul ko'tarib, jon qo'rqunchidin sarosima va parishon bo'lub, otining jilovini qo'yub qochti va hazratning ne'mat haqqi ani tutti...

Hazrat Sohibqiron fath va firuzluq bila tushub, (127 *a*) hazrat Molik almulk, taolo va taqaddusg'a shukrlar dedi...

Beklar va shahzodalar barcha jam bo'lub kelib yukunub, bu fath uchun muborakbod dedilar. Va hazrat bir-birini chorlab ko'rushur erdi va maxtab duo qilur erdi va barchani inoyatlar bila sarafroz qildi. Va cherikdin har o'n kishidin yetti kishini dushman keynida yibardi. Bahodirlar otlanib, dush-

@tarixchi_kutubxonasiga

man keynida tushub, ul badkirdorlarg'a yettilar. Va alarning o'truvlarig'a Atil suyi[1] erdi va keynida etik qilich, na qochar yerlari bor erdi va na turg'ali yer topar erdilar...

O'truvlarig'a Atil suyi erdi, asru chuqur va keng daryo tururkim, anda kirsa bo'lmas erdi. Va keynida Sohibqironning cheriki etik qilichlar bila, lo jurma, ikki balo ichida qolib, ko'pragi fano bahrig'a g'arq bo'ldilar va oz ki-shi andin qutuldi. O'g'lon-ushoqlari va xotun-qizlari, barcha elikka tushti va mollarini oldilar. Va Jo'chixon naslidin ikki shahzodakim, To'xtamishxon bila yamon erdilar, qochub hazrat qoshida keldilar. Sohibqiron alarg'a ko'b inoyat va shafqat qildi, oltun kamar va xossa to'n kiydurdi va yaxshi otlar mindurdi.

Bu mahaldakim, To'xtamishxon yuz mehnat bila jonin olib ketti va ulu-si tamom bir-bir bo'ldi, bu ikki kelgan shahzodalar hazrat qoshida kelib, yukunub dedilarkim: «Agar hazratning yorlig'i bo'lsa, bizlar borib el-ulusg'a istimolat berib kelturali». Hazrat alarning so'zini qabul qilib nishon-lar berdikim, hech ofarida bularg'a mazohim bo'lmag'ay va alar bilan kelgan kishiga tashvish bermagay. Alar nishon olib, xushhol uluslarig'a bordilar.

(127 *b*) Hazratning cherikikim, dushmanning so'ngida borib erdilar; alar-ning keynida yo'lg'a kirib yuridi va Atil suyig'a yetib, suv yaqosida sahroyi bor erdi, asr-u zebo va o'tloq yer O'rto'ba[2] otliq, ul yerda tushtilar va saro-pardalar va chodirlar va shomiyonalar tikib, aysh bila mashg'ul bo'ldilar. Va Temur Qutluq o'g'lonkim, elini istagali borib erdi, elini topib yig'ishturdi, boshig'a xonliq havasi tushub, hazratning rioyat va shafqat haqqini unutub, ahdig'a vafo qilmay, eli bila sahrog'a chiqib ketti. Va Idiku taqi eliga yetib, ko'b kishi anga yig'ildi. Ul taqi ahdig'a vafo qilmay, bir sori ketti...

Kuncha O'g'lon borib ba'zi elini topib yig'ishturub, va'dag'a vafo qilib, hazratning xizmatida keldi.

Cheriklarkim hukm bila har sori borib edilar, barcha muzaffar va man-sur mollar bilan keldilar: ot, teva va qo'y ancha tushub erdikim, soni yo'q erdi. Muxoliflardin har kim har yerda borib yashurunub erdi, barchani to-pib asir etib, ba'zini o'ldurub, ba'zini tirik kelturdilar. Ul fathda ancha mol tushtikim, aning sonini xudoydin o'zga bilmas erdi. Va ancha qo'y, teva va ot tushtikim, qaytqanda ba'zi kishilar ojiz bo'lib, molni tashladilar...

Ancha hurdek mo'g'ul qizlari tushub erdikim, hazratqa yig'ilg'oni besh mingdan ortiq erdi. Qizlari barchasi oytek va o'g'lonlari oftobtek...

(128 *a*) Ul yurtkim, bihishttek yer erdi, aysh bilan mashg'ul bo'lub suhbat angiz qildi.

---

[1] *Atil suvi* – Volga daryosi.

[2] *O'r To'ba* – Volganing Tolyattidan shimolroqdagi sohili.

@tarixchi_kutubxonasiga

Hazrat Sohibqiron davlat va komronliq bila Jo'chi taxtgohida taxt ustida o'lturub aysh qildi va g'am-u anduh cheriki qochib, dushman soridin hech g'am qolmay, mutriblar navolar chekib, farah va shodliq ovozasin olam ichida solib aytur edilar...

Yigirma olti kun ul yerda o'lturub, aysh-u ishrat qildi... Va lillahi-l-hamd-u va-l-minna.

Hazrat Sohibqiron saodatmand Qipchoq dashtidin fath va feruzluq bilan yonib, Samarqand borg'oni

Hazrat haq, taborak va taolo, fazl va karamidin andoq fath muyassar bo'ldi va ul yerda muxoliflardin hech kishi qolmadi, saodat va iqbol bilan Samarqand sori mutavajjih bo'ldi. Tamom sahroni nusratshior cheriki tutub, saodat bilan yuridilar, aysh va komronliq bila manzil bamanzil borur erdilar. Va sohibjamol mahbublar bilan mollari bila aysh qilur erdi. Ul elning xirgohi andoq bo'lurkim, bir-biridin ajilmas[1]. Har qachonkim ko'char bo'lsalar ani ko'tarib, aroba ustida solur erdilar va har qachonkim tushsa edilar, ani ko'tarib yerda qo'yar erdilar. Va andoq xirgohlar cherikda bisyor tushub erdi. Andoq xirgohlar ichida pariruxlar bila farog'at qilur erdilar. Va andoq qalin cherik bo'lub erdikim, agar kishi o'tag'ini yittursa erdi, bir oyda, ikki oyda topmas erdi[2].

(128 *b*) Yayiq suyig'a yetkonda Ko'ncha O'g'lon Dashtdin ko'ngul uzolmay, hazratdin qochti. Yayiq suyidin kechib, necha manzil borg'ondin so'ng Hoji Sayfiddin va o'zga beklarni o'g'ruqda qo'yub, o'zi ta'jil bilan yuridi. Va hazrat Haqning panohida yo'lda kirib, ul xatarliq cho'llarda kirib zulqa'da oyida torix yetti yuz to'qson uchda (1391-y., oktabr) Sabrondin o'tub, O'trorga yettilar. Va andin saodat va davlat bilan ko'chub, Sayhun suyidin kechib, Samarqand viloyatida tushti. Va andag'i shahzodalar va og'olar, barcha o'truv chiqib, peshkashlar va sadaqalar kelturub, Sohibqiron diydorig'a musharraf bo'lub, peshkashlarini tortib, sadaqalarni fuqarolarg'a ulashturdilar va to'ylar tortib, farog'at bila mashg'ul bo'ldilar...

Necha kun shodmonliq bila aysh va farog'at qildilar. Amirzoda Mironshoh ijozat tilab, Xuroson sori yuridi. Sohibqiron Toshkandda bordikim, anda qishloq qilg'ay va muharram oyida yetti yuz to'qson to'rtda (1391-y., dekabr) amir Hoji Sayfiddin o'g'ruqni Toshkandda kelturdi. Bu yurush o'n bir oyg'acha tortti.

Andin so'ng Sohibqironi karam eligini ochib, shahzodalar bila og'olarg'a va shahar akobirlariga moh yuzluk kanizaklar, oftobdek qullar va

[1] Bu yerda «xirgoh» deb yog'ochdan yasalgan va ko'chishlarda buzilmaydigan uylar nazarda tutilgan.

[2] Bu yerda o'z o'tovini yo'qotgan kishi bir-ikki oyda ham topa olmasligi haqida so'z ketadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

qo'ydin, otdin va tevadin har kishig'a miqdorigacha berdi. Va ul qishni anda o'tkarub, avvali yozkim, oftob Hamal burjida keldi (1392 y., 21-mart), hazrat Sohibqiron andin ko'chub, Samarqand sori bordi. Va Xo'jand suyidin o'tkonda muborak ko'nglida tushtikim ov solgay. Beklar bila ov solib, ko'b sayd oldilar....

(165 *b*) **Hazrat Sohibqiron ikkinchi qatla To'xtamishxon ustiga cherik tortib borg'oni**[1]

(166 *a*) Qishning oxiridakim, oftob Hut burjig'a borib erdi va olam yana xazartek yashil to'n kiyib erdi, Sohibqironi gitisitonning muborak ko'nglida tushtikim, To'xtamishxon sori borib, onga yana bir go'shmoli bergaykim, ega muxolifat havzasini qilmag'ay. Bas, buyurdikim: «Cherik yarog'iga mashg'ul bo'lsunlar!» va hukm ettikim: «O'g'ruq Sultoniyag'a borib, anda o'lturg'aylar. Va Saroymulkxonim va Tuman-og'o shahzodalar bila Samarqandga borsunlar va Cho'lponmulk-og'o va ba'zi xotunlar o'g'ruq bila Sultoniyag'a borib tursunlar!». Va Musabek va Kamolbekni og'olaming mulozimatig'a qo'ydi. Va Axishohkim, Sultoniyaning kutvoli erdi, aning ittifoqi bila Sultoniyadan xabarkor bo'lub zabtig'a mashg'ul bo'lg'aylar. Og'olar bila beklar va o'g'ruq bari Sultoniyag'a bordilar. Hazrat Sohibqiron jumod ul-avval oyining yettisida yakshanba kuni, torix yetti yuz to'qson yettida (1395-y., 28-fevral) saodat va iqbol bila andin otlanib, Dasht sori mutavajjih bo'ldi. Va nusratshior cheriki yarog'lari bila tumon-tumon va qo'shin-qo'shin shimol sori mutavajjih bo'lub, (166 *a*) andag'i viloyatlarni barchani musaxxar qilg'ay va har yerdakim, el-ulus bo'lsa, alarni muti' qilg'ay. Bu niyat bila Jo'chixong'a taalluq el-uluslarig'a mutavajjih bo'lub yuridilar. Va o'ng qo'l va so'l qo'lning kishisini nechukkim dasturlari bor erdi, tartib bila yuridilar. Sohibqiron qishloqda o'lturg'onda To'xtamishxong'a maktubi bitib yibardi.

Shamsuddin Almolig'iyni ul xat bila elchilikka To'xtamishxong'a yibardi. Bas, bu Shamsuddin dono, ish bilg'uchi, oqil va ziyrak kishi erdi. Va to'rani yaxshi bilur erdi, og'zi yumshoq va so'zi chuchuk kishi erdi. Sohibqiron bitkon maktubni olib, Darband yo'lidin o'tub, Dashti Qipchoqqa borib, To'xtamishxong'a bordi. Bas, anda yetkonda To'xtamishni ko'rub, hazrat Sohibqironning maktubini berib, hazrat degon so'zlarni chuchuk tili bila anga dedi. To'xtamishning ko'nglida ul so'zlar ta'sir qilib, xushvaqt bo'lub, yarashmoqqa mayl qildi va xayol qildikim, uzr bila tilini ochib, e'tiqod bila muti' bo'lgay. Va andoq qilgaykim, arodin muxolafat qulub, do'stluq bo'lg'ay. Ammo beklari jahl va nodonlig'ilaridin ani qo'ymadilarkim muti' bo'lg'ay, ani yo'ldin chiqordilar. To'xtamishxon ul bedavlatlarning

[1] Agar 1389-yildagi yurishni ham e'tiborga olsak, aslida, bu To'xtamishxon ustiga uchinchi yurish edi.

@tarixim_kutubxonasiga

so'zlariga kirib, savob yo'lidin xato yo'lig'a kirib, Sohibqiron xatig'a «yo'q» javob bitib, Shamsudding'a berdi...

(166 *b*) Bas, Shamsuddin [Almolig'iy]g'a to'n kiydurub qaytardi. Mushori ilayhi To'xtamishxon qoshidin kecha-kunduz surub, Samur suyining[1] yaqosida Sohibqirong'a yetib, mulozimat qildi. To'xtamishxon bitkan javobini ko'rsatdi. Hazrat asru oshifta bo'lub, cherik yarog'ig'a mashg'ul bo'ldi.

Sohibqiron cherikning yarog'ini ko'rgoni

Sohibqiron farmon qildi: «Cherik otlanib, yaroq ko'rsatsunlar!». Va Samur suyi Elburzko'hning etagida[2] voqi' bo'lub turur va andin [Daryoyi] Qulzumg'acha[3] besh yag'och yo'l turur. Hukm bila barcha cherik yarog'lari bila otlanib, yasol torttilar; andog'kim, yasolning bir boshi Elburzko'h etagida erdi va bir boshi Daryoyi Qulzumda. Va andog' cherik Chingizxondin beri hech kishi ko'rmagon erdi va aningdek orosta va mukammal cherik qisasda Ajam mamlakatida podshoh bo'lg'on shohlarg'a ham zikr qilmag'on tururlar.

Bas, Sohibqiron cherikning yarog'ini ko'rgali uchun otlanib, o'zi yurub, har kishining yarog'ini mulohaza qilur erdi. Avval o'ng qo'l sori yurub, har bek qoshigakim, yetar erdi, ul bek Bahodirlari otdin tushub, yukunub duo qilur erdilar.

Bas, ot tortar erdilar. Hazrat Sohibqiron alarni maqtab, va'dalar qilib, ko'ngullarini shod qilur erdi. Ushbu tariqa bila cherikning yarog'ini ko'rub, qaytib g'o'lga kelib turdi. Bo'lg'on naqqoralar va ko'slar va nafirlarni chaldurdilar. Va qilichlarini yalang'och qilib, dushman sori hamla (167 *a*) qilib, suron soldilar. Andin so'ng shahzodalar va beklar har biri o'z kishilari bila bo'luk-bo'luk yo'lga kirib, Darbanddin[4] o'tub, Elburzko'h etagida bir jamoat kishikim, To'xtamishxonning havodorlari erdilar va alarni qaytog'[5] der edilar, tobtilar. Bas, hazrat shugung tutub buyurdikim: «Alar sori borsunlar!». Mansur cheriki xabarsiz boshlariga to'kub, to'rt yonni tutub, bir kishi alardin qutula olmadi va barchani talab, uylariga o't solib, kuydurdilar.

---

[1] *Samur* – Kavkazda, hozirgi Ozarbayjon bilan Dog'iston chegarasidagi daryo, Kaspiyga quyiladi.

[2] *Elburzko'h* – Elburs tizmasi.

[3] *Daryoyi Qulzum* – Kaspiy dengizi. Bu aytilganlardan ko'rinadiki, 1395-yil fevralining oxirida Amir Temurning To'xtamishga qarshi ikkinchi yurishi arafasida lashkarining qarorgohi Shimoliy Kavkazda o'zining o'rdusi Samur daryosi bo'yida Kaspiydan 30 km (besh yag'och) g'arbda bo'lgan.

[4] *Darband* – Dog'istonda Samurning Kaspiyga quyilish yeridan 35 km. cha shimolda dengiz sohilidagi shahar.

[5] *Qaytog'* – hozirgi qaytaq elati, ularning kelib chiqishi mo'g'ullardan hisoblanadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

To'xtamishxon O'troq otliq birovni elchilikka Sohibqironga yibarib erdi. Bu mahalda hazratning cherikiga yetib, cherikning g'alabaligini ko'rub va azimat va shavkatlaridin sohibvuquf bo'lub, qo'rqub, Sohibqironni ko'rmay qaytti va kecha-kunduz surub To'xtamishxonga yetti va dedikim: «Temurbek andoq qalin cherik bila Darbanddin o'tub keladurkim, ta'rif qilsa bo'lmas». To'xtamishxon bu so'zni eshitib, hayron qolib, Qazonchini hirovul qilib ko'b kishi bila Sohibqiron sori yibardi. Bas, Sohibqiron cheriki bilan Tarqi[1] mavzeida tutub erdikim, xabar keldikim: «Qazonchi boshliq ko'b kishi bila To'xtamishxon cherikidin ilg'ori kelib, Xuy suyining[2] yaqosida tutub turur». Hazrat Sohibqiron muborak nafsi bila yaxshi obodon yigitlar va Bahodirlarni saylab, tun qaytib yuridi. Subh vaqtida yeldek suvdin o'tub, alarning boshlariga kelib chobtilar va qilich zarbi bila alardin tutun chiqardilar. Va ul sahro va dasht dushman qonidin lolazordek bo'ldi.

Sohibqiron andin yurub, Sevinch suyining[3] (167 *b*) yaqosida tushti. Va To'xtamishxon Tarak suyining[4] yaqosida yig'ishtirub o'lturdi va o'lturgon yerida xandaq qazib, turalar bila berkitib, urushmoqqa tayyor bo'lub turub erdi. Bas, Sohibqiron orosta cheriki yaqin yetib tushti. To'xtamishning cheriki ul azimat va shavkatni ko'rub, turolmay, qaytib Quray suyig'a[5] bordi va yana cherik yig'ishturmakka mashg'ul bo'ldi. Va har yerda kelmag'on kishilarga kishi chobturdi. Ammo Sohibqiron Tarak suyidin kechuk topib, kechti va bo'lg'on cheriki barcha suvdin kechib tushtilar. Ammo Sohibqironning cherikida ozuq tuganib qahat bo'ldi. Sohibqiron bundin xabardor bo'lub, suv yaqolab, Cho'lot viloyatiga mutavajjih bo'ldikim, anda borib cherikka ozuq topib farog'at bilan o'zga dushman sori borg'ay. Bir ko'chub borib erdikim, xabar keldikim, To'xtamishxon qalin kishi yig'ishturub keladur. Bas, Sohibqiron o'ng qo'l va so'l qo'lni tartib etib yondi va bir-biriga yaqin yetkonda seshanba kuni jumod ul-oxir oyining yigirmi ikkisida torix yetti yuz to'qson yettida to'ng'uz yilida (1395-y., 14-aprel) ikki cherik bir-biriga yaqin tushtilar. Va tavochilarg'a hukm bo'ldikim: «Jar yetkursunlarkim, cherik xandaq qazmoqqa mashg'ul bo'lsunlar!». Cherik xandaq qazmoqqa mashg'ul bo'lub, xandaq qazdilar va turalar bila xandaqning tegrasida tomdek berkittilar. Farmon bo'ldikim: «Kecha bo'lg'onda hech kishi o'zi yeridin tebranmagay va undashmasunlar va shabixundin voqif bo'lsunlar, o't yoqmasunlar!». Hukm yusuni bila barcha cherik hozir

[1] *Tarqi* – Dog'istonda Maxachqal'adan biroz janubdagi kent. Hozir u temir yo'l bekati.

[2] *Xuy suyi* – Dog'istonda hozirgi Qo'ysu, Suloqning irmog'i.

[3] *Sevinj suyi* (forscha nusxada *Obi Sungj*) – Chechenistondan o'tgan Sunja daryosi, Gudermesdan shimolroqda Terek daryosiga quyiladi.

[4] *Tarak suyi* – Terek daryosi.

[5] *Quray suyi* – hozirgi Qabarda-Balqar Respublikasi va Stavropol o'lkasining janubidagi Kura daryosi.

@tarixchi_kutubxonasiga

voqif manzillariga tushtilar. Kechada birpas o'tub erdikim, To'xtamishxon shabixun (168 *a*) kelturdi. Sohibqiron cheriki yaqin yetib, naqqora va nafirlarini chaldurub, suran soldi. Nusratshior cheriki hukm bilan dam urmay tek turdilar. To'xtamishning kelgon kishisi ko'rdilarkim, Temurbekning kishisi yeridin tebranmay, dam urmadilar. Cherikka kirolmay, qo'rqub, yonib manziliga bordi.

Sohibqironi gitisiton Temur Guragon To'xtamishxon bila urush qilg'oni

Tonglasikim, falakning shahanshohi taxti uzra chiqib, olamni jamoli bila yaruq qildi, chahorshanba kunida (1395-y., 15-aprel) ikki cherik jo'sh-u xuro'shqa kelib otlandilar. Naqqora va nafir va ko's va ko'rgalarini chalib, birbiriga yuridilar. Sohibqironi saodatmand davlat va iqbol bila otlanib, cherik tartibig'a mashg'ul bo'lub, yetti qo'l kishisini tartib etti. Va bahodirlar-u dilovarlarni ilgari turg'uzdi. Va cherikning yayog'i turalar tutub, ilgari yurub turdilar. Va Amirzoda Muhammad Sultonni ulug' g'o'lda turg'uzdi va ikki yonida Bahodirlarni qo'ydurdi.

Va muxoliflarning cheriki ham saflar tortib, alamlar ko'tarib turdilar. Bas, bu mahalda xabar keldikim, muxoliflar tarafidin Kuncha O'g'lon va Bek Yoruq O'g'lon va Dovud Sufiykim, To'xtamishning kibori tururlar, ko'b kishi bilan so'l qo'l sori keldilar. Sohibqiron alar sori mutavajjih bo'lub, qo'shun beklari va Bahodirlari bila alarg'a ot soldilar. Muxoliflar mansur cherikning salobatini ko'rub qochtilar. Va yigirma yetti qo'shunkim, Sohibqiron bila yurub ish qilur erdilar, bir qo'shkin kishi muxoliflarni g'o'llarig'acha surub qayttilar. Ammo muxoliflar qo'lg'a yetib, yana qaytib, Sohibqironning (168 *b*) kishilariga chobtilar va alarni surub, hazratqa yetkurdilar va ko'b kishini tushurub o'ldurdilar va ba'zilari har sori qochti. Bu jihatdin qo'shunlar bir-bir bo'ldi va muxolif daler bo'lub, ilgari kelib, Sohibqirong'a yaqin yetishtilar. Shayx Nuriddinbek jonini fido qilib, hazrat Haq jalla va a'log'a tavakkal qilib, ottin tushti. Va aning bila ellik kishi muvofiqat qilib, otlaridin tushub, o'q-yoylarini eliklariga olib, o'q zarbi bila alarni turg'uzdilar. Va Muhammad Ozod va Alishoh, uning inisi va To'kal Bovurchi har birisi muxoliflardin bir aroba tutub kelturdilar. Sohibqiron arobalarning keynida turdi. Bu mahalda Allohdod Vafodor[1] qo'shuni bila ko'makka yetti. Va ul taqi Shayx Nuriddinbek qoshida borib, yayog' bo'lub turdi. Va Husayn Malik qavchin taqmalar bila yettilar, yayog' bo'lub alar taqi urushqa mashg'ul bo'ldilar. Va amir Ziyrak Joku taqi qo'shuni bila kelib qo'shuldi. Har nechakim dushmanlar, hamla qilib ot soldilar, yayog' bo'lg'on Bahodirlar alarni qo'ymadilarkim, ilgari kelgaylar. Va Xudoydodi Husayniy so'l

[1] Bu Allohdod va Xudoydodi (Xudodod) Husayniy emas. Lekin muallif Xudoydodni ham ba'zan Allohdod deydi.

@tarixchi_kutubxonasiga

qo'lda qanbulda erdi, muxoliflarning keynidin kirib Sohibqiron muqobilida alarni shabihun etdi. Bu mahalda Amirzoda Muhammad Sulton xossa qo'shinlari bila orosta va mukammal etib, Sohibqironning so'l qo'lidin kirib, dushmanlar bila urushqa mashg'ul bo'ldi. Bahodirlar barcha ittifoq qilib, barcha bir yo'li o'zlarini muxoliflarg'a urub, qilich zarbi bila dushmanning o'ng qo'lidagi kishilarini ko'tarib surdilar.

Va Hoji Sayfiddinbekkim, ul g'o'lda ilgari turub erdi, muxolif cherikidin Isabiy va Baxti Xoja ko'b kishi bila yurub, Hoji Sayfiddinbekni o'rtaga oldilar. Bas, Hoji Sayfiddinbek jonidin ko'ngul (169 *a*) uzub, tumoni bila otlaridin tushub, qalqonlarini eliklariga olib, tog'dek oyoqlarini yerga birkitib urushtilar. Har nechakim muxolif cheriki alarg'a hamla qilib, ot solur erdilar. Alar o'q zarbi bila alarni qaytarib, ilgari kelgani qo'ymadilar. Va Jahonshoh Bahodir tumoni bila bir yondin kelib dushmanlarg'a hamla qildi va asru azim qattiq urush bo'ldi. Bu ikki sohibdavlat bek bir-biri bila ittifoq qilib, muxolifning so'l qo'lini qochurdilar. Va Temur Xoja Oq Bug'a taqi anda yaxshi ishlar qildi. Va Amirzoda Rustam Umarshayx mulozimlari bila barqdek dushmanlarg'a chobti va yaxshi ishlar qilib, muqobilasida turg'on a'doni qochurdi. Bovujud ulkim, kichik yoshliq erdi, atosining otini yetkurdi[1]. Va Yag'libiykim, bahrindin erdi va To'xtamishxonning yaqinlaridin va o'zbek lashkarining Bahodirlaridin erdi, cheriki bilan ilgari yurudi... Bas, un ko'tarib, faryod qilib Usmon Bahodirni tilab dedikim: «U qaydadur, Usmonkim, bu kun eranlarning kuch-quvvatin ko'rgay». Usmon Bahodir aning unin eshitib, g'ayrat o'ti boshig'a yugurub, tavaqquf qilmay anga mutavajjih bo'ldi...

Usmon Bahodir qo'shini bila dushman sori mutavajjih bo'lub, bir- biriga chopishib, o'q va qilich zarbi bila andoq urushtilarkim, ta'rif qilsa bo'lmas. Oxirulamr Sohibqiron davlatidin Usmon Bahodir muxoliflarni qochurdi. Va o'zga beklar ham ul kun yaxshi ishlar (169 *b*) qilib, muxoliflarni qochurdilar va a'dodin ko'b kishi tushurub, alarni mutafarriq va parishon qildilar. To'xtamishxon Jo'chi naslidin podshohzodalar ko'ksini gurezlarg'a qaratib qochtilar. Alardin ko'b kishini o'ldurdilar.

Shahzodalar va beklar va Bahodirlar barcha kelib yukunub, bu fath uchun muborakbod dedilar va sochiqlar sochib, sadaqalar berdilar. Sohibqiron taqi bir erni chorlab ko'rushub, lutf bila maxtab, duolar qilur erdi. Va andin fath va nusrat bila Quray suyig'a kelib tushti. Va hazratning himmati andoq taqozo qildikim, jangda jonini fido qilg'on.

Shayx Nuridding'a va har kimki, bu urushda mardonaliq ko'rsatib ish qilib erdi, barchag'a inoyatlar qilg'ay. Ish ko'rsatgan shahzodalar va beklar va Bahodirlarini yaxshi siylab, zarboft to'n va murassa' kamar va

[1] Umarshayx Mirzoning o'g'li Rustam Mirzo 1381-yilda tug'ilgan edi va To'xtamishxon bilan bo'lgan 1395-yil aprelining o'rtasidagi jang vaqtida endi 14 bahorni ko'rgan edi.

@tarixchi_kutubxonasiga

ot-egarkim, oltundin bo'lg'ay, berdi. Va naqd xirmondin har biriga yuz ming oltun dinor ko'ppakiy in'om qildi. Va ba'zilarig'a viloyatlar va tumonlar va o'lkalar berdi.

To'xtamishxonning keynida Temurbek ilg'or yetib borg'oni

(169 *b*) Sohibqiron To'xtamishxonni qochturub, sonsiz mol oldi va ul molni o'g'ruqda qo'ydurdi. Amirzoda Mironshohkim, urushdan burun otdin yiqilib, eliga chiqqon erdi, Sohibqiron Amirzoda bilan Yodgor Barlos va Hoji Sayfiddinbekni o'rdu bila o'g'ruqda qo'yub, o'zi muborak nafsi bila yaxshi yigitlarni cherikidin saylab, To'xtamishxonning keynida tushib, kecha-kunduz demay yurur erdi, to Atil suyig'a yetib, bir guzarig'a yettikim, ani Turatur (170 *a*) guzari derlar.

Sohibqiron O'rusxonning o'g'likim, oti Qo'yrichaq O'g'ul erdi va hazratning mulozimatida erdi va o'zbek yigitlarikim, alar taqi mulozim erdilar, anga qo'shulub, podshohona yarog' berib, oltun bila tikkon charqop va oltun kamar berib, Jo'chixonning ulusini anga berdi va ani xon qilib, Atil suyidin kechurub, ulus sori yibardi. Bu shahzodai Jo'chinajod hukm bilan yurub, parishon bo'lg'on el-ulusni yig'ishturmaqqa mashg'ul bo'ldi. Va Sohibqiron davlat va nusrat bila To'xtamishning keyinida surub yurur erdi. O'kak mavzeida[1] dushmanlarg'a yetib, ko'b kishini tushurib o'ldurdilar. Ul bedavlatlarg'a bir taraflarida Atil suyi va bir soridin Sohibqironning mansur cheriki: ikki baloning ichida hayron va sargardon qolib, ko'b kishi alardin talaf bo'ldi. Ba'zilari o'zlarini Atil suyig'a solib, nari o'ttilar. To'xtamishxon bo'lg'on xotunlari bila o'g'lon-ushog'ini va molini tashlab, Bular jangalig'a kirib qochti. Va ul yer zulmatqa yaqin turur[2].

Bas, nusratpanoh cheriki bu navbat Dashti Qipchoqda bo'lg'on el-ulusni taladilar[3]. Va Amirzoda Mironshohkim, Quray suyining yaqosida o'g'ruq bila qolib erdi va aqarni kelur erdi. Yo'luqluq Azuqluq[4] mavzeida kelib, Sohibqirong'a qo'shuldi. Ul safarda aksari shahzodalar mulozimatda erdilar, muborak xotirig'a kechtikim, haramlar sori kishi qaytarg'ay. Bas, hukm ettikim, Amirzoda Pirmuhammad Umarshayx olti ming kishi

---

[1] *O'kak* – Saratov yaqinida Volga bo'yidagi shahar.

[2] *Bular jangali* – Bulg'or o'rmonlari, ya'ni Kamaning Volgaga quyilish yeridagi o'rmonli o'lka. Demak, shunga ko'ra O'kak mavzei ham, Turatur guzari (kechiki) ham Volgograd bilan Qozon oralig'iga mos keladi.

[3] Dashti Qipchoq deb, bu yerda shu daryoning o'ng sohilidagi yerlarga nisbatan, ya'ni hozirgi Rossiyaning Volgograd, Saratov, Samara, Ulyanovsk viloyatlarining va Tatariston-ning o'ng sohilidagi yerlariga hamda Penza viloyati, Mordova va Chuvashiston yerlariga nisbatan aytilayapti.

[4] Matnga ko'ra Yo'luqluq Azuqluq mavzei hozirgi Volgograd oblastining hududlarida bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

bila Sherozg'a qaytib borg'ay. Va amir Shamsuddin Abbos uch ming kishi bilan va G'iyosiddin Tarxonkim aning tumonida erdi, Samarqandqa borsunlar.

Hukm bo'lg'ondin (170 *b*) so'ng' o'shul zamon otlanib, yo'lg'a kirdilar. Kecha-kunduz surub Darbanddin o'tub, Ardabilg'a yettilar. Tabrizdin xabar keldikim, Qaro Yusuf turkmon qalin turkmonlarni yig'ishturub, Olatog'da kelib, Xo'y sori tavajjuh qilib turur. Shamsuddin Abbos va G'iyosiddin Tarxon shahzodadin ayrilib, Samarqand sori kettilar. Va shahzoda Pirmuhammad beklari bilakim, Abu Said Barlos va Boqish Davlat, Xoja va Tavakkal Bahodir Tabrizg'a keldilar va andag'i cherikni yig'ishturub, muxoliflar sori yurdilar. Xo'yg'a yetkonda xabar keldikim, Qorayusufning qorovuli Qarodarada[1] turur. Shahzodai juvonbaxt ilg'or solib, Qarodarag'a yetkonda Qorayusufning qorovuli qochti. Qorayusufga borib shahzodadin xabar dedilar. Qorayusuf bu xabarni eshitgan turolmay qochti. Va Amirzoda Pirmuhammad aning keyinida surub, Bandi Mohig'acha surdi. Va Malik Izzuddin kurt shahzodadin xabar eshitgach kelib shahzodag'a qo'shuldi. Va shahzoda o'z cherikini Qorayusufning keyinida yibarib, o'zi taqi uch ko'ch borib tushti. Shahzodaning beklari va Bahodirlari Qorayusufning keyinida Avnikg'acha borib ani topmay qayttilar. Shahzoda Pirmuhammad andin qaytib, Tabrizdin tub Sultoniyag'a keldi. Andag'i xonimlar va og'olar anga to'y berib, to'nlar kiydurub otlar mindurub, Sheroz sori yibardilar.

Sohibqiron Jo'chixonning ulusini musaxxar qilib, Rus viloyatig'a borg'oni

Hazrat Sohibqiron har ishgakim yuz qo'ysa erdi, ul ishni kamolig'a yetkurmaguncha qo'ymas erdi. Bas, To'xtamishxon qochqondin so'ng muborak ko'nglida kechtikim, (171 *a*) andag'i mamolik va viloyatlarni barchani musaxxar qilg'ay va har yerdakim, el-ulus bo'lsa, alarni muti' qilg'ay. Bu niyat bila Jo'chixong'a taalluq el-uluslarig'a mutavajjih bo'ldi. Dasht va sahrolarg'a kirib yurur erdi, Usmonbekni qorovul qildi. Va Usmonbek g'ajirchi olib, yo'lga kirib yuridi. Bas, O'zi suyig'a[2] yetkonda, Minkerman mavzeidakim[3], Bekyaruq O'g'lon va ba'zi o'zbeklarning uyi-eli anda erdi, alarni chopib, ko'broki tobi' bo'ldilar[4].

---

[1] *Qarodara* – Janubiy Ozarbayjondagi kichik daryo.

[2] *O'zi suyi* – Dnepr daryosi.

[3] *Minkerman* – qrim tatarchasiga «Ming qo'rg'on» demakdir. Shunga ko'ra bu mavze Dneprning quyi oqimida bo'ladi.

[4] Forscha matnda shu yerda «ba'zi ulusi o'zbek» (277 *b*), ya'ni «o'zbek ulusining bir qismi» deyilgan. Lekin qanday bo'lishidan qat'i nazar, bu parcha o'zbek ulusining, ya'ni o'zbeklarning bir qismi Dnepr bo'ylarida ham yashaganligidan dalolat beradi.

@tarixchi_kitobxonasiga

Toshtemur O'g'lon va Oqtov qochib O'zi suyidin o'tub, Saramday umog'ig'a[1] bordilar: ul ulus bularg'a dushman erdilar. Bas, bularning holi talamoq va asir bo'lmoqdin yamonroq bo'ldi va andin qochib, Rumg'a borib Israyqa sahrosida turdilar va bu choqqacha anda tururlar.

Va hazrat Sohibqiron O'zi suyidin qaytib, Rus sori mutavajjih bo'ldi. Va mansur cheriki Bekyaruqqa Tana suyida[2] uchrab, chirmashib, yana bir bor kishisini tushurub oldilar. Va Qarosuvkim, Rus shaharlaridin turur, yetib, ichi va tashini taladilar. Bekyaruq O'g'lon asru ojiz va bechora bo'lub, zaruratin o'g'lon va ushog'ini va xotunlarini balo changalida qo'yub, bir o'g'li bila qochib ketti. Va zafarpanoh Bahodirlari aning o'g'lonlari bila xotunlarini tutub, Sohibqiron qoshig'a kelturdilar. Va Sohibqiron alar uchun xayma va xirgoh tikturub, ko'b marhamat va shafqat qildi va otlar-u tevalar va raxt-u qumosh berib, Bekyaruq O'g'lonning keynida yubordi. Va Mirzo Mironshoh va Jahonshoh Bahodir va o'zga beklar qaytib yana Jo'chixonning barong'arida chobqali bordilar. Va anda yetib Bekxoja va o'zga beklarni bo'lgon (171 *b*) el-uluslari bila olib, ba'zilarni o'ldurub, ba'zilarni asir qilib, Saroy shahrini va O'rus va O'rusjo'qni taladilar va andag'i bo'lg'on el-uluslarini musaxxar qildilar[3]. Va sonsiz ot, teva, qo'y va o'zga nimalarni, sohibjamol qizlar va xotunlarni o'lja olib qayttilar...

Sohibqiron Maskavga sorikim, Rusning shaharlaridin erdi, tavajjuh qildi. Anda yetkonda nusratshior cheriki ul viloyatni shahar va atrofini chobtilar va andag'i hokimlarni tobe' qildi. Va cherikning eliklariga sonsiz mol tushti: oltun-u kumush va qumosh-u kabi va hatan-u qoqam va katton-u qaro samur va qilichlar, yaxshi otlar tushti. Va taqi Amirzoda Muhammad Sulton ko'b ellarni taladi, misli qavmi ko'rbuqa, parlon, yurqun va qaljikim, Sohibqiron cherikidin qochib yozilarda sargashta va hayron yurur erdilar, bas, so'ng Amirzoda Muhammad Sultong'a uchrab, ul barchani taladi va xotunlarini, o'g'lonlarini asir qilib, qaytib Sohibqirong'a qo'shuldi. Sohibqiron andag'i eldin g'ajirchi olib, Bolchimkin sori mutavajjih ayladi. Azoq hisorig'a[4] yetkonda Amirzoda Mironshoh cheriki bila Tana suyig'a yetib, hazratning humoyun o'rdusig'a kelib qo'shuldi. Bas, hukm bo'ldi «Musulmonlarni qo'yaborib, kofirlarni

[1] Matnning shu yeridan Saramday (yoki Haramday) o'mog'i (forschada «ulusi») Dnepr bilan Dunayning quyi oqimlari oralig'i ekanligi anglashiladi. Bu atamada qadimgi Sarmatiya toponimi uyg'unlashadi.

[2] *Tana suyi* – Don daryosi, asli to'g'riroq ismi Tana.

[3] Amir Temur To'xtamish ustiga 1395-yildagi yurishda dushmanning asosiy iqtisodiy tayanchi va harbiy markazi bo'lgan Saroyni vayron qiladi va bu bilan To'xtamishga qaqshatqich zarba beradi.

[4] *Azoq hisori* – Don (Tana) daryosining ko'lga quyilish joyidagi qal'a-shaharning o'rta asrlardagi turkcha nomi, hozirgi nomi Azov.

@tarixchi_kutubxonasiga

o'ldursunlar!». Bas, musulmonlarni qo'yub, kofirlarni o'ldurub, evlarig'a o't soldilar...

(181 *b*) Bog'i Shimol tillo qasrini Sohibqiron imorat solg'oni

Bas, avval bahordakim, oftobi olamtob Hamal burjida keldi, ustakorlar yaxshi soatda Bog'i Shimol tarhini soldilar. Va shaharning shimoli sorida erdi. Ul jihatdin ani Bog'i Shimol ot qo'ydilar. Aning ichida bir ko'shk soldurdi, bag'oyat (182 *a*) takallufluq va zebo va har yerdakim, ustodkorlarni Sohibqiron viloyatlardin – Iroq, Fors, Bag'dod va Sherozdin yibarib erdi, barcha munda jam bo'lub, ishga mashg'ul bo'ldilar. Jumod ul-oxir oyida torix yetti yuz to'qson to'qquzda ut (sigir) yilda (1397, mart) farxunda soatda imorat ishiga mashg'ul bo'ldilar. Va to'rt hissa qilib, har bir hissa ustiga bir jamoat ustakorlarni mashg'ul qildurdi va alar ustig'a bir bekni muhassil qo'ydi. Beklar ihtimom qilib, kecha-kunduz ishlatur erdilar. Sohibqiron bir oy yarim o'zi turub jahd etar erdilar. Andoq imorati oliy soldurdilarkim, biyiklik jihatidin ko'k bila hamroz bo'lub erdi. Va har burjida marmar toshidinkim, Tabrizdin kelturub erdilar, sutunlar qo'ydurdilar va devorlarini oltun va lojuvard bila naqsh qildilar va farshi (sahni) tamom marmar toshidin[1] soldurdi. Alqissa yari bo'ldikim, jannati barin andin rashk etur erdi. Va tamom bo'lg'ondin so'ng yaxshi to'y berib, beklar va shahzodalar bila necha kun ko'shkda suhbatlar tutub, farog'atlar qildi.

Sohibqiron dinparvar Xuroson viloyatini Shohrux Mirzog'a bergoni

Sohibqironi mamoliksitong'a bovujud ulkim, o'g'lon-ushoqlari ko'b erdi va har biri bir viloyatda podshoh erdi. Ammo hazrat Sohibqiron davlat nishonasini shahzoda Shohruxdin zohir ko'rar erdi. Lo jurma, bu jihatdin ra'yi mamlakatoroyi andoq iqtizo qildikim, Xuroson viloyatkim, to'rtinchi iqlim turur va ma'murayi olamning o'rtasi ul turur va holokim tirik turur, bu viloyatni shahzodag'a (182 *b*) bergay. Ul mahaldakim, Bog'i Shimolda to'ylar qilib, farog'at bila o'lturub erdi. Xuroson va Seiston va Mozandaronni to Feruzko'h va Ravg'acha shahzodai nekbaxt shahzoda Shohruxqa berdi. Va ulug' beklardin Sulaymonshohbek va amir Mizrob Joku va Sayid Xoja Shayx Ali Bahodir va Abdussamad Hoji Sayfiddin va Hasan Jondor va Malakat va buning o'g'li Jahonmalik va Pir Muhammad Fulod va G'iyosiddin Tarxonning o'g'ullaridin Ali Tarxon va Hasan Sufiy va qavchinlardin To'ploq va Kepakchi Yurtchi va Tag'ay Mergan va O'lja Bug'a Majalkachi va Shayx Ali va Mirak va g'ayruhum. Bu beklarni xona-ko'chlari bilan shahzodag'a tob-

[1] Forscha matnda: «... marmar va Nur (Nurota) tog'i toshlaridan...» (289 *b*.) – (*ilm. muharrir*).

@tarixchi_kutubxonasiga

shurdi. Va o'zga beklardin har biridin yo o'g'lini, yo inisini shahzodaning mulozimatig'a tobshurdi. Hazrat Sohibqiron yorlig' bila Xuroson viloyatining nishonini anga inoyat qilib, ijozat berdi.

Bas, saodat va iqbol bila yo'lg'a kirib, Amu suyig'a yetti. Sha'bon oyida yetti yuz to'qson to'qquzda (1397-y., may) barcha cherik bila suvdin o'tub Andxudg'a yetti. Va andin ko'chub, kecha-kunduz surub, Chechaktuga yetib tushti. Oq Bug'abek bilan sodot va ulamo va fuzalo Hirot shahridin chiqib, shahzodag'a o'truv kelib, peshkashlar tortib, ko'runush qildilar. Bas, shahzoda bila Hirot sori mutavajjih bo'ldilar. Sha'bon oyining ayog'ida (1397-y., 28-may) sa'd toli'i bila va yaxshi soatda (183 *a*) Qo'hdiston marg'zorida tushti va ul mamlakatni adl va ihson bilam muzayyan va orosta qildi. Ramazon oyi anda turub, faroiz va sunnat qiyom qilib, ramazon oyini kechurdi va Ko'hdistondin shaharg'a kirib, Bog'i Zog'onda o'lturdi. Bas, Xuroson viloyatining darug'alari va hokimlari va Mozandaron va Seyiston viloyatining darug'alari barcha peshkashlar bila kelib, shahzodani ko'rdilar. Va har viloyatdakim, shahzodalar bor erdi, barcha muborakbod uchun kishilarini peshkash bila yibardilar. Ushbu yilning oxirida zulhijja oyining yigirma birida juma kechasi torix yetti yuz to'qson to'qquzda ut yilda (1397-y., 15-sentabr) shahzodaga xudoyi, taborak va taolo, bir o'g'ul karomat qildi. Va bu xabarni Sohibqirong'a yibardi. Hazrat ani Boysung'ur ot qo'ydi...

(185 *a*) **Hazrat Sohibqiron Dilkushoyi bog'ini va ko'shklarini imorat solg'oni**

Yetti yuz to'qson to'qquzda (1397-y.) kuz boshida Sohibqiron farmonladikim: «Konigilning bir yonida bog'i tarh solsunlar!». Bas, hunarmandlar va muhandislar soat ixtiyor qilib, yaxshi soatda hukm yo'suni bila bog'ning tarhiga mashg'ul bo'ldilar. Murabba' tarhi soldilarkim, har yoni ming besh yuz qari erdi[1] va har bir tomida bir darvoza qo'ydilar va oliy tog'lar bog'ladilar va koshin (185 *b*) bila zeb-u ziynat bordilar. Va har burjida bir kabutarxona koshinkorliq yasadilar. Va bog' ichida har turluq mevaliq yag'ochlar tikdilar. Va maydonlar va gulistonlar tarh qilib, maydonlarning tegralarida terak yag'ochlar tarh bila tikdilar. G'oyat takallufidin ani Dilkushoyi ot qo'ydilar. Va aning ichida bir ko'shki soldi, uch toq bila. Ul tamom bo'lg'ondin so'ng ul bog'ni To'kal Xonimkim, Xizr Xojaxonning qizi erdi va Sohibqiron aning uchun kishi yibarib erdi, bog'ni anga nomzod qildikim, har qachon kelsa bu bog'ni anga bergay.

Bas, Dilkushoyi bog'ining imorati tugagandin so'ng Sohibqiron dinparvar Toshkand sori mutavajjih bo'ldi va Sayhun suyidin o'tub, Ohangaronda, Chinos qaryasi yaqinida tushti va anda qishloq soldurdi. Va Sohibqiron

[1] Ya'ni, bog'ni har bir tomoni 750 metr bo'lgan kvadrat shaklida loyihaladilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Yassig'a borib, Shayx Ahmad Yassaviy mozorig'a borib tavof qildi. Dedi: «Bu aziz Muhammad Hanifa o'g'lonlaridin turur!» – alayhi va ala olihi vassalom. Buyurdikim, u mozori ustiga imorati oliy soldilar va bir ulug' toq bog'ladilarkim, ko'k bila so'zlashur erdi. Va bir g'unbadi murabba', bir yoni o'ttuz qari bog'ladilar va o'zg'a hujralar soldilar. Va farmon bo'ldikim, tomlarini rang'in koshin bila muzayyan qilsunlar. Va Xojaning qabrini oq tosh bila yasadilar. Va Mavlono Abdulloh sadrni ul imorat ustig'a qo'ydurdikim, ihtimom qilg'ay. Ikki yildin so'ng' ul imorat tugandi. Ul imorat tugang'anidin so'ng andag'i faqir-u miskinlarg'a ko'b sadaqalar berdilar. Va andin qaytib, o'rdu sori ketdi[1].

Anda xabar keldikim, To'kal Xonimni keltururlar. Bas, barcha og'olar va begimlar hukm bila o'truv borib, o'n besh kunchiliq yo'l o'truv (186 *a*) borib, alarga yetishtilar. Qumoshlar va yaxshi otlar peshkash torttilar. Va qaytib kelturda har yerdakim tushar erdilar, to'ylar berur erdilar. Panjshanba kuni rabi' ul-avval oyining g'urrasida torix sakkiz yuzda (1397-y., 22-noyabr) yuz oyin va takalluf bila ul xonzodani hazrat Sohibqironning borgohig'a kelturdilar. Bas, farmon bo'ldi: «Ulug' to'y tartib etsunlar!» Shayx ul-islom va quzzot va ulamolarni hozir qilib, ul xonliq gavharini shar'i mutahhara intizomi bila Sohibqiron aqdig'a kiyurdilar. Va og'olar va shahzodalar barcha muborakbod deb sochqilar sochtilar. Va ancha sochqi sochib erdilarkim, yer yuzi ko'rinmas erdi va ko'b andag'i mulozimlarkim, ul sochiqdin olib erdilar, ayshlar va farog'atlar qildilar. Va beklarning xotunlarig'a ko'b in'omlar qildi.

Va elchilarkim, Xitoy mamlakatining to'ng'uz xonidin kelib peshkashlar kelturub erdilar, beklar elchilarni Sohibqirong'a ko'rsattilar va so'zlarini arz qildilar.

Oftob Hut burjida yetkonda (1398-y., 19-fevral) Sohibqiron hukm qildikim: «Amirzoda Muhammad Sulton Mo'g'uliston sarhadig'a borib, zabtg'a mashg'ul bo'lsunlar!» va Ashparada qal'a solib, ziroat qildurg'ay. Va Berdibek Sari Bug'a va amir Hoji Sayfiddin va Xudododi Husayniy va amir Shamsuddin Abbos va o'zga beklarni qirq ming kishi bila shahzodaning mulozimatida qo'ydi. Bas, alar yurub, Qulon uqbasidin o'tub, Ashparag'a[2] yetib, anda tushtilar va imorat va ziroatqa mashg'ul bo'ldilar.

Kun Hamal burjida yetkonda (1398-y., 21-mart) Sohibqiron dinparvar qishloqdin Samarqand sori mutavajjih bo'ldilar va Xo'jand suyidin o'tub, Samarqandda kelib tushti. (186 *b*) Amirzoda Shohrux Hirotdin kelib, haz-

[1] Demak, Ahmad Yassaviy maqbarasi 1397-yil dekabrida boshlanib, ikki yildan so'ng – 1399-yil oxirida tugatilganligi anglashiladi.

[2] *Ashpara* – Merkedan qariyb 50 km sharqda shu nomli daryocha bo'yidagi kichik shahar.

@tarixchi_kutubxonasiga

rat Sohibqironning diydoriga musharraf bo'ldi. Sohibqiron shahzoda bila ko'rushub, ko'b so'rdi va shahzoda taqi kelturgon peshkashlarini tortib, duolar dedi.

Necha kundin so'ng ko'chub, Kesh sori mutavajjih bo'ldi. Va yo'lda bir tog'i voqi' tururkim, ul tog'din Samarqandgacha yetti yag'och yo'l turur va ul tog'ning og'zida oqar suv chiqib borur erdi. Sohibqiron ul toqqa chiqib ko'rdikim, imoratqa loyiq yer turur. Va har yerdakim o'shandoq imoratqa qobil yer ko'rsa erdi, ul yerda albatta bir imorat solur erdi. Munda yetkonda hukm qildikim: «Bog'i solsunlarkim, bu suv anda borgay va ul bog'ning ichida qasri solsunlar!». Bas, hukm bila anda bog'i solib, tugangandin so'ng ani Taxti Qarocha ot qo'ydilar. Va hazrat ikki kun anda turub ko'chub, tog' etagidin Yom rabotig'a borib tushti va andin ko'chub, Keshda yetib, turmay Elchi Balig'qa borib tushtilar. Va necha kun anda turub, aysh-u farog'at bila o'tkardi.

(256 *b*) **Hazrat Sohibqiron Rum sori tavajjuh qilg'onin sababi**

Qorayusuf turkmon musulmonlarning ichida kirib muddati erdikim, zulm va bedodliq qilur erdi. Va yo'llarni tutub kelguchi va borg'uchilarni zarar-zahmat berur erdi. Va Hijoz qofilasiga mazoxim bo'lur erdi. Ammo, chun hazrat Sohibqirondin qochib Rumg'a bordi, bu jihatdin Sohibqirong'a do'iya bo'ldikim, Rumg'a mutavajjih bo'lg'ay. Va bu ovoza Rumg'a borg'ondin so'ng Qaysari Rum taqi harb asbobig'a mashg'ul bo'ldi, cherik yig'ishturmakka mashg'ul bo'ldi. Ammo Rum viloyatining akobir-u aozim va ulamo-u sulaho barcha Yildirim Boyazidqa kelib nasihatlar qildilarkim (257 *a*) va dedilarkim: «Bu podshohkim bori mutavajjih bo'lub turur, davlati asr-u qaviy turur va bu choqqacha har kim aning bila muxolafat qilib turur, maqhur bo'lub turur. Va har necha mushkil ishga yurub turur davlatidin ul ish anga oson bo'lub turur. Va har shahar va qal'a sorikim boribtur, ul yerni oz tavajjuh bila olib turur. Va bu ishlar bir abas ermas va mundin hazrat subhonning inoyati ma'lum turur. Mundoq kishi bila muxolafat qilmak yaxshi bo'lmas. Aning bila muxolafat qilmagil va muvofiq bo'lmoq kerak, to viloyat amonda bo'lg'ay». Yildirim Boyazidqa bu so'zlar ma'qul tushub, o'zi taqi qo'rqub erdi, islom qozilaridin va bir begi bila bir xatkim bitti, mazmuni itoat va inqiyod turur, Sohibqirong'a yibardi. Va Qarobog'i Arronda olampanoh dargohida yettilar, yukunub xatni berdilar. Va xatning mazmuni bu erdikim: «Chun inobati hazrat haq xizonasidinkim, – tu'tiy al-mulka man tashau[1], – podshohliq xil'ati bila ul hazratning iqbol qomatini orosta qilib turur. Biz ham tobi' va muti'durbiz. Agar mundin burun xilofi qoida bizdin ba'zi nimalar voqi' bo'ldi, emdi mundin nori itoat va inqiyoddin o'zga ishimiz bo'lmag'usidur».

[1] Qur'oni karim. 3-sura («Oli imron» surasi), 26-oyatdan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Sohibqiron dedikim: «Sizning podshohingiz doim farang kofirlari bila g'azo qilur. Biz ham sizlar bilan do'st tururbiz va ko'nglumizda ul andisha yo'q tururkim, ul sori cherik elitgaybiz va islom viloyati xarob bo'lg'ay, kofirlar mundin shod bo'lg'aylar. Ammo Qorayusuf turkmonkim, musulmonlar ichida kirib turur, mufsid-u badbaxt turur va badbaxtligidin yo'l urub musulmonlarg'a zarar-zahmat berur. Bu vaqtdakim, bizdin qochib anda borib turur, yo uldurkim, ani o'ldurub musulmonlarning xotirini andin jam etsun yo ulkim, ani band qilib, bizga yibarsun. (257 *b*) Bu ishdin birini qilsa, aromizda do'stliq bo'lgusi turur».

Rum elchilari bu so'zni eshitib, bari mulzam bo'ldilar va hech javob bermadilar.

Necha kundin so'ng ovga otlanib, Aras suyidin o'tub, Oqtomda barcha xaddomlari va mulozimlari bila ul sahro va tog'larni ihota qildilar. Necha kundin so'ng jirga bir-biriga yetib, cherik ahli bir-birining eliklarini tutub kelur erdilar. Hayvonot nav'i va jonvorlar sinfining ko'bligidin mislsiz ko'b sayd ottilar. Va ovdin so'ng hazrat Sohibqiron Tahurtan va Rum elchilariga ijozat berdi. Va elchilardin bir jamoat, misli Muhammad Ozod va To'kal Bavurchi jirgaga kirib ko'b sayd ottilar.

Ovdin forig' bo'lgondin so'ng qaytib o'rdug'a tushub, suhbatangiz qildi. Va ul suhbatda Rumdin kelgan elchilarga to'nlar kiydurub, oltun kamarlar berdi va dedikim: «Biz bu qish munda tururbiz. Avval bahorda Rumga yaqin borurbiz, ko'rarbizkim Qaysardin bizga ne javob kelur. Agar yaxshi javob kelsa, – fa huva al-murod,[1] – yo'q ersa ko'rali, to ne bo'lgusi turur». Boyazid Chimboy Elchikdayni bir jamoat bilan kelgon elchilarga qo'shub, xat bila Rumg'a yibardi. Xatning mazmuni bukim: «Salom va tahiyyadin so'ng so'z ulkim, elchilaringiz kelib, yaxshi so'zlaringizdin sohib vuquf bo'lduq. Agar bu so'zlar chin turur, kerakkim Qorayusuf turkmonni bizg'a yibargaysiz va aning sharrini musulmonlarning boshlaridin daf' qilgaysiz. Va bir ulug' begni bizga yibarsangiz, to aromizda shart va ahd bo'lg'ay va aromizda borish-kelish bo'lg'ay va musulmonlar farog'atda bo'lg'aylar. Va agar bizning so'zimizga amal qilmasangiz, har nekim voqi' bo'lsa o'zungizdin bilgaysiz».

(261 *a*) **Sohibqironi saodatmishon yarog' ko'rgoni**

Sohibqironi gitisiton Rumg'a tavajjuh etib hukm qildikim: «Mansur cheriki Sivos sahrosida jayba va yaroq ko'rsatsunlar!». Sohibqiron o'zi bir tepa ustida shomiyona urub o'lturdi. Mansur cheriki bo'lak-bo'lak barcha mukammal boshlaridin otlarining tuynog'icha temur ichida g'arq edilar[2]. Va bo'lakkim, Sohibqirong'a yaqin yetar erdilar, ul bo'lakning begi ilga-

[1] *Fa huva al-murod* – ya'ni, ayni muddao.

[2] Bu aytilgan so'zlardan ko'rinadiki, Amir Sohibqironning otliq askarlari o'sha davrdagi Yevropa ritsarlaridan ham mukammal yarog' bilan jihozlangan bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

ri kelib, otidin tushub, yukunub ot tortar edi, duo va sano etib ketar erdi. (261 *b*). Sohibqiron taqi ul kishini maxtab, duo qilur erdi. Va ushbu tariq bila tumonlar va hazoralar va qo'shinlar bir-birining keynidin yetib, yaroqlarini ko'rsatib o'tar erdilar to navbat Amirzoda Muhammad Sultonning cherikig'a yettikim, bular Samarqanddin emdi kelib edilar. Andog' yaroq ko'rsattilarkim, falak muncha ko'zlari bila hargiz mundoq yaroq ko'rmag'on erdi. Va cheriki necha bo'lak erdi va bir bo'lak bir rang' yaroq qilib erdi: bir bo'lagi qizil va bir bo'lagi yashil va bir bo'lagi sariq va bir bo'lagi oq. Ushbu tariq bilan xil-xil yigitlarini yaroq bilan ko'rsatdi. Va shahzoda o'zi ilg'ari kelib, otidin tushub, Sohibqirong'a peshkashlar tortti...

Ul sabohdin namozi peshing'acha cherik o'tti. Sohibqiron namozg'a qo'pub hukm qildikim: «Rum elchilarini otlandurub, cherik ayog'ig'acha eltsunlar!». Hukm bila elchilarni olib yuridilar va cherikning azimati va shavkatini alarg'a ko'rsatur erdilar. Elchilar ul azimat va shavkatni ko'rub, ko'ng'ullarig'a vahm tushub titray boshladilar. Tonglasi Sohibqiron elchilarni chorlatib, to'n kiydurub, ijozat berdi va dedikim: «Yildirim Boyazidqa aytingkim, chun sening viloyatingga g'azo va jihod rasm turur, bizga qattiq kelurkim, ul viloyatda bizdin tashvish bo'lg'ay. Bovujud ulkim, sen ma'lum yo'ldin (262 *a*) chiqibsen. Hanuz tahammul qilurmen, to Tahurtanning kishilarini yibarg'aysen va o'g'lonlaringdin birini bizga yibarg'aysenkim, bizdin oncha marhamat va shafqat ko'rgaykim, senkim atosisen, ko'rmag'on bo'lgay. To mamlakati Rum senga musallam bo'lgay va sen farog'at bila taxt ustida qaror tobqaysen va andagi el-ulus farog'atda bo'lgay, vassalom»[1].

Sohibqiron Rum podshohi bila urushub, zafar tobqoni

Ikki soridin cheriklar saf tortib turdilar. Sohibqiron ul mahalda otdin tushub, niyoz yuzini hazrat Parvardigor sori qilib, ikki rak'at namoz fath va nusrat uchun o'qudi. Va har doimkim, mundoq urush voqi' bo'lsa erdi, hazrat Sohibqiron ul namozni o'qur erdi. Bu jihatdin hazrat Haq subhonahu va taolo anga nusrat va fath karomat qilur erdi. Bu yerda ham ikki rak'at namozini o'qub, sidq-u ixlos bila otlanib, xaydon sori kelib go'lda turdi. Va hukm bo'ldikim: «Bahodirlar ilgari yurub, ishlariga (265 *a*) mashg'ul bo'lsunlar!». Barchadin burun o'ng qo'ldin Amirzoda Abu-

[1] Sharafuddin faqat Amir Temurning Boyazidga maktubining mazmunini keltirib, Boyazidning Amir Temurga javobi haqida eslamaydi. Ibn Arabshoh Boyazid nomidan bir maktubni keltiradi (*qarang:* Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi, 256–259-betlar). Maktub Amir Temurga nisbatan haqoratli iboralar bilan to'la bo'lib, u ko'proq uning o'zining Amir Temurga munosabatini akslantiradi. Lekin har holda Boyazidning Amir Temurga qo'pol iboralar bilan javob yo'llaganligi haqiqatga yaqin ko'rinadi. Chunki uning shu ma'nodagi javobi haqida Klavixo ham eslatadi (*qarang:* Клавихо. *Дневник путешествия.* – С. 66–67).

@tarixiy_kutubxonasiga

bakr muborizat maydoniga kirib, yigitlari bila o'q-yoy eliklariga olib, muxoliflar sori yurub shayba to'ka boshladilar, dushmanning so'l qo'lini ko'tarib bir-bir ottilar.

Jahonshohbek va Qora Usmonbek taqi ot solib, dushmanning so'l qo'ldagi turgon cherikini ko'tarib urdilar.

Va Kurashchikim, Qaysari Rumning o'g'lonlaridin ul Bahodir va pahlavon erdi, turub ko'b sa'y qildikim cherikini turguza olg'ay. Turg'uza olmay qochdi. Va Sohibqironning so'l qo'lidin Amirzoda Sulton Husayn zafarshior cheriki bilan ot solib, qilich va nayza zarbi bila dushmanlardin ko'b kishini tushurdilar. Va Amirzoda Muhammad Sultong'a g'ayrat bo'lub Sohibqirondin ijozat tiladi. Sohibqiron dedi: «So'l qo'l sori yurgil va alarg'a ko'mak bo'lg'il!». Va Afranjning dilavarlari turub ko'b ishlar qildilar va necha qatla bir-birini surdilar. Oxirul-amr nusratshior Bahodirlari Las Afranjiyning o'g'lini cheriki bila surub qochurdilar. Va yayog'lari ot ayog'ida qolib, ko'b kishi o'ldi.

Alqissa, rumiylardin ancha kishi o'ldurdilarkim, ul sahroning tufrog'i alar qonidin balchiq bo'ldi...

Amirzoda Pirmuhammad Umarshayx va Amirzoda Iskandar va Amir Shohmalik Bahodirlar bilan ilgari yurub, dushmanlardin ko'b kishini tushurdilar. Shayx Nuriddinbek va Burunduqbek yaxshi ishlar qildilar.

Sohibqiron ko'rdikim a'do zaif bo'ldi, hukm qildikim: «Bir yo'la ot solsunlar!» Amirzoda Mironshoh beklari bila bir tarafdin va Amirzoda Shohrux (275 *b*) beklari bila bir soridin, barcha ittifoq bila hamla qildilar. Qiyomat kuni zohir bo'lub, bir suron va g'avg'o olamdin qo'pdikim, hargiz bu dahrdin mundoq kun ko'rmaydur edi. Malaklar falaklarda tahayyur barmog'larini tishlab, nazorat qilur erdilar.

Yildirim Boyazid Amirzoda Muhammad Sulton sori chopib, alarni surdi va bir tepa ustig'a chiqib ko'rdikim, cheriki bir-bir bo'lub turur, hayron qolib turdi. Va bir necha otliq va yayog' aning qoshida yig'ildilar.

Hazrat Sohibqiron shahzoda Shohrux bila qaysari Rum sori mutavajjih bo'ldi. Va Amirzoda Mironshoh va Amirzoda Sulton Husayn taqi Yildirim Boyazidqa tavajjuh ettilar. Qaysar axshomg'acha turub urushdi. Namozshomg'a yaqin ul tepadin tushub, o'zini mansur cherikiga urub, cherik alarga yo'l berib, chiqib qochtilar. Ammo alardin ko'b kishini o'q bila otib o'ldurdilar. Yildirim Boyazid yuz mehnat va mashaqqat bila o'rtadin chiqib ketdi. Va bir jamoat Bahodirlar aning keynida tushtilar. Va qochqonlar havo issig'idin suvsab, ko'b kishi o'ldi.

Nasimi fath va nusrat Haq subhonahu va taolo inoyatidin mansur cheriki sori bo'lub, dushmanni bostilar. Sohibqiron qaytib o'rduga tushti va Haq taolog'a shukr-u sipos beqiyos dedi. Shahzodalar va beklar barcha yig'ilib, Sohibqiron qoshig'a kelib yukunub, muborakbod dedilar. Va bu fath juma

@tarixchi_kutubxonasiga

kuni zulhijja oyining o'n to'qquzida, torix sekkiz yuz to'rtta (1402-y., 20-iyul) voqi' bo'ldi[1]. Va lillahi-l-hamd-u va-l-minna.

Mansur cheriki Qaysari Rumni tutub, Sohibqiron qoshig'a kelturgonlari

Ul jamoatkim, Yildirim Boyazidning keynida borib erdilar, Sulton Mahmudxon Yildirim Boyazidqa yetib, (266 *a*) ani tutub kelturdi. Namozi xuftan erdikim, Yildirim Boyazidni dargohi olampanohda kelturdilar. Sohibqiron farmonladikim: «Elikini yechib, hurmat bila kiyursunlar!». Bas, ani hazrat qoshida izzat bila kiyurub, hazrat ani ko'rub ko'b izzat tutub, o'z qashida o'lturg'uzdi va dedikim: «Har nechakim senga nasihat qilduq, eshitmading. Va bu voqea o'zungdin senga keldi. Va menga so'zlar aytib yibardingkim, zarurat bo'lub senga keldim. Yo'q ersa sen mulozimat bilan bizning bila maosh qilur erding. Senga mundoq kun uchramas erdi. Va men munchakim tahammul qildimki, shoyad sen insof yo'lig'a kirgaysen va musulmonlarg'a tashvish bo'lmag'ay. Va agar sen mening so'zumga kirib, yaxshi maosh qilur erding, men senga cherik berur erdimkim, borib g'azo qilur erding. Va cherikdin boshqa nechakim senga mol va aslaha va ot va yarog' kerak bo'lsa erdi, men yibarur erdim. Azmoyish uchun sendin Kamox qal'asini tiladim va dedimki, bir yaxshi kishingni yibarg'il, to shart va ahd qilg'aybiz. Hech qaysi bila amal qilmading va sendin muxolafatdin o'zga ish zohir bo'lmadi. Bu jihatdin bu kung'a uchrading. Va barchag'a ravshan tururkim, agar bu qissakim senga voqi' bo'ldi, agar menga voqi' bo'lsa erdi, sen menga va cherikimga nelar qilur erding. Ammo bu jihatkim, hazrat Haq subhonahu va taolo menga nusrat berdi, senga va senga taalluq kishilarga yaxshiliqdin o'zga ish qilmagumdur».

Yildirim Boyazid xijil va munfa'il bo'lub gunohini bo'yniga olib dedi: «Bali, men xato qildimkim, Sohibqironning so'zini eshitmadim, bu jihatdin haromni toptim. Agar Sohibqiron afv qilib, gunohimdin kechsa, men farzandlarim bila (266 *b*) to tirik bo'lsam xizmatdin o'zga ish qilmag'aymen».

Sohibqiron lutf-u karamidin anga podshohona to'n kiydurdi va yaxshi so'zlar bila ko'nglini oldi. Qaysar bu lutf-u karamni ko'rub duolar qilg'ondin so'ng arzadosht qildikim: «O'g'lonlarim Musa va Mustafo urushda mening bila erdilar. Va ko'nglum alar sori turur. Sohibqirondin tavqi' ul tururkim, kishi yibarib, alar ahvolidin xabar bilsalar. Agar tirik va agar o'luk bo'lsalar menga xabar kelturgaylar».

Sohibqiron hukm qildikim, «Tavochilar yurub alardin xabar kelturgaylar!». Va necha kundin so'ng Musani topib, Sohibqiron qoshig'a keltur-

[1] Muallif bu yerda faqat Anqara yaqinidagi jangning o'zini tavsiflagan va Amir Temurning jangdan avval ishlatgan harbiy hiylasi haqida aytmagan. Bu haqda de Klavixo mufassalroq yozgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

dilar. Va Sohibqiron anga xossa to'n kiydurdi va atosi qoshig'a yibardi. Yildirim Boyazid uchun podshohona oq uy tikib erdilar. Sohibqiron Yildirim Boyazidqa inoyat va shafqatlar qilib har kun anga o'z qoshida kelturub, suhbat tutub, ko'ngul berur erdi.

(275 *b*) **Yildirim Boyazid vafot bo'lg'oni zikri va shahzoda oliymakon Mirzo Muhammad Sulton taqi vafot bo'lg'oni**

Panjshanba kuni sha'bon oyining o'n to'rtida sakkiz yuz beshda (1403-y., 9-mart) xabar keldikim, Yildirim Boyazid zayyiqi nafas va xunoq marazi bila ketib turur. Sohibqironning muborak ko'ngli bu jihatdin ko'b mutaallam bo'ldi va muborak ko'zidin yosh chiqib yig'lab: «Inna lillahi va inna ilayhi raji'una» (276 *a*) o'qudi. Hazratning himmatida bu erdikim, Rum mamolikini tamom zabt qilg'ondin so'ng Yildirim Boyazidqa berib, yana ani taxti davlatqa o'lturg'uzub, qaytqay. Ammo taqdir xilof etib, Yildirim Boyazidni o'zga olamga eltti.

Sohibqiron Oqshahrg'a yetkonda Amirzoda Muhammad Sulton qoshidin Dona Xoja kelib arz qildikim, Mavlono Faraj tabib shahzodag'a musahhal berdi. Ammo ul musahhal ish qilmay, buxori dimog'ig'a urub, marazi sar'a paydo bo'lub turur. Sohibqiron muni eshitib, asru mushavvish bo'lub, Dona Xojani qo'sh ot bila chobturdikim: «Bizg'a yana bot xabar kelturgil!» Va o'zi davlat va saodat bila Oqshahrg'a kelib Humoyun o'rdusig'a tushdi. Va Yildirim Boyazidning kishilarig'a azza etkurub, yaxshi so'rub, to'nlar kiydurdi. Va o'g'li Musa Chalabiyni xossa to'n va oltun kamar berdi va yuz ot barchasi egar-yuganlik berdi. Va Bursakim, Rum viloyatining poytaxti turur, anga berdi va ijozat berib, Bursag'a yibardi. Va Yildirim Boyazidning so'ngakini podshohlar tartibi bilan Bursag'a eltib, o'zi yasagan imoratiga qo'ydilar.

Sohibqiron o'rduni Oqshahrda qo'yub, o'zi Amirzoda Muhammad Sulton sori mutavajjih bo'ldi. Yo'lda bir jamoat turkmonlarkim, ulug'lari Xizrbek va Ibrohim erdi, itoat yo'lidin chiqib, bir tog'dakim yo'l aning etagida erdi, kirib erdilar. Farmon bo'ldikim: «Mansur cheriki alarning daf'i uchun mutavajjih bo'lsunlar!» Kechada yurub, subh erdikim, alarni o'rtada olib, turkmonlardin ko'b kishini o'ldurdilar. Va ba'zilari qochtilar. Bo'lg'on ot va teva va qo'ylarini taladilar va o'g'lon-ushoqlarini asir qildilar. Yo'lda shanba kuni, oyning o'n oltisida (1403-y., 11-mart) Davlat Xoja Elchi Bug'a kelib arzadosht qildikim, shahzodaning marazi ko'broq bo'lub turur. Va andoq bo'lub tururkim, so'z deya olmas erdi. Hazrat bisyor g'amgin bo'lub, ta'jil bilan surdi. Va anda yetkonda shahzoda qoshig'a kirib, boshi ustida o'lturdi. Ko'rdikim shahzodaning holati o'zga nav' turur, ani muhaffada kiyurub, o'shul kun ko'chti. Qarohisordin uch manzil o'tub, bir yerda kelib tushti. Bu voqea dushanba kuni sha'bon oyining o'n sakkizida torix sakkiz yuz beshda (1403-y., 13-mart) qo'y yilida Hutning oxirida voqi' bo'ldi. Shahzodaning yoshi yigirma to'qquz erdi.

@tarixchi_kutubxonasiga

(297 *b*) Sohibqironi daryodil Konigilda ulug' to'y etib, bo'yg'a yetkon shahzodalarni kadxudo qilg'oni

Yer yuzidagi mamoliklar Sohibqironning nazar himmatida hech nima ko'runmas erdi. Va himmati ul erdikim, olamda bo'lg'on viloyatlarni musaxxar qilmag'uncha bir yerda orom topmag'ay. Lo jurma bu mahaldakim, Samarqandda kelib tushti, muborak xotirig'a keldikim, andin burunkim, kofirlar va dinsizlar sori borg'ay, ya'ni Xitoy mamlakati sori. Buyurdikim, shahzodalarkim, bulug' haddig'a yetib tururlar, alarni evlandurg'ay. Qurultoyg'a amr qilib dedi: «Barcha viloyatlarning hokimlari bila sodot va qazot va akobir-u mashoyixlari kelsunlar!».

Chingizxon naslidin Tayzi O'g'lon[1] va Toshtemur O'g'lon arz qildilarkim: «Qurultoy qilursiz: Amirzoda Shohrux Xurosondin va Amirzoda Pirmuhammad G'aznindin kelsunlar!».

Sohibqiron dedi: «Pirmuhammad kelsun, ammo Shohruxqa maslahat yo'qtururkim, beri kelgay. Aning uchunkim, Iroq va Ozarbayjonda o'lturg'onlarning orqalari aning bila qaviy turur». Amirzoda Pirmuhammadqa kishi yibardilar. (298 *a*). Konigilda yakshanba kunida rabi' ul-avval oyining avvalida torix sakkiz yuz yettida (1404-y., 7-sentabr) borib tushdi. Va ul yer aning maqdamidin firdavsi barindek orosta bo'ldi. Hazrat uchun to'rt saroparda torttilar va ulug' oq uylarkim, o'g'lari oltundin erdi va javhar bila murassa' qilib erdilar, tiktilar. Va o'n ikki surug'luq chodirkim, tashi siqarlotdin erdi va ichi muxmal va tanoblari ipak va suruqlari barcha oltun bila munaqqash erdi. Farroshlar bir haftada ani saranjom qilib urdilarkim, aning ichida o'n ming kishi o'lturur erdi.

O'zga shahzodalar va beklar har qaysisi saropardalar va borgohlar va xayma, xirgoh urdilar. Viloyatlardin hokimlari bila sodot-u quzzot va akobirlari barcha kelib jam bo'ldilar... (298 *b*) Ul mahalda Sohibqironning muborak xotiri aysh-u ishrat sori erdi. Barcha hunarmandlarkim, shaharda erdilar, oyinabandliqqa mashg'ul bo'lub, har hunarmand o'z hunariga loyiq ta'qiyalar yasadi. Va bu to'ydin g'araz bu erdikim, shahzodalarni kadxudo qilg'ay[2]. Sohibqironning muborak xotirida kechtikim, Amirzoda Ulug'bek va Amirzoda Ibrohim Sulton va Amirzoda Ijal ibn shahzoda Mironshoh va shahzoda Umarshayx farzandlaridin Amirzoda Ahmad va Saydi Ahmad va Boyqaro har biriga bir qiz bergaylar. Muqarrar bo'lg'ondin so'ng sodot-u quzzot va ulamo jam bo'lub, Shayx Shamsuddin Muhammad Jazariy xutba o'qub, nikoh qildi. Va qozi ul-quzzoti Samarqand Mavlono Jaloliddin ijob-u qabul amriga qiyom qildi va shahzodalarni Hanafiy mazhabida iqd bog'ladilar...

[1] *Tayzi O'g'lon* – O'kday qoonning avlodi, Ulug' ulusdan, ya'ni asli Mo'g'ulistondan kelgan.

[2] Ya'ni uy egasi qilish, uylantirish demakdir.

@tarixchi_kutubxonasiga

Sohibqironi gitisiton Xitoyg'a bormoqning asbobig'a mashg'ul bo'lg'oni

(298 *b*) Bu mahaldakim, hazrat Sohibqiron Shom-u Rum va Gurjiston-da va Eronning bo'lg'on viloyatini zabt qilib, yana qaytib viloyatig'a, ya'ni Samarqandqa davlat va saodat bila kelib tushti va to'ylar qilib, necha kun aysh-u farog'at qilg'ondin so'ng, shahzodalar va beklar bila kengashib, dedikim: «Hazrat Parvardigor bizga mundoq davlat berdikim, olamni qilich zarbi birla oldik va yer yuzidagi podshohlarni muti' qilduk, – valhamdulillahi taolokim, – ul nimakim bizga muyassar bo'ldi, podshohlardin kam kishiga muyassar bo'lg'ondur. Endi xotirimizda andoq kecharkim, mundin nari kofirlar sori mutavajjih bo'lub, g'azo qilg'aybiz. Va ul dinsizlarni inoyati ilohiy bila (300 *a*) iymon yo'liga kiyurgaybiz. Xitoy-u Chin sori yurug'aybiz. Va andag'i butxonalarni va otashkadalarni buzdurg'aybiz va alarning o'rnida masojid va xonaqohlar imorat qilg'aybiz»[1]. Shahzodalar (301 *b*) va beklar barcha tillarini duo bilan ochib, sitoyish va ofarin qildilar.

Andin so'ng' hukm bo'ldikim: «Tavochilar yurub, tumonlar bila hazoralari va viloyatlardagi cherikni tahqiq qilib, sonlarini artuq etsunlar!» Hukm bila tavochilar yurub, har yerdakim bildilarkim artuq qilsa bo'lur, sonlarini artuq ettilar va daftarlarda bittirdilar. Andin so'ng hukm bo'ldikim: «Barcha ulusning beklari va viloyatlarning hokimlari cherik jam qilmoqqa mashg'ul bo'lsunlar!» Va tavochilar cherik yig'ishtirmoq uchun yuridilar...

(300 *b*) **Sohibqironi gitisiton Xitoy sori tavajjuh qilg'oni**

(301 *a*) Hazrat Sohibqironi komkor g'azo niyati qilib, bovujud ulkim qish erdi va qor yog'ar erdi va havo sovuq erdi, sovuqqa hech boqmay, betavaqquf Xitoy sori mutavajjih bo'ldi... Oqsulotqa borib tushti va bu yer qumloq erdi va o'tuni ko'b. Ushbu yerda qishloq solib, evlar yasab o'lturdilar. Shahzodalar (301 *b*) va beklar o'zlari uchun evlar solib erdilar. Oftob Jadiy burjig'a kelgonda asru sovuq bo'ldi, andoqkim sifat qilsa bo'lmas...

[1] Bu yerda muallif Sohibqiron nomidan qanday so'zlarni aytganidan qat'i nazar, uning Xitoyga yurishining yana bir boisi bor edi. U ham bo'lsa shuki, 1368-yili xitoylar mo'g'ullardan mustaqillikka erishib, Xitoyda Min sulolasi taxtga kelgan edi. Endi aksincha, Xitoy imperatorlari mo'g'ullarning Ulug' ulusi buyuk xonlari ustidan o'z hukmronlarini o'rnatgan edilar. Temur va avlodlarining Jetaga qilgan qator yurishlari natijasida uning mulki Lobnor ko'ligacha yetib, Xitoy imperiyasi bilan chegaradosh bo'lib qolgan edi. Imperator esa Temurga yuborgan maktublarida uni o'g'lim, dedi. Diplomatiya tilida esa bu, sen menga tobesan, deganni bildirardi. Hatto imperator Temurdan yillik soliq to'lashini talab qilardi. Shunday qilib, Xitoy imperatori g'arbdagi yerlarga da'vogarligini sir tutmasdi va ertami-kechmi bu yerlarga uning hujum qilish xavfi turardi. Ana shuning uchun ham Temur yetti yillik yurishidan qaytganiga besh oy to'lmasidan shoshilinch ravishda Xitoyga yurishni boshlaydi. Chunki uning ayg'oqchilari uni Xitoydagi ahvoldan xabardor qilib turardilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Oqsulotda o'lturg'onda ba'zi voqi'alarkim voqi' bo'ldi, aning sharhi

(302 *a*) Sohibqiron Oqsulotda qariyb ellik kun o'lturdi. Va bu mahalda Sayid Xoja Shayx Ali Bahodir Xurosondin Shohrux Mirzo qoshidin kelib salomatliq xabarini kelturdi. Sohibqiron buyurdikim: «Toshkand sori borib, andag'i cherikka ozuq ulashtursunlar!» Va Sohibqironning beklari va buzurglarikim, cherikda bor erdilar, har kishi o'z hazorasidin va qo'shinidin voqif bo'lub, andoq g'amxo'rluq qilsunlarkim, hech kishiga hech nimadin ehtiyoj bo'lmag'ay. Ne yemak va ne kiymakdin va ot-ulog'din barchag'a keraki muhayyo bo'lg'ay. Lo jurma cherikning asbobi andoq tartib bo'ldikim, bir otliq kishi andoq yaroq qilib erdikim, o'n kishig'a necha kungacha aning uhdasidin chiqar erdi. Bu tartib bila barcha asbob muhayyo bo'ldi. Aslahadin o'q-yoy va qilich-qalqon, har nekim sipohiyg'a kerak turur, barcha tayyor bo'ldi. Va yana necha ming xarvor g'alla muqarrar qildilarkim, arobalar bila cherik ichida biyla yurug'ay va yo'lda ziroat qilg'aylarkim, yong'onda yarag'ay. Va necha ming tevakim bo'g'uz erdi, hamroh elttilarkim, alarning sutini ichkaylar...

(302 *b*) **Sohibqiron Oqsulotdin ko'ch qilg'oni**

Ul mahaldakim, Oftob hanuz Jadiyning oxirida erdi va andoq sovuq erdikim, ko'b kishi anda zoye' bo'ldi va otlar bisyor talaf bo'ldi va ko'b kishining ot-ulog'lari talaf bo'lib, elik-ayog'larini sovuq oldi. Va ba'zi kishining burun, quloqlari tushti. Va muttasil havo bulut bo'lub, qor yog'ar erdi. Ammo Sohibqironning muborak ko'nglida havoyi g'azo va jihod tushub erdikim, sabr qilmadikim, havo e'tidoli paydo qilg'ay va sovuqlar bir sori bo'lg'ay. Yo'llarni so'rub, o't va suvini tahqiq qilib, tavakkal etib, mutavajjih bo'ldi...

Sohibqiron Oqsulotdin ko'chub, kechag'a yaqin Uzunatog'a tushdi. Va andin ko'chub, Yo'lxoja ag'og'a borib tushti va andin ko'chub Sutkantda tushdi. Va andin ko'chub, Qimorshoh Atog'a bordi va andin Sultonshayxg'a va andin Zarnuqda tushti. Va Sayhun suyidin muz ustidin o'tdi. Va daryo andoq muzlab erdikim, uch-to'rt qari qazmak kerak erdikim, suvg'a yetkay. (303 *a*) Ul qish Hut mahalida Sayhun suyi andoq muzlab erdikim, karvonlar arobalari bila va ot-ulog'lari bila muz ustidin borur erdilar.

Sohibqiron Sayhundin ko'chub, chahorshanba kuni rajab oyining o'n ikkisida (1405-y., 14-yanvar) O'trorda kelib Berdibekning eviga tushdi.

(303 *b*) **Hazrat Sohibqiron, ya'ni Temur Guragon anorallohu burhonahuning vafot bo'lg'oni qissasi**

E'zoz va ikrom nasimikim, Odam o'g'lig'a tegar va ko'b latoyif saodatmandlarning jonlarig'a yetkurur. Ul jumladin biri uldurkim, hazrat Haq taolo dunyoda birovni qadr va manzilat bersa, aning qadri andin balandroq tururkim, ushbu olamda manzil qilib turg'ay. Aning uchunkim, bu jahon gashtzori bo'sh ermas. Munda bir necha kun ishlab, ziroat qilsa, aning foyda

@tarixchikkutubxonasiga

va samarasi ul jahonda bo'lg'usi turur. Va hazrat parvardigor insonning dorulxilofasini andoq yasab tururkim, har jamoat bir yo'ldin ul xatg'a kirgaylar. Va anda yetkonda hazrat Haqning birligiga va kamolidin sohib vuquf bo'lurlar. Va anda pursishtan va bandaliq qilur. Va bu jihatdinkim bu jism tag'ayyur va tabdili tobuor, ani marg derlar. Ammo filhaqiqat hijobi abadiy yo'q turur.

Ul mahaldakim hazrat Sohibqironi gitisiton yetti yillik yurushdakim borib olamni musaxxar qildi va andin qaytib dod-u adlg'a mashg'ul bo'lub, olamni andoq orosta qildikim, xotiri tilagandek. Va andin so'ng hamisha xotirida bu erdikim, el bila andoq maosh qilg'aykim, hech kishi andin mutaallam va anduh bo'lmag'ay. Bu niyat bilan kelib, Samarqandda kim vatani asliy erdi, tushdi. (304 *a*) Besh oy hanuz o'tmaydur erdikim, Xitoy-u Chin kofirlari sori azm qildi. Va O'trorg'a bordikim, andin Samarqandg'acha yetmish olti yag'och yo'l turur. Anda yetkonda sha'bon oyining o'nida chahorshanba kuni (1405-y., 11-fevral) ul hazratning mizoji o'zga bo'lib, isitdi. Va hazrat Sohibqiron barcha gunohidin tavba qildi... Va mavlono Fazlulloh Tabriziykim, aningdek tabibi hoziq olamda yo'q erdi va alal xidom mulozimatda erdi, muolaja mudavog'a sa'y qilur erdi. Ammo kundin kung'acha maraz ko'brak bo'lur erdi... [Sohibqiron] bildikim, bu illatlarg'a iloj yo'q turur, qazog'a rizo berib, xotunlari bila xossa ulug' beklarini chorlab, vasiyat qilmoqqa mashg'ul bo'lub dedikim: «Tahqiq bilurmenkim, ruhning qushi bu qafas-qolipdin ketgusi turur, xudoyg'a panoh elttim va sizlarni xudoyg'a topshurdum... Pirmuhammad Jahongirkim, valiahd qilibmen va o'rnumga qoimmaqom etibmenkim, Samarqand viloyati aniki bo'lg'ay. Va istiqlol va tamkin bila o'lturub, mamolik tadbiridin va cherik va raiyat holidin xabardor bo'lg'ay. Sizlar, kerakkim anga muti' bo'lub, ittifoq bila aning ishiga mashg'ul bo'lg'aysiz, to olam buzulmag'ay va musulmonlarg'a tashvish va zahmat bo'lmag'ay...»

(305 *a*) Andin so'ng Sohibqironning marazi ko'brak bo'lub, tashqarida hofizlar Qur'on o'qimoq bila mashg'ul erdilar. Ishorat alayhi bo'ldikim, mavlono Haybatullohkim, Mavlono Ubaydullohning o'g'li erdi: «Ichkari kirib, Sohibqironning boshi sori o'lturub, Qur'on xatmig'a mashg'ul bo'lsun!»

Kecha bo'lg'onda, namozshom va xuftan arosida tavhid kalimasini necha qatla aytib, jonini tobshurdi, – Inna lillahi va inna ilayhi raji'una[1].

(305 *b*) Bu voqea chahorshanba kuni sha'bon oyining o'n yettisida torix sakkiz yuz yettida (1405-y., 18-fevral) voqi' bo'ldi. Va ul hazratning muborak yoshi yetmish birda erdi, muvofiq adadi «alif-lom-mim»kim, Qur'onning a'zam suralaridin turur. Va podshohlig'i o'ttuz olti erdi. Va hazratning saltanatining adadi o'g'lonlarining adadi bilan muvofiq erdikim, ul hazrat o'g'lonlar va nabiralari o'ttuz olti erdi.

[1] Qur'oni karim. 2-sura («Baqara» surasi), 156-oyatdan.

@tarixchi_kutubxonasiga

G'IYOSIDDIN KOSHIY VA UNING OTASIGA YOZGAN MAKTUBI

Jamshid ibn Mas'ud ibn Mahmud G'iyosiddin al-Koshiy (XIV–XV asrlar) – riyoziyot va falakiyot sohalari olimi, tabobatga ham qiziqqan, Samarqandda Ulug'bek ilmiy maktabida ishlagan, asli Koshondan;[1] tavallud topgan yili noma'lum, hayotining so'nggi yillarini Samarqandda o'tkazdi va taxminan 1424-yilda vafot etgan.

Olimning qalamiga mansub maktub Samarqandda fors tilida yozilgan bo'lib, o'z otasiga – Koshonga yuborilgan. Ushbu maktub Tehronda Sipohsolor masjidining kutubxonasida saqlanayotgan to'plamda berilgan[2].

Maktub ingliz, shuningdek turk, arab, rus tillariga (parchalari) va to'la holda tarjima qilinib, nashr etilgan.

Mazkur yozma yodgorlikdan Ulug'bekning Samarqand ilmiy maktabi olimlari ilmiy faoliyatiga hamda rasadxona qurilishi tarixiga doir muhim ma'lumotlar o'rin olgan. Quyida ushbu maktubdan parchalar keltiramiz.

D. Yusupova

G'IYOSIDDIN KOSHIY MAKTUBIDAN PARCHALAR

Sizning nasihatingizda men rasadxona ishlari bilan mashg'ul bo'lganim uchun hech qanday boshqa, ayniqsa, she'riyat va shu kabi ilmlar bilan shug'ullanishim lozim emasligi haqida so'z yuritiladi. Chunki [ushbu fanlar] bilan shug'ullangan sari, asosiy [mashg'ulotlarda] barqarorlik kamayadi. Odamlar esa asosiy mashg'ulot sohasidagi bilimni keyin o'rganilgan fandagi bilimlarga qarab baholaydilar. Sizning ushbu nasihatingiz g'oyat to'g'ridir va men unga itoatkorlik bilan bo'ysunaman.

Ammo odamlarning bahosiga nisbatan menda bir javob bordur. Birmuncha vaqt oldinroq, men Sizga bu haqda mufassal maktub yozib, Qum savdogarlari orqali yuborgan edim. Ammo men bu haqda takroran yozayapman. O'ylaymanki, shu ikki xatdan hech bo'lmasa biri yetib borib, Siz hazratimizning oliy e'tiboringizga sazovor bo'lur. (56) Gap shundaki, Koshonda va uning atroflarida har bir fan bo'yicha bir-ikki kishi mashhur bo'lib, ba'zi do'stlar o'z tasdiqlariga muvofiq, o'zlari bilimdon bo'lmasalar ham, ularni inobatga olmaydilar. Haqiqiy vaziyat hech kimga ma'lum emasdur.

---

[1] *Koshon* – Tehron va Isfahon o'rtasida joylashgan o'rta asr shahri.

[2] Ulyg Bey ve Semerkanddeki ilim faaliyeti hakkinda Giyassuddini Kasinin mektubi. Анкара, 1960. C. 32; qo'lyozmaning to'la tavsifi o'sha yerda: B. 33–35. E. Kennedi noma'lum shaxsga tegishli yana bir nusxasi mavjudligi haqida eslatib o'tadi. (Kennedi E.S. A Letter of jamshid Kashi to his father. Orientalia, V. XXIX, №2. Beyrit, 1060. P. 192).

@tarixchi_kitoblar

Samarqandda esa, – uni Alloh o'z panohida asrasin, – hozir ahvol o'zgachadur, chunki, avvalo, islom podshosi [Ulug'bek], – Alloh uning davlatini abadiy qilsin, – donishmand kishidurlar, Allohga va uning marhamatiga shukrlar bo'lsin. Men bu narsani odob rasmi yuzasidan aytayotganim yo'q. Haqiqat shuki, avvalo u kishi Qur'oni karimning aksariyat qismini, uning tafsirlarini va mufassirlarning har bir aytganini isbotlash uchun Qur'ondan munosib oyat hamda muvofiq iboralar keltiradi. Qur'onni to'liq yoddan biluvchi murattab kishilar huzurida u har kuni Qur'ondan ikki surani xatosiz o'qiydi. U [arab tilining sarf-u nahvini yaxshi biladi. Arabchada g'oyat yaxshi yozadi. Shu bilan birga, u qonunshunoslik (fiqh)dan yaxshi xabardor; mantiq, adabiyot uslublarini hamda musiqa nazariya asoslarini biladi. U kishi riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va [unda] shunday jiddiy mahorat ko'rsatganki, kunlardan bir kuni otda ketayotib, 818-yil rajab oyining o'ninchi va o'n beshinchi kunlari orasidagi [1415-y., 15–20-sentabr] dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga munosib kelishini topmoqchi bo'lgan. Shunga ko'ra u otda ketayotib, xayoliy hisob bilan Quyosh taqvimini graduslar va daqiqalargacha yoddan hisoblab chiqdi va otdan tushgach, hisob to'g'riligini bu bandayi bechora (G'iyosiddin Jamshid)dan so'rab, aniqlab oldilar. (57) Haqiqatan ham, xayoliy hisobda ayrim sonlarni yodda tutmoq va boshqa miqdorlarni bularga asoslanib topmoq kerak. Lekin insonning yodlash quvvati zaifdir va u daraja va daqiqalarni u qadar aniq topa olmaydi va faqat graduslar bilangina cheklanadi. Bunday hisoblar zamondoshlarimdan hech biriga ato etilmagan va hech kim buni qilishi mumkin emas.

[Qisqa qilib] aytmoqchimanki, u kishi bu fan sohasida g'oyat katta mahoratga erishganlar. Yulduzshunoslikka taalluqli amallarni yaxshi bajaradilar va chuqur dalillar bilan xuddi keragidek isbotlaydilar. «Tazkira»[1] va «Tuhfa»dan shu qadar zo'r dars o'tadilarki, ularga hech qanday qo'shimcha qilishning hojati qolmaydi.

Ikkinchidan, Samarqandda barcha fanlardan dars beruvchi eng mashhur olimlar va juda ko'p mudarrislar to'plangan. [Ularning] ko'pchiligi riyoziyot bilan mashg'uldirlar. Ushbu kishilardan to'rttasi [hozirgi paytda] «Hisob tajnisi» («Tajnisi hisob»)[2] kitobining yarmiga sharh yozgan. Biri «Hisob tajnisi» kitobiga sharh yozgan, ikkinchisi geometrik isbotlar bo'yicha ikki

[1] Sharqning o'rta asr atoqli olimi, riyoziyotchisi va falakiyotchisi, Marog'a rasadxonasining asoschisi Muhammad ibn Muhammad Abu Ja'far Nosiriddin at-Tusiyning (1201–1274) «Nosiriddinning falakiyot bo'yicha xotiranomalari» («At-tazkirat an-Nosiriya fi ilm al-hay'a») asari ko'zda tutilgan.

[2] Markaziy Osiyolik olim, huquqshunos va riyoziyotchi Sirojiddin Abu Tohir Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Abdurashid as-Sijovandiyning (XII) «Hisob tajnisi» («Tajnis fi-l-hisob») yoki «Tajnis risolasi» («Risola at-tajnis») haqida gap boradi.

@tarixchi_kutubxonasiga

xato masalasi[1] haqida risola yozgan. Ularning orasida eng bilimdoni bo'lgan Qozizoda Rumiy esa «Chag'miniy»[2] va «Ashkol at-ta'sis»ga[3] sharh yozgan.

Bu yerda yana ko'pgina munajjimlar va hisobdonlar to'planishganlar. Qisqasi, bu yerda fanning barcha sohalari bo'yicha juda ko'p mutaxassislar yig'ilgan. Shu narsani ta'kidlamoqchimanki, bu bandayi bechora bu yerga kelganimda, men kimman-u, qanday kasbga egaligimni bilmoq uchun ham-ma menga o'z nazarini qaratdi va qulog'ini men tomon tutdi.

Kunora oliy hazrat davlatpanoh (Ulug'bek) darslarda hozir bo'ladilar va shunda riyoziyot bo'yicha darslar o'tkazishni afzalroq ko'radilar. Ushbu darslarga (58) bu bandayi bechora ham qatnay boshladi. Talabalarni quyidagicha imtihon qiladilar: darsga kirgan kishi muhokamaga qanday masala qo'yilganligini va madrasa talabalari ushbu mavzuni qay darajada o'zlashtirganlarini bilmaydi. Munozaralar boshlanganda, har gal bu bandayi bechora Alloh taolo marhamati bilan ularda to'liq qatnashar edi. Men tinglovchilarga ular o'qigan kitoblarda ma'lum bo'lmagan ba'zi narsalar to'g'risida o'z fikrimni bayon etib hamda ularga berilgan mavzular yuzasidan tanqidiy mulohazalar yuritar edim va ularning e'tiborini masalaning shu qadar nozik tomonlariga jalb etar edimki, ular hayratda qolar edilar. Mening bu yerga kelishimdan avval ular oldilarida ba'zi qiyinchiliklar mavjud edi... Masalan, ular diametri bir gazga teng bo'lgan usturlob yasamoqchi bo'lganlar va unda o'rinlari kuzatishlar orqali ma'lum bo'lgan barcha 1022 ta yulduzni belgilab qo'ymoqchi bo'lganlar[4]. Buning uchun ushbu yulduzlarning to'g'ri chiqish yo'lini va yurish joylarini aniqlash lozim edi. Barcha munajjimlarga shu ish ustida birgalashib ishlash buyurilgan edi. Ma'lum bo'lishicha, «Elxonga bag'ishlangan astronomik jadvallar» («Ziji Elxoniy»)[5] kitobi asosida hamda o'z tushunchalari bo'yicha tanlab olingan 150 ga yaqin harakatsiz yulduz haqida maqsadga erisha olmaganlar va mushkul ahvolga tushib qolganlar. Ular buni handasa qonunlari asosida o'rganib chiqib,

[1] Shunga o'xshash masala Shayx Afzaliddin Umar ibn Anlokning «Ikki xato amalining isboti» («Barohin'amal at-xatoin») nomli asarida ko'riladi. Uning qo'lyozmasi O'zFA Shl qo'lyozmalar fondida (inv. № 3291/II) saqlanib kelmoqda.

[2] Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al-Chag'miniyning (vaf. 1344/45) «Al-mulaxxas fi-l-hay'a» nomli risolasiga yozilgan sharh ko'zda tutilgan.

[3] Sayyid Shamsiddin Muhammad ibn Ashraf al-Husayniy as-Samarqandiyning (XIII – XIV asrlar) arab tilida yozilgan «Ashkol at-ta'sis» nomli handasaga oid risolasi.

[4] 1022 yulduz holatini o'z ichiga olgan birinchi fihrist Gipparx tomonidan tuzilib, Ptolemeyning (mil. 161-yildan keyin vafot etgan) «Al-Majistiy» asariga kiritilgan. Ulug'bekning yulduzlar jadvali bevosita kuzatuvlar asosida tuzilgan bo'lib, 1018 yulduz tadqiqini o'z ichiga oladi.

[5] Nosiriddin Tusiyning 1259 – 1271-yillar olib borgan kuzatuvlari natijasi o'laroq, Marog'a rasadxonasi xodimlari bilan birgalikda tuzgan astronomik jadvallari. Elxoniylardan podshoh Haloguxonga (1256 – 1265) bag'ishlangan va «Ziji Elxoniy» deb nomlangan.

@tarixiy_kutubxonasiga

to'g'ri xulosa chiqarish uchun riyoziyotchilarga murojaat qilganlar. Gap shundaki, ular «Elxon jadvallari»da[1] bayon etilganiga muvofiq, yulduzlarning o'tish yo'llarining to'g'ri chiqishini aniqlab, buni globus va usturlobga tushirganlarida, olingan natija haqiqiy holga to'g'ri kelmas edi. Masalan, Ikki buzoq burjidagi ikki yorug'roq yulduz shunday o'ringa tushib qolar ediki, (59) u «Kichik ayiq» burjidagi asl o'rnidan haddan tashqari uzoq edi.

Bandai bechora kelgan kuni ham ushbu masala hazrat oliylari tomonlaridan yana bir bor ko'tarilgan edi va bandayi bechora o'sha majlisda u yulduzlarning biri uchun to'g'ri yechim topdi, ular qilgan xatolarning manbaini ko'rsatdi va muhokama qilinayotgan masala uchun «Zijlar»ni qanday tushunmoq kerakligini anglatdi. Masalaning bunday yechimi hazrati oliyga va riyoziyot bilimdonlariga juda ma'qul tushdi...

(60) Endi rasadxona haqida so'z yuritamiz. Oliy hazratlari, – Alloh uning davlatini va podsholigini ulug' qilsin, – bolalikda Marog'a rasadxonasida bo'lgan ekanlar [va shu sababdan], «...Men u haqda aniq tasavvurga ega emasman», – deb e'tirof qildilar.

Bandayi bechora bu yerga kelguncha suhbatdoshlar menga rasadxona odamlar o'tirgan tepalik ostida joylashgan, degan edilar. (61) Ekliptika qiyaligini o'lchash va Batlimus (Ptolemey) usulida quyoshni kuzatish uchun sariq misdan diametri olti gazga teng bo'lgan ikkita doira yasalgan edi. Bunda [quyidagi] bir faktni e'tibordan chiqarib qo'yganlar. Batlimusdan keyin har bir asbobni yasaganda [har gal] boshqa natija chiqar edi va Ptolemey yasagan halqadan farq qilar edi, chunki u kamchiliklardan xoli emas edi.

Marog'a rasadxonasining o'rtasida turgan geometrik shaklning vazifasini hech kim bilmas edi. Bu bandayi bechora bu haqda hazrati oliyga xabar berdim va ushbu halqani qo'llash paytida o'lchamlarda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan farqlarni tushuntirdim. Men Azududdavla[2] davrida diametri 10 gazli doira yasalganini va bu doira undan kichik ekanligini ham aytdim. Shu doiraning o'rniga Marog'a rasadxonasida yarim diametri olti gazga teng bo'lgan Faxriy sekstant[3] deb atalgan geometrik shakl o'rnatilgan edi. Hazrati

[1] So'z G'iyosiddin Koshiyning 1414-y. Shohruxga bag'ishlangan «Az-Zij al-musamma bi-l-xoqoni fi takmil az-Zij al-Elxoniy» («Ziji Elxoniy»ni takomillashtirish uchun (tuzilgan) «Ziji xoqoniy») nomli risolasi haqida boradi. Asarda «Ziji Elxoniy» G'iyosiddin al-Koshiy tomonidan sinchiklab tahlil qilingan, to'g'rilangan hamda ko'pgina ishonchli dalillar bilan to'ldirilgan. Asar fors-tojik tilida yozilgan, nusxasi Ayo-Sofiya kutubxonasida (inv.№2692) saqlanadi.

[2] Bu yerda so'z Bag'dod hukmdori ad-Davla (976–997) to'g'risida borayotir. Bag'dod rasadxonasi munajjimlari kengashining a'zosi, yirik riyoziyotchi va falakiyotchi olim Abulvafo (940–998) uning zamondoshi bo'lgan (Кары-Ниязов. Астрономическая школа Улугбека. Избранные труды. В 8-ми т. Т. 6. Ташкент. 1967. С. 52).

[3] Matnda: Sudsi faxri; «Suds» (so'zma-so'z «oltidan bir») – aylananing oltidan biriga teng bo'lgan, vertikal o'rnatilgan doira, aylanasi yoyining asosiy qismi bo'lgan astronomik asbob. Bu yerda Xo'jandiy (X a.) tomonidan kashf etilgan «Faxri sekstant» ko'zda tutiladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

oliylari o'sha halqadan bu bandayi bechora aytgan Faxriy sekstant kabi boshqa asbob yasashni buyurdilar.

Rasadxonaning yangi binosini mening tarhim bo'yicha qurish buyurildi. Barcha bu va shunga o'xshash hollar yurtning atoqli kishilariga ma'lum bo'ldi. Shu singari har kun va har hafta har xil masalalar paydo bo'lib turardi va bu bandayi bechora hazrati oliylarining marhamatlari bilan bu mushkulotlarni bir oz bo'lsa-da, oldinga surib kelayotir...

(62) Dastavval, bandayi bechora shu yerga kelgan vaqtda, majlisda so'zga chiqib, «Tuhfa»da, «Nihoya al-idrok» («Oliy tushunish»)da[1] mavlono Nizomiddin Nishopuriyning «Sharhi tazkira» («Xotiranoma»ga (yozilgan) sharh»)da[2] va Sayid Sharifning «Sharhi tazkira»sida[3], – Alloh uning sirini muqaddas qilsin, – bir xilda, lekin noto'g'ri ifodalangan bir necha muammolar haqida xabar qildi...

(63) Sayyoralar to'g'risidagi masalada ham shu xildagi xatoga yo'l qo'yilgan. Ushbu asarlardagi xatolardan shu narsa kelib chiqadiki, quyosh haqida gap borgan taqdirda, tenglamaning yuqori nuqtasi shunday o'rinni egallaydiki, agar u orqali dunyo markaziga to'g'ri chiziq chizilsa, ushbu chiziq eslatib o'tilgan diametrga [nisbatan] perpendikulyar bo'ladi.

Ptolemey o'zining «Ulug' to'plam» («Al-majistiy») asarida buni isbot etadi va oy hamda o'zga sayyoralar haqida gap borganida buni dalil qilib keltiradi. [Ular] bu holda ham xuddi shunday [Ptolemey ko'rsatgan] usul qo'llanilishini hech tushunolmas edilar.

Boshqa safar rasadxona qurilishi ketayotgan vaqtda meridian chizig'ini aniqlash maqsadida yer yuzasi tekislangan edi. Bu ishga eng mohir g'isht teruvchi ustalar jalb qilindi va shundan so'ng yer tekislandi. Biz u yerga meridian chizig'ini topish maqsadida yo'l oldik. Dastavval biz yer yuzasi tekisligini tekshirmoqchi bo'ldik.

Davlatpanoh hazrati oliylari (64), – Alloh uning mulkini va davlatini boqiy qilsin, – barcha zodagonlar, mansabdorlar, fan arboblari va faollari ustalarning yer yuzasini tekislash uchun tayyorlagan asboblari atrofida yig'ilishdi. Rasadxonani jihozlash uchun har tomoni to'rt hoshimiy

[1] Bu masala Qutbiddin ash-Sheroziyning «Osmon tabaqalarini idrok qilish» («Nihoya al-adrok fi daroya al-aflok») asarida to'laroq bayon etilib, fizika, riyoziyot, geografiya va boshqa fanlardan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Qo'lyozma nusxasi O'zFA ShI qo'lyozmalar fondida 3758/IV raqamda saqlanib kelmoqda.

[2] Al-Hasan ibn Muhammad ibn Husayn Nizomiddin, yoki Nizom ul-A'raj al-Qumliy an-Naysaburiy (XIII a.) Nosiriddin at-Tusiy tevaragiga jipslashgan riyoziyotchi va falakiyotchilardan bo'lib, uning risolasiga sharhlar yozgan.

[3] Sayyid Sharif al-Jurjoniy (1413 – 1414) «Nosiriddinning falakiyot bo'yicha xotiranomalari» («at-Tazkirat an-Nasiriy fi ilm al-hay'a»)ga sharh yozgan olim.

@tarixdl_kutubxonasiga

gaziga[1] teng bo'lgan maxsus uchburchak barpo qilindi. Me'morlar rahbari bo'lgan mashhur me'morning o'g'li avval uchburchakning ikki tomoni bir-biriga teng ekanligini osoyishtalik bilan tekshirib olish lozimligini aytdi. Bandayi bechorangiz [bunday] dedi: [Agar] tomonlar hali bir-biriga teng bo'lmagan holda ham biz ularni tenglashtirish uchun yer yuzasini tekis qila olamiz. Qozizoda va ushbu fan sohasiga aloqador bo'lgan boshqa janoblar bir ovozdan: «Qanaqasiga? Hamma vaqt ham bunday bo'lishi mumkin emas!» – deb tasdiqlay boshladilar. Bandayi bechora: «Hozir havo bulutli va Quyosh hali baland ko'tarilmagani uchun avval yerni qanday tekislaganlarini tekshiraylik, so'ng men Sizlarga [aytganlarim] qanday qilib mumkin bo'lishini tushuntiraman. Qisqasi, yer yuzasining tekislanishi tugagach, ular o'z gaplarini unutmay, sabot bilan men ularni ishontirmoqchi bo'lgan fikrimni isbotlashimni talab qildilar. Hammamiz o'tirdik va bandayi bechora tushuntirishga kirishdi. Tasavvur etaylik, sizning tasdiqlashingiz bo'yicha, biri-biriga teng bo'lgan uchburchakning ikki tomonidan biri boshqasidan bir gaz qisqaroq. Men xuddi shunday uchburchak rasmini chizib, unga geometrik isbot keltirdim va butun bir astronomik soat mobaynida ularning ongiga yetib borgunicha va barchalari [mening] fikrimga qo'shilgunicha har xil isbotlar hamda tushuntirishlar keltirdim...

(65) ...Men [maktubimni] juda cho'zib yubordim, ammo, darhaqiqat, shunday hollar tez-tez takrorlanib turishi aniq. [Nihoyat,] Siz menga yozgan va eslatgan narsangiz haqidagi gaplarga yetib keldik. Go'yoki Shamsiddin ismli kishini mavlono Badriddinning huzuriga andaza sifatida ish bera oladigan armillyar sferani[2] olib kelish uchun yuborgan emishlar. Gap shundaki, u odam mutlaqo yolg'on gapirgan, chunki, birinchidan, bu yerda hurmatga sazovor va muhim ishlarni bajarishga yuboriladigan Shamsiddin ismli kishi yo'q. Ikkinchidan, bu yerda hech kim armillyar sferaning nusxasiga muhtoj emas. [Shunday bo'ladiki,] Ibrohim ismli misgar ustaga bandayi bechoraning uyiga kelib, mening huzurimda [66] bir armillyar sferani yasab tugatish buyurilgan edi. Armillyar sferani [yasashdagi] qiyinchilik asbobni bilishda emas, balki misgarning ishidadur, aksincha, usturlob yasashda esa bu ikkala ish bir xil qiyinchilikka ega. Misgarlikda Ibrohim ustaning [bilimini] quyidagi misolda shunday ta'riflash mumkin. Bandayi bechora qutbning o'rnini aniqlash uchun bir halqaning botiq, ikkinchidan esa qavariq tomonlarida ikki nuqtani belgilab, ularning atroflarida uncha katta bo'lmagan doiralar chizib qo'yganda, bu parmani halqaning bir tomoniga o'rnatib, uning o'ng tomonida esa [belgilangan] nuqtada teshik ochdi. Halqalarning bir-

[1] Gaz – bir tirsakka teng o'lchov birligi.

[2] Matnda: «Zot ul-xalq». So'zma-so'z «halqalarga molik» (*armilla* – «kolso»). Qadimgi falakiyot olimlari, xususan, Gipparx, Eratosfen va ulardan so'ng Ptolemey undan foydalanganlar.

@tarixchi_kitoblar_guruhiga

biriga mos kelishining aniqligi haqida hech qanday izohning hojati yo'q. Bundan tashqari, armillyar sfera mavlono Badriddinda bor yoki yo'q ekanligi hamda shunday asbobni topib yasash mumkinligi haqida bu yerda hech qanday gap bo'lmagan. Sayyohlar [ko'pincha] noto'g'ri gapiradilar... (67) Bu yerda esa podshoh, – Alloh uning davlati va podsholigini ulug' qilsin, – rasadxonani shaxsan o'zlari boshqarib, unda o'zlari ishlaydilar. Shuning uchun bu yerda xodimlar ko'p emasligidan aslo xavf yo'q. Ptolemey ham o'zi podshoh bo'la turib, bir o'zi kuzatishlar bilan shug'ullanar edi. [Bu ishni] bir yoki ikki kishi bajarishi mumkin. Bu yerda ish hajmi kattaligi uchun uni bir kishi bajarishi mumkin. Bu yerda gap shundaki, vazni bir ming manga[1] teng bo'lgan qoyani bir kishi ko'tara olmaydi, vazni bir ming manga teng bo'lgan bug'doyni esa bir joydan boshqa joyga bir kishi tashib qo'ya oladi.

Yana mavlono Badriddin riyoziyotni juda yaxshi biladi, degan fikr haqida. [Mavlono Badriddin] riyoziyotda Evklidning «Asoslar» asaridan bir oz xabardor bo'lsa-da, ammo buni amalda butunlay qo'llay olmaydi. Bu holni taxminan bironta kishi ba'zi sintaksis qoidalarini bilaturib, arab tilida so'zlashni bilmasligiga taqqoslash mumkin. Haqiqat tarafdori bo'lgan mavlono [Badriddin] ko'proq haqiqatga oid fanlar bilan shug'ullanib, falakiyot va riyoziyotga kam e'tibor beradi. U o'zining tabiatan sofdilligi sababli, mavlono Badriddinning Evklid haqidagi ba'zi so'zlarini eshitib, u riyoziyotni yaxshi bilur ekan, degan qarorga kelgan bandayi bechora uni ko'p marta ko'rgan, bu yerdagilar ham uni yaxshi biladilar. (68) Falakiyot sohasida yuzaki bilimga ega bo'lgan kishilardan bir guruhi yillab behuda gap sotish bilan ovoradurlar... Badriddindan tashqari boshqa yana ko'pgina xuddi u kabi fikr yurgizadigan kishilar bor. Ular hozir Samarqandga kelib, riyoziyotdan bahslar olib borilayotgan majlislarda qatnashsalar edi, zodagonlar va fuqarolarga ularning safsatalarining foydasizligi ma'lum bo'lgan bo'lur edi.

Hozirgi paytda Samarqandda, – uni Allohning o'zi ofatlardan asrasin, – shunday kishilarning soni oltmish-yetmishga yetadi va ularni ham riyoziyotchilar qatoriga qo'shadilar. Hozir esa o'n-o'n ikki yillardan beri bu shahardagilar ushbu fan bilan shug'ullanadilar. Davlatpanoh hazrat oliylari ham shu fan bilan shug'ullanayotganlari uchun ular ham jiddiy ishlamoqdalar, – Alloh mavlono Badriddinga o'z marhamatini sochsin, – u shu qadar [safsataga] qoniqib ketganki, mutlaqo o'zi [yo'l qo'ygan] xatolariga iqror bo'lmaydi.

(70) ...Kuzatuvlar bir yil ichida tugatilishi o'rniga 10–15 yilga cho'zilib ketganiga kelsak, buning sababi shundaki, sayyoralarning mohiyatiga tegishli ta'riflarga bog'liq bir necha ma'lum hollar mavjuddir va kuzatishlarni sayyoralar ushbu hollarga yetgan paytlardagina olib borish mumkin. Aytaylik, tutilishgan qismlarining kattaligi va o'rni bir xil bo'lgan ikki sayyora tutilish-

[1] *Man* – o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ekin maydonlarini o'lchashda juda keng qo'llanilgan og'irlik o'lchov birligi.

@tarixchi_kutubxonasiga

di. Shu bilan birga, ularning markazi kesishib o'tgan nuqtaga yaqin bo'lishi lozim. Xuddi shu kabi boshqa ikki sayyoraning tutilishi uchun ham tamomila boshqa sharoitlar lozim va hokazo. [Faraz qilaylik], Atorud (Merkuriy)ni kuzatishni u ertalabki oxirgi nuqtaga va kechqurungi oxirgi nuqtaga yetgan paytlarda va yana bir qancha boshqa sharoitlarda olib borish kerak bo'ladi. Boshqa shunga o'xshash sayyoralarni ham xuddi shu tarzda kuzatish lozim. Bunday holatlarning barchasini bir yil mobaynida kuzatishga iloj bo'lmaydi. Kuzatilgan sharoitlar paydo bo'lishini kutish lozim bo'ladi. Buning ustiga, agar ushbu sharoitlar paydo bo'lgan paytda yana osmonni bulut bosib qolsa, o'sha sharoit yo'qoladi va shunday imkoniyat kelgunicha yana bir yoki ikki yil o'taredi. Shu sababdan [bunday kuzatishlar] uchun 10 – 15 yil kerak bo'ladi. Bu ishlarga tushunmagan hamda ularning olib borilishini ko'rmagan kishilar shu ishlar bilan shug'ullanuvchilarga hayron bo'lib qaraydilar. Ammo ishini [yaxshi] biluvchilar, shak-shubhasiz, uni bemashaqqat bajaradilar.

(71) Hozir rasadxonaning asosiy qismi tugallangan. Qurilish ishlariga 500 tumanga yaqin pishiq g'isht va ganch sarf qilinib, bitta armillyar sferani tugatishdi. Yana boshqa birini qurish ustida ish olib borilmoqda. Ba'zi boshqa asboblar [qurilishining] yarmi bajarilgan. Azimutal kvadrant (Zot al-halq), dioptriya asbobi (Zot al-mast) va boshqa asboblar qurilishi tugallanmoqda.

[Endi] Sizni qiziqtirgan narsani, ya'ni kuzatishlar butunlay bu bandayi bechoraga berilganmi yoki uning birga qatnashchilari bormi, degan savolingiz xususida. Men shu qadar mashhurlikni orttira olganimdan so'ng, Siz amirimning bu haqda savol berishingiz meni hayron qoldiradi. Riyoziyotdan yaxshi xabardor bo'lgan bunday kishilar ko'p bo'lishiga qaramay, hech qachon ular o'z nazariy bilimlarini amaliy kuzatuvlarga qo'llay olmaganlar. Buning boisi shundaki, ularning hech qaysisi «Al-Majistiy»[1] bilan tanish emaslar. Faqat Qozizodaning o'zigina «Al-Majistiy» [asaridan] nazariy bilimlarga ega bo'lib, amaliy tomoniga bog'liq hech bir ish qilmadi. Uning bilimlari boshqalarnikiga nisbatan ancha chuqurroqdir. Ammo [falakiyot bo'yicha] nazariyotni o'rganishga u yaqindagina kirishgan. Hazrati oliy davlatpanoh tomonlaridan ilgari surilgan har bir munozarada, bandayi bechora yuqorida aytib o'tilgan «Qonuni Mas'udiy» bilan bog'langan masalalarda va hokazoda bahsni darhol hal qilar va ushbu fan amaliy qismining barcha sohalariga tatbiq topa olar edim.

Amaliy falakiyotda ilmiy va amaliy bo'linish mavjud. Amaliyot esa shundan iboratki, masalan, ikki yulduz nol azimutining doirasida yotgan yoritkichlarning balandligi [maxsus] asbob orqali aniqlanadi. Ulardan birining uzunligi va kengligi ma'lum.

[1] Ptolemeyning o'n uch kitobdan iborat va o'z davrining falakiyot bilimlari qomusi hisoblanmish mashhur asari.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ushbu ma'lumotlar asosida ikkinchi yulduzning kengligi va uzunligi qanchaga tengligini bilish kerak.

Masalaning ilmiy tarafi shundaki, (72) nimani hisoblab chiqarish, ya'ni nimani nimaga ko'paytirish va bo'lish lozimligini [oldindan] bilish va natija chiqquncha bajarish kerak. Masalaning ilmiy tomoni uning amaliy tomoniga mos bo'lib, ushbu fanning [falakiyot ilmining] bilimlari bilan bog'liq bo'lishi lozim.

Masalaning amaliy bog'liqligi ko'paytirish va bo'lish [jadvali], osmon yoritqichining burj belgilarida darajalar va daqiqalarda aniqlay olish hamda uning kengligini aniqlash va batafsilroq tushuntirishdan iborat.

Qozizodaning amaliy falakiyotdagi bilimlari ancha bo'lib, u amalda jadvallar yordamida ko'paytirish va bo'lishdan boshqa hech narsa qila olmaydi. Buning ustiga, agar u jadval tuzishni istasa, bu holda u kitoblarni sinchiklab o'rganmay turib, bunga erisha olmaydi. U satrdan so'ng satrni o'qiydi va betdan so'ng betni tugatadi. Biron tadqiqot olib borayotganda, bu yo'l bilan uzoqqa borib bo'lmaydi.

Men quruq safsatabozlik qilmayman. Men yolg'iz Allohning bergan madadi bilan falakiyotning nazariy va amaliy qismi bilan shug'ullanishga qobil ekanligimga ishonch hosil qildim. Buni Siz, sultonim, albatta bilishingiz kerak. Garchand, rasadxonada kitoblarsiz qolgan paytimda ham men hech qanday kitobga murojaat qilmay, lozim bo'lgan ishni boshidan oxirigacha davom ettira olardim va falakiyot jadvallarini tuza olardim. Faqat ko'zga ko'rinadigan nur orqali olingan avvalgi kuzatishlar natijalarini ko'rib chiqish va kunning sanasini aniqlash bundan istisno. Kuzatish paytida bunday ishda zaruriyat bo'ladi, chunki ma'lum bir kuzatishning o'rta qiymatining ayirmasi hozirgi va avvalgi paytlarda bajarilgan kuzatishlar natijalari asoslarida chiqariladi. [Ushbu izlangan ayirma topilgandan so'ng] u [o'sha kuzatuvlar orasidagi vaqtga] taqsimlanadi va shunday qilib harakatga mos kattalik paydo bo'ladi. Bu hisobotlarning barchasini ikki varaq qog'ozda bajarish mumkin.

(73) Bu yerda mening Qozizoda haqlarida yozganimdan, odamlarda bular bir-biriga noahil bo'lgan ekan, degan taassurot qolmasligi kerak. Bu bandayi bechorangiz va Qozizoda o'zaro g'oyat yaxshi do'stlarmiz va ular bandayi bechorangizni hurmat qiladi.

U haqiqatni inkor qiluvchi adolatsiz olimlardan emas. Uning haqida bandayi bechorangiz aytganlarini o'zi ham boshqalar huzurida aytadi. U bilganini gapiradi, bilmaganini esa, hech shubhasiz, e'tirof qiladi.

Shu vaqtgacha rasadxona ishlari bo'yicha nimaiki yuz bergan bo'lsa, davlatpanoh hazrat oliylarining.... va bandayi bechoraning g'oyalariga muvofiq bajarilar edi. Mana, misol uchun, rasadxonani qurish va har bir asbobni

@tarixchi_kutubxonasiga

o'rnatishga oid ishlarning ahvolini olaylik. Oliy hazratlari mening takliflarimga ziyraklik va nihoyatda hushyorlik bilan yondoshar edilar. Mening takliflarim ularga ma'qul bo'lgan hollarda ularni bajo keltirishni buyurardilar.

(74) Vaqti-vaqti bilan oliy hazrat va talabalar o'rtasida shunday tortishuvlar kelib chiqardiki, uni tasvirlab bo'lmaydi. Ular hatto ilmiy masala to'la hal bo'lmagunicha bitimga kelmaslikni va hamma narsa butunlay ravshan, degan ko'rinish yaratmaslikni buyurardilar. Ba'zan birortasi Oliy hazratga nisbatan hurmat yuzasidan [takliflarini ma'qullasa, ular norozi bo'lib]: «Mening bilimsizligimni fosh qilmang», – der edilar. Ular [ba'zan] sinov uchun mulohazaga g'irt noto'g'ri masalani qo'yadilar. Biron kishi hurmat yuzasidan ularning fikrlariga qo'shilgan zahoti, ushbu masalani bahsga takroran qo'yadilar va u kishini [bilimsizlikda] ayblab, sharmanda qiladilar.

Eslatib o'tilgan asbobni qurish tugashi bilan uni rasadxonaga olib keldilar. Rasadxonada meridian chizig'ini aniqlash va boshqa ishlar olib borilgan paytlarda mavlono Qozizoda ham u yerda hozir bo'lganlar. Agar ular o'rtasida biror masalada nomuvofiqlik paydo bo'lsa, u ham goh ma'qullar, goh inkor qilar edi. Misol uchun, men yuqorida eslatgan rasadxona yerning yuzasini tekislash [haqida gap ketgan] paytdek hollarda bahslardan so'ng u shunday qilish lozimligini tushuntirishga muvaffaq bo'lgan.

Rasadxona qurilishi maydonida boshqa olimlar ham hozir bo'lib, foydali ishlarni bajarar edilar. Hozircha jiddiy ishlarning vaqti yetib kelmadi, chunki hali ham rasadxona binosining qurilishi davom etmoqda.

Qurilishni tugatishlari va asboblarni o'rnatishlari bilan osmon jismlarini dioptrlar yordamida bir necha kuzatuvlari olib boriladi. (75) O'lchamlar aniqlanadi, so'ng ushbu kuzatuvlar asosida orbitalar ekssentrisitetlarini, epitsikllar radiuslarini, ekliptika og'ishini, (orbita) ekssentrisitet markazlarining o'rta masofalarini va shu kabilarni aniqlash lozim bo'ladi.

Shundagina ishlar boshlanadi.

Gapni bundan ortiq cho'zishning hojati yo'q. Sizning soyangiz abadiy bo'lsin. Boshqalaringizning eng haqiri va kamtarini G'iyos.

FASIH XAVOFIY VA UNING «MUJMALI FASIHIY» ASARI HAQIDA

Uning to'la ismi **Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad bo'lib**, ko'proq **Fasih al-Xavofiy** (yoki **Xofiy**) nomi bilan mashhur.

Fasih Xavofiy 777 (1375)-y. Ruy (Xurosondagi Xaf okrugining markazi) da, boshqa ma'lumotlarga ko'ra Hirotda tug'ilgan. 807 (1404 – 1405)-y. Fasih ikki kishi bilan birgalikda Shohruxning qo'shini turgan Amudaryo sohilidagi joydan Shohruxning farzandlari Ulug'bek va Ibrohim Sulton (1394 – 1435)

@tarixchi_kutubxonasiga

larga tegishli xazinani Xalil Sultondan (1404–1409) undirish uchun Samarqandga jo'natilgan[1].

Fasih Xavofiy nufuzli amirlardan Alouddin Ali Tarxon, keyin Shohrux Mirzo saroyida 819 (1416–1417)-y. muvajjahi devon mansabiga, 820 (1417–1418)-y. ikki boshqa shaxslar bilan birgalikda oliy devonni (devoni Hazrati a'lo)[2] boshqardi va bu lavozimda u 821 (1418)-yilgacha xizmat qildi[3].

Bir oz vaqt o'tgach, Fasih Xavofiy yana davlat ishlariga jalb etilgan bo'lsa kerak, chunki u 825-y. 11-safar (1422-y. 4-fevral)da Shohrux tomonidan Kermonga jo'natilgan[4] va u yerda 827-y. 1-rabi' us-soniy (1424-y. 3-mart)gacha bo'lgan[5].

828-y. 12-ramazon (1425-y. 28-iyul)da Fasih Xavofiy Shohruxning o'g'li Boysunqur Bahodirxon saroyining suyurg'ol boshqarmasida devonlik mansabiga tayinlangan[6]. Bu lavozimda u bir necha yil ishlagan. 833-y. zulqa'da oyining oxiri (1430-y. 20-avgust)da Boysunqur Semnonning Soin qal'asidan Hirotga jo'naganda, Fasih Xavofiyni qo'shin va adliya ishlarini boshqarishga qoldirgan[7]. 836-y. ramazon oyi (1433-y. 10-may)da Fasih Xavofiy Boysunqur devonidagi xizmatdan butunlay chetlashtirilgan va bizga ma'lum bo'lgan birdan bir asari «Mujmal ut-tavorix» («Tarixiy sanalar yig'indisi»)ni yozishga kirishgan (bu asar «Mujmali Fasihiy» deb ham yuritilgan).

Garchi Fasih ushbu asarini 1433–1441-yillarda yozgan bo'lsa-da, kitob debochasida yozilgan so'zlarga qarab aytish mumkinki, asardagi ma'lumotlarni muallif ilgariroq, tarixiy kitoblarni o'qib yurgan kezlarida, qisqa-qisqa tarzda qayd etib borgan.

Asar muqaddima, ikki maqola va xotimadan tashkil topgan.

Muqaddima Odam Atodan tortib Muhammad payg'ambarning (570–580-yy.) tavalludigacha bo'lgan tarixni o'z ichiga oladi.

Birinchi maqola muqaddimaning bevosita davomi bo'lib, payg'ambarning Makkadan Madinaga qilgan hijratiga (622-yil) qadar bo'lgan davr tarixidan iborat.

Asarning asosiy va katta qismi – ikkinchi maqola bo'lib, 622-yildan 1442-yilgacha bo'lgan voqealar sharhidan iborat.

---

[1] *Fasih Xavofiy.* Mujmali Fasihiy. Ba tashih va taxshiya Mahmud Forruh. Jildi duvum. Tus – Meshxed. 1961. 155-b.; *Abdurazzoq Samarqandiy.* Matla'i sa'dayn va majma'i bahrayn. II j., 1-q. Fors-tojik tilidan tarjima, kirish so'z va izohli lug'atlar A. O'rinboyevniki. Toshkent. 1969. 64-b.; *Бартольд В.В.* Улугбек и его время. Соч. Т. II. Ч. 2. – М., 1964. С. 77.

[2] *Fasih Xavofiy.* Mujmali Fasihiy, 228-b.

[3] O'sha asar, 235-b.

[4] O'sha asar, 251-b.

[5] O'sha asar, 254-b.

[6] O'sha asar, 258-b.

[7] O'sha asar, 266-b.

@tarixchi_kutubxonasiga

Bizga ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalarda va asarning eronlik sharqshunos Mahmud Farrux tomonidan tayyorlangan nashrida ham xotima uchramaydi.

«Mujmali Fasihiy»da Amir Temur avlodlariga bag'ishlangan «Foyda» deb ataluvchi bo'lim ham bor.

Asarning boblarga bo'linish tartibi va qamrab olingan voqealar shu davrga oid boshqa tarixiy manbalar mazmuniga zid bo'lmasa ham, biroq unda tarixiy faktlar o'ziga xos bir yo'sinda sharhlangan. Chunonchi, voqealar jarayoni bir-biriga uzviy bog'langan turli-tuman tafsilotlar bilan boyitilmagan, balki juda qisqa tarzda bayon qilinib, sodir bo'lgan voqealar yilma-yil xronologik tartibda berilgan.

«Mujmali Fasihiy» ham boshqa tarixiy asarlarda kuzatganimizdek, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning tarixnavis nazarida muhim ko'ringan tomonlarini o'z ichiga oladi. Bu xususda muallif debochada yozadi: «Ushbu majmua tarixdan voqif bo'lishni xohlagan kishilar uchun ko'p foyda keltiradi, chunki ular biror-bir voqea yo xabarning qaysi zamon va makonda sodir bo'lganligini bilmoqni istab qolsalar, bu maqsadlariga ushbu majmua tezroq yetishtiradi».

Quyida ushbu asardan Amir Temur va uning yaqin avlodlariga oid ma'lumotlarni keltiramiz. Tarjima asarning Tehron nashridan[1] bajarildi (tarjimon D.Yusupova) va ushbu nashr betlari qavsda ko'rsatildi.

D. Yusupova

FASIH XAVOFIYNING «MUJMALI FASIHIY» ASARIDAN LAVHALAR

Yetti yuz o'ttiz oltinchi (1335 – 1336) yil

(47) Sohibqiron Amir Temur Ko'ragon ibn amir Tarag'ay ibn Burkul ibn Ilangiz ibn Ijil (yoki Iyjal) ibn Qarochar no'yon ibn So'g'u-Sichon ibn Erdamchi ibn Qocho'li no'yon ibn To'manoyxon ibn Boysung'urxon ibn Qaydo'xon ibn Dutumaninxon ibn Bo'qoxon ibn Budoncharxon (yoki Bo'zunjarxon) ibn Alonquvo xotun[2] sha'bon oyining yigirma beshinchisida (1336-y., 9-aprel) Keshda tug'ildi. Uning tug'ilishi, taxtga o'tirishi va vafoti haqida bunday deyilgan:

> Sulton Temurkim, unga o'xshash podshoh bo'lmagan,
> Yetti yuz o'ttiz oltinchi (1335 – 1336) yil dunyoga keldi,

[1] *Fasih Xavofiy.* Mujmali Fasihiy.

[2] Sharafuddin Ali Yazdiy ham Amir Temurning shajarasini xuddi shu tarzda keltiradi, faqat ba'zi ismlar yozilishida farq bor (Zafarnoma. Nashrga tayyorlash, so'zboshi, izoh va ko'rsatkichlar A. O'rinboyevniki. Toshkent. 1969. 83 *b*, v.).

@tarixchi_kutubxonasiga

Yetti yuz yetmish birinchi (1369 – 1370) yil taxtga o'tirdi,
Sakkiz yuz yettinchi (1404 – 1405) yil bu dunyoni tark etdi.

Yetti yuz oltmish uchinchi (1361 – 1362) yil

(95) Amir Sohibqiron Amir Temur Ko'ragon[1] Bayon Suldus va Amir Husayn ibn amir Musallab ibn amir Qazag'on orasida bo'layotgan jangda Amir Husaynga yordam berish uchun amir Xizr Yasovuriy yoniga jo'nadi.

Amir Husayn ibn Musallab Badaxshonni zabt etdi.

Amir Husayn va Bayon Suldusning Tug'luq Temurxon bilan jangi.

Yetti yuz oltmish to'rtinchi (1362 – 1363) yil

(96) Amir Temur Ko'ragon amir Husayn ibn Musallab bilan Seiston tomon jo'nadi. Amir Sohibqironning qo'li kamon o'qi bilan jarohatlandi va bir oz durustroq bo'lganidan so'ng, u Arsifda yana Amir Husaynga qo'shildi va birgalikda Movarounnahr tomon jo'nadi.

Yetti yuz oltmish beshinchi (1363 – 1364) yil

Amir Husayn ibn Musallab ibn Amir Qazag'on Sohibqiron Amir Temur ittifoqligida Jata askarlari bilan jang qilishi. Samarqand va Keshning zabt etilishi. Iskandar O'g'lon, Amir Hamid va Amir Yusufxo'jalarning asirlikka olinishi.

Yetti yuz oltmish yettinchi (1365 – 1366) yil

(98) Amir Husayn va Jata askarlari orasida sodir bo'lgan jang – Loy jangi[2].

Ushbu jangda Amir Sohibqiron katta jasorat ko'rsatdi, lekin Amir Husaynning askarlari kuchsiz bo'lganligi tufayli Jata qo'shinlari g'olib chiqdilar. [Amir Temur] ittifoqchisini jangga qancha ilhomlantirsa ham, yordam bermadi. Shu sababdan Amir Sohibqiron Amir Husayndan ranjidi va ular orasida yangidan nizo paydo bo'ldi.

Yetti yuz oltmish sakkizinchi (1366 – 1367) yil

(100) Badaxshon podshosi Amir Husayn ibn Musallabga nisbatan dushmanlarcha munosabatda bo'ldi. Amir Husayn va Sohibqiron Amir Temur oralarida bitim tuzilishi va ularning Badaxshonga birgalikda qilgan yurishi. Amir Sohibqiron Amir Husaynni dog'da qoldirib, u kelguncha Badaxshonni zabt etdi. Ularning Badaxshondan birgalikda qaytishlari.

Yetti yuz yetmishinchi (1368 – 1369) yil

(101) Sohibqiron Amir Temur va Amir Husayn ibn Musallab oralaridagi nizolar.

Yetti yuz yetmish birinchi (1369 – 1370) yil

(103) ... Sohibqiron Amir Temurning Amir Husayn ibn Musallab ibn amir Qazag'onga qarshi chiqishi.

[1] Bu so'z keyingi o'rinlarda Sohibqiron Amir Temur deb berildi.

[2] Bu jang hozirgi Toshkent viloyati Chinoz tumani hududida sodir bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Amir Sohibqironning, – Alloh uning yuzini yorug' etsin, – taxtga o'tirishi, u Amir Temur Ko'ragon ibn amir Tarag'ay Muhammad ibn Burkul ibn Ilangiz ibn Ijil (yoki Iyjal) ibn Qarochar no'yon ibn So'g'u-Sichon ibn Erdamchi ibn Qochuli no'yon ibn Tumanoyxon ibn Boysung'urxon ibn Qayduxon ibn Dutumaninxon ibn Buqo ibn Bo'zunjar ibn Alonquvo xotun

Yetti yuz yetmish ikkinchi (1370 – 1371) yil

Amir Temur Jataga jang qilishga jo'nab ketdi. U yerga kelgach, O'rung Temurni o'z tomoniga iydirib, o'zi bilan birga olib ketdi. U yerda boshqarish uchun Kepak Temurni qoldirib, o'zi qaytib keldi. Kepak Temur bo'lsa isyon ko'tardi.

Amir Sohibqironning askarlari Kepak Temur tomon jo'nadi. Ular sulh tuzib, qaytib keldilar.

(104) Amir Temur ikkinchi marta Jataga urushga jo'nadi. Kepak Temur va u bilan ittifoqlikda bo'lgan guruh qochdi. Amir Sohibqironning qaytishi va Samarqandga kelishi.

Yetti yuz yetmish uchinchi (1371 – 1372) yil

(105) Amir Sohibqiron Xorazmga jo'nadi. Xorazm [poytaxti] yonida uning Husayn So'fi bilan jang qilishi, Husayn So'fining Xorazmga qochishi. Amir Sohibqiron Xorazm tevaragidagi joylarni zabt etdi va qal'asini qamal qildi.

Yusuf So'fi Xorazm shohi bo'ldi. Xorazm hokimi Yusuf So'fi Amir Sohibqiron bilan shartnoma tuzdiki va Xonzodani Amirzoda Jahongirga xotinlikka beradigan bo'ldi, u esa Xorazm qamalini to'xtatdi.

Yetti yuz etmish to'rtinchi (1372 – 1373) yil

(106) Yusuf So'fi [Amir Temurga] bo'ysunmay, bergan va'dasiga vafo qilmadi, degan xabar Amir Temur Ko'ragonning quloqlariga yetdi va u ikkinchi marotaba Xorazmga jo'nadi. Amir Yusuf [So'fi] Amir Sohibqironning [yo'lga] chiqqani haqida xabar topgach, bezovta bo'lib va sarosimaga tushib qolib, iltifot bilan uzrxohlik bildirdi va Amir Sohibqiron yarim yo'ldan qaytib ketdi.

Yetti yuz yetmish beshinchi (1373 – 1374) yil

Janobi oliyalari Xonzodani Xorazmdan olib keldilar va Amirzoda Muhammad Jahongir ibn Amir Temur Ko'ragonni unga uylantirdilar. Amir Sohibqiron amr qildiki, Konigilda shunday to'y qilsinlarki, undayini hali hech kim ko'rmagan bo'lsin.

Yetti yuz yetmish oltinchi (1374 – 1375) yil

(107) Amir Temur Ko'ragon uchinchi marotaba Jata tomon yurish qildi. Qamariddinning[1] qochishi, Amirzoda Jahongirning zikr etilgan Qamarid-

[1] *Qamariddin* – Mo'g'ulistonning nufuzli amirlaridan biri.

@tarixchi_kutubxonasiga

dinni ta'qib qilishi, uning bir necha odamlarini asirlikka olib, ularni oilasi bilan Samarqandga olib kelishi.

Sohibqiron Amir Temurning Dilshod-og'oga uylanishi.

Yetti yuz yetmish yettinchi (1375 – 1376) yil

(109) Amir Temur to'rtinchi marotaba Jata tarafga yurish qildi. Uning yo'ldan qaytishi. U ilgariroq Qamariddinni olib kelishga jo'natgan Sari Buqo, Odilshoh va Bahrom Jaloyirlar qo'zg'olon ko'tardilar va Amir Sohibqiron qaytishga [majbur bo'ldi], [so'ng], beshinchi marotaba Jataga jang qilishga jo'nadi.

Qamariddinning qochishi.

Amirzoda Jahongir Bahodirning vafoti.

Amir Sohibqironning Jatadan qaytishi.

O'sha yili Amir Sohibqiron oltinchi marotaba Jataga urushga jo'nadi. Qamariddinning ikkinchi marotaba qochishi va Amir Sohibqironning Movarounnahrga qaytib kelishi.

To'xtamishxon O'rusxondan yuz o'girib, Jatadagi jangdan qaytib kelgan Amir Sohibqiron yoniga keldi.

Amir Sohibqiron To'xtamishxonga iltifot ko'rsatib, unga O'tror va Sabronni in'om qildi.

O'rusxonning farzandi O'rdu Buqoning kelishi va uning To'xtamishxon bilan qilgan jangi. To'xtamishxonning qochishi. U yana Amir Sohibqironning huzuriga keldi. U unga yana askar berdi va To'xtamishxon O'rusxonning farzandi O'rdu Buqo bilan jang qildi. To'xtamishxon yengildi va og'ir yaralandi. Uni o'lgan deb, jang maydonida tashlab ketdilar. Lekin bir necha navkarlari uni tiriklar ichidan topib, Amir Sohibqiron oldiga olib keldilar. U: «To'xtamishni davolatib, tuzatsinlar», – deb buyruq berdi va tuzalgandan keyin [hazrat Sohibqiron] yettinchi marotaba (110) Jataga yurish qildi.

O'rusxon jangga kirmay, Amir Sohibqirondan qochib ketdi, u esa o'n besh kun mobaynida uning ketidan quvib yurdi... Shu vaqt O'rusxon vafot etdi va o'rnini o'g'li To'xtaqiya egalladi, [lekin] u ham yaqin orada vafot etdi, degan xabar keldi.

Amir Sohibqiron O'rusxon ulusini va Dashti Qipchoq hukmronligini To'xtamishxonga berdi.

Amirzoda Jahongir ibn Amir Sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning o'g'li Amirzoda Muhammad Sulton dunyoga keldi.

Yetti yuz yetmish sakkizinchi (1376 – 1377) yil

(111) Amir Sohibqironning amriga binoan To'xtamishxonning Dashti Qipchoqqa hokim qilib tayinlanishi.

Yetti yuz yetmish to'qqizinchi (1377 – 1378) yil

@tarixchi_kitubxonasiga

Sulton oliy hazratlari, xalqlarning mahobatli hokimi, arab, turk va ajam maliklarining homiysi, dunyo podshohlarining podshohi Shohrux Bahodirxonning, – Alloh uning hukmronligini abadiy qilsin, – payshanba kuni o'n to'rtinchi rabi' us-soniy (1377-y., 20-avgust)da tug'ilishi.

Amir Temur Ko'ragonning aslzodalardan kelib chiqqan Tuman-og'oga uylanishi.

Amir Temur Ko'ragonning Zanjirsaroyda qishlash uchun qolishi.

Yetti yuz saksoninchi (1378 – 1379) yil

(113) Amir Temur Ko'ragonning to'rtinchi marotaba Xorazm ustiga yurishi. Xorazm atrofida uning Yusuf So'fi bilan qilgan jangi. Yusuf So'fi qochib, Xorazm qal'asida mustahkamlandi. Xorazm atrofida Yusuf So'fi bilan bo'lgan jangda jarohatlangan Oqbuqoning o'g'li Anushirvonning o'limi.

Yetti yuz sakson birinchi (1379 – 1380) yil

(115) Amir Sohibqironning Xorazmni zabt etishi. Oqsoqollar va aslzodalarning Xorazmdan Samarqandga ko'chirilishi. Amir Sohibqiron tarafidan Keshda Oqsaroy qurilishining tashkil etilishi. Amir Sohibqiron amir Hoji Sayfiddinni Hirotga malik G'iyosiddin Mir Ali Qurtni olib kelishga jo'natdi, lekin u uzr so'rab, kelmadi.

Yetti yuz sakson to'rtinchi (1382 – 1383) yil

(118) Sohibqiron Amir Temur Ko'ragon Nishopurni fath etdi.

Turshiz va Qalot qal'asining olinishi. Sulh tuzilib, Qalot qal'asi shayx Ali Bahodir tarafidan bosib olinganidan so'ng, himoyachilarning bir guruhi Amir Sohibqiron huzuriga chiqdilar. Amir Sohibqiron ushbu g'alaba uchun jelduy[1] sifatida Amir shayx Ali Bahodirga Rodgonni suyurg'ol qilib berdi.

Malik G'iyosiddin Pir Ali kurt va uning inisi malik Muhammad Pir Hasan, yuqorida eslatilgan Malik G'iyosiddinning o'g'li Amir G'uriy, Alibek ibn Arg'unshoh va ularning oila a'zolarining Amir Sohibqiron tomonidan Samarqandga ko'chirilishi.

(120) Chingizxon hukmronlik qilgan davrda vayron bo'lgan Fanokat mavzeidagi Shohruxiya[2] shahrining tiklanishi. Amir Sohibqiron bu shahar nomini mahobatli sulton, ishonchli hukmdor Shohrux Bahodirxon nomi bilan atadi. Qurilish tugagach, u shaharni oliy hazratlari suyurg'ollar qatoriga kiritdi.

Yetti yuz sakson beshinchi (1383 – 1384) yil

(121) Amir Sohibqiron Qamariddinni axtarish uchun Jata tarafga askar jo'natdi, lekin qancha qidirmasin, uning izini ham topa olmay qaytdilar.

---

[1] *Jelduy (turkcha)* – oliy xizmatlar uchun qilinadigan tuhfa.

[2] *Shohruxiya* – ushbu shaharning xarobalari Ohangaron daryosining quyilish joyiga yaqin joylashgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

(123) Amir Sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning xotini, hazrati oliyalari Dilshod-og'oning vafot etishi. Amir Sohibqironning opasi Qutlug' Turkon-og'oning vafoti.

Yetti yuz sakson oltinchi (1384 – 1385) yil

Sohibqiron Amir Temur Ko'ragon Samarqanddan Astrobodga jo'nadi. Uning Amir Vali bilan jang qilishi. Amir Valining qochishi va Rustamdorga jo'nashi.

Amir Sohibqiron Xorazmga keldi. Yana bir bor bosib olgan (130) Xorazmdan To'xtamishxon askarlarining qochishi.

Amir Sohibqiron To'xtamishxon bilan jang qilish uchun Dashti Qipchoqqa jo'nab ketdi. Jangdan so'ng To'xtamishxon qochib ketdi. Aydiberdi esa asirlikka olindi, lekin Amir Sohibqiron uni afv etdi.

Yetti yuz to'qson birinchi (1388 – 1389) yil

(131) Amir Sohibqironning To'xtamishxon bilan qilgan jangidan so'ng Samarqandga qaytishi. Amir Sohibqiron yana bir marta To'xtamishxon bilan jang qilgani jo'nadi. Tug'moq askarlarining chopqin va talon-toroj qilinishi.

Shu yilning bahorida lashkar mang'loyini boshqargan Amirzoda Umarshayx Bahodirning Anko To'ro bilan qilgan jangi va Anko To'roning qochishi.

Amir Sohibqironning To'xtamishxon bilan jangi va To'xtamishxonning qochishi. Amir Sohibqironning Samarqandga qaytishi.

Ulug' Amir Sulaymonshoh Bahodir ibn amir Dovud dug'lot Sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning qizi Sultonbaxt begim bilan unashtirildi.

Yetti yuz to'qson ikkinchi (1389 – 1390) yil

(132) Amir Sohibqiron Oqyor mavzeida katta qurultoy o'tkazdi.

Amirzoda Umarshayx Bahodirning Sevinch Qutlug'-og'oga uylanishi.

Amirzoda Amironshohning Sohibqiron Amir Temurning oldidan qaytib kelishi. Uning Xurosonga kelishi.

Amir Sohibqiron Amir Sulaymonshoh, Xudoydod Husayniy, Shamsiddin Abbos, Usmon (ibn) Amir Abbos va bir guruh amirlarni yigirma ming askar bilan Jeta ustiga yubordi. Hazrat Sohibqiron Toshkentda qishladi. Amir Sohibqironning betob bo'lib qolgani va Alloh, – uning ismi ravshan bo'lsinkim, – unga sihatlik hadya qildi.

Yetti yuz to'qson uchinchi (1390 – 1391) yil

(133) Amir Sohibqiron Xorazmni obodonlashtirish uchun amir Musikani jo'natdi. Musika [Xorazmni] obod qildi.

Amir Sohibqiron oliy hazratlari Shohrux sulton, – Alloh podshohligini abadiy qilsin, – va Amirzoda Jahongirning o'g'li Amirzoda Pirmuhammadni Toshkentdan Samarqandni boshqarish uchun jo'natdi.

Yetti yuz to'qson to'rtinchi (1391 – 1392) yil

@tarixchi_kitobxonaga

(134) Amir Temur Ko'ragon Toshkentdan Samarqandga keldi.

Amir Sohibqiron Zobul va Kobul mulklari hukmronligini Jahongir ibn hazrat Amir Sohibqiron o'g'li Amirzoda Pirmuhammadga topshirdi.

Yetti yuz to'qson oltinchi (1393–1394) yil

(136–137) Ulug' sulton Shohrux Bahodirxon ibn Amir Sohibqiron Amir Temir Ko'ragon, – Alloh uning hukmronligini abadiy qilsin, – o'g'li mahdumzoda Muhammad Tarag'ay Ulug'bek Ko'ragonning tug'ilishi.

Ulug' podshoh Shohrux Bahodirxonning, – Alloh uning podshohligini abadiy qilsin, – o'g'li Amirzoda Ibrohim Sultonning tug'ilishi.

Yetti yuz to'qson yettinchi (1394–1395) yil

Sohibqiron Amir Temur Ko'ragon To'xtamishxon bilan urushmoq uchun Dashti Qipchoqqa jo'nab ketdi. O'sha urushda To'xtamishxon mag'lubiyatga uchradi.

Yetti yuz to'qson to'qqizinchi (1396–1397) yil

(140) Amir Sohibqironning Samarqandda Bog'i Shamol qasrini qurdirishi.

Ulug' Sulton, Arab va Ajam hukmdorlari shohi Shohrux Bahodir sultonning, – Alloh hukmronligini abadiy qilsin, – o'g'li, oliy hazratlari sultonzoda, xudojo'y G'iyosiddin Boysunqur Bahodirxon juma kechasi, zulhijja oyining yigirma birinchisida (1397-y., 15-sentabr) tug'ildi.

Sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning ulug' farzandi Shohrux Bahodirxonga, – Alloh uning hukmronligini abadiy qilsin, – Xuroson mamlakati va uning viloyatlarini topshirishi. Oliy hazratlari g'oyat baxtli soatda qutli qadam bilan Xurosonga yetib keldi.

Xonzoda [begim]ning Ozarbayjondan Amir Sohibqiron huzuriga kelishi. U Amironshoh Ko'ragon va uning noiblari ustidan shikoyat qildi.

Samarqand Konigilida Amirzoda Iskandarning Beka Sultonga uylanishi va to'y tantanalari.

Amir Sohibqiron Samarqandning Konigilida Bog'i Dilkushoni barpo etishni buyurdi. [Mazkur] bog'ning yaratilishi.

Sakkiz yuzinchi (1397–1398) yil

(141) Oliy hazratlari Amir Sohibqironning Xizrxojaxonning qizi To'kal xonimga uylanishi munosabati bilan Konigilda berilgan katta to'y.

Amir Sohibqiron Amirzoda Muhammad Sultonni Mo'g'ul[iston] sarhadiga jo'natdi. [U yerda] Ashpara qo'rg'onining qurilishi. Amir Sohibqironning Taxti Qorachada bog' barpo etgani.

Oliy hazratlari xoqon Shohrux Bahodirxon, – Alloh hukmronligini abadiy qilsin, – Amir Sohibqironni ko'rib kelish uchun Astroboddan Keshga keldi.

Amir Sohibqiron Ko'hi Sulaymon afg'onlariga hujum qildi va afg'onlar vayron qilgan Abrbob (Eryob) qal'asini tikladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Sakkiz yuz birinchi (1398–1399) yil

(142) Amir Sohibqiron Samarqandda rejalashtirgan jome masjidining qurilishi. Qurilish yakshanba kuni muqaddas ramazon oyining to'rtinchisida (1399-y., 10-may) boshlangan.

(143) Amir Sohibqironning farmoniga binoan shavvol oyining oxirida (1399-y., iyul) Hirotda Oliy hazratlari xoqon xalifalik posboni Shohrux sulton, – Alloh uning hukmronligini abadiy qilsin, – uchun Bog'i Shahr qasri qurilishining boshlanishi. [Qurilishga] Milkat tavochi dorug'a va ish yurituvchi qilib tayinlangan edi.

Sakkiz yuz beshinchi (1402–1403) yil

(147) Amir Sohibqironning o'g'li Jahongir Bahodirning farzandi Amirzoda Muhammad Sulton Bahodir dushanba kuni sha'bon oyining o'n sakkizinchisida (1403-y., 13-mart) vafot etdi.

Amir Sohibqiron tarafidan [qora] totorlarning [Rumdan] ko'chirilishi. Ularni Movarounnahrga eltish uchun qo'shinlarga taqsimlandi. Ularning ba'zilari yo'lda qochdilar, ba'zilari Movarounnahrga yetib bordilar.

Sakkiz yuz oltinchi (1403–1404) yil

Amir Sohibqiron tarafidan Baylakon shahrining qurilishi va Barlos kanalining qazdirilishi. (148) Uning suvi Baylakongacha oqib keladi.

(148) Oliy hazratlari Amir Sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning Ozarbayjondan o'z davlati markazi Samarqandga qaytishi.

Sakkiz yuz yettinchi (1404–1405) yil

Amir Sohibqiron Amir Temur Ko'ragon muharram oyining birinchi kunida (1404-y., 10-iyul) Nishopurga keldi. Ozarbayjondan qaytib kelayotganda, Oliy hazratlari xoqon Shohrux sulton, – Alloh uning hukmronligini abadiy qilsin, – uni kutib oldi. Xoja Shamsiddin Muhammad Simnoniy va Hirotning taniqli kishilari Oliy hazratlari Amir Sohibqironning palosini o'pishga [muyassar bo'lgani] jo'nadilar.

Amir Sohibqiron xoja Faxriddin Ahmad Tusiy va Ahmad ibn Shayx (149) Hasanni Hirotning favqulodda vakillari etib tayinladi. [Xoja Faxriddin Ahmad Tusiyning] Hirotga kelishi. U Bog'i Zog'ondan ulug' xoqon (Shohrux) xizmatidan qaytib kelib, Oliy hazratlari xoqon Shohrux sultonning, – Alloh uning hukmronligini abadiy qilsin, – saroyida devonbegi lavozimida xizmat qilgan Ali G'urba nomi bilan mashhur Xoja Ali Muhammadshohni Darvoza-i Malikga osib qo'ydi. Soliq to'plovchilarni qattiq so'roq qildi va qiynoqqa soldi.

Zikr qilingan Xoja Faxriddin Ahmad Tusiyning [Xurosondan] qaytib kelishi. Bu shunday bo'lgan: Xoja Ahmad Xuroson aholisini talon-toroj qilish va zimmasiga topshirilgan mufrad vazifasini bajarish bilan ovora bo'lgan paytda, ulug'lar sarasi Izzaddin sayid Zaynulobidin ibn Amir sayid

@tarixchi_kutubxonasiga

Nizomiddin al-Junobodiy al-Ko'histoniy Tabrizdan keldi va oliy hazratlari Amir Sohibqiron huzuriga yo'l oldi. Xoja Ahmad va zikr etilgan ulug'lar sarasi Sayid Nizomiddin orasida ilgaridan nizo bor edi. Yo'lda borayotib, u Xoja Ahmadga maktub yozdi. Unda ushbu bayt eslatilgan edi:

Sening ko'zlaring ishva bilan odamlar
xonadonini qorong'ilikka aylantirdi.
Ichkilik maishatiga berilmaslik uchun mayxo'rlikni yo'q qilgin,
sening shunday ham kayfing oshgan.

(150) Mazkur Xoja Ahmad [Izzaddin Sayid Zaynulobidin] Amir Sohibqiron xizmatiga borgani haqida eshitgach, u ham zudlik bilan o'sha yoqqa jo'nadi. Ushbu bayt Xurosonda istiqomat qilib turgan odamlarga va ayniqsa, Hirot aholisiga ko'p yaxshi natijalar keltirdi.

Xoja Ahmad Samarqandga, Amir Sohibqiron huzuriga kelib, Xurosonda ado etilgan vazifalari va ishlari haqida unga aytib berdi va ko'chirish lozim bo'lgan ba'zi odamlarni ko'rsatdi. Amir Sohibqiron buyrug' chiqardi, unga binoan [quyidagilarni] ko'chirdilar: birinchi – Xoja Nosiriddin Lutfulloh Xoja Arab Hiraviy va uning otasi Hofiz Mahmud; ikkinchi – Xoja Tojiddin Tuniy va uning o'g'li Xoja Mahmud; uchinchi – Xoja Qavomiddin shayx Muhammad Xavofiy va uning inisi Xoja Sadriddin Hamid; to'rtinchi – Xoja Izzidin Maymunshoh al-Boxarziy va uning o'g'li Xoja Alouddin; beshinchi – Xoja G'iyosiddin ibn Xoja Nosiriddin Nasrulloh ibn Xoja Faxriddin Xoja Shihob; oltinchi – Jaloliddin va uning inilari Xoja Muhammad va Xoja Muborak; yettinchi – Xoja Ali [ibn] Xoja Faxriddin Shihob; sakkizinchi – Xoja Sulaymon ibn Xoja Hisom Fushanjiy; to'qqizinchi – Hoji [ibn] Abdulloh Muhammadxoja; o'ninchi – Xoja Muhammad Mas'ud Kofi Boxarziy va Xoja Nizom Shukr Nishopuriy; o'n birinchi – Pahlavon Hoji Zavoiy, Hirot asas (qorovul)larining boshlig'i, uning inisi Abdulloh Muhammadxoja va asaslarning ba'zilari; o'n ikkinchi – kadxudolarning[1] ba'zilari va Hirotning aslzodalari.

Bu odamlarni ko'chirishni elchilar zimmasiga yukladilar, Ashpara va Sabronga olib borishlari topshirildi.

(151) Imomlarning mashhuri Mavlono Jaloliddin Mahmud al-Halloj al-Voiz al-Hiraviyning vafoti Hirotda, zulqa'da oyining o'n yettinchisida [1405-y., 17-may] [sodir bo'ldi]. U Hirotning Xiyobonida dafn etilgan. U yaxshi va'zlar qilardi, ularga juda ko'p odamlar yig'ilar edi. Uni Amir Sohibqironning amriga binoan ko'chirdilar, Samarqandda uning ko'zi ojiz bo'lib qoldi.

[1] *Kadxudo* – ko'p ma'noli atama: oila boshlig'i, qishloq yoki shahar ahli boshlig'i, qabila boshlig'i, oqsoqol va h.k.

@tarixchi_kutubxonasiga

Unga va'zxonlik qilmaslik sharti bilan [Hirotga] qaytishga ruxsat berdilar. O'sha yili u vafot etdi.

Amir Sohibqiron muharram oyining o'ninchisida [1404-y., 19-iyul] Rum va Shomga qilgan yurishdan Samarqandga qaytib keldi. Shu kunlarda Amir Sohibqiron ba'zi shahzodalarni uylantirish munosabati bilan Konigilda katta to'y-tomoshalar qildi.

Amir Sohibqironning Jome masjid[1] qurilishini ko'rib chiqqani, unda isrofgarchilik va boshboshdoqlikka yo'l qo'yganligi uchun [mutasaddilar] Xoja Mahmud Dovud va Muhammad Jilddan g'azablangani.

Temurxoja ibn amir Oqbuqoning Amir Sohibqiron buyrug'iga binoan hibsga olingani. Uni Mo'g'ul[iston] chegarasiga – Isiko'l (Issiqko'l)ga jo'natdilar.

Amir Sohibqiron yigirma uchinchi jumod ul-avvalda (1404-y., 27-noyabr) Xitoy yurishiga jo'nadi, u yerda yigirma sakkiz kun bo'ldi. O'z amirlari va xizmatkorlarining katta qismini qishlov o'tkazish, otlarini boqish uchun Toshkentga jo'natdi. Oliy o'rduda amirlardan (152) Amir shayx Nuriddin, Amir Shohmalik va Amir xoja Yusufdan boshqa hech kim qolmagan edi.

Amir Sohibqiron jumod ul-oxir oyining yigirma birinchisida (1404-y., 15-dekabr) payshanba kuni Oqsulotdan O'trorga jo'nadi. Rajab oyining yettinchisida (1405-y., 9-yanvar) dushanba kuni u O'tror shahrida to'xtadi va u yerda qirq kun sog'-salomat yurdi. Sha'bon oyining to'rtinchisida (1405-y., 5-fevral) payshanba kuni nard va shatranj o'yinlarini [boshqa] o'ynamaslikka ahd qildi.

Sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning betobligi va oliy hazratlarining muqaddas sha'bon oyining o'n yettinchisida (1405-y., 18-fevral) O'tror mavzeida vafot etishi. Uning yoshi, – Alloh uning nurini oshirsin, – quyosh yili hisobida yetmishinchi yilda tugadi.

Shayx Temur qavchin sha'bon oyining yigirma sakkizinchisida (1405-y., 1-mart) Hirotga kelib, Amir Sohibqiron bilan sodir bo'lgan voqea to'g'risida xabar qildi. Uni xoqon Shohrux Bahodir sulton huzuriga, – Alloh uning hukmronligini abadiy qilsin, – ulug' amirlar: shayx Nuriddin bilan Amir Shohmalik jo'natgan edilar.

Hirotdan [Movarounnahrga] ko'chirilgan odamlarning qaytib ketishi. Ular Amir Sohibqironning vafoti haqida xabar olishlari bilanoq [Hirotga] qaytdilar.

Arab va Ajam xalqlarining ulug' hokimi buyuk amir – Amir Temur Ko'ragonning o'g'li (153) Shohrux Bahodirxonning Xuroson taxtiga o'tirishi, – Alloh taolo Eron va Iroqda uning hukmronligini abadiy qilsin.

[1] Hozir u «Bibixonim masjidi» nomi bilan mashhur.

@tarixchi_kutubxonasiga

Amirzoda Amironshoh Ko'ragonning o'g'li Amirzoda Xalil Sultonning Samarqand taxtiga o'tirishi, ramazon oyining o'n oltinchisida (1405-y., 18-mart) chorshanba kuni u Samarqand shahriga kirib, Arki Oliyni egalladi.

Oliy hazratlari xoqoni [said]ning amriga binoan Hirot shahri, uning darvozalari, minoralari va devorlarining tiklanishi...

Amir Sohibqironning, u vafot topgan kuni, avlodlari – o'g'il va nabiralari – o'ttiz oltita edi, quyidagi tartibda: marhum amirzoda Jahongir Bahodir avlodidan o'n bitta; amirzoda Muhammad Sulton Bahodir avlodidan uchta; amirzoda Jahongir, to'qqiz yoshda; amirzoda Sa'd Vaqqos olti yoshda; amirzoda Yah'yo besh yoshda; amirzoda Jahongir Bahodirning o'g'li amirzoda Pirmuhammad yettida: Qaydu, to'qqiz yosh, Xolid olti yoshda, Buzonjir, Sa'd Vaqqos, Sanjar, Qaysar, Jahongir.

(154) Umarshayx Bahodir avlodidan to'qqizta o'g'il va nabira: amirzoda Pirmuhammad ibn Umarshayx Bahodirdan bir o'g'il, Umarshayx ismli, yetti yoshda; Rustam ibn Umarshayx Bahodirdan ikki o'g'il: Usmon, olti yoshda va Sulton Ali, bir yoshda; Iskandar ibn Umarshayx Bahodir, o'n sakkiz yoshda; Sidi Ahmad ibn Umarshayx Bahodir, o'n sakkiz yosh; Sidi Ahmad ibn Umarshayx Bahodir, o'n besh yoshda; Boyqaro ibn Umar Bahodir, o'n ikki yoshda.

Amirzoda Amironshoh Ko'ragon avlodlaridan yetti o'g'il va [ikki] nabira: Abubakr ibn Amironshoh, yigirma uch yoshda; uning ikki o'g'li bor edi: Elangir, to'qqiz yoshda va Usmon Jadi, to'rt yoshda; Umar ibn Amironshoh Bahodir, yigirma bir yoshda; Iyjil ibn Amironshoh Bahodir va Suyurg'atmish ibn Amironshoh Bahodir.

Ulug' sulton, hurmatli xoqon Shohrux Bahodirxon, – Alloh hukmronligini abadiy qilsin, – avlodlaridan yetti [kishi]: maxdumzoda Ulug'bek Ko'ragon, o'n bir yoshda; Ibrohim Sulton Bahodir, o'n bir yoshda; Boysung'ur Bahodir, sakkiz yoshda; Suyurg'atmish Bahodir, sakkiz yoshda; Muhammad Jo'qiy Bahodir, uch yoshda; Jon O'g'lon, ikki yoshda; Muhammad Yor, bir yoshda.

Sakkiz yuz o'ninchi (1407 – 1408) yil

(176) Balxdagi Hisori Hinduvonni tiklash xususida xoqon (Shohrux)ning buyrug'i.

(180) Amir Sohibqiron vafoti munosabati bilan ta'ziya bildirish uchun yuborilgan Xitoy elchilarining yetib kelishi. Ularga iltifotlar ko'rsatilib, ketishiga ruxsat berildi.

Sakkiz yuz o'n to'rtinchi (1411 – 1412) yil

(205) Maxdumzoda (Ulug'bek) va Samarqandning aslzodalari Qashqa [mavzeida] Oliy hazratlari [Shohrux]ning palosini o'pishga musharraf bo'ldilar. Oliyhazratlari [Shohrux] Amir Sohibqiron [qabri]ni ziyorat qilib, u yerdan Konigilga jo'nadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Registon maydoni. Samarqand. XIV–XV asrlar

@tarixchi_kutubxonasiga



Oqsaroy. Shahrisabz. XIV – XV asrlar

@tarixchi_kutubxonasiga



Ulug'bek. «Ziji jadidi Ko'ragoniy». O'zR FA SHI qo'lyozmasi, № 2214

@tarixchi_kutubxonasiga



Ulug'bek observatoriyasi. Samarqand. XV asr

@tarixchi_kutubxonasiga



Hofizi Abru. Geografiya. O'zR FA SHI qo'lyozmasi, № 5361

Sharafiddin Ali Yazdiy. «Zafarnoma». O'zR FA SHI qo'lyozmasi, № 4472

@tarixchi_kutubxonasiga



Amir Temur maqbarasi. Samarqand. XV asr

@tarixchi_kutubxonasiga

Alisher Navoiy. «Xamsa». Unvon. O'zR FA SHI qo'lyozmasi

@tarixchi_kutubxonasiga



Mahmud Koshg'ariy. «Devonu lug'otit turk». Dunyo kartasi

@tarixchi_kutubxonasiga

«G'azaliyoti Navoiy». O'zR FA SHI qo'lyozmasi, № 2223

@tarixchi_kutubxonasiga

«Silsila va shajarai Naqshbandiya».
O'zR FA SHI Qo'lyozmalar fondi. 1974-raqamli qo'lyozma, muqova

@tarixchi_kutubxonasiga



«Silsila va shajarai Naqshbandiya». O'zR FA SHI Qo'lyozmalar fondi. 1974-raqamli qo'lyozma, 5ᵃ-varaq

@tarixchi_kutubxonasiga



«At-taysir fi ilm at-tafsir». O'zR FA SHI Qo'lyozmalar fondi.
3150-raqamli qo'lyozma, 63ᵃ-varaq

@tarixchi_kutubxonasiga



«Zafarnoma». O'zR FA SHI Qo'lyozmalar fondi.
4472-raqamli qo'lyozma, 167ᵇ-varaq

@tarixchi_kutubxonasiga

«Zafarnoma». O'zR FA SHI Qo'lyozmalar fondi.
4472-raqamli qo'lyozma, 204^{b}-varaq

@tarixchi_kutubxonasiga

«Zafarnoma». O'zR FA SHI Qo'lyozmalar fondi.
4472-raqamli qo'lyozma, 219ᵇ-varaq

«At-taysir fi ilm at-tafsir». O'zR FA SHI qo'lyozmasi, № 3150

@tarixdn_kutubxonasiga

@tarixchi_kutubxonasiga

(207) Malika Tumon-og'o keldi. Oliy hazratlari [Shohrux] unga hurmat va ehtirom ko'rsatishga harakat qildi. Hazrati oliyalari ikkinchi Bilqis, Gavharshod-og'o, – uning ma'sumaligi abadiy bo'lsin, – [xizmatidagi] barcha ayollar bilan peshvoz chiqdi va hurmat-ehtirom bilan olib keldi. Oliy hazratlari Amir Sohibqiron suyurg'ol qilgan Kusuya, shuningdek, Xabushon viloyatidagi Majroq qishlog'idan olinadigan daromadlar unga belgilandi.

Sakkiz yuz o'n oltinchi (1413 – 1414) yil

(212) Mazkur yilning jumod ul-oxir oyida (1413-y., avgust-sentabr) payshanba kuni amirzoda Muhammad Jahongir ibn amirzoda Muhammad Sulton ibn amirzoda Muhammad Jahongir ibn Amir Temur Ko'ragonning oliy hazratlari xoqon (Shohrux)ning qizi Maryam Sultonbegimga uylanishi.

(214) **Sakkiz yuz o'n yettinchi (1414 – 1415) yil**

Amirzoda Iyjil Bahodir ibn amirzoda Amironshoh Ko'ragon ibn Amir Temur Ko'ragonning vafoti.

(254) **Sakkiz yuz yigirma yettinchi (1423 – 1424) yil**

Ulug' xotun Ruhparvar-og'o muqaddas muharram oyining uchinchisida (1423-y., 7-dekabr) vafot etdi. U Amir Sohibqironning kanizaklaridan biri edi. Oliy hazratlari (Amir Temur) vafotidan so'ng uni Hamza Suldus xotin qilib oldi, undan keyin Amir Ali tarxon, hozir esa, u Amir Hasan Sufi tarxonning xotini edi.

(256) **Sakkiz yuz yigirma sakkizinchi (1424 – 1425) yil**

Shermuhammad O'g'lonning maxdumzoda Ulug'bek Ko'ragon bilan jang qilishi. Shermuhammadning yengilib qochishi va maxdumzoda Ulug'bek Ko'ragonning sog'-salomat qaytishi. U o'zi bilan qosh toshini olib keldi. Oliy hazratlari Amir Sohibqiron, – Alloh uning dalilini yorug' qilsin, – o'z vaqtida Amir Jahonshoh [ibn] Amir Jokuni bir necha ming odam bilan ushbu toshni [Samarqandga] olib kelishlari uchun qoldirgan edi, biroq ular uddalay olmagandilar.

(264) **Sakkiz yuz o'ttiz uchinchi (1429 – 1430) yil**

Sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning qizi ulug' xotun Sultonbaxt begimning Nishopurda vafot etishi.

MIRZO ULUG'BEK VA UNING «TARIXI ARBA' ULUS» ASARI HAQIDA

Mirzo Ulug'bek (1394 – 1449) nafaqat davlat arbobi, balki yetuk olim edi. U 1409-yili otasi Shohrux tomonidan Movarounnahr hokimi etib tayinlandi va ilm-fanni rivojlantirishga katta e'tibor berdi. Samarqandda rasadxona qurdirdi va unda zamonasining ulug' olimlari bilan izlanish olib bordi. Natijada «Ziji jadidi Ko'ragoniy» («Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali») nomli asar dunyoga keldi.

@tarixchi_kitoblar

Ulug'bek tarix fani bilan ham shug'ullandi. U «Ulusi arba'ayi Chingiziy» («Chingiziy to'rt ulus») yoki «Tarixi arba' ulus» («To'rt ulus tarixi») nomli asar yozdi. Unda XIII–XIV asrlarda Mo'g'ullar imperiyasi tarkibiga kirgan mamlakatlarning tarixi bayon qilingan. Asar 1425-yilda yozib tugallangan bo'lib, bir muqaddima va to'rt qismdan iborat. Birinchi qismida Mo'g'uliston va Shimoliy Xitoy tarixi, ikkinchi qismida Oltin O'rda tarixi, uchinchi qismida Eron hamda Ozarbayjon tarixi va to'rtinchi qismida Chig'atoy ulusi (Koshg'ar, Yettisuv, Movarounnahr, Shimoliy Afg'oniston)ning XIII–XIV asrlardagi ahvoli bayon qilinadi.

«Tarixi arba' ulus» Yevropa tillariga tarjima qilingan. 1994-yilda esa o'zbek olimlari B. Ahmedov, N. Norqulov va M. Hasaniylar tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi va nashr etildi.

Quyida mazkur o'zbekcha nashrdan Movarounnahrga taalluqli ba'zi voqealar bayoni berildi.

M. Hasaniy

MIRZO ULUG'BEKNING «TARIXI ARBA'ULUS» ASARIDAN LAVHALAR

(134) Sulton Muhammad Xorazmshohning mo'g'ul jamoasi bilan jangi dostoni

Sulton Muhammad Xorazmshoh mo'g'ul lashkari ortidan yetib, jang boshlab yubordi. Nazm (mazmuni):

Sulton (sipoh) g'o'li bilan shunday hujum qildiki, mo'g'ul sipohi ko'z oldingizga kelardi. Yetib kelgach, bug' chaldilar. Xorazmshoh tug' ostidan o'rin oldi. Lashkarni jang sahrosiga olib kirdi. Lekin mo'g'ulni chochiy jang bilan band etgandi.

Sulton sipohi jang qilishdan, mo'g'ul lashkari muqotala va muhorabalardan qochishardi. Shu narsa urf ediki, aytishadi. Nazm (mazmuni):

Ey shahriyor, yoshlik etib, molingga ishonib, komronlik qilmagin.
Ey shahriyor, dilimizni g'amga solma, o'z joningga qasdimizni qo'zg'ama.
Chingizxon bu diyorga bizni boshqa ish bilan jo'natgan.
Lashkarpanoh u shohdan Xorazmshoh bilan urushmoq ijozatini olmaganmiz.

Ularning bu gapidan Sulton g'azabga keldi. Lashkarini ularga qarshi tashladi.

Mo'g'ullar taxminicha, Sulton Muhammad Xorazmshoh ular tomon kelardi va ular zarurat tug'ilganda jang qilishi mumkin edi. Nazm (mazmuni):

Mo'g'ul sipohi oz edi, lekin yuz yomon jangchidan bir yaxshi botir afzal.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ular sulton sari dev kabi shunday hujum qildilarki, (lashkari) qalbini suron bilan yorib o'tdilar.

Osmon martabali Sulton o'sha kuni yaralanib, asirga tushay dedi.

Sulton Jaloliddin ibn Sulton Muhammad Xorazmshoh lashkar qalbi to'qnashganini ko'rib, hamla qildi. O'sha kun kechgacha qattiq turib mardona jang qildilar. Nazm (mazmuni):

O'sha kuni u jangda qattiq turdi.
Qo'zg'olganda temir tog'dek og'ir jilardi.

Qorong'i tushgach, mo'g'ul lashkari Chingizxon tarafga ravona bo'ldi. U yerga yetganlaridan keyin, bo'lgan voqealarni arz qildilar. Nazm (mazmuni):

Ul sipoh shoh huzurida Xoramzshoh ahvolining
yaxshi-yomonini so'zlab berdilar.

Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam bu xabarni eshitib, qahr otashi alangalandi. Nazm (mazmuni):

Mamlakat panohi shoh bu so'zni eshitdi va
«Sipoh to'plansin», deb farmon berdi.

Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzamning Sulton Muhammad Xorazmshoh bilan muqobala va muqotala asbobini hozirlagani zikri

Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam harakati yaqinlashganda, ozgina mo'g'ul sipohidan talon-toroj ko'rgan Sulton Muhammad Xorazmshohning dilini xavf-u haros egalladi. U yerdan qaytib, Samarqandga keldi. Munajjimlar deyishdi: «Su'ud vatadlar darajalaridan chiqdi va Oshir soqitdir. Nozir nahslar chandonki, Tole Oshira soyasi zulmlar darajasini o'tkazur. Kirib kelgan dushmanlar qarshisida biror ish boshlash ixtiyorini qila olmagay». Bu so'zlar uning vahm-u hayratining oshuviga sabab bo'ldi. Nazm (mazmuni):

Yomon baxti uyg'ongan kishi ko'ziga rohat uyqusi yarashadimi?
Kimdan boylik yuz o'girgan bo'lsa, ishining ravnaqi yo'lini hech bir topolmaydi.

Sulton Muhammad bu so'zni eshitib, butunlay hayrat daryosiga cho'mdi. Endi unga savob ish yo'li bog'landi: oftobdan oy nuri nasib bo'lmaydi. O'zi qilgan ishlardan pushaymon bo'ldi. Lekin unga hech kim nadomat qilmadi.

Aytishlaricha, o'shanda Sulton Muhammad Xorazmshoh ixtiyorida sanoqsiz askar, ko'pgina lashkar bo'lgan. Muhosiblar uning soni 400 mingdan kam bo'lmaganini aytganlar. Ammo mo'g'ul lashkari yurishidan keyin Qoracha Hojibni o'n ming kishi bilan O'trorga G'oyirxonga madad uchun jo'natdi. Toki u O'trorni muhofazasini uyushtirgay. 30 ming kishini Buxoro mudofaasi uchun tayinladi. 110 ming kishini Samarqandda qoldirdi. Shu jumladan, 60 mingi turklar edi. Ularning sardorlari Sultonning ashrof-u a'yonlaridan bo'lgan xonlar bo'lib, har biri o'z davrining Isfandiyorlaridan

@tarixchi_kutubxonasiga

edi. 50 ming kishi tojik mufridlaridan bo'lib, har biri bir Rustam edi. 40 ming kishiga qal'alar va hisorlar qurishga farmon berdi. Xandaqdan bog' chetiga yetkazdilar. Ertasi kuni Sulton harakat qilib, uning ustidan o'tdi va dediki: «Bizga qasd qilgan lashkar, agar har biri bittadan bu sandiqqa toziyona tashlasa to'lgusidir». Nazm (mazmuni):

Gap-u so'z, shahar, lashkar va jondan bir yo'la qarz oldilar.

Sulton Muhammad Xorazmshoh u yerdan Naxshab yo'liga ravona bo'ldi. Qayerga bormasin xalqqa vasiyat qilardi va der ediki: «Chorangizni ko'ring, najot topish joyini qo'lga kiriting». Bir kishini Xorazmga jo'natib, onasi Turkon xotunga boshqa xotunlar va bolalar bilan jami (135) xazina va zaxira-yu qimmatbaho matolarni, nafis buyumlar hamda javohirlarni olib, Mozandaronga ketishi lozimligini aytdi.

Xabar Turkon xotunga yetgandan keyin atrofdan kelganlardan bolalargacha voqif bo'ldilar. Amirlar va a'yonlarni lashkar bilan Xorazm muhofazasi uchun qoldirdi. Boshqa o'g'illar va uning xonadonidan bo'lgan bolalar va sulton haramidagilarni olib, Mozandaron tomon jo'nadilar. Nazm (mazmuni):

Cheksiz dabdaba bilan Xorazmdan Mozandaron sari yo'naldilar.

Sulton bu voqea tadbiri ne natija bilan muyassar bo'lur, deb arkoni davlatdan kim bilan maslahat qilmasin, har kim o'z aqli andozasicha so'z dedi va maslahat ko'rdi. Qo'riqchilikda tajribali va tadbirda nihoyatda mulohazali va fikrlovchi kishilaridan bir jamoa dediki, «Movarounnahr qissasi uni bu holda saqlab qolish mumkin bo'lgan chegaradan o'tgandir. Endi Xuroson va Iroqning qo'ldan ketmasligi choralarini ko'rmoq zarur. Bugungi kunda har shahar va tarafga jo'natilgan lashkarlarni qaytarmoq lozim. Yoppasiga hujum qilib, Jayhun daryosini qo'lga kiritib, mudofaa bilan mashg'ul bo'lmoq lozim. Mo'g'ul lashkarining daryodan o'tishiga va bu tarafga kelishiga yo'l qo'ymaslikka sa'y qilmoq kerak». Yana bir to'da odamlar Hindiston va G'aznin tomonlarga ketish lozimligini aytishdi. Sulton Muhammad Xorazmshoh shu istakka moyillik bildirdi va ikkinchi taklifni ixtiyor qildi. Yo'lga chiqib, Balxga yetib keldi. Bu vaqtda Sulton Muhammad Xorazmshohning o'g'li Sulton Ruknidin Iroqda edi. Imodulmulk Sovajiyni tuhfa va hadyalar bilan otasi huzuriga jo'natdi. Sulton Muhammad Xorazmshoh huzurida Imodulmulkning firib yo'llari ko'p bo'ldi. Sulton Muhammad Xorazmshoh diliga vatanga mehr hissini soldi. Bu jamoat ko'p tortishuvlardan keyin o'zni undan uzoqroqqa tortishimiz va Iroq tomon ketishimiz lozim, degan qarorga keldi. U yerda lashkar to'playajakmiz va so'ng ishga kirishurmiz, dedilar. Sulton Jaloliddin Sulton Muhammad Xorazmshoh o'g'li bu vaqtda otasi bilan birga edi va otasining ra'yini inkor etdi va dedi: «Agar Sulton Iroqqa ketadigan bo'lsa, lashkarlarini menga

@tarixchi_kutubxonasiga

qoldirsin. Men esa Jayhun daryosi bo'yida turgum. Daryoning u tomonini (mo'g'ullar) egallaydigan bo'lsa, bu tomonga o'tkazmagayman, monelik qilurmen. Eng to'g'ri yo'l shul». Nazm (mazmuni):

Ketib Jayhun tomonga chodir tikaman: dushmanlar (136) joniga qasd qilurman. Bu sipoh bilan u yerga borib yetsam, daryoning u tomoniga g'anim bo'magay. Ammo bizdan senga ziyon-zahmat yetgudek bo'lsa, xalq bizga ta'na gap aytmaydi.

Sulton Muhammad Xorazmshoh chehrasida qalqib turgan xavf shiddati va g'alabasidan o'g'li Sulton Jaloliddin so'ziga iltifot qilmadi. Nazm (mazmuni):

Yosh yigitning keksalardek so'zlarini uquvsiz Sulton eshitmadi. Unga dedi: «Toleim yor bo'lmaganidan biror ishga ham qo'l urmayman!» Uning voyaga yetganini tushunmadi. Bu sustligi unga ham o'tishini bilmadi. Tangri bir kimsani xor qilsa, to'g'ri yo'ldan borishga bo'yni yor bermaydi.

Oqibatda Sulton Muhammad Xorazmshoh Imodulmulk fikrini ma'qul topdi. Iroq tomon azimat qilmoqqa ixtiyor ayladi. Zahardan achchiqroq aysh bilan Balx shahridan chiqib ketdi. U yerdan Panjobga maktub yo'llab, havodisi ahvoldan xabardor bo'lishni topshirdi. O'sha kezlarda banogoh xabar keldiki, Buxoro olinibdi, deb. Sulton darhol o'z saltanati fanosi uchun to'rt bor takbir o'qidi va mamlakat keliniga uch taloq aytib, chodir go'shasiga bog'ladi. Raj'at (qaytish)ni, chunonchi, bunday chog'lamadi. Yuzini zaxga berib yotdi. Uning lashkarining ko'pchiligi turkman jamoasidan, onasining xayl-u xeshlaridan edi. Ularni qa'dalilar, shuningdek, o'roniylar ham deyishgan. Bu bezovtalik asnosida Sulton Muhammad Xorazmshohni o'ldirmoqqa qasd qildilar. Bunga sabab shul erdiki, Xorazmshoh devoni ahlidan bo'lgan Badriddin Amid Sulton Muhammad Xorazmshohdan qo'rqqanidan qochib, Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam panohiga borish uchun unga ixlos-u sadoqat izhori bilan noma yubordi. Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam ham javoban do'stona mavaddatnoma yozib, josus qo'lidan yubordi. Bu maktublar Sulton xizmatchilaridan birining qo'liga tushdi. U bularni Sultonga yetkazdi. Sulton Muhammad Xorazmshoh o'z amirlaridan badgumon bo'lib, buni ba'zi xos kishilarga izhor etdi. Shu bo'ldi-yu, bu voqea ovozasi keng yoyildi. Amirlarning ba'zisi ham bir to'da amirlar va sipohiylar Sulton xobgohi tomon yurdilar. Sulton bundan voqif edi. Xobgohni tashlab, xoli joyda xirgoh tikkan edi. Haligi to'da yarim kechada qo'llariga o'q oldilar. Erta tongda otilgan o'qlardan xirgohni g'arboldek ilma-teshik ko'rdilar. Sulton Muhammad Xorazmshohning sog'-salomat qolgani ma'lum bo'lgandan keyin, haligi jamoa razil xatti-harakatlari tufayli jon vahmida qochib qoldilar va Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam huzuriga jo'nadilar. Sulton (137) Muhammad Xorazmshohning

@tarixchi_kutubxonasiga

qolgan amirlariga ham ishonchi qolmadi. Shu sababli har bir amirini bir shaharga jo'natdi. O'zi vahimada Nishopur tomon yo'naldi. 617-sana turkiy ilon yilida muzaffar safar oyining o'n ikkinchisida, Nishopurga yetib keldi. G'oyat g'amginligidan aysh-u ishratga mashg'ul bo'ldi.

(138) Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam O'ktoyxon va Chig'atoyxonni G'oyirxon ustiga O'tror tomon ravona qildi.

O'ktoyxon va Chig'atoyga tobe hisobsiz lashkar bir-bir o'zlarini daryoga tashlab, suzib suvdan o'tib oldilar. Hazil-huzul bilan O'tror sari yo'naldilar. Manzil-u marhalalar kezib, ul yerga yetdilar. Nazm (mazmuni):

Qal'a oldida shoh baxti payidan bo'lib, arava ustidan saroy tepasiga chiqdi.

G'oyirxon va Qoracha Hojib hisor tepasiga chiqdilar va qal'a muhofazasi bilan mashg'ul bo'ldilar. Inolchuq lashkar en-u bo'yini ko'zdan kechirdi. Nazm (mazmuni):

Oftobdek nur sochib turgan bir oyni ko'rdi.
Behisob lashkar zarralardek uni o'rab olgan edilar.
Qo'rqqanidan jonidan umidini uzdi.
Harosda tol bargidek titrardi.
O'zi ekkan urug' unib chiqib, unga salom berayotgan edi.

Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam Jo'jixon, uyg'ur qabilasi podshohi Idiqutni ulkan lashkar bilan Jand tomonga ravona qildi. Uloq no'yon va Sangtur va Buqoyni besh ming jasur qonxo'r suvoriy bilan Fanokat sari yo'lladi. Nazm (mazmuni):

Ketma-ket har o'lka, har tomonga mavj otliqlari bilan amirlarini jo'natdi.

(2) Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzamning Samarqand tomon yurishi zikri

Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam Samarqand sifati, uning mustahkamligi, maydonining kengligi, xalqining ko'pligi va sipohining bisyorligini eshitgan edi. Nazm (mazmuni):

Sohibqiron josusdan Samarqand va uning mustahkamligi, obodlikda bunga o'xshash makon yer yuzida yo'qligi, o'rdasining asosi charx gumbazidan ham oliyligi vasfini eshitdi. Bu baxtli shaharning zabti o'zgacha edi.

Sanoqsiz lashkarga Movarounnahr mamlakatini bosib olish uchun farmon berdi. Keyin o'sha tomonga qarab harakat boshladi. Nazm (mazmuni):

Ul nohiyaga kelgandan so'ng atrofni dushmandan tozaladi. Samarqandga qarab yurganda Malik qilichini qayradi.

Buxoro va uning atrofi aholisidan katta qo'shin jamladi. Yo'l asnosida ularning bir to'dasini Dahbus va Saripul qal'asining muhosarasi uchun qoldirdi. O'zi katta jadallik bilan yo'lga tushdi. Nazm (mazmuni):

Mo'r-u malaxdek sanoqsiz sipoh nogoh qal'a etagiga yetib keldilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam Samarqand shahri zohirida, Ko'ksaroyda to'xtadi. Bir-ikki kun suralar, poralar va fasllar mutolaasi bilan mashg'ul bo'ldi. Darvozasini tavof qildi. Samarqand qal'asi burj-u borularini ko'zdan kechirdi. Uchinchi kuni, oftob zabonasining mash'ali qirvon kecha tutuni zulmatida yoqilg'anda va qora kecha sipohi kamingoh kunjida undan panoh topganda Imtiyozxon, Shayxxon, Dehloxon va sardorlarday Olatxon va boshqalar sanoqsiz lashkar bilan jasorat ko'rsatib, hisordan chiqib ot soldilar va ajib jang boshladilar. Nazm (mazmuni):

O'z ishining mardlari Samarqand dashtidagi jangda jasorat ko'rsatdilar.

Sulton Muhammad Xorazmshoh lashkari shu kuni nihoyatda zo'r jasorat ko'rsatdilar. Har ikki tomondan juda ko'p xalq qatl etildi. O'sha kuni bir to'da mo'g'ulni asir qildilar va shaharga olib kirib ketdilar. Nazm (mazmuni):

Gohida yonib, goh o'chadigan chiroq singari alamlar gurillab ko'tarilardi.

Keyingi kuni Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam mo'g'ul lashkariga darvoza yaqinidagi xandaq sari hujum qilishni buyurdi, toki suvoriylarning ichkaridan chiqishlariga (147) yo'l bermagaylar. Shu kuni kechgacha Hisor tepasidan turib jang-u jadal bilan mashg'ul bo'ldilar va qato', manjaniq, kamon, toshlardan o'qqa tutdilar. Ularning jasorati va dilovarliklari sindi. Dillarini xavf-u haros egalladi. Shahar xalqi ikki guruhga bo'lindi. Ularning bir guruhi shahardan tashqari chiqib, [Chingizxon] qahridan omon tilamoqni afzal bildilar; boshqa bir jamoa jang-u jadal haroratini ixtiyor qildi. Nazm (mazmuni):

Oftobi tobondek nur jo'shadi, osmon zog'ining qoraligi barham topdi.

Mo'g'ul sipohi xira va botir, shahar aholisi muztar ra'y va tadbirsiz jang qilardilar. Samarqand qozisi va shayx ul-islomi dastorbandlar bilan tashqari chiqib, Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam huzuriga shoshildilar, undan inoyat va istimolat ziyosini topdilar. O'sha kuni uning ijozati bilan shaharga kirdilar. Namoz vaqtida Namozgoh darvozasi ochildi va mo'g'ul lashkari ichkari kirdilar. Shu kuni va kechasi shaharni xarob qilib, barcha xaloyiqni – er-u ayolni, qozi hamda shayx ul-islomga tobe kishilardan boshqa barchani shahardan sahroga haydab chiqardilar. Odatlari g'orat bo'lgan lashkar shaharni g'orat va talash bilan mashg'ul bo'ldilar. Burchak va mag'oratlardan kimni topsalar qatl etdilar. Ul ikki din arbobi sharofati tufayli ellik ming nafardan ortiq kishi salomat qoldilar. Nazm (mazmuni):

Kim saodat arbobi soyasidan joy olsa,
Falak unga sitami bilan ozor bera olmaydi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Qorong'i tushganda mo'g'ul lashkari shahardan chiqdi. Qal'a ahli haros-u vahmda, shikasta dil, na boshini ko'taradi, na yerga qaraydi. Ertasi tong otishi bilan Olatjon – Sulton Muhammad Xorazmshoh sardorlaridan biri jasorat ko'rguzib, jonidan umid uzib, ming yigiti bilan mo'g'ul lashkari miyonasiga zarba berib, badar ketdi. Sultonga borib qo'shildi. Keyingi kuni mo'g'ul lashkari Samarqand hisoriga qarab yo'naldi. Devori, borularini vayron qilib, salovatlar oralig'ida darvozani qo'lga kiritdilar. Shaharga kirdilar, e'tiborli peshvolari Barsumosxon, To'g'oyxon, Ilojxon bo'lgan qang'li ulusi turklarini, «Jahongushoy»da aytilganidek, 20 mingdan ortiq Sulton Muhammad Xorazmshoh sardorlaridan bo'lgan amirni u yerda turgan barcha lashkari bilan qatl etdilar. Samarqand ahlidan o'ttiz ming erkakni oldin ajratib olib, o'z farzandlari va qarindoshlariga bo'lib berdi. Qolgan odamlarning yordam olganlaridan ikki yuz ming dinor omonlik puli oldilar. Bu voqea 617 (1220)da, yilon yili [voqe' bo'ldi].

ABDURAZZOQ SAMARQANDIY VA UNING «MATLA'I SA'DAYN VA MAJMA'I BAHRAYN» ASARI HAQIDA

Abdurazzoq Samarqandiy hijriy 12-sha'bon 816-(1413-y., 7-noyabr) yili shu vaqtlarda Temuriylar davlatining markaziy shaharlaridan biri bo'lgan Hirotda tug'ildi va 887-yil jumod ul-avval oyida (1482-y., iyul-avgust) shu shaharda vafot topdi.

Uning to'liq ismi **Kamoliddin Abdurazzoq**, otasining ismi Jaloliddin Is'hoq Samarqandiydir. Abdurazzoq Hirotda tug'ilganligiga qaramay, «Samarqandiy» degan nisba bilan shuhrat topganligiga sabab, otasi Jaloliddin Is'hoqning asli samarqandlik bo'lganligi va yana bo'lajak tarixnavisning o'zi ham bir necha vaqtlar Samarqandda yashab turganligidir.

Abdurazzoq Samarqandiy madrasa ta'limini Hirotning o'zida olgan. Temuriylar saroyida qozilik va imomlik lavozimida bo'lgan otasi, o'z davrining taniqli ziyolilaridan bo'lgan akalari ko'magida Abdurazzoq tafsir, hadis, fiqh ilmlari hamda tarix va til-adabiyot fanlari bo'yicha chuqur ma'lumot egasi bo'lib yetishgan. Atoqli adib Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» asarida Abdurazzoq Samarqandiyning mazkur ilmlari bo'yicha yaxshi bilimli ekanligini quyidagi so'zlari bilan tasdiqlaydi: «Mavlono Abdurazzoq... xushmuhovara kishi erdi..., zohir ulumin takmil qilib erdi va fazliyoti ham yaxshi erdi...»

Otasi Jaloliddin Is'hoqning saroyda tutgan mavqeiga ko'ra taxmin qilish mumkinki, Abdurazzoq Samarqandiy davlat ishlari bilan ham yaqindan tanish bo'lgan va bu hol uning yaxshi tahsil ko'rganligiga qo'shimcha tarzda,

@tarixchi_kutubxonasiga

otasi vafot etganidan so'ng, 841 (1437 – 1438)-yili, 24 yoshida Temuriylar saroyiga xizmatga olinishiga sabab bo'lgan. Shundan so'ng u 50 yoshiga qadar 26 yil davomida avval Shohrux, uning vafoti (1447-y.)dan keyin Hirot taxtini egallagan boshqa bir necha temuriy hukmdorlar saroyida xizmat qilgan. 1442 – 1444-yillarda Abdurazzoq Shohrux tarafidan Hindistonga yuborilgan elchilarga boshchilik qilgan.

Abdurazzoq Samarqandiyning bizgacha yetib kelgan yirik asari ikki jilddan iborat fors tilida yozilgan «Matla'i sa'dayn va majma'i bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo'shilish joyi») nomli tarixiy kitobdir. Mazkur asar 1467 – 1470-yillarda yozilgan va uning ikkala jildida 1304-yildan to 1470-yilgacha (asosan Amir Temur va Temuriylar davri) Markaziy Osiyo va unga yaqin-uzoq bir qator o'lkalardagi tarixiy voqealar solnoma tarzida yilma-yil bayon qilinadi. Muallif siyosiy voqealar bilan bir qatorda, Temuriy hukmdor va malikalarning mamlakat iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayotidagi bunyodkorlik faoliyati haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Masalan, Marv shahrining Shohrux tomonidan obod etilishi, Ulug'bekning Samarqandda rasadxona qurishi kabi voqealar tafsilotini biz ushbu asardan bilib olamiz.

«Matla'i sa'dayn»dagi Temuriylar davlatining Xitoy, Hindiston, Misr kabi mamlakatlar bilan diplomatik aloqalari haqida xabarlar, hukmdorlar yozishmalari, Abdurazzoqning o'zining yoki boshqa elchilik vazifasini bajargan kishilarning safar kundaliklari asosida yozilgan. Quyida keltirilgan parchalar «Matla'i sa'dayn»ning 1933-yilda professor Muhammad Shafe' tomonidan amalga oshirilgan tanqidiy matni nashridan tarjima qilindi.

A. O'rinboyev

ABDURAZZOQ SAMARQANDIYNING «MATLA'I SA'DAYN VA MAJMA'I BAHRAYN» ASARIDAN LAVHALAR

(3) **Sakkiz yuz o'n ikkinchi (1409 – 1410) yil voqealari**

(145) **Movarounnahr va Turkiston mamlakatini saltanat va baxt osmonining oyi Mirzo Ulug'bek Ko'ragonga inoyat qilinganligi zikri**

Hazrat Xoqoni Said[1] Movarounnahr va Turkiston mamlakati viloyatini saodatli farzand, ruh rohati-yu dil quvvati, ko'z nuri-yu din ko'makchisi Mirzo Ulug'bek Ko'ragonga bag'ishladi.

Bu baxtli farzand adolat usullarini ado etish va siyosat hukmlarini yurgizish bobida hech bir qo'zg'otish-u qiziqtirish, tushuntirish-u rag'bat-

[1] *Xoqoni Said («baxtli xoqon»)* – Temuriy hukmdor Shohrux Mirzoning (1405 – 1447) laqabi.

@tarixchi_kutubxonasiga

lantirishlarga muhtoj bo'lmasa ham, Onhazrat otalik shafqati yuzasidan podshohona iltifot bilan nasihat so'zladi: «Haq taolo bu buyuk in'om va ulug' marhamatni bizg'a ato qildi; yarog'-aslahamizning ojizligi va holatimizning nuqsonliligiga qaramay bizni tanlash nazari bilan taqdirlab, farmonimizni olam mamlakatlari uzra joriy qildi; – bu Allohning fazli bo'lib, – uni O'zi xohlagan kishilarga ato etur»[1]. Endi davlat va podshohlik qadrini bilib, ilohiy ne'mat shukrini bajo keltirgin hamda insof va adolat eshiklarini hojatmandlar yuziga ochiq tutgin.

Alloh o'z salomini yo'llagur payg'ambar avlodlari bo'lmish ulamolarni ehtirom ko'zi tagiga olib, in'om nazari bilan mamnun tutgin, diniy mojarolar bo'yicha [ish ko'rganda] ularning fatvosini chetlab o'tmagin, «Hidoya»ning muallifi deb mashhur bo'lgan millat-u dinning dalili shayx ul-islom Abduljalil al-Marg'inoniyning atoqli va oliy maqom xonadoniga nisbatan izzat-ehtiromda bo'lib, u kishining avlod-ajdodlaridan tortib islom mashoyixlari va zamona yo'lboshchilari bo'lib kelayotgan farzandlarini hammadan yuqori qo'yib, barcha hollarda ularning sha'n-shavkati mulohazasiga rioya qilgin, (147) qozilar qo'lini shariat hukmlari ijrosida baquvvat tutgin, olam obodonligining sababi va odamzod rizqining vositasi bo'lmish dehqonlarni zulm-u adolatsizlikdan himoya qilib, adl-u insof bilan [o'zingga] yaqin qilgin, davlat chegaralarining nigohbonlari va mamlakat ichkarisining qo'riqchilari bo'lgan lashkarlar toifasini ochiq yuzlik va xushmuomalalik bilan o'zingga mute va itoatkor qilib, ularning yollanma haqlari va maoshlarini belgilangan vaqtda to'la yetkazib turgin, jonsiporlik shartlarini bajarishda tegishlicha jidd-u jahd ko'rsatganlarga in'omni oshirgin va ba'zi tashlab qochuvchilar yo'lini tutganlarga saza berib jazolagin; xullas, barcha hollarda «ishning yaxshisi [miyonasidir]» [degan hadis]ga amal qilib, haddan ortiq yoki keragidan oz chora ko'rishdan ehtiyot bo'lgin, chegaralarga ish ko'rgan va tiriklikning achchiq-chuchugini tatigan kishilarni tayin qilib, u yerlar qal'alarining mustahkamligi borasida zaruriy choralarni ko'rgin».

Hazrat Xoqoni Said saodatmand farzandning saltanat asboblarini muhayyo qilib, [uning yoniga] shijoatli, dovyurak amirlar va farosatli vazirlarni tayinladi hamda u viloyatning hal qilish va man etish jilovi-yu yig'ib olish va tarqatish ixtiyorini adolatlikda peshqadam bo'lgan olijanob ulug' amir – amir G'iyosiddin Shohmalikning to'g'ri ra'yi va ziyrak fikriga topshirdi, u o'zining o'tkir bilimicha nimani munosib ko'rsa, [shu bilan] mamlakat ishlarini tartibga solishga kirishsin, deb (148) uning donoligi va sof bilimiga e'timod qo'ydi.

[1] Qur'oni karim, 57-sura («Hadid» surasi), 21-oyatdan.

@tarixchi_kutubxonasiga

(158) **Marv shahrining obodon qilinganligi zikri**

Hazrat Xoqoni Said o'n beshinchi zulqa'dada (1410-y., 21-mart) qutli tole va humoyun yulduz yorligida otlanib, ko'ngil ochar yaylovlari bahor faslida go'zal yor yuzidan ham chiroyliroq va dildor va'dasidan ham yoqimliroq bo'lgan Bodg'is tomon yo'l oldi. Saltanat qoidalari obodonchilik [ishlari] bilangina mustahkamlana oladigan va xalifalik yerlari ziroat bilangina nash'-u namo topa oladigan bo'lganligi tufayli, hazrat [Xoqoni Said]ning nurli xotiri davr o'tishi bilan yemirilgan va vayron holda yotgan Marv shahrini yana [qadimgi] obod holiga keltirishni zarur deb topdi hamda Xuroson shaharlarining mashhurlaridan biri va baxtiyor sultonlarining taxtgohi bo'lib kelgan, ammo zamona, ham kecha-kunduz hodisalarining g'olibona ta'siridan yemirilib, imoratlaridan nishona-yu shakllardan bo'lak hech narsa qolmagan bu joyni tuzatishga buyurdi.

Chingizxonning o'g'li To'lixon uni vayron qilishga buyurgani olti yuz o'n sakkizinchi (1221 – 1222) yildan to yangitdan tuzatilgani bu (812/1409 – 1410) yilgacha bir yuz to'qson to'rt yil o'tgan edi.

Alqissa, Onhazrat: «Xurosonning barcha yerlaridagi turk-u tojik, yaqin-u yiroq [kishi]lar bu muhim ishni bajarishga yuzlansinlar hamda, birinchi galda, inson tirikligi unga tobe, balki barcha narsalarning yaratilishi u bilan bog'liq bo'lgan suvni joriy qilsinlar», – deb buyurdi hamda Marvning suvi Murg'ob daryosidan keladigan bo'lganligi va bu daryoga qurilgan to'g'onni suv olib ketib, [undan chiqarilgan] ariq to'lib qolganligi uchun qaytadan ariq qazilsin va to'g'on bog'lansin, degan humoyun farmon sodir bo'ldi. Bu katta ishga [rahbarlikka] ulug' amirlardan: Alouddin Alika (159) Ko'kaltosh va Amir Muso, devon ahllaridan esa Amir Ali Shaqoniylar tayinlandi. Faraz qilib ko'rganda, podshoh o'z mulozim-u sipohlari bilan bir yilda ham bajara olmaydigan bir ish andak muddat-u kichik bir fursatda oxiriga yetkazildi.

Xuddi oshiqlar dilidek xarob va hunarmandlar kasbidek kasod bo'lib yotgan yerlar go'zallar ruxsori-yu lolaro'lar chehrasidek tarovat-u safo va ravnaq-u baho topdi. Quyonlar maskani va tulkilar makoni bo'lib yotgan [shahar]ning atrof yerlari mevali daraxtlar o'sadigan va xushovoz qushlar qo'nadigan joyga aylandi.

Birinchi yili bu yerda besh yuz juft ho'kiz ziroat bilan mashg'ul bo'ldi, xaloyiq bu yerga ko'chib kelib vatan qilishga mayl ko'rgazdi.

Ariqning uzunligi to'g'on boshidan toki hazrat [Muhammad] rasulullohning, – Alloh uni va oila a'zolarini rahmat qilsin, – bayroqdorlari bo'lmish Burayda va Hakamlar maqbarasi o'rnashgan Darvozayi a'lamdorgacha o'n ikki farsang, kengligi boshlanish joylarida yigirma gaz [bo'lib, quyi oqimlarida] o'n besh gazgacha, chuqurligi esa besh gazdan kam emas edi. Shahar

@tarixchi_kutubxonasiga

ichida masjidlar, bozorlar, hammomlar, uylar, xonaqohlar, madrasalar va boshqa xayrli imoratlar qurdilar.

To'xtab qolgan suv Marv arig'iga qaytadan kelganidan va shaharni tuzatish va tiklash ishlari tugatilganidan keyin [mazkur] amirlar a'lo taxt poyasiga (160) qaytib keldilar.

Xoqoni Said hazratlari to Murg'ob suvigacha borib, havo issiqligi tufayli Kiytu yayloqi tomon qaytib keldi va bu dilkusho fazoda iydi qurbon rasm-rusumlarini bajo keltirib, dorussaltana Hirotga qarab jo'nadi.

(174) **Sakkiz yuz o'n uchinchi (1410–1411) yil voqealari**

(185) **Hazrat Xoqoni Saidning shu yili qurib tamomlangan madrasasi va xonaqohining zikri.** Humoyunfol mavkab Movarounnahrdan qaytib kelgan ana shu (813/1410) yili dorussaltana Hirot g'oyatda ma'mur va obod edi. Xoqoni Said hazratlari bunyod qilishga buyurgan madrasa va xonaqoh qurib tamomlandi va bu yerning tarovat-u latofatidan u shahar to'la-tekis go'zallik kasb etdi. Shu o'rinda xushxirom qalam saxiyligi raqam dastyorligida dorussaltana Hirotning sifati tomon bir necha qadam qo'ygusidir.

Dorussaltana Hirotning sifati: dorussaltana Hirot Eram bo'stonidan ham dilkushoroq bir shahar va olam gulistonlaridan ham rohatbaxshroq bir manzildir. U bir nusxaki, oy yuzlilar kokilidek dillarga matlub; shunday bir manzilki, kumush tanlilar chehrasidek kishiga quvonch bag'ishlaydi; uning shabadasi nafaslaridan Iso damining xosiyatlari ayon: Xizr suvining hayoti-yu jonparvar bodaning quvonchi uning havosi sifatlari oldida gangib qolgan; jonga rohat baxsh etuvchi havosi (186) nafislik va mo'tadillikda bahor nasimiga manba: totli suvlar bo'yida joylashgan zarnigor qasrlari [oyatdagi] – ostilaridan anhorlar oqib turuvchi bog'lar bordir[1], – (madhi) ga monand; dil istagi bo'lgan imoratlarining na'tini ustunlar bilan ko'rk berilgan Eram, mislsiz tarabxonalarining sifatini esa, – [boshqa] yurtlarda uning o'xshashi yaratilmagan[2], – [degan oyatlar] aks ettiradi. Uning aziz yuzi firoqida kuyishdan Misrning[3] jomasi nil rangiga bo'yalgan va uning zilol suvi rashkidan Nil [daryosi] chirog'iga tosh tekkan. Bayt:

Heriy anhorining obro'si oldida Misr jamoliga tortilgan Nilning ravnaq-u bahosi yo'qdir.

Uning suvi Kavsar [chashmasi] ko'ziga tuproq sochgan-u [obi] hayvon[4] chashmasini hayrat zulmatiga joylab qo'ygan.

To'rtinchi iqlim mamlakatlaridan eng shuhratlisi deb hisoblasa bo'ladigan Xuroson mamlakati shaharlari ichida dorussaltana Hirot qariyb markazda

[1] Qur'oni karim, 2-sura («Baqara» surasi), 23-oyatdan.
[2] Qur'oni karim, 89-sura («Fajr» surasi), 6-, 7-oyatlardan.
[3] Qohira shahri nazarda tutilgan.
[4] *Obi hayvon* – hayot suvi.

@tarixchi_kutubxonasiga

joylashgan; chunki har iqlimning uzunligini boshlangich [joy] bo'lgan Jazoiri Xolidotdan bir yuz sakson daraja va kenglikni xatti istivodan[1] to'qson daraja deb qabul qilganlar. Ana shu to'qson darajadan oltmish olti darajasi ma'mur joylardir, qolgan ikki tarafida issiq va sovuqlikning o'ta zo'rligi tufayli inson bolasi yashab turolmaydi; Hirotning uzunligi to'qson to'rt daraja va bir kasr, kengligi esa o'ttiz to'rt daraja va bir kasrdir. Bu yozilgandan ravshan bo'ldiki, dorussaltana Hirot olamning ma'mur markaziga nisbatan shaharlarning eng yaqinidir: markazga yaqinroq bo'lgani mo'tadillikka yaqindir va bunday yerda [kishilar] g'oyatda fazl-u kamolga erishadilar.

Hazrat Xoqoni Said bu shahami saltanat taxti qarorgohi va xalifalik doirasining markazi qilib olgan vaqtda uning buyrug'i bilan qadim vaqtlardan beri usti to'la yopilmay qolib, bozor ahli gard-u g'ubor ham yog'in [suvlar] yig'ilishidan ko'p zahmat tortib kelayotgan shahar bozorlarini buzib tashladilar va (187) yangitdan ganch va pishiq g'ishtdan bozorlar ko'tardilar va oliy toqlar qurib ustini yopdilar; ba'zi-ba'zi joylarini yorug'liq tushsin uchun ochiq qoldirib, qolgan joylarini berkitdilar. Bozorlarning har biri jahon ko'ziga bir nigor-u zamona chamanida bir bahordek bo'lib yuz ko'rsatdi, Chorsuning o'rnashishi to'rt tarafi barobar, to'rtburchak shaklida bo'lib, mavzelarning sarasi bo'lmish [Hirot shahari] doirasining markazida voqe'dir; to'rt darvozadan to'rtta bozor, u Chorsu tomon cho'zilgan.

Madrasa va maorifpanoh xonaqohning joylashishi: Shahar shimolidagi qal'aning janub etagida bir-biriga ulangan oliy madrasa va ulug' bir xonaqoh [qurilib], bu joyning o'rtasida katta bir saroy sahni, sufa, baland bir toq [barpo qilindi] va ikki tarafidan ajoyib tarzda tiklangan ikkita baland minora qad ko'tardi; tillo va lojuvardlarning yaraqlashidan u mavzuning darvoza-yu devorlari tomon quvonch tarqatuvchi nurlar porladi. Ziyrak fikr muhandislar va nozik ishlar qiluvchi tezkor binokorlar zo'r san'at va kamoli diqqat ko'rsatib, uning burchaklarini ulash qoidalarini mustahkamlikning eng oliy pog'onalariga va pishiqlikning eng yuqori darajalariga yetkazib tikladilar.

Shu yili, ya'ni [sakkiz yuz] o'n uchinchi (1410–1411) yili, bu ikki mo'jizali muassasa qurib bitkazilish sharafiga va kamol chegarasiga yetdi va [shundan beri] yer yuzida, ya'ni Rum sarhadidan toki Chinning eng yiroq yerlarigacha hech bir yerda dars [o'qish] va fatvo [o'rganish] uchun bu ikki imorat latofatiga ega bo'lgan biror mavze va uning tarovatiga o'xshash biror mavqeni ko'rsata olmaydilar. [Dinning] asoslari va shoxobchalarini tushuntiruvchi fanlarga oid hamda aql bilan yetiladigan va qonuniy [masalalarni] o'z ichiga olgan kitoblarning asllarini sandiqlarga solib taxt-u muhayyo qilingan, atoqli ulamolarning har biri bir guruh kishilarga dars berishga va xos-u omga tushuntirishlar o'tkazishga tayinlab qo'yilgan (188) va ularning

[1] *Xatti istivo* – ekvator.

@tarixchi_kutubxonasiga

taqvosi chashmasi-yu javob-fatvolari bilan din chamani sersuv va gullab-yashnagan, ziyrak talabalar va tahsil ahli [oyatdagi], – kishilar bordirki, ularni na tijorat va na savdo [ishlari] Allohning zikridan chalg'ita olmasdi»[1], – [degan so'zlar mazmuni]ga moyil. Bayt:

Barchasining dili subhi sodiqdek pok, [chunki ular] tunning ozgina [qismida] uxlar edilar[2].

Toki sen o'zingni ilm yo'liga butunlay bag'ishlamaguningcha Ilm senga hech narsa bermaydi, – [degan hadis]ning naqshi, – biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'lurmi[3]?! – [degan oyat] qalami bilan sof rag'bat sahifasiga chizilgan, islom podshohining in'omi fazilatlaridan barcha kerakli narsalar va dars ham takror uchun [to'lanadigan] nafaqalar singari yashash vositalari muhayyo qilingan.

Ummatlardan yetishgan ulamolarning bilimdonlari va imomlardan yetishgan fozillarning ulug'lari orasida har birining xatti-harakat turlari payg'ambarlar sayyidi [Muhammadning] mustahkam dini korxonasiga mador bo'lgan, bilimlari oftobidan Mushtariy [sayyorasi] saodat yorug'ligini qarz oluvchi, ziyraklikdagi mahoratlaridan esa Utorud [sayyorasi] ilmlar sirlarini [ochishni] iltimos qiluvchi to'rt kishini oliy madrasaga mudarrislikka tayin qildilar. Ulardan biri – janob mavloyi a'zam, ummatlar bilimdonlarining rahbari Mavlono Jaloliddin Yusuf Uvbahiy, ikkinchisi – janob oliy, olimlar-u aholi murojaat qiladigan Mavlono Jaloliddin Yusuf Halloj, uchinchisi – mavlonoyi a'zam, kamolot egalarining eng ulug'i Mavlono Nizomuddin Abdurrahim Er Ahmad va to'rtinchisi – mavlono imom, insoniyat olimlarining afzali Nasiruddin Lutfulloh ibn Xoja Azizullohlar edi.

Bularni [vazifaga] o'tirg'izishi kuni (189) Xoqoni Said hazratlari u muborak yerga tashrif buyurdi va zamona ulug'lari hamda odamzod faxrlanuvchi kishilar hozir bo'ldilar. Mazkur bilimdon olimlar fiqh, tafsir kabi islom ilmlari bo'yicha dilga yoqimli ifodalar bilan dars berishga mashg'ul bo'ldilar va bayon qilish maydonida ilg'orlik to'pini bilim chovgoni bilan barchadan ilgari surdilar. Maorifpanoh xonaqohga shayxlik mansabi janob shayx ul-islomi a'zam, olam mashoyixlarining rahbari Xoja Alouddin Ali Chishtiyga topshirildi. U xonadon mashoyixlari ulug'ligining ta'rifi sharh-u bayonga muhtoj emas. Misra:

Tog' ustida yoqilgan o'tdan ham ravshanroq.

Shuningdek, xonaqohga imom, muazzin, voiz va boshqa xizmatchilardan iborat har xil ishlarni boshqaruvchilar va yumushlarni bajaruvchilar tayinlandi, bu ikki muassasaning o'ziga munosib vaqflari esa ishtirokchilik-sheriklik yo'li bilan muqarrar bo'ldi.

[1] Qur'oni karim, 24-sura («Nur» surasi), 37-oyatdan.
[2] Qur'oni karim, 51-sura («Zoriyot» surasi), 17-oyatdan.
[3] Qur'oni karim, 39-sura («Zumar» surasi), 9-oyatdan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Bu yili, ya'ni [sakkiz yuz] yetmish to'rtinchi (1469 – 1470) yili bu ikki joy g'oyatda xotirjamlik va mo'lchilik holatidadir, shayxlik mansabi fuqarolar xodimi, bu varaqlarning to'plovchisi Abdurazzoq ibn Is'hoqqa topshirib qo'yilgan. Misra: *Har kimning navbati besh kundir.*

Alqissa, Islom qubbasi bo'lmish Hirot Xoqoni Said hazratlariga taxtgoh bo'lmish sharofati tufayli sultonlar ustunlari jamlangan, yer yuzi podshohlarining xurshidi tulu' qiladigan yerga hamda fozillar-u avliyolar ka'basi, aziz-u olimlar qiblasi, so'filar qutblari-yu din arboblarining maskani va darvishlar-u xudojo'ylarning boshpanasiga aylandi. Qit'a:

Juma kuni uning [namozxonlar] to'planadigan jome [masjidi] jamoatning [ko'pligidan] haji akbar kunidagi Ka'ba bilan raqobat qiladi.

Undagi fozil kishilarning barchasi turli-tuman ilmlardan to'la xabardor bo'lib, har biri o'z davri nodirlarining nodiri edi.

Hirot shahri shu daraja rivoj-u ravnaq topdiki, uning bog'larining latofati Bag'dod ruxsoridan Dajla yoshini ravon qildi va mevalarining sersuvligi Samarqandni (190) unutilish toqining bir burchagiga irg'itdi. Misra:

Bu hammasi ulug' sulton Shohruxning davlati tufayli edi.

Dorussaltana Hirotning qurilishi, uning buluklarining ahvoli va viloyatlarining holati tavsifini ikki tillik qalam sharh-u bayoni bilan to'la ifodalab tahrir qilgan. Uni mutolaa qilishga kimning mayli bo'lsa. Unga aytginki, bu haqda yozilgan alohida risolani o'z shafoatli nazariga musharraf qilsin. Misra: *Unga kimning mayli bo'lsa nazar tashlasin.*

Bog'i Safidning barpo etilganligi va ko'shk qurilganligi zikri. Dono muhandislar va mohir binokorlar Xoqoni Said hazratlarining buyrug'i bilan Hirotning shimoli-sharqida, umid maydonidek keng yer-u falak cho'qqisidek baland tepalikda, ilgariroq Bog'i Safid deb nomlanib kelgan mavzeda zulqa'da oyining yigirma to'rtinchisida (1411-y., 20-mart,) juma kuni baxtli tole va saodatli soatda bir imoratga asos soldilar va jannat bog'ining eshiklarini jahon ahliga qarata ochdilar. Ular eng ma'qul bir suratda tarh chizib, avval o'ylab olib, so'ng ish boshlash kerak [maqolini] aql ko'zi bilan ko'rdilar.

U shunday bir poydevorki, jahon barpo bo'lib, olam yaratilgandan beri biror kishi unga o'xshashini ko'rsata olgan emas; u shunday bir bog'ki, uning nasimining muattar isi mushk-u anbar hidini jon dimog'iga yo'llaydi; u shunday bir ko'shkki, o'z martabasi balandligini falakdan o'tkazadi va ko'tarilish avjini to Mushtariy tepasigacha yetkazadi. Qit'a:

(191) Chaman jozibadorlikda xuddi do'st diydorideg-u,
Undagi saroy ko'rkamlikda xuddi yor chehrasidekdir.
Birini osmondagi Sa'd [yulduzi] ma'mur qilgan-u
Ikkinchisiga qutli baxt me'morlik qilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Uning muqarnas ayvonining to'rt toqi Kayvon [Saturn]ning qubbasimon toqiga yetkazib qurilgan, baland qasrining kungirasi esa Yupiter [sayyorasi]ning kamaridan [yuqori] o'tkazilgan, devorining izorasi yashm toshidan ishlanib, ustiga bo'rttirib ishlangan rasmlar chizib, naqshlangan. Kimki, u [bog'] sayliga erishgan yoki u shodlik saroyiga yetishgan bo'lsa, u oliy jannatning ruhparvar oromini his qilgan bo'ladi. Bayt:

Uning ariqlarida gulob oqib turibdi deysan.
Uning hidiga yo'lovchi ham shodmon bo'ladi.

Epchil qo'lli naqqoshlar har bir xonaga [o'z hunarlaridan] bir nusxa yasaganlar va har bir boloxonaga xuddi Chin suratxonasidek bir manzarani ishlaganlar.

Shunday oliy bir imorat va gardun sahnidek ulkan bir poydevor Onhazratning davlati ulug'vor himmati barakati bilan andak muddatda tamomlandi. Misra: *G'oyat latofatli va ko'rkam qilib qurildi.*

(216) **Sakkiz yuz o'n beshinchi (1412–1413) yil voqealari va o'n to'rtinchi (1411–1412) yil voqealarining davomi**

(218) **Xitoy podshohi elchilarining kelganligi**

Shu orada Xitoy viloyatidan, u mamlakatlarning Chin-u Mochin va boshqa yerlari podshohi Doy-Ming xon tarafidan elchilar yetib keldi[1]. [Xoqoni Said tomonidan]: «Shahar va bozorlarga ziynat berilsin, har bir san'at egasi o'z hunarini zohir qilib do'konini bezatsin», – degan humoyun farmon sodir bo'ldi.

Amirlar istiqbol rasmi bo'yicha [shahardan] tashqari chiqib, elchilarning hammasini izzat-hurmat bilan shaharga olib kirdilar. [Bu] xuddi yoshlik chog'idek shodlikni orttiruvchi bir zamon va visol kechasidek g'amni tarqatuvchi bir on edi. Hazrat Xoqoni Saidning farmoni bo'yicha Bog'i Zog'onga[2] xuddi jannat bog'idek oro berib, Bahrom savlat sher haybat yasovullar har kimning [o'ziga xos] joy va makon tayin qildilar. Hazrat Xoqoni Said xuddi balandlik avjidagi oftob singari xurshid chehra bilan saltanat taxtiga ko'tarildi. Ulug' amirlar elchilarni qo'l o'pish sharafiga yetkazib, tortiqlarni qo'ydilar va ularning so'zlarini arz qildilar. Xitoy podshohining maktubi quyidagi mazmunda edi.

Xitoy podshohi maktubining surati: «Doy-Ming, podshohi muazzam, Samarqand diyoriga Shohrux Bahodir uchun noma yubormoqda! Biz fikr qilamizki, Xudovandi taolo yer bilan osmon o'rtasidagi jami xaloyiqni ularning har biri rohat va farog'atda yashasin deb yaratgan. Biz Xudoyi taoloning

[1] Xitoy elchilari kelishi 815 (1412–1413)-yil voqealari bayonida keltirilgan.
[2] *Bog'i Zog'on* – Hirot shahridagi mashhur bog'.

@tarixchi_kutubxonasiga

madadkorligida ilohiy hukmga bo'ysunib, jahondorlik qilib kelmoqdamiz. Shu sababli biz yaqin-u yiroq orasida farq qilmaymiz, hammani bir tekis, barobar bilamiz. Bundan ilgari eshitgan edikki, sen oqil va kamolotga yetgan kishisan va boshqalardan ulug'roqsan, Xudovandi taoloning amriga itoat qilib kelmoqdasan, raiyat va askarlarni parvarish qilib, ularning hammasiga ehson-u yaxshiliklar ko'rsatibsan; shu sababli biz behad shod bo'ldik.

(220) Alalxusus, kimxob va tarqu[1] kiyimlarni yetkazsin uchun, elchi yubordik; elchi u yerga yetib borgach, sen bizning so'zlarimizga hurmat bilan qarab, marhamatimizni yaxshi yuzaga chiqaribsan, katta-kichik hamma shodmon bo'libdilar va sen ham darhol elchi yuboribsan; elchilar sening salomingni, otlar ham u diyor matolaridan iborat tuhfalaringni yetkazdilar. Sening do'stlik yo'lida ekanligingni ko'rdim; sen maqtov va navozishga sazovor ekansan. Ilgariroq mo'g'ullar davri oxiriga yetgan edi. Sening otang Temur fumo[2] Xudovandi taoloning amriga itoat qilib, bizning ulug' podshohimiz Toy-Zuyga nisbatan yaxshi do'st bo'lib, elchilar va tuhfalarni qat' qilmagan. Shu sababli [Toy-Zuy] u diyorning [Xitoydagi] odamlariga omon berib, hammasini davlatmandlikka yetkazgan. Biz ham ko'rdikki, sen otangning himmat va ravishiga yaxshi mutobiat qilibsan. Endi Su-Jo'ning Kasoy va hazorasi[3] odamlaridan Du-Ji-Hun-Boyni va Sun-Kun-Ji sadasi[dan][4] Dong-Chingni bir guruh kishilar bilan qo'shib, sadoqat zohir bo'lsin uchun tabriknoma, kimxob kiyim va tarqular bilan yubordik. Bundan keyin ham odamlarni yuboramiz, toki ular bordi-keldi qilsinlar va yo'llar kesilib qolmasin; ular o'z istaklarigacha tijorat va kasb qilsinlar.

Xalil Sulton sening birodarzodang, o'z tug'ishganlik haqqingni bajo keltirmog'ing uchun sen uni yaxshi tarbiyat qilishing kerak. Sen bizning sadoqat-u ra'yimizga hamkorlik qilishing lozim. Bildirib qo'ymoqchi bo'lganimiz ana shu».

Bu maktubga qo'shib yana bir maktubni yuborgan edilar, unda jo'natilgan sovg'a-tuhfalar mufassal tarzda bitilgan edi. (221) Yana bir [maktub] yo'l xati qabilida bo'lib, u elchilar uchun edi. Uch maktubning har biri fors xati bilan turkiy tilda yozilgan, yana o'sha maktubda o'sha mazmunda xitoy xati bilan o'z (xitoy) tilida yozgan.

Xoqoni Said hazratlari maktubni [o'qittirib] eshitib, uning nozik mazmunini o'tkir fikr bilan mulohaza qildi va maqsudlarini to'la tushunib olgach, hammani ishtirok etishga chaqirib, «Amirlar elchilar sharafiga to'y bersinlar», – degan farmon sodir bo'ldi.

---

[1] *Tarqu* – qimmatbaho ipak mato.

[2] *Fumo* – ko'ragon (xon kuyovi) so'zining xitoychasi.

[3] *Hazora* – ming kishilik harbiy bo'linma.

[4] *Sada* – yuz kishilik bo'linma.

@tarixchi_kutubxonasiga

(367) **Sakkiz yuz yigirma birinchi (1418) yil voqealari**

(378) **Hazrat Xoqoni Saidning nurli Mashhadi muqaddas ziyoratiga yuzlanganligi zikri**

Oliy sha'n sulton sha'bon oyining boshlarida (1418-y., 3-sentabr) Xutoson sultonining, – bayt:

Ali ibn Muso Rizo desang yetarlidir,
Chunki uning nomidan laqablar kamol topa beradi, –

ziyoratiga borishga jazm qildi va u tabarruk maqom va Mashhadi muborakka yetgach, ziyorat shartlarini bajo keltirib, muhtojlarga nazr-sadaqalar ulashdi hamda Onhazrat yaxshi niyat bilan yasatib bezattirgani uch ming misqol tillo[dan ishlangan] bir qandilni (379) qabr gumbaziga osdilar. Bundan ilgariroq mahdi ulyo Gavharshod-og'o, – Tangri salomlarini yo'llagur, – hazrat Imomning [qabri] qubbasi yoniga g'oyatda hashamatli va ziynatli bir masjidi jome qurishni boshlagan edi, shu kunlarda qurilib bitay deb qoldi. Bu latif ishlangan imorat hazrat xoqoni Saidning nazariga g'oyat ma'qul ko'rindi. Onhazrat Mashhadning sharq tomonida bir chahorbog' va bir saroyning tarhini belgilab, har mahal Mashhad ziyoratiga kelsa, humoyun mavkab shu bog' va saroyga qo'nadigan qilib mukammallashtirdi.

Onhazrat Mashhaddan Tus shahri tomon borib, u barakatli mozorlarni [ziyorat qilish] baxtiga erishdi hamda qaytishga otlanib, dorussaltana Hirot tomon yo'l oldi va ramazon oyining boshida (1418-y., 2-oktabr,) davlat poytaxtiga kelib tushdi.

Movarounnahr viloyatlarining shu yilgi ahvoli zikri. Toj-u taxtga zeb beruvchi baxtli shahzoda Mug'isuddin Mirzo Ulug'bek donolik kasb etuvchi bir podshoh va sha'n-shavkatli bir hukmdor edi. Uning davlati zamonida va hukmdorligi kunlarida Movarounnahr va Turkiston mamlakatining raiyati zulm zulmatidan adl-u ehsonning obi hayot chashmasiga yetishdi va barcha xaloyiq amn-u omonlik bo'stoni ham farog'at chamanida orom oldi.

[Mirzo Ulug'bek] haqiqat ahllariga e'tibor ko'rsatishda jahon podshohlaridan ustun va afzal edi, (380) adl maktablarini yangilash va fazl qoidalarini mustahkamlashda shunday bir katta jidd-u jahd va go'zal sa'y-harakat ko'rsatdiki, bunga shohidlik nurlari va dalillik yodgorliklari hayot sahifasida aniq va oydin qolgusidir. Bayt:

Uning dargohi xaloyiq uchun hojatlar Ka'basi-yu
Huzuri haqiqat ahllari jam bo'ladigan joy edi.

(393) **Sakkiz yuz yigirma uchinchi (1420) yil voqealari**

@tarixchi_kutubxonasiga

(418) **Dorussaltana Samarqandda qurilgan imoratlar zikri.** (419) Zamonaning ezgu gardishidan, shohlarda imorat qurishga mayl bo'ladi, (420) degan bashorat yetib kelgan.

Yer yuzida qurilgan har bir imorat latofatlikda yakka-yu yagona bo'lmog'i va ravshanlikda oy nurideg-u, mustahkamlikda falak ayvonidek bo'lmog'i lozim.

Ilohiy ko'mak va osmoniy madadlar tufayli yer yuzi-yu jahon maydoni Sulaymon taxt, Faridun baxt sulton Shohrux Sultonning adolat nurlari va marhamat asarlari bilan bezangach, uzoq Xitoydan tortib Rum chegaralarigacha va Turkistonning nihoyatidan Hindiston poyonigacha [hukmdorlar] Onhazratning farmoniga itoatkorlik ko'rsatishar va oliy ishoratlarga nisbatan bo'ysunish maqomida turar edilar, uning iqboli shamoli va g'amxo'rligi shabadasidan islom [dunyosi] gulshanida har kuni bir yaxshilik g'unchasi ochildi, yer yuzi chamanida har soatda bir ezgulik niholi bosh chiqardi, ilm bog'lari uning xayrxohlik bulutidan har zamon sersuv bo'lib turdi, shariat bo'stoni Onhazratning adolati zilol suvidan har damda yashnab soflik kasb etdi, davlat quvvati mamlakatning kengayishi va saltanatning tetiklanishi bilan uzluksiz oshib bordi va [Xoqoni Said] himoyasidagi mamlakatlar, ayniqsa, Movarounnahr mamlakati ma'murlik va obodonlikning cho'qqisiga yetib, javonbaxt shahzoda Mug'isuddin Mirzo Ulug'bek Ko'ragon xayrli joylar-u oliy imoratlar qurishga mayl ko'rsatdi. Bayt:

Hayotbaxsh joylar-u go'zal binolar shunday ediki,
Ularni ko'rgach, aqli kull ham sanolar aytadi.
Sulton Ulug'bek davlatining qudrati bilan
Bir necha yaxshi joylar mukammal bo'ldi.
Jannatsifat har bir joy tufayli
Samarqand mulkining ravnaqi ortdi. (421)

Samarqand shahrining ichida, shaharning o'rtasi va [shahar] maydonining markazida, Arki Oliyga yaqin joylashgan Sarduatik deb ataladigan mavzeda [Ulug'bek] bir-biriga ro'baro' madrasa va xonaqoh bino qilib, bu maqomni qurib tamomlash borasida bir necha yil davomida sa'y- harakatlar ko'rsatdi. Ularning balandligi va bezaklari baland osmonning g'ashini va Chin suratxonasining rashkini keltirar, binolarning mustahkamligi va ustunlarning nozikligi bilan Haramon[1] hay'ati va tav'aman suratini eslatar edi. Haqiqatan ham, u ikki imoratning latofatini yozuv qalami va bayon raqami bilan tasvirlash mumkin emas.

Kayvon viqor va Mushtariy asar shahzoda ko'p daromadli yerlar, ekinzorlar va ariqlarni u joyga vaqf qilib ajratdi, ulamolarning eng bilimdonla-

[1] *Haramon* – Makka va Madina.

@tarixchi_kutubxonasiga

ri va fozil kishilarning tajribakorlarini madrasada dars berish va tushuntirish uchun tayinladi, shuningdek, xonaqohga ham bilimdon mashoyixlar va muboshirlarni belgiladi hamda bu ikki oliy maqomning muhim ishlarini kordon kishilarning sa'y-harakati qo'liga topshirdi. Vaqfga ajratilgan daromadli yerlar va ekinzorlardan har yili shunchalik hosil olinar ediki, u ikki joyning zaruratlari qo'yilar edi; hech takallufsiz [aytish mumkinki], eng bilimdon podshoh (Alloh) ixtiyor qilgan yana biror joy bo'lmasa, islom shaharlarining barchasida bu ikki baxtli maqomga yaqin keladigan biror joyni ko'rsatib bo'lmas edi.

Bu varaqlarni yozib to'plovchi Abdurazzoq qutli munosabat bilan bir necha vaqt dorussaltana Samarqandda muqim turganida bu holni o'z ko'zi bilan ko'rdi.

Ilm-u fanlar bo'yicha yetarli nasiba va to'liq sarmoya egasi bo'lgan Mirzo Ulug'bek, – bayt:

Barchaga ma'lumdirki, har qancha o'ylab ko'rilganda ham,
Bilimdan durustroq biror narsa topilmaydi. (422)
Agar biror kishi shohligi tufayli qobil bo'lsa,
Demak, unga ta'lim beruvchi ilohiy fazldir.
Agar Tangri shohlarga ilm ravon qilmaganida
Bittagina bosh bilan olam ishini qanday bajarish mumkin edi.
Har bir iqlimdagi toj-u taxt egalari,
Agarchi osmon tarafidan ta'lim olgan bo'lsalar-da,
Lekin [dunyoviy] ilm kasb qilish ham go'zal ishdir,
Chunki xat so'zida bir harf emas, ikki harf mavjuddir.
Garchi oy bezakka muhtoj bo'lmasa ham,
U Parvindan toj kiygach, yana ham sharafliroq bo'ladi.
Garchi biror tilla [bo'lagi] o'z holicha baland qiymatga ega bo'lsa ham,
Unga gavhar o'rnatilsa, qiymati yana ortadi, –

o'z bilimi nurlarini butun jahonga oftob shu'lasi yanglig' zohir qilishni, idrok yorug'ligini tuproq chuqurligidan eng yuqori falak gumbaziga yetkazishni, yulduzlar rasadi sadosini gardun gumbazi bo'ylab taratishni va bu ulug' ish tantanasini yer yuzidan yangratishni istadi. Shunga binoan, u zamon Aflotuni mavlono Salohiddin Muso Qozizodayi Rumiy, Mirzo Ulug'bek o'zi tarbiyalab inoyat tili bilan farzandim, deb atagani davron Batlimusi bo'lmish mavlono Alouddin Ali Qushchi (bu ikki donishmand tadqiqotchi Samarqandda muqim yashar edi) hamda Mirzo Ulug'bek Koshondan Samarqandga keltirgani ulug' mavlono G'iyosiddin Jamshid va hurmatli mavlono Muinuddinlar kabi barcha ilmlar bo'yicha va ma'qul-u mafhum, xususan, riyoziy ham hikamiy tadqiqotlar bo'yicha asr mo'jizasi va davr nodirasi bo'lmish hukamolar va mashhur bilimdonlar, Utorud zehnli muhandislar-u «Majistiy» kashf etuvchi faylasuflar bilan birgalikda bir anjuman tuzdi va

@tarixchi_kutubxonasiga

aqli kullning qo'llovi bilan osmon qismlaridan har bir qismning kayfiyatidan voqif bo'lgan, (423) xayol sayyohining dadil qadamlari bilan yuqori-yu quyi olamning uzunlik va kenglik masofasini bosib o'tadigan va jismlarning oraliq ham sathlarini aniqlashda biror muhmal daqiqa yoki soniyani e'tiborsiz qoldirmaydigan ana shu donishmandlar bilan munajjimlikning nozikliklarini uqib olish-u taqvimlarning sirlarini tushunib yetish sohasida o'z martabasi darajalarini falak ul-aflokka yetkazib suhbatlar qurdi. [Bu sohada] yetuk kamolot hosil qilgach va asboblarni shaylagach, [Ulug'bek] rasad va ziyj tuzishga mayl qildi va Samarqandning shimolida, sharq tomonga moyilroq yerda mos bir joyni tayin qildi hamda shuhratli hakimlarning ixtiyori bo'yicha u ishni boshlashga muvofiq bir tole muqarrar qilindi. U [rasadxona]ning binosi davlat asosidek poydor, poydevori esa saltanat qoidasidek ustuvor qilib mustahkamlandi, imoratini tiklash va ustunlarini ko'tarish [oyatdagi], «Albatta, o'sha [qiyomat kuni] tog'lar ham [fazoda to'zon kabi] sayr qilur»[1], – deyilgan kunigacha barqaror [turuvchi] tog'lar singari yiqilish-u nurashlardan omon tarzda bajarildi. [Oyatda kelgan] yetti mustahkam qubbador qasrdan namuna bo'lgan u oliy bunyod va ulug'sifat imoratning xonalari ichiga to'qqiz falakning hay'ati-yu to'qqiz [osmon] doiralari shakllarini darajalar, daqiqalar, soniyalardan tortib to oshiralargacha [chizildi] hamda aylanuvchi falaklar, yetti sayyora yulduzlari, sobita yulduzlar ko'rinishi va yer kurrasi hay'ati-yu iqlimlar suratlarini tog'lar, biyobonlar va u [yer kurrasiga] nimaiki tegishli bo'lsa, [hammasi] bilan birga dilpazir naqshlar-u benazir raqamlar bilan chizishga buyurdi; oftob va boshqa sayyoralarning taqvimini kuzatib borib, hikmat egasi bo'lmish janob Nasiruddin Tusiy tuzgan «Ziji jadidi Elxoniy»ga foydali va nozik [tafsilotlar] orttirdi hamda [u zijdagi] oftob sayyoralar taqvimida [yo'l qo'yilgan] ko'p aniq tafovutlarni ko'rsatdi. Bu nozik ishda unga ulug' hukamolar madadkor va muovin edilar. Bu muhim ishning ovozasi shahar va mamlakatlar bo'ylab tarqalib, shuhrat topdi. Shahzoda u zijga tuzatishlar kiritilib tamomlanishga muvaffaq bo'ldi va unga «Ziji Sultoni Ko'ragoniy» deb nom berildi. U ziyj munajjimlik san'ati mohirlari va taqvim ustalari orasida qo'llanilib kelmoqda.

(652) **Sakkiz yuz o'ttiz yettinchi (1433–1434) yil voqealari**

(653) «Imkon va qudrating bor ekan, yaxshilik qilishga tirishgin, chunki yaxshilik qilishga hamma vaqt ham imkon bo'lavermaydi», – nidosini yetkazganligi uchun [Mirzo Boysung'ur] o'z davlati chamanida yaxshilik niholidan bo'lak narsa o'tqazmas edi; kecha va kunduz ahvolining o'zgarib turishi, davlat va uning inqirozi almashinishi uning nurli xotiridan joy olganligi uchun, u o'ziga iltijo qiluvchilarning qilmishlari sahifasini faqat ino-

[1] Qur'oni karim, 52-sura («Tur» surasi), 10-oyat.

@tarixchi_kutubxonasiga

yat va ijobat ko'zi bilangina o'qir edi; ana shu maqtovli fazilatlari va maqbul odatlari tufayli u barcha hollarda ham kamolotli kishilar majlisida, ilm va fazilat ahllari suhbatida bo'lishni o'ziga farzi ayn va ayni farz deb bilar edi hamda bu izzatli tabaqani ulug'lash marosimini bajo keltirishda hamda bu buyuk toifaning istaklari amalga oshishini ta'minlashga g'amxo'rlik qilishda zo'r inoyat va ko'p rioyatlar ko'rsatar edi; jahon ahlining quloqlari sadafi uning xayrli qilmishlari durlari bilan to'ldi; uning sidqidildan ko'rsatayotgan marhamatlari ta'rifi (654) va uning fazl-u hunar ahliga qilayotgan mehribonliklari ovozasi yetti kishvar va quruqlig-u dengiz iqlimlari bo'ylab taraldi; [bu hol] olamga zeb beruvchi oftob issiqligi va jahon bo'ylab esuvchi tong shabadasi yanglig' butun dunyo ahliga aniq bo'lgach, bilimdon oqillar va yetuk hunarmandlar olam chekkalaridan ulug'vor dargoh (Hirot) tomon davlat yanglig' umid yuzini qaratdilar; bilim sipohining yelkasi, fazl lashkarining yuzi ilm olamining sarafrozlari, xirad ahlining peshvolari, aqliy va naqliy ilmlar majlisida to'rda o'tiruvchilar bo'lmish keng bilimli ulamolar va izchil ma'lumotli so'z ustalari fozillar panohi bo'lmish olijanob podshoh [Mirzo Boysung'ur] huzuriga yetib kela berdilar, uning borgohi tuprog'ini surma yanglig' ko'zlariga tortdilar, podshohona qasr eshigida ostonadek mulozim bo'ldilar; uning majlisida o'tirish bilan taqdirlandilar hamda kamoli iltifot, mo'l-ko'l hadyalar, xushsuxanlik va ochiq yuzlik vositasi bilan unga mute va itoatkor bo'ldilar; jahon maliklari va olam podshohlari uning saltanat asboblarining ulug'vor va qudratliligi, hukmdorlik shavkatining go'zalligi, jahondorlik ishlarining intizomliligi va yaxshilik qonun-qoidalarining rivojga minganini ko'rib, hayrat barmog'ini tishlar edilar.

[Mirzo Boysung'ur] turli-tuman hunarmandlar va san'at ahllarini shunday tarbiyat qildiki, ularning har biri zamon yaktosi va davron yagonasi bo'lib yetishdilar. U mavlono Ma'ruf Xattoti Bag'dodiyning shogirdi mavlono Shamsuddin al-Heraviyni yaxshi tarbiyat bilan shu darajaga yetkazdiki, u o'zining xatlaridan aksarini Qiblat ul-kuttob – «Kotiblar qiblasi» Yoqut al-Musta'simiy nomi bilan yozdi va jahon ziyraklari ularni Yoqutning xati deb qabul qildilar, shuningdek, mavlono Ja'far Tabriziy ham turli xil xat uslublari, ayniqsa, nasx-u ta'liq xatini yozishda ikkinchi Xoja Mir Ali edi. Mavlono Ja'farning shogirdlari; mavlono Zahiruddin Azhar, mavlono Shahobuddin Abdulloh va mavlono Jaloliddin Shayx Mahmudlar bugungi kunda asrning benaziridirlar va hech mubolag'asiz bu jamoat ilmda va xututi sitta – «olti xat»ni ishlatishda, – misra, – Ibn Muqla, shu kunning Sayrafiysi va zamona Yoqutidirlar hamda u ruhoniy malakani sof himmat va to'la jidd-u jahd bilan imkon darajalarining eng yuqori pog'onasiga yetkazganlar. Bayt:

@tarixchi_kutubxonasiga

Qalam uchini barmoqlarning uch «nun»i bilan
Ushlaganlarida jahon bunga hayron qoladi.
Barmoqni boshoq kabi xam qilganlarida
Fazl hosilidan donalar to'kadilar.
Atorud undan zavq-shavqga to'lganlikdan
mashoq terishga tushadi,
Ko'rmaysanmi, Atorud Xoja-Boshoq [yulduzlar]
Turkumi[da] o'z sharaf burjiga yetadi.

Shuningdek, ular qalam yuritish va raqam tortish san'atining qolgan qismlari: tasvir chizish, zarhal berish va bularning boshqa shu'ba va shoxobchalarini nihoyatda ilgari surib, oliy darajadan ham o'tkazdilar. Bayt:

Suratgarlik uchun qo'llarini ko'targanlarida
aql hushdan ketadi-yu, bilim mast bo'lib qoladi.
Xuddi yor mujgonidek bitta mo'y uchi bilan
yuz sehr-u joduni shikor qiladilar.
Zarhal berish va jadval tortishni istab qolganlarida
oftobning zarini eritsalar ham arziydi.
Ularning bedor baxtlari yorlik qilib, agar
shamsa, lavh va pargarlarini gardunga yetkazsa,
Falakning mehri oshib, ularga yulduzlar zari-yu
osmon lojuvardini tuhfa qiladi.

Muqova qilish va boshqa naqsh ham san'atkorliklar ishlash shu qadar nozik va zebo ediki, o'tgan zamonlarda sobiq maliklar sa'y-harakati bilan juda kam muyassar bo'lgan. Boshqa hunarlar: zargarlik, duradgorlik, o'ymakorlik va temirchilik kishi xayoliga kelishi mumkin bo'lgan darajadan ham ziyoda bo'ldi.

U janob [Mirzo Boysung'ur] barcha fozillar, hunarmandlar ham san'atkorlarni maosh in'omlari hamda hadya inoyatlari bilan shunday xushvaqt qilib turardiki, undan ortiq bo'lishi imkonsiz edi. Devon ishlari ham jahondorlik asboblari nihoyatda tartibli tarzda saranjom topdi.

(966) **Sakkiz yuz ellik uchinchi (1449) yil voqealari**

(992) Shu yerga kelganda, qalamning har turli raqamlar bilan bayon maydonida javlon uruvchi tulpori Mirzo Ulug'bek fazilatlarining bepoyon biyobonida bir necha varaq ustida yo'rg'alab o'tishga jazm qildi. Mirzo Ulug'bek bilim tarmoqlari bo'yicha ma'ruf bir podshoh, xilma-xil (993) sifatlar bilan dong taratgan bir sulton edi. Saltanat qabosi uning davlati qomatiga moslab tikilgan, mamlakat chekkalari uning adolat nurlari bilan yorishgan edi. U o'z sezgir tabiatining quvvati tufayli turli-tuman fanlar, xilma-xil ilmlarni fahmlab bilib olar va o'tkir zehni tufayli maoniy [ilmi] haqiqatlari ham bayon [ilmi] nozikliklarini ochib ixtiro qilar, erta tongdan to kech kirgunicha til

@tarixchi_kutubxonasiga

tig'i bilan mamlakat manfaatlariga oid ishlar eshiklarini ochar va kun botishidan to tong otguncha himmat dengizidan qimmatbaho durlarni chiqarar edi. Shu tarzda u hikmat [ilmi]ning nazariy va amaliy qismlarini butunlay egallab o'zlashtirgach, riyoziy ilmlarning turlari uning nurli zamiridan balqidi. [Bu sohada] u yetuk kamolot hosil qilgach va asboblarni shaylagach, rasad ishlab chiqish va zij tuzishga mayl ko'rgazdi, riyoziy va hikamiy ilmlar bo'yicha asr mo'jizakori-yu dahr nodirasi bo'lgan Atoruddek zukko va «Majistiy» ocha biladigan bir guruh muhandislarni hozir qildi. Rasad haqidagi tafsilot va zij tuzilganligi sharhi [sakkiz yuz] yigirma uchinchi (1420) yil [voqealari orasi]da yozib o'tildi. [Shuning uchun] bu yerda qaytarilmadi.

(1096) **Sakkiz yuz oltmishinchi (1456) yil voqealari**

(1104) Shu orada Samarqand tomonidan elchi yetib keldi va Mirzo Sulton Abusaid yuborgan tuhfa va biyloklarni taqdim qildi; jumladan, hukamolar ustozi Xoja Nasiruddin Tusiy amal qilgani «Ziji Elxoniy»ga javoban Mirzo Ulug'bek tomonidan rasad qilingan «Ziji jadidi Sultoniy», Xoja Abulvafo Xorazmiy tomonidan ta'lif qilingan «Lubbul-albob» [nomli] risola [bor edi]. Mirzo Abulqosim Bobur Mirzo Sulton Abusaid ahvoli haqida savol so'radi va elchiga inoyat ko'zi bilan e'tibor ko'rsatib, qaytib ketishiga ruxsat buyurdi.

«TEMUR TUZUKLARI» ASARI HAQIDA

Asarda voqealar Amir Temur nomidan hikoya qilinadi.

1047 (1637–1638)-yilda **Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy** Boburiylar hukmdori Shoh Jahonga «Tuzuki Temuriy»ning turkiydan forscha tarjimasini taqdim etgan. Podshoh mazkur asar bilan tanishib chiqib, uni Dekan qozikaloni Muhammad Afzal Buxoriyga berib, Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asariga solishtirib chiqishni buyurgan. «Temur tuzuklari»ning bizgacha yetib kelgan nusxalari Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy tarjimasi asosida yaratilgan.

«Temur tuzuklari» Amir Temurning tarixi, 1342–1405-yillar orasida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Amir Temur va Temuriylar davlati hamda qo'shinining tuzilishi, o'sha yillarda Amir Temur davlatining qo'shni mamlakatlar va xalqlar bilan bo'lgan munosabatlari haqida hikoya qilinadi.

«Temur tuzuklari» ikki qism (maqola)dan iborat: birinchi maqola – Amir Temur faoliyati bilan bog'liq tarixiy voqealar; ikkinchi maqola – tuzuklar. Quyida «Temur tuzuklari»dan berilgan tarjima uchun asarning 1889-yili Bombeyda nashr etilgan forscha matni asos qilib olindi[1] (forschadan Habibullo Karomatov tarjimasi).

H. Karomatov

[1] Temur tuzuklari.

@tarixchi_kutubxonasiga

«TEMUR TUZUKLARI» ASARIDAN LAVHALAR

Ikkinchi maqola

(54) Uchinchisi shuldirki, maslahat, kengash, tadbirkorlik, faollik va hushyorlik, ehtiyotkorlik bilan g'anim qo'shinlarini yengib, mamlakatlarni o'zimga bo'ysundirdim. Saltanatim ishlarini murosa-yu madora, muruvvat, sabr-toqat va chidam bilan yurgizdim. Ko'p narsani bilib tursam ham, o'zimni bilmaslikka olardim. Do'st-u dushman bilan murosa-yu madora qildim.

To'rtinchisi – davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib, saltanatda o'z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim. Amirlar, vazirlar, sipoh, raiyat har biri o'z lavozim va martabasidan mamnun holda xizmatimda bo'lib, undan ortig'iga da'vogarlik qila olmadi.

Beshinchisi – amirlarim va sipohiylarimni martaba va unvonlar, zar-u zevarlar bilan xushnud etdim. Bazmlarda ularga (o'z yonimdan) o'rin berdim, shuning uchun, janglarda jonlarini fido qildilar. Dirham va dinorlarni ulardan darig' tutmadim. Ularning yumushlarini yengillashtirish uchun mehnat-u mashaqqatlarini o'zimga yukladim va tarbiyat qildim. Amirlar, sipohsolorlar, bahodirlar bilan ittifoq bo'lib, ularning mardlig-u mardonavorligiga tayanib, shamshir zarbi bilan yigirma yetti podshohning taxtini egalladim. Eron, Turon, Rum, Mag'rib, Shom, Misr, Iroqi Arab va Iroqi Ajam, Mozandaron, Gilon, Shirvon, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Dashti Jete, Dashti Qipchoq, Xorazm, Kobuliston, Boxtarzamin, Hindistonga podshoh bo'lib, hukm surdim.

Saltanat to'nini kiygach, tinchlig-u sog'ligim ketdi, o'z to'shagimda rohatda uxlash huzur-halovatidan voz kechdim. O'n ikki yoshimdan turli diyorlarni kezdim, ranj-u mehnat tortdim. Har xil tadbirlar qo'llab, [g'anim] favjlarini sindirdim. Amirlar va sipohiylarning isyonlarini ko'rdim, ulardan achchiq so'zlar eshitdim. Lekin sabr-u bardosh bilan o'zimni eshitmagan-ko'rmaganga solib, ularni tinchitdim. Qilich ko'tarib, jang maydoniga otildim va shu tariqa dunyoda nom chiqardim.

Oltinchisi – adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim. [To'g'ri] siyosat va insof bilan sipohiylarim va raiyatni umid va qo'rqinch orasida saqladim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, sipohiylarga in'omlar ulashdim.

@tarixchi_kitobxonasiga

Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm o'tkazmadim.

(55) Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab, yomon qilmishlarini xotirimdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubha-yu qo'rquv bo'lsa, butunlay unut bo'lardi.

Yettinchisi – sayyidlar, ulamo-yu mashoyix, oqil-u donolar, muhaddislar, tarixchilarni tanlagach, e'tiborli odamlar hisoblab, izzat-u hurmatlarini joyiga qo'ydim. Shijoatli kishilarni do'st tutardim, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi. Ulamo bilan suhbatda bo'ldim va pok niyatli, toza qalbli kishilarga talpindim. Bularning himmatlaridan ulush tilanib, muborak nafaslari bilan duo-fotiha berishlarini iltimos qildim. Darvish, faqir va miskinlarni o'zimga yaqin tutdim. Ularning ko'ngillarini og'ritmadim va biron talablarini rad etmadim. Buzuqi va og'zi shaloq g'iybatchi odamlarni majlisimga yo'latmadim, so'zlariga amal qilmadim. Biror kimsaga tuhmat-u g'iybat qilsalar, quloq solmadim.

Sakkizinchi – azm-u jazm bilan ish tutdim. Biron ishni qilishga qasd qilgan bo'lsam, butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmagunimcha, undan qo'limni tortmadim. Har neki degan bo'lsam, unga amal qildim. Hech kimga g'azab bilan qattiq muomala qilmadim va hech bir ishda tanglik qilmadim, toki Tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lmayin va ishimni buzib, holimni tang aylamasin deb. Odam Atodan boshlab Hotam ul-anbiyogacha, ulardan hozirgi damgacha o'tgan sultonlarning qonunlari va turish-turmushlarini donolardan so'rab-surishtirdim. Har qaysilarining yo'l-yo'riqlari, turish-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va yaxshi axloqlari, ma'qul sifatlaridan o'rnak olib, ularga amal qildim. Davlatlarining tanazzulga uchrashi sabablarini surishtirdim va davlat-u saltanat zavoliga sabab bo'luvchi ishlardan saqlandim. Naslni buzuvchi, ocharchilik va vabo kasali keltiruvchi zulm va buzuqchilikdan saqlanishni o'zimga lozim bildim.

To'qqizinchisi – raiyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini ota qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim. Har yerning tabiati, har el va shaharning rasm-u odatlari, mizojidan voqif bo'lib turdim. Har bir o'lka va shahar aholisining ashrof-ulug'lari va buzurglari bilan oshna tutindim. Ularning mizojlariga, tabiatiga to'g'ri kelgan, o'zlari tilagan, odamlarini ularga hokim qilib tayinladim. Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo'lib turdim. Har bir mamlakatning ahvolini, sipoh-u raiyat kayfiyatini, turish-turmushlarini, qilish-qilmishlarini, ular o'rtalaridagi aloqalarni yozib, menga

@tarixchi kutubxonasiga

bildirib turishi uchun diyonatli, to'g'ri qalamli kishilardan voqeanavislar belgiladim. Bordi-yu noto'g'ri narsa yozilganlari menga ma'lum bo'lib qolsa, bunday voqeanavislarni jazoladim. Hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolat-u insof yuzasidan chora ko'rdim.

(56) O'ninchidan – turk-u tojik, arab-u ajamning turli toifa va qabilalaridan bo'lgan va mening panohimga kirgan kishilarning ulug'lariga hurmat ko'rsatdim, qolganlarini ham o'z holiga yarasha siyladim. Yaxshilariga yaxshilik qildim, yomonlarini esa o'z yomonliklariga topshirdim.

Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa, do'stligi qadrini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzat-u ikrom ko'rsatdim. Kimki mening xizmatimni qilgan bo'lsa, xizmati haqqini ado etdim. Kimki menga dushmanlik qilsa-yu, keyin pushaymon bo'lib, iltijo bilan himoya istab, tiz urib huzurimga kelsa, dushmanligini unutib, muruvvat va do'stlik ko'rsatdim.

O'n birinchisi – farzandlar, qarindoshlar, oshna-og'ayni, qo'shnilar va men bilan bir vaqtlar do'stlik qilgan barcha odamlarni davlat-u ne'mat martabasiga erishganimda unutmadim, [mol-u mulk va naqd pul bilan] haqlarini ado etdim. O'z farzandlarim, qavm-u qarindoshlarimdan qarindoshlik mehrini uzmadim. Ulardan noravo ish o'tgan bo'lsa, darhol bog'lab, o'ldirishga buyurmadim. Har kimni [turish-turmushning past-u balandlarida] turli yo'llar bilan sinab bilib oldim va ularga shunga yarasha muomala qildim. Hayotning ko'p issiq-sovug'ini ko'rib, ulardan saboq olib, tajribamni oshirdim. Shuning uchun do'st-u dushman bilan kelishib yashadim.

O'n ikkinchisi – do'st-dushmanligiga qaramay, har joyda sipohiylarni hurmat qildim, chunki ular boqiy mato bo'lgan jonlarini foniy dunyo moli uchun sotadilar. O'zlarini ma'raka-maydon, halokatga otib, jonlarini qurbon qiladilar.

Agar g'anim sipohidan biror odam o'z valine'matiga sidqidildan xizmat qilib, urush kunlarida menga qarshi qilich ko'targan bo'lsa ham, unday odamga nisbatan lutf-marhamatlar ko'rsatdim. Qoshimga [panoh istab] kelganda, uni qadrlab, ishonchini qozondim, vafodorligi va haqiqat bilan xizmat qilishiga ishondim.

Qaysi bir sipohiy tuz haqi va vafodorlikni unutib, xizmat vaqtida o'z egasidan yuz o'girib, mening oldimga kelgan bo'lsa, unday odamni o'zimga eng yomon dushman deb bildim...

(57) Yana tajribamda ko'rib bildimki, davlat agar din-u tartib asosida qurilmas, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xshaydirkim, uni ko'rgan har kimsa undan nigohini olib qochadi. Yoxud kas-u nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Shuning uchun ham men o'z saltanatim binosini dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Saltanatni boshqarishimda uchragan har qanday voqea va ishni to'ra va tuzuk asosida bajardim...

(64) Birinchi toifa – sayidlar, ulamo, shayxlar, fozillarni o'zimga yaqinlashtirdim. Ular mening saroyimga doimo kelib-ketib, majlisimni bezab turishdi. Diniy, huquqiy, aqliy masalalarni o'rtaga tashlab, qimmatli fikrlar bildirishardi. Halol va haromga oid masalalarni men ulardan o'rgandim.

(65) Ikkinchi toifa – aqlli kishilar va kengash sohiblari, ehtiyotkor arboblar, sergak va keyinini o'ylab, olisni ko'rib ish yurituvchi, keksa va tajribali kishilarni xos majlisimga kiritib, suhbatlaridan, ishlaridan naf olib, tajriba hosil qilardim.

Uchinchi toifa – duogo'y kishilarni qadrladim. Ular bilan xilvatda suhbat qurib, ko'nglimdagi maqsadimni aytib, duo tilardim. Majlislarda, bazmlarda, jang maydonlarida ulardan ko'p barakatlar topdim...

To'rtinchi toifa – amirlar, sarkardalar, sipohsolorlarga majlisimdan o'rin berib, martabalarini yuqori ko'tardim. Ular bilan suhbatlashib, maslahatlar oldim.

Jang maydonlarida mardona qilichlashgan shijoat ahlini do'st tutardim. Jang maydonlariga ot choptirib, kirib-chiqish usullarini, g'anim lashkari to'pini buzib, saflarini sindirishni, nayza sanchib, qilich chopishni ulardan so'rar edim. Sipohgarlik ishlarida ularga tayanib, ulardan kengash so'rar edim.

Beshinchi toifa – sipoh va raiyat bo'lib, har ikkisiga bir ko'z bilan qaradim. Sipohiylardan chiqqan bahodirlar, dovyuraklarga maxsus faxrli o'tog', kamar va o'qdan taqdim etib, martabalarini ko'tardim.

Har el va har mamlakatning ulug'larini, boshliq-oqsoqollarini qadrladim, ularga sovg'a-salomlar berib, xizmatlaridan foydalandim. Sipohiylarimni hamisha jangga tayyor holda tutdim, oylik haqlarini so'rattirmay vaqtida berardim...

(66) Kimning aqli va shijoatini sinov tarozusida tortib ko'rib, boshqalarnikidan ortiqroq ko'rsam, uni tarbiya qilib, amirlik darajasiga ko'tarar edim. So'ngra ko'rsatgan xizmatiga yarasha martabasini yanada oshirib borardim.

Oltinchi toifa – ishonchli, to'g'ri e'tiqodli,oqil-xiradmand kishilarkim, saltanat sirlarini ularga ochib, [ular bilan] kengashdim, yashirin ishlar, maxfiy sirlarni shularga topshirdim.

Yettinchi toifa – vazirlar, bosh kotiblar, devon munshiylariki, saltanatim saroyini shular bilan bezatdim. Bularni menga tobe mamlakatlarning ko'zgusi deb bildim. Chunki ular har mulk-mamlakat, sipoh va raiyat voqealarini menga bildirib turdilar. Bular davlat xazinasi, sipoh va raiyatga oid ishlarni tartibga solib yuritdilar. Saltanat mulkiga tushgan raxnalarni berkitishning loyiq chora-yu tadbirlarini ko'rdilar. Saltanatim korxonasi

@tarixchi_kutubxonasiga

xazinasining kirim va chiqimiga oid ishlarni to'g'ri olib bordilar. Hamisha mamlakat to'kinchiligi va obodligi uchun harakat qildilar.

Sakkizinchi toifa – hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarki, ular saltanat korxonasiga rivoj beruvchilardir. Ularni o'z atrofimga to'pladim. Hakimlar va tabiblar bilan ittifoqda bemorlarni davolatar edim. Munajjimlardan yulduzlarning qutlug' va qutsiz kunlari, ularning harakati va osmonda aylanishini aniqlab olardim. Muhandislar bilan ittifoqda oliy imoratlar barpo etib, bog'-u bo'stonlarning loyiha-tarhini chizdirardim.

To'qqizinchi toifa – muhaddislar, payg'ambar, uning avlodlari va sahobalari haqida rivoyatlar naql qiluvchilar hamda qissaxonlar bo'lib, ularni ham o'zimga yaqinlashtirdim. Payg'ambarlar va avliyolar haqidagi qissalarni, o'tgan podshohlar to'g'risidagi xabarlarni, ularning saltanat taxtiga qanday yetishganliklarini, davlatlarining qanday sabablarga ko'ra zavol topganligini ulardan so'rab bilardim. Har qaysisining qissalari va xabarlari, ishlari va so'zlarini eshitib, tajribam ortdi. Olamda bo'layotgan voqealarni ulardan eshitardim va jahon ahli ahvolidan xabar topar edim.

O'ninchi toifa – mashoyixlar, so'filar, xudoni tanigan oriflardir. Ularning xizmatlarida bo'lib, suhbatlar qurdim va oxirat foydalarini oldim. Ulardan Tangri taoloning so'zlarini eshitib, karomatlar ko'rdim, mo'jizalarini mushohada etdim va suhbatlaridan rohatlanib, huzur qildim.

O'n birinchi toifa – kasb-hunar egalaridir; bularning har toifa va sinfidan bo'lganlarini davlatxonamga olib kelib, o'z o'rdamdan o'rin belgiladimki, safarda va turg'unlikda sipohimga kerakli yaroqlar va boshqa jihozlarni hozirladilar.

(67) O'n ikkinchi toifa – har mamlakat va diyor sayohatchilari-yu musofirlarining boshini siladimki, turli mamlakatlardan menga xabar keltirib turdilar. Har bir mamlakatga va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki, ular qayerga borishmasin: Xitoy, Xo'tan, Chin-u Mochin, Hindiston, Arab mamlakatlari, Misr, Shom, Rum, Jazoir, Farangistongami, u yerlarning nafis matolari va munosib tuhfalaridan keltirsinlar. O'sha mamlakatlarda yashovchi kishilarning hol-ahvoli, turish-turmushlari haqida menga xabar olib kelsinlar. Har bir mamlakat hukmdorlarining o'z raiyatiga qanday muomala-yu munosabatda ekanligini aniqlasinlar.

Mening dargohimga iltijo qilib, panoh istab kelgan turk-u tojik, arab-u ajam toifalaridan bo'lganlar haqidagi tuzuk

Birinchi navbatda, mazkur toifa va tabaqalardan bo'lgan sayyidlar va ulamoni izzat-hurmat qilishni, har qanday istaklari bo'lsa, darhol muhayyo

@tarixchi_kutubxonasiga

etib, muqarrar ravishda ularning ahvolidan xabardor bo'lib turishni buyurdim. Agar sipohiylar toifasidan bo'lsalar, xizmat o'rinlarini belgilab, hol-ahvollariga yarasha ehtiyojlari ta'minlansin. Agar kasb-u hunar va ma'rifat ahllaridan bo'lsa, bundaylarga saltanat korxonalaridan yumush berilsin. Bulardan boshqa bilagida kuchi bor faqir-miskinlar esa o'z ahvoli va kasb-u koriga qarab ish tutsinlar. Yana shunday amr qildim, sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug' va asbob tayyorlab berilsin. Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalar va yordam berilsin.

Har toifa va har sinfdan kimki o'z ixtiyori bilan sipohgarchilik xizmatiga kirishni istasa, uni askariy [xizmatga] olsinlar. Asl va shijoatli sipohiyzoda qaysi toifadan bo'lmasin, unga o'rin berib, qilgan xizmatiga va ishiga yarasha tarbiyat qilsinlar.

Yana amr qildimki, uzoq-yaqindan biron kishi kelib, mening majlisimga kirar ekan, qaysi toifadan bo'lsa ham davlatim dasturxoni ne'matidan uni mahrum qilmasinlar.

Kimki huzurimga kiritilsa va ko'zim unga tushsa, holiga yarasha hurmatlab, sovg'a-salomlar bilan kuzatsinlar. (68) Har qanday odam mening adolat devonimdan panoh topgan ekan, gunohi bo'lsa ham, uni kechirsinlar. Ikkinchi, uchinchi marta yana gunoh qilgudek bo'lsa, u holda gunohiga yarasha jazolasinlar...

(74) G'arazgo'y, buzuqi va hasadgo'y odamlarning vazirlar haqidagi uydirmalarini eshitmasinlar, chunki bu tabaqadagi kishilarning dushmani ko'p bo'ladi, negaki, olam ahlining barchasi dunyotalabdirlar. Agar vazirlar bunday odamlarning ko'ngliga qarasalar, davlatga xiyonat qilgan bo'lurlar, qaramasalar, ular vazirlarga dushmanlik qilurlar.

Chig'atoyxonning bir vaziri bo'lgan ekan. G'arazgo'ylar uni, xazinadan bir necha ming oltin o'g'irladi, deb [xonga maktub] yozgan edilar. Xatni xonga ko'rsatganlarida, u mazkur vazirni huzuriga chaqirtirib, unga «g'azab» qilib debdi: «Sen nazari past odam ekansan. Mendek podshohning vaziri bo'la turib, mamlakatimdan shunchalik oz narsa olibsan!» Dono vazir [xonning] bu qadar ehsonidan mamnun bo'lib va bor davlatining barchasini keltirib xonga peshkash qilibdi. [Bu bilan] xon oldida o'z martabasini va obro'-e'tiborini saqlab qolibdi.

[Yana hukm qildimki], qaysi bir sipohiy haddidan oshib, qo'l ostidagi kishiga zulm o'tkazar ekan, uni tutib, mazlum qo'liga topshirsinlar, toki dodiga o'shalar yetkazsinlar. Agar kadxudolar va kalontarlar kichikroq darajadagi odamga zulm qilgan bo'lsalar, qilgan zulmiga yarasha, har kimning

@tarixiykutubxonasiga

ko'tarishicha jarima solsinlar. Agar dorug'alar va hokimlar xalqqa jabr-zulm qilib, ularni xarob qilgan bo'lsalar, qilgan ishlariga loyiq jazo berilsin. Agar biror kimsaning gunohi isbotlangandan so'ng undan jarima olsalar, boshqa yana darra bilan urmasinlar. Agar darra urish bilan jazolasalar, undan jarima olmasinlar.

O'g'rilar xususida buyurdimki, ular qayerda bo'lmasin, kim tutib olsa yaso bo'yicha jazolansin. Kimki birovning molini zo'rlik bilan tortib olgan bo'lsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib, egasiga topshirsinlar. Agar kimda-kim tish sindirsa, ko'zni ko'r qilsa, quloq va burun kessa, sharob ichsa, zino ishlar qilsa, devondagi shariat qozisi yoki ajrim chiqaruvchi qoziga olib borib topshirsinlar. Shariatga oid ishlarni hal etishda islom qozisi hukm chiqarsin. Urf-odat ishlarini esa ajrim qozisi taftish qilib, so'ng mening arzimga yetkazsin.

Vazir tutish tuzugi

Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishlari lozim; birinchisi – asillik, toza nasllilik; ikkinchisi – aql, farosatlilik; uchinchisi – sipoh-u raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo'lishlik; to'rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

(75) Kimki shu to'rt sifatga ega bo'lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiq kishi deb bilsinlar. Uni vazir yoki maslahatchi etib tayinlasinlar. Mamlakat ishlarini, sipoh va raiyat ixtiyorini unga topshirsinlar. Bunday vazirga to'rt imtiyoz; ishonch, e'tibor, ixtiyor va iqtidor berilsin.

(76) Eshitishimcha, Nizomulmulkning yomon qilmishlari kam bo'lib, xayrli ishlari ko'proq edi. U hajga bormoqchi bo'lib turgan vaqtida avliyolardan biri unga debdi: «Malikshoh davlatining xizmatida bo'lib, amalga oshirayotgan xayrli ishlaring va Tangri taoloning bandalariga yetkazib turgan yordaming haj qilish bilan barobardir».

Yana eshitganmanki, Ali ibn Laqatiy xalifa Horun ar-Rashidning vaziri edi. Undan Tangri taoloning bandalariga ko'p naf-u foyda yetardi. Kunlardan bir kuni o'z ixtiyori bilan (77) vazirlikni tark etmoqchi bo'libdi. O'shanda din peshvolaridan biri unga shunday deb yozibdi: «Sen xalifa dargohida mulozimlik qilib, vazirlik ishini bajarib turaver. Bu ishni tashlashni o'ylamagin ham, chunki [bu martabada turib] xalqqa yetkazayotgan yordaming va nafing sen qilgan butun ishlar va harakatlaringning eng oliysidir».

Yana shuni eshitdimki, Hazrati Payg'ambarimizdan, – unga Tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin, – so'rabdilar: «Agar siz nabiy va rasul etib yuborilmaganingizda, qaysi ish bilan shug'ullanardingiz?» Ular shunday deb javob bergan ekanlar: «Sultonlar xizmatida bo'lishni ixtiyor etib, Tangri taoloning bandalariga foyda va yaxshilik yetkazardim».

@tarixchi_kutubxonasiga

etib, muqarrar ravishda ularning ahvolidan xabardor bo'lib turishni buyurdim. Agar sipohiylar toifasidan bo'lsalar, xizmat o'rinlarini belgilab, hol-ahvollariga yarasha ehtiyojlari ta'minlansin. Agar kasb-u hunar va ma'rifat ahllaridan bo'lsa, bundaylarga saltanat korxonalaridan yumush berilsin. Bulardan boshqa bilagida kuchi bor faqir-miskinlar esa o'z ahvoli va kasb-u koriga qarab ish tutsinlar. Yana shunday amr qildim, sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug' va asbob tayyorlab berilsin. Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalar va yordam berilsin.

Har toifa va har sinfdan kimki o'z ixtiyori bilan sipohgarchilik xizmatiga kirishni istasa, uni askariy [xizmatga] olsinlar. Asl va shijoatli sipohiyzoda qaysi toifadan bo'lmasin, unga o'rin berib, qilgan xizmatiga va ishiga yarasha tarbiyat qilsinlar.

Yana amr qildimki, uzoq-yaqindan biron kishi kelib, mening majlisimga kirar ekan, qaysi toifadan bo'lsa ham davlatim dasturxoni ne'matidan uni mahrum qilmasinlar.

Kimki huzurimga kiritilsa va ko'zim unga tushsa, holiga yarasha hurmatlab, sovg'a-salomlar bilan kuzatsinlar. (68) Har qanday odam mening adolat devonimdan panoh topgan ekan, gunohi bo'lsa ham, uni kechirsinlar. Ikkinchi, uchinchi marta yana gunoh qilgudek bo'lsa, u holda gunohiga yarasha jazolasinlar...

(74) G'arazgo'y, buzuqi va hasadgo'y odamlarning vazirlar haqidagi uydirmalarini eshitmasinlar, chunki bu tabaqadagi kishilarning dushmani ko'p bo'ladi, negaki, olam ahlining barchasi dunyotalabdirlar. Agar vazirlar bunday odamlarning ko'ngliga qarasalar, davlatga xiyonat qilgan bo'lurlar, qaramasalar, ular vazirlarga dushmanlik qilurlar.

Chig'atoyxonning bir vaziri bo'lgan ekan. G'arazgo'ylar uni, xazinadan bir necha ming oltin o'g'irladi, deb [xonga maktub] yozgan edilar. Xatni xonga ko'rsatganlarida, u mazkur vazirni huzuriga chaqirtirib, unga «g'azab» qilib debdi: «Sen nazari past odam ekansan. Mendek podshohning vaziri bo'la turib, mamlakatimdan shunchalik oz narsa olibsan!» Dono vazir [xonning] bu qadar ehsonidan mamnun bo'lib va bor davlatining barchasini keltirib xonga peshkash qilibdi. [Bu bilan] xon oldida o'z martabasini va obro'-e'tiborini saqlab qolibdi.

[Yana hukm qildimki], qaysi bir sipohiy haddidan oshib, qo'l ostidagi kishiga zulm o'tkazar ekan, uni tutib, mazlum qo'liga topshirsinlar, toki dodiga o'shalar yetkazsinlar. Agar kadxudolar va kalontarlar kichikroq darajadagi odamga zulm qilgan bo'lsalar, qilgan zulmiga yarasha, har kimning

@tarixchi_kutubxonasiga

ko'tarishicha jarima solsinlar. Agar dorug'alar va hokimlar xalqqa jabr-zulm qilib, ularni xarob qilgan bo'lsalar, qilgan ishlariga loyiq jazo berilsin. Agar biror kimsaning gunohi isbotlangandan so'ng undan jarima olsalar, boshqa yana darra bilan urmasinlar. Agar darra urish bilan jazolasalar, undan jarima olmasinlar.

O'g'rilar xususida buyurdimki, ular qayerda bo'lmasin, kim tutib olsa yaso bo'yicha jazolansin. Kimki birovning molini zo'rlik bilan tortib olgan bo'lsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib, egasiga topshirsinlar. Agar kimda-kim tish sindirsa, ko'zni ko'r qilsa, quloq va burun kessa, sharob ichsa, zino ishlar qilsa, devondagi shariat qozisi yoki ajrim chiqaruvchi qoziga olib borib topshirsinlar. Shariatga oid ishlarni hal etishda islom qozisi hukm chiqarsin. Urf-odat ishlarini esa ajrim qozisi taftish qilib, so'ng mening arzimga yetkazsin.

Vazir tutish tuzugi

Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishlari lozim; birinchisi – asillik, toza nasllilik; ikkinchisi – aql, farosatlilik; uchinchisi – sipoh-u raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo'lishlik; to'rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

(75) Kimki shu to'rt sifatga ega bo'lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiq kishi deb bilsinlar. Uni vazir yoki maslahatchi etib tayinlasinlar. Mamlakat ishlarini, sipoh va raiyat ixtiyorini unga topshirsinlar. Bunday vazirga to'rt imtiyoz; ishonch, e'tibor, ixtiyor va iqtidor berilsin.

(76) Eshitishimcha, Nizomulmulkning yomon qilmishlari kam bo'lib, xayrli ishlari ko'proq edi. U hajga bormoqchi bo'lib turgan vaqtida avliyolardan biri unga debdi: «Malikshoh davlatining xizmatida bo'lib, amalga oshirayotgan xayrli ishlaring va Tangri taoloning bandalariga yetkazib turgan yordaming haj qilish bilan barobardir».

Yana eshitganmanki, Ali ibn Laqatiy xalifa Horun ar-Rashidning vaziri edi. Undan Tangri taoloning bandalariga ko'p naf-u foyda yetardi. Kunlardan bir kuni o'z ixtiyori bilan (77) vazirlikni tark etmoqchi bo'libdi. O'shanda din peshvolaridan biri unga shunday deb yozibdi: «Sen xalifa dargohida mulozimlik qilib, vazirlik ishini bajarib turaver. Bu ishni tashlashni o'ylamagin ham, chunki [bu martabada turib] xalqqa yetkazayotgan yordaming va nafing sen qilgan butun ishlar va harakatlaringning eng oliysidir».

Yana shuni eshitdimki, Hazrati Payg'ambarimizdan, – unga Tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin, – so'rabdilar: «Agar siz nabiy va rasul etib yuborilmaganingizda, qaysi ish bilan shug'ullanardingiz?» Ular shunday deb javob bergan ekanlar: «Sultonlar xizmatida bo'lishni ixtiyor etib, Tangri taoloning bandalariga foyda va yaxshilik yetkazardim».

@tarixchi_kitobxonasiga

Shu sababdan xalqqa yordam-u madad berish maqsadida, men ham Tug'luq Temurxonning o'g'li Ilyosxojaga vazirlik hamda sipohsolorlik qilishga rozi bo'lgandim. Tangri taoloning bandalariga yordam qilganimdan bo'lsa kerakki, Alloh taolo meni saltanat martabasiga yetkazdi...

Saltanatni idora etish tuzugi

(94) Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborli kishilarini aziz tutdim, sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixiga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg'ol, vazifalar berib, maoshlar belgiladim; o'sha viloyatning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo'lsa, o'z farzandlarimdek ko'rdim. Mazkur mamlakatlarning sipohi uchun dargohim eshigi ochiq edi. Raiyatini o'zimga qaratib oldim. Hammani qo'rquv va umid orasida saqladim. Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda hadlaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim. Ulug'larni va sharaf-e'tiborli kishilarini hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulm-u sitam yo'lini to'sdim.

[O'z erki bilan] menga bo'ysungan viloyat hokimlariga o'sha yurt hukumatini berdim va ularni in'om-u ehson bilan qadrlab, o'zimga mute qilib oldim. Bo'ysunmaganlarini esa qilmishiga yarasha jazoladim. Odil, oqil va uddaburon kishilarni ularga hokim etib tayinladim.

Amr etdimki, o'g'ri va qaroqchilarni yaso asosida jazolasinlar, fasodchi, buzuqi, nafsi yomon kishilarni mamlakatdan haydasinlar. Ezma-bekorchi odamlarni viloyat va shaharlarda qoldirmasinlar.

Har bir shahar va qishloqqa kutvol tayinlasinlarki, sipoh-u raiyatga soqchilik qilsin va kimning biron narsasi o'g'irlansa, buning mas'uliyati uning zimmasida bo'lsin.

Va yana buyurdimki, yo'l ustiga kuzatuvchilar, zobitlar tayinlasinlarki, yo'llarni qo'riqlab, o'tkinchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo'ysinlar. Yo'l ustida birortasining narsasi yo'qolsa, o'zi o'ldirilsa yoki (95) boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javob berish ularning zimmasida bo'lsin.

Yana buyurdimki, har yerning hokimlari g'arazgo'y, tuhmatchi va nafsi buzuq kishilarning tuhmat so'zlari bilan katta va kichik shaharlar aholisidan hech kimga jarima solmasinlar. Faqat birovning gunohi to'rt kishining guvohlik berishi bilan isbotlansa, gunohiga yarasha jarima solinsin. Va yana buyurdimki, hech bir shahar va qishloqda odamlardan jon solig'i (sari shumor) va uy solig'i (xona shumor) olmasinlar. Sipohiylardan biron kishi

@tarixchi_kutubxonasiga

raiyatning xonadoniga zo'rlik bilan kelib tushmasin, raiyatning ot-ulovlarini tortib olmasin.

Har bir mamlakatning raiyati bilan bo'lgan muomalada, ularga nisbatan xolislik bilan ish tutsinlar. Yana buyurdimki, har mamlakatning gadolariga vazifa yuklab ish bersinlar, toki shu yo'l bilan gadolik rasmi yo'qotilsin.

Raiyatdan mol-xiroj olish, mamlakatni tartibga keltirish va yuksaltirish, uning obodonchiligi, xavfsizligini amalga oshiruvchi kishilar tuzugi

(98) Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish [davlat] xazinasining kambag'allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi.

Yana buyruq berdimki, har bir mamlakat fath etilgach, turli ko'ngilsiz hodisalardan emin-u omonlikda bo'lsin, uning hosil va daromadlarini hisobga olib ish tutsinlar. Agar yerlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo'lsa, ularning roziligi bilan ish ko'rsinlar, aks holda, [xirojni] tuzukka muvofiq yig'sinlar. Yana amr qildimki, xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig'sinlar. Chunonchi, doim, uzluksiz ravishda koriz, buloq va daryo suvi bilan sug'oriladigan ekin yerlarni hisobga olsinlar va unday yerlardan olingan hosildan ikki hissasini raiyatga, bir hissasini oliy sarkorlik (saltanat xazinasi) uchun olsinlar.

Agar raiyat ro'yxatga olingan yerlaridan beriladigan soliqni naqd aqcha bilan to'lashga rozi bo'lsa, naqd aqcha miqdorini sarkorning hissasi hisoblangan g'allaning mazkur davrdagi narxiga muvofiq belgilasinlar. Narx-navoga muvofiq olingan naqd aqchani sipohga yetkazsinlar. Bordi-yu raiyat hosilni uchga bo'lishga rozi bo'lmasa, u chog'da hisobga olingan ekin yerlarni birinchi, ikkinchi va uchinchi jarib ekin yer qilib ajratsinlar. Birinchi jaribdan [olingan hosilning] uch xarvori, ikkinchi jaribdan [olinganining] – ikki xarvor, uchinchi jaribdan [olinganining] bir xarvorini yig'ib olsinlar. Buning yarmini bug'doy, yarmini arpa hisoblab, hosilning yarmini olsinlar. (99)

Amr qildimki, hosil pishib yetilmasdan burun raiyatdan mol-u jihot olinmasin. Hosil yetilgach, soliqni uch bo'lib olsinlar. Agar raiyat soliq to'plovchi yubormasdan, soliqni o'zi keltirib bersa, [u holda u yerga] soliq to'plovchi yubormasinlar. Agarda oliq-soliq oluvchini yuborishga majbur bo'lsalar, ular soliqlarni buyruq berish va yaxshi so'z bilan olsinlar; kaltak,

@tarixchi_kitobxonaga

arqon ishlatib, ishni urish-so'kishgacha olib bormasinlar. Ularni band etib, zanjir bilan kishanlamasinlar...

Yana amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili [esa oliq-soliq] qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'sinlar.

Yana buyurdimki, agar [har yer va elning] amaldorlari va kalontarlari oddiy fuqaroga jabr-zulm qilsa va shu orqali bechoralarga zarar yetkazgan bo'lsa, [bunday vaqtlarda] yetkazilgan zararni kalontarlardan undirib, jabr ko'rganlarga bersinlar, toki ular yana o'z hollariga kelsinlar.

Xarob bo'lib yotgan yerlar egasiz bo'lsa, xolisa tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo'lsa-yu, [lekin] obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblar va kerakli narsalar bersinlar, toki o'z yerini obod qilib olsin.

Yana amr qildimki, xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga [yangi] ko'priklar qursinlar, yo'l ustida har manzilgohga rabotlar qursinlar. Yo'llarga kuzatuvchi va soqchilar qo'ysinlar, har bir rabotga bir nechta odamni joylashtirsinlarki, yo'llarni kuzatish va saqlash ishlari shularga tegishli bo'lsin. Yo'lovchilar mollarini g'aflat bosib, o'g'irlatib qo'ymasliklarining vazifasi ham o'shalarning zimmasida bo'lsin.

(100) Yana amr etdimki, katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqir-u miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar. Har bir shaharda saroy (dorul-amorat) va qozixona (dorul-adolat) qursinlar. Va raiyat-u ziroatni qo'riqlovchi qurchilar [ham] tayinlasinlar.

DAVLATSHOH SAMARQANDIY VA UNING «TAZKIRAT USH-SHUARO» ASARI HAQIDA

Davlatshoh ibn Alouddavla Baxtishoh al-G'oziy as-Samarqandiy (1435 – 1495) tarjimayi holiga oid ma'lumotlar juda kam bo'lib, «Tazkirat ush-shuaro» («Shoirlar tazkirasi») asarida keltirilgan ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda, u yirik harbiy xizmatchi va davlat arbobi oilasida tug'ilgan. Otasi Baxtishoh Shohrux Mirzoning amirlaridan bo'lib, ko'pgina harbiy yurishlarida qatnashgan.

Davlatshoh Samarqandiy yoshligidan ilmga qiziqib, o'z davrining ko'zga ko'ringan olimi, faqih va shoir Xoja Jaloliddin Fazlulloh Abullaysiydan ta'lim olgan. Lekin 1480-yillarga qadar ilmiy yoki adabiy faoliyat bilan shug'ullanmagan, balki saroy xizmati va harbiy ishlarga jalb qilingan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Shohrux va Sulton Husayn Boyqaroning ko'pgina harbiy yurishlarida ishtirok etgan. U so'nggi marta Sulton Husayn Boyqaro bilan Sulton Mahmud [Hisori Shodmon va Badaxshon hokimi] o'rtasida Chakmansaroyda [Afg'onistonning Andxo'y viloyatida] bo'lgan jangda qatnashgan.

Davlatshoh Samarqandiy «Tazkirat ush-shuaro» asarini yozishda juda ko'p manbalardan: o'zidan oldin yozilgan tazkiralardan, xususan, Abu Tohir Xotuniyning «Manoqib ush-shuaro», Avfiyning «Lubob ul-albob» kitoblaridan, tarixiy va geografik asarlardan, xususan, Istaxriyning «Kitob masolik ul-mamolik», Gardiziyning «Zayn ul-axbor», Abulfazl Bayhaqiyning «Tarixi oli Sabuktegin» va boshqalardan, shuningdek, tazkirada qayd etilgan shoir va adiblarning asarlaridan keng foydalangan.

Tazkirada VII–XV asrlarda yashab ijod etgan 155 shoir haqida qisqacha, lekin nihoyatda qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

«Tazkirat ush-shuaro» (yoki «Tazkirai Davlatshohiy») muqaddima, xotima va yetti qism (tabaqa)dan iborat.

Muqaddimada asarning yozilish sabablari, VII–X asrning birinchi yarmida yashab o'tgan arab shoirlaridan Labid (VII asr), Abu Nuvos (vaf. 814-y.), Abu Tayyib ul-Mutanabbiy (vaf. 963-y.), Abu A'lo al-Maarriy (973–1058) va boshqalar haqida ma'lumot keltirilgan.

Birinchi va ikkinchi qismlar X–XI asrlarda Eron va Markaziy Osiyoda yashab o'tgan 21 ta yirik shoirning qisqacha tarjimayi holi va ijodiga bag'ishlangan.

Uchinchi, to'rtinchi va beshinchi qismlarda Xorazmshohlar – Anushteginiylar (1077–1231), Elxoniylar (1258–1349) va Muzaffariylar (1315–1393) zamonida ijod etgan 54 shoir haqida ma'lumot bor.

So'nggi ikki tabaqa Temur va temuriylar zamonida Markaziy Osiyo, Eron va Iroqda yashagan 41 ta shoir ijodiga bag'ishlangan.

Xotima esa mazkur asar muallifi bilan zamondosh mashhur allomalar Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xoja Afzaliddin Muhammad, Amir Ahmad Suhayliy, Xoja Shahobiddin Abdulloh Marvarid hamda Xoja Osafiy haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Davlatshoh Samarqandiyning mazkur tazkirasi jamoatchilik e'tiborini ko'pdan beri tortib kelmoqda. 1819-yildan buyon asarning ayrim parchalari Rossiyada (V.A. Jukovskiy va F. Erdman), Fransiyada (Silvestr de Sasi), Angliyada (E. Broun va A. Falkoner), Turkiyada (Fahim Sulaymon afandi), Germaniyada (Xammer) hamda Gollandiyada chop etilgan. Uning to'la matni 1887-yili Bombeyda Mirza Muhammad[1], 1901-yili Londonda E. Broun va 1958-yili Tehronda Hoji Muhammad Ramazoniy tomonidan nashr etilgan[2].

[1] Tazkirat ush-shuaro. (Bombey, 1887).

[2] Tazkirat ush-shuaro. (Tehron, 1958).

@tarixchi_kutubxonasiga

1900-yili birinchi bor Xivada Muhammad Rafe tomonidan eski o'zbek tiliga (Xorazm shevasida) ag'darildi. 1967-yili B.Ahmedov «Tazkirat ush-shuaro» tazkirasidan Markaziy Osiyo va xurosonlik 32 va 1981-yili 50 dan ortiq shoir hayoti hamda ijodiga oid ayrim parchalarni o'zbek tiliga tarjima qilib, «Davlatshoh Samarqandiy» nomli kitobiga ilova qilgan. Quyida B. Ahmedov 1967-yili «Tazkirat ush-shuaro»dan o'zbek tiliga tarjima qilgan kitobidan atoqli shoirlar hayoti haqida lavhalar berildi[1].

D. Yusupova, S. Akbarova

DAVLATSHOH SAMARQANDIYNING «TAZKIRAT USH-SHUARO» ASARIDAN LAVHALAR

Rashid Vatvot

«Uning ismi Rashiduddin Muhammad ibn Abduljalil kotib al-Umariydir[2]... Ulug', fozil, sohibi fan edi va uning buzrukvorligi va fazli barchaga ma'ruf va muqarrar edi. Uning [olim va shoir sifatida] maydonga chiqishi Xorazmshoh Otsiz ibn Muhammad (1128–1156) davrida bo'ldi. Uning asli balxlik, lekin Xorazmda maskan bo'ldi.

[Rashid Vatvot] o'z zamonida shuaro va fusaho toifasiga ustod bo'lib, uzoq va yaqin atrofning shuarosi hamma vaqt uning mulozimatiga borib, she'r ilmi va boshqa ilmlarni o'rganish bilan mashg'ul bo'lardilar.

Unga shoirlikdan boshqa [yana bir] yuqori mansab va martaba ham muyassar edi. [U] tez zabon, fasih [kishi] edi. Atrofning shuarosi bilan bahslashar, ularni yengar va [shu tufayli] ko'pincha [ana shu] shuaroga xush kelmas edi va shuaroning ko'pchiligi uni nozik hajv qilardi. Bu nihoyatda baxillik va hasaddan edi. U o'sha bo'htonlardan pokdir va uning fazl va o'tkir zehni haqida hech qanday so'z bo'lishi mumkin emas.

Rashid [Vatvot] haqir, kichik jussalik va tezzabon edi. Shu jihatdan unga Vatvot nomini berganlar va «vatvot» bir qushdirkim, uni «farashtarak» ataganlar.

Naql qiladilarki, bir kuni Xorazmda Xorazmshoh ko'rdiki, bu odam shunchalik kichik jussa bo'la turib, behad va beandoza bahs qilayotir. Rashid [Vatvot]ning oldida bir davot turgan edi. Xorazmshoh zarofat yuzasidan dediki: «Davotni ko'taringlarchi, uning orqasida turib gapirayotgan kim ekan». Rashid [Vatvot] davotni olib, o'rnidan [dast] turdi va [bunday] dedi: «Kishi ikki narsasi: qalbi va tili bilan inson hisoblanadi». Rashid Vatvotning fazli va balog'ati Xorazmshohga ma'lum bo'ldi. [Shundan boshlab] uni

[1] Tazkirat ush-shuaro. (Toshkent, 1981).

[2] *Rashid Vatvot* – 1088–1182-yillarda Xorazmda yashab o'tgan mashhur olim va shoir.

@tarixchi_kutubxonasiga

izzat-u ehtirom qilar, ko'p in'omlar bilan bahrlantirar edi. Uni Xorazmshoh madhida aytgan pokiza qasidalari bor edi.

(19) Rashid [Vatvot]ning devoni qariyb o'n besh ming baytdan iborat edi. Uning aksariyati masnu', murassa', ikki qofiyalik va boshqa qasidalardan iborat. Uning ba'zi baytlari tarsi' va tajnisdir.

Rashid Vatvot uzoq umr ko'rdi va Otsiz Xorazmshohning vafotidan so'ng to Xorazmshoh El Arslon ibn Otsiz (1156–1172) davrigacha ham hayot edi. Xorazmshohning Rashid [Vatvot] suhbatini topish orzusi bor edi va dediki, «[u] pir-u zaif bo'libdir, albatta, uni mening huzurimga olib kelinglar». Rashidni mahfaga solib uning huzuriga olib keldilar...

Ammo Xorazmshoh Otsiz ibn Qutbiddin Muhammad ibn Nushtekin, [aslida], Sulton Malikshoh Saljuqiyning g'ulomzodasidir. Sulton Malikshoh zamonida Xorazmning moli va boyligi sultonning tashtxonasiga[1] sarf bo'lardi. Nushtekin (ilgari) tashtdorlarning kattasi bo'lgan. Sulton Barkyoruq[2] uni Xorazmga hokim qilib yubordi. [U] taqvodor kishi edi. Uning o'g'li Qutbiddin Muhammad Xorazmshoh martabasini topdi... Otsiz uning o'g'lidir. [Otsiz] Xorazmda martaba va yaqinlikka muyassar bo'ldi. [U] har yili bir marta Marvga borib sultonning mulozimatida bo'lar, so'ng yana Xorazmga qaytib kelar edi. Sohibg'arazlar unga hasad qildilar va sultonni unga yomon qilib ko'rsatdilar. [Oqibatda] Otsiz Marvdan qochdi va Xorazmda sultonga qarshi isyon ko'tardi va hokimiyatni tamom qo'lga oldi.

Otsiz hamisha kofirlar bilan g'azo qilar va ko'p o'lja topardi. Oxiri uning martabasi shu qadar [baland] bo'ldiki, lashkar Sulton Sanjardan qochib unga qo'shila boshladi. [Oxiri] sulton zaruriyatdan, Otsizni daf qilish uchun Xorazmga lashkar tortdi. [Yuqorida] (20) nomi zikr etilgan Anvariy o'sha yurishda [Sulton Sanjarning] mulozimatida edi. [Sulton Sanjar] Hazorasp atrofiga kelib, uning qal'asini qamal qilgach, Anvariy mana bu ruboiyni insho qildi va uni nayzaga bitib qal'aga otdi:

Ey jahon podshosi, olam ixtiyori sening iqtidorli qo'lingdadir.
Va jahondagi iqbol-u davlat sening kasbingdir,
Bukun bir hamla bilan Hazoraspni ol!
Ertaga Xorazm-u yuz Hazorasp senikidir.

[O'sha vaqtda] Rashid Vatvot qal'ada, Otsizning mulozimatida edi. [U] javob tarzida mana bu baytni yozib yubordi. Bayt:

Agar dushmanlikda Rustamgo'r bo'lsang ham,
Hazoraspdan birorta eshakni [ham] olib ketolmaysan.

[1] *Tashtxona* – podsho va xonlarning yotoq va har kuni ro'zg'orda kerak bo'lib turadigan anjomlari saqlanadigan ombor.

[2] *Sulton Barkyoruq* (Ruknuddin Abulmuzaffar Barkyoruq, 1094–1104) – Saljuqiylar sulolasiga mansub sultonlardan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Sulton [Sanjar] Rashid Vatvotdan darg'azab bo'ldi va qasamyod qildiki, agar Vatvot qo'limga tushsa, [uni] yetti pora qilaman. Sulton [Sanjar] Rashid aytgan mana bu baytni ham eshitgan edi:

Otsiz g'oziy podshohlik taxtiga mindi.
Saljuqlar xonadonining davlatiga u bosh bo'ldi.

[Shu tufayli] sultonning ko'nglida qadimiy gina ham bor edi. Qamal muddati cho'zilib ketdi. Otsizning esa qarshilik ko'rsatishga majoli kelmay kechasi qal'ani tashlab qochdi. Hazorasp qal'asi sulton tomonidan fath etildi[1]. Vatvot esa undan yashirindi. (21) Surishtirib va qidirib uni topdilar [va] sultonning huzuriga keltirdilar. Sulton [uni] yetti pora qilishga buyurdi. Vatvot sultonning devonida munshiy bo'lgan va nadimlik mansabiga ham yetishgan Muntaxabuddin Bade' kotibga maktubcha yuborib, o'rtada turib gunohini sultondan so'rab berishni iltimos qildi. Muntaxabuddin sultonga arz qildikim: «Vatvot bir qushki, g'oyatda kichik va zaifdir. [Shuning uchun ham] uni yetti pora qilib bo'lmas. Ey jahon sultoni, buyurgilki, uni faqat ikki pora qilsinlar». Sulton xanda qildi va bu latifa bilan Vatvotning qonidan kechdi va dediki: «[Uni] ikki pora ham qilib o'ltirmaylik, [chunki] uning bunga ham holi yo'qdir».

[Shundan keyin] Vatvot Termizga keldi va Sulton Sanjar g'uzlar tomonidan o'ldirilib[2], Otsiz bu tomonga lashkar tortib tamom Xuroson uning qo'liga o'tguncha birmuncha vaqt Termizda yashadi. Rashid Otsiz bilan uchrashish qasdida Termizdan jo'nadi va Xabushonda uning lashkargohiga keldi. [Rashid] bir qancha vaqt Otsizning suhbatdoshi bo'ldi. Nogoh, 551 (1156)-yili Otsiz Xabushonning Darayi Xurram degan joyida vafot etdi...

Rashid [Vatvot] 1182-yili Xorazmda vafot etdi... Aytishlaricha, uning umr muddati 97 yil bo'lgan. Qabri Xorazmning Jurjoniya shahridadir.

Uning ilmi ma'oniy va ilmi bayonda marg'ub kitoblari bor. «Hadoyiq us-sehr»[3] kitobi uning tasonifotlaridandirki, she'r san'atida undan foydaliroq kitob yo'qdir... Va yana bir necha nusxa ilmi she'r, istifoda va insho ilmidagi kitoblar ham uning tasonifotlaridandir».

Adib Shahobuddin Sobir

Mohir donishmand, fozil, adib va kamolotga yetgan shoir bo'lgan. Sulton Sanjar hukmronligi davrida (22) Termizdan Marvga bordi. [Shahobuddin Sobirning] asli Buxorodandir, ammo Xurosonda kun kechirgan. [U] Rashid

[1] Bu voqea 1113-y. sodir bo'lgan.

[2] Sulton Sanjar 1153-yili g'uzlar tomonidan tor-mor etilib, asir olingan edi. Uning vafoti 1157-y. voqe bo'ldi.

[3] Bu kitobning bir necha nusxalari O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda.

@tarixiy_kutubxonasiga

Vatvotning asrdoshidir va har ikkalasi bir-biriga nozik hajvlar aytishgan. U hajvlarni ushbu kitobda keltirish hurmatdan yiroqdir. Xoqoniy[1] Vatvotni inkor qilardi, [lekin] Sobirga e'tiqodli edi. Anvariy Sobirni shoirlikda musallam tutar edi.

To'g'risi, Sobir g'oyatda xushgo'y bo'lgan ekan va uning suxani sof, ravon... va [u] o'z asridagi shoirlarning sardaftari bo'lgan edi...

Hikoyat qiladilarki, [Sobir o'z nazmi bilan] Sulton Sanjar va uning arkon davlatining nazdida muhtaram bo'ldi. Xorazmshoh Otsiz Xorazmda Sulton Sanjarga qarshi isyon zohir etganda, Sulton adib Sobirni pinhoniy tarzda Xorazmga, uning ahvolidan doimo xabardor bo'lib turish uchun yubordi. Otsiz [esa] bir fidoyi shaxsni [Marvga] yuborib, juma kuni sultonga tig' urib halok qilishni buyurdi. Adib Sobir u shaxsning surati va belgilarini qog'ozga chizib Marvga yubordi. [Marvda] o'sha shaxsni tutib olib o'ldirdilar. [Shu vaqt] Otsiz Xorazmda edi. Otsiz Sobirning bu tariqa qilgan ishidan xabar topdi, [so'ng] adibning oyog'-u qo'lini bog'lab Jayhunga tashlab g'arq qildilar. Bu voqea 546 (1151)-yili yuz berdi.

Hakim Suzaniy Samarqandiy

[Asli] samarqandlik. Xushta'b va zarif suxan odam edi. Yoshligida tahsil qildi, ammo ta'bi hazilga juda moyil edi. [U tahsil qilgan] madrasa ulamolari ittifoqlashib, hamxonalaridan birini Suzaniyni hajv qilishga ko'ndirdilar. U kishi Suzaniyga nozik hajvlar aytgan va Suzaniy u bilan bahslashgan. U hajvlarni ushbu kitobda keltirish munosib emasdir...

Hakim Suzaniyning vafoti Samarqandda 569 (1173)-yili sodir bo'lgan. (23)

Javhariy Zargar

Suxani yoqimli, nadimsheva [odam] edi. Adib Sobirning shogirdi. Asiruddin Axsikatiyning asrdoshi edi. [Javhariyning] asli Buxorodandir. Ammo sayohat yuzasidan Iroqqa kelgan va Isfahonda turgan. [U] nihoyatda badavlat kishi bo'lib, hamisha shoirlarga xizmat qilur edi... va «Ahmad va Mahsitti» dostonini Javhariy nazm qilgan[2] va bu dostonni buzrukvor shayx Nizomiy ta'lif etgan [ham] deydilar».

Fozillar sultoni Asiruddin Axsikatiy

Donishmand va fozil [kishi] bo'lib, so'zamollikda oliy martabaga ega edi. Xoqoniyning asrdoshlaridandir. Asli Turkistondan, Farg'onaga qarashlik Axsikatning nohiyatidandir. Iroqi Ajam va Ozarbayjon mamlakatlarida sokin bo'ldi. Xolxol va Mosul hokimi uni o'z yoniga taklif etgan edi, umrining oxirini o'sha o'lkalarda o'tkazdi.

---

[1] *Xoqoniy* – Afzaluddin Badil Ibrohim ibn Ali; yirik ozar shoiri (1121 – 1199).

[2] Xalq og'zaki materiallariga tayanib berilgan bu doston Sulton Sanjarning kanizagi, mashhur xonanda Mahsittining muhabbatini tarannum qiladi.

@tarixni_kutubxonasiga

Otabek Eldigiz[1] Asiruddinning suhbatiga tolib edi, ammo uchrashuv va suhbat muyassar bo'lmadi[2]...

Fazl egalari Asiruddinning shoirligiga qoyil qolganlar. Ba'zilarning da'vosi shulki, uning suxani Xoqoniy va Anvariyning suxanidan fazlliroqdir. Ba'zilar [esa] bu da'voni ma'qul topmagan. Insof qilib aytganda, bu uch fozilning har birining bir shevasi bordirki, bu o'zgalarda yo'qdir. Asiruddin so'zni donishmandona aytur edi. Anvariy suxanni zavq bilan aytardi. Xoqoniy [esa] lafzga bazak va oroyish berishda hammadan mumtoz edi... [Xullas] har uchalasi ma'nolar daryosining g'avvoslari edilar.

Faxruddin Banokatiy

Donishmand va fozil odam edi. Sulton Abusaidxon davrida o'tgan. «Tarixi Banokatiy»ni u yozgan va unda Xitoy podshohlarining nasabi, Hindning to oxirgacha, yahudiylar, Rum va boshqa [mamlakat]larning ahvoli bayon etilgan. Muarrixlardan birontasi ahvolotni uningdek sharh qilgan emas. Shoirlikda [ham] oliy martabaga ega edi va pokiza qasidalar hamda pishiq qit'alar aytgan...

Davlatshoh Samarqandiy «Tarixi Banokatiy» va boshqa manbalarga tayanib, Eron, Ozarbayjon va Iroq ustidan qariyb yuz yil hukmronlik yurgizgan Elxoniylar davlatining inqirozi va uning so'nggi damlarini haqqoniy tarzda tasvirlab bera olgan. Bu xususda tazkirada mana bularni o'qiymiz:

(29) Sulton Abusaid vafot qilgandan so'ng [mamlakatda] umumiy inqilob voqe bo'ldi; eminlik va omonlik yo'qoldi; uxlab yotgan fitna bedor bo'ldi. Sultonning xoqonlik masnadida muqarrar bo'ladigan zurriyoti va valiahdi bo'lmaganidan, atrofning amirlari zo'ravonlik paydo qildilar va mustaqillik da'vosini qila boshladilar. Har bir sardor sultonlikka va har bir shahna[3] amirlikka qanoat qilmas edi...

Ozarbayjonda shayx Hasan, amir Cho'bon va Shayx Jaloyir xuruj boshladi. Iroq va Forsda Muhammad Muzaffar g'alaba qozondi. Xurosonda sarbadorlar xoqon bo'ldilar, [ya'ni] vazir Alouddin Muhammadni o'ldirib, uning o'rniga vazir bo'ldilar. Marv va Tusda Jonqurboniy [qabilasi] g'avg'o ko'tardilar. Hirotdan to Saraxsning chetigacha karnay va nog'ora[ning] ovozi tutdi. Xullas, hijriy 716 (1316)-yildan to 781 (1379)-yilgacha qariyb ellik yil Eronzaminda atrofning podshohlari bir-biriga bo'ysunmadilar; viloyatdan viloyatgacha, shahardan shahargacha, qishloqdan qishloqqacha ham-

[1] *Otabek Eldigiz* – Ozarbayjon otabeklaridan; Eldigiziylar davlatining (Janubiy Ozarbayjon, Arron, Naxichevon, Isfahon va Ray shu davlatga qaragan) asoschisi Shamsuddin Eldigiz (1160–1174).

[2] Asiruddin Axsikatiy 1174-yil atrofida vafot etgan.

[3] *Shahna* – biror shahar yoki aholi yashaydigan joyda turgan harbiy qism boshlig'i; mirshab; shahar boshlig'i.

@tarixchi kutubxonasiga

ma xusumat bilan mashg'ul bo'ldi. Qutb doirasi, Sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning sersuv qilichi o'zining g'ayrat g'ilofidan yuz ko'rsatguncha [Eronzaminda] fitna olovi bartaraf bo'lmadi... (30)

Amir Xusrav Dehlaviy

Uning kamoloti sharh va bayonga ehtiyoji yo'qdir. Malak sifat zoti olam ma'nisining g'animati bilan badavlat va moldordir. Ishonch konining gavhari va irfon daryosining qiymatli duri, haqiqat ishqibozligini majozning tariqasida bezagan, balki haqiqatning zebo keliniga oshiqliq qilgan ishqning o'qi tekkan ma'shuqlarning jarohatlariga uning tuz-namakli she'rlari tuz separ va xastalarning shikasta ko'ngillarini uning xisravoniy zamzamasi taroshlar edi. [Amir Xusrav Dehlaviy] ma'shuqlar podshohidir va shu jihatdan ham uning ismi Xusravdir. So'zamollik mulkida shu ismning o'zi kifoyadir va uning haqida suxandonlikning martabasi yo'qdir. Uning xususidagi qissani qisqa qilmoq zarur, vassalom.

Amir Xusravning asli turkdir va deydilarki, [u] Kesh shahridan bo'lib, Qarshi atrofida istiqomat qilgan Lochin hazorasiga [ya'ni qabilasiga] mansubdir. [Bu qabila] Chingizxon zamonida Movarounnahrdan qochib, Hindga borib qolgan. Amir Xusravning otasi amir Mahmud [ana shu] hazoraning mehtari[1] va amiri edi. [Dehli sultoni] Sulton Muhammad Tug'luqshoh[2] davrida Mahmud lochin Hindda [ham] amir bo'ldi. Dehli hokimi bo'lgan Sulton Muhammad amir Mahmudga turli inoyat, shafqat va iltifotlar qilardi va u oliy darajaga muyassar bo'ldi. [Amir Mahmud] kofirlar bilan bo'lgan g'azotda shahid bo'ldi.

Amir Xusrav otasining o'rniga o'ltirdi va amirlik nomi bilan [ham] nomdor bo'ldi. Sultonlik mulozimati va [amirlik ishlari bilan] shug'ullanish asnosida turli fazilatlarni jam qildi va ota-bobolarining odatlarini pokiza tutdi.

Uning Sulton Muhammad Tug'luqshohga atagan qasidalari [ham] bor edi. Tahqiq olamining nasimi uning umid ravzasiga [qarab] esgach, dunyo va shunga o'xshashlarni [o'zining] himmat nazaridan past deb bildi. Bir necha marta [sultonning] mulozimatidan iste'fo bermoqchi bo'ldi va Sulton Muhammad buni rad qildi. Oxiri turli yo'llar bilan, uning mulozimatidan yuz o'girib, fuqaroning xizmatiga mashg'ul bo'ldi (31) va istak qo'lini... Ma'rifatli shayx... Nizomuddin avliyoning[3] tarbiyat etagiga urdi.

[1] *Mehtar* – ulug', katta; bu yerda – qabila boshlig'i.

[2] *Sulton Muhammad Tug'luqshoh* – Tug'luqiylar sulolasidan (1320–1398) bo'lgan Dehli sultoni; 1325–1351-yillari hukmronlik qilgan. Bu yerda xato sodir bo'lgan, G'ulomlar sulolasidan bo'lgan Nosiruddin Mahmud (1246–1265) haqida so'z borayotgan bo'lsa kerak.

[3] *Nizomiddin Avliyo (Xoja Nizomuddin Muhammad ibn Ahmad ibn Doniyol)* – hindistonlik atoqli shayx va mutasavvuf shoir (vaf. 1324).

@tarixchi_kutubxonasiga

[Xusrav Dehlaviy] bir necha yil tariqat bilan shug'ullandi va podshohlar madhini o'zining she'rlar devonidan chiqardi. Uning xushbo'y xotiri munavvar bo'ldi va haqiqatlarni kashf qilishda oliy maqom topdi. Shayxlar shayxi Nizomiddin avliyo ko'pincha aytardi: «Umid qilamanki, mahshar kuni bu turkning qaynoq siynasi bilan meni kechirurlar». Xoja Xusrav ko'p mol-u dunyosini shayx [Nizomiddin avliyo]ning qadamiga nisor qildi...

Shayx Orif Ozariyning «Javohir ul-asror» kitobida keltirilganki, shayx Muslihiddin Sa'diy juda ham keksayib qolgan chog'ida Amir Xusrav [Dehlaviy] bilan suhbat qurgan va shuning uchun Sherozdan Hindga borgan. Amir Xusravning shayx Sa'diyga nihoyatda zo'r e'tiqodi bo'lgan va mana bu baytda o'z e'tiqodini bayon etgan:

Xusrav [Dehlaviy] kayf ustida sog'arga ma'ni mayin quydi,
Chunki mastlik xumxonasining ziynati Sherozda edi.

Amir Xusravning she'rlar devonini fozillar jam qilolgan emaslar, chunki daryo zarfga sig'mas va ilohiyat ilmi harfning qaydiga kirmaydi. (32)

Said sulton Boysunqur Bahodir[1] ... Amir Xusravning she'rlarini jam qilishda ko'p sa'y-harakat qilib, bir yuz yigirma ming baytdan ziyodrog'ini to'pladi. Bundan keyin [Amir] Xusravning devoniga kirmagan ikki ming g'azalni ham topib qo'shdi.

[Umuman], Amir Xusrav she'rlarining [adadini] tekshirish amrimahol bo'lgani uchun bu ish to'xtatilgan edi.

Amir Xusrav o'zining risolalaridan birida yozganki, mening she'rlarim besh yuz mingdan kamroq, to'rt yuz mingdan ortiqroqdir. Aytadilarki, Amir Xusravning «Xamsa»si o'n sakkiz ming baytdan iboratdir, shayx Nizomiy[2] [Ganjaviy]ning «Xamsa»si esa yigirma olti ming baytdir...

Amirzoda Boysunqur Amir Xusravning «Xamsa»sini shayx Nizomiyning «Xamsa»sidan ortiq ko'rardi. Marhum xoqon Ulug'bek Ko'ragon bu ma'nini qabul qilmasdi va shayx Nizomiyga ixlosmand edi. [Shu tufayli] bu har ikki podshoh o'rtasida bir necha bor qattiq ko'ngilhollik voqe bo'lgan edi. Ularning har biri [faqat] bir shoirga hikoyat qilur edilar. Agar bu qattiq ko'ngilhollik shu kunlarda voqe bo'lganda, bu zamonning ahli fozillarining tanqidiy nuqtayi nazari, – ularning umrlari uzoq bo'lsin, – kimning ustunligini aytib berur edilar.

Alqissa, Amir Xusravning xos va nozik ma'nilari va uning ishq-u muhabbatga to'la oshiqona suxanlari kishining tabiatiga zo'r olov yoquvchidir.

[Umrining] oxirgi paytlarida Amir Xusrav [o'z] she'rlarini to'rt qismga bo'lgan va har bir qismiga [alohida] bir ism qo'ygan. Bular quyidagicha:

[1] *Boysunqur Bahodir* – Sulton Shohruxning o'g'li va vaziri (vaf. 1433).

[2] *Shayx Nizomiy* – Ozarbayjonning ulug' mutafakkir shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141–1209).

@tarixchi_kutubxonasiga

«Tuhfat us-sig'ar» («Yoshlik tuhfasi») – [buni] yoshlik vaqtida tasnif etgan.

«Vasat ul-hayot» («Umr o'rtasi») – suluk[ga kirganining] boshlarida va balog'atga yetgan davrida jam qilgan.

«Quvvat ul-kamol» («Kamolot quvvati») – to'la balog'at va shayxligida jam etgan. (33)

«Baqiyayi naqiya» («Betoblik qoldig'i») – nihoyatda faqir va quvvatdan ketgan vaqtida ta'lif qilgan...

Ammo Amir Xusrav uzoq umr ko'rdi, lekin umrining (aniq) muddati ma'lum emas. Yetti yuz yigirma beshinchi (1325) yili [uning] murod oti borliqning tang lavhidan yo'qlikning maydoni sari chopdi va ruhining to'ti qushi o'zini havaslar qafasidan xalos qildi. Uning muborak mozori Dehlida...

Va Xoja Xusravning qasidalari, masalan, «Bahr ul-abror» («Muqaddas daryo»), «Anis ul-qulub» («Qalb do'sti»)dirki, xalq orasida g'oyatda mashhur edi va zamon fozillari u qasidalarning javobiga mashg'ul bo'lgan edilar; unda fasohat va balog'atning dodini berganlar. [Bu] qalam vositasi bilan ushbu tazkiraga kirolmaydi. Amir Xusrav «Xamsa» va undan keyin bir necha risola [ham] nazm qilgan. Masalan, «Qiron us-sa'din» [«Ikki saodatli yulduzning qo'shilishi»] kim, [bu] Dehli podshosi Sulton Alouddin[1] haqida aytilgan. [Yana] «Manoqibi Hind va tarixi Dehli» va boshqa kitoblari ham bor. «Nuh sehr» («To'qqiz sehr») kitobida o'n bir bahrni rioyat qilib, o'sha masnaviyni aytgan va unda Hind podsholarining ahvolini bayon qilgan. [Yana] «Xizrxoniy»[2]dirki, unda Xizrxon ishqining dostonini nazm qilgan. [Xusrav Dehlaviyning] istifoda ilmi va musiqiyda ham kitoblari bordir.

Nosir Buxoriy

Fozil kishi edi va uning she'ri [o'zining va zamonning] kayfiyatidan holi emas edi. Uning she'rlaridan ko'ngilga kamtarinlik islari yetardi. Hamisha sayohat qilardi va darvishlarning kiyimini kiyib yurardi. [Uning] namatdan uzun ust kiyimi va toqiyasi bo'lardi. Uni kitobdan boshqa hamrohi yo'q edi...

Hikoyat qiladilarki, Nosir [Buxoriy] Makkaga bora turib dorulislom Bag'dodga tushganda, Xoja Salmon [Sovajiy]ning ovozasini eshitib qoladi va uni topib uchrashishga qasd qiladi. Bir kuni Xoja Salmon bir guruh iste'dod egalarining hamrohligida, bahor vaqtida, Bag'dod qal'asi yonida suvi seldek tug'yon qilib oqayotgan Dajlani tomosha qilib turur edi. Nosir [Buxoriy] Xoja Salmonga salom berdi. Salmon so'radi: «Sen kimsan?» [No-

[1] *Sulton Alouddin* – Xiljiylar sulolasidan (1290 – 1320) bo'lgan Dehli sultoni; 1296 – 1316-yillari hukmronlik qilgan.

[2] Bu doston «Duvalroni va Xizrxon» (O'zRFASHI qo'lyozmasi, inv. №7454) deb ham ataladi. Xizrxon yuqorida zikr etilgan Sulton Alouddin Xiljiyning o'g'li bo'lib, og'asi o'limi oldidan uni valiahdlikdan mahrum etgan. *Duvalroni* – Gujarot rojasi Rayqironning qizidir.

@tarixchi_kutubxonasiga

sir] javob qildi: «[Men] bir g'aribman va shoirman». Xoja Salmon uni imtihon qildi va dedi:

Dajlaning raftori bukun ajab mastona bo'lubdir.
Nosir javob qildi:
Oyog'i zanjirda, qo'li labida-yu, lekin devona bo'libdir.

Xoja Salmon [Sovajiy] Nosirning latofatlik ta'biga ofarin o'qidi; [so'ng] uni quchog'iga tortib ismini so'radi. [Xoja Salmon] bundan burun Nosirning shuhratini eshitgan edi va bir necha vaqt [ular] bir-birlari bilan hamsuhbat bo'ldilar. Nosir [Buxoriy]ning Xoja Salmonga bo'lgan e'tiqodi g'oyat zo'r edi va u o'zini uning shogirdi hisoblardi...»[1]

FAXRUDDIN ALI SAFIY VA UNING «RASHAHOT» ASARI HAQIDA

Faxruddin Ali Safiy XV asrning ko'zga ko'ringan olimlaridan biridir. Uning otasi Husayn Voiz Koshifiy Hirotning mashhur olimlaridan bo'lib, Navoiyning ta'biri bilan aytganda, «uning shug'ullangan fanidan ko'ra shug'ullanmaganini sanash oson edi». Ali Safiy Hirotda ta'lim olib, yetuk olimga aylandi. Uning o'ndan ortiq asarlari dunyodagi qo'lyozmalar fondlaridan joy olgan.

Ali Safiyga shuhrat keltirgan asarlardan biri «Rashahot ayn ul-hayot» («Obihayot tomchilari») kitobi bo'lib, u samarqandlik mashhur shayx Xoja Ahrori Valiyga bag'ishlangan. Unda yana Xoja Ahror tilga olgan va tanish bo'lgan yuzlab shayxlar haqida hikoya qilinadi. Asarda Xoja Ahrori Valiyning hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati ochib berilgan.

«Rashahot» 1837, 1889, 1906-yillarda Hindistonda hamda 1911-yilda Toshkentda toshbosmada chop qilingan. Quyida Movarounnahrda yuz bergan ba'zi ijtimoiy-siyosiy voqealarga bag'ishlangan qismidan namuna berilmoqda. Namuna 1840-yili Xudoybergan ibn Bekmuhammad tomonidan Xorazmda o'zbek tiliga qilingan tarjima asosida tayyorlandi.

M. Hasaniy

FAXRUDDIN ALI SAFIYNING «RASHAHOT» ASARIDAN LAVHALAR

Mirzo [Abulqosim] Boburning Samarqandni qamal qilish uchun kelib, noumid qaytganining hikoyasi

Mirzo [Abulqosim] Bobur ibn Boysunqur ibn Mirzo Shohrux yuz ming bahodir urush odamlari bilan Xurosondan Samarqandga yuzlandi. Mirzo Sulton Abusaid Hazrati Eshon (Xoja Ahror)ning huzurlariga kelib: «Bizda

[1] Nosiruddin Buxoriy 1370 (boshqa ma'lumotlarga ko'ra 1378)-yili vafot etgan.

@tarixni_kutubxonasiga

unga qarshilik ko'rsatish quvvati yo'q, nima qilaylik?» – deb so'radi. Hazrati Eshon unga taskin berdilar.

Mirzo [Abulqosim] Bobur Amudaryodan o'tganda, Mirzo Abusaidning amirlari o'zaro kelishdilar va Mirzoni Turkistonga olib ketib, o'sha yerga joylashtirishga qaror qildilar. Ular tuyalarga yuk urdilar. Bu haqda Hazrati Eshon xabar topib, tuya egalariga qahrini sochdilar va: «Yuklarni tushiringlar!» – deb buyurdilar.

Hazrati Eshon Mirzo Abusaidning oldiga kirib: «Qayerga bormoqchisiz? Ketishning hojati yo'q, ish shu yerda hal bo'ladi, men sizlarning mushkulotingizni bo'ynimga oldim, o'yga tolmang va xotiringizni jam tuting», – dedilar.

Amirlar shu darajada iztirobga tushdilarki, ba'zilari sallalarini yerga urib: «Hazrati Xoja bizlarning hammalarimizni o'limga mahkum qildilar!» – deyishdi. Mirzo Abusaidning Xojaga kuchli e'tiqodi bo'lgani uchun hech kimga quloq solmadi va ketishdan voz kechdi.

Mirzo [Abulqosim] Boburning amirlari Abusaid bizlarga qarshi turolmaydi, albatta, viloyatni tashlab qochadi, deb o'ylardilar. Mirzo Sulton Abusaid esa bu paytda shaharni himoya qilish ishlariga kirishgan edi.

Mirzo [Abulqosim] Bobur Samarqand qal'asi atrofiga yetib kelgan paytda, lashkarining muqaddimasi Xalil Hinduka edi. U Samarqandning Iydgoh darvozasiga kelib turdi. Shahardan ozroq odam chiqib, urushga kirdilar. Xalil [Hinduka] qo'lga tushdi. Mirzo [Abulqosim] Bobur lashkaridan Xalildan ko'ra ko'proq qurolga ega kishi yo'q edi. Mirzo [Abulqosim] Boburning o'zi Samarqandning ko'hna qal'a darvozasi oldiga kelib tushdi. Uning odamlari yemish uchun har tomonga borar edilar. Samarqand ahli ularni tutib olib, quloq-burunlarini kesib, jo'natar edilar. Mirzo Boburning ko'p odami quloq-burunlaridan judo bo'ldilar va uning lashkari ko'p tang holga keldi.

Oradan bir necha kun o'tgach, Mirzo [Abulqosim] Bobur lashkarlaridagi otlarning orasida kuchli vabo tarqaldi. Ko'p ot qirilib ketdi. Odamlar o'lgan otlarning hididan tang holga keldilar. Oxiri Mirzo Bobur Muhammad Muammoiyni Hazrati Eshon (Xoja Ahror) huzuriga yuborib, sulh taklif etdi va yarash eshigini qoqdi.

Mavlono Muhammad Hazrati Eshon huzurlariga kelib, har tomondan so'z ochib, oxiri dedi: «Bizning Mirzomiz g'oyatda g'ayratli va olihimmatdir, qaysi yerga borsalar, ul yerni olmay qaytmaslar!» Hazrati Eshon unga: «Uning bobosi Shohrux zamonida men Hirotda bo'lgan edim, zamonasi barakatidan farog'atlar va xotirjamliklar ko'rgan edim. Agar uning bobosi Shohruxning menda haqi bo'lmaganda edi, Mirzo Boburning ahvoli nima bo'lishini ko'rardingiz!» – dedilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Oqibat sulh tuzishga kelishdilar. Mirzo [Abulqosim] Bobur sulh tuzish uchun Hazrati Eshon chiqsinlar va bizlarga sulh bersinlar, deb talab qildi. Bu so'zni Mirzo Sulton Abusaidga aytganlarida u ko'nmadi. Shunda Hazrati Eshonning ulug' do'stlaridan Mavlono Qosim alayhir-rahmani sulh tuzish uchun jo'natdilar.

Hazrati Eshon aytdilarki, shundan so'ng biz Mirzo Sulton Abusaiddan nima uchun shahardan chiqib, sulh tuzish uchun borishga ruxsat bermaganini so'radim. Mirzo dedi: «Mirzo [Abulqosim] Bobur g'oyat ayyor, tilyog'lama va o'ziga og'dirib oluvchi kishidir. Sizning mulozimlaringiz unga moyil bo'lib, bizning ishimiz chappasidan ketmasin, deb qo'rqdim».

Hazrati Eshon aytdilar: «Eshitishimizcha, Mirzo [Abulqosim] Bobur bir necha nopoklar, chunonchi, Shayxzoda Purqiyom va yana boshqa shayxzodalar bilan Samarqand darvozasi oldiga kelib, bizlar sizlarning o'g'il va qizlaringiz uchun kelganmiz, der emishlar. Shu so'z tufayli Samarqand ahliga rahmimiz keldi, el orasida aziz va pokdomon kishilar ko'p edi, shu sababli, bu ishning hal bo'lishi uchun ikki-uch kunni sarflashga to'g'ri keldi.

Mirzo Sulton Mahmudning Samarqandni olish uchun kelgani va mag'lub bo'lib qaytganining hikoyasi

Sulton Mahmud Mirzo o'z birodari Sulton Ahmad Mirzoga qarshi jangga otlanib, Samarqandni egallash uchun harakat qilayotganining qissasi Hazrati Eshon (Xoja Ahror)ga [xabar] yetishgach, quyidagi xatni Mirzo Sulton Mahmudga yubordilar:

«Raf'i niyoz etgandan so'ng, bu faqirning maxdumzodasining mulozimlariga arzadoshti shulki, Samarqandni «baldayi mahfuzayi akobir» («Ulug'lar himoyasidagi joy») derlar va shunday yozadilar. Siz janobingizdan Samarqandga qasd etmoq munosib ko'rilmasdir. Haq Subhonahu bu ishga buyurgan emasdir. O'z birodarining yuziga tig' tortmoq, Siz hazratning mulozimlaridan qanday munosib bo'lsin?! Bu faqir sizning xizmatingizga tarafdorlikdan xizmatkorlik vazifasini ilgari tutib, ko'p iltimos etdim, ammo qabul sharafiga muyassar bo'lmadi. Odamlarning so'zlari orqali bu viloyatga qasd etmoq va bu faqirning so'zini qabul etmaslik ajab ko'rinur! Vaholanki, men sizning xizmatingizni qilurman, odamlar esa o'z havoyi nafsini ilgari tutarlar. Samarqandda aziz kishilar ko'pdir, pokdomon kishilar ko'pdir, faqir va miskin kishilar ko'pdir. Ularni bundoq tang etmoq munosib emasdir. Agar bir ko'ngil og'risa, og'riq ko'ngil nima qilar?! Pokdomon va mo'min kishilarni tang holga solmoqdan qo'rqmoq kerakdir. Bu faqirning iltimosi shul tururkim, u sizga beg'araz xizmatkordir, xolisanlillоh, qabul eting, bir-birovingizning yordamingiz bilan Haq subhonahu rozi bo'lgan ishni qiling va hammalaringiz o'zaro yakdil va hamjihat bo'lib, bu-

@tarixchi_kutubxonasiga

zilgan ishlarni tuzatinglar. Haq subhonahuning shunday bandalari borki, Haq subhonahuning ularga ulkan inoyati bo'lib, boshlangan urushni ular o'zlariga qarshi boshlangan urush hamda o'zlari uchun jafo, deb bilurlar. Hadis kitoblarida bu ma'no ayon bo'lgandir.

Ba peshi chashmi tu xokistaram, mayo go'stox,
Ki hast dar tagi o' otashi-yu daryobi.

(*Mazmuni:* Ko'zingga xokistar (kul) bo'lib ko'rinsam ham, gustoxlik qilmaki, kul tagida olovi bordir).

Hazrati Eshon (Xoja Ahror) aytardilarki, Sulton Abusaidning ulug' amirlaridan bo'lgan Mir Mazid arg'un Iroq lashkari shikast topgandan so'ng Mirzo Sulton Mahmud oldiga kelgan edi, men unga payg'om yuborib dedim: «Jang va qarshilik yo'lidan qayting, nahotki shu paytgacha bilmagan bo'lsalaringizkim, Xoja Abdulxoliq [G'ijduvoniy]ning bir bofanda [to'quvchisi]ga yuz ming kishi qarshilik qilolmadi?! Qarshilik qilsalar yengilar edilar. Bizning Xojalarimizning xonuvoda (silsila)si tasarruf ostiga oluvchilardir, ularning xotiri shariflari nimani xohlasa, o'sha bo'lur, ular hech kimga tobe bo'lmaslar!»

Mirzo Sulton Mahmud va uning amirlari maktub va payg'omni o'qish sharafiga muyassar bo'lsalar ham, baribir, Samarqand sari yuzlandilar.

Hazrati Eshon (Xoja Ahror) ostonasining xodimlaridan bo'lmish bir aziz kishi shu jangda sipohiygarlik qilgan edi, shunday naql qildi: «Mirzo Sulton Mahmud Hisor viloyatidan Mirzo Sulton Ahmad bilan jang qilmoq uchun ko'p yarog' va ko'p lashkar olib, Samarqandga keldi. Unda Chig'atoy lashkaridan boshqa yana to'rt ming turkman ham bor edi. Sulton Ahmadning unga qarshi turish uchun kuchi yo'q edi. Qochmoqchi bo'ldi. U Hazrati Eshon (Xoja Ahror)ning yoniga iztirob bilan kelib, ketishga ijozat so'radi. Hazrat bu paytda shahar madrasasida edilar. Hazrat unga: «Agar siz qochsangiz, Samarqandning barcha odamlari unga asir bo'ladi, ketmang, ko'nglingizni baquvvat tuting, men sizning ishingizni bo'ynimga olaman. Agar dushman mag'lub bo'lmasa, mendan o'pkalang!» – dedilar.

Mirzo Sulton Ahmadni madrasaning hujralaridan biriga kiritib, o'zlari bo'sag'ada o'tirdilar. Bir uchqur va tez yuradigan tuyani bir necha kunlik oziq-ovqat bilan hujra eshigi ro'parasiga tiz cho'ktirdilar va dedilarkim, «Agar Mirzo Sulton Mahmud Samarqandni olsa, urush qilib bir darvozadan kirib kelsa, bu tuyani minib, siz boshqa darvozadan chiqib qochasiz». Bu so'zlar bilan Mirzo Ahmadga taskin berdilar...

Bu hikoyani aytuvchi aziz naql qildiki, biz Puli Ravonning ul tarafida Mirzo Sulton Mahmudning lashkari bilan jang va qirg'inda edik. G'alaba ular tarafida edi. Jang to ulug' choshgohgacha davom etdi. Dushman

@tarixchi_kutubxonasiga

g'alaba qilishga yaqin qolgan bo'lib, shahar odamlari umidlarini uzgan edilar. Tasodifan Dashti Qipchoq tomondan kuchli shamol turdi.

Mirzo Sulton Mahmudning lashkari va lashkargohiga yetib keldi. Chang-to'zon shu darajada ediki, hech kimga ko'z ochish uchun majol yo'q edi. Shamol otliq va piyodani yiqitib, yerga urar edi. Xayma, saroparda, xirgoh va shomiyonalarni ko'tarib, osmonga uchirar edi. Ulug' to'fon ko'tarildi va qiyomat qo'pdi.

Mirzo Sulton Mahmud amirlar va turkmanlardan iborat katta guruh bilan keng jar chekkasi panasida turgan edilar, jarning chekkasi dahshatli ovoz bilan qulab tushdi. Uning soyasida turgan to'rt yuz otliq halok bo'ldi. Jar o'pirilishidan chiqqan ovozdan cho'chigan turkmanlarning otlari egalariga bo'ysunmadi. Baquvvat qo'lli zabardast otliqlar otlarning jilovini qanchalik tortmasinlar, eplay olmadilar. Orasta lashkar birdaniga buzildi va to'p-to'p bo'lib qochishga tushdi. Kuchli ovoz vahimasi Mirzo Sulton Mahmud va lashkarining ko'ngliga tushib, boshqa amirlar bilan birga qochdilar.

Sulton Ahmad Mirzoning lashkari, shaharning oddiy odamlari Mirzo Sulton Mahmud lashkarining izidan tushib, odamlarni va otlarni bog'lab keltirdilar. Shahar odamlari ularning ketidan to to'rt-besh farsaxgacha bordilar. Ko'plab yarog' va jihoz oldilar.

Hazrati Eshonning bir ma'rakada uch muxolif podsho orasiga sulh solganlarining hikoyasi

Mirzo Umarshayx o'z birodari Sulton Ahmad bilan urushmoq uchun Dashti Qipchoqda[1] xon bo'lib turgan Sulton Mahmudxonni chaqirib, Shohruxiyada jam bo'lib turganlari haqida Samarqandga xabar keldi. Mirzo Sulton Ahmad ham jang uchun asboblarni shay qilib, katta lashkar bilan Shohruxiya tomonga jo'nadi. Hazrati Eshon (Xoja Ahror)ni ham iltimos qilib, o'zi bilan olib ketdi. Hazrati Eshon qirq kun Sulton Ahmadning lashkarida bo'ldi. Shohruxiyaning muzofotlaridan bo'lgan Oqqo'rg'onga Mirzo Ahmadning lashkari kelib tushdi. Mirzoning odati shu erdiki, nogoh biror kishi hazratning xodimlari va mulozimlariga nisbatan beadablik qilib qo'ymasin deb, Hazrati Eshonni o'zining yaqiniga tushirar edi.

Hazrati Eshon bir kuni tund bo'lgan holda Mirzo Sulton Ahmadga [shunday dedilar]: «Men urush odami emasman, agar urushmoqchi bo'lsangiz, meni nega olib keldingiz, sulh tuzmoqchi bo'lsangiz, nega orqaga cho'zyapsiz? Lashkaringiz orasida turishga majolim qolmadi!» – dedilar. Mirzo Sulton Ahmad: «Menda nima ixtiyor, barcha ish sizning fik-

[1] *To'g'risi:* Mo'g'ulistonda – (*ilm.muharrir*).

@tarixchi_kutubxonasiga

ringizga qaratilgan. Siz nimani to'g'ri deb hisoblasangiz, biz uchun unga bo'ysunmasdan chora yo'q!» – dedi.

Hazrat Eshon otlandilar va ularning ishorati bilan bir guruh kishilar ular bilan hamroh bo'ldilar. Faqir[1] ham mulozamatda edim va boshqa yaqin kishilar o'rduda qoldilar. Hazrat Mirzo Umarshayx hamda Sulton Mahmudxon tarafiga yo'l oldilar. Ular ham Hazrati Eshonning kelayotganlarini eshitib, yarim yo'lgacha istiqbolga chiqdilar. Barchalari qo'shilib, Shohruxiyaga yo'l oldilar.

Bu muloqotda Hazrati Eshon Sulton Mahmudxonga haddan ortiq iltifot ko'rsatdilar va ko'p holda ularning nomini tutib, murojaat etar erdilar. So'ng sulh qilishga qaror berdilar va buni quyidagicha tayin qildilar: ikki lashkar bir-birining qarshisida saf tortib turadi, ikki lashkar o'rtasida shomiyona (chodir) tikiladi. Har ikki tomondan sanoqli odam keladi. Sultonlar shomiyona soyasida o'tiradilar. Hazrati Eshon ularga sulh berib, ahd-u paymon qildiradi.

Bu suhbatdan so'ng kun kech bo'lib, Hazrati Eshon qaytdilar. Hazrati Eshonning kuchli ta'sirlari shu kun Sulton Mahmud[xon]da oshkor sezilib turardi.

Erta tongda Sulton Ahmad Mirzoning barcha lashkari otlandilar. Temir sovut kiymaslikka qaror qilindi. Boshqa qurollarini olib, Talli Qahqaha mavzeida saf tortdilar.

Hazrati Eshon Sulton Mahmudxon va Mirzo Umarshayxni o'zlari bilan olib kelish uchun Shohruxiyaga jo'naydilar. Sulton Mahmudxon tezda keldi. Lekin Umarshayx sekinlik bilan kelar edi. Hazrati Eshon bu faqirni (ya'ni Muhammad Qozini) Mirzo Sulton Ahmad oldiga yuborib, payg'om berdilarkim, Umarshayx shoshmay kelmoqda, siz ham hozir bo'ling, menga bo'lgan e'tiqodingiz tufayli ehtiyotni qo'ldan bermangki, Hazrati Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam ham: «I'qal va tavakkal» («Avval tushovla, so'ng tavakkal qil») deganlar. Misra:

Bo tavakkul zonuyi ushtur biband.

(*Mazmuni:* Tuyaning oyog'ini tavakkul bilan bog'la.)

Bu faqir Mirzo Sulton Ahmad huzuriga borib, Hazrati Eshon so'zlarini arz etdim. Ular o'z lashkarining zabtiga ko'proq e'tibor etdilar. Ancha vaqt o'tgandan so'ng lashkarlarning hammasi bir-birovlarining qarshisida saf tortdilar. Ular sovutdan boshqa barcha yarog'larini osib olgan edilar. Hazrati Eshon o'z yaqinlari bilan bu ikki lashkar o'rtasida edilar. Shomiyonani o'rnatish borasida ko'p so'zlar yuz berdi. Har toifa u yoqqa yaqin bo'ldi,

[1] Bu yerda Xoja Ahrorning shogirdi Muhammad Qozi tilidan hikoya qilinmoqda.

@tarixchi_kutubxonasiga

deb aytar edi. Bu tortishuv uzoqqa cho'zildi. Hazrati Eshon bu ikki lashkar o'rtasida peshin uchun tahorat oldilar. So'ng bu faqirga qarab: «Sulton Ahmad Mirzoning yoniga borib, men yolg'iz kishiman, buning ustiga qarilik zaifligi ham bor, sizlarni urushmasin deb, sizlarning barcha urush olatlaringizni yelkamga ortibman, oxirgi quvvatim shu, endi boshqa kuchim qolmadi, agar bizga e'tiqodingiz bo'lsa, qo'ying, shomiyonani qayga xohlasa, shu yerga tiksinlar, deb aytgin», – dedilar.

Hazrati Eshonning payg'omlarini Mirzo Ahmadga yetkazdim. Mirzo Ahmad: «Odamlar qaysi yerni xohlasalar, o'sha yerga shomiyonani tiksinlar, men faqat Hazrati Eshonga e'tiqod qilaman!» – dedi.

Shomiyonani muayyan joyga qurdilar. Mirzo Sulton Ahmad o'z yaqinlaridan bir necha odam bilan kelib, shomiyonaga kirib o'tirdi. So'ng Hazrati Eshon borib, Sulton Mahmudxon bilan Mirzo Umarshayxni keltirdilar. Ular ham Mirzo Sulton Ahmadning odamlariga teng odamlar bilan keldilar. Shomiyonaga yaqinlashgach, otdan tushdilar. Mirzo Sulton Ahmad yaqinlari bilan peshvoz chiqdi. Hazrati Eshon avval Sulton Mahmudxonni oldiga chaqirib, Mirzo Sulton Ahmad bilan ko'rishtirdilar. Ular bir-birlari bilan quchoqlashib ko'rishdilar. So'ng Mirzo Umarshayxni oldinga chiqardilar. Mirzo Umarshayx birodarining qo'lini yuziga surtib yig'ladi. Uning akasi bo'lmish Mirzo Sulton Ahmad esa ukasining bo'ynini o'par va ikkovlari ham yig'lar edilar. Buni ko'rganlarning barchasiga yig'i hokim bo'ldi. Bu yig'inning orasida hayratli sho'r-u g'avg'o paydo bo'ldi. So'ng shomiyona ichida o'tirdilar. Bu shunday haybatli majlis ediki, faqir dahshatning kuchidan dasturxonni ters tashladim.

Tashqarida esa ikki lashkar egarning ustida muntazir turar edi. Biror hodisa yuz bersa bir-biriga tashlanishga tayyor edilar.

Yengil ovqat keltirildi. Taomdan forig' bo'lgach, ular o'zaro ahd etdilar va o'rtada sulh yuz berdi. Hazrati Eshon Toshkentni Sulton Ahmad Mirzodan Sulton Mahmudxon uchun oldilar. Ahdnomani faqir yozdim. Fotiha o'qib, o'rinlaridan turdilar.

XONDAMIR VA UNING ILMIY MEROSI

Hirotlik tarixchi **Xondamir**, to'liq ismi **G'iyosiddin Muhammad ibn Xoja Humomuddin Muhammad ibn Xoja Jaloliddin Muhammad ibn Burhoniddin** [tug'. 879 (1474 – 1475) yoki 880 (1475 – 1476); vaf. 941 (1534 – 1535)] hayoti va ijodi haqida o'z asarlari va zamondoshlari yozib qoldirgan oz-moz ma'lumotdan tashqari deyarli ma'lumot yo'q. Ona tomonidan u «Rovzat us-safo» («Musaffolik bog'i») muallifi, mashhur tarixchi **Mirxond**ning (to'la ismi **Sayyid Muhammad ibn amir Burhoniddin Xovandshoh ibn Shoh Kamoliddin Mahmud Balxiy**; 1433 – 1498) nabirasidir. Otasi Xoja Humomuddin

@tarixchi_kutubxonasiga

o'z zamonining ziyolilaridan va Sulton Mahmud Mirzo Temuriyning vaziri bo'lgan.

Xondamir Hirot shahrida tug'ilgan va o'sha yerda ta'lim olgan bo'lsa kerak, deb taxmin qilinadi. U tarix, adabiyot va inshoni puxta egallagan. Uning olim sifatida shakllanishida Alisher Navoiyning hissasi katta. U bo'lajak olimga o'zining boy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat bergan va ijodiy ishlariga homiylik qilgan.

Xondamir dastlab kutubxonachi, 904 (1498–1499)-yildan kutubxona mudiri vazifalarida ishlagan.

Alisher Navoiy vafotidan so'ng (1501-y.), 909 (1503)-yildan boshlab Xondamir Xurosondagi siyosiy voqealar girdobiga tushib, dastlab Balxga borib, Sulton Husayn Boyqaroning (1469–1806) to'ng'ich o'g'li Badiuzzamon Mirzo saroyida xizmat qiladi. U keyinroq Hirotga qaytadi va 1506-yili Shayboniyxon Hirotni zabt etishining shohidi bo'ladi.

Sulolalar hukmronligi o'zgargandan so'ng, Xondamir Hirotdan ketishga qaror qiladi va 913 (1507)-yildan to 916 (1510)-yilgacha Shimoliy Afg'onistondagi Basht qishlog'ida ijod bilan shug'ullanadi. Hirot taxtiga Safaviylar sulolasi, uning asoschisi Shoh Ismoil (1501–1524) kelishi bilanoq, 916 (1510)-yili Xondamir Hirotga qaytib keladi. Shoh Ismoil vafotidan so'ng (1527-y.) Hirotdan butkul yuz o'girib, Qandahorga va 934 (1528)-yili u yerdan Boburiylar poytaxti Agraga (Hindiston) – Zahiriddin Muhammad Bobur (1526–1530) huzuriga o'tadi.

Xondamir Agraga kelgach, Boburning yaqin odamlari qatoridan joy oladi va 936 (1529)-yili Boburni Bengaliya va Gang daryosi sohili tomon qilgan yurishi paytida kuzatib boradi. Bobur vafotidan so'ng uning vorisi Humoyunning (1530–1556) xizmatida bo'lib, 941 (1534)-yili u bilan birga Gvaliorda bo'ladi va Gujoratga qilgan yurishida qatnashadi. Xondamir 941 (1534)-yili Humoyun bilan Manduga qaytib kelayotganda vafot etadi. Uning vasiyatiga ko'ra jasadi Dehlidagi qabristonga – Nizomiddin Avliyo, shoir Xusrav Dehlaviylar (1253–1325) yoniga dafn etiladi.

Xondamir butun umri davomida taxminan o'n uchta asar yozgan bo'lsa, bizgacha shu asarlarning sakkiztasi yetib kelgan: «Ma'osir ul-muluk» («Hamasr podshohlarning tarixi»)[1], «Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-axyor» («Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi»)[2], «Makorim ul-axloq» («Olijanob xulqlar»)[3], «Dastur ul-vuzaro» («Vazirlar uchun

[1] *Ushbu asar haqida batafsil ma'lumot:* Юсупова Д.Ю. Жизнь и труды Хондамира. Ташкент. Фан. 2006. С. 27–33.

[2] O'sha joyda, 33–45-betlar.

[3] O'sha joyda, 45–53-betlar.

@tarixni_kutubxonasiga

qo'llanma»)[1], «Nomai noma» («Atoqli nomalar»)[2], Mirxondning «Rovzat us-safo fi sirat ul-anbiyo va-l-xulafo» («Xalifalar, podshohlar, avliyolar hayotiga oid musaffolik bog'i») asariga 929 (1522–1523)-yilda yozib tugatilgan ilova va 7-jild[3]. «Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar» («Inson zoti xabarlari va do'stning tarjimayi holi»)[4], «Humoyunnoma» yoki «Qonuni Humoyun»[5], «Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-axyor» 904 (1498–1499)–905 (1499–1500)-yillar orasida yozilgan bo'lib, bu asar Alisher Navoiyga bag'ishlangan. Unda Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy zamonida Hirot va uning atrofida olib borilgan ulkan qurilishlar, qazilgan suv inshootlari, shuningdek, o'sha zamonda o'tgan shoirlar, olimlar, matematiklar, astronomlar, musiqashunoslar, shifokorlar, san'atkorlar haqida ma'lumotlar bor.

Asarning 33 tadan ziyod nusxasi bizgacha yetib kelgan.

Xondamirning eng yirik asari «Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar» 927 (1520–1521)–930 (1523–1524)-yillar mobaynida yozilgan. Asarda qadim zamonlardan to 930 (1524)-yilga qadar Sharq mamlakatlarida, xususan, Eron, Afg'oniston, Iroq va Markaziy Osiyoda sodir bo'lgan voqealar qalamga olingan. Uning XV asrning so'nggi va XVI asrning birinchi choragida Movarounnahr hamda Xurosonning umumiy ahvolini aks ettirgan uchinchi jild uchinchi va to'rtinchi qismlardagi ma'lumotlar yangiligi bilan katta ilmiy qimmatga egadir. «Habib us-siyar» Sharqda keng tarqalgan. Uning qo'lyozma nusxalari juda ko'p (eng qadimgisi 956 (1549)-y., oxirgisi esa XIX asrning ikkinchi yarmida ko'chirilgan).

Xondamirning «Humoyunnoma» asari «Qonuni Humoyun» nomi bilan ham mashhur bo'lib, Hindiston podshohi Boburiy Humoyun Mirzoga bag'ishlangan va 941 (1534–1535)-yili yozib tamomlangan.

Xondamirning qolgan beshta asarining faqatgina nomlari ma'lum, xolos. Bular: «Osor ul-muluk va-l-anbiyo» («Podshoh va payg'ambarlar haqida hikoyalar») 931 (1524–1525)-yili yozilgan; «Axbor ul-ahyor» («Yaxshi insonlar haqida xabarlar»), «Muntaxab-i tarix-i Vassof» («Vassof tarixidan saylanma»), «Javohir ul-axbor» («Xabarlar gavharlari») va «G'aroyib ul-asror» («Qiziqarli sirlar»).

Xondamir asarlarida Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq bo'lgan binolar, rabotlar va boshqa qurilishlar hamda uning homiyligida yetishib chiqqan olimlar to'g'risidagi talaygina ma'lumotlar uchraydi.

[1] O'sha joyda, 53–60-betlar.
[2] O'sha joyda, 60–68-betlar.
[3] O'sha joyda, 68–74-betlar.
[4] O'sha joyda, 74–85-betlar.
[5] O'sha joyda, 85–92-betlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Quyida «Xulosat ul-axbor»dan ushbu mavzuga oid lavhalar keltiramiz (tarjima B. Ahmedovning «Xondamir» kitobiga keltirilgan ilovadan olingan.)

D. Yusupova

XONDAMIRNING «XULOSAT UL-AXBOR» ASARIDAN LAVHALAR

Hirotning jome masjidi

Jannatnishon Hirot shahridagi oliy darajali baland binolardan biri Jome masjididirki, haqiqatan ham [u] Tangri qudratining jami va g'am-g'ussani orttirmaydigan [joy]dir...

U sharafli joyni Sulton Abulfath G'iyosiddin Muhammad ibn Som o'z hukmronligini so'nggi paytlarida bino qilgan edi. Lekin uning olijanob xotiri [o'sha] bino qurilishining tamom bo'lishidan xoli bo'lmasdan burun vafot topdi. Uning inisi Sulton Shihobiddin ham Xorazmshoh bilan [bo'lgan] nizolar tufayli masjid [qurilishi]ni tamomlay olmadi. Ammo undan keyin podshoh bo'lgan va Sulton Muhammad atalgan o'g'li ul tabarruk mavzudagi imoratni tamomladi. Oradan bir necha asr o'tgach, bu baland binoli mavze Chingizxon lashkarining isyoni va [natijada] Xuroson viloyatining xarob bo'lishi tufayli, vayronalikka yuz tutdi. Uni yangidan tiklanishi xushodatli podshoh Malik G'iyosiddin kurtning sa'yi va tirishuvidan bo'ldi. Uning vafotidan so'ng malik Muiziddin Husayn [ul mavzeni] bezashda tirishqoqlik namunalarini ko'rsatdi. Shu jumladan, Humoyun marhum Xoqoni Said [Shohrux] janoblari zamonida Amir Jamoliddin Feruzshoh ham [uni] tuzatdi...

Va Sohibqiron sulton, baxtiyor podshoh muizzus-saltanat va-l-xulafo Abulg'oziy Sulton Husayn Bahodirxon... hukmronligi va zamonida zilzila [bo'lib], uning toqi va maqsurasi butunlay shikastlandi va u ma'mur joyning tamom atrofi boshdan oyog'igacha vayron bo'ldi... Bu ma'nilar olijanob Sulton [Husayn Boyqaro] hazratlarining do'sti [Amir Alisher]ning ravshan xotiriga nur sochib, o'zining tamom oliy ne'mat himmatini bu sharafli masjid binosini yangilash va ul oliy ibodatxonaning asoslarini mustahkamlashni tezlashtirishga qaratdi. Islom podshohidan ijozat olib, buyuk muhaddis mashoyixlar arvohidan ko'mak olib, 903 (1498)-yili, birinchi navbatda, maqsuraning qulab tushgan gumbaz va peshtoqini tiklashga amr qildi. Undan so'ng tajribalik me'morlar va mudaqqiq muhandislarning ma'qullashi bilan mustahkam bo'lmagan ul binoni tuzatishga ishorat qildi. Uning ikki tomoniga maqsura sufa va oliy darajali ayvon qurdirdi. Shu jihatdan ulkan toq

@tarixchi_kitoblar

mustahkamlandi va u ta'riflab bo'lmaydigan darajada mahkam bo'ldi. Va ul xayr-saxovatlik binokor o'sha imorat xususida ko'p g'amxo'rligi tufayli, har kuni o'sha sharofatli joyga tashrif buyurar edi. Ko'p kunlari, etagini beliga qistirib, yollangan ishchilar singari ustalarga g'isht uzatardi va [boshqa] ishlar qilardi. Tez-tez o'sha yerdagi me'morlar, ustalar va kosiblarga qimmatbaho sarupolar kiydirardi va ko'p navozish va boshqa in'omlar bilan xushdil-u xursand qilardi. Shunday qilib, Tangrining quvvatlashi va podshohning cheksiz yordami bilan uch-to'rt yillik ish olti oy muddat ichida tamomlandi...

Alqissa, [Amir Alisherning] nurli, balki gavharlik dili ul oliy maqom ibodatxonani mustahkamlashdan xotirjam bo'lgandan so'ng, unga zeb-u ziynat berish va bezash xayoli, hashamat va ko'rk berish andishasi uning olijanob xotiriga keldi. Oliy imoratga ko'ra muborak asarlik muhandislar, xushmuomala koshitaroshlar, hunarmand naqqoshlar va sangtarosh ustalar tezlik bilan ul fayzosor masjidga bezak va tartib berishga kirishdilar. Taxmin va qiyos qilib aytganda, qariyb besh yil ichida g'oyat pokiza va bezalish bilan ziynatlandi. Ul oliy manzilning toqlari va ravoqlari islimiy va xitoycha naqsh bilan bezatilganidan, uning atroflari va sufalari g'arib takalluflarining farovonligi va ajib kashfiyotlarining ko'pligi bilan qolgan [bino]lardan mumtoz va mustasno bo'ldi...

[Masjidning] yog'ochdan qilingan eski minbari ham shikastlangan edi. Ravshan dilli Amir [Alisher]ning oliy ne'mat himmati shuni lozim topdiki, minbar marmar toshdan yasalsin va baland oshyon oliy ostonaning mulozimlari [har tomonga] chopib, qidirib [nihoyat] Xavof viloyatidan marmar tosh topdilar va uni egasidan [u] istagan bahoga sotib oldilar va qisqa vaqt ichida [uni] jadal bilan muborak mavzuga tashib olib keldilar. Ustod Shamsiddin sangtarosh [uni] ishlashga tushdi va oliy darajalik amirning saxiy harakati bilan minbar qurilib silliqlandi...

Bu jome masjid to'rt yuz yetti gumbaz, bir yuz o'ttiz ravoq va bir yuz qirq to'rt pilpoyadan iborat. Uzunligi, yon devorlarni hisoblamaganda, ikki yuz ellik gaz, eni bir yuz ellik gaz. Maqsura sufasining uzunligi oltmish besh, eni – uch gaz. [Masjidning] sharqiy tomonidagi sufaning uzunligi yigirma sakkiz, eni – o'n besh gaz. Janubiy sufaning uzunligi yigirma ikki, eni – o'n uch gaz. Podshoh maqbarasi gumbazi o'rtasining uzunligi yigirma to'rt, eni – yigirma uch gaz. Masjid sahnining uzunligi bir yuz o'n to'rt, eni – yetmish to'rt gaz.

Bu joyning (masjidning) oltita darvozasi bor... Jannat bezaklik bu masjidning takalluf va bezakdan chiqarilishi 905-yil 14-sha'bon (1500-y., 17-mart) shanba kuni tamom bo'lgan...

@tarixchi_kutubxonasiga

«Nizomiya» madrasasi

Olijanob Sulton [Husayn Boyqaro] hazratlarining do'sti [Amir Alisher Navoiy] uning imoratlarini yangidan qurgan va bilimdon ulamolardan ikki kishini mudarrislik lavozimiga tayin qilgan edi.

Alisher [Navoiy]ning jome masjidi

Ul xushbo'y shahar [Hirot] tashqarisidagi oliy binolardan biri [mana shu] jome masjiddirki, xayr-saxovat, odatlar va xayr-ehsonlar jami, ya'ni xoqon davlatining homiysi va Sulton (Husayn Boyqaro) hazratlarining do'sti (Amir Alisher) o'z manzili ro'barusida qurgan... To'g'risi, u shunday imoratki, [uning sof va eng yaxshi maqsuralari lojuvard va jilo [suvi] bilan bezatilgandir... Bu baxt-saodatlik va farovon masjidni zar bilan sirlab, mohirona ishlangan ikki gumbazi osmon sari bosh ko'targan edilar. Tengi yo'q bu masjidning shimoliy tarafida kamoli zeb-u ziynat bilan qorixona (dorilhuffoz) ham qurilib, uning devor va shiplari lojuvard va tillo [suvi] bilan bezalgandir... Bu jome masjidning janubiy tomonida [esa] g'oyat latofat nihoyatda pokiza shifoxona (dorush-shifo) qurilgan. Bu jannatnishon joyning o'rtasida kavsar misol havz ham qurilgan bo'lib, Xizrmaqom hakimlar va Iso damlik tabiblar u yerda hamma vaqt bemorlarni davolash bilan mashg'uldirlar va [odamlar] zarur dor-u darmon hamda [doru] ichimliklarni hamma vaqt o'sha muborak joydan topib keladilar.

«Ixlosiya» xonaqohi va madrasasi

«Ixlosiya» xonaqohi va madrasasi a'lo hazrat Sulton (Husayn Boyqaro) ning do'sti Amir Alisher binolaridandir. Mazkur bino «Dorush-shifo» yoniga qurilgan bo'lib, Injil arig'ining shaxobchalaridan biri ularning o'rtasidan oqib o'tadi... Fayzpanoh [Amir Alisher] har kuni [bu] xonaqohda ... faqir va zaif kishilarga taom beradi va har yili darvishlarga qariyb ikki ming po'stin, chakmon, ko'ylak, cholvor va toqiya va kafsh berardi. [Bu] har ikkala sharofatli joyda mashhur ulamolar va ehtiromli fozillardan yetti kishi diniy masalalarni tahqiq qilish va tabiiy ilmlarni tadqiq qilish bilan mashg'uldirlar. Ul joyning talabalari xotirjamlik bilan mutolaa qiladilar. Ul manzilning tolei va barakoti shu darajadaki, u qurilgandan to shu vaqtgacha bir necha ming kishi jahonning [turli] taraflaridan bu yerga kelganlar va qisqa vaqt ichida donishmand bo'lib, o'z vatanlariga qaytib ketganlar. Shaharning mana shu ikki joyida tahsil qilgan talabalardan ko'plari mudarrislik mansabiga tayin qilinganlar. Chunonchi, ulardan ba'zilarining ismlari quyida keltiriladi...

Mavlono Isomiddin Ibrohim. Kamolotga ta'bi pok, zehn o'tkirligida qat'iydir va ilmining ko'pligi hamda fazilatining ortiqligi bilan ma'rufdir. Ul janob, Tangrining qo'llab-quvvatlashi bilan, yoshligi va yigitlik zamonlaridanoq ilmini kamolotga yetkazishga muvaffaq bo'lgan edi. [U] Sohibqi-

@tarixchi_kutubxonasiga

ron Sulton (Husayn Boyqaro) hukmronligi davrida tahsil qilgan ko'pchilik fozillardan peshqadam bo'lgan [va] bir necha yil «Ixlosiya» madrasasida mavlono Kamoliddin Mas'ud Shirvoniydan saboq oldi va hozirgi vaqtda daryosaxovatlik Amir (Alisher)ning qo'llashi bilan marhum xoqon hazratlarining (Shohruxning) madrasasida mavlonozoda Abhariy o'rnida mudarrisdir.

Mavlono Hoshimiy. «Ixlosiya» xonaqohida o'z bilimini takomillashtirib, [hozir] Xoja Kamoliddin Husayn madrasasida dars berish bilan mashg'ul.

Mavlono Shamsuddin. U ham ana o'sha joyda («Ixlosiya» xonaqohida) kasbini kamolotga yetkazib, Amir Nizomiddin Shayx Ahmad Suhayliy madrasasida mudarrislik mansabida turmoqda.

Mavlono G'iyosiddin Bahrobodiy. Mazkur («Ixlosiya») madrasada istiqomat qilganlardan biri bo'lib, muloyim ta'bi va o'tkir zehni bilan [boshqalardan] mumtoz va mustasnodir va shu kunlarda mahdi ulyo[1] Milkat-og'o madrasasida mudarrislik mansabi bilan sarafrozdir.

Mavlono Xoja Muhammad Tabriziy. «Ixlosiya» madrasasida tahsil olib, (hozir) «Jadida» xonaqohining mudarrisligi unga berilgan.

Mavlono Muhammad Muin. Yirik tabiblar ichida muntazam bo'lgan va bir qancha vaqt Sulton (Husayn Boyqaro) janoblarining do'sti [Amir Alisher] ning «Dorush-shifo»sida bemorlarni davolash bilan mashg'ul bo'lgan, 893 (1487–1488)-yili vafot etgan.

Qozi Nizomiddin Muhammad. Bir necha yil sharofatlik «Ixlosiya» madrasasida diniy masalalarni tahqiq etish va yaqin ilmlarni tadqiq qilish bilan mashg'ul bo'lgan. Bu mansabdan iste'fo bergandan so'ng, [Amir Alisherning] qat'iy taklifi... bilan Hirot shahrining qozisi bo'ldi. Ul janobning vafoti 900-yilning muharram oyida (1494-y., 6-oktabr) sodir bo'ldi.

Mavlono Burhoniddin Atoullo. Birmuncha vaqt Xoqoni Said hazratlari (Shohrux) madrasasida va «Ixlosiya» madrasasida dars va pand-nasihat berish bilan mashg'ul bo'ldi. Ul janobning vafoti 902-yilning ramazon oyida (1497-y., may) yuz berdi.

Amir Ibrohim Mashhadiy. Yetuk donishmanddir. Sharofatli «Sultoniya» madrasasida va fazilatpanoh (Amir Alisher)ning «Ixlosiya» xonaqohida dars va pand-nasihat berish bilan mashg'ul bo'lardi. Talabalarning ko'pchiligi ul janobning mulozimlari bo'lib qolganlar...

Mavlono Muhammad tabib. Ko'z kasalliklarini davolashda nihoyatda haris va haqiqatan ham tabobat ilmida o'ta serhafsaladir. [U] doimo Onhazratning (Amir Alisherning) «Dorush-shifo»sida mazkur ish bilan mashg'uldir.

[1] *Mahdi ulyo* – podshohning katta xotiniga berilgan unvon.

@tarixchi_kitobxonasiga

Mavlono Nizomiddin Abdulhay tabib. Dastlab hidoyatlik Amir (Alisher Navoiy)ning «Dorush-shifo»sida bemorlarni davolash bilan mashg'ul bo'lgan edi. Hazrat valoyatpanoh Xoja Nosiriddin Ubaydulloh (Xoja Ahror) bemorligi sababli Hirotga kishi yuborib, a'lohazrat (Sulton Husayn Boyqaro)ning do'sti olijanob (Amir Alisher)dan mohir bir tabib so'ratgani sababli, [ul] hikmatpanoh janob (mavlono Nizomiddin Abdulhay) buyruqqa amal qilib, Samarqand tarafga boradi. Do'stona safardan qaytgach, unga bo'lgan inoyat va navozishlar ortib ketdi; kun sayin martabasi yuqorilandi; baxt va tole yulduzi soatma-soat [o'zining] harakat yo'lida yanada porladi. Ish shunga borib yetdiki, pisandida sifatlik Sohibqironning (Husayn Boyqaroning) iltifotlik nazariga manzur bo'ldi... va ko'p vaqtini [on] Oliyhazratning mulozimatida o'tkazdi.

Mavlono Qutbiddin Odam. Vaqt-u zamonning Jolinusi[1], payt-u davrning shamchirog'i edi va oliy maqom Amir (Alisher)ning zo'r g'amxo'rligi va yoqimli ehtimoli bilan shon-shuhrat cho'qqisiga ko'tarilib, birmuncha sihat berib turdi. [Keyincha] xalq musibati tufayli bu ishdan iste'fo berdi va 903-yilning boshlarida (1497-y., avgust-sentabr) vafot etdi.

Amir Ixtiyoriddin Hasan. Ta'bining oliyligi, fahmining chaqqonligi, axloq-u odobining muloyimligi bilan [o'ziga] yaqin va o'zi kabilardan mumtoz va mustasnodir... fiqh ilmida yetukdir. Insho fanida [ham] ziynatli edi... ko'p vaqt bo'ldiki, ul hazratning (Amir Alisherning) marhamat va shafqatining huzuri bilan sharofatli «Ixlosiya» madrasasida va Xoja Malik zargar madrasasida dars va pand-nasihat berish bilan mashg'ul bo'lmoqda.

Mavlono G'iyosiddin Muhammad Tabib Sabzavoriy. Huzur-halovatli hayotini ilm-u fanni bezash bilan ziynatlab, yoqimli tib ilmida mahorati bor edi... Mavlono Nafisiyning «Sharhi mo'jaz» kulliyotiga kamoli diqqat bilan shirin so'zli hoshiya bitib, [uni] hazrat (Sulton Husayn)ning do'sti ul hazratning (Amir Alisherning) nomi bilan bezadi va Onhazratning «Dorush-shifo»sida tibbiya va bemorlarni davolashga oid umumiy kitoblar bitishdan dars berish bilan mashg'uldir.

Mavlono Darvishali tabib. Zamon maqbul tabiblarining peshvosidir va [u] kasalliklarni davolashda xos ixtirolar ko'rsatardi. Ularning (ixtirolarning) ko'plari muvofiq topilardi. Binobarin, Oliyhazratning (Navoiyning) unga nisbatan iltifot va inoyatlari ko'p edi. Chunonchi, hozirgi vaqtda Mahdi ulyo Milkat-og'o «Dorush-shifo»sining bosh tabibligi mansabi unga berilgandir: ...Mavlono Darvishali muammo faniga xizmatda ham mahorat egasidir.

[1] *Jolinus (Galen)* – qadimiy yunon tabibi, eramizning 131-yili Anatoliyaning Bragma shahrida tug'ilib, 200-yili vafot etgan.

@tarixchi_kitoblar_magiga

Padarpanoh janob amir Xovand Muhammad. Yigitlik chog'larida ilmlarni tahsil qilish va nafis fazilatlarni kamolga yetkazish uchun zo'r tirishqoqlik hamda juda kuchli mehnat bilan o'qidi va Tangrining cheksiz quvvatlashi va bitmas-tuganmas fayzining fazli bilan, qisqa vaqt ichida bilimda davr fozillaridan peshqadam bo'ldi. O'sha vaqtda [u] tarix va axbor ilmini kasb qildi va [dunyo] ahvollari hamda nishonlarni tahqiq qilishga kirishdi. O'zining oliyjanob xotirini bu fanni egallashdan tez vaqt ichida xotirjam qildi, ammo ahvoli va mijozi maishat ahli bilan qo'shilmasligi va zavq-u shavqqa berilmasligi tufayli, kitoblar bitmadi va insho qilmadi; dars va pand-nasihatga ishtiyoq hargiz uning ravshan xotiridan porlamadi. Ammo [bu ahvol] bedor baxtning qo'llashi, balki hazrat parvardigorning samimiy inoyati bilan ul ostona va orzu hamda omonlik qiblaga, ya'ni olijanob Sulton (Husayn Boyqaro) hazratlarining do'sti huzuriga borgunlaricha va turli navozish va marhamat hamda iltifot va muruvvatlarini topgunlaricha davom etdi. Shundan keyin Xisravnishon Amir (Alisher) «Ixlosiya» xonaqohida o'zining yoqimli huzur-halovati uchun ajratilgan xonani on janobga inoyat qilib, «Ravzat us-safo»ni yozishga buyurdi. Janob bobom ulug'vor janobning (Tangrining) qo'llab-quvvatlashi va hidoyatxislatlik amirning xayrxohona qarashining barakoti bilan ul qimmatbaho asarni tasnif qilishda sa'y-harakat shartlarini o'rniga qo'ydi va qisqa vaqt ichida yetti iqlimda tengi yo'q pand-nasihat nisbatlik u kitobning oltita daftarini (jildini) tamom qildi... Va «Ravzat us-safo»ning yettinchi daftari, musavvada sodir bo'lgan [ba'zi] ishlar va Sohibqiron bilan yuz bergan ahvol tufayli yo'qolib, tamomlanmay qolgan. Ishonchlik umid sodiqki, agar Tangri madad qilsa va [o'sha] musavvada qo'lga tushsa, bu bandayi haqir uni tamomlash yo'lini tutadi.

Shunday qilib, ixlosmand Amir Alisher hazratlari o'sha kitobni yozish vaqtida va undan so'ng oqibatda og'izdan og'izga yoyilgan martabali janob bobomni sovg'alar bilan hurmatladi va qimmatli in'omlar bilan faxrli va sarafroz qildi; tabiati ul janobning tabiatidan g'olib bo'lgani sababdan, u oliy darajalik amir hamisha unga hazilomuz so'zlar va ovunturuvchi kalimalarni muborak bayon tilidan chiqarardi va janob bobom hayotining so'nggi vaqtlarida tanholikka mayl qilib, xalqdan o'zini tortdi va bir yil muddat ichida Kozirgoh manzilida turib qoldilar va butun hayotini oxirat saodatini kasb qilishga sarfladilar. Hijriy 902-yilning ramazon oyida ul sharofatli zotni moxov kasali zabt etib, shaharga (Hirotga) tashrif buyurdilar. [Lekin] jon oluvchi bu kasal kundan-kunga kuchayib va soatma-soat og'irlashib bordiki, [hijriy] 903-yil zulqa'da oyining ikkinchisida (1498-y., 23-iyun) uning pok ruhi qalb qafasini sindirib, jannat bog'iga [qarab] parvoz qildi... va oliyjanob hukmdor, Sulton Husaynning do'sti musibat yetgan bu bandani muruvvat nazari va shafqati bilan qurshab, shu qadar

@tarixiy_kutubxonasiga

ko'p inoyatlar izhor qildiki, tinchgina uning oliy ostonasi mulozimatini iftixor hamda quvonch sarmoyasi qilib oldim va ul saodat oshyon ostona xizmatini dunyoviy hayotning sababi hamda oxirat maqsudiga yetish zarurati deb bilib, boshqa ishga tutunmadim...

Mavlono Kamoliddin Husayn Voiz. Turli xil ma'qul ilmlar va turlicha ...naql etilgan fanlardan tamom foyda olgan va bahramanddir. Hozirda Xuroson diyorida sharhda on janobga teng keladigan kishi topilmaydi. Qur'on tafsirini va payg'ambar hadislari ma'nolarini pokiza qilib tushuntirib, [ularni] abadiylashtirdi. Haftaning uch kunida: seshanba kuni Sulton [Husayn] xonaqohida, juma kuni ertalab Sultonning «Dorussiyodat»ida namozdan so'ng Oliyhazratning jome masjidida xaloyiqqa va'z-nasihat qilish bilan mashg'ul bo'lardi. Ul janob nujum ilmida ham tamom mahoratga ega edi. Chunonchi uning ta'birlari qazo o'qi singari xato qilmas edi. Uning balog'at mo'jizali va fasohat sifatlik kitoblari ko'p hamda son-sanoqsiz edi va ko'pincha oliy maqom Amir (Alisher)ning nomi bilan ziynatlanar edi...

Sayid Roziiddin. Ota tarafidan ulug' sayyidlar jumlasidan bo'lgan Abdulavvalning va ona tomondan jahon fozillarining yetakchisi bo'lgan mavlono Kamoliddin Abdurrazzoqning nabirasidir. Hozirda u yosh yigitdir [va] g'oyat darvishlik, tamom tirishqoqlik va so'zlab bo'lmaydigan darajada qunt bilan ilmlarni tahsil qilish bilan mashg'ul bo'lmoqda. Shu vaqtda Oliyhazrat fayzi xotirining iltifoti vositasi bilan ko'p muvaffaqiyatlarga ega bo'ldi. Umid shulki, [u] tez orada buyuk ulamolar guruhiga qo'shiladi.

Bog'i Murg'oniy. Sulton hazratlarining do'sti oliyjanob [Amir Alisher] ham Sohibqiron Sulton Husayn Boyqaro hazratlari hukmdorligining dastlabki yillarida Bog'i Murg'oniyni qurishga mashg'ul bo'ldilar va hozir... u dilkusho mavze g'oyat ma'mur va obod bo'ldi...

Sohibtamkin amir bu jannatmonand shahar (Hirot) atrofida [yana] boshqa ko'pgina bog'-u bo'stonlar qurganlar. Chunonchi ulardan ba'zilari [quyida] keltiriladi:

Saripuli Sangkashon. Behisht nishonlik manzildir. Balki Xuroson mamlakatida undan ortadigan gashtgoh yo'qdir.

Taxti Azizon bog'chasi. Behishtning rashkini keltiradigan jannat bog'idir.

Kozirgoh bog'chasi. Shak-shubhasiz [aytish mumkinki], Xuroson mamlakatida, balki jahonning aksari ma'mur joylarida bu jannatmisol mavzening shirin suvi va latif havosi topilmaydi, chunki [bu mavze] ruh bag'ishlovchi Kozirgoh dashtida joylashgan bo'lib, podshohning Bobo Suxta arig'i bu humoyun manzilning shimolidan o'tadi va [bu mavze ortiqcha] ta'rifga muhtoj emas. Tangri hazratlarining kamol-u karamidan umid shulki, ... Sulton (Husayn Boyqaro) hazratlarining do'sti (Amir Alisher) ko'p yil va asrlar bu jannatosor manzilda rohat qilib kun kechirsin...

@tarixchi_kutubxonasiga

XITOY MANBALARI

YUAN SHU VA UNING «TUNGJYAN JISHI BENMUO»[1] ASARI HAQIDA

«Tungjyan jishi benmuo» asarini «Muhim tarixiy voqealar bayoni» deb tarjima qilish to'g'ri bo'ladi. Iyerogliflar ma'nosidan kelib chiqqanda, o'zbek tiliga asarning nomi «O'qib chiqilgan tarixlarning qisqacha mazmuni», deb tarjima qilinishi mumkin.

Asarning muallifi **Yuan Shu** (1131–1205, bolalik davridagi ismi **Jichjung**) Janubiy Sung (1127–1129) xonligining tarixchi olimlaridan biri edi. U Fujyan o'lkasining Jyan'an (Jyan'ou) viloyatida tavallud topgan. 1173-yili Yanchjou viloyatida xizmat qilayotganida professorlik unvoniga sazovor bo'lgan. Tarixiy asarlar ichida Sima Guang (1019–1086) qalamiga mansub bo'lgan va 1066–1084-yillari bitilgan «Zichji tungjyan» («Hukmdorlarga yordam beruvchi ko'zgu»)[2] nomli yirik asarga ko'proq ixlos qo'yib, shu asarda bayon etilgan ma'lumotlarni mavzularga ajratib, jamlab chiqqan. Bitilgan yangi asarini «Tungjyan jishi benmuo» deb nomlagan. «Zichji tungjyan» esa ungacha saqlanib qolgan Xitoy manbalari asosida yozilgan. Shuning uchun «Tungjyan jishi benmuo»dagi Farg'onaga oid ma'lumotlar undan oldin bitilgan manbalardagi ma'lumotlarning umumlashtirilgan majmuasi deb aytish mumkin. Ammo ushbu asarda muallif o'zidan oldin o'tgan tarixchilarning barcha yozib qoldirganlarini to'la ravishda qayd etdi, deb bo'lmaydi, albatta.

«Tungjyan jishi benmuo» yozilganidan so'ng Yuan Shu sharqiy Xitoydagi Chjejyang o'lkasining Jyan'an (Xangchjou) viloyatiga taklif qilinib, u yerda rasmiy tarix yozishga, keyinroq boshqa davlat ishlariga jalb etilgan. «Tungjyan jishi benmuo» rasmiy asar bo'lsa-da, Yuan Shu uni norasmiy, erkin

---

[1] *Yuan Shu*. Tungjyan.

[2] Ilk bor Sima Guan o'z asariga «Tungchji» («Umumiy bayon») deb nom bergan. Shunda asar 8 bobdan iborat edi. 1066-yilda asarni Shimoliy Sung xonligining 5-xoqoni Yingzung (1064–1068) ko'rib chiqib, muallifga uni to'ldirishni buyurgan. Yingzungning o'rniga hokimiyatga kelgan Shenzung (1068–1086) asar bilan tanishib chiqib, unga «Zichji tungjyan» deb nom bergan. Asar xronologik asosda yozilgan umumiy tarix hisoblanadi. Hajmi 294 bobdan iborat bo'lib, u mazmunan milodiy 403–995-yillarda kechgan voqealarni o'z ichiga oladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

uslubda yozgan. Shuning uchun voqealarni bayon etishda muallifning an'anaviy shakl va usullardan chetga chiqqanligi yaqqol ko'rinib turadi. Bunga quyida keltirilgan tarjima bilan tanishganda ishonch hosil qilish mumkin.

Yuan Shugacha tarixiy asarlar o'sha davrga xos bo'lgan ma'lum qoidalar asosida, ya'ni xronologik tartibda avval xoqonlar faoliyati va ular bilan bog'liq bo'lgan voqealar, so'ngra yirik amaldorlarning hayot yo'li, Xitoy atrofidagi xalqlar va mamlakatlar haqida tarixiy ma'lumotlar bayoni kabi qismlarga bo'lingan holda yozilgan. XI asrda tarix yozishda yangilik paydo bo'ldi: ayrim tarixchilar mavjud tarixiy asarlarni o'rganib chiqib, ulardagi ayrim voqealarga va mamlakatlarga oid ma'lumotlarni umumlashtirish va ularga sharh berish asosida asarlar yoza boshladilar. Yuan Shuning «Tungjyan jishi benmuo» asari ana shunday yangi uslubda yozilgan birinchi tarixiy asar hisoblanadi.

Mazmunan ushbu asarni yozishda muallif oldin bitilgan asarlarga asoslanganligi tufayli, unda «Shiji»dagi Farg'onaga oid ma'lumotlar qayd etiladi. Shu bilan birga, «Tungjyan jishi benmuo»dagi bu ma'lumotlarga kiritilgan ayrim qisqartirishlar, aniqliklar va muallif talqini sezilib turadi. Bundan tashqari, asarda «Day-yuan» («Davan») toponimi ko'p holda «Yuan» («Van»), Farg'ona shahri «Yuan-cheng», Chjang Chyanning ismi Chyan, Farg'onaga yuborilgan Xan qo'shini qo'mondoni Li Guanlining ismi Rieyshiey (Ershi) deb ishlatilgan.

Asarning umumiy hajmi 142 bob. U bir necha marta chop etilgan. Quyida keltirilgan tarjima asarning 1955-yili Shangxayda 8 jild hajmida qayta nashr etilgan nusxasi asosida amalga oshirilgan (Tarjimon A. Xo'jayev).

Asardagi O'zbekiston tarixiga oid ma'lumotlar ilk bor tarjima qilindi. Xitoycha yozilgan ism va atamalarni transkripsiya qilishda rus adabiyotidagi an'anaga emas, balki o'zbek kirill yozuvi fonetikasiga asoslanib ish ko'rildi.

A. Xo'jayev

YUAN SHUNING «TUNGJYAN JISHI BENMUO» ASARIDAN LAVHALAR
(1-jild, 2-kitob)

[G'arbiy] Xan [imperiyasi]ning[1] g'arbiy mamlakatlar (Shiyuy) bilan aloqa o'rnatishi.

[1] G'arbiy Xan imperiyasi qadimiy Xitoyni ikkinchi marta birlashtirish asosida tashkil topgan davlat (mil.avv. 206-y). U avvaliga Xan (Syanxan) deb nomlangan. Uning asoschisi Lyu Ban (mil. avv. 256 – 247) Gaoszu nomi bilan mil.avv. 202 – 195-yillarda taxtga o'tirgan. Umuman olganda, Xan imperatorlari avvalgi ma'muriy tuzumni davom ettirish va mustahkamlash hamda o'sha davr tafakkurini rivojlantirish yo'lidan borgan. Ayniqsa, Xitoy imperatorlari Tangrining yer yuzidagi farzandi, unga hamma itoat qilishi va bundan bosh tortganlar esa jazolanishi lozim, degan g'oyani o'zlariga dastur qilib olgan. Ularning ichki va tashqi siyosati aynan shu g'oyaga asoslangan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Xan sulolasi (xoqoni) U-di[1] [hukmronligining] uchinchi yili (mil.avv. 138-y.)

Ilgari asirga olingan xunnlarning aytishiga qaraganda, qadimda ruziyeliklar (yuechjilar)[2] Dunxuang[3] bilan Chilyan[4] o'rtalarida davlat tashkil etib, o'sha yerda yashaganlar. Lekin ular xunnlar hukmdori Movdun tomonidan mag'lubiyatga uchragan. Ushbu hukmdor yoshi ulg'ayib qolgan ruziyeliklar (yuechjilar) xoqonini o'ldirib, uning bosh suyagidan ichimlik ichadigan idish qilib olgan. Shundan keyin hukmdorning fuqarolari xunnlar ularni tinch qo'ymasligidan qo'rqib, uzoq yurtlarga qochib ketishgan. Buni eshitgan Xitoy xoqoni Ulug' Ruziye hukmdoriga Chjang Chyanni elchi qilib yuborishga qaror qilgan. Shu munosabat bilan xoqon unga Long unvonini berib, Lungshi [shahridan] yo'lga chiqishni buyurgan.

---

[1] G'arbiy Xan imperiyasining 6-xoqoni, mil. avv. 140–85-yillarda hukmronlik qilgan «U-di» (武帝) so'zi «Jangovar imperator» ma'nosini anglatadi. Uning asl ismi Lyu Che, mil. avv. 156-yilda tug'ilgan. Xunnlarga qarshi kurashish va ularga tobe bo'lgan hududlarni bosib olishni eng ilg'or g'oya deb bilgan xoqon hisoblanadi. O'z maqsadiga erishish uchun uzoqdagi raqib bilan ittifoqlashib, yaqindagisini yo'q qilish strategiyasi asosida ish tutishni ma'qul ko'rgan. Shuning uchun u ilgari xunnlardan yengilgan yoki ular zulmini chekkan va hamon xunnlarga qarshi kurashish niyatida bo'lgan mamlakatlarga elchi yuborib, ularni umumiy maqsad sari intilishga da'vat etgan.

[2] Manbada zamonaviy talaffuzda «Yuechji» 月氏 deb o'qilgan ikki iyeroglif qadimda ruziye, rutziye, (ru-tziye) deb talaffuz etilgan. Biz tarjimamizda qadimgi o'qilishini ishlatdik, zero, ularni boshqa qadimiy manbalardagi atamalar bilan solishtirish asosli va to'g'ri bo'ladi. Mil. avv. III asrdan oldin ushbu atama boshqa iyerogliflar bilan ifodalangan: ngiwoziye, ngiwotziye, ngiwo-chiye, ngiwet-chiye, ngi-wetciye, ngo-chiye yoki ngeu-chiye, ngiwo-tciye, ngo-tciye yoki ngeu-tciye, rieuk-chiye, «rieuk-tiye», «rieuk-tciye». Xitoylar undosh tovushlarni, jumladan, «z»ni undan oldin yoki keyin unli tovush qo'shmasdan talaffuz etmaydilar. Bundan tashqari, ular tilida «g'» va «q» tovushlari yo'q. Shuni hisobga olganda, «yuechji» atamasining eng qadimiy yozilishlari «g'uz-yer va og'uz-yer» so'zlarining xitoycha transkripsiyalari bo'lganligini anglab olish mumkin.

[3] Buyuk ipak yo'lining sharqiy qismidagi Dunxuang shahri Xesi yo'lagining (daryoning g'arbiy tomonidagi yo'lak ma'nosini anglatadi) g'arbiy tomonidagi bir nuqtasi hisoblanadi. U giyoh o'smaydigan tog'lar bilan o'ralgan bir qumli cho'l o'rtasida joylashgan. Dunxuang bir necha ming yillik tarixga ega. Bundan 3 ming yil muqaddam bu yerda Xitoy manbalarida «rung» (rivem – otminuvchilar), «rung-di» (rivem-tiyek – otminuvchi turklar) deb ataladigan xalqlar, miloddan oldingi V–III asrlarda esa ruziye (yuechji)lar yashagan. Miloddan oldingi I asrda G'arbiy Xan imperiyasi ushbu joyni xunnlar qo'lidan tortib olgan. Shungacha Dunxuang Dasht-ota deb atalgan edi. Xitoylar ushbu nomni avvaliga Tuenhuang (Tuenhung), keyinroq «Dunxuang» deb talaffuz etishgan. Mazkur atamani ifoda etuvchi ikki iyeroglifning lug'aviy ma'nosi «katta issiq joy» demakdir. Mazmun jihatidan o'sha «Dasht-ota» toponimiga mos keladi. Dunxuang viloyatining atrofi ko'chadigan qumdan iborat bo'lgan. Shuning uchun 619-yilda Tang imperiyasi bu yerni o'z ta'siri ostiga olganidan keyin, xitoylar uni «Shachjou» («Qumli viloyat») deb atashgan. Ayrim sayyohlarning asarlarida Dunxuang Guachjou («Tarvuz vodiysi») deb ham yoziladi. (Chjao Shenglyang, 28-b).

[4] Xesi yo'lagining janubiy tomonida sharqdan g'arbga tomon joylashgan tog' tizimi.

@tarixiy_kutubxonasiga

[Chjang Chyan] xunnlar zaminidan o'tayotganida, ularning qo'liga tushgan va u yerda 10 yildan ortiq ushlanib qolgan. Bir kuni qulay fursatdan foydalanib, g'arbga ruziyelar yashayotgan yurt sari qochgan. Bir necha o'n kun yo'l yurgandan so'ng, Ulug' Farg'ona (Day-yuan)ga yetib kelgan. [Ayni o'sha paytda] Xan mamlakatining boy ekanligidan xabardor bo'lgan farg'onaliklar uning bilan qanday aloqa bog'lashni bilmay turgan ekanlar. Ular Chjang Chyanni ko'rib, g'oyat xursand bo'lganlar va uni Kangkiya mamlakatiga, undan so'ng ulug' ruziyelar yashayotgan joyga kuzatib qo'yganlar. Shu paytda ruziyelar shahzoda boshchiligida Baqtriya (Dashya)[1]ni egallab, ushbu mamlakat hududida yashayotgan ekan. Ular istiqomat qilayotgan yerlar serhosil va o'g'ri-qaroqchilardan xoli ekan. Lekin ularning xunnlardan qasos olish niyati yo'q ekan. [Shu bois] Chjang Chyan ruziyeliklar yurtida bir yildan ortiq turib, ular hukmdorining farmonini ololmay, vataniga qaytib ketishga majbur bo'lgan ekan.

Qaytishda Chjang Chyan janubiy tog'lar[2] va kiang (chiyang)lar yeri[3] orqali ketmoqchi bo'lgan edi. Lekin u yana xunnlar qo'liga tushib qolgan. Oradan bir yil o'tgandan so'ng, xunnlar [diyori]da nizo boshlangan. Fursatdan foydalanib, Chjang Chyan Tangyi avlodiga mansub (堂邑氏) Ganfu (甘父) ismli qul bilan birga qochib ketishga muyassar bo'lgan. [Xan] imperatori [Chjang] Chyanga hurmat bildirib, unga tayjung-dafu[4] unvonini taqdim etgan. Ganfu esa shijyun[5] unvoniga sazovor bo'ldi. Dastlab safarga otlanganida, [Chjang] Chyanga yuzdan ortiq kishi hamrohlik qilgan. 13 yildan keyin u atigi ikki kishi bilan qaytib kelgan edi.

Yuanshou[6] davrining birinchi yili (mil. avv. 122-y.).

Ilgari Chjang Chyan qaytib kelganidan so'ng, g'arbiy mamlakatlardagi urf-odatlar haqida Tangri o'g'liga (Tyanzi) batafsil so'zlab berdi:

---

[1] Xitoy adabiyoti va lug'atlarida Dasya davlati Amudaryoning janubidan Hindukush tog'larining shimoligacha bo'lgan yerlarda joylashgan davlat, uning nomi ilk bor Simo Chyan qalamiga mansub «Shiji» («Tarixiy xotiralar») nomli asarning Farg'onaga bag'ishlangan bobida uchraydi, deb ko'rsatiladi.

[2] Janubiy tog'lar deb, Pomir va Ko'inlun (Kunlun) tog'lari ko'zda tutilgan.

[3] Xunn imperiyasi davrida kiang («syang»)lar unga itoat qilgan. Shuning uchun Chjang Chyan davridagi «chyanglar yeri» deganda, Taklamakon cho'li atrofidagi yerlar ko'zda tutiladi. Ehtimol, Xitoy elchisi bu joylarda xunnlar ta'siri ojiz bo'lsa kerak, shundan foydalanib, Taklamakon cho'lining janubidan o'tadigan karvon yo'li orqali vatanimga to'siqsiz qaytib ketaman, deb o'ylagan. Ammo amalda voqea u o'ylagandek bo'lmagan (Chjungguo dabayke, 499-b).

[4] *Taychjung-dafu* (太中大夫) – maslahatchilar boshlig'i.

[5] *Shijyun* (使君) – xoqon elchisi demakdir.

[6] G'arbiy Xan imperiyasi (mil. avv. 220 – mil. 8-yy.) davrida xoqonlarning taxtda o'tirgan davri bir qancha qismlarga bo'lingan va ularning har biriga nom berilgan. Yuanshou (元狩) – G'arbiy Xan imperatori hokimiyatining mil. avv. 122–117-yillardagi davrining nomi bo'lib, u yil boshidagi «ov mavsumi» ma'nosini anglatadi va Yuanshouning birinchi yili mil. avv. 122-yilga to'g'ri keladi.

@tarixchi_kitoblar_kanaliga

«Buyuk Farg'ona (Day-yuan) Xan mamlakatining g'arbiy tomonida 10 ming li (5760 km) chamasidagi masofada joylashgan. U yerda yashaydiganlar ekin ekish bilan shug'ullanishadi, tulpor otlar benihoya ko'p. Bu otlardan qonsimon ter oqadi. Shaharlar devorlar bilan o'ralgan, uylar Xitoydagi uylarga o'xshaydi. Farg'onaning shimolida Asuen (Usun), sharqida Xo'tan (Yuytiyan) joylashgan. Xo'tanning g'arbiy tomonidagi daryolar g'arbga qarab oqib, G'arbiy dengiz (Shixay – Orol dengizi)ga quyiladi, uning [Xo'tanning] sharqiy tomonidagi daryolar esa sharqqa qarab oqib, Sho'rsuv ko'li (Lobnor)ga quyiladi. Sho'rsuv ko'lining suvi esa yerga singib turadi. Uning [Xo'tanning] janubidagi daryolar ham shu ko'lga boradi. Sho'rsuv ko'li [Xitoyning poytaxti] Chang'andan 5 ming li (2880 km) narida bo'lib, xunnlarning o'ng (janubiy) tomon hududi hisoblanadi. Ushbu hududning sharqiy tomoni Gansuning g'arbiy tomonidagi Buyuk devorigacha (Changcheng长城)[1], janubda (41) esa kyanglar (chyang) yurtigacha[2] yetib boradi. Shu sababdan xunnlar Xanning [g'arb tomonga o'tadigan] yo'lini to'sib turadi.

Asuen (Usun), Kangkiya (Qangjyuy), Yaamtsat (Yansay) va Ulug'-Ruziye (Day-ruziye) chorvachilik bilan shug'ullanadigan davlatlardir. Ularning urf-odatlari xunnlarnikidan farq qilmaydi.

Baqtriya (Dashya) Farg'onaning janubida joylashgan bo'lib, bu yerdagilar farg'onaliklar bilan bir xil urf-odatlarga rioya qilishadi. Men [Chjang Chyan] Baqtriya (Dashya)da bo'lganimda, Sichuan qamishidan (Xitoy qamishi) qilingan hassa va ipakdan to'qilgan matolarni ko'rdim. «Bularni qayerdan olib keldinglar?» – deb so'radim. Baqtriya (Dashya)liklar: «Bizning savdogarlarimiz Hindiston (Shengdu)dan olib kelishgan», – deb javob berishdi. Hindiston Baqtriya (Dashya)dan bir necha ming li narida joylashgan. U yerdagilar baqtriyaliklarga o'xshab, dehqonchilik bilan shug'ullanishar ekan.

Baqtriya (Dashya) Xan [davlati]dan 12 ming li (6912 km) narida joylashgan, u Xanning janubi-g'arbiga to'g'ri keladi. Hindiston esa Baqtriya (Dashya)dan bir necha ming li janubi-sharqida joylashgan. U yerda ipakdan qilingan matolar bor ekan. Ularni olib kelish uchun yo'l uzoqlik qilmas ekan.

Baqtriya (Dashya)ga boradigan elchilar kyanglar (chyanglar) zamini (Tibet)dan o'tishi mumkin, ammo chyanglar ularni o'tkazmaydi. Biroz shimol tomonga qarab yurilsa, xunnlar qo'liga tushib qoladi. Xunnlarga tobe yerlarda osoyishtalik va tinchlik hukmron, qaroqchilar yo'q».

[1] So'zma-so'z tarjimada «Changcheng» atamasi «uzun devor» ma'nosini anglatadi.

[2] Miloddan avvalgi II asrda Chjang Chyan Farg'onaga borib kelgan davrlarda kyanglar asosan hozirgi Xitoy Xalq Respublikasining Ko'kko'l (Chingxay 青海, ushbu xitoycha nom Ko'kko'l toponimining tarjimasidir, u yerdagi katta ko'l Chingxayxu 青海湖 deb ataladi) o'lkasi va Tibetning shimoliy qismida, Xuangxe daryosining yuqori qismi atrofida yashaganlar (Chjungguo shigao, 19–20 va 29–30-bb.).

@tarixchi_kutubxonasiga

Bu gaplardan Tangri-o'g'li Farg'ona, Baqtriya (Dashya) va Parfiya (Anshi) katta davlatlar ekanligini, ularda ajoyib mahalliy mollar ko'pligini, Xitoydagidek hunarmandchilik borligini, ammo ularning qo'shinlari kuchsizligini, u mamlakatlarda Xitoy mollarini yaxshi ko'rishlarini, ularning shimolidagi yerlar Ulug'-Ruziye (Day-ruziye) va Kangkiyaga qarashligini bilib oldi. Shunda u [bu davlatlar]ning qo'shinlaridan foydalanishimiz mumkin, Chjang Chyan aytgan bunday bepoyon zaminni qo'lga kiritsak, bizning shon-shuhratimiz va quvvatimiz oshadi, to'rt dengiz oralig'i [dunyo]da buyuk bo'lib ketamiz, deb o'ylab qoldi.

Yuan-ding[1] davrining 2-yili (mil. avv. 115-y.) Qunshar-xan (Xun'ya-vang)[2] Xanga taslim bo'ldi. Xan qo'shinlari xunnlarni qumlikning[3] shimoliga uloqtirib yuborishdi. Lobnor ko'lining sharqiy tomoni xunnlardan bo'shatilib, g'arbiy mamlakatlarga yo'l ochildi. Shundan keyin Chjang Chyan [U-di]ga taklif bilan murojaat etdi:

«Asuen (Usun)larning hukmdori Kunmak (Kunmuo) aslida xunnlarga itoat etar edi. Biroz kuchaygandan so'ng u xunnlar xoqoniga bo'ysunishdan bosh tortgan. Shundan keyin xunnlar unga hujum qildilar, lekin birorta ijobiy natijaga erisha olmadilar. Hozir xanlar xunnlar xoqonini qiyin vaziyatga tushirib qo'ygan. Xunnlarning qadimgi Xun'ya viloyati bo'shab, odamsiz qoldi. Yovvoyilar qadimgi vatanlarini qo'msaydilar va xanliklarning mollarini yaxshi ko'radilar. Hozirgi vaziyatda asuenlarga katta sovg'alar yuborib, ularni sharqqa ko'chish va Xun'ya viloyatini egallash, Kunmak (Kunmuo) ning ukasiga xanlar bilan qarindosh bo'lishni taklif etsak va ular bu [taklif] larni qabul qilsa, xunnlarning o'ng qo'lini chopib tashlagan bo'lar edik. Shu bilan birga, asuenlarning g'arbiy tomonidagi Baqtriya (Dashya)ni va uning ta'siri ostidagilarni itoat qildirish imkoniyatiga ham ega bo'lamiz».

Tangri-o'g'li [U-di] mazkur taklifga binoan ish ko'rishni ma'qul topib, Chjang Chyanga saroy soqchilari boshlig'i (chjunglang jiyang)[4] unvonini in'om etdi. So'ngra unga 300 kishi, har bir kishi boshiga ikkitadan ot, sonsanoqsiz qoramol va qo'y, bir necha ming oltin pul va ipak matolar berdi. Unga hamrohlik qiladigan yordamchilarni tayinlab, safarga jo'natdi va qulay yo'lni tanlab yurishni buyurdi.

---

[1] Yuanding (元鼎 – «boshlang'ich davrining asoslari» ma'nosini anglatadi) – U-dining taxtda o'tirgan davrining bir bo'lagiga berilgan nom. U mil. avv. 116–111-yillarga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqib, Yuandingning 2-yili mil. avv. 115-yil ekanligini bilib olish mumkin.

[2] *Qunsha qan* – Tangritog'ning sharqiy qismida yashovchi xunnlarning hokimi, Xitoy manbalarida Xun'ya-vang deb ataladi (Tarixiy xotiralar, 424–425-bb).

[3] Xeshi yo'lagining (Xesi szoulang) shimolidagi qumli cho'l ko'zda tutilgan.

[4] *Chjunglang-jiyang* (中郎将) – «vazirlik darajasidagi davlat idoralarini himoya qiluvchi soqchilar boshlig'i» ma'nosini anglatadi. (Chjungguo liday, 186-b.)

@tarixga kutubxonasiga

Chjang Chyan Asuen (Usun)ga kelganida, mahalliy hukmdor Kunmak (Kunmuo) u bilan uchrashib, o'zining [uchrashuvdan] g'oyat xursand ekanligini aytdi. Shunda Chjang Chyan unga farmonni ko'rsatib: «Asuen (Usun) lar o'zlarining sharqdagi qadimgi joylariga ko'chib borishlari mumkin. Agar [asuenlar u yerga] ko'chib borsalar, Xan malikasi sizga xotinlikka beriladi, biz aka-ukalar bo'lib qolamiz, birgalikda xunnlarga qarshi kurashamiz, shunda xunnlar tor-mor bo'lishi muqarrar», – degan so'zlarni aytdi.

Asuen (Usun) [xoni] o'z yurtining Xandan uzoqdaligi, Xanning qanday davlat ekanligidan bexabarligi, o'zining ko'pdan beri xunnlar itoatida bo'lib kelayotganligi, xunnlarning yaqinligi, Asuen (Usun) amaldorlarining xunnlardan qo'rqishi kabi bir qator omillarni inobatga olib, [asuenlarning] sharqqa ko'chib borish taklifini ma'qul topmadi.

Shundan keyin Chjang Chyan Asuen (Usun) hukmdoridan farmon kutib, [mazkur mamlakatda] uzoq turib qolishga majbur bo'ldi. O'zining yordamchilarini u Farg'ona, Kangkiya, Daruziye, Baqtriya (Dashya), Parfiya, Hindiston, Xo'tan va ular atrofidagi davlatlarga yubordi. Chjang Chyanning o'zini esa asuenlar o'z vataniga kuzatib qo'yishdi. Minnatdorchilik izhor etish va Xan davlatining katta-kichikligini bilish uchun bir necha kishini yetarli otlar bilan ta'minlab, uning bilan birga safarga jo'natdi. Shu yili Chjang Chyan o'z yurtiga qaytib bordi. U katta hurmat va izzat bilan kutib olindi.

Oradan bir yildan ko'proq vaqt o'tganidan keyin Chjang Chyanning Baqtriya (Dashya)ga va uning atrofidagi yurtlarga yuborgan odamlari ham ularning elchilari hamrohligida qaytib kelishdi. Natijada Xan bilan g'arbiy mamlakatlar o'rtasidagi aloqalar yo'lga qo'yildi.

Shunda ma'lum bo'ldiki, G'arbiy mamlakatlar (Shiyuy)da jami 36 davlat mavjud ekan. Ular zaminida janubdan shimolga qarab cho'zilgan buyuk bir tog' bor, uning qoq o'rtasidan bir daryo oqib tushadi. Ushbu mamlakatlar hududi sharqdan g'arbgacha 6 ming *li* (3456 km), janubdan shimolgacha ming (42) *li* (*li* – 576 m)dan ortiq keladi. Ushbu zaminning sharqiy chegarasi Xan (mamlakati)ning Yuymen[1] va Yangguan[2] kabi joylari bilan tutash bo'lsa, g'arbiy chegarasi Pomir (Sungling 葱岭) tog'lari bilan o'ralgan.

[1] *Yuymen* – Xitoy manba va adabiyotlarida Yuymen-guan, ya'ni qoshtoshi chegara darvozasi yoki qorovulxonasi deb nomlanadi. Dunxuang shahridan 80 km shimoli-g'arbda, cho'l yerda joylashgan. «Yuymen»ning lug'aviy ma'nosi «Qosh (nefrit) toshi darvozasi»ni anglatadi, «guan – chegaradan o'tadigan joy» demakdir. Qadimiy Xitoy manbalarining ma'lumotlariga qaraganda, bundan bir necha ming yil ilgari Xo'tandan qadimgi Xitoy shaharlariga nefrit toshlarini (qosh toshi) va undan yasalgan buyumlarni olib borib sotishgan. Buning uchun savdogarlar mazkur chegara darvozasidan o'tishgan. Shunga ko'ra bu joy «Yuymen», ya'ni «qoshtoshi darvozasi» deb atalgan.

[2] *Yangguan* – qadimiy Xitoyning g'arbiy chegaralaridan biri. Dungxuang shahridan 70 km naridagi Gudungtan («qadimiy yodgorliklar maydoni» ma'nosini bildiradi) nomli tepalikda joylashgan. Qadim zamonda u tepalikda Shouchangcheng deb atala-

@tarixchi_kutubxonasiga

U yerdagi daryoning ikki tarmog'idan biri Pomir tog'lari orasidan, ikkinchisi Xo'tan (Yuytan)dan boshlanadi. Daryo sharqqa qarab oqib, Yuymen va Yangguandan 300 li (172 km) masofada joylashgan Sho'rko'l (Lobnor ko'li)ga quyiladi.

Yuymen va Yangguandan g'arbiy mamlakatlarga boradigan ikki yo'l bor. Ularning biri Pishamshan (Shanshan 鄯善)dan Janubiy tog' (Nan-shan)[1] va daryoning[2] shimoliy qirg'oqlari bo'ylab g'arbga, ya'ni Yorkend (Shache)ga qarab ketadi va «janubiy yo'l» deb ataladi. U Pomirdan o'tib, Ulug'-Ruziye va Parfiya kabi mamlakatlarga boradi.

Qadimiy Turfon (Chyan Cheshi)ning hukmdor o'rdasi orqali Shimoliy tog' (Beyshan) bo'ylab daryo oqimiga qarshi yuradigan va Qashqarga boradigan ikkinchi yo'l shimoliy yo'l deb ataladi. U Farg'ona, Kangkiya, Yaamtsat (Yansay)) kabi mamlakatlarga olib boradi.

Mazkur mamlakatlarning hammasi xunnlarga tobe bo'lgan. Xunnlarning g'arbiy tomonidagi hukmdorlar ham shular qatorida bo'lganlar.

[Xan imperatori tomonidan] G'arbiy mamlakatlar ustidan nazorat qilish uchun bir hokim (duvey) tayinlangan bo'lib, u asosan Qarashar (Yansi), Veyshu, Yuyli kabi joylarda turib, barcha davlatlardan soliq yig'ish va boylik orttirish bilan shug'ullanar edi.

---

digan qal'a mavjud bo'lib, uning sharqiy tomonida ekinzor va bog'lar bo'lgan. Qal'a devorining bir bo'lagi hozirgacha saqlanib qolgan. Gudungtanda yog'in va shamollar natijasida ochilgan qazilmalardan arxeologlar tomonidan topilgan misdan yasalgan o'q-yoy uchi, tangalar, sopol idish siniqlari, nefrit toshidan qilingan qo'l tegirmoni kabi tarixiy yodgorliklar Yangguanning 2 ming yildan ortiq tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Ayrim Xitoy manbalarida yozilishicha, Yangguan mil. avv. II asrda G'arbiy Xan davlati Dunxuang viloyatini egallab olganidan so'ng barpo etilgan bo'lib, shu zamonda bu yerdan sizib chiqqan buloqdan hosil bo'lgan ariq mavjud bo'lgan (Chjungguo mingsheng, 1071-b).

«Yangguan» atamasining lug'aviy ma'nosi «janubiy chegara darvozasi»ni anglatadi. Qadim zamonlarda Xitoydan g'arb tomonga qaytib ketayotgan elchilarni, obro'li mehmonlar va oliy zotlarni shu joygacha kuzatib qo'yish odati bo'lgan. Zero, bu mehmonni uydan ko'cha eshigigacha kuzatib qo'yishdek iltifotni anglatgan. Markaziy Osiyodan Xitoyga boruvchilar mana shu joyda tekshiruvdan o'tgan, maktub va boshqa hujjatlarini xitoy tiliga tarjima qilib, rasmiylashtirishgan va zarur soliqlarni to'lab, undan o'tishga ijozat kutishgan.

Xitoy olimlari Yangguanni inson tanasining muhim bir bo'lagiga qiyoslab ta'riflaydilar. Masalan, «Xitoydagi atoqli tarixiy yodgorliklar» nomli kitobda: «Yangguan Xitoyni chet el mamlakatlari bilan bog'lab turadigan katta yer yo'lidagi yo'lagidir, u Qadimiy ipak yo'lining muhim bir nuqtasi bo'lib, ushbu yo'l orqali safarga otlanganlar uchun o'tish muqarrar bo'lgan joydir», deb yozilgan (Chjungguo mingsheng, 1071-b).

[1] Nan-shan (南山) Ko'inlun (Kunlun) tog'ining sharqqa qarab ketgan davomining xitoycha nomidir.

[2] Bu yerda tilga olingan daryo Keriya daryosidir. Uning xitoycha nomi – Chemuoxe (且末河). U Janubiy tog'dan boshlanib, Taklamakon cho'lining sharqiy qirg'oqlari orqali shimoli-sharq sari oqib borib, Lobnor ko'liga quyiladi.

@tarixchi_katuxoraasiga

Asuen (Usun) hukmdori sharqqa ko'chib borishni ma'qul topmaganidan so'ng, Xan sulolasi [qadimda asuenlar yashagan] Xun'yo [viloyati] hokimi turgan joyda Jyuchyuan nohiyasini tashkil qilib, u yerga asta-sekin yersizlarni joylashtirdi. Keyinchalik xunnlar bilan chiyang (tibetlik)lar o'rtasidagi aloqani uzib tashlash maqsadida mazkur nohiyaning bir qismi asosida Uvey nomli ikkinchi bir nohiyani tashkil etdi.

Tangri-o'g'li (U-di) Farg'onadan olib kelingan badanidan qonsimon ter chiqadigan otni ko'rib, unga nihoyatda ishqiboz bo'lib qoldi va unga Tangri oti (tiyanmo) deb nom qo'ydi. So'ng yana shunday otlar keltirish uchun [Farg'onaga] elchilar yubordi. Ularga ko'pi bilan bir necha yuz, kamida yuzdan ortiq kishini hamroh qilib, sovg'alar bilan yo'lga chiqardi. Undan tashqari, elchilarning ayrimlariga buvangxau[1] unvonini in'om qildi.

Shundan keyin [mamlakatlarga] elchilar yuborib turish odat tusiga kirdi. Har yili ko'pi bilan o'n, kamida 5–6-marta [turli xonliklarga] elchilar jo'natildi. Uzoq yurtlarga yuborilganlar 8–9 yilda, yaqin mamlakatlarga jo'natilganlar bir necha yilda qaytib kelishdi.

[U-dining] 6-yili (mil. avv. 139-y.) buovang-xau va g'arbiy mamlakatga borib kelgan boshqa elchilar, zodagonlar, harbiylar xoqonga yozma axborot berib, xorijiy mamlakatlardagi noyob narsalar hamda ularning kuch-quvvatlari haqida ma'lumot olib kelish uchun yana elchilar yuborishni so'radilar.

Tangri-o'g'li mazkur mamlakatlarga boradigan yo'llarning uzoqligini, odamlarning o'z ixtiyori bilan bunday uzoq safarga chiqishni xohlamasligini hisobga olmay, bu taklifni ma'qullagan va uni bajarish uchun amaldorlarni safarbar etishni buyurgan edi. [Elchiga] hamroh bo'lib borib keladiganlar bilan suhbatlashish va hol-ahvolini so'rab-surishtirishni ham istamay, safarga odam yuborish uchun tayyorgarlik ko'rishni buyurgan. Boradigan va qaytib keladigan yo'llarning qulaylashtirish va xavfsizlantirish, qaroqchilardan mol-mulkni asrash chora-tadbirlarini amalga oshirish haqida farmon bermagan edi. [Shunga qaramay] Tangri-o'g'li uni [Chjang Chyanni] og'ir jinoyat qilganlikda aybladi va o'z jinoyatini oqlashga imkon berib, qaytadan elchi etib [g'arbga] yuborishni lozim topdi.

[Aslida elchi] boylik ko'rmagan va qonun-qoidani bilmaydigan odam emas edi. [Lekin unga hamrohlik qilgan] mayda amaldorlar va jangchilar o'zboshimchalik qilib, xorij davlatlardagi narsalarga o'zlarini urishdi. «Ulug' zotlar shon-sharafga, ochko'zlar boylikka, bezorilar urush-janjal-

[1] «Saroydagi bilimdon hokimlar» ma'nosini anglatadi. Ushbu unvonni «saroy maslahatchilari» deb tarjima qilish ham xato bo'lmaydi.

@tarixiykutubxonasiga

ga intiladi», degan naql bor. Elchi qilib yuborilganlar kambag'allarning farzandlari bo'lganligi tufayli ular sovg'a-salomlarga o'chlik qilgan, bozorlarda o'zlarining shaxsiy manfaatini ko'zlab ish tutgan. Xorij davlatlar esa Xan elchilarini hurmat qilmay qo'ygan, [mahalliy] odamlarda turli tushunchalar paydo bo'lgan. [Ular] Xan qo'shinlari uzoqdan yetib kela olmaydi, deb [elchilarga va ularning hamrohlariga] yegulik bermaganlar. Natijada Xan elchilari qiyin ahvolga tushib qolishgan. Buning ustiga ular hujumga ham duch kelishgan. [Bu hol] ularning kelishini to'xtatib qo'yishga olib kelgan.

Boz ustiga, Krurain (Loulan 樓蘭) va Turfon (Cheshi 車師) kabi kichik davlatlarning katta yo'lni to'sib, Xan elchisi Vang Xuey (王恢) kabilarga hujum qilishi undan ham oshib tushgan, xunnlar esa qo'shin yuborib, ularni qo'llab-quvvatlashgan.

Elchilar g'arbiy mamlakatlarda devorlar bilan o'ralgan shaharlar va shaharchalar borligi, qo'shinlarining quvvatsizligi va ularga qarshi hujum uyushtirish osonligi haqida so'zlab berishgan edi. Shunga asosan Tangri-o'g'li Fujyu qo'mondoni (Fujyu jyangjyun)[1] Gung Sunxeni 5 ming otliq bilan Jyuyuandan[2] yo'lga chiqib, [shu joydan] 2 ming li (1152 km) naridagi Fujyu [deb ataladigan] quduqqacha borib, qaytib keldi. Shyungxe qo'mondoni (Shyungxe jiyangjyun)[3] Chjov Puonu 10 mingdan ortiq chavandozni boshlab, Lingkiya (Lingjyuy 令居)dan[4] yo'lga chiqib, bir necha ming li (1 li – 576 m) naridagi Shyungxe daryosi bo'yiga borib, qaytib keldi. [Ular] Xan elchilarini himoya qilish uchun emas, balki xunnlarni chekinishga majbur etish uchun safarga yuborilgan edi. Lekin safar jarayonida birorta ham xunnni uchratishmadi. Shundan keyin Uvey, Jyuchyuan degan joylarni Jang'e va Dunxuang viloyatlari zaminiga qo'shib olishdi, mahalliy xalq bundan xabardor etildi[5].

---

[1] *Fujyu* (浮沮) – Janubiy Mongoliyadagi bir joyning xitoycha nomi. Qadimiy Xitoy an'anasiga ko'ra, birorta joyga qo'shin boshlig'i qilib yuboriladigan yuqori unvonli zobitga shu joyning nomiga jyangjyun (將軍 qo'mondon) so'zini qo'shib, yangi lavozim sifatida in'om etilgan. Ushbu misolda jyangjyun so'zi oldiga Fujyu qo'shilganligi tufayli uni Fujyu qo'mondoni deb tarjima qilindi.

[2] *Jyuyuan* (九原) – hozirgi XXR tarkibidagi Ichki Mongoliyaning Baotou shahri yonidagi joy nomi (Sixay, 64-b).

[3] *Shyungxe jyangjyun* (匈河將軍) – ushbu lavozimdagi Shyungxe Shyungnuxe (匈奴河) deb ham ataladi, u Selinga daryosining yuqori irmoqlarining janubidagi kichik daryoning xitoycha nomi. Ushbu misolda jyangjyun so'zi oldiga Shyungxe toponimi qo'shilganligi sababli, «Shyungxe qo'mondoni» deb tarjima qilindi.

[4] *Lingjyuy* (令居, Lyanjyuy deb ham o'qiladi) – hozirgi XXRning Gansu o'lkasidagi markaziy shahar bo'lmish Lanchjouning shimoliy tomoni yoki Yungdeng shahri yonidagi joy nomi (Sixay, 313-b).

[5] Uvey, Jyuchyuan, Jang'e viloyatlari Xeshi yo'lagida joylashgan.

@tarixchi_bahtiyorxonaga

(43) Yuanfengning[1] 3-yili (mil. avv. 108-y.) 12-oyida harbiy qo'mondon Chjov Puonu (趙破奴) boshchiligida 700 nafar chavandozlar bilan birinchi navbatda Krurain (Loulan) davlati hukmdorini hibsga oldi. Keyin Turfon (Cheshi) davlatini mag'lubiyatga uchratdi, Asuen (Usun) va Farg'ona davlatiga tahdid soldi. [Mil. avv. 107-yili] birinchi oyning 21-(jiyashen甲申) kunida amalga oshirgan xizmati uchun [Jao] Puonu chjuoye-xou [olis dala hokimi] unvoni, Chjov Puonuga Krurain (Loulan)ga hujum qilishda yordamlashgan Vang Xueyga jiye-xou (浩侯) unvoni berildi. Shundan keyin Jyuchyuandan Yuymengacha bo'lgan joylar bizning ta'sirimiz doirasiga o'tdi.

[Yuanfengning] 6-yili (mil. avv. 109-y.) asuen (usun)lar elchisi [Xitoyga] kelib, Xan davlatining naqadar katta ekanligiga guvoh bo'ldi. [Vataniga] qaytib borib, hukmdoriga bu haqda ma'lumot berdi. Natijada [asuen (usun) lar] hukmdori Xanga katta e'tibor bera boshladi. Xunnlar asuen (usun)larning Xan bilan aloqa o'rnatganini eshitib, qattiq xafa bo'ldi va ularga qarshi hujum qilmoqchi bo'ldi. Bundan tashqari, ularning yonidagi farg'onaliklar va ruziyeliklar ham Xan bilan yaqin aloqalar o'rnatishdi. Asuen (Usun)lar bundan qattiq tashvishlanib, Xan malikalaridan birini Kunmak (Kunmuo) ismli ukasiga olib berib, [xanlar bilan] qudalashmoqchi bo'ldi. Shu maqsadda u [Xitoyga] elchi yubordi. Tangri-o'g'li saroy amaldorlari bilan maslahatlashib, rozilik berishni ma'qul topdi. Shundan keyin Xan malikasi uchun asuen (usun)lar [Xitoy xoqoniga] mingta ot yuborishdi.

Xan davlati o'z hokimi Jyan Davangning qizi Shijyunni saroy malikasi sifatida katta sarpolar va xizmatkorlar bilan asuen (usun)larga kelinlikka yubordi. Asuen (Usun) podshosi Kunmak (Kunmuo) (Xitoy malikasini) o'ng tomon bekasi (ikkinchi xotin) qilib tayinladi. [Bundan oldinroq] xunnlar ham unga xotinlikka qiz berishgan edi[2]. Kunmak (Kunmuo) u xunn qizini chap tomon bekasi (birinchi xotin) qilib belgilagan edi.

Bir yil davomida [Xitoy malikasi] alohida qurilgan bir saroyda yashadi. Shundan keyin u Kunmak (Kunmuo) bilan uchrashib, mehmondorchilik

[1] *Yuanfeng* (元封) – mil. avv. 110–105-yillardan iborat bo'lgan besh yillik davrning nomi. U «boshlang'ich, boshlanish va bekitish, mustahkamlash» ma'nosini anglatadi. Ushbu davrda Xan imperatori davlat hududini kengaytirish ishlariga katta e'tibor bergan edi. Shuning uchun Yuanfeng atamasini bosib olingan joylarda Xan imperiyasining nazoratini mustahkamlash ishlarining boshlanishi, deb tarjima qilish mumkin.

[2] Ushbu ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, Xan sulolasi Kunmakni kuyov qilib olish yo'li bilan uni o'zining ittifoqdoshiga aylantirmoqchi bo'lgan. Shuning bilan birga, Xitoy imperatori uning mavqeini o'zining qo'l ostidagi bir hokim mavqeiga tenglashtirgan. Shu bois u Kunmakka o'zining qizlaridan birini emas, balki amaldorlardan birining qizini yuborgan. Asuen (Usun) hukmdori esa yuborilgan xitoy qizini ikkinchi xotin qilib olish bilan xunnlar hukmdori nasliga tegishli xotinidan past qo'ygan. Demak, Kunmak Xan sulolasining hiylasidan xabardor bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

va ziyofatlarda qatnashadigan bo'ldi. Podshoh atrofidagi hokimlar ham unga pul va qimmatbaho sovg'alar taqdim eta boshladilar. O'sha vaqtda Kunmak (Kunmuo) katta yoshda edi. Uning ustiga u [Xitoy] tilini bilmaganligi tufayli [Xitoy malikasi bilan] gaplasha olmas edi. [Xitoy] malikasi zerikkanidan vatanini qattiq qo'msab, yurtiga qaytish istagini bildirdi. Bundan xabardor bo'lgan Xitoy xoqoni malikaga achinib, bir yil o'tgandan so'ng Kunmak (Kunmuo) huzuriga elchi yuborib, unga ipakdan to'qilgan va gullar solingan matodan tikilgan chodir, matolar sovg'a qildi.

Kunmak (Kunmuo) esa qarib qolganini inobatga olib, Xitoy malikasini nabirasi Chinchyuyga xotin qilib bermoqchi bo'ldi. Lekin malika bunga rozilik bermadi. [Kunmak (Kunmuo) Xitoy xoqoniga] maktub yo'llab, o'zining bu niyatini xabar qildi. Shundan keyin Tangri-o'g'li [Xitoy xoqoni] mamlakatda mavjud urf-odatlarga ko'ra ish tutilsin, deb farmon berdi. Chunki xoqon asuen (usun)lar bilan qudachilik munosabatini o'rnatib, ular bilan birga xunnlarni yo'qotmoqchi edi. Shundan keyin Chinchyuy Xitoy malikasiga uylandi.

Kunmak (Kunmuo) olamdan o'tganidan so'ng, Chinchyuy uning o'rniga taxtga o'tirdi va shundan keyin u ham Kunmak (Kunmuo) deb ataldi. Ayni paytda [Xitoy xoqonining] elchilari Pomir tog'laridan o'tib, Parfiya davlatiga yetib borgan edi. Parfiya hukmdori [Xitoyga] elchi yuborib, Xan [hukmdori]ga benihoyat katta qush tuxumi bilan qora tanli qiziqchini sovg'a qildi. Turfon (Cheshi), Xanshin, Sushiye kabi davlatlarga tobe bo'lgan kichik xonliklar ham Xan elchilari bilan birga Tangri-o'g'li dargohini ziyorat qilish uchun keldilar. Tangri-o'g'li bundan g'oyat xursand bo'ldi.

G'arbiy davlatlardan birin-ketin elchilar kelib-ketib turdi. Tangri-o'g'li ovga chiqqanida yoki mamlakat bo'ylab safarga otlanganida, hamma joyda chet ellardan kelgan mehmonlarga duch keladigan bo'ldi. Poytaxtda ham chet elliklarni tez-tez uchratish mumkin edi. Xan davlatining buyukligini bildirish maqsadida mehmonlarga qimmatbaho sovg'alar hadya qilinar, odamni hayratda qoldiradigan narsalar va teatrlarda tomoshalar ko'rsatilar, aroqlar va go'shtli taomlar bilan to'ldirilgan dasturxonlar yozib, mehmon qilinar edi. Chet eldan kelgan mehmonlarga xazinada to'planib yotgan boyliklar ham ko'rsatilar edi. Natijada mehmonlarda Xan davlatining qudratli va buyukligi haqida ishonch paydo bo'lish bilan birga, undan qo'rqish hissi ham tug'ildi.

Farg'ona atrofida uzum ko'p o'stirilib, undan may qilinardi. Tulpor otlarning yemishi bo'lgan beda ham o'stirilardi. Bu haqdagi ma'lumotlarni [Farg'onaga] borib kelgan elchilardan eshitgan Tangri-o'g'lida bu narsa-

@tarixchi_kutubxonasiga

larga erishish ishtiyoqi tug'ildi. Ammo xunnlar yurtiga yaqin bo'lganligi sababli [Xitoyning] g'arb tomonidagi mamlakatlar hukmdorlari ehtiyotkorlik qilib, Xitoyga o'z elchilarini xunn elchilariga qo'shib yuborishardi. Shu bois g'arbiy mamlakatlar elchilari bilan bevosita suhbatlashishning iloji yo'q edi.

Taychu davrining[1] birinchi yili (104-y.) g'arbiy o'lkalarga borib kelgan Xitoy elchilari Farg'onada (Yuan 宛)[2] haqiqatdan ham tulpor otlar borligi, lekin ular Rieyshiey (Ershi) shahrida ekanligi va Xan elchilaridan yashirib qo'yilganligi haqida so'zlab berdilar. Shundan keyin Tangri-o'g'li [U-di] mingta oltin quymasi va bitta oltindan yasalgan ot haykalchasi bilan Che Ling (車令) ismli bir pahlavon boshchiligida [Farg'onaga] elchilar yuborib, ularga ushbu sovg'alar evaziga tulpor otlar olib kelishni buyurdi.

Farg'ona (Yuan 宛) hukmdori saroy amaldorlari bilan maslahatlashib olganidan so'ng, Xan davlatidan kelganlarga aytdi: «Xan bizdan nihoyatda uzoqda, xanliklar Sho'rko'l (Lobnor)dan nariga o'ta olmaydilar, shimol orqali yursalar, xunn qaroqchilariga duch keladilar, janubdan yursalar, suvsiz va oziq-ovqatsiz qoladilar, uning ustiga yo'lda shaharlar kam, (44) ovqat yetishmaydi. Xan elchilari bir necha yuz kishi bo'lib kelgudek bo'lsa, ocharchilikka duch kelib, ko'pchiligi nobud bo'ladi. Bunday vaziyatda [Xanning] ko'p sonli qo'shinlari qanday qilib bizga yetib kelishi va bizga nima alomat ko'rsata olishi mumkin? Qolaversa, Riyeyshiyey (Ershi)ning otlari bebahodir».

Shunday qilib, [Farg'ona hukmdori] Xan elchilari taklifiga rad javob berdi. Xan elchisi bundan qattiq xafa bo'lib so'kindi va oltindan yasalgan ot haykalchasini irg'itib, saroydan chiqib ketdi.

Farg'ona (Yuan 宛) zodagonlari Xan elchilari bizni mensimadilar, deb ularning qilmishidan qattiq ranjidilar, lekin Xan elchilarini o'z yurtlariga qaytarib yubordilar. Shuning bilan birga, ular o'zlarining sharqiy tomonidagi Yuychen (Uzgent) shahri hukmdoriga xan elchilariga xufiyona hujum qilib, ularni bir yoqli qilishni va mol-mulklarini tortib olishni buyurdilar[3].

---

[1] Yuqorida aytib o'tilganidek, «Taychu» – «Yuksalishning dastlabki davri» ma'nosini bildiradi.

[2] Shu yerdan boshlab, Day-yuan toponimi qisqartirilgan holda Yuan deb ishlatilgan.

[3] Ushbu ma'lumotda mantiqqa xilof bir qator fikrlar mavjud. Birinchidan, Xan elchisi oltin ot haykalchasini irg'itib, chiqib ketganidan keyin Farg'ona zodagonlarining o'z tillarida qilgan suhbatini eshitishi mumkinligi shubha tug'diradi. Ikkinchidan, manbada Xan elchisi Chilin aynan Farg'ona davlati zodagonlari buyrug'i bilan o'ldirilganligini isbot qiladigan aniq ma'lumot yo'q. Uchinchidan, Xan elchisi noma'lum qaroqchilar tomonidan o'ldirilgan va uning yonidagi boyliklar talon-toroj qilingan. To'rtinchidan, Xan elchisi Chi-

@tarixchi_kutubxonasiga

Bundan xabardor bo'lgan Tangri-o'g'li qattiq g'azablandi. Ilgari Farg'onaga elchi bo'lib borib kelgan Yao Dingxan va boshqa zodagonlar: «Farg'ona (Yuan 宛) qo'shinlari kuchli emas, agar 3000 nafar kamonchilar yuborilsa, ular [farg'onaliklar]ning hammasini asirga tushirib olish mumkin, avvaliga Tangri-o'g'li oliylari chjuoye-xou (涩野侯 – olis dala hokimi)ga 700 nafar chavandozni boshlab borib, Kruron [davlati] hukmdorini asir olib kelishni buyursalar, Xan sulolasi uchun yaxshi bo'lur edi», – dedilar. [Tangri-o'g'li] bu fikrni ma'qul topdi.

[Tangri-o'g'li] mamnun bo'lib, Li avlodidan bo'lgan kichik kanizak Shining akasi Li Guanglini[1] Rieyshiey (Ershi) qo'mondoni (sangkiven, hozirgi talaffuzda szyangszyun)[2] etib tayinlab, unga [Xan sulolasi] itoatidagi davlatlardan yig'ilgan 6000 nafar otliq va necha o'n ming nafar turli viloyatlardan yig'ilgan bezori yoshlarni topshirib, Farg'onaga yurish qilishni va tezda Rieyshiey (Ershi) shahriga borib, u yerdagi zotli otlarni olib kelishni buyurdi. Shu sababli [Li Guangli] Rieyshiey (Ershi) qo'mondoni deb ataldi. Chjov Shicheng harbiy ishlar boshlig'i, o'tmishda Xou hokimi Vang Xuey yo'lboshlovchi, Li Duo harbiy ta'minot ishlari boshlig'i etib tayinlandi.

---

lin o'zining hamrohlari tomonidan o'ldirilib, mol-dunyosi o'zlashtirib olingandir. Bu holda ular o'zlarini oqlash uchun Xitoy xoqoniga farg'onalik zodagonlar o'ldirdi va mollarni taladi, deb tuhmat qilishi tabiiy. Beshinchidan, Xan elchilarini, jumladan, Chjang Chyanni hurmat va izzat bilan kutib olgan Farg'ona hukmdori Chilinning qo'polligi tufayli Katta davlat bilan munosabatni buzishi mumkinligi mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun matnda Xan elchisi o'ldirilganligi va talanganligi haqidagi ma'lumotni aniq va asosli, deb bo'lmaydi.

[1] *Li Guangli (vaf. mil. avv. 88-y.)* – mil. avv. 166-yildan boshlab uzoq yillarga cho'zilgan xunnlarga qarshi urushda qatnashgan va shu jarayonda o'zini Xan sulolasiga sodiq mohir chavandoz va mergan jangchi sifatida ko'rsatgan. G'arbiy Xan imperiyasining Qadimiy Farg'ona davlatiga qarshi amalga oshirgan urushida Xitoy qo'shinlariga etakchilik qilgan. Shunda Xan imperatori U-di unga «Ershi jyangjyun» (Ershiga yuborilgan qo'shin qo'mondoni) unvonini bergan. Shundan keyin bu unvon uning ismiga aylanib qolgan. Urush yakunlangandan so'ng u xunnlarga qarshi harbiy yurishlarga safarbar etilgan va shu yurishlarda o'ldirilgan. Li Guanglining imperator e'tiboriga tushishi ma'lum darajada uning opasining qo'llab-quvvatlashi bilan bog'liq bo'lgan. Chunki uning opasi Li xonim mil. avv. 140–85-yillarda taxtda o'tirgan Xan imperatorining joriyasi edi.

[2] Xitoychadan uyg'ur tiliga qo'mondon so'zi «sangun» deb tarjima qilingan. Qadimda Xitoy hukmdorlari biror joyga qo'shin yuborib, urush qilmoqchi bo'lganida, qo'shinga boshchilik qiladigan kishiga harbiy qo'mondon (szyangszyun) unvonini zabt etilajak joyning nomini qo'shgan holda berganlar. Farg'ona davlatida ot boqiladigan joy Riyeyshiyey (Ershi) bo'lganligi sababli Li Guangliga in'om etilgan lavozimining oldiga shu joy nomi qo'shilgan. Keyingi davrda bu lavozim uning ikkinchi ismi sifatida ham ishlatilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

[Taychu (Yuksalish) davrining] ikkinchi yili (mil. avv. 103-yil) Rieyshiey (Ershi) qo'mondoni [Li Guangli] g'arbga yurish boshladi. Sho'rko'l (Yanshuy) dan[1] o'tganidan keyin, yo'ldagi kichik davlatlar qattiq qarshilik ko'rsatib, [uning qo'shinlariga] oziq-ovqat berishmadi. [Xan qo'shinining] hujumlari natijali bo'lavermadi, natijali bo'lgandagina [ular] oziq-ovqatga ega bo'lardi, bir necha kunlik harakatdan so'ng natija bermagan hujumlardan voz kechib, olg'a yurishdi. Nihoyat [Xan qo'shinlari] O'zgand (Yivecheng 郁成) shahriga yetib bordi. Ammo manzilga ochlik va charchoq holatida yetib kelganlar soni atigi bir necha ming kishi edi. [Shu holatda Xan lashkarlari] O'zgand (Yivecheng)ga hujum qilib shaharni vayron qildi, nihoyatda ko'p odam o'ldirildi va yarador qilindi. [Shundan so'ng] Rieyshiey (Ershi) qo'mondoni [Li Guangli], Li Duo va Chjov Shichenglar O'zgand (Yivecheng 郁成)ni olish shuncha qiyin bo'lsa, qanday qilib poytaxtni (vandu 王都) ishg'ol qila olamiz, deb o'ylab, lashkarlarini orqaga qaytardi. Dunxuangga atigi 11 – 12 kishi yetib keldi. [Rieyshiey (Ershi) qo'mondoni Li Guangli] imperator huzuriga o'z vakili orqali maktub yuborib, uzoq safar davomida oziq-ovqat yetishmaganligi tufayli ko'p odam nobud bo'lganligi, ochlikdan va odam kamligidan jang qilish qiyin kechganligi, shu bois orqaga qaytishga majbur bo'lganligi va qaytadan harbiy yurish qilish lozimligini ma'lum qildi. Bundan Tangri-o'g'li qattiq g'azablanib, Yuymen chegara chizig'idan kirishga jur'at etganlar qatl etilsin, deb chopar orqali ularga farmon yubordi. Rieyshiey (Ershi) [qo'mondoni Li Guangli] qo'rqib, Dunxuangda turib qoldi.

[Yuksalish (Taychu) davrining] 3-yilida (mil. avv. 102-yil) saroy amaldorlari maslahatlashib, Farg'ona (Yuan)ga qo'shin yuborishdan voz kechish va asosiy kuchni xunnlarga (xu) qarshi safarbar etishni aytdilar. Tangri-o'g'li Farg'ona (Yuan)ga yurish qilib, bunday kichik bir davlatni zabt etolmasak, Baqtriya (Dashya) va uning atrofidagi mamlakatlar Xanni mensimay qo'yishadi, Farg'ona tulporlariga butunlay ega bo'la olmaymiz, Usun, Bugur (Luntay)[2] kabi davlatlar elchilarimizga hurmat bildirmaydi, barcha chet elliklar ustimizdan kuladi, deb Farg'ona (Yuan)ga yurish qilish zarurligini aytdi. Bunga qarshi chiqqan Deng Guang kabilar qamaldi.

[Shundan keyin] bir yil davomida qamoqdagi bezori yoshlaridan va chegara viloyatlardagi otliqlardan 60000 kishilik qo'shin tuzildi va u Dunxungdan yo'lga otlandi. O'z ixtiyori bilan [bularga] ergashib ketayotganlar ham bo'ldi, ammo ular bu tarkibga kiritilmadi. [Qo'shin uchun] 100 ming qoramol, 30 ming ot, 10 mingdan ziyod tuya va eshak, yetarli darajada

[1] *Sho'rko'l (Yanshuy)* – Lobnor ko'li.

[2] Luntay (輪臺, qisqartirilgan shaklda 轮台) «Shiji»da Luntou (侖頭) deb atalgan, Bugurning xitoycha nomi. Bu haqda yuqorida aytib o'tilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

don va o'q-yoy ajratildi. Butun mamlakat oyoqqa turg'azildi. 50 nafardan ortiq harbiy amaldorlarga Farg'onaga yurish qilish haqida buyruq berildi. Farg'ona shahri (Yuan-cheng)da quduq yo'qligi va ichimlik suvi shahar tashqarisidan ariq orqali olib kelinishini hisobga olib, suv yo'lini to'sib, uni suvsiz qoldirish uchun mutaxassislar yuborildi. Jyuchyuan (酒泉 qadim.o'q. Tsiəu-dziwan), Chjange (张掖 qadim.o'q. Tiang-yiak), uning shimolidagi Jyuyyan (居延 qadim. o'q. Kiyayen, Kiyajiyen), Shyutu (休屠 qadim. o'q. Shiəu-da) kabi joylarda[1] orqa saf himoyachilar sifatida 180 ming kishidan iborat qo'shin joylashtirildi. Mamlakat bo'yicha harbiy xizmat o'tashga loyiq bo'lgan va aniq turarjoyi, ota-onasi, tog'a-amakilari bo'lgan[2] (45) yetti tabaqa[3] vakillari safarbar qilinib, Rieyshiey (Ershi) [qo'mondoni] ixtiyoriga topshirildi. Yuk tashish uchun aravakashlar safarbar qilindi, ot boquvchi mutaxassislardan ikki kishi tanlandi va ularga chjichyuma-shyaovey (執驅馬校尉)[4] unvoni berildi. Bu ishlarning hammasi Farg'ona (Yuan)ni zabt etish va uning zotli otlariga ega bo'lish uchun amalga oshirildi.

Rieyshiey (Ershi) [qo'mondoni]ning ikkinchi yurishiga safarbar qilingan qo'shin son jihatdan ko'p bo'lganligi tufayli yo'l ustidagi kichik davlatlar egulik bermaslikka jur'at qilolmadi. Birgina Bugur (Luntay)da [Xan qo'shini] qattiq qarshilikka duch keldi, ammo bir necha kunlik jang natijasida qarshilik ko'rsatganlar qirib tashlandi. Shundan keyin Farg'ona shahri (Yuan-cheng)ga yetib borguncha [qo'shinning] yurishi tinch kechdi. Manzilga 30 ming lashkar yetib bordi.

Farg'ona (Yuan) lashkarlari Xan qo'shiniga qarshilik ko'rsatdilar. Lekin Xan askarlari o'q-yoy otib, ularni chekintirdi. Farg'onaliklar [qal'a] ichkarisiga kirib olib himoyalanishdi. [Bundan oldin] Rieyshiey (Ershi) [qo'mondoni] O'zgand (Yivecheng-cheng) shahriga hujum qilmoqchi bo'lgan edi, lekin bu

[1] Jyuchyuan, Chjange va uning shimolidagi Jyuyan (hozirgi Uvey), Shyutu (Chjan'ye) kabi joylar Xeshi yo'lagining (hozirgi XXRning Gansu o'lkasi) g'arbiy qismidagi muhim strategik ahamiyatga ega shaharlardan hisoblangan. Xan imperiyasidan oldin bu joylar ruziyeliklarga (yuechji), so'ngra xunnlarga tegishli bo'lgan. Mil. avv. II asrning ikkinchi yarmida bu joylar G'arbiy Xan imperiyasi tomonidan bosib olingan (Shiyuy tungshi, 50–51-bb; Tarixiy xotiralar, 529-b).

[2] Bunday amaliyot shu davrdagi Xitoy an'anasiga ko'ra yaqin urug'-aymoqlari bor kishi harbiy xizmatga olinsa, qochib ketolmaydi, yaqinlari garovda turadi, degan tushunchaga asoslangan.

[3] Asliyatda keltirilgan sharhda ushbu 7 tabaqaga quyidagilar kirgan: qamoq jazosiga mahkum etilganlar va qochoqlar, xotinlarining uyiga borib yashayotganlar, savdogarlar, shahar aholisi, ota-onalari hisobiga yashaydigan shaharliklar, ota-onani boqish majburiyatidan bosh tortganlar, uy-joysizlar.

[4] *Chjichyuma-shyaovey* (執驅馬校尉) – otxona ishlariga mas'ul zobit, ya'ni «otxona begi» ma'nosini anglatadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

ish ko'p vaqt olishidan va yo'lda farg'onaliklarning tuzog'iga duch kelib qolishidan cho'chib, chalg'imasdan to'g'ri Farg'onaga borib, shaharni tashqaridan keladigan suv manbaidan mahrum qilib, uni qamalga olishni lozim topdi. 40 kundan ortiq vaqt davomida shaharga hujum uyushtirib turildi. Farg'ona (Yuan) zodagonlari o'zaro kengashib, tulporlarni yashirib, Xan elchisini o'ldirgan hukmdor Miukua (Miukoa, zam. o'q. Wugua)ni o'ldirib, tulporlarni chiqarib bersak, Xan qo'shinlari orqaga qaytishi mumkin, agar qaytmasa, bor kuchimiz bilan jang qilib o'lishga ulguramiz, degan fikrga keldilar. Amalda Farg'ona (Yuan) zodagonlari shunday ish tutib, hukmdorni o'ldirdilar. [Lekin ular o'ylagandek bo'lmadi], tashqi shahar vayron qilindi, zodagonlar asirga olindi. Zobitlar qattiqqo'llik qildi. Farg'onaliklar (Yuan) bundan qattiq ranjib, qal'aning ichkari qismiga kirib olib, dushmandan himoyalandilar. [Shundan keyin] ular Rieyshiey (Ershi) [qo'mondoni Li Guangli] huzuriga Meko'aning boshi bilan elchi yuborib, unga: «Xan biz bilan urush qilmasa, biz yaxshi otlarni chiqarib beramiz, o'zingiz tanlab olasiz, oziq-ovqat ham beramiz; agar taklifimizni rad qilsanglar, barcha tulporlarni o'ldiramiz; bir necha kundan so'ng Kangkiyadan bizga madad kuchi yetib keladi; shunda biz ichki tomondan, Kangkiya qo'shini tashqaridan Xan lashkarlariga qarshi kurashamiz, qanday yo'l tutish o'zingizga havola», – degan mazmunda maktub yubordilar.

Shu vaqtda kangkiyaliklar Xan qo'shinining nufuzi kattaligini bilib, olg'a yurishga jur'at etmadi. Rieyshiey (Ershi) [qo'mondoni Li Guangli] Farg'ona shahri (Yuan-cheng 宛城)da u yerga yaqinda kelgan quduq qazishni biladigan xanliklar (漢人) borligini va shaharda oziq-ovqat zaxirasi yetarli ekanligini eshitib, bosh jinoyatchi Meko'a (Mekoa, zam. o'q. Mugua 母寡) ni o'ldirish bu yerga kelishimizning maqsadi edi. Endilikda uning boshi keltirildi. Agar [farg'onaliklarning taklifini] qabul qilmasak, [ular o'z shahrini] qattiq himoya qilayotgan paytda Kangkiya qo'shini Farg'onaga yordamga kelib qolsa, biz mag'lubiyatga uchrashimiz muqarrardir, degan fikrga kelib, Farg'ona bilan bitim tuzdi. Farg'ona [zodagonlari] o'zlarining zotli otlarini keltirib, xanliklarga tanlash imkoniyatini berdilar va Xan qo'shinlari ko'p oziq-ovqat bilan ta'minlandi. Xan lashkarlari bir necha o'n zotli va 3 mingdan ortiq o'rtahol urg'ochi otlarni tanlab olishdi. [Shundan so'ng] ilgari xanliklarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lgan zodagon Muetsat (Muet-tsat, Muet-tsai 眛蔡, zam. o'q. Mocai)[1]ni Farg'ona (Yuan)ga hukmdor qilib belgiladi va [uning bilan] bitim tuzib, o'z qo'shinlarini qaytarib olib ketdi[2].

[1] Asliyatda keltirilgan izohda Muosayyi Farg'onaning harbiy qo'mondoni bo'lgan, deb yozilgan.

[2] Asliyat matnining shu joyida Suo Ji tomonidan yozilgan sharh berilgan. Unda «Muotsay (Mocai) Day-yuan qo'shinining boshlig'i edi. Uning ismi yozilgan birinchi iyeroglif Muo 末, ikkinchisi Shyange 先蔡 o'qilgan», deb yozilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Rieyshiey (Ershi) [qo'mondoni Li Guangli] Dunxuangdan G'arb sari yo'lga chiqqanda, qo'shinni bir necha qismga bo'lib, Janubiy va Shimoliy yo'llar[1] bilan yurish qilgan. [Shu paytda u] yordamchi qo'mondon (shyaovey 校尉)[2] Vang Shingshingga ming kishini olib, O'zgand (Yivecheng)ga borishni buyurgan. O'zgand (Yivecheng) hukmdori uni mag'lub qilgan, bir necha kishigina qochib, Rieyshiey (Ershi) [qo'mondoni Li Guangli] oldiga yetib borgan edi. [Shundan keyin] Rieyshiey (Ershi) [qo'mondoni] Sou Su [搜粟 ismli] duvey (都尉)[3]ni yuqori lavozimga ko'tarib, O'zgand (Yivecheng) ga hujum qilishga yuborgan. [Shunda] Yivecheng hukmdori Kangkiyaga qochib ketgan. Ushbu pahlavon [Sou Su uni] Kangkiyagacha quvib borgan. Kangkiya [xoni] Xanning Farg'ona (Yuan)ni zabt etganligini eshitib, O'zgan (Yivecheng) hukmdorini pahlavon [Sou Su]ga tutib bergan. Pahlavon 4 nafar otliq jangchiga [ushbu hukmdorni] Rieyshiey (Ershi) [qo'mondoni Li Guangli] huzuriga olib borishni buyurgan. Otliq jangchi Chjov Di [yo'lda] O'zgan (Yivecheng) hukmdorini yo'qotib qo'yishdan qo'rqib, yonidagi qilichni chiqarib uning boshini uzib olib, tezda Rieyshiey (Ershi) [qo'mondoni Li Guangli] oldiga olib borgan.

[Taychu davrining] 4-yili (mil. avv. 101) bahorda Rieyshiey (Ershi) qo'mondoni [Li Guangli] poytaxtga yetib keldi. Yo'ldagi mayda davlatlar Farg'onaning zabt etilganligini eshitib, o'zlarining bolalarini [Chjav] Di bilan birga, Tangri-o'g'li oldiga sovg'alar bilan tutqunlikka yubordi. [Farg'onaga yuborilgan] qo'shin qaytarildi, [Xitoyga] mingta ot olib kelindi. Orqada yurib kelgan qo'shin oziq-ovqatsiz qolmadi. Jangda kam odam o'ldi. Ammo sarkardalar askarlarga rahmdillik qilmaganligi sababli o'lganlar ko'p bo'ldi. Tangri-o'g'li bu amaldorlarning olis joyga yurish qilganligini inobatga olib, bu masalaga e'tibor bermadi, (46) aksincha Li Guangliga dengiz g'arbidagi zamin to'rasi (xayshi xou 海西侯) unvonini, Chjov Diga yangi joylar to'rasi (shinchji-xou 新畤侯) unvonini, yuqori darajali sarkardalarga shaofu (少府 xazina-bek), [saroydagi] to'qqiz vazirlikning (jyuching 九卿) 3 nafar amaldoriga xou (to'ra), shyang (vazir), jyun (hokim)

[1] Xan davridagi «Janubiy yo'l» Taklamakon cho'lining janubiy etaklaridagi Keriya, Xo'tan, Yorkend, Qashqar kabi shaharlar, «Shimoliy yo'l» esa ushbu cho'lning shimoliy etaklaridagi Turfon, Qarashar, Kusan (Kuchar) kabi shaharlar orqali o'tgan yo'llar bo'lgan. Xunnlar imperiyasi tugatilgandan so'ng, ayniqsa, Turk xoqonligi davrida, Tangritog'ning shimoliy etaklari orqali o'tgan karvon yo'llari gavjumlashib ketgan. Shundan keyin shu yo'l Shimoliy yo'l (Beylu) deb atala boshlagan.

[2] *Shyaovey (ruscha yozuvda syaovey)* – yuqori darajali harbiy unvon bo'lib, G'arbiy Xan sulolasi davrida uning mavqei bosh qo'mondon (jyangjyun)dan keyingi o'rinda turgan va ko'p hollarda qo'shini mamlakatlarga qarshi urush qatnashchilariga berilgan (Chjungguo liday, 809-b). Uyg'urcha tarjimada «Chirikchi-bek» deb nomlangan.

[3] *Duvey* – joylardagi hokimlar ixtiyoriga berilgan harbiy qismlar boshlig'i.

@tarixchi_kutubxonasiga

unvon va lavozimlarga tayinlash, yuzdan ortiq odamga 2 ming botmon (dan 石), mingdan ortiq kishiga ming botmon don miqdorida mukofotlash haqida farmon berdi. O'z xohishlari bilan harbiy yurishda qatnashganlarga berilgan mukofot ularning kutganidan ziyoda bo'ldi. Urushga safarbar qilingan jinoyatchilarning gunohi kechirildi. O'lganlar [oilasi]ga 40 ming tanga hajmida yordam berildi.

Rieyshiey (Ershi) [qo'mondoni Li Guangli] Buyuk Farg'ona (Day-yuan) ga yurish qilganligini eshitib, xunnlar bu mamlakatni himoya qilmoqchi bo'ldi, ammo uning qo'shini katta bo'lganligi tufayli bunga jur'at qilolmadi, Kruronaga (Loulan) otliq jangchilarini yuborib, Xan elchilarining yo'lini to'sishga harakat qildi. Bu yerdan o'tmoqchi bo'lganlarning yo'li to'sildi.

XV ASR XITOY MANBALARI HAQIDA

Xitoy solnomalarida Xitoydan Amir Temur va Temuriylar davlatiga kelgan elchilar **Fu An** va **Chen Chen**larning safar xotiralari ham o'rin olgan.

Samarqandga Xitoy imperatorining saroy a'yoni Fu An o'zining birinchi sayohatini 1395-yilda boshlab, Amir Temur davlatida qariyb 13 yil yurganidan so'ng 1407-yili Xitoyga qaytgan va tez orada «Fu Anning G'arb mamlakatlariga sayohati vaqtida ko'rgan go'zal joylari haqida she'rlar» («Siyuy shenlan shi») nomli asarini yozgan.

Min davrida yashagan mashhur sayyoh Chen Chen «G'arb mamlakatlariga sayohat xotiralari» («Siyuy sinchenszi») va «G'arbiy o'lkalarga tobe mamlakatlar tavsifi» («Siyuy fango chji») nomli asarlarning muallifi hisoblanadi[1]. 1413-yilda u elchi sifatida Samarqandda va Temuriylar davlatining yana bir qancha shaharlarida bo'lgan. Ikki yillik sayohatidan so'ng vataniga qaytib kelgach, mazkur ikki asarda o'z taassurotlarini bayon qilgan.

«Siyuy sinchenszi» («G'arbiy mamlakatlarga sayohat xotiralari») – Chen Chenning Markaziy Osiyo bo'ylab 1414–1415-yillardagi sayohati kundaligi, «Siyuy fangochji» («G'arbiy yerlar davlatlari tavsifi»)da esa, u o'zi borib ko'rgan davlatlarni tavsiflagan, joy xususida, mahalliy aholining urf-odatlari va udumlari haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlarni yozib qoldirgan, o'rniga qarab ushbu davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini yoritgan.

[1] *Chen Chen.* Siyuy sinchenszi, 47-b.; *Chen Chen.* Siyuy fangochji, 26-b.

Quyida Chen Chen «G'arbiy o'lkalarga tobe mamlakatlar tavsifi» («Siyuy fango chji»), «G'arb mamlakatlariga sayohat xotiralari» («Siyuy sinchenszi») va jadval shaklida «Toyo Bunko ilmiy-tekshirish instituti axborotlari»da chop etilgan parchalardan O'zbekistonning Xitoy bilan savdo-elchilik aloqalariga daxldor ma'lumotlar berildi (xitoy tilidan N. Karimova tarjimasi, xitoycha so'zlar ruscha transkripsiya asosida berilgan).

N. Karimova

@tarixchi_kutubxonasiga

CHEN CHENNING «SIYUY FANGOCHJI» ASARIDAN LAVHALAR

Xale (Hirot)

(1 *b* – 11 *b*) Xale, Xeylu deb ham yuritiladi, Samaerkandan janubi-g'arbda joylashgan, Shensi provinsiyasida, Suchjou general-gubernatorligining Szyayuyguan (singari) qorovullaridan o'tib borish (kerak), hammasi bo'lib (Szyayuyguandan) 12700 *li*.[1] Uning yerlari tekislikda joylashgan, tekislikning kengligi 100 *li*, g'arb tomon oqib boruvchi daryo bor, to'rt tomoni katta (baland) tog'lar. Shimoli-sharqda, shahardan uzoq bo'lmagan tog' etagiga (cha) 10 *li* dan ziyod.

Davlatning bosh shahrining shimoli-sharq tomonida turli qurilish ashyolari(dan) qurilgan... baland ibodatxonaga o'xshash, to'sinsiz tepalik bor, sopol cherepitsa bo'sh xonalarni o'rab turadi. Bir necha o'nlab xonalar, devor (to'siqlar), derazalarga... zarhal va feruza bilan rasm ishlangan, eshik tavaqalariga rangdor naqsh o'yilgan, sadaf qadalgan, oyoq ostiga namat to'shalgan. Xona yonida dam olish uchun odatdagidek chodir tikilgan. Uning ichidagi oltin chorpoyaga gilam solingan... kursilar yo'q, faqat gilam ustiga chordona qurib o'tirish mumkin...

Aholi taomni kam tayyorlaydi, odatda, taom va ichimlikni do'kondan sotib oladi. Avvallari shahar do'konlarining eshigi tunda qulflanmasdi. Quyosh botgach chiroq yoki sham yonib turardi.

Savdo-sotiqda kumush pul ishlatiladi. Vazni 1 *syan* 6 *fen*, yirigi *fenge* (tanga) deyiladi, har birining vazni 8 *fen* bo'lgan (keyingi) tanga *dine* (dinor) deyiladi, har birining vazni 4 *fen*li qolgan tangalar *szyatszitszyan* deyiladi. Bu uch xil pul yasama. Tayyorlangach, savdo bitimlari qaydnomasiga muhr bosish uchun hukmdor yashab turgan joyga boj jo'natilardi. Muhrsiz qaydnoma, umum qabul qilingan tartibga muvofiq haqiqiy hisoblanmaydi. *Szyatszitszyan*dan kichigi faqat mis tanga bo'lib, *puli* deyiladi. Yo 6 yoki 9 *puli* bir

[1] *Li* – Xitoy uzunlik o'lchov birligi; 1 *li* – 0,5 km.

@tarixchi_kutubxonasiga

*szyatszitszyan*ga to'g'ri kelardi. Faqat shu yerlarda foydalanilardi, (hamma) joyda amal qilmasdi.

Sochiluvchan jismlar o'lchovi «*dou*» va «*xu*» aniqlanmagan, o'lchov sifatida bezmen (tarozu)dan foydalaniladi. Ikki uchida tarozu pallalari o'rnatilgan, o'rtasidan bo'lingan, aniq bo'lsin uchun vazniga ko'ra, yengil va og'irga ajratilgan katta va kichik temir toshlar qo'yilardi...

Poytaxtda katta paxsa uy bor, Haydar (Heydeer-soy) qal'asi deyiladi, to'rt tomonida turar joy xonalari joylashgan, ichki hovlida aylanasiga bir necha sarjin (*chjan*) bo'lgan, katta qozon ko'rinishidagi bronza idish o'rnatilgan, unga bitiklar (yozuvlar) o'yib ishlangan, (idish) uchoyoqqa o'xshaydi.

Old va orqa tomonda, o'ng va so'l tomonda imoratlar joylashgan. Sayyoh talabalar, shuningdek yo'lovchilar ko'p to'planishadi...

Samaerkan (Samarqand)

(11 *ab*) Samaerkan Xale (Hirot)dan shimoli-sharqda, sharq tomon... Szyayuyguangacha 9900 *li* dan ziyod, janubi-g'arbga, Xalegacha 2800 *li* dan ziyod. Joyning tuzilishi go'zal, yeri semiz, unumdor. Tog'(dan oqib keluvchi) daryosi shimol tomon oqadi, shahardan sharq tomonda tekislik qo'shiladi, shahar shu tekislikka qurilgan, sharqdan g'arbga tomon 10 *li* dan ziyod, janubdan shimolga tomon 5–6 *li*. Olti tomondagi darvozalari ochiq. Chuqur quruq xandaq to'siq hosil qiladi. Shimol tomonda, davlatning bosh shahridan shimoli-g'arbda qo'shimcha qal'a bor. Ajoyib o'lka. Shahar doirasida turar joy ko'p. Shaharning hamma ko'chalarida boshdan oyoq savdo rastalari [joylashgan[. Bu yerda janubdan va g'arbdan ko'plab mehmonlar to'planadi, mol ko'p, odatda, barcha varvarlar [o'z] mollarini shu yerda tayyorlangan [molga] ayirboshlash uchun kelishardi, barcha davlatlar o'zlari chiqargan kumush puldan foydalanishadi.

(12 *ab*) Ichkilik ichish, mol, qo'y so'yish man etilgan. Xarid qilganlar xom go'sht, qonni iste'mol qilishmaydi, chuqur kavlab ko'mishadi[1]. Shimoli-sharq tomonda bir paxsa uy, musulmonlar Xudoga sig'inadigan joy bor. Qoidalar juda qattiq. Hamma juda sog'lom.

Lojuvard toshdan 4 tomonlama ayvonga naqsh ishlangan, markaziy zali keng, [u] yerdagi muqaddas kitoblarning barchasi qo'y terisi]dan tayyorlangan charm[ga o'ralgan, kitoblar yozuvi tilla [bilan qoplangan[. Kishilari xushmuomala, mohir usta, ko'p qobiliyat[ga ega], oltin, kumush, mis, po'lat, namat, jun gilam ishlab chiqarishadi. [Daraxtlarning] turi ko'p: oqterak,

[1] Aftidan, muallif Samarqandga diniy ro'za paytida kelgan ko'rinadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

majnuntol, shaftoli, o'rik, nok, olxo'ri, uzum [bor]. Qizil tuproq beshta asosiy oziq-ovqat ekiniga yaroqli[1].

Anduxuay (Andxoy)

(12 *a*-13 *b*) Anduxuay Xaledan shimoli-sharqda joylashgan. Xalegacha janubi-g'arb tomon taxminan 1390 *li*, Samaerkangacha shimoli-sharq tomon taxminan 1360 *li* yurish (kerak). Shahar katta qishloqlar orasida joylashgan, uzunligi 100 *li*. Yeri unumdor, odamlar ko'p. Shaharning aylanasi 10 *li*dan ziyod, [chegaralari] strategik jihatdan zabt etib bo'lmaydigan. Xalega tobe bo'lsa ham, bu joyning boshlig'i [xonadoni]dan soliq va boj olish man etilgan.

Balaxey (Balx)[2]

(13 *b*) Balaxey shahri, Bali deb ham yuritiladi, Anduxuay shahridan shimoli-sharqda joylashgan, aylanasi 10 *li* dan ziyod, tekislikda joylashgan, strategik jihatdan muhim bo'lmagan punkt. Janubiy tog'lar (Nanshan) ham yaqin. Dalalari keng, bepoyon. Oziq-ovqat mo'l. G'arb va janubdan kelgan chet ellik sayyoh tojirlar shaharda to'planishadi. Ilgarigi davrlarda chet ellik tojirlar ko'p bo'lardi. Shaxalu (Shohrux) Xale (dan) o'z o'g'lini [shaharni] qo'riqlash uchun yubordi.

Dalimishi chen (Termiz)

(13 *b*) Dalimi shahri Samaerkanddan janubi-g'arbda, Xalegacha 2 ming *li* dan ziyod. Shahar Amudaryoning sharqiy sohilida joylashgan, daryo tik qoyalar oralab oqadi, daryo nisbatan keng, qayiqlarda qiyinchilik bilan kechib o'tdik, xavfli va chiqib bo'lmaydigan joylardan o'tdik, kesib o'tilgan joy qulayliklaridan foydalandik. Shaharda va uning tashqarisida aholisi bir necha yuz oila, xonaki hayvonlar urchitiladi, daryo suvida baliq ko'p. Eski shahargacha 10 *li* dan ziyod yuriladi, daryodan sharqdagi yerlar Samaerkanga tobe, aytishlaricha, daryodan g'arbda, qamishzor to'qayda arslonlarni ko'paytirishgan ekan.

Shaluxayya (Shohruxiya)

(13–14 *b*) Shaluxayya shahri Samaerkandan sharqqa tomon deyarli 500 *li* dan ziyod [masofada] joylashgan, shahar uncha katta bo'lmagan tepalikka

[1] Bunda, odatda, sholi, tariq, arpa, bug'doy va dukkakli ekinlar nazarda tutilgan.

[2] *Balaxey* – Balx shahri Chingizxon hujumi davrida vayron qilingan, lekin Buyuk ipak yo'lidagi muhim punkt bo'lgani uchun juda tez tiklandi. Chen Chen sayohati davrida shahar to'liq tiklanib bo'lgandi.

@tarixchi_kitob_olamiga

qurilgan. Shimoli-g'arbda, uncha olis bo'lmagan joyda tog'lar va daryo [bor], daryo Shuychjan[1] deb ataladi, suvi jo'shqin, shiddatli, kechuv uchun muvaqqat ko'prik qurilgan, shuningdek, [kechuv uchun] kichik qayiqlar bor. Janubda, yaqin joyda, baland bo'lmagan tog'lar, uch tomoni tekislik. Shahar eniga bir necha *li* ga [yetma]gan, uy-joy ko'p, jar yoqasida yashashadi. Bog'lari ko'rkam. G'arbda 200 *li* dan ziyod suvsiz katta daryodan o'tdik. U yerda suvi kuchli sho'rlangan joylar bor. Sigir va otlar ichdi, nobudgarchilik ko'p [bo'ldi]. Yerdan qalin o't o'sib chiqadi, ildizi va poyasi alohida, balandligi *chi*[2]dan ortiq emas, poyasi va yaproqlari qalpoqqa o'xshaydi, bahorda unib chiqadi, kuzda quriydi, badbo'y, dumoqqa yomon uriladi. [Ularning] sharbati o'ziga xos, yog'li go'sht (dumba) pishirganda qo'shishadi, «a-vey», deb ataladi, mana shunaqa!

Shuningdek, pastak, bo'yi 1–2 *chi* bo'lgan o't ham bor, poyasi sershox, boshdan oyoq tikanli, yaproqlari orxideya[niki] singari, salqin kuzda... shudring quyuqlashadi, novda va shoxchalarni bezaydigan marvarid hosil qiladi. Shirin, [ta'mi] asalga o'xshaydi, bir zumda shakarga aylanishi mumkin, «da-lan-gu-bin», ya'ni «shirin shudring» («gan-lu») deb ataladi, ana shunaqa!

Saylan-chen (Sayram)[3]

(14–15 *b*) Saylan g'arbda, Dashigan (Toshkent)dan sharqda joylashgan, Samaerkangacha 1030 *li*. Shahar aylanasi 2–3 *li*, hamma tomoni tekislik, strategik punkt emas, uy-joy zich [joylashgan], serviqor daraxtlar ko'p, suv bilan o'ralgan, beshta asosiy oziq-ovqat ekinlari yetishtiriladi.

Kuz va yozda gullarda kichkina qora o'tloq o'rgimchagi [uchraydi], uning zahari kuchli. U chaqqan kishilarning butun badani og'riydi, [ular] ingrashadi, bezgak tutadi. Hech qanaqa dori yordam bermaydi. Varvarlarda afsungarlar bor, ular dala yalpizi shoxi bilan kishi badaniga urishadi, shuningdek, afsun aytgan holda butun badanni ishqashadi, bir kecha-kunduzdan so'ng og'riq to'xtaydi, hamma joydan teri shilinib tushadi. [O'rgimchak] boshini chaqqan [kishilar] og'riqdan yerda dumalashadi [va] o'lishadi. Qadimda hamma dam olish uchun suv yoqasida joylashishi shart edi. Odatda, [faqat] shunday joyda qutulib qolish mumkin edi.

---

[1] «Siyuy sinchenszi»da u Dachjan deyiladi.

[2] *Chi* – Xitoy uzunlik o'lchovi, metrning uchdan bir qismiga teng.

[3] *Saylan-chen* – Sayram shahri, Chimkent shahridan narida joylashgan. Chingizxon davrida Saylan-chen vayron qilingan. Min sulolasi hukmronligiga qadar tashlandiq bo'lib yotgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

[O'sha joyning o'zida] cho'l ermoniga o'xshash xushbo'y giyoh o'sadi, zararkunanda hasharotlardan omon saqlaydi, «va-shi-shi» deyishadi, ana shunaqa!

Xeshi (Shahrisabz)[1]

(15 *ab*) Xeshi shahri Samaerkandan janubi-g'arbda, taxminan 260 *li* da joylashgan, shaharni daraxtzorlar qurshab olgan, aylanasi 10 *li* dan ziyod, gir atrofi suv bosadigan dala, janubi-g'arb tomonga yaqini – tog'. Shaharda bitta bog' bor. Aytishlaricha, ilgarigi davrlarda shahar oliy hukmdor Temur tomonidan qurdirilgan ekan. Markazida bir necha o'nlab baland, ulkan, keng, ulug'vor ko'tarilgan yopiq ayvonlari bo'lgan muhtasham saroylar bo'lgan. Hashamatli zallari burchaklarida oq toshdan yashmaga o'xshash va balandligi bir necha *chi* li ustunlar. Devorlari tilla va yashma bilan bezatilgan, derazalari sirkor. Afsuski, hammasi vayron qilingan.

G'arbga qarab yuramiz, 10 *li* dan ziyod narida kichik tog'lar, yeyishga yaroqli yovvoyi mevalar, sandal [va] mevali daraxtlar ko'p[lab uchraydi].

Yana g'arbga yuramiz, 300 *li* dan ziyod narida baland tog' bor, qoya-tosh [kabi], janub bilan g'arbni ajratib turadi, markazida sharq bilan g'arbni bog'lovchi tosh dara, balandligi bir necha o'n *chjan*[2] bo'lgan tik qoyalar [bo'lib], boltalar qatoriga o'xshaydi, uzunligi 2–3 *li* bo'lgan yo'llar, chiqaverishda darvoza bor, «Temin guan» («Temir darvoza») deb ataladi.

Yan'i[3]

(15 *ab*) Yan'i-chen Saylan-chendan sharqda 360 *li* masofada joylashgan. Shahar tartibsiz tizilgan tog'lar orasida bo'lib, shimoli-sharqda katta tog' soyi bor, g'arbida uzunligi bir necha yuz *li* bo'lgan daryo oqib o'tadi, shahar xarobalari ko'p. Xarobalarni yil sayin o't bosib yotadi, ularning yeri, aftidan, Beshibala chegaralarigacha bo'lsa kerak.

Qadimgi qabilalar [davrida bu yerga] dushmanlar navbatma-navbat hujum qilib turishgan. Xalq xotirjam emasdi. Jangchi junlar, bir necha yuz nafar kishi ushbu yolg'iz [ajralib qolgan] shaharni qo'riqlash uchun qolgan. Bor gap shu!

Beshibala (Beshbaliq)

(16 *b*) Beshibala shahri cho'l ichida joylashgan. Hozir Mahamu urug'idan bo'lgan shahzoda tomonidan boshqariladi. Mahamu Gayxuyuan-

[1] *Xeshi, Yuxeshi* – hozirgi Shahrisabz shahri. Garchi Temur hukmronligi davrida ravnaq topgan bo'lsa-da, keyinchalik tartibsizliklar oqibatida vayron qilingan.

[2] *Chjan* – Xitoy uzunlik o'lchovi, 3,33 m ga teng.

[3] Yangi, hozirgi Taroz shahri *(O.B.)*

@tarixchi kutubxonasiga

ning eng yomon vakili (avlodi)ga o'tgan asrlarda [bu] yerda mansab berilgan. Bu yerda shahar qurib o'tirmadi, shahar atrofidagi saroylarda yashab yurdi.

Rejalarni belgilashmasdi, bor-yo'g'i yil mavsumlariga qarab, suv [va] o'tdan izchil foydalanishardi hamda qoramol va yilqi boqishardi...

Tuerfan (Turfon)

(16 *a* – 18 *b*) Tuerfan Xochjoudan bor-yo'g'i 100 *li* g'arbda joylashgan, Anle shahri va boshqalar Szyaoxe uyezdiga yaqin, shahar tomonlari 1 – 2 *li*, tekislikda joylashgan, gir atrofi baland [va] olis tog'lardan iborat. Iqlimi iliq, yaxshigina issiq, kamdan kam sovuq bo'ladi, yomg'ir va qor kam yog'adi. Zamini nasha, bug'doy ekishga qulay, shaftoli, o'rik, xitoy xurmosi, olxo'ri bor, uzum ko'p, sholi hosil bermaydi. Qo'y va yilqi ko'paytiriladi. Shahar yaqinida hammayoqda odamlar uy-joy qilishgan, hammayoqda turarjoy. Buddaviylikka e'tiqod qo'yishgan, budda ibodatxonalari juda ko'p.

Tan davrida – Isitin general-gubernatorligi [joyi bo'lgan]. Xan davrida Cheshi[1] davlati vanining turarjoyi bo'lgan. Shahardan g'arbda, 30 *li* narida daryoning tik sohilida joylashgan va shuning uchun Yayer-chen[2] deb nomlangan kichik shahar bor.

Eski Szyaoxe uyezdidan shahardan shimoli-g'arbga qarab 100 *li* dan ziyod yurilsa, [u yerda] Lin-shan tog'lari bor, u yer 10000 loxanlar[3] nirvanasi joyi, deyishadi. Yaqin atrofdagi tog'larda balandligi 10 *chjan* dan ziyod bo'lmagan balandlik bor. Aytishlaricha, Tan davrida balandlik chekkasida Budda ibodatxonasi qurilgan, ibodatxona ostida buloq, ko'plab *mu*[4] davom etadigan o'rmon bor. [Agar] bu yerdan toqqa chiqilsa, 20 *li* dan ziyod yurilsa, ko'p majnuntol qurshovidagi paxsa uy bor. Uyning janubida tog' yonbag'ri va ustida balandligi 5 *chi* dan ziyod bo'lmagan, kengligi 7 – 8 *chi* bo'lgan tosh uy [bor[. Xonada Buddaning 5 ta kichik tasviri bor, atrofda ko'plab taxtachalar bo'lib, hammasida chet el bitiklari qayd etilgan. Aytishlaricha, bular ushbu toqqa kelgan sayyohlarning ismlari emish. Oldinda katta bo'lmagan sayoz sardoba bor, unda suv to'planmaydi, toza, loy va chang yo'q.

---

[1] *Cheshi* – aftidan, mil.avv. II asrning ikkinchi yarmidan Turfon tovoqsoyi hududida mavjud bo'lgan davlat. Mil.avv. I asrning o'rtasida u ikki: markazi Yarxoto bo'lgan Old Cheshi va markazi Utugu bo'lgan Ort Cheshi davlatlariga bo'lingan (14, 163-bb.).

[2] *Yayer-chen* – so'zma-so'z «tik qoyada joylashgan shahar».

[3] *Loxanlar* – arxatlar, valiylar.

[4] *Mu* – xitoyliklarning yer o'lchovi birligi, 1/15 gektarga teng.

@tarixchi_kutubxonasiga

Sardobadan sharqda qora tog'lar joylashgan, [agar] olisdan qaralsa, yoyilgan sochga o'xshaydi. Aytishlaricha, bu yerda 100000 loxan bosh yuvib, soch oldirishgan va o'zlaridan ushbu ilohiy yodgorlikni qoldirishgan emish.

Daradan janubi-sharq tomonga 6–7 *li* yurilsa, boshqa baland qoya [bor], qoya ostida uncha baland bo'lmagan tog'lar juda ko'p, butun yer ol rangda, tog' cho'qqilari go'zal... Yuqorida uyum shaklida oq toshlar bor, ko'rinishidan mo'rt yashmaga o'xshaydi, uyum markazida Budda jasadi bo'lib, ko'rinishidan xuddi tirikday, toshday qattiq, yaltiroq. Aytishlaricha, bu yerda 100000 loxan nirvanada (rohat-farog'atda) [bo'lishgan]. Oq toshlar uyumi (shakli) o'zgarmaydi, Budda jasadi chirimaydi. Bu – loxanlar qoldirgan obida.

Daradan sharqda tosh qoya bor, qoyada toshlar orasida bambuk niholi shaklidagi, [inson] qo'li va oyog'iga o'xshash tosh bor. Yana janubga bir necha *li* yurilsa, past qoyada, qizil tuproqda yerdan 3–4 *chi* baland, yashmaga o'xshash oq tosh uyumi bor. Aytishlaricha, bu prateka – Buddaning rohat-farog'at joyi.

Yayer (Yarxoto)[1]

(18 *ab*) Yayer shahri Tuerfandan g'arbda 20 *li* masofada, ikki daryo qo'shiladigan [joy[da joylashgan, shahar tik jarliklar orasida, jarliklar [qoyalar] tufayli, qadimda shaharni Yayer deb atashgan, eni 2 *li*dan ortiq emas, 100 oila aholi yashaydi. Qadimda tosh naqshli, Cheshi davlati vani qurdirgan ibodatxona ko'p bo'lgan, keyinchalik Szyaoxe-syan nazorat o'rnatgan, hozir Tuerfan boshqaruvidadir.

Yanchen[2]

(18 *b*) Yansze shahri Yayer shahridan janubi-g'arbda, Turfon shahrigacha 30 *li* dan ziyod yurish kerak. Shahar tekislikda joylashgan, eni 2 *li* dan ziyod emas, aholisi 100 oila. Shaharda ikkita baland qo'rg'on bor, ular o'rmon va shahar devori xarobalari bilan qurshab olingan. [Ular] qadimgi davlat vani Heydier-xochje[3] (Haydar xoja) va [uning] xotinining maqbarasini yashirib tu-

[1] *Yayer-chen* – Szyaoxe shahri, Old Cheshi davlati poytaxti, uning vayronalari Yarxoto nomi bilan ma'lum bo'lib, Turfon shahridan 15 km g'arbda, Szyaoxe – Yarxoto daryosining o'ng sohilida joylashgan.

[2] *Yanchen, Yanszichen, Doutsz-chen* – Yan shahri, Doutsze shahri, unga Xan davrida asos solingan.

[3] *Haydar xoja* [Chig'atoy xoni Tuxelo (Tuxeyli)] – Temurning kichik o'g'li, taxtga 1383-yilda o'tirgan, 1399-yilda vafot etgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

radi. Qabrlar bilan yonma-yon kichkina qo'rg'on bor. Aytishlaricha, bu yerga ularning yaqinlari, suyukli sodiq xizmatkorlari dafn etilgan emish.

Shahardan shimolda baland bo'lmagan tog' bor, [bu yerda] toshga o'xshash, qattiq, oq tuz qazib olinadi. [Undan] idish taroshlab, go'sht, sabzavot bilan to'ldirish mumkin va ularni tuzlamasa ham bo'ladi. Shu sababli shaharga Yansze-chen (Sho'r shahar) nomi berilgan.

Xochjou (Qoraxoja)[1]

(19 *b*) Xochjou Luchen (Lukchun)dan g'arbda 70 *li* masofada, Beyshanga yaqin joylashgan, joy pastlik, tog'lar och qizil rangda, [alanga tiliga o'xshaydi], iqlimi juda issiq, ko'hna nomi Xochjou-chen (Olovli shahar).

Shahar tomonlari 10 *li* dan ziyod [ni tashkil qiladi], yer yuzasi dasht. Ilgarilari aholi zich yashagan, yarmidan ko'pi ibodatxona bo'lgan, hozir hammasi tanazzulga uchragan, Sharq tomonda shahar [devorining] o't bosgan poydevori bor, aytishlaricha, qadimda Gaochan Xan bilan kurashgan, buning ustiga *utszisyaovey*[2] farmondori (*chjanshi*) boshlig'ining yordamchisi shu yerda yashagan. Tan [davrida] Isitin general-gubernatorligi (*szedushi*[3] o'rnatgan). Hozir Maxem (Mahmud)ga qarashli.

Syasidan Suchjou general-gubernatorligi (*dusi*[4]) va Szyayuyguan orqali bu [joygacha] bir oy yuriladi.

Luchen (Lukchun)[5]

(19 *ab*) Luchen shahri, qadimgi Lyuchjunsyan uyezdi, bu yer Xochjoudan sharqda joylashgan, Xami (Qumul)gacha taxminan ming *li* dan ziyod yuriladi. Ularning orasidan katta daryo oqib o'tadi, bepoyon dasht bo'lib, yaylov yo'q, suv bosadigan o'tloq yo'q, bu yergacha yetib kelgan qoramolning ko'p qismi nobud bo'ladi. Kuchli shamoldan kishilar va otlar o'ladi. Yo'l atro-

[1] *Xochjou, Qoraxoja* – Turfondan janubi-sharqqa 35 km masofadagi Gaochan shahri vayronalari shunday atalgan (11, 171-b.)

[2] *Utszisyaovey* – bu lavozim Xan imperatori Yuan-di tomonidan 48-yilda Old Cheshini boshqarish uchun ta'sis etilgan. *Syaovey* – harbiy lavozim (polkovnik) bo'lib, unga okrug harbiy kuchlari hamda harbiy qarorgohlar bo'ysungan (V11, 163-b.)

[3] *Szedushi* – general-gubernator. Xitoyda imperator Tan Syuan-szun (712756) hukmronligi davrida chegara rayonlarda ilk bor o'n dudu (viloyatlar sarkardalari) szedushi deb qayta nomlangan.

[4] *Dusi* – Mın davrida general-gubernator, duchji-xueyshi o'rniga.

[5] *Luchen* – Ko'hna Lukchun shahri xarobalari hozirgi Shanshan (ShUAR, XXR) uyezd shahri janubi-g'arbida saqlanib qolgan. Bu shaharning nomi ko'p bo'lgan: Tyandi, Lyuchjun, Luguchen, Mın sulolasi davrida Lyuchen va Luchen, Sin sulolasi davrida Lukesin nomining qalbakilashtirilgan shakli yoyilgan (10, 173–174-b.). Chen Chen sayohati davrida Lukchun Beshbaliq vani Mahmud (Mahemu) tomonidan boshqarilgan va ravnaq topgan. Aholi orasida ko'pchilik uyg'ur (veyuer) bo'lgan, biroq islom va buddaviylikka e'tiqod qiladigan kishilar soni teng bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

fida ko'plab suyaklar yotadi, jinlar bor, sayyohlar kun-u tun [o'z] hamrohlarini yo'qotib qo'yishadi, [ular] muqarrar adashib, halok bo'ladi.

Varvarlar [bu joylarni] «Xanxay» («Cheksiz dengiz») deyishadi[1]. Lyusha («Yuguruvchan qum») anhorigacha bordik, anhorda shamol ko'targan kichik-kichik qum tepalar bor. Shimol yo'lida och qizil tog'lar bor, alanga tiliga o'xshaydigan [tog'lar] Xoyan-shan (Olovli tog') deb ataladi. Shahargacha 2–3 *li*, to'rt tomonda oqar suvlar, bog'lar, soya-salqin bog'-rog'lar bor.

Asosiy qishloq xo'jalik ekinlari: tariq, bug'doy, nasha, soya bo'lib, *putao* (qalampirmunchoq daraxti), o'rik, shaftoli, olxo'ribarg [xitoyi] olma, yong'oq, mayda [xitoyi] xurmo, qovun, oddiy shakarqamish ko'p ekiladi, juda shirin, urug'siz mayda uzum (kishmish) bor, «*sosziputao*» deyiladi. Dag'al va nafis mato uchun paxta ekiladi. Uzumdan ajoyib musallas tayyorlashadi. Qoramol, qo'y, yilqi, tuya boqiladi.

Iqlimi iliq, xalqi samimiy va oddiy. Amaldagi musulmon (*xueyxuey*) qoidalariga [ko'ra], erkaklar soch qirdirishadi, kichkina qalpoq, kesilgan telpak kiyishadi. Ayollar boshlariga oq mato o'rashadi. Odatga ko'ra uyg'urlar orasida erkaklar sochlarini tutamlab bog'lab yuradilar, ayollar sochlarini peshonaga tushirib, [boshiga] ro'mol o'raydilar. Hamma varvarcha (turkiycha) kiyinadi, uyg'ur tilida gaplashadi. Uch joy – Xochjou, Tuerfan, Luchenning urf-odatlari bir xil.

Xami (Qumul)[2]

(20 *ab*) Xami tekislikda joylashgan, aylanasi 3–4 *li*, shimolda va sharqda ikkitagina darvozasi bor, aholisi bir necha yuz xonadon, pastak paxsa uylarda istiqomat qiladi. Shahardan sharq tomonda janubi-sharqqa qarab tog' jilg'asi oqadi, ikki-uch joyda mevazor bog'lar bor. *Syushu* (Bunge katalpasi), o'rik o'stirishadi.

Ekinzor yerlari haqida: haydalma yerni o'g'itlash kerak, faqat tariq, no'xat, arpa va bug'doy ekiladi. Sho'rxok yer ko'p. Shimol tomonda baland tog'lar, uch tomoni sahro. Suchjougacha janubi-sharqqa 1600 *li* dan ziyod, shimolda Valagacha tez yursa bir oylik yo'l, g'arbga Xochjouning uch shahrigacha taxminan ming *li*.

Tan davrida bu Ichjou yeri bo'lgan, hozir esa shimoli-sharqdagi barcha varvarlarga olib boradigan strategik jihatdan muhim yo'l[3]. Uning (Qumul-

[1] *Xanxay* – Gobi cho'lini ko'pincha shunday atashadi.

[2] *Xami, Kumul* Xitoy manbalarida turli davrlarda turlicha: *Ivu, Ivulu, Ichjou, Xamili, Xueyli* deb nomlangan.

[3] Chen Chenning asarlarida Xitoyni G'arb mamlakatlari bilan bog'lagan Buyuk ipak yo'lining bir tarmog'i Qumul orqali o'tganligi ta'kidlangan.

@tarixchi_kutubxonasiga

ning) aholisi juda qo'pol, itoatsiz. Hamma shu yerdan muqarrar o'tadi. Mo'g'ullar, musulmonlar (*xueyxuey*) bu yerda aralash istiqomat qilishadi va bir-biridan kiyimi bilan farq qiladi.

Dashigan (Toshkent)

(20 *ab*) Dashigan shahri Saylandan g'arbda joylashgan, Samaerkangacha 700 *li* dan ziyod, shahar aylanasi 2 *li*, tekislikda joylashgan, gir atrofi tepalik, bog'-rog' ko'p, daraxtlar zich, uzun anhorlar oqadi. Yer ekin uchun qulay, aholi zich joylashgan, [asosiy] yuk tashish ho'kiz-aravalar ijarasiga tushadi.

Buxuaer (Buxoro)

(20 *ab*) Buxuaer shahri Samaerkandan g'arbda 700 *li* dan ziyod masofada joylashgan. Shahar aylanasi 10 *li* dan ziyod, tekislikda joylashgan. Kishilar boy, [uy-joy] zich, shahar ko'chalari gavjum, xonadon son-sanoqsiz (10 ming). Tuprog'i semam, iqlimi yumshoq. Qish namga va quruqlikka ta'sir qilmaydi, besh asosiy oziq-ovqat ekini, tut, nasha (zig'ir) ekishga yaroqli. Qishda xom sabzavot, mol go'shti, qo'y go'shti, baliq, oqqush (g'oz), tovuq, tovushqon (quyon) yeyishadi, hammasi bor.

CHEN CHENNING «SIYUY SINCHENSZI» ASARIDAN LAVHALAR

(1 *b*) 1-oy, 17-kun, (1414-y.) havo ochiq. Szyayuyguan[1] qorovulxonasidan o'tdik. Tog' dovoni yassi tepalik [lardan iborat]. Aytishlaricha, bu ko'hna Yuyminguanning aynan o'zi. Yuyguan ham deyishadi. Qorovulxona chegarasidan tashqaridagi cho'l qanday cho'lligi butkul noaniq. Taxminan 10 *li* dan ortiq yurdik, o't quyuq o'sgan joyga [va] qumloq sayozlikka yetib keldik, daryo sohili[da] qarorgoh tuzib joylashdik.

18-kun. Havo ochiq, ertalabdanoq g'arb tomonga yo'l oldik, janub va shimoldan tog'lar qurshagan, taxminan 70 *li* yurdik. Joy Xueyxuey-mu (Musulmon mozori) deyiladi, suv bosadigan o'tloqlar bor. Qarorgoh tuzdik.

19-kun. Havo ochiq, kuchli shamol esadi. Ertalab g'arbga yo'naldik, taxminan 50 *li* yo'l bosib o'tdik. Joy nomi Shanma-chen deyiladi, qarorgoh tuzdik.

20-kun. Havo ochiq. Uchinchi tungi soqchilikda[2] g'arbga yura boshladik. Taxminan 90 *li* masofada ko'hna shahar bor. Shahardan janubdagi tog' eta-

[1] *Szyayuyguan* – chegara, zastava, Buyuk Xitoy devorining g'arbiy adog'i.
[2] *Uchinchi tungi soqchilik* – soat 23:00 dan tun soat 1 gacha bo'lgan vaqt.

@tarixchi_kutubxonasiga

gida varvarlar yerga ishlov berishardi. Shahardan g'arbda shimol tomonga oquvchi tog' jilg'asi bor. (2 *b*) Chitszin, qarorgoh tuzdik.

21-kun. Havo ochiq. To'rtinchi tungi soqchilikda[1] shimoli-g'arbga qarab yura boshladik. Tog' jilg'asini kechib o'tdik, tekislikka chiqdik, yo'lda hammayoq atrof shag'al. Taxminan 100 *li* dan ziyod yurdik. Qadimgi shahar devorlari bor, joyning nomi Kuyli, qarorgoh tuzib joylashdik.

22-kun. Havo ochiq, kuchli shamol esmoqda. Tongda shimoli-g'arbga qarab ketdik. Yo'l yonida tatarlarning chodirlari (*dada*). Taxminan 50 *li* o'tganimizdan so'ng, qadimgi shahar devorlarini uchratdik, joy Vansziya deb nomlanadi, qarorgoh tuzdik, bir kun turdik.

24-kun. Havo musaffo, ertalabdan shimol tomon jo'nadik. Yo'l bo'ylab shoxlari va tanasi tutga [yoki] qayrag'ochga o'xshash daraxtlar bo'lib, yaprog'i gingko (*insin*)ga o'xshaydi, chinor bargli firmiana (*utun*) deyiladi. Taxminan 70 *li* yo'l bosib o'tdik, bu yer Lugouer deyiladi, (2 *a*, *b*) qarorgoh tuzdik.

25-kun. Havo ochiq, ertalabdan shimol tomon ketmoqdamiz. Yo'l bo'yi qum, gir-atrof cho'l-u biyobon, janubda tog'lar bor. Taxminan 100 *li* dan ziyod yo'l bosdik. Dalaga ishlov beradigan varvarlar bor. Bu yerlarda suv bosadigan o'tloqlar ko'p, joy Bulutszi deyiladi, qarorgoh tuzdik, ikki kun turdik. Shamoli kuchli.

28-kun. Havo musaffo, tongda Bulutszi daryosini kechib o'tdik [va] shimoli-g'arb tomon yurib tekislikka chiqdik, chor atrof suv bosadigan bo'm-bo'sh o'tloq [va] faqat qora (mineral) fosfor. Yo'l chetida o'lgan otlarning ko'plab suyaklari yotibdi. Shimolda olisdan tog'lar ko'rinadi. Kunduzi juda sovuq. Taxminan 100 *li* dan ziyod yo'l bosdik. Suvgacha yetib bormadik, yo'l chekkasida qisqa tunab o'tish uchun to'xtadik.

29-kun. Havo musaffo, ertalabdanoq shimol tomon yurib ketmoqdamiz. Taxminan 50 *li* dan ziyod yo'l bosdik. Tekislik chekkasi[da] (3 *b*) kichkina muzlagan tog' jilg'asi bor, qarorgoh tuzdik. Muzni parmalab, suv qaynatdik, odamlarning chanqog'i qondirildi, otlar sug'orildi.

2-oy, 1-kun. Havo musaffo, ertalabdanoq shimoli-g'arb tomon yurib ketmoqdamiz. Yo'l bo'yi qumliklar. Nihoyat qumliklar tugadi. Suv bosadigan o'tloqlar [boshlandi]. Taxminan 70 *li* dan ziyod yo'l bosib, muzlagan kichkina ariqqa yetib keldik, suv olib otlarni sug'ordik.

2-kun. Havo ochiq, ertalabdan shimol tomon ketmoqdamiz. Yo'l bo'yi do'nglik, ustiga-ustak suv bosadigan o'tloqlar yo'q. Odamlar va otlarga suv va ovqat berolmadik. Taxminan 50 *li* yo'lni kechgacha bosib o'tdik. Qumloq sayoz joyda, ochiqda tunadik.

[1] *To'rtinchi tungi soqchilik* – tun soat 1 dan soat 3 gacha bo'lgan vaqt.

@tarixchi_kitobxonaga

3-kun. Havo tiniq, ertalabdan shimol tomon ketmoqdamiz. Chjunshan tog' darasiga kirib bordik. Yomon yo'l ustida kichkina muz chuqurlik bo'lib, [uni] aylanib o'tolmadik. 150 *li* bosdik, [bu yerda] muzlagan hovuz, shuningdek buloq bor. (3 *ab*) Bu joy Voluxaya deb nomlanadi.

4-kun. Havo ochiq, ertalabdan g'arb tomon ketmoqdamiz. Atrof hammasi poyonsiz [yalanglik]. Taxminan 50 *li* dan ziyod masofada buloq bor, bu joy Kedunbuke deb ataladi, qarorgoh tuzdik.

5-kun. Musaffo havo, ertalab shimol tomon ketdik. Ilonizi tog' yo'li tugadi, suv bosadigan o'tloqlar yo'q. Kechgacha taxminan 100 *li* dan ziyod yo'l bosib o'tdik. Tog' darasida dam olish uchun joylashdik.

6-kun. Havo musaffo, ertalabdan shimol tomon yurdik, tekislikdan o'tdik, Veyuer-xe nomli katta tog' daryosini (Uyg'urlar daryosini) kechib o'tdik. Daryodan janubda ko'hna ibodatxona bor, [u] Alixusi-toin deb ataladi. Dalaga ishlov beradigan varvarlar bor. Suv bosadigan o'tloqlar yaxshi o'sgan. [Bu ayni] Xamidir. Ko'knori yetishtiradigan yerlar bor. Taxminan 70 *li* dan ziyod yo'l bosib o'tib, qarorgoh tuzdik, [bu yerda] bir kun yashadik.

(4 *b*) 8-kun. Havo ochiq, ertalabdan g'arb tomon ketib bormoqdamiz. Tekislikni, taxminan 130 *li* bosib o'tdik. [Chor] atrofda suv bosadigan o'tloqlar bor, qarorgoh tuzdik. Xami]dan] kutib olish uchun kishi yuborishdi.

9-kun. Havo musaffo, ertalab shimoli-g'arb tomon yo'lga tushdik, tekislikdan o'tdik. Xami shahrigacha taxminan 90 *li* masofani bosib o'tdik. [Shaharning] janubi-sharqida mevali bog'lar. Chegarada qarorgoh tuzdik, [bu yerda] besh kun turdik.

15-kun. Havo toza, ertalab Xamining sharqiy darvozasidan chiqib, tog' jilg'asini kechib o'tdik. G'arb tomon yo'naldik. Tekisliklardan o'tdik. Xami shahridan taxminan 70 *li* dan ziyod yo'l bosdik. Kishilarning turarjoylari, suv bosadigan yaxshi o'tloqlar bor, shu yerni qarorgoh qilib joylashdik. (4 *a*, 5-varaqlar yo'q; 5 *ab*.)

25-kun. Havo toza, ertalabdan shimoli-g'arbga qarab yurdik. Shimol tomon yo'lda alanga tiliga o'xshash och qizil tog'lar bo'lib, shuning uchun ular Xoyan-shan (Olovli tog'lar) deb ataladi. Janub yo'lida qum tepalar bor. Aytishlaricha, shamol uyurmasi yengil qumni uchirib, tepaliklarga yotqizarkan. Tog' jilg'asi bor, uni Lyushaxe (To'kiluvchan qum arig'i) deb nomlashgan. Taxminan 90 *li* dan keyin Luchen shahriga yetdik, shahardan g'arb tomonda qarorgoh qilib joylashdik, [bu yerda] to'rt kun yashadik.

3-oy, 1-kun. Havo musaffo, ertalab g'arb tomon yo'lga tushdik. Yo'lda kichkina shahar bor, uy-joylar hashamatli, dala va bog'lar ko'rkam. Xochjou shahrigacha taxminan 50 *li* bosib o'tdik. Shahardan janubi-g'arbda qarorgoh qilib joylashdik, uch kun turdik.

@tarixiy_kutubxonasiga

5-kun. Havo ochiq, ertalab shimoli-g'arbga qarab yo'lga tushdik. Yer tekislikdan iborat. Tuerfan shahrigacha taxminan 70 *li* masofani bosib o'tdik, shahardan janubi-sharqda qarorgoh tuzib joylashdik, bir kun turdik.

7-kun. Havo ochiq, qarorgohni boshqa joyga ko'chirdik. Shahardan g'arbda 30 *li* masofada, qulay joyda, Yayer shahri yaqinidagi suv bosadigan o'tloqda (6 *b*) qarorgoh qilib joylashdik, 17 kun yashadik.

24-kun. Havo musaffo, tongda Yayer shahridan janubdagi daryo oqimi bo'ylab tog' darasiga chiqdik. Janubi-g'arb tomon ketmoqdamiz. Tog'lardan janubda, Mahamu van istiqomat qiladigan [joyda], nihoyat, [yo'l] janubiy va shimoliy [yo'l]ga ajraldi. Taxminan 50 *li* masofa bosib o'tdik, o't ustida qarorgoh qilib joylashdik.

25-kun. Havo ochiq, ertalab g'arb tomon yo'lga tushdik, tekislik joylardan o'tib, taxminan 50 *li* dan ziyod yo'l bosdik. Kichkina shahar bor, Tosyun deyiladi. Shahardan janubi-sharqda, qulay joyda, suv bosadigan o'tloqda qarorgoh qilib joylashdik.

26-kun. Havo musaffo, ertalab g'arb tomon yo'lga tushdik, taxminan 50 *li* dan ziyod yo'l bosdik. Odamlarga yaqin joyda, qarorgoh qilib joylashdik.

27-kun. Havo ochiq, ertalab g'arb tomon yo'l oldik, taxminan 30 *li* dan ziyod masofada suv bosadigan o'tloqlar bor.

(6 *ab*) Sichjeerbula [degan joyda] birgalikda qarorgoh qurib joylashdik.

28-kun. Havo tiniq, tun yarmida g'arb tomon yo'l oldik. Tekislikdan o'tdik, katta ko'knorizor qo'rg'ongacha taxminan 150 *li* dan ziyod yo'l bosdik. Bu joylar Alubu deb nomlanadi, atiqalar bor. Undan o'tib, tog' darasiga kirdik, tog' daryosi bo'ylab kechgacha g'arbga qarab yurdik. Tog' daryosi bo'yida, yo'l yoqasida otlarni sug'orish uchun [qarorgoh qilib] joylashdik, [ularga] xazon berdik, xolos.

29-kun. Havo musaffo, ertalab tog' daryosi bo'ylab g'arbga qarab ketdik. Chor atrof tog'-u tosh, yo'l – ilonizi, taxminan 60 *li* dan ziyod masofani bosib o'tdik. Toshloq soyliqda [otlarni] sug'orish uchun joylashdik.

(7 *b*) 4-oy, 1-kun. Havo ochiq, beshinchi tungi soqchilik[1] paytida tog' daryosi bo'ylab g'arbga qarab yurdik, qoyalardan o'tdik, to'rt-besh joyda yo'l bir oz kengaydi. Taxminan 100 *li* dan ziyod yo'l bosdik, o'tloq soyliqda qarorgoh qilib joylashdik.

2-kun. Havo tiniq, ertalab shimoli-g'arb tomon yurdik, baland tog'lardan oshib o'tdik. Ikkinchi tog'da ikki joyda suv bor. Joyning nomi Kudannauer. Tog'dan tushib, tekislikdan o'tdik, tog'ning janub tarafida taxminan 90 *li*

[1] *Beshinchi tungi soqchilik* – tun soat 3 dan tong soat 5 gacha bo'lgan vaqt.

@tarixchi_kutubxonasiga

dan ziyod masofada Xalabula degan joyda qarorgoh qurib joylashdik. Tunda qor qattiq yog'di, uch kun turdik.

6-kun. Havo tiniq, ertalab shimoli-g'arb tomon yo'l oldik, baland tog'lardan oshib o'tdik, uch joyda yo'l ilonizi edi. Taxminan 90 *li* yo'l bosdik. Baland yassi, o't-o'lansiz tog' bor. Tog'dan tushib, [ot-ulovga] suv berish uchun darada joylashdik.

7-kun. Havo ochiq, ertalab tog' darasi bo'ylab janubi-g'arbga yurdik, shimoli-g'arb tomonga burildik, (7 *ab*) tekislikdan ketdik. Taxminan 70 *li* yo'l bosdik. Dyansitu degan joyda qarorgoh [tikdik]. Qattiq qor yog'di.

8-kun. Qor, havo tiniq, ertalabdan shimoli-g'arb tarafga yurdik. Yo'lda [balandligi] bir necha *li* bo'lgan qalin qor. Kun yarmida Taerbadali deb nomlanadigan qoyatosh etagiga yetib keldik. Yana qalin qor yog'di, taxminan 90 *li* dan ziyod yo'l bosdik, qor ustiga qarorgoh tikib joylashdik.

9-kun. [Yerlar] qor, havo ochiq, ertalab g'arb tomon yo'l oldik. Tekislikdan o'tgan yo'lda ariqlar ko'p, Itusi [degan] joygacha taxminan 70 *li* dan ziyod yo'l yurdik, shu yerda qarorgoh tikdik.

10-kun. Havo ochiq, ertalabdan janubi-sharqqa qarab ketmoqdamiz, tekislikdan o'tdik, ariqlar ko'p. Taxminan 100 *li* dan ziyod yo'l bosdik. Daryoning boshida, Beyshan etagida qarorgoh tikdik, bu joy Ganluxayya deyiladi.

11-sana. Havo ochiq, tongda janubi-g'arbga qarab yo'lga tushdik, tog' darasiga chiqib bordik, etagida buloqlar har joyda qaynab chiqib yotibdi.

(8 *b*) [U yerda] ko'p marta [qorga] botib qoldik, [yana] tog' darasiga chiqib keldik, yana shimol tomon burildik, yana bir tekislikdan o'tdik, taxminan 100 *li* bosib o'tdik. Tog' yon bag'rida qarorgoh tikdik, tunda qattiq qor yog'di.

12-kun. Qor yoqqan, ertalab yana o'sha yo'nalishda, shimoli-g'arb tomonga ketdik, 70 *li* dan ziyod yo'l bosdik, tog' yonbag'rida qor ustida qarorgoh qurdik.

13-kun. Havo musaffo, ertalab shimol tomonga qarab yurdik. Adada-ban (Adada platosi) tog'idan oshib o'tdik. Tog'lar baland, qor qalin, odamlar va otlar yo'ldan adashib qoldi. Dastavval odamlarni qorni tepkilashga majbur qilishdi, yo'lni topib, kun botguncha tog' etagiga yetib bordik. Taxminan 50 *li* masofani bosib o'tdik, qumloq tekislikda bir amallab dam oldik.

14-kun. Havo musaffo, ertalab shimolga qarab yurdik, tekislikdan o'tdik, taxminan 50 *li* dan ziyod yo'l yurdik, yam-yashil o'tzor bor, Nalatu degan joyda qarorgoh qurdik.

(8 *ab*) 15-kun. Qor yog'di, kunning ikkinchi yarmida havo ochildi, shimolga qarab yura boshladik. Bitta tog'dan oshib o'tdik, taxminan 50 *li* dan ziyod yo'l bosdik, tog'dan tushdik, sharq [va] g'arbda katta daryo-

@tarixchi_kutubxonasiga

lar, g'arbga oquvchi daryo bor. Kunxe-si degan joyda qarorgoh qurdik, bir kun turdik.

17-kun. Havo ochiq, ertalab g'arb tomonga yurdik, taxminan 50 *li* dan ziyod yo'l bosdik. Varvarlar chodirlari yaqinida, Telexala degan joyga yaqin qarorgoh qurdik. Mahamu-vanni qarshilash uchun kishilarni yubordi, bir kun turdik.

19-kun. Havo ochiq, ertalab daryo oqimi bo'ylab g'arbga yurdik, 50 *li* masofa o'tdik, Mahamu-van chodirlariga yaqin joyda, besh-yetti *li* berida qarorgoh qurdik, 13 kun yashadik.

5-oy, 3-kun. Havo musaffo, qarorgohni yig'ishtirib, daryo oqimi bo'ylab g'arbga yurdik, 30 *li* dan ziyod yo'l bosdik, qarorgoh tikib bir kun turdik.

(9 *b*) 5-kun. Havo ochiq, ertalab g'arbga yo'l oldik. Katta tog' daryosidan kechib o'tdik, qirg'oq bo'yida bug'doyga o'xshash (syaomay) [o'sadigan] joylar bor. Taxminan 50 *li* dan ziyod masofani bosib o'tdik, tog' daryosi bo'yida qarorgoh tikdik.

7-kun. Havo ochiq, ertalab [daryo] oqimi bo'ylab g'arb tomon ketdik, taxminan 50 *li* dan ziyod yo'l bosdik, qumloq sayoz joyda qarorgoh tikib joylashdik.

8-kun. Havo musaffo, ertalabdan janubi-g'arb tomon yo'l oldik, uzun tog'dan oshib o'tdik, taxminan 70 *li*. Aholi turar joyida [orasida], Alashi-xe daryosi sohilida qarorgoh tikib joylashdik. Tunda yomg'ir yog'di, ikki kun turdik.

(9 *ab*) 11-kun. Havo bulut, so'ngra ochilib ketdi, g'arbga qarab yurdik, tog' daryosini ikki joydan kechib o'tdik, suv oqimi kuchli edi, qirg'oqdan toshib oqardi. Tor joyda toshli sohilga yog'ochdan ko'prik qurdik. Tegesyao (Tege ko'prigi) degan joyga[cha] taxminan 70 *li* yo'l bosdik, qarorgoh tikdik.

12-kun. Havo ochiq, ertalabdan g'arb tomonga yo'naldik, uzun tog' darasidan o'tdib, tekislikka chiqdik. Taxminan 50 *li* yurib, aholi turarjoyi yaqinida, Ili (Ile-xe) daryosi bo'yida qarorgoh tikdik.

13-kun. Havo ochiq, ertalab g'arb tomonga yo'l oldik, taxminan 70 *li* dan so'ng, daryo sohiliga yaqin joyda qarorgoh tikdik.

14-kun. Havo ochiq, ertalab g'arb tomonga yo'naldik, pastroq tog'lar orqali yurib, uch-to'rt qoya tog'lardan o'tdik, 70 *li* yo'l bosdik, kechuv yaqinida qarorgoh tikdik.

15-kun. Havo ochiq, ertalab g'arbga yo'l oldik, daryo oqimi bo'ylab yurib, taxminan 70 *li* dan ziyod yo'l bosdik, daryo bo'yida (10 *b*) qarorgoh tikdik, bir kun o'sha yerda turdik. Janubiy va Shimoliy yo'llar[1] – hammasi

[1] Gap Buyuk ipak yo'li haqida bormoqda.

@tarixchi_kutubxonasiga

shu daryo sohiligacha keladi, [shu yerda] qarorgoh tikdik, [bu yerda] deyarli 100 xonadon yashabdi. Hasan otda ketdi, poytaxtga qaytdi.

17-kun. Havo ochiq, ertalab daryo bo'ylab quyiga qarab ketdik, taxminan 50 *li* dan ziyod yo'l bosdik. Daryo sohilida qarorgoh tikdik.

18-kun. Havo bulutli, yomg'ir, ertalabdan daryo bo'ylab g'arbga [ketmoqdamiz], taxminan 90 *li* yo'l bosdik, suv yaqinida qarorgoh tikdik.

19-kun. Havo ochiq, ertalab daryo bo'ylab g'arbga qarab [yurdik], taxminan 50 *li* dan ziyod yo'l bosdik, Alimali-koudzi tog' darasidan chiqdik, daryo sohiliga yetib bordik, kechib o'tib, qarorgoh tikdik, o'sha yerda bir kun turdik.

(10 *ab*) 21-kun. Havo ochiq, ertalabdan janub tomonga tog' etagi bo'ylab yo'l oldik, toqqacha taxminan 130 *li*, yaqin atrofda odamlarning uy-joyi, dalalar bor, [shu yerda] qarorgoh tikdik.

22-kun. Havo ochiq, ertalabdan janubi-g'arbga qarab ketdik, tog' darasiga kirdik, Syanli-daban yassi tog'ligidan o'tdik, tog'da to'g'ri yurish qiyin, qor bir necha *chi* qalinlikda, taxminan 90 *li* dan ziyod yo'l bosdik, tog'dan ko'kalamzorga tushdik, [shu yerda] qarorgoh tikdik.

23-kun. Havo bulutli, ertalab tog' daryosi bo'ylab g'arb tomonga ketdik, taxminan 50 *li* dan ziyod yo'l bosdik, varvarlarning chodirlari bor, shu yerda qarorgoh tikdik.

24-kun. Qor yog'di, ertalabdan yo'lga chiqdik, taxminan 50 *li* dan ziyod yo'l bosdik, qarag'ayzor tog' (Sun-shan)da qarorgoh tikdik.

(11 *b*) 25-kun. Havo ochiq, ertalab daryo oqimi bo'ylab g'arbga qarab tekislik (dan) ketdik, taxminan 90 *li* narida qarorgoh tikdik, bir kun turdik.

27-kun. Havo tiniq, ertalab tekislikdan g'arbga qarab ketdik, daryo sharq tomonga oqadi, taxminan 70 *li* (dan keyin) qarorgoh tikdik.

28-kun. Havo ochiq, ertalab g'arb tomon yo'lga tushdik, tekislikni kesib o'tdik, shimoli-g'arbga burilib, taxminan 80 *li* yo'l bosdik, joyning nomi Kototu deyiladi, [bu yerda] odamlar turarjoyi ko'p, [shu yerda] qarorgoh tikdik.

29-kun. Havo ochiq, ertalabdan g'arbga qarab yurdik, toqqa chiqdik, tog' yonbag'ridan suv oqadi, katta yalanglik bor, yo'lning shimolida tepalikka o'xshatib katta uyum qilib uyilgan toshlar bor, joyning nomi Szyata-shi (Ibodatxona uchun yig'ilgan toshlar) deyiladi, shu joydan 100 *li* dan ziyod yo'l bosdik, tog'da qarorgoh tikdik.

(11*ab*) 6-oy, 1-kun. Havo bulutli, kuchli shamol va maydalab yomg'ir yog'adi. Ertalabdan g'arb tomonga yurdik, Beyshan tog'igacha tekislikdan o'tdik, [tog'lar] juda baland. Taxminan 70 *li* dan ziyod masofani bosib o'tdik, o'tloq sayoz joyda qarorgoh tikdik, bir kun yashadik.

@tarixchi_kutubxonasiga

3-kun. Havo bulutli, tushlikdan keyin yomg'ir to'xtadi, g'arb tomon yurdik, taxminan 40 *li* yo'l bosdik, qarorgoh tikdik.

4-kun. Ertalabdan g'arb tomonga yo'l oldik, tekislikdan ketib bordik, [u yerda] janubdan shimolgacha [uzunligi] taxminan 100 *li* bo'lgan, sharqdan g'arbga cho'zilgan ko'l bor, Issiqko'l (Isikxeer) deyiladi. Taxminan 90 *li* dan ziyod yo'l yurdik, ko'l bo'yida qarorgoh tikdik.

5-kun. Havo ochiq, ertalab ko'l sohili bo'ylab g'arb tomon yo'lga tushdik. Taxminan 50 *li* dan ziyod yo'l bosdik, tog' boshida qarorgoh tikdik.

6-kun. Havo ochiq, ertalab ko'l sohili bo'ylab g'arbga yo'l oldik, taxminan 70 *li* dan ziyod yo'l yurdik, (12 *b*) o't bor joyda qarorgoh qurdik.

7-kun. Havo ochiq, ertalab janubi-g'arb tomon yo'lga tushdik, tog' darasiga kirib bordik, taxminan 90 *li* dan ziyod yo'l bosdik, tog' yonbag'rida qarorgoh tikdik.

8-kun. Havo tiniq, ertalab g'arbga tomon yo'lga tushdik, uzun tog'dan o'tdik, taxminan 120 *li* [dan so'ng] tog'dan tushdik.

9-kun. Havo ochiq, ertalab janubi-g'arb tomonga yo'l oldik, tekislikdan o'tdik, taxminan 90 *li* dan ziyod yo'l bosdik, tog' etagida qarorgoh tikdik.

10-kun. Havo ochiq, ertalabdan janubi-g'arbga qarab bormoqdamiz, yo'limizda baland tog'lar, [ular] Taertashi (Taertashidaban) yassi tog'i deyiladi. Yo'ldan to'g'ri yurish qiyin, [tog'larning] balandligi bir necha *chjan*, qorning qalinligi bir necha *chi*. Taxminan 70 *li* yurib, (12 *ab*) tog'lardan o'tdik, o'tloqda qarorgoh tikdik.

11-kun. Havo ochiq, ertalab daryo oqimi bo'ylab janubga qarab yurdik, taxminan 50 *li* yo'l bosdik, varvarlar chodirlari yaqinidagi yerlar Xalauchji deb nomlanadi. Tog' yonbag'rida qarorgoh tikdik, boshliq Xudoydning chodiri yaqin, [bu yerda] uch kun turdik.

15-kun. Qor yog'moqda, ertalabdan shimolga qarab yurdik, tog' yonbag'irlari – yassi tog'liklardan o'tdik, yana g'arbga burildik, taxminan 50 *li* dan ziyod yo'l bosdik, o'tloq sayoz joyda qarorgoh tikdik.

16-kun. Havo tiniq, ertalab daryo oqimi bo'ylab g'arb tomon yurdik, daryo[dan] kechib o'tdik, yetti-sakkiz [kishi] qaytdi, suv oqimi tez, taxminan 90 *li* dan ziyod yo'l bosdik, o'tloq yalanglikda qarorgoh tikdik.

17-kun. Havo ochiq, ertalabdan tog' darasi bo'ylab g'arbga yurdik, shimolga burildik, baland tog' ustiga chiqdik, (13 *b*) yaqin yo'ldan yurish qiyin, odamlar va otlar o'ta olishmaydi, taxminan 50 *li* dan ziyod [yurgandan keyin] tog'dan tushib, qarorgoh tikdik.

18-kun. Havo ochiq, ertalabdan tog' darasiga kirib keldik, shimoli-g'arb tomon yurib bormoqdamiz, tog' etagida tekislikdan bosib o'tdik, taxminan 100 *li* dan ziyod yurgach, yalanglikda qarorgoh tikdik, kun yarmida yomg'ir va do'l yog'di.

@tarixni_kutubxonasiga

19-kun. Havo tiniq, ertalabdan daryo oqimi bo'ylab g'arbga qarab yurdik, daraga kirib bordik, taxminan 100 *li* dan ziyod yo'l bosdik, daryo sohilida qarorgoh tikdik.

20-kun. Havo ochiq, ertalabdan tog' darasi bo'ylab, [daryo] oqimiga qarshi yo'l oldik, g'arbga qarab ketmoqdamiz, yassitog'likdan o'tdik, taxminan 150 *li* dan ziyod [keyin], tog' etagida qarorgoh tikdik.

21-kun. Havo tiniq, ertalabdan g'arbga qarab yo'l oldik, tekis yo'ldan ketib bormoqdamiz, [yo'lda] tog' yonbag'irlaridan oqib tushadigan tog' jilg'alari ko'p,)13 *b*(150 *li* dan ziyod yo'l bosib o'tdik, tog' o'rkachida qarorgoh tikdik.

22-kun. Havo musaffo, ertalabdan g'arb tomon ketmoqdamiz, tog'lar [orasiga] kirdik, tog' katta bir soy sharqqa qarab oqmoqda, tekislikdan o'tdik, 150 *li* dan ziyod yo'l bosdik, tog' oldida qarorgoh tikdik.

23-kun. Havo ochiq, ertalabdan shimoli-g'arb tomonga qarab ketmoqdamiz, toqqa ko'tarildik, yonbag'irdan o'tdik, tog'dan tushib, [soy] oqimi bo'ylab g'arbga ketdik, taxminan 100 *li* masofani o'tdik, so'ngra qarorgoh tikdik.

24-kun. Havo tiniq, ertalabdan g'arb tomon yo'l oldik, tog' daryosidan o'tib, keng tekislikka chiqdik. Taxminan 150 *li* dan ziyod yo'l bosib o'tdik, tekislikda qadimgi shahar devorlari bor, [bu yerda] qarorgoh tikdik.

25-kun. Havo ochiq, ertalabdan suv oqimi bo'ylab g'arb tomonga ketmoqdamiz, taxminan 150 *li* [dan keyin] daryo sohilida qarorgoh tikdik. (14 *b*)

26-kun. Havo ochiq, ertalabdan g'arb tomonga qarab ketmoqdamiz, Yan'i shahri atrofigacha 50 *li*dan ziyod yo'l yurdik. Otlarga dam [berdik], tushlikdan so'ng yana yo'lga tushdik, kechgacha yurdik, 150 *li* yo'l bosdik, [o'tloqda] qarorgoh tikdik.

27-kun. Havo ochiq, ertalabdan g'arb tomonga qarab yo'lga tushdik, tekislikdan yurib bordik, taxminan 100 *li* yo'l bosdik, musulmon (*xueyxuey*) Aerge yashagan joyda qarorgoh tikdik.

28-kun. Havo ochiq, ertalabdan janubi-g'arb tomonga ketmoqdamiz, taxminan 150 *li* yo'l bosdik, buloq bo'yida qarorgoh tikdik.

29-kun. Havo ochiq, ertalabdan g'arb tomon yurib bormoqdamiz, taxminan 70 *li* dan so'ng, Xabusu degan joyda qarorgoh tikdik. Saylan (Sayram) dan boshliq odamlarni bizga peshvoz chiqardi, shimoliy yo'nalishda yurib, yo'llar tutashgan joygacha yetib bordik, bir kun turdik.

(14 *ab*) 7-oy, 2-kun. Havo tiniq, ertalabdan g'arbga qarab yo'lga tushdik, taxminan 50 *li* dan ziyod yo'l bosdik, Saylan shahridan o'tdik, undan g'arbda, suv bo'yidagi joyda qarorgoh tikdik, ikki kun turdik.

@tarixchi_kutubxonasiga

5-kun. Havo ochiq, ertalabdan g'arb tomon ketmoqdamiz, tekislikdan o'tdik, taxminan 100 *li* [dan keyin] suv bosadigan o'tloq [boshlandi], joyning nomi Yueduguerba, [shu yerda] qarorgoh tikdik.

6-kun. Havo ochiq, tun yarmida janubi-g'arb tomon yo'l oldik, taxminan 150 *li* dan keyin, odamlar yaqinidagi joyda qarorgoh tikdik. Samaerkan(dan) choparlarni peshvoz chiqarishdi.

7-kun. Havo ochiq, ertalabdan g'arb tomonga ketmoqdamiz, taxminan 40 *li* dan so'ng Dagishan shahridan sharqdagi dalalar orasiga qarorgoh tikdik, [bu yerda] ikki kun turdik.

(15 *b*) 10-kun. Havo tiniq, ertalabdan janubi-g'arb tomon yurmoqdamiz, hammayoqda tekis yo'l, taxminan 100 *li* dan keyin Xeyaer degan joy, [shu yerda] qarorgoh tikdik.

11-kun. Havo ochiq, ertalabdan janubi-g'arbga yo'l oldik, tekislikdan o'tdik, taxminan 70 *li* dan so'ng loyqa daryoga yetib keldik, bu joy Dachjan deyiladi, besh-oltita qayiq bor, kechib o'tish mumkin, Lining oti daryo o'rtasida toyib loyga yiqildi, halok bo'lganlar ko'p, [bu yerda] bir kun turdik.

13-kun. Havo ochiq, odamlarning bir qismi hukmdor Edigeer-Hasanga tuhfa tortiq qilish uchun Shaluxeyyaga yo'l olishdi. Kun yarmida janubi-g'arbga qarab ketdik, katta daryo va suv bosadigan o'tloqlar oldidan chiqdik, taxminan 300 *li* dan so'ng, kishilar [yashagan] Ditsza degan joyda qarorgoh tikdik, [bu yerda] bir kun yashadik.

15-kun. Havo ochiq, ertalabdan janubi-g'arbga yo'l oldik, hammayoq tekislik, taxminan 90 *li* dan so'ng,

(15 *ab*) Mitszaer degan joyda qarorgoh tikib, [bu yerda] ikki kun yashadik.

18-kun. Havo ochiq, tunda g'arb tomon yo'l oldik, tosh daradan o'tdik, taxminan 70 *li* [dan keyin] Dobo [bu] degan joyda qarorgoh tikdik.

19-kun. Havo ochiq, beshinchi soqchilik vaqtida g'arbga qarab yura boshladik, barcha tekisliklardan o'tdik, taxminan 70 *li* yurgach, Shilasi degan joyda qarorgoh tikdik.

20-kun. Havo ochiq, ertalabdan g'arb tomon yurdik, tekislik joylardan o'tdik, taxminan 70 *li* dan so'ng Xalabulan degan joyda qarorgoh tikdik.

21-kun. Havo musaffo, ertalabdan g'arbga qarab ketmoqdamiz, katta sayoz va keng tog' daryosini kechib o'tdik, taxminan 40 *li* dan ziyod yo'l bosgach, Samaerkanga yetib keldik, [shahardan] sharqda, mevazor bog'da, qarorgoh tikdik.

(16 *b*) 8-oy, 1-kun. Havo ochiq, kuchli shamol esmoqda, ertalabdan janubi-g'arb tomon ketmoqdamiz, taxminan 30 *li* [dan keyin] Mitszaer degan joyda qarorgoh tikdik.

@tarixchi_kutubxonasiga

2-kun. Havo ochiq, kun yarmidan buyon janubi-g'arb tomonga ketmoqdamiz, past tog' cho'qqisidan o'tdik, taxminan 30 *li*[da] tosh tog'da baland paxsa uy bor, (bu) Temu-Fumu tomonidan qurilgan eski ibodatxona, joy Tadaxalachi[1] deyiladi, [bu yerda] qarorgoh tikdik.

3-kun. Havo ochiq, tushdan keyin janubi-g'arbga yo'l oldik, tog' darasiga kirdik, tog' yo'li yurishga qiyin, taxminan 70 *li* [dan keyin] kech [kirdi], tog'da tunadik.

4-kun. Havo tiniq, ertalabdan janubi-g'arb tomonga yo'l oldik, uzun yassi tog'likdan tushdik, katta qishloqqa yetib bordik, taxminan 60 *li* [dan keyin] Shalisan degan joyda qarorgoh tikdik.

5-kun. Havo ochiq, ertalabdan janub tomonga ketmoqdamiz, 10 *li* dan ziyod yo'l yurdik, Xeshi (Shahrisabz) shahridan uncha olis bo'lmagan joyda qarorgoh tikdik, [bu yerda] bir kun turdik.

7-kun. Havo ochiq, ertalabdan janub tomonga ketmoqdamiz, tekislikni bosib o'tdik, taxminan 50 *li* [dan keyin] Tolibala (Tolibalachjen) degan qal'a yaqinida qarorgoh tikdik.

8-kun. Havo ochiq, ertalabdan janub tomonga ketmoqdamiz, ko'plab tekisliklardan o'tdik, taxminan 60 *li* [dan keyin] Xoszin-manla degan joyda, kichkina ariq bo'yida qarorgoh tikdik.

9-kun. Havo musaffo, ertalabdan janub tomonga ketmoqdamiz, tekislikdagi tepalikdan o'tdik, sharq tomonga burildik, taxminan 70 *li* [dan keyin] Da-i-dali degan joyda, daryo bo'yida qarorgoh tikdik.

10-kun. Havo ochiq, ertalabdan janub tomonga ketmoqdamiz, tog'lardan oshib o'tdik, taxminan 100 *li* [dan keyin], Bay-a-erba degan joyda, (17 *b*) tog' ustida qarorgoh tikdik.

11-kun. Havo ochiq, beshinchi tungi soqchilikda janubga yo'l oldik, tog' darasiga kirib, sharqda tosh daraga o'tdik, Teminguan (Temir Qopiq) deyiladi, Qopiqqa kirdik, kichik suvdan kechib o'tdik, taxminan 70 *li* [dan keyin], o'tzor sayoz joyda qarorgoh tikdik.

12-kun. Havo ochiq, ertalabdan janubga yo'l oldik, toshko'prikdan o'tdik, taxminan 70 *li* [dan keyin] Sebilan[2], degan joyda qarorgoh tikdik.

13-kun. Havo musaffo, ertalabdan janubga qarab ketmoqdamiz, tog'lardan oshib o'tdik, katta qishloqdan o'tdik, taxminan 60 *li* [dan keyin] Ingeyer degan joyda qarorgoh tikdik.

14-kun. Havo ochiq, ertalabdan janub tomonga ketmoqdamiz, [so'ng] yana sharqqa [qarab yurdik], katta qishloqdan o'tdik, taxminan 60 *li* [dan

[1] *Tadaxalichi* – Taxtaqoracha (O.B.)

[2] *Sebilan* – hozirgi Sayrob aholi punkti *(O.B.)*

@tarixdl_kutubxonasiga

keyin] Abi-amu degan joyda (17 *ab*), aholi punktiga yaqin [yerda] qarorgoh tikdik.

15-kun. Havo ochiq, ertalabdan janub tomon ketmoqdamiz, katta qishloqdan o'tdik, taxminan 50 *li* dan so'ng daryo bo'yiga yetib bordik. Daryo Amu deb nomlanadi, kichkina qayiqlar bor, yetti-sakkiz dona. Sharqiy sohil[da] shahar bor, Dalimi[1] deb nomlanadi. Daryo sohilida qarorgoh tikdik, ikki kun turdik, [so'ng daryodan] kechib o'tdik.

18-kun. Havo ochiq, kishilar va otlarni kechgacha, tunga qadar kechuvdan o'tkazdik, suv bosadigan o'tloqqa yetib bordik.

19-kun. Ertalab Seszier degan qishloqqacha 150 *li* yo'l bosib o'tdik, qarorgoh tikdik.

20-kun. Havo ochiq, ertalabdan janubi-g'arb tomon ketmoqdamiz. Katta qishloqlardan o'tdik, taxminan 60 *li* [dan keyin] (18 *b*) Balaxey (Balx) shahri yaqinida, shimoli-sharqda, qarorgoh tikdik, [bu yerda] ikki kun turdik.

23-kun. Havo ochiq, ertalabdan g'arb tomonga yoki shimoli-g'arb tomonga ketmoqdamiz, chor atrof bepoyon yalanglik, faqat janubda tog' bor, taxminan 100 *li* [dan keyin], Xeshida qarorgoh tikdik.

24-kun. Havo ochiq, ertalabdan shimoli-g'arb tomon ketmoqdamiz, hammasi (hamma joyda) qishloqlar, katta qishloqlar, taxminan 50 *li* [dan keyin] tog' daryosiga qurilgan Szyashi ko'prigidan o'tdik, joyning nomi Bolixata deyiladi, ko'prik yaqinida qarorgoh tikdik.

26-kun. Havo ochiq, ertalabdan g'arb tomonga ketmoqdamiz, yo'l tekislikdan o'tadi, taxminan 60 *li* yo'l bosdik, (18 *ab*) joy Duke deyiladi, [shu yerda] qarorgoh tikdik.

27-kun. Havo ochiq, kechqurun g'arb tomon yo'lga chiqdik, qumdan o'tdik, odam yashaydigan uy-joy yo'q. 28-kungacha yurdik, taxminan 100 *li* dan ziyod yo'l bosgach, Andxuay[2] shahriga yaqin joyda, [uning] sharqida, qarorgoh tikdik, [bu yerda] uch kun turdik.

9-oy, 2-kun. Havo ochiq, ertalabdan janubi-g'arb tomon ketmoqdamiz, butun yo'l yumshoq qum, taxminan 100 *li* [dan keyin] Aochisyaershan degan joyda, daryo bo'yida qarorgoh tikdik.

3-sana. Havo ochiq, ertalabdan janubi-sharq tomon ketmoqdamiz, tekis qumloq yerdan o'tdik, taxminan 90 *li* yo'l bosdik, Xalenbuban degan joyda, aholi maskanida qarorgoh tikdik.

4-kun. Havo ochiq, ertalabdan janubi-g'arb tomon ketmoqdamiz. Hamma yoqda taqir tepaliklar, taxminan 90 *li* yo'l bosib o'tdik.

(19 *b*) Balian degan joyda qarorgoh tikdik.

---

[1] *Dalimi* – Termiz shahri *(O.B.)*

[2] *Andxuay* – hozirda Afg'oniston shimoli-g'arbidagi shaharcha. (O.B.)

@tarixchi_kutubxonasiga

5-kun. Havo bulutli, ertalabdan janubi-g'arb tomon ketmoqdamiz, tog' darasidan o'tdik, katta qishloq oldidan chiqdik, taxminan 90 *li* yo'l bosdik, Maymuna degan joyda qarorgoh tikdik, uch kun turdik, chunki ko'p hamrohlarimiz betob bo'lib qolishdi.

9-kun. Havo ochiq, ertalabdan janubi-g'arb tomonga ketmoqdamiz, tog' darasidan o'tdik, katta qishloq oldidan chiqdik, taxminan 60 *li* [dan keyin] Ulimali degan joyda qarorgoh tikdik.

10-kun. Havo toza, ertalabdan janubi-g'arb tomonga yurdik, tog' ustiga chiqdik, tog' darasidan o'tdik, taxminan 60 *li* yo'l bosdik, Nalin degan joyda qarorgoh tikdik.

11-kun. Havo ochiq, ertalabdan g'arb tomon ketmoqdamiz, tog' ustiga chiqdik, yonbag'irdan tushdik, katta qishloqqa kirib bordik, taxminan (19 *ab*) 40 *li* yo'l bosdik, Xayshaer degan joyda qarorgoh tikdik.

12-kun. Havo ochiq, tunda g'arb tomon yo'l oldik, tog' darasidan o'tdik, katta qishloqqa [yetib bordik], taxminan 100 *li* yo'l bosib o'tdik, Chechentu degan joyda qarorgoh tikdik, Shaxalu[1] yurishdan qaytishini kutib, [bu yerda] yarim oy turdik.

28-kun. Havo ochiq, ertalabdan g'arb tomonga ketmoqdamiz, tekislikdan o'tdik, taxminan 70 *li* yo'l bosdik, Bokan degan joyda qarorgoh tikdik.

29-kun. Havo ochiq, ertalabdan g'arb tomonga ketmoqdamiz, tog' yonbag'irlarining janubiy tomonlarini bosib o'tdik, katta qishloqqa kirib keldik, bu joyni Malacho deyishadi, taxminan 70 *li* yo'l bosdik, dalada qarorgoh tikdik.

Qo'shimcha 9-oy, 1-kun. Havo ochiq, ertalabdan daryo oqimi bo'ylab g'arb tomonga ketmoqdamiz, tog' darasidan o'tdik, tekislikka chiqib keldik,

(20 *b*) taxminan 50 *li* yo'l yurdik, bu joyni Guliba-an deyishadi, dalada qarorgoh tikdik, [bu yerda] besh kun turdik.

7-kun. Havo ochiq, ertalabdan shimoli-g'arb tomonga ketmoqdamiz, taxminan 10 *li* [dan keyin], odamlar ko'p bo'lgan Malacho degan joyda qarorgoh tikdik.

8-kun. Havo ochiq, kunduzi janubi-g'arbga yo'l oldik, yassitog'lar orasiga kirdik, dara bo'ylab janubi-g'arb tomonga yurdik.

9-kun. Ertalab soat 9 dan 11 gacha bo'lgan vaqt, tog'lar oldidan chiqdik, Seteerge deb nomlangan katta qishloqqacha taxminan 200 *li* yurdik, daryo bo'yida qarorgoh tikdik.

10-kun. Havo ochiq, to'rtinchi soqchilik vaqtida daryo oqimi bo'ylab janubi-g'arb tomonga yurdik, taxminan 80 *li* [dan keyin], Tuduan degan joyda, aholi maskaniga yaqin qarorgoh tikdik.

[1] *Shaxalu* – Temuriylar davlati hukmdori Mirzo Shohrux (– *ilm. muh.*).

@tarixchi_kutubxonasiga

12-kun. Havo ochiq, to'rtinchi soqchilik vaqtida janubi-g'arb tomonga yo'lga tushdik, past tog'lardan oshib o'tdik, taxminan 130 *li* [dan keyin], Chjaladenszi degan joyda qarorgoh tikdik.

13-kun. Havo ochiq, uchinchi soqchilik vaqtida janub tomonga yurdik, tog' darasiga kirib bordik, yo'l to'g'ri yurish uchun qiyin, taxminan 120 *li* dan keyin Toxusiley-baer degan joyda, tog' etagida qarorgoh tikdik.

14-kun. Havo musaffo, ertalabdan janubi-g'arb tomonga yurdik, past tog'lardan oshib o'tdik, taxminan 30 *li* dan ziyod yo'l bosdik, tog' dovon[idan] chiqdik, Xale shahridan sharqda qarorgoh tikdik.

ELCHILARNING SAMARQAND VA BOSHQA JOYLARDAN [XITOYGA] KELISHLARI

SAMARQANDDAN

Hukmronlik yillari	Elchilarni kim yuborgan	Kelgan elchilarning soni	Elchilarning Xitoy imperatoriga sovg'alari
XUN-U			
1388	Temuer Kulaygan (Temur Ko'ragon)	Musulmon Manla Xafeysi (Mavlono Hofiziy) va boshqalar	Otlar – 15 Tuyalar – 2
1389	Temur Ko'ragon	Musulmon Mavlono Hofiziy va 8 kishi	Otlar – 205
1392	Temur Ko'ragon	Musulmon Shexali (Shayx Ali) va yana boshqalar	Otlar, tuyalar va boshqa mahalliy mollar
1393	Temur Ko'ragon	Vanxunitszyubudin va boshqalar	Otlar – 84, tuyalar – 6, vors. gazlama – 6 bo'lak va boshqa mollar
1395	"	Qurboshi Dalimishi va boshqalar	Otlar – 200
1396	"	Musulmon Dalimishi va boshqalar	Otlar – 212
1397	"	Musulmon Alemadan va boshqalar 20 kishi, mus. Chjalula va yana 191 kishi	Otlar – 1095
YUN-LE			
1407	Xali (Xalil)	Elchi Xusida va boshqalar	Mahalliy mollar
1408	Xalil	Elchi Shayey Nuerdin (Shayx Nuriddin) va boshqalar	Audensiya

@tarixchi_kutubxonasiga

Davomi

1409	Boshqa joydan	Musulmon Maxeyma (Muhammad) Dalimishi va boshqalar	Otlar
"	Boshqa joydan	Musulmon Xeyman va boshqa 8 kishi	Mahalliy otlar
1410	Boshqa joydan	Musulmon Xochjemaer (Xo'ja Umar) va boshqalar	Nefrit, nashatir
1411	Boshqa joydan	Musulmon Indu va boshqalar	Mahalliy mollar
1413	Boshqa joydan	Musulmon Xochjedin va boshqa 150 kishi	Mahalliy otlar
"	"	Elchi	Otlar
1415	"	Musulmon Dalaxan (tarxan)	Otlar
"	Ulubo (Ulug'bek)	Elchi Boboxua Maxeymu (Boboxon Mahmud)	G'arb otlari, qoplonlar
1416	"	Musulmon Faxuerdin (Faxriddin) va boshqalar	Otlar 170, mahalliy mollar
1417	"	Elchi	Otlar, mahalliy mollar
1418	Ulug'bek	Elchi Aerdusha (Ardasher) va boshqalar	Mashhur otlar, qoplonlar
1419	"	Dalimishi va boshqalar	Otlar va mahalliy mollar
1420	"	Elchi	Otlar
1424	"	Musulmon Dalimi	Qo'ylar va otlar
		SYUAN-DE	
1426	"	Bayxu (yuzboshi) Maxeyma (Mahmud) va boshqalar	Otlar, mahalliy mollar
1427	"	Musulmon tarxon Mahmud Dalimishi va boshqalar	Otlar, kumush idishlar, (buyumlar, mahalliy mollar)
"	"	Musulmon tarxon Xochje Sala (Xoja Sala) va boshqalar	Otlar
"	"	Musulmon Xasan (Hasan) va boshqalar	Otlar, mahalliy mollar
1428	"	Musulmon tarxon Isu (Iso) va boshqalar	Otlar
1429	«	Musulmon Alisha (Alisher) va boshqalar	Otlar,oltin va kumush idishlar
«	«	Musulmon tarxon Adula (Abdulla) va boshqa 40 kishi	Otlar

@tarixchi_kutubxonasiga

1430	Boshqa joydan, Ulubo Miersza (Ulug'bek Mirzo) va boshqalar	Elchi Buyanxoli (Boyonquli) va boshqalar	Mahalliy mollar
«	Ulug'bek Mirzo va boshqalar	Elchi Buyan Chjofaer (Boyon Ja'far) va boshqalar	Mahalliy mollar
1433	Boshqa joydan	elchi	Ziyofat (banket)
«	«	«	Otlar
CHJEN-TUN			
1437	Ulug'bek Mirzo va boshqalar	Elchi Maxeymu Tumin (Mahmud Tuman)	Otlar, tuyalar va mahalliy mollar
«	«	Kuchu-dalaxan (Kuchi tarxon) va boshqalar	Otlar, tuyalar
1439	Boshqa joydan, Ulug'bek Ko'ragon	Elchi Ja'far	Otlar, tuyalar va mahalliy mollar
1440	«	Musulmon Mahmud va boshqalar	Otlar, tuyalar va boshqa mollar
«	Boshqa joydan	Elchi Tuertu Boyan bashi	Otlar, tuyalar va boshqalar
1445	Boshqa joydan	Elchi Boyan Taba (Boyon Tobon)	Otlar, tuyalar, oltin, iplar, qoplonlar, nefrit va boshqalar
1446	«	«	Sovg'alar
1447	«	Elchi Shaxey Maxeyma (Shayx Mahmud), Toto Buxua va boshqalar	Otlar – 63, tuyalar – 27, ... nefrit – 200 szin (kulrang shinshilla terisi, 30 ming szin) va boshqa mollar
1448	«	Elchi Shayx Mahmud, Tumaytu Nachjimudin (Najmiddin), Ali, Axeyma Maxayma (Ahmad Mahmud) va boshqalar	Sovg'alar
1449	«		Sovg'alar
SZIN-TAY			
1457	Boshqa joydan	Elchi Mahmud Sheliban va boshqalar	Otlar, tuyalar, mahalliy mollar
«	Busain-van	elchi	Sovg'alar, mahalliy mollar
CHEN-XUA			
1476	«	Elchi Mahmud Sheliban va boshqalar	Otlar, tuyalar

@tarixchi_kutubxonasiga

Davomi

1478	Solutan Maxeyma-van (Sulton Muhammad-xon)	Elchi Seimasuer (Said Mansur) va boshqalar	Otlar
1480	«	elchi Manla Maxeymamudur (Mavlono Mahmud) va boshqalar	Otlar
1481	«	Elchi	Arslon (sher)lar
«	Sulton Ahmad	«	Otlar va boshqa mollar
«	Sulton Ahmad	Elchi Palyuvan (Pahlavon) Maxama Xachji (Mahmud Xo'ja), Ersin va boshqalar	Arslon (sher)lar
«	«	Elchi	Arslon (sher)lar
XUN-CHJI			
1488	Sulton Ahmad va boshqalar	Elchi Alaodaolabo (Alouddavla) va boshqalar	Nefrit, otlar va boshqa mollar
1489	Axeyma-van (Ahmadxon)	Elchi	Arslon (sher)lar va boshqa mollar
1490	Maxeyma-van (Mahmudxon)	Elchi	Otlar, tuyalar, nefrit va boshqa mollar
1490	Sulton Ahmadxon	Elchi	Arslonlar va boshqa mollar
	Boshqa joydan	Elchi Baba (Bobo) va boshqalar	
	Boshqa joydan	Elchi	Sovg'alar
	Sulton Ahmadxon		
1492	Boshqa joydan	Qo'rboshi	Sovg'alar

XALE (XUROSON)DAN

YUN-LE			
1409	Boshqa joydan	Elchi Malay va boshqalar	G'arb otlari – 550
1410	Shaxalu Baduer (Shoh Malik Bahodir)	Qo'rboshi Mieritszila va boshqalar	Mahalliy mollar
1413	Shoh Malik Bahodir	Elchi amaldor Maxama (Mahmud) va boshqalar	Otlar, sherlar, qoplonlar va mahalliy mollar
1415	Shoh Malik Bahodir	Elchi Chjabuxua va boshqalar	Qoplonlar, g'arb otlari, mahalliy mollar
1417		Elchi	Otlar, mahalliy mollar

@tarixchi_kutubxonasiga

1418	Shoh Malik Bahodir	Elchi Aerdusha (Ardasher) va boshqalar	Mashhur otlar, qoplonlar
1419		Musulmon Alixoshi Aman (Ali Xo'ja Omon) va boshqalar	Otlar
1420		Elchi	Otlar
1422	Hamma davlatlar	Elchi	Otlar
SYUAN-DE			
1427		Tarxon Ibulatszin (Ibrohim) va boshqalar	Otlar
1432		Elchi Faxuerdin (Faxriddin) va boshqalar	Ishlar xususida
	Boshqa joydan	Elchi Masu (Mansur) va boshqalar	
	Shayx Malik Mirzo	Elchi	
1433	Boshqa joydan	Elchi	Saroyga keldilar
	Shayx Malik Sulton va boshqalar	Elchi Ali Shashansi	Otlar

SHILASI (SHEROZ)DAN

YUN-LE			
1413	Boshqa joydan	Elchi	Otlar, g'arb otlari, qoplonlar va boshqa mollar
1415	Boshqa joydan, Ibrohim	Elchi	Otlar, g'arb otlari, mahalliy mollar
1419	Boshqa joydan		G'arb otlari, qoplonlar, sherlar va boshqa mollar
1423		Elchi Ali va boshqalar	Otlar
SYUAN-DE			
1427		Ali	Tuyalar, otlar, mahalliy mollar
1431		Musulmon tarxon Mahmud va boshqalar	Mahalliy mollar

XEYLOU (HIROT)DAN

CHJEN-TUN			
1437	Boshqa joydan, Shayx Malik Sulton va boshqalar	Elchi Xachji Maxama (Xoja Muhammad)	Otlar, tuyalar, mahalliy mollar

@tarixchi_kutubxonasiga

Davomi

SZIN-TAY			
	Boshqa joydan (31 joy)	Hammasi 101 kishi	Tuyalar – 1, otlar – 247, xachir – 12, eshak – 10, nefrit – 341, bo'lak, nashatir – 76 qop (yashik)
1455	32 joydan, Babuer-van (Abulqosim Bobur) va boshqalar	Elchi	Mahalliy mollar va otlar
TYAN-SHUN			
1459	Boshqa joydan		Sovg'alar
1463	Boshqa joydan	Elchi Masheban	
	Mahalliy Musayi-van	Elchi Mahmud	Mahalliy mollar
CHEN-XUA			
1481		Elchi	Sherlar

ISIFOXAN (ISFAHON)DAN

YUN-LE			
1419	Boshqa joydan	Elchi Maxamu (Muhammad)	G'arb otlari
SYUAN-DE			
1431	Boshqa joydan	Elchi Mier Ali (Mir Ali)	Otlar va mahalliy mollar
1434		Musulmon Mir Ali va boshqalar	Otlar va tuyalar
CHEN-XUA			
1491		Elchi	Sherlar
			G'arb otlari, boshqa yurtdan keltirilgan pichoqlar va boshqalar

TASHIXAN (TOSHKENT)DAN

XUN-CHJI			
1500	Boshqa joydan	Elchi Mavlono Alike va Nasuerdin (Nasriddin) va boshqalar	Sovg'alar

@tarixchi_kutubxonasiga

TURKIY BITIKLAR[1]

OLTIN O'RDA XONLARINING UYG'UR YOZUVIDA BITILGAN YORLIQLARI

TO'XTAMISHXON YORLIG'I HAQIDA

Oltin O'rda xoni To'xtamishning 1393-yili polyak qiroli Yag'ayliga yo'llagan yorlig'i uyg'ur xatidadir. Matn ikki varaqqa bitilgan bo'lib, birinchisida 13 satr, ikkinchisida esa 12, jami 25 satrdan iborat (yorliqning tarixiy-filologik ocherki, transkripsiyasi, ruscha tarjimasi va faksimiliga qarang: Radlov 1888, 1–40; 1890, 198–199).

Hujjat 1834-yili Moskvada Tashqi ishlar vazirligining bosh arxividan topilgan. 1921-yildan boshlab Varshavada markaziy arxivda saqlanmoqda.

Quyida V. Radlov faksimili asosida (1890, 198–199) yorliqning transkripsiyasi va matn mazmunini keltiramiz.

Q. Sodiqov

Matn transkripsiyasi

(1) **Toxtamïš sözüm**
(2) **Yağaylağa.**
(3) Uluğ orunğa olturğan yergäsin
(4) aŋlatu Qutlu-buğa, Asan bašlï elči-
(5) lär iydük erdi. Sen dağï keläčiŋni
(6) bizgä iydiŋ erdi. Burunqï yïl Beg-Bolat, Xojamadïn
(7) bašlï bir nečä oğlanlar, Bägiš, Turdučaq-Berdi,
(8) Davut bašlï beglär Edügü atlï kišini Temirgä aldïr-
(9) dïn čaqïrup emišlär. Ol til bilä keldi erdi,
(10) alarnïŋ ala könül bilä til inip el qïrïğïnğä
(11) yetä kelgändä aŋlap, yïğïlïp, sančïšmağa
(12) turğanda, ol yaman kišilär burun tebärägin-
(13) dän el tarbïp ol iš dağï ol čaqlï bulğan yergäsi ol erdi.
(14) Teŋri bizni yarlïqap dušmanlïq qïlğan Beg-Bolat, Xojamadïn,
(15) Bägiš,Turdučaq-Berdi, Davut bašlï oğlanlar, beglärni

[1] Turkiy bitiklar transkripsiyasi va hozirgi o'zbek tiliga tabdili **Qosimjon Sodiqov** tomonidan amalga oshirilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

(16) moŋqaltï. Emdi bu yegüni aŋlatu Asan, Tulu Xoja bašlï
(17) elčilärni iydük. Emdi dağï bulsa
(18) bizgä baqar ellärniŋ čïqïšlarïn čïqarup, barğan
(19) elčilärgä bergil, xazinağa tegürsünlär. Basa
(20) burunqï yosunča b zargn ortaqlarïŋ dağï yürüš-
(21) sünlär. Uluğ ulusniŋ turuščağa dağï yaxšï-
(22) sï ol bolğay, tep altun nišanlïq yarlïq
(23) tuttuq. Taqağu yïl, tarix yeti yüz toqsan beš-
(24) ta rajab ayïnïŋ sekiz yaŋïda Ordu Tan-
(25) da erürdä bitdimiz.

Mazmuni

(1) **To'xtamish so'zim**
(2) **Yag'aylaga.**
(3) Ulug' o'ringa [ya'ni taxtga] o'ltirganligimizni
(4) bildirib Qutlu-bug'a, Asan boshchiligidagi elchi-
(5) larni yuborgan edik. Sen ham o'z kishilaringni
(6) bizga yo'llagan eding. Burungi yil [o'za yili] Beg-Bo'lat, Xo'jamadin
(7) boshchiligidagi bir necha o'g'lonlar, Bagish, Turduchaq-Berdi,
(8) Davut boshchiligidagi beglar Edugu otli kishini Temirning yoniga yashirincha
(9) chaqirib emishlar. U ushbu chaqiriqqa ko'ra keldi
(10) va ularning ola ko'ngil bilan til bog'laganlariga muvofiq xabar yo'lladi. Biz buni mamlakat hududiga
(11) yetib kelganlaridan keyin bilib qoldik. Yig'ilib, sanchishmoqqa
(12) tayyor turganimizda, ul yomon kishilar avval boshda tevarak-
(13) dan hujum qildi. Oqibatda el ichida kurash boshlandi. Bu ish o'sha chog'da ana shunday yuz berdi.
(14) Tangri bizni yorlaqab dushmanlik qilgan Beg-Bo'lat, Xo'jamadin,
(15) Bagish, Turduchaq-Berdi, Davut boshchiligidagi o'g'lonlar va beglarni
(16) jazoladi. Endi bu holatni anglatib, Asan, Tulu Xo'ja boshchiligidagi
(17) elchilarni yuboryapmiz. Endi boshqa bir ish.
(18) Sen bizga qaram yurtlarning xirojlarini to'plab, borgan
(19) elchilarga bergil, xazinaga yetkazsinlar. So'ng
(20) savdogar o'rtoqlaring burungi yo'sinicha ish
(21) tutsinlar. Ulug' ulusning bardavomligiga ham yaxshi-
(22) si shu bo'lg'ay, deb oltin nishonli yorliq
(23) yo'lladik. Tovuq yili, tarix yetti yuz to'qson besh-
(24) da, rajab oyining sakkizinchi kuni O'rda Tan-
(25) da [ya'ni, Don daryosi yoqasida] ekanligida bitdik.

@tarixchi_kutubxonasiga

TEMUR QUTLUG' YORLIG'I HAQIDA

Oltin O'rda xonlaridan biri Temur Qutlug'ning 1397-yili bitilgan yorlig'i uyg'ur xatida bo'lib, satrma-satr arab xatida izohlangan (hujjatning tarixiy-filologik sharhi, transkripsiyasi, ruscha tarjimasi, faksimili berilgan nashriga qarang: Radlov, 1888, 17–40, faksimili 1-jadvalda). Uzunligi 265 sm., eni 23 sm. li o'rama qog'ozga bitilgan mazkur hujjat 55 satrlidir. Yorliq hijriy 800-yil (=1397) bars yili, sha'bon oyining oltinchi kunida Uzu suvining yoqasida Mujavaranda bitilgan (Sodiqov, 1997, 86–87).

Quyida V. Radlov nashridagi matn faksimili asosida yorliqning transkripsiyasi va matn tabdili keltirilmoqda.

Matn transkripsiyasi

(1) **Temür Qutluğ sözüm**
(2) oŋ qol, sol
(3) qolniŋ oğlanlarïğa,
(4) tümän edgü bašlïğ miŋ, yüz, on
(5) beglärigä, ički kentläriniŋ qazï,
(6) muftilarïğa, mašyih, sofilarïğa,
(7) devän bitigčilärigä, tamğačï, tart-
(8) naqčïlarïğa, yortar išlänči, yolawčï-
(9) larğa, bükäwül, tutqawullarğa, yamčï,
(10) süsünčilär, quščï, barsčïlarğa,
(11) kemäči, köprükčilärgä, bazarda
(12) turğanlarğa! Bu yarlïğnï tuta turğan
(13) Muhammadniŋ öbäkä atalarïnï burun-
(14) ğï kečkän Sayïn xan čağïdïn biri birä
(15) yarlïğ rast tarxanlïq yosunïča yürüp
(16) atasï Hāji-Bayram Xojanï
(17) biziŋ xan ağalarïmïz suyurqap
(18) tarxan qïlğan čergäsin aŋlata ötündi
(19) ersä, ötülin yop körüp, Muhammad
(20) biziŋ suyurğal bulup, tarxan bolup
(21) tursun tedimiz. Bu kündin ilgärü Qïrïm
(22) bilä Qïrq yerniŋ tümänidä Sudaq atlïğ
(23) kentniŋ čewärindä burunğï zamändïn
(24) berü mutaaddad tarxan bolğan, Ïndïrčï salasï
(25) bilä mašhur bolğan salasïdïn šar'i qabala
(26) yosunïča yer-sularï bilä Muhammadiŋ
(27) oğlanlarï, ilki Hāji Muhammad va Mahmud-

@tarixchi_kutubxonasiga

(28) nï ăzăd tarxan bolsun. Bularnïŋ yer-su-
(29) larïŋa, bağ, bağčalarïğa, xammăm, tegirmän-
(30) lärigä, tasarruf qïla turğan yerlärigä
(31) burundïn qalğan ăzădlarïğa, basa sala-
(32) larïğa, safančï, ortaqčïlarïğa-kim,
(33) kim ersä küč-uğa tegürmäsün. Yolsuz
(34) yerdä nämälärini tartïp almasun-
(35) lar. Borla tamğasï, in kinči üskü
(36) bol qurtï, ambar malï, ïndïr haqqï,
(37) tabanlïq qismat, qubur yasağï, qalan, musamma
(38) saliq, borč, xarač almasunlar. Barurïda-kelüridä,
(39) kirür-čïqarïda Qïrïmda, Kafada, qayu-ma
(40) türlüg ne ersä alurïda, saturïda tamğa,
(41) tartmaq almasun. Tarxanlïq, tabanlïq, yol
(42) haqqï, qarawulluq tilämäsünlär. Tawar-qara-
(43) larïn ulaq tutmasun. Qonaq tüšül tüšürmäsün-
(44) lär. Süsün ulufa tilämäsünlär. Qayu-ma
(45) türlüg zahmat-u movinat va avarizat-
(46) lardïn masun-u maxrus bolsunlar. Ínč
(47) turup tïnčlïq bilä šăm-u sabăh avqăt-i
(48) šariflarïda bizgä, dağï biziŋ
(49) uruğ-uruğïmïzğa duă, alqïš
(50) etä tursun, tep tuta tururğa
(51) altun nišānlïq, al tamğalïq
(52) yarlïq berildi. Tarix sekiz yüzdä,
(53) bars yïl, šaban ayïnïŋ altïnčï
(54) künidä Üzü suyïnïŋ kanarïda,
(55) Mujavaranda erürdä bitildi.

Mazmuni

(1) **Temur Qutlug' so'zim**
(2) o'ng qo'l, so'l
(3) qo'lning [o'ng qanot, so'l qanot] o'g'lonlariga,
(4) tuman ezgu boshliq ming, yuz, o'n
(5) beklariga, ichki kentlarning qozi,
(6) muftilariga, mashoyix, so'filariga,
(7) devon kotiblariga, tamg'achi, tart-
(8) naqchilariga [ya'ni, soliq yig'uvchi va bojxona xizmatchilariga], ish yurituvchi, yo'l soqchi-
(9) lariga, bakavul [oshpaz], tutqavullarga, xat tashuvchi,

@tarixchi_kutubxonasiga

(10) bekat nozirlari, qushchi, barschilarga,
(11) kemachi, ko'prikchilarga, bozorda
(12) turganlarga [ya'ni, bozor boshliqlariga]! Bu yorliqni tutib turgan
(13) Muhammadning ota-bobolarini burun-
(14) gi kechgan Sayinxon [Botuxon] chog'idan beri payza
(15) yorliqli haqiqiy tarxonliq yo'sinicha yurib,
(16) otasi Hoji Bayram Xo'jani
(17) bizning xon og'alarimiz siylab
(18) tarxonlik qilganligini eslatib, o'tinganida,
(19) iltimosini ma'qul ko'rib, Muhammad
(20) bizning suyurg'alga yetishib, tarxon bo'lib
(21) tursin, dedik. Bu kundan ilgari Qrim
(22) bilan Qirq yerning tumanida Sudaq otli
(23) kentning yaqinida burungi zamondan
(24) beri uzoq yillar tarxon bo'lgan, Indirchi qo'rg'oni
(25) bilan mashhur bo'lgan qo'rg'onidan shar'iy qabala
(26) yo'sinicha yer-suvlari bilan Muhammadning
(27) o'g'lonlari, kattasi, Hoji Muhammad va Mahmud
(28) ozod tarxon bo'lsin. Bularning yer-suv-
(29) lariga, uzumzor va bog'lariga, hammom, tegirmon-
(30) lariga, tasarruf qilib turgan yerlariga,
(31) burundan qolgan ozod yerlariga, so'ngra qo'rg'on-
(32) lariga, dehqonlari va o'rtoqchilariga-kim,
(33) hech kimsa zo'ravonlik qilmasin. Yo'lsiz
(34) yerda [qonunsiz] narsalarini tortib olmasin-
(35) lar. Uzumzor solig'i,
(36) bo'l qurti, ombor moli [solig'i], indir haqi,
(37) tabanliq qismat, qubur [ariq] yasag'i, qalan (solig'i), musamma
(38) soliq, bo'rch, xiroj olmasinlar. Borurida-kelurida,
(39) kirar-chiqarida Qrimda, Kafada, qay
(40) turli narsa olarida, sotarida (ulardan) haq
(41) olmasinlar. Tarxonliq, tabanliq, yo'l
(42) haqi, qorovulliq (haqi) tilamasinlar. Qora mol-
(43) lari soliqqa tortilmasin. Qo'noq tushul tushirmasin-
(44) lar. Qo'shindan ulufa tilamasinlar. Har qanday
(45) qiyinchiliklar-u og'ir to'lovlar va qo'shimcha soliqlardan ozod
(46) va himoyada bo'lsinlar. (Shu qilgan yaxshiliklarimiz evaziga) qoyim
(47) turib, tinchlik bilan shom-u saboh chog'laridagi
(48) ibodatlarida bizga, yana bizning
(49) urug'-aymog'imizga duo, olqish

@tarixchi_kutubxonasiga

(50) eta tursin, deb tuta tururg'a
(51) oltin nishonli, al tamg'ali
(52) yorliq berildi. Tarix sakkiz yuzda,
(53) bars yili, sha'bon oyining oltinchi
(54) kunida Uzu suvining [ya'ni, Dnepr daryosining] yoqasida,
(55) Mujavaranda ekanligimizda bitildi.

TEMURIYLARDAN QOLGAN UYG'UR YOZUVLI BITIKLAR

Temuriylarning uyg'ur xatida bitilgan yorliqlari, rasmiy hujjatlari saqlanib qolgan. Xususan, Temurbek yorliqlari, qo'shni ellarning egalariga yo'llagan maktublarini uyg'ur xatida va turkiy tilda yozdirganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Shuningdek, temuriylarning uyg'ur xatida bitilgan shajaralaridan ham saqlanib qolgan Temurbekning o'limidan so'ng Shohrux va Mirzo Ulug'bek, Abu Said Mirzo va uning o'g'li Umarshayx Mirzo ham o'z devonida, davlat ishlarida qadimgi turkiy alifboni keng qo'llaganlar. Bu yozuvni Zahiriddin Muhammad Bobur ham yaxshi bilgan.

Temuriy xonlarning yurtga egaligi chog'ida uyg'ur xatida yozdirgan yorliq va maktublaridan bir qanchasi saqlangan (*nashriga qaralsin:* Sodiqov, Omonov, 2010, 43 – 64).

AMIR TEMURNING TOSHGA YOZDIRGAN BITIGI

Amir Temurning yetti yuz to'qson uchinchi yil ko'klami (=1391-yilning apreli)da To'xtamishxonga qarshi yurish boshlagan chog'da eski o'zbek tilida («Chig'atoy turkiysi»da) yozdirgan bitigini misol keltiramiz. Sultonning nomidan yozilgan bitik o'n bir satrli bo'lib, ilk uch qatori arabcha, keyingi sakkiz satri uyg'ur xati bilan turkiy tilda bitilgan.

Arabcha xatning birinchi qatori basmala, keyingi ikki satri oyat. Uyg'ur harfli turkiy matn, nisbatan, yaxshi saqlangan (*qarang:* Sodiqov, 2009, 70 – 71).

Eski o'zbek tilidagi ushbu matn hozirgi tilimizdan bir oz farqli. Matndagi *yaz* so'zi «ko'klam, bahor» degan ma'noni beradi. Bu so'z hozirgi bolalar qo'shig'idagi «Laylak keldi yoz bo'ldi» jumlasida ham saqlanib qolgan. Matnda yana *el kiši* birikmasi ham bor. Bu o'rinda *el* – «yurt, mamlakat», *el kiši* esa ruschadagi «grajdanin» degan tushunchani beradi. Bitikdagi *töbä* so'zi «yodgorlik, bitiktosh» anglamidadir. Bitikning e'tiborni tortadigan yana bir xususiyati, undagi tarix (sana) asl turkiy qolipda: avval yil (hijriy va muchal tartibida), so'ng oy, kun ketma-ketligidadir.

@tarixim_kutubxonasiga

Amir Temur bitigida *Temür-beg* deb tilga olingan. Bu ismdagi *beg* uning darajasidir. U «amir»ga to'g'ri keladi.

E'tibor bersangiz, bitikda Temurbek o'z saltanatini *Turan* deb atamoqda. Temurbek mamlakati aslida shunday atalgan. Matnda hukmdor o'zini *Turanniŋ sultānï*, otini esa *Temür-beg* degan: *Turanniŋ sultānï Temür-beg*. Sultonning oti turkiy tildagi boshqa hujjatlarda ham shunday. Masalan, Sulton Abu Saidning uyg'ur yozuvli vasiqasida u *Sāhibqirān Temür-beg, Beg, Sāhibqirān Beg, Temür-beg* deb beriladi. Yanada muhimi, bitikning arab xatida emas, balki qadimgi uyg'ur yozuvi va turkiy tilda ekanligidir. Bu ham bo'lsa, Temurbek o'zining tarixiy yozmalari, yilnomalari, rasmiy yorliqlaridan bir qismini uyg'ur xatida bitirganidan dalolat beradi. Temuriylar tarixini bitgan muarrixlar o'z asarlarini yozishda uyg'ur yozuvida bitilgan ana shunday yilnoma, tarixiy hujjatlardan foydalanganlarini ham qayd etib o'tganlar.

Bitikning o'qilishi:

Tarix yeti yüz toqsan üčtä, qoy yïl yazniŋ ara ay Turanniŋ sultānï Temürbeg üč yüz miŋ čerig bilä islām üčün Toxtamïš xanï (?) xanïğa yorïdï. Bu yergä yetip belgü bolsun tep bu tobanï qopardï. Teŋri nisfat bergäy inšalla. Teŋri el kišigä rahmat qïlğay, bizni duā bilä yād qïlğay.

Mazmuni

«Tarix yetti yuz to'qson uchda, qo'y yil, ko'klamning ora oy(ida) Turonning sultoni Temurbek uch yuz ming qo'shin bilan islom uchun To'xtamish xon(ning) xonligiga yurdi. Bu yerga yetib, belgi bo'lsin deb ushbu bitiktoshni yozdirdi. Tangri (bizga) nisfat [ya'ni to'g'rilik, insof] bergay inshoollo. Tangri fuqaroga rahm qilg'ay, (el) bizni duo bilan yod qilg'ay».

SHOHRUX MIRZONING UYG'UR YOZUVLI YORLIG'I

Shohrux Mirzoning yurtga egaligi chog'ida turkiy tilda yozdirgan yorliqlaridan bittagina qolgan. Yorliq turkiy-uyg'ur xatida. U Afg'onistondagi Maymana degan joydan topilganida, yaxshiki, professor E. Benvenist suratga tushirib qo'ygan ekan. O'sha bo'lib, hujjatning o'zi kimning qo'lida qolgani noma'lum. Surati bo'yicha J. Deni uning transkripsiyasi va tarjimasini ham bergan (Deny, 1957).

Quyida yorliqning J. Deni maqolasida keltirilgan surati asosida matn transkripsiyasini keltiramiz:

@tarixchi_kutubxonasiga

Matn

(1) **Šāhruh Bahadur sözüm**
(2) **devānlarğa**. Cečäktöbädä Tarnaq arïğï-
(3) da Talxan atanïŋ mujāvurigä bir
(4) qošluq altmïš kivi yer suyurğal berildi. Luy yïldïn bašlap
(5) ne kim hāsilïnï Ut böri xanaqāğa xarj qïlsun. Kim ersä
(6) mal tilämäsün, yasağ alpağ salmasun, küč uğa tegürmäsün, tep
(7) beg niš(ā)n bermiš erdük. Burunğï niš(ā)n yosunï bilä ud yïldïn
(8) bašlap Ut böri, altmïš kivi yerni suyurğal yosunï
(9) birlä alïp (?) xanaqāğa xarj qïlsun-kim, kim ersä
(10) mal tilämäsün, yasağ alpağ salmasun, küč uğa tegürmäsün. Basa
(11) İsmāyil mujāvurniŋ ewi barïnï tartïp tonup almasun,
(12) tep niš(ā)n berildi. Tarix sekiz yüz y(i)g(i)rmi bešidä ud yïl muharram
(13) ayniŋ y(i)g(i)rmi ikisidä Bağï šaharda bitildi.

Yorliqning hozirgi o'zbekcha o'girmasi

(1) **Shohrux Bahodir so'zim**
(2) **devonlarga**! Chechakto'bada, Tarnaq arig'i-
(3) da Talxan ota (mozori)ning mujovuriga bir
(4) qo'shluq oltmish kivi yer suyurg'al berildi. Luy (ajdar) yildan boshlab
(5) nainkim hosilini (qaytarmaslik sharti bilan) Ut bo'ri xonaqoga xarj qilsin. Kimsa
(6) (undan) mol tilamasin, soliq solmasin, zo'ravonlik qilmasin, deb
(7) beg-nishon bermish erdik. Burungi nishonning yo'sini bilan sigir yildan
(8) boshlab (qaytarmaslik sharti bilan) Ut bo'ri (?), oltmish kivi yerni suyurg'al yo'sini
(9) birla olib xonaqoga xarj qilsin-kim, kimsa
(10) (undan) mol tilamasin, soliq solmasin, zo'ravonlik qilmasin. Yana
(11) Ismoil mujovirning uy-joyini, mol-mulkini tortib olmasin,
(12) deb nishon berildi. Tarix: sakkiz yuz yigirma beshida, sigir yili, muharram
(13) oyining yigirma ikkisida (1422-yilning 16-yanvarida) Bog'i shaharda bitildi.

@tarixchi_kutubxonasiga

SULTON UMARSHAYX YORLIG'I

Temuriylar davlati, jamiyat va davlat boshqaruvi, xalqaro diplomatik munosabatlar tarixini o'zida aks ettirgan hujjatlardan biri Sulton Abu Saidning o'g'li Sulton Umarshayxning (1451 – 1494) 1469-yili Marg'ilon ulamolaridan bo'lmish Mir Sayid Ahmadga bergan yorlig'idir (Melioranskiy, 1906, 01 – 012, jadval I).

Quyida P. Melioranskiy keltirgan faksimili asosida (Melioranskiy, 1906, jadval I) yorliqning transkripsiyasini keltiramiz:

Matn transkripsiyasi

(1) Sultān Umar šayx Bahadur sözüm.

(2) Divānlarğa, barča (3) M(a)rğin(a)n určïnnïŋ (4) tüšämäl amaldār, sāhib čamlarïğa!

M(a)rğïn(a)n büzrüglärïdin Mir Sayid Ahmadğa (5) M(a)rğïn(a)n qasabasïdïn burun bir milk bağï bilä iki qošluq ekininiŋ har ne (6) divānğa čïqar har türlüg mālïnï suyurğal berilip erdi. Emdi uy yïlïda (7) riāyat qïlïp qasabadïn otuz altun tawačï tartusïnï dağï suyurğal (8) berildi. Emdi bu tarixqa berilgänni uy yïl, šavval ayïniŋ yigirmi yetisidin (9) bašlap burunğï suyurğalïnï dağï berilgän nišānï yosunï bilä musallam tutup, (10) yïlğa yaŋgï niš(ā)n tilämäyin, bu niš(ā)n bilä yïl sayu heč türlüg saltïq (11) salmayïn daftarlarğa surusun. Özi alïp yesün. Heč kiši māl, (12) tartu (?) tilämäsün, küč uğa tegürmäsün, tep muhurluğ ni(šā)n uy yïl, (13) šavval ayïniŋ yigirmi sekizi Andigändä bitildi.

Matnning mazmuni

(1) Sulton Umarshayx Bahodir so'zim.

(2) Devonxonalarga, barcha (3) Marg'inan yurtining (4) tushum yig'uvchilari, soliq idoralarining boshliqlariga!

Marg'inan buzurglaridan Mir Sayid Ahmadga (5) Marg'inan qasabasidan ilgari bir milk bog' bilan ikki qo'shliq ekinning har ne (6) devonga chiqar har turli molini [ya'ni, xazinaga to'lanuvchi daromadni] suyurg'al qilib berilgan edi. Endi sigir yilida (7) (bunga) rioyat qilib, qasabadan o'ttiz oltin tavachi tartusini [ya'ni don-dun, uy hayvonlari va savdodan olinadigan daromadni?] yana suyurg'al (8) qilib berildi. Endi bu sanada berilganni sigir yili shavval oyining yigirma yettisidan (9) boshlab avvalgi suyurg'alni yana berilgan nishoni yo'suni bilan musallam tutib, (10) har yili yangi nishon talab qilmay, bu nishon bilan yil bo'yi har turli soliq (11) solmay, daftarlarga qayd etilsin. (Daromadlaridan) o'zi foydalansin. Hech kishi (undan) mol, (12) don-dun talab qilmasin. Unga zo'ravonlik qilmasin, deb bu muhrli ni-

@tarixchi_kutubxonasiga

shon sigir yili, (13) shavval oyining yigirma sakkizida (1469-yilning 11-mayida) Andiganda bitildi.

SULTON ABU SAID BITIGI

Temuriylar davri hujjatchiligi, yozma adabiy til rasmiy uslublari tarixini o'rganishda Sulton Abu Saidning (1451 – 1468) turk sultoni Hasan begga (=Uzun Hasanga) yo'llagan bitigi ayricha o'rin tutadi. Bitik Istanbuldagi To'pqopi saroyi muzeyida E 12307-raqam ostida saqlanmoqda. Eski o'zbek tili («chig'atoy turkiysi»)dagi 76 qatorli ushbu bitik uyg'ur xatida yozilgan bo'lib, o'qilishi tagma-tag arab harflari bilan yozib chiqilgan (Kurat, 1940, 119 – 134, 196 – 200).

Maktub sichqon yili (hijriy 873-yil) rabi ul-avval oyining yigirma ikkisida Ozarbayjonning Miyona shahrida bitilgan (*Sïčqan yïlï rabi'ul-avval ayïnïŋ yigirmi ikisidä Miyänada erkändä bitildi*). Bu sana milodiy 1468-yilning 10-oktabriga to'g'ri keladi.

Bitikning matni

(1) **Sultän Abu Sa'id körägän sözüm.**
(2) Hasan beggä salām tegäč, söz ul-kim,
(3) **Teŋri** 'ināyatï bulup Sāhib qirān
(4) **Temür beg** tamām mamālikni musahhar qïlïp yürügändä Uluğ
(5) ataŋ 'Usmān beg čïn körŋli bilä
(6) **Beg** davlatïğa panāh keltürüp ihlāsïnï bildürgän üčün
(7) **Beg** dağï 'ināyatlar qïlïp barča ulusdïn artuqsï körüp
(8) Diyārbakir vilāyatïnï bildürüp xāsa oğul ušaqï-
(9) nïŋ tïnčliqï üčün Hamid teg yerni dağï
(10) suyurğap yurt bergän durur. 'Usmān beg dağï
(11) **Begniŋ** ul 'ināyat šafqatïnï unutmayïn
(12) **Begdin** soŋra oğlanlarïğa čïn ihlāsï bilä küč berip, burun
(13) **Beg** čaqïnda da qïlγan xidmatlarïnï hargiz özgä qïlmadï. **Teŋri** 'ināyat
(14) qïlïp Sāhib qirān
(15) **Beg** atamnïŋ taxtïnï
(16) meŋä rozi qïldï ersä, sen dayï ataŋ yurtïnï
(17) bilip el-ulusuŋnï bašlayandïn beri
(18) yaxšïlïγïŋ čïn etiqādïŋnï bildürüp
(19) erdiŋ. **Teŋri** 'ināyatï bilä eränlär himmatïdïn bu očurlarda burunγï kečkän
(20) ata-aγalarïŋdïn artuqsï, könül tilägän-deg, šāyasta xidmat-

@tarixchi_kutubxonasiga

(21) lar qïldïŋ. İni-oγulluq, dostluq, qarïndašlïγïŋnï bildürdüŋ.
(22) Seniŋ bu xidmatlariŋdïn asru rāzi bolduq. Emdi sen dayï bilürsen-
(23) kim, ulus egäsi
(24) **Temür beg** tamām mamālikni zabt qïlïp üläškändä Tabriz
(25) taxtïnï
(26) meniŋ atam
(27) **Mirānšāh Mirzāγa** bergän durur. Seŋä dayï ma'lum durur-kim,
(28) ata yurtï öz yurt bolur. **Teŋri** 'ināyatïγa sïγïnïp
(29) bu fursatlarda Adarbayjān vilāyatlarïnï zabt qïlïp,
(30) atam yurtïnï burunγï yosun bilä taxt qïlayïn tep kelä durur-
(31) men. Hasan 'Alïniŋ buzulγan xabarï örtüdin keldi. Bayāyat davlatγa
(32) munāsib iš bolmuš. Miyānaγa yetkändä iniŋ Murād
(33) bilä yaxšï sözläriŋ keldi. Seniŋ köŋlüŋdä andaq
(34) kečmäsün-kim, Tabrizda Jihānšāh turup erdi, meŋä bermädilär dep.
(35) Sen dayï bilürsen-kim, Jihānšāhγa bir vāsita bilän andaq tüšüp erdi.
(36) Arada bir ahd sözi dayï kečip erdi. Basa
(37) biz dayï Xurāsān vilāyatlarïγa yaŋla kelip erdük. Bir nečä
(38) vilāyatlarniŋ zabtïnï qïlmaq muhïm erdi. **Teŋri** 'ināyatï
(39) bilä eränlär himmatïdïn ul vilāyatlar musahhar bolup
(40) erdi-kim, Jihānšāh seniŋ üstüŋä yürüdi tep ešittük
(41) ersä, ul ahd arada qalmadï. Sen dayï ešitmiš bolγay-sen-kim,
(42) 'Ali beg degän joramnï bitiglär bitip Jihānšāhγa čapturdum-kim,
(43) seniŋ bilä ahd qïlγanda bir-birimiziŋ dostïγa dost, dušmanïγa
(44) dušman bolalï tep söz kečip erdi. Emdi
(45) biziŋ Hasan begdin yaxšïraq dostumïz yoq turur. Yüz yïldïn
(46) beri özgä bolmayan ahd seniŋ üstüŋdä boldï.
(47) Men dayï **Teŋri** 'ināyatïγa sïγïnïp seniŋ üstüŋä yürüdüm tep
(48) bildürä yibärip erdim. Yibärgän elči Tabrizγa yetkändä
(49) Jihānšāhniŋ išini bir sarï qïlγan ermiš-sen. **Teŋri** 'ināyatï bilä
(50) Tabrizγa kelgänimdä sen dayï yïraqsïnmayïn kelip körür yaraqïnï
(51) tapsaŋ, kelip körgil. **Teŋri** 'ināyatïdïn 'umidim ul durur-kim, Rum, Mïsïr,
(52) Šām bašlïq tamām mamālik fathïnï bāt
(53) bizgä rozi qïlγay esä, Allah taālā emdi bilä bolγan-
(54) dïn soŋ 'umid ul-kim, barča iš köŋül tilägän-deg bolγay.
(55) Ul sarïqï vilāyatlarniŋ yaraq maslahatlarï-
(56) nï sen yaxšïraq bilürsen. Ägär
(57) men özüm barmaqlïq hājat bulmayïn oylanlarïmdïn basa
(58) beglärdin, čerigdin ne miqdār keräklik bolsa,
(59) yaraq körüp tiläsäŋ, ul čaqlïq kiši yibäräyin. Bu

@tarixchi kutubxonasiga

(60) čaqlïq inilik, qarïndašlïq, xidmatkārlïqnï sen qïldïŋ.
(61) **Teŋri** 'ināyatï bilä eränlär himmatïdïn Mïsïr, Rum, Šām-teg yerlärni
(62) alïp bermäkni
(63) men bilāyin. Sendin **Teŋri** 'ināyatï bilän 'umidim ul durur-kim,
(64) mundïn soŋra dayï ini-oγulluq xidmat-
(65) kārlïqnï artturγay-sen. Hargiz özgä bolmaγay-
(66) sen. Ne oγul bolγay-kim, bu kečär dunyāda burunγï yaxšï-
(67) larï yüz yïldïn beri qïlγan dostluq, qarïndašlïq-
(68) nï özgä qïlγay.
(69) **Temür beg** ataŋ 'Usmān beggä Diyārbakir vilāyatïnï
(70) bergän bolsa, 'umidim ul durur-kim,
(71) men seŋä **Teŋri** 'ināyatï birlä Mïsïr, Rum vilāyatlarïnï
(72) alïp bergāy-
(73) men. Kečär dunyāda qiyāmatγa degінč bu yaxšï at arada
(74) qalγay. Seniŋ esānligiŋni körä Mahmud beg-
(75) ni yibärildi. Sïčqan yïlï rabi'ul-avval ayïnïŋ yigirmi
(76) ikisidä Miyānada erkändä bitildi.

Bitigning mazmuni

(1) **Sulton Abu Said ko'ragan so'zim.**

(2) Hasan begga salom degach, so'z ul-kim, (3) **Tangri**dan inoyat yetib Sohibqiron (4) **Temur beg** tamom mamlakatlarni musaxxar qilib [egallab] yurganda ulug' (5) otang [ya'ni, bobong] Usmon beg chin ko'ngil bilan (6) Beg davlatiga panoh keltirib [ya'ni, beg davlatining tinchligi uchun kurashib], o'z ixlosini bildirgani uchun (7) **Beg** ham inoyatlar qilib, (uni) barcha ulusdan ortiq darajada ko'rib, (8) Diyorbakir viloyatini berdi. Barcha bola-chaqasi(9)ning tinchligi uchun Hamid tag yerni ham (10) suyurg'al qilib, yurt qilib bergan edi. Usmon beg ham (11) **Beg**ning ul inoyat shafqatini unutmayin (12) **Beg**dan so'ngra (uning) o'g'lonlariga chin ixlosi bilan xizmat qilib, burun (13) **Beg** chog'ida-da qilgan xizmatlarini hargiz o'zga qilmadi.

Tangri inoyat (14) qilib, Sohibqiron (15) **Beg** otamning taxtini (16) menga nasib qildi ersa, sen ham otang yurtini (17) bilib, el-ulusingni boshlagandan beri (18) yaxshilig'ing, chin e'tiqodingni bildirib (19) erding. **Tangri** inoyati bilan mardlar himmatidan bu chog'larda burungi kechgan (20) ota-og'alaringdan ortiq, ko'ngil tilagandek, shoyasta xizmat(21)lar qilding. Ini-o'g'illik, do'stlik, qarindoshlig'ingni bildirding.

@tarixchi_kutubxonasiga

(22) Sening bu xizmatlaringdan benihoya rozi bo'ldik. Endi sen yana bilursen-(23)kim, ulus egasi (24) **Temur beg** tamom mamlakatlarni zabt qilib, (ularni o'z yaqinlariga) ulashganda Tabriz (25) taxtini (26) mening otam (27) **Mironshoh Mirzoga** bergan edi. Senga-da ma'lum turur-kim, (28) ota yurti o'z yurting bo'lur. **Tangri** inoyatiga sig'inib (29) bu fursatlarda Azarbayjon viloyatlarini zabt qilib, (30) otam yurtini burungi yo'sun [ya'ni, Temurbek zamonidagi qonun] bilan boshqarayin deb kelyapman (31). Hasan Alining buzuq xabari chappasidan keldi. Davlat uchun bag'oyat (32) munosib (bir) ish bo'ldi. Miyonaga yetganda ining Murod (33) bilan yaxshi so'zlaring keldi. Sening ko'nglingda andoq (34) kechmasin-kim, Tabrizda Jahonshoh turur erdi, menga bermadilar, deb. (35) Sen yana bilursen-kim, Jahonshohga bir vosita bilan andoq tushib erdi [ya'ni, bir sabab bilan berilgan edi]. (36) Orada bir ahd so'zi ham kechib erdi. So'ng (37) biz ham Xuroson viloyatlariga qaytib kelib erdik. Bir necha (38) viloyatlarning zabtini qilmoq muhim erdi. **Tangri** inoyati (39) bilan, mardlar himmatidan ul viloyatlar musahhar bo'lib (40) erdi-kim, Jahonshoh sening ustingga yuridi, deb eshitganimizda (41) ul ahd orada qolmadi. Sen ham eshitgan bo'lsang kerak-kim, (42) Ali beg degan jo'ramni bitiglar bitib Jahonshohga choptirdim-kim, (43) sening bilan ahd qilganda bir-birimizning do'stiga do'st, dushmaniga (44) dushman bo'laylik deb, so'z kechib erdi. Endi (45) bizning Hasan begdan yaxshiroq do'stimiz yo'q turur. Yuz yildan (46) beri o'zga (bilan) bo'lmagan ahd sening ustingda bo'ldi. (47) Men ham **Tangri** inoyatiga sig'inib, sening ustingga yuridim deb (48) bildirgulik yuborib edim. Yuborgan elchi Tabrizga yetganda (49) Jahonshohning ishini bir yoqli qilgan emishsan.

Tangri inoyati bilan (50) Tabrizga kelganimda sen ham yiroqsinmay, kelib ko'rishning yarog'ini [ya'ni, ilojini] (51) topsang, kelib ko'rgin. **Tangri** inoyatidin umidim ul turur-kim, Rum, Misr, (52) Shom boshli butun mamlakatlar fathini bot (53) bizga nasib qilsa, Alloh taolo shunga yetishtirgandan (54) so'ng, umidim ul-kim, barcha ish ko'ngil tilagandek bo'lg'ay. (55) U yoqlardagi viloyatlarning harbiy qudratini (56) sen yaxshiroq bilursen. Agar (57) men o'zim bormoqqa hojat topmay, o'g'lonlarimdan, so'ngra (58) beklardan, cherigdan ne miqdor kerakli bo'lsa, (59) (cherigning) harbiy ahvolini qarab chiqib, yana tilasang, ul choqli kishi yuborayin. Bunga (60) teng keladigan [ya'ni, bunga arzirli] inilik, qarindoshlik, xizmatkorlikni sen qilding.

(61) **Tangri** inoyati bilan, mardlar himmatidan Misr, Rum, Shomdek yerlarni (62) olib bermakni (63) men bilayin [ya'ni, men shuni bilay; o'z

@tarixchi_kutubxonasiga

ustimga olay]. Sendan **Tangri** inoyati bilan umidim ul turur-kim, (64) bundan so'ng ham ini-o'g'illik, xizmat(65)korlikni orttirg'aysen. Hargiz o'zga bo'lmag'ay(66)sen. Bu qanday o'g'il-kim, bu kechar dunyoda burungi yaxshi(67)lari yuz yildan beri qilgan do'stlik, qarindoshlik(68)ni o'zga qilsa?!

(69) **Temur beg** otang Usmon begga Diyorbakir viloyatini (70) bergan bo'lsa, umidim ul turur-kim, (71) men senga **Tangri** inoyati birla Misr, Rum viloyatlarini (72) olib bergay(73)men. Kechar dunyoda qiyomatga qadar bu yaxshi ot orada (74) qolg'ay.

Sening esonligingni ko'rish uchun Mahmud beg(75)ni yuborildi.

Sichqon yili, Rabi ul-avval oyining yigirma (76) ikkisida Miyonada ekanligimizda bitildi.

QOYAGA BITILGAN UYG'UR YOZUVIDAGI BITIG

Tashrif bitiglari ko'pincha muqaddas qadamjolarga bitilgan. Bitigda ziyoratchining oti, ziyorat tarixi aniq ko'rsatiladi. Bunga Qirg'izistonning janubida Aqbeyit yaqinidagi Ungir degan joydagi qoyatoshga uyg'ur xatida yozilgan bitigni misol keltirishimiz mumkin (Sodiqov, 1997, 91).

Bitigning o'qilishi

Yïl tört yüz altmïš altïda men, Qumar Arämük munï bitidim. Yïl bars yïlï erdi, beši(n)č ay on erdi. Tušambat (?) kün erdi. Qutluγ bolsun, inša(a)la.

Mazmuni

«Yil to'rt yuz oltmish oltida (milodiy 1061–1062) men, Qumar Aramuk buni bitdim. Yil bars yili edi. Beshinchi oy(ning) o'n(inchi kuni) edi. Tushambat (?) kun edi. Qutlug' bo'lsin, inshoollo».

SURYONIY YOZUVIDAGI ASARLAR

Turk-nasroniylarning qabrtoshlaridagi yozuvlar

O'rta Osiyo xalqlari ma'naviyati tarixida nasroniylikning ham izi bor. Bu din o'rta asrlarda sug'dlar orasida ham, turklar orasida ham amal qilgan. Muhimi, uning ta'sirida ayni muhitda yaratilgan yozma yodgorliklardan bizgacha yetib keldi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Nasroniy turklardan qolgan meros ichida qabr yozuvlarining tarixiy ahamiyati katta. Mazkur qabrtoshlar XIII–XIV yuzyillarga tegishli bo'lib, ular Yettisuvning turli o'lkalaridan – Issiqko'lning g'arbidan, bir paytlar chig'atoy xonlarining qarorgohi bo'lgan qadimgi Olmaliq shahrining xarobalaridan chiqqan. Shuningdek, nasroniy bitigtoshlari Qashqar, To'qmoq atroflaridan ham topilgan. Ushbu manbalar bu davrlarda ayni hududlarda nasroniylikning ta'siri katta bo'lganidan dalolat beradi.

Bitiglarning tili turkiy. Shuningdek, Yettisuv yodgorliklarining suryoniy tilida yaratilganlari ham bor.

Turk-nasroniylar uyg'ur va suryoniy alifbosidan foydalangan bo'lsalarda, qabr yozuvlari uchun, asosan, suryoniy xatini qo'lladilar. Ularning Yettisuvdan topilgan yodnomalari ham suryoniy xatida. Yodgorliklar uchun yuzi yapaloq tosh tanlangan. O'rtaga xoch tasviri tushirilib, girdiga suryoniy xatidagi turkiy matn o'yib yozilgan.

Matnning muhim belgilaridan biri ularda sana salavk erasidan boshlanadi[1]. Bitiglarda, shuningdek, turkcha yil hisobi ham qayd etiladi. Qabr egalarining ism-shariflari turkiy va nasroniycha. Bundan anglashiladiki, mazkur muhitda turkcha ismlar bilan bir qatorda nasroniycha ismlar ham qo'yilgan.

Quyida turk-nasroniylarning xotirasiga o'rnatilgan bitiglardan keltiramiz. Matnlar uchun yodgorliklarning S.Y. Malov tomonidan amalga oshirilgan nashri (Malov, 1959, 75–86) asosga olindi.

TAP TARIM YODGORLIGI
(1340/1341-yil)

Yodgorlik To'qmoqdagi eski qabristondan topilgan.

Matn

(1) Aleksandros qan saqïšï,
(2) miŋ altï yüz elig ekinč-
(3) da aruvtā mār(i) Yohannān mamedānā
(4) duxrānā aγ... kečäsi

[1] Bu era Salavk I Nikator nomi bilan bog'liq bo'lib, eramizdan burungi 311-yildan boshlanadi. Salavk Aleksandr Makedonskiyning sarkardasi edi. Salavk erasi yana Iskandar erasi deb ham nomlanadi. Turk-nasroniy bitiglarida u *Aleksandros qan saqïšï* (Aleksandr xonning sanog'i/sanasi/tarixi) deb nomlangan. Masalan, quyida matni keltirilayotgan Denxa Arim yodgorligi *salavk erasi (Aleksandros qan saqïšï)* bo'yicha 1624-yili bitilgan. Bu sana yangi hisobda 1313-yilga to'g'ri keladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

(5) taŋ bašïnda
(6) bu Tap-tärim
(7) Kuštanč alaimta
(8) undänä sï boldï.
(9) Türkčä yïl lu erür,
(10) yašïnïŋ sanï otuz sekiz bolur.
(11) Bu ertimlig yertünčüdin üzüt
(12) ertüri. Yad bolsun! Amin!

Mazmuni

(1) Aleksandr xon tarixi [ya'ni yil hisobi]
(2) ming olti yuz ellik ikkinchi (yil)-
(3) da avliyo Yoxannani xotirlash kuni
(4) ag'... kechasi
(5) tong boshida
(6) bu Tap Tarim
(7) Kushtanch qizini
(8) o'lim tutdi.
(9) Turkcha (hisobda) ajdar yili erur,
(10) yoshi o'ttiz sakkizdadir.
(11) Bu o'tkinchi dunyodan ruhlar olamiga rihlat
(12) qildi. Yod bo'lsin! Omin!

YUSHMED YODGORLIGI
(1330-yil)

Issiqko'lning janubiy sohili, Pokrovskiy qishlog'i yaqinidagi eski qabristondan topilgan.

Matn

(1) Makedonya-ik Filippos
(2) oγlï Aleksandros qan saqïšï
(3) yïl miŋ altï yüz qïrq ekinč
(4) yïlïnda, tešri xrāïnïŋ toquz otuz
(5) audai-yodtānïŋ päšinšdi (?) kün
(6) bu Yušmed alaimta Mešixānïŋ
(7) yärlïγïn bötürdi.
(8) Yämäyä aqïnïŋ (?) yïlï toŋuz erdi.
(9) Qoy yïlïnda üzüt arturdï.
(10) Yad bolsun! Amin!

@tarixchi_kutubxonasiga

Mazmuni

(1) Makedoniyalik Filipp
(2) o'g'li Aleksandr xon tarixi
(3) yil ming olti yuz qirq ikkinchi
(4) yilda ikkinchi tishrining yigirma to'qqizida[1]
(5) (haftaning) beshinchi – «cherkovga ziyorat» kuni
(6) bu yigit Yushmed Masihoning
(7) yorlig'ini ado etdi [ya'ni o'ldi].
(8) To'ng'iz – uning dunyoga kelgan yili (?) edi.
(9) Qo'y yilida ruhlar olamiga safar qildi.
(10) Yod bo'lsin! Omin!

DENXA ARIM YODGORLIGI
(1313-yil)

Qirg'izistondagi Pishpek yoki To'qmoqdan topilgan.

Matn

(1) Aleksandros qan
(2) saqïš(ï) miŋ altï
(3) yüz yegirmi tört
(4) erdi.
(5) Ut erdi.
(6) Bu qabra
(7) Denxa Arim
(8) Bamtanïŋ turur.
(9) Yat bolsun! Kelmiš
(10) yazïqïŋa pušu bolsun!

Mazmuni

(1) Aleksandr xon
(2) tarixi ming olti
(3) yuz yigirma to'rt(inchi yil)
(4) edi.
(5) (Turkcha hisobda) sigir (yili) edi.
(6) Bu qabr
(7) Denxa Arim
(8) Bamtanikidir.

[1] 1642-yilning ikkinchi tishri 29-kuni bizning hisobda 1330-yil 29-dekabrga to'g'ri keladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

(9) Yod bo'lsin! (Qabr tepasiga) kelgan
(10) (Yaratgandan marhumning) gunohlaridan o'tishni so'rasin.

MAYFRA YODGORLIGI

Qirg'izistondagi Pishpek yoki To'qmoqdan topilgan.

Matn

(1) Aleksandros
(2) qan saqïš(ï)
(3) miŋ altï
(4) yüz yigirmi
(5) beš erdi.
(6) Türkčä
(7) yïl bars
(8) erdi.
(9) Bu qabra
(10) Mayfrax maximata-
(11) nïŋ turur.

Mazmuni

(1) Aleksandr
(2) xon sanasi
(3) ming olti
(4) yuz yigirma
(5) beshinchi (yil) edi.
(6) Turkcha
(7) bars yili
(8) edi.
(9) Bu qabr
(10) soliha Mayfra-
(11) nikidir.

MANGUTASHTAY YODGORLIGI
(1312-yil)

Qirg'izistondagi Pishpek yoki To'qmoqdan topilgan.

Matn

(1) Aleksandros
(2) qan saqïš(ï) miŋ

@tarixchi_kutubxonasiga

(3) altï yüz
(4) yegirmi üč erdi.
(5) Türkča yïl
(6) sïčqan erdi.
(7) Bu qabra
(8) Mäŋü-taš-tay qobuzčï-
(9) nïŋ turur. Yat
(10) bolsun!

Mazmuni

(1) Aleksandr
(2) xon tarixi ming
(3) olti yuz
(4) yigirma uch (inchi yil) edi.
(5) Turkcha yil
(6) sichqon edi.
(7) Bu qabr
(8) Mangutashtay qo'buzchi-
(9) nikidir. Yod
(10) bo'lsin!

ELTASH YODGORLIGI
(1317-yil)

Matn

(1) Aleksandros
(2) qan saqïš(č)a miŋ
(3) altï yüz yigirmi
(4) sekiz erdi.
(5) Türkčä yïl yont
(6) erdi.
(7) Bu qabra
(8) El-taš qašanïŋ turur.
(9) Yat bolzun!

Mazmuni

(1) Aleksandr
(2) xon tarixi ming
(3) olti yuz yigirma

@tarixchi_kutubxonasiga

(4) sakkiz(inchi yil) edi.
(5) Turkcha yil ot
(6) edi.
(7) Bu qabr
(8) Eltash ruhoniynikidir.
(9) Yod bo'lsin!

SHADI BEG YODGORLIGI
(1323-yil)

Matn

(1) Saqïš miŋ altï yüz otuz tört
(2) erdi. Türkčä yïl toŋuz
(3) erdi. Qut-tegin-beg
(4) oğlï Šadï-beg
(5) yetmiš segiz ya-
(6) šïnta qïrïltï.
(7) Yat bolsun!

Mazmuni

(1) Tarix ming olti yuz o'ttiz to'rt(inchi yil)
(2) edi. Turkcha yil to'ng'iz
(3) edi. Qut-tigin-beg
(4) o'g'li Shadi-beg
(5) yetmish sakkiz
(6) yoshida o'ldi.
(7) Yod bo'lsin!

TAG' ARSLAN YODGORLIGI
(1337-yil)

Matn

(1) Aleksandros qan saqïš
(2) miŋ altï yüz qïrq sekiz erdi.
(3) Türkčä yïl ut erdi.
(4) Tağ-arslanniŋ erdi qabra.
(5) Bu yirtünčüdin ertip
(6) kečip bardï. Arïğ (?) baščïsï
(7) bolsun. Yat bolsun!
(8) Amin! Amin!

@tarixchi_kutubxonasiga

Mazmuni

(1) Aleksandr xon tarixi
(2) ming olti yuz qirq sakkiz(inchi yil) edi.
(3) Turkcha sigir yili edi.
(4) Bu qabr Tag' Arslannikidir.
(5) Bu dunyodan o'tib,
(6) kechib bordi. (U) pokizalar yetakchici
(7) bo'lsin! Yod bo'lsin!
(8) Omin! Omin!

YUNTUZBEG VA UNING YAQINLARIGA O'RNATILGAN YODGORLIK
(1337-yil)

Matn

(1) Aleksandros qan saqïš
(2) miŋ altï yüz qïrq sekiz
(3) erdi. Türkčä yïl ut.
(4) Tağï Qutluğ tümän begi Yuntuz-beg
(5) pütkičisi Mümrig qašanïŋ bu yir-
(6) tünčüdin kečip barmïš
(7) küni qutluğ alqïšlïğ
(8) mari Yuqanan Marya analarïn
(9) öz bu yirtünčidin ertip kečip
(10) barzï mäŋü šaqlarğa (?) arïğ...
(11) arïğ Yona atalar birlä qalsun. Amin! Amin!

Mazmuni

(1) Aleksandr xon tarixi
(2) ming olti yuz qirq sakkiz(inchi yil)
(3) edi. Turkcha sigir yili (edi).
(4) Qutlug' tumanning begi Yuntuzbeg,
(5) kotibi Mumrig ruhoniyning bu
(6) dunyodan kechib borgan
(7) kuni qutli, olqishli (bo'lsin).
(8) Ustozi Yuqanan (va) Marya onalarining
(9) bu dunyodan o'tib kechib
(10) mangu yorqin... borsin.
(11) Pokiza Yo'na otalari bilan qolsin. Omin! Omin!

@tarixchi_kutubxonasiga

ARMAN MANBALARI[1]

MO'G'UL ISTILOSI DAVRI

Kirakos Gandzakesining «Armaniston tarixi» asaridan lavhalar

30-bob. Tatarlar dunyoni iflos qilish uchun qanday qilib paydo bo'lganliklari haqida

Uzoq shimoli-sharqda joylashgan va ularning barbar tillarida Qoraqurum deb ataladigan yurtda, Xitoy[2] chegarasida, o'sha yerda yashaydigan noma'lum va son-sanoqsiz barbar qabilalar orasida tatar podshohlari ustida Chingizxon degan odam turardi.

Uning o'ladigan payti keldi. Lekin o'lmasidan oldinroq u o'z huzuriga butun askarlarini va uch o'g'lini chaqirdi va askarlariga qarab, dedi: «Mana endi men o'layapman. Biroq mening bu yerda hozir bo'lgan o'g'illarimdan birini o'z xohishingizga ko'ra mendan keyin podshoh etib tayinlang». Ular bunday javob berdilar: «Agar hozir sen o'zing kimni munosib deb topsang, o'sha bizning podshohimiz bo'ladi va biz unga sadoqat bilan xizmat qilamiz».

Shunda Chingizxon bunday dedi: «Men uchala o'g'illarimning huquqi va ishlari haqida aytaman. Katta o'g'lim, Chig'atoy[3], – jangovar yigit, lashkarni sevadi, biroq tabiatan u mag'rur va u unga tushgan ulushdan kattarog'iga munosib. Ikkinchi o'g'lim ham janglarda zafarpanoh, lekin tabiatan xasis. Kichik o'g'lim esa, bolaligidan iste'dodli, iltifotlarga boy, ochiq qo'ldir. U tug'ilgan kunidan boshlab mening shuhratim va qudratim kun sayin orta bordi. Mana men sizga barcha haqiqatni aytdim, lekin shu uchalasidan istaganingizga tobe bo'linglar».

Shunda tatarlar O'kday-qoon[4] deb atalgan eng kichik o'g'lining oldiga kelib, ta'zim qildilar, otasi uning boshiga tojni kiydirib, o'ldi.

U esa podshohlik mansabini olishi bilanoq son-sanoqsiz katta lashkar to'pladi, dengiz qumidan ko'p, o'zining mo'g'ul-tatar deb ataladigan qabilasidan, xazarlardan, xunnlardan, xitoylardan, kidanlar[5] va boshqa ko'p barbar qabilalardan; ular barchasi o'z mollari, uy-ro'zg'orlari, xotin, bola-chaqalari

---

[1] Arman manbalari haqidagi umumiy ma'lumot xrestomatiyaning uchinchi jildida berilgan.

[2] Matnda Gatay.

[3] Aslida Chingizning to'rt o'g'li bo'lib, ularning eng kattasi Jo'chi va ikkinchi o'g'li Chig'atoy edi. Lekin Jo'chi 1227-yil martida o'lgan, Chingizxon esa o'limidan oldingi vasiyatini o'sha yilning avgustida qilgan.

[4] O'kday-qoonning qarorgohi Ulug' yurtda, ya'ni Mo'g'ulistonda, Qoraqurumda bo'lgan.

[5] Bu yerda eslatilgan xunnlar va xazarlar mo'g'ul istilosidan ancha avvallar yo'q bo'lib ketgan edi. Faqat kidanlar (matnda ankitan), ya'ni qoraxitoylar o'z davlatlariga ega edilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

va o'tovlari, ovullari bilan keldilar. U ularni uch qismga bo'ldi[1]: birini janubga yubordi va ularga boshliq qilib o'zining eng ishongan va yaxshi bilgan odamini qo'ydi; ikkinchisini – g'arbga yubordi, ularga o'zining o'g'lini ham qo'shdi, bular shimolga ham boradigan bo'ldi; uchinchisini – shimoli-sharqqa yubordi, bularga boshliq qilib o'zining arboblaridan fikr-mulohazali, harbiy ishni yaxshi bilgan Charmag'an[2] ismli kishini tayinladi. U ularga butun olamni, barcha mamlakatlarni vayron qilishni va dunyoni bo'ysundirmaguncha orqalariga qaytmasliklarini buyurdi. O'zi esa o'z yurtida qolib, yeb-ichishdan, aysh-u ishrat va qurilishdan boshqa tashvishi bo'lmadi.

Uning qo'shinlari dunyoning har tarafiga yoyilib, o'lkalar, mamlakatlarni vayron qilar, saltanatlarni qulatar, mol-u mulklarni talar, yosh ayollar va bolalarni asirlikka va qullikka olar edilar; yoki u yerlardan boshqa uzoq joylarga – o'z yurtlariga, xoqonlarining oldiga yuborar, yoki o'z oldilarida xizmatlariga, xo'jalik ishlariga qoldirar edilar.

Charmag'an no'yan boshchiligidagi askarlar sharqqa, Xurosonda hukm surayotgan Jaloliddinga qarshi borib, uni u taraflardan askari bilan birga quvdilar. Biz aytganimizdek, u chekindi. Ular asta-sekin butun forslar mamlakatini, Ozarbayjonni, Daylamni tamomila vayron qildilar va u yerlarda hech narsa qoldirmay, top-toza va ship-shiydon qildilar[3].

JALOLIDDIN MANGUBERDI YURISHLARI

Kirakos Gandzakesining «Armaniston tarixi»[4] asaridan lavhalar

6-bob. Ag'vank katolikoslari kelgindilar tomonidan ta'qib qilinib, buyuk ishxanlar huzuriga ketganlari haqida

Xurosondan Jaloliddin[5] deb atalgan sulton keldi, gurji podshohligiga zarba berdi va Armaniston, Ag'vank va Gurjistonga kelgindilar qo'shinlarining bostirib kelganini bildirdi[6].

---

[1] Bunday bo'lishni Chingizxon 1219-yil oxirida O'trorni olganidan so'ng amalga oshirgan edi.

[2] Bu armanilashtirilgan Charmag'an ismida mo'g'ul lashkarboshilaridan yo Jaba-no'yon yoki Chjamuxa-no'yon ismi niqoblangan.

[3] *Kirakos Gandzakesi.* Armaniston tarixi, 152 – 153-betlar.

[4] O'sha paytdagi bir qism armanlar mo'g'ul-tatarlar orasida nasroniylik, qisman bo'lsada, tarqalganligini eshitib, ularni xaloskorlardek kutganlar va ular bilan ittifoq tuzishga intilganlar va Jaloliddin Xorazmshohga yordam qo'lini cho'zish o'rniga, qonxo'r mo'g'ul bosqinchilariga yordam berganlar. Jaloliddin Manguberdi buni darhol payqab, ularga nisbatan o'zining tegishli choralarini ko'rgan. Shuning uchun Jaloliddin haqida yozgan arman mualliflari unga nisbatan haqoratomuz iboralarni qo'llaganlar.

[5] *Xorazmshoh Jaloliddin Mankburni* (1220–1231) – o'n bir yil davomida mo'g'ullarga qarshi qahramonona kurashdi, Yaqin Sharqdagi musulmonlar va nasroniylarni mo'g'ullarga qarshi birlashtirishga urindi. Lekin uning bu urinishlari muvaffaqiyatli bo'lmadi va u fojiali halok bo'ldi.

[6] *Киракос Гандзакеци.* История Армении. Москва, 1976. – С. 127.

@tarixchi_kutubxonasiga

17-bob. Undan (Mxitar Ghoshdan) keyin monastir murabbiylari bo'lganlar haqida

...Besh xoranlik[1] yana bir cherkovni qurishga kirishdilar, ishlangan va taroshlangan toshdan, chiroyli gumbazi va hujralari bilan, lekin qurilish to'xtatildi va bu to'xtatilish uzoq davom etdi, chunki Jaloliddin ismli Xurosonning sultoni keldi, armani va gurjilarning askarlariga zarba berdi, ko'p gavarlarni vayron qildi[2].

18-bob. Sulton Jaloliddin va 674 (1225)-yili gurjilar lashkarining qirilishi haqida

(149-bet)...Yuqorida eslatilgan shimoli-sharqdan kelgan, tatar deb atalgan xalq Xorazm sultoni Jaloliddinni halokatga olib borayozdi, lashkarini yengib, mamlakatini vayron qildi. Uning o'zini Ag'vankga quvladilar: u Gandzak[3] shahriga kelib, uni zabt etdi.

19-bob. Sulton Jaloliddinning halokati

Jaloliddin Bznuni yurtidagi Xilat shahriga yo'l oldi. Xilat shahri sulton Ashrafning[4] qo'l ostida edi. Jaloliddin u bilan jang qilib, shaharni bosib oldi. U yerda sulton Ashrafning Tamta ismli xotini – Ivanening qizi ham bor edi[5].

...Sulton Jaloliddin esa Ag'vank o'lkasidagi Mug'on deb ataladigan serhosil va sermeva vodiyga qaytdi. Shunda uni o'z vatanini tashlab ketishga majbur qilgan tatarlar unga hujum qildilar. Amidgacha quvladilar va u yerda uning qo'shinlariga qaqshatqich zarba berdilar. O'sha hukmdor shu jangda o'ldirildi[6].

58-bob. Diyonatli arman podshohi Getum Botu va Mangu-qoon huzuriga borgani haqida

...U yerdan[7] ular (podshoh Getum I ning elchilari) Arlex, Kulluk, Epkax, Tchankalex, Xutapa va Ankipalexga[8] bordilar.

So'ngra ular Turkistonga keldilar, undan – Eko'prukka, Dinkapalexga va Po'latga va Sutko'l orqali Sut dengiziga o'tdilar, Alualex va Ilonbaliqqa keldilar; so'ngra Ilonsuv deb ataladigan daryodan kechib, Tavr tog'larining

---

[1] *Xoran* – ustun.

[2] O'sha asar, 148-bet.

[3] Ganja shahrining armancha nomi.

[4] Bu yerda Shimoliy Iroq va Janubi-Sharqiy Anatoliyaning Ayyubiylar sulolasidan bo'lgan hukmdori al-Malik al-Ashraf nazarda tutiladi.

[5] Jaloliddin Xilatni olganidan so'ng gurji podshohi Ivane Mxargrdzelining qizi va Sulton Ashrafning xotini Tamtani o'ziga nikohlab oladi.

[6] O'sha asar, 152-bet.

[7] Ya'ni, Qoraqurumdan.

[8] Bu yerda va quyida armanchalashtirilgan atamalarning asl shakli tiklanmadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

etaklaridan o'tib, Talosga yetib, Mangu-qoonning ukasi Huloguxonning huzuriga keldilar, Sharq mamlakatlari unga mulk qilib berilgan edi.

...U yerdan ular o'n uchinchi kuni Samarqandga yetdilar, so'ng Saripulga[1], Kermonga[2] va Buxoroga. Bundan so'ng ular buyuk Jayhun daryosidan o'tdilar va Marminga, Saraxaga, so'ng Tusga keldilar, bu Xurosonning Registon degan tarafida joylashgan.

Smbat Sparapetning «Solnoma» asaridan lavha

...Sulton Alouddinning[3] podshohligi davrida tatarlar Turkmanistonning yuqori taraflarida shaharlar va qal'alarni bosib olib, Xorazmga yaqinlashganliklari haqidagi xabarlar bizga yetib keldi. Ular Xorazm shohi Darbainni[4] yengdilar va chekintirdilar. U buyuk Jayhun[5] daryosidan o'tib, uning sohilida to'xtadi. Bu orada tatarlar Jayhun va Sayhun[6] daryolari oralig'idagi hamma yerlarni zabt etdilar, bu yerda buyuk poytaxt Samarqand va Buxoro, Kesh, Naxshab, Karmana[7] va boshqa ko'p shaharlar joylashganki, men ularning hammasini bu yerda yozma shaklda eslolmayman. Xorazmshohning o'zi daryo sohilida turib, Xurosonni va daryoning u tarafini qutqara olaman, deb o'ylagan edi. Biroq tatarlarning boshlig'i Chingizxon bir-biriga bog'langan qayiqlardan ko'prik qurib, Sayhundan o'tdi va buyuk shahar Samarqandni to'rt kun ichida oldi, lekin to'rt yil davomida ham uni buzolmadi, chunki turkchada Samarqand «boy shahar» ma'nosini anglatadi[8]. Haqiqatan ham u buyuk va boy edi. Mo'g'ullar boshqa ko'p shaharlarni ham oldi[9].

...Arman taqvimining 697 (1248)-yili men, Smbat Gundsabl,

Mo'g'ulistonga bordim va armanilarning 699 (1250)-yili akam – podshoh Getumning huzuriga qaytib keldim[10].

Getum Patmichning «Mo'g'ullar tarixi» asaridan lavhalar

23-*bob*. Tatarlarning to'rtinchi podshohi Mangu-qoon haqida

1253-yili arman podshohi Getum tatarlar hamma mamlakatlarni kuch bilan olib, turklar mamlakatigacha yetganlarini ko'rganidan keyin mulo-

[1] *Saripul* – Samarqand-Urgut yo'lidagi hozir shu nom bilan ataluvchi qishloq.

[2] Bu yerda Samarqand va Buxoro orasidagi Karmana nazarda tutiladi.

[3] *Xorazmshoh Alouddin Muhammad* (1200–1220).

[4] Mazkur Xorazmshoh nazarda tutiladi.

[5] Matnda *Jayhun*.

[6] Matnda *Gexon*.

[7] Oxirgi ikki shahar matnda Naxshub va Kerman deyilgan.

[8] Qoraxoniylar davrida, ya'ni XI–XII asrlar va XIII asr boshida Samarqand Semizkent ham deyilgan. Muallif «boy shahar» deganida ana shu ismni nazarda tutadi.

[9] *Smbat Sparapet*. Solnoma, 128–129-betlar.

[10] O'sha asar, 130-bet.

@tarixchi_kutubxonasiga

hazali kishilar bilan maslahatlashib, tatarlar hukmdorining oldiga o'zi borishga qaror qildi va uni o'z tarafiga og'dirmoqchi, u bilan ittifoq tuzmoqchi bo'ldi. Biroq u avval uning oldiga o'zining sodiq lashkarboshisi Smbat Gundsablni yuborishni va keyin o'zi qo'rqmasdan bamaylixotir borishni ma'qul topdi. Shuning uchun podshohning ukasi bu xayrli ishni bajarish uchun tatarlar hukmdorining qarorgohiga ketdi. U vataniga to'rt yildan so'ng qaytib keldi va ko'rgan, eshitganlari haqida so'zlab berdi. Keyin arman podshohi uni turklar yerlarida tanib qolmasliklari uchun safarga xufiyona ketdi[1] va Tangrining irodasi bilan turk sultoni tatar sarkardasi tomonidan yengildi. Sarkarda arman podshohini katta hurmat bilan qabul qildi va uni Temir darvozagacha[2] kuzatib qo'ydi. Bu yerdan boshqa sarkardalar uni Mangu-qoongacha kuzatib qo'ydilar, u esa podshohni do'stona qabul qildi. Bir necha kundan so'ng arman podshohi Mangu-qoonga murojaat etib, ittifoq bitimi tuzishni va boshqa xohishlarini taklif qildi. Tatarlar hukmdori uni tinglashga rozi bo'lganida arman podshohi bunday taklifni olg'a surdi. Birinchidan, u tatar hukmdoridan o'z xalqining hammasini nasroniylikka o'tkazishni so'radi. Ikkinchidan, sulh va do'stlik haqida bitim tuzishni, uchinchidan, mo'g'ullarning barcha yerlarida nasroniy haramlarni barpo qilishni va armanilarni soliqlardan ozod qilishni; to'rtinchidan, Muqaddas yerni turk mamluklaridan xalos qilishni; beshinchidan, Bag'dod xalifaligini qulatishni; oltinchidan, agar arman podshohi tatarlardan yordam so'rasa, unga yordam berishni; yettinchidan, Armanistonning turklar tomonidan bosib olingan qismlarini Getumga olib berishni so'radi.

O'z yaqinlari va no'yonlari bilan maslahatlashganidan so'ng tatarlar hukmdori bunday javob berdi: «Sening takliflaringni men qabul qilaman va mening fuqarolarimni kuch ishlatmasdan nasroniylikka o'tkazishga harakat qilaman. Ikkinchisi – mayli, oramizda sulh bo'lsin. Shuningdek, istardimki, barcha nasroniylarning diniy haramlari, ma'naviy va dunyoviy kishilari erkin bo'lsinlar va hech kim nasroniylarni kamsitmasin. Agar qo'limizdan kelsa, o'zimiz Muqaddas yerga boramiz, lekin biz boshqa ishlar bilan mashg'ul bo'lganimiz uchun buni ukamiz Hulogu qiladi va Muqaddas

[1] XIII asr o'rtasida mo'g'ul bosqinchilari o'z qonxo'rliklari bilan butun islom dunyosiga dahshat solib turgan bir paytda Kilikiya armanilarining podshohi mo'g'ul xoqonining huzuriga bitim tuzish uchun borishini Suriya, Misr va Rum turklari o'zlariga nisbatan sotqinlik deb qarashlari va unga nisbatan biror chora ko'rishlari mumkin edi. Shundan qo'rqqan Getum xoqon huzuriga xufyona ketgan.

[2] Sosoniy shohi Xusrav I Anushirvon (531–570) davrida Eronning hududlarini xazarlardan himoya qilish uchun Darband qal'asi qurilgan va uning shimoliy tarafida tog'dan dengiz ichigacha «sharq-g'arb» yo'nalishida ulkan tosh devor qurilgan. Bu devorga temirdan yasalgan va maxsus qo'riqlanadigan og'ir darvoza o'rnatilgan. U tarixga «Demir qopig'», ya'ni «Temir darvoza» nomi bilan kirgan. Muallif shuni nazarda tutadi.

@tarixchilarkutubxonasiga

yerni nasroniylarga olib beramiz. Bag'dod xalifaligini ag'darishni turklar yerlarida turgan tatar lashkarboshisi Payton va uning lashkariga topshiramiz. Tatarlar armanilarga har qanday yordamni beradilar va Armanistonning turklar bosib olgan viloyatlari armanilarga qaytarib berilishi kerak»[1].

Xachatur Jugayetsining «Eron tarixi» asaridan lavhalar

Birinchi qism

8-bob. Tatar-o'qotarlarning zararkunandalik va tiyiqsiz zulmlari haqida, ular zulmlari boshlanganidan to Amir Temur davrigacha

...Ularda (mo'g'ullarda) har xil tatar xalqlari bor, ularning yerini odatda Kichik Tatariya deyiladi. Osiyo Skifiyasi, Apaxtark, ya'ni Turk yeri, yuqorida aytganimdek, Etil, ya'ni Voma daryosidan sharqda joylashgan, Kaspiy dengiziga shimol tarafidan tutashib o'tadi[2] va to Emavon tog'igacha[3] va u yerdan to Chingacha yetadi va u mamlakat sarmatlar va ariylar oralig'ida joylashgan. Ular orasida barbar tatar urug'lari ko'p, ularning nomlari: sug'd-toharlar, eftalitlar va boshqalar; oddiy odamlar ularni o'zbeklar, qoraqalpoqlar, qalmiqlar, buxoroliklar va boshqalar deb ataydilar, va umuman, ularni – katta tatarlar deb ataydilar.

...Shunday qilib, Tangri taolo o'qotuvchi xalqni uyg'otdi, ularni mo'g'ullar deb atadi, chunki ular Sharqdagi tatar xalqidir; ular o'zlarining asl vatanlaridan chiqib, rahnamolari Chingizxon boshchiligida istilolarini boshladilar. Undan keyin hokimiyat uning o'g'li Aktaganga yoki Ogtakonga[4] o'tdi; u hokimiyatga voris sifatida keldi, forslar mamlakatini va butun dunyoni bosib oldi[5].

...Keyin mamlakatda hokimiyat Sainxonga[6] o'tdi, aytishlaricha, u nasroniylarni sevgan va ularga xayrxohlik bilan qaragan. Arman Sparapeti Smbat[7], kilikiyalik podshoh Getumning ukasi, uning huzuriga borganida,

---

[1] Mangu-qoonning keltirilgan so'zlaridan XIII asr o'rtalarida mo'g'ullarning musulmonlarga nisbatan ayovsizliklarida va Bag'dodning 1258-yili Huloguxon tomonidan o'ta qahrlilik bilan olinishida arman podshohi Getumning qo'li borligi seziladi. *Qarang*: Getum Patmich. Mo'g'ullar tarixi. Venetsiya, 42–44-betlar (qadimgi arman tilida).

[2] Bu yerda VII asr arman geografi Ananiya Shirakasining «Ashkarasuys» – geografik asaridagi Ptolemeydan olingan «Olam rub'i ma'muri»ning xaritasi tavsiflanayapti.

[3] *Ptolemeydagi Imay tog'i* – Himolay.

[4] Chingizxonning uchinchi o'g'li O'kday-qoon (1227–1241) nazarda tutiladi.

[5] *Xachatur Jugayetsi.* Eron tarixi, 79–80-betlar.

[6] Guyuk-qoon (1246–1249) nazarda tutilayotgan bo'lsa kerak, chunki arman podshohi Getum I ning ukasi Smbat shuning huzuriga borgan.

[7] Yuqorida eslatilgan Smbat Sparapet nazarda tutiladi.

@tarixnikutubxonasiga

u tantanali kutib olingan va katta iltifot bilan qabul qilingan. Bu (tinch munosabatlar) o'n ikki yil davom etdi. Undan (Sainxondan) keyin taxtni Mangu-qoon egalladi. U o'zining barcha urug'lari bilan bizning podshohimiz Getum I ning yordami tufayli nasroniylikka o'tdi va Muqaddas yerni ozod qilishda[1] nasroniylarning sodiq va tayanchli yordamchisi bo'ldi va umrining oxirigacha armanilarning homiysi bo'ldi[2].

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI

Tovma Metsopetsining «Amir Temur va uning vorislarining tarixi»[3] asaridan lavhalar

Bir kishi, Amir Temur nomli, dini va e'tiqodi bo'yicha Muhammadga mansub, ...sharqda, Samarqandda paydo bo'ldi. Ba'zilarning aytishi bo'yicha, u Nuh kemasi to'xtagan Masis tog'i yaqinidagi Artaz viloyatiga yondashgan Kogovit viloyatidagi Sartapdan kelib chiqqan[4].

Asta kuchayib borib, u Buxoro shahrini zabt etdi va Jayhun daryosidan o'tib, Xuroson mamlakatiga kirdi, xurosonliklar unga o'z mamlakatlarini topshirdilar.

Shunday qilib, Temurning askarlari butun Xuroson mamlakatini – Balx, Xuroson, Sheroz, Kermon, Isfahon, Nishopur, Kuron, Makuron, Tus, Zanjon, Damg'on, Mozandaron, Hirot, Qazvin shaharlarini oldilar va to Sultoniyagacha va Ozarbayjon Tabrizigacha yetdilar. Sultoniyaning hokimi, Odil ismli, Temurning huzuriga xazinalari va shohona tortiqlari bilan bordi va u bilan bitim tuzdi.

...Bizning 836 (1387)-yil Temur sakkiz yillik urushdan so'ng Xuroson mamlakatini zabt etdi, Tavriz shahriga, ya'ni Gandzak – shahastanga[5] keldi, undan yurib, Syunik tarafiga bordi, Yernjok qal'asini oldi, so'ng Chakata yurtiga[6] bordi, Mari (Surmala) shahrini oldi, sharofatli Bagratuni urug'i barpo qilgan bizning mudofaa inshootlarimizni tag-tugi bilan yo'q qildi[7].

---

[1] Quddusni Misr mamluklaridan ozod qilish haqida so'z ketayotir.

[2] Xachaturning eslatilgan asari, 81 – 82-betlar.

[3] *Tovma Metsopetsi* o'zining asarida ehtirosga haddan tashqari berilib, goh tarixiy shaxslarga, goh islomga nisbatan o'ta haqoratli iboralar va so'zlarni qo'llaydi. Bunday hollarda tarjima tahrir qilindi. Undan tashqari, muallif armanlar orasida tarqalgan turli afsonalarni ham o'z asariga kiritgan.

[4] Temurning Ararat tog'i yaqinidagi Sartap degan joydan kelib chiqqanligi haqidagi afsonaga joyning nomi sabab bo'lgan ko'rinadi. Mo'g'ullar Movarounnahrning o'troq turklariga nisbatan «sart» atamasini ishlatganliklari ma'lum. Armani muallif «sart» Temurni Sartapdan kelib chiqqan, deb o'ylagan bo'lishi mumkin.

[5] Muallif bu yerda Tabriz bilan Ganjani chalkashtirayapti.

[6] *Chakata yurti* –Turkiyaning shimoli-sharqidagi Igdir viloyati.

[7] Yuqorida eslatilgan asar, 56 – 57-betlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

...Ikkinchi yili Temur Mush shahriga keldi va mahalliy amirni o'z huzuriga chaqirdi. U esa katta tortiqlar va hadyalar bilan uning huzuriga keldi. Va Temur unga dedi: «Bizni turkmanlar oldiga olib bor». U uni o'sha jang bo'lgan joyga olib bordi va ko'p o'ldirilganlarni ko'rsatdi[1].

...844 (1395)-yili u yana o'z o'rnidan qo'zg'oldi va Bag'dod yo'lidan bordi. U Bag'dodni buzdi, butun Ossuriya mamlakatini, Mesopotamiyani, Diyorbakrni vayron qildi va Amidga[2] keldi[3].

...846 (1397)-yili Temur bizning yurtimizga Shayx Ahmad degan chig'atoyni yubordi. Bizning yurtimizga kelib, u bizning vardapetlarimizni: buyuk Sarkis Sorblikni va Metsop monastirining tarbiyachisi vardapet Ovannesni qidirdi. Yumshoq fe'lga ega va nasroniysevar bo'lib, u bizning yurtimizni tikladi va aholini turli yerlardan to'pladi.

...850 (1401)-yili o'sha qasoskor Temur Samarqanddan qo'zg'olib, bizning yurtimizga keldi. Shom mamlakatiga borib, Halabni va uning butun atroflarini vayron qildi[4].

...U yerdan (Sebastiyadan) Temur katta lashkar bilan xondkar Yildirimga, Murodbek o'g'liga qarshi chiqdi, u esa Temur lashkaridan to'rt barobar ortiq ulkan lashkar bilan unga qarshi chiqdi[5]. Lekin u buni aldadi, tunda uni aylanib o'tdi, uning yurtini ishg'ol qildi va qaytib kelib, u bilan jang qildi, uning o'zini va askarlarining ko'pini asir qildi. Ularni talab va sonsiz odamlarni asir qilib – osmondagi yulduzlardan ham, dengizdagi qumdan ham ko'pini asir qilib, Xurosonga 60000 ta yoki ko'proq tutqunni qora-tatarlar qabilasidan olib ketdi[6].

...Asirlarni (gurjilarni) olib, Temur Xurosonga ketdi va o'g'li Mironshohni Tabrizga Ozarbayjonni boshqarishga qo'ydi, u esa o'z o'g'li Umarga bu mulkni berdi, u nasroniylarni juda yomon ko'rardi[7].

...Temur ikkinchi marta o'z lashkarini yig'ib, xunnlar[8] mamlakatiga borib, ularning To'xtamish ismli podshohini yengdi va uning yurtini tamomila o'ziga bo'ysundirdi. U Idiku ismli bir kishini ularga podshoh qilib tayinladi va Saroy shahriga o'tkazdi va Temur quyosh chiqish tarafiga olti oy-

[1] O'sha asar, 61-bet.

[2] Muallif geografiyani bilmasligini yana namoyon qilayapti, chunki Diyorbakr (matnda – Tiarbakan) va Amid – bir shahar.

[3] O'sha asar, 63-bet.

[4] O'sha asar, 64 – 65-betlar.

[5] Ko'p o'rta asrlar mualliflari Sulton Boyazid Yildirimning lashkari Amur Temurnikidan ancha ortiqligini qayd qilgan.

[6] O'sha asar, 66-bet.

[7] O'sha asar, 67-bet.

[8] *Matnda* – Gon; o'rta asrlar va undan keyin ham mavjud etnik va geografik atamalarni qadimgi nomlar bilan atash – vizantiyalik va arman mualliflariga xos xususiyatdir.

@tarixchi_farrukxonasiga

lik yerlarni o'ziga bo'ysundirdi. Shundan so'ng u ikkinchi marta Sharqqa – Hindistonga bordi va Dehli[1] shahrini oldi, aytishlaricha, u o'sha yerda o'z askarlari bilan 40 kun davomida turgan, biroq shaharning oxirini u bilmaganicha qolgan. Shuningdek, u o'ziga Amazonalar, ya'ni ayollar mamlakatini bo'ysundirdi, Kashmirni[2] va Badaxshonni[3], hindlar mamlakatini va suvga sho'ng'ib, zumrad olinadigan dengizni ham zabt etdi[4].

Temurning o'g'li Mironshoh juda shafqatli va rahmdil edi, u buyuk vardapet Grigoriyni iltifotlar bilan qabul qildi.

Qora Yusuf Turkman Temur o'lganidan so'ng 857 (1408)-yili Damashq qamog'idan chiqib, kamgina qurolsiz va tinkasi qurigan askarlarni olib, yana bizning yurtimizga, avval Bagesh shahriga keldi[5].

...Qora Yusuf kuchayib, Tabrizga keldi, Temurning o'g'li Mironshoh Chig'atoy bilan urushdi. Tabrizni olib, 1408-yili Mironshohni o'ldirdi. Uning o'zini va askarlarini taladi va armanilar yurtining yuqori, shimoliy qismini bo'ysundirdi. Ikkinchi yili cheksiz askar to'plab, Mironshohning Abu Bakr ismli o'g'li keldi[6].

...Kelasi (866 (1417)) yili Amidning hokimi Usmon Yerznka[7] shahrini oldi va Pir Umar[8] og'ir og'rib, o'ldi. Keyingi yili Temurning o'g'li Shohrux, Xurosonning hokimi, cheksiz askar bilan unga qarshi chiqdi, Sultoniya va Tabrizga keldi. Ular bir-biriga qarama-qarshi turib, bugun yo ertaga urush boshlashga tayyor turganlarida, xudo Qora Yusuf Turkmandan u nasroniylarni shafqatsiz asir qilganligi uchun o'ch oldi, Qora Yusuf kasal bo'lib, tezda o'ldi[9].

Bu hodisa 870 (1421)-yili yuz berdi. Chig'atoy qo'lga kiritilgan o'ljalarni olib, o'zi kelgan tarafga, Xurosonga ketdi, Qora Yusufning o'g'illari mamlakatning janubiga qochdilar. Shohruxning askarlari ketganligini eshitgan Aspagan[10] darhol ko'p askar bilan Bagesh yo'li orqali Tabrizga keldi, lekin u yerda faqat bir necha kun turdi, chunki uning akasi Iskandar[11] Bag'dod yo'lidan kelib, Tabrizga kirdi. U (Iskandar) ukasini quvlab yuborib, butun mamlakatni bo'ysundirdi, podshohlikka o'tirib, mamlakatimizning barcha viloyatlarini boshqara boshladilar[12].

---

[1] *Matnda* – Dili.
[2] *Matnda* – Keshubar.
[3] *Matnda* – Balashxan.
[4] O'sha asar, 67–68-betlar.
[5] O'sha asar, 68-bet.
[6] O'sha asar, 69-bet.
[7] Arzinjon shahri.
[8] *Pir Umar* – Arzinjonning hokimi.
[9] *Qora Yusuf* 1420-yili Shohrux Mirzoga qarshi jangga ketayotib, to'satdan o'lgan.
[10] *Aspagan* – Qora Yusufning o'g'li.
[11] *Iskandar* – Qora Yusufning o'g'li.
[12] O'sha asar, 71–72-betlar.

@tarixni_kutubxonasiga

...O'sha 1425-yili ayovsiz va qonxo'r vahshiy Iskandar arman shahri Urmiya tarafiga yurdi va, butun mamlakatni vayron qilib, 700 tojikni[1] o'ldirib, boshlarini oldi. Shafqatsiz zolim, ko'p asir olib, bizning arman millatimizni qirdi, Buyuk Nerses bashorat qilganidek, Aramning urug'i o'qotuvchi xalq tomonidan qiriladi, deyilgan. 878 (1429)-yili u yana askar to'pladi va Sultoniya shahriga yurishga chiqdi.

...Bu (Sultoniya) shahrining hokimi Shohruxning – Midiya, Eron va Xurosonning sharqiy viloyatlarining podshohining, qaynegachisining o'g'li edi. Mana shu Shohrux osmondagi yulduzlardek ko'p lashkar va ulkan harbiy anjomlar bilan ahmoq, badjahl, qaysar va takabbur zolim Iskandarga qarshi yurishga chiqdi[2].

...Shunda chig'atoylar tarafidan zabardast va jasur bir bahodir ot choptirib, Iskandarning qarshisiga keldi va otda turib, unga qichqirdi: «Ey telba Iskandar, orqangga qayt, bir-birimizni ko'raylik, men sen bilan jang qilaman deb, Xurosondan keldim». Iskandar orqasiga qaytib, qo'liga qilichini olib, ungacha otdi va dedi: «Sen Xurosondan keldingmi? U holda men sening xohishingni bajaraman». Va unga qilich bilan zarba berib, bo'ynidan kuragining tagi orqali chopib, uni ikkiga bo'ldi. Buni ko'rib, sharq lashkarining hammasi vahimaga tushdi va ranjigan holda dedi: «Shunday buyuk va shubhasiz mardlik namoyish qilgan kishi bilan kim kuch sinasha oladi!» Shundan so'ng u bilan jang qilolmadilar va qo'rqqanlaricha orqasidan bordilar. U esa hech qo'rqmay o'z yo'lini davom ettirdi va Basen viloyatigacha yetdi[3].

Talab olingan o'ljalarni va bizning shaharlarimiz va qishloqlarimizdan olingan son-sanoqsiz bolalarimizni olib, ular Van mamlakatidagi Tosp viloyatiga keldilar; ularni Sevdiya ismli bir diyonatsiz kurd olib borardi. Butun viloyatni asir qilib, son-sanoqsiz nasroniy ayollar va bolalarni olib, hammasini Xurosonga olib ketdilar[4].

...Iskandar g'azablanib, o'g'li Yoralini huzuriga chaqirdi va uning qilgan qo'polliklari uchun tanbeh bermoqchi bo'ldi. Biroq u otasidan qo'rqib, bormadi va Shemaxaning hokimi, Xalilullaning, ya'ni Shoh Ibrohim[5] o'g'lining oldiga ketdi. U esa uni hibsga olib, Xurosonning hokimi Shohrux, Temurning o'g'li huzuriga yubordi, chunki u Iskandarni yomon ko'rardi. Iskandar Xalilulla uni yomon ko'rishini bilganidan so'ng askar to'plab, Shemaxa va

[1] Bu yerda forslar nazarda tutiladi.

[2] O'sha asar, 73-bet.

[3] O'sha asar, 75-bet.

[4] O'sha asar, 75 – 76-betlar.

[5] *Shoh (yoki Shayx) Ibrohim I ibn Muhammad Darbandiy* (1382–1417) – Shirvonshohlar to'rtinchi sulolasining (1382 – 1550) asoschisi. U Kavkaz janubidagi o'lkalar hokimlarining orasida birinchi bo'lib, Amir Temurga tobelik izhor qilgan va umrining oxirigacha Temuriylar xonadoniga sadoqatli qolgan. Uning o'g'li Xalilulla ham otasining yo'lini tutgan.

@tarixni_kutubxonasiga

uning viloyatiga yurish qildi. Iskandar 15 kun davomida bog'lardagi daraxtlarni ham kesdi, misli ko'rilmagan va tavsiflab bo'lmaydigan vayronagarchiliklar qildi. U Iskandar nomli bir hamfikrini topdi, razilikda u xuddi o'ziga o'xshar edi. Uni o'zi bilan birga olib, Darband darvozasidan ham o'tdi, ko'p mamlakatlarni vayron qildi, tog'liklar va cho'lliklardan ko'pini shafqatsizlarcha qilich bilan qirdi. O'sha yerda to'liq bir yil turib, u begunohlar qonini chunonam to'kdiki, ta'riflab bo'lmaydi. U yerdan qaytib, 360 donishmandning kallasini oldi va ularni yuk hayvonlariga ortib, qonlari oqqan va sasigan holda Syunik mamlakatiga olib keldi. Mahalliy nasroniylar, juda rahmdilliklari tufayli 30 ta asirni xufiyona o'tkazib yubordilar[1].

...Shemaxaning hokimi Xalil, o'zi bilan qozi va modariylarni (mudarrislarni?) olib, Shohruxning huzuriga Hirotga bordi. Ular boshlariga tuproq sochib va yoqalarini yirtib, yolvorib, Iskandar qilgan achchiq va alamli razilliklar haqida aytib berdilar. Shohrux qattiq hayajonlandi va g'azabi qo'zg'adi va o'z urug'ining barchasini oyoqqa turg'azdi. U Hirotdagi barcha ulamolarga – qarisiga ham, yoshiga ham murojaat qilib dedi: «Haqiqat va adolat yuzasidan mulohaza qiling: Qora Yusufning o'g'li bilan qanday ish tutamiz?»[2].

Iskandar qonxo'r kimsa edi, u ko'p yashamadi va mamlakat biroz osoyishta bo'ldi. Lekin u tirikligida butun mamlakat, Xurosondan boshlab, to Misrgacha g'alayon va bulg'anishda edi. Bu 886 (1437)-yili sodir bo'ldi[3].

Xachatur Jugayetsining «Eron tarixi» asaridan lavhalar

Birinchi qism.

8-bob.

...(Amir Temur) armanilarning 835-yili va milodning 1386-yili tarix sahnasida paydo bo'ldi[4]. Shungacha bizning tarixchilarimiz to Ahmadxonning zamonigacha uning nomini eslatmaydilar. Bu eng oxirgi tatar hokimi edi, Amir Temur o'sha yili uni o'ldirdi va Amir Temurning o'zi jahongir bo'ldi va yagona podshoh bo'ldi[5].

9-bob. Amir Temurning paydo bo'lgani va kelib chiqishi va uning kimligi yoki qaysi mamlakatda paydo bo'lgani haqida

Milodiy 1386 va Askazyanlarning 835-yilida sarkardalardan biri Amir Temur paydo bo'ldi. U Katta Armanistonning Kogovit viloyatidagi, Masis

[1] Eslatilgan asar, 77-bet.

[2] O'sha asar, 78-bet.

[3] O'sha asar, 80-bet

[4] Amir Temur «uch yillik» yurish asnosida 1386-yili birinchi marta Ozarbayjon va Armaniston hududlariga yetgan edi.

[5] *Xachatur Jugayetsi.* Eron tarixi, 85-bet.

@tarixchi_kutubxonasiga

tog'i yaqinidagi Sartapu degan joydan edi[1]. U Xurosonga ketdi, tatar shahri Samarqandga keldi va bu yerda bosqinchiliklar natijasida kuchaydi, shaharlarni bosib oldi. U o'zi bilan Samarqandga juda ko'p arman qo'lyozmalarini olib ketdi.

...Uning o'g'li Shohrux Xurosonda vorisi bo'ldi, buning akasi Mironshoh esa poytaxt Gandzakda, ya'ni Tabrizda, taxtga o'tirdi va shimoldagi hamda g'arbdagi o'lkalarni zabt etdi[2].

...Keyin armanilarning 870 (1421)-yili Shohrux ibn Temur, katta lashkar bilan Xurosondan yurish qilib, Qora Yusuf Turkmanga hujum qildi, uning qo'shinlarini beshafqat yanchib tashladi va jang paytida Yusuf to'satdan o'ldirildi[3].

...So'ngra Jahonshoh[4] Ray va Xurosonga yurdi, tatarlarning hamma yerlarini bosib oldi va o'z hukmiga bo'ysundirdi va o'sha tarafdan Tabrizga qaytib keldi. Va uzoq yillar hukm surib, o'ldi[5].

«Kichik vaqtnomalar»dan lavha

Vardan Bagishetsi vaqtnomasi (XVII asr)

...1387-yili Amir Temur Samarqanddan paydo bo'ldi va Ankuriyagacha[6] butun mamlakatlarni bosib oldi, Xondkar Iltrum Bayazetni temir qafasga qamadi va u o'sha yerda o'ldi[7].

«XV asr arman qo'lyozmalaridagi esdalik yozuvlari»dan lavha

Arakel Syunetsining «Odam haqida kitobi[8]». 1403-yil.

Ko'p mamlakatlarni bo'ysundirgan Temurning hukmronligi yillarida... 800 ming kishilik lashkarga ega edi. U dunyoni kuch bilan olib, hech qayerda qarshilikka uchramadi.

---

[1] «Eng zolim va qonxo'r vahshiy»ning Armanistonda zuhur topgani diqqatga sazovordir.

[2] Eslatilgan asar, 87–88-betlar.

[3] O'sha asar, 89-bet.

[4] *Jahonshoh* (1438–1467) – Qora Yusufning o'g'illaridan biri.

[5] O'sha asar, 93-bet.

[6] *Ankuriya* – Anqara.

[7] O'sha asar, II jild, 342-bet. Aslida Amir Temur sulton Boyazidga nisbatan shohona munosabatda bo'lgan, unga o'z taxtida o'tirishga va saroy mulozimlari xizmatida bo'lishiga imkon bergan.

[8] *«Odam haqida kitob»* – Odam Ato va Momo Havo haqida diniy doston, Injildagi hikoyalar asosida yozilgan.

@tarixni_kutubxonaga

Quddus Matenadaranidagi qo'lyozmalar to'plamidan tavha

...Armanilarning 835 (1386)-yili Amir Temur Tabriz va Naxchivanga yo'l oldi va u yerdan bir kunda Karbi va Bjni, Garni, Surmari va Koxbga ketdi[1]. Bu yerdan u Gurjistonga ketdi va Tbxis[2] shahrini oldi. Va turklar tarafdori – podshoh Bagratni asir qilib, qishlagani Mug'onga ketdi. Kelasi yili fasxada Syunikga keldi va uning lashkari mamlakat bo'ylab tarqalib ketdi. Turkman[3] Amta Jurga yo'l oldi. So'ngra u Vanga bordi va uni 25 kunda zabt etdi va 25-kuni, Surb Xach[4] bayrami paytida uni olib, qal'adagilarning va viloyatdagilarning barchasini – 7 ming kishini asir qilib, bu yerdan u Samarqandga ketdi...

1403-yili sharqdan afg'onlar paydo bo'ldilar va Baxaxa nomli shahar barpo qildilar[5] va farishtalar bayrami kuni yangi shaharda ko'p qor yog'di... So'ngra Temur o'z yurtiga, Samarqandga qaytdi va o'sha yerda vafot etdi. Temur bu yurtni 18 yil boshqardi[6].

[1] Muallif bu yerda eslagan shaharlar nomlari uning o'z davridagi nomlar emas, balki qariyb 1000 yil burungi armancha nomlari bo'lib, haqiqatdan uzoqdir.

[2] *Tbxis* – Tbilisi.

[3] Bu yerda «Turkman» deb Temurga nisbat berilyapti.

[4] *Surb Xach* – armanchada «muqaddas salib».

[5] Mazkur yili afg'onlar hali G'arbiy Hindiston hududida edilar.

[6] O'sha asar, 52-bet.

@tarixchi_kutubxonasiga

YEVROPA MANBALARI

KLAVIXONING SAMARQANDGA SAYOHATI HAQIDA

O'n beshinchi asr boshida Amir Temur davlati bilan Yevropa davlatlari o'rtasida elchilik munosabatlari rivojlandi. Jumladan, Kastiliya va Leon (Ispaniya) qiroli Genrix III (1390–1407) savdo-elchilik munosabatlarini yo'lga qo'yish maqsadida Amir Temur huzuriga elchi yuboradi va ular Sohibqironning Boyazid bilan bo'lgan jangda erishgan g'alabasining guvohi bo'ladilar. Amir Temur ularga qo'shib o'z elchilarini yuboradi. So'ngra Kastiliya qiroli Samarqandga elchi yo'llaydi va uning tarkibiga Rui Gonsales de Klavixoni (vafoti 1412-y.) qo'shadi.

Klavixo safar (1403–1406-yillar) davomida ko'rgan-kechirganlarini kundalik tarzida yozib boradi va u fanda «Samarqandga, Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi» nomi bilan tanilgan. Kundalik yevropa va rus tillariga tarjima qilingan. Quyidagi tarjima «Kundalik»ning ruscha nashri asosida amalga oshirildi[1] (ruschadan O. Bo'riyev tarjimasi).

O. Bo'riyev

RUI GONSALES DE KLAVIXONING «SAMARQANDGA, AMIR TEMUR SAROYIGA SAYOHAT KUNDALIGI» ASARIDAN LAVHALAR

Payshanba (1404-y., 21-avgust) kuni elchilar katta daryo bo'yiga yetib keldilar va undan o'tib qarama-qarshi sohilga qo'ndilar. Ya'ni, o'sha payshanba kunining o'zidayoq elchilar daryodan o'tib, Termit (Termiz) atalmish bir yirik shaharga kirdilar. Bu daryodan o'tgach, Samarkant (Samarqand) podshohligi boshlanadi... Mazkur daryo uchun podshoh maxsus farmoyish e'lon qilgan: ya'ni, u daryoning bir qirg'og'idan boshqasiga o'tib bo'lgach, undan so'ng biror kishining bu [ko'prik]dan o'tishga haddi sig'maydi va ko'prikni darhol buzib tashlaydilar. Daryodan o'tishda esa qayiqlar xizmat qiladi va odamlarni bir qirg'oqdan ikkinchi qirg'oqqa qayiqlarda olib o'tadilar. Biror kishiga, hatto qo'shni mamlakatlardan bo'lgan taqdirda ham,

[1] *Клавихо.* Дневник путешествия.

@tarixchi_kutubxonasiga

Samarkant podshohligidan daryo orqali bir qirg'oqdan boshqa qirg'oqqa o'tishga ruxsat etilmagan; faqat maxsus yorliq olgandan keyingina, qayerga borishi haqida yorlig'i bo'lgandagina [Jayhundan] o'tishi mumkin. Boshqa joylardan Samarkant podshohligiga o'tish uchun esa, hech qanday yorliq talab etilmaydi. Qayiqlar uchun podshoh katta qorovul tayinlagan va ular qayiqlardan foydalanganlardan boj oladilar. Daryo qirg'og'iga qorovul qo'yishdan yana bir maqsad shundan iboratki, podshoh o'zi egallagan mamlakatlardan ko'plab asirlarni Samarkant podshohligiga olib kelgan va ular shu yerda muqim yashashlari lozim. Zero, [podshoh] podshohlikni aholi bilan gavjum qilish va ulug'vorligini yuksaltirish uchun ko'p sa'y-harakat qiladi. Daryo kechuvida qo'yilgan qorovul asirlarning o'z yurtlariga qochib ketmasliklarini ham nazorat qiladi. Elchilar safar davomida Fors va Xuroson o'lkalarida ham podshohlikning odamlarini ko'rdilar. Ular yetimyesir, uy-joysiz, yo'qsil erkak va ayollarni majburan Samarkantga yashash uchun jo'natardilar...

Elchilar o'sha kuni yetib kelgan Termit (Termiz) shahri juda katta va aholisi ko'p bir shahar erur; uning devori ham yoki biror himoya to'sig'i ham yo'q. Atrofida bog'-rog'lar, ariqlar barpo etilgan. Yana shuni aytishim mumkinki, biz shaharga kirgach, uzoq yo'l yurdik va mo'ljallangan joyga yetib kelganimizda, ancha charchagan edik. Butun yo'l davomida odamlar gavjum ko'chalar va maydonlardan yurib bordik, ularda turli mollar bilan oldi-sotdi qilinardi.

Bu shaharda elchilarga katta izzat-ikrom ko'rsatdilar, barcha zarur narsalar bilan ta'minladilar; ipak matodan tikilgan kiyim sovg'a qildilar. Elchilar yoniga podshoh huzuridan xabarchi keldi va podshohning ularga yo'llagan salomini yetkazdi; podshoh ularning qanday yetib kelganliklari, ahvollari, safar taassurotlari, manzillarda ularga ko'rsatilgan e'tibor va qachon [poytaxtga] kelajaklari haqida so'ragan edi. Bu xabarchi qaytganda, [elchilar] unga kimxob to'n va florentiya libosi, shuningdek, ularni kuzatib kelgan xabarchiga ham xuddi shunday sarpo hadya qildilar... Podshoh yuborgan ikkinchi xabarchiga ot tortiq qildilar, zero, ularda podshohning hurmati uchun, uning buyrug'i bilan kelgan xabarchiga sovg'a berish odati bor. Podshohga berilgan sovg'alar miqdoriga qarab, ularning saxiyligini baholaydilar (99–100-bb.).

Keyingi kun, ya'ni payshanba kuni (1404-y., 22-avgust) tush paytida Kex (Kesh) atalmish katta bir shaharga yetib keldik. U turli tomondan sug'orish tarmoqlari, jilg'alar kesib o'tgan tekislikda joylashgan. Shahar qishloqlar va bog'lar o'ramida, atrofda keng sayhonliklar va ularda aholi gavjum qishloqlar, ariqlar, o'tloqlar ko'zga tashlanardi. Bu yerlar yozda juda go'zal manzara bo'lishi kerak. Sug'oriladigan yerlarda bug'doy, uzum, paxta, qovun va baland-baland mevali daraxtlar o'sib yotardi.

@tarixchi_kitobxonasiga

Shahar loydan qurilgan devor bilan o'ralgan va tashqarisidan aylanasiga chuqur xandaq qazilgan, darvozalar oldida ko'tarma ko'priklar bor. Senyor Temurbek asli ana shu shahardan, uning otasi ham shu yerda tug'ilgan. Bu yerda katta uylar va masjidlar ko'p. Ayniqsa, bittasi juda hashamatli, uning qurilishiga shaxsan Temurbekning o'zi farmon bergan va hanuz bitmagandi. Unda [Temurbekning] otasi dafn etilgan katta maqbara bor. Yana bitta maqbarani Temurbek o'zi uchun qurishga buyurgan, ya'ni vafotidan so'ng shu yerga dafn etilishi kerak; bu maqbara qurilishi ham nihoyasiga yetmagan edi. Aytishlaricha, bir oy mazkur maqbaraning kirish qismi past bo'lganini aytib, e'tiroz bildirgan va qayta qurishga buyurgan. Hozir u yerda ustalar ishlab turibdi. Shuningdek, bu masjidda Temurbekning to'ng'ich o'g'li Yang'ir (Jahongir) ham dafn etilgan. Bu masjid va maqbara o'ta hashamatli; tillarang va movut bo'yoqlar bilan bezatilgan, naqshlar solingan. Keng hovlisi, daraxtlari va hovuzlari bor. Har kuni senyor (Temurbek)ning buyrug'iga ko'ra, o'sha yerda dafn qilingan otasi va o'g'lining ruhiga bag'ishlab mazkur masjidga yigirmata qo'yni pishirib yuboradilar.

Bu darvozadan keyin ikkinchi darvoza joylashgan, undan narida katta hovli bor, sahni oq marmardan; atrofida juda hashamatli ko'rkam ayvonlar qurilgan. Hovli o'rtasida katta hovuz bor. Bu hovlining sahni eniga uch yuz qadam kelardi, u yerdan saroy (majmuasi)dagi eng katta binoga o'tiladi; kirishda ulkan baland eshik bor; u oltin va lojuvard bo'yoqlar bilan ishlangan va ajoyib uslubda koshinkori qilingan. Eshik tepasida o'rtada quyosh aksi va arslon surati ishlangan, chekkalarida ham shunga o'xshash tasvirlar bor... Ana shu eshikdan qabulxonaga kiriladi; u to'rtburchak shaklda, devorlari zarhal va lojuvard bo'yoqlar bilan ishlangan, koshinkorlik qilingan, uyning shifti boshdan oyoq zarhal. Elchilarni bu yerdan yuqori qavatga olib chiqdilar, unda hamma xonalar tillakori qilib ishlangan, ular [elchilar]ga shunchalik ko'p xonalarni namoyish etdilarki, hammasini tavsiflash amrimahol. Bu qavatdagi tamomi xonalar zarhal, lojuvard va boshqa ranglardagi bo'yoqlar bilan shu darajada bezatilganki, hatto mohir ustalar [makoni] Parijda ham bunga hayratlansalar arziydi. Bunday san'at ular nazdida ham ajoyib sanalardi. [So'ngra elchilarga] Temurbek va uning xotinlari uchun qurilgan xonalarni ko'rsatdilar; ularning devorlari, tom va sahni hayratlanarli darajada bezatilgan. Ushbu saroyning qurilishida juda ko'p turli kasbdagi ustalar ishlaganlar. Shundan so'ng elchilarni Temurbek to'y-hashamlar uchun qurdirgan xonaga olib bordilar. Bu juda keng xona va maftunkor qilib bezaklangan; uy oldida xilma-xil mevali va manzarali soya-salqin bog' yastangan; unda ko'plab hovuzlar va maysazorlar bor. (104) Bog'ga kiraverishda keng sahn qoldirilgan va jazirama yoz pallasida bu joyda daraxtlar ko'lankasida juda ko'p odam hordiq chiqarishi mumkin. Mazkur ko'shk shu darajada muh-

@tarixchi_kutubxonasiga

tasham va bezaklanganki, uni yaxshilab tavsiflash uchun hamma qismlarini shoshmasdan birma-bir aylanib chiqish lozim bo'ladi. Bu masjid va ko'shk senyor [Temurbek] shu paytgacha barpo etgan imoratlar ichida eng oliy darajadagisi sanaladi.

(106) Elchilar payshanba kuni [ham] Kex (Kesh) shahrida bo'ldilar, juma kuni kechqurun yo'lga otlandilar va bir qishloqda tunadilar. Ertasiga shanba kuni o'ttizinchi avgustda (1404-y.) ular [ulug'] senyorga tegishli bir katta hashamatli uyda tushlik qildilar. Bu uy tekislikda daryo bo'yida katta ajoyib bir bog'ning o'rtasida joylashgan edi. Ular u yerdan jo'nab, Samarkantdan bir yarim liga[1] masofadagi Misir (Misr) deb atalgan katta bir qishloqda tunadilar...

Yakshanba ertalab, o'ttiz birinchi avgustda (1404-y.) elchilarni paxsa devor bilan o'ralgan, bir *liga* (5572 m) masofaga cho'zilgan [bir] boqqa olib keldilar. Unda turli mevali daraxtlar, jumladan, sitronlar va limonlar o'sardi; oltita katta hovuz bor edi; [bog'] o'rtasida bog'ning boshidan oxirigacha sharqirab ariq oqib turardi.

Hovuzlar orasidan keng xiyobonlar qilingan, ularning ikki tomonida viqor bilan qad ko'tarib turgan ulkan daraxtlar soya solib turardi. Mazkur xiyobonlardan butun bog' bo'ylab boshqa katta-kichik yo'laklar mavjud va ulardan yurib bog'da sayr qilsa bo'ladi.

[Bog' o'rtasida] tuproq to'kib hosil qilingan usti yassi tepalik o'rtasiga ko'rkam ko'shk barpo etilgan. Unda oltin, lazur (moviy) va sirlangan naqshlar ishlab bezatilgan hujralar bor. Ko'shk joylashgan tepalik aylanasiga suv to'ldirilgan xandaq o'ralgan, unga maxsus ariqdan uzluksiz suv quyilib turadi.

Ko'shk joylashgan tepalikka o'tish uchun [xandaq ustiga] qarama-qarshi tomonlardan ikkita ko'prik qurilgan. Ko'priklardan darvozalarga boriladi, so'ngra narvon orqali tepalikka chiqiladi; ya'ni ko'shk yaxshigina himoyalangan edi.

Bog'da ohular va ko'plab tovuslar sayr qilardi, ularni bu yerga senyor (Amir Temur) buyrug'iga ko'ra keltirganlar. Bog'dan maydoni [ana shu] bog' maydoniga teng keladigan uzumzorga o'tilardi, u ham paxsa devor bilan o'ralgan. Devor bo'ylab ekilgan daraxtlar baland qad ko'targan, juda ko'rkam. Ko'shk va bog' Talisiya, ularning tilida Kalbet (Gulbog') deb ataladi. Mazkur bog'da elchilarga juda ko'p go'sht va boshqa zarur narsalar berishdi. Ular ariq bo'yidagi maysazorga o'zlari bilan olib kelgan chodirni tikib, o'sha yerda kutib turishni buyurdilar.

To'rtinchi sentabr, payshanba kunida (1404-y.) ul bog'ga bir kavaler senyorning qarindoshi kelib, «Senyor (Amir Temur) imperator Totamix

[1] *Liga* – qadimgi ispan o'lchov birligi, 5572 m. Ispan ligasi uch milyaga teng bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

(To'xamish)ning elchilariga qaytmoqqa ijozat berish [marosimi] bilan banddurlar va shu sababdan, [hozircha] sizlarni qabul qila olmaydilar, degan xabarni yetkazdi, – ular xafa bo'lmasligi va bir oz ko'ngil yozishlari uchun ularga va Vavilon (Bobil) sultoni[1] elchisi huzuriga o'sha kuni bayram va ziyofat tashkil qilishni buyurib, ushbu kavalerni[2] yubordi», – dedi. Ular juda ko'p qo'y keltirib, [so'yib go'shtini] qaynatdilar [va undan taom] tayyorladilar; ot [go'shti] qovurdilar, guruchdan xilma-xil taomlar tayyorladilar, ko'plab mevalar keltirib, [bularning] barchasi bilan [elchilarni] mehmon qildilar. Ziyofatdan so'ng ularga ikkita ot, kimxob to'n va qalpoq sovg'a qildilar. Elchilar avgust oyining oxirgi yakshanbasidan sentabr oyining dushanbasigacha (1404-y.) mazkur bog'da bo'ldilar.

O'sha kuni senyor ularni qabulga boshlab kelish uchun odam yubordi; odatda, [kelgan] elchilarni darhol qabul qilmaydi, oradan besh-olti kun o'tishi kerak, u huzuriga kelgan elchilar qanchalik e'tiborli bo'lsa, shunchalik kechroq qabul qiladi.

O'sha dushanbada, sakkizinchi sentabrda [elchilar] bog'dagi ko'shkdan otlanib Samarkant (Samarqand)ga yo'l oldilar. Mazkur bog'dan shahargacha bog'lar, hovlilar, bozorlar joylashgan tekislik yastangan edi. [Elchilar] uch soat chamasi yo'l yurib, shahar atrofidagi senyor turgan bog' va uyga (ko'shkka) yetib bordilar.

Yetib kelgach, ularni bir uyga joylashtirdilar va ikkita kavaler kelib, [elchilar] senyor uchun (108) olib kelgan sovg'alarni berishni talab qildilar; ularni taqdim etishdan oldin tartibga keltirish lozim ekan, mirassalar, ya'ni senyorning yaqin kishilari[3] shunday buyurmishlar. Elchilar [tortiqlarini] ushbu ikki kavalerga berishga majbur bo'ldilar; ular esa, [o'z navbatida], boshqa tegishli kishilarga topshirdilar... Elchilarni ham boshlab olib ketdilar.

Ul bog'ning kirish darvozasi juda katta va baland bo'lib, oltin, lazur va [o'yma] naqshlar bilan bezatilgan; darvoza oldida ko'p sonli darvozabonlar qo'llarida gurzi ko'tarib turardilar. Qanchalik odam ko'p bo'lmasin, darvozaga yaqinlashishga hech kimning haddi sig'masdi. Elchilar [darvozadan] kirishlari bilan har biriga yog'och taxtiravon o'rnatilgan va ikkitadan bayroqcha qadalgan oltita filni ko'rdilar. Fillar [usti]da odamlar (filbonlar) minib olib, xaloyiqqa tomosha ko'rsatdilar. Elchilar yurishda davom etdilar va ularning tortiqlarini olgan va taxlab, qo'llariga ko'tarib ketayotgan kishilarni ko'rdilar. So'ngra elchilarga o'z tortiqlari yonida kutib turishni buyur-

[1] *Vavilon (Bobil) elchisi* – Misr elchisi nazarda tutilgan.

[2] *Kavaler* – bu so'z matnda «bahodir», «no'yon», «sarkarda», «podshoh a'yoni» kabi ma'nolarni anglatadi.

[3] *Mirassalar* – Amir Temurning amirlari, a'yonlari, mulozimlari.

@tarixchi_kutubxonasiga

dilar, bir ozdan so'ng yana o'sha ikki kavaler kuzatuvida yurishda davom etdilar. Temurbek Kastiliya qiroli huzuriga yuborgan elchi ham ular bilan birga borardi; u kastilchasiga kiyinib olgani uchun hamma uning ustidan kulardi.

Elchilarni supada o'tirgan bir kavaler qariya qoshig'a eltdilar; bu Temurbekning opa-singillaridan birining o'g'li edi. Elchilar unga ta'zim qildilar; so'ngra ularni supada o'tirgan kichkina o'g'il bola (shahzoda)larning oldiga boshlab bordilar; bular podshohning nevaralari edi va elchilar ularga ham ta'zim qildilar. Bu yerda (elchilardan ularning) qiroli Temurbekka yo'llagan maktubni so'rab oldilar. Maktubni [yuqorida ta'kidlangan] bolalardan biri, aytishlaricha, bu senyorning to'ng'ich vorisi mirassa Miaxa (Mironshoh)ning o'g'li ekan. Mazkur uchala bola darhol turib maktubni senyorga eltdilar. So'ngra elchilarga [oldinga] yurishni buyurdilar. Senyor o'sha yerdagi juda go'zal xonaga kiradigan eshik oldida, baland supada o'tirardi; oldida baland otilib turgan favvora joylashgan bo'lib, unda qizil olmalar qalqib turardi.

Senyor kashtali kichik ipak ko'rpachada, tirsagini bolishga qo'yib o'tirardi. U silliq bir xil rangdagi ipak ko'ylak, boshiga esa yoqut, marvarid va boshqa qimmatbaho toshlar qadalgan baland oq qalpoq kiygan edi.

Elchilar uni ko'rishlari bilan o'ng tizzalarida tiz cho'kib, qo'llarini ko'ksilariga qo'yib ta'zim qildilar; so'ngra yaqinroq kelib yana ta'zim qildilar, keyin yana ta'zim qilib (109) tiz cho'kkancha turdilar. Senyor ularga turmoqqa va yaqinroq kelishga ruxsat etdi. Ularni boshlab kelgan mirassalar orqada qoldilar va yaqinroq kelishga botina olmadilar; senyor oldida turgan uchta mirassa, ya'ni uning eng yaqin odamlari, aniqrog'i, biri – Xamelak mirassa (Shohmalik), ikkinchisi – Borundo mirassa, uchinchisi – Noradin (Shayx Nuriddin) elchilarni senyor qoshiga boshlab borib, tiz cho'ktirdilar. Senyor ularni yaxshiroq ko'rib olish uchun yanada yaqinroq kelishga buyurdi, chunki u qarib qolgan va kipriklarini deyarli ko'tara olmasdi. U qo'lini elchilarga o'pish uchun cho'zmadi, chunki bu [tartib] ularda odat emasdi va ular birorta ham ulug' senyorning qo'lini o'pmaydilar, zero, o'z shaxsiyatlarini juda yuqori qo'yadilar.

So'ngra u (senyor) ularga shunday savol bilan murojaat qildi: «Senyor qirol, mening o'g'limning ahvoli qalay, ishlari, salomatligi yaxshimi?» Elchilar javob qildilar va tashriflarining maqsadini bayon etdilar; u elchilarning so'zlarini diqqat bilan eshitdi. Ularning so'zlari tugagach, Temurbek supa poyida o'tirgan kavalerlarga, aytishlaricha, ulardan biri Tartaliya[1] hukmdori senyor Totamix (To'xtamish)ning o'g'li, ikkinchisi – samarqandlik hukmdorlar avlodidan, qolganlari esa senyorning o'z qarindosh-urug'la-

[1] *Tartaliya* – Oltin O'rda.

@tarixiy_kutubxonasiga

ri edi, – qarab dedi: «Mana bu elchilarga qaranglar, ularni mening o'g'lim, ya'ni Ispaniya qiroli yuborgan. U 3 dunyoning chekkasida[1] yashovchi faranglar[2] podshohlari ichida [mashhurlikda] birinchi o'rinda turadi. Ular haqiqatda buyuk xalq va mening o'g'lim, ya'ni (Ispaniya) qiroliga o'z xayrxohligimni izhor qilurman. U sizlarni sovg'a-salomsiz, faqat maktub yo'llab yuborsa ham bo'lardi, zero, men uning sog'-salomatligi va ishlari haqida bilganimning o'zi har qanday sovg'adan afzaldir».

Senyor qirol yo'llagan maktubni senyor (Temurbek)ning nevarasi uning oldida baland ko'tarib turardi; ilohiyot magistri tilmochga, mazkur maktubni senyor (Temurbekka) uning o'g'li, ya'ni Ispaniya qiroli yuborgan maktubni berishni so'radi va maktubni undan boshqa biror kimsa, qachonki janobi oliylari [xat mazmunini] eshitmoqchi bo'lsa, o'qib berishini ma'lum qildi. Senyor maktubni nevarasining qo'lidan oldi va uni ochib, hoziroq [mazmunini] bilmoqchi ekanligini aytdi. Magistr [o'qishga] tayyorligini izhor qildi. [Temurbek] keyinroq unga odam jo'natishini, maktubni esa bir vaqti bo'lib qolganda o'qishini va [Kastiliya qiroliga] qanday istak bildirishni aytajagini ma'lum qildi.

So'ngra ularni turg'izib, senyorning o'ng tomonidagi supaga o'tqazib qo'ydilar; boshlab borgan mirassalar ularni Xitoy podshosi Chayskan har yili boj to'lashni talab qilib yuborgan elchilaridan quyiroqda o'tkazdilar. Senyor ispan elchilari xitoyliklardan quyida o'tirganini ko'rib, ular yuqoriroqda, u esa quyiroq o'tirishlarini buyurdi. Ularni endigina o'rnashtirib bo'lganlarida, podshoh mirassalaridan biri kelib, (110) Xitoy elchisiga, senyor (Temurbek) uning o'g'li, ya'ni Ispaniya qirolining elchilari undan yuqorida o'tirsinlar. U, ya'ni qaroqchi, subutsiz shaxs va dushmanning elchisi esa, ulardan pastda o'tirsin hamda u (Temurbek), xudo xohlasa, tez orada uni [dorga] osajagini, toki u bundan keyin [bo'lmag'ur] da'vo izhor etolmasin, deb buyurganini yetkazdi. Shu paytdan boshlab senyor (Temurbek) tashkil etgan barcha tantana va ziyofatlarda ularni mazkur tartibda o'tqazdilar.

[Mas'ul xodimlar Temurbekning ushbu buyrug'ini] e'lon qilarkanlar, tarjimonga senyor qanchalik ispan elchilari uchun g'amxo'rlik qilayotganini tushuntirishni aytdilar...

[Kastiliya] elchilari, turli mamlakatlardan kelgan boshqa elchilarni hamda qolganlarni tartib bilan o'tqazdilar; juda ko'p qaynatilgan, tuzlangan va qovurilgan qo'y va ot go'shtini ko'tarib borishga mo'ljallangan dastali katta doirasimon oshlangan teri ustiga qo'ygan edilar[3].

Senyor go'sht so'raganda, xizmatkorlar bu terilarni uning oldiga sudrab borardilar, chunki ularni ko'tarib bo'lmasdi, aks holda ustidagi go'shtning

[1] Yevrosiyo materigining g'arbiy chekkasi nazarda tutilgan.
[2] *Franglar* – G'arbiy Yevropa xalqlari.
[3] Bu yerda teridan qilingan supra nazarda tutilgan.

@tarixni_kitob_qilasiga

ko'pligidan yirtilib ketishi mumkin edi. [Xizmatkorlar] senyor tomon yigirma qadamgacha yaqinlashganlarida, dasturxonchilar go'sht to'g'rash uchun hozir bo'ldilar va [go'sht solingan] teri yonida turdilar; ular [kiyimlari] iflos bo'lmasligi uchun fartuk taqib olgan va charm yenglik kiygan edilar; ular go'shtni to'g'rashga kirishdilar va go'sht bo'laklarini oltin, kumush, sirlangan sopol va juda qadrli sanalmish qimmatbaho chinni deb atalgan kosalarga sola boshladilar. Ularning eng sevimli ovqati – otning lahm sag'ri son go'shti bo'laklari hisoblanadi; ularni o'nta oltin va kumush idishlarga qo'ydilar, unga qo'yning paysiz suyakli son go'shtidan ham qo'shdilar. Shu idishlarga otning dumaloq, mushtday keladigan buyragini va qo'yning kallasini qo'ydilar.

So'ngra shu yo'sinda yana ko'pgina har xil ovqatlar tayyorladilar va ularni qator qo'yib chiqdilar. Undan so'ng xizmatkorlar sho'rva suzilgan kosalarni ko'tarib keldilar, unga tuz solib, eriguncha sabr qildilar, keyin esa, uni oz-ozdan kosalarga qayla sifatida quydilar.

So'ngra yuqa nonlarni[1] oldilar va to'rt buklab, kosalarga solingan go'sht ustiga qo'ydilar. [Barcha tayyorgarliklar yakunlangach], mirassalar, senyorning yaqinlari va o'sha yerda hozir turgan boshqa zodagonlar ikki yoki uch kishi bo'lib, bu idishlarni ko'tarib, zero, ularni bir kishi ko'tara olmasdi, senyor, elchilar va o'sha yerda hozir bo'lgan kavalerlar oldiga eltib qo'ydilar. Senyor hurmat yuzasidan o'z oldidagi idishlardan ikkitasini elchilar [oldi]ga eltib qo'yishni buyurdi. Go'shtni tarqatgach, ko'p o'tmay, uni olib ketdilar va boshqasini olib keldilar. (111) Mehmonga qo'yilgan go'shtni ularning manziliga yuboradilar va bu odatni qilmaslikni haqorat deb biladilar; shunchalik ko'p go'sht keltirdilarki, odam hayratga tushmasligi mumkin emasdi. Ularning yana bir odati shunday: elchilardan go'shtni olganda, uni ularni kuzatib kelgan odamlar vositasida [yashash manzillariga] yuboradilar. Elchilarning kuzatuvchilari oldiga shunchalik ko'p go'sht qo'ydilarki, agar ular uni olib borolganlarida, [bu go'sht] yarim yilga yetardi.

Qaynatma va qovurma taomlarni [dasturxondan] yig'ib olganlaridan so'ng, juda ko'p dimlangan qo'y go'shti, uzma[2] va boshqa turli usulda tayyorlangan ovqatlar keltirdilar. Undan so'ng juda ko'p mevalar, qovun, uzum, shaftoli olib keldilar va oltin hamda kumush ko'zalarda ichish uchun qand solingan ot suti (qimiz) tortdilar, u juda mazali ichimlik bo'lib, uni yoz mavsumida tayyorlaydilar.

Ziyofatdan so'ng, senyor [Kastiliya] qiroli va Bobil sultoni yuborgan sovg'alarni ko'targan odamlar birma-bir senyor (Temurbek) oldidan

[1] *Yuqa nonlar* – lochira, chavati (chapati).

[2] *Uzma* – yupqa yoyilgan xamirni qo'lda uzib, qiymali sho'rvaga solib pishiriladigan taom.

@tarixiy_kutubxonasiga

o'tdilar. Undan so'ng senyor oldidan, unga o'sha kuni hadya qilingan uch yuzta otni haydab o'tdilar. Hammasi tugagach, elchilarni turg'azib, ularni [bir] kavaler boshlab olib ketdi; [u elchilarni] himoya qilishi va ularga barcha zaruriy narsalarni yetkazib turishi lozim edi. Bu kavaler podshohning bosh darvozaboni bo'lib, u ularni, so'ngra Bobil sultoni elchilarini [belgilangan] uyga olib ketdi; [bu uy] senyor yashaydigan ko'shk yaqinida joylashgandi. U yerda bog' va yetarlicha [ariq va hovuz] suvi bor edi.

Elchilar podshohning huzuridan chiqib ketganlaridan so'ng, u [Kastiliya] qiroli yuborgan sovg'alarni keltirishni buyurdi, ularni qabul qildi va juda mamnun bo'ldi...

Keyingi dushanba, o'n beshinchi sentabrda (1404-y.) senyor o'ta ko'rkam boshqa bir bog'ga o'tdi. Bu bog'ning juda baland va hashamatli darvozasi bor, [pishiq] g'ishtdan qurilgan va turli naqshlar, lazur va oltin bilan ziynatlangan. O'sha kuni senyor katta ziyofat uyushtirishga va unga elchilar, o'zining ko'plab qarindoshlari, erkak va ayollar va boshqa mehmonlarni chorlashni buyurdi. Bu bog' juda katta. Unda ko'plab mevali va salqin soya beradigan daraxtlar o'sadi. (112) Unda yog'och to'siqlar bilan ajratilgan odamlar sayr qiladigan xiyobonlar va yo'laklar bor. Bog'da juda ko'p o'tov qurilgan va rang-barang gilamlar hamda kashtali ipak matolardan[1] soyabonlar o'rnatilgan.

Mazkur bog'ning o'rtasida hashamatli, chiroyli bino qad ko'tarib turardi, krestga o'xshatib qurilgan va ko'rkam ziynatlangan. Binoning o'zida uchta ayvon bo'lib, ularga so'ri va o'rindiqlar qo'yish mumkin; [bino sahni] va devorlar koshinkori qilingan. Kiraverishda bu ayvonlardan eng kattasi joylashgan va unda – katta oltin suvi yuritilgan kumush stol bo'lib, uning balandligi odam bo'yi, eni – uch tirsak [uzunligicha] keladi, uning oldida – o'rin, [ustiga] kimxob va turli ipak matolardan tayyorlangan zardo'zi to'shamchilar qavat-qavat qilib solingan. Bu yerga senyor (Temurbek) o'tirardi; devorlarga pushti rangdagi ipak pardalar ilingan. Bu pardalar oltin qoplangan, zumrad, marvarid va boshqa [qimmatbaho] toshlar o'rnatilgan qadama bezaklar bilan ziynatlangan. [Ustidan] eni bir qarich chamasidagi ipak matolar tipidan pastga osilgan va xuddi pardalar misoli bezatilgan. Mazkur matolar uchida rang-barang ipak popuklar osilib turardi; shabada esganda esa, ular u yoqdan bu yoqqa tebranib turar va juda chiroyli [manzara] hosil qilardi.

Arksimon qilib qurilgan bu ayvonga kiraverish ham, nayzasimon tirgaklarga osilgan parda ham xuddi shunday ziynatlangan edi; unga yergacha osilib turgan ipak arqonlarga katta-katta popuklar osilgan.

[1] *Kashtali ipak mato* – so'zana.

@tarixdan_kutubxonasiga

Boshqa ayvonlar o'zgacha zeb berilgan pardalar bilan shinam qilingandi, yerda esa, gilamlar va bo'yralar solingandi. Bu uyning o'rtasida, eshik oldida oltindan yasalgan, to'rt oyoqli ikkita stol turardi, stol va uning oyoqlari yaxlit bir butun [quyma]. Ularning uzunligi besh qarich chamasi va eni – uch [qarich]; ustiga yettita oltin ko'za qo'yilgan, ikkitasiga tashqi tomoniga yirik marvarid, zumrad va feruza [toshlar] o'yib ziynatlangan, har birining jo'mrakchasi yoniga yoqut [ishlangan]. Yana oltita doirasimon oltin piyolalar ham qo'yilgandi, ulardan birining ichki tomonidan yirik dumaloq va nodir marvarid bilan ziynatlangan, o'rtasiga esa, kattaligi ikki barmoqday keladigan, chiroyli rangda [tovlanuvchi] yoqut o'rnatilgan.

Bu ziyofatga senyorning [buyrug'iga ko'ra ispan] elchilari taklif qilingan edi...

(113) Keyingi dushanbada, yigirma ikkinchi sentabrda, senyor bu ko'shkdan otlanib, boshqa bog'dagi ko'shkka yo'l oldi...

Bu ko'shklar va bog'larning [hammasi] shahar tashqarisida joylashgan. Bu bog', undagi ko'shk bilan birga Bagino (Bog'i Nav) deb ataladi. Bu yerda [ham] senyor katta ziyofat berdi va unga elchilar taklif etilgandi, juda ko'p odam yig'ilgandi...

Bu ziyofatda senyor sharob ichishga buyurdi va o'zi ham ichdi; ular [podshoh] buyrug'isiz ko'pchilik nazdida yoki yashirincha [sharob] ichishga hadlari sig'maydi. Sharobni ular ovqatgacha juda ko'p tortadilar va mast bo'ladilar; ular mast bo'lguncha, ichmaguncha, to'y ham, xursandchilik ham o'rniga tushmaydi. [Sharob] eltuvchilar cho'kka tushadilar va bir qadah ichilgandan boshqasini uzatadilar, [go'yoki] boshqa qiladigan ishlari qolmaganday. Bittasi [sharob] quyib charchasa, boshqasi kelib quyib uzatadi. Bir kishi hammaga xizmat qiladi, deb o'ylamang, bir yoki ikki kishiga bitta soqiy belgilangan. Aytishlaricha, kimki ichishni xohlamas ekan, demak, u senyorni hurmat qilmagan bo'lsa-da, chunki hamma uning izmi bilan ichadilar. Hatto kosalarni ham to'ldirib quyadilar va hamma oxirigacha ichishga majbur, kimki [kosada] qoldirsa, undan qaytarib olmaydilar, (114) [oxirigacha] ichishga majbur qiladilar. Bitta qadahdan bir yoki ikki marta ichadilar. Agar senyorning sog'lig'i uchun ichmoqni taklif qilsalar yoki uning boshi bilan qasamyod qiladigan bo'lsalar, u holda oxirgi tomchisigacha qoldirmay ichishlari shart. Kimki shu yo'sinda ish tutib [hammadan] ko'p ichsa, bahodir deb ataydilar, ya'ni dovyurak kishi demakdir. Kimki ichishdan bosh tortsa, uni xohishiga qaramay, ichishga majbur qiladilar.

O'sha kuni, elchilar senyorning huzuriga kelishlaridan oldin, u o'zining bir mirassasi orqali bir ko'za sharob yubordi va undan uning huzuriga kelishdan oldin dimog'lari chog' bo'lishigacha ichishlari lozimligini ta'kidlagan edi. Ular [ziyofatga] kelgach, ularni oldingiday o'tqazdilar;

@tarixiy_kutubxonasiga

uzoq ichdilar, [so'ngra] go'sht tortdilar. Bu yerda qovurilgan ot go'shti, qaynatilgan va qovurilgan qo'y go'shti, tuzlangan (sur go'sht), ularning odati bo'yicha turlicha uslubda tayyorlangan guruch [ovqatlar] mo'l-ko'l edi. Ovqatdan so'ng senyorning mirassalaridan biri kirib keldi. Uning qo'lida kumush tanga to'ldirilgan idish, uni taga (tanga) deydilar; ularni o'sha yerdagi elchilar va boshqa mehmonlar boshi ustidan o'zi xohlagancha sochib, qolganini elchi ularning etaklariga to'kdi. So'ngra senyor elchilarga kimxob to'n kiygazmoqni buyurdi. Elchilar, ularda qabul qilingan odatga ko'ra, uch marta senyor oldida egilib, ta'zim qildilar va u elchilarga ertaga ham ziyofatga kelishlarini aytmoqni buyurdi.

(114) Keyingi kun, yigirma uchinchi sentabrda, senyor boshqa bir ko'shk va bog'ga bordi. Dilikaya (Dilkusho) bog'i yaqinida joylashgan bu bog'da[1] ... [senyor] katta to'y berdi va uning farmoniga ko'ra, podshohning turli joylardagi askarlari [tarkibi]dan juda ko'p vakillar kelgan edi. Bu ziyofatga elchilar ham keldi. Bu bog' va ko'shk juda ko'rkam. Ziyofatda senyor juda xursand edi, o'zi ham, uning yon-veridagilar ham ichdilar. Ularning odati bo'yicha juda ko'p go'sht tortdilar: qo'y va ot go'shti. Ovqatdan so'ng senyor elchilarga kimxob to'n ulashishni buyurdi va ular podshoh [ko'shki] yaqinida joylashgan o'z manzilgohlariga qaytdilar...

(115) Yigirma to'qqizinchi sentabr, dushanba kuni senyor Samarqand shahriga yo'l oldi...

O'sha kuni senyor ziyofat uyushtirdi va unga elchilarni olib kelishni buyurdi. Mazkur ziyofatdan maqsad [Temurbek] Katay (Xitoy) mulklari bilan chegaradosh va ilgari uning tarkibida bo'lgan o'lkalardan kelgan elchilarni qabul qilish edi.

Bu elchilar o'sha kuni yetib keldilar va quyidagicha kiyingan edilar; ularning boshlig'i mo'ynasi ustiga qilingan kaftan shaklidagi mo'ynali to'n kiygan, mo'ynasi esa, ko'proq, eski mo'ynani eslatardi[2]. Uning boshida kichik qalpoqcha va ko'kragida ip [osilgan], qalpoqcha shunchalik kichkina ediki, [boshiga] zo'rg'a sig'ardi va tushib ketay derdi. U bilan birga kelganlar ham po'stin kiygan edilar; bittasining po'stini mo'ynasi ustiga, qolganlarida – ichkariga qilingan, ular shunday kiyingan edilarki, temirga ishlov berayotgan temirchilarni eslatardilar...

Senyor o'sha kuni uzoq vaqt ba'zi zaitlar (sayyidlar) bilan shaxmat o'ynash bilan band bo'ldi; ular Magomat (Muhammad) avlodiga mansub shaxslarni zaitlar (sayyidlar) deb ataydilar...

(116) Oltinchi oktabr, dushanba kunida senyor bir dalada katta to'y berdi; bu yerga uning o'rdasi o'rnashgan edi. U barcha qarindoshlari, xotinlari,

[1] Tadqiqotlarda bu bog'ning nomi Davlatobod Bog'i deb qayd etilgan.

[2] Bu yerda Klavixo yozganlaridan po'stin nazarda tutilgani bilinadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

o'g'illarining xotinlari (kelinlariga), o'sha yerdagi nevaralari, yaqin mirassalari, har tomonda [xizmatda] yurgan barcha odamlari shu yerga yig'ilganlar va buyruqni [kutib] tursinlar, deb buyurdi. O'sha kuni elchilarni mazkur o'tdaga olib keldilar. Ular [bu yerga] kelib, juda ko'p chiroyli chodirlarni ko'rdilar; ularning aksariyati daryo bo'ylab joylashgandi; ular ko'rinishda juda chiroyli va bir-biriga yaqin o'rnatilgan edi. Elchilarni askarlarga safar uchun zarur turli aslahalar sotiladigan ko'chalardan olib bordilar. Elchilar senyorning chodirlari o'rnatilgan joyga yetib kelganlarida, ularni zig'ir matodan[1] va boshqa turli rangdagi matolardan tayyorlangan soyabonga [tushirdilar].

[Soyabon] uzun, ikkita yog'och bilan ko'tarilgan va arqonlar bilan tortilgan edi. Dalada bunga o'xshagan soyabonlar juda ko'p ko'rinardi; ularni quyoshdan pana hosil qilish va havo [bemalol] o'tishiga mo'ljallab, uzun va baland qiladilar. Ushbu soyabonlarga yaqin joyda katta va baland ayvon qurilgandi; u chodirni eslatardi, farqi, kvadrat [shaklda] va balandligi uch nayza chamasi; tomonlari nayza bo'yi yerdan baland turardi, uning eni esa yuz qadamcha kelardi.

To'rtburchak shiyponning dumaloq gumbazsimon shipi bor edi; uni har biri odam gavdasi ko'krak qismi yo'g'onligiday keladigan o'n ikkita ustun ko'tarib turardi; bu ustunlar moviy, zarhal va boshqa bo'yoqlar bilan naqshlangan. Bir burchakdan ikkinchisigacha [oraliqda] uchta ustun o'rnatilgan, bir-biriga qotirilgan uch qismdan iborat, ularni o'rnatishda xuddi aravanikiga yoki darvozaga o'rnatilganga o'xshash g'ildiraklar yordamida ko'tarardilar; har joy-har joydan halqalar bilan qotirilgan va ular [ustunlarni] ko'tarish uchun qilingan. [Ayvonning] gumbazidan ustunlar bo'ylab, ularga mahkamlangan ipak matolar tepadan pastga osilib turardi, ular bog'langan bo'lgani uchun ustunlar orasida ravoqlar hosil qilgandi.

Ayvon (tomi) tashqaridan qanotsimon, to'rtburchak bo'lib, qurilma bilan qo'shilgan edi. (117) Bu qanot o'n ikkita ustunga o'rnatilgan, biroq ular ichkaridagi ustunlarchalik yo'g'on emasdi; umuman, bu ayvonda jami o'ttiz oltita ustun bor. U, taxminan, besh yuzta [tarang] tortilgan rang-barang arqonlardan yasalgan. Ichiga har xil, ba'zi joylari zar iplar bilan to'qilgan chiroyli qizil gilam to'shalgandi. Shipning o'rtasi esa juda go'zal naqshlar bilan bezatilgan...

Ayvon tashqaridan oq, qoramtir va sariq rangli yo'l-yo'l sarsanga o'xshash ipak mato[2] bilan qoplangan. Ayvonning har bir burchagida baland ustunlar qad ko'targan, unga mis olmaning shakli, yanada yuqoriroqda – oy [rasmi] chizilgan. Ayvonning eng baland qismida oldingilardan ham balandroq to'rt ustun o'rnatilgan va ulardan [ham] olma va oy [rasmlari] chi-

[1] *Zig'ir mato* – bu yerda Markaziy Osiyo uchun an'anaviy hisoblangan bo'z mato haqida so'z yuritilgan.

[2] Matn mazmunidan bu atlasning bir turi bo'lishi kerak.

@tarixchi_kutubxonasiga

zilgan. Ayvon tomida, ustunlar o'rtasida kungurali minora qad ko'targan; u har xil ipak [mato]dan yasalgan, bemalol kirib-chiqish mumkin bo'lgan eshigi ham bor.

Ayvonda va ustunlar orasida shamol esganda, odamlar yuqoriga ko'tarilib, har kim har yoqqa tarqaldi. Bu ayvon shunchalik keng va katta ki, qasrga o'xshab ketadi. Uning o'lchamlari va balandligi kishini hayratga soladi, go'zalligi esa tavsifga sig'maydi. Bu ayvonda bir chekkada gilamlar taxlab, [ustiga] uch yoki to'rtta ko'rpachalar taxlab qo'yilgan, bu taxmon senyorga tegishli edi. Chapda bir oz pastroqda yana bir taxmonda gilamlar taxlangan, uning yonida – uchinchi, oldingilardan pastroq taxmon bor. Ayvon atrofdan xuddi shahar yoki qasrga o'xshash to'siq bilan o'ralgan; [bu to'siq] rang-barang ipak matodan bo'lib, unga turlicha bo'rtma shaklda kashta hamda tashqi va ichki tomondan, uni ushlab turgan ilgaklar tikilgan. Ichkarida [to'siqni] ushlab turish uchun ustunlar o'rnatilgandi. To'siq doira shaklida, eni uch yuz qadam, balandligi otda o'tirgan otliqning balandligicha. To'siqda juda baland arksimon kirish joyi, ichki va tashqi eshiklar bo'lib, ulardan biri yopilardi; eshiklar ham to'siqqa o'xshatib ziynatlangan. Kiraverishda to'rtburchak, kungurali minora qad ko'tarib turardi; mazkur to'siq ko'plab naqshlar bilan bezatilgan bo'lsa-da, biroq bu eshik, ark va minora boshqalariga qaraganda, afzalroq bezatilgan edi. Bu to'siqni ular salaparda (saroparda)[1] deydilar. To'siq ichkarisida har xil uslubda juda ko'p chodir va soyabonlar qurilgandi. Ushbu [chodirlar] ichida bittasi juda baland edi; u arqonlar bilan tortilmagan, dumaloq, devorlari yo'g'onligi nayzaday yoki undan yo'g'onroq to'rga o'xshatib, bir-biriga o'ralgan novdalardan yasalgan; uning tepasi gumbazsimon qilingan, u ham novdalardan [yasalgan], juda baland. Mazkur chodir qubbasi va devorlari o'zaro bilak qalinligidagi tasmalar bilan bog'langan va ular pastgacha davom etib, chodir devori yoniga qoqilgan qoziqlarga bog'langan[2]. Bu chodir shunchalik baland ediki, uni mana shu tasmalar ushlab turgani kishini (118) hayratga solmay qo'ymasdi[3]. [Chodir] ustki tomondan qizil gilam bilan yopilgan, ichidan esa quyosh tushmasligi uchun ip gazlama bilan tikib chiqilgan. Unga hech qanday kashta tikilmagan, faqat tashqi tomondan bo'ylamasiga bir-biri bilan kesishgan oq tasmalar belbog' bo'lib turardi. Bu tasmalar kattaligi kaftday keladigan oltin suvi yuritilgan kumush qadama bezaklar bilan ziynatlangan va ularga turli uslubda [qimmatbaho] toshlar ham o'rnatilgan. Mazkur chodir aylanasi bo'ylab o'rtadan mayda burmalar qilingan, xuddi

[1] *Saroparda* – podshohning chodiri.

[2] Klavixoning mazkur tavsifida o'tov nazarda tutilgan.

[3] Klavixo negadir o'zi tavsiflagan ushbu o'tovdagi navdalardan to'qilgan karkasni esdan chiqargan. Aslida o'tovni tasmalar emas, balki ana shu karkas ushlab turgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

yubkaning burmasiga o'xshash va zar iplar bilan tikilgan oq zig'ir belbog'[1] o'tgan. Shamol esganda, bu belbog'ning burmalari har tomonga pirpirar va bu juda ko'rkam [manzara] edi.

[Ikki tomoni] ingichka qamishdan yasalgan va qizil gilam bilan qoplangan baland, eshikli kirish [yo'li] chodirga olib borardi.

Bu chodirning yonida yana bir chodir bor edi, juda hashamatli, arqonlarga tortilgan, qizil mayin gilamdan. Shu yerning o'zida yana to'rtta chodir bor edi, ular o'zaro qo'shilgan va biridan ikkinchisiga o'tsa bo'ladi; ularning orasidan go'yoki yo'l o'tganday, ularning usti yopilgan.

Ushbu to'siq ichkarisida yana ko'pgina turli xil chodirlar o'rnatilgandi. Chunonchi, to'siq yonida boshqa bir xuddi shunday katta ipak chodir bor edi, go'yo koshinkori qilib ishlanganday, uning ba'zi joylariga eshikli derazalar ham o'rnatilgan, biroq undan hech kim kiraolmaydi, chunki unga ingichka ipak tasmalardan panjara ishlangan. To'siqning o'rta qismida yana bitta baland chodir turardi, xuddi birinchi [baland] chodirga o'xshagan, o'shanday qizil matodan va kumush to'qalar ishlangan. Bu chodirlar shunchalik baland ediki, xuddi uchta jangovar nayzalar misoli. Eng tepasida kumushdan oltin suvi qoplab ishlangan qanotlari yoyilgan bahaybat burgut [haykali], undan pastroqda chodirga kiraverishdan bir yarim sajen[2] (sarjin) masofada esa, kumushdan oltin suvi qoplab ishlangan uchta lochinning [haykalchalari] turardi, tartib bilan [o'rnatilgan]; biri – bir tomonda, boshqasi – boshqa tomonda. Bu lochinlarning [haykallari] qanotlari yig'ilgan holda [ishlangan], xuddi burgutdan [qo'rqib] uchishga hozirlanganday. [Uchinchisi esa] tumshuqlari burgut tomonga qaragan va qanotlari yoyilgan holatda tasvirlangan. Burgut esa, ko'rinishidan go'yo ana shu lochinlardan biriga hamla qilishga tayyor turganday. Burgut va lochinlar [haykallari] o'ta katta mahorat bilan ishlangan, bamisoli tirik [qushday].

Chodir eshigining oldida turli xil rangdagi ipak matodan ayvon qilingan soya solib, chodirni quyosh [nurlari]dan himoya qiladi. Quyosh qaysi tomonda bo'lishiga qarab, ayvon siljitib borilardi va u doim chodirni to'sib turardi.

Birinchi to'siq va [uning ichidagi] chodirlar senyorning birinchi, katta xotiniga tegishli bo'lib, uning ismi Kano (xonim – Saroymulkxonim), boshqa (chodir) – ikkinchi xotini Kinchikano (Kichik xonim – Tugal xonim), ya'ni kichik senyora (malika)ga tegishli edi.

Mazkur to'siq yonida boshqa matodan boshqa to'siq bor edi, unda ko'plab chodir va soyabonlar [o'rnatilgan]. Uning o'rtasida [ham] xuddi yuqorida tavsiflanganga o'xshash baland chodir qurilgan. (119) Ular sala-

[1] *Zig'ir belbog'* – bo'z belbog' nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

[2] *Sajen (sarjin)* – 2,134 metrga teng uzunlik o'lchov birligi.

@tarixchi_kitublar_ilmasiga

parda (saroparda) deb atagan bunday to'siqlar [jami] o'n bitta bo'lib, birin-ketin joylashgan va har biri rangi va bezatilishi jihatdan boshqalaridan farq qiladi. Har bir to'siq (saroparda)ning alohida katta, arqonlar bilan tortilmagan[1], qizil gilam bilan yopilgan, [ichi] bir xil ishlangan o'z chodiri bor edi. Har bir [to'siq-saroparda] ichida juda ko'p chodirlar va soyabonlar qurilgan; bir to'siq (saroparda)dan boshqasigacha bo'lgan [oraliq] masofa bir ko'cha [enidan] oshmaydi, chodirlar [va soyabonlar] ketma-ket joylashgan bo'lib, [hammasi birgalikda] juda chiroyli ko'rinadi. Bu to'siq (saroparda)lar senyorning xotinlariga va uning nevaralarining xotinlariga tegishli edi. Ular [o'zlari] va xotinlari yozin-qishin shu yerda xuddi uylarida yashaganday yashayveradilar.

Tushga yaqin senyor mazkur to'siq (saroparda)larning biridan chiqib, elchilar kelishi buyurilgan katta ayvonga kirdi va u yerda katta ziyofat berdi; unda [pishirilgan] qo'y va ot go'shtlari bisyor edi. Ziyofat oxirlagach, elchilar o'z manzillariga qaytdilar.

Keyingi seshanba yettinchi oktabrda (1404-y.) senyor o'z o'rdasida boshqa bir katta ziyofat uyushtirmoqni buyurdi. Bu tantanaga [ispan] elchilari ham hozir bo'ldilar; [tantana] yuqorida siz eshitgan to'siq (saroparda)larning birida o'tdi. [Temurbek] u yerga elchilarni olib kelishni buyurdi. Elchilar yetib kelganda, u o'sha yerda edi va kirmoqqa ruxsat etdi. U o'z udumiga ko'ra katta to'y berdi. Ovqatdan so'ng, podshoh xonadoniga yaqin amaldorlardan ikki kishi – birining ismi Xamelik (Shohmalik) mirassa, ikkinchisini – Noradin (Nuriddin) mirassa o'sha kuni senyorga tortiq olib keldilar.

Mazkur tortiq baland oyoqli ko'pgina kumush idishlardan iborat bo'lib, ularga shirinliklar, [jumladan], qand, mayiz, bodom, pista solingan edi. Har bir idishga bir bo'lak ipak mato [yopib] qo'yilgan. Bu idishlarni, udumga ko'ra, to'qqiztadan olib kirdilar, chunki senyorga tortiqlar to'qqiztadan qilinadi, ya'ni [har doim] to'qqizta narsa bo'lmog'i kerak. Bu tortiqni senyor o'sha yerdagi kavalerlari (a'yonlari) bilan bo'lib oldi, elchilarga esa, ipak mato yopilgan idishlardan ikkitasini ulashishni buyurdi. [Mehmonlar ketish uchun] o'rinlaridan turganlarida, ularning ustidan kumush tangalar va o'rtasiga feruza o'rnatilgan yupqa oltin marjonlar sochdilar. Ziyofat tugab, hamma uy-uyiga tarqab ketdi...

Keyingi payshanba, to'qqizinchi oktabrda, Mirassa Miaxi (Mironshoh), ya'ni senyorning katta o'g'lining xotini Xonsoda (Xonzoda) katta ziyofat tashkil qildi va unga elchilarni ham chorlagandi. Mazkur bayramni u o'ziga qarashli juda chiroyli chodirlar qurilgan to'siq (saroparda) ichida o'tkazdi. Elchilar uning chodiriga yetib kelganlarida, ko'plab sharob to'ldirilgan va yerga [qator] qo'yilgan ko'zalarni ko'rdilar. So'ngra elchilar-

[1] Bu yerda o'tov nazarda tutilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

ni (120) to'siq (saroparda) ichkarisiga boshlab bordilar; ular [Xonzoda] huzuriga kelganlarida, u ayvonda uning oldidagi o'rindiqqa o'tirishga taklif qildi. Xonzoda va uning huzuridagi boshqa zodagon xotinlar katta chodirga kiraverishdagi ayvonda o'tirishardi. U o'rindiqda o'tirardi, oldida esa uch-to'rtta ko'rpacha ustma- ust to'shab qo'yilgandi va u xohlagan paytda ularga yonboshlab yotib [dam] olishi mumkin edi.

O'sha kuni u bir qarindoshining to'yini o'tkazardi. U ko'rinishidan qirq yoshlar chamasida, yuzi oq, to'kingina [ayol] edi. Oldida juda ko'p sharob va boshqa ichimliklar to'ldirilgan ko'zalar turardi; bu ichimlikni ular biyaning sutidan qand solib tayyorlaydilar – bosat[1] deb ataydilar va uni juda ko'p iste'mol qiladilar.

Uning huzurida Temurbekning juda ko'p kavalerlari va qarindoshlari, shuningdek, [musiqa] chalib turgan mashshoqlar bor edi.

Elchilar yetib kelganlarida, u yerda allaqachon ichib o'tirishardi; uning tartibi quyidagicha: bitta qariya, senyorning qarindoshi va uning o'sha yerda turgan qarindoshlaridan ikkita kichkina bola unga va boshqa zodagon ayollarga piyola tutardilar. Buni quyidagicha bajaradilar: ularning qo'llarida sochiqqa o'xshash oq mato bor edi; sharob quyuvchilar kichik oltin kosacha (piyola)larni to'ldirib, ularni kichik yapaloq oltin idish (patnis)chalarga qo'yardilar. Sharob tutuvchilar oldinda, sharob quyuvchilar esa patnischalardagi piyolalar bilan orqada borardilar. Ular yarim masofani yurib o'tgach, to'xtab, o'ng tizzani uch marta bukib ta'zim qildilar. So'ngra piyolalarni patnischalar bilan birga olib, [Xonzoda] o'tirgan joyga bordilar. U yerda piyolalarni qo'l tegmasligi uchun sochiqlar ustiga qo'yib, uning va ichmoqchi bo'lgan o'sha yerdagi ayollarning oldida tiz cho'kardilar. Ular piyolani olgach, sharob keltirib patnischalarni tutib turganlar [o'rinlaridan] turib, orqa o'girmay qaytdilar va bir oz nariga borgach, o'ng tizzalariga cho'kkalagancha [kutib] turdilar. [Ayollar] ichib bo'lgach, ular yana yaqin keldilar, ular (ayollar) piyolalarni xizmatchilar (soqiylar) ushlab turgan patnischalarga qo'ydilar, (soqiylar) orqa o'girmay uzoqlashdilar. Bu ichish [marosimi] zudlikda o'tdi, deb o'ylamang, aksincha, juda uzoqqa cho'zildi va ayni paytda birorta yegulik bermadilar. Ba'zida xizmatkorlar [ayollar oldida] piyola ushlab turganlarida, ularga ichishni buyurardilar, shunda ular bir chekkaga o'tib, cho'kka tushgan holatda [sharobni] oxirigacha ichardilar va hech narsa qolmaganiga ishonch hosil bo'lishi uchun piyolani to'nkarib ko'rsatardilar.

[Ayni paytda] har biri o'z g'alabalari va kechmishlari haqida so'zlab berardi va hamma kulardi. Bu tantanaga Temurbekning xotini Kano (Saroymulkxonim) ham tashrif buyurgandi. Ular sharob va [biya] sutidan tay-

[1] *Bosat* – bo'za; lekin biyaning sutidan odatda qimiz tayyorlanadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

yorlangan ichimlik ichdilar. Sharobxo'rlik uzoq davom etib, (Saroymulkxonim) elchilarni yoniga chorlab, ularga o'z qo'li bilan sharob uzatdi; Rui Gonsalesni ichishga majbur qilish uchun u bilan rosa bahslashdi va uning umuman sharob ichmasligiga hech ishongisi kelmasdi. Sharobxo'rlik shu darajaga yetdiki, odamlar mast bo'lib, uning oldida chala o'lik holda ag'nab yotishardi; bu holatni (121) ular oliyhimmatlilik belgisi deb bilardilar, zero, ular uchun agar mastlar bo'lmasa zavq va xursandchilik o'rniga tushmaydi. [Sharobdan so'ng] juda ko'p qovurilgan ot va qo'y go'shtlari hamda tuzlangan go'shtdan[1] tayyorlangan turli taomlar tortdilar; ziyofat katta xursandchilik bilan o'tardi; ular bir-birlarining qo'lidan go'shtini tortib olar va, umuman, ziyofat hazil-huzulga aylangan edi. Go'shtni zudlikda tortib, ortidan o'sha zahoti turlicha tayyorlab [pishirilgan] guruch, qand va ko'katli non keltirdilar. Mazkur idishlarda tortilgan go'shtdan tashqari, yana teri [supra]larda ham [go'sht] keltirib xohlaganlarga qo'lda [uzatdilar].

Mirassa Miax (Mironshoh)ning xotini Xausada (Xonzoda) uni (erini) otasi bilan urishtirdi. U imperator (xon) xonadonidan bo'lgani sababli, Temurbek unga katta ehtirom ko'rsatardi. Xausada (Xonzoda)ning mirassa Miaxdan [bitta] o'g'li bo'lib, ismi Karil Soltan (Xalil Sulton) edi, yoshi yigirma yoshlar chamasida.

To'qqizinchi oktabr, payshanba kuni senyor nevaralaridan birining to'yini o'tkazib[2], unga elchilar ham kelishlarini buyurdi. To'y ko'plab chodirlar o'rnatilgan juda hashamatli to'siq (saroparda)da tashkil qilingandi; unga senyorning katta xotini Kano (Saroymulkxonim), Xusada (Xonzoda), zodagon ayollar, kavaler (a'yon)lar va boshqa el-ulus kelgan edilar. Ularning udumiga ko'ra, o'sha kuni juda ko'p [pishirilgan] ot va qo'y go'shti va sharob tortildi, hamma xursand edi.

Zodagon ayollar oldingi [ziyofatdagilar]ga o'xshash, sharob ichdilar. Katta shodiyona bo'lishi uchun senyor butun Samarkant ahli: tijoratchilar, gazlama va marvarid sotuvchilar, sarroflar, turli mollar va ashyolar bilan savdo qiluvchilar, oshpazlar, qassoblar, nonvoylar, tikuvchilar, poyabzal tikuvchilar, umuman, shahardagi barcha kosiblar [va boshqalar to'yga] chorlangan va ular uning o'rdasi joylashgan [ushbu] yalanglikka yig'ilsinlar. Hamma o'z chodirlarini qurib, shaharda emas, shu yerda savdo qilsinlar; va yana har xil o'yin-hazillar uyushtirib, xalqni xursand qilish uchun o'rdada namoyish etsinlar va hech kim senyorning ruxsatisiz ketib qolmasin, deb buyurgan edi. Ushbu farmonga ko'ra, hunarmandlar o'z mollarini olib shahardan chiqdilar va ularni sotish uchun [ushbu] o'rdada, ularga ajratilgan ko'chalarda, kasb-hunar turlari bo'yicha alohida-alohida joylash-

[1] *Tuzlangan go'sht* – sur go'sht nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

[2] Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»da (1972-y., 402-b varaq) Amir Temurning oltita nevarasining unashtirish to'ylari o'tganligini yozadi.

@tarixchi kutubxonasiga

dilar. Har bir kasb-hunar bo'yicha o'zlaricha o'yin-kulgi tashkil qildilar va butun o'rdani aylanib yurib, [xalqni] xursand qilardilar. Hunarmandlar o'zlarining xilma-xil chodirlarini qurgan joyda senyor ko'plab dor qurishni buyurdi; zero, bu xursandchilikda, uning aytishicha, u kimlargadir marhamat ko'rsatsa, ayrimlarni osishga hukm etarkan.

Senyor buyurgan dastlabki hukm uning bosh alkald (noib)laridan biriga chiqarilgan bo'lib, uni dina (vazir) deyishardi va u butun Samarkant imperiyasida bosh alkald (noib) edi. [Temurbek] uni bundan olti yil-u o'n bir oy muqaddam[1] mazkur shaharda bosh (122) alkald (hokim) qilib qoldirgandi.

Aytishlaricha, o'tgan vaqt ichida bu alkald o'z mansabini suiiste'mol qilgan ekan. [Senyor qaytib kelgach], uni talab qildi va darhol osishga va molmulkini musodara qilmoqqa hukm etdi. Shunday taniqli odamning jazoga tortilganidan hamma dahshatga tushdi, chunki u eng ishonchli shaxs sanalardi. U, shuningdek, mazkur alkaldga omonlik so'raganlarni ham jazoga mahkum etdi...

Shunga o'xshash yana bir qancha ishlar yuzasidan senyor jazoga hukm qildi. Shuningdek, ba'zi do'konlarni, ular go'shtni o'z bahosidan ortiq sotganlari uchun so'roq qildirdi. So'ngra ayrim poyabzalchilar va boshqa kosiblardan ham ular o'z mollarini [o'ta] qimmatga sotganlari uchun jarima olishni buyurdi...

Ularning odatida zodagon shaxsni qatl qilganda, dorga osadilar, past tabaqadagi odamni esa kallasini oladilar; kallasini olish o'ta og'ir jazo va tahqirlash sanaladi.

Keyingi dushanba, o'n uchinchi oktabrda senyor Temurbek ziyofat tuzmoqqa buyurdi va unga elchilarni ham chorladi...

(123) O'sha kuni elchilarni katta pavilyon etagida ilgariroq o'rnatilgan soyabon ostiga o'tqazdilar. Podshoh chodirlari va ayvon oldidagi yalanglikka bir tosh otim masofa oralig'ida sharob to'ldirilgan bochka (xum)lar qo'yib chiqilgandi; ular ushbu yalanglikda yarim liga masofadagi joyni egallab yotardi. Katta pavilyon tomonga biror kishi ana shu bochka (xum)lar turgan joydan nariga o'ta olmasdi, kamon ilib olgan va to'qmoq ko'targan otliqlar aylanib nazorat qilar, [mazkur chegaradan ichkariga] o'tib qolgan odamni qattiq do'pposlardi va uni darvozadan chala o'lik holatda olib chiqib ketardilar. Kim bo'lishidan qat'i nazar, shunday ish tutardilar. Butun yalanglikda juda ko'p xaloyiq to'plangan va senyorning chiqib katta pavilyonga borishini intizorlik bilan kutardi. Ushbu pavilyon yoniga ko'p ayvonlar qurilgan va har birida katta sharob to'la xum turardi; bu xumlar shunchalik katta ediki, ularga eng kamida o'n besh kantara[2] sharob sig'ardi.

[1] ...oy muqaddam – Amir Temurning yetti yillik yurishi (1398 – 1404).

[2] *Kantara* – suyuqlik o'lchov birligi; hozirgi vaqtda bir kantara 16,13 litrga teng.

@tarix_va_kutubxonasiga

Elchilar u yerda ancha vaqt kutib qolganlaridan so'ng, ularga turishga va podshohning yaqinda Kichik Hindistondan[1] kelgan nevarasini, u o'sha [viloyat]ning senyori (hokimi) ekan, olqishlash uchun borishlari lozimligini aytdilar. Senyor Temurbek [chopar] jo'natib, uning kelishini buyurgan edi, zero, uni ko'rmaganiga ham yetti yil bo'lgandi. Podshohning bu nevarasi katta merosxo'rining – marhum Yangir (Jahongir)ning o'g'li edi; senyor shu o'g'lini juda yaxshi ko'rardi va shu sababdan nevarasini ham yaxshi ko'rardi, uni Pir Magomad (Pirmuhammad) deb atardilar.

(124) Elchilar uning huzuriga yo'l oldilar, u qizil gilamdan yasalgan chodirda edi. U o'rindiqda o'tirar va oldida juda ko'p kavalerlar va xaloyiq hozir edi. Elchilar mazkur chodirga yaqinlashganlarida, ikkita kavaler istiqbolga chiqib, ularni qo'lidan ushlab tiz cho'kib ta'zim qilishni, turib bir oz yurgach, yana tiz cho'kishni buyurdilar. Chodirga kirgach, [elchilar] o'ng tizzalariga cho'kka tushib, qo'llarini ko'ksilariga qo'yib, boshlarini egib ta'zim bajo keltirdilar; so'ngra ularni boshlab kelgan kavalerlar o'rnilaridan turg'azib, bir chekkaga olib bordilar va [chodirdan] tashqariga olib chiqdilar.

Podshohning mazkur nevarasi, ularning odati bo'yicha juda yasangan edi; u zardo'zi qilingan havorang shoyidan ko'ylak kiygandi; [ko'ylakning] yelka, ko'krak va yeng qismlari doirasimon shaklda zardo'zi qilingan. Qalpog'i yirik marvarid va [qimmatbaho] toshlar bilan ziynatlangan, uchida bir dona yoqut yarqirab turardi. Mahalliy xaloyiq uni olqishlardi. U yerda ikkita kurashchi yengsiz kaftanga o'xshatib tikilgan charm kiyimda bellashar; ular ancha kuch sinashib, bir-birlarini yiqita olmasdi.

[Pirmuhammad] kurashchilardan biri albatta yiqitib g'olib chiqishi va yiqitganda uzoq vaqt raqibining turishiga yo'l qo'ymasligi lozimligini buyurdi. Xaloyiqning aytishicha, agar u o'rnidan tursa, g'oliblik berilmas ekan. O'sha kuni [ziyofatga] kelgan elchilar Temurbekning yigirma ikki yoshlar chamasidagi mazkur nevarasi bilan ko'rishish uchun uning huzuriga keldilar; u qorachadan kelgan va soqol qo'ymagan edi...

(125) Elchilarni [chodirdan] olib chiqib, ilgarigi joylari [ayvon]ga o'tqazdilar. Ular tushgacha o'sha yerda bo'ldilar; so'ngra senyor o'z chodiridan chiqib, katta pavilonga o'tdi va [ispan] elchilari hamda o'zining yaqin qarindoshlari, turli mamlakatlardan kelgan elchilarni ul yerga hozir bo'lmoqqa buyurdi. Hammalari o'sha pavilyonda bundan oldingi [ziyofatlardagi] tartibda o'tirdilar. O'sha kuni ko'plab turlicha tomoshalar bo'ldi va yana, podshoh fillarini yashil, qizil va boshqa ranglarga bo'yab, [ustiga] kajava o'rnatib, xilma-xil tomoshalar ko'rsatdilar. Bu tomoshalar va nog'oralar ovozidan shunday g'ulg'ula ko'tarilgandiki, kishi hayratga tushardi. Senyor o'tirgan pavilyonga juda ko'p musiqachilar yig'ilgandi. Bundan tashqa-

[1] *Kichik Hindiston* – Qandahor va unga yondosh hududlar nazarda tutilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

ri, senyorning oldida sharob to'ldirilgan uch yuztacha sharob to'la ko'za turardi hamda oyoqlari uchta qizil qoziqdan yasalgan uch oyoqli ikkita kat ustida har birida qaymoq va biya suti (qimiz) to'ldirilgan katta teri (burduk) yotardi; xizmatkorlar qo'llaridagi [yo'g'on] cho'plar bilan ushbu sutni aralashtirib, unga qand bo'laklari tashlab turardilar. [O'sha zahoti] ichish uchun shunday qilishardi.

Hamma o'z joyiga o'tirgandan so'ng, chodir yaqinidagi bitta to'siq (saroparda)dan senyorning katta xotini Kano (Saroymulkxonim) maxsus tashrif buyurdi. U quyidagicha kiyingan edi; zardo'zi qilingan keng va uzun qizil ipak ko'ylak; u uzunligidan yerda sudralib borar va yengsiz, bosh va qo'llar o'rnidan boshqa joyida o'mizi (o'ymasi) yo'q; ko'ylak juda keng, bel qismi qirqilmagan va etak qismi juda keng, u yura olishi uchun etagini o'n beshtacha ayol ko'tarib borardi. Yuziga shunchalik ko'p upa-elik surgan ediki, xuddi [oq] qog'ozga o'xshardi. Bu upalar quyosh [kuydirmasligi] uchun suriladi; ular qishda yoki yozda safarga chiqqanlarida shu yo'sinda yuzlarini asraydilar. [Kanoning] yuzi yuqa yengil mato bilan to'silgan, boshida qizil matodan go'yo shlem (dubulg'a) kiyganday, xuddi musobaqalarda bellashadigan [ritsarlarnikiga] o'xshash, bu mato bir oz yelkasiga tushib turardi. Bu shlem juda baland (126) va unga yaxshi ishlangan juda ko'pgina yirik, tovlanuvchi, dumaloq marvarid, ko'plab yoqut, feruza va boshqa (qimmatbaho) toshlar qadalgan. [Yelkasiga tushib turgan] yopinchig'i zar [iplar] bilan tikilgan; ustidan juda ko'rkam chambarak bo'lib, unga ko'plab [qimmatbaho] toshlar va yirik marvarid qadalgan. Undan tepada ikki barmoq kattaligidagi, juda chiroyli, yarqirab tovlanib turgan uchta yoqutdan yasalgan bezak o'rnatilgan edi. Eng uchida katta popuk zeb berib turardi, balandligi [bir] tirsak[1] keladi, patlari osilib turar, ba'zilari yuz-ko'zigacha osilib tushgan. Bu patlar bir-biri bilan oltin chilvircha vositasida [tutam qilib] bog'langan, [chilvirning] uchida qush patlaridan yasalgan, [qimmatbaho] toshlar va marvarid taqilgan gajim bor edi. U yurib borayotganda, bu popuk har tomonga hilpirab turardi. Uning sochlari tim qora, yelkasiga yoyilib tushgan; [bu ayollar] qora sochni yoqtiradilar va hatto qoraga bo'yab oladilar ham. Dubulg'ani bir qancha zodagon ayollar ushlab borar; umuman olganda, uni uch yuztadan ko'proq zodagon ayol kuzatib borardi. Boshi uzra soyabon eltardilar va bir kishi uning nayzasimon dastasidan olgandi. Bu [soyabon] oq ipak matodan tayyorlangan, chodirning dumaloq uchini eslatadi, yog'och gardishga tortilib [tikilgan]. Soyabonni quyoshdan pana qilish uchun uning boshi uzra ko'targan edilar. [Uning] va u bilan birga kelgan zodagon ayollarning oldida juda ko'p haram xodimlari, ya'ni bichilgan qullar kuzatib borardi.

[1] *Tirsak* – uzunlik o'lchov birligi, bir cho'zim ham deyiladi, taxminan 0,5 metr.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ushbu [hashamat bilan] u senyor o'rnashgan pavilyonga yetib keldi va o'rindiqqa, uning yoniga o'tirdi, yonida bir qancha ko'rpacha ustma-ust taxlangan. Uni kuzatib kelgan barcha zodagon ayollar pavilyon orqasida o'tirdilar. U o'tirgan joyda uchta kanizak uning dubulg'asini, biror tomonga ag'nab turmasligi uchun, avaylab ushlab turardilar. [Kano] o'tirgach, boshqa saropardadan senyorning ikkinchi xotini, xuddi birinchisi kabi juda hashamatli kiyingan, o'shanday dubulg'ada, zodagon ayollar [va kanizaklar] qurshovida, dabdabali tarzda chiqib keldi. U ham podshoh pavilyoniga kelib, birinchidan bir oz pastroqdagi o'rindiqqa joylashdi. Podshohning bu xotinini Kichikano[1] (Kichik-xonim) deyishadi.

Chodirlar o'rnatilgan keyingi saropardadan senyorning boshqa bir xotini, xuddi oldingilari kabi chiqib kelib, pavilyonda ikkinchi xotindan bir oz pastroqda o'rnashdi. Shu tarzda senyorning oldiga hammasi bir xil hashamatli bezangan to'qqizta xotin keldi. Ulardan sakkiztasi [Temurbekning] xotinlari, bittasi – nabirasining xotini edi...

(127) O'sha kuni senyor elchilarning hozir bo'lishlarini buyurdi, so'ngra qo'liga sharob to'ldirilgan qadahni olib [ilohiyot] magistriga tutdi, zero, Rui Gonsalesning [sharob] ichmasligini bilardi. Senyorning qo'lidan qadahni olganda, quyidagi tartibda ta'zim bajo aylardilar: ular yaqin kelish uchun avval o'ng tizza bilan cho'kka tushib, so'ngra yaqinroq kelib ikkala tizzada cho'kka tushgan holda uning qo'lidan qadahni olardilar, turib o'girilmasdan bir oz orqaga tisarilardilar va cho'kka tushgancha [qadahdagi sharobni] oxirgi tomchisigacha ichib tugatardilar, zero, oxirigacha ichmaslik hurmatsizlik sanalardi. [Sharobni] ichib bo'lgach, [o'rnilaridan] turib, qo'llarini manglaylariga tekizardilar.

Har bir elchini ikkita xodim qo'lidan tutib to [belgilangan] joygacha olib kelardilar. Elchilarni katta pavilyon yaqinidagi ayvonga joylashtirdilar. Bu pavilyon yonida ko'plab chodirlar va ayvonlar bo'lib, u yerda senyor qoshig'a kelgan va uning pavilyonida huzurida bo'lish nasib etmagan elchilar yig'ilgan edilar. Har bir ayvonda sharob to'ldirilgan xum turardi va undan o'sha yerdagilar ichardilar. [Ispan] elchilariga senyor o'z oldidagi [sharob to'la] ko'zalardan ikkitasini olib borishni buyurdi.

Senyor oldida arqon tortilgan ustunlar (dor) o'rnatilgan va unga odamlar (dorbozlar) chiqib tomosha ko'rsatardilar. Podshohning o'n to'rtta fili bo'lib, har biriga yog'och kajava o'rnatilgan va ular to'rtta sariq va yashil bayroqchali ipak mato bilan o'ralgan; kajavada besh yoki oltita odam o'tirardi. Undan tashqari, har bir filning bo'yniga qo'liga temir qamchi ushlab olgan [fil] boshqaruvchi minib olgandi va uni yugurtirib, turli tomo-

[1] *Kichikano (Kichik-xonim)* – To'kal-xonim, Mo'g'uliston xoni Xizrxojaning qizi; Amir Temur unga 1397-yili uylangan va uning Chingizxon avlodiga mansub ikkinchi xotinidir.

@tarixni_kutubxonasiga

shalar ko'rsatardi. Bu fillar qora, yungsiz, faqat tuyanikiga o'xshash dumida siyrak junlar bor, xolos. Ular bahaybat darajada katta, [har biri] to'rt yoki beshta katta ho'kizga teng keladi...

(129) O'sha kuni fillar bilan xilma-xil tomoshalar ko'rsatdilar, ularni otlar va odamlar ketidan yugurtirdilar, bu juda qiziq edi. Fillar hammasi birga yugurganda, xuddi yer larzaga kelganday bo'lardi. Umuman, yugurishda ot ham, boshqa hayvon ham unga tenglasha olmaydi. Jangda bitta fil mingta jangchi bilan barobar, mening bunga ishonchim komil, ular ham shunday fikrdadirlar. Fil odamlar orasiga tushganda, ikkala tomonga zarba beradi; o'zi yaralanganda esa, yo'l tanlamay sur'at bilan yuguradi va yaxshiroq jang qiladi, zero, uning qoziq tishlari uzun va ular vositasida [faqat] tepadan zarba bersa bo'ladi; shu sababdan ularni qisqartiradilar va unga qilichlarni bog'laydilar, shunda ular pastdan ham zarba berishga qodir bo'ladi. Aytishlaricha, fillar och holda uch kun ham urishishi mumkin.

O'sha kuni senyor va uning xotinlari ishtirok etgan ziyofatda juda ko'p butunligicha, hatto terisi bilan birga pishirilgan ot va qo'ylar hamda ko'plab terisiz qovurilgan qo'y [go'shti] tortdilar. Bu go'shtni xizmatkorlar katta doirasimon oltin [qadab] bezatilgan teri (supra)larga solib, yerda sudrab keltirdilar. Go'sht shu darajada ko'p ediki, uni uch yuztacha, ehtimol, undan ham ko'proq odam tashib kelardi. [Xizmatkorlar] senyor o'tirgan joyga shovqin-suron solib yetib keldilar. So'ngra o'z odatlari bo'yicha bu go'shtni idishlarga solib, udumga ko'ra, nonsiz tortdilar. Shu vaqt ichida go'sht ortilgan aravalar va kajavalarga go'sht to'ldirib yuklangan tuyalar ketma-ket kelib turardi; go'shtni xalqqa tarqatish uchun yerga taxlardilar. Tog'day bir dunyo go'shtni tezda yeb tugatdilar.

Joy bo'shagandan so'ng ko'pgina dasturxonsiz xontaxtalarni olib keldilar, ustida tuzlangan go'sht va guruch solingan kosalar, boshqa turli yeguliklar, shirin kulchalar bor edi. Oqshom ham bo'lgan edi va senyorning oldiga juda ko'p chiroqlarni yoqib keltirib qo'ydilar. Yeyish va ichish ham tezlashib ketdi, xursandchilik davom etar, kelayotgan xaloyiqning keti uzilmasdi; ko'p go'sht keltirdilar va to'y tuni bilan davom etishi aniq edi. O'sha tun senyor o'z qarindoshlaridan ikkitasining o'g'il-qizlarini nikoh to'yini o'tkazardi. Elchilar [to'yning] tuni bilan davom etishini bilganlaridan so'ng, o'z manzillariga qaytdilar; senyor va uning xotinlari qolib, to'y shodiyonalarini davom ettirdilar...

Keyingi kun, o'n oltinchi oktabr, payshanba kuni senyor katta ziyofat berdi va elchilarni ham unga kelishni buyurdi. Bu [ziyofat] eng katta va hashamatli (130) arqonsiz qurilgan chodirlardan birida tashkil qilingandi. [Senyor] elchilarni chorlab, u yerga o'zi bilan birgalikda kirishga taklif qildi.

@tarixchi_kutubxonasiga

O'sha kuni senyor va uning huzuridagilar sharob ichdilar. Ul kuni juda ko'p go'sht tortildi, shunchalik ko'p ichdilarki, ba'zilar o'tovdan [butunlay] mast holda chiqib ketdilar. Senyor o'tovda qoldi, elchilar manzillariga ketdilar, ziyofat tun bo'yi davom etdi.

Ertasiga, o'n yettinchi oktabr, juma kunida senyorning katta xotini Kano (Bibixonim) katta to'y berdi va unga elchilarni ham chorladi.

Kano bu to'yni o'ziga qarashli hashamatli saropardada va chodirlarda tashkil qilgan bo'lib, unga juda ko'p [mehmonlarni], jumladan, turli joylardan kelgan elchilar, o'z a'yonlari, zodagon ayollar, yaqin kishilar va boshqa turli odamlarni taklif qilgandi. U yashagan va ziyofat uyushtirgan saropardа rang-barang hashamatli chodirlar bilan bezatilgandi; oq va rangli matodan kashtalar tikilgan. Elchilar o'rdaga yetib kelganlarida, senyorning qarindoshlaridan bir nechta kavaler kelib, ularni mazkur saropardaga boshlab bordilar va chodirlardan birining eshigi oldida o'tqazdilar. Chodir qip-qizil gilam bilan qoplangan, ustiga ichki va tashqi tomondan oq naqshlar ishlangan. Ular (elchilar) ushbu chodirda o'rnashdilar va ularga go'sht bilan sharob keltirdilar. [Elchilar] ovqatlanib bo'lgach, Kano ularni uning ushbu saropardadagi chodirlarini tomosha qilishga taklif etdi.

U yerda juda ko'p hashamatli chodirlar bo'lib, bittasi juda katta va baland, arqonsiz chodirlar xilidan, ko'rkam ipak mato bilan qoplangan, tepadan pastigacha tasmalar shaklida oltin qoplangan kumush qadama bezaklar qadab chiqilgan. Bu chodir ichidan va tashqarisidan juda chiroyli kashta bilan ziynatlangan. Uning birin-ketin joylashgan ikkita eshigi bor; birinchi eshik ingichka, bir-biriga o'ralgan qizil chilvirdan, ustiga pushti rangdagi yengil mato qoplangan. Bu eshik shunday ishlanganki, yopiq holatda ham undan havo o'tib turadi va ichkaridagilar, o'zlari ko'rinmay turib, tashqarini bemalol kuzata oladilar. Mazkur eshik oldida boshqa bir eshik joylashgan, shunchalik balandki, undan otliq bemalol o'tishi mumkin; oltin qoplangan kumush bilan naqshlangan, emallangan, lazur va oltin bilan nafis o'ymakorlik qilingan...

(131) Elchilar bu chodirni tomosha qilib bo'lganlaridan so'ng, ularni men ilgariroq qayd etgan, qizil gilamdan va zardo'zi qilingan saropardaga olib bordilar; u yerda senyor o'z mirassalari va yaqinlari bilan o'tirardi. Erkaklar sharob ichib, o'tgan kechadagiga o'xshash maishat qilardilar; senyorning bitta qiz nevarasini boshqa bir o'g'il nevarasiga uzatardilar; ular ham shu saropardada edilar...

(132) Podshoh saropardasida hammasi bo'lib qirq yoki ellik (133) ming chamasi chodir o'rnatilgan bo'lib, ular ajoyib manzara hosil qilgandi. Bu chodirlardan tashqari yana ko'plab boshqa chodirlar ham bor edi va ular bog'larda, o'tloqlarda va shahar atrofidagi suv bo'ylariga qurilgandi.

@tarixni_kutubxonasiga

Bu to'yga senyor butun Samarkant imperiyasidan barcha mirassalar va davlatmandlarni chorlashni buyurgandi. Boshqalar qatori, Balaxiya (Badaxshon) senyori ham bor edi; bu katta shahar bo'lib, u yerdan yoqut qazib olinadi... Senyor Temurbek yoqut olinadigan joyga juda ko'p nazoratchilar qo'ygan...

O'ttizinchi oktabr, payshanba kuni senyor [daladagi] O'rdadan shaharga yo'l oldi va masjidli bir uyda[1] to'xtadi; bu [imorat]ni Turkiyada vafot qilgan nevarasi Maxomad Soltan (Muhammad Sulton) mirassani dafn etish uchun qurishni buyurgandi...

(134) Senyor shaxsan o'zi [bu yerga] tashrif buyurganida, daxma binosi unga ma'qul kelmadi va uni past qurilgan, deb topdi. U (daxmani) buzib, o'n kun ichida qaytadan qurishni buyurdi va aks holda, [quruvchilar] jazoga tortilajaklarini ta'kidladi. Ular shoshilganlaridan kun va tun ishladilar. Senyor o'zi ikki marta shaharga keldi; u biror joyga yo'l olsa, [uni] taxtiravonda olib yurardilar, zero, u endi otda yura olmasdi. Bu daxma o'n kun muddatda qurib bitkazildi. Shunday katta qurilish o'n kun ichida nihoyasiga yetgani kishini hayratga soladi. Podshoh mana shu nevarasi [ruhi]ga bag'ishlab o'sha kuni to'y (osh) berdi va unga juda ko'p xalq kelgan edi; ularning odatiga ko'ra [dasturxonga] ko'plab go'sht tortildi.

To'y (osh berish marosimi) tugagach, senyorning Xamelak (Shohmalik) ismli yaqin [a'yon]laridan biri elchilarni uning huzuridan olib chiqdi; ularga kimxob to'n kiydirdi va ustidan [yelkalariga] plashga o'xshash kiyim (chakmon) ham tashlab qo'ydi, buni ular sovuq paytda kiyadilar; u ipak matodan [tikilgan] bo'lib, astari mo'ynali, yoqasiga ikkita kunisa (suvsar terisi) tikilgan, boshlariga esa qalpoq kiydirdilar. U elchilarga bir yarim ming kumush tang (tanga) solingan qop ham sovg'a qildi. Bu ularning puli, har bir tanga ikki kumush realga teng keladi[2].

So'ngra [elchilar] yana senyorning huzuriga qaytdilar va ularning odatiga ko'ra, ta'zim bajo ayladilar. Senyor ertaga yana kelishlarini, suhbatlashib, ularga qaytishga ruxsat etajagini va o'g'li [Kastiliya] qiroli huzuriga esonomon yetib olishlari uchun oq yo'l tilab qolishini aytdi.

Senyor bu [imorat] qurilishi tugaganini ko'rib, yangisini boshlashga buyurdi, chunki u muntazam ravishda Samarkantning shuhratini orttirishga harakat qilardi.

[Ikki og'iz so'z] u nimalar qurganligi haqida

Har yili Samarkant shahrida ko'plab Katay (Xitoy), Hind (Hindiston), Tartaliya (Oltin O'rda) va boshqa turli joylardan hamda [Samarqand] yeri

[1] Muhammad Sulton qabri uzra barpo etilgan maqbara va xonaqoh.

[2] Amir Temur saltanatida muomalaga joriy etilgan kumush tanganing diametri 2,3–3 sm va vazni 5,8–6 gramm bo'lgan. Klavixo yozganidek, bitta kumush tanga ikki ispan kumush realiga teng kelgan.

@tarixiy_kutubxonasiga

(imperiyasi)ning o'zidan keltirilgan ko'plab mollar savdo qilinadi. Shaharda bemalol savdo-sotiq ishlari olib borish uchun maxsus maydon bo'lmagani sababli, senyor butun shaharni kesib o'tuvchi yo'l o'tkazishni va uning ikkala tomoniga savdo do'konlari qurishni buyurdi. [Senyor] bu ishni o'zining ikkita mirassasiga topshirdi va agar ular kunduz va kecha tirishib ishlamasalar, boshlari bilan javob berajaklarini ta'kidladi.

Mazkur mirassalar ishni yo'l o'tishi lozim bo'lgan uylarni, ularning egalari kim bo'lishidan qat'i nazar, buzishdan boshladilar. [Uylarning egalari] mol-mulklarini olib qochib qoldilar. Bu ishni uzluksiz davom ettirib, [tez orada] ko'chani juda kengaytirdilar va (yo'lning) ikki tomoniga chodirlar o'rnatdilar (135); har bir chodir oldiga ustiga yaxlit oq [marmar] plitalar qo'yilgan baland o'rindiqlar o'rnatilgan edi. Hamma chodirlar ikkitadan qilib birlashtirilgan, butun ko'cha gumbazsimon qilib bekitilgan va unga yorug'lik tushib turishi uchun derazalar qo'yilgandi. Chodirlar qurilishi tugashi bilan u yerga savdogarlarni yubordilar va ular o'z mollarini sotishga kirishdilar. Ko'chaning ba'zi joylariga favvoralar qurilgandi... Bu yerda ishlagan odamlar shahardan ish haqi olardilar va ish yurituvchilar o'zlari xohlagancha ishchi olishi mumkin edi. Kunduzi ishlaganlar kechqurun [uylariga] ketardilar va [o'rinlariga] kechasi ishlaydiganlar kelardi. Bir [qism ishchilar] uylarni buzsa, boshqalari yerni tekislar, uchinchi guruh esa qurardi va ular tun-u kun shovqin-suron bilan ishlar va jinlar bazmiga o'xshardi.

Ana shunday katta ish yigirma kunga qolmay nihoyasiga yetkazilganiga hayron qolasan kishi. Uylari buzilgan odamlar norozilik bildirgan bo'lsalarda, biroq buni oshkora ayta olmasdilar. Shunday bo'lsa-da, ba'zilar to'planib, ya'ni senyorning yaqinlaridan sanalmish kayrislar (sayyidlar) huzuriga bordilar. Bu kayrislar Magomet (Muhammad payg'ambar) avlodiga mansub. Kunlarning birida, [ulardan biri] senyor bilan shaxmat o'ynab turgan paytda, unga, modomiki, u [savdo] maydoni tashkil qilish maqsadida uylarni buzishga ruxsat etgan ekan, ularning [zararini] to'lashga ham buyursin, deb so'z qotdi. Aytishlaricha, [senyor] bu so'zlardan darg'azab bo'lib: «Bu shahar meniki, uni o'z pulimga sotib olganman va buning uchun yorliqlarim bor va ertaga ularni sizga ko'rsataman. Agar siz haq bo'lsangiz, u holda sizning istagingiz [bo'yicha] to'layman», – dedi. U shunday ohangda so'zlagan ediki, kayrislar [aytgan gaplariga] pushaymon bo'ldilar va keyinroq, nima sababdan u (senyor) ularni qatl qilishga hukm qilmagani va ular jazodan qutilib qolganlariga hayron bo'lganlarini aytardilar. Aytishlaricha, senyor hamma ishni tahsinga loyiq darajada qiladi va uning ko'rsatmalari bajarilmog'i shart...

(136) Birinchi noyabr, juma kunida elchilar buyruqqa ko'ra, senyorning huzuriga yo'l oldilar va qaytishga ruxsat etar, degan umidda edilar. Senyorni uning buyrug'i bilan qurilayotgan masjid (Bibixonim masjidi) qu-

@tarixchi_kitobxonasiga

rilishida topdilar. Ular tushgacha kutdilar, so'ngra senyor chodirdan chiqdi va maydonga qo'yilgan o'rindiqqa chiqmadi. O'sha yerga juda ko'p go'sht va mevalar keltirdilar. Ovqatdan so'ng elchilarga [manzillariga] ketishga ruxsat berdi va ular bilan suhbatlasha olmasligini aytdi. Zero, nevarasi Pir Magomad (Pirmuhammad)ni, ya'ni Hind podshosini kuzatishi lozimligini, uni kelgan yurtiga qaytarib yubormoqchi ekanligini aytdi. O'sha kuni senyor unga va u bilan kelgan yaqinlariga ko'plab otlar, kiyim-kechak va qurol-aslaha sovg'a qildi.

Keyingi kuni, shanbada, elchilar buyruqqa muvofiq, yana senyorning huzuriga yo'l oldilar; lekin salomatligi yomonligi sababli u chodirdan chiqmadi. Elchilar tushgacha kutdilar, odatda shu paytda (senyor) maydonga chiqardi; shu payt senyorning uchta yaqinlaridan biri elchilar qoshig'a kelib, ularga [manzillariga] qaytishni, senyorni ko'rishning iloji yo'qligini aytdi va ular manzillariga qaytdilar...

[Bir necha kundan so'ng] bir chakatay (chig'atoy) kelib, uni podshohning mirassalari yuborganini va ertaga tongda qaytishga hozirlik ko'rishlari lozimligini, u ham ular bilan birga [kuzatib] Toris (Tabriz)gacha borajagini, [safar chog'ida] ularni (137) hamma joyda, barcha shahar va qishloqlarda mirassalar buyrug'i asosida oziq-ovqat va boshqa zarur narsalar berilishini nazorat qilishini aytdi...

Yigirma birinchi noyabr, juma kunida hamma elchilar to'planib, Samarkantdan yo'lga chiqdilar.

Elchilarning (138) Samarkant shahrida ko'rgan-kechirganlari hikoyasidan so'ng, endi ushbu shahar va uning yerlari senyorning uni shon-shavkatini oshirish borasida qilgan ishlaridan so'zlashmoqchiman.

Samarkant shahri tekislikda joylashgan, paxsa devor va chuqur xandaqlar bilan o'ralgan. Uning shahar [devoridan] ichki qismi Sevilya shahridan bir oz kattaroq, shahar tashqarisida esa, ko'plab binolar qurilgan, (shaharga) tutashgan mavzelarga o'xshaydi. Shahar boshdan oyoq bog'lar va uzumzorlar bilan o'ralgan, ba'zi joylarda bir yarim yoki ikki *liga* masofagacha yastangan. Shahar esa ularning o'rtasida, bog'lar oralab ko'chalar va maydonlar joylashgan, aholi zich yashaydi, xalq bisyor, non, go'sht va boshqa narsalar sotiladi. Shaharga ko'ra, uning devoridan tashqarida aholi ko'proq. Shahar atrofidagi bog'larda ko'plab yirik va mashhur binolar qurilgan, senyorning u yerlarda o'z ko'shklari va asosiy yerto'lalari bor edi. Undan tashqari, bu bog'larda badavlat shaharliklarning o'z uy-joylari bor. Bu bog'lar va uzumzorlar shunchalik ko'pki, u yerga yetib kelgan kishi go'yoki o'rtasida shahar joylashgan, baland daraxtlar o'sib yotgan bir o'rmonga yaqinlashganday bo'ladi. Shahar va bog'lar orqali juda ko'p ariqlar o'tkazilgan; bu bog'larda ko'plab qovun va paxta [ham] yetishtiradilar. Bu yerda qovun juda ko'p va a'lo darajada.

@tarixiy_kutubxonasiga

Rojdestvo (Yangi yil) bayramigacha ularning [yurtida] qovun va uzum shunchalik bisyorki, kishi hayratda qoladi; har kuni qovun ortilgan tuyalar shu darajada ko'p keladiki, ular qanday qilib sotilarkan, deb ajablanasan. Qishloqlarda [qovun] juda ko'p va uni har yili xuddi anjirdek quritib saqlaydilar. Ularni saqlash usuli quyidagicha: [qovunni] ko'ndalangiga katta-katta bo'laklar shaklida kesadilar, so'ngra po'stini olib, quyoshga qo'yadilar; qurigach, yig'ib olib qoplarga joylaydilar va shu yo'sinda yillar davomida saqlaydilar. Shahar tashqarisida katta qishloqlar bor, podshoh u yerlarga zabt etgan mamlakatlardan odamlarni [ko'chirib] joylashtirgan.

Bu yerda hamma narsa – non, sharob, go'sht, mevalar, parranda juda bisyor; u yerning qo'ylari juda yirik, dumbasi katta, shundaylari borki, dumbasi yigirma funt[1] keladi, ya'ni bir odam qo'lida zo'rg'a ko'tara oladigan miqdorda. Qo'ylar juda ko'p va arzon, senyor lashkari bilan o'sha yerda turganida, ular (qo'ylar)ning ikkitasi bir dukkat[2] turardi. Boshqa mollar ham juda arzon... Bug'doy juda arzon, sholi juda ko'p... Bu o'lkada ipak mato, atlas, kimxob, sandal, tafta, tersenal (jun mato) ham ko'plab ishlab chiqariladi...

(139) Shu sababdan senyor bu shaharni rosa mashhur qilmoqchi edi va qaysi joyni zabt etsa, o'sha yerlardan odamlarni, xususan, har xil hunarmandlarni ushbu shaharga ko'chirib keltirgan...

[Temurbek] turli joylardan bu shaharga shunchalik ko'p erkak va ayolni ko'chirib keltirganki, aytishlaricha, [ularning soni jami] bir yuz ellik ming kishini tashkil etgan... Bu shaharda turli mollar juda ko'p va ular har xil mamlakatlardan oqib keladi...

(142) Samarkant shahrida qonunga qattiq rioya qilinadi, biror kimsa boshqa birovga senyorning farmonisiz ozor yetkaza olmaydi.

Senyor har doim o'zi bilan qozilarni olib yuradi, ular senyorning lashkarini va xonadonini kuzatib boradilar. Ular biror joyga borib qolsalar, o'sha yerdagi aholi ularga quloq tutadi. Mazkur qozilar quyidagicha mansablarga qo'yilgan: birlari yuz beradigan muhim ishlar va bahslarni eshitadi; boshqa birlari senyorning pul (moliya) ishlarini va shahardagi unga tobe hokimlarni nazorat qiladi; yana birlari elchilar bilan shug'ullanadi. Lashkar qo'nganda, ularning har biri qayerda bo'lishini va nima ish qilishini [yaxshi] biladi. Ular uchta chodir tikib, o'sha yerda ish bilan kelganlarni qabul qiladilar. [So'ngra] senyorning huzuriga borib, hisobot beradilar, undan qaytib [bir paytning o'zida] oltita yoki to'rtta [ish] yuzasidan qaror chiqaradilar. Ular biror-bir yorliq (yoki ko'rsatma) berishni buyurganlarida, u yerda doim hozir turgan kotiblar darhol yozadilar; u yozilgach, doim o'sha yerda

[1] *Funt* – og'irlik o'lchov birligi, bir funt bir qadoqqa teng (409,5 gramm).

[2] *Dukkat* – pul birligi, ispan oltin tangasi.

@tarixchi_kutubxonasiga

saqlanadigan qayd daftariga kiritadilar va [unga] belgi qo'yadilar; so'ngra uni oidorga[1] ko'rish uchun uzatadilar; [oidor] kumush o'yma muhrni olib, unga siyoh suradi va yorliqning ichki tomoniga muhr bosadi. So'ng uni boshqasi olib, o'z muhrini bosadi. Shu yo'sinda uch yoki to'rt [oidordan] o'tgach, o'rtaga podshoh muhrini bosadilar, unga «rostiy» so'zi yozilgan va o'rtasida quyidagi uchta belgi bor: ٭٭. Har bir maslahatchi [qozi]ning o'z kotibi va qayd daftari bor. Bu yorliqning (kuchi) shu darajadaki, undagi mirassalar yoki podshoh muhrini ko'rsatgan zahoti hamma [zarur] narsa o'sha kuni, o'sha soatda, kechiktirilmasdan amalga oshiriladi...

(144) Senyorning lashkari bor va u har doim u bilan birgadir hamda ularning boshliqlari quyidagi tartibda: (145) yuzliklar, mingliklar, o'n mingliklar va bitta barchasiga, xuddi konnetablga o'xshash. [Senyor] biror qo'shinga otlanmoqqa buyruq bersa, ana shu boshliqlarni chaqiradilar va u o'shalar orqali askarlarni o'z xohishi bo'yicha taqsimlaydi. Hozir bosh qo'mondon Yansa (Jahonshoh) ismli mirassa edi...

(1404-y.) Yigirma birinchi noyabr, juma kunida elchilar u yerdan, [ya'ni] Samarkantdan yo'lga chiqdilar va yaxshi, tekis, odam gavjum yo'l orqali olti kun yurdilar; ularga barcha zarur narsalar, yotoq joy va ovqat berishardi.

Yigirma yettinchi noyabr, payshanba kunida Boyar (Buxoro) atalmish katta shaharga yetib keldilar. U [shahar] tekislikda joylashgan, paxsa qo'rg'on va suv to'la chuqur xandaq bilan o'rab olingan. Bir chekkasida qo'rg'on o'rnashgan, u ham loydan [qurilgan], zero, bu yerda to'siqlar va devor qilish uchun tosh yo'q; qo'rg'on yonidan daryo oqardi. Shaharning mavzelari ko'p va u yerda katta binolar bor. Shahar bug'doy, go'sht, sharob va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari va ko'plab [boshqa] mollarga boy. Bu shaharda elchilar o'zlari uchun kerakli barcha narsalarni oldilar va ularga otlar ham berishdi... Mazkur shaharda [elchilar] olti kun bo'ldilar va shu vaqtda juda ko'p qor yog'di. Beshinchi dekabr juma kunida elchilar bu shahardan yo'lga otlandilar va uch kun tekislikda, aholi zich yashagan, ko'plab qishloqlar orqali yo'l yurib, Biamo (Obi Amu) daryosiga yetib keldilar...

(146) O'ninchi dekabr, chorshanba kunida ushbu katta Biamo daryosidan qayiqlarda suzib o'tdilar[2].

---

[1] *Oidor (ispancha)* – qozixona xizmatchisi.

[2] Klavixo «Kundaligi»da elchilarning to vatanlari Ispaniyagacha yetib borgunga qadar safar xotiralari batafsil yozilgan. Ular mazkur safarida quyidagi joylardan o'tganlar: Qoraqum cho'li, Abivard (21.12.1404), Xabushon (1.01.1405), Jojarm, Bistom, Dimg'on, Feruzkuh, Simnon, Qazvin (3.02.1405), Tabriz, Alashkert, Tarabzund (17.09.1405) – bu yerda kemaga o'tirib, Peru portiga (22.10.1405), Sitsiliya oroli (30.11.1405), Genuya porti (3.01.1406), Madrid yaqinidagi Alkala-de-Enares (24.03.1405)ga yetib borganlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Al-ansob.* I. – Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniy. *Al-ansob.* J. 1. Bayrut, 1988.

2. *Al-ansob.* II. – Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniy. *Al-ansob.* J. 2. Bayrut, 1988.

3. *Al-ansob.* IV. – Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniy. *Al-ansob.* J. 4. Bayrut, 1988.

4. *Ал-Балазури.* Завоевание Хорасана. – Ахмад ибн Йахйа ибн Джабир ал-Балазури. Завоевание Хорасана. Извлечение из сочинения «Футух ал-булдан» / Перевод с арабского, предисловие, комментарии и указатели Г. Гонбова. Душанбе, 1987.

5. *Ал-Бокувий.* Китоб талхис ал-осар. – Абд ар-Рашид ал-Бокувий. Китоб талхис ал-асар ва 'аджаиб ал-малик ал-каххар. (Сокращение [книги] «Памятниках» и чудеса царя могучего») / Издание текста, перевод, предисловие, примечания и приложения З.М. Буниятова. Москва, 1971.

6. *Al-Munjid.* – Luvays Ma'luf. Al-Munjid. Bayrut, 1981.

7. *Ал-Фаргани.* Астрономические трактаты. – Ахмад ал-Фаргани. Астрономические трактаты / Перевод с арабского, вводная статья и комментарии Б.А. Розенфельда, И.Г. Добровольского, Н.Д. Сергеевой при участии П.Г. Булгакова. Ташкент, 1998.

8. *Al-Farg'oniy.* Astronomiya. – Ahmad al-Farg'oniy. Astronomiya ilmi asoslari / Tarjimon A. Abdurahmonov. Toshkent, 1998.

9. *Al-Xorazmiy.* Tanlangan asarlar. – Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. Matematika, astronomiya, geografiya / Kirish maqolalari, tarjima, izohlar va ko'rsatkichlar muallifi Ashraf Ahmad. Toshkent, 1983.

10. *Ал-Хорезми.* Книга истории. – Мухаммад ибн Муса ал-Хорезми. Книга истории // Мухаммад ибн Муса ал-Хорезми. К 1200-летию со дня рождения. Москва, 1983.

11. *An-Nasafiy.* Al-Qand (1991). – Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy. Al-Qand fi zikr ulamo Samarqand / Nazar Muhammad al-Foryobiy nashri. – Ar-Riyod, 1412.

12. *An-Nasafiy.* Al-Qand (1999). – Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy. Al-Qand fi zikr ulamo Samarqand / Yusuf al-Hodiy nashri. Tehron, 1378 – 1420.

13. *Аршавская.* К изучению. – З.А. Аршавская. К изучению подземных сооружений в Средней Азии // Краеведение Сурхандарьи. Ташкент, 1989.

@tarixchi_kitobxonasiga

14. *Ахраров.* Археологические раскопки. – И.А. Ахраров. Археологические раскопки в Шахристане городища Кува // История материальной культуры Узбекистана, вып. 10. Ташкент, 1973.

15. *Байхаки.* История Масьуда. – Абу-л-Фазл Байхаки. История Масьуда (1030–1041). / Перевод с персидского, введение, комментарий и приложения А.К. Арендса. Изд. 2-е, дополненное. Москва, 1969.

16. *Bayhaqiy.* Tarixi Bayhaqiy. – Abulfazl Muhammad ibn Husayn Bayhaqiy. Tarixi Bayhaqiy. / Tas'hihi do'kto'r Ali Fayyoz. Chopi chahoro'm. Tehron, 1374.

17. *Бартольд.* К истории орошения. – В.В. Бартольд. К истории орошения Туркестана // Сочинения, т. III. Москва, 1965.

18. *Бартольд.* Т.VII. – В.В. Бартольд. Сочинения, т. VII. Москва, 1971.

19. *Бартольд.* Туркестан. – В.В. Бартольд. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. / Сочинения, т. I. Москва,1963.

20. *Бартольд.* Улугбек. – В.В. Бартольд. Улугбек и его время. Сочинения, т. II., ч. 2. Москва, 1964.

21. *Бахадиров.* Из истории классификации. – Р. Бахадиров. Из истории классификации наук на средневековом мусульманском Востоке. Ташкент, 2000.

22. *Бахадиров.* История Востока. – Р. Бахадиров. История Востока в «Ключах наук» // Шарқшунослик, №14, 2009.

23. *Бахадиров.* Классификация наук. – Р. Бахадиров. Классификация наук и её место в истории культуры мусульманского Востока (IX–XV вв.). Дисс. и автореф. дис.... д-ра филос. наук. Ташкент, 1997–1998.

24. *Бахадиров.* Мафатих ал-улум. – Р. Бахадиров. «Мафатих ал-улум» Абу Абдаллаха ал-Хорезми. Раздел «История» и его значение // Известия Национального центра археографии и источниковедения. Астана, 2012.

25. *Бахадиров.* Сочинение ал-Хорезми. – Р. Бахадиров. Сочинение ал-Хорезми «Мафатих ал-улум как источник по классификации наук» // Известия национального центра археографии и источниковедения. Астана, 2011.

26. *Bahodirov.* Abu Abdulloh al-Xorazmiy. – R. Bahodirov. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan. Toshkent, 1995.

27. *Bahodirov.* Al-Xorazmiyning falsafiy qarashlari. – R. Bahodirov. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning falsafiy qarashlari va uning ilmlar tasnifi masalasiga yondashuvi // O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida ilmiy-ma'rifiy g'oyalar. Toshkent, 2011.

28. *Bahodirov.* Ilmlar tasnifi. – R. Bahodirov. O'rta asrlarda musulmon Sharqida ilmlar tasnifi. Toshkent, 1999.

29. *Bahodirov.* Ilmlar fazilati. – R. Bahodirov. Ilmlar fazilati. Toshkent, 1997.

30. *Беленицкий.* Средневековый город. – А.М. Беленицкий, И.Б. Бентович, О.Г. Большаков. Средневековый город Средней Азии. Москва, 1973.

31. *Бернштам.* Очерки. – А.Н. Бернштам. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня, Памира и Алтая // Материалы и исследования по археологии СССР. Москва-Ленинград, 1952, №26.

32. *Беруни.* Канон Масьуда. – Абу Райхан Беруни. Избранные произведения, т. V, ч. II. Канон Масьуда, (книги VI – XI) / Перевод и примечания Б.А. Розенфельда

@tarixni_kutubxonasiga

и А. Ахмедова при участии М.М. Рожанской (перевод и примечания), С. Красновой и Ю. Смирнова (перев.), указатели А. Ахмедова. Ташкент, 1976.

33. *Beruniy.* Qadimgi xalqlar. – Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. J. I. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar / Tarjimon A. Rasulov. Izohlarni I. Abdullayev, A. Rasulov tuzgan. Toshkent, 1968.

34. *Beruniy.* Qonuni Mas'udiy. – Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. V j. 1-kitob. Qonuni Mas'udiy. 1 – 5-kitoblar / Tarjimon A. Rasulov. Izohlarni A. Ahmedov va A. Rasulov tuzgan. Toshkent, 1973.

35. *Beruniy.* Masofalarni aniqlash. – Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. J. III. Turarjoylar (orasidagi) masofalarni aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash (Geodeziya) / Muqaddima, tarjima va izohlar muallifi A. Ahmedov. Toshkent, 1982.

36. *Бируни.* Определение границ. – Абу Райхан Бируни. Избранные произведения. Т.III. Определение границ мест для уточнения расстояний между населенными пунктами (Геодезия) // Исследования, перевод и примечания П.Г. Булгакова. Ташкент, 1966.

37. *Большаков.* Заметки по исторической топографии. – О.Г. Большаков. Заметки по исторической топографии долины Зеравшана в IX – X вв. // Краткие сообщения о докладах и полевых исследованиях Института истории материальной культуры, вып. 61. Москва, 1956.

38. *Булгаков.* К истории. – П.Г. Булгаков. К истории Среднеазиатской средневековой астрономии // Общественные науки в Узбекистане, №10. Ташкент, 1980.

39. *Буряков.* Археологические памятники. – Ю.Ф. Буряков, М.Р. Касымов, О.М. Ростовцев. Археологические памятники Ташкентской области. Ташкент, 1973.

40. *Буряков.* Археологическое исследование. – Ю.Ф. Буряков. Археологическое исследование Рабинджана // История материальной культуры Узбекистана, вып. 19. Ташкент, 1984.

41. *Буряков.* Историческая топография. – Ю.Ф. Буряков. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака. Ташкент, 1975.

42. *Буряков.* Соборная мечеть. – Ю.Ф. Буряков, М. Салиев, М.Н. Федоров. Соборная мечеть Самарканда в XI – начале XIII в. // Афрасиаб, вып. 4. Ташкент, 1975.

43. *Бухарский вакф XIII века.* – Бухарский вакф XIII века / Издание текста, введение, перевод с арабского языка и комментарии А.К. Арендса, А.Б. Халидова, О.Д. Чехович. Москва, 1979.

44. *Vafoyot al-a'yon. I.* – Shamsuddin Abu-l-Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Xallikon al-Irbiliy. Vafoyot al-a'yon. J. 1. Misr, 1892.

45. *Vafoyot al-a'yon. II.* – Shamsuddin Abu-l-Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Xallikon al-Irbiliy. Vafoyot al-a'yon. J. 2. Misr, 1892.

@tarixchi_kutubxonasiga

46. *Велиханова.* Введение. – Н. Велиханова. Введение в изучение памятника / Ибн Хордадбек. Книга путей и стран / Перевод с арабского, комментарии, указатели и карта Н. Велихановой. Баку, 1986.

47. *Вяткин.* Материалы. – В.Л. Вяткин. Материалы к исторической географии Самаркандского вилайета // Справочная книжка Самаркандской области, вып. 7. Самарканд, 1902.

48. *Гардизи* (Ташкент, 1991). – Абу Са'ид Гардизи. Зайн ал-ахбар. Украшение известий. Раздел об истории Хорасана / Перевод с персидского А.К. Арендса. / Введение, комментарии и указатели Л.М. Епифановой. Ташкент, 1991.

49. *Gardiziy* (Tehron, 1347). – Abu Said Gardiziy. Zayn-ul-axbor / Nashrga tayyorlovchi Abdulhay Habibiy. Tehron, 1347.

50. *Гоибов.* Ранние походы. – Г. Гоибов. Ранние походы арабов в Среднюю Азию (644 – 704 гг.). Душанбе, 1989.

51. *Dehxudo.* Lug'atnoma. – Ali Akbar Dehxudo. Lug'atnoma. J. 12. Tehron, 1952.

52. *Заднепровский.* Исследование. – Ю.А. Заднепровский. Исследование древнего Касана // Археологические открытия 1983 года. Москва, 1985.

53. *Зимин.* Развалины Пайкенда. – Л.А. Зимин. Развалины Старого Пайкенда // Протоколы Туркестанского кружка любителей археологии. Т. 18. Вып. 2. Ташкент, 1913.

54. *Ибн ал-Факих.* Ахбор ал-булдон. – Ибн ал-Факих. Ахбор ал-булдон / Введение, перевод с арабского, издание текста и комментарии А.С. Жамкочяна. Ереван, 1979.

55. *Ibn Arabshoh.* Amir Temur tarixi. – Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-kitob / So'zboshi, arab tilidan tarjima va izohlar muallifi U. Uvatov; mas'ul muharrir A. O'rinboyev. Toshkent, 1992.

56. *Иванов.* Хозяйство Джуйбарских шейхов. – П.П. Иванов. Хозяйство Джуйбарских шейхов. К истории феодального землевладения в Средней Азии в XVI – XVIII вв. Москва-Ленинград, 1954.

57. *История ат-Табари.* – История ат-Табари. Избранные отрывки / Перевод с арабского В.И. Беляева. Дополнения к пер. О.Г. Большакова и А.Б. Халидова. Ташкент, 1978.

58. *История Грузии.* – История Грузии. Т. I. / Н.А. Бердзенишвили, В.Д. Дондуа, М.К. Думбадзе, Г.А. Машкишвили, Ш.А. Месхиа. Тбилиси, 1962.

59. *История Самарканда.* – История Самарканда. В двух томах. Т. I. Ташкент, 1969.

60. *Yazdi.* Zafarname.– Yazdi (Sharafuddin Ali). Zafarname. J. 1 – 2. / Ba tasxix va ixtimam Muxammad Abbas. Tehron, 1336.

61. *Кабанов.* Нахшеб. – С.К. Кабанов. Нахшеб на рубеже древности и средневековья (III – VII вв.). Ташкент, 1977.

62. *Камалиддинов.* Историческая география. – Ш.С. Камалиддинов. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX – начала XIII вв. Ташкент, 1996.

63. *Камалиддинов.* К биографии. – Ш.С. Камалиддинов. К биографии Наршахи // Общественные науки в Узбекистане, № 9, 10, 11. Ташкент, 1997.

@tarixchi_kitobxonasiga

64. *Камолиддин.* Новые данные. – Ш.С. Камолиддин. Новые данные о потомках царя Согда Гурака // Общественные науки в Узбекистане, №3. Ташкент, 2003.

65. *Кандия Малая.* – Кандия Малая / Перевод с фарси, предисловие и примечания В.Л. Вяткина / Справочная книжка Самаркандской области. Вып. 8. Самарканд, 1906.

66. *Караев.* Арабские источники. – О. Караев. Арабские и персидские источники IX – XI вв. о киргизах и Киргизии. Фрунзе, 1968.

67. *Кары-Ниязов.* Астрономическая школа. – Т.Н. Кары-Ниязов. Астрономическая школа Улугбека. Избранные труды. Т. VI. Ташкент, 1967.

68. *Кары-Ниязов.* Обсерватория Улугбека. – Т.Н. Кары-Ниязов. Обсерватория Улугбека в свете новых данных / Научная сессия АН УЗССР. Ташкент, 1947.

69. *Кары-Ниязов.* Улугбек. – Т.Н. Кары-Ниязов. Улугбек – великий астроном XV в. // Из истории эпохи Улугбека. Ташкент, 1964.

70. *Клавихо.* Дневник путешествия. – Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403 – 1406) / Перевод со староиспанского, предисловие и комментарий И.С. Мироковой. Москва, 1990.

71. *Колесников.* Завоевание Ирана. – А.И Колесников. Завоевание Ирана арабами (Иран при правых халифах). Москва, 1982.

72. *Кочнев.* Работы. – Б.Д. Кочнев. Работы в Каршинском оазисе // Археологические открытия 1978 года. Москва, 1979.

73. *Крачковский.* Арабская географическая литература. – И.Ю. Крачковский. Арабская географическая литература / Избранные сочинения. Т. IV. Москва – Ленинград, 1957.

74. *Liday gezu.* – Liday gezu chjuanji xueybyan (Avloddan avlodga saqlanib kelayotgan xalqlarga oid tarixiy xotiralar to'plami). 2-j. Shanxay, 1959.

75. *Лунина.* Города. – С.Б. Лунина. Города Южного Согда в VIII – XII вв. Ташкент, 1984.

76. *Лунина.* Сельское поселение. – С.Б. Лунина. Сельское поселение Киндыктепе // Археологические открытия 1982 года. Москва, 1984.

77. *Makorim ul-axloq.* – Makorim ul-axloq. Dar sharh-i zindagoni muallifot va asar-i umroni Mir Alisher Navoi / Ba muqaddima, tashih, ta'liqot va fahoris-i Abdulg'affor Bayoniy. Kobul, 1260.

78. *Маньковская.* О типологии. – Л.Ю. Маньковская. О типологии мемориального зодчества Средней Азии. Мавзолеи Фудины и Касби // Культура и искусство народов Средней Азии в древности и средневековье. Москва, 1979.

79. *Массон.* Ахангеран. – М.Е. Массон. Ахангеран. Археолого-топографический очерк. Ташкент, 1953.

80. *Массон.* Городища. – М.Е. Массон. Городища Старого Термеза и их изучение // Термезская археологическая комплексная экспедиция. Ташкент, 1940.

81. *Массон.* Столичные города. – М.Е. Массон. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи. Ташкент, 1973.

82. *Matla'i sa'dayn.* – Abdurazzoq Samarqandiy. Matla'i sa'dayn va majma'i bahrayn, II j. 1-kitob. / Fors-tojik tilidan tarjima, kirish so'z va izohli lug'atlar A. O'rinboyevniki. Toshkent, 1969.

@tarixchi_kutubxonasiga

83. *Mahmud Koshg'ariy.* Devon. – Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk, 3-jild. / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. Toshkent, 1960 – 1963.

84. *Мец.* Мусульманский ренессанс. – А.Мец. Мусульманский ренессанс, 2-ое издание. Москва, 1973.

85. *Miyon Buzruk.* O'zbek tarixiga oid. – Miyon Buzruk. O'zbek tarixiga oid to'rt muhim kitob // Maorif va o'qituvchi, № 9 – 16, 1927.

86. *Миклухо-Маклай.* Описание. – Н.Д. Миклухо-Маклай. Описание таджикских и персидских рукописей. Т. IV. Вып. 2, 3. Москва, 1961.

87. *Muqaddima-yi Zafarnoma.* – Muqaddima-yi Zafarnoma. O'zRFASHI qo'lyozmasi, № 4472.

88. *Муминов.* Роль и место ханафитских «улама». – Муминов А.К. Роль и место ханафитских «улама» в жизни городов Центрального Мавераннахра (II – VII/ VIII – XIII) / Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. Ташкент, 2003.

89. *Muntaxab al-Qand.* – Abu-l-fazl Muhammad ibn Abduljalil as-Samarqandiy. Muntaxab al-Qand. Parij, Fransiya Milliy kutubxonasi. Qo'lyozma № 6284.

90. *Mu'jam al-buldon.* V. – Abu Abdulloh Yoqut ibn Abdulloh al-Hamaviy ar-Rumiy al-Bag'dodiy. Mu'jam al-buldon. J. 5. Misr, 1906.

91. *Наджиб Бакран.* Джахан-наме. – Мухаммед ибн Наджиб Бакран. Джахан-наме (Книга о мире) / Издание текста, введение и указатели Ю.Е. Борщевского. Москва, 1960.

92. *Наршахи.* История Бухары. – Наршахи. История Бухары / Перевод Н. Лыкошина. Ташкент, 1897.

93. *Narshaxiy.* Buxoro tarixi (1966). – Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent, 1966.

94. *Narshaxiy.* Buxoro tarixi. – Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. / Fors tilidan A. Rasulov tarjimasi; mas'ul muharrir A. O'rinboyev // «Meros» turkumi. Toshkent, 1991.

95. *Негматов.* Государство Саманидов. – Н.Н. Негматов. Государство Саманидов. Душанбе, 1977.

96. *Негматов.* Историко-географический очерк. – Н.Н. Негматов. Историко-географический очерк Усрушаны с древнейших времен по X в. н.э. // Труды ТАЭ. Т.II, 1948–1950 (МИА, №37), 1953.

97. *Nizomiddin Shomiy.* Zafarnoma. – Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. / Fors tilidan o'giruvchi – Yu. Hakimjonov. Tarjimani qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir – A. O'rinboyev. Izohlar va lug'atlarni tuzuvchi – H. Karomatov (geografik nomlar izohi – O. Bo'riyevniki). Hofizi Abruning «Zafarnoma»ga yozgan «Zayl»i – («Ilova»)ni forsiydan o'giruvchi va izohlarini tuzuvchi – O. Bo'riyev. Toshkent, 1996.

98. *Обельченко.* Шахривайронская пряжка. – О.В. Обельченко. Шахривайронская пряжка // История и археология Средней Азии. Ашхабад, 1978.

99. *Османов.* О значении. – М.Н. Османов. О значении термина «дихкан» в «Шах-наме» Фирдоуси // Краткие сообщения Института народов Азии. Вып. 39. Иранский сборник. Москва, 1963.

@tarix_chi_kutubxonasiga

100. *Рашид-ад-дин.* Джами-ат-таварих. – Фазлуллах Рашид-ад-дин. Джами-ат-таварих. Т. III. / Составитель научно-критического текста на перс. языке А. Ализаде. / Перевод с персидского языка А.К. Арендса. Баку, 1957.

101. *Samariya.* – Abu Tohir Xo'ja Samarqandiy. Samariya / Fors tilidan A. Sattoriy tarjimasi // «Meros» turkumi. Toshkent, 1991.

102. *Sam'oniy* (Bayrut, 1881). – Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniy. Al-ansob. 10 jildlik. / Abd ar-rahmon ibn Yahyo al-Muallimiy nashri. Bayrut, 1981.

103. *Sam'oniy* (Bayrut, 1888). – Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniy. Al-ansob. J. 1 – 5. Bayrut, 1988.

104. *Saolibiy.* Yatimat ad-dahr. – Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat ad-dahr fi mahosin axl al-asr / Tadqiq qiluvchi, tarjimon, izoh va ko'rsatkichlarni tuzuvchi I. Abdullayev. Toshkent, 1976.

105. *СВР. Т.I.* – Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. Т. I. / Под редакцией А.А. Семенова. Ташкент, 1952.

106. *СВР. Т.V.* – Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. Т. V. / Под редакцией А.А. Семенова. Ташкент, 1960.

107. *Смирнова.* Из истории. – О.И. Смирнова. Из истории арабских завоеваний в Средней Азии. Договор арабского полководца Кутайбы с царем Согда Гуреком, заключенный в 712 г. // Советское востоковедение, № 2. 1957.

108. *Смирнова.* Сводный каталог. – О.И. Смирнова. Сводный каталог согдийских монет. Москва, 1981.

109. *Ставиский.* О датировке. – Б.Я. Ставиский. О датировке ранних слов Тали Барзу // Советская археология, № 2. 1967.

110. *Стори.* Персидская литература. Ч. 3. – Ч.А. Стори. Персидская литература. Био-библиографический обзор. Ч. 3. / Перевел с английского, переработал и дополнил Бретель Ю.Э. Москва, 1972.

111. *Сулейманов.* Результаты. – Р.Х. Сулейманов, Б. Ураков. Результаты предварительного исследования античного городища селения Рамиш // История материальной культуры Узбекистана, вып. 13. Ташкент, 1977.

112. *Tazkirat ush-shuaro.* (Bombey, 1887). – Davlatshoh Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro / Nashrga Mirza Muhammad tayyorlagan. Bombey, 1887.

113. *Tazkirat ush-shuaro.* (Tehron, 1958). – Davlatshoh Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro / Nashrga Muhammad Ramazoniy tayyorlagan. Tehron, 1958.

114. *Tazkirat ush-shuaro.* (Toshkent, 1981). – Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni. / B.Ahmedov tayyorlagan. Toshkent, 1981.

115. *Tarixiy xotiralar.* – Sima Chyan. Tarixiy xotiralar (uyg'urcha tarjima). Urumchi, 1989.

116. *Temur tuzuklari.* – Temur tuzuklari / Forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi. Toshkent, 1991.

117. *Туребеков.* Исследование. – М. Туребеков, М. Хасанов. Исследование древнего Касана // Археологические открытия 1981 года. Москва, 1983.

118. *Умняков.* К вопросу. – И.И. Умняков. К вопросу об исторической топографии средневековой Бухары // Сборник Туркестанского восточного института в честь А.Э. Шмидта. Ташкент, 1923.

@tarix_kutubxonasiga

119. *Fasix.* Mujmali Fasihiy (1963). – Fasix Xavofiy. Mujmali Fasihiy. / Ba tasxix va taxshiya Maxmud Farrux, jildi avval. Baxshi avval. Tus-Meshxed. 1339/1961; Jildi dovvum. – Tus-Meshxed. 1341/1963.

120. *Фирдоуси.* Шах-наме. – Фирдоуси. Шахнаме / Критический текст. Т. 8. Москва, 1970.

121. *Fixrist-i kitobxonai majlis.* – Fixrist-i kitobxonai majlis shoravi milli. J. 2. / Ta'lif Yusuf Etisomiy. Tehron, 1311.

122. *Fixrist-i nusxahoyi.* – Fixrist-i nusxahoyi xatt-i forsi. J. 6. / nigoranda-i Ahmad Munzaviy. Tehron, 1974.

123. *Habibullayev.* O'rta Osiyoda. – N.N. Habibullayev. O'rta Osiyoda qog'oz ishlab chiqarish tarixi. Toshkent, 1992.

124. *Хайруллаев.* Абу Абдаллах ал-Хорезми. – М.М. Хайруллаев, Р.М. Бахадиров. Абу Абдаллах ал-Хорезми, X век. Москва, 1988.

125. *Hikmatullayev.* Yoqut al-Hamaviy. – H. Hikmatullayev. Yoqut al-Hamaviy. Toshkent, 1965.

126. *Хинц.* Мусульманские меры. – В. Хинц. Мусульманские меры и веса с переводом в метрическую систему. Материалы по метрологии средневековой Средней Азии / Перевод с немецкого Давидович Е.А. Москва, 1970.

127. *Hoji Xalifa.* Kashf az-zunun. – Mulla Kotib Chalabiy (Hoji Xalifa). Kashf az-zunun an asami-l-kutub va-l-funun. Misr, 1310.

128. *Xondamir.* Habib us-siyar. – Xondamir. Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar. O'zR FA SHI qo'lyozmasi, inv. №№ 2153, 4302/1, 4399, 4421 va b.; juzz-i seyum az jild-i seyum. Bombey, 1273/1856 – 1857.

129. *Xondamir.* Xulosat ul-axbor.– Xondamir. Xulosat ul-axbor fi bayon ahvol ul-axyyor. O'zR FA SHI qo'lyozmasi, inv. №№ 3, 1523, 2209, 2210, 2685, 4212, 5365, 5366.

130. *Sixay.* – Sixay (So'zlar dengizi). Shangxay, 1979.

131. *Чехович.* Бухарские документы. – О.Д. Чехович. Бухарские документы XIV в. Ташкент, 1965.

132. *Чехович.* Самаркандские документы. – О.Д. Чехович. Самаркандские документы XV – XVI вв. Москва, 1974.

133. *Chjao Shenglyang.* – Chjao Shenglyang, Chjang Yanmey Mo Gaoku (Dunxung ming uyi). Pekin, 1995.

134. *Chjungguo dabayke.* – Chjungguo dabayke chyuanshu. Chjungguo lishi (Xitoyning katta ensiklopediyasi. Xitoy tarixi). Pekin, 1997 (xitoy tilida).

135. *Chjungguo liday.* – Chjungguo liday guanchji sidyan (Xitoyning o'tmishdagi ma'muriy lavozimlari lug'ati). Xefey, 1991.

136. *Chjungguo mingsheng.* – Chjungguo mingsheng sidyan (Xitoyning tarixiy yodgorliklari lug'ati). Shanxay, 1987.

137. *Chjungguo shigao.* – Chjungguo shigao ditu ji (Xitoyning tarixiy xaritalar to'plami). 2 jilddan iborat. 1-jild, 4-nashr. Shangxay, 1996.

138. *Chen Chen.* Siyuy sinchenszi. – Chen Chen. Siyuy sinchenszi. («G'arbiy mamlakatlarga sayohat xotiralari») // Minchaoben. Beyszin, 1936.

139. *Chen Chen.* Siyuy fangochji. – Chen Chen. Siyuy fangochji. («G'arbiy yerlar davlatlari tavsifi») // Minchaoben. Beyszin, 1936.

@tarixchilar_kutubxonasiga

140. *Sharafuddin Ali Yazdiy.* Zafarnoma (1994). – Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Movarounnahr voqealari. 1360 – 1370. / Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi O. Bo'riyev. Mas'ul muharrir, so'zboshi muallifi va nashrga tayyorlovchi A. O'rinboyev. Toshkent, 1994.

141. *Sharafuddin Ali Yazdiy.* Zafarnoma (1997). – Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / Fors tilidan Muhammad Ali Buxoriy tarjimasi. Toshkent, 1997.

142. *Sharafuddin Ali Yazdiy.* Zafarnoma (1972). – Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma (fotofaksimil nashri) / Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi, izoh va ko'rsatkichlar muallifi A. O'rinboyev. Toshkent, 1972.

143. *Shiyuy tungshi.* – Shiyuy tungshi (G'arbiy mamlakatlarning umumiy tarixi). Changsha, 1995.

144. *Yuan Shu.* Tungjyan. – Yuan Shu. Tungjyan jishi benmuo (Muhim tarixiy voqealar bayoni). 8 jilddan iborat faksimil nashri. Shanxay, 1955 (xitoy tilida).

145. *Baethgen.* Fragmente. – F. Baethgen. Fragmente syrisher und arabisher Historiker. Leipzig, 1884.

146. *Das Kitab surat al-ard.* – Das Kitab surat al-ard des Abu Ga'far Muhammad ibn Musa al-Huwarazmi / Arabisher text, Herausgegeben nach dem handschriftlichen Unicum der Bivlioteque de L'Univercite et regionale in Strassburg (cod. 4247) von, Hans v Mzik, Leipzig, 1926.

147. *Daunicht.* Der Osten. – H. Daunicht. Der Osten nach der Erdkarte al-Xuwarasmis. Beitrage zur Historishen Geographie und Geschichte Asiens. Bd. IV, Erster Teil. Bonn, 1970.

148. *Eckman.* Die tschagataische. – I.Eckman. Die tschagataische Literatur Philologia turcicae fundamenta, t. II, 1964.

149. *Ibn al-Fakih.* Compendium. – Ibn al-Fakih al-Hamadani. Compendium libri Kitab al-Buldan / Ed.M.J de Goeje. Bibliotheca geographorum arabicorum, pars. 5. Lugduni Batavorum, 1967.

150. *Ibn an-Nadim.* Kitab al-Fihrist. – Ibn an-Nadim. Kitab al-Fihrist, herausgegeben von G.Tlugel, Bd.I. Leipzig, 1871.

151. *Ibn Wadhih.* – Ibn Wadhih qui dicitur al-Ja'cubi. Historiae, pars altera historian continens / Ed.M.Th. Heutsma. Luqduna Batavorum, 1883.

152. *Ifcut's geographisches.* – Ifcut's geographisches Worterbuch / Hrsq.von F.Wustenfeld. Laipsig, 1866 – 1873.

153. *Kennedi.* A Letter. – E.S.Kennedi. A Letter of Jamshid al-Kashi to his father. Orientaliya, Vol. XXIX, №2. Beirut,1960.

154. *Khwandamir.* Qonun-i Humayni. – Qonun-i Humayni of Khwandamir (Persian text with notes and preface) edited by M. Hidayat Hosain. – Calcutta, 1940.

155. *Lexicon bibliographicum.* – Lexicon bibliographicum et encyclopaedicum Mustafa ben Abdallah Katib jelebi dicto et nomine Haji Khalfa celebrato compositum Gustavus Feuegel, t. IV. Leipzig-London, 1850.

156. *Liber Mafatih.* – Liber Mafatih al-Olum. Auctore Abu Abdallah Mohammed ibn Ahmed ibn Jusof al-Katib al-Khowarezmi / Ed., indices adjecit G.van Vloten. – Lugduni – Batavorum, 1895.

157. *Makarim al-akhlaq.* – Makarim al-akhlaq, fac. // Ed. T. Gandjei. [Cambridge] Trustees of the E.T.W. Qibb Memorial, 1979.

@tarixchi_kutubxonasiga

158. *Nallino.* al-Khuwarizmi. – C.A. Nallino. Al-Khuwarizmi e ie suo rifacimento della Geographia di Tolomeo // Nallino C.A. Raccolta di scritti, vol. V. Roma, 1944.

159. *Rieu.* Catalogue (III). – Ch. Rieu. Catalogue of the Persian manuscripts in the British Museum, vol.III. London, 1979.

160. *Rieu.* Catalogue. – Ch. Rieu. Catalogue of the Persian manuscripts in the British Museum, vol.I. London, 1979.

161. *Rieu.* Supplement. – Ch. Rieu. S66. upplement to the catalogue of the Persian manuscripts in the British Museum. London, 1985.

162. *The tarikh-i-jahangusha.* – The tarikh-i-jahangusha of Ala ud-din Juwaini. / Edit. by Mirza Muhammad Qazvini (GMS, XVI, I, II, III), Zeyden-London, 1912, 1916, 1937.

163. *Ulyg Bey ve Semerkanddeki ilim.* – Ulyg Bey ve Semerkanddeki ilim faaliyeti hakkinda Giyasuddini Kosinin mektubu (Ghiyath al Din al Kashi's letter on Ulugh Bey and the scientific activity in Samarqand) / Published by Aydin Sayili. Ankara, 1960.

@tarixchi_kutubxonasiga

KO'RSATKICHLAR

SHAXS ISMLARI

A

Abaka (Sulaymon o'g'li), 223
Abaqaxon, 2
Abaqo (To'siyon o'g'li), 223
Abbos Abdulmutallib, 20
Abbos ibn Abdumutallib, 23
Abbos ibn al-Mutallib, 23
Abbos ibn Muhammad, 152
Abgariy, 47
Abdol, 223
Abdulaziz (ibn Nuh), 146
Abdulaziz (Sulton Uvays o'g'li), 230
Abdulaziz bin Muhammad an-Nasafiy, 99
Abdulaziz ibn Abu Razma, 20
Abdulaziz ibn Nuh ibn Nasr, 150
Abdulvohid, 223
Abdulg'ofir al-Forisiy, 111
Abduljabbor ibn Abdurrahmon al-Azdiy, 36
Abduljalil al-Marg'inoniy, 344
Abduljalil ibn Muhammad ar-Rashid al-Vatvot, 125
Abdulla, 203, 204, 205, 444
Abdulloh ibn Omir ibn Kurayz, 123
Abdulloh (Sulton Uvays o'g'li), 227, 230
Abdulloh ibn Abbos, 20
Abdulloh ibn Abdavayh, 30
Abdulloh ibn Aziz, 151
Abdulloh ibn al-Muborak, 20, 128
Abdulloh ibn Amir Kurayz, 16, 25
Abdulloh ibn Baydar ibn Chig'atoy, 193
Abdulloh ibn Burayda, 26
Abdulloh ibn Lutfulloh, 206, 232
Abdulloh ibn Muhammad, 44
Abdulloh ibn Muhammad ibn Aziz, 151
Abdulloh ibn Muhammad ibn Is'hoq al-Favokihiy, 44
Abdulloh ibn Tohir, 130
Abdulloh ibn Hamid, 104
Abdulloh ibn Humayd, 134
Abdulloh Muhammadxoja, 331
Abdulmalik ar-Rashid, 147
Abdulmalik ibn Marvon, 26, 30
Abdulmalik ibn Nuh, 146, 152, 153
Abdulhamid, 155
Abdumalik, 223
Abdurazzoq Samarqandiy, 3, 320, 342, 343
Abdurahmon Jomiy, 246, 369
Abdurahmon ibn Muslim, 28, 34

@tarixchi_kutubxonasiga

Abdurahmon ibn Muhammad al-Qodiy al-Abhariy, 40
Abdurahmon ibn Yahyo al-Muallimiy, 46
Abdurashid ibn Sulton Mahmud G'aznaviy, 132
Abdurrahmon ibn Humayd al-Kashshiy, 267
Abdurrashid ibn Solih, 117
Abdussamad Hoji Sayfiddin, 297
Abivardiy, 155
Abishqa, 223
Aboqaxon, 168, 187, 188, 192, 193, 195
Abraha, 211
Abu Abdulloh, 151
Abu Abdulloh Ahmad ibn Muhammad al-Jayhoniy, 149
Abu Abdulloh ibn Hafs, 149
Abu Abdulloh Muhammad, 112
Abu Abdulloh Muhammad al-Kozuruniy, 109
Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad, 54
Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Jayhoniy, 42, 137
Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ash-Shibliy, 147
Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, 62, 97, 141, 267
Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf, 117
Abu Abdulloh Muhammad ibn Yahyo, 112
Abu Abdurahmon as-Sullamiy, 112
Abu Avn, 98, 134
Abu Avn Abdulmalik ibn Yazi, 134
Abu Avn Is'hoq ibn Ali, 98
Abu Ali, 121
Abu Ali al-Fuzayl ibn Ayyoz, 118
Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh, 120
Abu Ali al-Husayn ibn Shuayb, 108
Abu Ali ar-Rudbariy, 128
Abu Ali as-Sinjiy, 108
Abu Ali Ahmad ibn Sa'd, 112
Abu Ali Bal'amiy, 40, 147, 149
Abu Ali Muhammad ibn Iso al-Damg'oniy, 150
Abu Ali Chag'onyoniy, 139, 141, 143, 146
Abu Ali Shaqiq Ibrohim al-Balxiy, 124
Abu Amir Abdulloh ibn al-Muqaffa' Ro'zbeh, 128
Abu Amr Abdulmalik ibn Umayr al-Kurashiy, 22
Abu Amr Omir ibn Sharohil ash-Sha'biy, 28
Abu Ahmad Abdulaziz ibn Muhammad, 32
Abu Ahmad Muhammad ibn Kuraysh, 44
Abu A'lo al-Maarriy, 369
Abu Bakr, 16
Abu Bakr Abdulloh ibn Ahmad al-Qaffol, 108, 128
Abu Bakr al-Amir al-Moziy Ismoil ibn Ahmad, 42
Abu Bakr al-Ismoiliy, 106
Abu Bakr al-Qaffol ash-Shoshiy, 10
Abu Bakr an-Narshaxiy, 54, 55, 68, 81, 93
Abu Bakr as-Siddiq, 23
Abu Bakr Ahmad al-Bayhaqiy, 125
Abu Bakr Ahmad ibn al-Husayn, 106
Abu Bakr Ahmad ibn Ibrohim, 106
Abu Bakr ibn Abu Dorim al-Kufiy, 44

@tarixchi_kutubxonasiga

Abu Bakr ibn Homid al-Buxoriy amir Ismoil, 42
Abu Bakr Mansur al-Barsaxiy, 54
Abu Bakr Muhammad bin Ahmad, 99
Abu Bakr Muhammad ibn al-Haddod, 108
Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Ja'far al-Kinoniy, 108
Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy, 54, 92
Abu Bahr al-Ahnaf ibn Qays as-Sa'diy, 15
Abu Vafo Muhammad bin Muhammad, 101
Abu Ja'far, 139
Abu Ja'far Abada ibn Qudayd, 36
Abu Ja'far al-Mansur, 34, 36
Abu Ja'far at-Tabariy, 40
Abu Ja'far Su'luk, 145
Abu Ja'far Utbiy, 139, 141, 146, 147, 149
Abu Zayd Abdulloh ibn Umar ibn Iso ad-Dabusiy al-Faqih al-Hanafiy, 109
Abu Zayd Ahmad ibn Sahl al-Balxiy, 96
Abu Ibrohim al-Bobkissiy, 20
Abu Ibrohim Ismoil ibn Ahmad, 39, 40
Abu Imron Muso ibn Abdalloh, 102
Abu Is'hoq, 106, 111
Abu Is'hoq al-Forisiy al-Istaxriy, 96
Abu Is'hoq ash-Sheroziy, 109, 111, 114
Abu Is'hoq Ibrohim ibn Ya'qub al-Ahnafiy al-Juzjoniy, 18
Abu Is'hoq Ro'zgoniy, 141
Abu Kabr ibn Ifriqish, 211
Abu Qosim Ali al-Husayniy ad-Dabusiy, 103
Abu Mansur, 147, 148
Abu Mansur Abdulloh ibn Muhammad ibn Uzayr Abu Mansur Muhammad ibn al-Husayn ibn Mut, 152
Abu Mansur al-Moturidiy, 59
Abu Mansur as-Saolibiy, 42
Abu Mansur at-Tusiy, 109
Abu Mansur Bag'dodiy, 157
Abu Mansur G'olib ibn Jabrail al-Xartangiy, 98
Abu Mansur Muhammad ibn Uzayr, 146
Abu Mansur Yusuf ibn Is'hoq, 147
Abu Ma'shar Balxiy, 158
Abu Molik Usayd ibn Abdulloh al-Xuzoiy, 36
Abu Muslim, 34, 35, 36, 37
Abu Muso Horun Ilikxon o'g'li, 150
Abu Mutarrif Vaki' ibn Abu Sud, 26
Abu Muhammad Abdu-l-G'aniy ibn Said, 106
Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdulhamid ibn Nasr ibn Humayd al-Kashshiy, 267
Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurrahmon ad-Doramiy as-Samarqandiy, 267
Abu Muhammad Abdulloh ibn Muhammad, 130
Abu Muhammad Abdulloh ibn Yusuf, 108
Abu Muhammad Abdurahim ibn Ahmad al-Forisiy, 149
Abu Muhammad al-Juvayniy, 109

@tarixchi_kutubxonasiga

Abu Muhammad Da'laj ibn Ahmad as-Sijziy, 106
Abu Muhammad Talha-t-Talxot, 23
Abu Nasr Abdusayid ibn Muhammad, 110
Abu Nasr al-Kassob, 22
Abu Nasr Ahmad ibn Ismoil, 145
Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad, 42
Abu Nasr ibn Abu Bakr al-Kotib, 42
Abu Nasr ibn Sabbog', 110, 111
Abu Nasr ibn Tarxon al-Forobiy, 121
Abu Nasr Kunduriy, 155
Abu Nasr Mansur ibn Boyqaro, 147
Abu Nasr Muhammad ibn Tarxon al-Forobiy, 121
Abu Nuvos, 369
Abu Nu'mon, 133
Abu Rajo, 20
Abu Rayhon Beruniy, 57, 157, 158, 161, 247, 373
Abu Rafi' al-Alo ibn Mansur al-Barsaxiy, 54
Abu Robi' Tohir bin Abdulloh al-Iloqiy, 104
Abu Said (Idiku o'g'li), 221
Abu Said (Elxon), 187
Abu Said al-Mutavalliy, 111
Abu Said al-Haysam ibn Kulayb, 104
Abu Said Barlos, 294
Abu Said Gardiziy, 2, 25, 36, 40
Abu Said ibn Abulxayr, 125
Abu Sa'd Abdulkarim as-Sam'oniy, 99
Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniy, 44
Abu Sa'd Abdurahmon ibn Muhammad, 13
Abu Sa'd al-Idrisiy, 81, 84
Abu Sa'd as-Sam'oniy, 2, 18, 28, 42, 44, 54, 81, 116
Abu Solih, 20
Abu Solih Mansur ibn Nuh, 147
Abu Tayyib Tohir ibn Muhammad, 101
Abu Tayyib ul-Mutanabbiy, 369
Abu Talha Ja'far ibn Mardonshoh, 143
Abu Talha ibn Abdulloh, 1
Abu Tohir Xotuniy, 369
Abu Turob Ali ibn Tohir al-Karminiy, 86
Abu Ubayd Adulvohid al-Juzjoniy, 120
Abu Usmon Bakr al-Mazaniy, 121
Abu Usmon Said ibn Usmon ibn Affon, 18
Abu Usoma, 106
Abu Usoma Junoda, 106
Abu Fazl Ahmad ibn Ali al-Bikandiy, 98
Abu Fath Ahmad ibn al-Husayn, 98, 109, 141
Abu Hamza Amr ibn A'yon al-Xuzoiy, 35
Abu Hanifa an-Nu'mon ibn Sobit (Imomi A'zam), 109
Abu Hafs al-Bujayriy as-Sug'diy, 76
Abu Hafs al-Ijliy, 44
Abu Hafs al-Kabir, 61
Abu Hafs Qutayba ibn Muslim, 25
Abu Hafs Ubaydulloh ibn Ahmad, 37

@tarixchi_kutubxonasiga

Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Bujayr, 63
Abu Hafs Umar Nasafiy, 1
Abu Homid, 114
Abu Homid al-G'azzoliy, 111, 112
Abu Homid as-Samarqandiy, 114
Abu Honi Xarsama ibn A'yon al-Balxiy, 37
Abu Hotim al-Bustiy, 28
Abu Shayx Luqmon, 225
Abu Yusuf, 224
Abubakr (Tavakkal o'g'li), 222
Abubakr (Hiri Malik o'g'li), 222
Abubakr (Yusuf o'g'li), 227
Abubakr ibn Amironshoh, 334
Abubakr Siddiq, 22
Abu-z-Zubayr Muhammad, 34
Abul Abbos Muhammad ibn Ahmad, 141
Abul Qosim al-Karim al-Qushayriy, 130
Abul Qosim Ibrohim ibn Muhammad, 128
Abul Ma'oniy Abdulmalik ibn Muhammad, 126
Abul Muzaffar, 150
Abul Fath Muhammad ibn Som, 126
Abul Hasan al-Utbiy, 149
Abul Hasan Api al-Boxarziy, 125
Abul Hasan ibn Buyo, 151
Abul Husayn ibn Abu Ali, 151
Abulabbos Ali ibn ar-Rumiy, 121
Abulabbos as-Saffoh, 34
Abulabbos Ahmad ibn Abdulloh al-Muqtado, 111
Abulabbos Ahmad ibn Muhammad, 105
Abulabbos Ja'far ibn Muhammad al-Mustag'firiy, 13
Abu-l-Alo al-Ma'riy, 111
Abu-l-Alo Saura ibn al-Hurr at-Tamimiy ad-Dorimiy, 33
Abulvafo, 116
Abuljalol Sajziy, 158
Abulqosim (Sulaymonshoh o'g'li), 225
Abu-l-Qosim Abdu-l-Karim ibn Havozin Abdu-l-Malik ibn Talha ibn Muhammad al-Qushayriy, 106
Abu-l-Majd ibn Kasir al-Bolisiy, 111
Abulmaoliy, 256
Abu-l-Maoliy, 111, 112
Abu-l-Maoliy Abdulmalik ibn Abu Muhammad Abdulloh, 111
Abulmaoniy Nahhos Roziy, 170
Abulmuzaffar, 212
Abulmuzaffar al-Xavofiy, 126
Abu-l-Muzaffar Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad al-Utshundiyxe «Utshundiy» an-Nasafiy, 42
Abulmuzaffar Muhammad ibn Ahmad ibn Nasr ibn Ahmad ibn Asad, 212
Abulmuzaffar Muhammad ibn Ibrohim al-Burg'ashiy, 152
Abu-l-Muzaffar Rafi' ibn al-Lays, 37
Abu-l-Muin Maymun ibn Ahmad, 51
Abu-l-oliya, 23
Abulfazl, 33
Abulfazl al-Bal'amiy, 40
Abulfazl Muhammad ibn Abdulaziz as-Samarqandiy, 15

@tarixchi_kutubxonasiga

Abulfazl Muhammad ibn Abduljalil as-Samarqandiy, 14
Abulfazl Muhammad ibn Ahmad al-Xunomatiy, 152
Abulfazl Muhammad ibn Ubaydulloh al-Bal'amiy, 40
Abulfazl Muhammad ibn Husayn Bayhaqiy, 369
Abulfaraj ibn an-Nadim, 116
Abulfaraj Muhammad ibn Abu Yoqub, 116
Abulfath Muso ibn Abulfazl Yunus ibn Muhammad, 116
Abulfath Muso ibn Yunus, 116
Abulfath El-Arslon, 175
Abulhaysam Xolid ibn Ahmad az-Zuhliy, 41
Abulhasan Abdulg'ofir al-Forisiy, 106
Abulhasan Ali ibn Said ar-Rustufag'niy, 69
Abulhasan Ali ibn Sulaymon, 106
Abulhasan Ali ibn Tolut as-Samarqandiy, 35
Abulhasan al-Qosim, 112
Abulhasan al-Maqriy, 107
Abulhasan Ilik ibn Nasr, 153
Abulhasan Muhammad ibn Ibrohim, 146, 148
Abulhasan Nasr ibn Is'hoq al-Kotib, 145
Abulhasan Tohir ibn al-Fazl, 150
Abulhoris Muhammad ibn Ahmad ibn Farig'o'n, 149
Abulhusayn Muslim ibn Hajjoj al-Qushayriy an-Nishopuriy, 267
Abulhusayn Ubaydulloh, 32
Abusaid Abdulhay ibn az-Zahhok ibn Mahmud Gardiziy, 132
Abusaid Fazlulloh ibn Abulxayr, 125
Abu-s-Saodot al-Muborak ibn Abu-l-Karam Muhammad, 116
Abu-t-Toyyib at-Tabariy, 106, 108
Abu-t-Toyyib Tohir ibn Abdulloh, 106
Abhariy, 393
Avhadiddin ad-Duvniy, 114
Avhadiddin Muhammad ibn Ali ibn Is'hoq al-Anvariy, 125
Agzuniy (Ag'duniy), 49
Adib Sobir, 173, 373
Aziziddin To'g'royi, 176
Azududdavla, 313
Akbarova S., 370
Aqar, 275
Al-Asmoiy (al-Asma'iy), 26
Alvon, 23, 124
Aleksandr Makedonskiy, 211, 218
Ali Akbar Dehxudo, 111, 116
Ali Darvesh, 225
Ali ibn Abu Tolib, 22, 24
Ali ibn Ahmad ibn Abdulloh, 141
Ali ibn Laqatiy, 365
Ali ibn Muso Rizo, 352
Ali ibn Muhtoj al-Koshoniy, 156
Ali Safiy, 3, 379, 380
Ali Sulton, 221
Ali O'g'lon, 283
Ali Yusuf, 224
Alibek, 261, 283
Alibek Joniqurbon, 269
Alibek ibn Arg'unshoh, 326
Alibek qo'ng'irot, 272
Alizoda A., 188
Alika (Pirsulton o'g'li), 230
Al-Istaxriy, 96, 99, 101, 102, 103, 104
Alisher (O'rus o'g'li), 227

@tarixchi_kutubxonasiga

Alisher Navoiy, 342, 369, 387, 388, 390, 392, 394
Alqa qavchin, 257
Al-Qodir billoh Abulabbos
Ahmad ibn Is'hoq, 152
Allohdod (To'kal o'g'li), 227
Allohdod Vafodor, 291
Al-Ma'mun, 136
Al-Muhallab, 23, 25, 26
Al-Mu'tamid alalloh, 212
Aloko'chal, 221
Alouddavla, 122
Alouddin Ali Qushchi, 354
Alouddin Ali Tarxon, 320
Alouddin Alika, 345
Alouddin Atomalik ibn Bahouddin Muhammad Juvayniy, 168
Alouddin Juvayniy, 2, 168, 188
Alouddin Muhammad (vazir), 376
Alouddin Muhammad Xorazm-shoh, 161, 169
Alptegin, 146, 147, 148, 151, 156, 169
Al-Hokim Abu Abdulloh, 105, 114
Amir Abu-l-Hasan Foik ibn Abdul-loh al-Xossa, 42
Amir ad-Daula, 34
Amir Ali Shaqoniy, 345
Amir al-Homid Abu Muhammad Nuh ibn Nasr, 42, 43, 139
Amir as-Sadid, 44
Amir as-Said Nasr ibn Ahmad, 42
Amir Ahmad Suhayliy, 369
Amir ash-Shahid Ahmad ibn Ismoil, 42
Amir Vali, 326
Amir G'iyosiddin, 229, 230
Amir G'uriy, 326
Amir Joku, 230, 231, 335
Amir Ibrohim Mashhadiy, 394
Amir Idikuning boshqa o'g'illari, 230
Amir Islom, 221
Amir Ixtiyoriddin Hasan, 394
Amir Mahmud, 376
Amir Muso, 345
Amir Muhammad Ali, 232
Amir Nuh, 141
Amir Sabuktegin, 151
Amir Said, 223
Amir Tarag'ay, 248
Amir Temur, 2, 3, 4, 92, 195, 197, 198, 200, 205, 206, 207, 210, 213, 217, 220, 225, 235, 238, 244, 246, 247, 248, 252, 253, 257, 259, 269, 272, 280, 288, 296, 302, 303, 321, 322, 323, 324, 325, 326, 327, 329, 330, 333, 335, 343, 358, 376, 421, 454, 468, 470, 471, 474, 475, 476, 478, 498
Amir Tohir ibn al-Fazl, 150
Amir To'kal, 232
Amir Hamid, 322
Amir Husayn, 205, 322
Amir Husayn ibn amir Musallab, 322
Amir Husayn ibn amir Musallab ibn amir Qazag'an, 322
Amirak Tusiy, 151
Amirzoda Abubakr, 302
Amirzoda Amironshoh, 225, 239, 327, 333, 334
Amirzoda Ahmad, 306
Amirzoda Ibrohim Sulton, 306, 329
Amirzoda Iskandar, 303, 329
Amirzoda Muhammad Sulton, 284, 291, 296, 299, 301, 303, 305, 325, 329, 330, 334

@tarixchi_kutubxonasiga

Amirzoda Pirmuhammad, 278, 294, 306, 327, 334
Amirzoda Pirmuhammad Umar-shayx, 293, 303
Amirzoda Umar, 2, 234, 235, 237, 275, 284, 327
Anvariy, 125, 173, 371, 373, 374
Anko To'ro, 327
Anushirvon (Oqbuqo o'g'li), 326
Anushtagin, 86, 119, 161
Apachi Kalta, 257
Ardasher qavchin, 257
Arslonxon, 175
Arslonxon Mahmud, 175
Aruziy, 153
Asad (Somoniy), 39, 136, 137
Asiruddin Axsikatiy, 373, 374
As-Sadid Abu Solih Mansur ibn Nuh, 147
Audaniy, 51
Afzal al-Bomiyoniy, 123
Afraxshiy, 49
Afridu, 123
Afroniy, 47
Afshavoniy, 50
Axsikasiy, 47, 101
Ahmad (ibn Nuh), 146
Ahmad (Sulton Uvays o'g'li), 230
Ahmad (Hojar o'g'li), 227
Ahmad as-Surmoriy, 73
Ahmad ibn Abdulaziz, 33
Ahmad ibn al-Husayn, 141
Ahmad ibn Asad (ibn Somon), 39, 137
Ahmad ibn Asad ibn Somonxudot, 39
Ahmad ibn Ja'far, 110, 143
Ahmad ibn Ismoil, 42, 43, 44, 108, 137, 145, 146, 218
Ahmad ibn Is'hoq as-Surmoriy, 54
Ahmad ibn Muhammad, 42
Ahmad ibn Muhammad ibn Ali al-Qazviniy, 141
Ahmad ibn Nasr al-Atakiy, 37
Ahmad ibn Said ibn Ma'don, 20
Ahmad ibn Sayyor, 20
Ahmad ibn Hasan, 155
Ahmad ibn Shayx Hasan, 330
Ahmad Takudor, 168
Ahmedov A., 5
Ahmedov B., 336, 370, 390
Ahnaf, 1, 15, 16, 18, 123
Ahnaf ibn Qays, 15, 16, 18
Ahnaf Sahr ibn Qays ibn Haysam, 123
Ashraf Cho'poniy, 203

B

Babdoh, 148
Badiuzzamon Mirzo, 387
Badi', 155
Badyoniy (Tadyoniy), 54
Badriddin, 227
Badriddin Amid Sulton, 339
Bayon Sulduz, 205, 255
Bazdaviy, 56
Bazdiy, 56
Bazixuniy, 54
Baydariy, 57
Baykandiy, 57
Baysung'ur Bahodir, 320, 329, 377
Bayforiniy, 57
Bakibuniy, 56
Balta, 229
Bal'amiy, 40, 147, 149, 155
Bamijkasiy, 56
Bandimashiy, 56

@tarixchi_kutubxonasiga

Banjxiniy, 56
Bardodiy, 54
Barkadiy, 55
Barmazid, 223
Barmak, 123
Barmak ibn Xolid, 123
Barmakiy, 123
Barokadiy, 54
Baroq, 188, 190, 191, 192
Barroniy, 54
Barsaxiy, 54
Barsumosxon, 342
Bartold V.V., 51, 61, 66, 92, 93, 320
Barfaxshiy, 54
Basbiy, 56
Baskayiriy, 56
Batlimus, 101, 313
Batxudoniy, 53
Baxtjahon, 223
Baxti Xoja, 292
Baxtiyor, 220
Baxtixoja, 265
Baxtishoh, 257, 369
Baxshi Buqo, 225
Baxshixoja, 221
Bahlul, 223
Bahlul (Muhammad Darvesh o'g'li), 225
Bahlul (Orzu Buqo), 227
Bahlul (Safar o'g'li), 227
Bahlul (Umar o'g'li), 227
Bahlul (Shohmalik o'g'li), 230
Bahouddin Muhammad, 168
Bahrom, 350
Bahrom al-Malik, 40
Bahrom Jaloyir, 255, 325
Bahrom Cho'bin, 40
Bahromshoh, 172
Begtuzun, 150, 152
Bek Buqo, 232
Bekbuqo, 221
Bekichak, 206
Bektuzun, 151, 152
Bekxoja, 296
Bekyaruq O'g'lon, 294, 296
Berdibek, 308
Berdibek Sari Bug'a, 282, 299
Berkachar, 190, 191
Berkiyoruq ibn Malikshoh, 170
Bidun, 18
Bilgategin, 169
Bishr ibn Tag'shoda, 18
Bobjur hojib, 141
Bobo Sangu, 269
Bobojonov A., 95
Boyqaro, 306
Boysung'urxon, 220, 321, 324
Boysunqur Bahodirxon, 320, 329
Boqish Davlat, 294
Bolshakov O.G., 74
Bonabiy, 53
Bordiziy, 53
Boriskasiy, 53
Borkasiy, 53
Borundo Mirassa, 483
Botu, 259, 453
Bofiy, 53
Boyazid, 200, 205
Boyazid (Ismoil o'g'li), 223
Boyazid (Muhammad Darvesh o'g'li), 225
Boyazid (Hojiberdi o'g'li), 227
Bradutti, 246
Bug'iy, 57
Budda, 427
Buzgomiy, 56

@tarixchi_kutubxonasiga

Buzonjir, 334
Buzurjmehr, 225
Bumaoz Faryobiy, 134
Buniyotov Z.M., 117
Burayda, 345
Burd, 23
Burkul, 220, 229, 321, 323
Burnamaziy, 57
Buryakov Yu.F., 30, 47, 56, 63
Butaytiniy, 53
Butaniniy, 53
Butxazoniy, 53
Bug'roxon, 150, 176
Bo'riyev O., 5, 6, 132, 162, 207, 220, 248, 478
Bo'g'roxon, 150, 176

D

Dabu Qiron, 227
Davlat Keldi-og'o, 225
Davlatshoh Baxshi, 257
Davlatshoh Jaybachi, 276
Davlatshoh ibn Alouddavla Baxtishoh al-G'oziy as-Samarqandiy, 368
Dakna qavchin, 257
Darbi J., 246
Dargamiy, 66
Darzivaniy, 66
Darziviy, 66
Daxfanduniy, 66
Dahhok, 15
Dahhok ibn Qays, 15
Dahhok ibn Muzoxim, 23
Dehloxon, 340
Divashtish (Divashti), 33
Dizakiy, 66
Dilshod-og'o, 255, 324, 326
Dimasiy, 66
Dirizdixiy, 66
Dovud, 39
Dovud dug'lat, 255
Dovud ibn al-Abbos, 39
Dovud ibn Bonijur, 39
Dovud Sufiy, 291
Dog'ay, 227
Dodbek Habashiy ibn Oltuntosh, 170
Dodmulk, 232
Doy-Ming xon, 350
Dona Xoja, 305
Dong-Ching, 351
Doro, 223
Du-Ji-Hun-Boy, 351
Dujokaniy, 66
Deng Guang, 416

E

Ekinchi ibn Qo'chqor, 170
Elangir (Abubakr ibn Amironshoh o'g'li), 334
El-Arslon (ibn Otsiz), 175, 176, 178
Elbuqo, 221
Eldor, 221
Eletgu Malik, 184
El-Mangu, 151
Elchi Bug'a, 255, 264
Elchi Bug'a Bahodir, 257
Elchi Temur, 223
Elchixoja, 221
Erdman F., 370
Efiopiya, 139

F

Fazl, 20
Fazlulloh (Ovard o'g'li), 223

@tarixchi_kutubxonasiga

Fazlulloh Tabriziy, 309
Fayyi, 83
Falkoner, A, 370
Fanakiy, 82
Fankadiy, 81
Farabriy, 117
Farankadiy, 81
Faraxshiy, 81
Farg'oniy, 81
Fardadiy, 81
Faredun, 225
Farjoiy, 79
Farzomisaniy, 81
Faridun, 353
Farnifasoniy, 81
Farxuzdizajiy, 81
Fasih Ahmad ibn Jaloluddin Muhammad al-Xavofiy, 319
Fategin xazinador (?), 146
Faxriddin Ahmad Tusiy, 238, 330
Faxruddin Ali Safiy, 379
Fashidayzajiy, 81
Fashniy, 81
Fag'diniy, 81
Fag'idiziy, 81
Fag'ondiziy, 81
Fahim Sulaymon afandi, 370
Feruz I ibn Yazdigard, 128
Feruz II Jo'shanasbanza, 128
Fido, 42
Fijakasiy, 83
Foiq, 42, 150, 152
Fominiy, 79
Forjiy, 79
Foriziy, 79
Foriq al-Xossa, 149
Fuyozsuniy, 83
Fo'lod, 223
Fuma, 179
Furforiy, 83

G

Gavharshod-og'o, 334, 352
G'annojiy, 79
Ganfu, 402
Genrix III, 478
Gung Sunxe, 410
Gushyor Jiliy, 158

H

Hajjoj – Xajjoj ibn Yusuf, 25
Hajjoj ibn Yusuf, 25
Hazorasbiy, 94
Hazrati Eshon – *q.* Xoja Ahror, 380, 382, 383, 384, 385, 386, 387
Haydar (Qiron Temur), 227
Hakam, 345
Hakim Suzaniy Samarqandiy, 373
Hakim Toliqoniy, 134
Hakimjonov Yu., 195, 196
Hamdalloh Mustavfiy Qazviniy, 161
Hamza (Musabek o'g'li), 269
Hamza (Tag'oy Buqo o'g'li), 228
Hamidxoja, 200
Haririy, 155
Hasan (Tag'ay o'g'li), 223
Hasan Ali, 221, 227
Hasan Jondor, 297
Hasan Sufi tarxon, 297, 335
Hasanbek, 283
Hasaniy M., 153, 336, 380
Hasmur, 223
Hafs Kabir, 216
Haqnazar, 223
Hindu Buqo, 221

@tarixchi_kutubxonasiga

Hindu Qarqara Qipchoq, 252
Hinduiy Qarqara, 252, 253
Hinduko, 221
Hindushoh, 264
Hiri Malik, 221
Hishom ibn Abdulmalik ibn Marvon, 33
Hojar, 227
Hoji Ali, 227
Hoji Barlos, 205
Hoji Barlosbek, 269
Hoji Qubul, 222
Hoji Mahmudshoh, 257
Hoji Muhammad, 225, 229, 370, 453
Hoji Muhammad (Hamza o'g'li), 229
Hoji Muhammad Ramazoniy, 370
Hoji Sayfiddin, 272, 275, 276, 282, 286, 299, 326
Hoji Sayfuddin, 272, 275, 276, 282, 283, 286, 299, 326
Hojib, 146
Hojibek, 222
Hojibek Barlos, 200
Hojiberdi, 227
Hokim, 107
Hokim Abu Abdulloh, 105, 112
Hokim Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh al-Hofiz al-Bayyi', 105
Homid, 155
Homish, 228
Horija, 136
Horis ibn Xaza, 22
Horisiy, 25, 44
Horun ar-Rashid, 37, 97, 365
Hotifiy, 246
Hofiz Abu Bakr al-Bayhaqiy, 106
Hofiz Mahmud, 331
Hofiz Muhammad ibn Ahmad al-Ajamiy, 246
Hofizi Abru, 2, 161, 195, 206, 207, 220, 232
Huloguxon, 466
Huloko'xon, 227
Humayd ibn Qahtaba, 36, 132
Humodiy, 155
Humoyun, 388
Humoyun Mirzo, 390
Husayn al-Marvarrudiy, 126
Husayn Barlos, 253
Husayn Bahodir, 255, 391
Husayn Voiz Koshifiy, 379
Husayn ibn Ali al-Marvaziy, 145
Husayn ibn al-Munzir ar-Raqoshiy, 98
Husayn ibn Maoz, 134
Husayn Musallab ibn amir Qazag'on, 200
Husayn So'fi, 324
Husaynbek – *q.* Amir Husayn, 252, 253, 254, 255
Husrav Anushirvon, 101, 128, 202, 219, 467

I

Ibn al-Bayyi', 114
Ibn al-Muqaffa', 128
Ibn al-Faqih, 34, 101, 103
Ibn al-Faqih al-Hamadoniy, 101
Ibn al-Haddod, 108
Ibn al-Husayn, 130
Ibn Asir, 116
Ibn Ja'da, 83
Ibn Mas'ud, 16
Ibn Muqla, 356
Ibn Omir, 15, 16, 25, 123

@tarixchi_kutubxonasiga

Ibn Sabbog', 110
Ibn Sino, 97, 120, 160, 216
Ibn Surayj, 112
Ibn Umar, 22
Ibn un-Nasobat al-Alaviy, 155
Ibn Funduq Bayhaqiy, 169
Ibn Xallikon, 112
Ibn Xurdodbeh, 161
Ibrohim, 133
Ibrohim (Uvays o'g'li), 230
Ibrohim ibn Adham al-Ijmiy, 123
Ibrohim ibn Alptegin, 146
Ibrohim ibn Ahmad, 139
Ibrohim ibn Zaydaviyah, 145
Ibrohim ibn Muhammad, 105
Ibrohim ibn Simjur, 139
Ibrohim payg'ambar, 7
Ibrohim Sulton, 244, 246
Ibrohim Sulton Bahodir, 334
Ibrohim usta, 315
Ibsaniy, 51
Idiberdi Baxshiy, 275
Idiku, 262, 471
Idiko' (To'rolg'ay o'g'li), 225
Idiku Bahodir, 230
Idiku O'zbek, 278, 280
Idrisiy, 13
Ijal ibn Mironshoh, 306
Ijliy, 112
Izajiy, 51
Izzaddin sayid Zaynulobidin ibn amir sayid Nizomiddin al-Junobodiy al-Ko'histoniy, 330
Izuxiy, 51
Iygu Temur, 272, 275
Iyjal (Soto'q), 227
Iyji Buqo, 232
Iyku, 221, 232
Iyman, 224
Ikrima al-Fakih, 25
Iqlidus Duradgor, 157
Ilyos, 221
Ilyos ibn Asad, 137
Ilyosxoja, 200, 206
Iliksulton, 232
Ilik-turkman, 178
Ilojxon, 342
Iloqiy, 51
Ilongir, 227, 228
Imodiddin Ahmad ibn Abu Bakr Qumoch, 176
Imodiddin Hamza an-Nasaviy, 128
Imodulmulk Sovajiy, 338
Imom al-Buxoriy, 62, 117
Imomiy, 155
Imtiyozxon, 340
Inolchuq, 340
Isabek, 283
Isabiy, 292
Isbiskasiy, 47
Iskandar, 130
Iskandar (Muborak o'g'li), 232
Iskandar (Sulaymon o'g'li), 225
Iskandar O'g'lon, 322
Iskoraniy, 49
Iskofiy, 156, 157
Islom-og'o, 255
Ismisaniy, 49
Ismoil (Dabu Qiron o'g'li), 227
Ismoil (O'rus o'g'li), 227
Ismoil ibn Abbos ibn Muhammad, 106, 116
Ismoil ibn Abu Xolid, 30
Ismoil ibn Abulhasan, 141
Ismoil ibn Ahmad, 39, 40, 55, 145
Ismoil ibn Ahmad (as-Somoniy), 39, 40, 55, 145
Ismoil ibn Is'hoq al-Bobkissiy, 30

@tarixchi_kutubxonasiga

Ismoil ibn Tug'yon, 146
Iso (payg'ambar), 346, 392
Iso (Sulaymon o'g'li), 226
Iso ibn Muhammad ibn Iso, 40
Istoniy, 47
Isu, 10
Isu Rum, 7
Isfaranjiy, 49
Is'hoq, 223
Is'hoq ibn Ahmad, 145
Is'hoq ibn Ibrohim payg'ambar, 7
Is'hoq ibn Ismoil Somoniy, 40

J

Jabbor, 278, 283
Jabroil ibn Yahyo, 134, 136
Javhariy, 373, 374
Javhariy Zargar, 373
Jadidiy, 59
Jayhoniy, 102
Jaku barlos, 255
Jakubek, 257
Jalil, 227
Jalil (Shohmalik o'g'li), 232
Jaloliddin, 331
Jaloliddin (Mankburni), 119, 120, 217, 336, 338, 339, 464, 465
Jaloliddin (Pirsulton o'g'li), 230
Jaloliddin Ali bin al-Husayn, 178
Jaloliddin Is'hoq Samarqandiy, 342
Jaloliddin Mahmud, 238, 331
Jaloliddin Fazlulloh Abullaysiy, 369
Jaloliddin Xo'taniy, 216
Jaloliddin Shayx Mahmud, 356
Jaloliddin Yusuf Halloj, 348
Jaloluddin Yusuf Uvbahiy, 348
Jamoliddin, 224
Jamoliddin Feruzshoh, 391
Jamshid ibn Mas'ud ibn Mahmud G'iyosiddin al-Koshiy, 309
Jangircha, 276
Jarman, 225
Jaubaqiy, 60
Jaxzaniy, 59
Ja'far, 114
Ja'far ibn Shamoyanquvo, 143
Ja'far Tabriziy, 356
Jahon Malik, 255
Jahongir (Amirzoda Pirmuhammad o'g'li), 309
Jahongir (To'rolg'ay o'g'li), 225
Jahongir Mirzo, 271
Jahongir Xovan, 221
Jahonmalik (Malakat o'g'li), 297
Jahonmulk, 230
Jahonshoh (Joku o'g'li), 230
Jahonshoh Joku, 282
Jijoriy, 59
Jiroxishtiy, 61
Jichjung, 399
Jojaniy, 59
Jokardiziy, 59
Joku, 230, 231, 335
Jolinus, 394
Jon O'g'lon, 334
Jonibekxon, 203
Juvikiy, 61
Jukovskiy, V., 370
Jumtoy, 223
Junayd, 133
Junayd ibn Abdurahmon al-G'atfoniy (al-Murriy), 33
Jyan Davang, 412
Jo'gi, 229

@tarixchi_kutubxonasiga

Jo'jixon, 340
Jo'yi Mo'liyon, 150
Jo'chixon, 261, 267, 272, 280, 283, 285
Jo'g'am, 229

K

Kabindaviy, 85
Kabuzanjakasiy, 85
Kabuziy, 86
Kadaniy, 86
Kaykovus, 211
Kayqubod, 255
Kayqubod Xuttaloniy, 255
Kayxusrav, 205
Kayxusrav Xuttaloniy, 255
Kaloboziy, 88
Kamoliddin, 175
Kamoliddin Sh., 14, 46
Kamoriy, 88
Kandasarvoniy, 88
Kandukiniy, 88
Kano, 491, 493, 494, 497, 499, 500
Karvoniy, 86
Karimdod, 227
Karimov G'., 5, 132, 198
Karminiy, 86
Karmujiniy, 86
Karomatov H., 196, 358
Kasbaviy, 86
Kasodaniy, 86
Kassaviy, 86
Kassiy, 86
Katavoniy, 83
Kafsisavoniy, 88
Kashosif, 210
Kebek, 218, 221
Kepak Temur, 324
Kinchikano, 491
Kissiy, 88
Kichik Sotqin, 264
Kichik xonim, 491
Kobus, 155
Kogaziy, 84
Kojariy, 84
Kokaniy, 84
Komidadiy, 84
Korzaniy, 84
Kosaniy, 84
Kosoniy, 84
Koxushtuvoniy, 84
Kochnev B.D., 56
Koyashkaniy, 85
Krimskiy A., 246
Kundiy, 88
Kunmak (Kunmuo), 405, 412, 413
Kurashchi, 302
Kurjan, 30
Kufiniy, 88
Kuchar (Kusan), 419
Ko'k Sog'ir, 178
Ko'kaltosh, 345
Ko'ktemur, 232
Ko'ncha O'g'lon, 286
Ko'ppak mangqit, 262
Ko'ppakchi yurtchi, 264
Ko'chkunjixon, 187
Ko'chkunchixon, 246

L

Labbodiniy, 88
Labid, 369
Lays ibn Abu Sulaym, 23
Lays ibn Nasr, 133
Las Afranjiy, 303
La'lbek, 278

@tarixchi_kutubxonasiga

Li Guanli, 400
Li Duo, 415
Lodu Qushchi, 276
Lolo, 221
Lochinbek, 178
Luboba al-Bakriy, 20
Luboba Umm ul-Fazl, 22
Lo'na, 221
Lunina S.B., 56, 64, 65
Lutfiy, 246
Lutfulloh, 227
Lo'sha, 221

M

Mavlaviy Ilohdod, 246
Mavlono Abdulloh sadr, 298
Mavlono Badriddin, 315, 316
Mavlono Burhoniddin Atoullo, 394
Mavlono G'iyosiddin Bahrobodiy, 393
Mavlono G'iyosiddin Muhammad tabib Sabzavoriy, 396
Mavlono Darvishali tabib, 396
Mavlono Jaloliddin, 306
Mavlono Kamoliddin Husayn Voiz, 397
Mavlono Qutbiddin Odam, 394
Mavlono Qosim, 382
Mavlono Muhammad Muin, 393
Mavlono Muhammad tabib, 394
Mavlono Nafisiy, 396
Mavlono Nizomiddin Abdulhay tabib, 394
Mavlono Ubaydulloh, 309
Mavlono Faraj tabib, 305
Mavlono Xoja Muhammad Tabriziy, 393
Mavlono Hoshimiy, 393
Magomat, 488
Malik G'iyosiddin Pir Ali kurt, 326
Malik Izzuddin kurt, 294
Malik Muayyi, 179, 180
Malik Muhammad, 269, 326
Malikshoh Saljuqiy, 130, 217, 371
Mamoq, 267
Mangu-Temur, 189, 190, 191
Manzil, 223
Mansur, 36
Mansur ibn Attor, 125
Mansur ibn Qorategin, 139, 141
Mansur ibn Nuh, 149
Manuchehr ibn Iraj (ibn Afridun), 123
Mankovskaya O., 54
Maoz ibn Muslim, 134, 136
Marvon, 26, 106
Marg'ibuniy, 90
Margolius D.S., 46, 88
Maryam Sultonbegim, 335
Mas'ud Shirvoniy, 393
Mas'udbek, 190, 192, 193
Maxomad Soltan, 501
Ma'bad, 20
Ma'mun (ibn Muhammad), 151
Ma'ruf, 22
Mahdi, 133, 393, 396
Mahdiy, 36, 133, 134, 136, 143
Mahmud (Hojar o'g'li), 227
Mahmud Koshg'ariy (ibn Husayn), 6
Mahmud Lochin, 376
Mahmud Sulton (Hiri Malik o'g'li), 222
Mahmud Farrux, 321
Meko'a, 419
Migiy, 90
Miyon Buzruk, 247

@tarixchi_kutubxonasiga

Milkat-og'o, 393, 396
Milkat tavochi, 330
Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy, 358
Mir Mazid arg'un, 383
Mir Sayid, 221
Mir Sayid Ahmad, 456, 457
Mir Husayn, 227
Mirali, 221
Mirassa Miaxa, 483
Mirza Muhammad, 370
Mirza Muhammad Qazviniy, 169
Mirzo Abulqosim Bobur, 3, 358, 380, 382
Mirzo Iskandar ibn Mirzo Umarshayx, 197
Mirzo Pirmuhammad, 271
Mirzo Ulug'bek, 3, 214, 335, 343, 352, 353, 354, 357, 358, 454
Miukua, 418
Movdun, 401
Molik ibn Dinor, 16
Muayyid Oy-Aba, 178
Muborak (Ko'ktemur o'g'li), 232
Muborak (To'g'on o'g'li), 229
Muborakshoh, 193
Muzaffar (Uch Qaron o'g'li), 269
Muiziddin Husayn, 390
Muktafiy, 145
Muqanna, 36, 37, 56, 92, 133, 134, 136
Muqtadir, 145
Muntajabiddin Badi' al-Kotib, 174
Muntaxabuddin Bade', 372
Muoviya, 15, 16, 18, 23
Muoviya ibn Abu Sufyon, 16, 18, 23
Murg'ob, 170, 269, 345
Murod, 471
Murod (Jo'g'am o'g'li), 221
Murod (Cho'g'on barlos o'g'li), 257
Musa Chalabiy, 305
Musabek, 252, 269, 287
Musayyab, 136
Musayyab ibn Zuhayr, 136
Muslim ibn Said al-Kilobiy, 33
Muslihiddin Sa'diy, 377
Muso (payg'ambar), 133
Mustazhir, 111
Mustafo, 304
Mustafo (Xumorshoh o'g'li), 227
Mustafo Uchinchi, 247
Mus'ab ibn Abdulloh, 20
Mus'ab ibn az-Zubayr, 16
Mus'ab ibn Zurayb, 134
Mutavakkil, 23
Mutanabbiy, 155
Mutafarriqa, 215
Mushtariy, 11, 120, 251, 348, 349, 353
Mu'ayyidbek, 253
Mu'iniddin Natanziy, 197
Mu'oviya ibn Abu Sufyon, 16, 18, 23
Mu'oviya ibn Yazid, 18
Mu'oz ibn Muslim, 36
Mu'tadid, 40
Mu'tazid, 145
Mu'tamid, 39
Muetsat, 419
Muhallab, 25, 26
Muhallab ibn Abu Sufro al-Azdi, 23
Muhammad (To'qtoy o'g'li), 225
Muhammad (Shayx Darvesh o'g'li), 232
Muhammad al-Amin, 136
Muhammad al-Bal'amiy, 147
Muhammad al-Juvayniy, 108
Muhammad Ali, 221

@tarixchi_kutubxonasiga

Muhammad Ali ibn Darvish Ali Buxoriy, 187
Muhammad Afzal Buxoriy, 358
Muhammad Boyazid, 221
Muhammad Darvesh (Idiku o'g'li), 225
Muhammad Yor, 334
Muhammad Jahongir (Jahonshoh o'g'li), 223
Muhammad Jild, 333
Muhammad ibn Abdah, 155
Muhammad ibn Abdurahmon ad-Dag'uliy, 20
Muhammad ibn al-Amid an-Nasafiy, 73
Muhammad ibn Aslam al-Qodiy, 20
Muhammad ibn Vosi', 23
Muhammad ibn Jarir at-Tabariy, 112
Muhammad ibn Ibrohim al-Bakriy, 32
Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, 20, 41, 53, 98, 216
Muhammad ibn Kuraysh al-Marvarrudiy, 40
Muhammad ibn Malik Ashtar, 22
Muhammad ibn Mansur, 155
Muhammad ibn Nasr, 134
Muhammad ibn Oyisha at-Timiy, 16
Muhammad Muammoiy, 382
Muhammad Muzaffar Amir Xusrav Dehlaviy, 376, 377, 379, 388
Muhammad Ozod, 291, 301
Muhammad payg'ambar, 14, 15, 20, 22, 23, 28, 30, 59, 132, 320, 502
Muhammad Rafe, 370
Muhammad Saljuqiy, 212
Muhammad Sulton, 282, 296
Muhammad Sultonshoh, 262, 264, 282
Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, 328
Muhammad Hanifa, 298
Muhammad Shayboniyxon, 387
Muhammad Shafe', 343
Muhammad Yusuf (Hamza o'g'li), 229
Muhammadbek, 221, 226
Muhammadbek (Musabek o'g'li), 259
Muhammadiya, 97
Muhammadxoja Apardiy, 253
Mo'nka, 221
Mo'nko, 221, 227
Mo'nko (Ko'ktemur o'g'li), 232
Mo'g'ultoy, 188

N

Navkadiy, 92
Nadr, 32
Najib Bakron, 2, 161, 162
Najmiddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy al-Moturidiy, 13
Najmiddin Umar Nasafiy, 218
Nazar Muhammad al-Faryobiy, 13
Nakabuniy, 92
Narshaxiy, 18, 32, 36, 54, 92, 134
Nasafiy, 13, 14, 15, 26, 28, 30, 32, 42
Nasiruddin Lutfulloh ibn Xoja Azizulloh, 348
Nasiruddin Tusiy, 355, 358
Nasr ibn Abdulmalik al-Atakiy, 37
Nasr ibn Ahmad, 39, 65, 137, 212
Nasr ibn Ahmad as-Said, 137

@tarixchi_kutubxonasiga

Nasr ibn Ahmad as-Somoniy, 39
Nasr ibn Sayyor, 37, 39, 134
Naukazakiy, 92
Naukandiy, 92
Naundyoiy, 92
Nauxasiy, 92
Naxliy, 90
Naxshabiy, 90, 99
Nekudor, 192
Niyozaviy, 92
Nizomiddin al-Hasiriy, 116
Nizomiddin Ahmad ibn ash-Shayx Jamoliddin, 114
Nizomiddin Shayx Ahmad Suhayliy, 393
Nizomiddin Shomiy, 2, 195, 196, 198, 206, 232, 281
Nizomiy, 374, 377, 378
Nizomiy Aruziy, 153
Nizomuddin Abdurrahim Yer Ahmad, 348
Nizomuddin avliyo, 377
Nikpay Bahodir, 193
Nojiriy, 116
Noradin, 483, 492
Norqulov N., 336
Nosir Buxoriy, 379
Nosiriddin, 227
Nofaxsiy, 90
Nuh (payg'ambar), 7, 133
Nuh ibn Asad, 137
Nuh ibn Mansur (Somoniy), 42, 120, 121, 149, 150, 152, 156, 157
Nuh ibn Nasr, 44, 139, 146
Nuh payg'ambar, 7
Nuko'z, 221
Nurulmulk, 230
Nurussalom, 223
Nush-Tegin G'archa, 170
No'shirvon, 168
No'shirvon (Hinduko o'g'li), 221

O

Ovard, 223
Odam, 476
Odam Ato, 360, 476
Odil, 224
Odil Malik, 255
Odilshoh, 325
Olako'chal, 232
Olamizin, 224
Olamxoja, 224
Olamshayx, 229
Olatxon, 340
Olimshayx, 257
Ollohdod, 223
Ollohdod Ahmad, 225
Olti Buqo, 225
Omir ash-Sha'biy, 26
Omir ibn Sharoxil ash-Sha'biy, 28, 29
Omonshoh Bahodir, 276
Orzu Buqo, 227
Orif Ozariy, 377
Otabek Sa'd ibn Zangiy, 123
Otlig', 172
Otsiz, 170, 172, 173, 174, 175, 371, 372, 373
Otsiz ibn Qutbuddin Muhammad ibn Nushtekin, 371
Otsiz ibn Muhammad, 370
Ofoq, 223
Ofuroniy, 47
Oq Bug'abek, 257, 269, 297
Oqbek, 2, 193, 195
Oqbug'a Bahrin, 272
Oqbo'ta, 283

@tarixiy_kutubxonasiga

Oqtemur Bahodir, 259, 264
Oqtov, 295
Ohupush zohid, 174

P

Pahlavon (Ovard o'g'li), 223
Pahlavon Mahdiy, 271
Pahlavon Hoji Zavoiy, 331
Peti de la Kroa, 246
Pir Ali (Jahonshoh o'g'li), 230
Pir Ahmad (Ali Darvesh o'g'li), 225
Pir Ahmad (Pir Nodir o'g'li), 227
Pir Luqmon, 225
Pir Mazid, 227
Pir Muhammad Fulod, 297
Pir Nodir, 227
Pir Husayn Barlos, 269
Pirmuhammad (Ali Darvesh o'g'li), 225
Pirmuhammad (Jahonshoh o'g'li), 230
Pirmuhammad (Tag'oy Buqo o'g'li), 228
Pirmuhammad (Xalil o'g'li), 223
Pirmuhammad (Hamza o'g'li), 223
Pirmuhammad (Shayx Luqmon o'g'li), 226
Pirmuhammad Jahongir, 309
Pirmuhammad Kobuliy, 225
Pirsulton (Jahonshoh o'g'li), 230
Poyanda Sulton, 225
Ptolemey, 101, 313, 314, 315, 316
Po'lodchi, 193

Q

Qadaqon, 186
Qazag'on, 198, 199, 200, 202, 203, 204, 205, 322
Qazon (Qorachor no'yon o'g'li), 221, 232
Qaydu, 188, 190, 191, 192, 193, 195, 334
Qaysar (amirzoda Pirmuhammad o'g'li), 334
Qamariddin, 259, 324, 325, 326
Qantariy, 83
Qaranqo, 224
Qaronchi, 272
Qibta Darxon, 276
Qibchoq, 190, 191
Qiyg'urbek, 283
Qimoriy Inoq, 257
Qiron Bug'a Arslon, 257
Qiron Temur, 227
Qovchi, 232
Qozi Nizomiddin Muhammad, 394
Qozizoda Rumiy, 312
Qozon, 229
Qozonsultonxon, 255
Qozonxon, 198, 202
Qora, 232
Qora Ko'ppak, 264
Qora Temur, 227
Qora Usmonbek, 302
Qorayor (Dabo' Qiron o'g'li), 227
Qora Yusuf turkmon, 294
Qoraqon Bahodur, 276
Qoratemur, 230
Qoraxoja, 202, 428
Qorahindu, 225, 257
Qorahuloju, 220
Qoracha Hojib, 337
Qorachor no'yon, 220, 221, 223, 224, 227, 229, 232
Qubilay, 188, 191
Qudama ibn Ja'far, 155
Qudomat ibn Ja'far, 155

@tarixchi_kutubxonasiga

Quzg'undiy, 83
Qulluqtemur, 223
Qunshar-xan (Xun'ya-vang), 405
Qusay ibn Kilob, 18
Qusam ibn Abbos, 1, 18
Qusam ibn al-Abbos (ibn Abdulmutallib) (Abdulmutallib?), 19, 20, 22, 59
Qutayba ibn Muslim, 26, 28, 32
Qutayba ibn Muslim (al-Baxiliy), 25, 65
Qutbiddin (Qora Temur o'g'li), 227
Qutlug' Bug'a, 261
Qutlug' Turkon-og'o, 257, 326
Qutlug'qiyo, 227
Qutluq Bug'o, 232
Qutto' Buqo, 223
Qutto'-Buqo-Jiylig' Temur, 223
Qushchibek, 188
Qo'jor, 221
Qo'yrichaq O'g'ul, 293
Qo'linchoq Bahodir, 283
Qo'no'qo Tug'lug', 223

R

Rabinjaniy, 68
Rabi' ibn Ziyod, 25
Rabi' ibn Ziyod al-Harisiy, 25
Radrodiy, 69
Razmoziy, 68
Razmonoxiy, 68
Rastag'fariy, 68
Rafi' ibn al-Lays, 37, 39
Raxinaviy, 68
Rahimdod, 227
Rahmonquli, 223
Rashid, 372
Rashid Vatvot, 125, 172, 174, 175, 179, 370, 371, 372, 373
Rivarsuniy, 69
Rivdadiy, 69
Rivdiy, 69
Riviy, 69
Riyohiy, 22
Rizo, 151, 152
Rizo Abulabbos Tosh, 149
Rizo Ali ibn Muso (Musa), 352
Rixshaniy, 69
Rieyshiey (Ershi), 400, 413, 414, 415, 416, 418, 419, 420
Rig'damuniy, 69
Roziy, 169
Roziuddin an-Nishopuriy, 130
Romaniy, 68
Romisaniy, 68
Romushiy, 68
Rog'iniy, 68
Rog'sarsaniy, 67
Rudakiy, 155
Ruzafag'kadiy, 69
Rui Gonsales de Klavixo, 4, 478
Rukniddin, 176
Rukniddin at-Tovusiy, 114
Rukniddin Gursanchti, 120
Rukniddin Imomzoda, 114
Rukniddin Mahmud bin Muhammad Bug'roxon, 176
Rukniddin Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad al-Amidiy al-Faqih al-Hanafiy as-Samarqandiy, 114
Rustam (zol), 184
Rustam (Tag'oy Buqo o'g'li), 228
Rustam (Fo'lod o'g'li), 223
Rustam ibn Umarshayx Bahodir, 334
Rustam Umarshayx, 292
Rustamgo'r, 173, 372

@tarixchi_kutubxonasiga

Rustufag'niy, 69
Rufay ibn Mixron Abul-Oliya ar-
Rufay ibn Mixron al-Basriy, 1
Rufuniy, 69
Ruxsiy, 47
Ruxshabuziy, 68

S

Sabiri, 73
Sabuk-Tegin, 118, 151, 369
Sadr Jamol, 227
Sadriddin, 227
Sajziy, 157
Said ibn Salm, 28
Said ibn Usmon (ibn Affon), 1, 18, 20, 22, 23
Said Nasr ibn Ahmad, 137
Said Harashiy, 36, 134, 136
Saydi Ahmad, 306
Sayid Ali (Temurxoja o'g'li), 223
Sayid Ali (Hamza o'g'li), 223
Sayid Baraka, 253, 255, 283
Sayid Murtazo ibn Sayid Sadriddin, 183
Sayid Muhammad, 223
Sayid Roziiddin, 397
Sayid Sulton (amir Idiku o'g'li), 230
Sayid ur-ruaso, 155
Sayid Xoja Shayx Ali Bahodir, 297, 307
Sayf ibn Kasir al-Amir, 37
Sayfiddin Sa'd as-So'fiy (al-Boxarziy), 125
Sayfiddinbek, 257
Sayfulmalik, 223
Sayfulmuluk, 225
Sakbiyoniy, 73
Sakoniy, 73
Salji, 232
Salm ibn Ziyod, 23
Salm ibn Qutayba (ibn Muslim), 28
Salmavayx Abu Solih, 20
Salmon, 379
Samijaniy, 73
Sam'oniy, 15, 28, 44, 46, 90, 99, 105, 114
Sangtur, 340
Sanjadizakiy, 74
Sanjar Malik, 180
Sanjufiniy, 74
Sankabosiy, 74
Sankadizakiy, 74
Sardariy, 73
Sari Bug'a, 269
Sari Bug'abek, 257
Sari Buqo, 325
Sariq Atka, 269
Sarminjiniy, 76
Saroymulkxonim, 287, 491, 493, 494, 497
Saura ibn al-Hurr ad-Dorimiy, 33
Saffoh, 34
Sa'd, 137
Sa'd al-Malik, 223
Sa'd Vaqqos (Amirzoda Pirmuhammad o'g'li), 334
Sa'd Vaqqos (Muhammad Sulton Bahodir o'g'li), 334
Sa'd ibn Zangiy, 123
Sa'dulloh (Bahlul o'g'li), 227
Sa'olibiy, 42
Sevinch Buqo, 228
Sevinch Qutlug'-og'o, 327
Sekijkasiy, 73
Senor Temurbek, 479, 480, 481, 484, 485, 486, 496, 500
Sezar

@tarixchi_kutubxonasiga

Sibori, 72
Sidi Ahmad ibn Umarshayx Bahodir, 334
Sidi Yusuf, 224
Sijoriy, 73
Siyoziy, 74
Silvestr de Sasi, 370
Sima Guang, 399
Sobit ibn Qurra, 157
Sobotiy, 71
Sovkoniy, 71
Sogarjiy (Sog'arjiy), 71, 76
Sog'u, 232
Soyig'iy, 76
Sokabadyoziy, 71
Solih ibn Muhammad al-Bag'dodiy, 20
Solih ibn Umar, 39
Sonjaniy, 71
Sori Bug'a Jaloyir, 255
Sorikuniy, 71
Sotuq, 227
Sou Su, 419
Sohib, 155
Subazmuniy, 73
Subaxiy, 74
Subizug'ukiy, 73
Su-Jo', 351
Sulaym ar-Roziy, 112
Sulaymon, 353
Sulaymon (Dovud o'g'li), 226
Sulaymon (payg'ambar), 235
Sulaymon (Sulaymon o'g'li), 225
Sulaymon (Sulton o'g'li), 225
Sulaymon ibn Abd al-Malik (Abdulmalik), 25
Sulaymon ibn Abu-s-Sari (Abu-s-Sariy), 33
Sulaymonbek, 283
Sulaymonshoh, 225, 327
Sulaymonshohbek, 297
Sulamiy (Sulomiy), 38, 40
So'lon, 225
Sulton Abu Said, 455
Sulton Abu Said (Abuyazid o'g'li), 230
Sulton Abu Said (Pirsulton o'g'li), 230
Sulton Abu Said (Sulton Husayn o'g'li), 230
Sulton Abu Said (Sher Darvesh o'g'li), 232
Sulton Abulfath (amir Idiku o'g'li), 230
Sulton Abulfath G'iyosiddin Muhammad ibn Som, 390
Sulton Abuyazid, 230
Sulton Ali (Rustam ibn Umarshayx Bahodir o'g'li), 334
Sulton Ali (Sulton Husayn o'g'li), 230
Sulton Ali (Hoji Qubul o'g'li), 222
Sulton Alouddin, 378
Sulton Ahmad (Yodgor barlos o'g'li), 221
Sulton Ahmad (Sulton Qubo'l o'g'li), 223
Sulton Ahmad Mirzo, 382, 384, 385, 386, 387
Sulton Boyazid (Nurulmulk o'g'li), 230
Sulton Jaloliddin Sulton Muhammad Xorazmshoh o'g'li, 336, 338, 339, 465
Sulton Jahonshoh (Sulton Muhammad o'g'li), 230
Sulton Ibrohim (amir Jahonshoh o'g'li), 230

@tarixchi_kutubxonasiga

Sulton Ibrohim (amir Idiku o'g'li), 230
Sulton Ibrohim (Yodgor barlos o'g'li), 230
Sulton Mahmud (Tug'lug' Yodgor o'g'li), 224
Sulton Mahmud G'aznaviy, 118, 132
Sulton Mahmud Mirzo, 382, 387
Sulton Mahmudxon, 385, 386, 387
Sulton Mahmudxon (Chig'atoyzoda), 282, 303
Sulton Muhammad, 183
Sulton Muhammad (Abuyazid o'g'li), 230
Sulton Muhammad (Jahonshoh o'g'li), 223
Sulton Muhammad (Sulton Qubul o'g'li), 223
Sulton Muhammad (Tavakkal o'g'li), 222
Sulton Muhammad Balxiy, 161
Sulton Muhammad Xorazmshoh, 169, 336, 337, 338, 339, 341, 342
Sulton Sayyid, 223
Sulton Sanjar ibn Malikshoh, 130, 167, 170, 172, 173, 175, 176, 177, 178, 183, 371, 372, 373, 374
Sulton Sulaymon bin Muhammad, 172
Sulton Uvays (Idiku Bahodir o'g'li), 230
Sulton Usmon, 181, 184
Sulton Husayn (amir Idiku o'g'li), 230
Sulton Husayn Boyqaro, 369, 387, 394, 398
Sulton Shihobiddin, 390
Sulton Yusuf, 224
Sultonali Mirzo, 334
Sultonbaxt begim, 327, 335
Sultonxon, 221
Sultonshoh, 178, 179, 180
Sun-Kun-Ji, 351
Suyurg'atmish, 229
Suyurg'atmish ibn Amironshoh bahodir, 334
Suyurg'atmish O'g'lon, 253
So'gatu, 184

T

Tabariy, 15, 28, 36, 106
Tabib, 227
Tabon Bahodir, 269
Tavakkal, 221
Tavakkal Bahodur, 294
Tavovisiy, 77
Tagina xotun, 250
Tadyoniy, 54
Tayzi O'g'lon, 306
Takish, 179, 180
Taqoy, 184
Talut ibn Ziyod as-Samarqandiy, 35
Talha al-Muhallab ibn Abu Sufra, 23
Talha at-Talhot, 23
Talha ibn Abdulloh, 23
Tamg'ochxon, 170
Tamuka, 257
Tamuka qavchin, 257
Tamuli, 224
Tangri-o'g'li (U-di), 404, 405, 408, 409, 410, 412, 413, 414, 415, 416, 420
Tanzil, 223
Tarag'oy, 220, 229
Taroxiy, 57
Tarxun, 32

@tarixchi_kutubxonasiga

Tator, 232
Taxsijiy, 57
Taxsonjkasiy, 57
Taxti Azizon, 398
Tayangu, 181, 182
Tag'ay, 223
Tag'ay Mergan, 297
Tag'ay Turkon xotun, 255
Tag'mochxon, 212
Tag'nak, 257
Tag'oy Bug'o, 225
Tag'oytemur, 227
Tag'shoda, 18
Tahmuras, 128
Tekash, 223
Temir darvoza, 103, 426, 467
Temur Buqo, 221
Temur Malik, 184, 185, 186
Temur Malik O'g'lon, 264, 265, 266, 278
Temur Xoja Oq Bug'a, 292
Temurxoja (Sulaymon o'g'li), 223
Temurxoja ibn amir Oqbuqo, 333
Tiyrak, 224
Timakiy, 59
Tirmiziy, 58
Tobon Bahodur, 255, 257
Todiziy, 57
Tojiddin Tuniy, 331
Tozaniy, 57
Toy-Zuy, 351
Totamix, 481, 483
Tosh al-Hojib, 149
Tosh Temur O'g'lon, 283
Toshev N., 169, 188
Tohir (Sotuq o'g'li), 227
Tohir ibn Ali, 145
Tohir ibn al-Husayn, 137
Tohir ibn Fazl, 150
Tubaniy, 59
Tubba', 211
Tubko, 223
Tuboniy, 57
Tug'lug' Yodgor, 223
Tug'lug' Temur, 224
Tug'luq Temurxon, 322, 366
Tuzijiy, 59
Tuziy, 59
Tuman-og'o, 287, 325
Tuman Temur o'zbek, 265
Tumanbek Temur, 259, 260
Tunkasiy, 59
Tunkatiy, 59
Turboniy, 58
Turkon, 179
Turkon-xotun, 184, 192, 338
Turmiz, 58, 59
Turnovaz, 59
Turnovaziy, 59
Turur Sulton, 255
Turxoriy, 77
Tusaniy, 77
Tuskosiy, 59
Tyanzi (Tangri o'g'li), 402
To'bin, 221
To'kal, 221
To'kal (amir), 232
To'kal (Sadriddin o'g'li), 227
To'kal (Tag'oytemur o'g'li), 227
To'kal Bavurchi, 301
To'kal Xonim, 298, 299
To'lixon, 345
To'lujon, 262
To'plaq qavchin, 276
To'ploq, 297
To'rolg'ay, 225
To'rtoba, 181
To'siyon, 223

@tarixchi_kutubxonasiga

To'xtaqiya, 261, 264, 325
To'xtamish O'g'lon, 261
To'xtamishxon, 261, 264, 266, 272, 278, 280, 282, 283, 284, 285, 287, 288, 290, 291, 292, 293, 294, 325, 327, 329
To'shi, 180
To'qtemur (Xorazmiy o'g'li), 223
To'qtemur Kichik, 200
To'qtoy, 225
To'g'oyxon, 342
To'g'on (Qozon o'g'li), 229
To'g'onshoh, 180

U

Uyon, 221
Uloq no'yon, 340
Ulug' Sotqin, 264
Uludar, 221
Ulush-Idi, 185
Umar (Safar o'g'li), 227
Umarshoh, 271
Umro' ibn Lays, 137
Ungon, 221
Unsuriy, 155
Urus (Dovud o'g'li), 227
Usayd ibn Abdulloh (al-Huzo'iy), 36
Usmandiy, 49
Usmon (Rustam ibn Umarshayx Bahodir o'g'li), 334
Usmon (Tavakkal o'g'li), 222
Usmon Bahodir, 275, 284, 292
Usmon Jadi (Abubakr ibn Amironshoh o'g'li), 334
Usmon ibn Affon, 18, 25, 123, 125
Usmonbek, 269, 294
Usrushaniy, 49
Ustug'dodiziy, 48
Uto'chor, 221
Utshundiy, 42, 47
Ushmiyuniy (Ushmiyuniy), 49
Ushtobdizakiy, 49

V

Vazviniy, 94
Vazziy, 92
Vazoriy, 92
Vaki' ibn Abu Sud al-Gudoniy, 26
Valid, 26
Valid ibn Abdulmalik, 25, 26
Vananduniy, 94
Vang Xuey, 409, 411, 415
Vang Shingshing, 419
Vanufagiy, 94
Vanufaxiy, 94
Varagsariy, 93
Varzoniy, 93
Varkudiy, 94
Varsaniniy, 94
Vibavdiy, 94
Vobkaniy, 92
Voqi' ibn Abu Sud at-Tamimiy, 26
Vushmagir, 148

X

Xajvoniy, 63
Xaydar (Qiron Temur o'g'li), 227
Xaydar xoja, 428
Xaydashtariy, 65
Xaylomiy, 65
Xayroxariy, 65
Xaysam ibn Ado at-Toiy, 16
Xalil (Jumtoy o'g'li), 223
Xalil (Iso o'g'li), 223

@tarixchi_kutubxonasiga

Xalil Apardiy, 253
Xalil Sulton, 237, 320, 333, 351
Xalil Sulton (Amir Husayn o'g'li), 255
Xalil Sulton (Jahonshoh o'g'li), 230
Xalil Hinduka, 380
Xamelak Mirassa, 483
Xammer, 370
Xan, 13
Xarashkatiy, 63
Xarkoniy, 63
Xarojariy, 61
Xaronkasiy, 63
Xarrodiniy, 61
Xartankiy, 62
Xaruniy, 63
Xaruriy, 63
Xashyandiziy, 65
Xizr (Iskandar o'g'li), 227
Xizr (payg'ambar), 346, 392
Xizr Yasuriy, 200, 255
Xizrbek, 305
Xiloliy, 22
Xisravnishon, 396
Xitoy Bahodur, 257, 262, 264
Xishom ibn Abdulmalik ibn Marvon, 33
Xovasiy, 61
Xovusiy, 61
Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy, 383
Xoja Ali ibn Xoja Faxriddin Shihob, 331
Xoja Alouddin, 331
Xoja Alouddin Ali Chishtiy, 348
Xoja Arab Hiraviy, 331
Xoja Afzaliddin Muhammad, 369
Xoja Ahmad, 330, 331
Xoja Ahror Valiy, 3
Xoja Izzidin Maymunshoh al-Boxarziy, 331
Xoja Ixtiyoriddin Hasan Sovaji, 203, 204
Xoja Kamoliddin Husayn, 393
Xoja Qavomiddin shayx Muhammad Xavofiy, 331
Xoja Malik zargar, 396
Xoja Mahmud, 331, 333
Xoja Mir Ali, 356
Xoja Muborak, 331
Xoja Muhammad Abdulla, 331
Xoja Muhammad Mas'ud Kofi Boxarziy, 331
Xoja Muhammad Porso, 216
Xoja Nosiriddin Lutfulloh Xoja Nosiriddin Ubaydulloh, 3, 380, 382, 383, 384, 385, 394
Xoja Nosiriddin Ubaydulloh (Xoja Osafiy), 394
Xoja Sadriddin Hamid, 331
Xoja Sulaymon ibn Xoja Hisom Fushonjiy, 331
Xoja Faxriddin Ahmad Tusiy, 330
Xoja Hoji ibn Abdulloh Muhammadxo'ja, 331
Xoja Shayx qavchin, 276
Xoja Shamsiddin Muhammad Simnoniy, 330
Xoja Shahobiddin Abdulloh Marvarid, 369
Xoja Yusuf, 224
Xojai Elchi Bug'o, 305
Xoja Yusuf, 224
Xozimiy, 102
Xoqoniy, 373, 374
Xolid (amirzoda Pirmuhammad o'g'li), 334
Xolis, 221

@tarixchi_kutubxonasiga

Xon Said, 255
Xondamir, 387, 388, 390
Xonzoda, 324, 329, 493
Xonsoda, 492
Xorazmiy, 223
Xotam, 360
Xotam al-Asam (Abdurahmon ibn Alvon az-Zohid), 123, 124
Xotun, 18
Xoxsariy, 61
Xuvarizmiy, 65
Xuvokandiy, 65
Xudimankaniy, 61
Xudisariy, 61
Xudoboziy, 61
Xudododi Husayniy, 299
Xudoybergan ibn Bekmuhammad, 380
Xudoyberdi, 225
Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad So'fi al-Xivaqiy, 246
Xudoydod, 223, 284
Xudoydodi Husayniy, 282, 291
Xudoydodiy, 225
Xudfironiy, 61
Xuziyoniy, 65
Xuzondiy, 61, 63
Xuzoriy, 63
Xulayd ibn Hasan, 23
Xulbon, 223
Xumayd ibn Qahtaba, 36, 132, 134
Xumisaniy, 65
Xumori, 269
Xumorshoh, 226
Xumrakiy, 65
Xumxisariy, 65
Xunbuniy, 65
Xurmisaniy, 63
Xurosoniy, 34
Xusada, 494
Xusrav, 126
Xusrav Anushirvon, 128, 467
Xusrav Yazdijard, 125
Xushminjakasiy, 64
Xushnazar, 223
Xushtiyor, 30, 32
Xushunanjakasiy, 64
Xushufag'niy, 63
Xo'ja Abdi Berun, 22
Xo'ja Abul-Hasan, 22
Xo'ja Doniyol, 22
Xo'ja Muhammad al-Hamaviy, 22
Xo'ja Muhammad ibn Vasi', 22
Xo'jayev A., 400

Y

Yabg'u, 259
Yassi, 276
Yazdigard ibn Shahriyor, Yazdigird III, 125
Yazid, 18, 26
Yazid ibn al-Muhallab, 26
Yazid ibn Muoviya, 18
Yaminov A., 105
Yang'i qavchin, 265
Yang'ir, 480
Yanosh Ekman, 247
Yansa, 505
Yasirkasiy, 94
Yasovuriy (amir), 206, 322
Yaso'nta, 221
Yaso'nta Mo'nko, 224
Ya'qub, 223
Ya'qub (ibn Ismoil Somoniy), 40
Ya'qub ibn al-Lays, 39, 41
Ya'qub ibn Is'hoq, 158, 159
Ya'qub ibn Is'hoq Kindiy, 158, 15

@tarixchi_kutubxonasiga

Yahyo ibn Asad, 137
Yahyo ibn Muin, 20
Yahyo ibn Muoz, 39
Yevklid, 316
Yildirim Boyazid, 300, 302, 303, 304, 305
Yodgor, 229
Yodgor (G'iyosiddin o'g'li), 229
Yodgor barlos, 221, 223
Yodgor Sulton (Sulton Qubo'l o'g'li), 223
Yodgorxon, 221
Yoqub ibn Is'hoq al-Kindiy, 158, 159
Yoqut Abu Abdulloh Shahobiddin
Yoqut ibn Abdulloh, 94
Yoqut al-Musta'simiy, 356
Yoqut al-Hamaviy, 95
Yoruq Temur, 262, 264
Yosudor, 193
Yofas, 7
Yuan Shu, 3, 399, 400
Yusupova D., 310, 321, 370, 388, 390
Yusuf al-Hodiy, 14
Yusuf ibn Ibrohim al-Barm, 37
Yusuf Marzarrud, 134
Yusuf Saqfiy Haruriy, 134
Yusuf So'fi, 324, 326

Z

Zabag'duvoniy, 69
Zagrimoshiy, 71
Zaymuniy, 67
Zayniddin Abu Bakr Tayobodiy, 271
Zakariya al-Qazviniy, 117
Zakoniy, 71
Zamaxshariy, 71
Zammiy, 66
Zandaniy, 71
Zandarimisaniy, 71
Zandiy, 71
Zaranjariy, 71
Zaraxshiy, 69
Zarkaroniy, 70
Zarmoniy, 70
Zarudizakiy, 71
Zar'ayniy, 66
Zaxinaviy, 66
Zaxkatiy, 66
Zahiriddin Muhammad Bobur, 248, 387, 454
Zibaduvoniy, 67
Ziyovuddin Forsiy, 183
Ziyod ibn Mixron, 23
Ziyod ibn Solih (al-Xuzoiy), 1, 34, 35, 84
Ziyrak Joku, 291
Zikuniy, 71
Zimlikiy, 71
Zindachashm, 253
Zindachashm Apardiy, 255
Zog'arsarsaniy, 69
Zozakiy, 69
Zoyin Temur, 227
Zominiy, 69
Zoriy, 69
Zohid al-Xovasiy, 61
Zulqarnayn (Iskandar), 128, 183
Zulqarnayn (Hinduko o'g'li), 221
Zushiy, 71

O'

O'jar, 221
O'zbekxon, 203, 259
O'zgand (Yivecheng), 415, 418, 419

@tarixchi_kutubxonasiga

O'zjand, 101
O'ktoy, 188, 191, 202
O'ktoyxon, 339
O'lja Bug'a Majalkachi, 297
O'ljaytu, 255
O'ljaytu bek, 253
O'ljoy Turkon-og'o, 200
O'ljoytu, 187
O'rdu Buqo, 325
O'rinboyev A. 196, 343
O'rtoq, 288
O'rung Temur, 266, 272, 324
O'rus (Tamuli o'g'li), 227
O'rus Bug'a, 269
O'rusxon, 259, 261, 262, 264, 265, 325

G'

G'adoniy, 77
G'azziy, 155
G'aziniziy, 79
G'aznayoniy, 79
G'andobiy, 79
G'ardiyoniy, 79
G'asson ibn Ibod, 137
G'ashidiy, 79
G'iyosiddin Mir Ali Qurt, 326
G'iyosiddin Muhammad, 187
G'iyosiddin Muhammad ibn Xoja Humomuddin Muhammad ibn Xoja, 387
G'iyosiddin Tarxon, 265
G'iyosuddin Jamshid, 311, 354
G'iyosuddin Tarxon, 293, 297
G'iyosuddin Shohmalik, 344
G'itrif ibn Ato, 97
G'ishatiy, 79
G'ozonxon, 187
G'oyirxon, 337
G'otfariy, 77
G'ubdiniy, 79
G'ujdavoniy, 77
G'uzashfardariy, 77
G'uzovaziy, 77
G'unjiriy, 79
G'urajkiy, 79
G'urak, 25, 32, 81
G'urashkiy, 79
G'urminaviy, 79
G'ushdoniy, 79

SH

Shayx Abdulloh, 230
Shayx Abu Is'hoq Injuyi, 203
Shayx Abu Is'hoq Ibrohim ibn Ali, 109
Shayx Ali, 297
Shayx Ali Bahodir, 272, 275
Shayx Ahmad Yassaviy, 298, 299
Shayx Boyazid, 225
Shayx Darvesh (Iyji Buqo), 232
Shayx Darvesh (Shayx Ali o'g'li), 225
Shayx Jalil, 227
Shayx Junayd, 223
Shayx Zulqarnayn, 221
Shayx Islom, 221
Shayx Maslahat Xo'jandiy, 276
Shayx Muhammad (amir Hoji Barlos o'g'li), 225
Shayx Muhammad (Qo'ranqo o'g'li), 232
Shayx Muhammad (Pir Luqmon o'g'li), 225
Shayx Muhammad (Pirmuhammad o'g'li), 225

@tarixchi_kutubxonasiga

Shayx Muhammad Bayon Sulduz, 252, 253, 255
Shayx Nazar, 223
Shayx Nuriddinbek, 291, 303
Shayx Rizouddin an-Nisoburiy, 114
Shayx Said, 223
Shayx Temur Sulduz, 284
Shayx Hoji (Shayx Ali o'g'li), 225
Shayx Shamsuddin Muhammad Jazariy, 306
Shayxali Bahodir, 257, 284
Shayxzoda Purqiyom, 382
Shayxxon, 340
Shayshaqiy, 76
Shamar, 211, 212
Shamidizakiy, 76
Shams ad-Davla, 97
Shamsiddin, 315
Shamsiddin (vazir), 168
Shamsiddin Abu Abdulloh ibn Muhammad, 102
Shamsiddin Abu-l-Abbos Ahmad ibn al-Xalil, 114
Shamsiddin Ali ibn Muhammad, 183
Shamsiddin al-Xuvayyiy, 114, 116
Shamsiddin Munshiy, 2, 235
Shamsiddin sangtarosh, 392
Shamsuddavla, 121
Shamsuddin Abbos, 293, 294, 299
Shamsuddin Almolig'iy, 287, 288
Shamsul Ma'oliy Qobus ibn Vashmgir, 121
Sharafdaniy, 76
Sharafuddin Ali, 239
Sharafuddin Ali Yazdiy, 3, 198, 244, 246, 248, 252, 257, 259, 274, 321, 358, 494
Sharg'iyoniy, 75
Sharg'iy, 74
Sharg'o, 229
Sharik ibn Shayx al-Mahriy, 34
Shaxoxiy, 74
Sha'biy, 30
Sherbek-og'o, 229
Shermuhammad O'g'lon, 335
Sheroyin, 223
Shibliy, 74
Shijyun, 402
Shikistoniy, 76
Shin, 415
Shiravoniy, 76
Shirakasiy, 76
Shirg'ovashuniy, 76
Shobjaniy, 74
Shovkatiy, 74
Shovxaroniy, 74
Shofeiy, 108
Shoh Jahon, 358
Shoh Mansur, 223
Shoh Muhammad, 253
Shoh Rustam, 223
Shoh Uvays, 223
Shoh Shujo', 271
Shohjahon, 223
Shohmalik (amir), 303, 333
Shohmalik (Dovud o'g'li), 226
Shohmuhammad Badaxshon shohi, 255
Shohrux, 197, 206, 207, 214, 246, 278, 297, 299, 303, 306, 313, 380, 442
Shohrux Bahodirxon, 229, 325, 326, 329, 333
Shohsayid, 229
Shuraboniy, 76

@tarixchixkutubxonasiga

Shurayh al-Qodiy, 28
Shuxnokiy, 76

CH

Chayskan, 484
Chakka, 223
Chjang Chyan, 400, 401, 402, 403, 405, 407, 409, 414
Chjov Di, 420
Chjov Puonu, 410
Chjov Shicheng, 415
Chimboy Elchikday, 301
Chingizxon, 191, 198, 212, 306, 326, 336, 337, 341, 376, 390, 424, 425, 463, 464, 466, 468, 498
Chintemur, 223
Chinchyuy, 413
Chig'atoy, 191, 192, 193, 202, 212, 220, 221, 339, 364, 463, 473
Che Ling, 414
Cho'g'on barlos, 257
Cho'lpon, 227
Cho'lponmulk-og'o, 278
Cho'pon, 223
Cho'ron, 221, 232

@tarixchi_kutubxonasiga

JOY NOMLARI

A

Abgar, 57
Abg'ar, 63, 102
Abivard, 118, 128, 505
Abiskun, 162
Abrbob, 329
Abxoz, 236
Avzach guzari, 253
Avfar, 102
Adada-ban (Adada platosi), 434
Ajam, 13, 53, 69, 76, 240, 246, 288, 329, 333, 361, 364
Azoq hisori, 296
Allon, 274
Altoy, 240
Altunavand, 120
Amidiya, 44
Amu (Amudaryo), 59, 164, 166, 200, 319, 440
Amu suyi, 191, 193, 253, 297
Amul, 9
Anbor tepa, 275
Angren, 66
Andijon, 28, 51
Andoq, 68
Andxud, 269
Andxo'y, 200, 269
Anhori Jadid, 214
Arabiston, 139
Ararat tog'i, 470
Arafot tog'i, 22
Arbinjan, 53, 68, 83, 84
Arg'in (Arg'un), 237
Arg'un, 195, 237
Ardabil, 234
Aris daryosi (suvi), 276
Aris suyi, 276
Armaniston (Armaniya), 463, 464, 475
Armaniya, 234
Arron, 162, 232, 234, 236, 300, 374
Arsif, 322
Asad, 120
Asbara, 104
Astrobod, 230
Asuen (Usun), 403, 405, 407, 408, 410, 412
Atil suyi, 284, 285, 293
Atlantika okeani, 207
Atoqabrig'o'y, 281
Afg'oniston, 168, 170, 271, 388
Afraxsh (Afraxsha), 49
Afrika, 240
Afron, 47
Afrosiyob, 9, 12, 13, 22, 47, 52, 53, 59, 84, 88, 94
Afshona, 120

@tarixchi_kutubxonasiga

Axsi, 47
Axsikas, 101
Axsikat, 165, 168, 219, 374
Achuk Zamuq, 275
Ashpara, 299, 329, 331
Ashxobod, 238
Aqar, 231
Ahmadiya madrasasi, 44

B

Bagino, 487
Badaxshon, 118, 123, 165, 255, 275, 322, 369, 500
Badg'is (Badxis), 269
Bazda, 56
Baykand (Baykend), 56, 57, 97
Baylakon, 330
Bayrut, 15, 28, 105
Bayhaq, 125
Baku, 117
Balasog'un, 8
Baloson, 104
Balx, 33, 39, 40, 76, 99, 120, 123, 125, 141, 147, 148, 150, 151, 152, 159, 165, 166, 167, 172, 210, 253, 255, 257, 269, 334, 338, 339, 387, 424, 470
Balxon, 162
Bamijkas, 56, 76
Bandi Mohi, 294
Banjikat, 99, 104
Banokat, 8, 98
Barda', 272
Barjlig'kent, 185
Barkad, 55
Barlos kanali, 330
Barsxon, 164
Barxan, 11
Basra, 16, 44
Batm tosh, 281
Baqlon, 230
Baqtriya – (Dashya), 402, 403, 404, 405, 407, 416
Bag'dod, 6, 34, 40, 44, 103, 106, 107, 109, 111, 116, 136, 137, 159, 162, 168, 216, 313, 349, 379, 467, 468, 471, 473
Bag'rin, 90
Beyliota, 69
Beshkent, 83
Biamo (Obi Amu), 505
Binkas, 56, 74, 103
Binkat, 56
Bistom, 238, 505
Bob Daston (mahallasi), 49
Bob Kiss, 53
Bob ul-Abvob, 162, 236
Bobil, 482, 485, 486
Bobo Suxta arig'i, 398
Bodg'is, 150, 210, 344
Bozor, 214, 218
Bokan, 442
Bolo-Hisor, 213
Bolchimkin, 296
Bombey, 370
Bomiyon, 123, 165
Bomiyn, 166
Borjoh, 104
Borkas, 35, 102
Borob, 165
Bosand, 143
Boxarz, 225
Boxtarzamin, 359
Boyar, 505
Bog'i Amirzoda Ulug'bek, 214
Bog'i Amirzoda Shohrux, 214
Bog'i Baland, 214
Bog'i Bihisht, 214
Bog'i Buldo, 214
Bog'i Dilkusho, 214, 329
Bog'i Zog'on, 214, 298, 330, 350

@tarixchi_kutubxonasiga

Bog'i Maydon, 214
Bog'i Murg'oniy, 398
Bog'i Safid, 349
Bog'i Chinor, 214
Bog'i Shahr, 330
Bog'i Shimol, 296, 297, 329
Britaniya muzeyi, 46, 88
Bugur (Luntay), 416, 418
Buyo, 253
Buzjon, 116
Buzmojan, 70
Bular jangali, 293
Bumijkas, 97
Bunjikas, 49, 102
Bunjkas, 102
Burg'ar, 102
Burdog'o'y, 219
Burmojar, 102
Bust, 151
Buttam, 102, 131, 165
Butxazon, 53
Buxoro, 2, 11, 12, 14, 18, 26, 30, 32, 34, 39, 40, 41, 44, 47, 48, 49, 50, 51, 53, 54, 55, 56, 57, 59, 61, 63, 65, 66, 67, 68, 69, 71, 72, 73, 74, 75, 76, 77, 79, 81, 83, 84, 85, 86, 88, 89, 90, 92, 93, 94, 96, 97, 98, 99, 102, 109, 116, 117, 120, 121, 125, 130,131, 133, 134, 136, 137, 139, 141, 142, 143, 145, 146, 147, 148, 149, 150, 151, 152, 153, 156, 162, 165, 166, 170, 178, 180, 181, 185, 193, 194, 195, 207, 210, 212, 215, 216, 217, 218, 248, 262, 337, 339, 340, 430, 466, 470, 505
Buxoro So'g'di, 102
Bushanj, 125
Buyuk devor (Changcheng), 403
Bug'om Oyko'l, 259
Bo'ka, 65
Bo'ruldoy, 230
Bo'ston, 77

D

Dabusiya, 98, 102, 103, 109, 217
Dajla, 105, 118, 349
Daylam, 162
Day-yuan, 400, 403, 413, 419, 420
Damashq, 44, 46, 98, 103, 114, 215, 473
Damovand, 237
Darband, 192, 272, 287, 288, 467, 474
Darvozayi Kiss, 53
Darvozayi Malik, 330
Darvozayi alamdor, 345
Darg'om, 61
Darg'om daryosi, 93
Daryoyi Qulzum (Kaspiy dengizi), 288
Dari Ohanin, 142, 143
Daruziye, 407
Dashti Jete, 359
Dashti Qipchoq, 202, 203, 208, 259, 264, 265, 272, 276, 287, 293, 325, 327, 329, 359, 384, 385
Dashya (Baqtriya), 402, 403, 404, 405, 407, 416
Dahbus, 340
Devori Qiyomat, 94
Dekan, 358
Dehiston, 162
Dehli, 376, 378, 471
Divon, 121
Diyorbakr, 6, 236, 471
Dilikaya (Dilkusho) bog'i, 488
Dilkushoyi bog'i, 298
Dimashq G'o'tasi, 76, 215
Dihiston, 180
Dnepr, 294, 295, 454
Domg'on, 126, 470
Don daryosi, 450

@tarixchi_kutubxonasiga

Dukentsoy, 66
Dunay, 295
Dunxuang, 401, 407, 410

E

Elburzko'h, 288
Elchi Balig', 300
Eram, 346
Eron, 40, 132, 168, 192, 269, 271, 280, 333, 336, 359, 369, 374, 388, 468, 474, 475
Ertish (Irtish), 8
Eski Juva, 56
Eski Termiz, 59
Eski Szyaoxe, 427
Etil, 8
Efiopiya, 113

F

Fayy, 83
Fanokat, 2, 181, 184, 326, 340
Farabr, 117
Farang, 236, 240
Farg'ona, 9, 25, 26, 28, 30, 47, 51, 65, 79, 81, 83, 84, 86, 90, 99, 101, 102, 103, 104, 131, 137, 146, 162, 165, 166, 168, 186, 217, 219, 374, 399, 400, 402, 403, 409, 410, 413, 414, 415, 416, 418, 419, 420
Farg'ona (Yuan), 416, 418, 419, 420
Feruzko'h, 297, 505
Firabr, 97
Firog'at, 63
Firot, 8
Foryob, 16
Forob, 165
Fors, 15, 123, 207, 231, 236, 244, 271, 297, 376, 479
Fors (viloyati), 197, 271
Fotih Milliy kutubxonasi, 220
Fudina, 54
Fujyu, 410
Fujyan, 399

G

Gazli, 68
Ganjrustoq, 150
Gansu, 403
Gardiz, 132
Gardiz qo'rg'oni, 151
Gashti, 79
Giyl, 162
Gilonot, 237
Govxora, 165
Guzgon (Juzjon), 149
Guzgonon, 141
Gurganj, 86, 151, 161
Gurgon, 126, 162
Gurgon (dengiz), 162
Gurjiston, 236, 238
Gurjob, 65
Go'yon rustosi, 146

H

Habashiston, 139
Hajar, 282
Hazorasb, 71
Hazorasp, 94, 173, 371, 372
Haydarobod, 46
Haytol, 95
Halab, 116
Hamadon, 44, 97
Hamal, 286, 296, 299
Haramon, 353
Hijoz, 97, 267, 300

@tarixchi_kutubxonasiga

Hind, 501
Hindiston, 139, 187, 338, 343, 353, 363, 387, 390, 403, 407, 477
Hindiston (Shengdu), 403
Hindukush, 206, 402
Hirot, 41, 108, 116, 125, 126, 130, 145, 149, 152, 156, 206, 218, 238, 264, 271, 297, 298, 320, 326, 330, 331, 333, 342, 346, 347, 348, 349, 350, 352, 356, 387, 388, 390, 392, 394, 397, 398, 422, 423, 470, 475
Hisor, 275, 384
Hisori Shodmon, 369
Hun'yo, 408
Hurmo'z, 236

I

Iyloq, 165
Ikki suv, 65
Ila (Ili), 8
Ila, 9
Ilamish, 181
Ili, 435
Iloq, 51, 59, 104, 143
Injil arig'i, 392
Irbil, 105
Iroq, 16, 18, 25, 30, 97, 98, 103, 105, 108, 112, 118, 139, 159, 166, 168, 203, 227, 239, 267, 297, 306, 338, 339, 374, 376, 383, 388, 465
Iroqi Ajam, 2, 234, 236, 239, 271, 359, 374
Iroqi Arab, 359
Irtish, 225
Isbijob, 103
Isfaroyin, 106
Isfahon, 112, 271, 309, 374, 470
Isiko'l, 164, 333
Iskandariya, 236
Ispaniya, 478, 483, 484
Ispijob, 8
Israyqa, 296
Issiqko'l, 164, 333, 437
Istanbul, 13, 220, 236, 248
Itil daryosi, 162
Ixlosiya (xonaqoh), 392, 393, 394, 396
Ishqobod, 238
Ishtixon, 49, 79, 99, 102, 275

J

Jabal, 121
Jadiy, 250, 307
Jazira, 36, 118
Jazoir, 363
Jayhun (daryosi), 16, 22, 58, 59, 61, 81, 97, 99, 104, 117, 164, 174, 191, 200, 203, 204, 208, 218, 242, 253, 257, 338, 466, 470
Jalolquduq, 28
Jalula, 443
Jang'e, 410
Jand, 164, 165, 175
Jand ko'li, 164, 165, 166
Janubiy Ozarbayjon, 294
Janubiy tog' (Nan-shan), 402, 408, 424
Jarg', 73, 75
Jarminkon, 76
Jata, 322, 324, 326
Jeta, 259, 278, 327
Jizzax, 49, 66, 69, 71, 83
Jom, 271
Jome masjid (Bibixonim masjidi), 30, 213, 238, 329, 333, 502
Jome masjidi (Xujodi), 61, 86
Jome masjidi (Hirotdagi), 390
Josht, 143

@tarixchi_kutubxonasiga

Joha, 148
Juvayn (viloyat), 168
Juzjon, 141
Juzjonon, 16
Jur, 477
Jurjon, 106, 118
Jurjoniya, 372
Jyuyyan, 416
Jyuchyuan, 408, 410, 416
Jyuyuan, 410
Jyan'an, 399
Jo'gi, 229
Jo'g'am, 221

K

Kabuzanjakas, 102
Kavkaz, 288, 474
Kalkutta, 247
Kama, 293
Kamkanon, 143
Kangkiya (Qangjyuy), 402, 403, 407, 408, 418, 419, 420
Karvon Bas, 86
Karmana, 466
Karmina, 86, 217
Karmina temir yo'l bekati, 86
Karminiya, 86, 94
Karnaytepa, 65
Kasba, 86
Kasoy, 351
Kaspiy dengizi, 239, 288, 468
Kastiliya, 478, 482, 484, 485, 486, 501
Katay, 488, 501
Katvon, 66
Kattaqo'rg'on, 57, 70, 83, 86
Kattaqo'rg'ontepa, 56
Kashmir, 118
Ka'ba, 349, 352
Kerki, 269
Kermon, 118, 470
Ketmontepa, 65
Kex, 479, 481
Kex (Kesh), 479, 481
Kesh, 26, 36, 42, 44, 53, 59, 63, 88, 99, 104, 133, 151, 193, 200, 217, 218, 221, 225, 250, 252, 257, 267, 282, 299, 300, 321, 322, 326, 376, 466
Kesh darvozasi, 53
Kesh suvi, 218, 257, 264
Kiytu yayloqi, 345
Kindiktepa, 65
Kirmon, 168, 230
Kirmoniya, 98
Kiss, 71, 79, 92
Kitob shahri, 2, 5, 44, 46, 54, 88, 96, 97, 99, 109, 110, 111, 112, 114, 116, 117, 121, 137, 161, 218, 369
Kichik Osiyo, 168
Kichik Hindiston, 495
Kishmishtepa, 64
Kobul, 26, 118, 139, 151, 200, 225, 327
Kobuliston, 359
Kojar, 84
Kozirgoh, 397, 398
Kolif, 219
Konigil, 239
Korand tumani, 215
Korzan, 84
Kosantepa, 84
Koson, 47, 54, 84
Kosonsoy, 84
Kot, 57, 162, 165
Kofirnihon daryosi, 253
Koxushtuvon, 84
Koshg'ar, 9, 13, 207, 208, 216
Koshon, 309, 310, 354
Krurain (Loulan), 409, 410
Kruron, 414

@tarixchi_kutubxonasiga

Kuyi Jarg'iyon, 75
Kuyi Namazgaron, 88
Ko'kcha tengiz, 274
Kulaglitepa, 57
Kultepa, 71, 76, 90
Kur suyi, 272
Kurdiston, 236
Kurjan
Kusuy, 271
Kusuya, 334
Kufa, 23, 44, 166
Kushmayxan, 26
Kushoniya, 102
Kuhak, 98
Ko'shki Arg'un, 237
Ko'hak suvi, 217
Ko'hak tog'i, 69
Ko'hi Sulaymon, 329
Ko'histon, 118, 125
Ko'histon (Kuhiston), 118, 125

L

Leon, 478
Lingkiya (Lingjyuy), 410
London, 198
Lungshi, 401

M

Madina, 18, 20, 111, 320, 353
Madoin, 29
Mazdoxin, 214
Mayyoforiqiyn, 109
Maymana, 455
Maymanaktepa, 90
Maymurg', 79, 102
Makka, 20, 44, 111, 118, 128, 253, 320, 353, 379
Manbij, 114
Manqishlog', 162, 168
Marv, 3, 16, 42, 44, 96, 108, 126, 127, 148, 170, 343, 344, 345, 376
Marv arig'i, 345
Marv ash-Shohijon, 12
Marvarrud, 269
Marvchak, 269
Margasun, 90
Marg'inon, 79
Markaziy Osiyo, 6, 105, 153, 162, 195, 198, 343, 388, 407, 421
Marog'a rasadxonasi, 311, 312, 313
Mashriq, 61, 81, 159
Mashhad, 198, 271, 351, 352
Mag'ok-i Attori masjidi, 89
Mag'rib, 191, 359
Mila, 143
Minkerman mavzeyi, 294
Minor qishlog'i, 76
Misr, 36, 95, 97, 106, 107, 139, 191, 236, 240, 267, 343, 346, 359, 467, 470, 475, 482
Mihron daryosi, 118
Movarounnahr, 2, 3, 16, 39, 44, 57, 64, 69, 76, 79, 86, 95, 96, 99, 101, 103, 121, 125, 132, 133, 137, 147, 150, 168, 178, 180, 195, 201, 202, 206, 207, 208, 210, 211, 212, 213, 221, 252, 262, 322, 335, 336, 338, 340, 343, 352, 353, 389
Modunannahr, 152
Mojerum, 88
Mozandaron, 162, 239, 298, 338, 359, 470
Moskva, 464
Mosul, 374
Motirid mahallasi, 88
Moturid, 88
Mochin, 7, 11, 350, 363
Muzan, 73, 81
Munjikat, 102

@tarixchi_kutubxonasiga

Munk, 198, 200, 203
Murg'ob, 140, 227, 297
Mutafarriqa, 183
Mushtariy, 10, 99, 214, 300, 301, 305
Mug'kon, 54, 86
Mug'qo'rg'on, 84
Muhammadiya, 79
Mo'qon, 162
Mo'g'uliston, 3, 168, 208, 212, 230, 299, 335, 498

N

Navbaxt, 51
Navbahor, 123
Navqad Quraysh, 92
Navoiy, 86
Navokat, 133
Namangan, 47, 86
Namozgoh darvozasi, 341
Narpay kanali, 47, 57, 63
Narpay tuman markazi, 47, 57, 63, 83
Nasaf, 14, 26, 32, 42, 47, 53, 60, 61, 65, 73, 74, 76, 86, 91, 92, 99, 166, 218
Naso, 128
Nasoro, 103
Nasrobod, 128
Naxshab, 32, 88, 90, 98, 99, 128, 200, 218, 338, 466
Nahr al-Ubulla, 76, 215
Nahri Shosh, 165
Nizomiya madrasasi, 103
Nil, 236, 346
Niso, 36, 126, 148, 152, 176, 184
Nisobur, 162
Nishopur, 105, 106, 111, 116, 125, 126, 128, 130, 134, 149, 152, 178, 238, 339, 470
Norin, 65
Numijkat, 134
Numushket, 32
Nuqon, 148
Nur, 59, 73, 215
Nur (tog'), 297
Nuri Usmoniya, 247

O

Obi Amu, 505
Obi Sungj, 290
Ohangaron, 51, 66, 298
Oksford, 207
Olqo'shun, 276
Olmaliq, 208
Omu, 162, 165
Omuya, 175, 193, 208
Omuya kechuvi, 175
Oqdaryo, 81
Oqyor, 282, 327
Oqqo'rg'on, 63
Oqsaroy, 218, 267, 326
Oqsuv, 276
Orol dengizi, 164, 403
Otil (Itil daryosi), 165
Oxunboboyev qishlog'i, 28
Ozarbayjon, 2, 118, 168, 234, 236, 237, 272, 288, 336, 359, 374, 470, 475
Ozkand, 12
Ozodvor (qishlog'i), 146
Og'uz, 8

P

Paykand, 57, 97
Panjob, 165
Parvon, 151
Parij, 15, 46, 198
Parfiya, 407, 408, 413

@tarixchi_kutubxonasiga

Parfiya (Anshi), 404
Pishamshan (Shanshan), 408
Pomir, 402, 407, 408, 413
Pudina, 54
Puli Ravon, 384
Pushang, 125, 134

Q

Qavodiyon, 104
Qavs, 46, 242
Qavchin, 51, 56
Qadimiy Turfon (Chyan Cheshi), 408
Qazvin, 470, 505
Qaytog', 288
Qalos, 103
Qalot, 326
Qal'ai Dabus, 66
Qandahor, 200, 495
Qarand, 214
Qarashar (Yansi), 408, 419
Qariyat an-Nasoro, 103
Qarobog', 236
Qarobog'i Arron, 232, 300
Qarodara, 294
Qatvon (Qatavon), 83
Qashqa, 47, 54, 56, 63, 65, 73, 90, 252
Qashqadaryo, 47, 54
Qashqar, 419
Qizil O'rda, 175, 259
Qizilqum, 175
Qiziltepa temir yo'l bekati, 77
Qimorshoh Ato, 308
Qing'ir, 92
Qipchoq, 248, 274
Qoradaryo, 65, 86
Qoraqum, 166, 208, 505
Qoraqum cho'li, 166, 505
Qorategin, 151
Qorovulxona, 430
Qohira, 346
Qubo, 83, 102
Qubodiyon, 165
Quva, 83
Quddus, 44, 476
Quz ulush, 8
Quyi Chin, 9, 11
Qulon, 299
Qulon uqbasi, 299
Qum, 12, 310
Qumis, 118
Qumul, 429, 430
Qunb, 104
Qunduz, 205, 230, 253
Qunduzcha, 282
Quray suyi, 290, 292, 293
Qustanay, 281
Qo'ms, 239
Qo'rg'ontepa, 92
Qo'chqor mavzeyi, 259

R

Raboti Xo'ja qishlog'i, 93
Ravanak, 90
Radroda, 69, 74
Razmoz, 71
Ray, 44, 120, 126, 145, 236, 297, 374, 476
Ra's al-Qantara, 63, 77, 99
Rahnahamuy, 141
Ribot Koxushtuvon, 84
Rieyshiey, 400
Rig'damun, 69
Romitan, 32, 68, 90, 120
Romish, 68
Rudbor, 175
Ruy, 319

@tarixchi_kutubxonasiga

Rum, 7, 8, 10, 13, 139, 210, 232, 236, 238, 240, 296, 300, 301, 302, 303, 305, 306, 330, 331, 347, 353, 359, 363, 374
Rus, 294, 296

S

Sabza, 99
Sabo, 182
Sabron, 261, 276
Savat, 71
Savr, 213
Savron, 261
Saylan chen, 425, 426, 438
Sayram, 8, 425, 438
Sayhun, 49, 59, 61, 74, 81, 101, 104, 114, 181, 190, 208, 219, 241, 242, 286, 298, 308, 466
Saki, 79
Samarqand, 1, 2, 3, 4, 9, 11, 13, 14, 18, 19, 20, 22, 23, 25, 26, 28, 30, 33, 34, 35, 37, 39, 40, 41, 42, 44, 47, 49, 51, 53, 54, 56, 57, 58, 59, 61, 62, 63, 64, 65, 66, 68, 69, 70, 71, 73, 74, 76, 77, 79, 81, 82, 83, 84, 86, 88, 90, 92, 93, 94, 96, 98, 99, 101, 102, 103, 104, 109, 131, 133, 134, 136, 137, 139, 141, 145, 152, 153, 162, 166, 168, 172, 178, 181, 184, 185, 190, 195, 198, 210, 211, 212, 213, 214, 215, 217, 218, 232, 237, 238, 239, 252, 257, 265, 267, 274, 275, 286, 287, 294, 299, 309, 310, 316, 320, 322, 324, 326, 327, 329, 330, 331, 333, 334, 335, 337, 340, 342, 350, 353, 354, 355, 358, 380, 382, 383, 384, 385, 394, 421, 423, 466, 471, 475, 476, 477, 478, 488
Samarqand dashti, 341
Samarqand Sug'di, 47, 49, 53, 56, 57, 63, 68, 71, 74, 76, 81, 83, 84, 88, 99, 102, 166, 215
Samur suyi, 288
Sangardax, 133
Sanjadiza, 74
Sankrizasitan, 69
Sankt-Peterburg, 46, 161, 198
Saramday umog'i, 295
Saraton, 120, 213
Saraxs, 118, 126, 128, 269
Sarduatik, 353
Sariq O'zan, 276
Saripul, 63, 340, 466
Saroy, 283, 296, 471
Saudiya Arabistoni, 13
Safo, 212
Sag'oniyon, 102, 104
Sag'ur, 112
Sevinch suyi, 290
Seiston, 297, 322
Seyiston, 298
Semnon, 126
Siboro, 73
Sivos, 301
Siyom qal'asi, 133, 136
Siyohko'h, 162
Sijiston, 23, 109, 118
Simnon, 238, 239, 505
Sind, 118, 139
Sind daryosi, 118, 202
Sinj, 108
Sinning qal'asi, 123
Sipohsolar masjidi, 310
Sirdaryo, 47, 63, 175, 259, 261, 276
Sirdaryo viloyati, 61
Sig'noq, 175, 261
Sihrqa'r, 102
Sobala, 10
Sobot, 99, 104
Sovakon, 63
Sovarj, 203, 204
Solisaroy, 200

@tarixchi_kutubxonasiga

Som xos (ko'l), 97
Somon, 98
Sog'arj, 76
Sog'arch, 275
Subazmun, 73
Subax, 57, 74
Suvar, 8
Sudaq, 453
Sulaymoniya xalq kutubxonasi, 13, 15
Sultoniya, 237, 287, 294, 470, 473, 474
Suriya, 267, 467
Surmoro, 54, 86
Surnaytepa, 65
Surxondaryo, 76, 133
Sushiye, 413
Sug'd, 8, 11, 26, 32, 33, 34, 39, 49, 52, 53, 58, 61, 63, 65, 69, 70, 73, 76, 79, 81, 84, 93, 96, 97, 98, 99, 102, 103, 104, 133, 190, 217
Sug'd daryosi, 178
Sug'd Xushufag'ni, 77
Sug'daq, 7

T

Tabariston, 118, 162
Tabriz, 195, 470, 476, 503, 505
Tavovis, 77, 94, 134, 217
Talisiya, 481
Talli Barzu, 90
Talli Qahqaha, 385
Tallisortepa, 79
Talos, 84, 276
Tamg'ach, 126
Tana suyi, 296
Tarak suyi, 290
Tarqi mavzeyi, 290
Tarmiz, 58
Tarob, 166
Taroz, 11, 181, 426
Tartaliya, 483, 501
Taft, 244
Taxti Qarocha, 300, 329
Tashkand, 10, 12
Tezob, 65
Termiz, 59, 104, 164, 207, 210, 218, 219, 424, 441, 478, 479
Termit, 478, 479
Tehron, 132, 198, 247, 309, 321, 370
Tibat, 165
Tibet, 403
Tirmiz, 58, 76
Tobaron, 148
Toif, 20
Toliqon, 16, 134
Toris, 503
Toros (Tiraz), 8
Toshkand, 298, 307
Toshkent, 51, 63, 175, 248, 320, 321, 322, 370, 425, 430
Toshko'prik, 200
Tohariston, 148
Tuban, 170
Tubbat, 118
Tunkand, 12
Tunkas, 59, 104
Turatur guzari, 293
Turkiston, 3, 99, 139, 164, 165, 191, 208, 211, 212, 221, 247, 276, 343, 352
Turkiya, 13
Turkmaniston, 269
Turon, 198, 208, 269, 359
Turfon, 419, 426, 427, 428
Turfon (Cheshi), 409, 410
Turxor, 77
Turshiz, 326
Tus, 147, 148, 161, 352, 376, 466, 470
Tuerfan, 426
To'xoriston, 63

@tarixchi_kutubxonasiga

U

Ubulla daryosi, 215
Uvey, 408, 410
Uyg'ur yeri, 208
Ulug' Tog', 281
Ulug' Farg'ona (Day-yuan), 402
Ulug'-Ruziye, 401, 403, 405, 408
Ulug'-Ruzie (Day-ruzie), 401, 403, 405, 408
Urang-chaqal, 276
Urganch, 71, 86
Urgut, 92, 466
Usrushana, 49, 57, 61, 69, 71, 73, 96, 98, 99, 104, 219
Ustrushona, 217
Ustuvo, 176
Ustunavand, 120
Utshund, 42
Ushtobdiza, 49

V

Vavilon, 482
Vazz (Vazd), 92
Vazkard, 92
Vazor, 92, 102
Valoshjird, 104
Varag'sar, 102
Varaxsha, 81
Vardi, 143
Varimad, 102
Varsanin, 94
Vaxsh, 141, 165, 205
Vahon, 165
Vobkana, 92
Vobkent, 92
Vozor, 59
Volga, 267, 284, 285, 293
Volga bo'yi, 293
Veyshu, 408

X

Xabushon, 176, 334, 505
Xavof, 126
Xazar, 162, 208
Xazar dengizi, 162, 208
Xaylom, 65
Xaytol, 99, 104
Xami, 429, 432
Xanshin, 413
Xaramtepa, 65
Xarjang, 62
Xarkon, 98
Xarqon, 98
Xaromkom, 194
Xartang, 98, 141, 150, 267
Xatlon, 165, 167, 203
Xaf, 319
Xesi, 401, 405
Xesi yo'lagi, 401
Xiva, 71
Xiyobon, 331
Xirxiz, 165
Xita, 7
Xitoy, 2, 3, 7, 11, 77, 168, 180, 181, 182, 183, 187, 188, 216, 240, 241, 299, 305, 306, 307, 333, 334, 343, 350, 351, 353, 363, 374, 399, 400, 401, 403, 405, 407, 408, 412, 413, 414, 415, 420, 421, 428, 429, 430, 443
Xitoy (Chin), 307, 309
Xovast temir yo'l bekati, 61
Xoja Akosha, 255
Xolidot, 161, 207
Xolxol, 374
Xorazm, 2, 26, 44, 53, 54, 57, 63, 65, 71, 79, 81, 86, 94, 95, 96, 151, 162, 164, 166, 169, 170, 172, 173, 175, 176, 178, 179, 180, 182, 184, 186, 203, 204, 207,

@tarixchi_kutubxonasiga

208, 248, 324, 326, 327, 338, 359, 370, 371, 372, 373, 380, 466
Xorazm daryosi (Amudaryo), 164, 165, 166
Xorazm ko'li (Orol dengizi), 103
Xorazm cho'li, 166
Xou, 415
Xuvokand, 65
Xujodi, 61
Xuziston, 170
Xuzor, 57, 63, 73, 252
Xuzordaryo, 63
Xulm, 148, 253
Xunbun, 68, 90
Xunomat, 152
Xun'ya, 405
Xurmaysan, 120
Xuroson, 2, 15, 16, 18, 20, 22, 23, 25, 26, 28, 33, 36, 37, 39, 40, 41, 42, 44, 65, 90, 95, 97, 105, 106, 108, 112, 114, 116, 118, 123, 125, 130, 132, 133, 134, 136, 137, 139, 141, 145, 146, 150, 157, 165, 166, 168, 169, 170, 176, 180, 188, 192, 193, 195, 202, 207, 208, 238, 239, 267, 269, 275, 286, 297, 298, 329, 330, 333, 338, 345, 346, 351, 359, 372, 390, 397, 398, 470
Xuroson viloyati, 188, 192, 193, 269, 297, 298, 390
Xuttal, 104
Xuttalon, 141, 143, 253
Xutfar, 51
Xushmish, 257
Xushufag'n, 76, 77, 83
Xo'ja Ismoil mavzoleyi, 62
Xo'jand, 2, 101, 102, 165, 184, 186, 207, 210, 219
Xo'jand suyi, 219, 275, 276, 286, 299
Xo'y suyi, 294
Xo'tan, 118, 189, 208, 363, 403, 407, 419
Xo'tan (Yuytiyan), 403, 408

Y

Yaamtsat (Yansay), 403, 408
Yabg'u, 220
Yazd, 244, 271
Yayiq suyi, 286
Yakkatut temir yo'l bekati, 57
Yaman, 162, 211
Yangguan, 407, 408
Yangiyer, 61
Yangiqo'rg'on, 63
Yanchjou, 399
Yasovur, 200
Yassi, 232
Ya'juj, 7, 183
Yevropa, 3, 100, 157, 202, 256, 288, 427, 433
Yettisuv, 220, 288
Ya'juj va Ma'juj devori, 183
Ya'juj va ma'jujlar, 7
Yilanchuq suyi, 281
Yom raboti, 300
Yorkas, 94
Yorkat, 215
Yorkend (Shache), 408, 419
Yoryayloq, 215
Yofinj, 8
Yuan-cheng, 400, 416, 418, 419
Yuzjand, 101
Yuyli, 408
Yuymen, 407, 408, 416
Yuychen (Uzgent), 414
Yuqori Toxariston, 123
Yuqori Farovuz, 61
Yuqori Chin, 11
Yo'luqluq Azuqluq mavzeyi, 293
Yo'lxoja ag'o, 308

@tarixchi_kutubxonasiga

Z

Zadarg'om, 90
Zam, 165, 166
Zanjibar, 139
Zanjon, 470
Zarafshon, 56, 66, 73, 90, 133, 178, 275
Zarmon, 70
Zinjon, 206
Zirabuloq, 47, 84
Zobul, 139, 327
Zomin, 57, 69, 99, 103, 104
Zuhra, 120
Zo'sh, 217

O'

O'zbek diyori, 208
O'zbekiston, 1, 44, 46, 132, 247, 400
O'zgand, 153, 165, 166, 219, 259
O'zi suyi, 294, 295, 296
O'zkand, 101
O'kak, 293
O'kak mavzeyi, 293
O'liktepa, 74
O'ratepa, 215
O'rta Buttam, 102
O'rta Osiyo, 2, 25, 32, 37, 77, 84, 117, 188, 316, 369, 370, 489
O'rto'ba, 285
O'rus, 296
O'tror, 183, 184, 185, 242, 244, 261, 262, 264, 271, 275, 276, 278, 325, 333, 337, 339
O'sh, 102, 186

G'

G'adovad darvozasi, 42
G'azna, 123, 126, 132, 148, 151, 172
G'aznin, 152, 338
G'allaorol, 63, 83
G'allaorol temir yo'l bekati, 63, 83
G'arb, 419, 421, 424
G'arbiy dengiz (Shixay – Orol dengizi), 403
G'arbiy Yevropa, 4, 240, 484
G'arbiy Sibir, 259
G'archiston, 169
G'ijduvon, 77
G'oziq anhori, 125
G'otfar, 77
G'ubdin, 53, 65, 79
G'uzlar, 130, 175, 178
G'uzlarxe (O'g'uzlar/G'uzlar), 130, 166, 175, 178
G'uzlar maskani, 166
G'ur, 180
G'o'r, 118, 123, 126, 165

SH

Shayxontohur tumani, 56
Shaluxayya, 424
Shamoxiy, 236
Shanbi G'ozon, 195
Sharq, 105, 388, 428, 466
Sharqiy Yevropa, 259
Sharqiy Turkiston, 6, 202
Sha'b-Buvon, 215
Shahri Vayron Shahrinav, 77
Shahrisabz, 88, 217, 267, 425, 440
Shahriston, 176, 186
Shaxand, 47
Shash, 12
Sherobod, 57
Sheroz, 197, 244, 271, 272, 293, 294, 297, 377, 470
Sheroz (Movarounnahr tumani), 215
Shimoliy Afg'oniston, 336, 387

@tarixchi_kutubxonasiga

Shimoliy Kavkaz, 288
Shimoliy tog' (Beyshan), 408
Shirvon, 162, 236, 359
Shi'ra, 120
Shovdor, 215, 239
Shovzor (tog'), 51, 79
Shovzor (tuman), 47, 51
Shodyox, 178
Shozavon, 98
Shom, 18, 97, 112, 139, 186, 191, 210, 236, 238, 306, 331, 359, 363, 471
Shosh, 10, 20, 51, 53, 56, 59, 66, 74, 79, 81, 84, 96, 98, 99, 103, 104, 109, 111, 112, 114, 166
Shosh daryosi, 101, 165
Shohrud kanali, 56
Shohruxiya, 326, 385, 424
Shtixan, 215
Shulluktepa, 47, 84, 91, 92
Shumon, 104, 143
Shyungxe, 410
Shyutu, 416
Sho'rsuv ko'li, 403

CH

Chag'oniyon, 139, 143, 218, 253
Chekka Mag'rib, 240
Chjange, 416
Chjejyang, 399
Chilyan, 401
Chimkent, 425
Chin, 7, 11, 165, 191, 210, 211, 212
Chinos, 276, 298
Chiroqchi, 64
Chig'atoy ulusi, 2, 188, 198, 199, 255, 262, 336
Chorjo'y, 193
Chorsu, 56, 347
Choch, 137, 164, 166, 168, 208
Choch daryosi (Jo'yi Choch), 164, 165
Chu daryosi, 133, 259
Chust, 86
Cho'lot, 290

@tarixchi_kutubxonasiga

ETNIK NOMLAR

A

Ajam, 39, 49, 53, 180, 185, 257, 285, 288
Allon, 205
Arab, 15, 35, 37, 94, 109, 254, 256, 257, 283, 287
Arablar, 12, 22, 26, 29, 30, 33, 62

B

Balasog'unliklar, 9
Banu Riyoh, 20
Banu Sa'd, 16
Banu Uvofa, 27
Banu-l-Lays, 16
Bulg'or, 221
Buxorolik, 25
Buxoroliklar, 66
Bejeneklar, 9

D

Daylamliklar, 97

E

Ertish (Irtish), 9
Etil, 9

F

Farg'onaliklar, 334

G

Gilzay qabilasi
Gollandiyalik
Greklar

H

Hoshimiy, 314
Hoshimiylar, 113

I

Italyan, 185
Ixshidlar, 22, 26, 31, 38, 54, 56, 58

J

Jabarqaliklar, 8
Jaloyiriylar, 203
Jamak, 9
Jamar, 9
Janubiy Sung, 319
Jag'ma, 9, 12
Jonqurboniy (qabila), 299

K

Kinon urug'i, 75
Kumijiylar, 98
Kurdlar, 390
Kurt, 222, 252

L

Lochin (qabila), 299

M

Marvliklar, 79
Marg'inoniy
Mochinliklar, 8
Mug'lar, 94
Mo'g'ul, 59, 135, 142, 148, 152, 233, 254, 257, 260, 262, 265
Mo'g'ullar, 134, 135, 136, 137, 210, 259, 260, 346, 382, 384, 386
Mo'g'ul-tatar, 379, 380

@tarixchi_kutubxonasiga

N

Nabatiylar
Nishopurlik

O

Og'uz, 9

P

Pushtular

Q

Qaytog', 217
Qipchoq, 187, 205

R

Rum turklari, 383

S

Sug'diylar, 77
Sug'dlar, 37, 134
Sug'd-toharlar, 468

T

Tangyi avlodi, 402
Tatar, 8, 9, 379, 381, 383, 384, 391
Tatarlar, 80, 83, 89, 379, 380, 381, 382, 383, 384, 387
Tibetliklar, 326
Turk, 8, 9, 11, 65, 155, 335, 384
Turkiy qabila, 3, 7, 12, 31, 33, 81, 92, 158, 184, 186, 263, 275, 370, 371
Turklar, 8, 10, 11, 69
Turkman, 178, 306, 392, 393
Turkmanlar, 470
Turkmon, 165, 294, 300

U

Uyg'ur, 155, 210, 370

V

Vizantiya yunonlari

X

Xazarlar, 379
Xita, 8
Xorazmliklar, 105
Xo'jandliklar, 70, 165
Xusravlar, 86

Y

Yasovur, 148
Ya'juj, 8, 133
Ya'juj va ma'jujlar, 8
Yunonlar

Z

Zubyon

O'

O'g'uz, 9
O'g'uzcha, 9
O'zbek, 195, 209, 220, 221

G'

G'uzlar, 89, 126, 128
G'uzlarxe (O'g'uzlar), 89, 119, 126, 128
G'ur, 130

SH

Shignonliklar

CH

Chig'atoy ulusi, 4, 138, 146, 193, 197, 260
Chigillar, 118
Chinliklar, 9

@tarixchi_kutubxonasiga

MUNDARIJA

So'zboshi ... 3

ARAB TILIDAGI MANBALAR

Mahmud Koshg'ariy va uning «Devonu lug'otit turk» asari haqida *(O. Bo'riyev)* ... 7
Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridan lavhalar (arab tilidan *S. Mutallibov* tarjimasi; mazkur nashrdan lavhani *O. Bo'riyev* tayyorlagan) ... 8
Abu Hafs Umar Nasafiy va uning «Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand» asari haqida *(Sh.S. Kamoliddin)* ... 14
Abu Hafs Umar Nasafiyning «Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand» asaridan lavhalar (arab tilidan *Sh.S. Kamoliddin* tarjimasi) ... 16
Abu Sa'd as-Sam'oniy va uning «Kitob al-ansob» asari haqida *(Sh.S. Kamoliddin)* ... 34
Abu Sa'd as-Sam'oniyning «Kitob al-ansob» asaridan lavhalar (arab tilidan *Sh.S. Kamoliddin* tarjimasi) ... 36
Yoqut al-Hamaviy va uning «Mu'jam al-buldon» asari haqida *(A. Bobojonov)* ... 63
Yoqut al-Hamaviyning «Mu'jam al-buldon» asaridan lavhalar (arab tilidan *A. Bobojonov* tarjimasi) ... 64
Ibn Xallikon va uning «Vafoyot al-a'yon» asari haqida *(A. Yaminov)* ... 73
Ibn Xallikonning «Vafoyot al-a'yon» asaridan lavhalar (arab tilidan *A. Yaminov* tarjimasi) ... 73
Abdurrashid al-Bokuviy va uning geografik merosi *(A. Ahmedov)* ... 81
Abdurrashid al-Bokuviyning «Talxis al-osor va ajoyib al-Malik al-Qahhor» asaridan lavhalar (arabchadan *A. Ahmedov* tarjimasi) ... 82

FORS TILIDAGI MANBALAR

Gardiziy va uning «Zayn ul-axbor» asari haqida *(O. Bo'riyev, G'. Karimov)* ... 91
Gardiziyning «Zayn ul-axbor» asaridan lavhalar (forschadan *O. Bo'riyev, G'. Karimov* tarjimalari) ... 91
Aruziy Samarqandiy va uning «Chor maqola» asari *(M. Hasaniy)* ... 107
Aruziy Samarqandiyning «Chor maqola» asaridan lavhalar (forschadan *M. Hasaniy* tarjimasi) ... 107
Muhammad ibn Najib Bakron va uning «Jahonnoma» asari haqida *(O. Bo'riyev)* ... 115
Muhammad ibn Najib Bakronning «Jahonnoma» asaridan lavhalar (forschadan *O. Bo'riyev* tarjimasi) ... 116

@tarixchi_kutubxonasiga

Alouddin Juvayniy va uning «Tarixi jahongushoy» asari haqida *(N. Toshev)*..... 120
Alouddin Juvayniyning «Tarixi jahongushoy» asaridan lavhalar
(forschadan *N. Toshev* tarjimasi)..... 121
Rashididdin Fazlulloh va uning «Jome' at-tavorix» asari haqida *(N. Toshev)*..... 136
Rashididdin Fazlullohning «Jome' at-tavorix» asaridan lavhalar
(arab yozuvidagi eski o'zbek tilidan *N. Toshev* tabdil qilgan)..... 138
Nizomiddin Shomiy va uning «Zafarnoma» asari haqida *(A. O'rinboyev)*..... 143
Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» asaridan lavhalar
(forschadan Yu. Hakimjonov tarjimasi. Mazkur tarjima *A. O'rinboyev*
tomonidan qayta ishlangan)..... 144
Mu'iniddin Natanziy va uning «Muntaxab ut-tavorixi Mu'iniy»
asari haqida *(G'. Karimov)*..... 145
Mu'iniddin Natanziyning «Muntaxab ut-tavorixi Mu'iniy»
asaridan lavhalar (forschadan *G'. Karimov* tarjimasi)..... 146
Hofizi Abru va uning asarlari haqida *(O. Bo'riyev)*..... 152
Hofizi Abruning «Geografiya» asaridan lavhalar
(forschadan *O. Bo'riyev* tarjimasi)..... 153
Hofizi Abruning «Zubdat at-tavorix» asaridan lavhalar
(forschadan *O. Bo'riyev* tarjimasi)..... 165
Hofizi Abruning «Zayli Zafarnomai Shomiy» asaridan lavhalar
(forschadan *O. Bo'riyev* tarjimasi)..... 172
Sharafuddin Ali Yazdiy va uning «Zafarnoma» asari haqida *(A. Ahmedov)*..... 183
Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asaridan lavhalar
(forschadan *O. Bo'riyev* tarjimasi: *86 b* va arab yozuvidagi eski o'zbek tilidan
A. Ahmedov tabdili: *53b...305 b*)..... 186
G'iyosiddin Koshiy va uning otasiga yozgan maktubi *(D. Yusupova)*..... 235
G'iyosiddin Koshiy maktubidan parchalar (forschadan *D. Yusupova* tarjimasi)... 235
Fasih Xavofiy va uning «Mujmali Fasihiy» asari haqida *(D. Yusupova)*..... 244
Fasih Xavofiyning «Mujmali Fasihiy» asaridan lavhalar
(forschadan D. Yusupova tarjimasi)..... 246
Mirzo Ulug'bek va uning «Tarixi arba' ulus» asari haqida *(M. Hasaniy)*..... 257
Mirzo Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus» asaridan lavhalar
(forschadan *B. Ahmedov, N. Norqulov* va *M. Hasaniy* tarjimalari)..... 258
Abdurazzoq Samarqandiy va uning «Matla'i sa'dayn va majma'i bahrayn»
asari haqida *(A. O'rinboyev)*..... 264
Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla'i sa'dayn va majma'i bahrayn»
asaridan lavhalar (forschadan *A. O'rinboyev* tarjimasi)..... 265
«Temur tuzuklari» asari haqida *(H. Karomatov)*..... 280
«Temur tuzuklari» asaridan lavhalar (forschadan *H. Karomatov* tarjimasi)..... 281
Davlatshoh Samarqandiy va uning «Tazkirat ush-shuaro» asari haqida
(D. Yusupova, S. Akbarova)..... 290
Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» asaridan lavhalar
(forschadan *B. Ahmedov* tarjimasi)..... 292

@tarixchi_kutubxonasiga

Faxruddin Ali Safiy va uning «Rashahot» asari haqida *(M. Hasaniy)* 300
Faxruddin Ali Safiyning «Rashahot» asaridan lavhalar (arab yozuvidagi eski o'zbek tilidan *M. Hasaniy* tabdil qilgan) 300
Xondamir va uning ilmiy merosi *(D. Yusupova)* 306
Xondamirning «Xulosat ul-axbor» asaridan lavhalar (fors tilidan *B. Ahmedov* tarjimasi) 309

XITOY MANBALARI

Yuan Shu va uning «Tungjyan jishi benmuo» asari haqida *(A. Xo'jayev)* 316
Yuan Shuning «Tungjyan jishi benmuo» asaridan lavhalar (xitoy tilidan *A. Xo'jayev* tarjimasi) 317
XV asr xitoy manbalari haqida *(N. Karimova)* 335
Chen Chenning «Siyuy fango chji» asaridan lavhalar (xitoy tilidan *N. Karimova tarjimasi*) 336
Chen Chenning «Siyuy sinchenszi» asaridan lavhalar (xitoy tilidan *N. Karimova* tarjimasi) 345
Elchilarning Samarqand va boshqa joylardan [Xitoyga] kelishlari (xitoy tilidan *N. Karimova* tarjimasi) 357

TURKIY BITIKLAR

Oltin O'rda xonlarining uyg'ur yozuvida bitilgan yorliqlari 363
Temuriylardan qolgan uyg'ur yozuvli bitiklar 368
Qoyaga bitilgan uyg'ur yozuvidagi bitig 376

Suryoniy yozuvidagi asarlar

Turk-nasroniylarning qabrtoshlaridagi yozuvlar 376

ARMAN MANBALARI

Mo'g'ul istilosi davri

Kirakos Gandzakesining «Armaniston tarixi» asaridan lavhalar 384

Jaloliddin Manguberdi yurishlari

Kirakos Gandzakesining «Armaniston tarixi» asaridan lavhalar 385
Smbat Sparapetning «Solnoma» asaridan lavha 387
Getum Patmichning «Mo'g'ullar tarixi» asaridan lavhalar 387
Xachatur Jugayetsining «Eron tarixi» asaridan lavhalar 389

Amir Temur va Temuriylar davri

Tovma Metsopetsining «Amir Temur va uning vorislarining tarixi» asaridan lavhalar 390

@tarixchi_kutubxonasiga

Xachatur Jugayetsining «Eron tarixi» asaridan lavhalar 394
«Kichik vaqtnomalar»dan lavha 395
«XV asr arman qo'lyozmalaridagi esdalik yozuvlari»dan lavha 395
Quddus Matenadaranidagi qo'lyozmalar to'plamidan lavha 396

YEVROPA MANBALARI

Klavixoning Samarqandga sayohati haqida *(O. Bo'riyev)* 397
Rui Gonsales de Klavixoning «Samarqandga, Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi» asaridan lavhalar (ruschadan *O. Bo'riyev* tarjimasi) 397
Manbalar va adabiyotlar ro'yxati 425
Shaxs ismlari 435
Joy nomlari 467
Etnik nomlar 482

@tarixchi_kutubxonasiga

O'zbekiston tarixi [Matn] IV jild. O'zbekiston tarixi va manbalari. XI–XV asrlar / mas'ul muharrirlar: A. Ahmedov, O. Bo'riyev; –Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2023. – 488 b.

O' 17

ISBN 978-9943-8054-2-2

UO'K 94(575.1)«XI/XV»
KBK 63.3(5O')«XI/XV»

Ilmiy-ommabop nashr

O'ZBEKISTON TARIXI

Xrestomatiya

IV jild
XI – XV asrlar

(O'zbekiston tarixi va manbalari)

Muharrirlar: *Bahrom Akbarov, Gulchehra Azizova*
Badiiy muharrir *Behzod Zufarov*
Texnik muharrir *Yekaterina Stepanova*
Kichik muharrir *Matluba Salimova*
Kompyuterda sahifalovchi *Kira Goldobina*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158. 14.08.2009. Bosishga 2023-yil 24-noyabrda ruxsat etildi. Bichimi 70×100$^{1}/_{16}$. Ofset qog'ozi. «Palatino Linotype» garniturasida ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 39,65+vkl. 1,3. Nashr tabog'i 39,72+1,49 vkleyka. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 3692.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100011. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20. Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: iptduzbekistan@iptd-uzbekistan.uz www.iptd-uzbekistan.uz

«Colorpack» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Yangishahar ko'chasi, 1 A.

@tarixchi_kutubxonasiga

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-8054-2-2